

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI RESPUBLIKA NAFIS SAN‘AT
LITSEYI

Farhod Sultonov, Farruh Bozorboyev

Tarixiy sanalar

II qism

(eng yangi davr)

(Maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji o‘quvchilari,
abiturientlar va tarix fani o‘qituvchilari uchun qo‘llanma)

Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti 2007 yil

Respublika Ta'lim Markazi qoshidagi Tarix fani bo'yicha ilmiy-metodik kengashining 2004-yil 18-yanvardagi yig'ilishidagi qaroriga asosan nashrga tavsiya qilingan.

Taqrizchilar:

E. Holiqov - **tarix fanlari doktori, professor.**

Q. Usmonov - **tarix fanlari doktori, professor**

N. Norqulov - **tarix fanlari nomzodi**

S. Mahkamov - **pedagogika fanlari nomzodi**

N. Ismatova - **Respublika Ta'lim markazi ijtimoiy fanlari bo'limi boshlig'i**

Q. Karimbekov - **O'zbekiston teleradiokompaniyasining siyosiy sharhlovchisi, dotsent**

M. Mo'ydinova - **TShPXQTMOI kafedra mudiri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi**

L.Ahmedova - **Toshkent shahar o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasining bosh mutaxasisi**

M. Obidova - **Toshkent shahar Hamza temir yo'l kasb-hunar kollejining oliy toifali tarix o'qituvchisi.**

Tarixiy sanalar: (Maktab, akad. litsey, kasb-hunar kolleji o'quvchilari, abituriyent va tarix fani o'qituvchilari uchun). Q. I: Qadimgi davrdan eng yangi davrgacha/ F. Sultonov; F.Bozorboyev. O'zR xalq ta'limi vazirligi, Respublika Ta'lim markazi, A. Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyi. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. - 330 b.

Tarixiy sanalar Davlat Ta'lim standartlari talabidan kelib chiqqan holda tayyorlangan bo'lib, o'quvchilarni testlar bilan ishlashda qulaylik tug'diradi. Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyida tayyorlangan ushbu qo'llanma tendir g'olibi bo'lgan darsliklar asosida tuzilgan. Ushbu qo'llanma 2-qismdan iborat bo'lib, O'zbekiston va jahon tarixida ro'y bergan voqea va hodisalarning batafsil tarixiy sanalari jamlangan. Ushbu qo'llanma Davlat Test Markazi tomonidan hamda darslik asosida tuzilgan test topshiriqlarini yechishda asqotadi.

© Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti, 2007 yil

KIRISH

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlarning komil inson bo'lib o'sib-ulg'ayishlari, kelajakda barkamol shaxs, yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun eng avvalo ta'lim sohasiga katta ahamiyat berilmoqda. "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 315-qarori talablaridan kelib chiqqan holda milliy istiqloq mafkurasi singdirilgan qobiliyatli o'quvchilarni shakllantirish muvaffaqiyatli amalga oshirib borilmoqda. Alisher Navoiy nomli Respublika Nafis san'at litseyida ham ana shunday ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, litseyda faoliyat ko'rsatayotgan "Iqtidorli yosh tarixchi" to'garigining tashkil qilinishi ham litseydagi o'quvchilarining jahon va vatanimizning boy tarixini chuqur o'rganishlari, hali to'liq tadqiq qilinmagan moziy sahifalarini kashf qilishlari, o'z g'oyalari va intilishlari bilan yoshlar faol qatnashishlari uchun keng imkoniyatlarga yo'l ochdi.

Alisher Navoiy nomli Respublika Nafis san'at litseyi tomonidan o'quvchilarning tarix fanidan olgan bilimlarini o'zlashtirishini mustahkamlash maqsadida ushbu qo'llanma yaratildi. Bu qo'llanma ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi qadimgi, o'rta asrlar va yangi davrni (6-9-sinflar tarix darsligi hajmida), ikkinchi qismi esa eng yangi davr (10-11-sinflar tarix darsligi hajmida) tarixini o'z ichiga qamrab oladi. Ma'lumki, uning 1-qismi 2006-yilda nashrdan chiqib tez orada tarqab ketdi. Tarixiy sanalarning 2-qismi XX - XXI asrning boshlarini o'z ichiga oladi. Bu davrda insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda ulkan qadamlar tashladi. Ilmiy-texnikaviy inqilob hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ayni shu davrda O'zbekiston o'z mustaqiligiga erishdi. Mustaqillik xalqimizning XX asrda erishgan eng yuksak yutug'i hisoblanadi.

10-11-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan tarix darsligida uchraydigan tarixiy sanalar eng yangi davrda bo'lib o'tgan voqealar haqida mulohaza qilishga undaydi. Unda mavjud voqelikning muammolarini chuqur bilish va bu bilimdan umum manfaat yo'lida foydalanish lozim bo'ladi.

Davlat Test markazi tomonidan tayyorlangan va darslikdagi mavzular bo'yicha testlarni yechish uchun ushbu tarixiy sanalar asqotadi degan umidimiz. Mazkur qo'llanma darsliklarning so'nggi nashridan foydalangan holda tayyorlangan. Qo'llanmada O'zbekiston va Jahon tarixidagi tarixiy voqea va hodisalar batafsil keltirilgan.

Yaqin orada Alisher Navoiy nomli Respublika Nafis san'at litseyida tayyorlangan "Tarixiy shaxslar" va "Tarixiy atamalarning izohli lug'ati" nashrdan chiqadi. Bu qo'llanmalar "Tarixiy sanalar" bilan birgalikda yaxlit tarix majmuasini tashkil qiladi. Umid qilamizki, ushbu qo'llanmalar maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji o'quvchilari, abituriyentlar va tarix fani o'qituvchilariga doimiy hamroh bo'ladi.



TARIXIY SANALAR (Yillar bo'yicha)

- 1830-1916-yillar** – *Frans-Iosf* hayot faoliyati.
- 1837-1901-yillar** – *Viktoriyaning* Angliya qiroli sifatidagi faoliyati.
- 1841-1929-yillar** – *Jorj Klemanso* hayot faoliyati.
- 1845-1926-yillar** – *Nikolo Pashichning* hayot faoliyati.
- 1850-1937-yillar** – *Tomash Masarikning* hayot faoliyati.
- 1852-1928-yillar** – *Askvit* hayot faoliyati.
- 1853-1926-yillar** – *A.A.Brusilov* hayot faoliyati.
- 1856-1921-yillar** – *Betman-Golveyg* hayot faoliyati.
- 1856-1924-yillar** – *Tomas Vudro Vilson* hayot faoliyati.
- 1856-1950-yillar** – *Bernard Shouning* hayot faoliyati.
- 1857-1938-yillar** – *Qurbon-Mamed Sardor - Junaidxonning* hayot faoliyati.
- 1858-1923-yillar** – *Bonar Lou* hayot faoliyati.
- 1858-1936-yillar** – *Obidjon Mahmudovning* hayot faoliyati.
- 1858-1947-yillar** – *M. Plankning* hayot faoliyati.
- 1859-1943-yillar** – *Aleksandr Mileran* hayot faoliyati.
- 1860-1934-yillar** – *Raymon Puankare* hayot faoliyati.
- 1860-1952-yillar** – *Vittorio Emanuele Orlanda* hayot faoliyati.
- 1860-1960-yillar** – *B. Pasternak* hayot faoliyati.
- 1860-yil** – Italiya armiyasi papaga qarashi yerlarni bosib oladi va shundan beri cherkov davlatga dushmanlik ko'zi bilan qarar edi. Papalar amalda faqat Vatikan doirasida qolgan edilar.
- 1861-1878-yillar** – *Viktor Emmanuil II* ning Italiya qiroli sifatidagi faoliyati.
- 1861-1936-yillar** – *Polvoniyoz Hoji Yusupovning* hayot faoliyati.
- 1861-1948-yillar** – *Ferdinandning* hayot faoliyati.
- 1862-1932-yillar** – *Aristid Brian* hayot faoliyati.
- 1863-1937-yillar** – *Gaston Dumerg* hayot faoliyati.
- 1863-1945-yillar** – *David Lloyd Jorj* hayot faoliyati.
- 1865-1920-yillar** – *Erix Lyudendorf* hayot faoliyati.
- 1865-1923-yillar** – *Uorren Garding* hayot faoliyati.
- 1865-1933-yillar** – *Jon Golsuorsining* hayot faoliyati.
- 1865-1936-yillar** – *Georg V* hayot faoliyati.
- 1865-1939-yillar** – *Filipp Sheydeman* hayot faoliyati.
- 1865-yil** – Hindistonda inglizlar tomonidan joriy etilgan tuz solig'i tuz savdosini Angliya hukumatining monopoliyasi deb e'lon qildi. Tuz narxi yuz barobar oshib ketdi va natijada ko'pchilik hindlar uchun tuz olish imkonsiz holga aylandi.
- 1866-1925-yillar** – *Sun Yatsemning* hayot faoliyati.
- 1866-1937-yillar** – *Ramsey Makdonald* hayot faoliyati.
- 1866-1944-yillar** – *V. V. Kandinskiy* hayot faoliyati.
- 1866-1944-yillar** – *Romen Rollanning* hayot faoliyati.
- 1867-1935-yillar** – *Yuzef Pilsudskiyning* hayot faoliyati.



- 1867-1942-yillar – *K. Balmontning* hayot faoliyati.
1867-1947-yillar – *Stenli Bolduin* hayot faoliyati.
1868-1919-yillar - *Sherali Lapinning* hayot faoliyati.
1868-1938-yillar - *Ante Trumbichning* hayot faoliyati.
1868-1957-yillar – *Miklosh Xortning* hayot faoliyati.
1869-1940-yillar – *N. Chamberlenning* hayot faoliyati.
1869-1948-yillar – *Mahatma Gandi Karamchandning* hayot faoliyati.
1870-1937-yillar – *E. Rezerford* hayot faoliyati.
1870-1953-yillar – *I. Buninningning* hayot faoliyati.
1871-1925-yillar – *Fridrix Ebertning* hayot faoliyati.
1871-1945-yillar – *Teodor Drayzeming* hayot faoliyati.
1871-1950-yillar – *Genrix Mannning* hayot faoliyati.
1872-1933-yillar – *Kalvin Kuljining* hayot faoliyati.
1872-1950-yillar – *Leon Blyumning* hayot faoliyati.
1872-1957-yillar – *Eduard Errioning* hayot faoliyati.
1873-1938-yillar – *F. I. Shalyapinning* hayot faoliyati.
1873-1945-yillar – *V. Shishkovning* hayot faoliyati.
1874-1929-yillar - *Bobooxun Salimovning* hayot faoliyati.
1874-1934-yillar – *Paul Gindenburgning* hayot faoliyati.
1874-1964-yillar – *Gubert Guvemning* hayot faoliyati.
1874-1965-yillar - angliyalik yozuvchi *Somerset Moemning* hayot faoliyati.
1874-1965-yillar – *Cherchill Uinston Leonard Spensemning* hayot faoliyati.
1875-1919-yillar - *Mahmudxo'ja Behbudiyning* hayot faoliyati.
1875-1943-yillar - *Abdulqodir Shakuriyning* hayot faoliyati.
1875-1955-yillar – *Tomas Mannning* hayot faoliyati.
1875-1965-yillar – *Li Sin Mannning* hayot faoliyati.
1876-1931-yillar – *G.Myullemining* hayot faoliyati.
1876-1967-yillar – *Konrad Adenauer* hayot faoliyati.
1877-1950-yillar – *Vasil Kolarovning* hayot faoliyati.
1878-1900-yillar – *Umberto I* ning Italiya qiroli sifatidagi faoliyati.
1878-1931-yillar - *Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'lining* hayot faoliyati.
1878-1934-yillar - *Abdulla Avloniyning* hayot faoliyati.
1878-1954-yillar - *Sadriddin Ayniyning* hayot faoliyati.
1878-1968-yillar – *Usmon Xo'ja(Usmonxo'ja Po'latxo'jayev)*ning hayot faoliyati.
1879-1939-yillar – *Muhammadjon Tinishboyevning* hayot faoliyati.
1879-1940 - *Trotskiy* hayot faoliyati.
1879-1953-yillar – *Iosif Vissarionovich Stalin* (Jugashvili)ning hayot faoliyati.
1879-1955-yillar – *Albert Eynshteynning* hayot faoliyati.
1879-1959-yillar – *Aleksandr Sankovning* hayot faoliyati.
1879-1969-yillar – *Frans fon Papenning* hayot faoliyati.
1880-1918-yillar – *Giyom Apollinening* hayot faoliyati.
1880-1921-yillar – *A. Blokning* hayot faoliyati.
1880-1953-yillar – *Ibn Saudning* hayot faoliyati.
1880-1956-yillar – Suvaysh kanali ingliz-fransuz kompaniyalari orqali amalga oshiriladi.



- 1880-1964-yillar** – AQSh qo'shini generali *Makartur Diglas* hayot faoliyati.
1881-1922 - *Anvar Poshoning* hayot faoliyati.
1881-1938-yillar – *Mustafo Kamolning* hayot faoliyati.
1881-1942-yillar – *Stefan Sveygning* hayot faoliyati.
1881-1944-yillar – *Said Olimxonning* hayot faoliyati.
1881-1954-yillar – *Alchido de Gasperning* yashab o'tgan davr.
1881-1954-yillar – *Algido de Gasperning* hayot faoliyati.
1881-1967-yillar – *Muhammad Mosoddining* hayot faoliyati.
1881-1970-yillar – *A.Kerenskiy* hayot faoliyati.
1881-1973-yillar – ispan rassomi *Pablo Pikasso* hayot faoliyati.
1882-1938-yillar - *Po'lat Soliyevning* hayot faoliyati.
1882-1938-yillar - *Ubaydulla Xo'jayevning* hayot faoliyati.
1882-1945-yillar – *A. Tolstoyning* hayot faoliyati.
1882-1945-yillar – *Franklin Delano Ruzveltning* hayot faoliyati.
1882-1946-yillar – *Ion Antoneskuning* hayot faoliyati.
1882-1946-yillar – *Keytelning* hayot faoliyati.
1882-1949-yillar – *Dimitrov Georgiyning* hayot faoliyati.
1882-1961-yillar - germaniyalik yozuvchi *Leongrad Frankning* hayot faoliyati.
1882-1975-yillar – Irlandiyaning birinchi prezidenti *Edmon de Valeri* hayot faoliyati.
1883-1944-yillar – *D. Bedniyning* hayot faoliyati.
1883-1945-yillar – *Benito Mussolini*ning hayot faoliyati.
1883-1955-yillar – *Aleksandr Papagosning* hayot faoliyati.
1884-1924-yillar - *Mulla Abdulqahhoming* hayot faoliyati.
1884-1948-yillar – *Edvard Beneshning* hayot faoliyati.
1884-1957-yillar – *A. Zapotoskiyning* hayot faoliyati.
1884-1958-yillar – *Lion Fextvangeming* hayot faoliyati.
1884-1958-yillar – *Petru Grozaning* hayot faoliyati davr.
1884-1964-yillar - angliyalik yozuvchi *Shon o'Keysi* hayot faoliyati.
1884-1970-yillar – *Eduard Dalade* hayot faoliyati.
1884-1972-yillar – *Garri Trumen* yashab o'tgan davr.
1885-1943-yillar - *Yo'ldosh Oxunboboyevning* hayot va faoliyati.
1885-1962-yillar – *Nils Boming* hayot faoliyati.
1885-1967-yillar - *Andre Moruaning* hayot faoliyati.
1885-1970-yillar – *Genrix Byurning* hayot faoliyati.
1886-1921-yillar – *N. Gumilevning* hayot faoliyati.
1886-1938-yillar - *Abdurauf Fitraining* hayot faoliyati.
1886-1941-yillar - *Mustafo Cho'qayning* hayot faoliyati.
1886-1944-yil – *Ernst Telmanning* hayot faoliyati.
1886-1963-yillar – *Robert Shumanning* hayot faoliyati.
1887-1918-yillar – *Ferdinand* Bolgariyaning shohi bo'lgan.
1887-1937-yillar - *Qayg'usiz Otaboyev* yashab o'tgan.
1887-1956-yillar - *Xon Maxsum* - Ubaydulla Bahautdinovning hayot va faoliyati.
1887-1968-yillar – *Arnold Sveygning* hayot faoliyati.
1887-1975-yillar – *Chan Kayshining* hayot faoliyati.



- 1887-1976-yillar** – *B. Montgomerining* hayot faoliyati.
1888-1937-yillar – *N.I. Buxarinning* hayot faoliyati.
1888-1967-yillar – *Klement Ettlingning* hayot faoliyati.
1888-1968-yillar – *Georg Papandreuning* hayot faoliyati.
1889-1932-yillar - Buxoro qo'rboshisi *Ibrohimbekning* hayot faoliyati.
1889-1959-yillar – *Ant Pavelichning* hayot faoliyati.
1889-1964-yillar – *Javaharlal' Neruning* hayot faoliyati.
1889-1966-yillar – *A. Axmatovanning* hayot faoliyati.
1889-1970-yillar – *Antoni Salazar* yashab o'tgan davr.
1889-yil – *Adolf Gitter* Vena shahrida avstriyalik kichik bo'xona amaldori oilasida dunyoga keldi.
1890-1939-yillar - *Ahmad Zaki Validiy To'g'omning* hayot faoliyati.
1890-1960-yillar - *Xurshid (Shamsiddin Sharafiddinov)*ning hayot faoliyati.
1890-1969-yillar – general *D. Eyzexauer* hayot faoliyati.
1890-1969-yillar – *Xo Shi Minning* hayot faoliyati.
1890-yil 22-noyabr – *Sharl de Goll* Lill shahrida eski dvoryan oilasida tug'ildi. Uni yuksak qobiliyatli kishi sifatida katolik va'xoni yoki katta yozuvchi bo'lish kelajagi kutardi. Biroq u butun umrini qo'shin bilan bog'ladi, bu esa uni keyinchalik siyosiy faoliyat maydoniga yetaklab keldi.
1891-1929-yillar - *Inomjon Xidiralievning* hayot faoliyati.
1891-1938-yillar – *O. Mandelstamning* hayot faoliyati.
1891-1940-yillar – *M. Bulgakovning* hayot faoliyati.
1891-1944-yillar – *Ervin Rommel* hayot faoliyati.
1891-1958-yillar - germaniyalik yozuvchi *Iogannes Bexer* hayot faoliyati.
1891-1976-yillar - inglizlik detektiv yozuvchi *Agata Kristi* hayot faoliyati. U 85 roman muallifidir.
1892-1920-yillar - *Muhammad Aminbek Ahmadbek o'g'li - Madaminbekning* hayot faoliyati.
1892-1934-yillar – *Abdulqodir Muhitdinovning* hayot faoliyati.
1892-1939-yillar - *Nazir To'raqulovning* yashab o'tgan
1892-1941-yillar – *M. Svetaevaning* hayot faoliyati.
1892-1956-yillar – *Boleslav Berutning* hayot faoliyati.
1892-1962-yillar – *Richard Oldingtonning* hayot faoliyati.
1892-1971-yillar – *Matyash Rakoshi* yashab o'tgan davr.
1892-1975-yillar - *Fransisko Frankoning* hayot faoliyati.
1892-1980-yillar – *Iosif Broz Tito* hayot faoliyati davri.
1893-1946-yillar – *Draje Mixaylovich* hayot faoliyati.
1893-1964-yillar – *Palmiro Tolyatti* hayot faoliyati.
1893-1976-yillar – *Mao Szedun* hayot faoliyati.
1894-1918-yillar - *Turor Risqulovning* hayot faoliyati.
1894-1941-yillar – *I. E. Babelning* hayot faoliyati.
1894-1971-yillar – *Nikita Sergeevich Xrushevning* hayot faoliyati.
1894-1977-yillar – *Antoni Idenning* hayot faoliyati.
1894-1984-yillar - inglizlik detektiv yozuvchi *Jon Pristlingning* hayot faoliyati.



- 1894-1986-yillar** – *Garold Makmillanning* hayot faoliyati.
1895-1925-yillar – *S. Yeseninning* hayot faoliyati.
1895-1934-yillar – *E. Bagritskiyning* hayot faoliyati.
1895-1952-yillar – *K. Shumaxer* hayot faoliyati.
1895-1958-yillar – *M. Zoshenkoning* hayot faoliyati.
1895-1975-yillar – *Nikolay Bulganiming* hayot faoliyati.
1895-1989-yillar – *Dolores Ibarruning* hayot faoliyati.
1896-1938-yillar – *Abdulla Rahimboyevning* hayot faoliyati.
1896-1938-yillar – *Fayzulla Xo'jayevning* hayot faoliyati.
1896-1938-yillar – *Mannon Ramziy (Abdullayev)ning* hayot faoliyati.
1896-1968-yillar – sovet marshali *K. Rokossovskiyning* hayot faoliyati.
1896-1970-yillar – fransuz yozuvchisi *Elza Triole* hayot faoliyati.
1896-1981-yillar – xitoylik yozuvchi *Mao Dun* hayot faoliyati.
1897-1937-yillar – *I. Ilfining* hayot faoliyati.
1897-1938-yillar – *Qalandar Odinayevning* hayot faoliyati.
1897-1945-yillar – *I. Gebbelsning* hayot faoliyati.
1897-1955-yillar – *Mannon Uyg'uming* hayot faoliyati.
1897-1962-yillar – *Uilyam Folknemning* hayot faoliyati.
1897-1977-yillar – *Kurt Shushning* hayot faoliyati.
1897-1986-yillar – *V. Katayevning* hayot faoliyati.
1898-1936-yillar – *Federiko Garsia Lorkaning* hayot faoliyati.
1898-1937-yillar – *Jorj Gershvin* hayot faoliyati.
1898-1938-yillar – *Akmal Ikromovning* hayot faoliyati.
1898-1945-yillar – *Konrad Genleyn* hayot faoliyati.
1898-1956-yillar – *Bertold Brextning* hayot faoliyati.
1898-1964-yillar – *Pibunsongramning* hayot faoliyati.
1898-1970-yillar – *Erix Remarkning* hayot faoliyati.
1898-1971-yillar – *L. Sobolyeva* hayot faoliyati.
1898-1989-yillar – *Humayniy Ruhollo Musaviyning* hayot faoliyati.
1899-1953-yillar – *Lavrentiy Beriyaning* hayot faoliyati.
1899-1961-yillar – *Ernest Xemingueyning* hayot faoliyati.
1899-1972-yillar – Belgiya bosh vaziri *Pol Anri Spaak* hayot faoliyati.
1899-1977-yillar – *V. Nabokovning* hayot faoliyati.
1899-1985-yillar – *Mark Shagalning* hayot faoliyati.
1900-1931-yillar – *Ramsey Makdonald* leyboristlar partiyasining faxriy kotibi lavozimiga saylandi.
1900-1945-yillar – *Genrix Gimmleming* hayot faoliyati.
1900-1946-yillar – *Umberto II* ning Italiya qiroli sifatidagi faoliyati.
1900-1977-yillar – fransuz shoiri *Jak Preveming* hayot faoliyati.
1900-1983-yillar – *Anna Zegersning* hayot faoliyati.
1900-yil – *Teodor Drayzer "Baxtiqaro Kerr"* romanini yozdi.
1901-1909-yillar – *T. Ruzveltning* AQSh prezidentligi davri.
1901-1910-yillar – *Eduard VII* ning Angliya qiroli sifatidagi faoliyati.
1901-1954-yillar – *E. Fernining* hayot faoliyati.



- 1901-1956-yillar** – A. Fadeevning hayot faoliyati.
1901-1963-yillar – Ngo Din Demning hayot faoliyati.
1901-1964-yillar - Billi Bredelning hayot faoliyati.
1901-1964-yillar – Gretsiya qiroli Pavelning hayot faoliyati.
1901-1965-yillar – George Georgiu-Dejning hayot faoliyati.
1901-1966-yillar – S. Mikolaychikning hayot faoliyati.
1901-1970-yillar – Sukarnoning hayot faoliyati.
1902-1905 yillar – A.J.Balfurning Angliyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.
1902-1938-yillar - Rahim Oxunjonovich Inog'omovning hayot faoliyati.
1902-1988-yillar – Georgiy Malenkovning hayot faoliyati.
1902-1989-yillar - kubalik shoir Nikolas Gileming hayot faoliyati.
1903-1918-yillar – Filipp Sheydeyman reyxstag deputati bo'lgan.
1903-1942-yillar – Ye. Petrovning hayot faoliyati.
1903-1966-yillar - G'afur G'ulomning hayot faoliyati.
1903-1976-yillar - hind yozuvchisi Yashpahning hayot faoliyati.
1903-1976-yillar - Oltoy Boys Qorievning hayot faoliyati.
1903-1995-yillar – Burg'ib Xabib ibn Alining hayot faoliyati.
1904-1938-yillar - Botu Mahmud Hodievning hayot faoliyati.
1904-1968-yillar - Oybekning hayot faoliyati.
1904-1973-yillar - chillilik shoir Pablo Nerudaning hayot faoliyati.
1904-1975-yillar – Antonin Novotniyning hayot faoliyati.
1904-1989-yillar - surrealizmning taniqli namoyandasi ispan rassomi Salvador Dali hayot faoliyati.
1904-1991-yillar - angliyalik yozuvchi Grem Grinning hayot faoliyati.
1905-1908-yillar – G.Kempbel-Bannermanning Angliyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.
1905-1980-yillar - Jan Pol Sartmning hayot faoliyati.
1905-1982-yillar – Vladislav Gomulkaning hayot faoliyati.
1905-1984-yillar – M. Sholoxovning hayot faoliyati.
1905-1997-yillar - Mulk Raj Anandning hayot faoliyati.
1905-yil - ingliz-yapon ittifoqi yordamida Tinch okeanidan Rossiya siqib chiqarildi.
1906-1982-yillar – Leonid Ilich Brejnevning hayot faoliyati.
1907-yil – Karamanlis Konstantinos dunyoga keldi.
1907-1968-yillar - Abdulla Qahhomning hayot faoliyati.
1907-1982-yillar – P.Mendes Fransning hayot faoliyati.
1908-yil – E. Rezerfordga Nobel mukofoti berildi.
1908-yil – Erix Lyudendorf Germaniya armiyasi Bosh shtabining tezkor bo'limi boshlig'i lavozimida ishlagan.
1908-yillar – Uinston Cherrill Buyuk Britaniyada turli vazirlik lavozimlarida ishlagan (Ichki ishlar vaziri, aviatsiya vaziri, harbiy vazir, moliya vaziri).
1908-1916-yillar – G. Askviting Angliyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.
1908-1957-yillar – Jozef Makkartining yashab o'tgan davr.
1908-1958-yillar – yarim asr davomida Kongo aholisi 30 million kishidan 15 milliongacha qisqarib ketdi. Uning xalqi bir necha bor mustamlakachilarga qarshi



chiqdi, biroq ular bari uyushmagan, tarqoq holda edi. Mamlakat aholisi ko'p sonli qabila va etnik guruhlardan iborat bo'lib, turli tillarda so'zlashar, bir-biridan alohida yashab, ba'zan o'zaro urushib ham qolar edi.

1908-1973-yillar – *Jonson Lindorning* yashab o'tgan davr.

1908-1973-yillar – *Salvador Alyendening* hayot faoliyati.

1908-1974-yillar – *Ibrohim Mo'minov* yashab ijod qilgan.

1908-1977-yillar – *Yahyo G'ulomov* yashab ijod qilgan.

1908-1978-yillar – *Doud Muhammading* hayot faoliyati.

1908-1985-yillar – *Anvar Xo'janing* hayot faoliyati.

1910-yil - fransuz yozuvchisi *Jan Laffit* dunyoga keldi.

1911-yil - inglizlik yozuvchi *U. Golding* dunyoga keldi.

1911-yil – *Ronald Reygan* dunyoga keldi.

1911-yil – *Todor Jivkov* dunyoga keldi.

1912-yil - braziliyalik shoir *Jorji Amadu* dunyoga keldi.

1912-yil – *Fridrix Ebert* reyxstag deputati bo'lgan.

1912-1921-yillar – *Tomas Vudro Vilson* demokratik partiyadan AQSh prezidenti lavozimida.

1912-1927-yillar – *Sun Yatsen* Xitoyda ilg'or rol o'ynagan Gomindan (milliy partiya) partiyasiga asos soldi.

1912-1956-yillar - abstrakt ekspressionizm taniqli namoyandasi *Jekson Pollok* hayot faoliyati.

1912-1994-yillar – *Kim Ir Senning* hayot faoliyati.

1912-1995-yillar – *Erix Xonekkeming* hayot faoliyati.

1913-yil – *Brandt Villi* dunyoga keldi.

1913-yil - Farg'ona va Sirdaryo mahalliy to'qimachilik do'konlarida 1100 kosib ishlagan.

1913-yil – *Jerald Ford* dunyoga keldi.

1913-1920-yillar – *Raymon Puankare* Fransiya prezidenti bo'lgan.

1913-1921-yillar – *V. Vilsonning* AQSh prezidentligi davri.

1913-1962-yillar - *Em. Kazakyeovich* hayot faoliyati.

1913-1994-yillar – AQSh prezidenti *R. Nikson* yashab o'tgan davr.

1914-1916-yillar – *A. Salandranning* Italiyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1914-1916-yillar - jahon urushi boshlangach, Ruminiya Germaniya va Avstro-Vengriya bilan eski ittifoqchilik shartnomasi bo'lishiga qaramay, betaraflik mavqeida turdi. So'ngra o'zining urushdagi ishtiroki uchun hududiy kompensatsiyalar, kafolatlar, qurolli kuchlar bilan madad qilgan holda bir vaqtning o'zida har ikki tomon bilan savdo olib bordi. Boshqa tomondan, har ikki tomon ham Ruminiyaning urushdagi ishtirokiga katta ahamiyat berib, unga va'dalar berishda xasislik qilishmadi. Urushning ilk boshlanish paytida qirol *Karl* vafot etdi. Taxtga uning ingliz malikasiga uylangan o'g'li *Ferdinand* o'tirdi. Bu ingliz partiyasining Buxarestdagi ta'sirini kuchaytirdi, biroq rumin hukmron doiralari qat'iyat baxsh etmadi. Zero, mamlakatda urushish uchun hech narsa yo'q, armiya esa g'oyatda kuhsiz edi.

1914-1918-yillar - AQSh I jahon urushi mobaynida qudratli okean harbiy-dengiz



floti qurdi. Flotning katta qismi Tinch okeanida to'plangan edi. Amerika ana shu flot yordamida bu mintaqada yetakchi davlat bo'lishga qaror qildi. Rejaning bosh vazifasi ingliz-yapon ittifoqini yo'qqa chiqarish edi. AQSh Versal shartnomasini tasdiqlash va Millatlar Ligasiga kirishdan bosh tortdi. Amerika senati shartnomalarda Amerika manfaatlari hisobga olinmagan, deb hisobladi va buning qasdigina Tinch okeanida yangi tartiblar o'rnatishga qaror qildi.

1914-1918-yillar - jahon urushida Angliya 750 ming, Fransiya 1,3 mln., Gennaniya 2 mln., Rossiya 16 mln. kishi yo'qotdi. 20 mln.dan ortiq kishi yaralandi. Ko'pgina sanoat korxonalari vayron bo'ldi, transport tarmoqlari, konlar yo'q qilindi, ko'plab kemalar cho'ktirildi. Ularni tiklash ko'p mablag' va vaqt talab etar edi.

1914-1918-yillar - birinchi jahon urushi avvalida Albaniya betaraflik e'lon qildi. Lekin qo'shni mamlakatlar uni buzib, mamlakatga hujumlar uyushtirdi. Albaniyaning shimoliy, janubiy va markaziy qismiga Italiya, Cherniy Drin rayoniga Serbiya, mamlakat janubiga Gretsiya qo'shinlari bostirib kirdi. Mamlakat bosqinchilar hokimiyati ixtiyorida qoldi.

1914-1918-yillar - jahon urushi Buyuk Britaniyaning dunyodagi mavqegini tubdan o'zgartirib yubordi. Bir paytlar jahon sanoat bozorida hukmronlik qilgan Angliya dunyo "sanoat ustaxonasi" rolini to'liq qo'ldan boy berdi. Ingliz mahsulotlarining eksporti kamayib, import ko'paydi. Angliya harbiy xarajatlarni to'lashga majbur edi, shu sababli chet el zayom va kreditlaridan foydalanardi. Natijada Angliya AQShning asosiy qarzdoriga aylandi (urushgacha AQSh uning asosiy qarzdiri edi). Buyuk Britaniya qarzdand qutulish uchun o'zining chet ellardagi mulklaridan chorak qismini sotib yuborishga majbur bo'ldi. Davlat subsidiyalari hisobiga eskirgan korxonalarining qo'llab-quvvatlanishi urushdan so'ng ingliz sanoatini texnologik qoloqlikka olib keldi. Ko'mir qazib olish, cho'yan ishlab chiqarishning kamayishi, kemasozlikning qisqarishi bu sohalarini ham turg'unlikka olib keldi. Ammo bir paytning o'zida sanoatning yangi sohalarini bo'lgan avtomobilsozlik, kimyo, aviatsiya, qurolsozlik va harbiy zavodlarni ta'minlovchi po'lat quyish sohalarida o'sish ro'y berdi. Urush ingliz monopoliyalari uchun ulkan foyda manbaiga aylandi. Kichik va o'rta korxonalarining majburiy kooperativlashtirilishi hamda banklarning birlashuvi ro'y berdi. Ayni shu jarayonda yirik London banklari - "Lloyd", "Barklay", "Midlend", "Vestminster" va ingliz bankidan iborat "katta beshlik" vujudga keldi. Ularning tasarrufida Angliya pul resurslarining 85 foizi jamlangan edi. Sanoatda oltita yirik monopoliya paydo bo'ldi. Bular "Royyal Dutch shell" (neft), "Ingliz-Eron neft kompaniyasi" (neft), "Yunileve" (keng iste'mol mahsulotlari), "Imperial kemikl indastriz" (kimyo sanoati), "Danlop rabbers" (kauchuk, rezina) va "Vikkers" (qurol-yarog') edi. Mazkur olti yirik monopoliya amalda ishlab chiqarishning barcha sohalarida hukmron edi. Beshta eng yirik bank bilan birgalikda ular Angliya ichki va tashqi siyosatining yo'nalishlarini ham belgilardilar.

1914-1918-yillar - jahon urushi Lotin Amerikasida iqtisodiyotning o'sishiga imkon yaratdi. Yevropa tayyor mahsulotlari importining qisqarishi bu yerda qayta ishlash sanoatining rivojlanishiga turtki berdi. Peru, Kolumbiya, Venesuela, Kuba va boshqa mamlakatlarda olinayotgan foydali qazilmalar hajmi ko'paydi, qishloq



xo'jalik xom ashyosini ishlab chiqarish va tashqi savdo hajmlari ham oshdi. Shu bilan birga milliy burjuaziya va milliy ishchilar sinfi, o'rta va mayda savdogarlar tabaqasi ham o'sdi.

1914-1918-yillar - jahon urushi natijasida AQSh dunyodagi yetakchi davlatga aylandi. Amerika kompaniyalari Yevropa mamlakatlariga ulkan miqdorda va yuqori narxlarda harbiy jihozlar, qurol-yarog' va oziq-ovqat yetkazib berdi. Ko'plab Yevropa mamlakatlari AQShdan urush olib borish uchun kredit oldilar va urushdan so'ng AQSh oldida qarzdor bo'lib qoldilar. Amerika kompaniyalari urush davrida jami 35 mlrd. dollardan ortiq sof daromad oldilar. Bundan tashqari, Yevropadagi 20 mamlakat AQShdan 10 mlrd. dollar qarzdor bo'lib qoldi. Ular har yili AQShga kamida 1 mlrd. dollardan to'lab turishlari lozim edi. Mamlakatda ishlab chiqarish hajmi o'sdi. Ayrim sohalar - avtomobilsozlik, rezina, kimyo, po'lat quyish sanoatlari, shuningdek, kemasozlik, elektrotexnikada ayniqsa yuqori natijalarga erishildi. Ular AQSh sanoatining o'zagini tashkil qildilar.

1914-1918-yillar - jahon urushida Antanta tomonida ishtirok etgan Italiyada anchagina o'zgarishlar ro'y berdi. Harbiy buyurtmalar og'ir sanoatning rivojlanishiga, yengil sanoatning bir qadar jonlanishiga sabab bo'ldi. Italiya garchi sanoat taraqqiyoti jihatidan rivojlangan industrial davlatlar darajasiga yetmagan bo'lsa-da, agrar mamlakatdan industrial-agrar mamlakatga aylandi. Italiyada mamlakat iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan, sanoatni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan yirik sanoat monopoliyalari shakllandi. "Fiat", "Breda", "SNIA", "Ilva", "Temi", "Arsa" va "Montekatini" kabi iqtisodiy gigantlar Italiya sanoatining o'zagini tashkil etgan avtomobilsozlik, qora metallurgiya, konchilik va kimyo sanoatida hukmron mavqeiga erishdilar. Ayni paytda umumiy soni 120 mingga yetgan kichik korxonalar ham mamlakat iqtisodiy hayotida katta o'rin egallardi. Ularda 800 mingdan ortiq ishchi ishlardi. Italiya iqtisodiyotining o'ziga xos jihatlaridan biri qishloq xo'jaligining nihoyatda qoloq ekanligi edi. 40 ming yirik zamindor 10 mln. gektar yerga ega bo'lsa, 2,5 mln. dehqonning bor-yo'g'i 6 mln. gektar yeri bor edi. Dehqonlarning yarmi yersiz bo'lib, yirik zamindorlardan dala ijara olishga majbur qilingandi. Ijara uchun dehqon hosilning yarmini berardi. Qishloq xo'jaligida chorikor - dehqon asosiy kuch edi. Italiya janubi, Sitsiliya hamda Sardiniya orollari ayniqsa qoloq edi. Bu yerda 10 ming gektardan ortiq yerga ega bo'lgan zamindorlar saqlanib qolgandi. Italiya iqtisodiyoti katta harbiy xarajatlarni ko'tara olmadi. Ichki davlat qarzlari to'rt yil ichida uch barobar ko'paydi. Bundan tashqari, Italiya o'z ittifoqchilaridan ham anchagina qarzdor bo'lib qoldi. Natijada soliqlar keskin oshib ketdi, pul qadrsizlandi.

1914-1918-yillar - urush Germaniyada yetilib turgan ijtimoiy nizolarni keskinlashtirib yubordi. U german jamiyatining Kayzer boshchiligidagi oliy tabaqasi bilan nemis mehnatkashlari o'rtasidagi mavjud jarlikni yaqqol namoyon qildi. Urush paytida yirik nemis konsernlari, oliy rutbali harbiylar va Kayzerning yaqinlari boyib ketdilar. Germaniya urushda 2 milliondan ortiq qurbon berdi. Yaradorlar, asirlar va bedarak yo'qolganlar bilan uning jami yo'qotishi 7,5 million kishini tashkil etdi. Ayni paytda faqatgina Krupp konserining daromadi 15 marta oshdi. Mamlakatdagi eng ommaviy va nufuzli kuch bo'lgan Germaniya Sotsial-



demokratik partiyasi bo'lib yuborildi. Unda uch oqim paydo bo'ldi: o'nglar - *Ebert, Sheydeman, Bernshteyn, Noske*; markazchilar - *K. Kautskiy*; so'llar - *Karl Libfncnet* va *Roza Lyuksemburg* boshchiligidagi "Spartak" guruhi. O'nglar mamlakatda tartibning saqlanishi va parlamentar respublika o'rnatilishi tarafdori edilar.

1914-1918-yillar - Yaponiya I jahon urushida Antanta tomonidan qatnashdi va g'oliblar qatorida bo'ldi. U mukofot tariqasida Shandun yarim orolini, Tinch okeanidagi Germaniyaga qarashli Marian, Karolina, Marshall orollariga mandatni oldi. Ushbu orollarning olinishi Yaponiyani Tinch okeani akvatoriyasi markaziga chiqarib, AQShning asosiy harbiy-dengiz bazasi - Gavay orollariga yaqinlashtirdi.

1914-1920-yillar – AQSh milliy boyligi 2,5 baravar oshdi. Boshqa ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha AQShning yutuqlari yanada salmoqliroq edi. Mamlakatda dunyodagi jami avtomobillarning 80%, neftning 67% iшлаb chiqarilardi. Amerika floti urush davomida 10 baravarga o'sdi. AQSh Angliya qatori dunyodagi yetakchi dengiz davlatiga aylandi. Jahon oltin zapasining qariyb 50%i AQShning oltin xazinasi saqlanuvchi Fort-Noksdagi jamlandi. AQSh jahonning mohiyaviy markazi, jahon bozorining poydevoriga aylandi.

1914-1945-yillar – ikki jahon urushi o'rtasidagi davr. Unda dunyoni qayta taqsimlab olishga, yangi dunyo tartiboti o'rnatishga yo'naltirilgan jahon mojarolari juda ko'p. I jahon urushi imperialistik, ya'ni ikkala imperialistik guruh boshlagan bosqinchilik urushi bo'ldi. U talonchilik va buzg'unchilik urushi edi. Shunday bo'lsada, barcha mamlakatlarni qamragan demokratik harakat rivojlanishi uning natijasidir. Ushbu davrda maqsadi jahonda demokratik islohotlarni amalga oshirish bo'lgan umumdemokratik xarakterdagi kuchlar yuksalishi ustunlik qildi. Kapitalistik tizimning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy inqirozi jahonni 2 ta – demokratik hamda fashistik, totalitar lagerga bo'lib yuborildi. II jahon urushi endilikda birinchisiga qaraganda butkul boshqacha xarakterda edi. U demokratik lager tomonidan esa tajovuzkorlik, bosqinchilik va talonchilik urushi edi. II jahon urushida demokratik davlatlar g'alaba qozondilar. Bu demokratik kuchlarning umumjahon tarixi ahamiyatiga molik g'alabasidir.

1914-yil – Bolqon yarim orolida, bir tomondan, Rossiya qo'llab-quvvatlayotgan Serbiya bilan, ikkinchi tomondan, Avstro-Vengriya, Bolgariya va Turkiya o'rtasida urush chiqishi aniq bo'lib qoldi.

1914-yil - germaniyalik shoir *I.Bexer* ijodi boshlanib taniqli shoir, novator ham edi. Fashizm tor-mor etilgandan so'ng *I.Bexer* GDRda yashadi va o'zini yangi Germaniya tiklanishiga bag'ishladi.

1914-yil - hind va ingliz tilida ijod qiluvchi *Ho'ja Ahmad Abbos* dunyoga keldi.

1914-yil – ingliz parlamenti Irlandiyaga avtonomiya berish haqida qaror – gomrul qabul qilindi. Ammo urush tufayli uni amalga joriy etish kechiktirildi.

1914-yil – *Paul Gindenburg* general-feldmarshal bo'lgan.

1914-yil 31-mart – Germaniya armiyasini jangovar holatga keltirish rejasi tayyorlab qo'yilgan edi. Germaniya keng miqyosli urush harakatlari olib borishga tayyor edi. Temir yo'llarning harbiy ish jadvali tasdiqlangan, a'lo darajada ta'lim olgan ofitserlar tarkibi tayyorlangan, zaxira okruglar tashkil etilgandi. Butun armiya o'ta qudratli va uzoq masofaga otadigan og'ir dala to'plari bilan qurollantirildi.



Germaniya armiyasi qurollari ichida taktik zaharlovchi moddalar paydo bo'ldi. Germaniyaning strategik rejalarida Fransiyani yashin tezligida tor-mor qilish ko'zda tutilgan edi. Rossiya o'sha davrda o'zining ittifoqchisiga yordam bera olmasdi, chunki Rossiyada urushga tayyorgarlik ishlarini 1917-yilda yakunlash mo'ljallangan edi. Qurol-yarog'lar armiya shaxsiy tarkibining uchdan biriga yetar, to'plar nihoyatda oz, pulemyotlar esa sanoqli edi. Armiyada kiyim-kechak, oziq-ovqat, o'q-dori tanqisligi mavjud edi. Temir yo'llar bir tekis ishlamas, poezdlar nihoyatda sekin harakat qilardi. Bunday sharoitda urush e'lon qilnadigan bo'lsa, Rossiya armiyasini faqat 40 kun ichida jangovar holatga keltirish mumkin bo'lardi. Germaniya armiyasi bu muddat ichida bemalol Fransiyani tor-mor qilib ulgurardi. Buni yaxshi anglagan Germaniya jangovar harakatlarni tezlashtirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga sola boshladi.

1914-yil 28-iyun – Bolqon yarim oroli I jahon urushining detonatori bo'ldi. Bosniya-Gersegovina poytaxti Sarayevoda yangragan o'q ovozlari amalda I jahon urushining muqaddimasiga aylandi.

1914-yil 28-iyun – Sarayevoda Avstriya ersgersogi *Frans Ferdinand*ning o'ldirilishi.

1914-yil iyun oxiri – *Frans-Ferdinand* Serbiyaga bostirib kirishga hozirlik ko'rayotgan Avstriya qo'shinlarini ko'rikdan o'tkazish uchun Bosniyaga borishga qaror qildi.

1914-yil 22-iyul – Turkiya kutilmagandek Germaniyani qo'llab-quvvatladi. Turkiya harbiy vaziri shu haqda bayonat berdi.

1914-yil 23-iyul – Avstro-Vengriya hukumati Germaniya hukumati bilan maslahatlashib Serbiyaga ultimatum berdi. U o'zini hurmat qiladigan hech bir hukumat qabul qila olmaydigan qo'pol va keskin uslub bilan bitilgan edi. Berlin va Venadagilar xuddi shunday bo'lishiga umid bog'lagandilar. Rossiyaning Avstro-Vengriya va Germaniyani tinchlantirishga urinishi natija bermadi. Jang shiddat bilan yaqinlashib kelardi. Urush bombasi Yevropada, uning portlovchi o'zagi esa Sarayevoda edi. Bu bomba nihoyat portladi.

1914-yil 29-iyul – Rossiya imperatori *Nikolay II* harbiy safarbarlik haqidagi buyruqni imzoladi.

1914-yil 30-iyul - Rossiya imperiyasida umumiy safarbarlikning e'lon qilinishi.

1914-yil 1-avgust – birinchi jahon urushi boshlandi. Germaniya ham safarbarlik e'lon qildi va shu kuniyoq Rossiyaga urush ochdi. Rus-german urushi boshlandi.

1914-yil 2-avgust - Turkiya va Germaniya o'rtasida maxfiy ittifoqchilik shartnomasining tuzilishi.

1914-yil 3-avgust – Germaniya Fransiyaga urush e'lon qildi.

1914-yil 4-avgust - Germaniya qo'shinlarining Belgiyaga bostirib kirishi.

1914-yil 4-avgust – Angliya Germaniyaga urush e'lon qildi.

1914-yil 4-avgust – Germaniya qo'mondonligi harbiy harakatlar rejasiga muvofiq Belgiyaga asosiy hujumni boshladi. Bu yerda mudofaani yorib o'tish va Yevropaning hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan sanoat rayonlarini egallab, bir hamla bilan urushni yakunlash nazarda tutilgan edi. Germaniya qurolli kuchlari shiddatli hujum natijasida bir necha hafta mobaynida deyarli jangsiz Belgiyani bosib o'tdilar va Fransiya hududiga kirib Sena daryosi irmog'i bo'lgan Marna sohillariga chiqdilar.



1914-yil 6-avgust – Avstriya-Vengriyaning Rossiyaga urush e'lon qilishi.

1914-yil 15-avgust – Panama kanalining ochilishi.

1914-yil 23-avgust – Yaponiya Germaniyaga urush ochdi va uning Xitoydagi bir qator yerlarini, shuningdek, Tinch okeandagi Germaniyaga qarashli bir qancha orollarni egallab oldi.

1914-yil 5-12-sentabr – Marna bo'yida fransuz va nemis qo'shinlari o'rtasida og'ir janglar bo'lib o'tdi. Unda nemis qo'shinlari mag'lubiyatga uchradilar. Sharqiy Prassiyada rus askarlarining hujumga o'tganligi nemis qo'shinlarining mag'lubiyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Rus armiyasining hujumi dastlab muvaffaqiyatli boshlandi. U Galitsiyani egallab, Sharqiy Prussiya hududiga yorib kirdi. Germaniya qo'mondonligi rus qo'shinlarining hujumini qaytarish uchun askarlarining bir qismini Mama bo'yidan Prussiyaga tashlashga majbur bo'ldi. Rus qo'shinlarining Sharqiy Prussiya operatsiyasi og'ir mag'lubiyat bilan yakunlandi. Ammo Fransiya qutqazib qolindi.

1914-yil oktabr – Turkiyaning urushga kirishi munosabati bilan Kavkazorti, Mesopatamiya, Suriya va Falastinning sharqiy chegarasida yangi frontlar vujudga keldi. Ammo turk armiyasi urushga tayyor bo'lmaganligi sababli Kavkaz ortida rus qo'shinlaridan bir qator og'ir mag'lubiyatlarga uchradi.

1914-yil 20-oktabr – Rossiyaning Turkiyaga urush e'lon qilishi.

1914-yil 25-oktabr – 1-Turkiston sanitariy poezdi Toshkentdan I jahon urushi frontiga jo'nadi.

1914-yil 29-30-oktabr – Turkiyaning Germaniya tomonida urushga kirishi.

1914-yil 2-noyabr – Rossiya Turkiyaga urush e'lon qildi.

1914-yil 5-6-noyabr – Angliya va Fransiya Turkiyaga urush e'lon qildi.

1914-yil yozi –Germaniya qayta qurollanish jihatidan Antanta mamlakatlarini, harbiy tayyorgarlik bo'yicha Rossiya va Fransiyani ortda qoldirdi.

1915-yil fevral – ingliz-fransuz floti Turkiyaning Dardanel bo'g'ozidagi istehkomlarini bombalashga kirishdi. Ammo bu hujumlar ko'zlangan natijani bermadi. Natijada ingliz askarlaridan 200 mingdan ortig'i halok bo'ldi. Hamla tashabbuskori, Angliya harbiy flotining 1-lordi *Uinston Cherchill* bo'lgan. Hamladan keyin u vazifasidan chetlashtirildi. Shundan keyin uning siyosiy faoliyatida 25 yil tavaffus bo'ldi.

1915-yil 12-mart – Angliya Rossiyani faollashtirish uchun unga Istanbulni berish majburiyatini oldi. Rossiya Bosforning sharqiy sohillari, Janubiy Frakiya, Imbros va Tenedos orollarini ham olishi kerak edi. Rossiya bu joylarni urush tugaganidan keyin, Angliya va Fransiya Usmonli imperiyasining Osiyodagi yerlarini taqsimlash rejasini amalga oshirgan taqdirda olishi ko'zda tutilgandi. Inglizlar Erondagi betaraf hududni ham ingliz ta'sir doirasiga kiritishni talab qildilar. Rossiya bu shartlarni qabul qildi.

1915-yi 10-aprel – Fransiya ham Rossiya - Angliya o'rtasidagi shartnomaga qo'shildi.

1915-yil 22-aprel – nemislar tomonidan Ipr yaqinidagi jangda zaharlovchi gaz (iprit)ning qo'llanilishi.

1915-yil 23-may – Italiya Antantaga qo'shildi.



- 1915-yil 23-may** - Italiyaning Avstriya-Vengriyaga urush e'lon qilishi.
- 1915-yil may** –Afrikaning mustamlakalar va Bolqondan yer berish, shuningdek, 50 million funt sterling zayom ajratish haqida Antantadan va'da olgach, Uchlar ittifoqi haqidagi shartnomadan chiqdi.
- 1915-yil 9-iyul** - Angliya qo'shinlarining Janubl G'arbiy Afrikani ishg'ol qilishi.
- 1915-yil 5-sentabr** – to'rtlar ittifoqi (Germaniya, Avstriya-Vengriya, Turkiya, Bolgariya)ning tuzilishi.
- 1915-yil 3-5-oktabr** – Antanta qo'shinlari Salonikini egallashdi, so'ng Salaminni egallashdi.
- 1915-yil oktabr** – Bolgariya Germaniya-Avstriya ittifoqi tarafidan urushga kirdi.
- 1915-yil oktabr-dekabr** – Serbiyaning Avstriya-Germaniya va Bolgariya qo'shinlari tomonidan bosib olinishi.
- 1915-yil** – Bolgariya Germaniyaga qo'shilgandan keyingina Serbiya bosib olindi. Serb armiyasining bir qismi rus qo'shinlariga qo'shilib, urushni g'alabali yakungacha davom ettirishdi.
- 1915-yil** – birinchi jahon urushida turg'un (pozitsion) urush.
- 1915-yil** – *Mahatma Gandi* Hindiston Milliy kongresiga rahbarlik qildi.
- 1915-yil** – Namibiya Janubiy Amerika qo'shinlari tomonidan bosib olindi.
- 1915-yil** – Turkiston aholisi kamayib 7 mln 149 ming kishiga yetdi.
- 1915-yil** - Turkistonda 3,5 mln (bundan 2,4 mln sug'oriladigan) desyatina ekin maydoni mavjud bo'lgan.
- 1915-yil** - Turkistonda 542 ming desyatina yerda paxta yetishtirilib, uning yalpi hosili 831 ming tonna tashkil etdi.
- 1916-1917-yillar** – Ispaniya armiyasida “harbiy xuntalar” tarmog'i yuzaga keldiki, ular mamlakatda harbiy diktatura o'rnatish rejalarini tuzib yurishardi.
- 1916-1917-yillar** – *P. Bosselning* Italiyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.
- 1916-1921-yillar** – *Jon Golsuorsining* “*Forsaytlar dostoni*” trilogiyasi yaraldi.
- 1916-1922-yillar** – *Devid Lloyd-Jorj* Buyuk Britaniya Bosh vaziri va Liberal partiyaning yirik rahbarlaridan biri bo'lgan.
- 1916-1978-yillar** – *Aldo Moroning* hayot faoliyati.
- 1916-1996-yillar** – *Fransua Mitteran* hayot faoliyati.
- 1916-yil** – *Ahmad Muhammad Bin Bella* dunyoga keldi.
- 1916-yil** – Antanta mamlakatlari bilan imzolangan maxfiy bitimga asosan Italiya bir qator hududlarni o'ziga qo'shib olish maqsadida urushga kirgan edi. Italiya faqat *Janubiy Tirol* va *Adriatika* sohilidagi *Triest* portini olishga muvassar bo'ldi. Italiya “*g'oliblar ichidagi mag'lub*” vaziyatida edi.
- 1916-yil** – birinchi marta zaharlovchi moddalar nemislar tomonidan Iprda qo'llanilgan.
- 1916-yil** – *Brusilovning* ajoyib hamlasidan va german qo'shinlarining Verdendagi mag'lubiyatidan so'ng Ruminiya german blokiga qarshi chiqdi.
- 1916-yil** – *Edvard Xit* dunyoga keldi.
- 1916-yil** - Fransiya bilan bitimda qayd etilgan Rossiyaning hududlari ustidan Angliya o'z hukmronligini o'rnatmoqchi edi.
- 1916-yil** – *Garold Vilson* dunyoga keldi.



1916-yil – Germaniya Sharqiy Yevropani o'z nazorati ostiga olgan, uning barcha qurolli kuchlarini G'arbiy frontda to'plash imkoniyatini qo'lga kiritgan edi.

1916-yil – jahon urushida xalqlarning buyuk qirg'ini yili.

1916-yil – Irland millatchilari Dublinda qo'zg'olon ko'tardilar, Angliya hukumati uni bir hafta ichida bostirdi, ammo qo'zg'olon rahbarlarini qatl etib, katta xatoga yo'l qo'yishdi. Irlandiyaliklar nazarida ular mill ozodlik uchun halok bo'lgan qahramonlarga aylandilar. Parlamentdagi Irlandiya partiyasi "*Shinn feyn*" ("Yolg'iz o'zimiz") deb nomlangan ekstremistik tashkilotga aylandi.

1916-yil - *Junaidxon* qo'zg'olon bostirilganidan so'ng Afg'onistonga o'tib ketdi.

1916-yil – Rossiya bilan ittifoqchi mamlakatlarning siyosiy doiralarda g'alati bir hujjat paydo bo'ldi. Ittifoqchilar urushdan keyin Rossiyani bo'lib olish haqida yashirincha shartnoma tuzdilar. Rossiya Germaniya bilan urushda mag'lub bo'ladi, armiya va flotini yo'qotadi va siyosiy jihatdan kuchsizlanadi. Shundan keyin Germaniya bilan yarashish va birgalikda Rossiyani bo'lib olish mumkin edi. Bu paytda Rossiya Germaniya armiyasining katta qismini o'ziga jalb etish uchun so'nggi kuchlarini safarbar etgan, ittifoqchilarni qo'llab-quvvatlash uchun nemislarga qarshi yomon qurollangan, yomon tayyorgarlik ko'rgan polklarni hujumga tashlamoqda edi. Ittifoqchilar esa Rossiyani mag'lub qilish va uni davlat sifatida yo'qotishni mo'ljallamoqda edilar. Ukraina Fransiyaning protektoratiga aylanishi, Kavkaz va Turkiston esa Angliya protektorati bo'lishi ko'zda tutilgandi. Uzoq Sharqqa yaponlar da'vogariik qilar, amerikaliklar esa Rossiya temir yollarini egallab olish ishtiyoqida edilar.

1916-yil – Xivada paxta maydonlari 90 ming desyatini tashkil qildi.

1916-yil - yadro fizikasi yadro texnologiyasini rivojlantirish uchun asos yaratdi. Lazer ta'sirining asosiy tamoyillari *A.Eynshteyn* tomonidan bayon etib berilgan edi.

1916-yil – Yevropada hammasi bo'lib 2 milliondan ortiq kishi halok bo'ldi. Ammo urushda o'zgarish bo'lmadi. Germaniya va Avstro-Vengriyaning moddiy manbalari tugab borardi. Ingliz flotining ustunligi sababli dengiz tomonidan qilingan qamal nihoyatda samarali bo'ldi. Qamal tufayli Germaniya oziq-ovqat va strategik xom ashyolarning o'zidagi xazinalari bilan kifoyalanishiga majbur bo'ldi. Bu esa surunkali urush olib borish uchun yetarli emasdi. Antantaga esa AQSh yordam berar va u o'z mustamlakalari manbalaridan erkin foydalanish imkoniyatiga ega edi.

1916-yil 21-fevral – Dardanel bo'g'ozidagi operatsiyaning barbod bo'lishi Antanta ittifoqchilarini G'arbiy frontdagi jangovar harakatlarga qaytishga majbur qildi. Germaniya ham Fransiya hududida hal qiluvchi jangga kirishishni va uning qarshiligini sindirishni rejalashtirdi. Germaniya bosh shtabi Fransiya uning eng mustahkam mavqei – Verden qal'asi orqali hujum uyushtirishga ahd qildi. Germaniyaning 5-armiyasi ulkan harbiy operatsiyasini boshladi. Hujumdan oldin fransuz istehkomlari o'qqa tutildi. Jangda Krupp zavodlarida tayyorlangan va "*Katta Berta*" nomli 850 ta kuchli to'plar ishga tushdi. Fransuz askarlarining shiori "*Ular o'tolmaydilar*" deyishardi.

1916-yil 21-fevral - 21-dekabr – Verden ostonalaridagi jang davom etdi va ikkala



tomonga ham katta talofatlar keltirdi. Fransiya va Germaniya bu yerda 700 mingdan ortiq askar yo'qotdi. Verden jangining yakunida Rossiya armiyasi katta rol o'ynadi. Bu yerdagi janglarning hal qiluvchi bosqichida general *A.A.Brnsilov* qo'mondonligidagi rus armiyasi Janubl G'arbiy frontda hujum boshladi va Germaniya hamda Avstriya qo'shinlari himoyasini yorib o'tdi. Bu operatsiya Avstriya qo'shinlari guruhini tor-mor qilish va 1,5 millionga yaqin askar va zobitni yo'q qilish bilan yakunlandi. Shundan so'ng Avstro-Vengriya amalda jangovar harakatlar qilish qobiliyatini yo'qotdi, Germaniya esa tezda bu frontga o'zining asosiy zaxira kuchlarini tashlashga majbur bo'ldi.

1916-yil 1-iyul – Verden ostonalarida jang davom etayotgan bir paytda Antanta ittifoqchilari Somma daryosi bo'yida Verdendan 250 km va La-Manshdan 90 km masofada bo'lgan ingliz mudofaa sektorida hujum boshladilar. Britaniya to'plari deyarli 7 kun davomida german qo'shinlarini o'qqa tutdi. Britaniya ko'ngilli askarlari german qo'shinlariga tashlandilar. Ularning soni 100 mingdan ortiq edi. Inglizlar 50 mingdan ortiq kishini yo'qotdilar.

1916-yil 27-avgust – Ruminiyaning Antanta tomonida urushga kirishi.

1916-yil sentabr – birinchi marta inglizlar tomonidan tanklar Somma daryosi bo'yida qo'llanilgan.

1916-yil 5-oktabr – birinchi marta Sommadagi jangda inglizlar tanklarni urushga soldilar.

1916-yil qishi –yoqilg'i, oziq-ovqat va yem-xashak ortilgan 60 000 vagon qor ostida qolib ketdi.

1917-1918-yillar - Turkistondagi ocharchilik Farg'ona viloyati xo'jaligining vayron bo'lishida kuchli ta'sir ko'rsatdi

1917-1919-yillar – *V. Orlandoning* Italiyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1917-1919-yillar – *Vittorio Emanuele Orlanda* Italiya Vazirlar mahkamasi raisi bo'lib ishlagan.

1917-1920-yillar - Buxoro va Xorazmda madaniyat, maorifning ilg'or zamonaviy shakllarini joriy qilindi, davom etgan islohotchilik harakatida muhim o'rin egalladi. Demokratik o'zgarishlar xalq ma'naviyatini hisobga olib o'tkazilishi idrok etildi.

1917-1922-yillar – Ispaniyada 11 ta hukumat almashdi.

1917-1923-yillar - Faqat Qo'qon va Marg'ilon uyezdlarida ocharchilik oqibatida 0,5 mln odam o'ldi.

1917-1923-yillar - Farg'ona vodiysida ocharchilik natijasida 1 mln kishi halok bo'ldi.

1917-1923-yillar - Ocharchilikka qarshi kurash markaziy komissiyasi raisi *T.Risqulov* o'z tarjimai holida yozganidek, "*haqiqatan ham ko'chalar, ariqlar va qishloqlarda o'layotgan millionlab yo'qsullar va bolalarni qutqarish kerak edi, o'sha vaqtdagi hokimiyat bunga panja orasidan qarardi* (masalan, 1 mln odam kishi uchun hammasi bo'lib 50 mln so'm pul ajratildi)". Qiyoslash uchun shu narsani keltirib o'tamizki, o'sha paytda bir buxanka nonning narxi 1000 so'm atrofida bo'lgan. Farg'ona viloyati sovetlarining XIII s'yezdida viloyat inqilobiy qo'mitasi raisi vodiydagi ocharchilik to'g'risida to'xtalib, shunday degan edi: "...ocharchilik Farg'ona viloyati xo'jaligining vayron bo'lishida kuchli ta'sir



ko'rsatdi... Faqat Qo'qon va Marg'ilon uyezdlarida ocharchilik oqibatida 0,5 mln odam o'ldi". Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, "Farg'ona vodiysida ocharchilik natijasida 1 mln kishi halok bo'lgan". Samarqand viloyati Jizzax uyezdining 70 foiz aholisi ochlikdan qirilib ketdi. Boshqa uezdlarda ham ahvol shunday fojiali edi. Samarqand uyezdining o'zida esa 70.000 odam ocharchilikdan o'lib ketdi. T.Risqulov fikricha, o'lka butun aholisining teng yarmi, taxminan, 2,5 mln kishi ochlikdan azob chekkan.

1917-1924-yillar - bolshevikcha aksilmilliy, umuminsoniy progressiv ma'rifatchilikka dushmanlik bosimlariga qaramasdan O'zbekistonning hozirgi hududida madaniy-ma'rifiy turmush jabhalarida yangilanish xalq ma'naviyatida o'z aksini topdi. Milliy ziyolilar, ruhoniylar, yerli rahbarlarning amaliy faoliyatlari borgan sari qattiq ta'qib ostiga olinib, xalq ma'naviyatini boyitish yo'lidagi harakat maydoni torayib bordi.

1917-1924-yillar - jiddiy to'siqlarga qaramasdan O'zbekiston ijod ahli, ziyolilari qat'iy, chuqur mazmunli faoliyat ko'rsatdilar. Xorazmda *Bekjon Rahmonov*, boshqa fidoyi ziyolilar samarali madaniy faoliyat ko'rsatdilar. *B. Rahmonov* "madrasalar islohoti"ni qat'iy so'l-inqilobiy tezlik bilan o'tkazishni inkor qildi. Maktablar, boshqa o'quv yurtlarini ochishga bosh bo'ldi, dasrliklar yozdi. Fitrat ijodiy faoliyatini samarali davom ettirish bilan birga Buxoro respublikasi maorif noziri lavozimida barakali maskanlarini tashkil qilish, o'qituvchilar, o'quvchilar, ijod ahliga rahnamolik qilishda qatnashdi.

1917-1924-yillar - O'zbekiston hududida ma'naviyat va madaniyat murakkab vaziyatni boshdan kechirdi, jiddiy to'siqlar va buzg'unchiliklarga uchradi. Turkistonni qizil imperiya koloniyasiga aylantirishga kirishgan bolsheviklar siyosati va amaliyotini xalq ommasi, milliy ziyolilar qabul qilmadilar. Ma'naviyat va madaniyat sohalarida g'oyaviy-siyosiy kurash avj oldi. Xo'jalik vayronaligi va oziq-ovqat diktaturasi, yangi iqtisodiy siyosat va xom ashyoga davlat monopoliyasi, ko'p sonli qizil armiya va davlat idoralari xodimlarining ta'minoti madaniyat, matbuot, maorif sohalarining moddiy ahvoli og'irlashuviga sabab bo'ldi.

1917-1924-yillar - O'zbekiston hududida maorif, madaniyat va ma'naviyatda murakkab jarayonlar kechishi bilan bir qatorda, xalq ommasi maktab, ma'rifat va o'z milliy an'analari uchun qattiq kurash olib bordi.

1917-1924-yillar - Qoraqalpog'iston hayotiga bolsheviklar tomonidan tiqishtirilgan mustabid sovet rejimi va uning siyosati qoraqalpoq xalqining asriy asriy orzu-umidlariga javob bermadi.

1917-1963-yillar – AQSh Prezidenti *Jon Kennedi* yashab o'tgan davr.

1917-1983-yillar – *Sharof Rashidonich Rashidov* tug'ilib, yashab o'tgan.

1917-1984-yillar – *Indira Gandining* hayot faoliyati.

1917-1991-yillar – Sovet hokimiyati davrida Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston ushbu respublikalar hududida Osiyodagi boshqa mamlakatlardagidan farq qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar yuz berdi. Bu yerda ishlab chiqarish vositalari xususiy mulkchiligi tugatildi va amalda butun iqtisod hamda savdo davlat mulki ixtiyoriga o'tkazildi. Qishloq xo'jaligida yakkashaxs xo'jaligi yo'q qilindi va hamma dehqonlar kolxozlarga birlashtirildi.



O'rta Osiyo xalqlari uzoq yillar Osiyo mamlakatlaridan uzoqlashib, tashqi dunyodan ajralib qoldi. Barcha tashqi aloqalar Moskvada markaziy hukumat tomonidan belgilanar va umumiy reja bo'yicha amalga oshirilardi. Iqtisodiy rivojlanish ham Moskvada ishlab chiqiladigan umumiy reja asosida yuritilgan. Foydali qazilmalarni qidirib topish va qazib olish ham shu yo'sinda olib borildi, mahalliy xalqlar manfaatiga 2-darajali masala deb qaraldi.

1917-yil – 10 desyanitadan ortiq yeri bo'lgan baquvvat dehqonlar Samarqand viloyati va Toshkent uyezdida dehqonlar umumiy sonining 7 % ini, Farg'ona viloyatida esa 2,4 % ini tashkil qilganlar. Eng ko'p sonli o'rtahol va kambag'al dehqonlar bo'lgan.

1917-yil – AQSh “*shartnomaga qo'shilgan mamlakat*” sifatida urushga kirgan edi.

1917-yil – AQSh *Jahon sanoati ishchilari* saflarida 100 ming a'zolari bor edi.

1917-yil – barcha urushayotgan mamlakatlardagi siyosiy va iqtisodiy inqiroz davri. Urushni boshlagan rahbartar va partiyalar obro'-e'tiborlarini yo'qotdilar, hokimiyatga yangi rahbarlar keldi. Fransiyada urush mobaynida ikki marta bosh vazir almashdi, nihoyat hokimiyatga *Jon Klemanso* keldi. Angliyada ham bosh vazir o'zgardi. *Askvit* o'rniga Liberal partiyadan bosh vazir qilib saylangan *David Lloyd-Jorj* boshchiligidagi konservatorlar va liberallarning ittifoq hukumati keldi. Germaniya kansleri *Betman-Golveyg* ham 1917-yilda iste'foga chiqdi. Rossiyada 1917-yilning fevralida inqilob ro'y berdi, natijada podshohlik tuzumi ag'darib tashlandi. Tarix haqiqatni yana bir bor tasdiqladi: urushni boshlagan hukumatlarning umri boqiy bo'lmaydi. I jahon urushida bu yaqqol namoyon bo'ldi. Urushda 38 mamlakat ishtirok etdi. Harakatdagi armiyalarning askarlari soni 29 milliondan ortiq, barcha safarbar qilinganlar miqdori esa 74 millionga yaqin edi. Janglarda 10 milliondan ortiq kishi halok bo'ldi, 20 million kishi yaralandi. Harbiy harakatlar natijasida minglab sha harlar, zavod va fabrikalar vayron bo'ldi, o'n minglab kilometr temir yo'l ishdan chiqdi. Oziq-ovqatlarga cheklashlar kiritildi, eng muhim ehtiyoj mollari uchun ma'lum me'yorlar belgilandi.

1917-yil – barrikadlar qurgan bir necha million ishchi tarqalib ketdi, o'zining uyushgan ijtimoiy va siyosiy kuch sifatini yo'qotdi.

1917-yil – *Betman-Golveyg* iste'foga chiqdi.

1917-yil – chet davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar jarayonida O'zbekiston hududida yangi mollar, ya'ni gazlamalar, metall, tikuv mashinalari, yog'och-taxta, g'alla keltirish yo'lga qo'yildi. Bu yerdan esa ba'zi hunarmandchilik mahsulotlari, paxta tolasi, pilla, qorako'l teri, quritilgan mevalar chet el bozorlariga olib borib sotilgan. O'zbek savdogarlari Eron, Afg'oniston, Qashg'ar, Hindiston va boshqa davlatlar bilan aloqa qilganlar. Ammo chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati oqibatida O'zbekistonda yetishtirilgan xom ashyolarni asosan rus savdogar va sanoatchilari olib ketar edilar. Turkistonda g'alla, temir buyumlari esa Rossiyadan keltirilardi.

1917-yil - Farg'ona va Samarqand viloyatlaridagi dehqon xo'jaliklari soni 613506 tani tashkil qildi.

1917-yil – Farg'ona viloyatidagi 160 ta paxta tozalash zavodidan 110 tasi,



Samarqand viloyatidagi 37 zavoddan 27 tasi yerli millatlar vakillari qo'lida edi. **1917-yil** – Farg'ona vodiysida to'plangan turli xil matolar, xonatlas, yasalgan asl pichoqlar, tikilgan do'ppilar chiroyi va sifati bilan ajralib turardi. Buxoro yagona zardo'stlik markazi bo'lib dong taratdi.

1917-yil - *Fitrat* "O'quv" kitobini yozib chiqardi.

1917-yil - germaniyalik yozuvchi *S.Byoll* dunyoga keldi.

1917-yil – hozirgi O'zbekiston yerlari Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi hamda Xiva xonligi tarkibida bo'lgan. Turkiston o'lkasi Sirdaryo, Farg'ona, samarqand viloyatlardagi uyezdlar hamda volostlarning katta qismida Buxoro amirligining markaziy va g'arbiy qismlarida, Xorazm vohasida aholining ko'pchiligini o'zbeklar tashkil qilgan. Bu yerlarda tarixan turli ma'muriy va siyosiy tizimlar tarkib topib kelgan. Buxoro amirligi va Xivada hukimiyat va ma'muriy boshqaruv an'anaviy bo'lib, Buxoroda amir, Xivada xon hukmdorlik qilardi. Buxoro ma'muriy jihatdan beklklarga, beklklilar esa amloklarga bo'lingan. Mamlakat poytaxti atrofidagi hududlar tumanlarga bo'linib, ularni amir nomidan qushbegi boshqargan. Beklar, qozilar, raislar, tumanlardagi amlokdorlar amir tomonidan tayinlangan. 30 ga yaqin beklklardagi amlokdorlar va boshqa amaldorlarni bekning o'zi tayinlar edi. Mamlakatda byudjet yo'q bo'lib, bojhona va soliqlardan kelgan mablag'lar amir xazinasiga tushardi. Beklar, qozilar o'z daromadlarining bir qismini har yili amirga tortiq qilish uchun sarflar edilar. Mamlakatda yotqizilgan qariyib 600 km. temir yo'l bo'yida Rossiya tasarrufidagi bo'lgan 20 ga yaqin rus shahar va qarorgohlari bor edi. Xiva xonligi 20 ta beklklga bo'lingan. Bundan tashqari Beshariq va Qiyot-Qo'ng'iro't noibliklari va xonning o'ziga qarashli yerlar (Xiva shahi) ham bor edi. Qushbegi va devonbegilar oliy mansabdor kishilar hisoblanganlar. Qo'shinga yasavulboshi qo'mondonlik qilgan. Iqtisodiy-savdo aloqalari karvon yo'llari va Amudaryo suv vositalari orqali amalga oshirilgan.

1917-yil – jadidchilik ma'rifatchilik harakatidan siyosiy harakat darajasiga ko'tarildi.

1917-yil – *Jorj Klemanso* Fransiya Bosh vaziri va ayni paytda harbiy vazir lavozimlaridagi faoliyati.

1917-yil – keyingi yangi qoraqalpoq adabiyotiga *A.Musayev*, *S.Majitov*, *S.Nurimbetov* asos solishdi.

1917-yil – o'lka aholisining ijtimoiy tarkibida dehqonlar va hunarmandlar ko'pchilikni tashkil qilgan, ulardan keyingi o'rinlarda savdo-tijorat ahli, ziyolilar, ishchilar, ruhoniylar, ma'muriy idoralar xodimlari, madrasa talabalari turganlar. Dehqonlar uch xil toifaga – yirik xo'jaliklar egalari, o'rtahollar va kambag'al-batraklar toifalariga mansub edilar.

1917-yil – o'lkada tog' sanoati, pillachilik, konchilik, spirtli ichimliklar va piva, sovun, cho'yan eritish korxonalari, g'isht zavodlari – jami 300 ga yaqin korxonalar bo'lgan.

1917-yil - O'zbekistonda jadidchilik ijtimoiy va demokratik harakat darajasiga ko'tarildi. Xalq ma'naviyati asos-mohiyatini islom dinining poklantiruvchl tarbiyaviy aqidalari, milliy urf-odatlarimizning sermazmun va insonparvarlik sifatleri tashkil qildi.



1917-yil - O'zbekistonda maktablar sonining o'sishi, maorif ijtimoiy darajasining ko'tarilishi darsliklarga talabni oshirdi.

1917-yil - pedagog, olim, davlat arbobi *Abdulla Avloniy* "*Turkiy guliston yoxud axloq*" tarbiyaviy-didaktik kitobini qayta nashr qildi, "*Maktab guliston*" o'qish kitobini, 2 jildlik "*Adabiyot yoxud milliy she'rlar*" kitoblarini yaratdi va chop etdi.

1917-yil – qishloq aholisi paxtachilik, pillachilik, bog'dorchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan. Buxoro qorako'l terilari jahonga mashhur bo'lgan.

1917-yil - Qoraqalpog'istonda ekin ekiladigan umumiy maydon 57950 desyatini tashkil etdi.

1917-yil - Qoraqalpog'istonda olinadigan yalpi paxta xosili 433000 pudga yetdi.

1917-yil – Rossiyada tashqi savdoga davlat yakka hokimligi joriy etildi. Unga doir masalalar Moskvadagi amaldorlarning qisqa doirasi tomonidan ko'rilishi, juda ko'pchilik bilan kelishilishi lozim edi. Bu tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga to'sqinlik qildi. G'arb bilan aloqa qilishdan, G'arb taraqqiyoti va madaniyatining ta'siridan qo'rqish, keng avj olgan josuslik vasvasasi sovet iqtisodiyotini dunyo miqyosida rivojlantirish yo'liga to'g'anoq bo'ldi.

1917-yil - *Said Rizo Alizoda* 1-sinflar uchun "*Birinchi yil*" o'qitish dasturini ishlab chiqdi.

1917-yil - Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona viloyatlarida 330 ta rus qarorgohlari bo'lib, ulardagi xo'jaliklar soni 16257 tani tashkil qilardi.

1917-yil – to'rt marta Butunturkiston musulmonlari qurultoyi o'tkazildi.

1917-yil - Turkiston o'lkasida 3 ta o'zbek viloyatlarida 8440 ming bosh qoramol bo'lgan.

1917-yil – Turkiston o'lkasining uch viloyatida 81241 nafar, Xiva xonligida 20 ming atrofida, Buxoro amirligida undan qariyb ikki baravar ko'p hunarmandlar faoliyat ko'rsatgan. Kasblariga qarab hunarmandlar guruhlar (sexlar) ga mansub bo'lib, har bir guruhni oqsoqol idora qilgan.

1917-yil - Turkistonda 270 ta paxta tozalash zavodi bo'lib, ishchilari soni 10849 kishi.

1917-yil - Turkistonda 326 ta paxta tozalash, yog'sovun zavodlari bor edi.

1917-yil - Turkistonda 91241 hunarmand bo'lib, ulardan 52796 tasi shaharlarda, 28445 tasi qishloqlarda faoliyat ko'rsatardi. Farg'ona, Samarqand viloyatlari, Toshkent shahri va atrofida 31353 ta hunarmandchilik korxonalari bo'lib, ular hunarmandlarning xususiy mulki bo'lgan. Ular davlat mulki deb e'lon qilindi. Hunarmandchilik ustidan qattiq nazorat o'rnatildi, mahsulotlar hokimiyat tomonidan taqsimlanadigan bo'ldi.

1917-yil - Turkistonda bolsheviklar xalq ommasining madaniyati, an'analari, ma'naviyatiga zid bo'lgan siyosat va chora-tadbirlarni o'tkazishga kirishdilar.

1917-yil - Turkistonda bolsheviklar xalq ommasining madaniyati, an'analari, ma'naviyatiga zid bo'lgan siyosat va chora-tadbirlarni o'tkazishga kirishdilar. O'tmish avlodlar yaratgan obidalar vayron qilindi. Jamiyat hayotining axloqiy tamoyillariga hujum qilindi.

1917-yil – Turkistonda hunarmandchilik keng yoyilgan joylar Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Namangan, Marg'ilon shaharlari, Chust va boshqa aholi yashaydigan markazlar edi.



1917-yil - Turkistonda o'zbek tilida 7 ta kitob nashr etildi.

1917-yil - Turkistonda qurg'oqchilik bo'lib, g'alla hosili yaxshi bo'lmadi. Turkiston o'lkasi bo'yicha 52,5 mln pud g'alla yetishtirildi. Holbuki, o'lka aholisining faqat jon saqlashi uchun kamida 110 mln pud bug'doy kerak edi.

1917-yil – Turkistonning 3 ta viloyatida paxta maydoni 466 ming desyatinaga borib yetdi, buning eng ko'pi – 226 ming desyatina yer Farg'ona viloyatiga to'g'ri keldi.

1917-yil – Turkistonning Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida aholi soni 5,5 mln. kishini tashkil etgan. Ularning 80 % dan ko'prog'i qishloq joylarida, qolgan qismi shaharlarda yashagan. Buxoro amirligining aholisi 3 mln.dan ortiq, Xiva xonligi aholisi 500-550 ming kishi bo'lgan. Bu ikki mamlakatda qishloq aholisi ko'pchilikni tashkil qilardi. O'zbekiston hududida yerli aholining asosiy qismini o'zbeklar tashkil qilgan.

1917-yil – yollanma ishchilar soni Turkistonda 60 ming kishi atrofida bo'lib, Buxoro amirligida 3 mingga yaqin, Xiva xonligida 2 mingga yaqini yashar edi.

1917-yil boshi - Muvaqqat hukumatning Xorazmdagi harbiy komissari Zaytsev katta harbiy otryad bilan Xivaga keldi.

1917-yil boshi - Petrogradga bo'lib o'tgan voqealar ta'siri ostida Turkistonda yangi jamiyat kurtaklarini shakllantirish uchun harakat boshlanib ketdi. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida o'lka muxtoriyati masalasi asosiy masala bo'lib qoldi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g'oyasi nafaqat demokratik ziyolilari orasida, hatto oddiy odamlar o'rntasida ham ancha ommalashgan edi.

1917-yil bahor - Buxoroda konservativ, mutaasib kuchlarning jazavaga kelishi.

1917-yil bahor – Buxoroning ichki siyosiy hayoti yangi pallaga kirdi. Islohotlar, o'zgarishlar zarurligi aniq bo'lib qoldi. Islohotlar o'tkazish g'oyasiga bo'lgan munosabatida mamlakat doiralari asosan ikki oqim – liberal-demokratik va konservativ oqimlarga bo'lingan edi. 1-oqim Yosh buxoroliklar va ularga yaqin demokratik doiralarda tashkil topdi. Ular Yosh buxoroliklar islohotlar dasturini ishlab chiqishga kirishib, ilg'or g'oyalar va ularni amalga oshirish yo'llari ustida keng fikr almashmoqda edilar. Endi ular islohotlarni amalga oshirishni talab qilib chiqdilar. Bu talablar shu qadar ta'sirchan ediki, amir va Rossiya siyosiy agent hukumati rezidenti *A.Miller* bilan bu jarayon o'zanida ish ko'rishga majbur bo'ldilar. Lekin ular islohotlar masalasidan o'z maqsadlari uchun foydalanmoqchi bo'ldilar.

1917-yil bahor - *Fitrat*ning Buxoroda islohotlar o'tkazish borasidagi faoliyati boshlandi.

1917-yil bahor – Turkistonning birligi va yaxliligi tomon muhim qadam tashladi. Tarixda ilk marta Butunturkiston miqyosida musulmonlar qurultoyi chaqirilib, unda tub xalqlarning muxtoriyat tomon qat'iy intilishi, o'z an'analari, urf-odatlari va turmush tarzini izchil turib himoya qilishi aytili. Bu manfaatlarning ifodachisi bo'lgan Milliy Markaz – Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi tashkil etildi.

1917-yil yoz – Podsho hukumati ichki ishlar vaziri *A.D.Protopopov*ning Muvaqqat hukumat favqulodda tergov komissiyasiga ma'lumot beradi.

1917-yil yoz - *Fitrat* Samarqandga kelib, "*Hurriyat*" gazetasiga muharrir bo'ladi va dolzarb masalalarda maqolalar yozadi.



1917-yil kuz - o'lkada yuz bergan oziq-ovqat tanqisligidan bolsheviklar foydalanib, Sovetlar hokimiyati qo'lga olishi masalasini ilgari surdilar. Ular ishchi va soldatlar boshdan kechirgan qiyinchiliklar, noroziliklarni o'z manfaatlariga qaratib bordilar. Bolsheviklarga boshqa so'l guruhlar, harbiy asirlar, frontdagi kommunistlar qo'shildilar.

1917-yil kuz – o'lkadagi so'l-bolshevistik doiralar, ular tuzgan hukumat, bir tomondan colonial-shovinistik, ikkichi tomondan esa inqilobiy sinfiylik siyosati va bu boradagi amaliy ishlarni boshlab yubordi.

1917-yil qish - 1923-yil oxiri - Turkistonda ocharchilik. Turkiston Muxtoriyati hukumati Kavkazdan Orenburg orqali Turkistonga g'alla keltirishga harakat qilganligi ma'lum. Lekin Toshkentda zo'rvonlik bilan hokimiyatni egallagan bolsheviklar hukumatining rahbarlari nafaqat siyosiy boshqaruvda, balki iqtisodiy sohada ham qo'pol xato va jinoyatlarga yo'l qo'yishdi.

1917-yil fevral – Amerika qo'shinlarining Kubaga tushirilishi.

1917-yil fevral – bolsheviklar *RSDRP* ichida kichik bir guruhni tashkil etardi. Rossiya bolsheviklari dohiyasi *V.Lenin* Shveysariyada muhojirlikda yashar, Rossiyadagi inqilobiy voqealar xususida ham gazetalar orqali xabar topgan edi. Germaniya hukumati uni o'z mamlakati va Finlyandiya orqali Petrogradga jo'natishga rozilik berdi.

1917-yil fevral – chorizmning ag'darilishi qoraqalpoq xalqining hayotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Qoraqalpoqlar bu paytda asosan Turkiston general-gubernatorligiga qarashli Amudaryo bo'limi – okrugi (markazi Petro-Aleksandrovsk – hozirgi To'rtko'l shahri) va Xiva xonligining ayrim beklklarida istiqomat qilishgan.

1917-yil fevral – Rossiya inqilobidan keyin To'rtko'l'da ham sovetlar ittifoqi tuzildi va faoliyat ko'rsatdi. Bundagi so'l-ekstremistik guruhlar sovetlarga rahbarlikni qo'lga olish bilan qanoatlanmasdan bu yerdan butun Xorazmga tahdid sola boshladilar.

1917-yil fevral - Xiva xoni *Asfandiyorxon* davolanishiga ketgan edi. Xorazmda tartibni saqlab turishni Muvaqqat hukumatning Turkiston Komiteti amalga oshirdi.

1917-yil 3-fevral – AQShning Germaniya bilan diplomatik aloqalarni uzishi.

1917-yil 27-fevral – Rossiyada fevral burjua-demokratik inqilobining boshlanishi.

1917-yil 28-fevral (13-mart) - Rossiyada fevral inqilobi g'alaba qozondi.

1917-yil fevral oxirida – Rossiyada ro'y bergan inqilob Romanovlar sulolasining podsholik tuzumiga barham berdi.

1917-yil fevral-oktabr oxiri - Rossiyada 2 ta hokimiyat – qo'sh hokimiyatchilik paydo bo'ldi. IV Davlat dumasi deputatlari Muvaqqat hukumat tuzdilar, ishchi, soldat, dehqon deputatlari Sovetlari tuzildi Muvaqqat hukumat demokratik erkinliklarni joriy etishni e'lon qildi.

1917-yil mart - To'rtko'l'da soldat deputatlari soveti tashkil qilindi.

1917-yil 1-mart - 2-iyul – Rossiyada amalda 2 hokimiyatchilik qaror topdi. Hokimiyat burjua partiyalari vakillaridan iborat Muvaqqat hukumat bilan ishchi va askar deputatlari organi bo'lgan Sovetlar o'rtasida taqsimlangan edi. Ikki hokimiyatchilik – ikki diktaturaning yakka hukmronlik uchun kurashi davri davom



etdi. Muvaqqat hukumat parlamentar monarxiyani e'lon qilish tarafdori edi. Ishchi va askar deputatlari proletariat va dehqonlarning inqilobiy-demokratik diktaturasiga tayanib, demokratik respublika o'rnatish uchun kurash olib borardilar.

1917-yil 2-mart – podshoh *Nikolay II* o'z ukasi *Mixail* foydasiga taxtdan voz kechdi. Ammo hokimiyatning podsholik shakliga qarshi noroziliklar tufayli Mixail Romanov bu taklifni qabul qilmadi. Faqatgina Ta'sis majlisi roziligi bilan taxtga vorislik qilishi mumkinligini bildirdi.

1917-yil 14-mart – Toshkentda "*Sho'roi Islomiya*" tashkil topdi. Aksariyat jadidlardan iborat bu tashkilot a'zolari Turkiston mustaqilligi uchun kurash olib bordilar.

1917-yil mart-aprel - siyosiy uyg'onishda burilish davri bo'ldi. Turkiston jadidlari, milliy ziyolilar va islom ulamolarining yetakchilari bo'lgan *Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Sadridin Ayniy, Usmon Xo'ja, Mustafu Cho'qay, Muhammadjon Tinishboyev, Sherali Lapin, Ahmad Zaki, Validiy To'g'on, Obidjon Mahmudov, "Sho'roi Ulamo", "Turon jamiyatlari" va "Turk Adami Markaziyat firqasi", "Ittifoqi musulimin"* siyosiy partiyalarning tuzilishida muhim rol o'ynadilar.

1917-yil aprel - kuz boshi - hokimiyatni Turkiston Komiteti boshqardi.

1917-yil 3-aprel – *V.Lenin* Petrogradga yetib keldi. Rossiyaga kelgan zahoti u mavjud tuzumni "*sotsialistik inqilob*" yo'li bilan ag'darish dasturini ilgari surdi. *Lenin* tomonidan qo'yilgan vazifa inqilob yo'li bilan yangi hokimiyat o'rnatish va bu hokimiyat vositasida cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan proletariat diktaturasini qaror toptirish edi. Amalda u bolsheviklar partiyasining mutlaq hukmronligini o'rnatishni, iqtisodiyotda esa barcha korxonalar, zavod va fabrikalarni davlat ixtiyoriga o'tkazish, yerlarni mulkdorlardan olib, dehqonlarga bo'lib berishni nazarda tutar edi.

1917-yil 4-aprel - Xivada devonbegi hovlisi oldida ko'p ming kishilik miting bo'lib o'tdi. Shu kuni rus soldatlari Muvaqqat hukumatga sodiqlikka qasamyod qildilar. Miting qatnashchilari soldatlarni tabrikladilar va Nurullaboy saroyi tomon yo'l oldilar. *Polvonniyoz Yusupov va Husaynbek Matmurodov* boshchiligidagi delegatsiya a'zolari xon oldiga kirib, islohatlar o'tkazish talablarini bayon qildilar. Xon xalq harakatining keng quloch yozganidan qo'rqib ketdi. U talablarni qondirishga rozilik berdi. Mamlakatning ko'zga ko'ringan arboblari, ular qatori Yosh xivaliklar manifesti matnini ishlab chiqdilar.

1917-yil 5-aprel - Yosh xivaliklar manifestni tantanali sharoitda e'lon qilishdi. Xon Majlisni chaqirishga va boshqa islohotlarni o'tkazishga rozilik bildirdi. U reaksiyon xalqqa ko'p jabr-zulm o'tkazgan amaldorlar *Ibrohimxo'ja, Ashur mahram, Ota mahram, Ro'zimuhammad mahram, Shohnazarboy* yangi yasovulboshini qamadi. Ular o'rniga Yosh xivaliklardan yangi odamlar tayinlandi. Mahkamai adliya deb atalgan Majlisga saylovlar o'tkazdi, deputatlar soni 49 kishidan iborat bo'ldi, Manifestda ko'rsatilishicha bu organ islohotlar o'tkazilishini nazorat qilishi kerak edi.

1917-yil 6-aprel – AQShning Germaniyaga urush e'lon qilishi.



1917-yil 7-aprel - Buxoro arkining katta binosida amaldorlar, ruhoniylar, Rossiya vakillari, Buxoro va Turkiston jamoatchiligi vakillari yig'inida *Olimxon* ishtirokida amir farmoni manifesti(farmoni) e'lon qilindi. Poytaxtda obro'li arboblardan iborat mahkamani tuzish, amaldorlar, ularning daromadlari ustidan nazorat o'rnatish, soliqlar tizimini tartibga solish, davlat byudjetini joriy qilish, sanoat, tijorat, ma'rifat rivojlanishi uchun qayg'urish va'da qilindi.

1917-yil 8-aprel – Buxoroda amir manifestining e'lon qilinishi demokratik va konservativ lagerlarning ko'chaga chiqishiga sabab bo'ldi. Demokratik doiralar amir manifesti mamlakatda tinch yo'l bilan progressiv o'zgarishlarni amalga oshirish uchun dastlabki qadam, deb qaradilar. Shukurona namoyishi o'tkazilishiga qaror qilindi. "Yashasin islohot", degan yalovlar ko'tarildi. Namoyishchilar boshida *F.Xo'jayev*, *Abdulvohid Burhonov (Munzim)*, *Otaxo'jayev*, *Mirbobo*, *Yusufzoda* va boshqa faollar bordilar. Shu kuni konservatorlar va mutaassib guruhlar Registonda to'planib, islohotga, yangiliklarga qarshi jangarilik va murosasizlik kayfiyatlarini izhor etdilar. Ba'zi amaldorlarga nisbatan, islohot tarafdorlariga qarata dushmanona dag'dag'alar, hayqiriqlar qildilar. Ularning jazavasi soat sayin kuchayib bordi. Bunday murakkab vaziyatda ikki lagerning to'qnashuvi nohush oqibatlar keltirishi mumkin edi. Demokratik kayfiyatdagi namoyishchilar boshliqlari Registonga borish niyatidan qaytdilar, namoyishchilarni tarqalib ketishiga da'vat etdilar. Tadbir oxirigacha yetkazilmagan bo'lsada, u Buxoro amirligi demokratik o'zgarishlar, islohotlar uchun yetilmaganligini yaqqol ko'rsatdi. Konservativ kuchlar yana ustunlikka erishdilar. Dovdirab qolgan amir qozikalon *Sharifjon* maxdumni lavozimidan bo'shatdi, g'azablangan mutaassiblar rais *Abdusamadxo'jani* olomon qilib o'ldirdilar; qushbegi *Nasrullobek* buyrug'i bilan shoir *Sadriddin Ayniy*, Yosh buxoroliklar *Mirbobo*, *Mirzo Nasrullo* 75-150 darra urib jazolandilar. Islohotchilik harakatining bu bosqichi mana shunday noxushlik bilan yakunlandi.

1917-yil 16-aprel - Samarqandda chiqa boshlangan "*Hurriyat*" gazetasining 24-74-82-87-sonlariga **Fitrat** muharrirlik qildi. Kolesov voqealaridan so'ng *Fitrat* Toshkentda yashadi, "*Chig'atoy gurg'ini*" adabiy-ma'rifiy to'garagining tashkilotchilaridan va faol a'zolaridan biri bo'ldi. *Fitrat* o'z maqola va asarlarida milliy davlatchilik, vatanparvarlik g'oyalari tarannum etdi. *F.Xo'jayev* Yosh buxoroliklar g'oyalari ruhidagi dasturiy hujjat - maromnomani tuzdi va nashr etdi, "*Uchqun*" gazetasining chiqishini tashkil qildi.

1917-yil 16-23 aprel – Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining I qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda Rossiya tarkibida Turkiston Muxtoriyatini tashkil etish g'oyasi olg'a surildi. Bu g'oya Turkiston xalqlarining o'z milliy davlatchiligini tiklash yo'lidagi dastlabki qadami edi.

1917-yil 26-aprel-noyabr oxiri - Xivada Majlis ish boshladi. Unda Majlis raisi qilib *Bobo'xun Salimov*, hukumat raisi qilib *Husaynbek Matmurodov* saylandilar. Mamlakatdagi ijtimoiy harakat dastlabki demokratik o'zgarishlar - islohotlar to'g'risidagi manifestning e'lon qilinishi va Yosh xivaliklar ishtirok etgan Majlisning tashkil qilinishiga olib keldi. Xon hokimiyatining cheklanishi belgilandi: bu o'zgarishlarning ahamiyati shunda ediki, demokratiya yo'lidagi dastlabki



qadamlar qon to'kilmasdan sodir bo'ldi. Yosh xivaliklar, mamlakat ilg'or doiralarning maqsad-intilishlari shu jihatdan so'l-ekstremistik bolshevikcha maqsad va siyosatdan farq qilar edi.

1917-yil 26-aprel - iyun o'rtasi - Yosh xivaliklar hukumati faoliyatining dastlabki bosqichi.

1917-yil may boshi - *Bobooxun Salimov* boshchiligidagi Majlis delegatsiyasi Turkiston komiteti bilan aloqa o'rnatish uchun Toshkentga jo'naydi. Shu paytda *Asfandiyorxon* Yosh xivaliklarga fitna uyushtiradi. Hukumat raisi *Matmurodov* va yana 16 kishi qamoqqa olinib, shariatga zid ish ko'rganlikda ayblandilar. Majlis tarkibi yangilandi, unga xon amaldorlari va reaksiyon ruhoniylar kiritilardi.

1917-yil iyun - *Munavvar Qori* boshchiligidagi "Sho'roi Islomiy"dan "Sho'roi Ulamo" ajralib chiqdi. *Sherali Lapin* uning Toshkent sho'basiga asos soldi va "Sho'roi Ulamo" tashkil topdi.

1917-yil iyun boshi – Muvaqqat hukumat o'z ishlarini harbiy muvaffaqiyatlar bilan tuzatib olish umidi bilan qo'shinlarga hujumga o'tish haqida buyruq berdi. Hujum yirik harbiy mag'lubiyat bilan yakunlandi.

1917-yil 29-iyun – Gretsiya Germaniyaga urush e'lon qildi. Urush Gretsiya uchun muvaffaqiyatli bordi.

1917-yil iyul - "Turon" jamiyati, "Turk adami Markaziyat (Federalistlar)" firqasi tuzildi.

1917-yil 4-iyul – Petrogradning g'azablangan aholisi ommaviy namoyishga chiqdi. Unda 500 mingdan ortiq kishi qatnashdi. Namoyishchilar Muvaqqat hukumatning iste'foga chiqishini va hokimiyatning Sovetlar qo'liga berilishini talab qildilar. Namoyish hukumat qo'shinlari tomonidan bostrildi. Ikki hokimiyatchilik tugatildi, hokimiyat to'laligicha Muvaqqat hukumat qo'liga o'tdi. Hukumatda o'zgarishlar qilindi, mehnatchilar fraksiyasi rahbari *A. Kerenskiy* Bosh vazir qilib saylandi.

1917-yil 29-iyul – Gretsiyaning Antanta tomonida urushga kirishi.

1917-yil 30-iyul – *Nikolo Pashich* va xorvatlar yo'l boshchisi *Ante Trumbich* pakt ("Korfu pakti") imzolashdi. Bu paktida serblar, xorvatlar, slavenlar, chernogoriyaliklar birlashishi lozim bo'lgan Janubiy slovyanlar qirolligi tashkil etilganligi e'lon qilindi. Karageorgievchtlar sulolasi vakili qiro'l bo'lishi, lekin qirolik demokratik konstitutsiyaga ega bo'lishi, xalqlar esa mahalliy muxtoriyat olishi shart edi.

1917-yil 11-avgust – Chernogoriya vakillari Korfu paktiga qo'shilishdi.

1917-yil 14-avgust – Xitoy hukumatining Germaniyaga urush e'lon qilishi.

1917-yil sentabr – "Ittifoqi musulmin" siyosiy partiyasi tashkil topdi.

1917-yil sentabr – bolsheviklar partiyasining azolari soni 300 mingdan ortib ketdi. Bu paytda mamlakat siyosiy hayotining ikki asosiy markazi – Petrograd va Moskva Sovetlari bolsheviklar nazorati ostiga o'tgandi. Amalda mamlakat hokimiyati ularning qo'lida edi. Faqatgina inqilobni yakunlash, Muvaqqat hukumat hokimiyatini ag'darish lozim edi.

1917-yil 1-sentabr – Rossiyaning respublika deb e'lon qilinishi. Hokimiyatning Kerenskiy boshchiligidagi Direktoriyaga o'tishi.

1917-yil 10-11-sentabr - "Sho'roi Islomiy" tashkillashtirgan Toshkentdagi Butun Turkiston musulmonlarining 2-qurultoyi ochildi. Qurultoyda hokimiyatni ishchi,



soldat va dehqon deputatlar sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Ushbu qurultoyda qabul qilingan rezolyutsiyalarda milliy demokratiya o'zi tutadigan yo'lning muhim asoslarini 1-marta qat'iy qilib aytdi: hukumat demokratik siyosat yurgizadigan bo'lsa, ana shundagina musulmonlar bu hukumatda ishtirok etadilar. 2-qurultoyda faqat Milliy Markaz – Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi mintaqadagi tub yerli aholi manfaatlarini himoya qilishi mumkin, degan fikr qat'iy qilib qo'yildi.

1917-yil 17-20-sentabr - Toshkentda Turkiston va Qozoqiston musulmonlarining qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda “*Sho'roi Islomiya*”, “*Sho'roi Ulamo*”, “*Turon*” tashkilotlari birlashib “Ittifoqi Muslimin” partiyasi tuzildi. Qurultoy ishidagi asosiy masala Turkiston o'lkasining bo'lajak siyosiy tuzumini belgilash edi. Qurultoy muxtoriyatiga “Turkiston Federativ Respublikasi” degan nomni qo'yib, parlament respublikasi asosida tuzilajak bo'lg'usi davlat tuzumining bosh tamoyil va me'yorlarini belgilab berdi.

1917-yil oktabr – davlat to'ntarishidan keyin Yevropa sanoatchilari o'z daromadlarini yana Rossiya sanoatiga qayta olib kirishdan manfaatdor emas edilar. Rossiya faqatgina sarmoya to'plash bo'yicha favqulodda choralar ko'rish, qishloq xo'jaligidagi barcha imkoniyatlarni safarbar etish, o'z ishchilarini ekspluatatsiya qilish evaziga sanoat ravnaqiga ko'ra, iqtisodiy tadbirlarning asosini xorijiy mulklarni natsionalizatsiya qilish, podshoh hukumatining qarzlarini to'lashdan voz kechish va majburiy mehnat tashkil etardi. Tabiiyki, burjuademokratik hukumat bularning birortasini ham amalga oshirmagan bo'lar edi.

1917-yil oktabr - oktabr voqealari Xorazm mustaqilligi uchun ham xavf tug'dirdi. Shu sababli mamlakat kuchlarini birlashtirish uchun harakat boshlandi.

1917-yil oktabr – to'ntarish natijasida ekstremistik, buzg'unchi unsurlar Buxoro posyolkalarida hokimiyatni qo'lga oldilar. Harbiy qismlar, qizil gvardiyachilar soni ko'paytirildi. Bu jiddiy o'zgarishlar mamlakat aholisi hayotiga va Yosh buxoroliklar kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Rus posyolkalaridagi garnizonlarning askarlari oziq-ovqat va yem-xashakni Buxoro tumanlari aholisidan tortib olishga kirishdilar. Turli xil qog'oz pullarning qiymati qolmagani natijasida yerli aholi o'z mahsulotlarini bu pullarga sotishni istamadi, soldatlar esa ba'zi joylarda zo'rlik bilan tortib olishgacha bordilar.

1917-yil oktabr – to'ntarish natijasida Turkistonda xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqliligi, balog'atga yetmagan qizlarni erga bermaslik masalalari bo'yicha bir qator qonunlar va qarorlar qabul qilindi.

1917-yil oktabr - 1918-yil boshi – Amudaryo bo'limi komissari vazifasini gidrotexnik *V. Palishev* egallab turdi. Bu davrda hokimiyat tizimida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi.

1917-yil oktabr-noyabr – Turkiston o'lkasida, Toshkent va Qo'qonda yuz bergan voqealar milliy-ozodlik harakatini butunlay boshqa yo'nalishdan ketishga majbur qildi.

1917-yil oktabr 2-yarmi - Toshkentda norozilik yig'ilishlari va mitinglar avj olib ketdi. Petrogradga qurolli to'ntarish ro'y bergani, Muvaqqat hukumat ag'darilgani, hokimiyatni bolsheviklar qo'lga olgani to'g'risidagi xabar Toshkentga yetib keldi.



Turkiston bolsheviklari rahbarlik qilgan Toshkent soveti ishchi va soldatlarni qo'zg'olon ko'tarishga da'vat qildi. Lekin general Korovichenkoga sodiq qolgan qismlar bunga qarshilik ko'rsatdilar.

1917-yil 9-oktabr - Buxoroga xabar qilinadiki, *“Termizda rus askarlari bilan bozorda savdo qilgan buxoroliklar o'rtasida to'qnashuv yuz berdi, buxoroliklardan o'ldirilganlar bor”*.

1917-yil 24-26-oktabr – Rossiyada oktabr qurolli to'ntarishi. Muvaqqat hukumatning ag'darilishi. Hokimiyatning bolsheviklar qo'lga o'tishi.

1917-yil 25-oktabr – bolsheviklar hokimiyatini o'z qo'llariga oldilar. Amalda Peterburgda to'ntarishga qarshi turadigan kuch qolmagan, hech kimning Muvaqqat hukumatni himoya qilish niyati yo'q edi. Sovetlarning 2-s'ezdi to'ntarish yakunlanganidan keyin hokimiyatga bolsheviklar partiyasi kelganligini tasdiqladi, yer haqida, tinchlik haqida dekretlar va *“Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi”*ni qabul qildi.

1917-yil 25-oktabr – o'tar kechasi bolsheviklarning qurolli guruhleri Nikolay va Boltiq vokzallarini, markaziy elektr stansiyasini egalladi. Soat 13 da Muvaqqat hukumat joylashgan Mariin saroyi qo'lga kiritildi. Soat 18 da Qishki saroy o'rab olindi va tez orada zabt etildi. Muvaqqat hukumat to'la tartibda qamoqqa olindi. Harbiy-inqilobiy qo'mita davlat to'ntarishini amalga oshirib shu kuni hokimiyatni o'z qo'lga oldi.

1917-yil 25-oktabr (yangi sana 7 noyabr) - Rossiyada bolsheviklar mensheviklar va “so'l” eserlar bilan birga davlat to'ntarishini amalga oshirdilar va hokimiyatni qo'lga oldilar.

1917-yil 28-oktabr – Toshkentning yangi shaharida qurolli to'qnashuvlar avj oldi. Qo'zg'olonchilar general qismlaridan ustun keldilar.

1917-yil 1-noyabr – Toshkent harbiy qal'asi taslim bo'ldi, qurolli qo'zg'olon g'alaba qozondi. Toshkentda bolsheviklar zo'ravonlik bilan hokimiyatni egallashdi.

1917-yil 15-noyabr – ish boshlagan o'lka ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining III qurultoyi tortishuvlar oqibatida hukumat – Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Sovetini tuzdi, unda 8 o'rin so'l eserlarga, 7 o'rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berildi. Biroq faqat yevropaliklardan iborat hukumat tuzildi. Turkiston XKS raisi lavozimini kasbi chizmachi bo'lgan bolshevik *F.Kolesov* egalladi, harbiy komissar qilib izlovchi *Perfilev*, boshqa komissarlik lavozimlariga o'rtamiyona yurist va shunga o'xshaganlar tayinlandilar. Hukumat a'zolari qatoriga tub aholi vakillaridan kiritilmadi.

1917-yil 23-noyabr – Turkiston o'lkasidagi yangi hukumat aholiga qilgan murojatida o'zining maqsadlarini yashirib o'tirmadi. Turkiston XKS o'z faoliyatining 1- kunlaridan boshlab sovet siyosatini amalga oshirishga, Turkiston o'lkasida sovet rejimini mustahkamlashga jon-jahdi bilan kirishdi.

1917-yil 26-28-noyabr (yangi sana 9-11 dekabr) - Qo'qonda Turkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Turistonni boshqarish shakli to'g'risidagi masala qurultoyning diqqat markazida turdi.

1917-yil 27-noyabr (yangi san 10-dekabr) - Turkiston Rossiya tarkibida xududiy jihatdan muxtor deb e'lon qilindi. Turkistonni Federativ Rossiya respublikasi



tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qilindi. Fitrat bu tunni “*Milliy Laylatulqadrimiz*” deb atadi.

1917-yil 28-noyabr (yangi sana 11-dekabr) - tarkib topayotgan yangi davlat nomi - Turkiston muhtoriyati deb e'lon qilindi. Qurultoyda o'sha kungi yig'ilishda Butunrossiya Ta'sis majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq Majlisi qo'lida bo'lishi kerak, deb qaror qabul qildi. Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolaridan 8 kishidan iborat tarkibda Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi. Hukumatning Bosh vaziri hamda ichki ishlar vaziri etib *Muhammadjon Tinishboyev* saylandi. *Islom Sulton o'g'li Shoahmedov* – bosh vazir o'rinbosari, *Mustafo Cho'qayev* – tashqi ishlar vaziri, *Ubaydulla Xo'jayev* – harbiy vazir, *Hidoyatbek Yurg'uli Agayev* – yer va suv boyliklari vaziri, *Obidjon Mahmudov* – oziq-ovqat vaziri, *Abdurahmon O'rozayev* – ichki ishlar vazirining o'rinbosari, *Solomon Abramovich Gersfeld* – moliya vaziri lavozimlarini egallashadi. Hukumat tarkibida keyinchalik ayrim o'zgarishlar yuz berdi. *Mustafo Cho'qay* Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishdi. Vazirlardan uch kishi oliy ma'lumotli huquqshunos, ikki kishi o'rtacha malakali huquqshunos ekanligi Muxtoriyat hukumati a'zolari bilim darajasining naqadar yuqori ekanidan dalolat beradi

1917-yil noyabr oxiri - *Asfandiyorxon* o'z mavqeini mustahkamladi, demokratik o'zgarishlar jarayoniga to'siqlar qo'yildi, Majlis keyinchalik xonga yon bosib, faoliyati bo'shshib ketishiga qaramasdan Xiva xoni Majlisni tarqatib yubordi. Asfandiyorxon Rossiya Muvaqqat hukumati, uning Turkistondagi vakillari bilan aloqa o'rnatishga intildi. Boshqaruvini yo'lga qo'yish uchun polkovnik *Zaytsev* Muvaqqat hukumatning Xorazmdagi harbiy komissari etib tayinlandi. U mamlakatdagi va Amudaryo bo'limidagi rus harbiy qismlari qo'mondoni ham bo'ldi.

1917-yil 1-dekabr - Namangan uyezdida 100000 kishilik namoyish bo'lib o'tdi.

1917-yil 1-dekabr – Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati a'zolari (8 kishi) imzolagan maxsus Murojaatnoma e'lon qilindi. Ushbu Murojaatnomada Turkistondagi barcha aholi: irqi, millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar, yakdillik va hamjihatlikka da'vat etilgan edi.

1917-yil 6-dekabr - Toshkentda *Munavvar Qori* rahbarligida 60000 kishilik miting bo'lib o'tdi.

1917-yil 9-dekabr - Turkiston XKS yerni sotish va sotib olishni man qiluvchi, yerni ijaraga berishni cheklovchi qaror qabul qildi.

1917-yil 13 dekabr - Toshkent Eski shahar aholisi o'tkazgan namoyish o'qqa tutildi.

1917-yil 26-dekabr – Turkiston Milliy bayrog'i qabul qilindi. “*El bayrog'i*”, “*Birlik tug'i*”, “*Nãoáoái ú é Óðééñò aí*”, “*Êçáeñò èy Áðei eí í oão Í ðaáèò eéúñò àa Aâò of oi í oão Óðééñò aí a*” kabi hukumat o'zbek, qozoq va rus tillarida nashr qilina boshladi.

1917-yil 26-30-dekabr (y.h 1918-yil 8-12-yanvar) - Qo'qonda bo'lib o'tgan yerli ishchi, askar va dehqon deputatlari I favqulodda qurultoyining diqqat markazida Turkiston Muxtoriyatiga munosabati masalasi diqqat markazida turdi. Qurultoy



ochilishini Turkiston o'lka Harbiy Sho'rosi rahbari *Orif Klivleyev* qutladi. Muvaqqat Millat Majlisi nomidan Islom Shoahmedov va boshqalar ham qurultoyni tabrikladilar. Faqat bolsheviklar partiyasining vakili, o'lka mehnat komissari P.Poltoratskiy qurultoyda dag'da'g'ali ohangda so'zlab, xalqimiz tarixidagi ilk demokratik hukumatni "boylar muxtoriyati" deb tuhmat qildi. "*Biz kambag'allar muxtoriyatiga qarshi emasmiz*", deb *Poltoratskiy* munofiqlik qildi. Qurultoy vakillarining ko'pchiligi *Poltoratskiy*ning bunday ig'vo va aldovlariga uchmadilar. **1917-yil 30-dekabr** - Turkiston Muhtoriyatini qo'llab quvvatlash shuningdek, Turkiston o'lkasi xalq komissarlari sovetiga ishonchsizlik bildirish to'g'risida rezolyutsiya qabul qilindi.

1917-yil oxiri - Turkistonda 3,5 mln desyatina ekin maydoni yarmiga qisqardi.

1918-1919-yillar – Indoneziyadagi barcha orollarda, Yavada uyushqoqligi bilan ajralib turadigan, mustamlakachilikka qarshi mazmundagi stachkalar avj oldi. Bu inqilobiy kurash to'loqinida siyosiy partiyalar vujudga keldi. Ularning ba'zilari islohotchilik tusidagi kurash yo'lini yoqlashsa, boshqalari faol qurolli kurashga qat'iy tarafdor edi.

1918-1919-yillar – ocharchilikni yengish, ishchilarni to'ydirish, chayqovchilikni tugatish, ishchilar sinfini tanazzul va tushkunlikdan qutqarish – inqilobiy hukumat oldida turgan asosiy vazifalar edi. *Lenin* mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining yangi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu kommunizmga to'g'ri olib borishi kerak bo'lgan "*harbiy kommunizm*" siyosati edi. Mamlaktda don uchun "harbiy yurish" e'lon qilindi. "*Temir proletar intizom!*" joriy etildi va "*kulaklar*" ayovsiz jazolandi.

1918-1919-yillar - Xorazmning iqtisodiy ahvoli og'irlashib, xalq ommasining moddiy qiyinchiliklari ortib bordi. Matbuotda ocharchilikning kuchaygani haqida xabar qilinardi. Asfandiyorxon hukmronligidan xalq ommasigina emas, amaldorlar va turkman qabilalari boshliqlari ham norozi edilar.

1918-1919-yillar - zo'ravonlik va nomigagina tovar ayirboshlash yo'li bilan Turkistondan 4.500.000 pud g'alla tortib olindi.

1918-1920-yillar – alban xalqi orqasida davlat hududini Italiya, Gretsiya va Yugoslaviya o'rtasida bo'lib olish o'tkazildi. Ularga Albaniya hududining muayyan qismlari o'tdi.

1918-1920-yillar – Rossiyada fuqarolar urushi davri. Don (Kaledin, Krasnov), Kuban (Denikin), Janubiy Ural (Dutov), Sibir (Semyonov), Qrim (general Vrangel), mamlakat shimoli g'arbi (general Yudenich) ichki aksilinqilobning asosiy markazlari edi. Fuqarolar urushi jarayonida Rossiyaning kelgusi taraqqiyot yo'li uchun kurash borardi. Dehqonlarning barcha talablari pirovardida shu shiorlarga borib taqalardi: "*Kommunistlarsiz Sovetlar uchun*" va "*Tijorat erkinligi uchun*". Yirik burjuaziya, dvoryanlar va oq armiya rahbariyati cheklangan monarxiyani tiklashga intilardi. "*Inqilobiy demokratiya*" yo'nalishidagi partiyalar (mensheviklar, eserlar) Rossiyaning demokratiya va erkin ishbilarmonlik yo'lidan rivojlanishi tarafdori edilar. Bolsheviklar esa proletariat diktaturasi asosiga qurilgan "sotsialistik" davlat barpo etishni o'yildilar. Fuqarolar urushi bolsheviklar g'alabasi bilan yakunlandi. Chunki ular sovet hokimiyatini himoya qilish uchun



ommani birlashtiradigan yangi mafkurani (jahon urushidan chiqish, yer haqidagi Dekretni amalga oshirish, 8 soatli ish kuni joriy etish va hokazo) shakllantirishga muvaffaq bo'ldilar. Fuqarolar urushi alangasida mamlakatning shusiz ham kuchsiz bolgan sanoati tamomila vayron bo'ldi. Millionlab dehqonlar tirikchilik tashvishida mamlakat bo'ylab yo'lga tushdilar.

1918-1920-yillar - Sovetlar hukmronligi boshlanishi bilan vaqf mulklarining davlat ixtiyoriga olinishi amalga oshirildi.

1918-1920-yillar - Turkistonda o'zbek tilida 11 nomda gazeta chiqarildi.

1918-1920-yillar - Yosh buxoroliklar dasturlari, siyosiy qarashlari, taktikasida Buxoroda islohotlar o'tkazish uchun kuch, zo'rlik ishlatish zarur bo'lib qolgani tan olindi, 2-tomondan, aholining diniy e'tiqodi e'tirof etildi. Shuningdek, bolshevikist proletar diktaturasi, mulkdorlari ekspropriatsiya qilish qoidalariga yon berilmadi.

1918-1922-yillar – *Lloyd-Jorj* hukumati davri.

1918-1922-yillar – Yaponiyaning Rossiya Uzoq sharqini ishg'ol qilishi.

1918-1923-yillar – *Mustafo Kamol* Turkiyadagi milliy-ozodlik kurashining rahbari.

1918-1924-yillar - *Xurshid* muallimlik qilish bilan birga "*Layli va Majnun*", "*Farhod va Shirin*" hamda boshqa dramalarini yozdi, ularda aytilgan "*Girya*", "*Chorgoh*", "*Segoh*", "*Ushshoq*", "*Bayot*", "*Suvora*", "*Dugoh*" qo'shiqlari o'zbek klassik qo'shiqlariga aylandi.

1918-1935-yillar – Chexoslovakiya tashqi ishlar vaziri, *Tomash Masarik* iste'fosidan so'ng Chexoslovakiya prezidenti bo'ldi. U G'arb bilan ham, Sovet Ittifoqi bilan ham do'stona munosabatlar tarafdori edi. Chexoslovakiyani fashistlar Germaniyasi zabt etganidan so'ng Angliyaga muhojirlikka ketdi.

1918-1943-yillar – Shoh *Boris* Bolgariyada hukmronlik qilgan.

1918-1952-yillar – Misrda *Muhammad Ali* sulolasiga mansub qirollar hukmronlik qildilar, ya'ni monarxiya ag'darilgunga qadar 2 ta qirol almashdi; *Fuod I* va *Fuod II*.

1918-1970-yillar – *Jamol Abdul Nosir* hayot faoliyati.

1918-1989-yillar – *Nikolay Chaushesku* hayot faoliyati.

1918-yil - "*Ishtirokiyun*" "*Mehnatkashlar o'qi*", "*Mehnat tovushi*" (Samarqandda), "*Farg'ona*", "*Yangi Farg'ona*", "*El bayrog'i*", "*Xalq*", "*Xalq qalqoni*", "*Yangi Sharq*", "*Erkinlik*" nomli gazetalar, "*Maorif va o'qituvchi*", "*Moliya axboroti*", "*Kasabachilik harakati*" jurnallari chiqarildi.

1918-yil - "*O'z oldiga sovet hokimiyatini ag'darish va Farg'ona muxtoriyatini tiklash vazifasini qo'yan Madaminbek ustomon siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega edi*", deb tan olinadi arxiv hujjatlarining birida.

1918-yil – Albaniyada sanoat deyarli yo'q edi. Qayta ishlash va yengil sanoatning kam sonli korxonalari faoliyat ko'rsatardi. Foydali qazilmalarni qazish va qidiruv ishlarini xorijiy monopoliyalalar olib borishardi. Mahalliy burjuaziya o'z kapitalini asosan savdo va sudxo'rlik sohalariga yo'naltirgan edi.

1918-yil – Angliya kasaba uyushmalari a'zolari soni 6,5 millionga yetdi (urushgacha 2,5 million edi).

1918-yil - angliyalik yozuvchi *Jeyms Oldrij* dunyoga keldi.

1918-yil - *Fitrat* Toshkentga keladi, o'qituvchilik qiladi, ijtimoiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullandi.



1918-yil – *Fitrat* Yosh buxoroliklar tashkilotining takomillashgan dasturini ishlab chiqqan va bu dastur tashkilot torrionidan qabul qilingan edi. Unda dehqonchilik va qishloq xo'jaligi, soliqlar, shuningdek, harbiy tizim, ichki ishlar, sud, yo'llar, yer osti boyliklari, tashqi siyosat, maorif, vaqf masalalari batafsil ko'rib ularni sivilizatsiya ruhi va mazmunida yechish taklif qilingan. Bu dastur ham islohotlarni tinch-osoyishta muhitda amalga oshirishni ko'zda tutgan. Unda aholi barcha qatlamlarining manfaatlari himoya ostiga olingan.

1918-yil – *Fridrix Ebert* reyxskansler bo'lgan.

1918-yil – Gelmut Shmidt dunyoga keldi.

1918-yil – HMK burjuaziya va ziyolilarning kichik tashkilotdan ommaviy partiyaga aylana boshladi.

1918-yil - inglizlar Buxoro bozorlarida 1 mln pud paxta, 1mln dona qorako'l teri, 200 ming pud jun, 150 ming pud xom ipakni xarid qildilar.

1918-yil – *Nelson Mandela* dunyoga keldi.

1918-yil – O'rta Osiyodagi 1-oliy o'quv yurti Turkiston davlat universiteti ochildi.

1918-yil - qizil askarlar va dashnoqlar Chustda 1500 kishini qatl qildilar.

1918-yil – rus posyolkalarida siyosiy boshboshdoqlik va iqtisodiy tangliklar avj oldi. Amir manifestning e'lon qilinishiga kelgan Samarqand soveti delegatsiyasi a'zosi Mahmudxo'ja Behbudiy va yana 1-2 musulmon a'zolar marosim o'tganidan so'ng Samarqandga jo'nab ketdilar. Delegatsiyadan boshqa a'zolari esa jo'nab ketishdan bosh tortdilar, bir necha kun davomida Samarqand soveti bilan Yangi Buxoro soveti vakillari o'rtasida to'qnashuvlar bo'ldi.

1918-yil – saylovlarda "*Shinn feyn*" ingliz parlamentining irlandiyaliklarga ajratilgan barcha o'rinlarni olib qo'ydi.

1918-yil – saylovoldi kampaniyasi paytida *D.Lloyd-Jorj* "mamlakatni jang maydonlaridan qaytayotgan qahramonlarga munosib" qilish to'g'risida ko'p gapirdi. Amalda esa bunday bo'lmadi.

1918-yil - *Shokirjon Rahimiy* Toshkentda maktab mudiri bo'ladi.

1918-yil - Toshkentning Yangi shaharida Turkiston davlat universiteti, sharqshunoslik instituti, konservatoriya, texnikumlar ochildi.

1918-yil - Turkiston muxtoriyati qo'shini soni 1000dan ortiq kishi.

1918-yil - Turkistonda ekin maydoni 2/3 qismiga qisqardi.

1918-yil - Turkistonda o'zbek tilida 33 ta kitob nashr etildi.

1918-yil - Turkistondagi hunarmandlar soni 150000 kishi.

1918-yil – uch eng yirik va nufuzli konchilar, transportchilar va temiryo'lchilar kasaba uyushmalari o'zaro hamkorlik haqida Uchlar ittifoqini tuzdilar. Bu ittifoq umumiy talablar ishlab chiqish va zarur bo'lganda bir paytda ish tashlash maqsadida tashkil etilgan edi.

1918-yil – Xitoyda 2 inqilobiy harakat markazi – Xitoy xalqining tan olingan milliy yo'l boshchisi *Sun Yatsen* boshchiligidagi Gomindan hamda Xitoy kommunistik partiyasi tashkil topdi.

1918-yil – yapon qo'shinlari sovet Rossiyasi hududiga bostirib kirib, Vladivostokni, Primore, Sharqiy Sibir va Shimoliy Saxalinni egallab oldi. Butun Sibirni bosib olish rejalashtirilgan edi. *Kolchak* va ataman *Semenov* qo'shilmalarining tor-



mor qilinganligi, shuningdek boshlanib ketgan partizanlik harakati yaponlarni Rossiyadan ketishga majbur qildi.

1918-yil – Yugoslaviya qirolligi tuzildi.

1918-yil yanvar – AQSh prezidenti V. *Wilson* mustaqil polyak davlati tuzishni taklif qildi.

1918-yil yanvar - *Junaidxon* Xiva xonligi qurolli kuchlar qo'mondoni etib tayinlandi.

1918-yil yanvar – Turkiston mustaqilligi uchun qurolli harakatning boshlanishi.

1918-yil 5-yanvar – Myunxenda Germaniya fashistlar partiyasining tashkil topishi.

1918-yil 5-6-yanvar – Rossiyada Ta'sis majlisining chaqirilishi va tarqatib yuborilishi.

1918-yil 11-yanvar - Qo'lyiqda Toshkent uyezdi vakillarining qurultoyi bo'ldi. Unda 586 vakil qatnashdi. Qurultoy sovet hokimiyatiga, yer-suv komitetlarining tuzilishiga qarshi chiqdi, inqilobiy agrar tadbirlarni rad etdi.

1918-yil 19-26-yanvar (yangi sana 1-8-fevral) - Toshkentda Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari sovetlarining favqulodda IV qurultoyi.

1918-yil 30-yanvar (yangi sana 12-fevral) - Turkiston XKS Muhtoriyatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil askarlardan tashqari armanlarning "Dashnoqsutyun" partiyasi a'zolaridan tuzilgan qurolli to'dalardan ham keng foydalanildi. Shu kuni kechqurun Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahridan Qo'qonga dastlabki qizil askar otryadlari to'p va pulemyotlar bilan yetib keldi. Bu otryadning komandiri *K. Osipov* edi. Muxtoriyatchilar bolsheviklarga o'z talablarini bayon qilishgan edi. Ammo Qo'qon revkomi qonuniy hukumatning qal'ani bo'shatib qo'yish haqidagi adolatli talabiga rozi bo'lmagach, u o'z-o'zidan to'xtab qoldi.

1918-yil 31-yanvar (yangi sana 13-fevral) – Turkistonga ertalab Andijondan va sal keyinroq Perovskdan ham qizil askarlar yetib keldilar. Tushdan keyin jang harakati boshlandi.

1918-yil fevral – Turkiston xalqlarining milliy hukumati yo'q qilinganida ularning milliy g'ururi ham yanchilgan edi. Bu harakat Qo'qon fojialaridan keyin boshlangan bo'lishiga qaramay, uning ildizlari chor Rossiyasi tomonidan Turkiston bosib olingan XIX asrning 60—70- yillariga borib taqaladi. Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi harakat vujudga kelishining bosh sababi sovet hokimiyatining o'lkada yuritgan mustamlakachilik siyosati va bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan dastlabki sotsialistik tadbirlar, korxonalarining davlat ixtiyoriga o'tkazilishi, xususiy mulkning bekor qilinishi, oziq-ovqat razvyorstkasi va g'alla monopoliyasi, masjid, xususiy maktab va qozixonalarining bekutilishi bo'ldi. Vaqf yerlarining tugatilishi, majburiy mehnatning joriy qilinishi hamda qizil armiya jangchilarining talonchilik va bosqinchiliklari harakatga alohida keskinlik va ko'lam bag'ishladi, uning tobora kengayishi va rivojlanishiga olib keldi. U goh kuchayib, goh pasayib turishiga, unda ishtirok etganlarning tarkibi almashib turganligi va ikkilamchi manfaatlar o'zgarib turishiga, obyektiv va sub'ektiv omillar kuchlar muvozanatiga turlicha ta'sir qilganiga qara-may, harakatning asosiy maqsadi Turkiston mustaqilligi bo'lib qolaverdi.

1918-yil 14-fevral – RSFSRda grigorian ("yangi") yil hisobining joriy etilishi.



1918 yil 15-fevral (eski hisob 2-fevral) – Turkistonda yong'inlar bo'ldi.

1918-yil 17-fevral – bolsheviklar o'z talablari asosida qayta muzokara boshlashni taklif qildilar. Tabiiyki, ularning Muxtoriyat hukumati rahbarlarini sovetlarga topshirish kabi shovinistik talablarini Muxtoriyat hukumati rad qildi.

1918-yil 18-fevral - *M.Cho'qayev* hukumati ulamochilar tazyiqi ostida iste'foga chiqdi. Shu kundan boshlab *Ergash*(Kichik Ergash) amalda Muhtoriyat hukumati rahbari bo'ldi. bolsheviklar Muxtoriyat hukumati sovet hokimiyatini tan olish va unga bo'ysunishni, milliy qo'shinni tarqatib yuborishi kerak, degan yangi talablar qo'ydilar. Bu safar ham ularga rad javobi berildi. Shu orada muxtoriyatchilar qatorlarida parokandalik yuz berdi. Qo'qon shahar mirshablari boshlig'i *Kichik Ergash* amalda Muxtoriyat hukumatining rahbariga aylandi. Turkiston o'lkasi harbiy komissari *Ye.Perfilev* boshchiligidagi piyoda otlig va artileriya qismlaridan iborat 11 eshelon Qo'qonga keldi. Qizil askarlar shaharda bosqinlar uyushtirib, uni talon-taroj qilishga kirishdilar.

1918-yil 20-fevral (yangi sana 7-fevral) – “*Ho'qand (Qo'qon) tarixining eng daxshatli kuni edi. Armanilar ayricha faoliyat ko'rsatganlar...*”. Gazetadagi ushbu maqola “*Ho'qand hozir o'liklar shahri*” degan dahshatli ibora bilan tugaydi. Faqat Qo'qonning o'zida 3 kun davomida 100000 kishi o'ldirildi. Sobiq xonlik poytaxti bo'lgan Qo'qon shahri butkul vayronaga aylantirildi.

1918-yil 22-fevral(yangi sana 9-fevral) - Qo'qonda Rus-Osiyo banki binosida bolsheviklar tayyorlagan “tinchlik shartnomasi) imzolandi.

1918-yil 22-fevral - Turkiston muxtoriyati hukumati qizil askarlar va dashnoqlar tomonidan tor-mor qilindi.

1918-yil 26-fevral - Turkiston XKS raisi *F.Kolesov* paxta tolasi va xom paxtani musodara qilish to'g'risidagi dekretni imzoladi. Mazkur dekretga ko'ra, qisqa vaqt ichida zavodlarga topshirilgan 3,4 mln pud paxta tolasi, 6 mln pud xom paxta, 600.000 pud paxta yog'i, 4 mln pud chigit, 1,1 mln pud kunjara sovet davlati ixtiyoriga tekin o'tdi. Dehqonlar zavodga topshirilgan paxtasi uchun ham, iyudan olib ketilgan paxta xom ashyosi uchun ham loaqal past narxda bo'lsa-da, mutlaqo pul olishmasdi. Bu hol, bir tomondan ocharchilikni kuchaytirib yubordi.

1918-yil 27-fevral - janglarning birida Kichik Ergash shahid bo'lgach, uning o'rnini Katta Ergash egalladi.

1918-yil fevral oxiri - Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha rejimga qarshi harakat boshlandi. Dastlabki guruhlarining tuzilishi Qo'qon atrofidagi Bachqir qishlog'ida boshlangan. Farg'ona vohasida bu davrda 3 yirik qurolli guruhlar sovetlarga qarshi kurash olib borgan. Ulardan eng yirigi Marg'ilonda, militsiyaning sobiq boshlig'i *Muhammad Aminbek Ahmadbek o'g'li - Madaminbek* edi.

1918-yil fevral oxiri - Turkiston mintaqasida bosqinchi qizil armiya va sovet rejimiga qarshi qurolli harakat boshlandi.

1918-yil mart - Turkiston XKS raisi *F.Kolesov* boshchiligidagi qizil askarlar Buxoro amirligiga hujum qildi. Kolesov mag'lubiyatga uchragach, Qiziltepa bitimi tuzildi.

1918-yil mart - Kolesovchilikning tajovuzkorligi oqibatida ma'rifatchilik jarayoniga, ilg'or madaniy kuchlarga jiddiy talofot yetkazdi. Jadid deb e'lon qilingan 3 mingga yaqin ilg'or ziyolilar qatl etildi. Xorazmda iqtisodiy ahvolding og'irlashuvi madaniyat



va maorifning ahvoliga salbiy ta'sir qildi. Shu bilan birga, xalq ommasining ma'rifatga, axloqiy kamolotga intilishi davom etdi. An'anaviy maktablar, madrasalar, madaniy-ma'rifiy vaqflar faoliyati, o'qimishli ziyolilar, ijodkorlarning jamiyatdagi faxrli mavqei saqlanib qoldi.

1918-yil mart – Rossiyaga qarshi intervensiya boshlandi. Murmansk, Arxangelsk, Vladivostok, Sevastopol, Krasnovodsk shaharlariga, Turkiston hududiga desant tushirildi.

1918-yil mart – Ruminiya Bessarabiyani egalladi, keyinroq Transilvaniya va Bukovinani bosib olidi (Versal shartnomasi bo'yicha). Ruminiya o'z maqsadiga erishdi. Uning hududi 2 barobar kengayib, aholisi 7,7 mln. kishidan 17,5 mln.gacha ko'paydi.

1918-yil 1-mart - Turkiston XKS raisi *F. Kolesov* boshiligidagi harbiy echelon Kogonga yetib keldi. Yosh buxoroliklarning *F.Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Otaxo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Qori Yo'ldosh Po'latov, Fazliddin Mahsumdan* iborat rahbar qo'mitasi *Kolesov* bilan uchrashdi. *Kolesov* sharoit bilan tanishib chiqmay, Yosh buxoroliklarning kayfiyatini ham hisobga olmasdan Buxoroga harbiy kuch bilan hamla qilishga qaror qildi. Yosh buxoroliklar xunrezlikning oldini olishga intilib, amir nomiga ultimatum (talabnoma) yubordilar. Unda islohot dasturi tamoyillari bayon qilingan edi. Lekin voqealar davomi o'zgacha kechdi. Amirdan javobni kutmasdan *Kolesov* buyrug'i bilan qo'shin, zambaraklar, jami qurol-aslahalar eshelondan tushirilib, hujumga tayyorlandi. Bu qon to'kilishi xavfini tug'dirdi. Amir hukumati darhol ultimatum talablariga roziligini bildirdi. Amirning islohot o'tkazish to'g'risidagi 2-farmonini tayyorlashga kirishildi.

1918-yil 2-mart - *Kolesov* buyrug'i bilan Buxoroga hujum boshlandi. Amir hukumati muzokara olib borish bilan birga o'z kuchlarini ham harakatga keltirdi. G'azavotga safarbar qilinganlar Chorjo'ydan Karmanagacha bo'lgan temir yo'lni buzdilar, tajovuzkor qo'shinga har tomonlama hujum qildilar. *Kolesov* qo'shini qurshovda qoldi, o'q-dorisi tugadi, ahvoli og'irlashdi. Shu kuni amirning 2-farmoni Yangi Buxoro (Kogon)ga yetkazildi. Yosh buxoroliklar qo'mitasi hujumni to'xtatishni talab qildi. Muzokaralar bir necha kun davom etdi.

1918-yil 3-mart – Brest-Litovskda Germaniya bilan tinchlik shartnomasi tuzgan Rossiya urushdan chiqdi. U barcha mamlakatlarga urushni demokratik tinchlik bilan, ya'ni hududlarni qo'shib olish va tovonlarsiz (anneksiya va kontributsiya) tugatish taklili bilan murojaat qildi. Germaniya bilan imzolangan shartnoma Rossiya xalqlariga uzoq kutilgan tinchlikni olib keldi. Sovet Rossiyasi dunyoni bo'lib olish haqidagi barcha maxfiy shartnomalarni e'lon qildi va ulardan voz kechganni bildirdi.

1918-yil 3-mart – Rossiya tomonidan Germaniya bilan Brest sulhining tuzilishi. Rossiya Brest-Litovsk shahrida Germaniya bilan tinchlik shartnomasini imzolandi. Shu tariqa inqilobning asosiy shiori "*bajarildi*". Brest-litovskdagi tinchlik shartnomasi aslida Germaniyaga taslim bo'lish bilan barobar edi. Shartnomaga ko'ra, Rossiyadan Litva, Kurliyandiya, Lifyandiya, Estlyandiya, Belorussiyaning bir qismi ajralib olindi, Kars, Ardaxan va Batumi Turkiyaga berildi. Ukraina va Finlyandiya mustaqil davlatlar deb e'tirof etildi. Rossiya o'zining 780 ming kv. km.



hududini yo'qotdi. Rossiya, shuningdek, butun armiyasini darhol tarqatib yuborishi, flotini portlarga qaytarishi va qurolsizlanishi zarur edi.

1918-yil 12-mart – Rossiya poytaxtining Peterburgdan Moskvaga ko'chirilishi.

1918-yil 14-mart – Antanta mamlakatlarining Rossiya shimoliga bostirib kirishi.

1918-yil 25-mart - *Amir Olimxon* va *Kolesov* o'rtasida *Qiziltepa* bitimi imzolandi. Kolesovning tajovuzkorligi sharmandalarcha barbod bo'ldi.

1918-yil aprel – nemis qo'shinlari Antanta mavqeilariga kuchli hujum boshladi. Dastlab ular muvaffaqiyatli hamla qilib, Antanta qo'shinlari mudofaasini yorib o'tdilar va Mama daryosi sohillariga chiqdilar. Uzoqqa otadigan to'plar bilan Parijni o'qqa tutdilar. Ammo muvaffaqiyatini mustahkamlash uchun Germaniya yetarli zaxira topa olmasi. Mamlakat holdan toygan, armiyaning harbiy ruhi cho'kkan, xalq urushdan charchagan edi.

1918-yil aprel - Amudaryo bo'limi Turkiston respublikasi tarkibiga kiritilganligi e'lon qilindi.

1918-yil aprel – Turkiston Xalq xo'jaligi Kengashi, uning joylardagi tashkilotlari xo'jalik faoliyatiga rahbarlik qildilar.

1918-yil 9-aprel – Xiva yaqinidagi Taxtada bitim imzolandi. Unda sovet hukumati Xorazm aholisining mustaqilligini tan oladi, deyilgan edi.

1918-yil 10-aprel - *Lenining* buyrug'i bilan bolshevik *P.A.Kobozev* Turkistonning favqulodda komissari qilib jo'natildi. U Turkiston o'lkasining amaldagi xo'jayiniga aylanib, butun hokimiyat jilovini o'z qo'lida saqlashga harakat qildi.

1918-yil 20-aprel-1-may - Turkiston Sovetlarining V qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda qatnashgan 300 ga yaqin delegatdan atigi 50 tasi mahalliy millat vakillari edi. S'yezd respublikasining qonun chiqaruvchi oliy organi – 36 kishidan iborat (18 tadan bolshevik va so'l eserlar kirgan) Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti (MIK)ni sayladi. Turkiston MIK raisi qilib favqulodda komissar P.Kobozev, hamrais qilib A.Solkin saylandi. Mahalliy millat vakillaridan 4 kishi: *S.Jo'raboyev*, *S.Yusupov*, *Sh.Ostonboyev*, *S.Azimboyev* 1- marta MIK a'zoliciga saylandi. Turkiston XKS tarkibiga 16 kishi (9 bolshevik va 7 so'l eser) kiritildi. *S.Ashurxo'jayev* (milliy ishlar komissari) tub millatlarining dastlabki vakillari sifatida hukumat tarkibiga kirishdi. Tatarlardan *I.Gabitov* ichki ishlar va *H.Ibrohimov* adliya komissarlari qilib saylandi. Sovetlarning V s'yezdi Turkistonni Rossiya tarkibidagi o'lka sifatida e'lon qilib, davlat boshqaruvi va xalq xo'jaligi sohasidagi siyosatini markazdagi bolsheviklar hukumati belgilashni "qonuniy akt" bilan muhrladi.

1918-yil 30-aprel – Turkistonning RSFSR tarkibidagi avtonom respublika deb e'lon qilinishi.

1918-yil may – "Temir proletar intizomi" joriy etildi, donni davlatga berishdan yashirgan "kulaklar" ayovsiz jazolandi. Rossiyada don topish uchun qurolli guruhlar tashkil etildi. Proletar davlati donni tortib ola boshladi.

1918-yil may – AQSh hukumati "*Da'vatkorlik to'g'risidagi hujjat*"ni e'lon qildi. Unga ko'ra mamlakatdagi mavjud tuzum to'g'risida bildirilgan barcha salbiy fikrlar jinoiy deb e'lon qilindi. Bunday ayb bilan qamoqqa olingan har qanday odamga 10 ming dollar jarima solish yoki 20 yil muddatga qamoq jazosi ko'zda tutildi. Ushbu hujjatga ko'ra 2 ming kishi hukm qilindi. O'zgacha fikrlovchilarga nisbatan



jismoniy tazyiq qo'llash Amerika huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatida odatiy holga aylandi.

1918-yil 9-may - RSFSR da oziq-ovqat diktaturasi joriy qilindi. Bu masala Markazning o'zida ham qattiqqo'llik bilan amalga oshirildi.

1918-yil 4-iyun - bolshevistik rejim "*G'alla monopoliyasi to'g'risida*" "*Sinfy non payog'i to'g'risida*", "*Turkiston respublikasida oziq-ovqat siyosatini amalga oshirish yuzasidan oziq-ovqat komissariga favqulodda vakolatlar berish to'g'risida*" kabi dekretlarni qabul qilishi bilan Turkistonda oziq-ovqat dikturasini joriy qildi. G'alla monopoliyasi hech qanday tayyorgariksiz joriy qilindi va shafqatsiz ravishda amalga oshirildi. Bu holat Turkistonda ocharchilikning nihoyatda kuchayishiga olib keldi.

1918-yil 15-iyun - Turkistonda uch kishidan iborat o'lka oziq-ovqat direktoriyasi tashkil qilindi. Biroq direktoriya o'z faoliyati davomida katta xatolarga yo'l qo'ydi. Natijada ocharchilikdan qutula olmayotgan aholi qirila boshladi. "*Ruslarning yangi shahari va unda kun ko'rayotgan sovet hokimiyati bilan mahalliy aholi o'rtasida o'tib bo'lmas devor paydo bo'ldi*", — deb e'tirof qilishga majbur bo'lgan edi Turkbyuro raisining muovini *G.Safarov*.

1918-yil 17-25-iyun – Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston bolsheviklarining o'lka konferensiyasi Turkiston kommunistlar (bolsheviklar) partiyasining 1-s'yezdi deb nomlandi. Unda o'lkadagi kommunistik guruhlar ilk marta tashkiliy jihatdan rasmiylashib, Turkiston Kompartiyasiga (RKP(b) tarkibida) birlashdilar. Kommunistlarning miqdori 2000 ming kishidan oshmas edi. S'yezdda *I.Tobolin* raisligida 7 kishidan iborat Markaziy Komitet saylandi, uning tarkibiga mahalliy kommunistlardan *Nizomiddin Xo'jayev* ham kiritildi. O'lka bolsheviklarining I S'yezdi ham Rossiyaning partiyaviy, g'oyaviy va nazariy hukmronligini tan olib, shimoldagi bu davlat qo'l ostida bo'lishni yoqlab chiqdilar.

1918-yil 16-iyul – Yekaterinburgda *Nikolay II* va uning oila a'zolari otib tashlandi.

1918-yil avgust – Antanta davlatlarining hujumlari boshlandi. Gennaniyaning G'arbdagi fronti yorib o'tildi va Antanta qo'shinlari uchun Germaniya hududiga yo'l ochildi. Bolqonda, Salonik shahri yaqinlarida ittifoqchilarning ko'p millatli ekspeditsiya korpusi bolgar qo'shinlari mudofaa chizig'ini yorib o'tdi va oktabrda Dunay sohillariga chiqdi.

1918-yil avgust - Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida 74 ta volost yer-suv komiteti ish ko'rgan. Yil oxirida bular kambag'allar komiteti va kambag'allar uyushmasi deb ataldi.

1918-yil 14-avgust – Bokuga Angliya desantining tushirilishi.

1918-yil 15-16-avgust – Vladivostokka Amerika desantining tushirilishi.

1918-yil 29-avgust – Rossiya hukumatining Dekreti bilan polyak xalqining mustaqil davlat tuzish huquqi e'lon qilindi.

1918-yil sentabr – Avstriya qo'shinlari Vitorio Veneto yaqinida mag'lubiyatga uchradilar. Germaniya boshchiligidagi To'rtlar ittifoqi harbiy jihatdan mag'lub bo'lib, tarqalib ketdi.

1918-yil sentabr – birlashgan ingliz-fransuz-serb qo'shinlari Makedoniyada bolgar-nemis qo'shinlarini tor-mor qildi.



1918-yil sentabr - Farg'ona viloyatining Vodil qishlog'ida to'plangan dehqonlar majlislari kambag'allar uyushmasini tuzish, yer maydonlarini natsionalizatsiya qilishga qarshi chiqdilar. Bu hol Asaka volostida, boshqa joylarda ham bo'ldi. Tuzilgan yer-suv komitetlari esa inqilobiy choralarni amalga oshirmas edi.

1918-yil 15-sentabr – 150 ming kishilik grek armiyasi Salonikida bolgar armiyasini tor-mor qildi. Bolgariya taslim bo'ldi. Makedoniyada german qo'shinlari asirga olindi va shu bilan Bolqonda harbiy harakatlar to'xtatildi.

1918-yil 29-sentabr – bolgar hukumati sulh haqidagi hujjatni imzolab, taslim bo'ldi. Bolgariya urushdan chiqdi. Shoh *Ferdinand* o'z o'g'li *Boris* foydasiga taxtdan voz kechdi.

1918-yil 29-sentabr – Bolgariya taslim bo'ldi.

1918-yil 30-sentabr – Germaniya hukumati AQShga yarashuv bitimi imzolash iltimosi bilan murojaat qildi.

1918-yil oktabr – *F.Kolesov, I.Tobolin, A.Solkin* va boshqa “eski kommunistlar” o'z vazifalaridan chetlashtirildi. Sovetlarning favqulodda VI S'yezdidagi RSFSR Konstitutsiyasi asosida Turkiston respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiyaga ko'ra, mudofaa, tashqi aloqalar, pochta-telegraf, dengiz ishlari, temir yo'llar, bojxona, savdo-sotiq, sanoat va moliya masalalari kabi davlatchilikning muhim shakllari Rossiya federal hukumati boshqaruvida qoldirildi. Turkistondagi siyosiy hukmronlik, o'lkada “sovetcha andozadagi avtonomiya”ning o'rnatilishi bilan yo'lga qo'yilgan bo'lsa, bu jarayonning 2-bosqichi, davlat boshqaruvi asosiy funksiyalarning federal hukumatiga topshirilishini konstitutsiya yo'li bilan “qonuniy rasmiylashtirilishi bo'ldi”.

1918-yil oktabr – shahzoda *Maks Badenskiy* hukumati tuzildi.

1918-yil 1-oktabr - saroy fitnasi oqibatida Asfandiyorxon o'ldirildi. Uning katta akasi *Said Abdulla* xon deb e'lon qilindi. Yangi xon davlat ishlari bilan shug'ullanmas edi. Hokimiyat *Junaidxon* qo'lida markazlashdi.

1918-yil 4-oktabr – Chexiya va Slovakiya Avstro-Vengriya tarkibidan ajralib chiqdi hamda mustaqil Chexoslovakiya respublikasi tuzilganligini e'lon qildi.

1918-yil 28-oktabr – Serb, xorvat va slovenlar qirolligi tuzilganligini e'lon qilindi.

1918-yil 30-oktabr – Germaniya harbiy eskadrasini ingliz flotiga hujum qilish haqida buyruq oladi. Dengizchilar uning bafoydaligini anglaganlari uchun buyruqqa bo'ysunmaydilar.

1918-yil 30-oktabr – Turkiya imzolagan yarashuv bitimiga ko'ra, uning qo'shinlari arab mamlakatlaridan olib chiqilishi, turk armiyasi qurolsizlanishi, flot ingliz va fransuz boshqaruvi ostiga o'tishi lozim edi.

1918-yil 30-oktabr – Turkiya taslim bo'ldi.

1918-yil 31-oktabr – Avstriya va Vengriyada monarxiyalar ag'darib tashlandi hamda Avstriya va Vengriya respublikalari talab qilgan yarashuv shartlarini qabul qildilar.

1918-yil 31-oktabr – Turkiyaning taslim bo'lishi.

1918-yil noyabr – Polyak sotsialistik partiyasining (*PSP*) o'ng qanoti yo'l boshchisi, o'ta millatchi va shovinistik doiralari vakili *Yuzef Pilsudskiy* prezident (“*davlatning muvaqqat boshlig'i*”) hamda polyak armiyasining bosh qo'mondoni sifatida e'lon qilindi.



1918-yil noyabr – Qohirada Misr mustaqilligi uchun kurashni boshqarish jamoat qo‘mitasi tashkil qilinib, unga taniqli adabiyot, madaniyat, siyosat va jamoat arboblari kirdilar. U “*Vafd Misri*” (“Misr vakillari”) deb nomlandi.

1918-yil noyabr – saylangan 1-hukumat faqat chex partiyalari vakillaridan tuzildi va Chexoslovakiya respublikasining 1-prezidentligiga ham chex burjuaziyasi vakili, taniqli chex tarixchisi va faylasufi, professor *Tomash Masarik* saylandi.

1918-yil noyabr - Turkistonda e‘lon qilingan dinni davlatdan, maktabni dindan ajratish to‘g‘risidagi dekret, shu kabi qator ko‘rsatmalar asosida masjidlar va madrasalar yoppasiga yopila boshlandi, islom diniga, uning rahnamolariga kuchli ta‘ziy, haqorat, xo‘rlashlar avj oldirildi.

1918-yil 3-noyabr – Avstro-Vengriya taslim bo‘ldi.

1918-yil 3-noyabr – Germaniyaning taslim bo‘lishi.

1918-yil 3-noyabr – Kil shahri portida matroslar va askarlarning namoyishlari boshlandi va u tez orada inqilobga aylandi.

1918-yil 9-noyabr – Berlinda qo‘zg‘olon boshlandi. Imperator mamlakatni o‘z holiga tashlab chet elga qochib ketdi. Germaniyada respublika e‘lon qilindi.

1918-yil 9-noyabr – Germaniyada monarxiyaning ag‘darilishi.

1918-yil 11-noyabr – Germaniya va Antanta davlatlari o‘rtasida Kompyen yarash ahdining tuzilishi. I jahon urushining tugashi,

1918-yil 11-noyabr – Parij yaqinidagi Kompen o‘rmonida, Yevropadagi Antanta qo‘shinlari bosh qo‘mondoni fransuz marshali *Foshning* vagon-qarorgohida Germaniya hay‘ati o‘z hukumati nomidan yarashuv haqidagi, amalda esa Germaniyaning mag‘lubiyati borasidagi bitimni imzoladi. I jahon urushining tugashi.

1918-yil 13-noyabr – Angliya niyati Fransiya bilan tasdiqlangan hududlar ustidan o‘z hukmronligini o‘rnatish edi.

1918-yil 16-noyabr – Avstro-Vengriya taslim bo‘lganidan 10 kun keyin Vengriyada respublika e‘lon qilindi. Biroq Rossiyadan qaytgan sobiq harbiy askarlar *Bela Kun* boshchiligida hokimiyatni o‘z qo‘llariga olishga qaror qilishdi.

1918-yil 16-noyabr - Vengriyaning respublika deb e‘lon qilinishi.

1918-yil 24-noyabr – Serbiya va Chernogoriya bitta davlatga birlashdi.

1918-yil 25-noyabr - *Junaidxon* qo‘shinlari Amudaryodan o‘tib, To‘rtko‘lni olmoqchi bo‘ldi va uni qamal qildi. Ammo Chorjo‘ydan “Toshkent” paroxodida harbiy kuch yordamga yetib keldi va hujum natijasiz chiqdi.

1918-yil dekabr – *D.Lloyd-Jorj* Liberal partiya yetakchisi bo‘lganligi uchun harbiy zafar to‘lqinida tezkor saylovlar o‘tkazdi. Saylov huquqi berilgan harbiylarning ovozi evaziga g‘alaba qozondi. Bu liberal partiyaning so‘nggi muvaffaqiyati edi. Keyin ular Liberal hukumatni boshqarish imkoniyatini qo‘lga kirita olmadilar.

1918-yil dekabr – Xorvatiya, Chernogoriya, Voevodina va boshqa joylarda qonli to‘qnashuvlar yuz berdi.

1918-yil 1-dekabr – barcha yirik janubiy slavyan xalqlari vakillari Belgradda “*Serblar, xorvatlar va slovenlar qirolligi*” tashkil etilganligi haqida e‘lon qilishdi. Karageorgievichlar vakili Aleksandr qirol etib saylandi.

1918-yil 2-yarmi - Amudaryo bo‘limida vaziyat keskin o‘zgardi. Bu eng avvalo



bolsheviklar faoliyati va qizil gvardiyachilar otryadlarining xattl harakatlari bilan bog'liqdir. Bolsheviklar Amudaryo bo'limiga Chorjo'y va Toshkentdan qizil gvardiyachilar otryadlarini jo'natishdi. To'rtko'l shahri bolsheviklar hokimiyatining tayanchi, uning harbiy bazasiga aylantirildi. Ular Amudaryo bo'limi hududida turib, Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlarga puxta tayyorlandilar.

1918-yil 2-yarmi – Turkistondagi sovet hokimiyati, qil ustida turib qoldi. Farg'ona vodiysida boshlangan istiqloqlilik harakati butun Turkistonni qamrab olgan edi. Lekin bolsheviklar tashviqoti ro'y berayotgan hodisalarning asl mohiyatini o'lka aholisiga buzib ko'rsatdi. Oqibatda mahalliy aholining bir qismi sovet hokimiyatini mustahkamlash uchun bo'layotgan kurashga tortildi.

1918-yil bahor - avval Farg'ona vodiysida, keyin Turkistonda istiqloqlilik harakati boshlandi.

1918-yil bahor – bolsheviklar tub aholi vakillaridan bir qismini hokimiyat organlarida ishlashlariga yo'l qo'yib, ularga qisman yon berdilar. Milliy rahbar xodimlar dastavval yangi tuzumning g'oyalardan o'z xalqlari baxt-saodat yo'lida foydalanishga urindilar. Ular bu g'oyalarni Turkistonning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirishga harakat qilgan edilar.

1918-yil bahor – Rossiyada qishloqdan donni majburiy toritib olish boshlandi. Favqulodda oziq-ovqat guruhlari qishloqlarga yuborilib, ortiqcha don davlat ixtiyoriga olina boshlandi. Bularning hammasi fuqarolar urushiga sabab bo'ldi.

1918-yil bahor-yoz - Turkiston avtonom Sovet respublikasi e'lon qilinishi bilan hukumat tuzildi, qator komissarliklar, ichki ishlar, yer ishlari, maorif, millatlar ishlari komissarlikni barpo qilindi. Sovet hokimiyati dushmanlari bilan kurash olib boruvchi ChK - Favqulodda komissiya o'z faoliyatini amalga oshira boshladi. Siyosiy vaziyat keskinlashishi munosabati bilan tribunallar, siyosiy bo'limlar, uchliklar ham tuzilib, faoliyat ko'rsatdilar. Xo'jalikni boshqaruvchi idoralar tashkil etildi. Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand viloyat boshqaruv idoralari, komissarliklar, boshqa markaziy ma'muriy idoralarning bo'limlari barpo qilindi, uyezdlar va vobostlar ma'muriyatlari tashkil etildi. Aholi ijtimoiy hayoti tartib-intizomi yo'lga qo'yish tadbirlari joriy etib borildi.

1918-yil bahor-yoz – Turkiston sovet respublikasi e'lon qilinishi bilan hukumat tuzildi, qator komissarliklar, ichki ishlar, yer ishlari maorif, millatlar ishlari komissarliklari barpo qilindi. Sovet hokimiyati dushmanlari bilan kurash olib boruvchi ChK (xðeçâù -aéí aý èoi èññèy – Favqulodda komissiya) o'z faoliyatini amalga oshira boshladi. Xo'jalikni boshqaruvchi idoralar tashkil etildi.

1918-yil yoz – *Leninning* farmoyishi bilan faslidan etiboran "qizil terror" siyosati o'tkazila boshlandi.

1918-yil yoz - Turkiston o'lkasida pul-moliya tangligi pulning o'ta qadrsizlanishiga olib keldi. O'lka hukumati o'z pul qiymati - Turkiston bonlarini chiqara boshladi, ba'zi joylarda o'z kredit biletleri chiqarildi.

1918-yil yoz – ingliz qo'shinlari Ashxobod va Boku shaharlarini egalladilar va Kaspiy dengizida o'z flotilyalarini yaratib, dengizdagi barcha qatnovni nazorat ostiga oldilar. Shuningdek, ular Boku-Batumi temir yo'li ustidan nazorat o'rnatdilar, Gruziya, Ozarbayjon va Armanistonda mustaqil hukumatlar tuzilishiga ko'maklashdilar.



1918-yil qish va bahori - rus askarlari bilan Buxoroda to'qnashuvlar jiddiy tus oldi.

1918-yil boshi - maktablar soni 330 taga yetdi

1918-yil boshi – Muxtoriyat hukumati milliy qo'shni sifatida bir mingdan ortiq askar bo'lgan. Harbiy vazir *Ubaydulla Xo'jayev* ishtirokida o'tkazilgan ko'rik-parad vaqtida askarlar soni 2000 kishiga yetdi.

1918-yil boshi - Turkistondagi ocharchilik bolshevikcha rejimning qattol siyosati natijasida ocharchilik avj olib ketdi. Oziq-ovqat muammosi bu paytga kelib Turkiston respublikasidagi eng o'tkir muammolardan biriga aylangan edi. Bolsheviklar mahalliy aholi qo'lidagi g'alla va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini tortib olish uchun qat'iy choralarini belgilashdi.

1918-yil boshi - XKS hamda Yer ishlari komissarligi o'zi mehnat qilmagan egalar ixtiyoridagi bog' va uzumzorlarni natsionalizatsiya qilish hamda bunday shahslarning yer-suvi, uy-joy sharoitlari, qoramollarini ro'yxatga olish to'g'risida buyruq va ko'rsatma chiqardi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun yer-suv komitetlari tuzilib, ular tarkibiga kambag'al dehqonlar, batraklar kiritilishi ko'zda tutildi.

1918-yil boshi -Turkistonda ko'pchilik imenie (yevropacha agrar majmua)lar , bog'lar va yirik xo'jaliklar natsionalizatsiya qilindi. Faqat natsionalizatsiya qilingan bog'lar va uzumzorlar maydoni 13.361 desyatınadan iborat edi.

1918-yil o'rtasi – Farg'ona vodiysida taxminan yuzga yaqin guruhlar qizil armiya qismlariga qarshi kurash olib bordilar. Bu guruhlarda 15000 yigit bor edi.

1918-yil o'rtasi - Xorazm vohasida bolsheviklar, qizil armiya kuchlariga qarshi qurolli kurash boshlanib ketgan edi. Tajovuzkor kuchlar Petro-Aleksandrovsk (hozirgi To'rtko'l)ni Xiva xonligiga qarshi hujum bazasiga aylantira boshladilar. Chorjo'ydan Amudaryo orqali harbiy kuchlar keltirildi.

1918-yil oxiri - 1919-yil boshi – qizil askarlar va dehqonlar *Bozorqo'rg'on, Qo'qon-qishloq, So'zoq* qishloqlariga bosqinchilik hujumlari uyushtirib, dehqonlarni qirg'in qildilar, mol-mulkklarini taladilar, qishloqlarga o't qo'ydilar.

1919-1920-yillar – Angliyada Rossiyaga qilingan intervensiyaga qarshi ommaviy miting va namoyishlar bo'lib o'tdi. AQShda ham intervensiyaga qarshi harakat boshlandi. Bunda ayniqsa amerikalik ishchilar muhim rol o'ynadilar. Mamlakatning ko'pgina yirik shaharlarida AQShning intervensiyada ishtirokiga qarshi norozilik mitinglari o'tkazildi. *V. Vilson* hukumatiga intervensiyani to'xtatish talabi bitilgan murojaatnoma ostiga imzo to'plash kampaniyasi tashkil etildi. Murojaatnomani minglab ishchilarni birlashtirgan 90 kasaba uyushmasi qo'llab-quvvatladi. Intervensiyaga qarshi harakatda Amerikaning taniqli jamoat aiboblari faol ishtirok etdilar. Jurnalist *Jon Rid* Rossiyadagi voqealarga xolisona baho berilgan "Dunyoni titratgan o'n kun" asarini yozdi va nashr etirdi.

1919-1920-yillar - Buxoro va Angliya o'rtasidagi aloqalar davri.

1919-1920-yillar – *F. Nittning* Italiyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1919-1920-yillar – Farg'onada qaroqchilik, bosmachilik emas, balki o'ziga xos xalq qo'zg'oloni vujudga keldi. Biz 4 yil davomida bu harakatga hatto to'g'ri baho berishni ham bilmadik, u xalq qo'zg'oloni bo'lgani holda bosmachilik deb atadik.



1919-1920-yillar – Italiya tarixiga “qizil ikki yillik” sifatida kirdi. Kasaba uyushmalari rahbarligida bu yillarda misli ko'rilgan miqosda ish tashlashlar, narx-navoning oshishiga qarshi ommaviy chiqishlar bo'lib o'tdi.

1919-1920-yillar - tovar monopoliyasi va tovar ayirboshlash yo'li bilan 5.250.000 pud g'alla Turkistondan tortib olindi.

1919-1921-yillar – Amerika dengiz piyodalari Panamaga tushirildi.

1919-1921-yillar - *Fitrat* boshchiligida ko'zga ko'ringan adib-ziyolilar tuzgan madaniy-adabiy tashkilot “*Chig'atoy gurungi*” tashkilotida qator ijobiy ishlarini amalga oshiradi.

1919-1921-yillar – ichki kurash burjuaziyasi Italiyada “tartib” o'rnatilgan kuchli hokimiyat qidirishga majbur qildi. Fashistlar bu maqsadga eng mos keladigan kuch edilar.

1919-1924-1925-yillar – Amerika dengiz piyodalari Gondurasga tushirildi.

1919-1925-yillar - *Abdulla Qodiriy* “*O'tgan kunlar*” romanini yozib tugatdi.

1919-1925-yillar – *F.Ebert* Germaniya prezidenti bo'lgan.

1919-1933-yillar – Fransiyada 27 marta hukumat o'zgaradi.

1919-1934-yillar – *Reyxsrat* (nemischa. Reich – davlat va Rat – kengashi) Germaniya parlamentining o'lka va viloyatlar vakillaridan iborat bo'lgan, qonunchilik va boshqaruv masalalari bo'yicha mas'ul palatasi bo'lgan.

1919-1935-yillar – AQShning hukmron doiralari Lotin Amerikasi va Osiyodagi turli mamlakatlarga milliy-ozodlik harakatlarini bostirish uchun bir necha marta qo'shin yubordilar.

1919-1935-yillar – *Reyxsvet* (nemischa. Reich – davlat va VVehr - mudofaa) Germaniya qurolli kuchlarini shunday atashgan.

1919-1946-yillar – Millatlar Ligasi xalqaro tashkilot tuzildi.

1919-1980-yillar – *Muhammad Rizo Pahlaviyning* hayot faoliyati.

1919-1981-yillar - ingliziyalik yozuvchi *Dorris Lessing* hayot faoliyati.

1919-yil – *Benito Mussolini* fashist partiyasini tuzdi.

1919-yil – *Bernard Shouning* “*Qalblar parchalanadigan uy*” pyesasi yozib tugatildi.

1919-yil – *F.Sheydeman* Germaniya reyxskansleri bo'lgan.

1919-yil – Fransiyada Rossiyaga qilingan intervensiyaga qarshi ommaviy miting va namoyishlar bo'lib o'tdi. Parijda bo'lib o'tgan 1 may namoyishida 500 mingdan ortiq kishi ishtirok etdi.

1919-yil – *Fridrix Ebert* Germaniya prezidenti qilib saylandi.

1919-yil – AQSHda qabul qilingan hujjat “*sindikalizm*”ni, ya'ni sanoatdagi xususiy mulkdorlikni qoralovchi har qanday da'vatlarni man etardi. O'zgacha fikrlashda shubha qilingan taraqqiyparvar arboblarga qarshi sud jarayonlari uzluksiz o'tkazila boshlandi.

1919-yil - ingliz tilida ijod qiluvchi JARlik *Piter Abraxams* dunyoga keldi.

1919-yil – Ispaniyada Cherkov nazaroti va rahbarligi ostida Katolik agrar federatsiyasi tashkil etildi. Bu federatsiya agrariylarga - yirik zamindorlar, dehqon-mulkdorlar, ijarachilar qirollarga kuchli ta'sir ko'rsatar edi. Federatsiya qishloq xo'jaligida konservatizmning layanchiga aylandi va agrar islohotlarga qarshi



chiqdi. Dehqonlar katolik cherkovining eng sodiq tarafdorlari va mamlakatdagi konservativ kuchlarning tayanchi edi.

1919-yil – Italiyada katoliklarning ommaviy harakati asosida Xalq partiyasi (“*Popolari*”) tashkil etildi. Yink sarmoya vakillan, yer egalari, cherkov xizmatchilari va mamlakat aholisining bir qismi mazkur partiyaga qo’shildi. Bu unga xalqchil partiya ko’rinishini berdi. Partiya dasturidagi ikki band uning saflariga mehnatkashlarning anchagina qismini va eng avvalo, dehqonlarni jalb etdi. Dasturda zamindorlarning bir qism yerini mablag’ hisobiga olib, uni dehqonlarga bo’lib berish, shuningdek, mehnat uchun adolatli haq to’lash va’da qilingan edi. Ammo Xalq partiyasi siyosiy hayotda sezilarli o’rin egallay olmadi.

1919-yil – Koreya bo’ylab yaponlarga qarshi ommaviy namoyishlar bo’lib o’tdi. Birgina Seuldagi namoyishda 300 ming kishi qatnashdi. Birgina Seuldagi namoyishda 300 ming kishi qatnashdi. Namoyishchilarning asosiy tarkibi talabalar bo’lib, ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, savdogarlar, hunarmandlar va tadbirkorlar ularni qo’llab-quvvatladilar.

1919-yil – *M. Plank* Nobel mukofotiga sazovor bo’lgan.

1919-yil – *M.R. Bela Kun* boshqargan Vengriya sovet respublikasi hukumatida arzimas lavozimda ishlagan, so’ngra Sovet Ittifoqiga qochadi. U bu yerdan maxfiy ravishda yashirin ishga qaytadi.

1919-yil – Misrda ommaviy namoyishlar boshlandi. Namoyishlar Qohiradan Yuqori va Quyi Misrga tomon ko’chdi. Tinch namoyishchilarni to’p va pulemyotlardan o’qqa tutdilar.

1919-yil – *Filipp Sheydeman* Veymar respublikasining birinchi hukumatini boshqardi.

1919-yil - *Munavvar Qori* boshchiligida Toshkentda “Milliy Ittihod” tashkilti mahfiy ravishda tuziladi.

1919-yil – Natsional-sotsialistik ishchi partiyasi Myunxen shahrida vujudga keldi va o’sha paytda Germaniya ishchi partiyasi deb ataldi. *Adolf Gittler* esa unga a’zo bo’lib kirdi.

1919-yil - O’lkada 43 ta paxta tozalash, yog’-sovun qatnashdirlari bo’lib, ularning soni ikki yil avval 326, bir yil avval esa 69 ta edi.

1919-yil – *Reyxsver* Versal tinchlik shartnomasi asosida tashkil etilgan.

1919-yil - *Sh.Rahimiy* va *Q.Ramazon* bilan birga “*Ona tili*” darsligini, so’ngra “*Imlo masalalari*” kitobini yozib chiqardi.

1919-yil - *Shokirjon Rahimiy* 1- alifbo “*Sovg’a*” darsligini chiqardi.

1919-yil – terroristik totalitar tuzum ramziga aylangan “*fashizm*” atamasi Italiyada tug’ilgan va u italyanchada “*bog’lam, dasta*” degan ma’noni anglatadi. Bu atama frontdan qaytgan sobiq askarlar o’z manfaatlarini himoyasi uchun “*Fashi di kombattimento*” (“*Quroldoshlar uyushmasi*”) deb nomlangan tashkilot tuzgan paytda tug’ilgan. Bu harakatni *Benito Mussolini* boshqardi.

1919-yil - Turkistonda o’zbek tilida 91 ta kitob nashr etildi.

1919-yil - Yosh buxoroliklarning “*Qutulish*” gazetasi chiqa boshladi.

1919-yil yanvar – Parijdagi *Versal* saroyida Antanta ittifoqiga kirgan g’olib mamlakatlar vakillari urushga xulosa yasash va tinchlik shartnomasini imzolash



uchun to'plandilar. Unda 27 mamlakatdan mingdan ortiq delegat ishtirok etdi. Ammo amalda barcha asosiy masalalar 5 davlat tomonidan hal qilindi: AQSh (Prezident *Vudro Vilson*), Angliya (Bosh vazir *David Lloyd-Jorj*), Fransiya (Bosh vazir *Jorj Klemanso*), Italiya (Bosh vazir *Vittorio Orlando*), Yaponiya (baron *Makino*).

1919-yil yanvar – Polsha hududida saylangan seym *Yu. Pilsudskiy* diktaturasini qonunan mahkamlagan “*kichik*” konstitutsiyasini qabul qildi. Burjuaziya va millatchilar o'z hokimiyatini mustahkamlashdi. Siyosiy raqiblarni jazolash boshlandi: Dombrovsk konchilari otib tashlandi, sovetlar tugatildi, qishloq xo'jalik ishchilarining ish tashlashlari bostirildi.

1919-yil yanvar-aprel - Turkiston bilan Markaz vaqtinchalik bog'lanib turgan qisqa muddat ichida Kreml hukumati bu yerga o'z emissarlar yuborishni muntazam yo'lga qo'ydi.

1919-yil 15-yanvar – Berlinda inqilobiy harakatlar qonli yakunlandi. Sotsial-demokratik hukumat Berlin ishchilarining chiqishlarini kuch bilan bostirdi. Kommunistik partiyaning rahbarlari *Roza Lyuksemburg* va *Karl Libknext* ham o'ldirildi.

1919-yil 18-yanvar - 1920-yil 21-yanvar – Parij tinchlik konferensiyasi bo'lib o'tdi.

1919-yil 19-yanvar – Germaniyada bo'lib o'tgan Ta'sis majlisiga saylovlarda ko'pgina burjua partiyalari muvaffaqiyat qozondilar.

1919-yil 19-yanvar - Harbiy komissar *K.Osipov* boshchiligidagi harbiy qism isyon ko'tardilar, 14 ta komissar otib tashlandi. *K.Osipov*ning xalqqa qilgan murojaatida ko'plab a'dalar berilganligiga qaramay, tub aholi betaraf qoldi. Biroq isyon tezda Toshkent temir yo'l ustaxonalari ishchilari va boshqa kuchlar tomonidan bostirildi. *Osipov* Farg'ona vodiysiga qochib ketdi. To'ntarishga bo'lgan urinishi yangi qatag'on va terror usullarining paydo bo'lishiga olib keldi.

1919-yil 21-yanvar – Irlandiyadan saylangan deputatlar parlament ishida qatnashishdan voz kechdilar va o'zlarini mustaqil Irlandiya parlamenti deb e'lon qildilar. “Shinn feyn”ning harbiylashgan qanoti Irlandiya respublikachilar armiyasiga (IRA) aylandi. Asli kelib chiqishi AQShdan bo'lgan *Edmoo de Valeri* Irlandiyaning birinchi prezidenti qilib saylandi. Ko'p o'tmay Britaniya armiyasi bilan IRA o'rtasida harbiy harakatlar boshlandi, unda irlandiyaliklar partizan urushining barcha usullarini qo'lladilar. Irlandiyaliklarni “Blek end tanss” (“qora va qahvarang”) nomi bilan mashhur bo'lgan yordamchi otryadlar qo'llab-quvvatladilar. Ikkala tomon ham murosaga kelishni istamadi.

1919 -yil 12-fevral – RKP (b) MK va RSFSR XKS ning Turkiston ishlari bilan shug'ullanuvchi alohida muvaqqat komissiyasi (raisi – *Sh.Z.Eliava*) tuzildi.

1919-yil mart – *Kobozev* sovetlarning favqulodda VII s'yezdida shunday da'vo qilgan edi: “*RSFSR hukumatining qabul qilgan har bir qonuni MIK tomonidan Turkistonda so'zsiz amalga oshirilishi sharf*”.

1919-yil mart - Olka bolsheviklar so'l eserlarni hukumatdan siqib chiqardilar. Turkiston MIK va XKS tarkibi nuqul kommunistlardan iborat qilib tuzildi.

1919-yil mart - *Turor Risqulov* raisligida Turkiston o'lkasi Musulmonlar byurosi (a'zolari - *Nizomiddin Xo'jayev, Abdulqodir Muhitdinov, Y.Ibrohimov, Yusuf Aliyev,*



Afandizoda va boshqalar) tuzildi. Musulmonlar byurosi zimmasiga tub aholi o'rtasida ish olib borishi tashkil etish vazifasi yuklatildi. Musbyuroga "*Ishtirokiyun*" (hozirgi O'zbekiston ovozi) gazetasiga muharrirlik qilish vazifasi ham topshirildi. Musulmonlar byurosi atigi 10 oy davom etgan faoliyati davrida o'lka miqyosida musulmon kommunistik tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yishga katta tashkiliy ishlarni amalga oshirishga erishdi. U Turkistondagi tub xalqlarning manfaatlarini himoya qilishga qattiq kirishilgan edi.

1919-yil 4-mart – Turkkommissiya a'zolaridan *P.Kobozev* boshchiligidagi bir guruh xodimlar Toshkentga yetib kelishdi.

1919-yil 11-mart – *Madaminbek* Farg'ona fronti qo'shinlari qo'mondoni *M. Safonov* nomiga maktubida ular qanday maqsad yo'lida kurashayotganliklari ni, bu harakatning mohiyati va "bosmachi" deb kimni aytish lozimligini yaqqol ko'rsatib berdi.

1919-yil 21-mart – Vengriya sovet respublikasi tuzilganligini e'lon qilindi. Sovet respublikasi Vengriyada 133 kun hukm surdi. Bu qisqa muddatda katta ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar o'tkazildi. Biroq ularning barchasi sovet Rossiyasidagi o'zgarishlar namunasi bo'yicha nusxalashtirilgan edi. Mamlakatda 50 ming kishilik Qizil armiya tuzildi. Uning yordamida Slovakiyada sovet hokimiyati o'rnatilib, Slovak sovet respublikasi tashkil etildi va bu respublika sovet Vengriyasiga qo'shilishi haqida e'lon qildi. Vengriya hukumati xaroba, kuchsizlangan mamlakatda kommunistik taqsimot asoslarini maksimal markazlashgan hokimiyat va xo'jalik boshqaruvi bilan birlikda yaratishga intilib, Rossiyadagi totalitar sotsializm yo'lini ko'r-ko'rona takrorlardir. Demokratik va ijtimoiy islohotlarga qaramay, venger xalqining hayoti keskin yomonlashdi. Keng iste'mol mahsulotlari yetishmasdi, non, go'sht, yog', shakarga kartochka tizimi joriy qilindi. Korxonalarining keng miqyosli natsionalizatsiyasi mayda va o'rta korxonalarni qamrab oldi, bu o'rta qatlamlar ahvolini yomonlashtirdi va ularni sovet respublikasiga qarshi kurashga undadi. Dehqonlarning umidlari puchga chiqdi, natsionalizatsiya qilingan yerlar ularga berilmay, shirkatlar mulkiga aylantirildi. Sovet jamiyati siyosiy bo'shliqda bo'lib qoldi. So'l partiyalar vakillan - sotsial-demokratik partiya yo'lboshchilari ham unga qarshi chiqishib, proletariat diktaturasi tugatilishini va mamlakat demokratlashtirilishini talab qilishdi. Antantaning talabiga ko'ra, Ruminiya qo'shinlari venger qo'shinlarini Slovakiya hududidan olib ketish haqida ultimatum qo'ygan holda Vengriya hududiga bostirib kirdi. Bu yerda sovet hokimiyati tugatildi.

1919-yil 23-mart – Milanda *Mussolini* tomonidan 1-fashistlar "jangovar guruhi"ning tashkil qilinishi.

1919-yil 1-aprel – Britaniya qo'shinlarining Kavkazortini tark etishi.

1919-yil 8-aprel – fransuz qo'shinlarining Odessadan chiqib ketishi.

1919-yil 9-aprel - Xiva yaqinidagi Taxtada Junaidxon Sovet hukumati bilan bitim imzoladi. Unda sovet hukumati Xorazm aholisining mustaqilligini tan oladi, deyilgan edi.

1919-yil 13-aprel – Amritsar shahrida (Panjob poytaxti) ingliz qo'shinlari, taniqli siyosiy arboblarning, HMK faol rahbarlarining shahardan chiqarib yuborilishiga



qarshi norozilik mitingini o'qqa tutdilar. Qo'shinlar qurolsiz kishilarga qarata o'q ota boshlashdi. Mingdan ziyod kishi o'ldirildi, ikki mingdan ko'prog'i yaralandi. Hind xalqi ommaviy chiqishlar, namoyishlar, ish tashlashlar bilan javob qaytardi, hamma joyda politsiya bilan to'qnashuvlar yuz bera boshladi. Biroq HMK boshlangan ommaviy harakatni qo'llab-quvvatlamadi. Partiyada kurashning kuch ishlatish shakllarini inkor etib, faqat tinch, zo'rliksiz shakllariga yo'l qo'yadigan gandicha mafkura g'alaba qozondi. Kurashning bu shaklini Gandi *satiyagroxa* - "qat'iylik haqiqatda" deb nomladi.

1919-yil 15-aprel – GULAG tizimidagi mehnat lagerlarining barpo etila boshlanishi.

1919-yil 30-aprel – fransuz qo'shinlarining Sevastopoldan evakuatsiya qilinishi.

1919-yil may boshi - Turkistonga Turkomissiya keldi.

1919-yil may – Izmirga grek qo'shinlari tushirilganidan so'ng Kichik Osiyo Turkiya bilan Gretsiya o'rtasidagi shiddatli urush maydoniga aylandi.

1919-yil 1-may – Bavariya sovet respublikasi tor-mor qilindi. So'ngra yangi hukumat vakillari Parijda Versal tinchlik shartnomasini imzoladilar.

1919-yil 3-may - 3-iyun – Afg'oniston xalqining ingliz qo'shinlariga qarshi ozodlik kurashi.

1919-yil 20-may - Turkkomissiya vakili *G. Skalov* bilan muholifatdagi kuchlar yo'l boshchisi o'rtasidagi sulh bitimining asosiy qoidalari Zakaspiy fronti qo'shinlari Amudaryo gruppasi qo'mondonligi bilan qoraqalpoqlar va kazaklar o'rtasida tuzilgan sulh shartnomasi bilan tasdiqlandi.

1919-yil 22-may – Polsha qo'shinlari Rigani ishg'ol qildilar.

1919-yil 28-may – germaniyalik buyuk fizik *Albert Eynshteyn* o'zining nisbiylik nazariyasi to'g'risidagi ma'ruzasini o'qib eshittirdi. Bu kun tom ma'nodagi fan-texnika inqilobi asriga asos solinishiga olib keldi. *Albert Eynshteyn* nazariyasi olam to'g'risidagi tasavvurlarni butkul o'zgartirib, aniq fanlar sohasida qilingan barcha kashfiyotlarning poydevori bo'ldi.

1919-yil 28-may – turk xalqining Angliya-Gretsiya bosqiniga qarshi ozodlik kurashi boshlandi.

1919-yil iyun - Turkistonda qoziliklar yopildi. Bular milliy an'analarga hujumning bir qismi edi va xalq ommasining noroziligiga sabab bo'ldi.

1919-yil iyun oxiri - Chimboj uchashtkasining Zair posyolkasiga mahsus komissiya jo'natildi. Ularga berilgan farmoyishda "3-Zair kazaklar harbiy bo'linmasidagi burjua unsurlarini qurolsizlantirish" kerakligi ko'rsatilgan edi. Biroq, 3-Zair kazaklar harbiy bo'linmasi maxsus komissiyaga bo'ysunmasdan, Chimbojga ketib qoldi.

1919-yil 4-iyun - bolsheviklar rejimi "G'alla monopoliyasi to'g'risida", "Sinfiy non payogi to'g'risida", "Turkiston respublikasida oziq-ovqat siyosatini amalga oshirish yuzasidan oziq-ovqat komissariga favqulodda vakolatlar berish to'g'risida" kabi dekretlarni qabul qilishi bilan Turkistonda oziq-ovqat diktaturasini joriy qildi. G'alla monopoliyasi hech qanday tayyorgarliksiz joriy qilindi va shafqatsiz ravishda amalga oshirildi. Bu holat Turkistonda ocharchilikning nihoyatda kuchayishiga olib keldi.



1919-yil 28-iyun – Germaniya tomonidan I jahon urushida g'olib chiqqan Antanta davlatlari va mag'lub Germaniya o'rtasidagi sulh bitimining imzolanishi.

1919-yil 28-iyun – Versal saroyining Oynali zalida Germaniya bilan tinchlik shartnomasini imzolandi. Germaniya va uning ittifoqchilari urush aybdorlari deb e'lon qilindilar. Germaniyadan dunyodagi eng boy temir konlariga ega bo'lgan Elzas-Lotaringiya ajratib olindi va Fransiya berildi. Fransiya, shuningdek, Saar ko'mir konlarini 15 yil davomida ishlatish huquqini qo'lga kiritdi. Germaniyaning Reyn daryosidan g'arbdagi hududi Fransiya chegaralarigacha, sharqda 50 kilometrgacha harbiylardan xoli zonaga aylantirilishi, Reyn daryosining g'arbiy qirg'og'ida 15 yil mobaynida ittifoqchilarning qo'shinlari turishi zarur, deb belgilandi. Shartnomaga ko'ra, Germaniyada majburiy harbiy xizmat bekor qilinishi, mamlakat suv osti floti, harbiy va dengiz aviatsiyasi taqiqlanishi zarur edi. Ko'ngilli asoslarda shakllanadigan armiyaning askarlari soni 100 mingdan oshmasligi lozim edi. Bosh shtabni tarqatish, harbiy maktablarni yopish, barcha zobitlarni ishdan bo'shatish majburiy qilib qo'yildi. Mavjud qurol-yarog'lar, tank va to'plar, tez otar qurollar Antanta mamlakatlariga topshirildi. Germaniya amalda to'liq qurol-sizlantirildi. Tayinlangan Nazorat komissiyasi shartnoma talablari bajarilishini kuzatib turishi zarur edi. Mazkur shartnomaga asosan Belgiya *Eypen* va *Malmedi* okruglarini oldi. *Shlezvigning* shimoliy qismi Daniya ixtiyoriga o'tdi. Polsha *Poznan*, *Yuqori Sileziyaning* bir qismi, *Pomeraniya*, *G'arbiy va Sharqiy Prussiya* rayonlariga ega bo'ldi. *Gdansk* Millatlar Ligasi boshqaruvidagi "erkin shahar" deb e'lon qilindi. Polshaning dengizga chiqishini ta'minlaydigan maxsus "yo'lak" ham ajratildi. Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalari asosan Angliya, Fransiya va Belgiya o'rtasida taqsimlandi. Angliya va Fransiya *Togo* va *Kamerunni*, Angliya - *Tanganikani*, Belgiya - *Ruanda-Urundi* va *Namibiyani* (Janubl G'arbiy Afrikani) oldi. Yaponiya Tinch okeanidagi *Marshall*, *Marian* va *Karolin* orollarining, shuningdek, Xitoyning *Szyao-Chjou* viloyati va *Shandundagi* konsessiyaning sohibi bo'ldi. Germaniyaga ittifoqchilarning tinch aholisi va ularning mulkiga yetkazilgan zarar uchun tovon to'lash majburiyatini yukladilar. Tovonning umumiy miqdori konferensiyada belgilanmagan bolsa-da, Germaniya 1921-yilgacha har yili ittifoqchilarga 5 milliard dollardan to'tab turishi zarur edi. Shundan keyin 30 yil davomida to'lanishi lozim bo'lgan umumiy mablag' belgilanishi ko'zda tutilgandi. Bunday qarordan ko'proq fransuzlar mamnun edilar. Chunki ularning fikricha, agar Germaniya tovonni to'lab borsa, holdan toyadi va kuchsizlanadi, agar to'lama, fransuzlarning bosqinchiligini oqlash uchun asos boladi. Bu ochiqcha talonchilikni oqlash uchun ittifoqchilar Versal shartnomasiga 231-bandni qo'shdilar. Unda shunday deyilgandi: "Ittifoqchilar va ularga qo'shilgan davlatlar shuni ta'kidlaydilarki, Germaniya va uning ittifoqchilari tajovuzi tufayli ro'y bergan urushda ittifoqchilar va ularga qo'shilgan davlatlar fuqarolariga yetkazilgan talafot va zarar uchun butun mas'uliyatni Germaniya o'z zimmasiga oladi". Nemislar o'z hududlarining 10 foizini yo'qotdilar, bu hududda millionlab odam yashar, ularning bir necha yuz mingi uy-joysiz qolgan, o'nlab shaharlar vayron qilingan, millionlab odamlar nogiron bo'lib qolgan edi. Bunday vaziyatda ulkan miqdorda tovon to'lash aqlga sig'masdi. Ammo Germaniyaning boshqa chorasi yo'q edi.



U ikki mushkul imkoniyatdan birini tanlashi: qo'yilgan shartlar asosida tinchlikka erishishi yoki urushga kirib, shaksiz mag'lubiyat va inqilobiy tartibsizlik alamini totishi lozim edi. Qolaversa, Germaniya hukumati mag'lub Rossiyaga bundan ham og'ir va tahqirlovchi tinchlik bitimi imzolatilgan Brest-litovskni yaxshi xotirlardi. Har qalay, Versal shartnomasida bir paytlar Rossiyaga berilmagan ba'zi bir imkoniyatlar mavjud edi. Brest-Litovsk shartnomasiga asosan Rossiya tovonni darhol oltin, oziq-ovqat, xom ashyo bilan to'tashga majbur qilingan bo'lsa, Versal shartnomasida ma'lum vaqt berilgandi. Germaniya hay'ati shartnomani imzoladi.

1919-yil 29-iyul - bolsheviklarning Amudaryo soveti maxsus qaror qaror qabul qilib, Chimboyga RSFSRning Xiva xonligidagi favqulodda vakili *A. Xristoforov* boshchiligidagi mahsus komissiya yuborildi. Komissiya raisiga favqulodda huquqlar berilgan edi. Biroq komissiyaning urallik kazaklar atamani *M. Filchyev* bilan olib borgan muzokaralari muvaffaqiyat keltirmadi. Shunda komissiya Chimboy ijroiya qo'mitasini tarqatib yuborib, uning o'rniga Chimboy uchastkasi inqilobiy qo'mitasi (peBKOM)ni tuzdi. Bu holat Chimboyda sovet hokimiyatiga qarshi isyon ko'tarilishiga olib keldi.

1919-yil 31-iyul – burjua-demokratik yo'nalishga ega Veymar konstitutsiyasi qabul qilingan.

1919-yil 1-avgust – sotsial-demokratlar tazyiqi tufayli kommunistlar hukumatdan chiqishdi. Bu Vengriya sovet respublikasining xotimasi edi.

1919-yil 8-avgust – Angliya va Afg'oniston o'rtasida sulh bitimi imzolandi.

1919-yil 10-avgust - favqulodda komissiya To'rtko'ldan harbiy yordam so'radi. Chimboyga bu yerdan qizil askar otryadlari jo'natilgan bo'lsa ham, ular qamalga tushib qoldi.

1919-yil 11-avgust – Veymar konstitutsiyasi kuchga kirgan.

1919-yil 14-avgust - To'rtko'ldamahsus komissiya a'zolari qamoqqa olindi. Tez orada qo'zg'olonchilar Nukus qal'asini ishg'ol qildilar.

1919-yil 17-avgust - Chimboy uchastkasi va Mo'ynoq tumani butunlay bolsheviklardan ozod bo'ldi. Shu tariqa, Amudaryo bo'limining shimoliy qismida bolsheviklarsiz xalq hokimiyati o'rnatildi. Xalq hokimiyatining boshlig'i qilib uranlik kazak *Mixail Filchyev* saylandi. Uning tarkibiga qoraqalpoq biylaridan *Xon Maxsum (U. Bohautdinov)*, *Ibrohim Odilov*, *Bola biy*, *Seytnazar Pirnazarov*, *Inoyat Niyozov* va boshqalar kirishdi. Ular faoliyati qoraqalpoqlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

1919-yil 19-avgust - katta kommunistik otryad Chorjo'ydan To'rtko'lga yetib keldi. Qator bolshevistik tashkilotchi va targ'ibotchilar ham yuborildi.

1919-yil sentabr boshi – *Madaminbek* lashkarlari Jalolobod va O'sh shaharlarini egallashdi.

1919-yil 6-sentabr 3-oktabr – Markazdan kelgan bolsheviklar bilan Turkistondagi sovet amaldorlari o'rtasida hokimiyat uchun kurash qaytadan avj olib ketdi. Bu holat, Sovetlarning VIII s'yezdida yaqqol namoyon bo'ldi. *A. Kazakov* boshchiligidagi Turkiston MIK raisi bilan Markaz vakili *P. Kobozev* o'rtasida hokimiyat uchun bo'lgan kurashda *Kobozev* zo'rg'a g'olib chiqdi. Tub xalqlarga nisbatan shovinistik munosabatini oshkora namoyish qilgan *A. Kazakov* va o'rinbosari *Uspenskiy* ularning hamtovoqlari o'z lavozimlaridan olib tashlandi.



A.Kobozev Turkiston MIK ning yangi raisi *I.Apinga* mustamlakachilik siyosatini o'ta noziklik bilan yuritish tub xalqlarning manfaatlariga oshkora qarshi chiqmaslik xususida ko'rsatmalar berdi.

1919-yil 10-sentabr – Parij yaqinidagi *Sen-Jermen* saroyida Avstriya bilan shartnomaga qo'l qo'yildi. Unda sobiq Avstro-Vengriya yo'q bo'lganligi, Avstriya hududi sezilarli o'zgarishlarga uchraganligi qayd etildi. *Janubiy Tirohning* bir qismi Italiya ixtiyoriga o'tdi. *Chexiya* va *Moraviya* yangi tuzilgan Chexoslovakiya davlatiga qo'shildi. *Bukovina* Ruminiyaga berildi. Avstriyaga faqat 30 ming kishidan iborat armiyaga ega bo'lish ruxsat etildi, uning floti ittifoqchilar ixtiyoriga berildi, Avstriyaning Germaniya bilan qo'shilishi batamom taqiqlandi.

1919-yil 13-sentabr – *Madaminbek* boshchiligidagi qo'shinlar safiga Jalolobodda turgan rus krestyanlar armiyasining qo'shilishi vodiyda sovet hokimiyatini ag'darish uchun real kuch edi. Ular Eski Marg'ilon shahrini qizil bosqinchilardan ozod qildilar. Shu bilan birga vodiydagi eng yirik strategik shahar – Andijonni qamal qilishga kirishdilar. *Madaminbek* boshchiligidagi qo'shinning hujumi Farg'ona vodiysini larzaga keltirdi.

1919-yil 19-sentabr – Antanta harbiy qismlarining Arxangelskdan evakuatsiya qilinishi.

1919-yil 8-oktabr – Turkiston o't-olov ichida yonayotgan bir paytda *V.I.Lenin* buyrug'i bilan butun Rossiya MIK va RSFSR XKS ning Turkiston ishlari bo'yicha komissiyasi Turkkomissiya (raisi – *Sh.Z.Eliava*) tuzildi.

1919-yil 22-oktabr - Pomirning *Ergashtom* ovulida bo'lgan anjumanda *Madaminbek* boshchiligidagi Farg'ona muvaqqat muhtoriyat hukumati tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 yerli aholi va 8 rus vakili kiritildi. *Madaminbek* hukumat boshlig'i bo'lish bilan birga, Oliy Bosh qo'mondon ham etib tayinlandi.

1919-yil noyabr – Fransuz burjuaziyasi jamiyatni barqarorlashtirish uchun kurash olib bordi. Fransiyada urushdan keyingi birinchi parlament saylovlari bo'lib o'tdi. Burjua partiyalari Milliy ittifoq deb nomlangan saylovoldi uyushmasini tuzdilar. Milliy ittifoq bolshevizmga va ijtimoiy tartibsizliklarga qarshi kurash, Versal shartnomasiga qat'iy rioya qilish, ya'ni Germaniyani tovon to'lashga majbur etishni o'z vazifasi deb elon qildi.

1919-yil 4-noyabr – *Eliava, V.Kuybishev, F.Goloshchekin, Ya.Rudzutakdan* iborat tarkibidagi Turkkomissiya Toshkentga yetib keldi. *M.Frunze* va *G.Bokiy* keyinchalik bu yerga kelishdi. Turkkomissiya amalda mintaqadagi barcha partiya, sovet, xo'jalik va harbiy tashkilotlarga rahbarlik qilib, Markazdagi bolshevikcha siyosatni qat'iy ravishda amalga oshirishga kirishdi.

1919-yil 4-noyabr - Turkkomissiya tashkil qilindi.

1919-yil 11-noyabr - *M. Shaydakov* boshchiligidagi qizil askarlar Nukus qal'asini bosib oldilar.

1919-yil 21-noyabr - Turkfront harbiy inqilobiy soveti To'rtko'lga o'z vakili *Skalovni* yubordi.

1919-yil 27-noyabr – Bolgariya bilan shartnoma Parij yaqinidagi *Neyl syur* shaharchasida imzolandi. Unda Bolgariya qurolli kuchlari soni 20 ming kishi bilan chegaralangan, hududining katta qismi Yugoslaviya, Gretsiya va Ruminiya



foydasiga olib qo'yilgan edi. Bolgariya tovon to'lash majburiyati ham yuklatilgandi. **1919-yil 27-noyabr** – *Boris* Parij yonidagi Neyi shaharchasida g'olib davlatlar bilan shartnoma imzoladi. Bu shartnoma bo'yicha Bolgariya avval Egey dengiziga chiqish imkonini bergan hududlaridan mahrum bo'ldi. Janubiy Dobrudja Ruminiyaga, hududning bir qismi Yugoslaviyaga o'tdi. Bolgariyaga faqat 20 ming kishilik armiya saqlashga ruxsat berildi, havo flotiga ega bo'lish man etildi. Bolgariyaga 2,5 mlrd. frank reparatsiyalar to'lash majburiyati yuklatildi. Shu sababli mamlakatning butun moliyaviy-xo'jalik faoliyati xalqaro reparatsion komissiya nazoratiga bo'ysundirilgan edi.

1919-yil 28-30-noyabr - To'tko'lga qo'shimcha harbiy qismlar yetib keldi.

1919-yil dekabr – Xorazmga qarshi tajovuzkorlik harakatlari boshlandi.

1919-yil 22-dekabr – shimoliy otryad Amudaryodan kechib o'tib, shahar va qishloqlarni ishg'ol qildi

1919-yil 24-dekabr – janubiy otryad Amudaryoni kesib o'tib, shahar va qishloqlarni ishg'ol qilishdi.

1919-yil oxiri – ishchilarning birlashishga intilishlari tufayli Indoneziya yagona kasaba uyushma markazi tuzildi.

1919-yil bahor - *Behbudiy*ni amir jallodlari Qarshisida qatl qildilar.

1919-yil bahor - ingliz savdogarlari 400 toy qorako'l terini harid qilib olib ketdilar.

1919-yil bahor - rus krestyanlari sovet hokimiyati siyosati, tinch aholining qirg'in qilinishidan norozi bo'lib, krestyanlarning *Monstrov* qo'mondonligi ostidagi armiyasi *Madaminbek* lashkari bilan qo'shildi. Qizil armiyaga qarshi janglar olib bordi.

1919-yil bahor – Yugoslaviyada temiryo'lchilar, shaxtyorlar va boshqa sanoat tarmoqlari ishchilarining qudratli ish tashlash harakati avj oldi. Qishloqlarda yerning xususiy mulk sifatida berilishi asosiy talabi bo'lgan dehqonlar harakati qizg'in rivojlandi. Bu ziddiyatlar qirolikdagi vaziyatni beqarorlashtirib, siyosiy inqirozlargacha olib keldi va hukumat almashuvlarini keltirib chiqardi. Davlat mavjudligining birinchi 10 yili davomida 27 ta hukumat almashdi.

1919-yil yoz - Turkiston o'lkasida 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan aholi yalpi majburiy mehnatga tortildi.

1919-yil yoz oxiri - kuz - Farg'ona vodiysidagi istiqolchilik harakati eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. *Madaminbek* boshchiligidagi qo'shinlar safiga Jalolobodda turgan rus krestyanlar armiyasining qo'shilishi vodiya sovet hokimiyatini ag'darish uchun real kuch edi.

1919-yil kech kuz – *Madaminbek* qo'l ostida 30000 ga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi istiqol janglarini olib bordilar.

1919-yil kuz - *Dutov* kazaklari Orenburgdan chekindi va Turkistonga yo'l ochildi.

1919-yil kuz – Italiyada vaziyat nihoyatda keskin tus oldi. Urushdan keyin Italiyada ro'y bergan o'tkir siyosiy kurashda liberal islohotlar o'tkazishga qodir va siyosiy inqirozni burjua-demokratik tuzumini o'rnatish bilan hal etadigan yetakchi siyosiy partiya yo'q edi.

1919-yil kuz – Rossiya markazidan kelgan Turkkomissiya favqulodda va cheklanmagan, siyosiy-partiyaviy hamda davlat hokimiyati vakolatlarini amalga



oshirdi. U Turkiston Kompartiyasi MK, Turkiston MIK va XKS ustidan qattiq nazorat o'rnatdi, lozim topganda ularni tarqatib yubordi, tarkibini o'zgartirdi. Ichki va tashqi siyosat, iqtisodiyot, armiya, kadrlar masalasini o'z qo'liga olib markazlashtirildi. Rossiyadan yuborilgan moddiy resurslar, harbiy qismlar, Bolshevik kadrlar Turkkommissiya ixtiyoriga kelar edi.

1919-yil kuz – Xorazmga amaliy tajovuz boshlandi. Bolsheviklar Xorazm xalqi inqilob uchun yetilib, hatto mamlakatda qo'zg'olonchilar boshlandi degan bahonada go'yo ularga yordamga tayyor ekanliklarini e'lon qildilar.

1919-yil 1-yarmi - Zakaspiy frontida 198 sistema o'simlik yog'i va 305 sistema neft yonilg'i sifatida ishlatildi. Turkiston temir yo'llaridagi parovozlarda 53 sistema o'simlik yog'i va 223 sistema neft yoqildi. Ayrim zavod va korxonalarda 118 sistema o'simlik yog'i va 156 sistema neft ham yoqib yuborildi. Bu davrda aholi ehtiyojlari uchun atigi 63 sistema o'simlik yog'i ajratildi.

1920-1921-yillar – D. Jolittining Italiyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1920-1921-yillar – K.Ferenbax Germaniya reyxskansleri bo'lgan.

1920-1921-yillar - oziq-ovqat razvyorstkasi hisobidan 9.700.000 pud g'alla Turkistondan tortib olindi.

1920-1921-yillar - Turkiston respublikasidagi oziq-ovqat to'plovchi otryadlar faqat mahalliy aholi qo'lidan 9.708.703 pud g'alla, 6.358.144 pud yem-xashak, 1.606.210 pud go'sht va boshqa mahsulotlarni tortib olishdi. Tortib olingan oziq-ovqat mahsulotlari Rossiyaga jo'natilar edi.

1920-1922-yillar - arxeologlar Hind shaharlarining xarobasi *Panjob* va *Moxenjo-Doro* yodgorliklarini topishlari.

1920-1922-yillar – Izmirning greklar tomonidan bosib olinishi bilan boshlangan grek-turk urushi bo'lib o'tdi.

1920-1924-1925-yillar – Amerika dengiz piyodalari Xitoyga tushirildi.

1920-1924-yillar – A. Mileran hukumati.

1920-1924-yillar - Xorazm va Buxoro respublikalari sharoitida milliy madaniyat va maorifni rivojlantirish, ularni zamonaviy sivilizatsiya shakllari hamda mazmuni bilan boyitib boorish bilan yangi hokimiyat sho'balari shug'ullandi. Keng ko'lamda milliy ziyolilarni amaliy faoliyatga jalb qilish imkoniyatlari ko'zga tashlandi. Maorif, madaniyat sohalarida hukumat reja-dasturlarini ishlab chiqish, ularni hayotga tadbiiq etish bo'yicha dastlabki qadamlar tashlandi. Ammo bu respublikalarda ham madaniyat, e'tiqod, milliy qadriyatlarga bolshevikcha so'l-ekstremistik tazyiq o'tkazishga jiddiy urinishlar bo'ldi.

1920-1930-yillar - ateistik harakatning kuchayishi bilan ta'riflanadi. Partiya organlari, ayniqsa, yoshlar orasida dinga qarshi keng miqyosda tashviqot-targ'ibot ishlari olib bordilar. Ateizmga doir mahsus gazeta va jurnallar (1928-yilda "Xudosizlar" nomli jurnal), har xil ommaviy adabiyotlar nashr qilindi, kinofilmlar olindi, dinga qarshi har xil mavzudagi har xil srektakllar qo'yildi.

1920-1930-yillar – Belorussiya, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon va O'rta Osiyo respublikalarida texnikum va oliy o'quv yurtlari ochildi.

1920-1930-yillar – Fransiya kommunistik partiyasi so'l kuchlarning demokratiya, tinchlik va ijtimoiy adolat uchun kurashga boshchilik qildi.



1920-1930-yillar - mumtoz adiblari *J. Steynbek, M. Remark, E. Xeminguey* davri. Biroq ularda ilgari keskin tanqidiy kayfiyat jamiyatning axloqiy negizlarini fosh etish to'liq yo'q edi. Buyuk *Steynbek* esa Vetnamdagi urushni qo'llab-quvvatladi ham. Bu adabiyot va san'atda ularning shakl va mazmuni buzilishida aks etdi. Endi g'arbcha jamiyat qadriyatlarini tanqid qilib chiqishga jur'at etmadi - ularni hech kim e'lon ham, reklama ham qilmas edi.

1920-1930-yillar – O'zbekistonda juda murakkab ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga har xil tarzda ta'sir o'tkazdi, barcha sohadagi o'zgarishlarni qarama-qarshi tusga kiritdi va respublika taraqqiyotining asosiy tendensiyalari hamda yo'nalishlarini uzoq yillarga belgilab berdi.

1920-1930-yillar - O'zbekistonda xotin-qizlarning savodini chiqarishga katta e'tibor berildi, ayollarning savodsizligini tugatish bo'yicha mahsus kurslar tashkil qilindi.

1920-1930-yillar - O'zbekistonning xalqaro aloqalari, xususan, Sharq va G'arbning talaygina mamlakatlari bilan iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalar haddan tashqari murakkab sharoitlarda ham mustahkamlanib bordi. Bu aloqalar madaniyatlarining bir-birini tushunib, bir-birini boyitib borishiga, xalqlar o'rtasidagi do'stona aloqalarning mustahkamlanishiga yordam berdi.

1920-1930-yillar - Qoraqalpog'iston adabiyoti va san'atining yangi janr va shakllar bilan zo'r berib boyib borish jarayoni. Adabiyotda she'riyatning keng tarqalgan va chuqur ildiz otib ketgan an'anaviy turlari bilan bir qatorda, dramaturgiya, proza, tanqid mustahkam o'rin ola boshladi. Yangi qoraqalpoq adabiyotini boshlab berganlar orasida *A.Musayev* va *S.Majitov* bor edi.

1920-1930-yillar - Qoraqalpog'iston madaniyatining rivojlanishi ziddiyatli kechdi.

1920-1930-yillar - Qoraqalpog'iston uchun uning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan muhim hodisalarga boy davr bo'ldi.

1920-1930-yillar - Turkistonga 1400 harbiy keldi.

1920-1930-yillar – Yaponiya qishloq xo'jaligi og'ir inqirozni boshidan kechirdi. Qishloqda pomehchik-samuraylarning hukmronligi dehqonlar mehnati samaradorligining pasayishiga olib keldi. Konsernlarning qudratli byurokratik apparati bilan texnik jihatdan qoloq mayda va o'rta sanoat o'rtasida nomutanosiblik yuzaga keldi.

1920-1930-yillar – SSSR madaniyat va ta'lim sohasida erishgan natijalar *madaniy inqilob* deb nomlandi.

1920-1932-yillar – AQShda prezidentlikka saylovlarda Demokratlar partiyasi mag'lubiyatga uchradi va Oq uyni respublikachilar egalladilar. Bu davr Amerika iqtisodiyotining gullab-yashnash (prosperiti) davri bo'ldi. Unga *U.Garding* asos soldi.

1920-1932-yillar - Turkistonga 1400 ta yevropalik bolshevik keldi. Bularning ko'plari eng yuqori lavozimlarni egalladilar.

1920-1933 yillar – *Filipp Sheydeman* reyxstag deputati bo'lgan.

1920-yilga qadar – Lotin Amerikasiga sarmoya joylashtirish borasida Angliya 1-o'rinda turardi.



1920-yil - Farg'ona va Samarqand viloyatlaridagi dehqon xo'jaliklari soni 372000 tani tashkil etdi. Sirdaryo viloyatini ham qo'shib olganda bu uch viloyat hududida aholi soni 3 mln. emas, 2 mln 76 ming kishini tashkil qildi.

1920-yil - "Milliy Ittihad" tashkilotining Farg'ona Samarqand, Xorazmda, Buxoro da sho'balari tashkil qilinadi.

1920-yil – uchinchi reyx iborasi birinchi marta nemis baynalmilalchi yozuvchisi *Meller van der Bruk* tomonidan qo'llangan bo'lib, u o'z kitobini shunday deb nomlagan. Natsistlar darhol bu nomni o'zlari tuzmoqchi bo'lgan davlatga qo'yib, uning Karl Buyuk tomonidan o'rta asrlarda barpo etilgan birinchi Germaniya davlati va ikkinchi reyx bilan bog'liqligiga urg'u berdilar.

1920-yil - *Abdulla Avloniy* Toshkentdagi o'lka bilim yurtida, so'ngra o'zbek xotin-qizlar bilim yurtida mudirlik qildi.

1920-yil - *Aleksandr Mileran* Fransiya prezidenti etib saylandi.

1920-yil - amerikalik fantast yozuvchi *Ayzbek Azimov* dunyoga keldi.

1920-yil - Amudaryo bo'limida to'ntarishga qadar bu yerda 232700 kishidan 113440 kishi qolgan edi.

1920-yil – AQShda butun dunyoda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning 47 %i AQShda yaratildi.

1920-yil - BKP a'zolari soni 17 ming kishi.

1920-yil - Boshqa respublikalararo boshqaruv organlari: O'rta Osiyo suv xo'jaligi boshqarmasi (Ñöëääçãöäxöç), Orta Osiyo davlat plan qo'mitasi (Ñöëääçãöññ ääi), O'rta Osiyo Xalq xo'jaligi Oliy Kengashi, VTsSPS (Ãñëñöç çí ü é öëí öäëüí ü é ñöäèò ï ðöð ëññëoi äëüí û x ñöç çöâ) O'rta Osiyo byurosi, turli Ittifoq xalq komissarliklarining filiallari ham tashkil etildi.

1920-yil – Chexoslovakiya bilan Vengriyaga qarshi yo'naltirilgan shartnoma tuzildi. Xuddi shunday shartnomalar Vengriya va Bolgariyaga qarshi Ruminiya bilan ham tuzildi. Shu asosda Kichik Antanta tarkib topib, Fransiya bilan shartnoma imzolinishidan so'ng uzul-kesil rasmiylashtirildi.

1920-yil – Chexoslovakiya respublikasi konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu konstitutsiya I jahon urushidan so'ng yuzaga kelgan barcha mamlakatlarga qiyosan eng demokratik edi.

1920-yil - dahshatli ocharchilik va og'ir iqtisodiy inqirozni boshidan kechirayotgan Turkiston o'lkasidan Rossiya markaziga eng avvalo oziq-ovqat mahsulotlarini olib chiqib ketish tobora kuchaydi. Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, tashib ketilayotgan g'alla mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat turlarining miqdori 4,5 marta ko'paygan.

1920-yil - Farg'ona va Sirdaryo mahalliy to'qimachilik do'konlarida 2280 kosib ishlagan.

1920-yil - Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarida kosiblar soni 2280 kishiga yetdi.

1920-yil - Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida maktablar soni 1405 taga yetdi.

1920-yil - *Fayzulla Xo'jayev* boshchiligida Buxoroda "Milliy Ittifoq" firqasi tashkil topdi.

1920-yil - *Fitrat* "Chin sevish" pyesasini yozdi. Keyinchalik "Hind ixtilolchilari", "Abulfayzxon", "Shaytonning tangriga isyoni" dramalarini yaratdi.



1920-yil – Fransuz ishchilari mamlakatda nufuzli siyosiy kuch edilar. Ular uyushgan holda harakat qilar, o'z huquqlari uchun kurashda katta tajriba to'plagan edilar. Ishchilar sinfining asosiy tashkilotlari tez sur'atlar bilan ko'payib bordi. Asosiy kasaba uyushmasi bo'lgan Yalpi Mehnat Konfederatsiyasi (YaMK) a'zolari soni 2,5 millionga yetdi.

1920-yil – Italiyada kurash o'z cho'qqisiga chiqdi. Ish tashlashlarda 2,5 mln. kishi qatnashdi. Shimoliy Italiyada ishchilar zavod va fabrikalarni egallab olib, uch hafta mobaynida o'z nazoratlari ostida ushlab turdilar. Ular ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydilar, barcha yirik korxonalarni muhofaza ostiga olgan Qizil gvardiya tuzdilar. Armiya o'z betarafiligini e'lon qilgach, hukumat uni xalqqa qarshi yuborishga botinmadi. Dehqonlar va shahar aholisi ishchilarga xayrixohlik bilan qarab, yaqindan yordam berdi. Hukumat va korxonaga egalari jiddiy yon berishlarga majbur bo'ldilar. 8 soatli ish kuni qonunlashtirib qo'yildi, narxlarning o'sishini kompensatsiya qilish maqsadida ish haqiga qo'shimchalar e'lon qilindi. Chorikorlar tashkilotlari zamindorlarni ishga yollashning qulay shartlariga ko'ndirdilar. Parlament mamlakat janubidagi dehqonlar tomonida egallangan yerlarning bir qismini qonunlashtirib berdi.

1920-yil – Italiyada pulning qiymati 1914 yilga nisbatan besh barobar pasaydi.

1920-yil – Ixvonlarda “kofirlar”, ya'ni xristianlar, yahudiylar, shuningdek vahhobiylarning diniy va axloqiy tamoyillarini rad etgan musulmonlarga nisbatan murosasizlik ruhi singdirilgan edi. Ular Ibn Saudning Arabistonni birlashtirish va islohotlarni o'tkazish kurashida zarbdor kuch bo'lib qoldi. ularning qo'llab-quvvatlashi tufayli Ibn Saud Arabiston yarimorolida mutlaq monarxiya shaklidagi yagona davlat – Saudiya Arabistonini barpo etdi.

1920-yil – Namibiya JAR boshqaruvi ixtiyoriga berilgan edi.

1920-yil – natsizm, ya'ni *Gitler* hali Germaniya national-sotsialistik ishchilar partiyasi fyureri bo'lmay turib e'lon qilingan edi. Gitler ushbu dasturning barcha moddalarini nazariy shaklda ifodalab berdi va uni natsizm mafkurasi ko'rinishidagi g'oyalar tizimiga aylantirdi. Ular Gitlerning “*Mayn Kampf*” (“Mening kurashim”) kitobida o'z ifodasini topdi.

1920-yil - O'lkaning uchta o'zbek viloyatlarida 3440 ming qoramol tashkil etardi.

1920-yil - O'rta Osiyoda TSRdan tashqari Buxoro va Xorazm Xalq Sovet respublikalari tuzilganligi ham muhim omil bo'ldi. Bu respublikalar tuzilganidan keyin ma'lum rahbarlar guruhi ularni ham hududiy qayta bichish doirasiga tortish rejaralarini ilgari surdilar.

1920-yil - qizil askarlar tomonidan Urganch aholisi, ulamolari norozilik yig'inining qonli bostirilishi, *Qo'shmamadxon* boshchiligidagi turkman yigitlarining o'ldirilishi, turkman aholisi ustiga jazo otryadlarining bostirib borishi.

1920-yil - Qoraqalpog'istonda ekin ekiladigan umumiy maydon 47000 desyatini tashkil etdi.

1920-yil - Qoraqalpog'istonda olinadigan yalpi paxta xosili 88000 pudga yetdi. G'alla ekinlari deyarli 3 baravar kamayib, chorva mollar soni 500000 boshdan 201000 boshga tushib qoldi.

1920-yil - Respublika tuzilgach, “Buxoro axbori”, “Ozod Buxoro” gazetalarini ta'xis



etildi. Buxoroda matbuotni tashkil qilishda *Said Ahroriy*, *Cho'pon* katta xizmat ko'rsatdilar. Xorazm respublikasida "Inqilob quyoshi" gazetasi nashr qilindi.

1920-yil - Rossiyaning ko'p guberniyalarida qurg'ochilik bo'lishi natijasida Turkistonga 60 mingdan ko'p ochlar keldi. Mamlakatning Yevropa qismidan keluvchilar oqimi to'xtovsiz davom etdi.

1920-yil – Fransiyadagi saylovlarda *Jorj Klemanso* mag'lubiyatlarga uchradi.

1920-yil - sovet hokimiyati dehqonlar qarshiligini sindirish maqsadida ular orasida nizo va dushmanlikni keltirib chiqarmoqchi bo'ldi. O'ika sovetlarining IX qurultoyida boy va quloq xo'jaliklarini yo'q qilish, qishloqlarda sinfiy tabaqalanishni avj oldirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

1920-yil – sovet hukumatida teatrlar, universitetlar, kinostudiyalar va ma'rifat muassasalari ochildi.

1920-yil - Turkistonda qator dekretlar joriy qilinib, oziq-ovqat razvyorkasi joriy qilindi, ya'ni oziq-ovqatga davlat monopoliyasi asosida xo'jaliklardan ortiqcha g'alla va boshqa mahsulotlar majburan tortib olinadigan bo'ldi. Amalda esa soldatlar va qurollangan ishchilar (oziq-ovqat otryadlari) xo'jaliklardagi jamiki g'alla va boshqa mahsulotlarni zo'rlik bilan olib keta boshladilar, hatto urug'likka qoldirilganlari ham talab ketildi. Shahar bilan qishloq o'rtasida natural mol almashish va'da qilinganiga qaramasdan, dehqon xo'jaliklari hech qanday sanoat mollari olmadi. "*Harbiy kommunizm*"nomini olgan bu siyosat asosida shahar va tumanlarda voyaga yetgan va 55 yoshgacha bo'lgan mehnat bilan band bo'lmagan har bir fuqaro majburiy ravishda mehnatga jalb qilindi. Hatto namoz paytida askarlar masjidlarga bostirib kirib odamlarni zo'rlik bilan ishga haydab borgan.

1920-yil - Turkiston davlat universitetga Rossiyadan pedagog-professorlar, kitoblar, o'quv qurollari yetkazib kelindi. Bu maskanlar inqilobiy sinfiylik tamoyili bilan ishladi. Universitetning tayyorlov-ishchilar fakulteti (rabfak)da kambag'al tabaqaga mansub kishilar o'qigan. Yerli xalqlar vakillari ularga kam qatnagan.

1920-yil - Turkiston o'lkasida paxta tozalash sanoati, so'ngra irrigatsiya tarmoqlari ishchilari harbiy holatga ko'chirildilar, ba'zi qismlar mehnat qismlariga aylantirildi.

1920-yil - Turkiston o'lkasidagi paxta tozalash, yog'-sovun zavodlarining soni qisqarib borib 37 taga tushib qoldi.

1920-yil – Turkiston xalqlarining sovetlarga qarshi janglari bu yildan keyin ham davom etdi. Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi kurashlar bilan bir qatorda, endilikda Buxoro va Xorazmda ham bosqinchi qizil armiyaga qarshi boshlandi.

1920-yil - Turkistonda 150 ming hunarmand ishlagan, ulardan ko'nhilar 8680, etik va mahsido'zlar 24030, ip yigiruvchilar 20150, to'qimachilar 62150, temirchilar 7470 kishini tashkil qildi. Ko'plab sanoat korxonalari to'xtab qolishi oqibatida ishsizlar soni ko'paygan, ularning ham bir qismi kosibchilik bilan shug'ullangan. Ko'plab sanoat korxonalari to'xtab qolishi oqibatida ishsizlar soni ko'paygan, ularning ham bir qismi kosibchilik bilan shug'ullangan.

1920-yil - Turkistonda kosiblar soni 30 ming kishini tashkil qilardi.

1920-yil - Turkistonda o'zbek tilida 118 ta kitob nashr etildi.

1920-yil - Turkistonning Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona viloyatlarida qariyb 400 ta rus posyolkalari bo'lib, undagi aholi 100 ming kishi atrofida edi. Ularni rus



krestyanlari, temir yo'l ishchilari, baliqchilar tashkil qilardi. Shuningdek, o'zbek shaharlarining yangi shahar qismlarida ham rus ishchilari. turli xizmatchilar yashagan.

1920-yil – Turkkomissiya o'lkamiz yangi tarixida o'ta mash'um rol o'ynadi. U bolsheviklar hukmronligini kuchaytirish va o'lkaning sovet Rossiyasiga qaramligini kengaytirish bilan jiddiy shug'ullandi. Turkkomissiyaning Toshkentga kelishi bilan Turkistonda bolshevistik diktaturani o'rnatish jarayoni muayyan marraga yetdi. Bolshevistik diktaturaga asoslangan sovet rejimi tub aholining manfaatlari va intilishlariga zid bo'lgan, faqat sinfiy kurashga asoslangan va xalqqa qarshi qaratilgan totalitar rejim edi.

1920-yil - Turkkomissiya va Ya. *Rudzutak* tezislari qarama-qarshi o'laroq, *Turor Risqulov* va bir guruh milliy yetakchilar *turkiyzabon xalqlar yagona bo'lib, ularning tarixiy ildizlari, dinlari, an'analari va madaniyati mushtarakdir, Turkistonni alohida qismlarga ajratib bo'lmaydi*, degan g'oyani ilgari surdilar. Biroq bu fikrni bolshevikcha Markaz inkor etib, uni panturkizm, panislomizm, burjua millatchiligi deb baholadi.

1920-yil - Turkkomissiyani tugatish, qizil armiyani Turkistondan olib ketish va b. bilan Turkiston MIK raisi *T.Risqulov Leninga* murojaat qilgan edi.

1920-yil – *Uinston Cherchill* Buyuk Britaniya konservatorlar partiyasining rahbarlaridan biri.

1920-yil – Versal, Sen-Jermen va Trianom shartnomalari Chexoslovakiya chegaralarini belgilab berdi va Yevropa xaritasida Chexoslovakiya nomli yangi davlat paydo bo'ldi. Uning tarkibiga sobiq Avstro-Vengriya va Germaniya hududlarining qismlari – Chexiya, Moraviya, Sileziyaning bir qismi, Slovakiya, Karpatori Ukrainasi kirdi. Yangi tuzilgan davlatining maydoni 140,4 kv. km.ni tashkil etdi, bu yerda 15 mln kishi yashardi. Aholining taxminan yarmini chexlar, beshdan birini slovaklar, qolganini vengrlar, nemislar, ukrainlar, polyaklar va boshqalar tashkil etardi. Nemislar mamlakatning eng rivojlangan qismi - Sudetda yashashar, ularning soni 3,5 mln. kishigacha edi. Avvalgi Avstro-Vengriyaning eng rivojlangan qismi Chexoslovakiyaga o'tdi. Bu yerda sobiq imperiya kimyo sanoatining 52, to'qimachilikning 75, ko'mir sanoatining 76, oynasozlikning (mashhur Bogemiya oynasi) 93, chinnisozlikning 100 foizi joylashgan edi. Shuningdek, mamlakatda yirik mashinasozlik va harbiy zavodlar (Shkoda) ham mavjud edi.

1920-yil - Xorazm va Buxoroda bolsheviklar xalq ommasining madaniyati, an'analari, ma'naviyatiga zid bo'lgan siyosat va chora-tadbirlarni o'tkazishga kirishdilar. O'tmish avlodlar yaratgan obidalar vayron qilindi. Jamiyat hayotining axloqiy tamoyillariga hujum qilindi.

1920-yil – Xorazmda vaqflarni umuman yo'q qilish haqida e'lon qilindi.

1920-yil – Xorazmda vaqflarni yo'q qilish haqida gap ketganda bolsheviklar katta noroziliklar bildiradi. Nozirlar kengashi raisi *P.Yusupov* "*vaqflar daxlsiz bo'lib, ulardan tushgan mablag' asosan masjidlar, madrasalar va mullalarga xarajat qilinadi*", deb qat'iy uqtiradi. Natijada *P.Yusupov* hukumatiga qarshi fitna uyushtiradi.



1920-yil – yangi konstitutsiya asosida respublikada reyxstagga saylovlar bo'lib o'tdi. Saylovlar sotsial-demokratlar uchun kutilmagan natija bilan yakunlandi. Ular uchun berilgan ovozlar miqdori ikki baravar kamaydi. Ayni paytda konstitutsiyaviy monarxiya e'lon qilish tarafdori bo'lgan partiyalar uchun berilgan ovozlar miqdori keskin oshdi.

1920-yil - yerli xaqlar, miliy rahbarlar Turkiston milliy davlatchiligiga erishish uchun jiddiy kurash olib bordilar.

1920-yil –Polsha qo'shinlari tomonidan – Vilnyusni va Vilnyus viloyatlari bosib olindi.

1920-yil – Qoraqalpog'istonda milliy tilda gazeta va jurnallar, kitoblar nashr qilinishi yo'lga qo'yildi.

1920-yil – “*Mitsubisi*” konserni 120 ta kompaniyani nazorat qilardi va o'z tarkibida temir yo'l, elektrotexnikam, metallurgiya, kemasozlik, kemachilik kompaniyalariga ega edi.

1920-yil - 7 ta dorulmuallim (èi òõñ), bir necha bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi.

1920-yil – *Albert Eynshteyn* va uning xodimi *M. Plank* Berlinda ilmiy ish olib borishdi.

1920-yil – Amerika sarmoyasi g'arbiy yarim sharda tanho hukmronlik qildi. Lotin Amerikasidagi 20 mamlakatning 14 tasi AQShning moddiy nazorati ostida bo'lib, bu mamlakatlarda Amerika hukmron doiralarning irodasiga bo'ysungan tuzumlar qaror topdi.

1920-yil - AQSh G'arbiy Yevropadagi moliya tizimlarida ham yetakchi marralarni qo'lga kiritib, bundan qit'a ustidan o'z siyosiy hukmronligini o'rnatish yo'lida foydalandi. Daues rejasi ko'magida moliya sarmoyasi G'arbiy Yevropaga kiritildi va Germaniya harbiy-ishlab chiqarish qudrati hamda Germaniya militarizmining tiklanishiga ko'maklashdi. Amerika kompaniyalarida ayniqsa Polsha katta qiziqish uyg'otdi, Amerika sarmoyasi bu yerda Polsha qazilma va metallurgiya sanoatining 50%i ustidan nazorat o'rnatishga erishdi.

1920-yil – AQSh iqtisodiy faol aholining 66 % i qishloq xo'jaligida ishlab, faqat 14 % igina ishlab chiqarishda band etilgan edi. Xorijiy sarmoyaning tazyiqi bu yerda yaratiluvchi boyliklarning asosiy qismi chet elga chiqib ketishiga imkon yaratardi.

1920-yil – AQShda boshlangan yangi ishlab chiqarish-texnika inqilobi o'zi bilan birga yangi ijtimoiy puch xayollarning oqimini olib keldi.

1920-yil – AQShda siyosiy hayotida yangi sharoitga moslashishga erishgan Respublikachilar partiyasi muhim rol o'ynay boshladi.

1920-yil – *Chako-Boreal* boy neft koni ochildi.

1920-yil – fashizim Italiyada paydo bo'lgan siyosiy oqim hisoblanardi.

1920-yil - iste'dodli va ajoyib *Aysedora Dunkan*, Milan operasi artistlari va boshqa ko'pgina san'at ahlari O'zbekistonda bo'ldilar.

1920-yil – jahonda ilmiy-texnikaviy inqilob hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Inson tarixida 1-marta ochiq fazoga chiqdi va Oyga qadam bosdi. Atom energiyasi, gen muhandisligi, elektronika, fazoviy televidenie, eng yangi harakat vositalari, xalqlarning o'zaro munosabatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi.



1920-yil – keksa va yosh avlodning badiiy iste'dodlari o'zbek milliy adabiyoti g'oyaviy-badiiy jihatdan boyitilgan talaygina asarlarni yaratdilar. *Abdulla Qodiriy, Fitrat, G'ulom Zafariy, Hamza, Cho'lpon* va boshqalar o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi, ozodlik uchun kurashini, ayollar erkinligini, ijtimoiy o'zgarishlarni mahorat bilan yoritgan bir qancha nazariy, she'riy va dramatik asarlar yaratdilar.

1920-yillar – kuchli ilmiy laboratoriyalar barpo etila boshlandi va ular fan-texnika inqilobining yetakchi markazlariga aylandi. Ilmiy markazlar AQShda (Kaliforniya universiteti Los-Alamos laboratoriyasiga aylantirilib, bu yerda birinchi atom bombasi yaratildi), Fransiyada (bu yerda er-xotin Kyurilar ish olib bordilar), Germaniyada (M. Plank boshchiligidagi) va Daniyada (unga Nils Bor rahbarlik qildi) barpo etildi. Ularda fizika, matematika, biologiya, kimyo sohasidagi dunyodagi eng buyuk aql sohiblari jamlandi. II jahon urushiga tayyorgarlik ehtiyojlari ilmiy markazlarning ahamiyatini oshirdi. Ularga harbiy buyurtmalar, mablag'lar oqib kela boshladi. Bu markazlarda eng zamonaviy qurol-aslaha, o'q-dori, harbiy texnika, samolyot va tanklar uchun yonilg'i yaratildi. Bu laboratoriyalar va olimlar ishining samaradorligi bo'ljak urushning natijasiga ko'p jihatdan ta'sir qilishi hech kimga sir bo'lmay qoldi.

1920-yil - mashhur yozuvchi, ma'rifatparvar va siyosiy arbob *Hamza Hakimzoda Niyoziy* Afg'oniston va Hindistonga borib, bu yerlarda kitobxonlar hamda ijodiy ziyolilar bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Madaniy aloqalarning rivojlanib borishiga mashhur hind yozuvchisi *Robindranat Tagor*, ajoyib chex publitsisti *Yulius Fuchik*, venger muallifi *Mate Zalka* va boshqalar o'z hissalarini qo'shdilar.

1920-yillar - O'zbek kinematografiyasi dastlabki yutuqlarni qo'lga kiritdi. "O'lim minoras" kinofilmi jahonning 14 mamlakatida, jumladan, Germaniya, Yugoslaviya, Argentina, Boliviya, Ekvadorda namoyish etildi. O'zbekiston kino ekranlarida har xil ajnabiy lentalar, jumladan, "*Hind maqbaras*", "*Nomsiz kish*", "*Jinnlikka bir bahya*", "*Aybdor*" filmlari namoyish etildi. Ko'ngilochar filmlardan tashqari, ijtimoiy jihatdan jiddiy kino asarlari ham qo'yilar edi.

1920-yillar - O'zbekiston iqtisodiyotining tiklanishi bilan belgilandi, lekin bunda mayda ishlab chiqarish har qalay ustun bo'lib turdi. Xususiy sektorning mavjudligi iqtisodiyotda ustun bo'lib turdi va yangi iqtisodiy siyosat sharoitlarida mayda xo'jaliklarning yuksalib borishiga olib keldi, bu narsa tiklanish jarayonlariga yaxshi ta'sir o'tkazdi. Mayda sanoat va kustar ishlab chiqarishning jonlanishi ichki bozorni kengaytirdi va yirik davlat industriyasi uchun mablag'lar bera oladigan manbalarni yaratdi.

1920-yillar - O'zbekistonda boshqa ijtimoiy-siyosiy va jamoat tashkilotlari: kasaba uyushmalari, komsomol, Osoaviaxim, turli ilmiy-texnik va ijodiy jamiyatlar ham faoliyat ko'rsatdi.

1920-yillar – O'zbekistonda dastlabki ilmiy tadqiqot muassasalari ochildi. Ular respublika uchun amaliy jihatdan muhim bo'lgan muammolarni ayniqsa irrigatsiya, paxtachilik va tibbiyot sohasidagi muammolarni ilmiy jihatdan ishlab chiqarishni avj oldirdilar.

1920-yillar – O'zbekistonda xotin-qizlar bo'limlari tashkil etildi. Ular quyidagi ishlarni amalga oshirdilar: har bir xonadonga kirib tushuntirish ishlari olib bordilar,



maxsus xotin-qizlar klublari, artellar, do'konlar tashkil etdilar, bu yerlarda xotin-qizlar hech qanday qarshiliksiz tikish, savdo-sotiq, o'qish-yozishni o'rganish bilan shug'ullandilar.

1920-yillar - O'zbekistonda yangi iqtisodiy siyosat tamoyillaridan voz kechish kooperativ qurilishga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Kooperatsiyaning sotsialistik degan shakllari jadal suratlarda rasm bo'la boshladi: yerni jamoa bo'lib ishlovchi shirkatlar, ya'ni TOZlar tuzish, qishloq ho'jaligi artellarini tashkil qilish. O'zbekistonda 550 ta artel 166 ta TOZ tuzilgan.

1920-yillar - Rossiyada chorvachilik urushdan oldingi darajaga yeta olmadi, dehqon xo'jaliklarining 30 % i otsiz edi.

1920-yil - Rossiyaning ko'p guberniyalaridagi qurg'oqchilik oqibatida Turkistonga 60 mingdan ziyod ochlar keldi.

1920-yil – sintetik materiallardan mahsulotlar ishlab chiqarish katta iqtisodiy ahamiyat kasb eta boshladi. Sun'iy ipak sanoat va turmushda yangi davrga yo'l ochdi. Uni ishlab chiqarish va iste'mol qilish hajmlari juda tez o'sdi. Vaqt o'tishi bilan bu tovarni ishlab chiqarish jarayoni yanada takomillashdi. Sun'iy ipak arzon to'qimachilik mahsuloti sifatida kundalik turmushda paxtaning o'rnini bosa boshladi, Sintetik ipak ishlab chiqarish Germaniya va Italiya kabi mamlakatlaraing hukumatlari e'tiborini o'ziga jalb qildi, ular xom ashyo bilan o'zlarini o'zlari ta'minlashga urindilar.

1920-yil – totalitarizm Germaniya va Italiya fashizmning rasmiy mafkurasiga aylandi.

1920-yil – Turkiyada 1-qand zavodlari qurildi, to'qimachilik sanoati kengaytirildi, temir yo'llar tarmog'i yuzaga keldi, 1- milliy banklar tashkil etildi. Biroq dehqonlar kamolchilik inqilobidan hech narsa olishmadi - yer avvalgidek zamindorlar va davlat amaldorlari qo'lida qoldi.

1920-yil – Vetnam qishloq xo'jaligiga kapitalning kuchli oqimi boshlandi. Butun bir elatlar quvilgan yerlarda kuchuk, kofe va choy plantatsiyalari barpo etildi. Fransuz kapitalining sezilarli qismi bank ishiga, savdo va transportga ham yo'naltirildi. Shu tariqa Vetnam iqtisodiyotining butun-butun tarmoqlari Fransiyadagi eng yirik Hindixitoy banki qo'lga o'tdi.

1920-yil – Yaponiya yirik jahon davlatiga aylandi.

1920-yil - Yosh buxoroliklarning "*Uchqun*" gazetasi va "*Tong*" jurnallari chiqa boshladi. Jurnalda *F.Xo'jayev*, *Fitrat*, *P.Soliyev*, *A.Mustafoyev*ning maqolalari e'lon qilingan.

1920-yil boshi - *Abdurauf Fitrat* boshliq Toshkentda tuzilgan "*Chig'atoy gurungi*" uyushmasi yangi o'zbek milliy adabiyoti, tili va madaniyatini yaratish adabiy - madaniy merosini to'plash va o'rganinsh, talantlarga har tomonlama ko'mak berishga harakat qildi. Ular milliy istiqlol ruhidagi asarlar nashr etish, tashviq va targ'ib etishni yo'lga qo'ya boshladilar

1920-yil boshi – Angliya, Germaniya, Avstriya, Norvegiya, Italiya va boshqa mamlakatlar bilan Rossiya ilk savdo aloqalarini o'rnatildi. Yevropa mamlakatlari va AQSh bilan iqtisodiy aloqalarning bir maromda rivojlanishiga tashqi savdoning davlat tomonidan monopoliyalashtirilgani to'g'anoq bo'ldi. Bu tufayli AQSh SSSR bilan savdo aloqalari o'rnatishni qat'iy rad etdi.



1920-yil boshi – AQShda fermerlarni qo'llab-quvvatlash, demokratik jamiyat asosini yaratish, mamlakatda ishlab chiqaruvchi boylklarning yanada adolati taqsimlanishiga erishishga qaratilgan islohatlarni amalga oshirishni talab qilgan keng harakat boshlandi.

1920-yil boshi - O'zbekistondan bir necha o'n kishidan iborat dastlabki guruhlar Germaniyaga o'qishga yuborildi.

1920-yillar boshi – jahonning fundamental tadqiqotlar markaziga aylangan Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya)dagi Kavendish laboratoriyasi yetakchi markazlardan biri hisoblanardi. Bu yerda elektron, pozitron, neytron kashf qilindi. DNK modeli taklif etildi, yadroning parchalanishi amalga oshirildi. Laboratoriyada davrning buyuk olimlari – *P. Lanjeven, J. Bernal, F. Aston* ish olib bordilar. Uzoq vaqt davomida unga *E. Rezerford* rahbarlik qildi.

1920-yillar boshi - O'zbekistondan maktablar soni qisqardi, darsliklar yozish, nashr qildirish to'xtadi.

1920-yillar boshi - O'zbekiston xalq ommasining qahr-u g'azabi oshishi natijasida vaqflar, qoziliklarning tugatilishi to'xtatilgan bo'lsa ham, sho'rolar hokimiyatining yerli aholi madaniyati, imon-e'tiqodiga dushmanlik siyosati o'zgarmadi.

1920-yil boshi - O'zbekistonda xalq ommasi, uning barcha qatlamlari madaniyat va maorif sohasidagi kolonizatorlik munosabatlariga qarshi kurash olib bordilar. Dehqonlar, hunarmandlar, butun aholi sovet hokimiyati tomonidan Bolshevik doiralari ko'rsatmasi bilan amalga oshirilgan masjidlar, madrasalar, vaqflarning buzilishiga qattiq qarshilik ko'rsatdilar, shu bilan birga maktablar, boshqa ma'rifiy maskanlar tashkil etishni jiddiy talab qildilar. Xalq ommasi bu sohalarga o'z moddiy hissasini qo'shib bordi, 2-tomondan esa hokimiyatning milliy qadriyatlar va ma'naviyat borasidagi inqilobiy maqsadlaridan chekinishga erishildi. Bu rasman "siyosiy yon berishlar" deb namlandi.

1920-yil boshi – Polsha sekin ziddiyatlarga yuzma-yuz bo'lib qoldi. Iqtisodiyot urush tufayli izdan chiqqan, qo'shinlar mag'lub etilgandi. Urushga chorlagan siyosiy arboblar sharmanda bo'lishdi.

1920-yil boshi - Samarqandda *Abdulqodir Shakuriy* mudirlik qilgan maktab ochiladi.

1920-yil boshi - Sovet maktablari bilan o'zbek maktablari birgalikda eski usul maktablari, diniy tashkilotlar tomonidan ta'minlanib boriladigan vaqf maktablari va madrasalari ham ishlab turdi.

1920-yil boshi – Vetnamda milliy-ozodlik harakatining yangi yuksalishi boshlandi. Mustamlaka tuzumining tanqidi va demokratik erkinliklar talabi bilan chiqayotgan turli siyosiy partiyalar hamda guruhlar ("Yangi Vetnam partiyasi", "Yoshlar partiyasi") vujudga kela boshladi. Demokratik harakatga qarama-qarshi o'laroq, yirik burjuaziya va zamindorlar partiyasi - "Konstitutsiyaviy partiya" tashkil etildi. Bu partiya Vetnamga dominion maqomi berilishi, fransuzlar va Vetnamliklar teng huquqliligi, demokratik erkinliklar berilishi uchun kurashardi.

1920-yil boshi - Xorazmda 14 ta paxta tozalash, yog'sovun zavodlaridan atigi 3 tasi ishlardi. Aholining moddiy ahvoli og'irlashdi, ba'zi joylarda ocharchilik yuz berdi.



1920-yil boshi – Albaniyada neft konlarining ochilganligi mamlakatning boshqa mamlakatlar – Angliya va Fransiya tomonidan asoratga solinishiga olib keldi.

1920-yil boshi - g'ala monopoliyasi siyosati bir qadar yumshatildi. Oziq-ovqat razvyorstkasi ko'rinishidagi monopoliyani faqat ko'chirib keltirilgan krestyanlar yashaydigan rayonlarda o'tkazishga qaror qilindi. Mahalliy aholi yashaydigan joylarda natura solig'i joriy qilindi. Biroq oziq-ovqat tayyorlashdagi tabaqalashtirilgan bunday yondashuv uzoq saqlanib qolmadi.

1920-yillar boshi - ijtimoiy jihatdan aholining ko'pchiligini dehqonlar, so'ngra hunarmandlar, savdo-tijorat ahli, ziyolilar, yollanma ishchi mardikorlar, ruhoniylar, rus posyolkalarining krestyanlari, aravakashlar, mahkama xodimlari tashkil qilgan. Sovet hokimiyati davrida banklar, aksionerlik jamiyatlari xodimlari, madrasa o'quvchilari, qisman masjidlarining imom-xatibari guruhlariga zarba berildi, ular yo'q bo'ldi yoki doirasi qisqarib ketdi. Amalga oshirilgan iqtisodiy o'zgarishlar jamiyatning asosiy ijtimoiy guruhlariga salbiy ta'sir ko'rsatganiga qaramasdan, ular o'z xo'jalik faoliyatlarini davom ettirishga intildilar.

1920-yil boshi - TSRni bo'lib tashlash va milliy til belgisiga qarab muxtor (avtonom) respublikalar tuzish masalasi qo'yildi.

1920-yillar 1-yarmi - O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar - oziq-ovqat razvyorkasi, mehnat majburiyatining bekor qilinishi, iqtisodiyot va davlat sektorini idora etishni markazdan bir qadar holi qilish, xo'jalik hisobini, o'z harajatlarini o'zi qoplash va o'z-o'zini mablag'lar bilan ta'minlash usullarini joriy etish sanoatlashtirish siyosatining zarur shartlari bo'lib qoldi.

1920-yil 1-yarmi - Turkistonda, Buxoro, Xorazm respublikalarida bir butun madaniy ma'rifiy ko'tarilish maydoni vujudga keldi. Shu asnoda xalq ommasi, milliy ziyolilar ishtirokidagi ma'naviy-madaniy jarayon, fikrlar, tajriba almashuvlari odatga aylanib bordi.

1920-yil 1-yarmi - O'zbekistonda sanoatni tiklash va rivojlantirish ishlari, Ittifoq markazi manfaatini o'ylab, reja asosida olib borildi. Turkiston mintaqasini ixtisoslashtirish va rivojlantirish uchun hom-ashyo resurslaridan mumkin qadar ko'proq foydalanishni mo'ljallab amalga oshirildi.

1920-yil bahor - Buxoro amiri Turkkommissiya a'zolari *Elieva* va *Frunzeni* qabul qilib, muzokaralar olib bordi. Savdogarlarning vakillari Rossiyada qolib ketgan mollar taqdirini hal qilish uchun Buxorodan jo'nab ketdilar. Lekin RSFSR - Buxoro munosabatlari yomonlashib bordi. Moskvaning ma'qullashi oqibatida Buxoro amirligiga qarshi dushmanlik kampaniyasi kengaytirildi va ashaddiy tus oldi. Qo'pol ravishda Buxoroning ichki siyosiy tuzumini qurol bilan o'zgartirish choralari ko'rildi. *Frunze*, *Kuybishyev* o'z niyat-maqсадlarini ochiq-oydin gapirdilar. Amir hokimiyatga muxolif kuchlar bolsheviklarga yordam so'rab murojaat ham qildilar.

1920-yil bahor - Xorazm respublikasida misli ko'rilgan talonchilik va zo'rliklarga qarshi ommaviy qurolli kurashlar boshlandi.

1920-yillar 2-yarmi 1930-yillar - Ozbek adabiyotining g'oyaviy tematik yo'nalishlarida, mehnat, sinfiy kurash mavzulari 1-o'ringa chiqa boshladi. Shunga qaramay, *S.Ayni*ning "Qullar", *Oybek*ning "Qutlug' qon" romanlari, "Baxiyor va Sog'indiq", "Temirchi Jo'ra", "Dilbar-davr qizi" dostonlari, *G'ofur G'ulom*ning



"*Qo'qon*", *Abdulla Qodiriyning "Obid Ketmon"* povesti kabi davrning turli muhim muammolarini tasvirolovchi badiiy jihatdan baquvvat asarlar yaratildi.

1920-yil 2-yarmi 1930-yil boshi – O'zbekistonda "*o'n sakkislar guruhi*", "*inog'omovchilik*", "*qosimovchilik*", "*badriddinovchilik*" singari ishlar to'qilishi va *Munavvar Qori* boshchiligidagi milliy ziyolilarning qamoqqa olinishi natijasida o'zbek xalqining ko'plab asl farzandlari qatag'on qilindi.

1920-yillar 2-yarmi – O'zbekistonda mamlakat hayotida ma'muriy buyruqbozlik tizimi tarkib topa boshladiki, u respublika ijtimoiy-madaniy sohalarining yangidan barpo bo'lishini sekinlaashtirib qo'ydi. E'lon qilingan sotsialistik insonparvarlik, adolat haqidagi g'oyalalar bilan haqiqiy voqelik o'rtasida ro'y-rost ziddiyatlar paydo bo'lib qoldi. Ular milliy ma'naviy hayotning asl mohiyatini noto'g'ri tushunish, uni ruslashtirish va ko'p asrlik ma'naviy qadriyatlardan voz kechish bilan ifodalandi, bu narsa, ayniqsa, qatag'onlik xattl harakatlarining ta'siri ostida yanada kuchayib bordi.

1920-yillar 2-yarmi – O'zbekistonda o'rta mahsus va oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlaydigan turli o'quv yurtlari ochildi. Davlat sinfiy tamoyiliga amal qilib, bu o'quv yurtlariga ishchi va dehqonlarning kirishi uchun sharoitlarni ta'minlab berdi. Boshqa toifadagi odamlar bu o'quv yurtlariga kira olmas edi. Oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun zarur bo'lgan umumiy ma'lumotni qisqa muddat ichida olish maqsadida ishchi fakultetlari tarmog'i yaratildi.

1920-yil yoz - razvyorstka o'lkadagi rus krestyanlariga nisbatan ham amalga oshirildi, ularning noroziliklari, qarshiliklari ba'zida jiddiy tus oldi. Shunda ular sovet hokimiyati dushmanlari, krestyanlar posyolkalari esa "quloqlar posyolkalari" deb qoralandi. Markazda ularga qat'iy choralar ko'rish belgilandi

1920-yil yoz – Xivada katta yig'in bo'ldi, unda qizil armiyani, bolsheviklarni mamlakatdan haydash, islom diniga qarshi unsurlarni jazolash qat'iy talab qilindi. Bunga javoban yig'inda qatnashgan ruhoniylar va oqsoqollardan 320 ga yaqin kishi qamoqqa olindi, ulardan bir qismi tergov va sudsiz otib tashlandi, qolganlar surgun qilindi.

1920-yil yoz-kuz – Turkistondagi harakat o'zining yangi bosqichiga kirdi. Kurash yana ham shafqatsiz va murosasiz tus oldi.

1920-yil kuz - Boysun, Denov, Sherobod, Sariosiyoda qurolli guruhlar tuzilib, janglarni boshlab yubordilar.

1920-yil kuz - Buxoro respublikasi xalq xo'jaligi jiddiy qiyinchiliklarga uchradi. Aholi, ayniqsa, dehqonlar, respublika hukumati norozilik bildirdilar. Nozir *M.Mansurov* RSFSR iqtisodiy aloqalarda tenglikka amal qilishi kerak, deb qat'iy uqtirdi. *F.Xo'jayev* Rossiya tashqi savdo birlashmasini BXSrdan "*hamma narsani olishga, ammo hech narsa bermaslikka qodir...*", deb aybladi.

1920-yil kuz – Italiya mehnatkashlari hokimiyat tepasiga kelish imkoniyatiga ega edilar. Ammo ommaviy xalq harakatini uyushtiradigan va aniq maqsadga yo'naltiradigan kuch topilmadi. Ishchilar sinfining yetakchi partiyasi Italiya sotsialistik partiyasi (ISP) ichki kelishmovchiliklar tufayli kuchsizlangaa edi. Italiya kasaba uyushmalari ham xuddi shu ahvolda edi. Ammo ikkala ishchilar tashkiloti ham ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlardan ko'ra, mavjud tuzumni saqlab qolish haqida ko'proq qayg'urardi.



1920-yil kuz – Italiyada fashist tashkilotlari tez ko'paya bordi. Ular zavodlarga ham bordilar va u yerda o'z kasaba uyushmalarini tashkil etdilar. Qishloqlarda yirik zamindorlar va badavlat dehqonlar kuchi bilan amalda fashistlarning qurolli to'dalariga aylangan "o'z-o'zini mudofaa otryadlari" tuzildi.

1920-yil o'rtasi – Natsistlar tuzumining bosh jazo idorasi xavfsizlik otryadlari (SS) *Gitleming* shaxsiy qo'riqlovchisi otryadlari sifatida tashkil qilindi.

1920-yillar o'rtasi - "*Qo'shchi*" tashkilot safida qishloq ahliidan 160 ming kishi bor edi.

1920-yil o'rtasi – AQShda o'zgacha fikrlovchilar va so'l tashkilotlarga barham berildi. Radikal g'oyalari bilan farq qiluvchi so'l yo'nalishdagi kasaba uyushmalari – *Jahon sanoati ishchilari* deyarli tugatildi.

1920-yillar o'rtasi - O'zbek qishlog'ini rivojlantirishda ba'zi yutuqlar qo'lga kiritildi, yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi bilan o'zbek dehqoni erkinroq nafas ola boshladi. Oziq-ovqat razvyorstkasining oziq-ovqat solig'i bilan almashtirilishi dehqonga ortiqcha mahsulotni sotishga, g'o'za va boshqa ekinlar maydonini kengaytirishga imkon berdi. Buning natijasida dehqonlarning tovarlar bilan ta'minlanishi o'sdi, ularning turmush darajasi bir qadar ko'tarildi.

1920-yillar o'rtasi - O'zbekistonda 5 ta muzey bor edi.

1920-yillar o'rtasi - O'zbekistonda 14 teatr (ko'pchiligi milliy teatr), 19 kinoteatr faoliyat ko'rsatgan.

1920-yillar o'rtasi – O'zbekistonda totalitar jamiyatning hususiyatlari tobora oshkora ko'rina boshladi. Bu holat xususan milliy respublikalardagi rahbar xodimlarga nisbatan bo'lgan munosabatda yaqqol namoyon bo'ldi. O'zbekistonda qaror topgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va uning rahbar o'zagi hisoblangan Butunittifoq kommunistlar (bolsheviklar) partiyasi – VKP (b) bu paytga kelib yangi iqtisodiy siyosatdan butunlay yuz o'girdi va "sotsializm asoslari"ni qurishga jiddiy kirishdi.

1920-yil o'rtasi – Turkiston iqtisodiy liberallashuv, kelishuvchilikning tiklanishi bilan bir qatorda hokimiyat siyosatida sinfiylik va siyosatlashtirish tamoyillari ham ko'zga tashlandi.

1920-yillar oxiri - "Miliy Istiqloq" tashkiloti totalitar rejim kuchaygach o'z faoliyatini to'xtatgan edi.

1920-yillar oxiri - birinchi tajriba tarzidagi teleeshittirishlar (birinchilardan biri - Toshkentda) namoyish etildi Insoniyat hayotiga telekommunikatsiyalar - radio va televideniye yanada katta ta'sir ko'rsatdi.

1920-yillar oxiri - Ittifoqning, jumladan, Ozbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotining hamma jabhalarida ma'muriy buyruqbozlik usuli borgansari zo'rayishi natijasida yangi iqtisodiy siyosat o'zining bor mohiyatini, mavqeini yo'qota bordi.

1920-yillar oxiri - o'zbek dehqonlari xo'jalik salohiyati nuqtai nazaridan 3 guruhga bo'linar edi: badavlat dehqonlar, o'rta salohiyatli dehqonlar hamda kambag'allar edi. Turkistonning 3 ta o'zbek viloyatlaridagi dehqon xo'jaliklarining uchdan ikki qismiga yaqini ikkinchi guruhga molik bo'lgan. Buxoro davlatining markazi va g'arbiy qismlarida hamda Xorazmning voha qismida ham manzara umuman



olganda shunday edi. Iqtisodiy mustaqil xo'jaliklarning o'rta hisobda 2 desyatina sug'oriladigan yeri, ish hayvonlari va boshqa mehnat vositalari bo'lgan. Dehqonlar tomonidan ekilib, hosili yig'ib kelingan yerlar ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

1920-yillar oxiri – O'zbekiston partiyasining ichki tartibi keskin qat'iyashtirildi, siyosiy qirg'in va qatag'onlar tobora kuchaydi. Bularning zarurligini asoslab berish uchun sotsializm qurilishi sharoitlarida sinfiy kurash keskinlashib boradi, degan Stalin tezisidan tobora ko'proq foydalanildi.

1920-yillar oxiri – O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda ro'y berayotgan keskin qiyinchiliklarni adolat yuzasidan, aql-idrok bilan emas, balki ma'muriy-buyruqbozlik yo'li bilan, zo'ravonlik usuli bilan bartaraf qilish uchun Markaz siyosiy hokimligining harakati kuchaydi. Yangi iqtisodiy siyosat uzil-kesil chetga chiqarib tashlandi. Qishloq xo'jaligini zudlik bilan jamoalashtirish hamda sanoatlashtirish jadallashtirish yo'liga qat'iyon kirishildi.

1920-yil oxiri - O'zbekistonda mayda sanoatdagi xususiy sektorining ulushi deyarli barham topdi. Sanoatlashtirish va hunarmandlarni kooperatsiyalash natijasida respublika sanoatida xususiy sektor butunlay tugatildi.

1920-yillar oxiri – O'zbekistonda yangi iqtisodiy siyosat tufayli o'z xo'jaligini tiklab olgan oilalarning quloq qilinishi natijasida bozor munosabatlari muhiti barham topdi. Sovet davlati tortib olingan yer-suvlar hisobiga kooperatsiyalar, so'ng kolxozlar tuzish siyosatini olib bordi. Jamoalashtirish "yuqori"ning tazyiqi asosida o'tkazildi. Matbuot O'rta Osiyo respublikalarining jamoalashtirishga "tayyor" ekanligini targ'ib qilib, mahalliy, ijtimoiy sharoit mutlaqo hisobga olinmadi.

1920-yillar oxiri - O'zbekistonda Yangi Iqtisodiy siyosatga barham berilishi kooperatsiya tizimini yemirilishga olib keldi, partiya qishloq ho'jaligini boshqarishni davlat qo'liga o'tkazish yo'lini tutdi. Mamlakatning siyosiy rahbariyati yalpi jamoalashtirish yo'liga o'tish vazifalarini ilgari surdi.

1920-yillar oxiri – O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlarida asosan ishchi va dehqonlardan iborat 4 mingga yaqin talabalar o'qir edi.

1920-yillar oxiri - Ozbekistonda 10 ga yaqin ilmiy tadqiqot muassasalari mavjud bo'lib, ularda mingdan ortiq ilmiy hodimlar mehnat qilar edi.

1920-yillar oxiri - pedagogika o'quv yurtlarining soni O'zbekiston bo'yicha deyarli 5,5 taga yetdi. Xalq maorifi rivojlanib bordi.

1920-yillar oxiri – pomeshchiklarga tegishli yerlarning 66 % i musodara qilindi.

1920-yillar oxiri - qadar Qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi tizimi, butun Ittifoqda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham saqlanib qoldi.

1920-yillar oxiri - Qoraqalpog'istonning bir muncha patriarxal va qotibroq qolgan hayotiga boshlanib kelayotgan sanoatlashtirish ta'siri ostida yangiliklar yorib kira boshladi. Ammo sanoatlashtirishning sur'atlari Ittifoqning markaziy rayonlaridagidan ancha sust edi. O'lkaning tabiiy resurslarini Ittifoq o'z manfaati yo'lida foydalanish uchun reja asosida va muntazam ravishda o'rgana boshladi.

1920-yillar oxiri – qoraqalpoq adabiyotida dramaturgiya va badiiy proza kabi yangi janrlar paydo bo'ldi. *A.Utepov*, *N.Dovqorayev*, *A.Begimovning* hikoya va pyesalari, *J.Oymirzayevning* qissalari maydonga keldi. *J.Oymirzayev* keyinchalik "*Amudaryo sohillarida*" romanini yozdi.



1920-yillar oxiri - sur'atlarni keskin tezlashtirish, o'ziga xos "katta sakrash"ni amalga oshirish yo'lini tutish butun mamlakat va, xususan, O'zbekistonning keyingi iqtisodiy taraqqiyotiga muhim o'zgartirishlarni kiritdi.

1920-yillar oxiri – yevropaliklar ixtiyorida millionlab radiopriyomniklar bor edi. Radio asosan o'rta tabaqa vakillari tomonidan sotib olinardi. Elektr texnologiyasining ilk mahsuloti sanalgan radio ommaviy bozorni zabt etdi. Radio aholi turmush tarzini butunlay o'zgartirib yubordi.

1920-yillar oxiri – AQSh sarmoya joylashtirish borasida Angliyani ancha chetga surdi.

1920-yillar oxiri – O'zbekistonda sanoatlashtirish tez sur'atlar bilan o'sib bordi, o'ziga xos "katta sakrash"ni amalga oshirish yo'lini tutish butun mamlakat va O'zbekistonning keyingi iqtisodiy taraqqiyotiga muhim o'zgartirishlarni kiritdi.

1920-yillar oxiri - sovet rejimi milliy rahbar hodimlarni jismoniy mahv etishga kirishdi.

1920-yillar oxiri – Turkiston Kompartiyasi a'zolari soni 58 mingga yaqin edi.

1920-yillar oxiri – Vengriya sanoat ishlab chiqarishi urushdan oldingi darajadan o'sib ketdi.

1920-yillar oxiri 1930-yillar boshi – O'zbekistonda sanoatlashtirishning jadal sur'atlariga o'tishning tub mohiyati texnikaviy qoloq sovet mamlakatining bor imkoniyatlarini to'g'ri hisobga olmagan holda, zo'ravonlik yo'li bilan tez orada zamonaviy sanoatni barpo etishdan iborat bo'ldi.

1920-yillar oxiri—1930-yillar boshi - Mustabid tuzumning qaror topib borishi shaxsga sig'inishning kuchayishiga qaramay ijodi hayot to'xtab qolmadi. Adabiyot maydoniga *G'ofur' G'ulom, Oybek, G'ayratiy, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Oydin Sobirova, Uyg'un, Komil Yashinm, Usmon Nosir, Amin Umaruy, Zulfiya* kabi yosh talantli shoir va nosirlar dramaturglar qo'shildilar.

1920-yil yanvar – AQSh politsiyasi 70 shaharda taraqqiyparvar tashkilotlarning a'zolariga qarshi tadbir uyushtirdilar. 10 mingdan ortiq kishi qamoqqa olindi. Xuddi shu yili kasaba uyushmalari harakati faollari sanalgan italiyalik muhojirlar *Sakko va Vansetti* qamoqqa olindilar. Ular bankni o'g'irlash va politsiyachiru o'ldirishda ayblandilar.

1920-yil yanvar – *Lenin* "mehnat armiyalari" to'g'risida gapira boshladi.

1920-yil yanvar – Vengriyada saylovlar o'tkazilib, admiral *Miklosh Xorti* monarxiikka saylandi. U II jahon urushi oxirigacha, Germaniya mag'lubiyatidan so'ng AQSh ga qochguncha qadar hokimiyatni egallab turdi.

1920-yil yanvar o'rtasi – Farg'ona vodiysiga bolsheviklar tomonidan qo'shimcha kuchlarining tashlanishi natijasida jangovar tashabbus qizil armiya qo'liga o'tdi. Katta Ergash qo'rboshining qo'shini mag'lubiyatga uchragach, Shermuhammadbek asosiy kuchlarini olib Oloy vohasiga chekindi.

1920-yil yanvar oxiri – Musbyuro Turkkommissiyaning tazyiqi bilan o'z faoliyatini to'xtatdi.

1920-yil 15-yanvar - Turkkommissiya raisi *Ya. Rudzutak* tashabbusi bilan qabul qilingan tezislarda TSRni bo'lib tashlash va milliy til belgisiga qarab muhtor (avtonom) respublikalar tuzish masalasi qo'yilgan edi.



- 1920-yil 16-yanvar** – Antanta davlatlarining Rossiyani qamal qilishni to'xtatishi.
- 1920-yil 18-21-yanvar** – jahon urushida g'olib chiqqan davlatlarning Parij tinchlik konferensiyasining ochilishi. Konferensiya davomida Millatlar Ligasi tashkil topdi.
- 1920-yil 20-yanvar** – janubiy otryad Taxtani egalladi.
- 1920-yil 20-yanvar** - Shimoliy otryad Xo'jayli, Ko'xna Urganch, Porsu, Ilyali, Toshxovuzni egalladi.
- 1920-yil 20-yanvar** – shimoliy otryad Xo'jayli, Ko'hna Urganch, Porsu, Ilyali, Toshhovuzni egalladi.
- 1920-yil 20-yanvar** - Taxta janubiy otryad tomonidan ishg'ol qilindi.
- 1920-yil fevral-sentabr** – R. Denashel hukumati
- 1920-yil fevral** - Turkistonda 600.000 pud o'simlik porovozlarga yonilg'i sifatida ishlatildi. Ko'mir va o'tin yo'qligidan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ham (Turkistonda yuz minglab odamlar ocharchilikdan qirilayotgan bir paytda) yoqilg'i sifatida ishlatilar edi. Orol dengizi uchastkasida parovozlar quritilgan baliq yoqib yurgizilgan. Shuningdek, parovozlarga kunjara yoqishga urinib ko'rilgan. Eng dahshatli hodisa shundan iboratki, hamma narsani qurbon qilish evaziga yetishtirilgan paxta ham yoqilg'i sifatida ishlatilgan.
- 1920-yil 1-fevral** – janubiy otryad Xivani ishg'ol qildi. Xiva xoni taxtdan voz kechdi.
- 1920-yil 2-fevral** - Said Abdullaxon Xiva taxtidan voz kechdi, butun hokimiyat muvaqqat inqilobiy qo'mita qo'lga o'tdi. Xivada yangi hokimiyat o'rnatilgani e'lon qilindi. Yosh xivaliklardan iborat muvaqqat hukumat eski, xon davridagi boshqaruv mahkamalarini tarqatib yuborish, yangi hokimiyat organlari, qonun-qoidalarni joriy qilishga kirishdi. Xalq noroziliklari kuchaydi. Xon davri soliqlarini bekor qilish, sudlov, vaqf mulklari, pul muomalalari, yangi soliqlar to'g'risidagi bir qator dekretlar shoshilinch qabul qilindi.
- 1920-yil 18-fevral** - Turkkomissiya vakili G. Skalov bilan muholifatdagi kuchlar yo'l boshchisi o'rtasida sulh bitimi imzolandi. Unga ko'ra, Chimboy uchastkasida muvaqqat inqilobiy qo'mita tuzildi. Kazaklarning urf-odatlari va turmush xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning o'z-o'zini boshqaruviga ruxsat etildi. Qo'zg'olonchilarga amnisiya berildi.
- 1920-yil 24-fevral** – fashistlar partiyasi tarafdorlarining 1-ommaviy namoyishi.
- 1920-yil mart** - Turkiston mustaqillik harakatining oldini olish, Turkistonni Markazga batamom qaram qilish maqsadida “*Turkiston avtonomiyasi to'g'risida nizom*” tayyorlandi. Turkkomissiya undan kelib chiqib TSRning yangi Konstitutsiyasi loyihasini ishlab chiqdi. Bu hujjatlarda Turkiston tashqi aloqalar olib borish, o'z armiyasiga ega bo'lish, temir yo'l, pochta, xalq xo'jaligini mustaqil boshqarish huquqlaridan mahrum etildi. Bular, shuningdek, soliqlar ta'sis etish, o'lka byudjetini tuzish, sud ishlari, qonunlarga o'zgarishlar kiritish, amnisiya berish RSFSR tasarrufiga o'tishi belgilandi. Yerli rahbarlar bularga Turkiston xalqlari mustaqilligining batamom yo'q qilinishi, deb qarab, qat'iy qarshi chiqdilar. Turkiston Sovet Respublikasini Turkiston respublikasi deb o'zgartirish masalasini ilgari surdilar hamda Turkistonni boshqarish Nizomi, Turkiston respublikasi Konstitutsiyasi loyihalarini tayyorladilar. Milliy davlatchilik, mustaqillik g'oyalari nufuzli yig'inlarda, shuningdek, keng jamoatchilik tomonidan qizg'in ma'qullandi. O'lka



yerli xalqlari o'zini idora qilib, taraqqiyot sari borolmaydi, ularga Rossiya rahbarlik qilishi kerak, degan shovinistik g'oyalarga qarama-qarshi mintaqa xalqlarining mushtarakligi, mustaqil davlatchilik an'analari, imkoniyatlari ta'kidlandi.

1920-yil 1-mart - Turkiston MIK raisi *T.Risqulov* yevropalik Turkkomissiya a'zolariga qarata, yerli xalq o'zini o'zi idora qilishni istaydi, kelgindilar rahbarligini rad qiladi, deb ta'kidladi.

1920-yil 1-mart – Vengriyada fashistlar diktaturasining o'rnatilishi.

1920-yil 6-mart - *Madaminbek* bilan 2-Turkiston o'qchi diviziyasi boshlig'i *Veryovkin-Roxalskiy* o'rtasida Farg'ona shahrida yarash bitimi imzoladi.

1920-yil 12-13 mart – o'tar chekasi sotsial-demokratlar reaksion qo'shinlarning qoldiqlariga tayanib Germaniya davlat to'ntarishi qilishga urinib ko'rdilar. Prus yunkerlari vakili, monarxiyachi *Kapp* o'zini kansler deb e'lon qildi va Milliy Majlisni tarqatib yubordi. Hukumat Berlindan qochib ketdi. Ammo 12 million ishchi va xizmatchining Germaniya bo'ylab yalpi ish tashlashi isyonchilarni chekinishga majbur qildi.

1920-yil 8-aprel - Yosh xivaliklar partiyasi siyosiy yo'lini qabul qilingan "*Xiva inqilobiy partiyasi dasturi*" belgiladi.

1920-yil 25-aprel – polyak qo'shinlari Ukraina chegarasidan o'tdi. Ular Polshaga juda katta kredit taqdim etgan Fransiya tomonidan to'liq qurollantirilgani. Polyak qo'shinlarining maqsadi Odessani bosib oh'sh va "*dengizdan dengizgacha bo'lgan Buyuk Polsha*"ni yaratish edi. Lekin polyak qo'shinlari tor-mor etilib, chekana boshladi. General *Veygan* boshchiligidagi fransuz brigadasining kelishigina Polshani to'liq tor-mor bo'lishdan saqlab qoldi.

1920-yil 25-aprel – sovetlar va Polsha o'rtasidagi urushning boshlanishi.

1920-yil 26-aprel – Xorazm xalq respublikasining e'lon qilinishi.

1920-yil 26-aprel - Xorazmda Butunxorazm I qurultoyi Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tuzilganligini e'lon qilindi, respublika hukumati – Nozirlar sho'rosi tayinlandi. Qurultoyda respublika Konstitutsiyasi tasdiqlandi. Hukumat raisi etib Yosh xivaliklardan *Polvonniyoz Hoji Yusupov*, uning muovinklari qilib *Jumaniyoz Sultonmurodov* va turkman *Qo'shmamedxon Sapiyev* saylandilar. Adliya noziri qilib *Bobo'xun Salimov* tayinlandi.

1920-yil 30-aprel – Xorazmda respublika Konstitutsiya qabul qilindi.

1920-yil may – Fransiyada temiryo'Ichilar ish tashlashi bostirildi, unga qatnashganlardan 20 kishi ishdan bo'shatildi. Urush davrida qabul qilingan ijtimoiy islohotlar dasturi birin-ketin yo'q qilindi. Ishchilarga qarshi kurash milliy miqyosdagi surunkali va tinka qurituvchi nizoga aylandi. Bu esa mamlakatda siyosiy beqarorlikka sabab bo'ldi.

1920-yil may – Xorazm sovetlarining II qurultoyi bo'lib o'tdi, unda vaqflarni yo'q qilish qarori bekor qilindi. Vaqf davlatdan ajratildi, fuqarolarning shaxsiy ishi deb qaror qilindi.

1920-yil 3-may - Qurultoyda *Shermuhammadbek* boshliq Turkiston-Turk mustaqil islom jumhuriyati (Turkiston muvaqqat hukumati)ni tuzdi.

1920-yil 14-may - *Madaminbek* qon to'kishni to'xtatish maqsadida muzokaralar olib borish uchun qo'rboshilar bilan uchrashganda *Shermuhammadbekning*



roziligi bilan *Xolxo'ja eshon* Qorovul qishlog'ida uni xiyonatkorona o'ldirdi. *Madaminbek* o'rtidan ko'tarilgach, ertasigayoq bolsheviklar qurolli harakatlarni kengaytirdilar.

1920-yil 16-may – Stambulning Antanta qo'shinlari tomonidan bosib olinishi.

1920-yil iyun - Turkkomissiya raisi *Ya. Rudzutak* tashabbusi bilan qabul qilingan tezislar RKP (b) Markaziy Komitetining "*Partiyaning Turkistondagi vazifalari haqida*" degan qaror loyihasisiga kiritildi. Bu taklifni *V.I.Lenin* qo'llab-quvvatladi. Loyihaga bildirgan o'z mulohazalarida u Turkistonning "O'zbekiya, Qirg'iziya, Turkmaniya"ga bo'lingan kartasini tuzish zarur deb ko'rsatdi. *V.I.Lenin* birmuncha keyinroq o'zi tayyorlagan boshqa bir loyihada o'z nuqtai nazarini o'zgartirib: "*Respublikani (ya'ni Turkistonni) 3 qisrhga bo'lish oldindan hal qilib qo'yilmasin*", deb uqtirdi.

1920-yil-iyun – Vengriya Trianon shartnomasini (Versal shartnomasining bir qismi) imzolandi. Bu shartnomaga ko'ra, qator hududlarning ajralishi sababli Vengriya aholisi ikki barobarga, 18 mln. kishidan 8 mln. kishigacha kamaydi. Vengriya katta miqdorda reparatsiyalar to'lashi shart edi. Armiya miqdori 35 ming kishidan oshirilmaligi lozim edi. Ruminiyaga - Transilvaniya va Banat, Yugoslaviyaga - Xorvatiya, Bachka va Banatning g'arbiy qismi, Chexlovakiyaga esa Slovakiya va Karpatorni Ukrainasi berildi. Harbiy majburiyat taqiqlandi, armiya yollanma bo'lisht shart edi, qurollanishda tanklarga, aviatsiya va artilleriyaga ega bo'lishga ruxsat etilmasdi.

1920-yil 12-iyun – Panama kanali ishga tushdi. Uning uzunligi 81 km bo'ldi. U Amerika qit'asiga xizmat qiluvchi dengiz yo'li uzunligini uch marta qisqartirdi va AQShga katta iqtisodiy foyda keltirdi. AQSh floti Atlantika va Tinch okeani sohillarini birlashtiruvchi qisqa dengiz yo'lga ega bo'ldi va Yevropa davlatlari portlariga yaqin yo'lni qo'lga kiritdi. Har yili kanal orqali 15 mingga qadar kemalar o'tadi va 125 million tonnaga qadar yuk tashiladi.

1920-yil avgust - Turkkomissiya a'zolari *V.Kuybishev* va *F. Goloshchokin*ning tazyiqi bilan butun Turkiston respublikasi hududida oziq-ovqat taqsimoti (prodrazvyorstka)ni joriy etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Oziq-ovqat prodrazvyorstkasi aholini ochiqdan-ochiq talashga aylanib, ijtimoiy keskinlikni kuchaytirib yubordi. Oziq-ovqat to'plovchi otryadlar mahalliy xalqni qon qaqshatib, uning so'nggi burda nomini ham tortib olishar edi.

1920-yil 2-avgust – alban xalqining norozilik mitinglari bosqinchilarga qarshi qurolli kurashga aylandi. Italiya Albaniya mustaqilligini tan olishga va uning hududini tark etishga majbur bo'ldi.

1920-yil 10-avgust – Parij yaqinidagi Sevr shaharchasida g'olib davlatlar bilan Turkiya bilan tinchlik shartnomasini imzoladilar. Unga ko'ra, Turkiya o'ziga qaram hududlarning 80 % ini qo'ldan berdi (*Falastin, Transiordaniya, Iroq, Suriya, Livan* va h. k.). Qora dengizdagi bo'g'ozlar harbiy kuchlardan xoli qilindi, Qora dengizdan uzoq davlatlar undan o'z harbiy kemalarini bemalol o'tkazish huquqini qo'lga kiritdilar. Turkiya hududi Kichik Osiyo yarim oroli va Istanbul (Konstantinopol) shahrini o'z ichiga olgan Yevropadagi ozgina hudud bilan cheklangan edi. Turkiyada yarim mustamlaka tuzumi o'rnatildi.



1920-yil 10-avgust – Parij yaqinidagi Sevr shahrida Turkiya o'rtasida tinchlik shartnomasi imzolandi. Bu Turkiya taqdirini hal qilishi lozim edi. *Sevr shartnomasiga ko'ra* sobiq Usmonli turk imperiyasi amalda Fransiya bilan Angliya o'rtasida taqsimlandi, Suriya va Livan Fransiya mandati ostiga o'tdi. Millatlar Ligasidan olgan mandat shartlariga ko'ra, Fransiya yigirma yilda Suriya va Livanni mustaqillikka tayyorlashi shart edi. Xuddi shu shartlarda Angliya ham Mesopotamiya (Iroq) va Falastinga mandat oldi. Hijoz qirolligi (Arabiston yarim oroli) mustaqil deb e'lon qilinadigan bo'ldi. Sevr tinchlik shartnomasida nafaqat Usmonli turk imperiyasining bo'linishi, balki Turkiyaning o'zini ham parchalash ko'zda tutilgandi. Turkiyada yarim mustamlaka tartiboti o'rnatilardi va amalda suveren davlat huquqidan mahrum qilingandi. Chet ellik fuqaro turk sudiga bo'ysunmasligi mavjud bo'lgan kapitulyatsiya tartiboti ham tiklanardi. Angliya va Fransiya vakillaridan iborat komissiya Turkiya mablag'lariga egalik qilar, Turkiya byudjetining nazoratini amalga oshirardi. Sevr shartnomasining imzolanishi butun Turkiyada norozilik to'g'yonini uyg'otdi. Hukumat shartnomani qat'iy rad etdi. Turkiyada Sevr shartnomasini tugatishga qaratilgan milliy-ozodlik harakati boshlandi. Qishloq joylarda partizan bo'linmalari, shaharlarda ishchi tashkilotlari tuzishga kirishildi. Milliy-ozodlik harakatining tashkil etilishi va tayyorlanishida turk armiyasi general *Mustafa Kamol posho* katta rol o'ynadi.

1920-yil 29-avgust - o'tar kechasi ko'p tomonlama tajovuzkorlik harakati boshlab yuborildi. Asosiy kuchlar poytaxt Buxoroga hujum qildilar. Qo'shinlar tinch aholi boshiga shiddatli o'q yog'dirdilar. Shahar vayron, ko'pgina odamlar qurbon bo'ldi. Buxoro shahrida yong'in avj oldi. Amir *Olimxon* poytaxtni tashlab chekindi, u Buxoroning sharqiy qismi tomon yo'l oldi.

1920-yil avgust oxiri - poytaxt Buxorodan ketgan amir Olimxon Sharqiy Buxoroga kelib, katta kuchlar to'pladi, ularning soni 12 ming, keyinroq 25 ming kishiga yetdi, qizil qo'shinlarga qarshi janglar olib borildi.

1920-yil avgust oxiri - Turkiston fronti qo'mondoni *M. Frunze* buyrug'i bilan Buxoro hududlarida juda katta harbiy kuchlar jangovar holatga keltirildi.

1920-yil sentabr boshi - Buxoro revkomi "mustaqil Buxoro Xalq respublikasi" tuzilganligini e'lon qildi. Hukumat boshqa hokimiyat organlari tashkil etildi.

1920-yil sentabr - bolshevik *I. Sols* Buxoro to'ntarishdan ikki kun o'tgach bunda ikkita asosiy vazifa - "yerlarni tortib olish", mulkdorlarning "iqtisodiy salohiyati ildizini qirqish" hamda "mullalarning g'oyaviy ta'siriga qarshi kurashish" deb ochiqdan-ochiq e'tirof etdi. Bolsheviklarning inqilobiy reja, sinfiy adovat, zo'rlikka asoslangan dasturiga Buxoro mamlakatiga kelgan barcha bolsheviklar, qizil qo'shinlar qo'mondonligi amal qila boshladi. Mamlakat va xalqning boyligi talandi. Qisqa vaqt ichida respublika hududida joylashgan Rossiya qo'shinlari 40 ming kishiga yetdi. Ular respublika bo'ylab garnizonlarga o'rnatildilar.

1920-yil sentabr – bolsheviklar, qizil armiya qo'mondonligi yana bir qabih xunrezlikni amalga oshirdi. Hukumat raisi muovini *Qo'shmamedxon* q'mondonligi ostidagi turkman suvoriylari otryadi *Junaidxon* bilan aloqada gumon qilinib, hiyla yo'li bilan Xivaga chaqirib olindi va qo'qqisdan qurolsizlantirilib, 600 dan ortig'i otib tashlandi. Turkman aholisi ustiga jazo otryadlari tashlandi, mollar talandi,



natijada ko'p xo'jaliklar Eron hududiga ko'chib ketdi. Qizil armiya qismlarining bu jinoyatlarini Turkkomissiya raisi ham tan oldi.

1920-yil sentabr – Buxoro respublikasi siyosiy tizimi boshida Yosh buxoroliklar partiyasi va kompartiyasi (BKP) keyinchalik boshqa ijtimoiy tashkilotlar faoliyat ko'rsatdilar, hokimiyatda ko'pchilik Yosh buxoroliklar edilar. Turkiston bolsheviklari ta'siri ostida Yosh buxoroliklar partiyasi BKP bilan qo'shildi, kompartiya yagona siyosiy partiya bo'lib qoldi. Ammo hokimiyat va boshqa sohalarda Yosh buxoroliklarning reja-dasturi amaliyot asosi bo'lishda davom etdi. Rasman ko'ppartiyaviylik tugatildi.

1920-yil sentabr - Buxoro respublikasining xo'jaligi sezilarli zarar ko'rib, ziddiyatli ahvolni boshdan kechirdi. Mamlakat hududiga bir necha tomondan bostirib kirgan qo'shinlar ko'p yerlarni vayron qildilar, ayniqsa, poytaxt Buxoro vayron bo'ldi, uy-joy, imoratlarga o't qo'yildi. Dehqonlarning boshqa aholi tabaqalarining mol-mulki, g'alla-doni tortib olindi. Buxoro dehqonlariga yetkazilgan zarar shu qadar katta ediki, yangi hokimiyat, to'ntarishdan 2-3 hafta o'tar-o'tmas yangi hukumat harbiy qismlardan aholi ko'rgan zararni qoplashga ko'rsatma berdi. Karki shahri va atrofida yashagan turkman aholiga nisbatan "*qotilliklar sodir etilgan, ularning uy-joylari buzilgan va yonib ketgan*" edi. Ularga ham hukumat moddiy yordam yubordi.

1920-yil sentabr – Turkiston MIK raisi *Inomjon Xidiraliyev*ning yozishicha bosmachilarning soni 70000 kishiga yetdi va kuchli vahima uyg'otdi.

1920-yil sentabr - Turkiston respublikasining yangi Konstitutsiyasida TSR nomi TSSR deb o'zgartirildi.

1920-yil sentabr-oktabr - Buxoro, Chorjo'y va boshqa joylarda yuzlab avvalgi amaldorlar qatl qilindilar. Matbuotda "ommaviy qizil terror" o'tkazilishi haqida ochiq xabar qilindi. Ko'p hollarda tribunallar hukm chiqarib, ularni ijro etdilar. Bolsheviklar tazyiqi bilan keyingi yangi hokimiyat amaldorlari ham siyosiy qatag'on qilindilar. Favqulodda komissiya (xÉ) xalqqa qarshi faoliyatini kengaytirishga intildi.

1920-yil 2-sentabr - *M.Frunze* boshchiligidagi tajovuzkor kuchlar Buxoro egallandi. Amir hokimiyati ag'darildi.

1920-yil 6-sentabr – Buxoro ma'muriy tuzilish viloyat, tuman, kent va qishloqlardan iborat bo'lishi belgilandi. 27 bekklik o'rniga respublika 15 viloyatga bo'lindi. Quyi hokimiyat bo'g'ini oqsoqolliklar bo'lgan. BXSR rasman mustaqil deb e'lon qilingan bo'lsa ham amalda Rossiyaga qaram edi. Respublikada yetishtirilgan paxta, ipak, qorako'l teri va boshqa xom ashyo mahsulotlarini faqat Rossiyaga sotish mumkin edi. Chet ellerga mahsulot chiqarish huquqidan mahrum qilindi. BXSR o'z milliy armiyasiga, valyutasiga ega bo'lsada, ulardan mustaqil ravishda foydalanish imkoniyatlari cheklangan edi.

1920-yil 9-sentabr - Buxoroda "*Yer to'g'risidagi dekret*" qabul qilindi.

1920-yil 21-30-sentabr – Buxoradagi oldingi ma'murlar (beklar, qozilar, boshqa amaldorlar) hokimiyatdan chetlashtirildilar, ulardan ko'p qismi hibsga olindi, hatto otib tashlandi. Ba'zi mulozimlar respublika tartibini tan olish sharti bilan yangi hokimiyat tizimlariga xizmatga da'vat qilindilar. Yangi hokimiyatni tashkil



qilish uchun maxsus nazorat guruhi (komissiyasi) poytaxt atrofidagi 8 tumanni aylanib, aholi ishtirokida bir qator xodimlarni tayinladi. Muvaqqat organlari, revkom (inqilobiy komitet)lar ish ko'rib bordi. Yangi qoziliklar (xalq sudlari), maorif bo'linmalari va boshqa tashkilotlar yuzaga keldi.

1920-yil oktabr – Germaniya ishchi partiyasi Germaniya national-sotsialistik ishchi partiyasi (*GNSIP*) deb nomlandi. O'sha yili partiya rahbari *Xorst Vessel* o'ldirilgach, uning o'rnini *Gitler* egalladi.

1920-yil oktabr - Munavvar Qorining Buxoroga kelishi va maorif nozirligida ishlashi bilan "Milliy Ittihad" tashkilotining mintaqadagi markazi Toshkentdan Buxoroga ko'chadi.

1920-yil oktabr – Sovet-Polsha urushi yakunlandi.

1920-yil oktabr - Turkiston MIK Amudaryo bo'limining 1917-yildagi hududi doirasida unga viloyat maqomi berildi. Sho'raxon va Chimboy uchastkalari shu nomli uyezdlariga aylantirildi. Viloyat markazi sifatida To'rtko'l shahri e'lon qilindi. Amudaryo viloyatining inqilobiy qo'mitasini Turkiston MIK tayinladi.

1920-yil 6-8-oktabr – Buxoro xalq respublikasining e'lon qilinishi.

1920-yil 6-8-oktabr – Buxoroda xalq vakilarining I ButunBuxoro qurultoyi bo'ldi. Unda hukumat tizimi va respublika oliy hokimiyati, Buxoro revkomi vakolatlari tasdiqlandi. BXSР tuzilganligi rasmiylashtirildi. Buxoroning mustaqilligi e'lon qilinib, demokratik jamiyat barpo qilish ta'kidlandi.

1920-yil 11-oktabr - Buxoroda oziq-ovqat razvyortkasi to'g'risidagi dekret e'lon qilindi, tezkorlik bilan militsiya tashkil etildi, bir qator keraksiz sho'balar tuzilib, hokimiyat apparati bo'rttirib yuborildi, inqilobiy ekspropriatsiya o'tkazildi, islom dini, ruhoniylar, masjid-madrasalarga qarshi, vaqflarni yo'q qilish choralari, siyosati o'tkazila boshladi.

1920-yil noyabr – general *Vrangel* qo'mondonligidagi so'nggi oq gvardiya qismlari Qrimni tark etdilar. Rossiyadagi fuqarolar urushining uch yillik tarixiga yakun yasaldi. Antanta mamlakatlari va AQSh qo'mondonligi o'z qo'shinlarini olib chiqib ketdilar va qamal holatining bekor qilinganini bildirdilar. Bolsheviklar g'alaba qozonib, hokimiyatni o'z qo'llarida saqlab qoldilar. Ular oldida endi yana ham murakkabroq vazifa - tinch davrda faoliyat yurituvchi davlat va ijtimoiy-siyosiy tuzumning yangi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizimini barpo etish vazifasi turardi.

1920-yil 17-noyabr – Rossiyada fuqarolar urushining tugashi.

1920-yil dekabr – GOELRO rejasida – Rossiyani davlat miqyosida elektirlashtirish rejasini qabul qilindi. U sanoat sohasidagi ishlab chiqarishni urushdan oldingi darajaga yetkazish, butun iqtisodiyotni yangi texnik baza va yirik sanoat asosida qayta qurishni ko'zda tutardi. Xususiy sanoat, qishloq mehnatini jamoalashtirish, xalqning farovonligi va madaniyatini oshirish rejalashtirildi.

1920-yil dekabr - Qarshi, Shahrisabz, Yakkabog', Kitob, Chiroqchida qo'zg'olonlar boshlandi, yangi hokimiyat, qizil askarlar garnizonlariga jiddiy talofotlar yetkazildi. Bu joylarga ham qo'shimcha qizil askar qismlari yuborildi.

1920-yil dekabr oxiri - *Ahmad Zaki Validiyning* Buxoroga kelishi tashkilot faoliyatini yanada kuchaytirib yuboradi. Milliy Ittihad tashkiloti a'zolar istiqlochlilik faollari bilan aloqalar o'rnatib ularga g'oyaviy rahnamolik qilishgan edi.



1920-yil 29-dekabr – Fransiya kommunistik partiyasi (*FKP*) tuzilganligi e'lon qilindi.

1920-yil 29-dekabr – Rossiyada GOELRO rejasining qabul qilinishi.

1920-yil oxiri 1921-yil boshi – munozarada Buxoro to'ntarishi, yangi hokimiyat mohiyatiga oid demokratik yo'l hamda so'l-ekstremistik yondashuvlar to'qnashdi. Buxoro respublikasining liberal-demokratik kayfiyatdagi rahbarlari o'z g'oyalarida qat'iy turdilar. Mamlakatda qizil qo'shinlar sonini 15 ming kishiga kamaytirish, Rossiyaga berilgan oziq-ovqat, paxta va boshqa mollar evaziga narxi teng bo'lgan mollar yetkazib berish masalalari qo'yildi. BKPning qator so'l-ekstremistik rahbarlari lavozimlaridan bo'shatilib, chetga ketishga majbur bo'ldilar. "Yer to'g'risida"gi dekret bekor qilinib, ekspropriet-siyalar, razvyorstka, zo'rlik choralariga barham berildi. Turkbyuro raisining muovini *G.Safarov* BXSR ichki ishlariga qo'pol ravishda aralashishga intildi, rahbarlarni ochiq majlisda haqorat qildi. Unga qat'iy tanbeh berildi, RSFSR tashqi ishlar komissarligiga norozilik notasi yuborildi. *F.Xo'jayev*ning qat'iyati bilan Buxoro Chekasi tugatildi, tribunallar, siyosiy bo'limlar tomonidan fuqarolarni jazoga tortish vaqtinchalik to'xtatildi. Islom dini, masjid-madrasalar xizmati, ruhoniylarning faoliyat erkinligi tiklandi, yangi qoziliklar ish boshladi.

1921-1922-yillar - krestyanlarning yerlari natsionalizatsiya qilindi (yer reformasi). Bu tadbir yer reformasi (islohoti) deb ataldi. Uning asosiy rayoni Yettisuv viloyati bo'ldi, Turkrespublika bo'yicha davlat yer fondiga olingan 230 ming desyatina yerdan 26 ming desyatini o'troq dehqonlarga berildi. Shu bilan birga yevropalik yer egalari nisbatan siyosat o'zgaruvchan bo'ldi, ba'zida bog'lar, mollar, yerlar egalari qaytarib ham berildi. Rossiyaliklarning Turkistonga kelishi, ularning yer bilan ta'minlanishi davom etdi.

1921-1922-yillar – *I. Bonomini*ng Italiyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1921-1922-yillar – *I.Virt* Germaniya reyxskansleri bo'lgan.

1921-1922-yillar - o'quv yilida O'zbekistonning ko'pgina shaharlari va qishloq mingdan ortiq savod maktablari, savodsizlikni tugatish kurslari va tarmoqlari faoliyat ko'rsatdi, ularda 50 ming kishi xat-savod chiqardi.

1921-1922-yillar - oziq-ovqat solig'i hisobidan 4.000.000 pud g'alla Turkistondan tortib olindi.

1921-1922-yillar - Toshkentda 86 ta korxonalar, 2386 ta do'kon va boshqalar davlat tasarrufiga olinib, qisqa vaqtda ishga tushirildi.

1921-1922-yillar - Turkiston Rossiyaga 4.400.000 pud g'alla jo'natilgan. O'sha paytda don yetishtirishga ixtisoslashmagan Turkiston qishloq xo'jaligi uchun bu katta miqdordagi hosil hisoblangan. Chunki, Turkiston chorizom tomonidan bosib olingach, o'lkadagi bug'doyzorlar hisobida. Paxta ekiladigan maydonlar kengaytirilgan bu yerga tashib kelinardi. Turkistonda bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgach, Rossiyadagi fuqarolar urushi natijasida o'lkaga g'alla keltirish deyarli to'xtab qolgan edi.

1921-1922-yillar – Turkistondagi sovet hokimiyatiga qarshi harakatning qaytadan ko'tarilishi va avj olishiga sovet hokimiyati tomonidan yuritilgan o'ziga xos mustamlakachilik siyosati, tinch aholining ommaviy ravishda qirg'in qilinishi jiddiy sabab bo'ldi.



1921-1923-yillar – *U.Gardning* AQSh prezidentligi davri.

1921-1924-yillar – Albaniyada bir-birini almashtirgan hukumatlar bitta siyosatni: yoki Yugoslaviyadan yoki Italiyadan mo'ljal olish siyosatini yurgizishardi. Mazkur hukumatlar *Ahmad Zogu* tarafdorlari rahbarlik rolini o'ynashardi. Xorijiy kompaniyalar mamlakatda xo'jayinlik qilishardi.

1921-1924-yillar - Qoraqalpog'istondan jami 339521 pud baliq Markazga olib ketildi.

1921-1925-yillar – SSSR chet mamlakatlar bilan jami 40 dan ortiq turli bitim va shartnomalar tuzdi.

1921-1926-yillar – Ruminiyada natsional-liberallar hokimiyat tepasida turishdi.

1921-1927-yillar – Ruminiya natsional-liberallar partiyasi yo'l boshchisi *I.Bratianu* 2 marta Bosh vazir bo'lgan.

1921-1933-yillar – Iroqda *Feysal I* hukmronlik qilgan davr.

1921-1946-yillar – Iordaniyada *Abdulloh* hukmronlik qilgan davri.

1921-1992-yillar – *Aleksandr Dubchek*ning hayot faoliyati.

1921-yil – “*Ordine nuovo*” ISP tarkibidan chiqdi va o'zini Italiya kommunistik partiyasi (IKP) deb e'lon qildi.

1921-yil – alban vatanparvarlari bo'linmalari mamlakat shimolini yugoslav qo'shinlaridan ozod etishdi.

1921-yil – *Albert Eynshteyn* Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

1921-yil – Amerika dengiz piyodalari Kosta-Rikaga tushirildi.

1921-yil – Angliya bilan Irlandiya o'rtasida bo'lib o'tgan yopiq muzokaralar natijasida bitim imzolandi va unga ko'ra Irlandiyaga dominion maqomi berildi. Bitim imzolanganidan so'ng ko'p o'tmay yana fuqarolar urushi boshlandi. Bu safar Irlandiyaning o'zida, bitimni qo'llab-quvvatlagan mo'tadil partiyalar bilan Irlandiyaning Britaniya qiroliga qasamyod etishini bekor qilish va to'la mustaqil davlat tuzish tarafdori bo'lgan ekstremistik partiyalar o'rtasida qurolli kurash boshlandi.

1921-yil – AQShda 10 millionchi avtomobil ishlab chiqarildi.

1921-yil - BKP a'zolari soni 4 ming kishi.

1921-yil - Buxoro respublikasida 175 ta yangi maktab, 11 ming o'quvchi bor edi.

1921-yil – Buxoroda sovetlarga saylovlar bo'lib o'tdi.

1921-yil – *F.Ruzvelt* falaj dardiga yo'liqdi. U mustaqil harakatlanish qobiliyatidan mahrum bo'lsada, buyuk ishbilarmonlik fazilatlarini va siyosiy iste'dodi tufayli katta siyosatga qayta oldi.

1921-yil - fransuz yozuvchisi *Andre Stil* dunyoga keldi.

1921-yil – hukumat Marokashda *Fransisko Frankoni* asturiyalik ishchilarga qarshi jazo operatsiyalariga qo'mondon etib tayinladi va u o'z imkoniyatidan foydalandi.

1921-yil – ingliz-eron kompaniyasi aniqlangan neft konlarini tasarruf etishga *Ahmad Zogu* ruxsat oldi. Mis, temir rudalarini italyan va fransuz firmalari qazib olishardi.

1921-yil – Ispaniyada sotsialistik yoshlar federatsiyasi bazasida kommunistik partiya (IKP) tashkil etildi. Ispaniya tarixida Burbonlar monarxiyasining zavoli va harbiy diktatura hukmronligi boshlandi.



1921-yil – Italiya, Gretsiya va Yugoslaviya o'rtasidagi uzoq munozaralardan so'ng Albaniya mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligi haqida e'lon qilinib, boshqaruv regentik kengashiga berildi. Amalda hokimiyat *Ahmad Zogu* qo'lida saqlanib qoldi.

1921-yil – Misr bo'ylab yangi namoyishlar to'liqini yelib o'tdi. Ular oldingilaridan yuksak tashkilotchilik jihati bilan farq qilardi. Umumiy ish tashlashdan boshlangan kurash yirik shaharlarda barrikada janglari va dehqonlarning partizanlik harakatiga o'sib o'tdi. Qo'zg'olon yana bostirildi, bu Angliya faqat repressiyalar bilan xalq harakatini bostirib bo'lmasiligini yaqqol isbotladi.

1921-yil – Mongoliya xalq-inqilobiy partiyasi (MXIP) inqilob natijasida xalq hokimiyatini o'rnatdi, va sotsializm qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

1921-yil – Natsional-liberallar hukumatining tizimi agrar islohot o'tkazishdi. Agrar islohot haqidagi dekret bo'yicha qirolik, davlat yerlari, cherkov yerlarining bir qismi, shuningdek 2 mln. ga pomeshchiklar yerlari to'lov evaziga musodara qilindi. Agrar islohot qishloq xo'jaligini o'zgartirib, quloqlar va o'rtahol dehqonlarning qudrat qatlamini yaratdi. Agrar islohot ichki bozorni kengaytirishga, shaharga ishchi kuchi kelishiga, shuningdek qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirishga imkon berdi.

1921-yil – qishloq xo'jaligini tiklash, oziq-ovqat taqchilligini bartaraf qilish uchun oziq-ovqat solig'iga o'tildi. Bu dehqon xo'jaligini ko'tarish uchun yo'l ochdi. Soliqni to'lagandan so'ng ortiqcha mahsulotni bozorda sotish, xo'jalikka zarur narsalarni sotib olish imkoniyati tug'ildi. Dastlab o'lkada oziq-ovqat solig'i 8 ta natural soliqdan tarkib topdi. Bu chalkashlik va suiiste'mollarga sabab bo'ldi. Soliq tizimi takomillashtirish choralari ham ko'rildi. Ekin yerlari maydoni oldingi yilga nisbatan ancha kengaydi. Lekin chalkashlik hamon salbiy ta'sir ko'rsatardi.

1921-yil - qishloqda yuzaga kelgan "Qo'shchi" ittifoqi ommaviy tashkilot bo'lib qoldi..

1921-yil - Qoraqalpog'istonda chorva mollari soni 201000 boshni tashkil etdi.

1921-yil – Rossiya Davlat banki tashkil etildi. Mamlakat xalq xo'jaligini byurokratik markazlashtirishda bu bankning ahamiyatga ega. U barcha pul va kredit operatsiyalarini boshqarardi. Hukumat ko'rsatmalari asosida Davlat banki mamlakatda pul massasining aylanishini tartibga solardi.

1921-yil – Rossiya Eron, Afg'oniston, Turkiya va Mongoliya bilan do'stlik va hamkorlik to'g'risida bitimlarni tuzdi.

1921-yil – shartnomaga ko'ra, Olster grafligi Buyuk Britaniya tarkibida qolib, keng miqyosda o'z-o'zini boshqarishni saqlagandi. Biroq ko'pchilikdan iborat protestantlar kamchilikdan iborat katoliklarni kamsitish uchun o'z hokimiyatidan doimiy ravishda foydalanib keldi.

1921-yil – *Suxarto* dunyoga keldi.

1921-yil – Turkiston pul birligi Turkiston bonlari muomiladan chiqarilib, o'rniga umumfederativ qog'oz pullar muomilaga kiritildi.

1921-yil - Turkistonda 76 ming desyatina yerga paxta yetishtirilib, uning yalpi hosili 15 ming tonna tashkil etdi.

1921-yil – Turkistonda 76% ga oziq-ovqat solig'i bajarildi.



1921-yil – Turkistonda yangi kooperativlar tuzildi. Qishloq xo'jaligi, xususan, paxtachilikni tiklash uchun shirkatchilik uyushmalari (kooperatsiya) shakllari tashkil qilindi, davlat-bank mablag'lari shular orqali dehqon xo'jaliklariga kredit qilib beriladigan bo'ldi. Kooperatsiya turlari oldin ham bo'lgan, ammo sovet hokimiyati ularni burjuacha tashkilot deb tarqatgan edi. Paxta tozalash zavodlari, paxtani xarid qilgan idoralar paxtakor dehqonlarni kooperativlarga uyushtirib, ularga hosilni terguncha kredit berib turganlar. Bularning soni 57 ta edi.

1921-yil - Xorazmda paxta maydonlari 10 ming tanobdan.

1921-yil – Yugoslaviyani barpo etish g'oyasi hech kimda qarshilik uyg'otmasdi va Versaldagi tinchlik sulhlari bo'yicha qirollikning chegaralari belgilandi. Uning maydoni 248 ming km. ni, aholisi 15 mln. kishini tashkil etardi. Yangi davlat aholisining 40 %i serblardan iborat bo'ldi.

1921-yil - O'zbekistonda kutubxonalari soni 13 taga yetdi. O'zbekiston tashkil bo'lganida markaziy va mahalliy kutubxonalar 152 tani tashkil etardi.

1921-yil boshi - mag'lubiyatga uchragan amir *Olimxon* Avg'onistonga o'tib ketdi.

1921-yil boshi - *Polvonniyoz Hoji Yusupov* hukumatining fitna yo'li bilan ag'darilishi, begunoh kishilarning qamalishi, o'dirilishi, mol-mulkining talanishi sabab bo'ldi.

1921-yil boshi – qator muhokamalar natijasida iqtisodiy sohasida bir qator ko'nikmalar e'lon qilindi, bu sovet mamlakatida yangi iqtisodiy siyosat (YaIS) nomini oldi. Uning asosiy mazmun-mohiyati harbiy kommunizm siyosati, oziq-ovqat razvyorstkasi dehqon mahsulotlarini tortib olishni yo'q qilish, mulkchilikning turli shakllari, soliqlar tizimini joriy etish va erkin bozorga o'tishdan iborat edi.

1921-yil bahor – harbiy kommunizm siyosati iqtisodiyotda va davlat siyosatida salbiy oqibatlariga olib keldi. Buning natijasida sovet hukumati chuqur iqtisodiy va siyosiy inqirozga duch keldi. Rossiya qishloqlarida boshlangan dehqon qo'zg'olonlari chinakam dehqonlar urushiga aylanib ketdi, uni bostirish uchun yirik harbiy qo'shinlar tashlandi.

1921-yil yoz - Turkistonda irrigatsiya tarmog'i harbiylashtirildi. Dehqon xo'jaligi bu tarmoqda majburiyatni bajarish bilan birga suv solig'ini to'lashi lozim edi.

1921-yil yoz - Buxoroda sovetlarga saylovlar o'tkazildi.

1921-yil yoz - Qo'ng'irotda qo'zg'olon ko'tarildi. Bunday ko'tarilishlar tez-tez takrorlanib turdi. Rasmiy axborotlarda respublika hududida, qumlar orasida "kaltamanlar va bosmachilar sonining o'sishi", ularning kuch to'plab jangga kirganlari qayd etilgan. Qishloq va shaharlarning aholisi ularga xayrixohlik bildirgan.

1921-yil yoz-1922-yil iyul – Versal shartnomasiga qadar tovon pulining birinchi hisssasi to'landi, yana bir necha bor arzimas miqdorda hisssalar to'landi. Shundan so'ng tovon to'lanmay qo'ydi. Germaniya rahbarlari qaysarlik bilan "*marka kursi barqarorlashganidan keyingina tovon puli to'lanishi mumkin*", deb ta'kidlab keldilar. Markani barqarorlashtirish uchun esa Germaniyaga zayom berilishi va tovon puliga moratoriy e'lon qilinishi zarurligini aytdilar.

1921-yil 1-yanvar – BKP a'zolari soni 17 mingdan 4 mingtagacha tushib ketdi.

1921-yil fevral - Chimboy uchastkasida isyonning sobiq ishtrokchilaridan 24



kishi hibsga olindi. *Xon Mahsum* va boshqalar Sibirga surgun qilindi. Yirik yer egalari va savdogarlar - 75 kishidan 10.000 Rossiya chervon rubli miqdorida tovon puli undirib olindi.

1921-yil mart - Turkiton iqtisodiy kengashi (TurkEKOSO) tuzilib, mahalliy iqtisodiy kengashlar uning tasarrufiga o'tkazildi. Shuningdek, TurkEKOSO tarkibida Davlat Planlashtirish Komissiyasi (Gosplan) tuzildi.

1921-yil mart – Yosh buxoroliklarning g'oyalari va BKP siyosati o'rtasidagi jiddiy tafovut ijtimoiy vaziyatni keskinlashtirdi. Buxoro rahbariyati qator chet mamlakatlar hukumatlariga yo'llangan murojaatnomasida "*Buxoro xalqi... Yosh buxoroliklar ta'sirida uyg'ondi*", deb ta'kidladi. BKPni *F.Xo'jayev "Sun'iy tuzilgan partiya"*, deb ataldi. Rossiya va Turkiston bolsheviklariga tayangan BKPning ayrim rahbarlari zudlik bilan inqilobiy o'zgartirishlarni amalga oshirishni, yerlar, boyliklarni musodara etishni, vaqflarni yo'q qilishni, islom diniga qat'iy hujum boshlashni talab qildilar.

1921-yil mart – *Lenin* bolsheviklar taktikasida keskin burilish yasadi. Mamlakatda yangi iqtisodiy siyosat (*NEP*) joriy etildi.

1921-yil 2-mart – Bir paytlar bolsheviklarning tayanch nuqtasi bo'lgan Kronshtadt qo'zg'aldi. Isyonchi dengizchilar partiyani inqilobga xiyonat qilishda, hokimiyatni zo'rlik bilan egallashda ayblab, rus xalqini kommunistlarning hukmronligiga qarshi bosh ko'tarishga chaqirdilar. Partiya ichida ham bo'linish ro'y berdi, markaziy komitet fraksiyalarga ajraldi.

1921-yil 6-mart – Moskvada do'stlik va birodarlik haqida sovet-turk shartnomasi imzolandi. Sovet hukumati Sevr shartnomasini tan olishdan bosh tortdi va Turkiyaga 10 mln. so'mlik oltin miqdorida tekin yordam berdi. *Mustafo Kamol* bu mablag'ni o'z armiyasining qurol bilan to'liq jihozlanishiga sarfladi.

1921-yil 6-mart – *P.Yusupov* boshchiligida Xorazm hukumati ag'darildi. Uning bir necha a'zolari qamoqqa olindi, hokimiyat revkom qo'lga o'td. Bu voqea mintaqada qattiq qoralandi.

1921-yil 10-mart - Yosh xivalik *P.Yusupov* boshliq hukumat ag'darildi. Hukumat tarkibida kompartiya a'zolari soni ko'paydi. Ammo hokimiyatning boshqa qismlarida Yosh xivaliklar va ularning g'oyalari ta'siri kuchli edi. Bu hol respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning mazmun va mohiyatini belgilab bordi.

1921-yil 16-mart – Moskvada Rossiya-Turkiya shartnomasi imzolandi. Bu shartnoma bo'yicha Rossiya hukumati Turkiyaga boshqa mamlakatlardan qurol-aslaha va harbiy kiyim-kechak sotib olishi uchun pul bilan, shuningdek katta miqdordagi qurol-yarog', jangovor o'q-dori va boshqa harbiy anjomlar bilan tekin yordam ko'rsatdi. Bularning barchasi Turkiya uchun hal qiluvchi rol o'ynadi - intervensiya mag'lub etildi.

1921-yil 18-mart – Kronshtadtda harbiy dengizchilarning qo'zg'oloni. U Qizil armiya qo'shinlari tomonidan bostirildi.

1921-yil 18-mart – sovetlar va Polsha o'rtasidagi urushni to'xtatish to'g'risidagi bitimning imzolanishi.

1921-yil may – bo'lib o'tgan parlament saylovlarida Italiya kommunistlari 15 deputatlik o'rnini egallab, dastlabki g'alabani qo'lga kiritdilar.



- 1921-yil may** – Italiya saylovlarida fashistlar parlamentda 35 o'ringa ega bo'ldilar.
- 1921-yil may** - Xorazm sovetlarining II qurultoyi.
- 1921-yil 28-iyun** – Serbiya boshchiligida markazlashgan boshqaruvni mustahkamlovchi konstitutsiya qabul qilindi. Xorvatlar va boshqa xalqlar Korfuda qabul qilingan deklaratsiya bajarilishini hamda ularga tenghuquqlik berilishini talab qilishdi. Serb burjuaziyasi esa hokimiyatni qo'ldan chiqarishni istamasdi.
- 1921-yil iyun-sentabr** - Farg'ona viloyatida 200 dan ortiq qo'rboshi guruhlar harakat qilgan.
- 1921-yil avgust** - Buxoroda Turkiston Milliy Birligi tashkiloti tuzildi.
- 1921-yil 3-avgust** – Italiya sotsialistik partiyasi (ISP) va Umumiy mehnat konfederatsiyasi (UMK) fashist rahbariyati bilan “totuvlik pakti”ni imzolab, katta xatoga yo'l qo'ydilar. Bu paktga ko'ra, ikkala tomon ham bir-birini tanqid qilishdan voz kechdi. Fashistlar ishchi tashkilotlarining qo'llab-quvvatlashi tufayli yetakchi siyosiy kuchga aylandilar.
- 1921-yil sentabr** - Buxoroda BXSRS konstitutsiyasi qabul qilindi. Fuqarolar teng huquqligi, hurriyat e'lon qilindi. Xalq vakillarining oliy organi – Buxoro Markaziy Ijroiya komiteti (MIK) tuzildi. Uning 1-raisi qilib *Usmonxo'ja Po'latxo'jayev* (*Usmon Xo'ja*) saylandi. Keyinchalik *Muinjon Aminov*, *Porso Xo'jayev* MIK raislari bo'ldilar.
- 1921-yil 13-sentabr** - Farg'ona vodiysida favqulodda holat e'lon qilindi.
- 1921-yil oktabr** - Turkiyaning sobiq harbiy vaziri *Anvar Posho* Buxoroga keldi, biroz muddatdan so'ng mamlakatning sharqiy qismiga jo'naydi va sovetlarga qarshi kuchlarga qo'shiladi. *Anvar Poshoning* harakatlari bilan sharqiy Buxoroda birlashgan lashkar bunyod etildi va g'arbcha qo'mondonlik uslubi joriy qilindi.
- 1921-yil 12-oktabr** – Rossiya bilan Riga sulh shartnomasi tuzildi. Polshaning sharqiy chegaralari belgilandi va har ikki tomon bir-birining suverenligini hurmat qilishga kelishib olishdi.
- 1921-yil 20-oktabr** – Anqarada Fransiya va Turkiya o'rtasidagi urush holatini to'xtatish to'g'risidagi bitimning imzolanishi.
- 1921-yil noyabr** - Farg'ona viloyatida harbiy diktatura o'rnatildi. Turkfront harbiy inqilobiy kengashi a'zosi *P.Baranov* Farg'ona viloyatining harbiy boshlig'i qilib tayinlandi. Turkkommissiya, keyinchalik Turkbyuro qizil qo'shinlar harakatini boshqarib, Markazga hisobot berib turdilar. Markaz harakat boshliqlariga nisbatan shafqatsiz jazo choralari qo'llash lozimligini qat'iy talab qildi.
- 1921-yil noyabr** – Xivada tashqi savdo bilan shug'ullanish hukumat nazorati ostiga olindi. Respublika hukumatining faoliyati tashqi savdoni tartibga solish va jonlantirishga qaratildi. Paxta, jun, qorako'l teri, beda urug'i, g'allani tashqariga chiqarish taqiqlandi. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy-savdo aloqalarida mustamlakachilik ko'rinishlarining oldini olishga harakat qilindi. Butun xorazm sovetlarining II qurultoyi Rossiya bilan savdo aloqalari teng asosda olib borilishi kerak, shundagina Xorazmda xo'jalikni ko'tarish mumkin, shu asnoda an'anaviy hamkorlar bilan “respublika tashqi savdosini” rivojlantirish lozim, deb uqtirgan edi.
- 1921-yil 12-noyabr 1922-yil 6-fevral** – AQSh tashabbusi bilan Vashingtonda konferensiya o'tkazildi. Unda 9 davlat – AQSh, Angliya, Yaponiya, Fransiya, Italiya,



Belgiya, Niderlandiya, Portugaliya va Xitoy vakillari ishtirok etdilar. Garchi unda ko'tarilgan masalalar bevosita hayotiy manfaatlarga aloqador bolsa-da, Sovet Rossiyasi vakillari konferensiyaga taklif etilmadilar. Konferensiyada bir necha shartnoma imzolandi. Ular ichida eng muhimi to'rt davlat - AQSh, Angliya, Yaponiya va Fransiya o'rtasidagi shartnoma edi. Unda Tinch okeanidagi qaram hududlarning xavfsizligi masalasida qatnashchilarning o'zaro kafolatlari qayd etildi. Natijada 1902-yilgi ingliz-yapon ittifoqi bekor qilindi. AQSh Tinch okeani havzasiga chiqish yo'lini ochdi hamda bu mintaqadagi mamlakatlar va hududlarni ekspluatatsiya qilishda "teng imkoniyatlarga" ega bo'ldi. Konferensiyada AQShning yana bir g'alabasi "to'qqiz mamlakat shartnomasi" tuzilganligi bo'lib, unda teng imkoniyatlar tamoyili va Xitoydagi "ochiq eshiklar" siyosati o'z ifodasini topgan edi. AQSh endi Xitoyga ham yo'l ochgan, kelgusida yevropalik raqobatchilarni siqib chiqarib, o'z monopoliyalarining hukmronligini o'rnatishni mo'ljallagandi. Shu bilan birga, "beshlar shartnomasi" (AQSh, Angliya, Fransiya, Yaponiya va Italiya) Tinch okeani hududida harbiy kemalar miqdorini chekladi, bu bilan AQSh va Angliya imkoniyatlarini tenglashtirdi. Mazkur shartnomaga ko'ra, AQSh va Angliya Yaponiya sohillariga 5 ming km. dan yaqin (aniqrog'i, Singapur bilan Gavay orollari o'rtasida) masofada yangi harbiy dengiz qarorgohlari qurmaslik majburiyatini oldilar. Bu esa ularni Yaponiya hududiga bevosita yaqin bo'lgan suvlarda qulay harbiy qarorgohlar qurishdan mahrum etardi. Vashington konferensiyasi qarorlari Versal tinchlik shartnomasiga qo'shimcha sifatida Tinch okeanida yangicha "kuchlar muvozanati" uchun asos bo'ldi. Ular AQSh uchun Uzoq Sharqda faol siyosat eshiklarini ochar va bu mintaqada AQSh gegemonligini o'rnatardi. Vashington konferensiyasi xalqaro munosabatlarda Versal-Vashington tartibini nihoyasiga yetkazdi.

1921-yil dekabr - *Katta Ergash* qo'rboshi Xonobodagi qarorgohida qizil askarlar bilan bo'lgan jangda o'ldirildi.

1921-yil dekabr - Yosh buxoroliklar Minorai Kalon yonidagi binoda davlat kutubxonasini tuzishdi. Kitoblar, qo'lyozmalar to'plandi. Respublikaning viloyatlarida ham kutubxonalar tashkil etildi.

1921-yil 10-11-dekabr - Xorazm Kompartiyasining I qurultoyi bo'lib o'tdi, uning a'zolari soni 1200 kishini tashkil qildi.

1921-yil oxiri 1922-yil yozi – Xorazmda rus harbiylari va bolsheviklar tashkil qilgan tribunallar bo'lib, ularning ishi siyosiy yo'naltirilgan edi. Tribunallar xohlagan ishni o'z tasarrufiga olib ko'rar, inqilobiy qonunchilik asosida hukmlar chiqarar va ularni ijro etardi. 32 ta ish ko'rilib, ularning 10 tasi bo'yicha oliy jazo chiqarildi. O'limga hukm etilganlar orasida hukumatning sobiq a'zolari ham bor edi. Qisqa vaqt ichida tribunallar yana 23 ta bo'yicha oliy jazolar chiqarildi.

1922/23-xo'jalik yili – Turkistonda irrigatsiyani tiklash uchun yiliga 5 mln 850 ming oltin so'mga yaqin mablag' ajratilgan edi. Bu mablag'lar sug'oriladigan ekin maydonlarini qayta tiklash uchun dehqonlarga ularning uyushmalari orqali kreditga berildi.

1922-1923-yillar – A. *Bannar-Louning* Angliyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.



1922-1923-yillar - olib borilgan jangovar harakatlar qizil armiya qo'mondonligini tang ahvolga solibgina qolmay, balki respublikadagi siyosiy muhitga ham jiddiy ta'sir qildi.

1922-1923-yillar – *V.Kuno* Germaniya reyxskansleri bo'lgan.

1922-1923-yillar - yerli millatlar vakillarining bir qancha rahbar xodimlari O'rta Osiyoda amalga oshirilayotgan milliy siyosatdan qoniqmayotganliklarini ochiq-oydin ma'lum qila boshladilar.

1922-1925-yillar – Turkistonda pul islohoti (pul almashtirish) o'tkazildi. Oltin hisobidagi chervonlar, kumush va mis tangalar chiqarildi. Markaziy banklarning bo'limlari, Turkistonning o'z banklari tashkil etilib, faoliyat ko'rsatdi. Davlat daromadlari va xarajatlari hisobga olinib, byudjet tuzishga kirishildi.

1922-1936-yillar – *Ahmad Faud I* Misr qiroli.

1922-1936-yillar – *Fuod I* Misrda hukmronlik yillari.

1922-1941-yillar – *A. Tolstoyning* “*Sarsonlik-sargardonlikda*” trilogiyasi yaratildi.

1922-1943-yillar – *B. Mussolinining* Italiyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1922-1943-yillar – *Benito Mussolini* Italiyaning fashist diktatori bo'lgan.

1922-1953-yillar – *Iosif Vissarionovich Stalin* (Jugashvili) bol'sheviklar partiyasiga boshchilik qildi va mamlakatda ommaviy terrorga asoslangan totalitar tuzumni o'rnatdi.

1922-1969-yillar - “bitniklar” adabiy oqimi vakili amerikalik yozuvchi *Jek Keruak* hayot faoliyati.

1922-1979-yillar – *Agostinyu Neto* hayot faoliyati.

1922-yil - Irlandiyaga dominion maqomining berilishi.

1922-yil - “*Ishtirokiyun*” jurnali “*Qizil bayroq*”, keyin “*Turkiston*” nomi bilan chiqa boshladi.

1922-yil - “*O'zbek yosh shoirlari to'plam*”dan ijtimoiy mazmundagi asarlar o'rin oldi.

1922-yil – Amerikaning avtomobil qiroli *Genri Ford Gitlemi* mablag' bilan ta'minlay boshladi.

1922-yil – Angliya Misrga cheklangan “*mustaqillik*” berishga rozi bo'ldi. Angliya Misrda o'z qurolli kuchlarini go'yoki chet el agressiyasidan himoyalani uchun saqlab qoldi. Parlamentga saylovlar o'tkazilib, unda “*Vafd Misr*” g'olib chiqdi. Ular Yevropa andozasidagi bozor munosabatlarini o'rnatish yo'lidan borib, mamlakatda islohotlarni amalga oshirishga kirishdilar. “*Bank Misr*” nomi bilan banklar guruhi tashkil qilindi, milliy savdo, sanoat va transport kompaniyalari tuzildi.

1922-yil – Angliyada radioeshittirish vositalari yaratildi.

1922-yil – AQSh *Jahon sanoati ishchilari* saflarida 1000 ta a'zolari qoldi.

1922-yil – AQShda ishlab chiqarishning o'sishi boshlandi. Avtomobilsozlik, samolyotsozlik, radio, elektrotexnika sanoatlari jadal sur'atlarda rivojlandi. O'sish yangi texnikaviy asosda, eng yangi texnika uskunalari, konveyer tizimi, *standartlashtirish, modernlashtirish* usullarini keng tadbiiq etish yo'li bilan amalga oshirildi. Ishlab chiqarishda yangi fan va texnika kashfiyotlari, seriyali ishlab chiqarish usuli keng qo'llanila boshlandi.



1922-yil – *Benito Mussolini* Italiyada hokimiyatni egallab oldi va fashist diktaturasini o'rnatdi.

1922-yil – Braziliyada prezident *Bernardisning* ochiq-oydin terroristik diktaturasi o'rnatildi. Demokratik erkinliklar chegaralandi, mehnatkashlarning namoyishlari ayovsiz ta'qib ostiga olindi.

1922-yil - Farg'ona shahrida *Husanxon Niyoziy* boshchiligidagi 2-bosqichli maktab ochiladi.

1922-yil – Fransiyaning ochiqdan-ochiq Germaniya va Rossiyaga qarshi qaratilgan “Kichik Antanta” harbiy ittifoqiga javoban Germaniya bilan Rossiya Genuya konferensiyasi paytida diplomatik munosabatlar o'rnatish haqida shartnoma tuzdi. Bu ahdlashuv keng miqyosli iqtisodiy munosabatlar o'rnatish yo'lini ochar edi. Shunday qilib, Germaniya birinchi bo'lib Rossiyaning iqtisodiy jihatdan qamal qilish haqidagi kelishuvini buzdi. Germaniya va Rossiya o'rtasidagi shartnoma Genuya yaqinidagi Rapallo degan joyda imzolangani uchun shu nom bilan ataldi. U ikkala mamlakatning ham xalqaro mavqei mustahkamladi.

1922-yil – Kopengagendagi nazariy fizika institutining direktori *Nils Bor* Nobel mukofotini qo'lga kiritdi.

1922-yil – *Lenin* og'ir betobligi tufayli faol siyosiy hayotdan deyarli ketdi.

1922-yil – *Mustafa Kamol posho* qisqa muddatda turk armiyasini yangidan tuzishga erishdi va bu armiya turk armiyasi intervension armiyaning bir qismi bo'lgan grek qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi.

1922-yil - Qoraqalpog'istonda chorva mollari soni 233000 boshga yetdi. Bu paytda 200 ta mayda xususiy savdo korxonalari faoliyat ko'rsatardi.

1922-yil – Rappalo (Italiya) da Rappalo bitimi imzolandi, u Germaniya va RSFSR o'rtasidagi munosabatlarni izga soldi. Bitim o'zaro da'volardan voz kechish va savdo munosabatlarni rivojlantirishga imkon qadar yo'l ochishni ko'zda tutardi. Diplomatik munosabatlar to'la hajmda tiklandi. Germaniya RSFSR bilan munosabatlarni mustaqil, ikki tomonlama asosida, G'arb davlatlari ittifoqi fikri bilan hisoblashmay rivojlantirish majburiyatini oldi. Germaniya sovet davlatiga nisbatan iqtisodiy va siyosiy qamalni yorib o'tdi va sovet iqtisodiyotining tashqi savdo aloqalarini bir maromda rivojlanishiga imkon berdi. Rappalo bitimi sovetlarga qarshi umumiy frontning parchalanishiga olib keldi. Ushbu bitim G'arb davlatlarining SSSRga nisbatan siyosiy qamalni barbod qildi. Rappalo bitimidan so'ng boshqa davlatlar ham SSSRni tan ola boshladilar.

1922-yil - *Shokirjon Rahimiy* “*O'zbek alifbos*” darsliklarini chiqardi.

1922-yil - Toshkentda “Milliy Istiqlol” firqasi tashkil topdi.

1922-yil – Turkiston aholisi 4 mln 835 ming kishiga tushib ketdi.

1922-yil - Turkiston, Buxoro va Xorazmda 70 ga yaqin yoshlar Germaniyaga o'qishga jo'natildi. Buxoro respublikasi hukumati Berlinda yotoqxona uchun bino sotib oldi, o'quvchilarni moddiy ta'minlab turdi, ularning ahvoli, o'qishlaridan ogoh bo'ldi. Yoshlarimiz Germaniyaning turli o'quv yurtlarida muvaffaqiyat bilan o'qidilar, mutaxassislar bo'lib yetishdilar. Afsuski, o'z ona yurtiga qaytgan yigit-qizlarimiz mustabidlik qatag'oniga uchradi.

1922-yil – Turkistonda 98% ga oziq-ovqat solig'i bajarildi.



1922-yil - Turkistonda bolalarning 25% maktablarga jalb qilingan edi.

1922-yil - Turkistonning 3 viloyatidagi paxta hosili 39 ming tonnani tashkil qildi.

1922-yil - Turkman, qozoq, qoraqalpoq ma'muriy viloyatlarini tuzish haqida qaror qabul qilingan.

1922-yil - *U.Garding* qo'shimcha foyda solig'ini, narx-navo ustidan nazoratni bekor qildi va kompaniyalarga ishchilar bilan munosabatlarda to'liq erkinlik berdi.

1922-yil - Xivada dehqon xo'jaliklarining daromadi urushdan oldingi davrga nisbatan qariyb 4 marta qisqardi.

1922-yil - Xivada paxta muomalasi tashqi savdo mahkamasi tasarrufidan o'tkazildi. Paxta urug'i, pulsiz dehqonlarga tarqatildi, ssudalar berildi, soliqlardan ozod qilindi.

1922-yil - Xorazm respublikasida 328 ming tanob vaqf ekin yerlari bo'lgan.

1922-yil - Xorazmda 85 ming tanob paxta maydonidan 800 ming pud paxta olindi. Umumiy ekin maydonlari urushdan oldingi darajaning 62 %ini, hosildorlik 70-75 %ini tashkil qildi.

1922-yil - Xorazmda dehqon xo'jaliklarining daromadi urushdan oldingiga nisbatan 4 marta qisqardi.

1922-yil - Xorazmda paxta muomilasi tashqi savdo mahkamasi tasarrufidan o'tkazildi.

1922-yil - Xorazmda savdo oborotining 90%dan ortig'i shaxsiy kapital qo'lida bo'lgan. Yirik xo'jaliklar barcha xo'jaliklarning 20 dan 1 qismini tashkil etdi. 85 % aholining yer maydoni 10 tanobni tashkil qilardi. 60 ming turkman va qozoq-qaraqalpoq xo'jaliklari ko'chmanchi chorvadorlar edi.

1922-yil - Xorazmda sug'oriladigan ekin maydonlari 2/3 qismiga qisqardi va 150 ming desyatini tashkil qildi. Paxta maydonlari esa 4 ming desyatina tushib qoldi.

1922-yil - Xorazmda turkman, qozoq, qoraqalpoq ma'muriy viloyatlarini tuzish haqida qaror qabul qilingan.

1922-yil fevral-oktabr - *L. Fantaning* Italiyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1922-yil 1-fevral - Amerika qo'shinlarining Kubadan olib chiqib ketilishi.

1922-yil 1-fevral - Shandunni Xitoyga qaytarish to'g'risidagi Yaponiya-Xitoy bitimi.

1922-yil mart boshi - *Mulla Abdulqahhor* rahbarligidagi katta armiya Buxoroga yurish qildi. Ular qizil askarlar bilan shahar atrofida bo'lgan 2 kunlik shiddatli janglardan so'ng Buxoro shahrining katta bir qismini egalladilar va bir necha soat mobaynida o'z qo'llarida tutib turdilar. So'ngra shahar atrofidagi Bahouddin Naqshband ziyoratgohini egalladilar. Ammo zudlik bilan yetib kelgan ko'p sonli askarlar (ular orasida Budyonniyning otliq qo'shini ham bor edi) bilan bo'lgan jangda ular Buxoro Sharif va Bahouddin ziyoratgohidan katta qurbonlar berib chekinishga majbur bo'ldilar.

1922-yil mart - Xorazm MIK "*Bizning mamlakatimiz yana avvalgi mustamlaka bo'lib qolmasligi uchun yetishtiriladigan xom ashyo o'z mamlakatimizda ishlanadigan bo'lsin*", degan masalani ilgari surdi. Bu ko'rsatmalarni amalga oshirish yo'lida amaliy qadamlar tashlandi.



1922-yil aprel - Porsu shahri va uning atrofi qizil askarlardan ozod qilindi. Ko'hna Urganch atrofidagi qishloqlarda shiddatli janglar bo'ldi.

1922-yil aprel-may – Genuya konferensiyasi, RSFSRning rasman tan olina boshlanishi.

1922-yil may – Turkistonda soliq sohasida kambag'al oilalarga imtiyozlar berildi. Soliqlarni asosan tadbirkorlar, tijoratchilar, o'rtahol va yirik dehqon xo'jaliklari, hunarmandlar to'lar edilar. Oziq-ovqat mahsulotlarining yakka shahslar tomonidan o'lkadan olib chiqib ketilishi taqiqlandi.

1922-yil iyul - Butunxorazm III qurultoyida konstitutsiya qabul qilindi.

1922-yil iyul - Turkiston MIK 4-pleniumi Turkiston XKS raisi Qayg'usiz Otaboyev quyidagi haqiqatni oshkora ta'kidlashdan cho'chimadi: *"...dastlabki davrlarda bosmachilik ruhida bo'lgan bu harakat endilikda siyosiy mazmun kasb etdi. Shuni ta'kidlash lozimki, 1919- 1920-yillarga kelib Farg'onada qaroqchilik, bosmachilik emas, balki o'ziga xos xalq qo'zg'oloni vujudga keldi. Biz to'rt yil davomida bu harakatga hatto to'g'ri baho berishni ham bilmadik, u xalq qo'zg'oloni bo'lgani holda bosmachilik deb atadik"*.

1922-yil avgust - sovetlarning II qurultoyida Respublika xalq xo'jaligining oliy kengashi tashkil qilindi.

1922-yil avgust – Sovetlarning III qurultoyida respublikadagi siyosiy vaziyat, qizil armiya qismlariga munosabat muhokama qilindi, moliya, iqtisodiy, yer ishlari nozirliklari birlashtirilib, Respublika xalq xo'jaligi oliy kengashi tashkil qilindi. Shu yili respublikaning mehnat va mudofaa kengashi tuzildi. Buxoro Iqtisodiy Kengashi (ByxYKOCO), davlat reja qo'mitasi tashkil etildi, respublikaning byudjeti tuzildi. Pul muomalasiga e'tibor qaratildi. Buxoro Iqtisodiy Kengashi, davlat reja qo'mitasi O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi rahbarligida, ko'rsatmalari asosida respublika iqtisodiyotini boshqardi. Bu tashkilotlarning tuzilishi respublikaning iqtisodiy mustaqilligini chekladi.

1922-yil sentabr – Turkiya bilan Gretsiya o'rtasidagi urush davom etdi. Grek qo'shinlarining to'liq mag'lubiyati bilan tugallandi. Gretsiyaning mag'lubiyati Angliyada D. Lloyd-Jorjning iste'foga chiqishiga sabab bo'ldi. Uni "urushni yutib, tinchlikni vutqazishda" ayblashdi. Aslida Angliya o'zining eski siyosiy manevrlarini amalga oshirishda ancha zaif bo'lib chiqdi.

1922-yil 9-sentabr – Muddaniya yaqinidagi jangda grek qo'shinlari tor-mor etildi va turk qo'shinlari Izmirga kirdi. Angliyaning Turkiyaga qarshi urushda yordam so'rab Yugoslaviya va Ruminiyaga qilgan murojaatlaridan natija chiqmadi. U o'ziga qaram davlatlardan ham rad javobi oldi. I jahon urushida g'alaba qozongan Angliya turk milliy-ozodlik harakati bilan urushda mag'lub bo'ldi. Grek-turk urushidagi bu mag'lubiyat Lloyd-Jorj hukumatining ham mag'lubiyati edi. Raqiblari uni "urushni yutib, tinchlikni boy berganlikda" aybladilar.

1922-yil 9-sentabr – Mustafo Kamol poshsho boshchiligidagi qo'shinlar Izmirga kirdi hamda grek armiyasining tor-mor etilishini yakunladi. Fransiya va Rossiya urushda Turkiyani quvvatladi.

1922-yil oktabr – fashistlar o'z vakillariga bir necha vazirlik lavozimini berish talabi bilan hukumatga murojat qildilar. Rimga yurish qilish uchun tayyorlanish maqsadida fashist guruhlarining yalpi safarbarligini e'lon qilindi.



- 1922-yil oktabr** – *Qalandar Odinayev* Amudaryo viloyatida, so'ngra Xorazmda RKP (b) Markaziy Komiteti O'rta Osiyo byurosi vakili bo'lib ishladi.
- 1922-yil 11-oktabr** – Muddaniyada sulh tuzildi.
- 1922-yil 19-oktabr** – hukumat kaolitsiyasiga kirgan Konservativ partiya yig'ilishida mazkur kaolitsiyadan chiqish haqida qaror qabul qilindi. *Lloyd-Jorj* qirol *Georg V* ga iste'fonomasini topshirdi va u darhol qabul qilindi. Hukumat o'zgartmadi, faqatgina Bosh vazir lavozimiga Konservativ partiya rahbari *Bonar Lou* tayinlandi.
- 1922-yil 25-oktabr** – Vladivostokning yapon bosqinchilaridan ozod qilinishi.
- 1922-yil 28-oktabr** – Italiyada fashistlar diktaturasining o'rnatilishi.
- 1922-yil 29-oktabr** – Qirol fashist isyoniga qarshi armiyani qo'llash huquqini beradigan farmoni imzolashdan bosh tortdi. Buning o'rniga u Milanga telegramma yo'llab, *Mussoliniga* bosh vazir bo'lishni taklif qildi. Bunga e'tiroz belgisi sifatida vazirlar mahkamasi iste'foga chiqdi, *Mussolini* esa Rimga keldi. Tarafdorlari uni qadimiy shahar ko'chalarida hukumat boshlig'i sifatida gulduros qarsaklar bilan kutib oldilar. "Rimga yurish" hokimiyatni egallash bilan yakunlandi.
- 1922-yil 23-noyabr** – Italiya qiroli va parlament *Mussoliniga* cheklanmagan hokimiyat berdi. Endi u vazifalarga tayinlash tartibini ham belgilar edi. Shundan keyin barcha amaldorlar va davlat xizmatchilari fashist partiyasi a'zolari bo'lishi yoki partiya rahbarlari roziligi bilan tayinlanishi zarurligi belgilab qo'yildi.
- 1922-yil 30-dekabr** – yagona ittifoqdosh davlat – *Sovet Sotsialistik Respublikalar ittifoqining* tashkil topishi mamlakat rahbariyatida Stalin boshchiligidagi o'ta ekstremist ulug' davlatchi kuchlarning g'alabasi bo'ldi. Sovet ittifoqining butun hududida ma'muriy-buyruqbozlik tizimi qaror topdi.
- 1922-yil 30-dekabr** - mintaqani milliy-hududiy jihatdan qayta tuzish masalasi partiya organlari tomonidan ishlab chiqildi va amalga oshirildi. O'rta Osiyo byurosi (Sredazbyuro) umummintaqani qamrab oladigan chegaralanish zarurligi to'g'risidagi masalani respublikalar partiya organlari, partiya xodimlari muhokamasiga qo'yishga zo'r berib intildi. Bu holat SSSR tuzilgach kuchaydi.
- 1922-yil dekabr oxiri** – *Shermuhammad* Buxoroga o'tib ketdi.
- 1922-yil bahor** - BXRga bir qator qurilish materiallari, kerosin, neft, temir molar, qog'oz, daftar, gugurt, kalishlar olib kelindi.
- 1922-yil yoz** - janglardan birida Baljuvon tepaliklarida *Anvar Posho* shahid bo'ldi.
- 1922-yil yoz** – Buyuk Britaniya va AQSh tomonidan qo'llab-quvvatlangan hamda Rapallo shartnomasidan ruhlangan Germaniya har yilgi tovonni to'lashdan bosh tortdi.
- 1922-yil kuz** – Italiyada fashistlar ko'pgina munitsipalitetlar ustidan nazorat o'rnatdilar. Mamlakatning Emiliya, Toskana va Lombardiya kabi eng nufuzli viloyatlari ham fashistlar nazorati ostiga o'tdi.
- 1922-yil oxiri** - bolsheviklar, qizil armiya qo'mondonligi harakat rahbarlari bilan hech qanday muzokaraga kirishmay, ularni faqat qurol kuchi bilan bostirish rejasiga amal qilib bordilar. Harbiy munofiqlik, aholidan o'ch olishni ham keng qo'lladilar. Xorazmda bosmachilikka qarshi kurash uchun "favqulodda uchlik" (troyka) tuzilib, "bosmachilar" va ularga yordam berishda shubha qilingan yuzlab kishilar oliy jazoga hukm qilindilar va 24 soat ichida otib tashlandilar. Turkman



qabilalari boshliqlari o'rtasida kelishmovchilik va adovat keltirib chiqardilar, turkmanlar va o'zbeklarni qarama-qarshi qo'yishga urindilar. Xorazmda turli millatlar o'rtasida munosabatlar murakkablashib, jiddiy tus oldi.

1922-yil oxiri - Buxoro respublika hukumati xalq xo'jaligini tiklash choralarini ko'rdi. Bozor munosabatlariga amal qildi, eski soliqlar bekor qilindi. YaIS tamoyillariga o'tish munosabati bilan Buxoro Davlat Banki tashkil qilindi, qo'shma aksionerlik jamiyatlari, 30 ta yirik savdo firmalari faoliyat ko'rsatdi. Respublika reja qo'mitasi, iqtisodiy kengashi tashkil etildi, byudjet tuzishga kirishildi. Savdogarlarga olingan mollari evaziga 100 oltin so'm berildi.

1922-yil oxiri - *Shermuhammadbek* boshchiligida tuzilgan Turkiston muvaqqat hukumati tarqalib ketdi.

1923- yil - BKP a'zolari soni 1248 kishi.

1923/24-xo'jalik yili - hunarmandlar bozor talabining 9 qismini ta'minlardilar. Temir yo'l, sanoat korxonalari tiklanib ishga tushirildi. Tashqi savdo kengaydi. BXSР 10,5 mln oltin so'm atrofida chetga mol eksport qildi, 7,5 mln oltin so'm hajmidagi mollar import qilindi.

1923/24-xo'jalik yili - Turkiston o'lkasida sanoat korxonalari mahsulotlarining umumiy hajmi 1921-yilga nisbatan 1,7 marta o'sdi. Bu mablag'lar sug'oriladigan ekin maydonlarini qayta tiklash uchun dehqonlarga ularning uyushmalari orqali kreditga berildi.

1923/24-xo'jalik yili – Turkistonda irrigatsiyani tiklash uchun 4 mln 800 ming oltin so'm mablag' ajratildi.

1923-1924-yillar – Farg'ona vodiysida kurashchilarning kichik-kichik guruhlari jang harakatlarini olib bordilar.

1923-1924-yillar – o'lka sanoat korxonalari mahsulotining umumiy hajmi 1,7 marta o'sdi.

1923-1924-yillar – S. *Bolduinning* Angliyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1923-1924-yillar – V.*Marks* Germaniya reyxskansleri bo'lgan.

1923-1929-yillar – Germaniya tarixining *Shtrezman* davri deb ataldi.

1923-1929-yillar – K.*Kulijning* AQSh prezidentligi davri.

1923-1934-yillar – OGPU (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) SSSR Xalq Komissarlar Kengashi huzurida faoliyat ko'rsatgan davlat xavfsizligini qo'riqlash idorasi bo'lgan.

1923-1938-yillar – *Mustafo Kamohing* Turkiya respublikasining 1- prezidenti bo'lgan davr.

1923-yil - O'rta Osiyo respublikalarining xalq xo'jaligi va madaniyati ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tashkil etildi.

1923-yil - paxtaga davlat monopoliyasi bekor qilindi.

1923-yil - Turkistonda sanoat mahsulotlarining miqdori - 5 mln oltin so'mni tashkil qildi.

1923-yil - "*Mushtum*" hajviy jurnali (muharriri – *Hoji Muin Shukrullayev*) keng ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.

1923-yil – Amerika kasaba uyushmalari rahbarlari ishchilar tashkilotlari tomonidan "*Baltimor-Ogayo*" rejasining qabul qilinishiga erishdilar. Unga ko'ra



tadbirkorlar maoshni oshirish majburiyatini olardilar, bunga javoban esa kasaba uyushmalari ish tashlashlarga yo'l qo'ymaslik, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ish kunini uzaytirishga rozilik berish majburiyatini olardilar. Amerika ishchilarini Amerika iqtisod tizimiga yanada kuchliroq bog'lash va ularning ongiga ijtimoiy tenglik g'oyasini singdirish maqsadida Amerika kasaba uyushmalari rahbarlari "ishchi banklari"ni tashkil qila boshladilar. Bu banklarning asosiy mijozlari va hissadorlari ishchilarning o'zlari edi.

1923-yil – *Boysex Yaruselskiy* dunyoga keldi.

1923-yil – Buxoroda sovetlarga saylovlar bo'lib o'tdi.

1923-yil – Buxoroda sug'oriladigan yerlar maydoni to'ntarishdan oldingi darajaga yaqinlashib qoldi (92,3 % ni tashkil etdi). Dehqon xo'jaliklari 425 mingtaga yetdi, ularning 300 mingtasi sug'oriladigan yerlarda, 125 mingtasi esa lalmi yerlarda joylashgan edi.

1923-yil – Farg'onada ularning soni 350-400 atrofida edi. Lekin ular kurashning mazkur bosqichida turli sabab va mahalliy shart-sharoitlar natijasida doim ham bir-birlari bilan kelishib ish ko'rmadilar.

1923-yil – fashizm bilan kurashgan Italiya kommunistik partiyasi (IKP) xalq ishonchini qozongan edi. Birgalikdagi kurash kommunistlar bilan Italiya sotsialistik partiyasi ittifoqini mustahkamladi.

1923-yil – *G.Shtrezeman* Germaniya reyxskansleri bo'lgan.

1923-yil – Gamburgda qo'zg'olon bo'lib o'tdi, uning rahbari Ernst Telman edi.

1923-yil – Krakovda qo'zg'olon yuz berdi. Butun mamlakatda ish tashlashlar va namoyishlar boshlanib ketdi. Repressiyalarga qaramay, g'alayonlar tobora keng quloq yoya boshladi. *Yu. Pilsudskiy* bunga javoban davlat to'ntarishini amalga oshirdi va mamlakatda "sanatsiya" (sog'lomlashtirish) tartibotini o'rnatdi. Bu tartibot amalda Pilsudskiyning shaxsiy diktaturasi o'rnatilganini anglatardi.

1923-yil – O'rta Osiyoda "burjua millatchiligi", "panturkizm", "panislomizm" kabi tushunchalar paydo bo'ldi.

1923-yil – O'zbekistonda aholi to'lab turgan mablag'lar hisobidan Farg'ona viloyatida 310 sinfning harajati qoplangan, ularda 10,5 ming bola o'qigan.

1923-yil – RKP (b) tomonidan "chistka" o'tkazildi. Bunda XKP a'zolarining 32 % i partiyadan o'chirildi.

1923-yil – Rossiyada ishsizlar soni 641 ming kishini tashkil qildi.

1923-yil – *Shimon Peres* dunyoga keldi.

1923-yil - sovetlarga saylovlar o'tkazildi.

1923-yil - Toshkentda qishloq xo'jalik banki ta'sis etildi.

1923-yil – Turkistonda 7 ta meliorativ koopeativlar mavjud edi.

1923-yil – Turkistonda kosiblar soni 110 mingga yetdi. Hunarmandlar aholining deyarli barcha ehtiyojlarini qondirar edilar. Hunarmandlar bozorga chiqarilgan poyafzalning 86% ini, ishlangan terining 76% ini, kiyim-kechak va bosh kiyimlarning 85% ini, idish-tovoqlarning 60 % ini ishlab chiqardilar. Ko'pgina ro'zg'or buyumlari, dehqonchilikda zarur qurollar ham hunarmandchilik mahsulotlari edi.

1923-yil - Turkistonda O'rta Osiyo iqtisodiy kengashi (SredazEKOSO) tuzildi.



1923-yil – Turkistonda paxta monopoliyasi bekor qilindi.

1923-yil - Turkistonning 3 viloyatidagi paxta hosili 111 ming tonnani tashkil qildi.

1923-yil – Xivada yagona qishloq xo'jaligi solig'iga o'tildi. Yana aksiz solig'i (importdan olingan) va muhr (gerboviy) to'lovlar ham joriy qilindi.

1923-yil – Xorazm Iqtisodiy Kengashi tashkil topdi. Uning raisi *A. Burhonov* edi.

1923-yil - Xorazmda korxonalar, savdo va hunarmand-kosiblar hunarmandchilik (promisloviy) solig'iga tortildilar. Xo'jalik faoliyati bilan shug'ullangan shaxslar patent (ijozatnoma)ga haq to'laganlar, so'ngra olingan daromaddan to'laganlar.

1923-yil - Xorazmda paxta xosili har 1 tanob yerga o'rtacha 20 pudni tashkil qildi. Paxtaga talab kamayib ketishi natijasida dehqonlar g'alla ekishga o'tdi.

1923-yil – Xorazmda yagona qishloq xo'jaligi solig'i to'la-to'kis bajarildi.

1923-yil – Xorti diktaturasi ahvolni o'nglay olmadi, Vengriya bankrotlik yoqasiga yaqinlashdi va Millatlar Ligasi taqdim etgan qarzgina Vengriyani muqarrar halokatdan saqlab qoldi. Mamlakatga to'qimachilik va metallurgiya sanoatida o'rnanishgan chet el kapitali erkin kiritildi.

1923-yil – yirik sanoatchi *G. Stinnes*ning mablag'iga fashizm yo'nalishidagi "*Fyolkisher Beobaxter*" kundalik gazetasi tashkil etildi.

1923-yil yanvar – Fransiya hukumati Germaniya Versal konferensiyasi qarorlarini bajarayotganligini e'lon qildi va Reyn viloyatini bosib oldi. Bunga javoban Germaniya hukumati tinch qarshilik ko'rsatish yo'lini e'lon qilib, ko'mir qazib olish va jo'natishni to'xtatib qo'ydi. Korxonalar egalariga va ishchilarga yetkazilgan zarar uchun yordam puli berib turildi. Bu esa, o'z navbatida, inflyatsiyani yanada kuchaytirdi. Ommaviy ishsizlik Rurda boshlab butun mamlakatga yoyildi, davlat xazinasi bo'shab, soliq tushumlari keskin kamayib ketdi. Rurdagi nizo Germaniya iqtisodiyotini og'ir ahvolga solib qo'ydi. Mamlakatda valyuta chayqovchiligi, yalpi ishsizlik, ochlik va faqirlik avj oldi, ishlab chiqarish izdan chiqdi. Hamma joyda boshboshdoqlik hukmron edi. Vangi inqilobiy to'lqin kuchayib borardi.

1923-yil yanvar – Germaniyaning har yilgi tovonni to'lashdan bosh tortishiga javoban fransuz qo'shinlari nemis iqtisodiyoti ustidan nazorat o'rnatish va Rur viloyatini Germaniyadan ajratib olish maqsadida bu viloyat hududiga kirdilar. Ammo Fransiya hukmron doiralari rejasi amalga oshmadi. Germaniya hukumati da'vati bilan Rur aholisi ishdan bosh tortdi. Fransiya Rur ko'miri butunlay bormay qoldi. Natijada cho'yan va po'lat quyish keskin qisqardi. Fransuz franki kursi tushib ketdi, Rurning bosib olinishi ichki siyosiy inqiroz va xalqaro munosabatlardagi chigalliklar bilan yakunlandi. Fransiyaning Yevropa qit'asida gemonlik o'rnatish xayollarini butunlay chippakka chiqarish maqsadida AQSh va Buyuk Britaniya Germaniya iqtisodiyotini tiklash va Daues rejasi asosida uning Yevropa siyosiy hayotidagi rolini oshirishga ahd qildilar.

1923-yil mart - O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (Ñðëäç ÝËÕÑ) tuzildi.

1923-yil 5-mart - Turkistonda EKOSOning 1-konferensiyasi o'tkazildi. Rasman uchta respublika iqtisodiyotining hamkorlik yo'lida birlashuvi e'lon qilindi. Amalda esa mintaqa xo'jaligi ustidan Markaz nazorati o'rnatilishi, boyliklariga amaliy egalik qilish yo'li ochildi.



1923-yil aprel – Mussolini Xalq partiyasi bilan hamkorlik qildi.

1923-yil aprel – *Mustafo Kamol* tashabbusi bilan yangi partiya – Xalq partiyasi tashkil etildi. Xalq partiyasi (keyinroq Xalq respublikasi partiyasi – XRP nomini olgan) *Mustafo Kamol* va uning inqilobiy islohatlari uchun asosiy, siyosiy tayanch bo'lib keldi.

1923-yil 22-may – Bolgariyada xalq kengashiga saylovlar bo'lib, kompartiya va BZXi birgalikda barcha ovozlarning 75 % ini olishdi.

1923-yil may-iyun - Moskva, Toshkent, Buxoroda o'tkazilgan oliy darajadagi bir qator rasmiy anjumanlarda *Mulla Abdulqahhor* rahbarligidagi katta armiyaga qarshi kurash eng dolzarb muammo sifatida kun tartibida turdi.

1923-yil 8-9-iyun – Bolgariyada fashistlar to'ntarishining amalga oshirilishi.

1923-yil 9-iyun – A. *Stamboliyskiy* hukumati ag'darildi, *Stamboliyskiy*ning o'zi o'ldirildi, kasaba uyushmalari va ishchi tashkilotlari tarqatib yuborildi. Hokimiyat tepasiga *Aleksandr Sankov*ning fashistparast hukumati keldi.

1923-yil 24-iyul – Lozanna shahrida imzolangan yangi shartnomaga muvofiq, Antanta davlatlari Turkiya mustaqilligini, kapitulyatsiya va unga asoslangan noteng huquqli shartnomalar bekor qilinishini tan olishdi. Lozanna shartnomasi yangi mustaqil turk davlatining G'arb davlatlari tomonidan tan olinganligi hujjati sifatida Turkiya uchun o'ta muhim ahamiyatga ega edi. Turkiya nafaqat mustaqillikka erishgan, balki ko'p partiyali siyosiy platformali prezidentlik respublikasi tarzidagi demokratik boshqaruv prinsiplarini qabul qilgan 1-Osiyo davlati ham edi.

1923-yil 24-iyul – Lozannada Sharqiy Frakiyani va Kichik Osiyodagi hududlarni Turkiyadan qoldirgan Lozanna tinchlik shartnomasi imzolandi. Bu Buyuk Gretsiyani barpo etish haqidagi barcha xayollarning xotimasi bo'ldi.

1923-yil avgust - Berlindan klinika jihozlari Buxoraga yetib keldi.

1923-yil avgust - bo'lib o'tgan uch kunlik yalpi ish tashlash hukumat iste'fosiga sabab bo'ldi. Tyuringiya va Saksoniyada sotsial-demokratlar va kommunistlar ishtirokida ishchi hukumatlari tuzildi. O'z-o'zini mudofaa ishchi tashkilotlari - qisman qurollangan ishchi guruhlar, nazorat qo'mitalari tashkil etildi. Ko'p joylarda sovetlar vazifasini bajaruvchi harakat qo'mitalari vujudga keldi.

1923-yil avgust-noyabr – *Shtrezman* kansler bo'lib turdi.

1923-yil sentabr – ishchi dehqonlarning qo'zg'olonini tor-mor etgan A.*Sankov* hukumati mamlakatdagi barcha demokratik va vatanparvar kuchlarga shafqatsiz repressiyalar yog'dirildi.

1923-yil 13-sentabr – Ispaniyadagi isyon natijasida hokimiyat general *Primo de Rivera* boshchiligidagi harbiy direktoriya qo'lga o'tdi. *Primo de Rivera* harbiy-monarxik diktaturasining o'rnatilishi. Harbiylar birinchi marta mamlakatni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Generalga amalda cheklanmagan hokimiyat berildi, lekin tez orada Ispaniya yakka shaxs hokimligini qo'llab-quvvatlamasligi ma'lum bo'ldi. Iqtisodiyot izdan chiqdi, hamma joyda hukumatga qarshi chiqishlar boshlandi.

1923-yil oktabr - Butunxorazm BXSRIV qurultoyida konstitutsiyaga jiddiy o'zgartirishlar kiritildi, aholining muayyan qismi fuqarolik huquqlaridan mahrum etildi. IV qurultoyda XXSR Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR) deb o'zgartirildi.



1923-yil oktabr - Buxoro respublikasida turkman va tojik viloyatlari tashkil etildi. Keyinchalik Xorazm respublikasida muxtor turkman va muxtor qirg'iz-qozoq-qoraqalpoq vositalarini tashkil etishga qaror qilindi.

1923-yil oktabr - BXSRS konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritilib, aholining muayyan qismi fuqarolikdan mahrum qilindi.

1923-yil oktabr – Gamburg shahrida *E.Telman* boshchiligidagi amalga oshirilgan qurolli qo'zg'olon politsiya tomonidan bostirildi.

1923-yil oktabr – Xorazmda IV qurultoy bo'lib o'tdi, unda vaqf yerlarini musodara etish haqida qaror chiqarildi.

1923-yil 6-oktabr – Stambulning Antanta bosqinchilaridan ozod qilinishi.

1923-yil 29-oktabr – Turkiya respublikasining e'lon qilinishi.

1923-yil 8-noyabr – *Gitler* boshchiligidagi qurolli natsitlar guruhi Bavariyaning amaldagi diktatori tomonidan tashkil etilgan majlis zaliga bostirib kirdi. *Adolf Gitler* “xalq inqilobi” amalga oshirilganligini e'lon qildi.

1923-yil 8-noyabr – Myunxendagi “pivo isyoni”, Gitlerning fashistlar diktaturasini o'rnatishga urinishi.

1923-yil 9-noyabr – Bavariyada politsiya namoyishga chiqqan natsitlarni tarqatib yubordi. Isyon shu tariqa yakun topdi.

1923-yil 9-noyabr – *Gitler* hokimiyatga kelishga tayyor ekanligini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ldi. *Gitler* Bavariyada davlat to'ntarishini qilishga urindi, hukumat ag'darilganligini e'lon qildi. Keyin Berlinga yurish boshladi. Ammo Berlinda qonuniy tuzum kuchli bo'lgani uchun *Gitler* 13 oy qamoqda yotdi. Qamoqda yotganida “*Mayn kamp*” (“*Mening kurashim*”) kitobini yozdi.

1923-yil 11-noyabr – *Gitler* va *Lyudendorf* qamoqqa olindi.

1923-yil dekabr – Britaniya saylovchilari ham boj siyosatini rad etdilar va saylovlarda konservatorlar parlamentdagi nisbatan ko'pchilik mavqeini boy berdilar.

1923-yil dekabr - Farg'ona vodiysi vakillari RSFSR tarkibida Farg'ona viloyati tashkl to'g'risida taklif bilan chiqdilar. Biroq bu fikrni o'lkadagi rahbar organlar, avvalo partiya organlari xato fikr deb rad etdi. Chegaralash g'oyasini ishlab chiqib, maromiga yetkazish yo'li va boshqa bir qancha takliflar ham olg'a surildi. Biroq Markaz va RKP (b) Markaziy Komiteti O'rta Osiyo byurosi yaxlit va ulkan mintaqada, avvalo 3 ta O'rta Osiyo respublikalari hududlarida yalpi hududiy chegaralash chora-tadbirlarini qat'iy ilgari surdilar.

1923-yil 23-dekabr – qirol Georg beshinchi Leyborist partiyasi rahbari Ramsey Makdonaldga Angliya tarixida birinchi marta leyboristlar hukumatini tuzishni topshirdi.

1923-yil bahor - *Shermuhammad* Avg'onistonga o'ttib ketdi.

1923-yil bahor - Turkistonda davlat keng miqyosli kreditlashni amalga oshirdi. Paxtakor kooperativlar va melioratsiya kooperativlari tuzildi.

1923-yil bahor – Xorazmda g'oyaviy-siyosiy kurash davom etdi. Xalq ommasi, uning ilg'or vakillari mustaqillik uchun, adolatsizlikka qarshi kurashni to'xtatmadilar. Savdo sanoat noziri *Nurullayev* RSFSRda muzokaralarda qat'iylik ko'rsatgani uchun Xorazmga chaqirilib, qamoqqa olindi.



1923-yil bahor-kuz - Sovet hukumati butun Turkistondagi qarshilik harakatini tugatish uchun barcha vositalarni ishga soldi. Angliyalik tadqiqotchi *Glenda Frezeming* yozishicha, “*Sovet qo‘mondonligini Buxoro respublikasida bo‘lgan janglarga 100000 kishilik ulkan armiyasini tashlad!*”.

1923-yil yoz – BKP a‘zolari soni 1248 tani tashkil qildi. Partiyada tez-tez “chistka”lar o‘tkazildi.

1923-yil yoz - BXSR qozilarining I qurultoyi bo‘lib o‘tdi. 65 ta qozilik hududida 528 kishi xizmat qilardi. Yangi sovet sudlari tashkil etildi.

1923-yil yoz - harakatning shiddatli o‘sib borishiga xunrezlikning kuchayishi, aholi qator qatlamlariga nisbatan ko‘rilgan siyosiy-iqtisodiy tazyiq choralarini, ko‘plab kishilarning bolsheviklar tomonidan qamoqqa olinishi va otib tashlanishi harakatning shiddatli o‘sib borishiga sabab bo‘ldi. Xorazmda ham qizil qo‘shinlar qo‘mondonlik buyrug‘i bilan qishloqlarni vayron qildilar, tinch aholini ayamasdan o‘ldirdilar. O‘zbeklar bilan turkmanlarni bir-biriga qarshi qo‘yish kuchaydi.

1923-yil yoz - O‘zbekistonda hokimiyat, siyosiy tashkilotlar bilan aholi, ziyolilar o‘rtasidagi jiddiy g‘oyaviy-siyosiy to‘qnashuvlarni keltirib chiqardi. Madaniyat sohalariga sho‘ro hokimiyati, so‘l guruhlar tutgan yo‘l salbiy ijtimoiy va g‘oyaviy ta‘sir ko‘rsatdi. Bu hol ayniqsa shu yillarda kuchaydi.

1923-yil yoz-kuz – Germaniyada ommaviy g‘alayonlar va ochlarning isyonlari avj olib ketdi.

1923-yil yoz-kuz – Rossiya rahbariyatining ko‘rsatmalari bilan Xorazm respublikasida tub siyosiy to‘ntarish amalga oshirildi. Respublika hukumati savdogarlar va ruhoniylar qo‘lida, shu sababli u kambag‘allarga zid ish ko‘rgan, deb e‘lon qilindi. Qator nozirlar qamoqqa olindi. Konstitutsiyaga jiddiy o‘zgartirishlar kiritildi. Aholining bir necha qatlamlari fuqarolik huquqlaridan mahrum etildi.

1923-yil yoz-kuz - tashqi kuchlar tazyiqida BXSR hukumat tarkibi va mavqaida o‘zgartirishlar kiritildi. Konstitutsiyaga ham o‘zgartirishlar kiritildi. Siyosiy vaziyat o‘zgarib ketdi. Respublikaning ma‘muriy bo‘linishi o‘zgartirildi, 5 ta okrug (Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Turkman va Sharqiy Buxoro okruglari), 48 ta tuman va 195 ta kent tuzildi. Qishloqlarda oqsoqolliklar o‘rniga sovetlar tuzishga kirishildi.

1923-yil kuz – Turkistonda savdo bilan birga davlat savdosi ham olib borildi. Ammo davlat magazinlari, do‘konlarida gazmol, kiyim, kerosin va boshqa mollarning narxi baland bo‘lib, keng aholining ularni sotib olishga qurbi yetmay qoldi. Bir tomondan, savdo inqirozi (mollarning sotilmay qolishi) 2-tomondan esa qimmatchilikdan noroziliklar kelib chiqdi. Bu hol shunday jiddiy tus oldiki, hukumat tezda narxlarni tushirishga majbur bo‘ldi.

1923-yil kuz – Turkistonda savdo inqirozi va qimmatchilikdan noroziliklar bo‘lib o‘tdi. Hukumat tezda narxlarni tushirishga majbur bo‘ldi.

1923-yil kuz - Xorazmda davlat apparati 10 marta qisqartirildi, “chistkalar” o‘tkazildi.

1923-yil qish - Pitnak, Hazorasp, Bog‘ot, Xonqa tumanlarida dehqonlarning qo‘zg‘olonlari boshlanib ketdi. Qo‘zg‘olonchilar sovet tashkilotlarini tugatdilar, qizil askarlarga qarshi hujumni kengaytirdilar.



1923-yil boshi - Buxoroda dehqonlarning g'alla-don maydonlari kengaytirildi. Paxta bosh komiteti idoralari paxtachilikni rag'batlantirish uchun 100 ming pud chigit, 125,3 ming pud g'alla, qoramollar va inventarlarni kreditga tarqatildi. Qishloq xo'jalik solig'i joriy etildi, shu bilan birga mahsulot yer solig'i (ushur) va chorvachilik solig'i (zakot) olinar edi. Ko'rilgan choralar xalq xo'jaligining jonlanishiga olib keldi.

1923-yil oxiri – Angliya yana iqtisodiy jihatdan boshi berk ko'chaga kirib qoldi.

1923-yil oxiri - Turkiston xodimlarining bir guruhi Markazga xat bilan murojaat qilib, unda *milliy nizolar o'lkada tugatilmadan, ko'proq avj oldirilmoqda*, deb qayd etdilar. Ushbu maktubda milliy yetakchilar mavjud bo'lgan ma'lum milliy-hududiy nizolarni tarixan tarkib topgan hududlar, aloqalar, davlat tuzumini keskin buzmasdan, har bir alohida respublika doirasida hal qilish zarur, degan fikrni ilgari surdilar. Ba'zi joylarda bu g'oya amaliy jihatdan yuzaga chaqirildi.

1923-yil oxiri – Turkistonda paxtachilik kooperativlar soni 417, ularga a'zolar soni 66 ming xo'jalikni tashkil qildi.

1923-yil oxiri - Turkistondagi ocharchilik shu yilgacha davom etdi.

1924/25-xo'jalik yili – Turkiston o'lkasida xo'jalik irrigatsiyani tiklashi uchun 6,5 mln oltin so'mga yaqin mablag' ajratildi. Bu mablag'lar sug'oriladigan ekin maydonlarini qayta tiklash uchun dehqonlarga ularning uyushmalari orqali kreditga berildi.

1924-1925-1939-yillar – Angolada stixiyali g'alayonlar bo'lib o'tdi.

1924-1925-yillar – *Eduard Errio* Fransiya Bosh vaziri lavozimlaridagi faoliyati.

1924-1925-o'quv yili - O'zbekiston byudjetining 24%i xalq maorifi uchun ajratildi.

1924-1925-o'quv yili - Qoraqalpog'istonda 49 ta maktab bor edi.

1924-1925-o'quv yili – Qoraqalpog'istonda 53 tarmoq va maktablar bor edi.

1924-1925-yillar - O'zbekistonda vaqf mablag'lari bilan 150 taga yaqin maktablar, internatlar va boshqa ta'lim tarbiya muassalari ta'minlangan.

1924-1925-yillar – reja bo'yicha Germaniya g'olib davlatlarga oltin bilan 1 milliard marka tovon to'lashi kerak edi. Keyingi yillarda to'lov miqdori yiliga 2,5 milliardgacha ko'payishi ko'zda tutilgandi. Asta-sekin to'lovlar kamaytirilib, Germaniya iqtisodiyotining ahvoliga ko'ra amalga oshirilishi mo'ljallangan edi.

1924-1925-yillar – Xorazmda paxta maydonlari 85 ming tanobga yetdi va shu davrda paxta hosili 100 ming puddan 800 ming pudga ko'tarildi. Umumiy ekin maydonlari urushdan oldingi darajaning 62 % ini, hosildorlik 70-75 % ini tashkil qildi.

1924-1926-yillar – *G.Lyuter* Germaniya reyxskansleri bo'lgan.

1924-1927-yillar – Xitoydagi 1-inqilobiy fuqarolar urushi.

1924-1928-yillar – *Jon Golsuorsining "Bu kunning komediyasi"* nomli trilogiyasi yaraldi.

1924-1929-yillar – Germaniya sanoatining barqarorlik yillari.

1924-1929-yillar – *S. Bolduin*ning Angliyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1924-1931-yillar – *G. Dumerg* hukumati.

1924-1931-yillar – Konservatorlar ikki marta Sovet Ittifoqi bilan diplomatik aloqalarni uzdilar va ikki marta *Ramsey Makdonald* ularni tikladi.



1924-1932-yillar – Fransiya iqtisodiyotini barqarorlashtirish davri bo'ldi. Bu davr aholi turmushiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Narxlar barqarorlashib, pulning qadrsizlanishi barham topdi. Bu esa hukumatga aholining bir qator qatlamlari ijtimoiy ahvotini yaxshilash tadbirlarini amalga oshirish imkonini berdi.

1924-1988-yillar – *Ziyoulhaq* hayot faoliyati.

1924-1992-yillar – Mongoliya Sovet Ittifoqi bilan mustahkam aloqada bo'ldi. Natsionalizatsiyalashtirish, industrilashtirish va kollektivlashtirish MXRning asosiy yo'nalish maqsadi edi.

1924-yil – Angliya va Fransiya Rossiyani tan oldi.

1924-yil – 24 nafar o'zbek san'atkori Rossiyaga o'qishga jo'nab keydi.

1924-yil – 48 ta maktab, 5 ta klub, 10 ta qizil choyxonani byudjet hisobidan ta'minlandi. 20 ta talabaga stipendiya tayinlandi. Qishloq muallimlarining maoshi aniq ko'rsatilib, to'lab turildi. Tijoratchilar ham maktab va maorifga moddiy ko'maklashdilar.

1924-yil – Albaniya diktatorlik huquqlari berilgan *Ahmad Zogu* boshchiligidagi rasman Albaniya respublika deb e'lon qilindi.

1924-yil – Angliya va Fransiya SSSR bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatdi.

1924-yil – AQShning moliya sarmoyasi yordamida Kubada hokimiyatni AQShdagi "*Kloben elektrik kompani*" kompaniyasining sobiq vitse-prezidenti *Xerardo Machado* qo'lga kiritdi. U shafqsiz terroristik tartib o'rnatdi.

1924-yil – bozor munosabatlariga, xo'jalik faoliyatida moddiy manfaatdorlikka imkoniyatlarning tug'ilishi qiyinchiliklarni yenga boshladi. Ocharchilik chekindi. Farg'ona vodiysi halokatli ahvoldan qutuldi.

1924-yil – Buxoro respublikasi O'rta Osiyo hududiy qayta qurulish jarayoniga tortildi.

1924-yil – *Elbek* o'zining yirik tilshunoslik tadqiqoti – "*Lug'at va atamalar*" asarini chiqardi.

1924-yil – Farg'onaga 20 ming bosh qoramol keltirildi.

1924-yil – Fransiyadagi saylovlarda Milliy ittifoqdan chiqqan so'l burjua partiyalari, eng avvalo *Eduard Errio* boshchiligidagi radikal partiyasi Sotsialist partiya bilan saylov bitimi tuzdi va So'l ittifoqi tashkil etildi. So'l ittifoq o'z dasturida ijtimoiy sohada ijobiy o'zgarishlar qilish, Miiliy ittifoqning xalqqa qarshi qaratilgan tadbirlarini bekor qilish, Sovet Ittifoqi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatish, Germaniyadan qo'shinlarni olib chiqish va u bilan yarashish, Angliya va AQSh bilan mustahkam aloqalarni tiklashni va'da qilgan edi. So'l ittifoq saylovlarda g'olib chiqdi.

1924-yil – Hujumkor guruhlar (HG) a'zolari o'zlarining jigarrang askarlik kiyimlarini kiyib oldilar. Ularning vazifasi "national-sotsializm dushmanlarini" jismonan yo'q qilish edi.

1924-yil – istiqlolchilar qarshilikni to'xtatdilar.

1924-yil – Janubiy Afrikada avstralipitekning suyak qoldiqlari topildi.

1924-yil – Janubiy Afrikada qabul qilingan "oq tanli bo'lmagan aholi va sivilizatsiyalashgan mehnat" to'g'risidagi qonun afrikaliklarni malaka yoki qisman malaka talab qilinadigan ishlarga qo'yishni taqiqladi. Afrikaliklar saylov



huquqlaridan mahrum qilingan edi. Irqchilikning kuchayishi, mehnatkashlarning irqiy belgilariga ko'ra ajratilishi, oq va qora tanlilarni bir-biriga gij-gijlash davlat ichki siyosatining asosiy mohiyatini anglatar edi.

1924-yil – *Jeyms Karter* dunyoga keldi.

1924-yil – keyingi bir necha yilni hisobga olmaganda, Britaniya iqtisodiyotni butun yigirmanchi yillar mobaynida chuqur tushkunlik holatida bo'ldi. Angliyani urushdan keyingi tiklash rejasi amalga oshmadi. Ishsizlik 10-11 % darajada bo'ldi.

1924-yil – *Leninning* o'limi hokimiyat uchun kurashning boshlanishiga turtki bo'ldi. Partiya rahbariyatida ikki bosh guruh yuzaga keldi. Birini *Trotskiy*, ikkinchisini esa *Stalin* boshqardi.

1924-yil – milliy-hududiy chegaralanish natijasida Qoraqalpog'iston muxtor (avtanom) viloyati paydo bo'ldi. Uning tarkibiga volostlarga bo'linadigan *To'rtko'*, *Chimboy*, *Xo'jayli*, *Qo'ng'iro't* okruglari kirdi.

1924-yil – Mongoliya Xalq Respublikasi (MXR) tashkil topganligi e'lon qilindi.

1924-yil – *Muhammad Mazati* dunyoga keldi.

1924-yil - O'rta Osiyoni chegaralab bo'lish va milliy respublikalar tuzish g'oyasi amalga oshirila boshlandi. Biroq bu masalaga doir ziddiyatlar ayni davrda ham davom etaverdi. Bu kampaniyada ishtirok etishdan bo'yin tovlashga ochiq-oydin itilish hollari takrorlanaverdi, yangi loyihalar taklif etildi. Lekin Markaz, O'rta Osiyo byurosi qattiq turib oldi.

1924-yil – o'tkazilgan islohotlar Turkiyani zamonaviylashtirdi. Musulmon diniy maktablari yopildi, din va vaqf ishlari vazirligi tugatildi, barcha o'quv yurtlari dunyoviy bo'ldi hamda faqat maorif vazirligiga bo'ysundirildi. Musulmon diniy sudlari ham tugatilib, ularning vazifalari davlat sud muassasalariga berildi. Yangi jinoyat, fuqarolik va boshqa kodekslar nashr qilindi, mamlakat qiyofasini "yevropalashtirgan" qator islohotlar amalga oshirildi. Avvalgi arabcha imlodagi alifbo o'rniga lotincha asosdagi yangi alifbo qabul qilindi. Turkiya uchun zamonaviylashtirish va g'arbiy qadriyatlar mo'ljalga aylandi.

1924-yil – O'zbekiston SSR tashkil etildi.

1924-yil – O'zbekistonda fuqarolar aviatsiyasi rivojlantirish boshlangan.

1924-yil - O'zbekistonda tropik kasalliklar instituti, 5 ta kasalxona, 2 ta ambulatoriya faoliyat ko'rsatgan.

1924-yil – Portugaliya sotsialistik partiya yetakchisi *Mariu Soarish* dunyoga keldi.

1924-yil - Qo'qon bilim yurtini 13 ta yigit-qizlar bitirib chiqdi. Unda keyinchalik O'zbekiston Fanlar akademiyasining 1-prezidenti *T.N.Qori Niyoziy* dars berdi, bitirganlardan akademiklar, yirik fan va madaniyat arboblari yetishib chiqdi.

1924-yil - qoraqalpoq xalqi arab yozuvi asosida ishlab chiqilgan alifboga o'z tarixida birinchi marta ega bo'ldi.

1924-yil – *Ramsey Makdonald* Buyuk Britaniya bosh vaziri bo'lgan.

1924-yil – Rossiya Angliya va Fransiya bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi. Xuddi shu yili Yevropadagi ko'plab davlatlar sovet davlatini diplomatik jihatdan tan olishi va u bilan diplomatik aloqalar o'rnatishini bildirdi.

1924-yil – Rossiyada ishsizlar soni 1240 ming kishiga yetdi.

1924-yil – Rossiyada qurg'oqchilik keldi.



1924-yil - sanoat mahsulotlari miqdori - 7 mln 322ming so'm.

1924-yil – saylovlarda fashistlar katta g'alabaga erishdilar va deputatlar palatasini to'la o'z nazoratlari ostiga oldilar. Bu imkoniyatdan ular mamlakatdagi qonun chiqaruvchi parlament hokimiyatini uzil-kesil bartaraf etish uchun foydalandilar.

1924-yil - SSSR Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1924-yil – *Sulaymon Demirel* dunyoga keldi.

1924-yil – Turkiston ASSRning Amudaryo viloyati va Xiva xonligining Xo'jayli hamda Qo'ng'iro't tumanlari hududida Qozog'iston ASSR tarkibida Qoraqalpog'iston Avtonom viloyati tashkil etildi. Viloyat volostlarga bo'linadigan To'rtko'l, Chimboy, Xo'jayli va Qo'ng'iro't okruglaridan iborat edi.

1924-yil – Turkistonda 29 ta meliorativ kooperativlar mavjud edi.

1924-yil – Turkistonda paxtachilikda kooperativlar 523, ularga a'zolar soni 124 mingtani xo'jalik tashkil qildi.

1924-yil – Turkistonda sanoat mahsulotlarining miqdori 7 mln 322 ming oltin so'mga yetdi.

1924-yil – Turkistondagi ekin maydonlarning I jahon urushidan oldingi hajmning 60 % ini tashkil qildi. Qishloqda chorvachilik va boshqa tarmoqlar ham tiklana bordi.

1924-yil - Turkistonning 3 viloyatidagi paxta hosili 209 ming tonnani tashkil qildi.

1924-yil - Xorazmda 6 ta paxta tozalash, 1 ta yog' zavodi, 4 ta ko'n zavodi, 110 g'isht zavodi, tipografiya, elektrostansiya tiklandi. Qog'oz, shisha zavodi qurildi. Sanoatda davlat sektori ustuvor mavqeini egalladi.

1924-yil yanvar – Xitoyning shimoliy sharqida Gomindan va XKP hamkorligi asosida umummilliy birlashgan inqilobiy front tuzildi.

1924-yil yanvar – Xiva atrofida 15 mingdan ortiq olomon to'plandi. Qo'zg'olonchilar bolsheviklarni, qizil armiyani Xorazmdan haydashni, soliqlar borasida adolat o'rnatilishini, islom dinining tahqirlanishiga barham berilishini, gunohsiz qamalganlarning ozodlikka chiqishlarini talab qildilar. Xivaga yordamga kelgan qizil qo'shinlar tazyiqi bilan qo'zg'olonchilar tarqaldilar. Lekin 214 kishi qamoqdan ozod qilindi, dinni ta'qib qilishga chek qo'yildi, qishloq xo'jaligi solig'i 80 % ga qisqartirildi.

1924-yil yanvar - Xorazm respublikasida sotsialistik tadbirlarning amalga oshirilishi respublika markazida ommaviy noroziliklarni keltirib chiqardi. Xiva atrofida 10-15 ming qo'zg'olonchi to'planib, shaharni qamal qilishi, jiddiy talablarni ilgari surishi. Qo'zg'olonchilarning bir qismi shahar ichiga bostirib kirib, ko'cha janglarini olib bordi.

1924-yil yanvar-noyabr – *R. Makdonald*ning Angliyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1924-yil 2-yanvar 1-fevral – Xitoyda Gomindan partiyasining tashkil topishi.

1924-yil 26-yanvar - kechqurun Xiva ichida muhoraba janglari bo'lib o'tishi.

1924-yil fevral - Buxoro kompartiyasi chegaralanish masalasini ko'rib chiqdi. Unda O'rta Osiyoning ma'muriy tuzilishi yuzasidan taklif etilayotgan, barcha turkiy xalqlarning ildizi birligini hisobga olmaydigan siyosat o'tmish istilochilari siyosati bilan aslida bir deb aytiladi. O'rta Osiyo byurosi tezislardagi bu fikrlarni xato deb e'lon qilib, qattiq tanqid ostiga oldi.



1924-yil mart – Gretsiyadagi saylovlarda respublika boshqaruvi tarafdorlari ko'pchilik ovoz olishdi.

1924-yil 3-mart – Turkiyada xalifalikni bekor qilish to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi.

1924-yil 10-mart - Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti va Turkiston kompartiyasining birlashgan kengashida atoqli partiya xodimlari *S.Xo'janov*, *S.Asfandiyorov*, *N.Paskutskiy* O'rta Osiyodagi mavjud sovet respublikalari o'rnida O'rta Osiyo federatsiyasini tuzish to'g'risida taklif kiritdilar. Shu bilan birga *S.Xo'janov Turkiston yagona, bir butun va uning yaxlitligini buzish maqsadga muvofiq emas*, deb qo'shimcha qildi.

1924-yil 10-mart - Xorazm rahbarlari respublikada turkmanlar, o'zbeklar, qirg'izlarning "*sud ishlari... shariat bo'yicha olib boriladigan, milliy tillardagi... maktablari bo'lgan*" muxtor viloyatlarini tuzishni taklif etdilar.

1924-yil 18-mart – SSSR va Angliya, Italiya, Norvegiya, Avstriya o'rtasida diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi.

1924-yil 25-mart – Gretsiya respublika deb e'lon qilindi. Qirol mamlakatni tark etdi.

1924-yil 20-aprel – *Ahmad Zogu* hukumati josuslari tomonidan "*Bashkimi*" rahbarlaridan biri – *Avni Rustamiy* o'ta og'ir yarador qilindi. Qotillarni sud qilish talabi hukumat tomonidan rad etildi. Mamlakatda qo'zg'olon boshlanib, poytaxtni ishg'ol qilishlari bilan tugallandi.

1924-yil 20-aprel – Turkiya respublikasi konstitutsiyasining qabul qilinishi.

1924-yil 20-aprel – Turkiya respublikasining 1- konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu konstitutsiya mehnatkashlarga real huquqlar berdi. Konstitutsiyada ko'pgina kamchiliklar bor edi, demokratik erkinliklarga kafolatlar ta'minlanmagandi. Baribir, bu konstitutsiya sultonlik davridagi davlat tuzumiga nisbatan olg'a tashlangan ulkan qadam edi.

1924-yil may - *F.Xo'jayev* aholining turmush darajasi pasayganini e'tirof etdi. Hukumat raisining muovini *Q.Otaboyev* respublika xalq xo'jaligining o'ziga xos tomonlarini qayd etdi, ular byudjet-pul muomalasini yo'lga qo'yishda inobatga olinishi lozim, deb ko'rsatdi.

1924-yil may – reyxstagga bo'lib o'tgan saylovlarda Veymar koalitsiyasiga kirgan partiyalarning vakillari 11 mln ovoz oldi.

1924-yil 8-may - bir guruh Xorazm rahbarlari RKP (b) Markaziy Komitetiga "*Xorazmda milliy masalani hal qilish to'g'risida maktub*" yuborib, unda Xorazmni chegaralanishga qo'shmaslikni iltimos qildilar. Ular o'zlarining shu nuqtai nazaralarini respublikaning olisda joylashganligi, iqtisodiy jihatdan ajralib turganligi bilan asoslادilar. Bu nuqtai nazarni Xorazm Kompartiyasi Markaziy Komiteti, jumladan, *Qalandar Odinayev* ham qo'llab-quvvatladi.

1924-yil may oxiri – Albaniya qo'zg'olonchilarning poytaxtni ishg'ol qilishlari bilan qo'g'olon tugallandi.

1924-yil 12-iyun - Stalin "*Millatlar o'rtasidagi nizolarga xotima berish*" uchun chegaralanishini amalga oshirishga kirishishni taklif etdi. RKP(b) Markaziy Lomiteti Siyosiy byurosi O'rta Osiyoda chegaralanish to'g'risidagi masalani yana



bir ko'rib chiqdi va uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Xorazm respublikasi chegaralanishiga kiritilmadi.

1924-yil 26-iyun - Xorazm kompartiyasi respublikaning kiritilishiga o'zining roziligini bildirdi.

1924-yil iyul - *Qalandar Odinayev* Xorazm Kompartiyasi mas'ul kotib vazifasidan olib tashlandi.

1924-yil 16-iyul – Londonda bo'lib o'tgan mamlakatlar konferensiyasida “*Daues*” rejasi qabul qilindi.

1924-yil sentabr - Buxoro respublika aholisining soni, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra 2 mln 600 mingga tushib qoldi.

1924-yil oktabr – o'ng partiyalarning ashaddiy hamlalariga qaramay Fransiya bilan Rossiya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

1924-yil 8-oktabr – parlamentda *Makdonald* hukumatiga ishonchsizlik bildirdi.

1924-yil 29-oktabr – Angliyada yangi parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi. Unda konservatorlar g'alaba qozonib, parlamentda 413 o'rin oldilar (leyboristlar 151 o'rin, liberallar 40 o'rin oldi).

1924-yil 31-oktabr - O'zbekiston SSR Inqilobiy Komiteti (revkom) tuzildi, u O'zbekiston respublikasini tuzishni boshqarib bordi.

1924-yil 26-noyabr – Mongoliya xalq respublikasining e'lon qilinishi.

1924-yil dekabr – Veymar koalitsiyasiga kirgan partiyalarning vakillari 18 mln ovoz oldilar.

1924-yil bahor – Xorazm respublikasida davlat plan komissiyasini tuzishga kirishildi. Bu organlar O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashiga bo'ysunar edi. Xorazm Iqtisodiy Kengashining tuzilishi va faoliyat ko'rsatishi Xorazm respublikasining Rossiyaga iqtisodiy qaramligini kuchaytirdi.

1924-yil yoz – Buxoroda aholining, respublika rahbarlarining sa'y-harakatlari fuqarolar totuvligi, ijtimoiy munosabatlarning barqaror kechishiga qaratildi. *F.Xo'jayev* aholining qashshoqlashganini e'tirof etib, bundan qutulish tadbirlarini izchil amalga oshirish zarurligini uqtirdi. Turkistondan *Q.Otaboyev* va boshqalar Buxoroga yuborilib, rahbar lavozimlarga tayinlangan edilar. Hukumat raisi muovini *Q.Otaboyev* respublika iqtisodiyotini ko'tarish, pul muomalasini sog'lomlashtirish, byudjet masalalari bilan jiddiy shug'ullandi. BXSРning qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro foydali aloqalarini davom ettirishga e'tiborni qaratdi.

1924-yil yoz – *F.Xo'jayev* aholining qashshoqlashganini e'tirof etib, bundan qutulish tadbirlarini izchil amalga oshirish zarurligini uqtirdi. Turkistondan *Q.Otaboyev* va boshqalar Buxoroga yuborilib, rahbar lavozimlarga tayinlangan edilar. Hukumat raisi muovini *Q.Otaboyev* respublika iqtisodiyotini ko'tarish, jumladan, pul muomalasini sog'lomlashtirish, byudjet masalalari bilan jiddiy shug'ullandi. BXSРning qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro foydali aloqalarini davom ettirishga e'tiborni qaratdi.

1924-yil yoz-kuz - *Mulla Abdulqahhor* yigittlari va qizil askarlar o'rtasida G'ijduvon tumanining G'ishti va Kattag'amxo'r qishloqlarida, Nurota tog'larida, Shofurkon tumaniga tutash Qizilqumning Jilvon qumliklarida, Bog'javzal va Vardonze qishloqlarida qattiq to'qnashuvlar bo'ldi. Kuchlar teng bo'lmagan ushbu janglarda



- u mag'lubiyatga uchradi. G'arbiy Buxorodagi guruhlarga sezilarli zarba berildi.
- 1924-yil boshi** - Buxoro respublikasida vaqf boshqarmasiga 248 ming tanob yer, 1500 ga yaqin do'konlar va saroylar, 200 ga yaqin uylar, bozorlar, hammomlar, tegirmonlar qaragan.
- 1924-yil boshi** - Xiva atrofidagi bo'lgan qo'zg'olonni bostirish uchun 4-Aktyubinsk, 82-Turkiston otlig polki va aviaeskadrilya, To'rtko'ldan qo'shimcha qizil askar qismlari tashlandi. Bu kuchlar tazyiqi ostida qo'zg'olonchilar Xiva qamalini to'xtatib, chekinishga majbur bo'ldilar. Aeroplanlardan qumlarga chekinganlarni shafqatsizlarcha o'qqa tutdilar. Qo'zg'olonchilar ashaddiy qirg'in qilindi.
- 1924-yil o'rtasi** - Buxoroda maktablar soni 69, o'quvchilar 3563 tani tashkil qildi. Xorazmda 40 ta umumta'lim va internatlarda 2600 bola ta'lim-tarbiya oldi.
- 1924-yil o'rtasi** - Turkiston Kompartiyasi a'zolari soni 6 ming kishini tashkil etardi. Kommunistlar xalq o'rtasida obro'-e'tiborga ega emasdilar.
- 1924-yil oxiri** - "Milliy Ittixod"ning markazi yana Toshkentga ko'chadi.
- 1924-yil oxiri** - Farg'ona vodiysida istiqlochlilik harakatining 1-davri yakunlandi.
- 1924-yil oxiri** - hozirgi Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlarida qizil armiyaga qarshi harakatlar olib borildi (qariyb 5 yil).
- 1924-yil oxiri** - *Mussolini* Liberal partiya bilan hamkorlik qildi.
- 1924-yil oxiri** - *Mussolinining* tazyiqi ostida parlament saylov qonunini o'zgartirdi. Yangi qonunga ko'ra, saylovlarda eng ko'p ovoz olgan partiya (kamida 23 foiz ovoz) deputatlar palatasida o'rinlarning uchdan ikki qismini olar edi.
- 1924-yil oxiri** - Qizilqum cho'llaridagi janglarda *Mulla Abdulqahhor* halok bo'ldi.
- 1924-yilgacha** - Rossiyaning savdo-sotig'i faqat Germaniya va qator Skandinaviya davlatlari bilan olib borildi.
- 1925-1926-yillar** - qabul qilingan bir qator qarorlar *Mussoliniga* amalda yakka hukmronlik o'rnatish imkonini berdi.
- 1925-1926-yillar** - *R.O.Inog'omov* O'zbekiston maorif xalq komissari bo'lib ishlagan.
- 1925-1926-yillar** - Rossiyada xususiy, shu jumladan, mayda va hunarmandchilik ishlab chiqarishi jami ishlab chiqarishning bor-yo'g'i 23 % ini, xususiy sektorning umumiy ishlab chiqarishdagi hissasi esa atigi 15 % ni tashkil qildi.
- 1925-1926-yillar** - yer-suv islohotining 1-bosqichi Farg'ona, Toshkent, Samarqand viloyatlarida bo'ldi. Yer-suv islohotini o'tkazish to'g'risidagi dekretga asosan Farg'ona viloyatida 40 desyatina, Toshkent va Samarqand viloyatlarida 50 desyatina va undan ortiq sug'oriladigan yerlari bor katta yer egalari xo'jaliklarining butunlay tugatilishi, ularning yerlari davlat yer fondiga o'tkazilishi, dehqonlarga bo'lib berilishi nazarda tutildi. Yer bilan barcha ishchi ot-ulovlari, dehqonchilik asbob-uskunalari ham musodara qilindi. O'ziga to'q xo'jaliklar, yer egasining to'la yoki qisman kuchi yoki oila a'zolari kuchi bilan ishlanadigan xo'jaliklar uchun Farg'ona viloyatida 7 desyatina, Toshkent, Samarqand viloyatlarida 10 desyatina norma belgilandi. Bu xo'jaliklarning belgilangan normadan ortiqcha yerlari musodara qilindi. Ortiqcha dehqonchilik asbob-uskunalari, ot-ho'kizlari majburan olinib, davlat fondiga o'tkazildi.
- 1925-1927-yillar** - Guandun provinsiyasi 1-inqilobiy fuqarolar urushining tayanch



bazasiga aylandi. Xorijiy politsiya tomonidan Shanxaydagi namoyishning o'qqa tutilishi inqilobga turki vazifasini o'tadi.

1925-1928-yillar – O'zbekistonda ayollar kolxozi tashkil etildi. Ularda 5,5 mingdan ko'proq xotin-qizlar mehnat qildi. Lekin bu artellar amalda o'zini oqlamadi. Xo'jalikdagi og'ir ishlarni bajarish uchun erkaklar yordami kerak bo'ldi. Shundan so'ng ayollar kolxozlarda erkaklar bilan birga ishlay boshladilar.

1925-1928-yillar - O'zbekistonda yirik sanoat korxonalarining soni 48 taga ko'paydi. Sanoatlashtirish davomida respublikaning energetika bazasi kengaytirildi va mustahkamlandi. Umum foydalanadigan va sanoatni ta'minlaydigan elektr stansiyalari soni uch yil mobaynida 17 taga ortdi, elektr energiyasi ishlab chiqarish 3 baravar ko'paydi.

1925-1929-yillar - o'tkazilgan islohotlar natijasida O'zbekistonning barcha viloyatlarda 5 mingga yaqin xo'jaliklar tugatildi. Ular yerga ishlov berishda qatnashmagan, chorikorlarning o'ziga tashlab qo'yilgan, ular esa nochor xo'jaliklar bo'lganligi uchun dehqonchilikka yangi texnika, agrotexnika yutuqlarini qo'llamas edi.

1925-1929-yillar – O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohotlari sovet hukumatining mulkdor sinflarni cheklash va tugatishga, sinfsiz jamiyat qurishga qaratilgan navbatdagi tadbirlaridan biri bo'ldi. Bu holat keyinchalik qishloq xo'jaligini zo'raonlik yo'li bilan yalpi jamoalashtirish jarayonini tezlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar hozirlandi.

1925-1929-yillar - O'zbekistonda mulk egalarini sekin-sata cheklash va tugatishga qaratilgan chora-tadbirlardan biri - yer-suv islohoti o'tkazildi. Bu islohot joylarda shart-sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga qarab uch bosqichda o'tkazildi.

1925-1929-yillar - Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida tortib olingan yerlar asosida 120 kolxoz tashkil etildi. Samarqand, Toshkent, Farg'ona viloyatlarida 354 ta yangi kolxoz tuzildi. Respublika bo'yicha ularning soni 522 tani tashkil etdi. Islohot davomida tortib olingan yer fondi 475 ming desyatini tashkil etdi. Tortib olingan yerlarning bir qismi, ya'ni faqatgina 10 %i kambag'al va kam yerli xo'jaliklarga taqsimlab berildi.

1925-1929-yillar – sanoat ishlab chiqarishning yuksalishi bilan chex burjuaziyasi mamlakatdagi o'z hukmron holatini mustahkamladi.

1925-1929-yillar - Tojikiston ASSR O'zbekiston SSR tarkibida bo'lgan.

1925-1929-yillar – Vengriya iqtisodiyotida birmuncha jonlanish yuzaga keldi. 70 ta yangi metallurgiya korxonalari, 55 ta mashinasozlik, 40 ta tog'-kon korxonalari va boshqalar barpo etildi. Vengriyada to'qimachilik va kimyo sanoati rivojlandi.

1925-1930-yillar – AQSh Germaniya iqtisodiyotiga 10 milliard dollar sarmoya kiritdi.

1925-1931-yillar – Uxon provinsiyasi markazida XKP boshchilik qilgan 1-inqilobiy Xitoy hukumati joylashgan edi. Mamlakatda uchhokimiyatchilik yuzaga keldi: XKP - Uxonda, Gomindan - Guandunda va o'zlarini ayrim provinsiyalarning hukmdori deb e'lon qilgan ko'p sonli militaristlar (*Chjan Szolin, U. Peyfu* va boshqalar). XKP ning Xitoy milliy-ozodlik uchun kurash yagona frontini qaror toptirish yo'lidagi barcha intilishlari natija bermadi.



1925-1934-yillar – *P.Gindenburg* Germaniya prezidenti bo'lgan.

1925-1935-yillar - istiqlolchilik harakatining 2-davri.

1925-1960-yillar – *Lumumba Patris* hayot faoliyati.

1925-1978-yillar – *Xuari Bumedan* hayot faoliyati.

1925-1979-yillar – Eronda *Pahlaviy* sulolasi hukmronlik qilgan.

1925-yil – “*IG Farbenindustri*” tashkil etildi. Bu konsern kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha Yevropadagi eng yirik trestga aylandi. Germaniyaning butun kimyo sanoati uning tasarrufida edi.

1925-yil – 1-qoraqalpoq alifbe kitobi bosib chiqarildi.

1925-yil – *Bernard Shou* adabiyot sohasidagi Nobel mukofoti bilan taqdirlandi.

1925-yil – Farg'ona, Samarqand, Toshkent viloyatlarining barcha rayonlarida yer-suv islohoti boshlandi. Andijon uyezdining Norin tumanida katta yer egasi *Sotvoldiqozi Abdurahmonxo'jayev* xo'jaligi rayon komissiyasi qaroriga asosan tugatildi. Bu xo'jalikning 13 ta qishloqda 1726 tanob yer, 83 bosh buqasi, 14 bosh oti va ko'p miqdordagi asbob-uskunalari musodara qilindi. Uning yerlarida 120 ga yaqin chorikor mehnat qilardi. Boy mulki chorikorlarga bo'linib berildi. Ulardan olingan yerlar davlat fondiga o'tkazildi. Toshkent viloyatining Obliq volostida *R.Ismatovning* 57 desyatina yeri, Dalvarzin volostida bir boyning 90 desyatina yeri, Pskent volostida *T.Durmatovning* 79 desyatina yer musodara qilindi.

1925-yil – Fransiya sanoati mahsuloti hajmi birinchi marta urushdan oldingi darajadan ortiq bo'ldi.

1925-yil - Fransiyada xalqaro sanoat va san'at ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. SSSR pavilonida uyushtirilgan milliy burchaklarga o'zbeklarning turmushi va madaniyatini badiiy obrazlarda ta'riflab beruvchi eksponatlar qo'yildi. Bunda badiiy grafika, sholi ro'mollar, ko'rpalar, choponlar, kashtalar, gilamlar, qorako'l teri, naqsh solingan teri, yog'och va metallardan yasalgan buyumlar namoyish etildi. O'zbek eksponatlarining ba'zilari uchun mukofotlar berildi. Ko'rgazma kunlari sovet artistlari 11 marta konsert berdilar, ular orasida yosh *Tamaraxonim* ham bor edi.

1925-yil - fransuz yozuvchisi *Jan-Pyer Shabrol* dunyoga keldi.

1925-yil – fransuzlar “*Daves*” rejasini qabul qilib, Rurdan chiqib ketdilar.

1925-yil – Germaniya Kompartiya raisligiga ishchilar harakatining mashhur rahbari, I jahon urushi askari *Ernst Telman* saylandi.

1925-yil – Germaniya monopolistlari va yirik sarmoyadorlari *Gitler* va uning partiyasiga e'tibor berdilar. Uning Buyuk Germaniyani yaratish rejasi va Germaniyaga mustamlakalarini qaytarish to'g'risidagi doimiy chaqiriqlari ularning manfaatlariga to'la javob berardi. Ular siyosiy kurashlarida qurol sifatida *Gitler* va uning partiyasidan foydalanadilar.

1925-yil – Germaniya monopolialari fashistlarga juda katta miqdorda moddiy yordam ko'rsata boshladilar. Krupp, Tissen, Stinnes, Mannesman, Flik fashistlar partiyasi ehtiyojlari uchun muntazam ravishda pul berib turdilar. Fashistlarning barcha targ'ibot tadbirlari, saylov kampaniyalari, SS (xavfsizlik otryadlari) va SA otryadlari, fyurer shtabi, uning eskorti Germaniya yirik sarmoyasi tomonidan mablag' bilan ta'minlandi.



1925-yil – *Ibn Saud* nomi bilan mashhur bo'lgan, beduinlarning aslzoda saudiyalar qabilasidan kelib chiqqan, vahhobiylik g'oyalari tarafdori amir *Abdul Aziz ibn Abdul Rahmon* musulmonlarning muqaddas shaharlari – Makka va Madinani o'z ichiga olgan Hijoz davlatini egalladi va arab xalqlarining ruhoniy yo'l boshchisiga aylandi.

1925-yil – Italiyadan boshqariladigan Albaniya Milliy banki tuzildi. Italiya kapitalistlari mamlakatning butun xalq xo'jaligini egallab olgan turli aksiyadorlik korxonalari tuzishdi.

1925-yil – *Margaret Tetcher* dunyoga keldi.

1925-yil – *Matyash Rakoshi* umrbod qamoq jazosi oldi.

1925-yil - O'rta Osiyo universiteti - mintaqadagi eng yirik ilmiy-pedagogik muassasa - talaygina xorijiy ilmiy muassalar va tashkilotlar bilan kitoblar almashib turdi.

1925-yil - O'zbek qishloqlarida to'ntarishidan oldingi rivojlanish tamoyillari saqlanib qolgan edi. Qishloqda ijtimoiy tabaqalanish mavjud bo'ldi, yersiz dehqonlar barcha xo'jaliklarning taxminan 10%ini, 1-3 desyatinagacha yeri bor kam yerli dehqonlar 64 %ini, 3-10 desyatinagacha yeri bor o'rta dehqonlar 20 %ini, 10 desyatinadan ortiq yerli boy dehqonlar 6 %ini tashkil qilgan. Bu boy xo'jaliklar barcha xo'jaliklar yerlarining 36 %iga egalik qilganlar va ikki toifaga bo'lingan. Bular - 40-50 desyatinadan ortiq sug'oriladigan yerli boy xo'jaliklar va 10-40 desyatinagacha yerli o'ziga to'q xo'jaliklar.

1925-yil - O'zbekiston respublikasi tashkil bo'lganida turli bosqichdagi 1500 ta maktab bo'lib, ularda 116 ming o'quvchi o'qir edi.

1925-yil - O'zbekiston qishloqlarida 2748 muallimlar ishlab turgan yoki 3-4 marta o'sgan.

1925-yil - O'zbekiston xalq xo'jaligini tiklash jarayoni davom etayotgan davrda mamlakat markaziy organlari sanoatlashtirish masalasini kun tartibiga qo'ydi.

1925-yil - O'zbekistonda 97 ta vaqf maktablari va 1,5 mingdan ortiq eski maktablar bo'lib, ulardan 250 tasi yashirin holda ish olib borgan.

1925-yil - O'zSSR tuzilgach "Milliy Ittihod" tashkiloti asosida "Milliy Istiqol" tashkiloti tashkil topadi. Sovet tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab mahalliy kommunistlar tashkilotning mahfiy a'zolari edi. *Munavvar Qori* bilan birga *Fayzulla Xo'jaev* va *Fitrat* tashkilot faoliyatida muhim rol o'ynashgan.

1925-yil - Qoraqalpog'istonda chorva soni 500 mingdan oshib ketdi.

1925-yil – Qoraqalpog'istonning muxtor viloyatda 24 ming dehqon xo'jaligini birlashtirgan 19 ta kredit shirkati ishlar edi. Sanoat korxonalari nihoyatda kam bo'lgan holda (ular atigi 16 ta edi), hunarmandchilik rivojlanib bordi, Orol dengizidan baliq ovlash keskin ko'paydi.

1925-yil – *Ramiz Aliya* dunyoga keldi.

1925-yil - Respublikada barcha dehqon xo'jaliklarining 36%dan ko'prog'ini birlashtirgan 595 shirkat ishlab turdi.

1925-yil – sotsial-demokratlardan saylangan prezident *Ebert* vafot etdi. Yangi prezident saylovlarida I jahon urushida Germaniya armiyasi bosh qo'mondoni bo'lgan, ashaddiy konservativ monarxiyachi, Kayzer monarxiyasining sodiq



tarafdori feldmarshal *Paul Gindenburg* katta farq bilan g'alaba qozondi. *Gindenburg*ning prezident qilib saylanishi mamlakatda reaksiyon va konservativ kuchlarning ta'siri kuchayib borayotganidan dalolat berar edi.

1925-yil – *Teodor Drayzer* “*Amerika fojias*” romanini yozdi.

1925-yil – Turkistonda paxtachilik kooperativlar soni 723, ularga a'zolar 270 ming xo'jalikni tashkil qildi.

1925-yil – *U.Garding* ishini davom ettirgan *K.Kulij* “*Amerikaning ishi – tijorat*”, deb e'lon qildi.

1925-yil – *V.E.Orlanda* fashist tuzumi muxolifatiga qasamyod qilishdan bosh tortgan.

1925-yil – xorijiy banklar Vengriyaga “sog'lomlashtirish qarzi”ni taqdim etishgach, bu valyutani barqarorlashtirish va industrial rivojlanish uchun asos yaratdi.

1925 yil yanvar – sovet-yapon bitimi imzolandi.

1925-yil 21-yanvar – so'nggi yapon qo'shinlari Uzoq sharqdan chiqib ketdi.

1925-yil fevral - Milliy hududiy chegaralanish o'tkazilganidan keyin O'zbekiston sovetlarining I qurultoyi “O'zbekiston SSR tuzilganligi to'g'risidagi deklaratsiya”ni tasdiqladi.

1925-yil fevral - Qoraqalpog'iston muxtor viloyati (Qozog'iston ASSR tarkibida) tuzildi.

1925-yil 6-12-fevral - O'zbekiston Kompartiyasining 1-Ta'sis qurultoyi Buxoroda bo'lib o'tdi. Qurultoyda partiyani yot unsurlardan tozalash, guruhbozlikni tugatish borasida tortishuvlar bo'ldi. Unda *Vladimir Ivanov* va *Akmal Ikromov* O'zbekiston Kompartiyasining kotiblari qilib saylandi.

1925-yil 12-19-fevral - To'rtko'l shahrida Muxtor viloyat Sho'rolarning 1-Ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda Qoraqalpog'iston Muxtor viloyatining Qozog'iston ASSR tarkibiga “o'z ixtiyori bilan kirganligi” qonunlashtirildi.

1925-yil 12-19-fevral - To'rtko'l'da bo'lib o'tgan Sovetlarning I Ta'sis qurultoyi Qoraqalpog'iston muxtor viloyatining Qozog'iston ASSR tarkibida tuzilganini qonun yo'li bilan rasmiylashtirdi va davlat hokimiyatining rahbar organini - Qoraqalpog'iston muxtor viloyati Ijroiya Komiteti (raisi *A.Qudaboev*) sayladi. Qoraqalpog'istonda yashaydigan asosiy elatlar qoraqalpoqlar (38,1%), o'zbeklar (28,7%), qozoqlar (28,6%) bo'lib, ruslar 1%dan ham kamroqni tashkil etardi (shahar aholisini hisobga olmaganda).

1925-yil 13-fevral – Buxoroda maxsus qurilgan Xalq uyida Sovetlarning I umumo'zbek qurultoyi ochildi. Unda “*O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilgani to'g'risidagi deklaratsiya*” qabul qilindi. O'zbekiston hukumatining boshlig'i qilib *Fayzulla Xo'jayev* saylandi. S'yezd respublika hokimiyatining oliy organlarini rasmiylashtirdi. Respublika sovetlari Markaziy ijroiya Komiteti raisi etib Farg'ona vodiysidan chiqqan dehqon, “*Qo'shchi*” ittifoqining raisi *Yo'ldosh Oxunboboyev* saylandi. Jamoat tashkilotlari ham tuzildi. O'zbekiston SSRning dastlabki poxtaxti Buxoro bo'lgan. Tuzilgan O'zbekiston SSRga TSSRdan Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarining katta qismi, sobiq Buxoro Xalq Sovet Respublikasidan uning markaziy va g'arbiy qismlari, ya'ni Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo vodiylari, shuningdek, Xorazm vohasi kirdi.



O'zbekiston SSR hududi 312394 kv.km ni ishg'ol qildi. O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR tuzildi, bu muxtor respublika keyinchalik Tojikiston SSRga aylantirildi.

1925-yil 5-mart – Yaponiyada ishchil dehqonlar partiyasining tashkil topishi.

1925-yil 12-mart – Sun-Yatsenning vafot etishi.

1925-yil aprel - O'zbekiston SSR poytaxti Buxorodan Samarqandga ko'chirildi.

1925-yil aprel – sotsialistlarning qo'llab-quvvatlanishidan mahrum bo'lgan *Eduard Errio* hukumati iste'foga chiqdi. So'l ittifoq tarqalib ketdi, o'ng partiyalar esa Milliy majlisda o'zlaricha ko'pchilik ovozga ega emas edilar. Muzokaralar natijasida "Miiliy birlik" koalitsion hukumati tuzildi. Unga o'ng partiyalar qatori radikallarning ham bir qancha vakillari kirdi. Hukumatni *Raymon Puankare* boshqardi.

1925-yil 26-aprel – feldmarshal Gindenburgning Germaniya respublikasi prezidentligiga saylanishi.

1925-yil 13-may – O'zbekiston SSR SSSR tarkibiga kirdi.

1925-yil 13-may - SSSR sovetlarining III qurultoyida O'zbekiston SSR Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi tarkibiga qabul qilindi. Xalq komissarliklari va idoralari tuzildi.

1925-yil 18-iyun - RKP(b) MKning "*Partiyaning badiiy adabiyot sohasidagi siyosati haqida*" mahsul rezolutsiyasi chiqdi.

1925-yil 1-iyul – Guanchjou hukumatining Xitoy respublikasi milliy hukumatiga aylantirilishi.

1925-yil oktabr – oyida *G.Shtrezmanning* taklifiga binoan Angliya (*Ostin Chamberlen*), Fransiya (*Aristid Brian*), Germaniya (*G.Shtrezman*) va Italiya tashqi ishlar vazirlari Lokarno (Shveysariya) shahrida uchrashdilar. Sobiq dushmanlar muzokaralar stoli atrofida Yevropada yangi tartiblar o'rnatish haqida kelishib oldilar. Fransiya va Germaniya Versalda belgilangan o'zaro chegaralarning qonuniyligi va buzilmasligini tasdiqladilar. Angliya va Italiya bu bitimning kafolatchisi bo'ldi. Tomonlardan biri shartlarni buzgan taqdirda yoki Germaniya harbiylardan xoli Reyn viloyatiga qo'shin kiritgudek bo'lsa, ular harbiy yo'l bilan tartib o'rnatish majburiyatini oldilar. Bundan tashqari, Fransiya Belgiya va Germaniya chegarasida Angliya bitimning kafolatchisi sifatida ekspeditsiya korpusini saqlab turishga rozi bo'ldi. Germaniyaning sharqiy chegaralari bo'yicha bunday bitim ishlab chiqilmaganligi sababli bu yo'nalishda u istagan ishini qilishi mumkin edi. Germaniya Millatlar Ligasiga kirishga, Fransiya esa Versal shartnomasida belgilangan muddatdan besh yil oldin, 1930-yilda Reyn viloyatidan o'z qo'shinlarini olib chiqishga rozilik bildirdi.

1925-yil 22-30-noyabr - O'zbekiston Kompartiyasi II s'yezdi majlisida "*o'n sakkizlar guruhi*" masalasi ko'rildi.

1925-yil 22-30-noyabr - O'zbekiston Kompartiyasining II qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda yer islohoti, kooperativ harakat, sovet qurilishi to'g'risidagi ma'ruzalar tinglandi. Shu bilan birga, "yot unsurlar" (kommunistlarning muxoliflari, mulkdorlar va ularning tarafdorlari) yana bir karra qoralandi, saflarni yangidan tozalashga, guruhbozlar kurashini tugatishga da'vat etuvchi chaqiriqlar yangradi va hokazo.



Biroq, ayniqsa, milliy masala yuzasidan keskin muxoliflik kurashi davom etdi.

1925-yil 19-22-noyabr - O'zbekiston Kompartiyasi MK IV pleniumida "o'n sakkizlar guruhi" masalasi ko'rildi.

1925-yil 21-22-noyabr - RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi mahsus komissiyasi majlisida "o'n sakkizlar guruhi" masalasi ko'rildi.

1925-yil 30-noyabr – turkiyada darvishlar ordenini tugatish va darvishlar monastirlarini yopish to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi.

1925-yil dekabr – Rossiyada yalpi iqtisodiyotni rivojlantirishning hal qiluvchi vositasi sifatida sanoatlashtirishga o'tish to'g'risida e'lon qilindi. Mamlakatda yangi zamonaviy sanoatni barpo etish bo'yicha ulkan ishlar boshlandi. Qisqa vaqt ichida o'nlab yangi elektr stansiyalari barpo etildi, Kerch, Krivoy Rog, Magnitogorsk, Kuznetsk va Sibirda dunyoda eng yirik metallurgiya korxonalari qurilishi boshlandi. Kimyo sanoati, mashinasozlik, traktor va avtomobilsozlik sanoatlarini rivojlantirishga katta e'tibor berildi.

1925-yil 1-2-dekabr - O'zbekiston Markaziy Ijroiya Komiteti o'zining favqulodda sessiyasiga to'planib, yer-suv islohoti o'tkazish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqdi.

1925-yil 2-dekabr - O'zbekistondagi Markaziy Ijroiya Komiteti sessiyada "Yer va suvni musodara etish to'g'risida", "Yer-suv islohoti o'tkazish to'g'risida"gi dekretlarni qabul qildi.

1925-yil – 3-dekabr – Eron Ta'sis majlisi tomonidan Kajarlar sulolasining ag'darilishi va Rizoshoh Pahlaviyning shoh deb e'lon qilinishi.

1925-yil boshi - O'zbekistonda o'zbek tilida 17 nomda gazeta va jurnallar chiqqan, Toshkentda 7 ta bosmaxona ishlab turgan. Kutubxonalar, muzeylar soni ko'payib bordi.

1925-yil oxiri - aslida o'zbek xalqi manfaatlarini himoya qilgan "o'n sakkizlar guruhi" rahbar xodimlar O'rta Osiyo byurosining talabi bilan o'z mas'ul lavozimlaridan olib tashlandi.

1926 yil – davlat daromadlari urushdan keyin birinchi marta xarajatlardan ortiq bo'ldi. Frank barqaror valyutaga aylandi. Valyuta-moliya munosabatlarining barqarorlashuvi fransuz iqtisodiyotining umumiy yuksalishi boshlanganidan dalolat edi. Tabiiyki, bu urushdan keyingi inqirozni bartaraf etgan jahon iqtisodiyoti ravnaqining umumiy jarayonlari bilan ham uzviy bog'liq edi.

1926-1927-yillar – butun Indoneziyani qo'zg'olon qamrab oldi. Yava hamda Sumatra orollarida qo'zg'olon kuchli o'tdi. Mustamlakachilikka qarshi mazmundagi qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirildi. 200 nafar qo'zg'olonchi qatl etildi.

1926-1927-yillar – O'zbek eksportining asosiy qismi paxta edi. Xo'jalik yilida paxtachilik mahsuloti respublikadan olib chiqib ketiladigan tovarlar umumiy qiymatining 77,8%ini tashkil qildi.

1926-1927-yillar – Rossiyada jami 582 ta yangi korxonalar barpo etildi.

1926-1927-yillar - savdodagi kapital O'zbekistonda Rossiyadagidan ko'ra uzoqroq saqlanib qoldi. Uning chakana tovar ayirboshlashdagi salmog'i respublikaga kiritilgan tovarlarni sotish bo'yicha 48,5 % ga mahalliy ishlab chiqarish mahsuloti bo'yicha esa 95 % ga yetdi.



1926-1927-xo'jalik yili - fabrika-zavod sanoatining salmog'i RSFSRda 68%, Ukraina SSRda 22%, O'zbekiston SSRda 0,6% tashkil etdi.

1926-1928-yillar - O'zbekistonda kasb-hunar o'qib-o'rgatilishi natijasida sanoatda malakali ayol kadrlar ham paydo bo'ldi. Bu davrda ishchilar soni 2 baravardan ziyod ko'paydi, mahalliy millat vakillari ularning yarmidan ortig'ini tashkil etdi.

1926-1928-yillar – *Yuzef Pilsudskiy* Polsha Bosh vaziri bo'ladi.

1926-1929-yillar - ichki davlat zayomlarini tarqatishdan Ozbekiston 23 mln so'm, davlat apparatini qisqartirish va arzonlashtirishdan 7 mln so'm daromad oldi.

1926-1932-yillar – *Eduard Errio* Fransiya Bosh vaziri lavozimlaridagi faoliyati.

1926-1934-yillar – Italiyada iqtisodiy inqiroz va u mamlakat iqtisodiyotini chuqur depressiyaga duchor qildi. Inqiroz davomida Italiyada 12 mingta korxonada kasodga uchradi va bankrot deb e'lon qilindi. Boshqa davlatlardan farqli o'laroq, Italiyada xo'jalik ishlariga aralashish tashabbusi iqtisodiyotni rivojlantirish borasida o'z konsepsiyasi bo'lgan totalitar fashist davlatidan chiqardi. Bu konsepsiya eng avvalo *avtarkik xo'jalik*, ya'ni mamlakatning barcha zarur mahsulot turlari bilan o'z-o'zini ta'minlashiga asoslangan xo'jalikni ko'zda tutardi.

1926-1935-yillar – Amerika qo'shinlari Nikaragua va Kubada saqlab turildi.

1926-1939-yillar - Qoraqalpog'iston xalq xo'jaligida milliy kadrlarning salmog'i 37,5%dan 58%ga ko'tarildi.

1926-1945-yillar – Germaniyada fashistlarning yoshlar tashkiloti *giltteryugend* faoliyat ko'rsatgan.

1926-1974-yillar – Yevropa g'arbining chekkasidagi uncha katta bo'lmagan mamlakat - Portugaliyada davlat to'ntarishi oqibatida o'rnatilgan fashistlar diktaturasi eng ko'p - 48 yil hukm surdi. Diktator *Antoniou Salazar* uning o'rniga kelgan *M.Kaetanu* kabi janubdagi yirik yer egalari, qo'shin va uning generalitetlariga, tarmoq otgan yashirin politsiya va katolik cherkovi ierarxlarga suyanardi. Portugal iya xalqi Yevropadagi turmush darajasi eng past mamlakatda yashar edi. "Milliy ittifoq" fashistlar partiyasidan boshqa barcha partiyalar faoliyati ta'qiqlandi. Davlat "korporativ" deb e'lon qilindi, bu bilan ishbilamonlar va ishchilar go'yoki yagona, uyg'un butunlikni tashkil qilardi.

1926-yil – "*Po'lat trest*" tashkil etildi. Bu trest barcha temir va po'latning 40 foizini, ko'mirning 25 foizini ishlab chiqarardi.

1926-1929-yillar – *Sa'dulla Qosimov* O'zbekiston SSR Oliy sudining raisi bo'lib ishlaydi.

1926-yil – Amerika ishchilar harakatining asosiy quroli hisoblangan ish tashlashlar deyarli barham topdi.

1926-yil – *Ben Ali* dunyoga keldi.

1926-yil – besh yil muddatga tuzilgan bitim sovet-german munosabatlarining yanada rivojlanishiga yo'l ochdi. Unga ko'ra ikkala davlat 3-davlat bilan nizolashgan taqdirda betaraf bo'lishga kelishdi. Germaniya sovet davlatiga qarshi qaratilgan hech qanday ittifoqqa qo'shilmaslik majburiyatini oldi. Bu sovet diplomatiyasining ulkan g'alabasi edi. Bitim Germaniya yetakchilik qilishi lozim bo'lgan yangi sovetlarga qarshi frontning tuzilishiga xalaqit berdi.



1926-yil – Britaniyada radioeshittirishlar tizimi dunyoga keldi va radio qit'a bo'ylab keng tarqala boshladi.

1926-yil – Chexoslovakiyada 1- fashistik tashkilotlar vujudga keldi.

1926-yil – Fransiyada ishsizlik nafaqasi joriy etildi, keksalik nafaqasi, kasallik, nogironlik va homiladorlikda yordam puli beriladigan bo'ldi.

1926-yil – iqtisodiy inqiroz Italiyada o'tkazilgan pul islohoti sharoitida boshlandi.

1926-yil – Italiyada siyosiy partiyalar tarqatib yuborildi.

1926-yil – *Kastro Rus Fidel* dunyoga keldi.

1926-yil – moliyaviy oligarxiya va yirik sanoat monopoliyalarining manfaatlarini himoya qiluvchi partiyalar Fransiyada hukumat tepasiga keldilar.

1926-yil - O'zbekiston SSR davlat muassasalarini o'zbeklashtirish (mahalliyalashtirish) bo'yicha komissiyasining majlisi Samarqand shahrida bo'lib o'tdi.

1926-yil – O'zbekistonda 16 ta yirik ayollar artellari bo'lib, ularda 814 nafar mahalliy millat vakillari mehnat qilardi. Qishloq joylarda ham ko'plab ayollar artellari ochildi. Marg'ilon tumanida ayollar pillakashlik arteli, Surxondaryo okrugining Koshman qishlog'ida gilam to'quvchi ayollar arteli mavjud edi.

1926-yil – O'zbekistondagi 82 ta savodsizlikni tugatuvchi maktablarda 2700 xotin-qiz o'qigan.

1926-yil - Qoraqalpog'istonda yalpi yer tuzishga doir tadbirlar amalga oshirila boshlandi.

1926-yil - *R.O.Inog'omov "O'zbekiston ziyolilari"* risolasida o'zbek xalqi bolsheviklar amalga oshirgan oktabr to'ntarishiga nisbatan noxush munosabatda bo'lganligini ko'rsatgan edi. U o'zining bir qator maqola va nutqlarida O'zbekiston Kompartiyasining bolsheviklar markazining mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashmayotganlikda, VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi va O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi kabi Markazning nazoratchi organlarini zo'raonlikda ayblaydi.

1926-yil - *R.O.Inog'omov* O'zbekiston Kompartiyasi MK matbuot bo'limi mudiri bo'lib ishlagan.

1926-yil - ro'yxatga olish ma'lumotlariga qaraganda O'zbekiston SSRning o'z aholisi 4447555 kishini tashkil etdi, ularning 74,2 %i o'zbeklar edi. Respublikaga 1195 ming desyatina sug'oriladigan yer, ishlab turgan 185 ta sanoat korxonalarini kirdi. Bu korxonalar orasida 39 ta paxta tozalash zavodi bor edi. O'zbekiston SSR sanoatida 87 ming ishchi ishlardi.

1926-yil – Rossiyada zavod va fabrikalarda 2 mln. ishchi mehnat qildi.

1926-yil – *S.Majitov "Alifbe"* va "*Katta yoshdagilar uchun o'qish kitobi*" darsliklarini yaratdi.

1926-yil – *Uilyam Folkner "Askarlik mukofoti"* nomli roman yaratdi.

1926-yil – *Yuzef Pilsudskiy* Polsha diktatori bo'ldi.

1926-yil - ÑðeäaçÿËÕÑO qayta tuzildi.

1926-yil 24-aprel – hujum qilmaslik va betaraflik to'g'risidagi sovet-german bitimining tuzilishi.

1926-yil may – ingliz kon egalari ish haqi pasaytirilishini e'lon qildi. Bunga javoban Tred-yunionlar Bosh kengashi barcha ishchilarni yalpi ish tashlashga chaqirdi.



1926-yil 4-may – Angliyada ishchilarning yalpi ish tashlashi boshlandi. Sanoatning ish tashlagan sohalarida faoliyat tamomila to'xtadi.

1926-yil 12-may – Leyborist partiyasi ijroiya qo'mitasi va Tred-yunionlar Bosh kengashi ish tashlashlar eng qizigan paytda uni to'xtatishga qaror qildilar.

1926-yil 12-13-may – Polshada davlat to'ntarishining amalga oshirilishi. "Sanatsiya" (sog'lomlashtirish) tartibotining o'rnatilishi.

1926-yil avgust - RKP(b) MKning mahsus rezolyutsiyasining g'oyaviy ta'siri ostida Samarqandda "Qizil qalam" ijodi uyushmasi tuzildi.

1926-yil 12-dekabr - O'zbekiston Kompartiyasi MK ijroiya byurosi va plenumida, inog'omovchilik - mayday burjua va millatchilikka tomon og'ish, deb qoralandi.

1926-yil 13-dekabr - O'zbekiston MIK Zarafshon viloyatida yer-suv islohoti to'g'risida qaror qabul qildi. Bu qaror 1925-yildagi dekret bilan asosan bir xil edi. Farqi shundaki bu qarorda 35 desyatina va undan ko'p yeri bo'lgan xo'jaliklar va amir amaldorlarining yerlarini, miqdoridan qat'iy nazar, musodara qilish belgilandi.

1926-yil dekabr – ish tashlagan ingliz konchilari barcha imkoniyatlari tugagandan keyin ishga qaytishga majbur bo'ldilar.

1926-yil dekabr - R.O.Inog'omov o'z vazifasidan olib tashlandi.

1926-yil oxiri – Italiya bir partiyali diktatorlik davlatiga aylantirildi.

1926-yil 2-yarmi - qishloq xo'jalik kooperatsiyasini ixtisoslashtirishga kirishildi. Universal qishloq kooperatsiyasidan iborat "O'zbeekne'et'no'p'ch"dan paxtachilik, keyin esa chorvachilik kooperatsiyasi, meva-sabzavot, ipakchilik kooperatsiyalari va boshqalar ajralib chiqdi. Ular markaziy boshqaruvraysoyuz-shirkatidan iborat tugal tizimga ega bo'ldi. O'zbekiston uchun dehqon xo'jaliklarining 60%dan ortig'ini birlashtirgan "Uzbekpaxtasoyuz" paxtachilik kooperatsiyasining rivojlanishi alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

1927-1928-yillar – Boliviya-Paragvay chegarasida qurolli to'qnashuvlar bo'lib o'tdi.

1927-1928-yillar - o'quv yilida Qoraqalpog'istonda maktablar soni 75 taga yetdi, ularda maktab yoshidagi bolalarning taxminan 16%i o'qir edi.

1927-1928-yillar - O'zbekistonda 2,5 mingdan ortiq faol xotin-qizlar, tuman, qishloq kengashlarining a'zolari, xotin-qizlar klublari, kutbxonalar mudirlari, o'qituvchilar hayotdan ko'z yumganlar. Ayollarni erksizlikdan qutqarishda, erkinlikka chiqarishda bunday dahshatli fojialar bo'lmasligi ham mumkin edi. Buning uchun ularga avvalo zarur shart-sharoitlar yaratib, bu ishni bosqichma-bosqich amalga oshirish kerak edi.

1927-1928-xo'jalik yili – O'zbekistonda yirik sanoatining yalpi mahsuloti 270 mln so'mga yetdi, , ya'ni 1924/25-xo'jalik yiliga qaraganda 2,5 baravardan ziyodni tashkil qildi.

1927-1928-yillar - O'zbekistonda xususiy savdogarlar mavqeining davlat qo'liga o'tishi kuchaydi.

1927-1928-yillar - Qoraqalpog'istonda nochor dehqon xo'jaliklariga ish hayvonlari, qishloq xo'jalik asbob-uskunalari, urug'lik va boshqalarni sotib olish uchun 3mln so'mdan ortiqroq miqdorda mablag' ajratildi. Yer tuzish ishlariga



aloqador bo'lgan barcha sarf-xarajatlar 4 mln so'mdan ziyodni tashkil qildi. O'tkazilgan rayonlashtirishga muvofiq Qoraqalpog'istonda 112 ta ovul sovetlariga ega bo'lgan 11 ta tuman tashkil etildi. Tumanlarni ixtisoslashtirish yo'liga o'tildi; To'rtko'l, Qipchoq, Shobbos tumanlari paxtachilik; Kegayli, Chimboy, Qo'ng'iro't va Taxtako'pir tumanlari - yarim paxtachilik; Tomdi tumani - chorvachilik; Qorao'zak tumani chorvachilik-sanoat tumani bo'lib bordi, chunki unda Ittifoq ahamiyatiga ega bo'lgan baliq-konserva sanoati rivojlana boshladi.

1927-1928-yillar – V.Marks Germaniya reyxskansleri bo'lgan.

1927-1928-xo'jalik yilida - O'zbekiston iqtisodiyoti agrar xarakterga ega edi, xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligining xissasi 61,6%ni, sanoatniki esa 38,4%ni tashkil qilardi. Respublikadagi mavjud sanoat ishlab chiqarishining 90 % i qishloq xo'jalik xom ashyosini ishlashga ixtisoslashgan edi.

1927-1928-xo'jalik yilida - O'zbekiston paxtasi jahon bozoridagi narxlar bo'yicha sotilganda O'zbekiston qo'shimcha ravishda 20-25 mln so'm daromad olgan bo'lardi. Respublikadan olib chiqib ketiladigan va Ittifoqning boshqa rayonlaridan unga olib kelinadigan tovarlar narxlarining nisbati O'zbekiston uchun qulay emas edi. Chunonchi, ajnabiy paxta xom ashyosining bahosi bir pud paxta uchun 22-23 so'mni tashkil etar, bu narx esa sovet baholaridan 2,5-3 so'm ortiq edi.

1927-1928-xo'jalik yili - O'zbekiston g'alla tayyorlashga aloqador tanglik siyosatda keskin burilish yasab, yangi iqtisodiy siyosatning tezlik bilan barham topishiga yo'l ochdi.

1927-1930-yillar – uzunligi 1500 km bo'lgan Turkiston-Sibir temir yo'li (Turksib) qurib bitkaziladi. Qurilishda 50 mingdan ortiq kishi mehnat qiladi.

1927-1993-yillar – *Turg'ut Ozal* hayot faoliyati.

1927-yil – A. Fadeev inqilob haqida haqiqatni so'zlovchi "*Tor-mor*" romanini e'lon qildi.

1927-yil - Andijondagi eski shahar ayollar klubida 134 ta a'zo bo'lgan.

1927-yil – AQSh va Angliyada television apparatlar yaratildi.

1927-yil – AQShda yiliga 7 mln avtomobil ishlab chiqarilardi. Avtomobilsozlikning o'sishi keng shosse yo'llarining barpo etilishiga turki bo'ldi, shahar va qishloq qurilishining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

1927-yil – Bandungda Indoneziya Milliy partiyasi tuzildi. Bu partiya Indoneziyaning bo'lg'usi 1-prezidenti, muhandis *Sukarno* boshchilik qildi.

1927-yil – *Chan Kayshi* Guanchjouda hukumat tepasiga chiqdi va XKP tarafdorlariga qarshi ularni Guandun provinsiyasidan chiqarib yuborish maqsadida kurasha boshladi. *Chan Kayshi* hokimiyati barcha chet el vakolotxonalarini tomonidan tan olindi va Xitoyning qonuniy hukmdori bo'lib qoldi.

1927-yil - Farg'ona okrugining faqat 7 tumanida 3 mingga yaqin ayol "*Qo'shchi*" uyushmasiga a'zo bo'ldi. "*Qo'shchi*" uyushmalari xotin-qizlarning savodsizligini bitirish kurslari ochib, ularning madaniy saviyasini ko'tarishga, faolligini o'rttirishga hissa qo'shdi.

1927-yil – Italiyada " korporativ tartib " asosiy tamoyillari Katta fashist kengashi tomonidan qabul qilingan " Mehnat xartiyasi " da bayon etilgan edi. U ishlab chiqarish muammolarini birgalikda hal etish uchun kasaba uyushmalarini va



ishbilarmonlarni teng asosda korporatsiyalarda birlashtirishni nazarda tutardi. Ishbilarmonlar va ishchilar bir tashkilotning teng huquqli a'zolariga aylanardilar. Xalq xo'jaligining sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, banklar, transport kabi sohalariga mos keladigan 22 korporatsiya tuzildi.

1927-yil – Misrda 238 ta xorijiy hissadorlik jamiyatlari faoliyat ko'rsatardi.

1927-yil – *Mustafo Kamol* xalq respublikasi partiyasining umrbod raisligiga saylandi va unga **Otaturk**, ya'ni Turklar otasi faxriy unvoni berildi.

1927-yil - O'zbekiston Kompartiyasining III qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda milliy masala muhim o'rin egallab keldi.

1927-yil - O'zbekiston XKS raisi *F. Xo'jayev* “*shiddatli siyosiy, sovetlarga qarshi xususiyat kasb etdi va butun O'rta Osiyoning mavjud uch respublikasi - Buxoro, Turkiston va Xorazmdagi dehqonlar aholisining deyarli ommaviy harakatiga aylandi...*”, deb ta'kidladi.

1927-yil - O'zbekistonda g'alla tayyorlashdagi qiyinchiliklar munosabati bilan baholarni tartibga solish muammosi yana ko'ndalang bo'lib qoldi. Bu narsa shahar bilan qishloqlar orasida katta ziddiyatlar paydo bo'lib qolganini ko'rsatar edi. Bozorning asosiy mavqeini o'z qo'liga olgan Sovet davlati qishloq aholisi tomonidan iste'mol qilinadigan sanoat mollariga nisbatan yuqori va qishloq xo'jalik mahsulotiga nisbatan past baholarni qo'yib, dehqonlarni sanoatlashtirish uchun mablag' beradigan “o'lponga o'xshash bir narsa” o'ziga xos ustama soliq to'lashga majbur etdi.

1927-yil - O'zbekistonda kooperatsiyani “davlatlashtirish” tendensiyalari kuchayib, uning xo'jalik hisobi asosidagi negizlari tobora ko'proq qo'porila boshladi. Dehqon xo'jaligini yuksaltirishga doir masalalarning barchasi davlatga borib taqaladigan bo'lib qoldi (soliq siyosati, kredit, narxlar va boshqalar).

1927-yil - O'zbek ayollarini ozodlikka chiqarish uchun “Hujum” kampaniyasi boshlandi.

1927-yil – O'zbekistondagi tuman ijroiya qo'mitalari a'zolarining 20%i , okrug ijroiya qo'mitalari a'zolarining 17%i ayollar edi. *Jahon Obidova* O'zbekiston Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi raisining o'rinbosari, *Tojixon Shodiyeva* ko'p yillar O'zbekiston MIK Prezidiumi a'zosi bo'lgan. Ko'plab ayollar respublika Xalq Komissarliklari va boshqa davlat idoralarida bo'lim boshlig'i, inspektor lavozimlarida ishlagan.

1927-yil – Rossiya Federatsiyasidagi oliy va o'rta mahsus o'quv yurtlarida Ozbekistondan kelgan 300 ga yaqin talabalar ta'lim oldi.

1927-yil – Rossiyada ishlab chiqarish 1913-yil darajasiga yetdi. Qishloq xo'jaligi urushdan oldingi darajaga ham yeta olmadi. Hosildorlik beqaror edi.

1927-yil – Rossiyada zavod va fabrikalarda 3 mln. ishchi mehnat qildi. Texnik kadrlarning yetishmasligi ko'plab yangi oliy texnika o'quv yurtlarining ochilishiga turtki bo'ldi. Talabalar soni qisqa vaqt ichida 48 mingtadan 235 mingtaga yetdi.

1927-yil – *Sakko va Vansetti* elektr kursida qatl qilindilar. Faqat II jahon urushidan so'ng ularga soxta guvohliklar asosida ayb qo'yilgani ma'lum bo'ldi.

1927-yil – SSSR va Germaniya o'rtasidagi savdo muammolari 1925-yildagiga nisbatan salkam 3 baravarga o'sdi. SSSRga Germaniyadan asosan texnika va



uskunalar import qilindi. Sovet davlati barpo etgan korxonalarining ko'pchiligi Germaniyada ishlab chiqarilgan texnika bilan jihozlangan edi. Mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari muntazam o'sib bordi.

1927-yil – *Stalinning* hokimiyat uchun kurashda birinchi zarba *Trotskiyga* qarshi qaratildi. *Trotskiy* egallagan barcha lavozimlardan bo'shatildi, partiyadan haydaldi va mamlakatdan badarg'a qilindi.

1927-yil - *Sukarno* boshchiligida Indoneziya Milliy partiyasining tashkil etilishi.

1927-yil – *Uilyam Folkner "Chivinlar"* nomli roman yaratdi.

1927-yil – Vetnamda milliy-ozodlik harakatining demokratik qanotiga mamlakatning bo'lg'usi 1-prezidenti *Xo Shi Min* boshchilik qila boshladi.

1927-yil – Zarafshon viloyatida yer-suv islohotining 2-bosqichi o'tkazildi.

1927-yil yanvar - VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosida ham bu ish mahsus ko'rib, "inog'omovchilik o'ng oppozitsiya bilan g'oyaviy yaqinlikda" ayblandi.

1927-yil mart - O'zbekiston SSR Sovetlarining II qurultoyida Konstitutsiya qabul qilindi.

1927-yil 3-mart - Viloyat yer tuzish kengashining qarori bilan Qoraqalpog'iston muxtor viloyati barcha okruglari bo'yicha yer tuzish ishlarining rejasi tasdiqlandi.

1927-yil 22-mart – Milliy-inqilobiy armiya tomonidan Shanxayning ozod qilinishi.

1927-yil 12-aprel – *Chan Kayshining* aksilingqilobiy to'ntarishi.

1927-yil 27-may – Buyuk Britaniya bilan SSSR o'rtasida diplomatik munosabatlarning to'xtatilishi.

1927-yil iyul – qirol *Ferdinand* vafot etdi. Taxtni uning kichik yoshli o'g'li *Mixail* (Mixay) egallashi lozim edi. Lekin mamlakatga bundan 2 yil avval quvib yuborilgan valiahd *Karol* (Karl) qaytib kelib, to'ntarishni amalga oshirdi va o'zini qirol deb e'lon qildi. Siyosiy inqiroz butun Ruminiyani qamrab oldi.

1927-yil 1-avgust – Xitoyda 2-fuqarolar urushining boshlanishi.

1927-yil noyabr - O'zbekiston Kompartiyasining III s'yezdi *R.Inog'omovni* "g'oyaviy jihatdan" tor-mor qilindi deb hisoblab, uni Qashqadaryo okrugining eng chekka qishlog'iga ishlash uchun jo'natadi.

1927-yil bahor - O'zbekistonda "*Hujum*" kompaniyasi boshlab yuborildi, va unga zarbdor safarbarlik hususiyati berildi. Bu jarayonda bolsheviklar ruhiy omillarni, islom omilini mutlaqo hisobga olmadi. Xotin-qizlarning paranjisiz yurishiga ijtimoiy muhit to'g'ri kelmasdi, bunga na partiya, sovet xodimlari, na oddiy odamlar tayyor edilar. Rahbar kadrlar partiya organlarining tazyiqi bilan o'z xotinlarini parangi yoqadigan joylarga yetaklab kelardilarda, ertasiga yana parangi yopinishga majburlardilar.

1927-yil kuz - O'zbekiston bozorlarida va do'konlarida don va non uzilishlari boshlandi, narxlar ko'tarilib ketdi, chunki donni davlatga belgilab qo'yilgan past baholarda sotish dehqonlarga foyda bermagani uchun yalpi sotib olinadigan don kamayib ketdi. Shunda davlat favqulodda choralar ko'rishga – o'ziga to'q dehqonlardan g'allani tortib olishga o'tdi.

1928-1929-yillar - o'quv yilida I va II bosqichdagi ta'lim maktablarining soni O'zbekiston bo'yicha 2,5 taga yetdi.

1928-1929-yillar - o'quv yilida Qoraqalpog'iston viloyatida 3 ming nafarga yaqin



kishi savodsizlikni tugatish tarmoqlarida o'qishni bitirib chiqdi. va 4 ming kishi o'qishni davom ettirib bordi.

1928-1929-yillar - yer-suv islohotining 3-bosqichi Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm okruglarida oxirgi navbatda o'tkazildi.

1928-1930-yillar - Qoraqalpog'istonda zayomni tarqatishdan 700 ming so'mga yaqin pul tushdi.

1928-1930-yillar – *V.Myuller* Germaniya reyxskansleri bo'lgan.

1928-1939-yillar – Rossiyada umumiy ishlab chiqarish 6 baravar, elektr energiyasini ishlab chiqarish – 14, qora metallurgiya – 6, kimyo va neft kimyo sanoati – 15, mashinasozlik – 15 baravar o'sdi. Yangi shaharlar, sanoat gigantlari, ishlab chiqarish komplekslari barpo qilindi. Biroq, bu rivojlanish hanuz bir tomonlama edi. Asosiy e'tibor og'ir sanoat - metall, po'lat, ko'mir, elektr energiyasini ishlab chiqarishga qaratildi. Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish past darajada qoldi. Og'ir sanoatni rivojlantirish uchun mablag' bu yillarda, ichki ehtiyojga xilof bo'lsa-da, chet mamlakatlarga g'alla sotish evaziga olindi.

1928-1967-yillar – *Che Gevara Ernesto* hayot faoliyati.

1928-1979-yillar – *Bxutto Zulfiqor Alixonning* hayot faoliyati.

1928-1995-yillar – *Ishoq Rabin* hayot faoliyati.

1928-2003 yillar – *Erkin Yusupov* yashab o'tgan.

1928-yil – “*Katta koalitsiya*” faoliyatining ilk davridayoq, Reyn va Rur sanoatchilari zavod va fabrikalardan ular qo'yg'an shartlarda ishlashdan bosh tortgan 250 ming ishchini qisqartirdilar.

1928-yil – Amerikada 28 mln. avtomobil bor edi.

1928-yil – *Bertold Brextning* “*Uch pullik opera*” nomli pyesasi yaratildi.

1928-yil – *F.Ruzvelt* barcha qonun-qoidalarga qarshi o'laroq, Nyu-York shtati gubernatori etib saylandi.

1928-yil – *Federiko Garsia Lorca* “*Lo'li romanserosi*” nomli katta she'rlar to'plamini e'lon qildi, shoir Ispaniyaning bu qadimiy xalq og'zaki ijodi an'anasini tikladi va yangiladi.

1928-yil – Germaniyada 1913 yilga nisbatan 5 barobar ko'p elektr energiyasi, 7 barobar ko'p avtomobil, 32 barobar ko'p alyuminiy ishlab chiqarildi. Germaniya kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi va po'lat ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinni egalladi.

1928-yil – *Husni Muborak* dunyoga keldi.

1928-yil – *M. Sholoxovning* deyarli barcha jahon tillariga tarjima qilingan “*Tinch Don*” romani chop etildi. Yozuvchi Don kazaklari misolida insonlarning inqilobiy kurashlar davridagi fojiali taqdirini haqqoniy bo'yoqlarda aks ettirdi.

1928-yil - O'rta Osiya Davlat universitetining botanika bog'ida 262 ta ajnabiy tashkilotlar bilan aloqa bog'landi. Bir yil ichida seleksiya ishi uchun zarur materialli 4,5 ming paket olinib, 3 mingdan ko'prog'i jo'natildi. Bundan tashqari O'rta Osiyo Davlat universitetining botanika bog'i talaygina qimmatli buta va daraxt navlarini oldi, ulardan bog'ning Chimyon bo'limidagi tog' yon bag'irlarini mustahkamlashda foydalanildi.

1928-yil - O'zbekistonda yirik sanoat korxonalari 166 taga yetdi. Farg'ona



to'qimachilik fabrikasi, Toshkentda "O'rtoq" qandolatchilik fabrikasi, tikuvchilik fabrikasi, ko'nchilik zavodlari, Samarqand, Buxoro va Marg'ilonida pillakashlik fabrikalari, Bo'zsuv GESi, Xilko sement zavodi. Chimyon va Santo neftni haydash zavodlari ishga tushirildi.

1928-yil - O'zbekistonning asosiy g'allakor tumanlarida don tayyorlash ishlari o'tkazildi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida dehqonlar favqulodda choralarga qarshi chiqdilar.

1928-yil - O'rta Osiyodagi 1-oliy o'quv yurti - Turkiston Davlat universiteti oliy ta'limning eng yirik markaziga aylandi. Uni bitirib chiqqan kishilar soni 5 baravar ko'paydi. Ular orasida mahalliy xalq namoyondalari kam sonni tashkil etardi.

1928-yil - Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida mehnat qilmay yerdan foydalanadigan xo'jaliklarni to'g'risida O'zbekiston hukumati qaror qabul qildi. Qarorda mehnatsiz kun kechiradigan, 20 gektar va undan ortiq sug'oriladigan yoki 45 gektar lalmi yerga ega bo'lgan boy xo'jaliklar butunlay tugatilishi nazarda tutildi. Bu qarorda boy va o'ziga to'q xo'jaliklarning ortiqcha yerlarini musodara qilish belgilandi.

1928-yil - Qoraqalpog'istonda 1815 nafar savodli xotin-qiz bo'lgan.

1928-yil - Qoraqalpog'istonda muxtor viloyatdagi ishchilar soni 2,5 ming nafarga yetdi.

1928-yil – *S.Majitov* qoraqalpoq xalqining qahramoni Ernazarga bag'ishlangan "*Ernazar olako'z*" dostonini ham yozdi.

1928-yil - Samarqand pedagogika kursida 73 nafar ayol o'qigan.

1928-yil – Skupshina yig'ilishida Xorvatiya dehqonlar partiyasi yetakchisi Radich o'ldirildi. Mamlakatni qudratli norozilik harakati qamrab oldi. Harakat serblar bilan boshqa butun mamlakatning qarama-qarshi chiqishiga aylandi. Parlament inqirozi davlat inqiroziga aylandi. Qirol *Aleksandr* oldinroq zarba berishga qaror qilib, harbiy to'ntarishni amalga oshirdi.

1928-yil – *Stalin* to'satdan jami dehqonlarning 5 % ini (1,2 mln. dehqon xo'jaliklari yoki o'sha paytdagi qishloq aholisining 6,2 mln. i) quloqlar tashkil etishini e'lon qildi.

1928-yil - Toshkent okrugida pillachilik artellariga 560 dehqon xo'jaliklari birlashgan edi.

1928-yil - vaqf maktablari sovet hokimiyatining insonparvarlikka zid siyosati natijasida o'z faoliyatini amalda tugatdilar.

1928-yil – *Xerardo Machado* o'zining prezidentlik lavozimiga kelgusi muddatga saylanishini uyushtirdi. Bunga javoban Kubada AQShning ochiq-oydin malayi bo'lgan xalqqa qarshi diktaturani ag'darib tashlash uchun kuchli harakat boshlandi.

1928-yil yanvar – qishloqqa "g'alla"ning ortiqchasini tortib olish maqsadida favqulodda choralar siyosati o'tkazilishining boshlanishi. Rossiyada kollektivlashtirishning boshlanishi.

1928-yil 2-aprel – yapon qo'shinlarining Xitoydagi Shandun provinsiyasiga bostirib kirishi.

1928-yil may – saylovlarda birorta ham siyosiy partiya reyxstagda mutlaq ko'pchilik



ovozga ega bo'la olmadi va hukumatni tashkil qilish uchun "Katta koalitsiya" tuzilib, unga Sotsial-demokratlar partiyasi (reyxstagda 153 o'rin), Katolik markaz (78 o'rin) va Nemis milliy partiyasi (NMP – 73 o'rin) kirdi. Birgalikda ular 304 mandatga ega bo'lib, bu ularga mamlakatni rasman boshqarish imkonini berardi. Germaniya kansleri etib Sotsial-demokratlar partiyasi rahbari *G.Myuller* tayinlandi.

1928-yil 17-avgust - Qozog'iston Markaziy Ijroiya Komitetining qabul qilingan "*Yerdan foydalanadigan Boylar mulklarini musodara qilish to'g'risida*"gi dekreti munosabati bilan jamiyatdagi muholiflik juda keskinlashdi. Shu konfrensiyaning yo'l-yo'riqlariga muvofiq boy xo'jaliklardagi 20 ming desyatina yer musodara qilinib, kambag'al xo'jaliklarga berildi, necha yuzlab boy xo'jaliklarga o'zaro ixtiyoriy soliq solindi.

1928-yil 1-sentabr – Albaniyada respublika tuzumi tugatildi va *Zogu* qirol, Albaniya esa monarxiya deb e'lon qilindi.

1928-yil 1-oktabr – SSSRda xalq xo'jaligining besh yillik rejalariga o'tish haqida qaror qabul qilinishi. Birinchi besh yillik reja 1929-yil aprelida tasdiqlandi.

1929-1931 yillar – *Ramsey Makdonald* Buyuk Britaniya bosh vaziri bo'lgan.

1929-1931-yillar – Vetnamda iqtisodiy inqiroz davrida ozodlik harakatining yanada yuksalishiga olib keldi.

1929-1932-yillar – Angliya iqtisodiyotining eng zaif joyi ishsizlik bo'ldi. Inqiroz ishsizlikning Angliya tarixida bo'lmagan darajada o'sishiga olib keldi.

1929-1932-yillar – AQShda 130 mingga yaqin firmalar bankrotlikka uchradi.

1929-1932-yillar – AQShda *G.Guverninq* prezidentligi davri.

1929-1932-yillar – Inqiroz AQSh qishloq xo'jaligiga ulkan ziyon yetkazdi. An'anaviy bozorlaridan mahrum bo'lgan, bank kreditlarini yo'qotgan ko'plab fermer xo'jaliklari halokatga uchradi. Jorjiya, Alabama, Oklaxoma, Texas fermerlari o'z fermalarini tark etib, boshqa shtatlarga ish va yer topish uchun jo'nab ketishdi. Amerika yo'llari birmuncha yaxshi sharoitli shtatlarga jo'nayotgan fermer oilalarining avtomashinalariga to'la edi. Bu yerlarda ham ularni o'zlari qochgan xuddi o'sha falokat kutardi Mazkur voqealarni buyuk amerikalik yozuvchisi *Jon Steynbek* "G'azab g'ujumlari" asarida ajoyib tarzda tasvirlagan.

1929-1932-yillar – inqiroz Germaniyadagi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotning asoslarini larzaga soldi. Uch yil davomida ishlab chiqarish hajmlari tinimsiz pasayib bordi.

1929-1932-yillar – jahon iqtisodiy inqirozi Gretsiya iqtisodiyotida og'ir aks etdi. Bu iqtisodiyotning mushkul ahvoli uchun butun aybni respublikachilar tuzumiga qo'ygan monarxistlarning faollashuviga olib keldi.

1929-1932-yillar – Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida bozor munosabatlari Misrda yanada rivojlandi, chet davlatlar bu yerga o'z mamlakatlarida to'xtab yotgan qator to'qimachilik va shakar ishlab chiqarish korxonalarini ko'chirib keltirdilar. Sanoat korxonalarini bilan birga Misrda ishchilar sinfi ham o'sib, yirik, mayda va o'rta tadbirkorlar sinflari faollashib bordi. Bu sinflarning vakillari milliy-vatanparvarlik harakati saflarini to'ldirdilar.

1929-1932-yillar – mehnatkashlarning ahvoli jahon iqtisodiy inqirozi sababli



yo'qqa chiqdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi 60 % hacha kamaydi. Ko'plab mayda korxonalar xarob bo'lib, ularning mol-mulkleri sotib yuborildi. Ishsizlar soni 1 mln. kishiga yetdi. Dehqon xo'jaliklari ham xaroblikka uchrab, ularning mol-mulkini yirik burjuaziya arzimagan bahoda sotib olardi. Mamlakatning moddiy ahvoli keskin yomonlashdi. Ishchi xizmatchilarning ish haqi 50-60 foizga pasaydi.

1929-1932-yillar – O'zbekistonda g'o'za ekiladigan yer maydonlari 550 ming gektardan 928 ming gektarga kengaytirildi, yalpi paxta xosili esa 652 ming tonnadan 750 ming tonnaga yetkazildi.

1929-1932-yillar – Ruminiyada iqtisodiy inqiroz boshlandi. Inqirozdan chiqish uchun asosan ish haqini kamaytirishga va ish kunini uzaytirishga qaratilgan "sog'lomlashtirish rejasi" ishlab chiqildi. Bu hol shunday ham turmush darajasi Yevropadan eng past ko'rsatkichlardan bo'lgan ishchilarda g'oyat katta norozilik uyg'otdi.

1929-1932-yillar – SSSRda xalq xo'jaligining bir maromda, barqaror rivojlanishiga o'tkazilgan qishloq xo'jaligini jamoalashtirish qattiq zarba berdi. U qishloqning yangilanishi g'oyasini qo'pol ma'muriylashtirish, zo'ravonlik, xo'jasizlik va aholining qashshoqlashishi bilan bog'ladi. Mamlakat qishloq xo'jaligi tabiiy iqtisodiy qonunlar asosida emas, yuqoridan berilgan buyruq va yo'1-yo'riqlarga ko'ra rivojlana boshladi. Kolxozlar davrining birinchi yiliyoq Rossiya tarixida bo'lmagan ocharchilikni yuzaga keltirdi. U 30 mln. aholini qamrab oldi. Ocharchilik Ukraina, Don, Shimoliy Kavkaz, Volgabo'yi, Janubiy Ural, Qozog'istondagi g'alla yetishtiruvchi hududlarda ro'y berdi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan eng kam darajada ta'minlash maqsadida mamlakatda kartochka tizimi joriy qilindi.

1929-1932-yillar – Yevropadagi barcha mamlakatlar va AQSh jahon iqtisodiy inqirozini boshdan kechirayotgan bir paytda, SSSR tashabbuskorlik va majburiy mehnatga asoslangan ulkan qurilish maydoniga aylandi.

1929-1933-yillar – Forishlik tibbiyot olimi A. Abdurahmonov otasi va qariyalardan eshitib hikoya qilishicha, Forish tumanidan bir necha yuz xo'jalik quloq qilingan. Shu tumaning Nokurt qishlog'idan 10 dan ortiq xo'jalik, uning otasi va 2 amakisi Stavropol o'lkasining Terek o'rmonlariga surgun qilingan. Otasi 10 yil muddatni o'tab, ona-yurtiga qaytgan. Ammo 2 amakisi o'sha yerda sovuq va ochlikdan o'lib ketgan. Barcha quloq qilinib surgun qilingan va ko'chirilganlarning taqdiri shunday kechgan. Ularning taxminan 2/3 qismi halok bo'lgan.

1929-1934-yillar – Inqirozdan shahar aholisining o'rta tabaqalari jiddiy jabr ko'rgani Fransiya uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ma'lumki, bu tabaqalar saylovlarning natijalari va ommaviy harakatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadilar. Fransiyada mayda shahar burjuaziyasining daromadlari 30 % ga tushib ketdi. 100 mingdan ortiq mayday savdogar, mayday va o'rta korxonalar, do'konlar, qahvaxonalarning egalari kasodga uchradilar.

1929-1934-yillar – Italiyada oylik maosh 50-60 % ga qisqardi. Qishloq xo'jaligida inqiroz dehqonlarning shusiz ham mushkul ahvolini yanada og'irlashtirdi. Italiya dehqonlarining asosiy mahsuloti - vino, meva va sabzavotlarga talab tushib ketdi. Dehqonlar va qishloq xo'jaligidagi ishchilar daromadlarining pasayishi qishloq xo'jaligini halokat yoqasiga olib keldi. O'n minglab yer maydonlari sudlarning



hukmiga ko'ra qarz beruvchilarga berildi. Shahardagi o'rta tabaqa vakillari - hunarmandlar, mayda tadbirkorlar, mayda va o'rta savdogarlar og'ir ahvolda qoldilar.

1929-1935-yillar – R. Makdonaldning Angliyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1929-1945-yillar – A. Tolstoy “Pyotr I” nomli romanini e'lon qildi.

1929-yil – O'zbekiston savdosida umumiy lashtirilgan sektor 76,5%ni tashkil qildi. Tijorat-vositachilik muomalasida xususiy sektorning keskin qisqarib ketishi tovar tanqisligining kuchayishiga, pulning tobora ko'proq qardsizlanib, kartochkalarning joriy etilishiga olib keldi.

1929-yil – AQShda 25 ming bank ishlab turgan.

1929-yil - Arab yozuviga asoslangan qadimiy o'zbek yozuvi lotin alifbosiga almashtirildi.

1929-yil – bir vaqtning o'zida turli mamlakatlarda urush haqidagi uch roman hayot yuzini ko'rdi: Angliyada – Richard Oldingtonning “Qahramonning o'limi”, AQShda – Ernest Xemingueyning “Alvido, qurol”, Germaniyada – Erix Remarkning “G'arbiy frontda o'zgarish yo'q” romanlari yaratildi. Romanlar urush qatnashchilari tomonidan yozilgan bo'lib, urushga qarshi ruh bilan sug'orilgan edi. Uchalasi ham o'sha zahotiy oq butun dunyoga keng tanildi. Romanlarning mualliflari yosh edilar. Ularning eng kattasi - R. Oldington o'sha yili 36 yoshga to'ldi, Remark 31, Xeminguey esa 30 yoshda edi. Ularning har biri urushni bosib o'tgan bo'lib, urushdan keyingi sarsonlik va muvaffaqiyatsizliklarning o'n yillik tajribasiga ega edi. Urushga qarshi ruhdagi bu uch romanning bir vaqtda e'lon qilinishi tasodifiy emasdi. Shu yili jahonda iqtisodiy inqiroz ro'y berdi, fashizm tahdidi kuchayib, yangi jahon urushi xavfi tug'ildi. R. Oldington, E. Remark, E. Xeminguey o'z romanlarini ro'y berajak dahshatli voqealarni sezib yaratdilar.

1929-yil – Chexoslovakiyada sanoat ishlab chiqarish urushdan oldingi darajadan 20 % ga ortib ketdi. Mehnatkashlarning ahvoli ham yaxshilandi.

1929-yil – Daues rejasi Yung rejasi bilan almashtirildi. Bu rejaga ko'ra, tovon to'lovlari yanada kamaytirildi, uni tamomila to'xtatish shartlari kiritildi, Germaniya ustidan barcha turdagi xorijiy nazorat va kuzatuv bekor qilindi. Urushdagi mag'lubiyat va Versal shartnomasini imzolaganidan o'n yil keyin Germaniya uning barcha cheklashlarini bartaraf etdi va yana mustaqil, ulkan Yevropa davlatiga aylandi.

1929-yil - dehqon O'zbekistonda xo'jaliklarining 80%i kooperatsiyaning turli xillariga jalb etilgan edi. Kooperatsiyaning birorta shakli ham imkoniyatlarini tugal namoyon etmadi.

1929-yil – Germaniya 16 mln tonna po'lat ishlab chiqardi. (Angliya – 10 mln, Fransiya - 10 mln.), mashinalar eksporti bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinni oldi.

1929-yil – Germaniya po'lat va cho'yan ishlab chiqarishda dunyoda 2-o'ringa chiqdi, bu borada Yevropadagi barcha mamlakatlarni ortda qoldirdi.

1929-yil – Germaniyada 120 ming avtomobil sotildi. Mamlakatda ommaviy avtomobillashtirish avj oldi, bu esa vermactning qudratli mexanizatsiyalashgan qo'shilmalarini yaratish imkonini berdi.



1929-yil – Krupp zavodlari qurol-aslaha ishlab chiqarishga o'tdilar. Shveysariya, Avstriya, Gollandiyadagi filiallar og'ir artilleriya, tanklar, pulemyotlar va aviabombalar ishlab chiqardi. Germaniyaning sanoat sohasidagi imkoniyatlari qisqa vaqt ichida dunyodagi eng qudratli armiyani tashkil qilish imkonini berdi.

1929-yil - Xitoy olimlari Pekindan 60 km janubl g'arbda joylashgan Chjaukautyan qishlog'i yaqinidagi g'ordan sinantrop suyak qoldig'larini topishdi.

1929-yil – Mussolini bilan katolik cherkovi o'rtasida imzolangan Lateran bitimlari Vatikan bilan Italiya davlati o'rtasida totuvlik o'rnatdi. Lateran bitimlari papani Vatikanning dunyoviy hukmdori deb e'tirof etdi. Italiya hukumati musodara qilingan yerlar uchun pul to'lashga rozi bo'ldi. Davlat katolitsizmni milliy din deb e'tirof etdi, cherkov mulkini soliqlardan ozod qildi va cherkovga nikoh qonunlarini belgilash huquqini berdi.

1929-yil - O'zbekiston Kompartiyasining IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda milliy masala muhim o'rin egallab keldi.

1929-yil - O'zbekistonda o'ndan ortiq xotin-qizlar pedagogika va meditsina texnikumlari mavjud edi.

1929-yil - O'zbekistonda o'tkazilgan Kompartiyani tozalash natijasida partiya a'zolarining 15,6 %i uning saflaridan chiqarildi.

1929-yil – O'zbekistonda qand lavlagi ekish tugatildi.

1929-yil - O'zbekistonda tayyorlanadigan paxta xom ashyosining deyarli 100%i, qorako'l terisining terisining 82%i, junning 70%i, quruq mevaning 60%i shartnoma asosida topshiriladigan bo'ldi.

1929-yil - Qoraqalpog'istonda 600 ta xo'jalikni birlashtirgan 33 ta kolxozlar bor edi. "Ommaviy" jamoalashtirish boshlandi. Ma'muriy zo'rvonlik choralari bilan faqat kambag'allargina emas, balki o'rtahol dehqonlar ham kolxozlarga jalb etildi.

1929-yil – Rossiyada g'alla tayyorlash hajmlari 1928-yildagiga nisbatan 1,5 baravar oshdi.

1929-yil - *Sh.Badriddinov* Farg'ona okrugi prokurori keyinchalik O'zbekiston SSR oliy sudining prokurori lavazomlarida ishlagan.

1929-yil – *Shtrezman* vafot etdi.

1929-yil – SS ga *G.Gimmler* boshchilik qildi.

1929-yil – *Stalin N.Buxarin* va uning tarafdorlarini o'z g'oyalarning xato ekanini tan olish va tavba qilishga majbur qildi.

1929-yil – *Teodor Drayzer* "Ayollar galereyasi" romanini yozdi.

1929-yil – *Uilyam Folkner* "Sartoris" nomli roman yaratdi.

1929-yil 6-yanvar – qirol *Aleksandr* Skupshinani tarqatib, konstitutsiya amal qilishni to'xtatdi va barcha siyosiy partiyalarni ta'qiqladi. General *P. Jivkovich* boshchiligida tuzilgan hukumat harbiy diktatura tartibotini o'rnatdi.

1929-yil 6-yanvar – Yugoslaviyada harbiy to'ntarish. *P. Jivkovich* harbiy diktaturasining o'rnatilishi.

1929-yil 17-fevral 2-mart - Markazning tazyiqi bilan O'zbekiston Kompartiyaasuyining IV s'yezdidan keyin jazo mexanizmi ishga tushurildi.

1929-yil mart – O'zbekiston SSR Oliy sudining raisi *Sa'dulla Qosimov* lavozimidan bo'shatildi va qamoqqa olindi.



1929-yil aprel – SSSRda birinchi besh yillik reja tasdiqlandi.

1929-yil may – Angliya parlamentga saylovlarda leyboristlar partiyasi ko'pchilik ovoz oldi va partiya rahbari *Ramsey Makdonald* bosh vazir qilib tayinlandi.

1929-yil iyul - yil oxiriga qadar O'zbekistonda 3,4 mln ga yaqin dehqon xo'jaliklari, ya'ni jami dehqon xo'jaliklarining 14 % i kolxozlarga birlashtirildi.

1929-yil 3-oktabr – Buyuk Britaniya bilan SSSR o'rtasida diplomatik munosabatlarning tiklanishi.

1929-yil 3-oktabr – Qirol *Aleksandr* majburiy choralar bilan ayrim xalqlar va viloyatlarning milliy hamda tarixiy xususiyatlarini yo'q qilishiga harakat qildi. Uning dekreti bilan serblar, xorvatlar va slovenlar qirolligi *Yugoslaviya* deb qayta nomlandi.

1929-yil 24-oktabr – AQShda birja tanazzuli. Jahon iqtisodiy inqirozining boshlanishi.

1929-yil noyabr-1932-yil may – Fransiyada 8 ta hukumat almashdi.

1929-yil 5-noyabr - Toshkentda atoqli jadid marifatparvari *Munavvar Qori Abdurashidxonov* boshliq 38 kishi qamoqqa olinadi. Keyinchalik ularning soni 87 kishiga yetdi. Ularga Milliy Ittihad va Milliy istiqol tashkilotlarining a'zosi degan ayb qo'yildi. Tergov jarayoni keyinchalik Moskvaga ko'chirildi.

1929-yil 24-dekabr – AQShda boshlangan jahon iqtisodiy inqirozi aynan shu mamlakat uchun eng sartalafot oqibatlar keltirdi. Inqiroz Nyu-York birjasidagi vahimadan boshlandi. Ushbu inqiroz "Buyuk depressiya" deb nomlandi. Bir haftadan so'ng aksiyalarning umumiy qiymati 4,5 baravar pasaydi, barcha qimmatli qog'ozlar, jumladan, pullar ham shuncha qadrsizlandi. Sanoat ishlab chiqarishi deyarli yarmiga qisqardi. Avtomobillar chiqarish 80%ga, eksport, import, chakana savdo aylanmasi ikki barobarga kamaydi.

1929-yil dekabr – IMP rahbarlari va *Sukarno* hibsga olinib, turli qamoq muddatlariga hukm qilindi. Ular "qonuniy hukumatni majburiy ag'darish"ga intilishda ayblandi.

1929-yil yoz – Rossiyada aslo ko'ngilli xususiyatga ega bo'lmagan qishloq xo'jaligini jamoalashtirish boshlandi.

1929-yil kuz – jahon iqtisodiy inqirozi boshlanadi.

1929-yil kuz - O'zbekistonda Qishloq xo'jalik kooperatsiyasining kolxozlargacha bo'lgan shakllariga barham berildi.

1929-yil oxiri - Munavvar Qori boshchiligidagi o'zbek ziyolilari qamoqqa olindi va qatag'on qilindi.

1929-yilgacha – ingliz iqtisodiyotidagi turg'unlik davom etdi.

1930-1931-yillar – Berlin metallurglari, Rur konchilarining ish tashlashlari, Mansfeld sanoat hududida ish tashlashlar bo'lib o'tdi.

1930-1931-yillar – Hindistonda avj olgan ommaviy milliy-ozodlik harakatini shafqatsiz repressiyalar tufayli bostirishga muvaffaq bo'lindi. Shu bilan birga mustamlakachi hukmdorlar milliy harakatni bo'lib yuborish maqsadida nayranglar ishlata boshlashdi.

1930-1931-yillar - o'zbek ipakchilik ilmiy-tadqiqot institutining mutaxassislari Yaponiyada uzoq muddatli xizmat safarida bo'lib, bu yerda o'z yutuqlari bilan



o'rtoqlashdilar va yapon ipagi ishlab chiqarishni o'rgandilar. O'sha yerdan ular tut daraxtining qalin bargli bo'lib o'sadigan bir necha 10 navlarini va serhosil ipak qurti urug'larini keltirdilar, bu kelgusida yaxshi natijalarni berdi.

1930-1931-yillar – Rossiyada 380 mingdan ortiq oila, ya'ni 2 mln ga yaqin kishi surgun qilindi.

1930-1932-yillar – *G.Bryuning* Germaniya reyxskansleri bo'lgan.

1930-1932-yillar - *Genrix Byurningning* Germaniya reyxskansleri lavozimidagi faoliyati.

1930-1932-yillar - O'zbekistonda o'ziga to'q dehqon xo'jaliklari "quloq" sifatida tugatilib, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish amalga oshirildi.

1930-1933-yillar – Miyonko'lda Farg'ona vodiysi va boshqa viloyatlardan quloq qilib keltirilgan begunoh kishilarning yarmiga yaqini qatl etildi.

1930-1933-yillar – O'zbekistonda tumanlar qaytadan tuzilishi tugatilib, quloq qilingan xo'jaliklar soni 5,5 mingga yetdi.

1930-1934-yillar – 22 ta sohaviy tashkilotlar tuzilib, ular korporatsiyalar deb nomlandi. Har bir korporatsiyaga tadbirkor va ishchilarning tegishli tashkiloti kirardi. Tadbirkor va ishchilarning vakillari hukumat buyrug'iga ko'ra Korporatsiyalar milliy kengashiga kiritiladi.

1930-1935-yillar – Misrda ommaviy ish tashlash, namoyish va norozilik mitinglari yana barrikada janglariga o'sib o'tdi.

1930-1940-yillar 2-yarmi – *Sh.Rashidov* Samarqand viloyati gazetasi so'ngra "Qizil O'zbekiston" gazetasi muxarriri bo'lib ishladi. O'zbekiston yozuvchilari uyushmasi boshqaruvi rasi bo'ldi.

1930-1950-yillar – O'zbekistonda davlatning xalq ustidan zo'rvonlik qilish amaliyoti saqlanib qoldi, uning cho'qqisi stalincha-beriyacha qonli harakatlarga aylanib ketdi.

1930-1950-yillar – O'zbekistonda minglab rahbar xodimlar, ziyolilar, oddiy mehnatkashlar qatag'on qilingan, aholiga zulm o'tkazilgan edi. Muhim davlat ahamiyatiga molik masalalar ham Oliy Sovetda jo'ngina, munozaralarsiz, qo'l ko'tarish yo'li bilan hal qilinardi.

1930-1998-yillar – *Mobutu Sese Seko Kuku Ngbendu Va za Banga* yoki (*Jozef Dezire Mobutu*) hayot faoliyati.

1930-yil – mollarning ko'plab so'yilishi jiddiy muammo bo'lib qoldi. Qoramollar boshi O'zbekiston bo'yicha 60 mingdan ziyodga kamaydi.

1930-yil - "Qizil qalam" adabiy uyushmasi respublikadagi proletariat ruhida ijod qiluvchilarni uytishtirish maqsadida tuzilgan yangi adabiy uyushma - *Ozbekiston proletar yozuvchilar uyushmasi* (UzAPP)ga qo'shildi.

1930-yil - "*Tong nuri*" degan drammatik truppa bazasida davlat musiqali drama teatri yaratildi. *T.Seytmuratov*, *M.Matchonov*, *B.Seitov*, *J.Seitova* uning birinchi aktyorlari bo'ldilar. Keyinchalik boshqa teatrlar, shuningdek, musiqa o'quv yurtlari va konservatoriya tashkil etildi.

1930-yil – Angliya barcha ishchilarning 17 % i uzoq vaqt davomida ishsiz edilar.

1930-yil – Angliya ishsizlik bo'yicha sug'urta to'g'risidagi yangi qonun qabul qilindi, ishsizlik bo'yicha nafaqalar olish muddati 3 oydan 12 oygacha uzaytirildi.



Ishsizlikka qarshi kurash bo'yicha maxsus vazirlik hamda ishsizlar uchun ish qidirish bo'yicha maxsus qo'mita tashkil qilindi.

1930-yil – Angliyada iqtisodiy inqiroz ro'y berdi.

1930-yil – Braziliyadagi davlat to'ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga yirik chorvador boy *Vargas* keldi. U Konstitutsiyani bekor qilib, parlamentni tarqatib yubordi va inqilobiy harakatni yanada shafqatsizlik bilan bostirishga kirishdi. Kasaba uyushmalarining siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishi taqiqlab qo'yildi.

1930-yil – butun Koreyani qamrab olgan mehnatkashlarning kuchli ish tashlashlari ham yaponlarga qarshi shiorlar ostida o'tdi. Seul, Pusan, Vonsan va boshqa shaharlarda talabalarning muntazam qo'shinlar tomonidan bostirilgan chiqishlari bo'lib o'tdi.

1930-yil - davlat banki apparatida “tozalash” o'tkazilib ko'plab rahbar hodimlar qamaldi.

1930-yil – Fransiyada urushlar oralig'idagi eng yuksak sanoat ishlab chiqarishi va savdo hajmi qayd etildi. Fransiya sanoat taraqqiyoti sur'atlari bo'yicha (yiliga o'rtacha 5 %) Angliya va Germaniyani ortda qoldirib, AQShga yaqinlashdi. O'nlab yangi yirik zavodlar, elektr stansiyalari, temir yo'llar qurildi.

1930-yil – g'alla yetishtirish hajmlarining o'sishiga erishilgan bo'lsa-da, Italiya g'alla bilan o'zini o'zi to'liq ta'minlashga muvaffaq bo'la olmadi. Chorvachilik mahsulotlari bilan ham xuddi shu hol yuz berdi.

1930-yil – *Gelmut Kol* dunyoga keldi.

1930-yil – Germaniyada 5 ta dekret chaqirildi.

1930-yil – Germaniyada ishsizlik odamlarni shturmchilarning otryadlariga yozilishiga majbur qildi – ularning saflarida 100 ming a'zo bor edi.

1930-yil – Germaniyada kimyo, po'lat quyish va boshqa sohalarda yirik konserinlar soni 2100 taga yetdi.

1930-yil – *Ion Ilyesku* dunyoga keldi.

1930-yil – milliy respublikalarda chinakam madaniy inqilob ro'y berdi va u bu respublikalarga ilg'or davlatlar darajasiga ko'tarilish imkonini berdi.

1930-yil - O'zbekiston rassomlari Filadelfiyaning rasm galereyalarida o'tkazilgan badiiy ko'rgazmalarida ishtrok etdilar. *O'rol Tansiqboyevning* “*O'zbek kolxozchisining portret*” *K.N.Qoraxonning* “*Qurilish*”, *A.Volkovning* “*Shohimardonda tong*”, *P.Benkovning* “*Xivalik qiz portreti*” asarlari va boshqalar Amerika xalqi va san'atshunoslarini o'ziga jalb etdi.

1930-yil - O'zbekiston xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida xotin-qizlardan yetishib chiqqan mutaxassislar ishlay boshladi.

1930-yil – O'zbekistonda marksizm-leninizm nazariyasidagi sotsializmning kapitalizmga afzalligi to'g'risida, mehnatkashlar farovonligini tubdan yuksaltirishga, hayotning asl mohiyatini o'zgartirishga qodir bo'lgan yangi ijtimoiy tuzum to'g'risida e'lon qilingan fikrlarni bolsheviklar zo'r berib asoslashga harakat qildilar. Biroq ma'muriy-buyruqbozlik, totalitar targ'ibot sharoitlarida bu nazariyaning amaliyot bilan to'qnashuviga bardosh bera olmagan shu yilda ma'lum bo'lib qoldi. Haqiqiy voqelik moddiy boyliklarni bir tekis taqsimlash, ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirish, xususiy mulkni tugatish, bozorga qarab



xo'jalik yuritish mexanizmlaridan voz kechish siyosatining bema'niligini tasdiqlab berdi.

1930-yil – O'zbekistonda o'tkazilgan kredit islohoti natijasida tijorat krediti to'g'ridan-to'g'ri bankdan kredit berish bilan almashtirildi. Bu ish butunlay mamlakatning birdan-bir hisob-kitob markaziga aylanib qolgan Davlat banki ixtiyoriga o'tdi. O'zbekistonda Osiyobank, Tashqi iqtisodiy bank (Áí eø yéoi oi áaí ê) tugatildi. Qishloq xo'jalik banklari qaytadan tuzildi. Shu munosabat bilan respublika davlat bankingning roli yanada kuchaydi. Davlat mexanizimida markazlashtiruvchi asoslarning kuchayib borishi ittifoqdosh respublikalar suverenitetini bo'g'ib qo'ydi.

1930-yil – O'zbekistonda umumiy boshlang'ich ta'lim joriy etildi.

1930-yil - O'zbekistonda xotin-qizlar masalalari, muammolari bilan shug'ullanadigan xotin-qizlar bo'limlari faoliyati to'xtatildi.

1930-yil – O'zbekistonning hunarmandchilik kooperatsiyasining 50 dan ortiq artellarida 5 ming nafardan ko'proq ayollar ishlardi. Ularning ko'pchiligi tikuvchilik ishxonalarida mehnat qilardi, 2 mingga yaqin ayollar artellar bilan shartnoma tuzib, uyda ishlardilar. Xotin-qizlar yirik sanoat korxonalariga ham jalb qilina boshlandi.

1930-yil – O'zbekistonning ipakchilik kooperatsiyasi shirkatlarida 13 mingga yaqin ishlardi.

1930-yil – qatag'on qilingan ayrim davlat va madaniyat arboblari oqlandi. Lekin bu jarayon sovet davrida ziddiyatli kechib, u oxiriga yetkazilmadi.

1930-yil - Italiya hukumati II jahon urushining aybdorlaridan biri.

1930-yil – Angliyada tashqi siyosat ikki asosiy muammo – fashistlar Germaniyasining Yevropadagi tashqi siyosati va mustamlakalardagi milliy-ozodlik harakatlari muammolariga duch keldi. Yevropada Angliya hukmron doiralari o'zlarining asosiy dushmanlari hisoblangan Sovet Ittifoqiga qarshi kurashda va Fransiyaning Yevropadagi ta'sirini zaiflashtirishda natsistlar foydalanishga umid qildilar.

1930-yil - AQShda 15 ming bank ishlab turgan. Favqulodda bank qonuni shartlariga ko'ra faqat eng yirik banklarga davlat zayomlari ochish va olish uchun ruxsat berildi. Oqibatda banklar soni qisqardi, lekin qolganlari haqiqatda faoliyat ko'rsatardi. Ular davlatdan kreditlar olib, omonatchilar bilan hisob-kitob qilishdi. Shu tariqa amerika iqtisodiyotining tabarruk qadamjosi - banklar saqlab qolindi.

1930-yil - ayollar orasidan mashhur olimlar, yozuvchilar, shoirlar, muhandislar, shifokorlar, o'qituvchilar, san'atkorlar yetishib chiqa boshladi. Shu yillarda *Sora Eshonto'rayeva, Halima Nosirova, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyevalarning* iste'dodi yarqirab ko'zga tashlandi.

1930-yil - Chirchiq-Bo'zsuv GESlari kaskadi barpo etildi.

1930-yil - Fransiyaning siyosiy hayotidagi nufuzli liberal yo'nalishning asosini burjua doiralari siyosiy arboblarning liberal islohotlar dasturi tashkil qildi.

1930-yil - g'arbda II jahon urushidan so'ng ustuvor bo'lgan ekzistensializm falsafasi paydo bo'ldi. U ijtimoiy hayotning barcha turlariga kirib bordi va favqulodda mashhur bo'lib ketdiki, bunga asosan fransuz yozuvchisi, faylasufi



va publitsisti *Jan Pol Sartr* sababchi bo'ldi. G'arbning qariyb butun ommaviy ongi ekzistensializm falsafasiga asoslandi.

1930-yil – Lotin Amerikasida qit'asiga harbiy-fashistlar ittifoqi mamlakatlari – Germaniya, Italiya va Yaponiyaning faol ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. II jahon urushiga tayyorgarlik ko'rayotgan bu mamlakatlar Lotin Amerikasidan qishloq xo'jalik mahsulotlari, strategik xom ashyo, neft, rangli metallar, selitra xarid qildi. Germaniya sarmoyasi Argentina, Braziliya, Chili, Paragvay iqtisodiyotiga faol joylashtirilib, bu mamlakatlardagi hukmron sinflarning siyosatiga tobora kuchliroq ta'sir ko'rsata boshladi. Nemis muhojirlarining ko'pligidan foydalanib, gitlerchilar bu yerda fashistik tashkilotlarni ko'paytirdilar, natsizm mafkurasini tarqatishga urindilar. Gitler Germaniyasi rahbariyatining diqqat markazida Janubiy Amerikadagi eng yirik davlatlar hisoblangan Argentina va Braziliya turdi. Argentina va Braziliya fashizm ekspansiyasining Janubiy Amerikadagi tayanchi bo'lishi lozim edi. Gitlerchilarga Italiya fashistlari ham ko'maklashib, Braziliya, Chili va Argentinada o'z tayanch punktlarini barpo etdilar. Biroq, fashistlarning Janubiy Amerikada hokimiyatni egallash borasidagi rejai chippakka chiqdi.

1930-yil - ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va shaxsga sig'inish mafkurasi O'zbekistonning ijodiy xodimlarini uning butun manaviy hayotini iskanjaga oldi. Ijodiyotni partiyaviylik tamoyillariga, mafkuraviy qonun-qoidalarga bo'ysundirish dunyoni badiiy tasvirlashni qo'pol ravishda siyosatlashtirish uchun keng yo'l ochib berdi, dunyoni bilish imkoniyatlarini toraytirib qo'ydi. Partiyaning yangi turmushni madh etishga qilgan da'vati xalq o'tmishiga salbiy munosabat paydo bo'lishiga, badiiy jarayondagi tarixiy izchillikning unutilishiga olib keldi. Madaniyatda murakkab ijtimoiy muammolarni bezab ko'rsatish, xato va kamchiliklar haqida sukut saqlash holatlarini kuchaya boshladi. Hayotiy haqiqatlar buzib ko'rsatildi, san'atning haqiqiy tarbiyaviy kuchi zaiflashdi.

1930-yil - muhim ilmiy aloqalarga barham berila boshladi. Josus deb gumonsirash, burjua fani va madaniyati deb atalmish narsaga nafrat bilan qarash sovet olimlari, jumladan, O'zbekiston olimlarining ham dunyodan ajralib qolishiga olib keldi. Ulardan ba'zilarining xorijiy hamkasblari bilan qilib turgan ilmiy aloqalari va yozishmalari o'sha vaqtlarda ularning asossiz ayblanishiga va qatag'on qilinishiga sabab bo'ldi.

1930-yil - o'zbek ayollarini ularga mos bo'lmagan kasb - traktorchilikka o'qitish avjga chiqdi.

1930-yil - O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayoti sovet tartibotining mustahkamlanishi, shaxsga sig'inishning kuchayib borishi sharoitida o'tdi. Markaz va joylarda partiya byurokratlar apparati tobora kuchayib bordi. Respublikaning butun ijtimoiy-siyosiy hayoti kommunistik partiyaning qattiq nazorati ostida o'tardi.

1930-yil - O'zbekiston ruhoniyalarining asosiy qismi qatag'on qilindi. Masjid va madrasalarning deyarli hammasi faqat diniy emas, madaniyat, ilm, tarbiya, san'at markazlari bo'lganiga qaramay bekitib qo'yildi.

1930-yil – O'zbekistonda ilm-fanning qaror topishi jiddiy yutuqlar qo'lga kiritilgani bilan nishonlandi. Xalq xo'jaligida kattagina ahamiyatga ega bo'lgan



muammolarni nazariy va amaliy yo'l bilanhal etish ustida samarali mehnat qilgan dastlabki milliy oliy mutaxassis, iste'dodli tadqiqotchilar yetishib chiqdi. keyinroq ulardan yirik olimlar avlodi shakllandi: geolog olimlar *H.M.Abdullayev, G'.A.Mavlonov, N.A.Kinisarin*, matematiklardan *T.N.Qori Niyoziy, T.A.Sarimsoqov*, fizik *U.O.Oripov* biologlar *T.Z.Zohidov, D.K.Saidov, A.M.Muzaffarov, A.T.To'laganov*, kimyogarlar *O.S.Sodiqov, A.S.Sattorov, S.Yu.Yunusov, X.U.Usmonov, K.S.Ahmedov*, energetiklar *X.F.Fozilov, G.R.Rahimov*, faylasuf *I.M.Mo'minov*, arxeolog *Ya.G'.G'ulomov*, tarixchi *P.Soliev, M.Saidjonov* singari olimlar yangi ilmiy yo'nalishlar hamda ilmiy maktablarning asoschilari bo'lib qoldildilar

1930-yil – O'zbekistonda ommaviy qatag'onlar va bedodlikning dastlabki kuchli to'liqini bo'lib o'tgandi. Natijada 10 minglab kishilar nobud bo'lishadi. Bu qatag'on partiya, sovet, xo'jalik va harbiy kadrlarga qarshi qaratilgandi.

1930-yil - O'zbekistonda qaror topgan shaxsga sig'inish bir kishining rolini ko'klarga ko'tarish bilan birga, hokimiyatga sig'inish va totalitar tartibotni keltirib chiqardi. Bu Stalin shaxsiga sig'inish bilan bog'liqdir. Shaxsga sig'inish sharoitida hokimiyat oliy darajadagi qadriyatga aylanadi, uni boshqarayotgan shaxs ilohiylashtiriladi. Totalitar jamiyatning asosiy belgisi faqat davlat, uning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotinigina emas, kishilarning shaxsiy hayotini ham nazorat qilishdan iboratdir.

1930-yillar – O'zbekistonda shakllangan paxta yakkahokimligi (monokulturas) urush yillarida ancha o'zgardi. Davr tarazosi bilan paxta dalalari qisqardi, g'alla, sabzavot, poliz ekinlari maydoni kengaydi.

1930-yillar – O'zbekistondagi partiya va hukumatidagi birinchi yordamchilar, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining "2-kotibi" va O'zbekiston Ministrlar Soveti raisining "1-o'rinbosari" lavozimlariga Moskvadan yuborilgan vakillarni tayinlash tartibi o'rnatilgan edi. Bu shaxslar katta huquqqa ega bo'lib, kadrlar taqdirini o'z ixtiyorlaricha hal qila olardilar.

1930-yillar - oddiy kompyuterlar mustaqil holda Germaniya, Amerika Qo'shrna Shtatlari va Buyuk Britaniyada yaratildi. Inglizlar o'z kompyuterlarini II jahon urushi paytida nemis harbiy kodlarini o'qish uchun foydalanishdi.

1930-yillar - Qatag'onlar davri o'zbek milliy madaniyati uchun dahshatli fojiga aylandi. Bu davrda qonunchilik qo'pol ravishda buzildi va inson qadr-qimmatini poymol etildi.

1930-yillar - Qoraqalpog'iston avtonom respublikasining rahbar hodimlari *K.Normammedov, Q.Avezov, I.Aliev, J.Qurbonov* bo'lib, ularning keyinchlik qatag'on qilindi.

1930-yillar - Qoraqalpog'istonda savodsizlik uchun o'quv qo'llanmalarini chop etish ko'paydi.

1930-yillar - Qoraqalpog'istonda umumiy boshlang'ich ta'lim joriy etildi.

1930-yillar - Respublika neft sanoatida ochilgan konlar soni 11 taga (Uchqizil, Xautog1 va boshqalar) yetdi. Ohangaron vohasida Angren qo'ng'ir ko'mir, Sharg'un, Boysuntog' (Surxondaryo) toshko'mir konlari ishga tushdi. Elektr stansiyalari quvvati 482 mln kilovattga yetdi.

1930-yillar - sinfiy kurash va xotin qizlar ozodligi mavzularida *K.Yashinning*



“O’rtoqlar”, “Nomus va muhabbat”, “Tor-mor”, Ziyov Said va N.Safarovlarning “Tarix tilga kirdi”, N.Safarovning “Uyg’onish” pyesalari, K.Yashimning “Gulsara”, “Bo’ron” opera libretolari yaratildi. Xalqning yuksak insonparvarlik va ahloqiy hususiyatlarini, mehmon do’stligi, mehnatsevarligi, vatanparvarligi, shijoatini madh etuvchi xalq shoirlar Fozil shoir, Islom shoir, Ergash Jumanbulbul o’g’li dostonlari keng xalq ommasiga yetkazildi. Jahon klassikasining mashhur asarlari bo’lgan V.Shekspiarning “Gamlet”, A.S.Pushkining “Boris Godunov” nomli tarixiy asarlari, “Yevgeniy Onegin”, “Bog’cha saroy favvorasi” kabi dostonlari, I.S.Turganening “Asia” va “Bahor suvlari” povestlari, N.V.Gogol va A.P.Chexovning hikoya va povestlari F.Dostoevskiy, L.N.Tolstoy romanlari o’zbek tiliiga A.Qodiriy, Cho’lpon, Sanjar Siddiq, A.Qahhor, Usmon Nosir, Hamid Olimjon mahorat bilan tarjima qilindilar. Klassik asarlarning tarjimalari o’zbek xalqining o’z o’zini anglashini rivojlantirishdan va manaviy boyligini kengaytirishda muhim ro’l o’ynaydi.

1930-yillar – sovet davlati madaniy inqilobni amalga oshirdi. Mamlakat industrializatsiyaning ilk yutuqlari va xalq moddiy ahvolidning birmuncha yaxshilanishi bilan bog’liq ulkan ma’naviy yuksalishni boshdan kechirdi. Yuksalish teatr va tasviriy san’atda, musiqiy ijodda aks etdi. San’atning yangi janrlari paydo bo’ldi, ular orasida lirik qo’shiq janri ayniqsa mashhur bo’lib ketdi. M. Isakovskiy, M. Svetlov, V. Lebedev-Kumach, S. Mixalkov singari qo’shiqchi shoirlar o’z xalqining ma’naviy o’sishida katta rol o’ynadilar.

1930-yillar – sovet SSSR tashqi dunyo bilan aloqalarda ko’plab qiyinchiliklarga duch keldi. Ular eng avvalo podsho hukumatining qarzlarini to’lash, xorijiy mulkni ularning eski egalari qaytarish, xalqaro aloqalardagi teng huquqlilik, mustaqillik muammolari bilan bog’liq bo’ldi. Ammo bu qiyinchiliklarga qaramay, sovet diplomatiyasi tashqi munosabatlarni sekin-asta o’zgartirishga erishdi.

1930-yillar - Sovet tuzumida azaldan mavjud bo’lgan ziddiyatlar yana kuchaydi. Hayotning barcha tomonlari ustidan davlat to’la nazorat olib boradigan, partiya apparati har qanday hukm chiqarishga qodir bo’lgan vaziyatda mehnatkashlar hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy sohalarini isloh qilish yoki loaqal yumshatish to’g’risida gap ham bo’lishi mumkin emas edi.

1930-yillar – SSSR sanoati jadal rivojlantirish davriga qadam qo’ydi.

1930-yillar – Vetnamda ozodlik harakati asosiy markazlarining tor-mor qilinishiga erishildi. Lekin bu xalqning milliy-ozodlik uchun kurashga bo’lgan irodasini sindira olmadi.

1930-yillar - Xalq xo’jaligida asosiy e’tibor sanoat mahsulotlarini oshirishga qaratilib, bu kanochka tizimining joriy etilishi va inflyatsiyaning kuchayishiga olib keldi. Iste’mol mollarini ishlab chiqaruvchi yengil sanoatning hissasi dunyo miqyosida eng oz bo’lib qoldi. Yengil sanoatni rivojlantirishga faqat 1% sarmoya jalb qilindi. Mamlakatda keng ehtiyoj mollari - kiyim-kechak, mebel, uy jihozlari, poyafzalning doimiy taqchilligi kuzatildi.

1930-yillar – Yevropadagi boshqa davlatlardagi kabi Chexoslovakiyada ham fashistik harakat faollashdi.

1930-yillar - yirik sanoat kompaniyalari egalari orasida 516 nafar yirik yer egalari



ham bor edi. Ular bank operatsiyalari, yer olib sotish bilan shug'ullanib, moliyaviy oligarxiyaga qo'shildilar. Monopolistik guruhlar va yirik yer egalari Italiyadagi fashistlar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy tayanchi bo'ldilar.

1930-yillar - yosh respublika uchun zarur mutaxassisliklarni (to'qimachilik va teri ishlab chiqarish, quriliish ishlab chiqarishi, agronom va boshqa mutahassisliklarni) o'rganinsh uchun chetga Germaniyaga o'qishga yuborish qisman davom etdi. Bu ta'lim dasturlarini mablag' bilan ta'minlashda *Abdulhamid Cho'lpon*, *Munavvar Qori Abdurashidxonov* va boshqa adiblar katta rol o'ynadilar. Ular adabiy-badiiy kechalar o'tkazar va tushgan pullarni Germaniyada o'qiydigan o'zbek talabalariga yuborar edilar. Bu muhim va taraqqiyparvar tashabbus, afsuski, keyinchalik rivojlanmay qoldi.

1930-yillar – Qoraqalpog'iston Avtonom viloyati RSFSR tarkibiga kirdi.

1930-yillar - Qoraqalpog'istonning kolxoz qurilishida yer ishlash shirkatlari 75%ni, artellar 25%ni tashkil etdi.

1930-yillar – Rossiyada g'alla tayyorlash hajmlari 2 baravar oshirildi, qo'shimcha ravishda tortib olingan g'allaning asosiy qismi eksport qilindi. G'alla belgilangan miqdorda tayyorlandi va olib chiqib ketildi, pirovard natijada aynan g'allaning eksport qilinishi sanoatlashtirishni valyuta bilan ta'minladi.

1930-yillar – Sotsial-demokratlar va NMP o'rtasida ixtiloflar yuzaga kelib, koalitsiyaning barbod bo'lishi va hukumatning iste'foga chiqishiga sabab bo'ldi.

1930-yillar - Sovet rejimi o'z xalqiga nisbatan ommaviy terror (qatliom) qo'lladi.

1930-yil – *Teodor Drayzeming “Amerika fojiasi”* romani ekranlashtirildi. U butun dunyoni aylanib chiqdi. Butun dunyoda uni “haqiqiy Amerika fojiasi” deb nomlashdi. Amerika reaksiyon kuchlarining xurujlari, qo'rqitish, do'q-po'pisa va matbuotdagi ta'qiblarga qaramay, AQSh jamoatchiligi *Teodor Drayzeming* Amerika madaniyatini yuksaltirishga qo'shgan hissasini yuksak baholadi.

1930-yil – *Yuzef Pilsudskiy* Polsha Bosh vaziri bo'ldi.

1930-yil yanvar – SSSRda “yalpi kollektivlashtirish” va “quloqlarni sinf sifatida tugatish” boshlandi.

1930-yil 25-yanvar – Hindistonda mustaqillik kunining e'lon qilinishi.

1930-yil 28-yanvar – general *Primo de Rivera* iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Bu harbiy-monarxistik diktaturaning xotimasi bo'ldi. Generalning iste'fosi tug'dirgan siyosiy inqiroz mamlakat sanoati, qishloq xo'jaligi, savdosi va moliyasini izdan chiqargan umumjahon iqtisodiy inqiroziga to'g'ri keldi. Ishsizlik jami ishchilarning 40%dan ko'prog'ini qamrab oldi. Inqiroz ishchilar, dehqonlar, o'rta tabalaqal va intelligensiya chiqishlarining yangi to'lqiniga turki berdi. Barcha chiqishlarda bir narsa - demokratik respublika o'rnatilishini talab qilindi.

1930-yil fevral - quloq xo'jaliklarini tugatish kompaniyasi O'zbekistonda avj oldi. Yakka tartibda qishloq xo'jalik solig'i solinadigan o'ziga to'q dehqon xo'jaliklarining ro'yxati quloq xo'jaliklarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qildi. Bu ro'yxatlar moliya organlari tomonidan tuzilar va o'rta hol dehqonlar hatto kambag'allar hisobiga kengaytirib borilardi. Chunonchi, Mirzacho'l tumani (Toshkent viloyati)da 137 ta quioq xo'jaligini tugatish ko'zda tutilgan edi, lekin ro'yxatlar tekshirib chiqilganidan keyin 75 ta xo'jalik tugatildi. Ko'pgina tumanlarda quloq



xo'jaliklarinigina emas, balki o'rtahol va hatto kambag'al xo'jaliklar ham musodara qilindi.

1930-yil 6-fevral – O'zbekiston qishloq xo'jaligi artelining birinchi Namunaviy Nizomi qabul qilindi. Nizomda mulkni umumiyLashtirish mezonlari, kolxozlarning bo'linmas fondlari to'g'risida tushuncha berilmagan edi. Natijada turar joy binolari, qo'y-echki, qoramollar ham umumiyLashtirildi. Ana shunday noqonuniy hollar Qo'qon, Toshkent, Samarqand okruglarida qayd qilindi.

1930-yil 17-fevral - O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti "*KollektivLashtirish va quloq ho'jaligini tugatish to'g'risida*" qaror qabul qildi. Respublika yalpi jamoalashtiriladigan 17 tumanga bo'lindi. Mahalliy rahbarlar raqamlar orasidan quvib, qonunni buzishgacha bordilar. Jamoalashtirish mutasaddilari dehqonlarning majlislarida kolxozga kirmaganlar suvdan mahrum etiladi, sanoat mollari bilan ta'minlanmaydi, katta soliq solinadi, surgun qilinadi, deb qo'rqitishgacha borganlar. Natijada ko'pchilik tumanlarda kolxozLashtirish bir necha hafta ichida tugallandi.

1930-yil 25-fevral - dehqonlar norozilik namoyishlari Farg'ona vodiysining bir qancha tumanlarida bo'lib o'tdi. So'ngra Andijon, Buxoro, Toshkent, Xorazm va Samarqand okruglarining ba'zi tumanlariga yoyildi.

1930-yil fevral oxiri – Rossiya kolxozlarga birlashtirilgan dehqon xo'jaliklari soni 14 mln ya'ni umumiy sonining 60 % ga yetdi.

1930-yil mart - kollektivLashtirish foizi O'zbekiston bo'yicha 47%dan ko'proqni tashkil etdi.

1930-yil 12-mart – *Mahatma Gandi* bir guruh izdoshlari bilan Arabiston dengizi sohiliga yo'l oldi va bu yerda ingliz tuz kompaniyasiga bo'ysunmaslik belgisi sifatida tuz pishira boshladi. *Gandi* sheriklari bilan birga qamoqqa olindi, Kongressning boshqa rahbarlari, shu jumladan, *J. Neru* ham hibsga olindi. Umuman 60 mingdan ziyod kishi qamaldi. Milliy kongress qonundan tashqari deb e'lon qilindi. Javob sifatida butun Hindistonda fuqarolar bo'ysunmasligi harakati boshlandi, shimoll g'arbiy chegara provinsiyada qo'zg'olonlar, *Abdul G'afforxon* boshchiligidagi pushtu qabilalari bilan qurolli to'qnashuvlar yuz berdi. Ingliz hukumati ularga qarshi aviatsiyani qo'llashga majbur bo'ldi.

1930-yil 26-mart 22-iyun - *S.Qosimov* va uning 6 ta tarafdori ustidan SSSR oliy sudi sayyor sessiyasi Samarqand shahrida sud jarayonini o'tkazdi. *S.Qosimov* bilan birgalikda O'zbekiston SSR Oliy sudining sobiq prokurori *Badriddin Sharipov*, eski Toshkentning sobiq sudyasi *Mirsoat Mirzokirov*, Mirzacho'l tumani sobiq sudyasi *Ibrohim Xo'jayev*, advokatlar kollegiyasining sobiq a'zosi *Spiridonov*, yirik savdogarlar *Nasritdin Alimov* va *Samig'jonov* - jami 7 kishi aybdor deb topildi. Markazdan kelgan jazo organlari (sud raisi - *Vasilyev-Yujin* va prokuror - *R.Katanyan*) ishga ataylab siyosiy tus berishdi. *S.Qosimov* va uning tarafdorlari "bosmachilar"ni qo'llab-quvvatlashda, "aksilingilobchi millatchi tashkilotlar" a'zolari bilan aloqa bog'laganlikda, islom dinini himoya qilishda ayblanib, ularga "qosimovchilik" yorlig'i bosildi. Holbuki, *S.Qosimov* va *B.Sharipov* o'z xizmat vazifalarini bajarish vaqtida tub millat manfaatlarini imkoniyat doirasida himoya qilishgan edi. *S.Qosimov* tergov va sud jarayonida SSSR Oliy sudi O'zbekistonning



suveren huquqi va milliy manfaatlarini poymol qilayotganligini ochib tashlashdan cho'chimadi.

1930-yil 27-mart – *G.Myuller* hukumati iste'foga chiqdi.

1930-yil mart oxiri – monarxistlarning tarqoq guruhlari o'ng liberal-respublikachilar partiyasiga birlashdi.

1930-yil mart-aprel – Angliya ishsizlar va ochlarning ommaviy yurishi bo'lib o'tdi va u Londonda Gayd-parkdagi ulkan namoyish bilan yakunlandi. Angliyada vaziyat kundand-kunga keskinlashib borardi. Ishlab chiqarishda ommaviy ish tashlashlar boshlandi, tadbirkorlar bunga javoban ommaviy ishdan bo'shatildilar javob berdilar. Faqat to'qimachilik sanoatida 250 ming ishchi, temir yo'llar, junni qayta ishlash sanoatining yuz minglab ishchilari ishdan bo'shatildi.

1930-yil aprel – Hindiston milliy kongressi hind xalqini fuqaroviy bo'ysunmaslikka chaqirdi. Ammo xalq harakati qonun chegarasidan chetga chiqib, kuchli ommaviy namoyishlarga aylandi. Politsiya va qo'shinlar bilan to'qnashuvlar bo'lib, ularda yuzlab namoyishchilar o'ldirildi. Mirutda kasaba uyushmalari harakati faollarining ishi bo'yicha jarayon o'tkazildi. Ularga juda og'ir jazolar belgilandi – ayrimlar umrbd katorga ishlariga, boshqalar esa 12 yil qamoq jazosiga hukm qilindilar.

1930-yil 1-aprel – Prezident *Gindenburg* reyxskansler qilib Katolik markaz partiyasi vakili *Genrix Bryuningni* tayinladi.

1930-yil may - kollektivlashtirish foizi O'zbekiston bo'yicha 29%gacha kamaydi.

1930-yil 1-may – Turkiston-Sibir temir yo'lining (Turksib)ochilishi.

1930-yil 25-may – SSSRda umumiy boshlang'ich ta'limning joriy etilishi.

1930-yil 30-may - “*Ī ġaaāa Āoñò oēa*” gazetasida *R.Inog'omovning* “ochiq hatii” uyushtirilib, u tavba-tazarru qildiriladi.

1930-iyun 22-iyun - *S.Qosimov B.Shariqov, N.Alimov, Spiridonov* otib o'ldirishgan, qolganlari esa 10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilindi. Ularning butun mol-mulki musodara etilib davlat hisobiga o'tkazildi.

1930-yil avgust – Ispaniyada ommaviy ish tashlash harakati avj oldi va dehqonlarning chiqishlari boshlanib ketdi. Bu respublikachi partiyalarni yanada faol harakatlarga undadi. Bu respublikachi partiyalarni yanada faol harakatlarga undadi. Barcha respublikachi partiyalar keyinroq sotsialistik partiya ham qo'shilgan inqilobiy qo'mita tuzishdi va yashirin muvaqqat hukumat tashkil etishdi. Ularning maqsadi diktaturani majburan ag'darish edi.

1930-yil avgust - O'zbekiston xalq maorifi komissarligidagi bir guruh hodimlar hibsga olinadi. Ular ichida maorif komissari *Mannon Ramziy* (Abdullaev), uning o'rinbosari *Botu - Mahmud Xodiev, Oltoy - Boys Qoriev, Nosir Saidiy* bor edi. Ular maorif tizimini “millatchilik og'usi” bilan zaharlaganlikda ayblanib, bu holat “maorif frontida qosimovchilikning namoyon bo'lishi deb qoralandi”. *Botu* va uning tarafdorlari 10 yil qamoqqa hukm qilinadi.

1930-yil sentabr – “*Fashizmga qarshi kurash ittifoqi*” tuzildi, *Gitleming* namoyishlariga ishchilarning “*Qizil jangchilar ittifoqi*” o'z-o'zini himoya qilish otryadlari faol qarshilik ko'rsatdilar.

1930-yil bahor – Angliyani yana sinfiy kurash to'foni larzaga soldi. Butun mamlakat ishsizlari unda ishtirok etdilar.



1930-yil yoz – Peshavor, Chittagong, Bombay, Kalkutta, Madras shaharlaridagi g'alayonlar munosabati bilan harbiy holat e'lon qilindi.

1930-yil kuz – O'zbekistonda dehqonlarga yangidan tazyiq o'tkazish to'liqini boshlandi.

1930-yil boshi - Markaziy Rossiya, Volga bo'ylari va Qozog'istonda ocharchilik dahshatli bo'ldi.

1930-yil boshi - O'zbekiston bilan Yaponiya ipakchi olimlari o'rtasida samarali ilmiy aloqalar bog'landi.

1930-yil boshi – O'zbekiston Markazning asosiy paxta bazasiga aylanib qoldi. Shu tariqa respublikada paxta yakka hokimligi joriy etildi. O'zbek paxtasini ishlab chiqarish ko'paygani tufayli sobiq Ittifoq paxta mustaqilligiga erishdi.

1930-yil boshi – O'zbekistonda ayollar mehnatga munosabatlarini o'zgardir. Sanoatlashtirishni jadallashtirish, sotsialistik muvaffaqiyatlar ortidan quvish ayollar masalasida ham o'z asoratini qoldirdi. Ayollar erkaklar bilan teng degan huquq noto'g'ri talqin qilinib, xotin-qizlar mehnatda ham erkaklar bilan teng huquqli bo'lishi kerak, deb talab qilindi. Hattoki partiyaning qurultoylarida “Hozirgi paytda xotin-qizlar shu qadar o'sib ketganki, ularning o'ziga xos jihatlari haqida gapirish o'rinsiz”, deb ko'rsatildi.

1930-yil boshi - Ohangoron, Chirchiq daryolari vodiylarida, Qurama tog'larida oltin konlari topildi.

1930-yil boshi - Samarqand viloyatidagi Miyonko'l oroliga ichki ishlar organlari xodimlari bir necha ming quloq qilinganlarni keltirib joylashtirdi.

1930-yil boshi – uyushtirilgan ishsizlarning AQSh bo'ylab och yurishlarida millionlab kishilar ishtirok etdilar. Ular butun mamlakat orqali Vashingtonga non va ish talab qilib bordilar. Manxettenning aqlni shoshiruvchi osmono'par binolari yonida dunyo boshqa Amerikani – yerto'lalarda yashovchi millionlab kishilar, muttasil yerdan ayrilishdan qo'rqib yashovchi savodsiz fermerlar Amerikasini ko'rdi. Minglab xonavayron bo'lgan fermer va ijarachilar qadrdon yerlarini tashlab, Kaliforniyadan boshpana va ish qidirgan ko'chmanchilarning ulkan oqimiga kelib qo'shildilar.

1930-yil boshi – Yaponiyada ichki bozorga xizmat ko'rsatuvchi qator tarmoqlarda ham sanoat rekonstruksiyasi tugallanmagan va ular oddiy asbob-uskunalarda ishlashardi.

1930-yil o'rtasi – Angliya investitsiyalarning asosiy oqimi harbiy sanoat, aviatsiya va avtomobilsozlikka yo'naltirildi.

1930-yil o'rtasi – AQShdagi hukmron doiralarning diqqat markazini Yevropa va Uzoq Sharq siyosati muammolari egalladi.

1930-yil o'rtasi - Italiyaning butun aholisi korporativ tizimga jalb qilindi. Korporativ tizim qishloq xo'jaligini ham qamrab oldi.

1930-yillar o'rtasi - Qoraqalpog'iston iqtisodiyotida sotsialistik, to'g'rirog'i, davlatga qarashli mulkchilik shakllarining hukmronligi uzil-kesil qaror topdi. Markazning rejalariga muvofiq, avtomon respublikaga qishloq xo'jalik mahsuloti va boshqa turdagi xom ashyolar hamda yarim fabrikatlar yetkazib beruvchi rol topshirildi. Sanoatning yetakchi sohasi paxta tozalash sanoati bo'lib qoldi. Uning



asosiy fondlari deyarli uch baravar ko'paydi. Urge va Mo'ynoqdagi baliq zavodlari o'z quvvatlarini oshirib bordi. Mahalliy sanoat va hunarmandchilik kooperatsiyalarida yangi sohalar paydo bo'ldi (qo'y terisini ishlash, kigiz solish va gilam to'qish, idish-tovoq, madaniy mollar ishlab chiqarish va h.k.).

1930-yillar o'rtasi - Totalitar rejimda ma'uriy buyruqbozlik va avtoritar boshqaruvning kuchayishi natijasida qonunbuzarlik hodisalari oddiy holga aylandi. O'zbekistonda ommaviy qatog'onlar avj oldi. Yirik davlat va jamoat arboblari, partiya va xo'jalik rahbarlari, ziyolilar, ruhoniylar va harbiylar bilan birgalikda ishchilar va kolxozchilar ham ko'plab ravishda qatag'on qilindi.

1930-yillar oxiri 1940-yil boshi - O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish 1924-1928-yillardagiga qaraganda 10-15%ga kamaydi.

1930-yil oxiri - AQSh yirik kompaniyalari Angliyada sarmoya joylashtirish bo'yicha hal qiluvchi mavqeyini qo'lga kiritdilar. AQSh elektr stansiyalari, temir yo'llar, pochta, telegraf, neft va tog'-kon sanoatini o'z nazorati ostiga oldi.

1930-yil oxiri - hukumat qarori bilan respublika poytaxti Samarqanddan Toshkentga ko'chirildi.

1930-yil oxiri - O'zbekistonda 42 ta ayollar klublari faoliyat ko'rsatdi.

1930-yil oxiri - O'zbekistonda umumiy 7 yillik ta'limni amalga oshirishga kirishildi.

1930-yil oxiri - Albaniyaning fashistik Italiya tomonidan bosib olinishi xavfi keskin kuchaydi. *Mussolini* hukumati Albaniyaning hatto nomiga mustaqilligini ham tugatishga qaror qildi.

1930-yil oxiri - Bolgariya tashqi siyosatda fashistik Germaniya va uning ittifoqchilari bilan tezda yaqinlashdi. German kapitali mamlakat iqtisodiyotiga faol kiritila boshlandi.

1930-yil oxiri - II jahon urushi boshlanishi arafasida respublikada 1445 ta yirik va o'rta sanoat korxonalari mavjud edi. Ularda 142 ming kishi mehnat qilardi.

1930-yil oxiri - O'zbekistonda 44 ming talaba o'qiydigan 30 ta oliy o'quv yurtlari va 98 ta texnikumlar ishlab turdi.

1930-yil oxiri - O'zbekistonda mustabid sovet rejimi o'z hukmronligining cho'qqisiga ko'tarildi. Kommunistlar demokratiya va shaxs daxlsizligi prinsiplarini oyoqosti qilib, har qanday o'zgacha fikr yuritishni zo'ravonlik bilan yanchishga erishdi. Totalitar rejim nafaqat o'ziga qarshi chiqqan minglab millat fidoyilarini, balki gunohsiz 10 minglab odamlarni ham terror (qatli om) qildi. Sovet rejimi o'zining repressiv (qatag'onlik) siyosatini keyingi yillarda ham uzluksiz davom ettirib, o'zbek xalqi boshiga mislsiz azob-uqubatlarni soldi.

1930-yil oxiri - Germaniya va Italiya hukumatlari tabiiy xom ashyo o'rnini bosishga qodir sun'iy ipak ishlab chiqarish imkonini beruvchi kimyo sanoatini rivojlantirishga majbur bo'ldilar.

1930-yil 2-yarmi - O'zbekistonning Ittifoq xalqaro aloqalari doirasidagi madaniy va ilmiy aloqalari cheklana boshladi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi respublikalarning qanday bo'lmasin biror tarzdagi mustaqilligi bilan, ularning xalqaro miqyosdagi suveren huquqlari bilan kelisha olmas edi.

1931-1932-yillar - Angliya parlamenti olibiriluvchi barcha turdagi mahsulotlarga narxining kamida 10 % i miqdorida bojxona solig'i belgilandi. Angliya tarixda



birinchi marta erkin savdo tamoyillariga qarshi borib, milliy iqtisodiyotni himoya qilish (*proteksionizm*) yo'lini tutdi.

1931-1932-yillar – O'zbekistonda ijtimoiy iste'mol jamg'armalarining ishchi va xizmatchilar umumiy daromadlaridagi salmog'i deyarli 40%ni tashkil qildi, ham keksalik, ham nogironlik pensiyalarining o'rtacha miqdori 33 so'mdan kamroqni tashkil qildi. Jamiyatning ko'pgina tabaqalari, jumladan, dehqonlar, diniy muassasa va tashkilotlarning xizmatchilari, yakka tar-tibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullangan shaxslar pensiya va nafaqa olish huquqidan amalda foydalana olmasdilar.

1931-1932-yillar – O'zbekistonda kolxozchilar mehnatini oqilona tashkil etish, hisobga olish va unga haq to'lash usullari hali yo'q edi. Shu kundan boshlab mehnatga ishbay asosda haq to'lanadigan doimiy brigadalar tashkil etila boshlandi.

1931-1932-yillar – *P.Dumer* hukumati.

1931-1933-yillar – Yapon bosqinchilariga qarshi kurash kuchayishda davom etdi. O'z bazalarini tog'larda vujudga keltirgan partizan bo'linmalari tuzildi.

1931-1935-yillar – *Ramsey Makdonald* koalitsion hukumatni boshqargan.

1931-1945-yillar – Yaponiyaning Xitoyga qarshi urushi.

1931-2007-yillar – *B.N. Yelsinning* hayot faoliyati.

1931-yil – *V.E.Orlanda* fashist hukumatiga qasamyod qilishdan bosh tortgan.

1931-yil - "Tashselmash" zavodida 345 ayol, Toshkent temir yo'lining "Birinchi may" ustaxonasida 80 nafar ayol ishlagan. Ayollar jismoniy kuch talab qiladigan og'ir sanoat korxonalarida chilangar, slesar, haydovchi bo'lib ishladilar, qurilishda mehnat qiladigan bo'ldilar.

1931-yil – Angliya oldidagi buyuk xizmatlari uchun *E.Rezerford* lord Nelson unvoni bilan taqdirlandilar.

1931-yil – Angliya parlamenti uning biron-bir qonuni dominionlarga ularning rasmiy roziligisiz tatbiq etilmasligini ko'zda tutuvchi hujjatni qabul qildi. Dominionlar qabul qilgan qarorlar endi Angliya parlamenti tomonidan tasdiqlanmasdi. Angliya parlamentining bu hujjati *Vestminster nizomi* nomini oldi. U Angliya parlamentining mustamlaka va dominionlarda qabul qilingan istalgan qonunni bekor qilish huquqiga barham berdi. Vestminster nizomi dominionlarning mustaqilligini jilovlovchi so'nggi huquqiy cheklovlarini yo'q qildi (Kanada, Yangi Zelandiya, Avstraliya). Shu bilan birga, Britaniya hukumati mustamlaka va dominionlarning Angliyaga qaramligini mustahkamlashga urindi. Ular Angliyaning sanoat ustaxonasi bo'lib qolishlari lozim edi.

1931-yil – Angliyada ishsizlik darajasi 23 % ga yetdi.

1931-yil – *Bernard Shou* 75 yoshida burjua jamiyati va parlamentarizmiga qarshi o'tkir siyosiy parlament sanalgan "*Olma ortilgan arava*" pyesasini e'lon qildi. Keyingi yillarda u jahon adabiyotining mumtoz namunalari qatoridan o'rin olgan yana bir qancha pyesalar yozdi.

1931-yil – Germaniya va SSSR davlatlari o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari eng cho'qqisiga ko'ratildi. Jahonda iqtisodiy inqiroz avj olgan davrda sovet korxonalari Germaniyaga yuz minglab ishchi o'rinlarini saqlab qolish va o'nlab korxonalarni bankrot bo'lishidan asrashga ko'maklashdi.



1931-yil – Germaniyada 44 ta dekret chaqirildi.

1931-yil – Londonda “*doira stoli*” konferensiyasi ochildi va bunda Angliya vakillari kastalar va diniy guruhlar (hindparastlar va musulmonlar) o'rtasiga nifoq solishga urinishdi. “*Doira stoli*” ishining to'liq befoyda ekanligiga ishonch hosil qilgan *Gandi* Hindistonga qaytdi.

1931-yil – *Mixail Sergeevich Gorbachev* dunyoga keldi.

1931-yil – Nyu-Yorkda ikki mingdan ziyod odam ochlikdan halok bo'ldi. Ishlab turgan ishchilarning ahvoli ham aytarli yaxshi emas edi, ish haqi 40 % ga kamaytirilgan, ko'pchilik to'liqsiz ish haftasida mehnat qilardi.

1931-yil – O'zbekistonda 50% xotin-qizlar kolxozlarga a'zo bo'lib kirgan edilar.

1931-yil - O'zSSR oliy sudining prokurori *Sh. Badriddinov* va uning tarafdorlari qamoqqa olindi. *Sh. Badriddinov*ga Milliy Ittihad tashkiloti a'zolari va bosmachilar bilan aloqa bog'lagan, *Munavvar Qori S. Qosimov*ning yaqin do'sti va hamfikri bo'lgan degan ayblar qo'yildi.

1931-yil – po'lat prokati ishlab chiqaruvchi barcha korxonalar majburiy ravishda konsorsiumga birlashtirildi.

1931-yil – *Primo de Rivera* diktaturasi o'rniga hokimiyat tepasiga kelgan yangi respublikachilar hukumati *Federiko Garsia Lorkaga* o'zining sayyor teatr guruhini tashkil qilishga ruxsat berdi va shoir u bilan mamlakat bo'ylab sayohatga otlandi.

1931-yil – qirol Al'fonso XIIIning hukumati ag'dariladi.

1931-yil - Qoraqalpog'istonning dastlabki ilmiy markazi - ilmiy sohadagi muassasalarni birlashtirgan Qoraqalpoq keng tarmoqli ilmiy-tadqiqot instituti ish boshladi. Qoraqalpog' olimlari - *J. Uruboyev, K. Alimbetov, T. Bekimbetov, N. davkarayev, B. Yergaliyev, Ya. Do'sumov* va boshqalarning oyoqqa turish davri xuddi shu yillarga to'g'ri keladi.

1931-yil – Rossiyada g'allaning eksport qilinishi natijasida o'rnatilgan jami uskunalarning 80-85% i G'arbdan sotib olib keltirildi. Biroq sanoatlashtirish juda qimmatga tushdi: har yili “ortiqcha” 10 mln. tonna g'allaning tortib olinishi tez orada dahshatli ocharchilikni keltirib chiqardi, uning natijasida 1932-1933-yillarda minglab odamlar halok bo'ldilar.

1931-yil – saylovlarda Xalq blokiga birlashgan muxolifatchi partiyalar ishonchli g'alabaga erishdilar. Mamlakatda keng ishchilar harakati boshlandi. Ish tashlashlar oqimi o'tkazildi, ularning ba'zilari siyosiy mazmun kasb etdi. Harakatga askarlar ham jalb qilindi.

1931-yil – Shimoll Sharqiy Xitoy (Manjuriya) bosib olingach, Yaponiya hukumati manjur-koreys majmuini, ya'ni Uzoq Sharqdagi bosqinchilik harakatlari uchun iqtisodiy va harbiy platsdarni yaratishga kirishdi. Shu munosabat bilan Koreya iqtisodiyotiga kapital mablag'lar sarfi keskin ko'paydi. Mamlakatda yirik metallurgiya, kimyo korxonalari va elektr stansiyalari qurila boshlandi. Bu korxonalar urush yillarida kerakli ashyolar va buyumlarning uchdan bir qismini Yaponiyaga yetkazib berdi.

1931-yil – *Teodor Drayzer* “*Tong*” nomli romanini yozdi.

1931-yil - Toshkent qishloq ho'jaligi mashinasozligi zavodi bunyod etildi.



1931-yil – Vengriyada Umumvenger kredit bankini inqirozga uchratgan keskin moliyaviy inqiroz boshlandi. Barcha qolgan banklar va birjalar yopildi.

1931-yil bahor – Angliyada mashinasozlik sanoati, qishloq xo'jaligi ishchilari, dokerlar va sanoatning boshqa qator sohalari ishchilarning maoshlarini pasaytirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Angliya tadbirkorlariga bu oz tuyuldi va ular hukumatdan ijtimoiy ehtiyojlar, ya'ni ta'lim, sog'liqni saqlash, nafaqalar uchun xarajatlarni jiddiy qisqartirishni talab qildilar.

1931-yil bahor - O'zbekistonda yalpi jamoalashtiriladigan tumanlar qaytadan tuzildi.

1931-yil yoz – O'zbekistonda dehqon xo'jaliklarining 56,7%i birlashtirildi.

1931-yil yanvar 1932-yil fevral – Fransiya bosh vaziri *P. Laval* bo'lgan.

1931-yil 12-aprel – Ispaniyada respublikachilarning monarxistlar bilan 1-to'qnashuvi mahalliy munitsipal saylovlarda yuz berdi. Saylovchilarning aksariyati o'z ovozlarni respublikachilarga berishdi. Saylovlar yakuni haqidagi xabar siyosiy kurashning rivojlanishiga turtki berdi. Mamlakatda burjua-demokratik inqilobi boshlandi. Barcha shaharlarda namoyishlar bo'lib o'tdi. Demokratlar davlat muassasalarini egallashib, siyosiy mahbuslarni ozod qilishardi. Qator shaharlarning munitsipalitetlari respublika e'lon qilishdi.

1931-yil 14-aprel – Ispaniyada monarxiyaning ag'darilishi. Respublikaning e'lon qilinishi.

1931-yil 14-aprel – qirol Alfonso XIII taxtdan vos kechdi.

1931-yil 25-aprel - Moskvada bo'lgan sud majlisida *Munavvar Qori, Salimxon Tillaxonov, G'ulom Ikromov, Mirxali Karimov, Najmitdin Sherahmedov, Tolibjon Musaboyev, Asadulla Xo'jaxonov, Usmonxo'ja Toxtaxo'jaev, Ismoiljon Ibrohimov, Tangriqulhoji Mahsudov, Zayniddinqori Nasriddinov, Mulla G'aybullada Damammedov, Abdullabek Musabekov, Said Ahroriy* kabi 15 millat fidoiysi - "Milliy Istiqlol" fidoiysi otishga, qolgan 72 kishi qamoqqa hukm qilindi. Lekin qamoqdan deyarli hech kim qaytib kelmagan.

1931-yil iyun – Ta'sis Majlisiga saylovlar bo'lib o'tdi. Aksariyat o'rinlarni respublikachi partiyalar va sotsialistlar egallashdi. Saylovlardan so'ng sotsialistlar va so'1 respublikachi partiyalar ishtirokida koalitsion hukumat tuzildi.

1931-yil avgust – *R.Makdonald* hukumati iste'foga chiqdi, biroq ertasi kuniyoq qirol *Georg V* unga hamkorlik asosida konservatorlar ishtirokida yangi hukumat tashkil qilish vazifasini topshirdi.

1931-yil sentabr – qirol *Aleksandr* yangi tartibotga qonuniylik baxsh etish uchun Yugoslaviyani konstitutsaviy mamlakat deb e'lon qildi.

1931-yil sentabr – Yaponiya Xitoyga qarshi hujumini boshlab, 3 oy mobaynida mamlakatning shimoll sharqiy provinsiyalarini bosib oldi va 1 mln. kv. km. dan ziyod maydonga ega qo'g'irchoq davlat tuzdi.

1931-yil sentabr – Yaponiya Xitoyning shimoll sharqiy provinsiyalarini bosib olib, bu yerda *Manchjou-Go* qo'g'irchoq davlatini barpo etdi.

1931-yil 8-sentabr – yapon qo'shinlarining manjuriyaga bostirib kirishi.

1931-yil oktabr 1935-yil noyabr – Angliyada Milliy koalitsiya hukumatining hukmronligi.



1931-yil oktabr – Angliyada saylovlar bo'lib o'tdi. Natsional-leyboristlar, konservatorlar va liberalardan saylovoldi “milliy koalitsiyasi” tuzilib, u ko'pchilik ovoz bilan g'alaba qozondi U parlamentda 497 o'rin oldi, bu unga 330 mandatga ustunlikni ta'minladi va har qanday qonun va qarorlarining o'tishini tola kafolatladi. Hokimiyat to'liq konservatorlar qo'lida edi, biroq bosh vazir etib yana leyboristlar partiyasining sobiq rahbari *R. Makdonald* tayinlandi.

1931-yil 3-oktabr – Yugoslaviyada yangi konstitutsiya kuchga kirdi. Yangi konstitutsiya bo'yicha qirol davlat byudjetini belgilar, qonunlar chiqarar, Konstitutsiyani o'zgartinshi mumkin edi. Hukumat xalq oldida emas, qirol oldida javobgar edi, zero, hukumatni qirol tayinlardi. Parlamentga saylovlar ochiq ovoz berish orqali o'tkazilardi.

1931-yil 31-oktabr – Britaniya millatlar hamjamiyatining tuzilishi va dominionlarga suveren huquqlar berilishi haqida “Vestminster statuti”ning qabul qilinishi.

1931-yil 8-noyabr – Yugoslaviyadagi yangi konstitutsiyaga muvofiq Skupshinaga saylovlar bo'lib o'tdi. Unda faqat deputatlikka nomzodlarning hukumat ro'yxati taqdim etilgandi. Boshqa barcha partiyalar ovoz berishda qatnashishdan bosh tortib, saylovlarni boykot qilishdi. Saylangan yangi “hukumat” deputatlari keyinroq Yugoslav milliy partiyasi nomini olgan partiyani tuzishdi.

1931-yil dekabr – Angliyada pulning qadsizlanishi 70 % ini tashkil qildi. Pul qadribning tushishi Angliya sanoat mahsulotlarining qimmatlashishi va raqobatbardoshligining zaiflashishiga olib keldi.

1931-yil dekabr – *Gandi* 2-fuqarolar bo'ysunmasligi kompaniyasini boshladi. *Gandi* va Kongress sessiyasining barcha qatnashchilari yana qamoqqa olindilar. Hindistonning ko'plab shaharlari va provinsiyalarida yana namoyishlar, fuqarolar bo'ysunmasligi kompaniyalari, norozilik mitinglari va ish tashlashlar ayj oldi. Kuchli dehqonlar g'alayonlari ilgari bu kuchsiz bo'lgan joylarda g'oyatda to'g'yonli o'tdi. Dehqonlar uyushmalari va ishchi dehqon partiyalari tuzila boshlandi. Harakatga Kashmir ham qo'shildi.

1931-yil 7-dekabr – ishsizlarning Vashingtonga 1-milliy yurishi.

1931-yil 9-dekabr – Ispaniyada mamlakatni “barcha mehnatkashlar respublikasi” deb e'lon qilgan yangi konstitutsiya qabul qilindi. Mamlakatda chuqur islohotlar o'tkazildi. Agrar islohot haqidagi qonun bo'yicha pomeschchiklarning yerlari to'lov evaziga musodara qilinadigan bo'ldi. Eng og'ir majburiyatlar bekor qilindi, ijara haqi kamaytirildi. Milliy masala qisman hal etildi - Kataloniyaga cheklangan avtonomiya berildi. Parlament bitta qonun chiqaruvchi palatadan iborat bo'ldi. Ayrim demokratik erkinliklar joriy etildi. Koalitsion hukumat ishchilar sinfining ahvolini birmuncha yaxshiladi. 8 soatlik ish kuni, ijtimoiy sug'urtalash, ishchi kuchini yollashning boshqarilishi haqidagi qonun qabul qilindi.

1931-yil 9-dekabr – Ispaniyada respublika konstitutsiyasining qabul qilinishi.

1931-yil dekabr 1932-yil – Vashingtonda ishsizlarning yurishlari boshlandi. Ular “*ocharchilik yurishlari*” deb nomlandi. G'alayonlar qishloq xo'jalik hududlariga ham tarqaldi. 22 shtatni fermerlarning chiqishlari qamrab oldi.

1932-yil boshi – jahonda butunlay ishsizlar armiyasi 26 mln. kishini tashkil qildi, to'liqsiz ish haftasida band etilganlarni qo'shganda esa 30 mln. kishidan oshib



ketdi. Ishsizlarning oila a'zolarini ham qo'shganda jami 100 millionga yaqin kishi jabr ko'rdi. 15 yetakchi mamlakatda 20 mingga yaqin ish tashlashlar bo'lib, ularda qariyb 10 mln. kishi ishtirok etdi.

1932-1933-yillar - O'zbekiston SSRga ham ocharchilik o'z ta'sirini ko'rsatdi Parijda chiqadigan "Yosh Turkiston" jurnalining yozishicha, o'sha kunlarda respublika poytaxti Toshkent ko'chalarida ocharchilik natijasida o'lgan odamlarning jasadlarini uchratish mumkin edi. Ularning aksariyati qo'shni respublikalardan non qidirib, Toshkentga kelishgan edi. Afsuski, bu paytga kelib non shahri - Toshkentning o'zida ham non qolmagan edi.

1932-1933-yillar – Volgabo'yi, Shimoliy Kavkaz, G'arbiy Sibir hududlarida ro'y bergan qurg'oqchilik natijasida SSSRda ocharchilik boshlandi. Biroq, shunga qaramay, g'alla tayyorlash rejaları oshirildi, bunga ko'ra g'allani eksport qilish ham oshdi.

1932-1940-yillar – *A.Lebren* hukumati.

1932-1944-yillar – *F.D. Ruzvelt* prezidentlikka to'rt marta saylangan yagona prezident edi.

1932-1952-yillar – AQSh Kasaba uyushmalari barqaror ravishda Demokratik partiyani qo'llashardi va shu qo'llab-quvvatlash tufayli partiya hukmronlikni egallab turdi.

1932-1953-yillar – *Ibn Saud* Saudiya Arabistonning qiroli.

1932-yil – "Amudaryo" nomli adabiy-badiiy va ijtimoiy-siyosiy jurnal chop qilina boshlandi.

1932-yil – *Adolfo Suares* dunyoga keldi.

1932-yil – Angliya ishchilarining har to'rtinchi ishchisi ishsiz edi.

1932-yil – Angliyada iqtisodiy inqirozning cho'qqisi bo'ldi.

1932-yil – Angliyada ishsizlik darajasi 25 % o'sdi.

1932-yil – Angliyada sanoat sohasidagi yangi ishlab chiqarish 1929 yildagiga nisbatan 82 % ga tushib ketdi.

1932-yil – AQShda prezidentlikka saylovlar og'ir iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy qutblanish va qizg'in siyosiy kurash sharoitlarida o'tdi. *G.Guver* - Respublikachilar partiyasidan, Nyu-York shtati gubernatori *Franklin Delano Ruzvelt* Demokratlar partiyasidan nomzod edilar. *F.Ruzvelt* keng miqyosli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar o'tkazish ko'zda tutilgan ko'lamdor dastur bilan chiqdi. U mustahkam g'alabaga erishdi - *Ruzvelt* uchun 23 mln. saylovchi ovoz berdi, raqibi esa 16 mln. ovoz oldi. Demokratlar 12 yil mobaynida birinchi bor zafar qozonishib, o'z nomzodlarini Oq uyga chiqarishdi. *F.Ruzvelt* AQSh ning 32-prezidenti hamda Amerika tarixidagi eng mashhur prezidentlardan biri edi.

1932-yil – barcha reaksiyon kuchlar Ispan avtonom o'nglar konfederatsiyasiga birlashdi. Bu tashkilot moliya kapitali, cherkov va harbiy doiralar bilan bog'liq yirik pomeshchiklar tashkiloti edi. U dehqonlar ommasining muayyan qismi tomonidan quvvatlanishga erishdi.

1932-yil – biron-bir sanoat sohasida 70 % sarmoyaga ega bo'lgan kompaniyalarning davlat tomonidan ularning manfaatları asosida boshqarilishini ko'zda tutuvchi qonun qabul qilindi. Endi ishlab chiqarishning katta qismi tadbirkorlarning bir necha guruhi tomonidan nazorat qilindi.



1932-yil – Boliviya va Paragvay o'rtasida *Chako-Boreal* viloyati orqasidan nizo chiqdi.

1932-yil – Boliviya-Paragvay o'rtasida urush boshlandi. Paragvay qo'shini bahsli hududga bostirib kirdi va uning katta qismini egallab oldi. Urush ikkala tomonga ham qimmatga tushdi. 250 ming kishi halok bo'ldi va yaralandi. Urush natijasida ikkala davlatning iqtisodiyoti katta zarar ko'rdi.

1932-yil – Chilida harbiy diktatura davrida fuqaroviy erkinliklar bekor qilingan.

1932-yil – Germaniya prezidentligiga saylovlar bo'lib o'tdi. Gindenburgning yoshi 83 ta ekaniga qaramay, o'ta konservativ kayfiyatdagi o'ng doiralari uning nomzodini qayta saylashga qo'ydilar. Prezidentlikka 2-nomzod *Gitler* edi. U 1-turda 30 %, 2-turda esa 37 % ovoz oldi. Garchi prezidentlikka *Gindenburg* saylangan bo'lsa-da, uning va *Veymar* respublikasining kuni bitgani hech kimga sir emas edi.

1932-yil – Germaniya sanoatida ishlab chiqarish darajasi 1928-yilgi ishlab chiqarish darajasining atigi 58 % ini tashkil qildi, mehnat uchun haq yarmiga qisqardi va rasmiy belgilangan kun kechirish uchun zarur miqdorning yarmini tashkil qildi. Germaniyadagi ishsizlik darajasi boshqa kapitalistik mamlakatlardagiga nisbatan (AQShdan tashqari) eng yuqori bo'ldi. Ishsizlar soni 9 mln. ga yaqin bo'lib, ularning faqat 20 % ga yaqini ishsizlik bo'yicha miqdori juda oz bo'lgan nafaqa olardi, qolganlarga hech narsa to'lanmasdi.

1932-yil – Germaniyada 66 ta dekret chaqirildi.

1932-yil – Germaniyada atigi 5 ta qonun qabul qilindi. Reyxstagning qonun chiqarish faoliyati deyarli to'xtadi. Dekretlarning birortasi ham rad etilmadi.

1932-yil – ilmiy ishlarni uyg'unlashtirib tartibga solib borib uchun O'zbekiston SSR MIK qoshida fanlar komiteti tuzildi.

1932-yil – Italiyada inqiroz cho'qqiga chiqqan, sanoatidagi ishlab chiqarish 1929-yildagi darajaga nisbatan 33 % ga qisqardi, ayrim sohalardagi qisqarish bundan ham ko'proqni tashkil qildi. Tashqi savdo hajmlari ikki baravarga kamaydi. Yirik sanoat kompaniyalarining tayanchi hisoblangan uchta eng yirik bank kasodga uchradi. Inqiroz mehnatkash ommaning ahvolini yanada og'irlashtirdi.

1932-yil – *Jon Golsuorsi* ham Nobel mukofoti bilan taqdirlandi.

1932-yil – *M. Sholoxov* kollektivlashtirish davridagi ziddiyatlar va shaxslarning fojialari haqida hikoya qiluvchi "*Ochilgan qo'riq*" nomli yangi romanini e'lon qildi.

1932-yil – O'zbekiston dehqon xo'jaliklarining 75 % ga yaqin qismi umumiy lashtirilgan sektorga birlashtirildi. Yakka xo'jalik dehqonlarning 1-qismi kolxozlardan tashqarida qoldi.

1932-yil – O'zbekiston oliy o'quv yurtlaridagi talabalarining 20%ini o'zbek xotin-qizlari tashkil qilgan.

1932-yil - O'zbekiston qishloq xo'jaligini jamoalashtirish rasman poyoniga yetdi.

1932-yil - O'zbekiston rassomlar uyushmasi tuzildi.

1932-yil – O'zbekiston sobiq Ittifoq bo'yicha paxta hosilining 60%ini berdi.

1932-yil – O'zbekistonda 60 dan ziyod sovxoz bor edi.

1932-yil – O'zbekistonda ishchilarining o'rtacha oylik ish haqi 105 so'mni tashkil qildi.



1932-yil - O'zbekistonda mamlakat bo'yicha paxta tolasining 89,7%i, o'simlik moyining 56,4%i, xom ipakning 42%i ishlab chiqarildi.

1932-yil – Portugaliyada yuz bergan harbiy to'ntarish natijasida hukumat tepasiga diktator Salozar keldi. U mustamlaka o'lkalarni ezish hisobiga hukmronlik qila boshladi.

1932-yil - Qoraqalpog'istonda kambag'al o'rtahol dehqonchilik xo'jaliklarining 58%i jamoalashtirildi.

1932-yil - Qoraqalpog'istonda muxtor viloyatdagi ishchilar soni 16 ming nafarga yetdi. O'sha yillarda malakali kadrlar muammosi ishchilarni yo Ivanovo-Voznesensk, Moskva, Leningrad va boshqa sanoat shaharlaridan olib kelish, yoxud mahalliy ishchilarni markaziy rayonlarga o'qishga yuborish yo'li bilan hal qilib borildi.

1932-yil - Qoraqalpog'istonda rejadagi topshiriqlar ba'zi ko'rsatkichlar bo'yicha bajarilmay qolgan bo'lsada, davlat sanoatining yalpi mahsuloti taxminan 13 mln so'mni tashkil etdi.

1932-yil - Qoraqalpog'istonning kolxoz qurilishida yer ishlash shirkatlari 70%ni, artellar 30%ni tashkil etdi.

1932-yil - O'zbekiston SSR MIK huzurida Fanlar Komiteti tashkil qilindi.

1932-yil - Quvasoy sement va ohak zavodi ochildi.

1932-yil – Rossiyada g'alla tayyorlash kampaniyalari dehqonlarga qarshi chinakam urushlarga aylandi.

1932-yil – *Shirak Jak* tug'ildi.

1932-yil – *Uilyam Folkner "Avgustdagi nur"* nomli roman yaratdi. Bu romanda yozuvchi ilk bor janubdagi eng o'tkir muammo - irqiy munosabatlar muammosiga murojaat qildi. Romanga qahramon sifatida adib jamiyatning quyi tabaqalari vakillari - daydi, qashshoq fermerning qizi, ishchi va sobiq ruhoniyni tanladi. Daydi *Jo Kristmas* fojiasi, uning irqiy taassublar qurboni bo'lishi voqeasi romanning asosiy mazmunini tashkil etadi. *U.Folkner* odamlarning ichki dunyosi va hayotini mayib qilayotgan jamiyatni ayovsiz fosh qildi, zulm, mutaassiblik qurbonlariga hamdardlik bildirdi. Roman hayotbaxsh xotima hamda ozodlik va adolat g'oyalari g'ataba qozonishiga ishonch bilan yakunlanadi.

1932-yil – Yugoslaviya dehqonlari kurashi hukumat va jandarmeriya bilan ochiq qurolli to'qnashuvlarga duch keldi.

1932-yil 27-yanvar – *Gitleming* o'z homiylari bilan 1-uchrashuvi bo'lib o'tdi. "*Po'lat trest*"ning direktori *Tissen* uni Germaniya sanoatchilariga tanishtirdi.

1932-yil mart - Qoraqalpog'iston muxtor viloyati RSFSRga kiradigan Qoraqalpog'iston ASSRga aylantirildi.

1932-yil 5-mart - Qoraqalpog'iston viloyati Ijroiya Qo'mitasining navbatdan tashqari IV plenumi bo'lib o'tdi. U quyidagicha asoslandi: "*Qoraqalpog'istonning Moskva va sanoat Markazlaridan uzoqligini, madaniy va iqtisodiy jihatdan qoloqligini, yanada rivojlanishi istiqbollarini...hisobga olib, Butunittifoq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidumidan Qoraqalpog'iston Muxtor viloyatini RSFSRga kiradigan Muxtor Sho'ro sotsialistik Respublikasiga aylantirish so'ralin*".

1932-yil 9-mart – Man'chjou-Go davlatining e'lon qilinishi.



1932-yil 20-mart - Butunittifoq Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi Qoraqalpog'iston Muxtor viloyatini RSFSRga kiradigan Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikaga aylantirish haqidagi iltimosni ijobiy hal qildi.

1932-yil may – *“Fashistlarga qarshi aksiya”* nomli keng xalq harakatini boshlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Butun Germaniyada ommaviy namoyishlar bo'lib o'tdi. Bu fashistlarga qarshi xalq fronti dunyoga kelayotganini ko'rsatdi. Reyxstagga saylovlarda GKP uchun 4,6 mln. kishi ovoz berdi.

1932-yil may - Qoraqalpog'istonning avtonom respublika Sovetlarining I Ta'sis qurultoyi hukumatini tuzishdi.

1932-yil may – saylovlar Fransiyaning inqirozning ikki yili davomida so'lga qarab burilganini ko'rsatdi. Saylovlar sotsialistlar va radikal-sotsialistlar blokiga g'alaba keltirdi. Yangi hukumatni yana *Eduard Errio* boshqardi. Deputatlar palatasidagi 594 o'rindan 386 tasini so'l blok vakillari olib, o'z dasturlarini amalga oshirish imkoniyatini qo'lga kiritdilar. Biroq, ular bu imkoniyatni boy berdilar. O'ng doiralar so'l hukumatga qarshi kuchli hujumni avj oldirdilar va bu hukumatning normal faoliyat ko'rsatishiga imkon bermadi. *E.Errio* hukumati bor-yo'gi 6 oy ishlab, iste'fo berishga majbur bo'ldi.

1932-yil 15-may-15-iyun - Toshkentda SSSR oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasi *Shamsuddin Badriddinov* va uning 5 tarafdori ustidan sud jarayonini o'tkazdi. *Sh.Badriddinov*ga “Milliy Ittihod” tashkiloti a'zolari va “bosmachilar” bilan aloqa bog'lagan, Munavvar Qori va *S.Qosimovning* yaqin do'sti va hamfikri bo'lgan, degan ayblar qo'yildi. Bu sud jarayonida ham prokuror R.Katanyan edi. *Sh.Badriddinov* avval otishga hukm qilinib, so'ngra o'lim hukmi 10 yil qamoq muddati bilan almashtiriladi. Uning *Muhammadjon Xo'jayev, Abdurahmon Rahmonov, Mahmudxon Ahmadjonov, Muhitdin Sadixonov, Ibrohimjon Musaxonov*lardan iborat 5 ta tarafdori ham uzoq mud-dat qamoq jazosiga hukm qilinadi.

1932-yil 20-may – Kubada hokimiyatning diktatir *Machado* tomonidan egallanishi.

1932-yil 30-may – *Bryuning* vazifasidan chetlashtirildi va uning o'rniga *Frans fon Papen* tayinlandi. “Baronlar kabineti” degan nom olgan hukumat tarkibiga prezident o'g'li va I jahon urushida nom chiqargan bir nechta harbiy arboblardan kiritildi. Reyxstag faoliyati to'xtadi, yangi kabinet bir necha oy davomida nazoratsiz hukmronlik qildi.

1932-yil 25-iyun – SSSR bilan Polsha o'rtasida hujum qilmaslik haqida pakt tuzilishi.

1932-yil iyul – *Frans fon Papen* reyxstagga saylovlar o'tkazishni belgiladi. Saylovlar hayratomuz natija bilan tugadi. Natsistlar uchun saylovchilarning 37 %i ovoz berdi, ular reyxstagga 230 o'rinni qo'lga kiritdilar. Reyxstag o'sha chaqiriqda 608 o'rindan iborat ekani hisobga olinsa, **Gitler** tarafdorlari 35 % ga yaqin ovozga ega bo'ldilar. Bu ko'p edi, biroq Gitlerning kansler lavozimini egallashi uchun yetarli emasdi. Bunga so'l partiyalarning 232 ovozi qarshilik qilardi.

1932-yil iyul-noyabr – *fon Papen* Germaniya reyxskansleri bo'lgan.

1932-yil 7-avgust – qonunga muvofiq *“sotsialistik mulkni qo'riqlash”* bo'yicha o'ta keskin choralar ko'rila boshlandi. Xalq orasida *“boshloqlar to'g'risidagi qonun”*



nomi bilan mashhur bu qonunga muvofiq kolxoz mulkini o'g'irlaganlik (dalada boshqoq terganlik) uchun butun mulkni musodara qilgan holda o'lim jazosi yoki 10 yil muddatga surgun ko'zda tutildi. Ocharchilik oqibatida yuz minglab dehqonlar halok bo'ldilar, ayniqsa, Ukraina aholisi ocharchilikdan qattiq lalafot ko'rdi.

1932-yil sentabr – Kolumbiya va Peru o'rtasida Kolumbiya janubi, Amazonkaning yuqori tomoni – Letisiya hududidagi boy neft koni orqasidan qonli urush boshlandi. Bu yerga Peru qo'shinlari kirib keldi. Ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar to'xtatiydi. Harbiy harakatlar 9 oy davom etdi, minglab askarlar va o'n minglab tinch aholi halok bo'ldi, yuzlab qishloqlar vayron etildi.

1932-yil sentabr-noyabr – Germaniyada transport sohasi va boshqa ko'plab korxonalarda mingdan ortiq iqtisodiy va siyosiy ish tashlashlar tashkil qilindi.

1932-yil noyabr – Germaniyada Reyxstagga saylovlarda GKP uchun esa 6 mln. kishi, ya'ni jami saylovchilarning 17 %i ovoz berdi. Kommunistlarning saylovdagi muvaffaqiyati hukmron doiralarda sarosima uyg'otdi va hokimiyatning fashistlarga berilishi jarayonini tezlashtirdi. Kommunistlar obro'sining oshishi Germaniyaga "qizil diktatura" xavfining tahdid solishi sifatida taqdim etildi.

1932-yil noyabr – *Gitleming* ko'p ovoz olishi uchun reyxstag tarqatib yuborildi va yangi saylovlar belgilandi. Yangi saylovlarning ssenariy mualliflari reyxstagda natsistlarga qo'shimcha 5-6 % o'rinni ta'minlashga va shu taxlit *Gitlemi* legitim ravishda, ya'ni qonuniy yo'l bilan reyxskanslerlikka ko'tarishga umid qildilar. Biroq, reaksiyon kuchlar adashdilar. Natsistlar to'plagan ovozlari soni kamaydi, binobarin, Gitter partiyasini reyxstagda himoya qiluvchi deputatlar soni ham qisqardi. Endi ular oldingi reyxstagdagiga nisbatan 34 kishiga kam edilar. So'l kuchlar uchun ovoz berganlar soni 311 taga (582 tadan) yetdi, bu esa demokratik hukumat tuzish uchun yetarli edi. Saylovlarda fashistlar 2,5 mln. ovoz yo'qotdilar. Yirik monopoliyalar, banklarning vakillari va generallar uzil-kesil fashistlar tomonga o'ta boshladilar. *Gindenburgga* Germaniyaning 20 dan ortiq moliya magnatlari imzolagan noma yuborilib, unda *Gitlemi* darhol reyxskansler etib tayinlash talabi qo'yildi.

1932-yil 29-noyabr – hujumqilmaslik haqida sovet-fransuz paktining imzolanishi.

1932-yil dekabr 1934-yil yanvar – Fransiyada so'llarning 5 hukumati almashdi va ularning har biri uch oydan oz hukm surdi. Ularning eng so'nggisi *Eduard Dalade* hukumati bo'ldi.

1932-yil dekabr – SSSRda pasport tizimining joriy etilishi.

1932-yil kuz – dehqonlar kurashi Xorvatiyada partizanlar urushiga aylandi.

1933-yil boshi - Italiyada davlat moliya idorasi – Sanoatni qayta qurish instituti tuzilib, u kasodga uchragan banklarning qimmatbaho qog'ozlarni davlat hisobiga sotib oldi. Bu harakat natijasida Sanoatni qayta qurish instituti banklar ustidan, ular orqali esa metallurgiya va mashinasozlik korxonalarining aksar qismi, kemasozlik va deyarli butun harbiy sanoat ustidan nazorat o'rnatdi. Shunday qilib, davlat iqtisodiyotni saqlab qolish va rivojlantirish tashvishini to'liq xalqning yelkasiga yukladi. Inqiroz munosabati bilan Italiya fashizmi o'zining asosiy ijtimoiy tajribasi - korporativ davlatni tuzishga kirishdi.

1933-yil boshi - O'zbekistonda 73 ta MTS ishlab turdi. Ular qishloq xo'jaligini



texnik jihatdan qayta qurishni tezlashtirdi, lekin texnikani ularda to'plash qishloq mehnati imkoniyatlarini ochib berishga yordam qilmadi. Amalda kolxozlar ham, MTS lar ham yer egalari emasdilar, yerning egasi aslida davlat bo'lib qoldi.

1932-yil o'rtasi – jahon iqtisodiy inqirozi o'z cho'qqisiga ko'tarildi.

1933-1934-yillar – AQShda qabul qilingan yana 9 ta qonun konstitutsiyaga to'g'ri kelmaydigan qonunlar sifatida tan olindi.

1933-1936-yillar – AQShda qarzlar va soliqlarni to'lamaganligi uchun deyarli 600 ming fermalar, ya'ni jami fermerlarning 10 % ga yaqini "kim oshdi"da sotib yuborildi.

1933-1937-yillar - Qoraqalpog'istonda ikkinchi besh yillik topshiriqlari erishilgan marralarni mustahkamlash zarurligi munosabati bilan yanada og'irlashdi. Muxtor viloyat xalq xo'jaligiga 5 yillikda ajratiladigan pul mablag'lari 34 mln so'mni tashkil etdi.

1933-1939-yillar – AQShda 8 mln. dan ortiq ishchi ish tashladi. Stachkalar hujumkor xususiyatga ega bo'lib, yuqori darajadagi uyushganligi bilan ajralib turardi.

1933-1939-yillar – Iroqda G'oziy hukmronlik qilgan davr.

1933-1939-yillar – *Oskar Benavides* Peruda hokimiyat rahbari.

1933-1945-yillar - 15 ta konsentratsion lagerlar tashkil etilgan bo'lib, ularda 10 mln. ga yaqin odam yo'q qilindi.

1933-1945-yillar - **1934-yil 1-avgust** – *A. Gittler* Germaniya prezidenti bo'lgan.

1933-1945-yillar – *F.D. Ruzveltning* prezidentligi davri.

1933-1945-yillar – *Reyxstag* (nemischa. Reich – davlat, Tag - majlis) rasman saqlanib, hukumat bayonatlarini e'lon qilishda qulay vositaga aylangan.

1933-yil – Afg'oniston shohi *Nodirshoh* o'limidan so'ng, uning o'g'li Zobirshoh mamlakatning yangi yetakchisi deb e'lon qilindi. Uning 40 yillik boshqaruvi davrida mamlakatda deyarli hech qanday o'zgarish yuz bermadi. Afg'onistonda jami 300 ta sanoat korxonasi (shundan 140 tasi Sovet Ittifoqi yordamida) qurildi. Afg'oniston dunyoda hayot darajasi eng past qoloq davlat bo'lib qolaverdi.

1933-yil – *Albert Eynshteyn*, fashistlar hokimiyatini egallaganidan so'ng, AQShga keldi, Ferni Italiyadan jo'nab ketdi, *Nils Bor* esa Daniyadan qochishga majbur bo'ldi.

1933-yil – Angliyada sanoat sohasidagi ishlab chiqarish pasayish 93 % ni tashkil qildi. Sanoat sohasidagi ishlab chiqarish darajasining Angliyada nisbatan oz pasayishi mahsulotlarni rezerv bozorlar sifatida saqlab turilgan mustamlaka va qaram mamlakatlarda sotish hamda u yerlardan arzon xom ashyo va ishchi kuchini keltirish imkoniyatlari mavjudligi bilan izohlanadi. Inqiroz Angliya iqtisodiyotining an'anaviy sohalari — Angliya ishchilar sinfining asosiy qismi jalb etilgan ko'mir qazib chiqarish, metallurgiya, kemasozlik sohaslarini ayniqsa qattiq larzaga soldi.

1933-yil – AQSh hukumati Lotin Amerikasi mamlakatlarga nisbatan "*yaxshi qo'shnichilik*" siyosatini e'lon qildi. *F. Ruzvelt* Gaitidan Amerika qo'shinlarini chaqirib oldi. Kuba bilan shartnoma tuzilib, AQShning intervensiya huquqi bekor qilindi. Lotin Amerikasi davlatlari bilan ular uchun qutay savdo bitimlari tuzildi.



Siyosatining yangi usullari tufayli AQSh Janubiy Amerikadagi asosiy raqiblar - Angliya, Germaniyani tezda qisib qo'yishga erishdi. AQSh yevropalik raqobatchilariga qarshi kurashda Lotin Amerikasi mamlakatlari aholisining keng qatlamlarida hukmron bo'lgan panamerikanizm g'oyalaridan mohirona foydalandi. Shu davrda o'tkazilgan uchta Panamerika konferensiyalari AQShning Lotin Amerikasidagi gegemonligi mustahkamlamshiga imkon yaratdi.

1933-yil – AQShda 17 mln. ishsiz kishi bo'lib, har uchinchi ishchi ish haqidan mahrum edi. AQShda ishsizlikdan sug'urtalash tizimi mavjud bo'lmagani bois ko'pchilik odamlar uchun ochdan o'lish haqiqatdan xavf sola boshladi.

1933-yil – AQShning eng yirik neft kompaniyalari tomonidan Saudiya Arabistoni neft konlarini o'zlashtirish uchun ARAMKO ("Neft qazib chiqarish bo'yicha arab-amerika kompaniyasi") tashkil etildi.

1933-yil – Germaniyada 1-konslager Buxenvaldda (Veymar yaqinida) barpo etildi. Buxenvald lageri faoliyat yuritgan 12 yil davomida gaz kameralari, krematoriyalar, merganlik tirlarida 1 mln. 350 ming kishi yo'q qilindi.

1933-yil – Germaniyada *Gestapo* tashkil topdi.

1933-yil – Germaniyada ishsizlik odamlarni shturmchilarning otryadlariga yozilishiga majbur qildi – ularning soni 1 mln. ga yetdi.

1933-yil – Gitler hokimiyatga kelishi bilan Chexoslovakiyada fashistik tashkilotlar ochiq chiqishlar yuz berdi.

1933-yil - hokimiyatni egallab, mamlakatda fashizm tuzumini o'rnatgan Natsional-sotsialistik partiya nomidan *natstzm* kelib chiqqan.

1933-yil – *I. Bunin* Nobel mukofotlariga sazovor bo'ldi.

1933-yil – Irlandiya parlamenti Britaniya qiroliga qasamyod etish marosimini bekor qildi.

1933-yil – Ispan fashistlari "Ispan falangasi" partiyasiga birlashdi.

1933-yil – Italiyada rasman hisobga olingan ishsizlarning soni 1 mln. dan oshdi.

1933-yil – korteslariga (parlament) saylovlar bu safar o'ng partiyalarga g'alaba keltirdi. Yangi parlament va hukumat avvalgi parlamentning barcha yutuqlariga barham berishga intilgan holda aksilislohotlar o'tkazishga kirishdi.

1933-yil - Pedagogik akademiya bazasida Samarqandda O'zbekiston davlat universiteti (hozirgi SamDU) barpo etildi.

1933-yil - Qoraqalpog'iston kolxozlariga 600 nafardan ortiq traktorchi, 500 nafardan ortiq hosilot brigada boshliqlari, 70 nafar chorvador brigada boshliqlari, 50 nafarga yaqin hisobchilar va boshqa mutaxassislar yuborildi.

1933-yil – Saudiya Arabistonda "Standart Oyl kompani of Kaliforniya" nomli Amerika kompaniyasi Fors qo'ltig'i sohilidagi katta hududda neft izlash va qidirib topishga konsessiya (ruxsat) oldi.

1933-yil – Saudiya Arabistonning iqtisodiy ko'tarilishi boshlandi.

1933-yil – sovet diplomatiyasi Yevropada kollektiv xavfsizlikni qaror topdirish kampaniyasini boshladi. Uning mohiyati har bir qatnashchi umumiy xavfsizlik uchun teng javgovar bo'lgan o'zaro yordam to'g'risidagi mintaqaviy bitimlarni tuzishdan iborat edi. Bu g'oyaning amalga oshirilishi kollektiv harakatlar bilan urushning oldini olish imkonini berardi. Sovet hukumatining diplomatik tashabbusi ma'lum darajada muvaffaqiyat qozondi.



1933-yil – SS saflarida 50 ming kishini tashkil etdi.

1933-yil – Toshkentda, respublikadagi birinchi oliy o'quv yurti – *Turkiston davlat universiteti* ochildi.

1933-yil – V. *Shishkov* “*Sarkash daryo*” romanini yaratdi.

1933-yil – Venesuela 17 mln. tonna neft qazib oldi. Mamlakat butun qit'aning neftga bo'lgan talabini qondirgan Lotin Amerikasidagi birinchi mamlakat bo'ldi.

1933-yil yanvar – A. *Gitler* Germaniya reyxskansleri bo'lgan.

1933-yil 4-yanvar – *Gitler* Germaniyaning yirik va yetakchi sanoatchi va sarmoyadorlari ishtirokida majlis o'tkazdi, unda *Gitler* kansler bo'lishi kerak, degan qarorga kelindi.

1933-yil 30-yanvar – *Gindenburg Gitlemi* Germaniyaning reyxskansleri qilib tayinladi. Germaniyada fashistik diktatura o'rnatilishi.

1933-yil yanvar-fevral – Ruminiyadagi kurash temir yo'llarini va neft sanoatini qamrab oldi. Qator joylarda temiryo'lchilar ustaxonalarni o'z qo'llariga olishdi va o'z-o'zini mudofaa qilish bo'linmalarini tashkil etishdi. Hukumat ishchilar bilan kurashga qo'shinlarini tashladi. Buxarestda politsiya bilan to'qnashuv paytida qo'shinlar tomonidan 400 kishi o'ldirildi, 2 ming kishi qamoqqa olindi.

1933-yil 23-fevral – natsistlar reyxstagga o't qo'yishni uyushtirdilar. “*Bu - kommunistlar*”, deb qichqirdi radio orqali *Gitler*. “*Bu kommunistlar isyonining boshlanishi*”, deb uqtirdilar barcha natsist gazetalari. Ularni barcha burjua gazetalari ham to'liq qo'llab-quvvatladilar. Kommunistik partiyaning barcha arboblari, ular sirasidan bo'lgan reyxstag va mahalliy parlamentlarning deputatlari o'sha kuniyoq qamoqqa olindilar. Mahalliy so'l tashkilotlarning barcha a'zolari qamoqqa tashlandilar.

1933-yil 27-fevral – Berlinda fashistlar tomonidan reyxstag binosining yoqib yuborilishi.

1933-yil 28-fevral – gitlerchi hukumatning shaxs, so'z, matbuot, yig'inlar erkinligi kafolatlangan Veymar konstitutsiyasi moddalarini bekor qilish haqida favqulodda dekret chiqarilishi.

1933-yil mart boshi – Germaniyada yana saylovlar bo'lib o'tdi. Natsistlar unda 44 % ovoz oldilar. *Gitler* o'zining natsistlar hukumatini tuzdi.

1933-yil 23-mart – reyxstag *Gitlerga* o'z dekretlari bilan mamlakatni boshqarish huquqini beruvchi qonun qabul qildi. Bu *Gitlerga* cheksiz vakolatlar berdi.

1933-yil 23-mart – Yaponiyaning Millatlar Ligasidan chiqishi.

1933-yil may – Germaniyada yoshi 18 dan 25 gacha bo'lgan yoshlar uchun ikki yillik ko'ngilli mehnat majburiyati joriy qilindi. Yoshlar botqoqliklarni quritish, shosse yo'llari qurish, kanallar qazish ishlariga jalb qilindilar. Bu mehnat lagerlaridagi hayot to'liq harbiylashtirilib, harbiy xizmat nizomiga bo'ysundirildi, harbiy tayyorgarlik tashkil etildi. Sport harakati armiyani tayyorlash va nemislarning hukmron irq vakillari ekani to'g'risidagi natsizm g'oyasini targ'ib qilish vositasiga aylandi.

1933-yil 12-may – AQShda fermerlarga yordam haqidagi qonun qabul qilindi. Ularning mahsulotlariga bo'lgan narxlarni oshirish zarur edi. Fermerlarga ekinzor maydonini va chorva sonini qisqartirish haqida davlat bilan kontrakt tuzish taklif



etildi. Buning uchun ularga mukofotlar berildi. Fermerlarning qarzlari davlat hisobiga qabul qilindi va noma'lum muddatga to'xtatib qo'yildi. Davlat yuzminglab fermerlarga kreditlar berdi Norentabel fermalar tugatildi.

1933-yil iyun – Fransiya diplomatiyasi fashistlar bilan kelishuvga bordi.

1933-yil 7-iyun – Angliya, Fransiya, Italiya va Germaniya o'rtasida “*To'rtlar bitimi*” imzolandi. U kuchga kirmadi, biroq Fransiya tashqi siyosatining mohiyatini ochiq ko'rsatdi.

1933-yil 16-iyun – kuchga kirgan sanoatni qayta tiklash haqidagi qonun “*yangi yo'nalish*” doirasidagi yana bir muhim tadbir bo'ldi. Bu qonun sanoatning davlat tomonidan boshqarilishi tizimini joriy qildi. Sanoatning har bir sohasi uchun davlat qonuni sifatida tatbiq qilingan “halol raqobat kodekslari” ishlab chiqildi. Mazkur kodekslar har biri korxonaga uchun maqayyan ishlab chiqarish hajmini, mahsulot narxini, savdo bozorini belgilab berardi. Qonun ishbilarmonlarga ish haqining eng kam darajasini va ish haftasining maksimal vaqtini kodekslarda qat'iy qayd etishni ham belgilardi. Shuningdek, ishchilarning kasaba uyushmalar vujudga keltirish va jamoaviy shartnomalar tuzish huquqi e'lon qilingandi. Sanoatni qayta tiklash haqidagi qonun bo'yicha ishsizlarga yordam choralari ko'zda tutilgandi. Ijtimoiy ishlar maxsus qo'mitasi tuzilib, uning ixtiyoriga yo'llar qurish, maktablarni ta'mirlash, sport majmualari va boshqa inshootlar barpo etish uchun katta miqdorda mablag' berildi. Mazkur tadbirlar 8 mln. amerikaliklarni ish bilan ta'minladi. Ajratilgan mablag'larga 10.000 km. katta yo'llar qurildi, 77 ming ko'priklar va 800 ta aerodrom barpo etildi, o'nlab harbiy kemalar yaratildi. Qashochoq oilalardagi 18 dan 25 yoshgacha bo'lgan ishsizlar uchun maxsus lagerlar barpo etildi. Bu yerda davlat hisobidan ta'lim olib, sanoatning yangi tarmoqlari uchun zarur sliklarni egallashardi. Har bir shtatga ishsizlarga yordam ko'rsatish uchun dotatsiyalar ajratildi. Mazkur faoliyatning miqyoslari ulkan edi va Amerika ijtimoiy ziddiyatlardan saqlanishga muvaffaq bo'ldi.

1933-yil iyul – Germaniyada shturmchilar nazorati ostida umumxalq plebissiti o'tkazildi, unda 36 mln. aholi *Gittler* siyosatini qo'llab-quvvatlashlarini bildirdi. Bu *Gitlemi* ruhlantirdi va o'z siyosatining amalga oshishiga ishonch bag'ishladi.

1933-yil 15-iyul – Germaniya qonunga ko'ra yahudiylarning mol-mulkulari musodara qilindi, banklar va sanoat korxonalarini esa “oriylashtirildi” (ya'ni toza qonli nemislarga berildi). Ushbu qonunga muvofiq sarmoyasi 100 ming markadan kam bo'lgan hissadorlik korxonalarini taqiqlandi, sarmoyasi 500 ming markadan kam bo'lgan yangi korxonalarini tuzish esa man etildi. Shu taxlit barcha mayda va o'rta korxonalar deyarli tugatilib, yirik sarmoyaning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratildi. Natijada yirik mulkdorlar sinfi yuzaga keldi. Jumladan, sarmoyasi 1 mln. markadan kam bo'lgan kompaniyalar soni kamaydi, sarmoyasi 20 mln. markadan ko'p bo'lgan kompaniyalar soni esa oshdi.

1933-yil 28-iyul – SSSR bilan Ispaniya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilishi.

1933-yil 1-avgust – *Sukarno* qamoqqa olinib, Indoneziyaning uzoq joylaridan biriga badarg'a etildi.

1933-yil 12-avgust – Kubada diktator *Machado* hokimiyatining ag'darilishi.



1933-yil 12-avgust – *Xerardo Machado* Kubadan qochdi.

1933-yil 2-sentabr – SSSR bilan Italiya o'rtasida do'stlik, hujum qilmaslik va betaraflik haqida shartnoma imzolanishi.

1933-yil 3-sentabr – fashistlar partiyasining Nyurnbergda bo'lib o'tgan s'ezdida *Gitler* o'zining nemislar barcha xalqlar bo'ysunishi lozim bo'lgan oliy irq vakillari ekani to'g'risidagi nazariyasini e'lon qildi.

1933-yil oktabr – Germaniya Millatlar Ligasidan chiqdi.

1933-yil 10-oktabr – harbiy ministr, general *Kondilis* harbiy to'ntarish uyushtirib, monarxiya e'lon qildi.

1933-yil 14-oktabr – Germaniyaning Millatlar Ligasidan chiqishi.

1933-yil noyabr – AQSh yangi ma'muriyatining tashqi siyosatidagi 1-yirik ishi Sovet Ittifoqi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilganidir.

1933-yil 16-noyabr – SSSR bilan AQSh o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilishi.

1933-yil noyabr-1937-yil oxiri – rumin hukumatini national-liberallar shakllantirib, rahbarlik qilishdi. Ular mehnatkashlar ommasiga nisbatan repressive siyosatini kuchaytirishdi. Mamlakatda fashistik xavf tobora ortib bordi. Reaksiyon doiralar mehnatkashlarning chiqishlariga qarshi yanada qat'iy choralar ko'rinishini talab qilishdi.

1933-yil oxiri – fashistlarning tashkilotlari "*Stavisskiy ishi*" bilan bog'liq janjalni va buning oqibatida hukumatda yuzaga kelgan inqirozni bahona qilib hokimiyatni egallashga ochiq-oydin tayyorlana boshladilar.

1933-yil oxiri – muxolif marralarda turgan barcha tashkilotlar yo'q qilindi.

1933-yil yoz – *G.Genlayn* boshchiligidagi sudetlik natsional-sotsialistlar Sudet viloyatining Chexoslovakiyadan ajratilishini va Germaniyaga berilishini talab qilishdi. Bu hol mamlakat hukumatini tashqi siyosatda muhim qadam tashlashga - Sovet Ittifoqini tan olishga va u bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishga majbur etdi.

1934-1935-yillar – Italiyada tashqi savdo monopoliyasini joriy qildi va bu xorijiy tovarlar importini keskin qisqartirdi.

1934-1935-yillar – XKP ning qurolli kuchlari shimolga yurishni amalga oshirdi. Ularning soni 300 ming kishiga yetardi, lekin doimiy ravishda o'zlarini ta'qib qilayotgan gomindanchilarnino hujumlarini qaytarishga majbur bo'lishdi. Janglar bilan Shensi provinsiyasi shimoli tomon 3 ming km. yo'l bosib o'tildi, 300 ming kishidan 30 ming kishi qoldi.

1934-1939-yillar – qadar Italiyaning 16 ta eng yirik kompaniyasi daromadlari 78 % ga o'sdi.

1934-1940-yillar – "*Krupp*"ning daromadi 4 baravar, "*IG Farbenindustri*"ning daromadi 17 baravar, "*Flik*"niki – 65 baravar oshdi. Bularning barchasi Yevropadagi bosib olingan mamlakatlardan bo'lgan 12 mln. xorijiy ishchilar va harbiy asirlar mehnati bilan dunyoga keldi.

1934-1940-yillar – Meksikadagi *L. Kardenas* hukumati hukmronligi.

1934-1956-yillar – GULAG axloq tuzatish-mehnat lagerlari va qamoq joylari Bosh boshqarmasi faoliyat ko'rsatgan.



1934-1995-yillar – *Burg'ib Xabib ibn Alining* Tunis Sotsialistik dastur partiyasini boshqargan davri.

1934-yil – *Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoniy* dunyoga keldi.

1934-yil – Angliyada sanoat sohasidagi ishlab chiqarish 1929-yilgi darajadan ko'tarildi.

1934-yil – AQSh Rossiyani tan oldi.

1934-yil – AQSh SSSR bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatdi.

1934-yil – AQShda 1mln. 170 ming ishchi, ya'ni avvalgi to'rt yildagidan ko'ra ko'proq kishi stachkalarda qatnashdi.

1934-yil – AQShda burjuaziyaning bir qismi “yangi yo'nalish” siyosatiga muxolifatlikka o'tdi. Dyupon va Morganlar yirik monopolistik guruhlarining bevosita ishtirokida Amerika ozodlik ligasi tuzilishida o'z ifodasini topdi. Mazkur tashkilot davlat tomonidan boshqarilish va liberal islohotlar rad etilishini, yirik kapitalga soliqlar kamaytirilishini hamda mehnatkashlarga va demokratik harakatlarga nisbatan qattiq yo'nahshga o'tilishini talab qildi.

1934-yil – Fransiyada ip-gazlama fabrikalari inqirozdan avval ishlab chiqargan yalpi mahsulotning atigi 35 % ini berdilar

1934-yil – Fransiyada jahon iqtisodiy inqirozi o'ta og'ir shaklda kechdi. Sanoat mahsulotlari 30 % ga kamaydi; bir necha yirik banklar kasodga uchradi, ko'plab yirik zavod va fabrikalar yopildi. Inqiroz ayniqsa to'qimachilik sanoatiga qattiq ta'sir qildi. Ishsizlar soni 1,5 mln. kishiga yetdi, to'liq ish haftasida band etilmaganlar soni bundan ham ko'paydi. Shu bilan birga, ish kuni rasman 10-12 soatgacha uzaytirildi, maosh miqdori esa oldingiga nisbatan 40% gacha kamaytirildi.

1934-yil – Germanitada 2-konslager Daxauda barpo etildi. Daxauda gaz kameralari, krematoriyalar, merganlik tirlarida 1 mln. 200 ming kishi yo'q qilindi.

1934-yil – Germaniya bilan Yugoslaviya o'rtasida savdo konvensiyasi tuzildi va bu tashqi savdo aylanmasining deyarli chorak qismi Germaniya hissasiga tegishli bo'lishiga olib keldi. German kapitali Yugoslaviyaga faol kirib borib, xom ashyo manbalari va sanoat tarmoqlarini egallab ola boshladi. Belgradda tabiiy boyliklar ishlanishini mablag' bilan ta'minlash uchun maxsus german banki ochildi.

1934-yil – Italiyada jadal sur'atlarda harbiy-dengiz floti va harbiy aviatsiyani qurishga kirishildi.

1934-yil – natsistlar tomonidan Germaniyaning federativ tuzilishi bekor qilingan paytda *Reyxsrat* tarqatib yuborilgan.

1934-yil – OGPU (birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) qayta tuzilib, NKVD (Ichki ishlar xalq komissarligi)ga aylantirildi.

1934-yil – partisan bo'linmalarining birlashishi natijasida Koreya xalq-inqilobiy armiyasi tashkil etildi va bu armiya yapon agressiyasiga qarshi kurashda Xitoy xalq-ozodlik armiyasiga g'oyatda katta yordam ko'rsatdi.

1934-yil – Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligida 9 ta MTS hizmat ko'rsatdi, 16 ming gektardan ortiqroq yerga shu MTSning traktori bilan ishlov berildi.

1934-yil – SSSR Millatlar Ligasiga taklif qilindi.

1934-yil - To'rtko'l pedagogika tehnikumi bazasida Qoraqalpoq davlat o'qituvchilar



instituti ochildi. Bu institut 2 bo'limdan: fizika-matematika va qoraqalpoq tili va adabiyoti bo'limlaridan tashkil topgan bo'lib, unda o'qish muddati 2 yil edi. Keyinchalik rus tili va adabiyoti hamda tarix fakultetlari ochildi.

1934-yil – Yaponiya dunyodagi eng qudratli armiyalardan biriga ega bo'lib, urushga tayyor edi. Butun iqtisodiyot harbiy izga ko'chirildi.

1934-yil 1-yanvar – Kubada AQShning boshqa bir malayi – *Batistaning* diktaturasi o'rnatildi. Mamlakatda harbiy-politsiya terroriga tayangan tuzum qaror topdi.

1934-yil 20-yanvar – Kubada *F. Batista* diktaturasining o'rnatilishi.

1934-yil 20-yanvar – Natsistlar tuzumi majburiy mehnatni joriy qildi va "*Milliy mehnatni tartibga solish to'g'risida*"gi qonun qabul qilindi. Bu qonunga ko'ra tarifli shartnomalar va mehnatni erkin tanlash huquqi bekor qilindi. Ishchilar qayerni ko'rsatishsa, o'sha yerda ishlashga, tadbirkorlar qancha maosh belgilashsa, o'sha pulni olishga majbur edilar. Zavodlarda 1 mln. ishchi harbiy xizmatni o'tardi.

1934-yil yanvar-fevral – SSSRda keyinroq "otilganlar s'ezdi" nomini olgan VKP (b) XVII s'ezdining o'tkazilishi.

1934-yil fevral – "*Iqtisodiyotning uzviy qurilishini tayyorlash to'g'risida*"gi qonun asosida iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning yangi tizimi yaratildi. Imperiyaning iqtisodiy palatasi mamlakatdagi butun iqtisodiy hayotni muvofiqlashtirdi. U xom ashyoni taqsimlash, bozorlarni bo'lish, narxlarini belgilash, hukumat buyurtmalarini tasdiqlash va shu kabi ishlar bilan shug'ullandi. Uning tarkibiga 6 imperiya xo'jalik guruhlari, 44 xo'jalik guruhlari, 350 maxsus guruhlar va 640 maxsus guruhchalar kirib, ular mamlakatning joylardagi iqtisodiy hayotini nazorat qildilar. Bu tizim vakillari SS generallari (*gruPENfurerlar*) darajasiga ko'tarilgan va Imperiya iqtisodiy palatasini boshqaruvchi yirik sarmoyaning dikturasini qonuniylashtirdi. Germaniyaning yirik konsernlari vakillari endi mamlakatning xo'jalik hayoti ustidan cheksiz hokimiyatni qo'lga kiritdilar. Bundan tashqari, yetti imperiya guruhlari iqtisodiyot sohalari - sanoat, energetika, hunarmandchilik, transport, bank va sug'urta faoliyatini nazorat qildilar. Bular vazirliklarga yaqin idoralar bo'lib, yirik tadbirkorlar tomonidan boshqarilardi.

1934-yil fevral – "*Ispan falangasi*" boshqa reaksion tashkilot – "*Milliy-sindikalist hujum xuntasi*" bilan yagona fashistlik partiyaga – "*Ispan falangasi va XONS*"ga birlashdi.

1934-yil fevral – Italiya, Vengriya va ularga qo'shilgan Bolgariya tomonidan dushmanlik harakatlari kuchayganligi tufayli Yugoslaviya, Ruminiya, Turkiya va Gretsiya qo'shilgan Bolqon pakti tuzilishiga erishdi. Yugoslaviya fashistlar ekspansiyasi xavfi tufayli Fransiya bilan o'z munosabatlarini mustahkamlashga intildi.

1934-yil 6-fevral – Fransiya hukumati inqirozni siyosiy inqirozga o'sib o'tganidan so'ng, Parijda fashistlar isyoni boshlandi. Bir necha 10 ming qurollangan fashistlar ko'chalarga chiqdilar va Burbonlar saroyi, parlament binosiga yorib o'tishga urindilar. Hukumatning beparvoligidan foydalanib, fashistlar pochta, telegraf, vokzallar va Yelisey dalasidagi Murosa maydoniga hujum qila boshladilar.



1934-yil 7-fevral – *E.Daladye* o'ziga ishonch bildirilganiga qaramay iste'fo berdi. Bosh vazir qilib fashizmning ochiq tarafdori bo'lgan *Gaston Dumerg* tayinlandi.

1934-yil 9-fevral – kechqurun 50 ming parijlik fashistlarga qarshi namoyishga chiqdi. Shaharda politsiya va ishchilar o'rtasida haqiqiy ko'cha janglari avj oldi. Parij kasalxonalarini yaradorlar bilan to'lib-toshdi. Ishchilar hukumat fashistlar tomonida ekaniga ishonch hosil qildilar, zero uning buyrug'iga ko'ra politsiya va qo'shinlar *de Lya Rok* bandalariga qarshi emas, Parij mehnatkashlariga qarshi chiqdilar.

1934-yil 12-fevral – butun Fransiyada umumiy ish tashlash boshlandi. Unda 4,5 mln. kishi qatnashdi. Shu kuni Fransiyada fashistlarga tarafdor reaksiyon kuchlar tomonidan tayyorlangan davlat to'ntarishi barbod bo'lgani oydinlashdi. Fashizm Fransiyada o'tmadi.

1934-yil mart - Toshkentda O'zbekiston yozuvchilari qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda respublika yozuvchilari uyushmasi tuzildi

1934-yil may – Kolumbiya va Peru o'rtasida sulh tuzildi va unga ko'ra Letisiya Kolumbiyaga qaytarildi. Urush natijasida ikkala mamlakatdan ham reaksiyon kuchlar o'z mavqeilarini mustahkamladilar.

1934-yil 19-may – reaksiyon kuchlar Bolgariyada yana davlat to'ntarishini amalga oshirishdi. Bolgariyada harbiy diktatura o'rnatilib, unga general *K. Georgiev* boshchilik qildi. Yangi hukumat barcha siyosiy partiyalarni ta'qiqlab, kasaba uyushmalarini qonundan tashqari deb e'lon qildi. Georgievdan keyingi hukumatlar uzoq faoliyat ko'rsatmadi va siyosatga o'zgarishlar kiritishmadi.

1934-yil 19-may – Bolgariyada davlat to'ntarishi va fashistik diktatura o'rnatilishi.

1934-yil iyun – Chexoslovakiya bilan SSSR o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi, savdo shartnomasi va kredit bitimi tuzildi.

1934-yil iyun – SS fashistlar partiyasini tozalash bo'yicha qonli tadbirlarni amalga oshirdilar.

1934-yil 30-iyun – tunda SAning yuksak lavozimlarni egallagan barcha rahbarlari o'ldirildi. Bu tun "*uzun pichoqlar tuni*" nomini oldi. Yuzdan ortiq kishi, shu jumladan, *Rem* va sobiq kansler *fon Shleyxer* ham o'ldirildi. Natsistlar partiyasidagi muxolifat ham tor-mor keltirildi va Gitler Germaniyaning yagona hukmroni, partiya rahbari – fyureri, ya'ni Germaniya xalqining cheksiz huquqqa ega dohiysiga aylandi.

1934-yil iyul – San-Fransiskoda bo'lgan umumiy ish tashlash o'sha yillardagi sinfiy kurashning yorqin voqealaridan biridir. Unda 127 ming kishi qatnashdi. Bu ish tashlash o'z kasaba uyushmalari tan olinishiga va mehnat sharoitlari yaxshilanishiga harakat qilayotgan dengizchilar hamda port yukchilarini qo'llab-quvvatlash uchun o'tkazilgan edi.

1934-yil 25-iyul – Avstriyada fashistlar fitnasi.

1934-yil 2-avgust – Gitlerning "german xalqining fyureri va reyxskansleri" deb e'lon qilinishi.

1934-yil 2-avgust – Prezident *Gindenburg* vafot etdi. *Gitler* Uchinchi reyx deb nomlana boshlangan Germaniya davlatining kansleri va prezidentiga aylandi.

1934-yil 2-avgust-1945-yil 30-aprel – *A. Gitler* fyurer va reyxskansler.



1934-yil 18-sentabr – SSSRning Millatlar Ligasiga kirishi.

1934-yil oktabr-1936-yil yanvar – Fransiyada tashqi ishlar vaziri *P.Tardye, E.Daladye, J.Bone, A.Sarro* va boshqalar bo'lgan.

1934-yil oktabr – Fransiya bosh vazirligiga *P.Laval* tayinlandi. U ikki yoqlama o'yin olib bordi, ya'ni fashistlarning davlatlari e'tiborini jalb qilish maqsadida o'zini go'yoki Sovet Ittifoqi bilan yaqinlashmoqchidek qilib ko'rsatdi.

1934-yil 1-oktabr – eng reaksion doiralarning 3 ta vakili – "*Ispan avtonom o'nglar konfederatsiyasi*" (SEDA) partiyalari hukumatga kiritildi va bu qurolli qo'zg'olon boshlanishi uchun yetarli bo'ldi.

1934-yil 5-oktabr – tongda SEDAning 3 ta vakilini hukumatga kiritish haqidagi qarorga javoban butun mamlakatni umumiy ish tashlash qamrab oldi. *Asturiyada* qurolli qo'zg'olon boshlandi.

1934-yil 9-oktabr – Qirol *Aleksandr* rasmiy tashrif bilan Marselga keldi. Tashrif chog'ida unga suiqasd uyushtirildi va qirol halok bo'ldi. Bu terrorchilik ishi "Tevton qilichi" operatsiyasi nomini olgan edi.

1934-yil noyabr – yangi fashistlik partiya "*Ispan falangasi va XONS*" Ispaniyani "inqilobiy yangilash" dasturini ilgari surdi. Bu dastur "26 modda" deb nomlanib, shaxsan general *Primo de Rivera* tomonidan tuzilgan edi.

1934-yil 11-dekabr – *S.M.Kirov*ning o'ldirilishi. Uzoq davom etgan ommaviy qatag'onlar boshlanishi.

1934-yil oxiri - Qoraqalpog'istonda Ittifoqda eng yirik hisoblangan beda tozalash zavodi ishga tushirildi. Paxta zavodlari qayta qurildi va yangilari bunyod etildi. Mo'ynoqda baliq-konserva kombinati qurildi, To'rtko'l elektr stansiyasi ishga tushdi, suv, avtomobil va havo transporti rivojlanib bordi. Bir nechta bosmaxona va Nukusda poligrafiya kombinati ishga tushirildi. 940 nafar muhandis-texnik xodimlarning atigi 37 nafari mahalliy millat vakillaridan edi.

1935-yil boshi - SSSR ning yangi konstitutsiya komissiyasi tuzildi.

1935-1937-yillar – AQSh bilan SSSR o'rtasida 2 mamlakatning o'zaro foydali iqtisodiy munosabatlari rivojlanishiga imkon beruvchi savdo bitimlari tuzildi.

1935-1937-yillar - dehqonlarning qattiq mehnati va shijoati tufayli O'zbekiston qishloq xo'jaligida ba'zi bir yutuqlar qo'lga kiritildi. Don, sholi, arpa, makkajo'xori ishlab chiqarish ko'paydi. Chorvachilik qishloq xo'jaligining muhim sohasi bo'lib qoldi.

1935-1937-yillar – *S. Bolduinning* Angliyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1935-yil – Angliya burjuaziyasi mahalliy millat vakillari orasida o'ziga ittifoqchilar topish, ularni qurolli kuchlarga jalb qilish va ulardan o'z hududlarini yapon agressiyasidan himoyalovchi qismlar tashkil qilishga urundi. Hindiston uchun joriy qilingan yangi konstitutsiya shu maqsadini ko'zlardi. Vakillar idoralariga saylovchilar soni 14 % gacha oshirildi. Hokimiyat Angliya general-gubernatorlari va mustamlakalarning ma'muriyatlari qo'lida to'la saqlanib qoldi.

1935-yil – Angliya-Germaniya dengiz bitimi imzolandi.

1935-yil – AQSh Kongressi "Vagner qonuni"ni qabul qildi. Mazkur qonun bo'yicha ishchilar jamoaviy shartnomalar tuzish huquqiga va ish tashlash huquqiga ega bo'lishdi. Bundan buyon ish tashlashda qatnashganligi uchun ta'qib qilish man qilindi.



1935-yil - AQSh tarixida birinchi marta ijtimoiy sug'urtalash haqidagi qonun qabul qilindi. Bu qonunda keksalarni ta'minlash va ishsizlik bo'yicha kompensatsiya to'lash, ko'zi ojizlarga, majruhlarga, yolg'iz onalarga va yetimlarga yordam berish ko'zda tutildi. Bunday qonunlar mavjud bo'lmagan mamlakatda bu hodisa ijtimoiy islohotlar va adolatli jamiyat yaratish yo'lidagi olg'a tashlangan katta qadam edi.

1935-yil – Fransiyada 135 ta ip-gazlama fabrikalari yopildi.

1935-yil - ishchilar orasida staxanovchilik harakati yuzaga keldi, lekin bu harakat rasmiyatchilikka aylandi: oshirib ko'rsatishlar, unga hal qiluvchi omil deb qarash avj oldi. Moddiy boylik yaratuvchilar zo'r berib qilgan mehnatlari samarasidan manfaatdor bo'lmadilar.

1935-yil - Qoraqalpog'istonda 13644 nafar savodli xotin-qiz bo'lgan.

1935-yil – saylov yakunlari mamlakat yaxlitligining bo'lg'usi muammolari haqida xatarli ogohlantirish bo'ldi. Sudet-nemis partiyasi ovozlari soni bo'yicha 2-bo'lib, katta yutuqqa erishdi. Bu partiya 1.240 ming saylovchi ovoz berdi. Natijada Sudet-nemis partiyasi deputatlar palatasida 44 mandatga ega bo'ldi, agrar partiya 45 mandat oldi. Bir necha partiyalar, Sudet-nemis partiyasi asosida tuzilgan hukumatga agrar partiya vakili *M. Godja* boshchilik qildi.

1935-yil – Standart Oyl of Kaliforniya” nomli Amerika kompaniyasi Fors qo'ltig'i sohilidan neft topdi.

1935-yil – *Tomash Masarik* o'z do'sti, safdoshi va maslakdoshi *E. Benesh* foydasiga Prezidentlik lavozimini rad etdi.

1935-yil – Venesuela 27 mln. tonna neft qazib oldi.

1935-yil - Xalq raqsining Angliyadagi butun jahon festivalida o'zbek raqs san'ati yuqori baho oldi. Bu festivalning 35 nafar sovet qatnashchilari qatorida *Tamaraxonim, Usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Abduqodir Ismoilov* O'zbekistondan vakil bo'lib bordilar.

1935-yil mart – gitlerchi hukumatning umumiy harbiy majburiyatni joriy etganligi Chexoslovakiya hukumatini SSSR bilan o'zaro yordam haqida ikkiyoqlama shartnoma imzolashga majbur qildi. Sovet-chexoslovak shartnomasiga *E. Benesh*ning talabi bo'yicha Fransiya o'z yordami haqida ma'lum qilgan holatdagina SSSR tomonidan Chexoslovakiyaga ko'mak berilishi haqidagi band kiritilgandi. Ushbu band uch yildan so'ng Chexoslovakiya taqdirida mash'um rol o'ynadi. Fransiya yordam berishdan bosh tortgach, Sovet Ittifoqining aralashuvi masalasi ham avtomatik ravishda ko'tarilmadi.

1935-yil 2-mart – Fors davlatiga yangi rasmiy nom – Eron nomining berilishi.

1935-yil 16-mart – Germaniya bir tomonlama tarzda Versal shartnomasining harbiy moddalarini bekor qildi va yalpi harbiy majburiyatni joriy etdi.

1935-yil 16-mart – Germaniyada umumiy harbiy majburiyat to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Bu kunga kelib 8 mln. nemis o'smirlari Germaniya qo'shondonligini talablarini harbiy, siyosiy va jismoniy jihatdan to'liq qoniqtiruvchi zamonaviy armiya asosini tashkil qilardilar. Garchi Germaniya faqat 500 ming kishilik armiya tashkil qilish to'g'risida e'lon qilgan bo'lsada, millionlab kishilar armiyaga a'zo bo'lishga tayyor turardilar



1935-yil 16-mart – Versal sharnomasiga zid ravishda Germaniyaning fashistik hukumati tomonidan umumiy harbiy majburiyat haqida qonun qabul qilinishi.

1935-yil may – AQSh Oliy sudi moliya oligarxiyasi tazyiqi orqali bir necha qonunlarni konstitutsiyaga to'g'ri emasligini e'lon qildi.

1935-yil may – Germaniya Versal bitimining qurollanishga tegishli bandlarini bekor qilganini e'lon qildi, dunyoga harbiy-havo kuchlari, yirik muntazam armiya tuzish va majburiy harbiy xizmatni joriy etishini bildirdi.

1935-yil 2-may – Parijda SSSR va Fransiya o'rtasida o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitim imzolandi.

1935-yil 2 may – o'zaro Fransiya yordam to'g'risidagi sovet-fransuz bitimi imzolandi.

1935-yil 5-may – Skupshinaga saylovlar vaziyatning keskinlashuviga kuchli turki berdi. Ovozlarining 60 % ini hukumat ro'yxati, 34 % ini muxolifat oldi. Lekin bu ko'pchilikka tayangan hukumat beqaror edi. Uni asosan o'ta o'ng reaksiyon unsurlar qo'llab-quvvatladi.

1935-yil 10-may – *Pilsudskiy* tartiboti tanazzulga uchradi. *Pilsudskiy* o'limidan so'ng uning o'rnini general *E. Ridz-Smigli* egallab, o'z xalqiga qarshi terror siyosatini yurita boshladi.

1935-yil 15-may – Moskva metropoliteni 1-navbatining ochilishi.

1935-yil 16-may – sovet ittifoqi va Chexoslovakiya o'rtasida o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitim imzolandi. SSSRning Chexoslovakiyaga faqat Fransiya Chexoslovakiyaga nisbatan o'z majburiyatini bajargan taqdirdagina yordam berishini ko'zda tutardi.

1935-yil iyun 1936-yil yanvar – Fransiyada bosh vazir *P. Laval* bo'lgan.

1935-yil iyun – Boliviya va Paragvay o'rtasida harbiy harakatlar to'xtatildi.

1935-yil iyun – *R. Makdonald* Bosh vazir lavozimidan olinib, uning o'rniga konservatorlar partiyasi rahbari *Stenli Bolduin* tayinlanadi.

1935-yil 18-iyun – Angliya-Germaniya dengiz bitimi imzolanib, unga ko'ra Germaniyaga harbiy-dengiz flotining 1/3 ga teng harbiy-dengiz floti tuzishga ruxsat berildi. Bunday flotni tuzib Germaniya butun Boltiq dengizida xo'jayinga aylanardi. Angliya-Germaniya bitimi Versal bitimini buzardi, biroq buzg'unchi bu safar Angliya bo'lib, u Germaniyaning bunday buzg'unchiliklariga qarshi norozilik bildirishga ma'naviy huquqni yo'qotardi.

1935-yil avgust – “*betaraflik – urushga qarshi vositachi*” shiorini ilgari suradigan kuchli senatorlar guruhi mavqei tufayli kuchaya bordi. Bu senatorlar guruhi ko'pgina holatlarda tashqi siyosat masalalari bo'yicha muhim qarorlar qabul qilinishiga faol ta'sir ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi. Ularning tazyiqi bilan betaraflik haqidagi qonun qabul qilindi.

1935-yil 2-avgust – Birmaning Hindistondan ajralib chiqishi.

1935-yil 31-avgust – AQShda “Betaraflik haqida qonun”ning qabul qilinishi.

1935-yil oktabr – Italiya armiyasi Efiopiyaga urush e'lon qilmay bostirib kirdi.

1935-yil 3-oktabr – fashistik Italiya qo'shinlarining Efiopiyaga bostirib kirishi.

1935-yil 11-oktabr – Millatlar Ligasi tomonidan Efiopiyaga bostirib kirganligi uchun Italiyaga iqtisodiy sanksiyalar qo'llash haqida qaror qabul qilinishi.



1935-yil 21-noyabr – Misrning barcha shaharlarida umumiy ish tashlashlar bo'lib o'tdi. Qohirada kuni bo'yi qo'zg'olonchilar va politsiya o'rtasida otishma bo'ldi. Bu voqealar bo'ron darakchilari edi va ular Misr xalqining kuchi va uyushqoqligi ancha o'sganini ko'rsatdi.

1935-yil 25-noyabr – *Kondilis* soxta plebissit o'tkazgan holda Angliyadan qirol *Georg II* ni qaytarib keldi. Gretsiyada terror va repressiyalarning uzoq davri boshlandi.

1935-yil dekabr – Ispaniya hukumati iste'foga chiqdi.

1935-yil dekabr - Qoraqalpog'iston ASSR Markaziy Ijroiya Komitetining qabul qilgan mahsus qaroriga muvofiq, xotin-qizlar savodsizligini tugatishga to'sqinlik qiluvchi har qanday shahs jinoyi javobgarlikka tortilishi kerak edi.

1935-yil 13-dekabr – Misrda 1923-yilgi Konstitutsiyaning tiklanishi.

1935-yilgacha - Xorazmda vatanparvarlar harakati ayrim guruhla tomonidan davom ettirildi. Buxoro, Xorazm respublikalari, umuman, O'zbekiston hududidagi sovet hokimiyati va qizil armiyaga qarshi kurashlar tarixiga yakun yasalar ekanmiz, ularni keng xalq ommasi, 1-navbatda dehqonlar qahr-g'azabi, noroziligining yuksak darajaga ko'tarilganligi ifodasi deb e'tirof etishimizga to'g'ri keladi.

1936-yil – Moskvada qator ko'rgazmali jarayonlar o'tkazildi. Eng yuqori lavozimlarda ishlagan sovet rahbarlari bo'ynilariga qo'yilgan barcha siyosiy ayblarni sodir etganliklariga iqrar bo'ldilar. Ularning ko'pchiligi uzoq muddatlarga qamoq jazosiga hukm etildi, aksariyati esa qatl qilindi.

1936-1937-yillar - o'quv yilida Qoraqalpog'istonda 1-o'n yillik maktab ham paydo bo'ldi.

1936-1938-yillar – Moskvada bolsheviklar partiyasining sobiq rahbarlari ustidan sud jarayonlari bo'lib o'tdi. *N.I.Buxarin*, *G.Ye.Zinovev*, *L.B.Kamenev*, *A.I.Rikov*, *M.P.Tomskiy* va boshqalar fitna, diversiyalar uyushtirganlik, josuslikda ayblanib, o'lim jazosiga hukm qilindilar. Shundan so'ng Stalin yakka diktatorga aylandi. Ommaviy axborot vositafari uning qo'lida Stalin shaxsiga sig'inishni, tuzumning amaldagi va ehtimoliy dushmanlarini ma'naviy va ruhiy terror qilishni targ'ib qiluvchi vositaga aylanib qoldi.

1936-1940-yillar – O'zbekistonda faqat davlat va jamoat arboblari, yozuvchilar, shoirlar va olimlardan 5758 kishi qamoqqa olinib, ulardan 4811 nafari o'limga hukm qilingan edi.

1936-1952-yillar – *Faruq* Misr qiroli.

1936-1952-yillar – *Georg VI* Buyuk Britaniya qiroli.

1936-1952-yillar – *Georg VI* ning Angliya qiroli sifatidagi faoliyati.

1936-may-1937-yil dekabr – ikki devalvatsiya natijasida Fransiyada yashashning qiymati 40 % ga qimmatlashdi.

1936-yil – Angliya qo'shinlari faqat Suvaysh kanali hududi, Qohira va Aleksandriyadagina qoldirildi. Boshqa hududlarda yangi tashkil bo'layotgan Misr milliy qo'shini harbiy qismlarni joylashtirishdi. II jahon urushi boshlanishi bilan Misr betaraflik e'lon qildi.

1936-yil – Angliyaning chet ellarga joylashtirilgan sarmoyalari 61 mln. funt sterlingni ichki sarmoyalari esa 217 mln. funt sterlingni tashkil qildi.



1936-yil – davlat sotsializmining totalitar tizimi mamlakatning yangi konstitutsiyasi bilan mustahkamlandi. Bu hujjatda fuqarolarning huquqlari, demokratiya va qonuniylik, adolat va insonparvarlik to'g'risida ko'p gapirildirdi. Aslida esa konstitutsiya ham proletariat diktaturasi, ham demokratiya o'rniga kelgan kommunistik partiya oliy idorasining diktaturasini mustahkamlardi. Partiya qarorlari endi bajarilishi shart bo'lgan qonunlar bilan tenglashtirildi. Partiya apparati davlat apparati o'rnini egalladi. U bir vaqtning o'zida qonun chiqaruvchi va ijrochi hokimiyatga aylandi. Hukumat idoralari endi faqat partiya apparati irodasini so'zsiz bajarish bilangina shug'ullanuvchi itoatgo'y idoralarga aylandilar.

1936-yil – *F.Ruzvelt* saylovlarda ajoyib g'alaba qozondi. 48 shtatdan 46 tasi uning nomzodini quvvatladi. Bu umumxalq qo'llab-quvvatlanishini olgan neoliberalizmning zafari edi. Saylovlar AQShdagi firqaviy tizimda mavqeilarning o'zgarishiga olib keldi. Yetakchi rol respublikachilardan demokratlarga o'tdi.

1936-yil – Fuqarolik forumi yo'l boshchisi *Vatslav Gavel* dunyoga keldi.

1936-yil – *Genrix Gimmler* Gestapo shefi bo'lgan.

1936-yil – Ispaniyada fashistlar harbiy qo'zg'olon uyushtirib, mamlakatga Italiya va Germaniyaning harbiy qo'shilmalari bostirib kirishi bilan boshlangan edi. Gitler va Mussolini tinch aholini ayovsiz qirib, himoyasiz shahar va qishloqlarni vayron qilib, Yevropa xalqlarining yuragiga qo'rquv solishni ko'zladilar.

1936-yil – Koreya vatanparvarlik kuchlari Shimoliy Sharqiy Xitoy hududida "*Vatanni tiklash jamiyati*"ni tuzdi. Mazkur tashkilot dasturida mamlakatda yapon mustamlakachilik tartibini tugatish va Koreya demokratik hukumatini barpo etish ko'zda tutilgan edi.

1936-yil – O'zbekistondagi 186 ming ayol o'z xat-savodini chiqardi.

1936-yil – *Somosa* Nikaragua diktatorligini qo'lga kiritdi va mamlakat ustidan AQShning to'la hukmronligini o'rnatdi.

1936-yil – Toshkentda davlat konservatooriyasi ochildi.

1936-yil – *Uilyam Folkner* "*Avessalom! Avessalom!*" nomli roman yaratdi.

1936-yil – Venesuela neft konlari ishchilari mamlakatdagi vatanparvarlik harakatining bosh kuchiga aylandi. Bu harakat o'z faoliyatini mamlakatni AQSh monopoliyalari tazyiqidan xalos etish va demokratik islohotlarni o'tkazishga qaratdi. Ularning tashabbusi bilan Venesuelada prezident *Eleasar* Kontrerasdan demokratik erkinliklar, kasaba uyushmalari huquqlarini tiklashni va ijtimoiy islohotlar o'tkazishni talab qilgan ommaviy namoyishlar avj oldi. Vatanparvar kuchlarning tazyiqi ostida prezident fuqarolarning shaxsiy huquqlarini kafolatlovchi mamlakat konstitutsiyasini qabul qilishga majbur bo'ldi. Bir vaqtning o'zida har bir shtat o'z konstitutsiyasini qabul qildi.

1936-yil – Vengriyada sanoat ishlab chiqarishi darajasi inqiroz gacha bo'lgan darajaga qadar tiklandi, lekin qishloq xo'jaligida turg'unlik davom etaverdi.

1936-yil yanvar – AQSh Oliy sudi qabul qilgan qishloq xo'jaligining boshqarilishi haqidagi qonunning konstitutsiyaga to'g'ri emasligini e'lon qildi.

1936-yil yanvar – Fransiyada xalq frontining dasturi e'lon qilindi. Dastur fashistlarga qarshi demokratik xususiyatga ega edi. Barcha fashistlarning tashkilotlarini qurolsizlantirish va tarqatish talabidan tashqari, u keng xalq



ommasining ahvolini yaxshilash - ish haftasini qisqartirish, ishsizlarga yordam ko'rsatish milliy jamg'armasini tashkil qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga qat'iy narxlarni belgilashni ko'zda tutuvchi dasturni ham ilgari surardi.

1936-yil yanvar – sovet-fransuz bitimi tasdiqlandi.

1936-yil yanvar-dekabr – *Eduard VIII* ningAngliya qiroli sifatidagi faoliyati.

1936-yil 15-yanvar – so'l respublikachi partiyalar va kasaba uyushmalari vakillari Xalq fronti haqida bitimni imzolashdi. Dasturda quyidagi talablar: siyosiy mahbuslarni afv etish, 1934-yil oktabrdagi janglarda ishtiroki uchun ishdan bo'shatilganlarni ishga qabul qilish, repressiya aybdorlarini jazolash, armiya va davlat apparatini demokratlashtirish, dehqonlarga soliqlarni va ijara haqini kamaytirish, ishsizlikni tugatish uchun jamoat ishlarini tashkil etish, ijtimoiy sug'urtalanish haqidagi qonunlarni tiklash va boshqalarni ilgari surdi. Shu tariqa Ispaniyaning kelajagi saylovlarga bog'liq bo'lib qoldi.

1936-yil 16-fevral – Ispaniya Xalq fronti partiyalari korteslarga saylovlarda salmoqli muvaffaqiyatga erishdilar. Ularning 268 nafar vakili deputatlikka saylandi. O'ng partiyalar faqat 205 ta o'rin olishdi. Saylov natijalari asosida so'l respublikachilar yo'l boshchisi - *Manuel Asani* boshchiligida yangi hukumat tuzildi.

1936-yil mart – *Gitler* qo'shinlari harbiysizlashtirilgan Reyn hududiga kirdi. Bu bilan Gitler Fransiyaning ochiq-oydin maydonga chaqirdi. Versal bitimining 42- va 43-moddalari buzilganiga qaramay, Fransiya chekindi, fashistlar Germaniyasining birinchi tajovuzkor harakatiga hech qanday qarshilik ko'rsatmadi. Kollaboratsionistlar Gitler tuzumiga qarshi zarba mehnatkash ommani inqilobga ruhlantiradi, valanparvarlik tuyg'ularini oshirib, fashizmga qarshi kurashning kuchayishiga olib keladi, deb qo'rqdilar.

1936-yil 7-mart – Germaniya qo'shinlarining Reyn viloyatiga bostirib kirishi va Germaniya tomonidan Lokarno bitimining imzolanishi.

1936-yil 7-mart – tongda yangi Germaniya armiyasining qo'shilmalari Reyn harbiysizlashtirilgan zonasi hududiga bostirib kirdi. Bu Versal bitimining Reyn harbiysizlashtirilgan zonasini tuzish va Germaniyani bu yerda qo'shinlar saqlash yoki harbiy istehkomlar qurish huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi 42- va 44-moddalarining to'g'ridan-to'g'ri buzilishi edi. Fransiya va Angliya norozilik bildirish bilan kifoyalandilar, bunga javoban *Gitler* ularga qator tinchlikparvar takliflar bilan murojaat qildi. Biroq Germaniya Fransiyaning sharqiy chegaralariga jiddiy xavf soldi. Sobiq Reyn harbiysizlashtirilgan zonasi Fransiya uchun eng jiddiy xavf tug'dirgan hududga aylandi. Bu *Gitler*ning bosqinchilik faoliyatiga asos solgan dastlabki muvaffaqiyati bo'ldi.

1936-yil 27-aprel – Belgiya o'zini betaraf deb e'lon qildi, ya'ni Fransiyaning sharqiy chegaralarini qo'riqlovchi Reyn bitimining kafolatchisi bo'lishdan bosh tortdi.

1936-yil may – 600 ming kishilik Italiya armiyasi Efiopiyaning ishg'ol qilishga erishdi. Millatlar Ligasi Italiya hukumatining harakatlarini qoralovchi rezolyutsiyani qabul qildi va mamlakatga qarshi iqtisodiy sanksiyalar e'lon qildi. Bu Italiyaning fashistlar Germaniyasi bilan yaqinlashishiga turki berdi.

1936-yil may – Gretsiyada 300 ming kishi qatnashgan umumiy ish tashlash bo'lib o'tdi.



1936-yil may - SSSRning tayyorlagan yangi Konstitutsiyasi loyihasida QQASSRni RSFSR tarkibidan chiqarib, O'zbekiston SSR tarkibiga kiritish ko'zda tutilgan edi.

1936-yil may o'rtasi - SSSRning yangi konstitutsiyasi komissiyasi yangi Konstitutsiya loyihasini tayyorladi, ushbu Konstitutsiyada loyihasida Qoraqalpog'iston ASSRning O'zbekiston tarkibiga kirishi ko'zda tutilgan edi. Qoraqalpog'iston ASSRning RSFSR tarkibidan chiqishi bu respublikalarda Rossiya Federatsiyasi bilan umumiy chegaralar yo'qligi bilan izohlandi. Iqtisodiyotning o'ziga xos tomonlari va hududiy o'rnashuviga ko'ra Qoraqalpog'iston ASSRning O'rta Osiyo respublikalaridan biri tarkibiga kirishi maqsadga muvofiq deb topildi. Iqtisodiyot, hudud va madaniyat jihatidan olganda O'zbekiston hammadan yaqin va juda bop edi.

1936-yil iyun – Ispaniyadagi dehqonlar 700 ming gektardan ziyod yer olishdi.

1936-yil iyul 1939-yil mart – Ispaniyada fuqarolar urushi bo'lib o'tgan.

1936-yil iyul – Avstriya kansleri *Kurt Shushnig* Germaniya bilan shartnoma imzoladi. Unga ko'ra, Germaniya Avstriyaning mustaqilligini tan oldi, Avstriya esa, o'z navbatida, o'zini "Germaniya davlati" deb hisoblardi.

1936-yil iyul – *Gitler* Avstriyani ham bosib oldi. Fransiya o'zining so'nggi ittifoqchisidan ayrildi.

1936-yil iyul – Ispaniyada boshlangan fuqarolar urushi *Gitlerga* yangi qulay imkoniyatlar berdi. U Ispaniya fashistlariga Afrika qit'asidan Marokash korpusini olib kelish uchun harbiy-havo kuchlarining "Kondor" diviziyasini taqdim qildi. Bu korpus qo'zg'olonni bostirishda asosiy hujumkor kuch bo'ldi. Bundan tashqari, Ispaniyaga 7 mingdan ortiq samolyotlar yuborildi va ular Ispaniya shaharlarini ayovsiz bombardimon qildilar. Buning evaziga *Gitler* Ispaniyadan kamyob va qimmatbaho strategik materiallar oldi, ular Germaniya armiyasini qurollantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. *Franko* Germaniyaning sodiq ittifoqchisiga aylandi. Endi Fransiyaning janubida ham unga qarshi dushmanona harakatlarni boshlashi va *Gitlerga* bebaho strategik yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan davlat paydo bo'ldi. Fransiya janubida Germaniyaning yana bir ittifoqchisi - fashistlar Italiyasi joylashgani hisobga olinsa, aytish mumkinki, Fransiya fashistlar davlatlari qurshovida qoldi va uning kunlari sanoqli edi. *Gitler* Fransiya Germaniyaning ashaddiy dushmani ekanini yashirmasdi.

1936-yil iyul – Ispaniyada fuqarolar urushi boshlandi, Germaniya va Italiya fashistlari isyonchilarga ochiq-oydin yordam bera boshlaganlaridan so'ng, Fransiya Ispaniya ishlariga o'zining aralashmasligini e'lon qildi va Ispaniya respublikachilariga qurol-yarog' sotishni man etdi. Fransiya hukumati *Gitleming* malayiga aylandi.

1936-yil 17-iyul – Ispaniyada harbiy-fashistik isyon – Marokashning ispan zonasida boshlandi.

1936-yil 18-iyul – Ispaniyada fashistlar isyoni boshlandi. Butun armiyaning 80 % i isyonchilar tomonidan bo'lib chiqdi.

1936-yil 19-iyul – oqshomida Ispaniyaning asosiy sanoat markazlari xalq qo'lga o'tdi. Fuqarolar urushi taqdirini Germaniya va Italiyaning aralashuvi hal qildi.

1936-yil avgust – Londonda Angliya hukumatining tashabbusi bilan Yevropa



mamlakatlari Ispaniyaga qurol-yarogʻ, samalyotlarni eksport va transit qilishni taqiqlovchi Ispaniya ishlariga aralashmaslik toʻgʻrisidagi bitimni imzoladilar. Bu taqiqning bajarilishini kuzatish va nazorat qilish uchun ingliz lord *Plimut* rahbarligida *Aralashmaslik qoʻmitasi* tuzildi. Bu qoʻmita fashist davlatlariga Ispaniya respublikasini yoʻq qilishga koʻmaklashdi. U Ispaniyaga respublika uchun kurashayotgan respublikachi va demokratlar uchun qurol-yarogʻ va hatto oziq-ovqat keltirilishning yoʻlini toʻsdi va fashist isyonchilarini taʼminlash uchun barcha yoʻllarni ochib berdi.

1936-yil 4-avgust – harbiy ministr general *Metaksas* Gretsiyada shaxsiy diktatura tartibini oʻrnatib, davlat toʻntarishini amalga oshirdi. Parlament tarqatildi, tez orada qabul qilingan “Kommunizmga va uning oqibatlariga qarshi kurash choralariga haqida”gi qonunga koʻra, partiyalar va ittifoqlar tuzish, yigʻilish va mitinglar oʻtkazish taqiqlandi, oʻta qattiq senzura joriy etildi. General *Metaksas* Gretsiya iqtisodiyotida germanlar ishtiroki ancha ortishiga sharoit yaratdi, qator savdo shartnomalari tuzib, Germaniya bilan yaqinlashish siyosatini oʻtkazdi. Germaniya Gretsiyaga katta miqdorda qarz berdi.

1936-yil 5-avgust – Gretsiyada 2 soatlik umumiy norozilik stachkasi tayinlangan edi.

1936-yil 19-avgust – fuqarolar urushi yaqinlashayotganini sezgan *Federiko Garsia Lorca* siyosiy fojia ustida ish boshladi. *Lorkaning* hayoti va sheʼriyati bevaqt uzildi. Grenada ostonasidagi *Visnor* qishlogʻi yaqinida *Federiko Garsia Lorca* Ispaniyaning qonuniy hukumatiga qarshi isyon koʻtargan fashistlar tomonidan otib tashlandi.

1936-yil 26-avgust – Angliya va Misr oʻrtasida ittifoqchilik va ingliz istilochi qoʻshinlarining Misrda qoldirilishi toʻgʻrisidagi bitimning tuzilishi.

1936-yil sentabr boshi – fashistlar Madridga hujum boshlashdi.

1936-yil oktabr – Ispaniyada soʻl sotsialistlar yoʻlboshchisi *Largo Kabalero* boshchiligidagi yangi hukumat tuzildi. Yangi hukumat muntazam armiya tuzishga va agrar islohotni chuqurlashtirishga kirishdi.

1936-yil 7-oktabr – Ispaniyada dekretga asosan dehqonlar va chorakorlarga deyarli 5,5 mln. gektar yer berildi.

1936-yil 25-oktabr – “*Berlin-Rim*” ittifoqining rasmiylashtirilishi. Italiya va Germaniya oʻrtasida Ispaniya respublikasiga qarshi hamkorlikda kurash va Italiya tomonidan Efiopiyaning bosib olinishini tan olish toʻgʻrisidagi bitimning tuzilishi.

1936-yil noyabr - SSSR Sovetlarining favqulodda VIII qurultoyi chaqirildi, u yangi Konstitutsiyani qabul qildi. Mana shu Konstitutsiya asosida Oʻzbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasi ishlab chiqildi.

1936-yil 9-noyabr – 1-baynalmilal brigada Madrid uchun jangga kirdi. Uning saflarida butun dunyodan: Angliya, Fransiya, Argentina va Amerikadan Ispaniyaga yordamga kelgan jangchilar kurashdilar. Ular orasida Ernest Xeminguey ham bor edi. Baynalmilalchilar kuylagan “*Banderra Rossa*” (“Qizil bayroq”) qoʻshigʻi barcha antifashistlarning gimniga aylandi. Mashhur fransuz yozuvchisi *Jan Rishar Blok* oʻsha kunlari shunday deb yozgan edi: “*Xalq qurollanmoqda, qoʻrquv va xoʻrliklarni yenggan xalqning bu xursandchiligi, gʻururlanishini koʻrmagan odam*”



respublika himoyachilari uchun mudhish va xaloskor so'z - qurol qanday ahamiyatga egaligini tushunishga qodir emas".

1936-yil 9-noyabr – Madrid ko'chalaridan 1- baynalmilal brigada saf tortib o'tdi va darhol Ispaniya poytaxt mudofaasi uchun jangga kirdi. Ispaniyadagi fuqarolar urushida 54 mamlakatdan kelgan ko'ngillilar qatnashishdi.

1936-yil 25-noyabr – Germaniya Yaponiya bilan "*Kominternga qarshi bitim*"ni imzoladi. Bu bitimga ko'ra har bir tomon bir-birini o'z mamlakatlaridagi kommunistlar faoliyati to'g'risida xabardor qilish majburiyatini oldi, SSSR tomonlardan biri bilan nizolashgan taqdirda, ikkinchi tomon betaraf qolishi lozim edi. Tomonlarning hech biri boshqa tomonning roziligisiz SSSR bilan bitim tuzmasligi kerak edi. "Kominternga qarshi bitim" barchani Germaniya Sovet Ittifoqiga qarshi urushga jiddiy tayyorgarlik ko'rayotganiga ishontirishi lozim edi.

1936-yil dekabr – *Chan Kayshi* Shensi poytaxti – *Sian* shahrida Qizil armiyaga qarshi yangi hujum boshlashga harakat qildi. Ushbu sotqinlikdan g'azablangan Siandagi Gomindanchi qo'shinlar isyon ko'tarib, Chan Kayshini qamoqqa olishdi. Ular Gomindan hukumatining qayta tashkil etilishini, fuqarolar urushi butunlay to'xtatilishini, Sun Yatsen vasiyatlari bajarilishini va Vatanni qutqarish konferensiyasi chaqirilishini talab qilishdi. Faqat Sianga kefgan XKP vakili, *Mao Szedun* o'rinbosari *Chjoo Enlaynidg* aralashuvi *Chan Kayshini* sotqinligi uchun jazodan saqlab qoldi. *Chjou Enlay* bilan muzokaralar natijasida *Chan Kayshi* fuqarolar urushini to'xtatish va yapon agressiyasiga qarshilikni tashkil etish haqidagi talabni qabul qildi.

1936-yil 5-dekabr - Butunittifoq Sho'rolarining bo'lib o'tgan favqulodda VIII qurultoyida SSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1936-yil 5-dekabr – Qozog'iston va Qirg'iziston avtonom respublikalarning sovet sotsialistik respublikalarga aylantirilishi.

1936-yil 5-dekabr - SSSRning navbatdagi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1936-yil bahor – Fransiyada deputatlar palatasiga saylovlar bo'lib o'tdi. Xalq fronti partiyalari birgalikda, umumiy dastur asosida ishtirok etdilar. Saylovlarda Xalq fronti umumiy hisobda 57 % ovoz to'plab, g'olib chiqdi. Xalq fronti hukumati Sotsialistik partiya yetakchisi *Leon Blyum* rahbarligida Fransiyada inqirozning yangi bosqichi boshlanayotgan bir paytda ish boshladi. Shunga qaramay, u o'z dasturini amalga oshirish va bergan va'dalarini bajarish borasida juda katta ishlarni amalga oshirdi.

1936-yil yoz – Fransiya parlamenti Xalq fronti dasturiga mos keluvchi 100 dan ortiq qonunlarni qabul qildi.

1936-yil yoz – natsistlar rahbariyati butun iqtisodiyotni urush yo'nalishiga o'tkazishning to'rt yillik rejasini ishlab chiqdi. To'rt yil ichida barcha mamlakatlarning armiyasidan bir necha baravar ustun bo'lgan eng zamonaviy armiya tashkil qilinishi lozim edi. Butun siyosat faqat urush olib borish nuqtai nazaridan ko'zdan kechirilardi. Xuddi shu jarayonda Germaniyaga urushga tayyorgarlik ham jadal sur'atlarda olib borildi.

1936-yil yoz – Berlinda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlari Yevropa jamoatchiligini yanada tinchlantirdi. Germaniya sport rivojlanayotgan, yoshlarga



musobaqalashtirish imkoniyatlari yaratib berilgan tinchliksevar mamlakat bo'lib ko'rindi. Berlin tinchlik, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shiorlar bilan bezatilgan edi.

1936-yilgacha – Ispaniyada ijaraga berilgan uy-joylarga to'lov shundayligicha qoldi. Korxonalar to'xtab qolgan-da tadbirkorlar ishchilarni ishdan bo'shatmasligi uchun ularga dotatsiya to'landi. Kasaba uyushmasi tashkilotlari badallar tushumidan anchagina mablag'larga ega bo'lishdiki, ularga ishchilar uchun kasalxonalar, sanatoriylar, pansionatlar, dam olish uylari, sport va madaniy inshootlari qurildi. Frankizm Ispaniyada o'z tomoniga mehnatkashlarni tortish uchun bir qator ijtimoiy choralarni amalga oshirdi. Doimiy ishchilarni ishdan bo'shatish man etildi. Ijtimoiy sug'urtaning qiyosiy rivojlangan tizimi yaratildi. Mayda ijarachilarni yerdan haydash man etildi va ularga to'lanadigan renta hajmi ikki marta qisqartirildi.

1937-1938-yillar – Gomindan qat'iy harakatlarni amalga oshirishdan bosh tortib, taslimchilik siyosatni davom ettirdi. Gomindanchi hukumat yapon agressorlari bilan murosali bitim haqida yashirin muzokaralar olib bordi.

1937-1938-yillar - o'quv yilining oxiri Qoraqalpog'iston viloyat rahbariyati savodsizlikni butunlay tugatish vazifasini qo'ydi.

1937-1938-yillar – SSSRda ommaviy qatag'on.

1937-1938-yillar - Mustabid sovet rejimi O'zbekistonda ommaviy ravishda qatag'onlar o'tkazdi.

1937-1939-yillar – Hindistonda umumhind kasaba uyushmalari tashkil etildi.

1937-1939-yillar - Ozbekistonda to'qib chiqarilgan ko'plab ayblovlar bo'yicha 41 mingdan ortiq hibsga olinib, ulardan 37 mingdan ortig'i jazolandi, 6920 kishi esa otib tashlandi.

1937-1939-yillar - *Turor Risqulov, Qayg'usiz Otaboev, Nazir To'raqulov, Nodirboy Aytaqovlar* qamoqqa olinib, mustabid sovet rejimi tomonidan yo'q qilindi. Ozbekistondagi siyosiy elita "millatchilik va sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borish"da, shuningdek, qurolli qo'zg'olon ko'tarishni tayyorlashda ayblandi.

1937-1939-yillar - *Usmon Nosir, Mannon Ramziy, Elbek - Mashriq Yunusov, Bosit Qoriyev, Miyonbuzruk Solihov, Ashurali Zohiriy, Ziyo Said - Qosim Solihov, Muhammadsharif So'fizoda, Ishoqxon Ibrat, Tavallo - To'lagan Xo'jamyorov, G'ozil Olim Yunusov, G'ozil Yunusov, G'ulom Zafariy, Otajon Hoshimov, Qayum Ramazonov, Shokir Sulaymon, Anqaboy Xudoybaxtiyev* kabi o'zbek xalqining ko'plab ziyolilari: shoirlar, adiblar va olimlar qatag'on qilindi. 20-yillarda Germaniya va boshqa mamlakatlarda o'qib O'zbekistonga qaytgan ziyolilar ham qatag'on girdobiga tortildi. *Abdulahob Murodiy, Sulton Jabbor, Solih Muhammad, Xayriniso Majidxonova* va boshqa ko'plab ziyolilarimiz "Germaniya josusi" sifatida ayblanib, otib tashlandi. Germaniyada o'qib qaytganlardan faqat xorazmlik *Maryam Sultonmurodova* 15 yillik qamoq muddatidan so'ng, yurtiga qaytdi.

1937-1940-yillar – *N. Chamberlinning* Angliyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1937-1940-yillar - O'zbekistonda sug'oriladigan yerlar maydoni 260 ming gektarga kengaydi. Lekin O'zbekistonda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi asosan Markaz sanoatining ehtiyojini qoplashga qaratildi.



1937-1953-yillar - O'zbekiston ichki ishlar xalq komissarligi - NKVD troykasi tomonidan 100 mingdan ortiq kishi qatag'on qilindi, ulardan 13 mingdan ortig'i otib tashlandi. Qizil terrorni amalga oshirishda Moskvadan jo'natilgan O'zbekiston ichki ishlar xalq komissari *D.Z.Apresyan*, uning o'rinbosari *L.I.Leonov-Nemirovskiy*, Tojikiston ichki ishlar xalq komissari *N.A.Zagvozdin*, chekistlar *Trig'ulov*, *Ak'jigitov* mash'um rol o'ynadi. Sovet rejimi o'zining bu gumashtalarini ham o'sha yillari otib tashladi.

1937-yil – Amerika yozuvchilarining II Kongressida *Ernest Xeminguey* bunday degan edi: “*Madridida biz ommaviy qotillikning guvohi bo'ldik. Uni Germaniya artilleriyasi sodir etdi va bu puxta uyushtirilgan qotillik edi. Urushga ko'nikish mumkin, biroq qotillikka ko'nikishning iloji yo'q. Madridda esa biz ommaviy qotillikni ko'rdik. Fashistlar yalpi urushga ishonadilar. Bu, demak, qurolli kuchlar bergan har bir zarbaning alamini ular tinch aholidan oladilar. Biz fashizmning jinoyatkorligini va unga qarshi qanday kurashish lozimligini aniq anglab yetishimiz kerak. Bosqinchini esa faqat bir yo'l bilan – qirib tashlash tinchitish mumkin*”.

1937-yil – Angliya hukumati Germaniya Sharqda Sovet Ittifoqiga qarshi emas, G'arbda Angliya va Fransiyaga qarshi urush boshlashi mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotni qo'lga kiritdi. Bu ma'lumot Gitlerning G'arbda urush boshlash, avval Versal bitimi mualliflari va yirik mustamlakalar egalarini bir yoqli qilib, so'ng Sharqqa yuz burish niyatida ekanidan dalolat berardi. Angliya hukmron doiralari mudofaa qobiliyatini kuchaytirish bo'yicha shoshilinch choralar ko'ra boshladilar, qator mamlakatlarga harbiy kafolatlar berib, o'zlariga ittifoqchilar qidirdilar.

1937-yil – Angliya iqtisodiy inqiroz juda qiyinchilik bilan chiqa boshladi. Ammo ishsizlar soni 1,5 mln. kishini tashkil qildi. Angliya tarixida birinchi marta 7 yil davomida ishsizlikning bu qadar yuqori darajasi saqlandi.

1937-yil - Chirchiq elektr kimyo kombinati barpo etildi.

1937-yil – fashistlar svastika taqib yurishga ruxsat olishdi.

1937-yil – fashistlar tomonidan Ispaniyadagi Gernike shahrining to'liq yakson qilinishidan larzaga tushgan *Pablo Pikassa* o'zining eng buyuk – “*Gernike*” asarini yaratdi. Madriddagi Prado galereyasidan o'rin olgan bu asar hozir ham millionlab san'at muxlislarini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

1937-yil – Fransiya sanoati va tashqi savdosi inqirozdan oldingi darajaga qaytdi.

1937-yil – Fransiya Temir yo'llar milliy jamiyati tuzilib, uning qo'l ostiga mamlakatdagi barcha temir yo'llar o'tkazildi. Yevropaning boshqa mamlakatlari bo'lgani kabi, Fransiya ham iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish joriy qilina boshlandi.

1937-yil – Italiya iqtisodiyoti 1929-yilgi darajaga, ya'ni urushdan keyingi davrdagi eng yuqori darajaga ko'tarildi. Bu vaqtga kelib Italiya agrar-sanoat mamlakatidan sanoat-agrar mamlakatiga aylandi. Biroq, iqtisodiy rivojlanishda erishgan jiddiy yutuqlariga qaramay, Italiya Yevropadagi rivojlangan sanoat mamlakatlari darajasiga yeta olmadi.

1937-yil - Jizzaxda Qo'yto'sh volfram-molibden konlari ishga tushdi.

1937-yil – *Kim Ir Sen* boshchiligidagi partizan bo'linmasi ma'lum muddatga



Pochxonbo shahrini ozod qildi. Partizanlarning harakatlari yapon agressorlari hokimiyatining beqarorligini vujudga keltirib, mamlakat resurslaridan foydalanishlari va talashlarini qiyinlashtirdi.

1937-yil - Qoraqalpog'iston aholisining umumiy savodxonligi 43%ni tashkil etgan.

1937-yil - Qoraqalpog'istonda g'o'za ekiladigan yer maydoni 1924-yildagiga qaraganda deyarli 5 baravar ko'payib, 55 ming gektarni tashkil qildi. Lekin chorvachilik 1-besh yillikning zarbalaridan hali anchagacha o'ziga kelolmadi.

1937-yil – so'l kuchlarni yangi partiya – “*Indoneziya xalqi harakati*” (*Gerindo*)ni tuzishga majbur qildi.

1937-yil – Venesuela 30 mln. tonna neft qazib oldi.

1937-yil – Yaponiya butun Xitoyni bosib olish maqsadida urush boshladi. Yapon militaristlari Manjuriyada Uzoq Sharqqa bostirib kirishga faol tayyorgarlik ko'rgan Kvantun armiyasini to'pladi. So'nggi Xitoy imperatori *Pu I Manjou-Go* hokimi qilib tayinlanib, yapon militaristlari qo'lida qo'g'irchoqqa aylandi. Bu davlatni faqat Germaniya, Italiya va Yaponiya tan oldi.

1937-yil – Yugoslaviya Italiya bilan savdo bitimini imzoladi. Bu shartnoma Kichik Antantaning ahamiyatiga putur yetkazib, Yugoslaviya bilan Fransiya va Angliya o'rtasida uzoqlashuvga olib keldi.

1937-yil 2-yarmi - *Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, G'ulom Zafariy, Elbek, A'zam Ayub, Usmon Nosir, Muhammad Hasan, Sanjar Siddiq, Otajon Hoshimov* va boshqa bir qancha yozuvchi va shoirlar, matbuot va adabiyot xodimlari, tarjimon va olimlar nohaq ravishda xalq dushmani sifatida ayblanib, yo'q qilindilar, ular yaratgan asarlar va badiiy tarjimalarni o'qish uzoq vaqtga taqiqlab qo'yildi.

1937-yil yanvar – Yugoslaviya Italiya bilan “*adabiy do'stlik*” haqidagi shartnomani imzoladi. Bu shartnoma Kichik Antantaning ahamiyatiga putur yetkazib, Yugoslaviya bilan Fransiya va Angliya o'rtasida uzoqlashuvga olib keldi.

1937-yil fevral – *L.Blyum* mamlakatning og'ir moddiy ahvolini bahona qilib, Xalq fronti dasturini bajarishda tanaffus e'lon qilish taklifini kiritdi. U kuch to'plab, so'ng yutuqlarni mustahkamlash uchun “nafas rostdash” lozimligini uqtirdi. Bu aholining noroziligiga sabab bo'ldi.

1937-yil fevral - respublika Sovetlarining favqulodda VI qurultoyi O'Z SSRning yangi Konstitutsiyasini tasdiqladi.

1937-yil 10-fevral – Ruminiyada qirolning shaxsiy hokimiyati tartiboti o'rnatildi. Barcha demokratik erkinliklar tugatildi, parlament tarqatildi, kasaba uyushmalari va siyosiy partiyalar ta'qiqlandi. Saylovlarda 1 o'zi qatnashishi mumkin bo'lgan “*Milliy tiklanish fronti*” yagona partiyasi tuzilishi haqida e'lon qilindi.

1937-yil 12-fevral - O'zbekiston Konstitutsiyasi tasdiqlandi va unda QQASSRning O'zbekiston tarkibiga kirishi qonuniy yo'l bilan rasmiylashdi.

1937-yil 12-fevral - SSSRning tayyorlagan yangi Konstitutsiyasi asosida tasdiqlangan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasida QQASSRning O'zbekiston Sho'ro Sotsialistik Respublikasi tarkibiga kirganligi qonun bilan mustahkamlanishi.

1937-yil 6-mart - QQASSR yangi Konstitutsiyasining loyihasi e'lon qilindi.



1937-yil 20-mart – ispan respublikachi qo'shinlari tomonidan Gvadalaxara ostonasida isyonchi va interventlarning tor-mor keltirilishi.

1937-yil 23-mart - Qoraqalpog'iston ASSR Konstitutsiyasi qabul qilindi va unda QQASSRning O'zbekiston tarkibida ekanligi qayd etildi.

1937-yil 26-aprel – fashist uchuvchilari Gernike shahrini tamomila vayron qildilar. Bu kunning butun dahshati *Pablo Pikassoning* mashhur “Gernike” kartinasida aks ettirilgan. Gernikening vayron qilinishi va tinch aholining yo'q qilinishi bemani shafqatsizlik hodisasi sifatida tarixga kirdi.

1937-yil 28-may-1940-yil 10-may – Angliya Bosh vaziri qilib Konservativ partiyasining rahbari *N.Chemberlen* tayinlandi. *N. Chamberlen* jamoalar palatasi uning iste'foga chiqarilishi uchun ovoz berib, o'rniga *Uinston Cherrchillni* saylagunga qadar faoliyat ko'rsatdi.

1937-yil iyun – *L.Blyum* iste'fo berdi.

1937-yil iyun – Qizil armiyada ommaviy terrorning boshlanishi.

1937-yil iyul-1945-yil sentabr – Xitoy xalqining yapon bosqinchilariga qarshi milliy-ozodlik urushi.

1937-yil iyul – barcha vatanparvar kuchlarni birlashtirgan yagona aksiyapon milliy fronti tashkil etildi.

1937-yil 7-iyul – Yaponiyaning Xitoyga bostirib kirishi va yapon-xitoy urushining boshlanishi.

1937-yil 5-oktabr – *Ruzvelt* Chikagoda so'zlagan nutqida agressorlar atrofida “*karantin*” o'rnatishga chaqirdi. U fashistik davlatlarning bosqinchilik harakatlarini ham keskin qoraladi. AQSh hukumati o'zining barcha imkoniyatlarini ishga solib urushga faol tayyorgarlik ko'ra boshladi. Shu maqsadda qurol ishlab chiqarish kengaytirilib, ularning sifati takomillashtirib borildi. Tinch okeani orollarida shoshilinch ravishda harbiy bazalar qurishga kirishildi.

1937-yil noyabr – Italiya Germaniya va Yaponiya imzolagan Antikomintern bitimiga qo'shildi. Mussolini uni atrofida butun Yevropa birlashishi lozim bo'lgan “*doira*” sifatida ta'rifladi (“*Berlin-Rim-Tokio doirasi*” degan nom shundan kelib chiqdi). Ushbu bitimga ko'ra Germaniya Efiopiyaning bosib olinishini tan oldi, xalqaro aloqalarda umumiy bo'lgan yo'nalish belgilandi, harbiy aviatsiyani rivojlantirishning yagona siyosati ishlab chiqildi, Bolqon va Dunaybo'yi davlatlaridagi ta'sir doiralari chegaralandi.

1937-yil yoz - O'zbekistonda siyosiy qatag'onlik avjiga chiqdi. Ozbekiston XKS raisi *Fayzulla Xo'jaev* uning keyingi vorislari *Abdulla Karimov*, *Sulton Sigizboev*, O'zbekiston Kompartiyasi MK 1-kotibi *Akmal Ikromov* Moliya komissari *Akbar Islomov*, yer ishlar xalq komissari *Rustam Islomov*, maorif xalq komissari *Qosim Sarokin*, ichki savdo xalq komissari *Muhiddin Tursunxo'jaev*, soliqliq saqlash komissari *Karim Abdullaev*, O'zbekiston kompartiyasi MK kotiblari *Sodiq Boltaboyev*, *I.Xudoyqulov*, *A.Sexer*, bo'lim mudirlari *Mo'min Usmonov*, *Qirbon Beregini*, *Mirmuslim Shermuhammedov*, *Kamol Sharipov*, Qoraqalpog'iston obkomi kotiblari *Davlat Rizaev*, *Komiljon Alimov*, O'zbekiston LKSM MK kotiblari *Isroil Ortiqov*, *F.Tarasov*, shuningdek yaqin o'tmishda mas'ul lavozimlarda ishlarda ishlagan *Rahim Inog'omov*, *Muhtor Saidjonov*, *Ubaydulla Xo'jaev*, *Muinjon*



Aminov, Muso Saidjonov, Jo'ra To'rabekov, D.Manjara, respublikadagi viloyatlar, shaharlar va tumanlar rahbarlari, boshqa ko'plab xo'jalik xodimlari qamoqqa olinib, tergovdan keyin SSSR oliy sudi harbiy harbiy kollegiyasi sayyor sessiyaning qaroriga binoan otib tashlandi.

1938-1939-yillar – Angliya armiyasi ixtiyorida II jahon urushi yillari nom chiqargan “*Spitfayr*” va “*Xarriken*” qiruvchi samalyotlari hamda Angliya aviatsiyasiga havoda to'la ustunlik qilish imkonini bergan radar qurilmalari paydo bo'ldi.

1938-1939-yillar – Avstriya va Chexoslovakiya bosib olinganidan so'ng Germaniyaning Yugoslaviyaga ta'siri yanada kuchaydi. Yugoslaviya sanoatiga sarflangan mablag'larning katta qismini tashkil etuvchi Avstriya kapitallari endi Germaniyaga o'tdi. Germaniya Avstriyani bosib olish bilan yugoslav tashqi savdosining yirik bozorini ham egalladi. Germaniya uchun muhim strategik ahamiyatli Vena - Belgrad - Istambul yo'lining qurilishi qizg'in olib borildi.

1938-1941-yillar – Chilida *Pedro Agirra Serda* prezidentligi davri. Prezident *Agirra* harbiy diktatura davrida bekor qilingan fuqaroviy erkinliklarni qayta tikladi. Hukumat tomonidan xorijiy tazyiqdan xoli milliy iqtisodiy rivojlanishning keng dasturi ishlab chiqildi.

1938-1941-yillar – *Pibunsongram* Tailandning bosh vaziri lavozimidagi faoliyati.

1938-1950-yillar may – *Ismet Inenyu* Turkiya prezidentligi davri. *Ismet Inenyu* prezidentligi davrida Turkiya fashistlar Germaniyasi bilan ancha yaqinlashdi. Mamlakat islohotlardan tobora uzoqlashgan holda harbiylashish yo'lga o'tdi. II jahon urushi boshlanishidan birmuncha oldin Turkiya Germaniya bilan do'stlik to'g'risida shartnoma imzoladi. Garchi urush davrida Turkiya betaraflik e'lon qilgan bo'lsa-da, u Germaniyaga xrom va boshqa qimmatli xom ashyolarni yetkazib bergan, bo'g'ozlar orqali Qora dengizga fashistlar harbiy kemalarini o'tkazgan, o'z hududidan fashistlar josuslariga panoah bergan edi.

1938-yil – Angliya armiyasini qurollantirishga xarajatlar ikki baravar oshirildi.

1938-yil – Angliyada ishsizlar soni ikki mln. dan ham oshdi.

1938-yil – Arxeolog *Okladnikov Teshiktosh g'oridan* 8-9 yoshli nendertal bolaning suyaklarini topdi. Nendertal bolaning suyaklarini antropolog *M.M. Gerasimov* tikladi.

1938-yil – atoqli shoir *Osip Mandelshtam* otib tashlandi.

1938-yil – buyuk yozuvchilar *Fitrat, Cho'lpon va Abdulla Qodiriy* otib tashlandi.

1938-yil – *E. Ferni* Nobel mukofoti bilan taqdirlandi.

1938-yil – Fransiyada yangi tanazzul boshlandi va u deyarli II jahon urushi boshlangunga qadar davom etdi.

1938-yil – *Gitler* bilan *Mussolini* o'rtasida ta'sir doiralari bo'lib olish haqida kelishuv amalga oshirildi va Albaniya italyan doirasiga kiritildi. Albaniya hududi italyan hukumatiga keyingi bosqinchilik harakatlarda platsdarm sifatida foydalanish uchun ham kerak edi.

1938-yil – *Gitler* yangi qurbon – Chexoslovakiyani talab qildi. Fransiya bosh vaziri *E.Daladye* Chexoslovakiya hukumatining fikrini surishtirmay Sudetni Germaniyaga berishga rozilik bildirdi.



1938-yil – Hindistonda umumhind dehqonlar ittifoqi tashkil etildi. U agrar inqilobni o'zining asosiy maqsadi qilib qo'ydi.

1938-yil – hokimiyat cho'qqisida bo'lgan paytda Gitler *G.Fordni* Germaniyaning oily ordeni – Katta Xoch bilan mukofotladi.

1938-yil – Ishlab chiqarish kasaba uyushmalari komiteti paydo bo'ldi. Bu tashkilot Ishlab chiqarish kasaba uyushmalari Kongressi (IChKUK) deb nomlandi. Yangi kasaba uyushma birlashmasi tarkibiga asosan malakasiz ishchilar kirishgan va ular ma'lum darajada sinfiy hamkorlikda va korchalonlarga qarshi kurashdan bosh tortishda mujassamlanadigan eskicha qarashlardan ozod edilar.

1938-yil – Lotin Amerikasi xalqlari xorijiy sarmoyaga qarshi ozodlik va mustaqillik uchun kurashda qo'lga kiritilgan eng yirik natija Xalq fronti Chilida erishgan g'alaba hisoblanadi. Bu ishchi va dehqonlar, mayda va o'rta buriuaziya hamda barcha vatanparvar kuchlarning ittifoqi edi. Mamlakat prezidentligiga *Pedro Agirra Scrda* saylandi. U tuzgan hukumatga radikal demokratik va sotsialistik partiyalarning vakillari kirdi. Kompartiya hukumatni qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

1938-yil – Meksikada *L.Kardenasning* demokratik hukumati, Xalq fronti harakatiga tayanib, general *Sediloning* fashistlar ko'magida harbiy to'ntarish uyushtirishga bo'lgan urinishi chippakka chiqardi. Bu Lotin Amerikasi qit'asida fashizmga qarshi kurashda keskin burilish yasadi. Meksikadan Kolumbiya, Kuba va Chili ibrat oldi. Ayniqsa, Chilida ro'y bergan o'zgarishlar katta ahamiyatga egadir. Bu yerda demokratik tashkilotlarning keng ommasini ko'magida hukumat tepasiga demokratik kuchlar vakili senator *Salvador Alyende* boshchiligidagi Xalq fronti keldi.

1938-yil – *Mustafo Kamol (Otaturk)* 57 yoshida vafot etdi. Uning ichki va tashqi siyosatini *Ismet Inenyu* davom ettirdi. U ham XRP ning umrbod raisligiga saylangan edi.

1938-yil – Polsha Litva bilan chegarada mojaro chiqardi va 50 ming kishilik polyak armiyasi chegaradan o'tishga shaylandi. Biroq Sovet Ittifoqi Polshani ogohlantirib, Litvani himoya qilishini bildirdi. Bu polyak hukumatining bosqinchilik intilishlarini to'xtatdi.

1938-yil – *Uilyam Folkner "Bo'ysunmaganlar"* nomli romanini yaratdi.

1938-yil 30-yanvar– davlat va siyosat arbobi, O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti *Islom Abdug'aniyevich Karimov* Samarqandda tug'ildi.

1938-yil 10-fevral – Ruminiyada qirol Karol tomonidan 1923-yil konstitutsiyasining bekor qilinishi va "qirol diktaturasi"ning o'rnatilishi.

1938-yil mart – "*Millatni umumiy safarbar qilish haqida*"gi qonun qabul qilindi. Unda dzaybatsular va ishlab chiqarishga aloqador kompaniyalarga kreditlar, xom ashyo, ishchi kuchi va kafolatli buyurtmalar olishda ulkan imtiyozlar berildi. "*Umumiy safarbar qilish haqida*"gi qonun bo'yicha har qanday ish tashlashlar va yig'ilishlar ta'qiqlandi, ish kuni 14-16 soatgacha davom etardi.

1938-yil 11-mart – Gitler go'yoki Germaniyaga tarafdor avstriyaliklarni ta'qib ostiga olgani uchun *K.Shushnig*ning iste'fo berishini talab qildi. *Shushnig* iste'fo berishdan bosh tortdi, Avstriya prezidenti ham uni iste'foga chiqarish niyati yo'qligini bildirdi.



1938-yil 12-mart – Avstriya kansleri *Shushnig* iste'fo berishdan bosh tortishiga javoban Germaniya qo'shinlari Avstriyaga bostirib kirishdi.

1938-yil 14-mart – Avstriyaning Germaniyaga qo'shib olinganligi e'lon qilindi. Avstriya Germaniya reyxining Sharqiy markasi nomi ostida Germaniya qismiga aylandi, "*anshlyus*", ya'ni Avstriyaning Germaniyaga qo'shilishi amalga oshirildi. Avstriya davlat sifatida tugatildi. Fransiya va Angliya Avstriyani, shu bilan birga o'z obro'sini saqlashga urinmadi, holbuki, ular Germaniyaning Avstriyani qo'shib olishini taqiqlovchi Versal bitimi bajarilishini kafolatlovchi davlatlar hisoblanardi.

1938-yil aprel – Sudet-nemis partiyasi qurultoyida Sudet viloyatiga "muxtoriyat" berish talabi ilgari surildi.

1938-yil 10-aprel-1940-yil 18-may – Fransiyada hokimiyatni *E.Daladye* boshqargan. *E.Daladye* hukumati "milliy xiyonat" hukumatiga aylandi.

1938-yil 21-aprel – *Gitler* bosh shtab boshlig'i general *Keytelga* Chexoslovakiyaga bostirib kirish va uni ishg'ol qilish rejasini ishlab chiqish to'g'risida ko'rsatma berdi.

1938-yil may – Germaniya o'z qo'shinlarini Chexoslovakiya chegarasi tomon surdi. O'z navbatida Chexoslovakiya ham qurolli kuchlarni kuchaytirish choralari ko'rди.

1938-yil 18-iyun – Germaniyada Chexoslovakiyani tor-mor etish va yo'q qilishning shartli ravishda "*Gryun*" deb nomlangan operatsiyasi rejasini tayyorlangan edi.

1938-yil 1-oktabr – Germaniya qo'shinlari Sudet viloyatiga kirdi va u fashistik reyxnning bir qismiga aylandi. *Benesh Gittleming* talabiga ko'ra iste'foga chiqdi va chet elga ketdi. *Gaxa* prezident bo'ldi. Lekin Chexoslovakiya fojiasi bu bilan tugamadi.

1938-yil 25-iyun - Yangi Konstitutsiyaga muvofiq Oliy Sovetga saylovlar bo'lib o'tdi. Uning I sessiyasi O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumini sayladi va respublika Xalq Komissarlari Sovetini tuzdi.

1938-yil 21-iyul – Boliviya va Paragvay o'rtasida sulh bitimi imzolaniib, unga muvofiq hududning katta qismi AQShning yirik "*Standart oyl kompani*" tresti qo'lga o'tdi.

1938-yil 29-iyul 11-avgust – SSSR hududiga bostirib kirgan yapon qo'shinlarining Hasan ko'lida tor-mor keltirilishi.

1938-yil 19-sentabr – Angliyada Bosh vaziri *N. Chamberlen* va Fransiya Bosh vaziri *E. Dalade* prezident *E. Beneshga* aholisining yarmidan ko'pi nemislar bo'lgan viloyatlarni Germaniyaga berishni tavsiya etishdi.

1938-yil 22-sentabr – Pragada ko'pming kishilik namoyish bo'lib o'tdi. Namoyishchilar *Godja* hukumatining iste'fo berishini va umumiy safarbarlik e'lon etilishini talab qilishdi. *Godja* hukumati iste'foga chiqdi, general *Sirovning* yangi hukumati umumiy safarbarlik e'lon qildi va qo'shinlarni chegara rayonlaridan olib ketishdan bosh tortdi. General *Sirovning* qat'iyligi shu bilan izohlanadiki, Pragada "o'ta zarur holatda SSSR Fransiya bog'liqsiz ravishda Chexoslovakiyaga yordam berishi mumkin"ligi haqida xabar olingandi.

1938-yil 28-sentabr – Germaniyada harbiy safarbarlikning boshlanishi.

1938-yil 29-30-sentabr – *Gitler* Angliya va Fransiya rahbarlarini



Chexoslovakiyaning keyingi taqdiri muammosiga bag'ishlangan yig'ilishga o'zining *Berxtesgaden* (Myunxen yaqini)dagi qarorgohiga taklif qilib, yana bir nayrang (Myunxen bitimi) uyushtirdi. Konferensiyada Fransiya nomidan Bosh vazir *E. Daladye*, Angliya nomidan Bosh vazir *Nevill Chamberlen*, Italiya nomidan esa *Mussolini* qatnashdi. *Gitler* konferensiyada o'z fikrida sobit turdi. Uning maqsadi aniq - Chexoslovakiya yoki urush edi. *Daladye* va *Chamberlen* yon berdilar, Sudet viloyatini Germaniyaga berish to'g'risida qaror qabul qilindi. Boshqa ayrim hududlarini Polsha va Vengriyaga berish taklif qilindi. Chexoslovakiya hukumati bu taklifni qabul qilishga majbur bo'ldi.

1938-yil 29-30-sentabr – Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya vakillarining Myunxendagi konferensiyasida Chexoslovakiyani bosib tashlash to'g'risidagi bitimning imzolanishi.

1938-yil 30-sentabr – Angliya va Germaniya o'rtasida hujum qilmaslik va bahsli masalalarni tinch yo'lga solish to'g'risidagi deklaratsiyaning imzolanishi.

1938-yil 30-sentabr - *Gitler Chamberlen* bilan hamkorlikda Angliya-Germaniya deklaratsiyasini imzoladi. Unda 1935-yildagi Angliya-Germaniya dengiz bitimi va Myunxen bitimi ikkala millatning “*bir-biriga qarshi boshqa hech qachon urushmaslik*” hamda o'zaro qiziqish uyg'otgan barcha masalalarni bundan buyon “*maslahatlashish yo'li bilan*” hal qilish niyatini ifoda etishi bildirildi. *Chamberlen* deklaratsiyani “*bugungi kundagi*” tinchlikning poydevori deb e'lon qildi. *Gitler* uchun esa u, imzolagan boshqa shartnomalari kabi, quruq qog'ozdan bo'lak hech narsa emasdi.

1938-yil oktabr – Radikal-sotsialistlarning Marselda bo'lib o'tgan syezdida Xalq frontidan ajralish to'g'risida qaror qabul qilindi. Fransiyaning xalq fronti parchalandi.

1938-yil oktabr – Vengriya Janubiy Slovakiyani o'ziga qo'shib olgan holda Chexoslovakiyaning parchalanishida ishtirok etdi.

1938-yil 4-oktabr - *Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy* Toshkent shahri atrofida otib tashlandi.

1938-yil 4-oktabr – Fransiya Milliy Majlisi sharmandali Myunxen bitimini ratifikatsiya qildi va bu mamlakatning fashistlar Germaniyasi bilan til birlashtirish yo'lga ochiq-oydin tushganini tasdiqladi. Myunxen bitimi ratifikatsiya qilingach, Fransiya kollaboratsionistlari nihoyat yengil tin oldilar. Ular *Gitlerga* Sharq tomon yo'l ochdilar. Endi Germaniyadan “kelishuv” to'g'risida so'rash mumkin edi.

1938-yil 10-oktabr – Chexoslovakiya Teshen viloyatini Polshaga berdi.

1938-yil noyabr – *Gitler* yangi bosqinlarga tayyorgarlik ko'rdi. Navbat Polshaga kelgan edi. *Gitler* Polsha hududiga bostirib kirish va uni tor-mor keltirish rejasi (“*Vays*” rejasi)ni tayyorlash to'g'risida ko'rsatma berdi.

1938-yil noyabr – Polsha Myunxen bitimidan foydalangan holda Chexoslovakiyaning Teshen viloyatini o'ziga qo'shib oldi va bu Chexoslovakiya suverenligiga g'oyat qattiq zarba berdi. Kutilmaganda Germaniya Gdanskning qaytarilishini talab qildi. Polsha yana Angliya va Fransiya ko'z tutishga majbur bo'ldi.

1938-yil 2-noyabr – Germaniya tashqi ishlar vaziri *Ribbentrop* va Italiya tashqi



ishlar vaziri graf *Chiano* Vengriyaga Slovakiyaning bir qismini berish to'g'risidagi bitimni imzoladilar. Shu taxlit Chexoslovakiyani bo'lib tashlash amalga oshirildi. **1938-yil 2-noyabr** – Vengriya tomonidan Slovakiyaning bir qismi va Ukraina Karpatortining bosib olinishi.

1938-yil 10-noyabr – Turkiya respublikasi asoschisi va 1-prezidenti *Kamol ota Turkning* o'limi *Ismet Inenyuning* prezident qilib saylanishi.

1938-yil 30-noyabr – Fransiyada umumiy ish tashlash boshlandi. Hukumat qo'shinlarni safarbar qildi, askarlarga jangovar o'qlar tarqatildi. Hukumat va tadbirkorlar birgalikdagi harakatlari bilan ish tashlovchilardan shafqatsiz o'ch oldilar. Ko'plab zavodlar yopildi, 1,5 mln. kishi ishdan bo'shatildi, minglab ishchilar qamoqqa olindilar.

1938-yil 6-dekabr – Fransiya va Germaniya o'rtasida hujum qilmaslik va bahsli masalalarni tinch yo'lga solish to'g'risidagi deklaratsiyaning imzolanishi.

1938-yil 6-dekabr – Parijda Fransiya tashqi ishlar vaziri *J. Bone* va Germaniya tashqi ishlar vaziri *I. Ribbentrop* o'zaro hujum qilmaslik to'g'risidagi bitimdan umuman farq qilmagan qo'shma deklaratsiyani imzoladilar.

1938-yil oxiri – Angliya aviatsiyasi son jihatdan o'sdi va sifat jihatidan Germaniya aviatsiyasidan ustun yangi samalyotlar bilan ta'minlandi.

1938-yil oxiri - Qoraqalpog'istonda barcha dehqon xo'jaliklarining 82%ini birlashtirgan 969 ta kolxoz bor edi.

1938-yil yoz – yapon harbiylari SSSRga qarshi jiddiy avantura uyushtirdilar. Yapon qo'shni qismlari sovet chegarasini *Hasan ko'li* yaqinida buzib o'tdi, biroq ayovsiz janglar natijasida ular Manjuriya hududidagi chekinishga majbur bo'ldilar.

1939-1945-yillar – jahon urushi Lotin Amerikasida Yevropa davlatlari mavqeining kuchsizlanishiga olib keldi. Qit'a mamlakatlarining tashqi savdosi ko'p jihatdan Germaniyaga to'g'ri keldi va u bilan aloqalarning uzilishi eng muhim bozorlar va savdo sherigini yo'qotishni anglatar edi. AQSh yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldirdi, u an'anaviy tarzda nemislar ta'siri ostida bo'lgan barcha mamlakatlarni egalladi. Ayni paytda, fashizmga qarshi kurash muvaffaqiyatli rivojlana borgan sari Lotin Amerikasi tovarlariga ehtiyoj oshdi va qit'a iqtisodiyotini keskin o'sishga olib keldi. Birinchi navbatda bevosita qishloq xo'jaligi sohalari: to'qimachilik, teri oshlash, shakar ishlab chiqarish bilan bog'liq tarmoqlar rivojlandi. Biroq bir qator mamlakatlarda sement va elektr energiyasi ishlab chiqarish kabi yangi tarmoqlar paydo bo'ldi; Argentina, Braziliya, Meksika va Chilida metallurgiya sanoati yo'lga qo'yildi; Braziliyada industrlashtirish yiliga 1 mln. tonna po'lat ishlab chiqarish quvvatiga ega ulkan metallurgiya kombinati, shuningdek aviatsiya motorlarini tayyorlovchi yirik zavod qurilishi bilan tugallandi.

1939-1952-yillar – Moskva partiyasining oily boshqaruv idorasi hisoblangan s'ezdlar biror marta ham chaqirilmadilar.

1939-1958-yillar – Iroqda *Feysal II* hukmdorlik qilgan davr.

1939-1970-yillar – O'zbekiston urushdan keyingi yillarda ko'p millatli respublika edi. O'zbekiston hududida yashayotgan millat va elatlar soni 94 tadan 121 taga ko'paydi. Bizning hududimiz ko'p millatli edi. Lekin chor hukumatining va sovet hokimiyatining siyosati bu jarayonni yanada kuchaytirdi. Sovetlar davrida



sanoatlashtirish bahonasi bilan O'zbekistonga ko'plab rus va boshqa yevropalik ishchi va xizmatchilar ko'chirib kelindi.

1939-mart-avgust – Moskvada davom etgan muzokaralar G'arb davlatlari Sovet Ittifoqiga bir tomonlama majburiyatlar yuklab, uni Germaniyaga qarshi urushga tortib, o'zlari chetda tomoshabin bo'lib turish niyatida ekanliklarini oshkor qildi. Shu bilan birga, Moskva Angliya hukumati Germaniya vakillari bilan dunyoni ta'sir doiratariga bo'lib olish, xom ashyo manbalarini bo'lib olish to'g'risida muzokaralar olib borganini isbotlovchi ma'lumotlarni qo'lga kiritdi.

1939-yil – Litva bilan bitimga ko'ra Sovet Ittifoqi Litva respublikasiga uning Polsha qo'shinlari tomonidan bosib olingan qadimiy poytaxti – Vilnyusni va Vilnyus viloyatini topshirdi.

1939-yil – Amerikaning bu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy manzarasini buyuk Amerika yozuvchisi Jon Steynbek o'zining e'lon qilingan "*G'azab shingillari*" romanida haqqoniy tasvirladi. Roman qisqa vaqt ichida AQSh uzra hukmron ekspluatatsiyaga qarshi norozilik ruhining ramzi sifatida dunyoga dong taratdi. Jon Steynbek xalqining yirik kompaniyalar tomonidan talanishi, boylar va yo'qsillarni ajratgan tubsiz jarlik haqida dadil yozdi va inqiroz titratgan jamiyatning yaxlit manzarasini, uning deyarli barcha tabaqalari vakillari suratlarini yorqin bo'yoqlarda chizib berdi. "*G'azab shingillari*" romani fosh qiluvchi asar sifatida taraqqiyparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan jahon adabiyoti namunalari orasidan o'rin oldi. Unda Amerikaning 30-yillardagi hayoti hamda jamiyatning turli tabaqalari uchun xos bo'lgan umumiy norozilik va darg'azablik kayfiyatlari haqqoniy aks ettirilgan.

1939-yil – AQSh va Angliyada uzatuvchi va qabul qiluvchi tarmoqlar ish boshladi. Faqatgina Britaniya orollarida yigirma ming priyomnik ishlar edi.

1939-yil – AQShda kasaba uyushmalari a'zolari soni 9 mln. ga yetdi, kasaba uyushmalari harakati mamlakat siyosiy hayotining muhim qismiga aylandi.

1939-yil – Bertold Brextning "*Galileyning hayoti*" va "*Kurash momo va uning bolalari*" nomli pyesalari yaratildi.

1939-yil – Bolgariya importuning 65% i Germaniya hissasiga to'g'ri keldi. Angliyaning hissasi 1,2% dan iborat edi.

1939-yil – ingliz fiziklari tomonidan radar kashf etildi.

1939-yil – Italiyada cho'yan AQSh va Germaniyadagiga qaraganda 20 baravar, po'lat – tegishli ravishda 12 va 8 baravar hamda Angliyadagiga qaraganda 5 baravar kam eritiladi.

1939-yil – jami ziyolilarning 80 % ini mamlakatdagi barcha millat va elatlarga mansub mehnatkashlarning farzandlari tashkil qildi.

1939-yil - O'zbekistonda 2500 xotin-qizlar traktorchi kursida o'qishga majburan jalb qilindi. Ularning ko'plari o'qishni bitirib bu kasb bo'yicha ishlamasdi. Farg'ona, Samarqand, Xorazm viloyatlarida kurslarni bitirgan 2 mingdan ortiq ayollardan faqat 714 nafari traktorchi bo'lib ishlagan.

1939-yil - O'zbekistonda sabzavot maydonlari 16,5 ming gektarga yetdi.

1939-yil – O'zbekistonda yakka xo'jaliklarga butkul barham berildi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini jamoalashtirish davrida 40000 dan ortiq dehqon xo'jaliklari quloq qili nib, ulardan 31700 tasi qatag'on qilindi.



1939-yil – O‘zbekistonda yalpi paxta hosili deyarli 1 mln 583 ming tonnaga yetdi, paxta hosildorligi esa gektariga 17,8 sentnerni tashkil etdi. O‘zbekistonda kanop yetishtiriladigan bo‘ldi, kanop ishlab chiqarish umumittifoq miqyosiga nisbatan 3 % ni tashkil etdi. Urushdan oldingi yillarda O‘zbekiston mamlakatda yetishtiriladigan barcha pillaning yarmini berar edi.

1939-yil – Portugaliya sotsial-demokratlar partiyasi kotibi *Anibal Kabacho Silva* tug‘ildi.

1939-yil - Qoraqalpog‘iston aholisining umumiy savodxonligi 60%ni tashkil etgan.

1939-yil – qurollanishga mutanosib narxlarda Angliya – 5 mlrd. Fransiya – 2,3 mlrd. marka pul sarflagani holda, Germaniyaning bu boradagi xarajatlari 18 mlrd. markani tashkil qildi.

1939-yil – Sovet Ittifoqi ham, Germaniya ham imkon qadar sovet-german bitimidan foyda olishga urindilar. Bitimdan oldin sovet-german kredit shartnomasi tuzilgan edi. Unga ko‘ra SSSR imtiyozli shartlarda 200 mln. marka kredit olib, eng zamonaviy uskunalarni Germaniya korxonalarida ishlab chiqarish uchun buyurtma berish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bunga javoban Germaniya 180 mln. markaga xom ashyo olish, Uzoq Sharqqa 50% li chegirma bilan tranzit qilish huquqini qo‘lga kiritdi.

1939-yil – SSSRda yoshi katta aholi o‘rtasida savodsizlik deyarli tugatildi, 13 mln. dan ortiq kishi o‘rta ma‘lumotga ega bo‘ldi. 13 mln. dan ortiq kishi o‘rta ma‘lumotga ega bo‘ldi. Bepul oliy ta‘lim tizimining joriy qilinishi ishchi va dehqonlarning farzandlariga texnikum va oliy o‘quv yurtlarida o‘qish imkonini berdi.

1939-yil – Standart Oyl of Kaliforniya” nomli Amerika kompaniyasi dunyodagi eng boy va serdaromad neft konlarini sanoat asosida ishlab chiqish boshlandi. Saudiya Arabistoni jahonning globallashtirish jarayoniga qo‘shildi.

1939-yil - Toshkentda opera va balet teatri ochildi.

1939-yil – tuzilgan diviziyalar soni 1914-yil urush arafasidagi diviziyalar soniga yetdi. Ular eng zamonaviy qurol-aslahalar bilan jihozlangan, o‘sh paytdagi eng yaxshi aviatsiya, tanklar va artilleriyaga ega edi. Flot ham to‘liq qayta qurollantirildi. Boshqa mamlakatlardagidan farqli o‘laroq, Germaniya armiyasining asosiy qudratini bronetank qismlar tashkil qildi – ular 50 diviziyadan iborat edi. SSSR o‘sha paytda faqat bitta shunday diviziyaga ega, Fransiya va Angliyada esa bunday qo‘shilmalar umuman yo‘q edi.

1939-yil yanvar – Vengriya gitlerchilarning “*Antikomintern bitimi*”ga qo‘shildi.

1939-yil 24-fevral – Vengriyaning “Kominternga qarshi bitim” ga qo‘shilishi.

1939-yil 27-fevral – Angliya va Fransiya tomonidan Ispaniyadagi Franko fashistlar hukumatining tan olinishi.

1939-yil mart – *N. Chamberlen* Polshaga harbiy kafolatlar berilishini ma‘lum qildi. Xuddi shunday kafolatni Polshaga Fransiya ham berdi. Bu Germaniya Polshaga hujum qilgan taqdirda Angliya va Fransiya unga barcha, shu jumladan, harbiy vositalar bilan ham yordam ko‘rsatishini anglatardi. Shunday kafolatlar Gretsiya va Ruminiyaga ham berildi.

1939-yil mart – Ruminiya Germaniya bilan “*Iqtisodiy munosabatlarni*



mustahkamlash haqida”gi shartnomani tuzdi. Mazkur shartnoma bo'yicha Rumuniya iqtisodiyoti va siyosati german fashizmining to'liq nazorati ostida qoldi. Rumuniya mazkur bitim yordamida Vengriyaning Transilvaniyani qaytarish harakatlariga qarshi Germaniyaning kafolatlariga erishishga intilardi.

1939-yil mart – SSSRda ommaniy qatag'onning susayishi, “sotsializmdan kommunizmga o'tish” to'g'risidagi rejaning qabul qilinishi.

1939-yil mart – Vengriya Karpatoriti Ukrainasini bosib oldi. Xorti tartiboti gitlerchi Germaniyaga ergashgan holda venger xalqini II jahon urushi girdobiga tortdi.

1939-yil 12-mart – sovet-fin urushining tugashi. Shartnomaga ko'ra SSSR Viborg shahri va Ladoga ko'li yaqinidagi hududlarni qo'lga kiritdi.

1939-yil 14-mart – Germaniya qo'shinlari Chexoslovakiya hududiga bostirib kirdilar.

1939-yil 15-mart – german qo'shinlari Chexoslovakiya hududiga bostirib kirdi. Praga, Chexiya, Moraviya fashistlar tomonidan ishg'ol etildi. Vengriya Slovakiyaning katta qismini va Karpatoriti Ukrainasini, Polsha Teshin rayoni va Slovakiyaning ikki rayonini bosib oldi. Chexoslovakiya o'rnida german rexyi tarkibidagi Bogemiya va Moraviya protektoratlari tashkil etilishi e'lon qilindi.

1939-yil 15-mart – Germaniya qo'shinlarining Chexiyani bosib olishi.

1939-yil 16-mart – Gitler Pragadagi Gradchina saroyining balkonidan turib Chexoslovakiyaning davlat sifatida tugatilishi va uning o'rnida Germaniyaning *Bogemiya* va *Moraviya protektorati* (*vassalligi*) tuzilishini e'lon qildi. Slovakiya alohida davlat – Germaniya satelita maqomini oldi. Gitler Litvadan Klaypedani – Boltiq dengizidagi portni, muhim harbiy-dengiz bazasini berishni talab qildi.

1939-yil 22-mart – Germaniya qo'shinlari tomonidan Klaypedaning ishg'ol qilinishi.

1939-yil 22-mart – Litva hukumati Klaypedani Germaniyaga topshirdi.

1939-yil 26-mart – Barselona fashistlar tomonidan ishg'ol qilindi.

1939-yil 28-mart – fashist qo'shinlari Madridga kirishdi. G'arb davlatlari Franko hukumatini darhol tan olishdi.

1939-yil 31-mart – Angliya hukumati Polshani chetdan unga qarshi agressiya uyushtirilgan taqdirda, “har tomonlama yordam” berishiga ishontirdi. Fransiya hukumati ham xuddi shu gapni takrorladi.

1939-yil aprel – fashistlar Italiyasi Albaniyaga bostirib kirdi va ko'p o'tmay uni ishg'ol qildi.

1939-yil aprel – Fransiya va Angliya boshqa davlatning Polshaga agressiyasi yuz berganda unga yordam ko'rsatish majburiyatini zimmalariga olishgandi.

1939-yil aprel – Germaniya bilan o'zaro kelishuvga ko'ra Italiya Albaniyani bosib oldi.

1939-yil aprel – Gitler Chexoslovakiyani bosib olganidan so'ng, Angliya va Fransiya hukumatlari fashizm agressiyasiga qarshi kollektiv xavfsizlik choralarini muhokama qilish taklifini kiritdi. Sovet Ittifoqi rahbariyati rozilik bildirdi.

1939-yil 1-aprel – AQSh Frankoni Madridga kirganidan keyin tan oldi.

1939-yil 7-aprel – Italiyaning Albaniyani bosib olishi.

1939-yil 7-aprel – *Mussolini* Durras va Valonga desant tashlashni boshladi. Alban



xalqining yangi, demokratik Albaniya mustaqilligi uchun kurashi kuchayishining muqaddimasi ham bo'ldi.

1939-yil 11-aprel – “*Vays rejası*”ning uzil-kesil varianti tuzilib, unda Gitler “*Polshani nihoyat bir yoqli qilish*”, “*Polshaning harbiy qudratini yakson qilish*” va Polshani davlat sifatida tugatish zarurligini uqtirdi.

1939-yil 13-aprel – Albaniyaning bosib olinishi yakunlandi. Milliy kengash yana osongina *Zogu I* ni taxtdan mahrum qilish haqida qaror chiqardi va bu taxtni endilikda “Italiya va Albaniya qiroli” deb nomlanadigan italyan qiroliga taqdim etdi. *Ahmad Zogu* mamlakatdan dastlab Salonikiga, so'ngra Londonga qochdi. Bolqon yarim orolidagi yangi islohotlar uchun platsdarm sifatida ko'zlangan harbiy ob'ektlar qurilishi boshlab yuborildi.

1939-yil 13-aprel – Angliya Gretsiyaning hududiy yaxlitligini kafolatlashga so'z berdi. Bu bayonotga Fransiya ham qo'shildi.

1939-yil 15-aprel - Angliya tarixida 1-marta tinch davrda umumiy harbiy majburiyat joriy qilindi.

1939-yil 28-aprel – Germaniyaning Polsha bilan hujum qilmaslik to'g'risidagi bitimni va Angliya bilan dengiz bitimini bekor qilishi.

1939-yil aprel-avgust – Sovet Ittifoqi, Angliya va Fransiya hukumati o'rtasidagi muzokaralar Moskvada davom etdi. Sovet rahbariyati Fransiya ham, Angliya ham kollektiv xavfsizlik tizimini tashkil qilish istagi va biror aniq dasturiga ega emasligiga qat'iy ishonch hosil qildi. Muzokaralarda hech qanday istiqbol ko'zga tashlanmadi. G'arb davlatlari Germaniya va Sovet Ittifoqini osongina unishtirib qo'yishi mumkin bo'lgan shartlarni ilgari surdilar. Moskvadagi muzokaralar Germaniyani shoshilinch ravishda qat'iy harakatlarni boshlashga undashi lozim edi.

1939-yil 11-may 31-avgust – Yaponiyaning Xolxin-Golda Mongoliya Xalq respublikasi hududiga bostirib kirishi. Yaponiya qurilishining boshlanishi.

1939-yil 22-may – Germaniya va Italiya o'rtasida Yevropada harbiy blokni tuzish to'g'risidagi “*Po'lat bitim*” imzolandi.

1939-yil 22-may – Yaponiyaning Germaniya va Italiya bitimiga qo'shilishi. Bu (“*Po'lat bitim*”).

1939-yil iyun – Angliyada harbiy xarajatlar miqdori yana oshirildi. Harbiy doktrinaga ham o'zgartirish kiritildi. Angliya hukumati faqat o'zini emas, Fransiyaning ham mudofaa qilish ehtimolidan kelib chiqdi. Yevropa qit'asida 19 piyoda va 2 kavaleriya diviziyasidan iborat Angliya ekspeditsiya korpusini tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilindi.

1939-yil 12-iyun 25-avgust – Angliya-Fransiya delegatsiyasining Germaniya Agressiyasini jilovlash maqsadida muzokaralar olib borish uchun Moskvaga kelishi. Muzokaralar natijasiz tugadi.

1939-yil 26-iyul – AQSh Yaponiya bilan savdo shartnomasini bekor qildi.

1939-yil 1-avgust 15-sentabr - uzunligi 270 km. bo'lgan Katta Farg'ona kanali qazildi.

1939-yil 23-avgust – SSSRda va Germaniya o'rtasida hujum qilmaslik to'g'risidagi bitimning 10 yilga imzolanishi (tarixda “*Molotov-Ribbentrop bitimi*”



nomi bilan mashhur). E'lon qilingan qismi bilan bir qatorda ikkala davlatning bo'lajak chegaralari va ta'sir doiralari to'g'risidagi qator mahfiy moddalarga ega. **1939-yil 23-avgust** – Moskvada Germaniya va Sovet Ittifoqi o'rtasida hujum qilmaslik to'g'risidagi bitim imzolandi. SSSR hukumatidan *Molotov*, Germaniya hukumati nomidan *Ribbentrop* imzo chekishdi. Bitimga muvofiq ikkala tomon bir-biriga qarshi hujum qilmaslik va agressiya uyushtirmaslik majburiyatini olardi; uchinchi davlat kelishuvchi tomonlardan biriga hujum qilgan taqdirda boshqa tomon hujum qilgan tomonni qo'llab-quvvatlamasligi lozim edi. Tomonlar davlatlarning kelishayotgan tomonlardan biriga qarshi ittifoqlariga qo'shilmaslik, o'rtalaridagi barcha bahslarni tinch yo'l bilan hal qilish majburiyatini oldilar. Bitim Yevropa davlatlarining SSSRga qarshi yagona fronti tashkil etilishining oldini oldi. Bitimning e'lon qilinmagan maxfiy bandlari Polshaning ikki davlat o'rtasida bo'lib olinishini ko'zda tutardi, Sovet Ittifoqiga Boltiqbo'yi mamlakatlari - Litva, Latviya, Estoniyani hamda Bessarabiyani qo'shib olishga nixsat berardi.

1939-yil 23-avgust – Moskvada hujum qilmaslik to'g'risidagi sovet-german bitimi imzolandi.

1939-yil 23-avgust – Polshani ajratib qo'yish va uni har qanday yordamga umiddan mahrum qilish maqsadida *Gitler* Sovet Ittifoqi bilan hujum qilmaslik to'g'risidagi bitimni imzoladilar.

1939-yil sentabr – II jahon urushi boshlandi. Yugoslaviyaning hukmron doiralari oldiga Germaniyaga munosabat haqidagi murakkab masalani qo'ydi. Yugoslaviya Germaniya uchun nafaqat xom ashyo va oziq-ovqat manbai, balki Yaqin Sharqdagi, Sovet Ittifoqi va Afrikadagi bo'lg'usi bosqinchilik rejalarining platsdarmi sifatida ham ulkan strategik ahamiyatga ega edi. Germaniya Yugoslaviyaga Gretsiya hisobidan Egey dengiziga chiqish, Saloniki porti va Vardar vodiysini berishni va'da qilib, uni urushga jalb etish umidida edi.

1939-yil sentabr – Sovet Ittifoqi hamda Boltiqbo'yi davlatlari – Litva, Latviya va Estoniya o'rtasida o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitimlar imzolandi. Ularga ko'ra, Sovet Ittifoqi estoniya va Latviya hududlarida harbiy-dengiz bazalari va aerodromlar qurish, Litva hududida esa ma'lum joylarda qurolli yer va havo kuchlarini saqlash huquqini qo'lga kiritdi.

1939-yil 1-sentabr – Angliya Germaniyaga urush e'lon qildi. G'arbiy frontda osoyishtalik hukm surardi. Fransuzlar Majino chizig'i ortida payt poylashdi, Angliya esa shoshilinch ravishda qayta qurollanib, an'anaviy dengiz qamalini tashkil qildi. Bu holatni tarixchilar *g'alati urush* yoki "*zitskrig*" ("o'tirib urushish") deb nomlashdi.

1939-yil 1-sentabr – fashistlar germaniyasining Polshaga hujumi. II jahon urushining boshlanishi.

1939-yil 1-sentabr – Germaniya Polshaga hujum boshladi. Angliya va Fransiya o'sha kuniyoq urushni to'xtatish to'g'risida ultimatum berdi. *Gitler* ultimatumga rad javob berganidan so'ng Angliya va Fransiya Germaniyaga urush e'lon qildi. Shu taxlit II jahon urushi boshlandi.

1939-yil 1-sentabr – Germaniya Polshaga hujum boshlaganda Fransiya va Angliya rasman Germaniyaga urush e'lon qilish bilan cheklanib, Polshaga



muayyan yordam ko'rsatishmadi. Germaniya polyak qo'shinlarini yashin tezligida tor-mor qildi – urush uch haftada tugallandi.

1939-yil 1-sentabr – Germaniya qo'shinlari Polsha hududiga bostirib kirdi.

1939-yil 1-sentabr – *Gitler* qo'shinlari Polsha hududiga bostirib kirdi. Angliya va Fransiya agressiyasini to'xtatishni talab qilib, Germaniyaga ultimatum e'lon qildi. Gitler bu e'tirozni e'tiborsiz qoldirmadi. Angliya va Fransiya Germaniyaga urush e'lon qildi. II jahon urushi boshlandi. 20 kun ichida Germaniya armiyasi Polshani tor-mor keltirdi.

1939-yil 2-3-sentabr – Angliya va Fransiya Germaniyaga urush e'lon qilishga majbur bo'ldilar. *N. Chamberlenn*ning “*tinchlantirish*” siyosati amalda aggressor qarshisida qo'l qovushtirish siyosati bo'ldi va uning mevasini 1-bo'lib Angliya yeyishiga to'g'ri keldi.

1939-yil 3-sentabr – Fransiya va Angliyaning Germaniyaga urush e'lon qilishi.

1939-yil 15-sentabr – SSSR va Yaponiya o'rtasida Mongoliya Xalq respublikasi chegaralarini o'zaro tan olish to'g'risidagi bitim imzolandi.

1939-yil 17-sentabr – prezident *Ridz-Smigli* boshchiligidagi Polsha rahbariyati o'z xalqini dushman istibdodiga tashlab, mamlakatdan qochdi.

1939-yil 17-sentabr – sovet qo'shinlari sovet-german bitimining maxfiy bandlariga muvofiq, Polsha hududiga bostirib kirib, G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiyaning Nareva, Visla va Sana daryolarigacha bo'lgan hududlarini ishg'ol qildi. Polsha davlati endi yo'q edi va sovet qo'shinlarini uning taqdirida hech qanday o'rin tuta olmasdi.

1939-yil 17-sentabr – SSSR va Germaniya o'rtasidagi hujum qilmaslik to'g'risidagi bitimning mahfiy moddalariga muvofiq SSSR qo'shinlari Polsha hududiga kirdi.

1939-yil 19-sentabr – Qizil armiya qo'shinlari Vilnyusni egalladi.

1939-yil 22-sentabr – Brest-Litovskda Polshani tor-mor keltirish operatsiyasining tugatilishi sharafiga sovet va nemis qo'shinlarining qo'shma paradi o'tkazildi.

1939-yil 28-sentabr – SSSR va Germaniya o'rtasida do'stlik va chegaralar to'g'risidagi shartnoma

1939-yil 28-sentabr – Moskvada do'stlik haqidagi sovet-german bitimi imzolandi.

1939-yil 2-oktabr – so'nggi Polsha qo'shinlari Germaniyaga qarshilik ko'rsatishni to'xtatdilar.

1939-yil 8-12-oktabr – Germaniya hukumati tomonidan Polsha davlatining tugatilishi, Polsha g'arbiy viloyatlarining Germaniyaga qo'shib olinishi va mamlakatning qolgan qismida “bosib olingan Polsha viloyatlarini general gubernatorligi” ning tashkil etilishi to'g'risidagi dekretlarning e'lon qilinishi.

1939-yil 4-noyabr – jahon urushi boshlangandan so'ng betaraflik haqidagi qonun qayta ko'rib chiqildi va bu Angliya hamda Fransiya AQShdan qurol-yarog' sotib olish imkonini berdi. AQSh demokratik davlatlar tomonidan o'z holatini qat'iy belgiladi.

1939-yil 26-noyabr – SSSR Maynil qishlog'i yaqinidagi mojaro – Finlyandiya bilan chegaradagi sovet qo'shinlari marralarining o'qqa tutilishi munosabati bilan Finlyandiya hukumatiga nota e'lon qildi. SSSR hukumati chegaralarini Leningrad yaqinidan siljitish maqsadida hududlarni ayirboshlashni taklif qildi.



1939-yil 30-noyabr-1940-yil 12-mart – sovet-fin urushining bo'lib o'tishi.

1939-yil 30-noyabr – Sovet Ittifoqi va Finlyandiya o'rtasida harbiy harakatlar boshlandi. 2-3 haftaga mo'ljallangan urush 105 kunga cho'zildi.

1939-yil 13-dekabr - Millatlar Ligasi SSSRni agressiyachi mamlakat deb e'lon qilib, uni Ligaga a'zolikdan chiqardi.

1939-yil 29-dekabr - O'zbekistonda mahalliy sovetlarga saylovlar o'tkazildi. Shu bilan respublika davlat hokimiyati organlarini qayta qurish amalda tugallandi.

1939-yil yoz – *Gerindo* mamlakat mustaqilligi, demokratik huquqlar va erkinliklar e'lon qilinishi uchun kurashayotgan 10 mingdan ziyod kishidan iborat edi.

1939-yilgacha – Tailand Snam Qirolligi (hukmdor sulola nomidan olingan) deb atalgan. Davlat Hindixitoydagi Britaniya va Fransiya qarashli hududlar o'rtasidagi bufer zona sifatida o'z mustaqilligini saqlab keldi.

1940-yil boshi - qoramollar soni 1934-yildagiga qaraganda bir yarim baravardan ziyodga ko'paydi.

1940 yil – kooperativ sanoat va asosan artellar mahsuloti O'zbekiston sanoat hajmining 19 % ini tashkil qildi.

1940 yil-2-yarmi – Bolgariya va Germaniya hukumatlari o'rtasidagi maxfiy bitimga ko'ra, Bolgariyaga ko'p sonli nemis otryadlari kiritildi. Sayyoh va texniklar niqobi ostida ular mamlakatning muhim strategik punktlariga joylashdilar.

1940-1944-yillar – *F.Ruzvelt* asosan ishchilar sinfining ovozlari hisobidan katta ustunlik bilan saylangan edi.

1940-1945-yillar – *U. Cherchilling* Angliyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1940-1945-yillar – *Uinston Cherchill* Buyuk Britaniyada Bosh vazir.

1940-1947-yillar – *A.Lebren* hukumati.

1940-1950-yillar – Ispaniyada mehnatkashlarning iqtisodiy masalalar bilan bog'liq ilk yirik namoyishlari bo'lib o'tdi.

1940-1950-yillar - Pokiston eksportining 90 foizini qishloq xo'jaligi va mineral xomashyo tashkil etar edi. Mamlakat sanoati sodda texnika bilan jihozlangan, xom ashyo qazib olish va qayta ishlash bo'yicha uncha katta bo'lmagan korxonalaridan iborat edi. Sanoat tovarlari va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab asosan import hisobiga qondirilgan. Pokiston iqtisodida chet el monopoliyasi hukmronlik qilar va choy plantatsiyalari, tuz hamda ko'mir konlari, neft konlarining ko'pchiligi ularga qarashli edi. Angliya firmalari va banklari mamlakatning savdo hamda moliya tizimining muhim tarmoqlarini nazorat qilib turdi.

1940-1955-yillar – O'zbekiston xalq xo'jaligiga 143 ming malakali ishchilar tayyorlab berdi.

1940-1970-yillar – O'zbekistonda aholi soni respublikada ikki baravarga yaqin o'sdi.

1940-yil - O'zbekistonda uzumzorlar maydoni 26,6 ming gektarni tashkil etdi.

1940-yil – AQShda umumiy harbiy majburiyat joriy etildi.

1940-yil – *Bertold Brextning* “*Sichuanlik muruvvatpeshasi*” nomli pyesasi yaratildi.

1940-yil – Chirchiq elektr kimyo kombinati ishga tushirilgan.

1940-yil – Fransiya Germaniya fashistlariga taslim bo'ldi.



1940-yil – Fransiya millatga qarshi siyosati uchun harbiy mag'lubiyat va milliy mustaqillikni boy berish bilan haq to'ladi.

1940-yil – insoniyat kibernetikaga yo'l ochdi, bu fan elektron hisoblash mashinalari, axborot olish, unga ishlov berish va saqlash tizimlarining yaratilishiga imkon yaratdiki, ularsiz bugungi kunimizni tasavvur qilishimiz mushkul.

1940-yil – *Joakimo Chissano* dunyoga keldi.

1940-yil – Litva, Latviya va Estoniya bir vaqtda Sovet Ittifoqi tarkibiga qo'shildi. Sovet hukumatining talabi bilan Bessarabiya ham SSSR tarkibiga kiritilib, Moldaviya ASSR (keyinchalik Moldaviya SSR) maqomini oldi.

1940-yil - o'zbek yozuvi kirill alifbosiga almashtirildi. Bu narsa xalqning boy tarixiy o'tmishidan ajralib qolishiga olib keldi, ma'naviy izchillikka ziyon yetkazdi.

1940-yil - O'zbekiston aholisi 6,5 mln kishidan iborat edi.

1940-yil - O'zbekiston sanoatidagi ishchilarining 41 foizini xotin qizlar tashkil etardi.

1940-yil - O'zbekiston SSR MIK qoshidagi fanlar komiteti SSSR fanlar akademiyasining O'zbekiston filialiga aylantirildi.

1940-yil - O'zbekistonda 600 ming nafardan ko'proq kishini o'z saflariga olgan kasaba uyushmalari qaytadan tuzilib, yiriklashtirildi. Respublika korxonalarida tuzilgan kasaba guruhлари o'zlarining tashkiliy ishlarini sexlar, brigadalar, smenalarga ko'chirib, ishlab chiqarishda ishchilar faolligini oshirishga har tomonlama harakat qildilar.

1940-yil – O'zbekistonda 90 ta maxsus ilmiy-tadqiqot muassasalari, ularning filiallari, bo'limlari, tajriba stansiyalari, oliy o'quv yurtlari va boshqalar faoliyat ko'rsatgan.

1940-yil – O'zbekistonda barcha turdagi 5,5 mingdan ortiq umumta'lim maktablari ishlab turdi. Ularda 1,3 mlnga yaqin bolalar o'qidi. Biroq bu davrda maktab binolari, uskuna-jihozlar, o'qituvchilar yetishmas edi va hokazo. Maktab ta'limi turli sohadagi bilimlarni egallab olgan, jamoat hayotiga faol qo'shilib keta oladigan, oliy o'quv yurtlari va texnikumlarga kirib o'qiy oladigan savodxon yoshlarni yetishtirib chiqarishni ko'paytirishga imkon bera oladigan jiddiy islohotga muhtoj edi.

1940-yil – O'zbekistonda oliy o'quv yurtlari soni 30 tani tashkil qilardi.

1940-yil – O'zbekistonda sirtqi va kechki ta'lim tizimida o'qiyotgan talabalar respublika oliy o'quv yurtlaridagi jami talabalarning 20 % ini tashkil qilardi.

1940-yil – o'zining eng yaxshi asarlaridan biri – *“Qo'ng'iroq kimning motamini kuylayotir”* romanini *Ernest Xeminguey* ispan xalqining kurashiga bag'ishladi. Roman g'oyalari insoniyat ongida paydo bo'lgan barcha yangi tushunchalarni aks ettirdi. *Ernest Xeminguey* fashizmga qarshi jang qilish uchun Ispaniyaga otlangan yosh amerikaliklar haqida yozdi. Roman qahramoni *Robert Jordan* muhim ahamiyatga ega topshiriq oladi. Bu topshiriqning bajarilishi o'zi uchun halokatli tugashi mumkinligini tushungan qahramon demokratiya uchun kurash yo'lini tanlaganidan afsuslanmaydi: *“Har kim qo'ldan kelgan ishni qiladi. Sen endi o'zing uchun hech narsa qilolmaysan, ammo, balki, boshqalar uchun biror narsa qilarsan”*. Muqarrar o'limga tik boqib, u Ispaniyada o'tkazilgan yilni sarhisob



qiladi: “Men salkam bir yil ishongan narsam uchun kurashdim. Agar biz bu yerda yutsak, demak, hamma yerda g'olib chiqamiz. Dunyo – yaxshi joy va uning uchun kurashsa arziydi”.

1940-yil - Qoraqalpog'istonda yalpi paxta hosili 78 ming tonnani tashkil qildi.

1940-yil - Respublikada turli janrlarda 50 ta jumladan 47 ta milliy teatr ishlab turdi.

1940-yil – SS saflari 240 ming kishiga o'sdi, diviziya va polklarga ajratildi.

1940-yil – Stalin lagerlaridan birida shoir *Usmon Nosir* halok bo'ldi.

1940-yil – Svetkonich hukumati SSSR bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi. Urushga va fashistlarga qarshi harakat hukumatni ko'zbo'yamachilikka majbur qildi.

1940-yil - Amerika musiqasi ohangida odamlar “bugivugi” yo'nalishida raqsga tushishgan.

1940-yil – *Uilyam Folkner* “*Qishloqcha*” ajoyib psixologik trilogiyasini yaratdi.

1940-yil – Yaponiya, Germaniya va Italiyaning uchyoqlama pakti rasmiylashtirildi. *Uchyoqlama* pakt Germaniyaning raqiblari – AQSh, Angliya va Fransiyaga qarshi yo'naltirilgan edi.

1940-yil fevral 1942-yil 1-avgust – bo'lgan muddatga Germaniya 700 mln. markaga Xo'jalik shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga ko'ra Germaniya Sovet Ittifoqiga sanoat ashyolari, uskuna va qurol-aslaha yetkazib berdi. Germaniya tomoni “*Xeynkel-100*”, “*Messersmidt-109 va 110*”, “*Yunker-88*”, “*Fokke-Vulf-58*” rusumli eng zamonaviy samalyotlarni taqdim etdi.

1940-yil 12-mart – Sovet va Finlyandiya o'rtasida sulh bitimi imzolanib, SSSR chegaralari Leningraddan 150 km nari surildi, Xanko yarim orolidagi harbiy-dengiz bazasi SSSRga 30 yil muddatga berildi.

1940-yil 9-aprel – “*Vezeryubung*” operatsiyasi boshlanib, uning natijasida atigi ikki kun ichida nemis qo'shinlari Norvegiya va Daniyani bosib oldi. Tronxeym va Narvikda harbiy bazalar barpo etilib, ularda Germaniya suv osti flotining asosiy qo'shilmalari hamda suv usti flotining asosiy qismi jamlandi. Bundan tashqari, Bergen va Tronxeymda harbiy-havo bazalari barpo etilib, ularning kuchlari bilan Angliya hududini bombardimon qilish rejalashtirildi.

1940-yil 9-aprel – Germaniya qo'shinlarining Daniya va Norvegiyaga bostirib kirishi.

1940-yil may-oktabr – SSSRda Germaniyaning harbiy texnikasi puxta o'rganildi.

1940-yil 10-may – Belgiya, Gollandiya va Fransiyani tor-mor keltirishni ko'zda tutuvchi “*Gelb*” operatsiyasi boshlandi.

1940-yil-10-may 1945-yil iyun – Germaniya Gollandiyaga qarshi hujumni uyushtirayotgan bir paytda, Angliya parlamenti *Uinston Cherchill* boshchiligidagi yangi hukumatni sayladi. U konservatorlar, leyboristlar va liberallardan iborat koalitsion hukumatni boshqardi. Bu “milliy birlashish” hukumati bo'lib, urushning oxirigacha faoliyat ko'rsatdi.

1940-yil 14-may – Gollandiya armiyasi Germaniyaga taslim bo'ldi.

1940-yil 19-may – Germaniya qo'shinlarining Belgiyaga va Gollandiyaga bostirib kirishi.

1940-yil 20-may – Germaniya qo'shinlari La-Mansh bo'g'oziga chiqib, Belgiya



qo'shinlarining yirik qo'shilmasidan kesib qo'ydi. Qarshi hujum muvaffaqiyatsiz tugadi.

1940-yil-26-may 3-iyun – Dyunkerkdagi ingliz va fransuz qo'shinlarining evakuatsiya qilinishi.

1940-yil 28-may – Belgiya armiyasi Germaniyaga taslim bo'ldi.

1940-yil iyun – Fransiya kapitulyatsiya qilingan kunda *de Goll* BI BI Si da chiqish qilib, fransuz qo'shinini fashist bosqinchilariga qarshi kurashni davom ettirishga da'vat etdi. *De Goll* shu kuni zobitlik mansabini tugatdi va davlat arbobi sifatidagi hayotini boshladi. Uning Fransiyaning buyuk davlat sifatida tiklanishini asosiy maqsad qilib qo'yan siyosiy konsepsiyasi “gollizm” nomini oldi. Uning mohiyati 4 tushuncha: “millat”, “kuchli davlat”, “Fransiyaning ulug'vorligi” va “ijtimoiy islohotlar”da ifodalash mumkin. Davlat, *Sh. de Goll*ning fikricha, agar millatda birlik bo'lsa va bir maqsad atrofida jipslashsagina kuchli bo'lishi mumkin. U respublika-demokratik an'analardan yuz o'girmadi, biroq davlat boshlig'i, prezidentning kuchli hokimiyatini, uning umumxalq ovoz berish yo'li bilan saylanishi va keng vakolatlarga ega bo'lishini yoqlab chiqdi. Eng muhimi, siyosiy masalalar bo'yicha referendum o'tkazishni lozim deb hisobladi.

1940-yil 4-iyun – *Dyunker* operatsiyasi. Unda 300 mingdan ortiq kishi, 123 ming fransuz va belgiyaliklar olib chiqib ketildi. Bor og'ir harbiy texnika evakuatsiya hududiga tashlab ketildi va gitlerchilarning qo'lga tushdi.

1940-yil 5-iyun – Germaniya qo'shinlari Parijga *Dyunker* operatsiyasini tugatib, hujum boshladilar. Fransiya armiyasi deyarli qarshilik ko'rsatmadi.

1940-yil 10-iyun – Italiyaning Angliya va Fransiya urush e'lon qilishi.

1940-yil 14-iyun – Fransiya armiyasi bosh qo'mondoni general *Veygan*, hatto hukumatdan rozilik ham so'ramay, Parijni ochiq shahar deb e'lon qildi, ya'ni mudofaadan voz kechdi. Nemis-fashist qo'shinlari Parijga kirdi. Fransiya hukumat doiralari, fransuz burjuaziyasi Fransiya eshigini Gitlerga lang ochib berdilar.

1940-yil 14-iyun – nemis-fashist qo'shinlarining Parijni ishg'ol qilishi.

1940-yil 18-iyun – general *De Goll* BI BI Si radiosi orqali fransuzlarni Gitler bosqinchilariga qarshi kurash boshlashga chaqirib, murojaat qildi. Fransiya ikkala – Germaniya bilan hamkorlik qiluvchilar va Germaniyaga qarshi kurashuvchilar lageriga ajraldi. *De Goll* Peten hukumatini sotqinlikda aybladi. “*Fransiya askarlari, qayerda bo'lmangiz, kurashga qo'zg'alinglar*”, deb chaqirdi.

1940-yil 22-iyun – Kompen o'rmonida marshal *Fosh*ning muzeyidan olib kelingan shtab vagonida Germaniya bilan yarash ahdi imzolandi. Yarash ahdi shartlariga ko'ra, Fransiya armiya va floti qurolsizlantirilib tarqatildi. Nemis harbiy asirlari ozod etilardi, biroq 1.800 ming fransuz harbiy asirlari Germaniyada qolardi. Fransiya Germaniya qo'shinlarini o'z hududida saqlab turish uchun ulkan istilo to'lovlarini to'lashi lozim edi. Fransiyaning uchdan ikki qismi va mamlakat poytaxti Parij Germaniya tomonidan ishg'ol etilgandi. Mamlakatning janubiy qismi va mustamlakalarga daxl etilmagan bo'lib, ular *Peten* hukumati tomonidan nazorat qilindirdi. *Peten* hukumati butun Fransiyaning hukumati deb e'lon qilindi. U Fransiya mustamlakalari floti ustidan hukmronlikni saqlab qoldi, Angliya bilan



diplomatik aloqalarni uzdi. Butun Fransiya iqtisodiyoti Germaniyaga xizmat qila boshladi. Jami fransuz korxonalarining 80% i istilo to'lovlari hisobiga nemis buyurtmalarini bajarardi. Istilo to'lovlari hisobiga Germaniya tomonidan fransuz xom ashyosining to'rttdan uch qismi va Fransiya sanoati asosiy sohalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 50 dan 100% igacha olib chiqib ketilardi. Fransuz ishchilari Germaniyaga majburiy ishlarga jalb qilindi. Jami 1 mln. ga yaqin kishi olib ketildi. Urush so'ngigacha ulardan 200 ming kishi haiok bo'ldi, 228 ming kishi uyiga nogiron bo'lib qaytdi.

1940-yil 1-iyul-19-avgust – Italiya qo'shinlarining shimoliy Afrikadagi hujumi.

1940-yil 16-iyul – oliy qo'mondonlikning *“Zeeleve”* (*“Dengiz sheri”*) nomli desant tashlash operatsiyasini tayyorlash to'g'risidagi direktivasi e'lon qilindi.

1940-yil 13-avgust – Germaniya aviatsiyasining Angliyaga ommaviy hujumlarni boshlashi. (*“Angliya uchun jang”*).

1940-yil 15-avgust - 15-sentabr – Germaniyaning Angliyaga hujumi boshlandi, unda 800 bombardimonchi va 1140 qiruvchi samolyotlar qatnashdi. Asosan yirik sanoat va ma'muriy markazlar - *London, Koventri, Birmingem* bombardimon qilindi. Hujumlar natijasida Angliyada ko'plab turar joy binolari vayron etildi. 40 mingga yaqin kishi halok bo'ldi, 46 ming kishi esa yaralandi. Asosan tinch aholi halok bo'ldi. Biroq, Gitler rahbariyatining havo urushi yo'li bilan Angliya qarshiligini yengish borasidagi strategik rejasi xom bo'lib chiqdi.

1940-yil 15-avgust – Angliyaga qarshi *“Zeeleve”* (*“Dengiz sheri”*) nomli operatsiyasi amalga oshirishni belgilangan kun. Angliya floti yaqqol ustunlikka ega bo'lgani tufayli, bu operatsiya amalga oshirilmay qoldi.

1940-yil sentabr – O'zbekistonda davlat nazorati xalq komissarligi tashkil etildi, uning vazifalari davlat mablag'lari va moddiy boyliklarini hisobga olib borish va sarflash ustidan qattiq nazorat o'rnatish, hukumat qarorlarining ijrosini tekshirishdan iborat edi.

1940-yil sentabr - xo'jalik xalq komissarliklari ustidan rahbarlikni mustahkamlash maqsadida O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti qoshida Iqtisodiy kengash tashkil etildi.

1940-yil 3-sentabr – qirol *Karol* o'zining fashistlarga tarafdor qarashlari bilan mashhur Ruminiya qurolli kuchlari bosh shtabining sobiq boshlig'i *Ion Antonesku* hukumatni boshqarishga chaqirdi. Qirol generalning o'ziga sodiqligiga ishongan edi.

1940-yil 6-sentabr – *Ion Antonesku* hukumat tepasiga kelgach, qirolning hokimiyatdan voz kechishini talab qildi, uni mamlakatdan quvib chiqardi va hokimiyatni qirol *Mixayga* topshirdi. *Ion Antonesku* *“konduktor”* ya'ni davlat rahbari (Germaniyadagi *“fyurer”* yoki Italiyadagi *“duche”* teng)ga aylandi. U dekomratik erkinliklarning so'nggi qoldiqlarini yo'q qilib, mamlakatda mustabid tuzum o'rnatdi. Butun Ruminiya iqtisodiyoti Germaniyaga xizmat qilishga safarbar etildi.

1940-yil 16-sentabr – AQShda umumiy harbiy majburiyat to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi.



1940-yil 22-sentabr – Germaniya va Finlyandiya o'rtasidagi Finlyandiyaning SSSRga qarshi urushda qatnashishi to'g'risidagi harbiy bitimning imzolanishi.

1940-yil 27-sentabr – Berlinda Germaniya, Italiya va Yaponiya tomonidan fashist davlatlari uch tomonlama bitimining imzolanishi.

1940-yil oktabr – Ruminiya Germaniya instruktorlari bilan to'lib-toshdi, ular sovet chegarasi bo'ylab hamda strategik jihatdan muhim punktlarda joylashtirildi.

1940-yil 12-oktabr – fashist qo'shinlarining Ruminiyaga bostirib kirishi.

1940-yil 28-oktabr – Italiya Gretsiyaga bostirib kirdi. Bir vaqtning o'zida temir yo'llar, portlar va aerodromlar bombardimon qilindi.

1940-yil 28-oktabr – Italiyaning Gretsiyaga bostirib kirishi.

1940-yil noyabr – sovet hukumati *Matyan Rakoshi* va boshqa kommunistlarni venger milliy bayroqlariga almashadi, bu bayroqlar rus qo'shini tomonidan Budapeshtdagi 1848-yil inqiloblari bostirilgach, bir yildan so'ng tortib olingan edi.

1940-yil 14-19-noyabr – Germaniya aviatsiyasining Birmingem va Koventrini bombardimon qilishi.

1940-yil 20-noyabr – Vengriyaning fashist davlatlari uch tomonlama bitimiga qo'shilishi.

1940-yil 23-noyabr – Ruminiyaning fashist davlatlari uch tomonlama bitimiga qo'shilishi.

1940-yil dekabr – Angliyani bombardimon qilish davom etayotgan bir paytda, u generalarga 1941-yil 15-maygacha Sovet Ittifoqiga qarshi tayyorlanishni buyurdi. U sharqdagi blitskrig inglizlarning umidini chilparchin qilib, esini kiritib qo'yadi, deb taxmin qilardi.

1940-yil dekabr – Gitler "Barbarossa rejasini" nomli SSSRga hujum qilish rejasini ishlab chiqish to'g'risida ko'rsatma berdi. Uning asosiy maqsadi sovet davlatini to'liq yo'q qilish va bu yerdagi xalqlarni qulga aylantirishdan iborat edi.

1940-yil 18-dekabr – Gitler tomonidan SSSRga qarshi urush to'g'risidagi 21-son direktiva ("Barbarossa rejasini")ning imzolanishi.

1940-yil oxirl 1950-yil boshi – Bolgariyada 700 dan ortiq sanoat korxonalari qurildi va rekonstruksiya qilindi. Kimyo, mashinasozlik, elektrotexnika, qora va rangli metallurgiya kabi yangi sanoat tarmoqlari paydo bo'ldi.

1940-yil oxirl 1950-yil boshi – O'zbekistondagi qatag'onlar asosan madaniyat va fan arboblari taaluqli edi.

1940-yil oxiri – Germaniya bosib olgan yerlarda 290 mln. kishi yashar, 45 mln. tonna po'lat quvirlar, 400 mln. tonna ko'mir va 10 mln. tonna neft qazib olinar, 700 ming avtomobil, 110 mlrd. kv. elektr quvvati ishlab chiqarilardi.

1940-yil oxiri - Qoraqalpog'istonda umumiy boshlang'ich maktablar soni 108 taga yetdi.

1940-yil oxiri – Xitoyda demokratik kuchlar nazoratida turgan hududlar aholisining soni 100 mln. kishini tashkil etardi. Bu yerda xalq hokimiyati tuzumi shakllandi. Bu yerda Xitoyning kelajagi yaratilardi.

1940-yil bahor – Gitler Belgiya va Fransiya chegaralarida 135 dan ortiq diviziyani jamladi, tirik kuch, texnika va aviatsiyada juda katta ustunlikni qo'lga kiritdi. Biroq,



Germaniya qo'mondonligi oldin Skandinaviyada harbiy-dengiz va havo bazalarini barpo etishga qaror qildi, chunki ulardan turib Angliya flotining faol harakatlariga qarshilik ko'rsatish mumkin edi.

1940-yil yoz – Italiya Albaniyada 130 ming kishilik armiyani jamladi.

1941-yil boshi – SSSR kengaytirilgan Xo'jalik shartnomasi imzoladi. Unga ko'ra SSSRga sanoat uskunalarining oqimi kela boshladi. Aynan shu davrda SSSRda harbiy-texnika sanoati bazasi yaratildi. Eng zamonaviy harbiy texnika ishlab chiqarila boshlandi. Vaqtdagi bu yutuq urushda katta ahamiyat kasb etdi.

1941-1942-yillar - Idora xodimlari, uy bekalari va o'smirlar ham ishlab chiqarishga jalb qilindi. Yoshlardan ishchilar tayyortashga alohida e'tibor berildi. Urushning dastlabki 17 oyi mobaynida 14-17 yoshlilardan turli kasbdagi 23,3 ming ishchi tayyorlandi. Fabrika va zavodlar qoshidagi maktablar ko'plab ishchilar yetishtirdi.

1941-1942-yillar – *Makartur Diglas* II jahon urushi davrida AQShning Uzoq Sharqdagi qurolli kuchlari qo'mondoni va Tinch okeani janubiy-g'arbiy qismidagi ittifoqchilar qo'shinlari bosh qo'mondoni.

1941-1942-yillar - O'rta Osiyo harbiy okrugida front uchun jangovar zaxiralar va komandirlar tayyorlandi. Urush boshlanishidan hisoblaganda bir yarim yil ichida bu okrug 109 ta harbiy qo'shilmalar tuzdi. Shulardan harakatdagi armiyaga va Bosh qo'mondonlik stavkasi rezerviga 86 diviziya va brigada jo'natildi.

1941-1942-yillar - O'zbekiston temir yo'lchilarining fidokorona mehnati tufayli ko'chirilgan sanoat korxonalarining asbob-uskunalari ortilgan 17,5 ming vagon tashib berildi. Temir yo'l transporti front orqasi bilan front o'rtasidagi asosiy aloqa vositasi bo'lib qoldi.

1941-1942-yillar - O'zbekistonda mehnatkash dehqonlar soni 20%ga kamaydi.

1941-1945-yillar - jahon urushida AQSh Yevropa singari katta yo'qotishlarni boshdan kechirmadi. To'rt yillik harbiy harakatlar davrida AQSh tomonidan 300 ming kishi halok bo'ldi. Ko'rilgan moddiy zarar - 1,2 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu, urushga aloqador barcha mamlakatlar yorqotishlarning 0,4 %i demakdir. Ayni paytda urush Amerika kompaniyalarining misli ko'rilmagan darajada boyishiga olib keldi. Sanoat ishlab chiqarish ikki martadan ko'proq ko'paydi. Amerika biznesining sof foydasi 47 mlrd. dollarni tashkil etdi, bundan tashqari boshqa mamlakatlarning AQShdan olgan qarzi 41 mlrd. dollarni tashkil etdi va amerikalik biznesmenlar bundan katta foiz miqdorida foyda ko'rdi. Amerika hukumatiga gitlerchilar Germaniyasining barcha oltin zaxirasi o'tdi. AQShda saqlash uchun boshqa mamlakatlardan olib kelingan oltin miqdori butun jahondagi oltin zaxirasining 65 % ni tashkil etdi.

1941-1945-yillar - jahon urushida SSSRning harbiy talafoti 27 million kishini tashkil etdi. Aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, Sovet Ittifoqi II jahon urushi paytida 40 million kishisini yo'qotdi. Ularning ko'pchiligi 18 dan 55 yoshgacha bo'lgan kishilar, ya'ni aholining eng asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlari edi. Mamlakatdagi demografik inqiroz urushdan keyingi butun davr mobaynida chuqur sezildi. Mamlakatning xalq xo'jaligiga ulkan zarar yetkazildi. Fashistlar vaqtincha bosib olingan viloyatlarni varvarlarcha talashdi. Ular sovet qo'shinlari zarbasi ostida chekinayotib, "yondirilgan zamin" taktikasini qo'llashdi. Bosqinchilar 1710 shahar



va qasaba, 70 dan ziyod qishloqni to'liq vayron etdi va yoqib yubordi. 32 ming yirik va o'rta sanoat korxonalari, 65 ming km temir yo'l vayron etildi. Qishloq xo'jaligiga ulkan zarar yetkazildi. Urush yillari SSSR o'z milliy boyligining 70 foizini yo'qotdi.

1941-1945-yillar – II jahon urushi davrida Irlandiya betaraflik e'lon qildi.

1941-1945-yillar – I.V. *Stalin* (Jugashvili) SSSR Oliy bosh qo'mondon.

1941-1945-yillar - Ittifoqning mudofaaga tegishli qurilishlari va sanoat korxonalarida 155 mingdan ortiq o'zbekistonlik mehnat qildi. Ular RSFSRning turli viloyatlari va avtonom respublikalarida, jumladan, Ural, Sibirdagi zavodlar va boshqa obyektlarda ishladilar. Safarbar qilingan kishilar mehnatidan harbiy iqtisodiyotning eng muhim joylarida, asosan toshko'mir, qora va rangli metallurgiya korxonalarida, shuningdek qurilishda foydalanildi. Ularning aksariyati yangi kasblarni egalladilar.

1941-1945-yillar - juda ko'p o'zbekistonlik jangchilar Moskvadan to Berlingacha bo'lgan shonli yo'lni bosib o'tdilar. Ular orasida Qahramonlar *Tojiali Boboyev*, *Solih Umarov*, uchala darajadagi Shuhrat ordeni nishondori *Said Nijozov* va boshqalar bor. O'zbekistonlik 120 mingdan ortiq yigit-qiz urush frontlarida mardlik va matonat ko'rsatgani uchun jangovar orden va medallarga, 280 kishi esa Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi, ulardan 75 nafari o'zbek edi, 82 nafar o'zbekistonlik askar uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan mukofotlandi.

1941-1945-yillar - mehnatkash xalqimiz fashist bosqinchilaridan ozod etilgan Rossiya, Ukraina, Belorussiya rayonlariga urush vayron qilgan xo'jaliklarni tiklashda yaqindan turib katta yordam berdi. Bu yordamning shakllari turlicha edi. Ko'pgina o'zbek ko'ngillilari, asosan yoshlar asliga keltirish, tiklash ishlarida qatnashish uchun Stalingradga, Ukrainaning vayron qilingan shaharlariga jo'nab ketdilar. Respublikamizda ozod qilingan rayonlarga qardoshlik yordami fondi ochildi. Ularga moddiy texnika va mutaxassislar yuborildi. Chunonchi, Kuban va Ukrainaga 2 mingdan ortiq traktor va avtomobil, 1595 traktorch jo'natildi. Xarob bo'lgan temir yo'llarni tiklash uchun Toshkent temir yo'li ko'plab parovozlarni yubordi, minglab yuk va yo'lovchilar tashuvchi vagonlarni ta'mirlab, tiklab berdi. O'zbek energetiklari elektr stansiyalariga, shaxtyorlarimiz esa Donbass shaxtalariga madad berdilar.

1941-1945-yillar - o'zbek tilidagi 14 ta front va brigada gazetolari siyosiy-tarbiyaviy ishlarni olib bordi.

1941-1945-yillar - O'zbekiston qishloq xo'jalik ahli eng murakkab va og'ir sharoitlarda mehnat qilib, 4 mln tonnadan ziyod paxta xom ashyosi, 82 mln pud don, 55 ming tonna pilla, 1,1 mln tonna sholi, 57,5 ming tonna meva va uzum, 36 ming tonna yetka, 159,3 ming tonna go'sht, 22,3 ming tonna jun va boshqa mahsulotlar yetkazib berdilar.

1941-1945-yillar - O'zbekistonda 35 mahalliy, 16 ko'chirib keltirilgan teatrlar ish olib bordi.

1941-1945-yillar – O'zbekistonda milliy siyosat kechirib bo'lmas zo'ravonlikka yo'l qo'yildi. Stalincha totalitar tartibot butun-butun xalqlarni bir-biridan ajratish va jazolash ishlarini uyushtirdi. Stalin va uning atrofidagilar o'zlarining xattli harakatlarini fashistlar okkupatsiyasi davrida ayrim shaxs va guruhlarining xoinligi uchun berilgan jazo, sovet mamlakati xavfsizligini qo'riqlash deb bahona qildi.



1941-1945-yillar - O'zbekistonda mudofaa jamg'armasiga respublika mehnatkashlari pul va davlat zayomi obligatsiyalari shaklida 650 mln so'mdan ziyod mablag' topshirdilar, 22 mln so'mdan ortiq qimmat buyumlar, 55 kg ga yaqin qimmatbaho metallar topshirdilar. Ana shu mablag'larga "O'zbekiston", "Krasnovostochnik", "O'zbekiston komsomoli" bronepoyezdlari, aviaeskadrilya, tank kolonnalari va boshqa texnika qurilib, frontga jo'natildi.

1941-1945-yillar - O'zbekistonga 1 mln dan ortiq kishi, hususan 200 ming bola keldi. Urush yillarida 4,5 ming nafardan ziyod bolalar o'zbekistonlik oilalar tomonidan qabul qilib olindi. O'zbekistonliklar ko'chirib keltirilgan bolalarga mehribonlik va g'amxo'rlik ko'rsatdilar. Yuzlab oilalar urush tufayli qardron uyi, otasi, onasidan judo bo'lgan bolalarni tarbiyaga olish istagini bildirdilar. 15 nafar yetim bolani farzandlikka olgan *Shomahmudovlar* oilasining oiljanoblighi butun jahonga ma'lum; ukrain va rus, latish va moldavan, ko'pgina boshqa millat bolalari bir oilada birga tarbiyalanib, quvonch va tashvishni birga baham ko'rdilar. Urush nogironi kattaqo'rg'onlik *Hamid Samadov* oilasi 13 bolani o'z panohiga oldi, samarqandlik kolxozchi ayol *Fotima Qosimova* 10 bolani qabul qildi.

1941-1945-yillar - O'zbekistonimiz san'ati ustalari 30 ta konsert brigadalariga bo'linib, frontda jangchilarga 35 ming, gospitallarda esa 26 ming konsert ko'rsatdilar. Front brigadalari tarkibida *Tamaraxonim*, *H.Nosirova*, *S.Eshonto'rayeva*, *M.Turg'unboyeva*, *A.Hidoyatov*, *O.Xo'jayev*, *G.Rahimova*, *K.Zokirov*, *M. Qoriyoqubov* singari taniqli san'atkorlar bor edi. O'zbek kompozitorlari *T.Sodiqov*, *M.Ashrafiy*, *D.Zokirov*, *T.Jalilov*, *N.Hasanov*, *M.Burhonov*, *Yu.Rajabiy* va boshqalarning asarlarida sadoqat, do'stiik va Vatanga muhabbat tuyg'ulari tarannum etildi. *L.Abdullayev*, *Ch.Ahmarov*, *M.Nabiyev*, *O'.Tansiqboyev* va boshqa rassomlar urush davri tasviriy solnomasiga salmoqli hissa qo'shdilar. O'zbek kino san'ati xodimlari urush davrida qisqa metrajli filmlar - kinohikoyalar, kinoocherklar, "Frontdagi do'stlarga", "Vatanga sovg'a", "Frontga konsert" va shu kabi film-konsertlar yaratdilar. Kinojurnallarda xalqning front orqasidagi mardonavor mehnati, frontdagi o'zbek jangchilarining qahramonligi haqida hikoya qilindi. *K.Yormatov*, *Y.A'zamov*, *N.G'aniyev*, *S.Muhamedov* kabi o'zbek rejissyorlari o'z filmlarida fasbizm mafkurasining insonlarga nisbatan vahshiylik tabiatini fosh qildilar, jangchilar va mehnat ahlining jasorati, bukilmaz irodasini ko'tarinki ruhda ko'rsatdilar.

1941-1945-yillar – Qoraqalpog'istondan frontga hammasi bo'lib 61618 kishi chaqirildi. Urush boshlangan vaqtda bu yerda 97-Qoraqalpogiston milliy brigadasi tashkil qilinish, unga ko'ngilli ravishda yigitlar yozildi. Qoraqalpog'istonning 25 ming kishisi ishchi batalyonlarga olinib, ular RSFSRning Sverdlovsk, Perm, Gorkiy, Orenburg viloyatlari korxonalarida va shaxtalarida, O'zbekistonning Angren shaxtasi qurilishida mehnat qildilar. Tank kolonnalari va samolyotlar eskadrilyalarini tashkil etish uchun ular 10 mln so'mdan ortiq pul va obligatsiyalar to'pladilar. Aholi 30755000 so'm miqdordagi harbiy zayomlarni sotib oldi. Dehqonlarning shaxsiy xonadonlaridan mudofaa fondiga katta miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari va issiq kiyim-kechaklar jo'natildi. Qoraqalpog'istonga evakuatsiya qilingan 25000 polyak va mamlakat g'arbidan ko'chirilgan 15000 kishi ili q kutib olindi va ularga



g'amxo'rlik ko'rsatildi. 20 nafar jangchiga ko'rsatgan mardliklari uchun Qahramon unvoni berildi. Ularning ichida O'.Abdullayev, I.Navro'zboyev, O'.Jumaniyozov, J.Qoraqulov, M.Bohnag'ambetov kabi jasur jangchilar bor edi. Qoraqalpog'istondan ketgan jangchilardan 34000 kishi uylariga qaytmadilar.

1941-1945-yillar – sotsialistlar FKP bilan birligini bildirdi.

1941-1945-yillar – urush davrida o'zbekistonlik oilalar 4,5 ming nafardan ziyod bolalarni qabul qilishdi.

1941-1945-yillar - urush tufayli Moskva, Leningrad, Kiyev, Minsk va boshqa shaharlardan ko'chirib kelingan olimlar O'zbekiston olimlari bilan mahkam aloqada ish olib bordilar. Ularning birgalikdagi sa'y-harakatlari ilm-fan yutuqlarini front ehtiyojlari uchun xizmat qildirishga qaratilgan edi. Matematika, fizika, mexanika, energetika hamda boshqa mavjud fanlar sohasidagi olim va Umumiy xodimlarning izlanishlari - metallni qayta ishlash, mashinasozlik va mudofaa sanoati boshqa tarmoqlarining rivojlanishini ta'minladi. Respublika olimlari artilleriya aslahasini mukammallashtirish, jangovar samolyotlarning yuk ko'tarish salohiyatini oshirish, mavjud harbiy texnika vositalarini yaxshilash va yangi turlarini yaratish kabi eng dolzarb amaliy masalalarni hal etdilar. Ishlab chiqarishni kengaytirish va xom ashyo manbalarini qidirib topish maqsadida geolog olimlar juda qisqa muddatlarda qalayi, volfram, molibden, nodir metallar, neft, toshko'mir, olovbardosh materiallar va boshqa turdagi xom ashyo kordarini topdilar, bu konlar qisqa muddatlarda o'zlashtirildi. Turangli rayonida temir ruda konlarining topilishi muhim sanoat ahamiyatiga ega bo'ldi. Biologiya, botanika sohasida olimlar qishloq xo'jaligida g'o'za, bug'doy, va qand lavlagini almashlab ekish usulini joriy etdilarki, bu respublikaning o'z oziq-ovqat bazasini yaratish va g'o'za hosildorligini oshirishga imkon berdi. Yangi yangi g'o'za navlari yetishtirildi. Kimyogar olimlar jaydari ko'mirmi kokslash muammosi ustida ishladilar, neft, slanets va boshqa turdagi yoqilg'ilar yuzasidan tadqiqotlar olib bordilar. Paxta chiqindilaridan xalq xo'jaligida foydalanishga doir takliflar ishlab chiqildi, quruqlayin qayta ishlash yo'li bilan etil spirti, soda, kislotla olishning yangi usullari yaratildi. Kimyogarlarning chetdan keltiriluvchi dori xom ashyosi o'rnini bosish uchun dorl darmonlar ishlab chiqarish hajmini oshirish yuzasidan olib borgan ishlari diqqatga sazovordir. Jumladan, narkozli efir, xorli kalsiy, kofein, streptotsil, sulfidin, nikotin kislotasi ishlab chiqarila boshlandi. O'rta Osiyo Davlat universitetining kimyo fakulteti bazasida farmatsevtika zavodi ishga tushirildi. Bu zavod urush yillarida butun Ittifoq ehtiyojlarini zarur dorl darmonlar bilan ta'minlab bordi.

1941-1945-yillar - urush yillari davomida ularda 20 mingdan ziyod oliy va o'rta maxsus ta'limotli mutaxassislar yetishtirildiki, bu xalq xo'jaligini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash imkonini berdi.

1941-1945-yillar - urush yillarida bir yarim milliondan ortiq O'zbekistonlik fuqaro fashizmga qarshi o'tli janglarda qatnashdi.

1941-1945-yillar – urush yillarida O'zbekistonda industriyaning barcha sohalariga taaluqli bo'lgan 280 ta yangi sanoat korxonasi qurildi. O'zbekiston Ittifoqning asosiy jangovar aslahaxonalaridan biri sifatida 2 mingdan ortiq samolyot, 1,7



mingdan ziyod aviamotor, shuncha minomyot, 22 mln dona mina, 560 mln snaryad, 2 mln dona radiolampa, 1 mln dona granata, 330 ming parashyut, 5 bronepoyezd, 18 sanitar poyezdi, harbiy ehtiyojlar uchun 100 ming km dan ortiq turli simlar, millionlab gimnastyorka, paxtali ustbosh, soldatlar etigi va boshqa ko'pgina mahsulotlarni frontga yetkazib berdi.

1941-1945-yillar - urush yillarida turli xalqlar yozuvchilarining ijodiy hamkorligi yanada mustahkamlandi. O'sha kezlarda Toshkentda 200 ga yaqin yozuvchilar, jumladan, *A.Tolstoy, B.Lavrenev, K.Chukovskiy, Ya.Kolas, B.Gorbatov, R.Ivanov, V.Yan, N.Virta, V.Lugovskoy, M.Shaginyan, A.Axmatova* va boshqalar yashar edilar. Rossiya, Ukraina, Belorussiya yozuvchilari bilan ijodiy hamkorlikda "*Biz g'alaba qozonamiz*" nomli almanax va "*O'zbekiston shoirlari frontga*" nomli antologiya yaratildi. O'zbek mumtoz adabiyotining mashhur asarlari - Alisher Navoiyning "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin" dostonlari, Boburning lirik asarlari, Muqimiy va Furqat she'rlari, "Alpomish", "Go'ro'g'li" xalq dostonlari rus tiliga tarjima qilindi, o'zbek tiliga rus klassiklarining asarlari o'girilib bosildi.

1941-1945-yillar - urush yillari respublikada qidirib topilgan volfram, molibden, mis va oltin zaxiralari asosida rangli metallar sanoatini yaratishga kirishildi. Olmaliq mis koni ishga tushirildi. Langarda molibden fabrikasi qurildi. Kimyo sanoati sezilarli darajada rivojlandi. Chirchiq elektr kimyo kombinatining ikkinchi navbati ishga darajildi. Qo'qon aralash mineral o'g'itlar zavodi qayta uskunalanib, superfosfat zavodiga aylantirildi. O'zbekistonda metallurgiya, energetika, yoqilg'i va mashinasozlik sanoatlarini qaytadan yaratish Ittifoq harbiy ishlab chiqarishi asoslarini mustahkamladi, respublikamizning umumittifoq iqtisodiyotiga qo'shgan hissasini oshirdi.

1941-1945-yillar - urushgacha ekin maydonlarining 90%ida paxta ekilgan bo'lsa, urush yillarida bu ko'rsatkich ancha kamaydi. Chunonchi, Farg'ona viloyatida paxta maydoni 51%ga kamaydi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash imkoni oshdi. Urushning suronli yillaridagi mashaqqatli mehnat natijasida don muammosi hal etila boshlandi. Bu yillarda davlatga 82 mln pud don, 213 ming sentner sholi topshirildi. Don ekini maydonlarini kengaytirish va respublika uchun yangi ekinlar - qand lavlagi, kanop va boshqalar ishlab chiqarish ham kun tartibida bo'ldi. O'zbekistonga ko'chib kelgan Ukraina va Belorussiya olimlari, kolxozchilari, agronomlari bebaho yordam ko'rsatdilar. Qand lavlagini qayta ishlovchi Zirabuloq, Qo'qon va Yangiyo'l qand zavodlari qurildi. Urush yillarida respublika butun mamlakatda ishlab chiqiladigan qandning to'rttan bir qismini berar edi. Bundan tashqari kungaboqar, zig'ir, kanop, makkajo'xori, kunjut kabi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish ham yo'lga qo'yildi va yildan-yilga oshib bordi.

1941-1945-yillar - urushning birinchi kunlaridan boshlab harbiy gospitallarda tekin ishlab beruvchi ayollar harakali kengayib bordi. Urushda og'ir jarohatlangan va majruh bo'lganlar front yoni mintaqasidan shu gospitallarga olib kelinar edi. Ularni parvarish qilishdek mashaqqatli mehnatni tibbiy xodimlar bilan birgalikda respublika fuqarolari, ayniqsa, yoshlar o'z zimmasiga oldi. O'zbekistonda 30 dan ortiq harbiy gospital joylashtirilgan bo'lib, ularni 750 ta korxonaga, muassasa, kolxoz-sovxoza otaliqqa olgan edi.



1941-1945-yillar may – *Frans Blaxa* Chexoslovakiya hukumati bilan hamkorlik qilishda ayblandi. Daxau konslageriga tashlandi.

1941-yil iyun 1945-yil may - O'zbekiston xalqlari Germaniya fashizmiga qarshi urushda ishtirok qildilar.

1941-yil – II jahon urushi boshlanishida Tailand Yaponiya tomonidan bosib olingan edi.

1941-yil – *Ahmet Nejet Sezer* dunyoga keldi.

1941-yil – *Anvar Xo'ja* Albaniya kommunistik partiyasini tashkil etdi.

1941-yil – *Bertold Brextning "Artur U. I. ning martabas"* nomli pyesasi yaratildi.

1941-yil – Eronda xalq partiyasi (Tude) tuzildi. Sovet-Eron shartnomasi asosida sovet qo'shinlari Eronga kiritildi.

1941-yil - II jahon urushi natijasida Sho'rolar Moskva aviatsiya zavodini Toshkentga ko'chirishga majbur bo'lgan edilar va shu tariqa O'zbekistonda samolyotsozlik sanoatiga asos solingan edi.

1941-yil – Ispaniyada tashkil etilgan Milliy sanoat instituti davlat nazorati ostida sanoat korxonalariga rahbarlikni amalga oshiruvchi aksionerlik kompaniyasi rolini o'ynar edi.

1941-yil – O'zbekistonda 75 ta ilmiy muassasa bo'lib ularda 3 ming nafardan ortiq ilmiy hodimlar mehnat qilardi. Respublikaning ilmiy salohiyati oshib ilmiy kadrlar muammosi hal etilib bordi. Fanning mamuriy buyruqbozlik usuli bilan boshqarilishi ko'pgina ko'zga ko'ringan olimlarning qamalishi, qatag'on qilinishi ilmiy ijodkorlik tuyg'usini bo'g'ishiga hizmat qildi, fanimizning umumduynyoviy yo'l bilan rivojlanishiga yo'l qo'ymadi, natijada fan o'z an'annaviy ildizlaridan ajratildi, u borgan sari siyosiy lashib, mafkuraviylashib bordi.

1941-yil - O'zbekistonda davlatga 1,6 mln tonnadan ziyod paxta topshirildi, sabzavot, poliz ekinlari, meva, pilla, jun, go'sht topshirish majburiyatlarini oshig'i bilan bajarildi.

1941-yil - O'zbekistonda qishloq xo'jaligining barcha bo'g'inlaridagi ish tartibini qat'iy lashtirish yuzasidan shoshilinch choralar ko'rildi. Kolxozlarda eng kam miqdordagi majburiy mehnat kunlari soni urushdan oldingiga qaraganda 1,5 baravar oshirildi.

1941-yil - qishloq xo'jaligini qayta qurishning murakkab sharoitlarida harbiy talablarga muvofiq, respublika paxta topshirish rejasini muvaffaqiyat bilan bajardi.

1941-yil – Vetnamga yapon qo'shinlari bostirib kirdi va mamlakatni bosib oldi. Vishi hukumatini o'zida namoyon etuvchi fransuz mustamlaka ma'muriyati qarshilik ko'rsatmadi va bosqinchilar bilan hamkorlikka tayyorligini bildirdi. Shu bois Vetnam xalqining milliy-ozodlik kurashi bir paytning o'zida ham fransuz mustamlakachilari, ham yapon militaristlariga yo'naltirilgan milliy-vatanparvarlik urushi xususiyatini kasb etdi. Bu kurashda *Xo Shi Min* Vetnamliklarning milliy xarizmatik yo'l boshchisi sifatida mashhur bo'ldi. II jahon urushi milliy-ozodlik harakatining yangi ko'tarilishiga olib keldi.

1941-yil mart – Bolqonda Germaniya armiyasi Yugoslaviyani bosib oldi va greklarning qarshiligini sindirdi. bu operatsiyalar Sovet Ittifoqiga qarshi urushni olti hafta ortga surdi.



1941-yil mart – greklarga inglizlar yordamga shoshilib, Gretsiyaga 57 ming kishilik ekspeditsiyani tushirdilar. Bu grek qo'shinlari hujumiga o'tib, italiyaliklarni o'z hududlaridan quvib chiqarishlari uchun kifoya qildi. greklar hujumni davom ettirib Albaniya hududiga kirdilar va uning uchdan bir qismini egalladilar. Italiyaliklarni tor-mor bo'lishdan va Bolqon yarim orolidan haydalishtan qutqarishga urinib Germaniya Gretsiyaga urush e'lon qildi.

1941-yil mart – Svetkovich hukumati Gitler bilan Yugoslaviyaning fashistik blokka qo'shilishi haqida muzokaralar olib bordi.

1941-yil 1-mart – Bolgariya Bosh vaziri *Filov* Venada Bolgariyaning uch davlat (Germaniya, Italiya va Yaponiya) bitimiga qo'shilishi to'g'risidagi ahdomani imzoladi va bir vaqtning o'zida mamlakatga nemis qo'shinlarining kiritilishiga rozilik berdi. Uning strategik mavqeidan foydalanib, Germaniya Yugoslaviya va Gretsiyaga qanotdan hamda orqadan zarba berdi va ularni qisqa vaqt ichida bosib olishga erishdi. Bu xiyonat evaziga Germaniya Bolgariyaga Yugoslaviyaning Pirot okrugi va Makedoniyani, Gretsiyaning esa G'arbiy Frakiya qismini "hadya" qildi.

1941-yil 1-mart – Bolgariyaning fashist davlatlari Uch tomonlama bitimiga qo'shilishi.

1941-yil 6-mart - O'zbekiston Oliy Sovet Prezidiumining farmoniga muvofiq Andijon, Namangan viloyatlari tuzildi.

1941-yil 11-mart – AQSh kongressi tomonidan "Qurol-yarog'ni qarzga yoki ijaraga berish (lend-liz) to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi.

1941-yil 11-mart – Kongress president Ruzveltga himoyasini "president AQSh mudofaasi uchun hayotiy muhim hisoblangan har bir millatga" qurol va harbiy anjomlarga qarzga (lend), yoki ijaraga (liz) berishi uchun imkon yaratgan lend-liz haqidagi qonunni qabul qildi. AQSh lend-liz bo'yicha amalda Angliyaga, Sovet Ittifoqi va Xitoyga qurol bilan katta yordam berdi. Qonun AQShning 2- jahon urushiga kirishidan sakkiz oy oldin mamlakat harbiy sanoati rivojlanishini tezlashtirishga shart-sharoitlar yaratdi. Bu siyosiy jihatdan AQShning urushayotgan tomonga aylanganligini anglatdi hamda amerikalik siyosiy va harbiy arboblarga jahon siyosatida faol rol o'ynash huquqini berdi.

1941-yil 24-mart – Venada Yugoslaviyaning 3 davlat (Germaniya, Italiya va Yaponiya) paktiga qo'shilishi haqida shartnoma imzolandi. Bu voqeaga javoban mamlakatda ommaviy qahr-g'azab to'liqini ko'tarildi. Hamma joyda namoyishlar va mitinglar bo'lib o'tdi. Qo'shinlar namoyishchilar tomonga o'tishdi. Svetkovich boshchiligidagi hukumat qamoqqa olinib, umummilliy asosda yangi hukumat tuzildi.

1941-yil 24-mart – Yugoslaviyaning fashist davlatlari Uch tomonlama bitimiga qo'shilishi.

1941-yil 5-aprel – Germaniya va ittifoqchilari qo'shinlarining Yugoslaviya va Gretsiyaga bostirib kirishi.

1941-yil 6-aprel – Germaniya urush e'lon qilmasdan Yugoslaviyaga hujum qildi. Gitlerchi feldmarshal List ixtiyorida 300 ming kishilik armiya bor edi. Italiya o'z qo'shinlarini Albaniya va Yugoslaviya shimoliga, Istriyaga yo'lladi. Bolgariya,



ruminiya va Vengriya ham Yugoslaviya hududiga bostirib kirishda ishtirok etishdi. Yugoslaviyaning o'zida fashistparast generallar fronti ochib berib, armiyaga xiyonat qilishdi. Yugoslav armiyasi o'n kun davomida tor-mor etildi.

1941-yil 6-aprel – nemis qo'shinlari Gretsiyaga bostirib kirdi.

1941-yil – 13-aprel – Yaponiyaning SSSR bilan o'zaro betaraflik to'g'risidagi bitimni imzolashi.

1941-yil 17-aprel – Yugoslaviya armiyasining taslim bo'lishi.

1941-yil 21-aprel – Gretsiya armiyasining taslim bo'lishi.

1941-yil 24-aprel – nemis qo'shinlariga bolgar qo'shinlari ham qo'shildi va birgalikda Gretsiyaga hujumni davom ettirishdi.

1941-yil 27-aprel – Germaniya qo'shinlari Gretsiya armiyasining qarshiligini yengib, Afinaga kirdi. Gretsiya hukumati qirol boshchiligida Angliya armiyasi bilan birga Krit oroliga chekindi.

1941-yil may oxiri – Krit ham nemis qo'shinlari tomonidan bosib olindi va Gretsiya hukumati Afrikaga qarab qochishga majbur bo'ldi. Mamlakatda general *Cholakoglu* boshchiligidagi qo'g'irchoq hukumat tuzildi.

1941-yil iyun 1944-yil - O'zbekiston teatrlari 203 yangi postanovka, 18568 spektakl va konsertlar ko'rsatdilar. Teatrlarning repertuarlarida harbiy va tarixiy asarlar ustun bo'lib qoldi. Teatrlar sahnasida *H.Olimjonning "Muqanna"*, *Uyg'un va I.Sultonning "Alisher Navoiy"*, *S.Abdulla va Chustiyning "Qurbon Umarov"*, *H.Olimjon, Uyg'un va S.Abdullaning "O'zbekiston qilich"* kabi va boshqa dramatik asarlar namoyish qilindi.

1941-yil iyun - O'zbekistonda mudofaa jamg'armalari uchun mablag' to'plash tashkil etildi. Mudofaa jamg'armasiga mehnatkashlarning bir kunlik ish haqi, shaxsiy jamg'armalari, qimmatbaho yodgorlik buyumlari, davlat zayomlarining obligatsiyalarini keltirib topshirish rag'batlantirildi. Urushning dastlabki kunlarida umuman respublika bo'yicha mudofaa jamg'armasiga 30 mln so'm tushdi. O'zbekistonda harbiy texnika, asosan tank kolonnlari va jangovar samolyotlar eskadrilyalari tuzish uchun mablag'lar yig'ish yuzasidan boshlangan vatanparvarlik harakati ancha kengaydi. Frontga yordam tarqasida kiyim-bosh va boshqa ko'pgina narsalar ham yuborib turildi. Bu tadbirlar va tashabbuslar O'zbekiston urush yillarida jangovar armiyaning front orqasidagi mustahkam bazasi bo'lganligidan dalolat beradi.

1941-yil 10-iyun – Italiyaning Angliya va Fransiyaga urush e'lon qilishi.

1941-yil 11-iyun – *Gitler va Antoneskuning* uchrashuvida Sovet Ittifoqiga birgalikda hujum qilish rejaları uzil-kesil belgilab olindi. Ruminiyani Odessa va Janubiy Ukrainagacha kengaytirishga umid qildi. *Antonesku* Germaniya ixtiyoriga 1 mln. ga yaqin askar, 24 piyoda, 4 kavaleriya va motomexanizatsiyalashtirilgan diviziyani berdi.

1941-yil 22-iyun – "*Barbarossa*" operatsiyasi boshlandi.

1941-yil 22-iyun 20-iyul – Brest qal'asi, dushman ortida qolgani holda qahramonona mudofaani davom ettirdi. Mudofaaning aksariyat qatnashchilari halok bo'ldi, faqat ayrimlargina qurshovni yorib chiqishga erishdi. Bu mudofaa II jahon urushidagi mardlik va qahramonlik timsoli bo'lib qoldi. Chegaradagi bu



qal'ani 50 dan ortiq millat jangchilari tish-tirnog'igacha qurollangan dushmandan bir oy himoya qildilar. Deyarli butun garnizon halok bo'lsa-da, hech kim taslim bo'lmadi. O'zbekistonlik mard o'g'lonlarning Brest qal'asi mudofaasidagi jasoratlaridan guvohlik beruvchi xat-xabarlar birin-ketin kela boshladi. Brest qal'asi himoyasida jasorat ko'rsatganlar orasida o'zbekistonliklardan *A.Aliyev, D.Abdullayev, N.Siddiqov, A.Arslonbekov, F.Latenkov, U.O'tayev, M.Hojjiyev, S.Boytemirov* va boshqalar bor edi. *M.Karimov va I.Adhamxo'jayev* g'arbiy chegaralarda birinchilar qatorida dushman bilan jang qildilar. *M. Karimov* keyinchalik uch marta Shuhrat ordeni nishondori bo'ldi.

1941-yil 22-iyun – Germaniyaning SSSRga hujum qilishi. 1905-1918-yillarda tug'ilgan harbiy xizmatga g'itlerlarni safarbar qilishning boshlanishi.

1941-yil 22-iyun - g'itlerchilar Germaniyasi o'zaro hujum qilmaslik haqidagi shartnoma bo'lishiga qaramasdan, to'satdan SSSRga hujum qildi. Sovet ittifoqi deb atalmish hududga birlashtirilgan xalqlar uchun og'ir sinovlardan iborat urush boshlandi.

1941-yil 22-iyun – oqshomi butun dunyo *Gitleming* Sovet Ittifoqiga qarshi agressiyasi to'g'risidagi xabar bilan birga, damini ichiga yutib, *Cherchilling* BI BI Si orqali so'zlagan nutqini ham tingladi. Bu tarixiy nutq tinchliksevar kuchlarning natsizmga qarshi ittifoqiga asos soldi. Angliya bosh vaziri kommunizmning prinsipial dushmani ekanini yashirmasdi. Lekin, yangi xavf oldida vaziyat o'zgardi. *"Biz G'itlerni va natsistlar tuzumi haqidagi har qanday tushunchani yo'q qilib tashlashga tayyormiz, - deb aytdi Cherchill.– Biz hech qachon G'itler va uning gumashtalari bilan muzokara olib bormaymiz...Natsizmga qarshi kurashgan har bir inson, har bir davlatni biz qo'llab-quvvatlaymiz... Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, biz Rossiya va rus xalqiga qo'limizdan kelgan yordamni beramiz"*.

1941-yil 23-iyun - Toshkentda ko'p ming kishilik miting bo'lib o'tdi. Turli korxonada hamda muassasalarning ishchi va xizmatchilari, o'qituvchilar, talabalar o'z vatanlarini himoya qilishga, xalqimiz vakillari frontda va front orqasida dushman ustidan g'alaba qozonishga tayyormiz, deb aytdilar.

1941-yil 24-iyun – AQSh prezidenti *F. Ruzvelt* Sovet Ittifoqini qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi.

1941-yil 26-iyun – O'zbekistonda ishchi va xizmatchilar uchun ish vaqtidan tashqari majburiy ortiqcha ishlar joriy qilindi, haftasiga mavjud besh kunlik o'rniga olti kunlik, bir kunda 11 soatlik ish kuni joriy qilindi. Aslida ish kuni 12-14 soatga cho'zilardi. Mehnat ta'tili bekor qilindi. Bu ishchi va xodimlar sonini oshirmasdan, ishlab chiqarish quvvatini 1/3%ga ko'tarish imkonini berdi.

1941-yil 30-iyun – SSSRda davlat mudofaa komiteti tuzildi. Mamlakatdagi butun hokimiyat uning qo'lga o'tdi.

1941-yil iyul – Yaponiyaning Hindixitoyini bosib olishi AQSh siyosatiga o'zgartish kiritdi. AQSh yapon aktivlarini muzlatib, Yaponiyani neft manbalaridan ajratib qo'ydi; ingliz va gollandlar ham shunday ish tutdilar. Yaponiya Indoneziya nefti hamda Malayziya kauchugi va qalayisiz umshni davom ettira olmasdi.

1941-yil 10-iyul 10-sentabr – Smolensk jangi bo'lib o'tgan davri. Bu jang



natijasida Qizil armiya fashistlarning “Markaz” gruppirovkasi hujumini Moskva strategik yo‘nalishida ushlab turishga muvaffaq bo‘ldi. Bu Gitlarning “shiddatli urush” rejasi tanazzulining boshlanishi edi.

1941-yil 10-iyul 10-sentabr – Smolensk uchun jang Gitlarning “shiddatli urush” rejasi yo‘liga to‘g‘anoq bo‘ldi.

1941-yil 10-iyul 1944-yil 9-avgust – Leningrad mudofaasi davom etgan davr. “Shimol” qo‘shinlar gruppirovkasi (29 diviziya) oidiga Boltiqbo‘yidagi sovet qo‘shinlarini tor-mor keltirib, “Markaz” qo‘shinlar gruppirovkasi qismlari bilan hamkorlikda Leningrad va Kronshtadtni qo‘lga olish vazifasi qo‘yilgan edi.

1941-yil 12-iyul – SSSR va Buyuk Britaniya o‘rtasida Germaniyaga qarshi birga harakat qilish to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi.

1941-yil 8-avgust – SSSRdagi Davlat mudofaa komitetining raisi *I.V.Stalin* edi. U qurolli kuchlari bosh qo‘mondoni lavozimini egalladi. Davlat mudofaa komitetining qarorlari urush davri qonunlari kuchiga ega edi. Urushning dastlabki kunlarida qabul qilingan maxsus qarorlar, ko‘rsatmalarda mamlakat katta xavf ostida qolgani, uni himoya qilish uchun shoshilinch ravishda barcha iqtisodiy-ma‘naviy kuchlarni mudofaa manfaatlariga bo‘ysundirish, xalq xo‘jaligini to‘liq harbiy izga solish lozimligi qayd etildi.

1941-yil 14-avgust – “*Uels shahzodasi*” ingliz harbiy kemasida *U. Churchill* va *F. Ruzvelt* fashizmga qarshi kurashish niyati bayon etilgan “Atlantika xartiyasi”ni imzoladilar.

1941-yil sentabr – Leningrad qamalining boshlanishi.

1941-yil sentabr-dekabr – O‘zbekiston hukumati xalq xo‘jaligini harbiy izga solish, qaysi koqxona qachon ishga tushurilishi to‘g‘risida, ichki resurslarni to‘la safarbar etish to‘g‘risida aniq vazifalarni belgilab berdi.

1941-yil 8-sentabr – nemis qo‘shinlari Leningradni quruqlikdan kesib qo‘ydilar. Shahar qamalda qoldi.

1941-yil 24-sentabr – Sovet hukumati “Atlantika xartiyasi”ga qo‘shildi. AQShning urushga qo‘shilishi Gitlarga qarshi koalitsiyaning tuzilishini tezlashtirdi.

1941-yil 29-sentabr 1-oktabr – SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya vakillarining Moskvadagi konferensiyasi.

1941-yil 30-sentabr 5-dekabr – Moskva mudofaasi davri. Fashistlar Qizil armiyaning parokanda kuchlari qarshiligini Moskva ostonasida ham yenga olmadilar. Mardona qarshilik ko‘rsatilishiga qaramay, “Markaz” gruppirovkasi mudofaani yorib o‘tib, janubdan *Kashira* shahriga chiqdi. Qishki sovuqlar Gitler askarlarining jangovar ruhini sindirdi. Moskvaning qahramon himoyachilari saflarida O‘zbekistonda tuzilgan harbiy qismlar ham bor edi. Moskva ostonalarida dushman hujumini qaytarishda Qozog‘istonda tuzilgan general-mayor *I.Panfilov* qo‘mondonhgidagi diviziya ayniqsa matonat ko‘rsatdi, bu diviziya saflarida Toshkent piyoda askarlari o‘quv yurtini bitirib chiqqan 180 komandir jang qildi. O‘zbekistonlik jangchilar Moskva mudofaasida beqiyos jasorat ko‘rsatdilar. Ular orasida *I.Jaditov*, *M.Madaminov*, *A.Tog‘ayev* va boshqalar bor edi. Moskva mudofaasida Samarqand, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida tashkil topgan otlq korpuslar ham dushman bilan qahramonlarcha jang qildi. Jangchilarimizning



qahramonligi ommaviy tus oldi. *J.Otaboyev, X.Ashurov, A.Toqiyev, S.Jumanazarov, S.Jo'rayev, K.Karimov* va yuzlab boshqalar mardlik ko'rsatdilar. *Saidusmon Qosimxo'jayev* Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi.

1941-yil 30-sentabr – Moskva ostonasidagi jangning boshlanishi.

1941-yil oktabr - O'zbekistonda dastlabki front brigadasi "Tashselmash" zavodida tashkil etildi.

1941-yil oktabr-dekabr – Moskva uchun jang. Nemis qo'shinlarining hujumi to'xtatildi.

1941-yil noyabr – Gitler Sovet Ittifoqiga Napoleon Rossiyaga kirganidan ham ancha ichkari kirishga muvaffaq bo'ldi. Nemis qo'shinlari Leningrad darvozasi oldida, Moskva ostonasi va Donda turardi. Sovet armiyasining g'arbiy qismlaridagi 4,5 mln. kishidan 2,5 mln. halok bo'ldi, 15 ming tankdan faqat 700 tasigina qoldi. Germaniya g'alabasi muqarrar tuyulardi.

1941-yil noyabr - komandir *M.Jabborov* o'z motoo'qchilar rotasi bilan fashist qo'shinlarining 2 polkiga to'satdan hujum qilib, zarba berdi. Dushmanning 400 nafar soldat va ofitserlarini qirib tashladi, 230 nafarini esa asirga oldi, talaygina qurol-aslaha va o'ljalarni qo'lga tushirdi.

1941-yil noyabr – Rumuniya armiyasining talafoti halok bo'lganlar va yaradorlarni qo'shganda 300 ming kishidan ortiqni tashkil etdi. Rumuniya qo'mondonligi ularni mamlakatga qayta tuzish uchun qaytarishga majbur bo'ldi.

1941-yil noyabr-1942-yil mart - O'zbekistonda 14 ta milliy brigada, jumladan, 9 ta alohida o'qchi brigada va 5 ta (otliq) diviziya tuzildi. Milliy qo'shilmalar tuzish O'zbekiston xalqlarining yovuz fashist kuchlardan o'z yurtini saqlab qolish his-tuyg'ularining ifodasi bo'ldi.

1941-yil noyabr-dekabr – sovet qo'shinlari Moskva ostonasida qarshi hujumga o'tib, Gitler qo'shinlariga qaqshatqich zarba berdi. Bu fashistlar Germaniyasining II jahon urushidagi 1-yirik mag'lubiyati edi. Moskva ostonasida 60 diviziya tor-mor qilindi. Fashistlar qo'shinining yengilmasligi haqida afsona chippakka chiqarildi. Blitskrig barbod bo'ldi.

1941-yil 7-noyabr – AQSh prezidentining SSSRga lend-liz bo'yicha harbiy va moddiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi deklaratsiyasi.

1941-yil 13-noyabr – SSSR Davlat mudofaa komiteti O'zbekiston mehnatkashlarining milliy harbiy qo'shilmalar tuzish tashabussini qo'llab-quvvatladi.

1941-yil dekabr – Panama, Kuba, Gaiti, Gvatemala, Nikaragua, Kosta-Rika, Dominika Respublikasining Germaniya, Italiya va Yaponiyaga urush e'lon qilishi.

1941-yil dekabr – Toshkentdagi 63 ta, O'zbekiston hududidagi 230 ta sanoat korxonalari mudofaa mahsulotlari ishlab chiqara boshladilar.

1941-yil 2-dekabr – yapon qo'shinlari tomonidan Gonkongning bosib olinishi.

1941-yil 5-dekabr – qarshi hujum natijasida sovet qo'shinlari 38 nemis diviziyasini tor-mor keltirib, 11 mingdan ortiq aholi punktini ozod qildi. Nemis qo'shinlari talofoti 500 ming kishini tashkil qildi. 1300 tank 2500 to'p, 15 mingdan ortiq avtomashina va boshqa texnika yo'q qilindi.



1941-yil 5-6-dekabr – fashist qo'shinlarining Moskva ostonasida tor-mor keltirilishi.

1941-yil 6-dekabr – Angliyaning Finlyandiya, Vengriya va Ruminiyaga urush e'lon qilishi.

1941-yil 7-dekabr - Pirl Xarbor bilan bir kunda yapon aviatsiyasi Singapurga ham hujum qilib, undan 200 km narida joylashgan *Kota Baraga* desant tashladi. Yaponlar shiddatli hujumlar qilib, ikki oy deganda Singapurga kirdilar.

1941-yil 7-dekabr – yapon flotining Pirl-Xarbor, Gonkong, Malayziya va Filippinga hujumi. Tinch okeanidagi urushning boshlanishi.

1941-yil 7-dekabr – yaponlar AQShning *Pirl-Xarbor* (Gavay orollari)dagi bosh harbiy-dengiz bazasiga havo hujumi uyushtirdilar. Amerikaliklar g'aflatda qoldilar. Yapon aviatsiyasi ikki soat davomida ko'rfazni va sohilidagi qurilmalarni bombardimon qildi. Natijada 8 linkordan 4 tasi cho'ktirilib yuborildi. 18 ta harbiy kema ishdan chiqdi, 188 ta samolyot yo'q qilindi, 128 ta samolyot esa shikastlandi, 3000 harbiy xizmatchi o'ldirildi.

1941-yil 8-dekabr – Angliyaning Yaponiyaga urush e'lon qilishi.

1941-yil 8-dekabr – AQSh Yaponiyaga urush e'lon qildi.

1941-yil 11-dekabr – Germaniya va Italiyaning AQShga urush e'lon qilishi.

1941-yil 11-dekabr – Germaniya, Italiya va Yaponiya tomonidan AQSh va Angliyaga qarshi urushda hamkorlik qilish to'g'risidagi bitimning imzolanishi.

1941-yil 11-dekabr – Yaponiyaning ittifoqchilari bo'lgan Italiya va Germaniya AQShga urush e'lon qildi. Tinch okeanidan ham urush boshlandi.

1941-yil 14-dekabr – O'zbekistondagi harbiy korxonalar xodimlari urushga safarbar qilinganlar qatoriga qo'shildi va shu korxonalarga birlashtirildi. Mehnat intizomini buzganlar qattiq jazolandilar. O'zboshimchalik bilan korxonadan ketib qolganlarga 5 yildan 8 yilgacha qamoq jazosi belgilandi.

1941-yil bahor – Ruminiyada "*Barbarossa*" rejasiga ko'ra SSSRga bostirib kirishi lozim bo'lgan nemis qo'shinlari jamlandi. Yugoslaviyadagi harbiy operatsiyalardan so'ng ular SSSR chegaralariga yuborildi.

1941-yil yoz – partizanlarning otryadlari asosida Gretsiya Milliy-ozodlik fronti tashkil qilinib, u barcha vatanparvar kuchlarni birlashtirdi. Frontning asosiy maqsadi bosqinchilarga qarshi kurash va mamlakat mustaqilligini demokratik asosda tiklashdan iborat edi. Gretsiya tarixida birinchi marta kommunistlar, demokratlar, sotsialistlar, liberallar, ishchilar, dehqonlar, ziyolilar, mayda va o'rta burjuaziyani birlashtirgan demokratik tashkilot yuzaga keldi. Front qarorlarini amalga oshiruvchi mahalliy qo'mitalar tashkil qilindi.

1941-yil kuz - dushman Moskvaga yopirilib kelayotgan dastlabki kunlarda mamlakatda front brigadalari tuzish avj oldi. Bu nom mahsulotni yuqori sifatli qilib chiqargani va namunali mehnat intizomiga rioya qilgani holda ishlab chiqarish rejalarini ketma-ket 2 oy davomida kamida 150 % dan bajarib borgan komsomol-yoshlar brigadalariga berilar edi.

1941-yil kuz – partizanlar nemislarning Bolqondagi kommunikatsiyalariga zarba berishdi. Chernogoriyani, deyarli butun Serbiyani tozalab, Belgradga yurish qilishdi. Alohida partizan bo'linmalaridan Xalq ozodlik armiyasi tuzildi. Bu armiya yeti marta fashistlarning katta hujumlariga dosh berdi.



1941-yil kuz – Germanlar *“Barbarossa”* nomli operatsiya rejasiga ko'ra, Qizil armiyaning qarshiligini sindirilishi lozim edi.

1941-yil o'rtasi – sovet korxonalari nemis harbiy texnikasidan bir necha baravar kuchli qurol-aslahalarni ishlab chiqara boshladi.

1941-yil o'rtasi 1942-yil oxiri – Daxau lagerida odamlar ustidan tajriba o'tkazishdi. Sog'lom mahbuslar ustidan 500 ga yaqin operatsiyalar o'tkazildi. Ular SS shifokor-talabalarini o'rgatish maqsadida amalga oshirilardi. Aksariyat mahbuslar operatsiya stolida jon berishardi, chunki bunday operatsiyalarni faqat tajribali jarrohlargina amalga oshirilishlar mumkin edi. 1200 dan ortiq mahbus ustidan bezgak bilan bog'liq tajribalar o'tkazildi. Ularning ko'pchiligi bezgak xuruji yoki ko'p miqdorda dori kiritilishidan halok bo'lishdi.

1941-yil oxiri - Front yaqinidagi shahar va qishloqlardan yuz minglab aholi, sanoat korxonalari, o'quv yurtlari, ilmiy tashkilotlar va boshqa moddiy boyliklarni Sharqqa ko'chirish boshlandi. O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'istonga evakuatsiya qilingan 308 korxonaning 100 dan ortig'i *“Lentekstilmash”*, *“Rostselmash”*, *“Krasniy Aksay”*, Moskva *“Elektrokabel”*, *“Pod'emnik”*, *“Elektrostanok”* zavodlari, V.P.Chkalov nomli aviatsiya zavodi, Kiyev *“Transsignal”* zavodi va boshqalar) O'zbekistonga joylashtirildi. Ko'chirib keltirilgan korxonalarni o'rnatish va ishga tushirishda butun respublika aholisi g'oyat katta yordam ko'rsatdi. Keltirilgan korxonalar birgalikda qilingan qahramonona mehnat tufayli nihoyatda qisqa muddatlarda 50 tasi ishga tushirildi.

1941-yil oxiri 1942-yil – Sharq mintaqasi rayonlari bo'yicha markaziy hukumatning harbiy-xo'jalik rejasi qabul qilindi. Bu rejada umumittifoq miqyosida mamlakat Sharqining ahamiyati keskin ortganligi qayd qilindi va shu yerda nihoyatda qisqa muddatda sanoat qurilishini avj oldirish, harbiy mahsulotni ishlab chiqarishni ko'paytirish, frontga umumxalq yordamini uyushtirish ko'zda tutildi. Urushning natijasi mana shu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga ko'p jihatdan bog'liq edi.

1942-1943-yillar - o'quv yilida O'zbekistonda 200 ta boshlang'ich va o'nlab o'rta maktablar faoliyati to'xtatildi; yurli sabablarga ko'ra o'quvchilarning maktabdan ketib qolishi, maktab yoshidagi bolalarning o'qishga jalb etilmasligi tufayli o'quvchilarning soni tobora kamayib bordi. 360 ta maktab binosi O'zbekistonga ko'chirilgan harbiy qismlar, kasalxonalar va shu kabilarga berildi. Mavjud maktablarni yoqilg'i bilan ta'minlash qiyinlashdi, yozuv qurollari, darslik va ko'rgazmali qurollar yetishmas, o'quvchilarni kiyim-kechak va poyafzal bilan ta'minlash og'ir bo'lib qolgandi. Bular hammasi maktab ishida o'zining sezilarli izini qoldirdi. O'zlashtirish foizi pasayib ketdi.

1942-1943-yillar - O'zbekistonda paxta topshirish rejasi bajarilmay qoldi. Chunki g'oz'a ekiladigan maydonlar salmog'i keskin kamayib, g'oz'a hosildorligi pasayib ketgan edi. Mexanizatsiya darajasining pasaygani, mineral o'g'itlardan foydalanish qisqargani va paxta yetishtirish agrotexnikasi yomonlashgani ham ta'sir o'tkazdi. Chopiq, sug'orish, irrigatsiya tarmoqlarini tozalash ishlarini muntazam olib borish uchun ishchi kuchi yetishmas edi. Biroq urush davri sharoitidagi bu obyektiv omillarni Markaz hukumati rahbariyati inkor etdi. Aksincha,



paxta tayyorlash rejasi bajarilmagani uchun javobgarlik mahalliy partiya va xo'jalik organlari bo'yniga qo'yilib, ular qishloq xo'jaligini boshqarishni operativ ravishda qayta qurishga layoqatsizlikda ayblandilar va jazolandilar. O'zbekistonning rahbari *Usmon Yusnpov* qattiq ogohlantirish bilan jazolandi.

1942-1943-yillar - qishki g'olibona hujumlar natijasida 1500 km uzunlikdagi frontda harakatdagi armiya 480 ming kv.km hududni ozod qildi va G'arbg'a qarab 600-700 km olg'a siljidi. Leningrad qamali yorib o'tildi. Qishki hujumning uch oyi davomida sovet qo'shinlari dushmanning 112 diviziyasini mag'lub qildi. Bu janglarda o'zbekistonlik jangchilar mardonavor jang qildilar. Ayniqsa, Kavkaz uchun bo'lgan janglarda ularning ishtiroki beqiyos bo'ldi. Toshkentda tuzilgan *Sobir Rahimov* qo'mondonligidagi diviziya frontning muhim qismlaridan birida dushmanning oldinga siljishini to'xtatish to'g'risida bosh qo'mondonlikdan buyruq oldi. Uch oy davom etgan janglarda *S. Rahimov* diviziyasi jiddiy muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib, dushmanning 8 ming nafar askar va ofitserlarini qirib tashladi. Keyinchalik general *Sobir Rahimov* Kavkazdan to Sharqiy Prussiyagacha bo'lgan shonli jangovar yo'lni bosib o'tdi.

1942-1943-yillar - Respublikada irrigatsiya qurilishi yuksak sur'atlar bilan davom etib bordi: Shimoliy Toshkent kanalini barpo etish 15 ming gektar yerni sug'orish imkonini berdi. Buxoro viloyati Koson, Qarshi va Beshkent tumanlarining kolxozchilari Rudasoy suv omborini qurdilar. Kolxoz dehqonlari va butun O'zbekiston mehnatkashlarining kuchlari bilan Yuqori Chirchiq, Shimoliy Farg'ona, So'h-Shohimardon, Uchqo'rg'on kanallari, Kosonsoy suv ombori bunyod etildi. Kattaqo'rg'on suv ombori suvga to'ldirila boshlandi. Kattaqo'rg'on suv omborining suvga to'ldirilishi boshlanishi natijasida O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarining maydoni 546 ming gektarga kengaydi.

1942-yil – Angliya va SSSR AQShning ko'magi va o'z harbiy sanoati ishlab chiqarishini oshirgani ittifoqchilarga harbiy texnika jihatdan fashistlar Germaniyasi ustidan ustunlikka erishish imkonini berdi.

1942-yil – AQSh ishlab chiqarishni harbiy tartibga o'tkazdi va bu tezda o'z natijasini berdi. Butun urush davomida AQSh Angliya va SSSRga 300 ming samolyot, 86 ming tank, 2,7 mln. to'p va pulemyot yetkazib berdi. Bu lend-lizga ko'ra amalga oshirildi. Bu qonunga ko'ra AQSh Angliya va SSSRga urush davrida 50 mln. dollarlik mahsulot yetkazib berdi.

1942-yil – Birma Yaponiya tomonidan bosib olindi.

1942-yil – Falastinda yahudiy aholisining soni 500 ming kishini tashkil etdi.

1942-yil - fashistlar Don daryosining quyi oqimiga yorib kirganda, Ozbekistondan - Samarqand va Farg'ona viloyatlarida tuzilgan 90- va 94-o'qchi brigadalar yetib keldilar.

1942-yil – *Muammar Kaddafiy* dunyoga keldi.

1942-yil - O'zbekistonda sabzavot maydonlari 26,6 ming ming gektarga yetdi

1942-yil – O'zbekistonda yalpi sanoat mahsulotini ishlab chiqarish ikki baravar ko'paydi.

1942-yil - O'zbekistondagi barcha nogironlar hisobga olinib, ularga bir yo'la moddiy yordam ko'rsatildi, kiyim-kechak va poyavzal berildi. Nogironlarning ko'pchiligi ishga joylashtirildi.



1942-yil – Stefan Sveyg o'z joniga qasd qildi.

1942-yil – Uilyam Folkner “Tushgin, Moisey” roman yaratdi.

1942-yil yanvar – Vashingtonda AQSh, Angliya, SSSR, Xitoy va yana 22 davlat vakillari Vashington deklaratsiyasini imzoladilar. Imzo chekkan davlatlar fashizmga qarshi kurashga o'zlarining barcha iqtisodiy va harbiy manbalarini sarflashga hamda Gitler Germaniyasi yoki uning ittifoqchilari bilan separat bitim yoki yarash ahdi tuzmaslik majburiyatini oldilar.

1942-yil 1-yanvar – “Birlashgan Millatlar” atamasi ilk bor Vashington deklaratsiyasida paydo bo'ldi. Unga ko'ra SSSR, AQSh, Angliya, Xitoy va boshqa 22 davlat fashizmga qarshi kurashda bir-biri bilan hamkorlik qilish hamda bir tomonlama sulh tuzmaslik yoki umumiy dushman bilan kelishmaslik majburiyatini olgan edi.

1942-yil 1-yanvar – Vashingtonda 26 davlat tomonidan Uch tomonlama bitim davlatlari – Germaniya, Italiya va Yaponiyaga qarshi urushda hamkorlik qilish to'g'risidagi bitimning imzolanishi.

1942-yil 29-yanvar – Tehronda SSSR, Angliya va Eron o'rtasida ittifoqchilik bitimining imzolanishi.

1942-yil 15-fevral – Singapur deyarli jangsiz yaponlarga taslim bo'ldi. Kuchli istehkom va qurol-aslahaga ega bo'lgan qudratli ingliz garnizoni urushsiz oq bayroq ko'tardi. 100 ming ingliz askari asir olindi, yaponlar 740 to'p, 2500 pulemyot va 200 tankni qo'lga kiritdilar.

1942-yil 15-fevral – yapon qo'shinlari tomonidan Singapurning bosib olinishi.

1942-yil 18-aprel – Amerika aviatsiyasining Tokio, lokogama va boshqa yapon shaharlariga hujumi.

1942-yil may – Yaponiya Malayziya, Indoneziya, Yangi Gvineya, Birma, Filippin, Gonkong, Guam, Sulaymon orollari – jami 400 mln. aholi yashaydigan hududni bosib oldi. Hindiston va Avstraliyaga real xavf tug'ildi. AQSh halokat yoqasida edi.

1942-yil 5-may – Yaponiya qo'shinlarining Filippin orollarini ishg'ol etishi.

1942-yil iyul – Ruminiya qo'shinlari yana sovet-german frontida paydo bo'ldi. Stalingrad ostonasida 24 rumin diviziyasidan 18 tasi tor-mor etildi, shularning 12 tasi to'liq yo'q qilindi yoki asir tushirildi. Ruminiya armiyasi sovet-german frontida jami 1 mln. dan ortiq kishini yo'qotdi. Bu Bessarabiyaning qaytarilishi, Odess va Janubiy Ukrainaning qo'shib olinishiga bo'lgan barcha umidlarni chippakka chiqargan shafqatsiz urush bo'ldi.

1942-yil 1-yarmi - O'zbekistonga barcha keltirilgan sanoat korxonalari to'liq quvvatda ishlab, mudofaa uchun mahsulot chiqara boshladi.

1942-yil 17-iyul - 1943-yil 3-fevral – Stalingrad uchun jang olti oy davom etdi. Stalingrad jangi II bahon urushida keskin urilish yasadi. Jangda fashistlar Germaniyasining besh armiyasi qurshovga olinib, tor-mor keltirildi. Stalingrad uchun janglarda minomyotchilar rotasi komandiri *M.Rustamov* ikki hafta ichida fashistlarning 850 soldat va ofitserlarini qirib tashladi, 20 ta yuk mashinasini yakson qildi. *J. Turdiyev* komandirlik qilgan artilleriya bo'linmasi 200 dan ortiq fashistni yer tishlatdi. Mayor *U.Mirzoirovning* batalyoni jangchilaridan *S.G'ulomov*, *T.Xudoyberdiyevlar* gitlerchilarning o'nlab askarlarini yo'q qildi, 100 dan ortiq



fashistni asir oldi. O'zbek jangchisi *Kamol Po'latov* beliga granatalarai bog'lab, o'zini tank ostiga tashladi. Fashistlar hujumi to'xtab qoldi va nemis tanklari guruhi yakson qilindi. *Kamol Po'latovga* o'limidan so'ng Qahramon unvoni berildi.

1942-yil 22-avgust – Braziliyaning Germaniya va Italiyaga urush e'lon qilishi.

1942-yil 23-oktabr – Aleksandriyadan 90 km naridagi Al-Alamayn shaharchasi yaqinida hal qiluvchi jang sodir bo'lib, unda feldmarshal *B. Montgomeri* qo'mondonligidagi ingliz qo'shinlari feidmarshal *Ervin Rommel* qo'mondonligidagi Afrika korpusini tor-mor keltirdi, Stalingraddan so'ng bu Germaniya va Italiyaning II jahon urushidagi eng jiddiy mag'lubiyatlaridan biri edi.

1942-yil 23-oktabr – Angliya qo'shinlarining Al-Alamayn (Misr) ostonasida hujumga o'tishi.

1942-yil noyabr – Angliya va AQSh Jazoir va Marokash qirg'oqlariga desant tushirdi. 450 ga yaqin harbiy va transport kemalari okean orqali AQShdan va Angliyadan odamlar va texnikani olib o'tib, ularni Kasablanka, Jazoir va Oran portlariga tushirdi. Vishi hukumati qo'mondonligi ostidagi Fransiya qo'shinlari hech qanday qarshilik ko'rsatmadi. Talafot deyarli bo'lmadi.

1942-yil noyabr – Bukach shahrida Yugoslaviya xalq xaloskorlik antifashistik vechesi (YuXXAV) yig'ildi va bu xalq hokimiyatini yaratish yo'lidagi 1-qadam bo'ldi.

1942-yil noyabr – general *D. Eyzenxauer* qo'mondonligidagi Angliya-AQSh qo'shinlari Tunisga hujum boshladi.

1942-yil noyabr – Stalingrad qo'lga olinishi kutib eng yaxshi yapon diviziyalari Manjuriyaga tashlandi. Bu yerda yapon qo'shini artilleriyasining yarmi va tanklarning 2/3 qismi jamlandi.

1942-yil 4-noyabr - 1943-yil may – Al-Alamayn (Misr) ostonasidagi jang. Rommelning 249 tankl dan faqat 36 tasigina qoldi, u 400 to'p va bir necha ming avtomobil yo'qotdi. Ingliztar 20 ming nemis askarini asir oldilar. Bu jangdan so'ng inglizlar nemislarni 2,5 ming km davomida beto'xtov quvib bordilar.

1942-yil 8-noyabr – Angliya-Amerika qo'shinlarining shimoliy Afrika portlariga tushirilishi.

1942-yil dekabr – Gretsiyada ozod qilingan hududlarda Milliy-ozodlik fronti partizanlarning harbiy harakatlarini boshqaruvchi harbiy tashkilot tuzildi. Bu vaqtga kelib Milliy-ozodlik frontida salkam 2 mln. kishi, ya'ni mamlakatning deyarli balog'at yoshidan o'tgan barcha aholisi harakat qilardi. Gretsiyada monarxiya tarafdorlari o'ng kuchlar va reaksiyon tashkilotlar bilan hamkorlikda bosqinchilarga qarshi emas, ko'proq urushdan keyingi siyosiy hayotda o'rin egallash uchun kurashgan EDES, EKKA kabi jangovar tashkilotlarni tuzdilar.

1942-yil 2-dekabr – Italiyalik olim *E.Ferni* neytronlar vositasida yuzaga kelgan sun'iy radioaktivlikni kashf qildi, tarixda 1-yadro reaktorini barpo etdi va unda 1-bo'lib zanjirli yadro reaksiyasini amalga oshirdi, bu atom bombasining yaratilishiga yo'l ochdi.

1942-yil bahor - O'zbekistonda don va texnik ekinlarni ko'paytirish harakati natijasida qo'shimcha 220,5 ming gektar yer o'zlashtirildi.



1942-yil yoz – fashistlarning sovet-german frontida hujumga o'tishlari yapon hujumining strategik yo'nalishini o'zgartirdi.

1942-yil yoz – Yevropada II jahon urushining asosiy voqealari sodir bo'lmoqda edi. Bu paytga kelib nemislar Sovet Ittifoqidagi barcha frontlarda yana hujumga o'tdilar. Kavkaz tizmalarigacha yetib, shimoliy Kavkazning neftga boy hududlari qo'lga olingan va Stalingradga chiqilgan Janubiy frontdan boshqa hech qayerda muvaffaqiyatga erisha olmadilar.

1942-yil kuz - fashistlar Volga tomon yopirilib, Kavkaz uchun janglar avj olgan bir paytda o'zbek xalqi o'zbek jangchilariga deyarli 2,5 mln kishi imzo chekib yozgan maktub bilan murojaat qildi.

1942-yil boshi – O'zbekistonda front brigadalari soni 1,5 mingga yetdi. Qattiq tejab-tergash uchun, mahalliy resurslardan keng va maqsadga muvofiq ravishda foydalanish uchun boshlangan harakat front brigadalari faoliyati bilan bog'liq edi. Dushman ustidan g'alabaga bo'lgan ishonch mehnat mashaqqatlarmi yengib o'tishga chorladi. Sanoat korxonalarining ishchilari jahd bilan mehnat qilib, o'z kunlik normalarini 300-400, hattoki 500 foizga yetkazib bajarardilar.

1942-yil o'rtasi - xalq xo'jaligini qayta qurib, harbiy izga o'tkazish O'zbekistonda asosan oxiriga yetkazildi.

1942-yil oxiri – O'zbekistonda qo'shimcha 31 kasb maktabi ochildi. Bu vaqtda respublikada 14 ta kasb-hunar bilim yurti va 45 ta fabrika-zavod maktabi bor edi.

1943-yil boshi – Alban vatanparvarlari tog'larga chiqib ketib, Yugoslaviya va Gretsiya partizanlari bilan hamkorlikda bosqinchilarga qarshi ayovsiz kurash olib bordilar. Afinada alban legioni tuzildi, kurash jarayonida xristian va musulmon aholi birlashdi. Alban vatanparvarlarining "Ozod Albaniya" milliy tashkiloti SSSR, AQSh va Angliya tomonidan alban xalqining vakili sifatida tan olindi. Barcha urushishga qodir partizan otryadlarida ishtirok etardi. Boshida bu otryadlar parokanda holda harakat qilardi.

1943-yil boshi – Tinch okeanidagi urushda buriilish yasaldi. Yaponiyaning iqtisodiy ahvoli keskin zaiflashdi. Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash avval qisqardi, so'ng esa butunlay to'xtatildi. Mamlakatda ish tashlashlar boshlandi. Urushga qarshi kayfiyatlar ochiq izhor qilina boshlandi. Shu taxlit harbiy mag'lubiyatlar chuqur ichki inqiroz bilan uyg'unlashdi. Qishloqda dehqonlar bilan pomeschchiklar o'rtasida nizolar boshlandi. Mamlakatdagi siyosiy inqiroz hukumat almashuvida aks etdi.

1943-1944-yillar – P. Badoloning Italiyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1943-1944-yillar - qalmiqlar, qrim tatarlari, chechenlar, ingushlar, nemislar, qorachoylar, pontiya greklari, mesxeti turklari, bolqarlar o'z tarixiy vatani va doimiy yoki vaqtinchalik yashash joylaridan sharqiy rayonlarga ko'chirib yuborildi. O'zbekistonga Qrimdan 150 mingdan ortiq qrim tatarlari, 175 ming chechen, 157 ming ingush, 4,5 ming bolqar, armani va greklar ko'chirib keltirildi. Keyinchalik Gruziyadan mesxeti turklari ham ko'chirib keltirildi. Kelganlarga xalqimiz va hokimiyat yordam berib turdi. Ularga sharoitlar yaratib, uy, yer sotib olish va qurish uchun qarz ajratildi, oziq-ovqat bilan yordam berildi.

1943-yil – AQSh sanoati bor kuchi bilan ishladi. Yangi texnologiyalar va taktika



Atlantika okeanidagi Germaniya suv osti flotini deyarli yo'q qilib tashlash imkonini berdi. Amerika texnikasining ulkan oqimi Yevropaga qarab yo'naldi.

1943-yil – *Genrix Gimmler* Germaniya ichki ishlar vaziri bo'ldi.

1943-yil - Ittifoq harbiy salohiyatining boy berilgan quvvatlari qayta tiklanib qolmay, balki avvalgidan ham oshdiki, bu asosiy turdagi qurol-yarog'larni ishlab chiqarish va sifatini ta'minlashda fashistlar Germaniyasi ustunligini tugatish imkonini berdi.

1943-yil - *Jan Pol Sartr* o'zining "*Borliq va yo'qlik*" asarini yaratdi. Asarida shunday yozadiki, odamlar eng avvalo nima uchun yashayotganining mohiyatini tushunishini xohlashadi, biroq faqat sokin, xudosisiz va maqsadsiz dunyoni topishadi, xolos. Shunday qilib, inson mavjudligi "absurd" bo'lib qoladi. Biroq, boshqa tomondan o'z hayotining absurdligini (ma'nosizligini) inson erkinlik bilan to'ldiradi. Hayotda ma'no va mutlaq qoidalar yo'q ekan, odamlarda mohiyat yoki tug'ma xarakteristika yo'q. Ular "yo'qlik", erkinlikdan foydalangandagina "nimadir"ga aylanishadi. Odamlar bunda qanday xattl harakat qilishni o'zlari tanlashadi. Shunday qilib, "mavjudlik mohiyatdan oldin yuradi", ya'ni odamlar mohiyatga ega emas ekanlar, ular o'zlarini har kungi mavjudlikda (ekzistense) qaror toptirmoqlari lozim. *Sartm*ing fikricha, to'g'ri odam hayotda faol qatnashuvchi, doimo mashg'ul kishi bo'lishi lozim.

1943-yil – *Jon Meyjor* dunyoga keldi.

1943-yil – *Lex Valensa* dunyoga keldi.

1943-yil – Livanda joriy etilgan konfessional tizim bo'yicha davlat rahbari (prezident) nasroniy-maronitlar bo'lishi, parlament raisi musulmon shia, bosh vazir esa musulmon sunniy mazhabidan saylanishi lozim edi. Hoshimiylar va saudiylar yirik davlatlar, birinchi galda Angliya yordamiga suyanib, sulolalararo kurashlarga berilgan, Falastin arab xalqi to'g'risida deyarli qayg'urmas edilar. Bu kurash faqat Livanni chetlab o'tsada, yigirmaga yaqin diniy jamoaga bo'lingan holda o'z muammolari mavjud edi.

1943-yil – *Mao Szedun* Xitoy KP MQ raisi, partiya asoschilaridan biri.

1943-yil - O'zbekistonda 41 oliy o'quv yurti (ularning 12 tasi ko'chirib kelingan) va 52 o'rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi.

1943-yil - O'zbekistonda sanoatning respublika xalq xo'jaligidagi salmog'i 75%gacha ortdi. Harbiy ishlab chiqarish quvvatlarini oshirib borish zaruratlari sanoat qurilishini tobora ko'paytirishni talab qilar edi. O'zbekiston industriyasi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari avvalo energetika tarmog'ini yuksaltirish, qora va rangli metallurgiya, ko'mir bazasini vujudga keltirish, kimyo sanoati tarmoqlarini yuksaltirishdan iborat bo'ldi. Natijada respublika sanoat inshootlari qurilish maydonchasiga aylandi. Bu qurilishlarda shahar va qishloqlarning necha minglab mehnatkashlari hasharga chiqib ishladilar. Natijada yetti yirik elektr stansiyasi, jumladan Salor va Farhod GESlari qurildi. Yangi ko'mir va neft konlari ochildi, eskilaridan ko'proq foydalaniladigan bo'lindi (Angren, Sharg'un, Qizilqiya konlari va boshqalar). Bekobodda metallurgiya zavodi barpo etildi.

1943-yil - O'zbekistonda uzumdorlar maydoni 31,7 ming gektarni tashkil etdi.

1943-yil - Samarqand, Farg'ona, Toshkent viloyatlarida qand lavlagi uchun unumli yerlar ajratilib, 1,5 mln sentnerdan ortiq lavlagi davlatga topshirildi.



1943-yil – YuXXAV parlamentning barcha huquqlariga ega qonun chiqaruvchi organga aylantirildi. Xalq ozodlik armiyasi qo'mondoni, marshal *Iosif Broz Tito* boshchiligida muvaqqat hukumat ham tuzildi. Antifashistik veche Yugoslaviya 6 qismdan: Serbiya, Xorvatiya, Sloveniya, Chernogoriya, Makedoniya, Bosniya-Gersegovinadan iborat demokratik federativ davlat bo'lishi shartligi haqida qaror qabul qildi. Qirol *Pyotr* yon berishga va kabinet tuzishni xalq ozodlik harakati bilan hamkorlik tarafdori Ivan *Shubashichga* topshirishga majbur bo'ldi.

1943-yil 10-yanvar – Stalingrad ostonasida Paulyus qo'mondonligidagi qo'shinlar guruhining qurshovga va asirga olinishi.

1943-yil 12-30-yanvar – Leningrad qamalining yorib o'tilishi.

1943-yil 13-yanvar – Germaniyada total safarbarlikning e'lon qilinishi.

1943-yil 18-yanvar – sovet qo'shinlari Leningrad qamalini yorib o'tdilar. Qishki hujumning uch oyi davomida sovet qo'shinlari dushmanning 112 diviziyasini mag'lub qildi. Bu janglarda o'zbekistonlik jangchilar mardonavor jang qildilar. Ayniqsa, Kavkaz uchun bo'lgan janglarda ularning ishtiroki beqiyos bo'ldi. Toshkentda tuzilgan *Sobir Rahimov* qo'mondonligidagi diviziya frontning muhim qismlaridan birida dushmanning oldinga siljishini to'xtatish to'g'risida bosh qo'mondonlikdan buyruq oldi. Uch oy davom etgan janglarda *S. Rahimov* diviziyasi jiddiy muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib, dushmanning 8 ming nafar askar va ofitserlarini qirib tashladi. Keyinchalik general *Sobir Rahimov* Kavkazdan to Sharqiy Prussiyagacha bo'lgan shonli jangovar yo'lni bosib o'tdi.

1943-yil 2-fevral-17-iyul – Stalingrad jangi. II jahon urushida hal qiluvchi burilishning yasalishi.

1943-yil 2-fevral – nemis qo'shinlarining qurshovdagi gruppировkasi to'liq tor-mor qilindi. Vermaxtning Stalingrad jangidagi umumiy talafoti 1,5 mln. ga yaqin kishini tashkil qildi. 91 ming askar, 26 ming ofitser, 24 general 6-armiya qo'mondoni feldmarshal *Paulyus* boshchiligida qo'lga olindi. Bu Gitler Germaniyasining halokatga yuz tutganidan dalolat berardi. Germaniyada uch kunlik motam e'lon qilindi.

1943-yil 19-mart – Vengriyaning nemis-fashist qo'shinlari tomonidan bosib olinishi.

1943-yil may - ingliz qo'shinlari va Angliya-AQSh ekspeditsiya korpusi Tunisda birlashib, Italiya-Germaniya qo'shinlarini yangidan mag'lubiyatga uchratdi. Shimoliy Afrika tozalandi va O'rta Yer dengizida to'liq ittifoqchilar nazorati o'rnatildi.

1943-yil iyul – Albaniya partizanlari *Anvar Xo'ja* qo'shondonligidagi Xalq ozodlik armiyasiga birlashdi.

1943-yil iyul - Kursk va Oryol rayonida qattiq janglar olib borildi. Ularda O'zbekistonda tuzilgan harbiy qo'shilmalar - 5-, 29-, 69-o'qchi diviziyalar matonat ko'rsatdi. Oryol yaqinidagi Zolotarevka qishlog'i uchun bo'lgan jangda farg'onaiik *Ahmadjon Shukurov* jasorat ko'rsatdi. U 110 nafar fashistni yo'q qilib, 15 tasini asir oldi. Unga Qahramon unvoni berildi. Zolotarevka qishlog'i o'sha paytdan boshlab uning nomi bilan ataladigan bo'ldi. *Zilmat Hasanov*ning bir o'zi 80 fashistga qarshi jang qilib, kuchlar teng bo'lmagan bu jangda 60 dan ortiq gitlerchini qirib tashladi. O'qlari tugagach, *Zilmat Hasanov* o'zini portlatib, yana bir nechta soldat va ofitserni yo'q qildi.



1943-yil iyul-avgust – Angliya-AQSh Sitsiliyaga desant tushirdilar. Italiyaliklar jiddiy qarshilik ko'rsatishmadi. Italiyada fashistlar diktaturasining inqirozi kuzatilardi. *Mussolini* ag'darib tashlandi.

1943-yil 5-iyul - 23-avgust – Kursk jangidan bo'lib o'tdi. Bu jangdan maqsad Kursk bo'rtig'i hududida nemislarning hujumini barbod qilishdan iborat edi. Kursk va Oryol rayonida qattiq janglar olib borildi. Ularda O'zbekistonda tuzilgan harbiy qo'shilmalar - 5-, 29-, 69-o'qchi diviziyalar matonat ko'rsatdi. Oryol yaqinidagi Zolotarevka qishlog'i uchun bo'lgan jangda farg'onaiik *Ahmadjon Shukurov* jasorat ko'rsatdi. U 110 nafar fashistni yo'q qilib, 15 tasini asir oldi. Unga Qahramon unvoni berildi. Zolotarevka qishlog'i o'sha paytdan boshlab uning nomi bilan ataladigan bo'ldi. *Zilmat Hasanovning* bir o'zi 80 fashistga qarshi jang qilib, kuchlar teng bo'lmagan bu jangda 60 dan ortiq gitlerchini qirib tashladi. O'qlari tugagach, *Zilmat Hasanov* o'zini portlatib, yana bir nechta soldat va ofitserni yo'q qildi.

1943-yil avgust-dekabr – Dnepr uchun jang bo'lib o'tdi. Sovet qo'shinlariga "Markaz" qo'shinlar gruppirovkasi va "Janub" qo'shinlar gruppirovkasining asosiy kuchlari qarshi turdilar. Sovet qo'shinlari asosiy qismi Dnepr qirg'oqlari bo'ylab o'tgan "Sharqiy g'ov" mudofaa marrasini barpo etdilar. Dnepr uchun jang davomida sovet qo'shinlari tomonidan Dneprdagi strategik platsdarm qo'lga kiritilib, 38 mingdan ortiq aholi punktlari, shu jumladan 160 shahar ozod qilindi. Dnepr uchun bo'lgan janglarda Toshkent viloyatida tuzilgan 461-o'qchi diviziya shuhrat qozondi. Janglarning birida 237-o'qchi polk leytenanti *Ozerov* komandirigidagi hujumchi otryad Dnepr va Soja daryolari burilish joyining g'arbiy sohilida shitob bilan kichik bir istehkomni egalladi. Fashistlar ularga yomg'irday o'q yog'dirib, jasur jangchilarni yo'q qilib tashlashga intildilar. Tirik qolgan 10 tacha kishi orasida jangchi *Jo'raxon Usmonov* ham bor edi. Madad yetib kelgunicha u ikki kecha-kunduz davomida qahramonlik bilan marrani saqlab turdi. Jangchi *Vali Nabiyev* 60-gvardiyachi otliq askarlar polki tarkibida 1-lar qatori Dneprning g'arbiy qirg'og'iga o'tdi. Bu guruh eskadron avtomatchilari bilan dushmanning 7 soldatini yer tishlatdi, qolganlarni qochishga majbur qilib, eskadronning Dnepr osha o'tib olishini ta'minladi. Dnepr uchun olib borilgan janglarda qahramonlik ko'rsatgani uchun 26 o'zbek yigitiga Qahramon unvoni berildi. Ular safida buxorolik *Xalloq Aminov* ham bor edi.

1943-yil 5-iyul-27-avgust – Kursk jangi.

1943-yil 12-iyul – *Proxorovka* yaqinida ikki tomondan 1200 tank qatnashgan tanklar jangi bo'lib o'tdi. Uning natijasida dushman qo'shinlari chekina boshladi. Kursk jangida vermact 500 mingga yaqin odam yo'qotildi. 1,5 ming tank, 3,7 mingdan ortiq samolyot, 3 mingdan ortiq to'p yakson qilindi.

1943-yil 24-25-iyul – Italiyada fashist hukumatining ag'darilishi va Mussolinining hibsga olinishi.

1943-yil 3-sentabr – marshal *Badal'o* boshchiligidagi yangi hukumat yarash ahdini imzoladi va unga ko'ra Italiya qo'shinlari inglizlarga qarshi qarshilikni to'xtatib, taslim bo'lishdi. *Mussolini* tuzumini qutqarish niyatida Germaniya qo'shinlari Italiya markaziga qarab yo'natdi va Rimni ishg'ol qilib, Italiya harbiy qismlarini qurolsizlantirdi, mamlakatda shafqatsiz istilo tartibi o'rnatdi.



1943-yil 8-sentabr – Italiyaning taslim bo'lishi.

1943-yil 13-sentabr – Italiya (Badolo hukumati)ning Germaniyaga urush e'lon qilishi.

1943-yil 28-sentabr – jangchi *Vali Nabiyev* 60-gvardiyachi otlıq askarlar polki tarkibida 1-lar qatori Dneprning g'arbiy qirg'og'iga o'tdi. Bu guruh eskadron avtomatchilari bilan dushmanning 7 soldatini yer tishlatdi, qolganlarni qochishga majbur qilib, eskadronning Dnepr osha o'tib olishini ta'minladi.

1943-yil oktabr – Millatlar ligasi o'rnini bosish mumkin bo'lgan Xalqaro tashkilotni tashkil etish to'g'risidagi masala tashqi ishlar vazirligining Moskvadagi konferensiyasida muhokama qilindi.

1943-yil 13-oktabr – ittifoqchi qo'shinlar himoyasiga qochib o'tgan *Badal'o* hukumati Germaniyaga urush e'lon qildi.

1943-yil 19-30-oktabr – SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi konferensiyasi.

1943-yil 4-noyabr - sobiq SSSR FANing O'zbekiston filiali (O'zFA)ning asosida tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi zimmasiga o'zbek fani ahlining urush sharoitidagi izlanishlari, ilmiy tadqiqotlarining yo'nalishlari front va xalq xo'jaligi talablari hamda manfaatlariga moslashtirilishi borasidagi ilmiy va tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirish, ularga rahbarlik qilish tushdi. Bu akademiyaning birinchi prezidenti etib *T.N. Qori Niyoziy* saylandi. Bu davrda taniqli matematik-olimlar *T.N. Qori Niyoziy*, *T.A. Sarimsoqov*, geolog-olimlar *H.M. Abdullayev*, *A.S. Uklonskiy*, faylasuf *I. Mo'minov*, kimyogar olimlar *O.S. Sodiqov*, *S. Yu. Yunusov*, energetik *A.N. Askochenskiy* va boshqalar samarali izlanishlar olib bordilar. Fanlar akademiyasi tarkibida 22 ta ilmiy muassasa mavjud bo'lib, ularda 818 ilmiy va ilmiy-texnik xodimlar faoliyat ko'rsatardi.

1943-yil 28-noyabr 1-dekabr – uch davlat (AQSh, Angliya va SSSR) rahbarlarining Tehron konferensiyasi Gitlerga qarshi koalitsiyaning vujudga kelishida muhim qadam bo'ldi. U Stalingrad jangi va Al-Alamayn yaqinidagi jangdan so'ng, faqat harbiy emas, dunyoning urushdan keyingi taqdiri borasidagi masalalar ham ko'ndalang turgan II jahon urushida hal qiluvchi burilish yasalgan yilda bo'lib o'tdi. Konferensiya 1944-yil may oyidan kechikmay Fransiyada ikkinchi frontni ochish haqida qaror qabul qildi. Polsha chegaralari Sharqda Kerzon, G'arbda Oder va Neyse daryolari chizig'i bo'ylab o'tishi haqida kelishib olindi. Konferensiyada Sovet ittifoqiga Sharqiy Prussiyaning bir qismi, shu jumladan Kenigsberg shahrini berish haqida qaror qabul qilindi. Eron urushdan so'ng hududiy yaxlitligini saqlagan holda mustaqil davlatga aylanishi lozim edi. Sovet Ittifoqi Yevropada harbiy harakatlar nihoyasiga yetganidan so'ng Yaponiyaga qarshi urush boshlash majburiyatini oldi. Uch davlat rahbarlari g'alabani va urushdan keyingi hamkorlikni ta'minlash borasida harbiy va siyosiy hamkorlikning mustahkam poydevorini o'rnatdilar.

1943-yil 28-noyabr-1-dekabr – SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya hukumat rahbarlarining Tehron konferensiyasi.

1944-1945-yillar – *I. Bonomini*ning Italiyada hukumat rahbari sifatidagi faoliyati.

1944-1945-yillar - O'zbekistonlik jangchilar Belorussiya, Ukraina, Moldaviya,



Boltiqbo'yi respublikalari va Rossiya Federatsiyasining g'arbiy viloyatlaridagi partizan qo'shilmalarida ham ishtrok etdilar. Fashistlarga qarshi jang qilgan jasur razvedkachi, Qahramon unvoni bilan taqdirlangan *Mamadali Topiboldiyevning* nomi Belorussiyada juda mashhur. U 67 ta dushman soldat va ofitserini yo'q qilib, 180 tasini asir oldi. "Qasoskor" partizanlar brigadasi tarkibidagi *Jonibek Otaboev* boshchilik qilgan bo'linma Gomel atrofidagi "temir yo'l urushi"da faol qatnashdi. Uning bo'linmasi gitlerchilarning eshelonlari o'tadigan temir yo'llarni portlatib ishdan chiqardi, politsiya uchastkalariga qarshi hujumlarda ishtirok etdi. Bryansk atrofida jasur partizanlar *I.Musayev, A.Hakimov, I.Qosimov* va boshqalar nom chiqardilar.

1944-1946-yillar – Fransiyada muvaqqat rejim davri.

1944-1949-yillar – *Boleslav Berut* O'ika Xalq Radasi raisi.

1944-1950-yillar – O'zbekistonda turli sohalar bo'yicha 50 ming nafar mexanizatorlar tayyorlashga muvaffaq bo'lindi.

1944-1953 yillar – O'zbekistonda qishloq xo'jalik oliy o'quv yurtlari 4 ming nafarga yaqin turli kasbdagi mutaxassislarni tayyorlab chiqardi.

1944-1991-yillar – *Rajiv Gandining* hayot faoliyati.

1944-yil – Amerika san'at va adabiyot akademiyasi *Teodor Drayzemi* faxriy oltin medal bilan taqdirladi. Yozuvchiga yuborilgan ushbu qaror haqidagi xatda mazkur mukofot unga faqat "*Amerika fojias*", "*Baxtiqaro Kerr*", "*O'n ikki erkak*" kabi badiiy jihatdan yuksak asarlari uchun ham berilayotgani aytilgan edi. *Teodor Drayzeming* kitoblari jahon adabiyoti xazinasiga qo'shilgan buyuk hissa bo'lib, hanuz butun dunyo kitobxonalari orasida ma'lum va mashhurdir.

1944-yil – Dumbarton – Oks (Vashington) konferensiyasida SSSR, AQSh, Angliya va Xitoy vakillari Millatlar ligasi o'rnini bosish mumkin bo'lgan BMT Nizomi to'g'risida muzokaralar olib bordilar.

1944-yil – katolik yo'nalishidagi Xristian-demokratik partiyasi tuzildi. Bu partiya urushdan keyingi Italiyaning eng yirik burjua partiyalaridan biri edi. U jamiyatni mehnat va kapital bab-baravar foydali rol o'ynaydigan yagona organizm sifatida tasavvur etdi. Shuningdek, u oliy axloqiy qonun sifatidagi xristianlikni o'z mafkuraviy asosi deb e'lon qildi. Partiya dasturi qisman agrar va sanoat islohotini o'tkazish, ishchilarning aksiyalarni sotib olish yo'li bilan korxonalarni boshqarishda ishtiroki, kooperativ qurilishining rivojlantirishni ko'zda tutdi.

1944-yil – mamlakatlar o'rtasida valyuta-moliyaviy munosabatlarni tartibga solish va kredit yordami ko'rsatish uchun *Xalqaro valyuta fondi* tashkil qilindi. BMTning ixtisoslashgan muassasasi. Fond boshqaruvi Vashingtonda joylashgan.

1944-yil - O'zbekiston xalqi davlatga 820 ming tonna paxta topshirildi (1943-yildagiga nisbatan 325 ming tonna ko'p).

1944-yil – Ruminiyada dushman qo'shinlariga qarshilik harakatini amalga oshiruvchi yagona ishchilar frontiga birlashgan demokratik kuchlar tashkil etildi. Mana shular sovet qo'shinlariga qarshi kurashishdi.

1944-yil – Tailand hukumati milliy-ozodlik harakati natijasida ag'darib tashlandi. Urushdan keyingi davrda mamlakatda AQSh ta'siri kuchaydi.

1944-yil - *V. Kaverinning "Ikki kapitan"* asari nashrdan chiqdi.



1944-yil – Xalq respublikachilar harakati partiyasi tuzildi.

1944-yil yanvar - paxtachilikni yuksaltirish vazifalari birinchi respublika paxtakorlari qurultoyida jiddiy muhokama qilindi. Paxtakor xo'jaliklarni tashkiliy jihatdan yiriklashtirish zarurligi e'tirof etildi. Tajribali paxtakorlar xalq xo'jaligining boshqa uchastkalaridan paxta dalalariga qaytarib kelindi, suvdan foydalanish, dalalarni o'g'itlar bilan ta'minlash ishlari yaxshilandi.

1944-yil yanvar-fevral – Leningrad qamaliga batamom barham berildi.

1944-yil 14-yanvar-1-mart – Leningrad va Novgorod ostonasida nemis-fashist qo'shinlarining tor-mor keltirilishi.

1944-yil mart – tashqi siyosatda *Sh. de Goll* Yevropaning yagona iqtisodiy va siyosiy ittifoqqa birlashishining qat'iy va izchil tarafdori bo'ldi. U mazkur birlashish Fransiya rahbarligi ostida amalga oshirishini ko'zda tutdi. Urush hali qizg'iz kechayotgan va ittifoqchilar Normandiyaga qo'shin tushirishga engi tayyorlanayotgan bir paytda u g'arb davlatlarining keng guruhiga Yevropada iqtisodiy asosda birlashish dasturini ilgari surdi. Bu blokka Germaniyaning qo'shilishi ham ko'zda tutildi, biroq SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari unda yo'q edi.

1944-yil 19-mart – Vengriyaning nemis-fashist qo'shinlari tomonidan ishg'ol qilinishi.

1944-yil 26-mart – sovet qo'shinlarining Prut daryosi bo'ylab SSSR davlat chegarasiga chiqishi.

1944-yil aprel boshi – sovet qo'shinlari Ruminiya davlat chegarasini bosib o'tishdi.

1944-yil 8-aprel - 12-may – Qrimni ozod qilish operatsiyasi.

1944-yil may – grek xalqini bosqinchilarga qarshi kurashda imkon qadar birlashtirishga uringan Xalq fronti Betsrutda Gretsiya barcha siyosiy kuchlarining konferensiyasi chaqirilishiga erishdi. Boshqaruv shaklini tanlash va barcha siyosiy kuchlardan iborat hukumat tuzish uchun plebissit o'tkazishga kelishildi.

1944-yil 4-iyun – sovet ittifoqchilari qo'shinlarining Rimga kirishi.

1944-yil 6-iyun – AQSh-Angliya qo'shinlari Fransiya shimoli Normandiyaga tushirildi. Bu ittifoqchilarning 2-frontni ochish haqidagi eski va'dani bajarish borasidagi amaliy qadami edi.

1944-yil 6-iyun – sovet ittifoqchilarining Fransiya tushirilishi. 2-frontning ochilishi.

1944-yil 23-iyun-29-avgust – Belorussiyani ozod qilish operatsiyasi. Bu operatsiya davomida "Markaz" qo'shinlar gruppirovkasining asosiy kuchlari qurshovga olindi va tor-mor keltirildi. Belorussiya to'liq, Litva va Latviyaning esa bir qismi ozod qilindi.

1944-yil iyul – Tinch okeanida urush boshlagan Bosh vazir *Todzening* hukumati iste'foga chiqarildi.

1944-yil 7-iyul – Yugoslaviyada yagona demokratik hukumat tuzildi.

1944-yil 20-iyul – *Gitler* o'zining bosh qarorgohida majlis o'tkazayotgan paytda portlash sodir bo'ldi. Uning natijasida to'rt ofitser halok bo'ldi. Gitlerning o'zi hech qanday zarar ko'rmadi. Suiqasd vermact ofitserlari tomonidan uyushtirilgan



bo'lib, bombani polkovnik *Shtauffenberg* qo'ygan edi. *Gitler* ulardan ayovsiz o'ch oldi, fitnaga aloqador 5 mingdan ortiq kishi otib tashlandi.

1944-yil 24-iyul – AQSh-Angliya qo'shinlari Fransiya shimoli Normandiyaga tushirilgan qo'shinlar soni 1,5 mln. dan ortiq edi. Ittifoqchilar dushmandan shaxsiy tarkibi va tanklari soni jihatidan 3 baravar, samolyotlari soni jihatidan esa 60 baravar ustun bo'lib, havo va dengizda to'liq hukmronlik qilardilar.

1944-yil avgust – sovet qo'shinlari Ruminiyaga kirdi va Dunay sohiliga chiqdi. Bu general *Antonesku* tuzumiga qarshi ommaviy harakatning boshlanishiga turtki bo'ldi.

1944-yil 15-avgust – AQSh va Fransiya qo'shimalari Fransiya janubiga ham tushirildi.

1944-yil 10-avgust – Leningrad jangi nihoyasiga yetdi.

1944-yil 23-avgust – *Antoneskuning* fashist diktaturasi ag'darib tashlandi. Kondukatorning o'zi qirol *Mixay* buyrug'i bilan qamoqqa olindi.

1944-yil 23-24-avgust – Ruminiyaning urushdan chiqishi va fashistlar Germaniyasiga urush e'lon qilishi.

1944-yil 25-avgust – fransuz qarshiligi qo'shinlari AQSh qo'mondonligi bilan kelishuvga ko'ra Parijga kirdilar va Fransiya poytaxti uzra milliy bayroq hilpirashi boshlandi.

1944-yil 26-avgust – Ruminiyaning tor-mor qilinishi Bolgariya hukumatini hiyla ishlashga majbur qildi - betaraflik e'lon qilishga undadi.

1944-yil sentabr – marshal *Tolbuxin* qo'mondonligidagi sovet qo'shinlari Bolgariya hududiga kirdilar. Chekinayotgan nemis qismlarini quvib, sovet armiyasi qisqa vaqt ichida Bolgariya hududining katta qismini egalladi.

1944-yil sentabr – Vengriya uchun uzoq va qonli janglar boshlandi. Bu mamlakat Germaniya armiyasining barcha harakatchan va uchuvchi qismlarini yonilg'i bilan ta'minlovchi so'nggi tabiiy neft manbai edi. Nemis qo'shinlari Vengriya yerining har bir parchasi uchun qattiq qarshilik ko'rsatdilar.

1944-yil 4-sentabr – Finlyandiyaning urushdan chiqishi va Germaniya bilan munosabatlarni uzishi.

1944-yil 9-sentabr – Bolgariyada Vatan fronti boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi. Muraviyevning fashist hukumatini ag'darilib, Vatan fronti vakillaridan iborat yangi hukumat tuzildi. Moskvada SSSR, Buyuk Britaniya va AQSh vakillari bilan yarash ahdini imzoladi. Unga ko'ra, Bolgariya qo'shinlari *Gitler* qo'shinlari qoldiqlariga qarshi kurashda faol ishtirok etishlari lozim edi, Vatan fronti chuqur demokratik islohotlarni amalga oshirdi. Harbiy jinoyatchilar jazolandi, fashistlarning barcha qonunlari bekor qilindi, fuqarolarning erkinliklari tiklandi.

1944-yil 9-sentabr – Bolgariyada Vatan frontining hokimiyat tepasiga kelishi. Bolgariyaning Germaniyaga urush e'lon qilishi.

1944-yil 12-sentabr – Moskvada Buyuk Britaniya, Sovet Ittifoqi va AQSh hukumatlari Ruminiya bilan yarashuv ahdnomasini imzoladilar. Ruminiya taslim bo'ldi va ahdnoma shartiga ko'ra Germaniya bilan aloqani uzib, qurolni nemislarga qarshi qaratishga rozilik bildirdi. Biroq, yarashuv shartlarining bajarilishiga reaksiyon kuchlar qarshilik ko'rsatib, ularning doirasini



chegaralashga urindilar. Bunga qarshi Ruminiyada yarashuv shartlarining halol bajarilishi va aksildemokratik tuzum bilan oraning qat'iy ochiq qilinishi tarafdori bo'lgan so'l kuchlarning Milliy-demokratik fronti tashkil etildi.

1944-yil 28-sentabr – nemislarning Yugoslaviyadagi qo'shinlarini tor-mor qilish bo'yicha Belgrad operatsiyasi boshlandi. 3-Ukraina fronti, Yugoslaviya va bolgariya qo'shinlari qatnashgan bu operatsiya natijasida fashistlarning "Serbiya" gruppировkasi tor-mor keltirilib, Belgrad hamda Serbiyaning katta qismi ozod qilindi.

1944-yil oktabr-noyabr – Xalq ozodlik armiyasi Albaniyaning barcha yirik shaharlarini qo'lga kiritdi. Milliy-demokratik frontning muvaqqat hukumatini *Anvar Xo'ja* boshqardi.

1944-yil 3-oktabr – Gretsiya qirg'oqlariga Angliya qo'shinlari kelib tushdi.

1944-yil 11-oktabr – BMT talabiga binoan Bolgariya Gretsiyaning bosib olingan hududlarini ozod qildi.

1944-yil 13-oktabr – gitlerchilar Afinani tark etdilar. Bosh vazir *Georg Papandreu* boshchiligidagi Gretsiya hukumati poytaxtga qaytib keldi.

1944-yil 19-oktabr – Germaniyada 16-yoshdan 60-yoshgacha bo'lgan aholiga harbiy safarbarlikning e'lon qilinishi.

1944-yil 20-oktabr – ikki armiyaning, ya'ni Qizil armiya va Yugoslaviyaning qo'shilishi natijasida yugoslaviya poytaxti – Belgrad ozod qilindi. Lekin qirol *Pyotr* va uning a'yonlari *Shubashich* hukumatini tasdiqlashdan bosh tortib, qirol hokimiyatini va avvalgi tartibot qoldiqlarini saqlash bo'yicha manevrlar qila boshladi. Lekin uch buyuk davlatning Qrim konferensiyasi ularning bitimi asosida *Tito* va *Shubashichga* Muvaqqat birlashgan hukumat tuzishni tavsiya qildi.

1944-yil 25-oktabr – Ruminiya fashistlardan ozod qilindi. Uning ketidan Bolgariya ozod etildi. Sovet armiyasi Yugoslaviya Xalq ozodlik armiyasiga fashistlarning yugoslaviyadagi qo'shinlarini tor-mor keltirishga ko'maklashdi.

1944-yil noyabr – Gretsiyadagi ingliz qo'shinlari qo'mondoni *Georg Papandreu* bosqinchilarga qarshi kurashgan Xalq fronti otryadlari va partizanlarni qurolsizlantirish to'g'risida buyruq chiqardi, biroq monarxiyachilarning otryadlari va fashistlar partizanlarga qarshi kurashish uchun tuzgan "qo'riqlov batalyonlari" saqlab qolindi. Xalq frontining bu qarorga qarshi Afinadagi namoyishi politsiyachilar tomonidan ingliz qo'shinlari ishtirokida o'qqa tutildi. Angliya o'zining Gretsiya ustidan nazorat o'natish borasidagi eski siyosatiga qayta boshlagan edi. Afinada harbiy holat e'lon qilindi. Mamlakatda fuqarolar urushi boshlandi. Angliya qurolli kuchlari *Papandreuni* qo'llab-quvvatlashga urinib, Xalq frontiga qarshi faol harakat boshladilar, Afinaning butun-butun mavzellarini bombardimon qildilar.

1944-yil noyabr – nemis-fashist qo'shinlari Bolqon yarim orolidan quvib chiqarildi.

1944-yil 10-11-noyabr – Germaniya qo'shinlarining Gretsiyadan chekinishi.

1944-yil 29-noyabr – Albaniyaning Xalq-ozodlik armiyasi tomonidan ozod qilinishi.

1944-yil dekabr – sotsialistlar partiyasi va Fransiya kommunistik partiyasi (FKP) Kelishuv qo'mitasini tuzishdi.



1944-yil dekabr oxiri – AQSh-Angliya qo'mondonligi qarshi zarba bilan fashistlar hujumini to'xtatdi.

1944-yil 2-dekabr – Vengriyadagi antifashistik demokratik kuchlar birlashgan Vengriya mustaqillik milliy fronti (VMMF) tashkil qilindi. Unga Vengriya kommunistik partiyasi (VKP), Sotsial-demokratik partiya (SDP), Milliy dehqonlar partiyasi (MDP), Mayda qishloq xo'jaligi egalari partiyasi (MQXEP), Burjua-demokratik partiyasi (BDP) va kasaba uyushmalari kirdi.

1944-yil 16-dekabr – *Ardenna* operatsiyasi boshlanib, uning davomida nemis qo'shinlari G'arbiy Yevropadagi vaziyatni Germaniya foydasiga o'zgartirishga urindilar. Ushbu maqsadda ular G'arbiy frontda AQSh-Angliya qo'shinlarini tor-mor qilishga urinib ko'rdilar. Frontning uzunligi 115 km. ni tashkil qildi. Nemis qo'shinlarining hujumi AQSh qo'shinlarini dovdiratib qo'ydi va ular chekina boshladilar.

1944-yil yoz - Qizil armiyaning Bolqonga hujum boshlashi.

1944-yil kuz – nemis qo'shinlari Sovet Ittifoqi hududidan quvib chiqarildi, urush Yevropaga ko'chdi. Sovet armiyasi gitlerchilar tomonidan bosib olingan Markaziy va Janubl Sharqiy Yevropa mamlakatlari hududida hujumkor operatsiyalarni boshladi.

1944-yil kuz – Qizil armiyaning Bolqondagi boshlangan hujumi munosabati bilan Yugoslaviya xalq ozodlik armiyasining hujumi avj oldi.

1944-yil kuz – Sovet armiyasining shiddatli hujumi sovet davlati hududining fashist bosqinchilaridan to'liq tozalanishiga olib keldi. Urush SSSR tashqarisiga, Markaziy Yevropa hududiga ko'chdi. Sovet armiyasiga kirgan 1-mamlakat Ruminiya bo'ldi.

1944-1946-yil kuz – Fransiya Vaqtli rejim davri. Bu mamlakat tarixida uzoq davom etmagan, biroq juda muhim davr bo'lganki, unda demokratik va antifashist kuchlar katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

1944-yildan – *Ichido de Gasperi* XDPning raisi.

1944-yil oxiri 1945-yil boshi – Polsha va Finlyandiya ozod qilindi.

1945-1946-yillar – Falastinda urush tugagandan keyin yahudiylar oqimi har yili 100 ming kishini tashkil etdi. Versal tinchlik konferensiyasida Angliya Falastinga mandatga erishdi va bu yerda yahudiy davlatini tashkil eta boshladi.

1945-1946-yillar – *Sh. de Goll* Fransiya prezidenti.

1945-1948-yillar – Albaniya, Bolgariya, Ruminiya, Sharqiy Germaniya, Polsha, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, Vengriya ko'ppartiyali va siyosiy qarashlar plyuralizmiga ega xalq demokratik partiyasi boshchilik qildi. Kommunistlar sotsial-demokrat partiyalar, dehqonlar tashkilotlari bilan hokimiyatni bo'lib olishdi, o'zgacha qarashlarga chidash va demokratik tamoyillarga hurmat bilan ajralib turuvchi platformani yaratdi. Shakl va mazmun jihatidan bunday tizim Ispaniyadagi fuqarolar urushi davrida yuzaga kelgan Xalq fronti rejimini eslatar, Ispaniya respublikasini xalq demokratiyasi rejimining timsoli deb sanash mumkin bo'ldi.

1945-1948-yillar – Buyuk Britaniyada ijtimoiy ta'minot dasturi yangi hukumatning eng ommabop tashabbusi bo'ldi: u ishsizlarga yordam ko'rsatishni oshirish, keksalik bo'yicha nafaqa to'lash, bepul maktab tushliklari va qisman bepul tibbiy



xizmatni ko'zda tutdi. Biroq dastur yetarli moddiy asosga ega emas edi, shu bois uni amalga oshirish to'xtatib qo'yildi.

1945-1950-yillar - respublikada qishloq xo'jalik oliy o'quv yurti va 12 ta texnikum ishlab turdi.

1945-1951-yillar – *Klement Ettl*i Buyuk Britaniyada Bosh vazir bo'lgan.

1945-1953-yillar – *Alchido de Gasperi* Italiya hukumati boshlig'i.

1945-1953-yillar – *Garri Trumen* AQShning 33-prezidenti bo'lib saylanadi.

1945-1954-yillar – Vetnamda aholi Qarshilik ko'rsatish harakati - fransuz mustamlakachilariga qarshi olib borgan kurashi davri. Unda Denbenfu ostonasida Fransiya o'z qo'shinlarini mamlakatdan olib chiqib ketishga majbur bo'ldi.

1945-1957-yillar – O'zbekistonda 10 ta suv ombori qurildi. Jumladan Buxoro viloyatida Quyumozor, Qashqadaryo viloyatida Chimqo'rg'on, Toshkent viloyatida Toshkent suv omborlari ishga tushirildi.

1945-1967-yillar – Sukarno Indoneziya prezidenti lavozimidagi faoliyati.

1945-1967-yillar – *Sukarnoning* Indoneziyada prezidentlik faoliyati davri.

1945-1970-yillar – O'zbekistonda paxtaning yalpi hosili 850 ming tonnadan 4 mln.495 ming tonnaga, ya'ni 5,3 baravarga ko'paydi.

1945-1991-yillar – “Sovuq urush” davri. Unda Sharq va G'arb mamlakatlariga nisbatan qarama-qarshilik, bir-biriga, dushmanlik, o'zaro ishonchsizlikni ifodalovchi bosqichdir.

1945-1991-yillar – II jahon urushi tugadi, biroq insoniyat yangi muammolarga duch keldi. Ular asosida AQSh va SSSR o'rtasidagi siyosiy va mafkuraviy ziddiyatlar yotardi. II jahon urushidan so'ng ular qudratli davlat sifatida jahon siyosatiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Shu yillarda davom etgan o'zaro qarama-qarshilik misli ko'rilmagan qurollanish poyasiga olib keldi, natijada ommaviy qirg'in qilishning yangi turlari yaratildi.

1945-1958-yillar – *Matyash Rakoshi* Vengriyaga qaytadi. U Vengriya mehnatkashlari partiyasining birinchi kotibi bo'lib ishladi.

1945-yil boshi – Chexoslovakiya va Avstriyaning katta qismi ozod qilindi.

1945-yil – II jahon urushi kamolchilar siyosatida keskin burilish yasadi. Turkiya hukumati zamindorlar va davlatdan yerlarni to'lov hisobiga olib, dehqonlarga bo'lib berish to'g'risida qonun qabul qildi.

1945-yil - *A. Fadeevning* “*Yosh gvardiya*” asari nashrdan chiqdi.

1945-yil – Amerika neft kompaniyalari daromadlaridan olingan ajratmalar hisobiga Saudiya Arabiston hukumati 5 mln. dollar foyda oldi.

1945-yil – AQSh sobiq ittifoqchisini saqlab qolish uchun unga yirik zayom berdi. Buning evaziga Angliya Britan imperiyasi bozorining bojxona ta'riflarini kamaytirishi lozim edi. Amerika korporatsiyalari o'zi uchun ingliz mustamlakalari va dominionlarida katta bozorga ega bo'ldi. Bu ingliz mustamlaka imperiyasining tugashini tezlashtirdi.

1945-yil – *Benito Mussolini* harbiy tribunal hukmi bilan qatl etilgan.

1945-yil – BMT tashkil topdi. Unga a'zo davlatlar soni 51 davlatni tashkil etdi.

1945-yil – Braziliyada *Vargasing* tuzumi tugallangan yil.



1945-yil – *Daniel Ortega Saavedra* dunyoga keldi.

1945-yil – Fransiya kommunistik partiyasi (FKP) katta obro' qozondi. Uni "otib tashlaganlar partiyasi" deb nomlashdi, chunki gitlerchilar uning deyarli barcha yirik vakillarini otib tashlagan edi. Bu partiya rahbarligida fransuz Qarshilik harakati amal qildi. U mamlakatdagi eng yirik siyosiy partiya aylandi. Uning saflarida 900 ming a'zo bo'lgan.

1945-yil - fransuz yozuvchisi *Elza Triole* Qarshilik harakati haqidagi "*Movutni yirtganlik uchun - jarima ikki yuz frank*" nomli hikoyalar to'plamini e'lon qildi.

1945-yil - hind yozuvchisi *Yashpahing "Diviya"* asari nashrdan chiqdi.

1945-yil – Germaniyada Katolik markazining roli kuchaydi, uning asosida yangi partiya tuzilib, Xristian demokratik ittifoqi (XDI) deb yuritila boshladi. Uning xodimlari katolik ruhoniylari, sanoatchilar, bankirlar, ziyolilar, xizmatchilar edi.

1945-yil – *Makartur Diglas* Yaponiyadagi okkupatsion qo'shinlar qo'mondoni bo'lgan.

1945-yil – Milliy kengash *E. Beneshnini* Chexoslovakiya prezidenti etib sayladi.

1945-yil – O'zbekistonda 850 ming tonna paxta yetishtirildi.

1945-yil - O'zbekistonda mehnatkash dehqonlar soni 40%ga kamaydi. Ayniqsa, mexanizatorlar soni kamayib ketdi - 30 mingdan 3 mingga tushdi. Urushga ketganlarning o'rnini ayollar, qariyalar va o'smirlar egalladilar.

1945-yil - O'zbekistonda umumta'lim maktablarida o'quvchilar soni 895,7 mingtaga yetdi. Bu esa urush arafasidagi raqamdan 500 mingtaga kam edi.

1945-yil - O'zbekistonning sanoat quvvati 1940-yildagiga nisbatan 2 marta, neft ishlab chiqarish to'rt marta, metallni qayta ishlash 4,5 marta, mashinasozlik 13,4 marta, ko'mir ishlab chiqarish 30 marta, po'lat va prokat ishlab chiqarish 2,5 marta oshdi, kimyo sanoatida ishlab chiqariladigan yalpi mahsulotlar 5 marta ko'paydi. Yengil va oziq-ovqat kooperativ sanoatining ham ishlab chiqarish ko'lami ancha kengaydi.

1945-yil – *Teodor Drayzer "Mard"* romanini yozdi. Bu roman "*Korchalon*" va "*Daho*" romanlarining davomi edi.

1945-yil – urush yillaridayoq antifashist tashkilotlari joylardagi hokimiyat organlari bo'lgan milliy ozodlik qo'mitalarini tashkil etdi. Ular fashizmni tor-mor etish va uning oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan barcha siyosiy kuchlar vakillari kirgan hukumatni tuzishdi.

1945-yil – yapon bosqinchilari, ittifoqchi qo'shinlari bilan birga Birmadan quvib chiqarildi.

1945-yil – Yevropada yahudiylar xalq sifatida deyarli qolmadilar.

1945-yil yanvar boshi – sovet armiyasining dastlabki qismlari Germaniya chegarasiga chiqdilar. Urushning oxiri ko'rinib qoldi. Lekin, fashizm reyx hududida qattiq qarshilik ko'rsatish uchun hali yetarli kuchga ega edi.

1945-yil yanvar oxirl fevral boshi – sovet qo'shinlari Oderni kechib o'tdilar. Gitler Germaniyasi poytaxtiga 60 km qolgan edi.

1945-yil 1-yanvar – o'tar kechasi nemislar Buyuk Britaniyaga hujumga o'tdilar. Ittifoqchilar qiyin ahvolda qolganlari munosabati bilan *U.Cherrill I. Stalinga* yordam so'rab murojaat qildi. Iltimos qondirildi va nemis qo'mondonligi hujumi to'xtatib, 13 diviziyani sharqiy frontga tashlashga majbur bo'ldi.



1945-yil 12-yanvar – Visla-Oder operatsiyasining boshlanishi.

1945-yil 13-yanvar – gitlerchilarning Sharqiy Prussiyadagi qo'shinlarini tor-mor qilish operatsiyasi boshlandi. Bu II jahon urushining eng ulkan janglaridan biri bo'ldi. Unda gitlerchilar ustidan bir necha baravar ustun bo'lgan to'rt front qo'shinlari qatnashdilar. fashistlar Germaniyasining hech qanday rezervi qolmagan edi. Sovet qo'shinlari tirik kuchda uch, samolyot va tanklarda besh baravar ustunlikni qo'lga kiritdi.

1945-yil 18-yanvar – Pesht Sovet qo'shinlari tomonidan qo'lga olindi. Budapeshtni ozod qilishdagi jasorati uchun 2430 nafar o'zbekistonlik jangovar medallar bilan mukofotlandi, *Rem Abzalovga* esa Qahramon unvoni berildi.

1945-yil 20-yanvar – Vengriya muvaqqat hukumatining vakillari Moskvada antifashistlar koalitsiyasi bilan yarashuv haqidagi bitimni imzoladi.

1945-yil 20-yanvar – Vengriyaning Germaniyaga urush e'lon qilishi.

1945-yil fevral – sovet qo'shinlari Berlin ostonasidagi so'nggi mudofaa marrasi yorib o'tishdi.

1945-yil fevral – SSSR, AQSh va Angliya o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanishida bo'lib o'tgan uch buyuk davlatlar rahbarlarining Qrim konferensiyasi muhim bosqich bo'ldi. Konferensiyada mag'lub Germaniya va ozod qilingan Yevropaga nisbatan hamkorlikdagi siyosat rejalarining ishlab chiqilishi bosh masala hisoblandi. Uch davlat rahbarlari natsizmni, uning qurolli kuchlari, bosh shtabi, barcha idoralari yo'q qilish, fashistlar Germaniyasi rahbarlarini jazoga tortish, natsizmning nemis xalqining madaniy va iqtisodiy hayotiga har qanday ta'sirini bartaraf etishga kelishdilar. Bu maqsadlarga erishish uchun iltifoqchilar Germaniyani uzoq vaqt davomida istiloda saqlashga qaror qildilar. Har bir davlatga ma'lum istilo hududi ajratildi. Konferensiya qatnashchilari Germaniya boshqa mamlakatlarga yetkazgan zararni reparatsiyalar to'lash yo'li bilan qoplashini kelishib oldilar, biroq reparatsiyalar miqdori belgilanmadi. Konferensiya "*Ozod Yevropa to'g'risidagi deklaratsiya*"ni e'lon qildi. Unda ittifoqchilarning ozod qilingan xalqlarga fashizmning so'nggi qoldiqlarini yo'q qilish va o'z xohishlariga ko'ra, demokratik tuzumlarni barpo etishda ko'maklashish uchun Yevropadagi siyosatlarini o'zaro kelishishlari zarurligi ta'kidlandi. Ushbu munosabat bilan Polshada sovet rahbariyati tomonidan tuzilgan kommunistlardan iborat muvaqqat hukumatni keng demokratik asosda, Polshaning o'zidagi va undan tashqaridagi polyak demokratlari va jamoat arboblari jalb etish yo'li bilan qayta tashkil qilish ko'zda tutildi. Sovet Ittifoqi o'zining Yaponiyaga qarshi urush boshlash niyatini tasdiqladi. Buning evaziga Mongoliya Xalq Respublikasining avvalgi mavqeini saqlab qolish, Sovet Ittifoqiga Saxalinning janubiy qismi, Kuril orollarini berish, Port-Arturdagi harbiy-dengiz bazasini taqdim etishga qaror qilindi.

1945-yil fevral oxiri – Ruminiya bo'ylab ommaviy namoyishlar to'liqini yelib o'tdi. Ularning ishtirokchilari demokratik islohatlarni amalga oshirish, bosh ko'targan gitlerchi tashkilotlarga barham berishni talab qildilar. Hukumat ommaviy qatag'on bilan javob berdi, namoyishlar qo'shin yordamida tarqatildi. Mehnatkash omma tazyiqi ostida general Radeskuning reaksion hukumati iste'fo berishga majbur bo'ldi.



1945-yil fevral oxiri – Ruminiyada 6 marta dehqonlar fronti rahbari, Ministrlar Soveti raisining sobiq o‘rinbosari doktor *Petru Groza* boshchiligidagi yangi hukumat tashkil qilindi. Yangi hukumat Ruminiyani demokratlashtirish yo‘lida qat’iy qadamlar tashladi.

1945-yil 4-11-fevral – SSSR, Buyuk Britaniya va AQSh hukumat rahbarlarining Qrim (Yalta) konferensiyasi.

1945-yil 13-fevral – Buda Sovet qo‘shinlari tomonidan qo‘lga olindi.

1945-yil 19-fevral 17-mart – Ivodzi orolidagi Amerika va Yaponiya qo‘shinlari o‘rtasidagi jang.

1945-yil 23-fevral – Turkiyaning Germaniya va Yaponiyaga urush e‘lon qilishi.

1945-yil 1-mart – Germaniyaga 42 davlat vakillari urush e‘lon.

1945-yil 6-mart - Mehnatkash omma tazyiqi ostida general Radeskuning reaksion hukumati iste‘fo berishga majbur bo‘ldi va dehqonlar fronti rahbari, Ministrlar Soveti raisining sobiq o‘rinbosari doktor *Petru Groza* boshchiligidagi yangi hukumat tashkil qilindi. Yangi hukumat mamlakatni demokratlashtirish yo‘lida qat’iy qadamlar tashladi.

1945-yil 6-mart – Ruminiyada Xalq-demokratik fronti hukumati yaratildi. Taniqli siyosiy arbob *Petru Groza* bosh vazir bo‘ldi. Bu mamlakatdagi 1-demokratik hukumat edi. Dehqonlar yerga ega bo‘ldi, davlat apparati sobiq fashistlar, harbiy jinoyatchilar va reaksionerlardan tozalandi.

1945-yil 7-mart – *Tito* yangi yugoslav hukumatini tuzdi. Bunda *Shubashich* tashqi ishlar vazifasini egalladi. So‘ngra federativ qismlarda o‘z mahalliy hukumatlari tashkil etildi. Yugoslav armiyasi ittifoqchilar armiyalari bilan birgalikda gitlerchilarga, ularning ittifoqchilari – ustashlar va chetniklarga qarshi kurashni davom ettirdi hamda dushman qo‘shinlari qoldiqlarini taslim bo‘lishga majbur qildi.

1945-yil 20-mart – Ruminiyada agrar islohot haqidagi qonun qabul qilindi. Bu islohot pomeshchiklar sinfini tugatdi, yirik pomeshchiklar va yer egalari mamlakat siyosiy hayotiga ta‘siriga barham berdi. Bu qishloq xo‘jaligining yuksalishi va mamlakatning demokratlashtirilishiga zamin hozirladi. *Petru Groza* hukumati ichki boshqaruv tizimini ham demokratlashtirdi.

1945-yil mart – *Iosif Broz Tito* Belgradada Yugoslaviyani ozod etish milliy qo‘mitasi vakillaridagina iborat hukumatni shakllantirdi.

1945-yil mart – sovet qo‘shinlari quyi Sileziyani va Brandenburg viloyatini egalladilar. Bir vaqtning o‘zida G‘arbda ittifoqchi qo‘shinlar nemislarning Reyndagi mudofaa marrasini yorib o‘tib, Rurdagi gruppirovkani qurshovga oldilar.

1945-yil mart – Vengriya muvaqqat hukumat agrar islohot o‘tkazdi. Unga ko‘ra fashistlar bilan hamkoriik qilgan zamindorlar yerlari musodara qilindi va dehqonlarga berildi. Yerlarning bir qismi davlat mulkiga o‘tdi.

1945-yil aprel boshi – sovet hukumati fashistlarning shimoldagi gruppirovkasi tor-mor keltirdi.

1945-yil aprel - Kenigsberg shahrini qo‘lga kiritishdagi ishtroki uchun o‘zbekistonlik jangchilarda 5140 nafari jangovar orden va medallarga sazavor bo‘ldilar. Gdansk shahri uchun bo‘lgan janglarda *Sobir Rahimov* halok bo‘ldi.



O'zbek yigiti *Botii Boboiev* komandirligidagi batareya Berlin yo'lidagi Oder daryosini birinchilar qatorida jang bilan kechib o'tdi. Bu batareya daryoning g'arbiy sohilidagi istehkomni ishg'ol qilish uchun hujumga o'tib, dushmanni yakson qildi. Bu jasorati uchun *B. Boboyev* Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi. Budapeshtni ozod qilishdagi jasorati uchun 2430 nafar o'zbekistonlik jangovar medallar bilan mukofotlandi, *Rem Abzalovga* esa Qahramon unvoni berildi.

1945-yil aprel – Yaponiya hukumati yana almashti.

1945-yil aprel-may – Serbiya, Xorvatiya, Makedoniya, Chernogoriya, Bosniya va Gersogovina, Sloveniya hukumati tuzildi. Yugoslaviyada yangi davlat apparati tashkil topdi.

1945-yil 1-aprel-21-iyun – Amerika qo'shinlarining Okinava orolini egallashi.

1945-yil 4-aprel – Vengriyaning nemis-fashist bosqinchilaridan ozod qilinishi.

1945-yil 9-aprel – sovet qo'shinlari Prussiya poytaxti Kenigsberg (hozirgi Kaliningrad) shahri qo'lga kiritildi.

1945-yil 11-aprel – *I.Broz* Tito Moskvaga tashrif buyurdi. Tashrifi chog'ida do'stlik, o'zaro yordam va urushdan keyingi hamkorlik haqida shartnoma imzolandi. Iqtisodiy va madaniy rivojlanish rejalarining amalga oshirishida Sovet Ittifoqi yordami katta rol o'ynadi.

1945-yil 12-aprel – AQSh Prezidenti *R.D.Ruzvalt* to'satdan vafot etgach, ushbu vazifaga sobiq vitse-prezident G.Trumen keldi.

1945-yil 16-aprel - 8-may – Berlin uchun jang.

1945-yil 16-aprel – Germaniya imperiyasi poytaxti – Berlin shahri uchun hal qiluvchi jang boshlandi. Berlinni Gitler qo'shinlarining so'nggi qoldiqlari himoya qilardi.

1945-yil 18-aprel – german-nemis qo'shinlari 325 ming kishilik gruppirovkasi sovet qo'shinlariga taslim bo'lishdi.

1945-yil 20-aprel – Moskvada do'stlik, o'zaro yordam va urushdan keyingi hamkorlik haqidagi Sovet-Polsha shartnomasi imzolandi. Bu shartnoma Germaniya tomonidan boladigan har qanday xavf-xatarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'zda tutdi. U 20 yil muddatga tuzildi.

1945-yil 24-aprel – 1-Belorus fronti (marshal *G. K. Jukov*) va 1-Ukraina fronti (marshal *I. S. Konev*) qo'shinlari Berlining janubi sharqida qo'shilib, Berlin qurshovini nihoyasiga yetkazdilar.

1945-yil 25-aprel – Grim konferensiyasi ishlab chiqilgan BMT Nizomi loyihasini ma'qulladi va San-Fransiskoda BMTning Ta'sis konferensiyasini chaqirish to'g'risida qaror qabul qildi.

1945-yil 25-aprel – San-Fransiskoda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'sis konferensiyasi ish boshladi. Unga Birlashgan Millatlar Deklaratsiyasini imzolagan va Germaniyaga urush e'lon qilgan 42 davlat vakillari taklif etildi.

1945-yil 25-aprel – sovet va Amerika qo'shinlarining Torgau (Elba bo'yidagi) shahri yaqinida uchrashuvi.

1945-yil 29-aprel – Shimoliy Italiyadagi nemis qo'shinlarining taslim bo'lishi.

1945-yil 30-aprel – Berlinga bunkerda *Gitler, Gimmmler, Gebbels* o'z jonlariga qasd qildilar. *Gebbels* avval xotini va to'rt qizini ham otib tashlashni buyurdi. Ular insoniyatga qarshi jinoyatlari uchun qattiq jazo oldilar.



1945-yil 30-aprel – Germaniyadagi reyxstagni shtrum qilish boshlandi va sovet askarlari g'alaba bayrog'ini reyxstag peshtoqiga o'rnatdilar.

1945-yil may - fashizimga qarshi urush g'alaba bilan tugallandi. O'zbek xalqi urush yillari front ehtiyojlarini ta'minlashga moslashtirilgan xalq xo'jaligini qayta qurish imkoniyatiga ega bo'ldi.

1945-yil may – Gannoverda “Shumaxer byurosi” yuzaga keldi. Uni reyxstagning sobiq deputati *K. Shumaxer* boshqarar edi. Byuro yangi dastur asosini yaratdi, unda energetika va tog'-kon sanoati tarmoqlari, yetakchi banklarni davlat ixtiyoriga o'tkazish, yirik yer egaligini cheklash, korxonalarda ishchi vakillarini kengaytirish masalalari ko'rib chiqilgandi. Shu bilan birga GSDP g'oyalariga va burjua parlament tizimi tamoyillariga sodiq qolishini bildirdi.

1945-yil may – *Genrix Gimmler* o'z joniga qasd qildi.

1945-yil 1-may – o'tar kechasi fashistlar Germaniyasi poytaxti bo'lmish Berlinga Reyxstag binosi peshtog'iga g'alaba bayrog'i o'rnatildi.

1945-yil 2-may - Berlin garnizoni taslim bo'ldi.

1945-yil 2-may – Berlin shahri taslim bo'ldi. Berlinni egallashda ko'rsatgan jasorati uchun toshkentlik *A. Golubenkoga* Qahramon unvoni berildi. O'zbekistonlik jangchilarning 1706 nafari “Berlinni ishg'ol etganligi uchun” jangovar medali bilan taqdirlandi.

1945-yil 2-may – Italiyadagi nemis qo'shinlarining taslim bo'lishi.

1945-yil 5-9-may – Pragadagi xalq qo'zg'oloni va shaharning ozod qilinishi.

1945-yil 8-may – Karlsxortda Germaniya qurolli kuchlarining so'zsiz taslim bo'lishi to'g'risidagi hujjatning imzolanishi.

1945-yil 9-may – Berlin yaqinidagi Karlxorstda AQSh, SSSR, Angliya va Fransiya qo'shinlari qo'mondonligi vakillari ishtirokida fashistlar Germaniyasi vakillari so'zsiz taslim bo'lish to'g'risidagi hujjatni imzoladilar. Fashistlar Germaniyasi tomonidan olti yil muqaddam boshlangan qonli urush uning to'liq tor-mor keltirilishi bilan tugadi. Gitler orzu qilgan ming yillik reyxning umri, o'n ikki yilga ham yetmadi.

1945-yil 9-may - Germaniyaning so'zsiz taslim bo'lishi to'g'risidagi shartnoma imzolandi.

1945-yil 9-may - harakatdagi armiya qo'shinlari dushman qo'shinlarining Chexoslovakiyadagi so'ngi guruhini tor-mor etdilar

1945-yil 15-may – Yaponiya hukumati tomonidan Gitler Germaniyasi bilan tuzilgan bitimlarning bekor qilinishi.

1945-yil 15-may – Yugoslaviya hududida harbiy harakatlarning to'xtatilishi.

1945-yil 15-may – Yugoslaviyaning gitlerchilardan ozod qilinishi yakunlandi.

1945-yil 19-may – Chexoslovakiya prezidenti *E. Benesh* german va venger mulkdorlari, kollaboratsionistlarga tegishli zavod, yer mulklari, bank, sug'urta kompaniyalari va boshqa korxonalar hamda muassasalarni davlatga berish haqida dekret chiqardi.

1945-yil 24-may – AQSh prezidenti *Trumen* tomonidan Yaponiyaga qarshi atom bombasini jangovar ravishda qo'llash to'g'risidagi buyruqning imzolanishi.



1945-yil iyun - BMT ustavining qabul qilinishi.

1945-yil iyun – Dumbarton – Oks (Vashington) konferensiyasida BMT Nizomi xususida kiritilgan takliflar qabul qilindi.

1945-yil iyun iyul oxiri – Sharqiy Germaniyada asosiy siyosiy partiyalar - Germaniya Kommunistik partiyasi (GKP), Germaniya sotsial-demokratik partiyasi (GSDP), Xristian Demokratik Ittifoqi (XDI) va Germaniya liberal-demokratik partiyasi (GLDP) shakllandi.

1945-yil iyun oxiri – AQSh qo'shinlari Filippinni egallab, Okinavaga desant tushirish operatsiyasini boshladilar.

1945-yil 5-iyun – ittifoqchi qo'shinlar Germaniya qurolli kuchlarining II jahon urushidagi to'liq mag'lubiyati va so'zsiz taslim bo'lganligini tasdiqlovchi Germaniyaning mag'lubiyatiga uchrash to'g'risidagi deklaratsiyani qabul qildilar. Germaniya ustidan hukmronlikni SSSR, Buyuk Britaniya, AQSh hukumatlari va Fransiyaning muvaqqat hukumati qo'shinlari bosh qo'mondonlari zimmasiga yukladilar. Ularning harakatlarini muvofiqlashtirish maqsadida Germaniyada Nazorat kengashi tuzildi.

1945-yil 5-iyun – SSSR, AQSh, Angliya va Fransiya tomonidan Germaniyaning mag'lub bo'lgani to'g'risidagi deklaratsiyaning imzolanishi.

1945-yil 11-iyun – Kommunistik partiya (GKP) yagona tinch va demokratik Germaniyani tiklash borasidagi maqsad hamda vazifalari manifestini e'lon qildi.

1945-yil 16-iyun – AQShda atom bombasining sinov sifatida portlatilishi.

1945-yil 21-iyun – german va venger mulkdorlari, shuningdek, fashistlar bilan hamkorlik qilganlarning yer, o'rmon, buyumlarini bepul musodara qilish haqida dekret qabul qilindi. Uncha ko'p bo'lmagan to'lov evaziga dehqonlar 13 dekabrga qadar yer olishi mumkin edi. Dehqonlarga, shuningdek, Chexoslovakiya hududidan ko'chirib yuborilgan nemislar yerlari ham berildi. Potsdam konferensiyasi qaroriga ko'ra, Chexoslovakiyadan Germaniyaga 2,5 million nemislar ko'chirildi, yerlari esa chex va slovaklarga bo'lib berildi. Shu yo'l bilan 303 mingdan ziyod dehqon xo'jaligi 1,2 million gektar yerga ega bo'ldi.

1945-yil 26-iyun – San-Fransiskoda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'sis konferensiyasi BMT Nizomini qabul qildi. U BMTning 1-navbatdagi vazifasi tinchlik va xavfsizlikni saqlashdan iborat ekanini e'lon qildi. Bugungi kunda xalqaro huquqning eng muhim hujjatlaridan biri sanalgan BMT Nizomida turli ijtimoiy-siyosiy tizimdagi davlatlarning tinch-totuv kun kechirishi va hamkorlik qilishining asosiy tamoyillari belgilandi. BMT Nizomida qayd etilgan maqsadlardan biri "*irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, barchaning insoniy huquq va asosiy erkinliklariga hurmat*" ruhida xalqaro hamkorlik qilish edi.

1945-yil 26-iyun – San-Fransiskodagi konferensiyada BMT nizomining imzolanishi.

1945-yil iyul – britaniyalik saylovchilar *U. Cherchill* boshchiligidagi konservatorlarni rad etib, leyboristlar partiyasi uchun ovoz berishdi. Bosh vazir *U. Cherchill* o'rnini *Klement Ettl*i egalladi.

1945-yil 17-iyul-2-avgust – Berlin yaqinidagi Potsdamda, sobiq Gogensollernlar saroyida uch buyuk davlat boshliqlari – *F.Ruzvelt* o'limidan so'ng saylangan



G.Trumen (AQSh), I.Stalin (SSSR), U.Churchil (Buyuk Britaniya), keyinroq uning o'rnini egallagan K.Etti ishtirokida konferensiya o'tkazildi. Konferensiya "german militarizmi va natsizmi tiklanishining yoki qayta tashkil etilishining abadiy oldini olish uchun" barcha natsistik tashkilotlarni (denatsifikatsiya) va harbiy muassasalarni tugatish haqida qaror qabul qildi. Barcha natsist yo'l boshchilar va harbiy jinoyatchilar qamoqqa olinishi hamda jazolanishi lozim edi. Konferentsiya qarorlarida german iqtisodiyotini markazlashtirishdan xoli etish, german monopoliyalarini yo'qotish haqida so'z yuritildi. Kenigsberg shahri va uning yaqinidagi hudud Sovet Ittifoqiga berildi. Polshaning endilikda Oder va Neyse daryolari bo'ylab o'tadigan g'arbiy chegaralari belgilandi. Germaniyada qat'iy tartibot o'rnatilib, oliy hokimiyat SSSR, AQSh, Buyuk Britaniya va Fransiya qurolli kuchlari bosh qo'mondonlari tomonidan amalga oshirilishi shart edi. Shuningdek, Germaniyadan reparatsiyalar, german savdo floti, harbiy jinoyatchilar va Germaniya ittifoqchilari bilan sulh shartnomalari tuzish haqida ham qarorlar qabul qilindi.

1945-yil 17-iyul – Toshkentga urush tugaganidan keyin demobilizatsiya qilingan askarlarning 1-esheloni keldi.

1945-yil avgust 1946-yil mart – *Xo Shi Min* VDR Vaqtli hukumati raisi.

1945-yil avgust – AQSh mutlaqo kutilmaganda lend-liz bo'yicha mahsulotlar yetkazib berishni to'xtatishini ma'lum qildi. Endilikda Angliya AQSh yetkazib beradigan barcha tovarlar uchun naqd pul bilan hisoblashishi lozim edi, bunday pul mamlakatda topilmadi. Mamlakatning moliyaviy ishlari fojeaviy ahvolda keldi.

1945-yil avgust – Polsha dehqonlar partiyasi tashkil etildi.

1945-yil avgust – Yaponiyaning II jahon urushida tor-mor etilishi qo'zg'oloniga olib keldi. *Xo Shi Min* Vetnamning mustaqillik bayonotnomasi va Vetnam Demokratik Respublikasini e'lon qildi. Biroq fransuz musulmakachilari mamlakat janubida bir qator diniy va milliy guruhlar vakillaridan o'z homiyligidagi hukumatni tuzdi.

1945-yil avgust – Yugoslaviyada agrar islohot o'tkazildi. Eng ko'p, ya'ni 25-35 ga yer egaligi belgilandi. Hamma yirik yer mulklari, shu jumladan, monastir, cherkov, bank yerlari to'lovsiz davlat yoki xususiy dehqon qo'lga o'tdi. Hammasi bo'lib 1,566 ming gektar yer musodara qilindi. Ularning yarmidan ko'pini dehqonlar, 270 ming gektar yerni davlat oldi. Agrar islohot natijasida zamindorlar yer mulklari tugatildi.

1945-yil 2-avgust – Uch davlatning (Germaniya, Italiya va Yaponiya) Berlinga konferensiyasida Ruminiyaning BMTga qabul qilish to'g'risidagi iltimosi qondirildi.

1945-yil 5-avgust - Yaponiya imperatori *Xiroxito* Yaponiyaning so'zsiz taslim bo'lganligi haqida farmon chiqardi.

1945-yil 6-9-avgust – AQSh harbiy-havo kuchlari bombardimonchilari Xirosima va Nagasaki nomli yapon shaharlariga atom bombasi tashladi. Bu, bemisl qudratli yangi ommaviy qirg'in quroli edi. Xirosimada 90 ming, Nagasakida esa 75 ming tinch aholi halok bo'ldi. Ikkala shahar to'liq vayron etildi, 100 minglab kishilar radioaktiv nurlanishga duchor bo'ldi, nurlanish kasalligi ularni sekin va



azobli o'limga olib keldi. Bu AQShning urushdan so'nggi dunyoga yakkahokimlikka da'vosi edi. Mazkur voqea "sovuq urush" boshlanishiga turki bo'ldi.

1945-yil 6-avgust – AQSh samolyoti Xirosima shahriga atom bombasini tashladi. 200 ming aholi yashaydigan shahar vayronaga aylandi. 70 ming kishi halok bo'ldi.

1945-yil 6-avgust – SSSR hukumati Ruminiya bilan diplomatik aloqalarni tiklashga qaror qildi.

1945-yil 8-avgust – AQSh, Angliya va Fransiya hukumatlari tomonidan Yevropa mamlakatlarning bosh harbiy jinoyatchilarini sud qilish uchun Xalqaro harbiy tribunolni ta'sis etish to'g'risidagi bitimning imzolanishi.

1945-yil 8-avgust – Qrim konferensiyasi qaroriga muvofiq, Sovet Ittifoqi Yaponiyaga urush e'lon qildi.

1945-yil 9-avgust – Nagasaki shahriga 2-atom bombasi tashlandi.

1945-yil 9-avgust – sovet qo'shinlari Kvantun armiyasiga qarshi keng miqyosli harbiy harakatlarni boshladi.

1945-yil 9-avgust – SSSRning Yaponiyaga qarshi urushga kirishi.

1945-yil 10-avgust – Mongoliyaning Yaponiyaga urush e'lon qilishi.

1945-yil 14-avgust – Yaponiya taslim bo'ldi. Yaponiya hukumati faqat bitta shartni – imperator hokimiyatini yapon millatining birligi va yapon xalqi ijodkor ruhining tiklanishiga bo'lgan umid ramzi sifatida saqlab qolishini so'radi. Ittifoqchilar so'zsiz taslim bo'lishini talab qilishda davom etishsada, AQSh prezidenti *Trumen* shartni qabul qildi.

1945-yil 17-avgust – Indoneziyaning Respublika deb e'lon qilinishi.

1945-yil 21-avgust – AQShning lend-liz bo'yicha qurol-yarog' yetkazib berishni to'xtatishi.

1945-yil 24-avgust – Vetnam imperatori Bao Dayning taxtdan voz kechishi.

1945-yil 1-sentabr – Potsdam konferensiyasida uch buyuk davlat (SSSR, Buyuk Britaniya, AQSh) boshliqlari asosiy harbiy jinoyatchilarni "tezkor va adolatli sud"ga topshirishga qaror qilishdi va ayblanuvchilarning 1-ro'yxati e'lon qilindi.

1945-yil 2-sentabr – Vetnamning Demokratik respublika deb e'lon qilinishi.

1945-yil 2-sentabr – Yaponiya vakillari tomonidan Tokioda yapon qurolli kuchlarining so'zsiz taslim bo'lishi to'g'risidagi hujjatning imzolanishi.

1945-yil 2-sentabr - Yaponiyaning II jahon urushida so'zsiz taslim bo'lganligi haqidagi aktning imzolanishi.

1945-yil 2-sentabr – Yaponiyaning tor-mor etilishi Shimoliy Koreyaning sovet, janubining amerikaliklar qo'shinlari tomonidan bosib olinishiga olib keldi. Ikki qo'shinni 38-parallel ajratib turdi, u bo'lajak ikki koreys davlati chegarasi bo'ldi.

1945-yil 2-sentabr - "Missurni" linkorida Yaponiya vakillari Yaponiyaning taslim bo'lishi to'g'risidagi hujjatni imzoladilar. II jahon urushi german fashizmi va yapon militarizmining to'liq tor-mor keltirilishi bilan tugadi.

1945-yil 3-sentabr – II jahon urushining tugashi.

1945-yil 3-sentabr – Manjuriya va Koreyaning yapon bosqinidan ozod qilinishi.

1945-yil 4-sentabr – Yaponiyaning II jahon urushidagi mag'lubiyati hamda



Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombalari tashlanishi yapon qo'shinlarining Indoneziyada kapitulyatsiya (taslim) qilinishiga olib keldi. Bu sharoitda Milliy partiya raisi *Sukarno* mamlakat mustaqilligini e'lon qildi. U mustaqillikning besh tamoyili: millatparvarlik, baynalmilallik, demokratiya, ijtimoiy adolat, xudoga e'tiqodni olg'a surdi. Sukarno boshchiligidagi birinchi hukumat tuzildi, mamlakatning barcha tutnanlariga hukumatning dastlabki vakillari jo'natildi va yangi hokimiyat joylarda xalq tomonidan tan olindi.

1945-yil 8-sentabr – AQSh qo'shinlarining Janubiy Koreyaga tushirilishi.

1945-yil 21-sentabr – Fransiya davlati muvaqqat rejim davri asosiy voqea mamlakat yangi konstitutsiyasi qabul qilinishi kerak bo'lgan Ta'sis majlisiga saylovlar bo'ldi. Saylov bo'lib o'tdi va unda Fransiya KP g'olib chiqdi. FKP 5 mln. ovoz (umumiy ovozning 26 % i) olib, jami 545 ta deputatlik mandatidan 152 tasiga ega bo'ldi. 2-o'rinni 142 ta mandate bilan sotsialistlar egalladi, 3-o'ringa esa 141 ta mandatga esa Xalq harakati vakillari chiqishdi. Sotsialistlar va kommunistlar Ta'sis majlisida eng ko'pchilikni (294) tashkil etganda mamlakatda yangi siyosiy sharoit yuzaga kelardi. De Goll prem'er-ministr lavozimini egalladi. Hukumat tarkibiga kommunistlar, sotsialistlar va Xalq respublikasi harakati vakillari kirdi.

1945-yil 23-sentabr – Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya vakillarining Myunxendagi konferensiyasida Chexoslovakiyani bo'lib tashlash to'g'risidagi bitimning imzolanishi.

1945-yil 29-sentabr – Indoneziyaga Angliya qo'shinlarining tushirilishi.

1945-yil 24-oktabr – BMT Nizomi kuchga kirdi. Butun jahonda bu kun Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilgan kun sifatida nishonlanadi.

1945-yil 24-oktabr – BMT Nizomining kuchga kirishi. Bu kun Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil topgan kun sifatida nishonlanadi.

1945-yil 24-oktabr - BMT Nizomining ushbu tashkilot ko'pchilik a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi.

1945-yil 24-oktabr – Chexoslovakiya prezidenti *E. Benesh* yirik korxonalar, banklar va xususiy sug'urta kompaniyalarini natsionalizatsiya qilish haqidagi dekretga qo'l qo'yadi. Korxonalarda ishchi nazoratini amalga oshiruvchi ishchi kengashlari tashkil etildi.

1945-yil noyabr – *G. Dimitrov* Bolgariyaga qaytib keldi va Xalq majlisi raisligiga saylandi.

1945-yil noyabr – katolik klerikallar doirasiga tayanuvchi Mehnat partiyasi tuzildi.

1945-yil 16-noyabr – YUNESKO tashkiloti tuzildi.

1945-yil 18-noyabr – Bolgariyada 1-demokratik saylovlar o'tkazilib, unda Vatan fronti g'olib chiqdi. Xalq kengashining raisi qilib *Vasil Kolarov* saylandi. Bolgariya yangi taraqqiyot yo'liga qadam qo'ydi.

1945-yil 18-noyabr – Bolgariya davlati saylovlardan so'ng Xalq majlisi harbiy jinoyatchilar mulkini natsionalizatsiya qildi. Natijada 2300 ta sanoat korxonalari davlat ixtiyoriga o'tdi.

1945-yil 20-noyabr-1946-yil 1-oktabr – Fashizm o'zining jinoyatkorona yurishini boshlagan Nyurenbergda Xalqaro tribunal natsist harbiy jinoyatchilarning 1-guruhini sud qildi. Javobgarlikka tortilganlar orasida *G. Gering*, *V. Keytel*, *E.*



Kaltenbrunner, I. Ribbentrop, A. Yodl, A. Shpeyer va boshqalar bor edi. 12 kishi o'lim jazosiga hukm etilib, qatl qilindi (o'zini zaharlagan G. Geringdan tashqari), 7 kishi uzoq muddatli yoki umrbod qamoq jazosiga hukm qilindi. Ulardan biri G. Gess hayotining oxirigacha turma kamerasida qolib, shu yerda umrini tugatdi.

1945-yil 20-noyabr – bosh nemis harbiy jinoyatchilari ustidan Nyurnberg jarayonining boshlanishi.

1945-yil 29-noyabr – Ta'sis skupshinasiga saylovlar kommunistlar nazorati ostida o'tdi. Ta'sis skupshinasi monarxiyani bekor qildi va Yugoslaviyani Federativ Xalq Respublikasi (YFXR) deb e'lon qildi.

1945-yil dekabr – IKP jamiyatdagi barcha qatlamlar ittifoqiga asoslangan «taraqqiyparvar demokratiyani» o'rnatish dasturini ilgari surdi. Kommunistlar chuqur demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, respublika tuzumini e'lon qilish, Ta'sis majlisini chaqirish va yangi Konstitutsiyani qabul qilish zarur deb hisoblashdi. Ular sanoat va moliyaviy monopoliyalarni natsionalizatsiya qilish, ishlab chiqarish ustidan mehnatkashlar nazoratini o'rnatish, yirik yer mulklarini tugatish va shu tariqa bo'shagan yerlarni yersiz dehqonlarga berishni talab qildilar.

1945-yil 2-dekabr – Albaniyada Ta'sis majlisiga saylovlar o'tkazildi. Saylovlarda saylovchilarning 90 % i qatnashib, ularning 93 % i Milliy-demokratik front uchun ovoz berdilar.

1945-yil bahor – Berlinning to'rtidan bir qismi vayron qilindi, 1,5 mln. aholi boshpanasiz qoldi. Fashist qo'shinlarining transport va ta'minot tizimi deyarli yakson qilindi va ishdan chiqarildi.

1945-yil yoz – demokratik kuchlar Eron Ozarbayjoni va Shimohy Kurdistonda radikal o'zgarishlar o'tkaza boshladi. Biroq ularning “*Eron inqilobi*” sifatida ma'lum bo'lgan xattl harakatlariga zarba berildi. Eronda tuzilgan xalq partiyasi (Tude) tormor etildi. Sovet-Eron shartnomasi asosida kiritilgan sovet qo'shinlari Erondan olib chiqib ketildi.

1945-yil kuz – Vengriyada parlamentga (Milliy majlis) saylovlar bolib o'tdi. Saylovlar shuni ko'rsatdiki, aholining ko'pchiligi Mayda qishloq xo'jaligi egalari partiyasini yoqladi. Ularga saylovchilarning 57 foizi ovoz berdi, ularning asosiy raqiblari bolgan kommunistlar atigi 16 foiz ovoz oldi.

1945-yil-1991-yillar – II jahon urushi tugashidan to Sovet Ittifoqi parchalanganigacha qadar kechgan davrni qamraydi. Butun jahonda jamiyatni insonparvarlashtirish uchun kurash, mustamlakalarni ozod qilish, irqchilikka barham berish, totalitar va mustamlaka tuzumlarini tugatish sovuq urush davrining asosiy mazmuniga aylandi. U faqat tashqi jihatdan 2 buyuk davlat yoki 2 tizimning mojarosi tarzida tasavvur etilsa ham, aslida aksilinsoniy tizimlar va tuzilmalarni tugatish uchun umumjahon kurashi edi. Bu sovuq 2-bosqich urush davri edi.

1946-1947-yillar – O'zbekistonda Polvontosh va Janubiy Olamushuk neft konlari ochildi va o'zlashtirildi. Farg'onada neftni qayta ishlash zavodi ishga tushdi. Lekin bu va respublikaning boshqa og'ir sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar Markazga tashib ketilar edi. O'zbek xalqi bu mahsulotlar – paxta tolasi, po'lat, neft va boshqalardan juda kam miqdorda foydalanardi.

1946-1948-yillar – qatag'onlar uchun Markazning ayrim san'at va badiiy asarlarni



sinfliik prinsipi talabidan kelib chiqib tanqid qilgan qarorlari g'oyaviy asos bo'lib xizmat qildi. Shu vaqtdan e'tiboran adabiyot va san'atning ijodiy, demokratik taraqqiyoti uzoq yillargacha susayib qoldi, joylarda o'zgacha fikrlashga barham berila boshlandi.

1946-1949-yillar – *Georgiy Dimitrov* Bolgariya Vazirlar Kengashi raisi.

1946-1950 -yillar – Qoraqalpog'istonda 42000 ga yaqin yangi yerlar o'zlashtirildi.

1946-1950-yillar – 150 ta sanoat korxonasi ishga tushirildi. 1-Oqqovoq, 1- va 2-Bo'zsvu gidroelektrostansiyalari qurildi.

1946-1950-yillar – O'zbekistonda paxta tozalash mashinalarini ishlab chiqarish 363 tadan 1250 taga ko'paydi.

1946-1950-yillar – *Vasil Kolarov* Bolgariyada Buyuk Xalq majlisi raisi.

1946-1951-yillar – Iordaniyada shoh *Abdulloh* hukmronlik qilgan davri.

1946-1953-yillar - sovet adabiyotida yuksak badiiy asarlar yuzaga keldi. Jumladan, *A.Fadeyevning* “*Yosh gvardiya*” (1945), *B.Polevoyning* “*Chin inson qissasi*” (1946), *V.Kaverinning* “*Ikki kapitan*” (1944), “*Hamrohlar*” (1946), *V.Ajayevning* “*Moskvadan olisda*” (1946) asarlari o'tkir syujetli psixologik holatlarni, ijtimoiy-axloqiy nizolarni aks ettiradi. To'g'ri, bu asarlarga “partiya rahbarligi”, “*Stalinga sodiqlik*” aks ettirilgan mazmunidagi baholar berilgan edi. Ammo ulardagi asosiy g'oya - chin insonlar hayoti, xarakterini ko'rsatadi edi. Urushdan so'nggi ilk davrlarda tinchlik, muhabbat va insoniylik sovet adabiyotining eng asosiy mavzulari bo'lib qoldi. *Em.Kazakevichning* “*Oderda bahor*”, *V.Katayevning* “*Polk o'g'li*”, *L.Sobolevaning* “*Dengiz qalbi*”, “*Yashil nur*” kabi asarlari ushbu davr adabiyotining yorqin namunalari bo'lib qoldi.

1946-1954-yillar – Xo Shi Min boshchiligida boshlangan Fransiya Vetnam urush davri.

1946-1955-yillar – O'zbekistonda 17,5 mln m² turar joy qurildi. Shu jumladan davlat barpo etgan uylar faqat 2,5 mln m² ni tashkil qilardi.

1946-1957-yillar – Tailandni amalda marshal *Pibunsongran* boshqardi. U Yaponiya okkupatsiyasi davrida yaponlar bilan urushdan keyin esa AQSh bilan hamkorlik qilgan.

1946-1958-yillar - Fransiyada 23 ta hukumat almashdi.

1946-1958-yillar – Fransiyada 4-respublika davri.

1946-1963-yillar – *Iosif Broz Tito* YUFXR hukumati raisi.

1946-1966-yillar – *Konrad Adenauer* XDI partiyasini boshqardi.

1946-1970-yillar – O'zbek xalqining fidokorona mehnati tufayli aholining turar joy va maishiy sharoitlari, sog'ligi muhofazasini yaxshilash borasida ayrim yutuqlarga erishildi.

1946-yil - 1-haqiqiy kompyuter (elektron) Pensilvaniya universiteti olimlari *J.Moshi* va *J.Ekkert* tomonidan yaratildi. Biroq, u nisbatan kam samarali ulkan mashina edi. Tranzistorlarning kashf etilishi bilan ishlar butunlay o'zgardi, chunki ular kompyuterlarni kichik apparatlarga aylantirib qo'ydi.

1946-yil – Albaniyadagi agrar islohot davrida zamindor va quloqlar yeri tortib olinib, dehqonlarga berildi. Agrar islohot zamindorlarning iqtisodiy negiziga putur yetkazish va reaksiyon kuchlar ta'sirini kuchsizlantirdi.



- 1946-yil** - B. Polevoyning "*Chin inson qissasi*" asari nashrdan chiqdi.
- 1946-yil** - Chexoslovakiya gaulayteri "*xolokast*" maxsus dasturining ijrochilardan biri *Karl Frank* Nyurnberg sudining hukmiga binoan qatl qilindi. Sudda u shunday deydi: "*Oradan minglab yillar o'tadi, biroq ular Germaniyaning bu aybini yuva olmaydi*".
- 1946-yil** - fransuz Qarshilik harakatida ishtirok etgani va ishchilar harakati bilan aloqasi tufayli sotsialistik partiya o'z positsiyalarini mustahkamladi. "Tamoyillar bayonotnomasi"da u mavjud tuzumni tugatish haqidagi o'z niyatini e'lon qildi.
- 1946-yil** - G. *Dimitrov* Bolgariya Vazirlar Kengashi raisi lavozimini egalladi.
- 1946-yil** - General *Makartur* tashabbusi bilan Yaponiya parlamenti agrar islohotlar to'g'risida qonun qabul qildi. Unga ko'ra hukumat pomehchiklardan yer sotib olib, uni dehqonlarga sota boshladi. Yer islohoti dehqonlar foydasiga yerni qayta taqsimlashga olib keldi. Yagona pul solig'i asosiy soliq bo'lib qoldi. Endilikda dehqonlar o'z'lari yetishtirgan mahsulotga o'z bilganicha xo'jayinlik qilishi mumkin bo'lib qoldi. Agrar islohot Yaponiyada inqilob yasadi. Qishloq xo'jaligida jadal sur'atlarda kimyoviy o'g'itlar, gidroponiklar, shuningdek, kichik dala-yerlarga mo'ljallangan minitraktor hamda boshqa texnikalardan foydalana boshlandi.
- 1946-yil** - germaniyalik shoir *I.Bexer* "*Vatanga qaytish*" kitobini nashrdan chiqardi.
- 1946-yil** - germaniyalik yozuvchi *E.Remark* "*G'alaba arki*" asarini nashrdan chiqaradi.
- 1946-yil** - Gretsiyada qirollik hokimiyatining tasdiqlanishi fuqarolar urushining yangi bosqichidan darak berdi.
- 1946-yil** - Gretsiyadagi plebissit (referendum) natijasida mamlakatda qirol *Georg II* boshchiligidagi monarxiya tizimi tasdiqlandi.
- 1946-yil** - *Ion Antoneskuni* sud harbiy jinoyati uchun o'lim jazosiga mahkum etdi.
- 1946-yil** - Italiya kommunistik partiyasi va Italiya sotsialistik partiyasi o'rtasida birgalikda harakat qilish haqidagi bitim imzolandi.
- 1946-yil** - Markazdan paxta ekish maydoni Toshkent viloyati uchun 86 ming gektar, butun Respublika bo'yicha esa 779 ming gektar qilib belgilab berildi.
- 1946-yil** - O'zbek metallurgiya zavodida yangi prokat sexi ishga tushdi. Zavod sanoat korxonalarining metal chiqindilarini, temir-tersaklarni qayta ishlab, sifatli po'lat yetkazib bera boshladi.
- 1946-yil** - O'zbekistondagi 218 ming gektar sug'oriladigan maydon paxta ekish uchun bo'shatib berildi.
- 1946-yil** - *Uilyam Klinton* dunyoga keladi.
- 1946-yil** - *V. Ajayevning* "*Moskvadan olisda*" asari nashrdan chiqdi.
- 1946-yil** - *V. Kaverinning* "*Hamrohlar*" asari nashrdan chiqdi.
- 1946-yil** - *Xo Shi Min* VDR prezidenti, ayni paytda bosh vaziri.
- 1946-yil** - yadro quroli "sovuq urush" vositasi bo'ldi. AQSh uni ishlab chiqarish va bu sohadagi tadqiqotlar ustidan xalqaro nazorat o'rnatish rejasini ishlab chiqdi. Bu reja BMTga taqdim etildi va u istalgan mamlakatda bunday tadqiqotlarni tekshirish huquqini ko'zda tutdi.
- 1946-yil** - Yaponiyadagi parlament saylovlarida liberal partiya g'alaba qozondi.



1946-yil yanvar – *de Gol*ni Fransiya hukumatining taqsimlanishi qoniqtirmadi. Shu bois bo'lib o'tgan Ta'sis majlisida deputatlar harbiy xarajatlarni 20 % ga qisqartirishganda orada nizo chiqdi va general iste'foga chiqdi. Bunday xattli harakat bilan u o'zining shaxsini bildirib qo'ymoqchi bo'ldi. Biroq hech kim *de Gol*dan hokimiyatga qaytib kelishini so'ramadi.

1946-yil yanvar – Polshada xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari natsionalizatsiya qilindi. Sanoatda band bo'lganlarning 75 foizi ishlaydigan 11 ming korxonada davlat mulkchiligiga o'tdi. Parlamentda juda ko'pchilikni tashkil etgan PIP S. *Mikolaychik* va uning tarafdorlari qarshiligini ancha oson yengdi va o'z siyosatini qadam-qadam amalga oshirdi.

1946-yil 10-yanvar - Londonda BMT Bosh Assambleyasining 1-sessiyasi ochildi.

1946-yil 11-yanvar – Albaniyaning respublika deb e'lon qilinishi.

1946-yil 11-yanvar – Ta'sis majlisi Tiranada Albaniyani Xalq respublikasi deb e'lon qildi.

1946-yil 31-yanvar – Skupshina yangi Konstitutsiyani tasdiqladi. Yugoslaviya olti teng huquqli respublika Serbiya, Xorvatiya, Sloveniya, Bosniya va Gersogovina, Makedoniya, Chernogoriyani birlashtiruvchi federatsiya deb e'lon qilindi. Serbiya tarkibida muxtor o'lka Voyevodina va muxtor viloyat Kosovo-Motoxiya tashkil etildi.

1946-yil fevral – Ruminiyaning yangi hukumatini AQSh va Buyuk Britaniya ham tan oldi.

1946-yil fevral – Yugoslaviyada iqtisodiyotni rejali rivojlantirish tatbiq etila boshladi. Ittifoq reja komissiyasi tashkil etildi, yillik va besh yillik rejalarga tayyorgarlik ko'rildi.

1946-yil 1-fevral – Vengriya respublika deb e'lon qilindi. Biroq mamlakatda sovet qo'shinlarining mavjudligi MQXEP o'z muvaffaqiyatini mustahkamlashiga imkon bermadi.

1946-yil 5-fevral – Ittifoq hukumati “1946-1953-yillar davrida O'zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish rejasi va tadbirlari to'g'risida” qaror qabul qildi. Qarorda O'zbekistonda davlatga paxta sotishni ikki baravardan ortiq ko'paytirish rejalashtirildi.

1946-yil 19-fevral – Bombaydagi “Talvar” kreysida g'alayon boshlandi. Dengizchilar harbiy dengiz bazasini egallab oldi, hind soldatlari ularga qarshi o't ochishdan bosh tortdi, qo'zg'olonchilarni harbiy uchuvchilar qo'llab-quvvatladilar. Bombay bir kechada barrikadalarga to'lib ketdi, ommaviy namoyish va ish tashlash boshlandi. Imperiyada milliy-ozodlik harakati kuchayib bordi. Kurash oldida Hindiston borar edi. Harbiy flot dengizchilarining g'alayoni mazkur kurash kulminatsiyasi bo'ldi.

1946-yil mart – Bolgariyada agrar islohot o'tkazilib, unga ko'ra haydaladigan shaxsiy yer mulkini 20 gektardan oshirish cheklandi. Barcha ortiqcha yer davlat tomonidan oz miqdordagi to'lov hisobiga olib qo'yildi. Bu yerlar umuman yeri yo'q va kam yerga ega dehqonlar o'rtasida taqsimlandi.

1946-yil 5-mart – rasman “sovuq urush”ning boshlanishi sobiq Angliya bosh vaziri *U. Cherchill*ning Fultondagi amerika universitetida so'zlagan nutqida e'lon qilindi. *U. Cherchill* “sharqiy kommunizm” bilan kurash uchun ingliz-amerika harbiy ittifoqini tashkil etishga chaqirdi. Cherchill urushdan so'ng totalitarizm ta'siriga



tushib qolgan Sharqiy Yevropani erkin demokratik G'arbdan ajratib turuvchi "temir parda" haqida so'zladi. SSSR bilan natsizmga qarshi birlashgan Yevropa endi SSSRning o'ziga qarshi birlashdi.

1946-yil aprel – GKP va GSDP Germaniya Sotsialistik Birlashgan partiyasi (GSBP) nomli yagona partiyaga birlashdi. Partiyaning asosiy maqsadi Germaniyada sotsializm qurish edi.

1946-yil 21-22-aprel - GKP va GSDP GSBPga birlashishi.

1946-yil 27-aprel - Tokioda II jahon urushi yillaridagi asosiy jinoyatchilar ustidan sud jarayoni boshlandi.

1946-yil may – *Ion Antonesku* otib tashlandi.

1946-yil may – Ruminiya hokimiyatini general *Sanatesku* egalladi. Unga milliy demokratik blokni tashkil qilgan to'rtta partiya rahbarlari kirdilar.

1946-yil 26-may – saylovlari ChKPga muvaffaqiyat keltirdi. *K.Gotvald* boshchiligidagi koalitsion hukumat tuzildi.

1946-yil 2-iyun - Italiyaning respublika deb e'lon qilinishi.

1946-yil 2-iyun – Italiyada bir vaqtning o'zida referendum va Ta'sis majlisiga saylovlar bo'lib o'tdi. Referendumda 12,7 million kishi respublika uchun, 10,7 millioni - monarxiya uchun ovoz berdi. Italiya respublika deb e'lon qilindi, biroq monarxiya o'rnatilishini qo'llab-quvvatlovchilarning ko'p sonliligi mamlakatda konservativ kayfiyatli unsurlar katta kuch ekanligidan guvohlik berardi. Buni Ta'sis majlisiga saylovlar ham ko'rsatdi: XDP ko'pchilik o'rinni (8,1 million ovoz) oldi, 4,7 million – sotsialistlar va 4,3 million – kommunistlarga tegdi. Uchala partiya tuzgan hukumatga *Alchido de Gasperi* boshchilik qildi.

1946-yil iyul - Xitoyda fuqarolar urushining boshlanishi.

1946-yil 15-25-iyul - Bikin attolosida atom bombasi sinovlarining o'tkazilishi.

1946-yil avgust – Janubiy Afrikaning tub aholisi mustamlakachilarga qarshi 1-to'qnashuvi Randa konlarida ro'y berdi. Bir hafta davomida 100 ming konchi ish haqi borasidagi kamsitilish yo'q qilinishini talab qilib namoyish o'tkazdilar. Chunki afrikalik ishchi yevropalik ishchiga qaraganda bir xil mehnat uchun 50 baravar kam haq olar edi. Ishchilar namoyishi o'qqa tutildi. Yirik shaharlarda afrikaliklar tintuv qilindi. Kompartiya va kasaba uyushmalar rahbarlari hibsga olindi. Kurashni esa to'xtatib bo'lmadi.

1946-yil 14-avgust - partiya organlarining "*Zvezda*" va "*Leningrad*" jurnallari to'g'risida"gi qarori sovet madaniyati rivojining partiyaviy-ma'muriy qonunlarini belgilab berdi. Unda "*Zvezda*" va "*Leningrad*" jurnallari "*sovet adabiyotiga yo'l*" asarlarni chop etganlikda ayblanadi. *M.Zoshenko* asarlari "*tuturuqsiz va tuhma*" dan iborat, *A.Axmatova* she'rlari esa "*bema'ni va siyosatga qarshi*" deb baholandi.

1946-yil 26-avgust - "*Dramatik janrlar repertuari va uni yaxshilash to'g'risida*"gi qarori sovet madaniyati rivojining partiyaviy-ma'muriy qonunlarini belgilab berdi. Unda dramatik teatrlarni ayovsiz tanqid qilishga qaratilgan edi.

1946-yil 15-sentabr – Bolgariya Xalq Respublikasi deb e'lon qilindi. Yangi hukumatni *G.Dimitrov* boshqardi. Hukumatning pul islohoti va bir yo'la olinadigan soliq to'g'risidagi Qonuni tufayli yirik mulkdorlarning pul jamg'armalari olib qo'yildi va davlat ixtiyoriga o'tkazildi.



1946-yil oktabr – Gretsiya kommunistik partiyasi fashizmga qarshi kurashgan sobiq partisan otryadlaridan nisbatan kuchli Gretsiya Demokratik armiyasini (EAM) tuzishga muvaffaq bo'ldi.

1946-yil 13-oktabr - Fransiyada 4-respublika e'lon qilinishi.

1946-yil noyabr – rumin parlamentiga umumiy va yashirin saylov huquqi asosida ilk saylovlar bo'ldi. Mamlakat demokratik kuchlari Demokratik partiyalar blokiga (DPB) birlashdi va 80 % ovoz olib, g'alaba qozondi. Hukumatni yana *Petru Groza* boshqardi.

1946-yil 22-noyabr - Bolgariyada *G.Dimitrov* boshchiligidagi Vatan fronti hukumatining tashkil topishi.

1946-yil dekabr – AQSh va Angliya o'z okkupatsiya zonalarini birlashtirdi. Bu paytda Nazorat kengashi amalda hech bir kuchga ega bo'lmay qoldi va Germaniyaning 2 ga bo'lingan hududiy qismlari turli yo'llar bilan rivojlana boshladi.

1946-yil dekabr – fransuz mustamlaka hukumati Vetnamni *Xo Shi Min* rahbarligida respublika deb e'lon qilgan vatanparvar kuchlarga qarshi urush boshlandi.

1946-yil dekabr – Vengriyada “demokratik davlat tuzumini ag'darish maqsadida fitna” aybi bo'yicha MQXEP yolboshchilarining katta guruhi qamoqqa olindi. Partiya rahbarligiga kommunistlarga moyil kayfiyatli siyosiy arboblardan tayinlandi.

1946-yil 2-dekabr - Germaniyaning Bizoniya okkupatsiya qilingan zonalarini 1947-yil 1-yanvardan qo'shib yuborish haqidagi ingliz-amerika bitimi.

1946-yil 11-dekabr - BMTning bolalarga yordam berish jamg'armasi (UNISEF) tashkil topdi.

1946-yil 19-dekabr – fransuz mustamlaka hokimiyati VDRga qarshi urush boshladi. *Xo Shi Min* da'vati bilan umumxalq ozodlik urushi boshlandi. Fransuz mustamlakachilari Saygonda o'z hukumatini tuzadi va mamlakat hukmdori etib *Bao Day* e'lon qilindi.

1946-yil bahor – Kommunistik partiya (GKP) o'z tuzilmasini tikladi.

1946-yil yoz – Gomindan armiyasi XKP nazoratidagi Xitoy rayonlarida hujum operatsiyalarini boshladi. Yangi fuqarolik urushi boshlandi. Ular ma'lum bir hududlarni egallashga muvaffaq bo'ldi. Biroq Xitoy Xalq ozodlik armiyasi (XXOA) yirik mag'litbiyatni chetlab asosiy kuchlarini saqlab qola oldi.

1946-yil yoz – Janubiy Vetnamda “muxtor respublika”, shuningdek, tog'li xalqlar muxtoriyati e'lon qilindi.

1946-yilgacha – 600 ming gektarga yaqin yangi yerlar ishga tushirilgan.

1947 -yil – Chorjo'y-Qo'ng'iro't temir yo'li liniyasini qurish boshlandi. Qurilishda 100000 kishi mehnat qildi.

1947-1948-yillar – urushidagi g'alabadan so'ng Isroil aksiyalari jahon siyosiy maydonida keskin oshib ketdi. Jahon yahudiy tashkilotlaridan, ayniqsa AQShdan katta moliyaviy yordamlar keldi. Isroil iqtisodiyotining rivojlanishida 1 mlrd dollarni tashkil etgan german reparatsiyalari (tovonlari) katta ahamiyatga ega bo'ldi. AQSh sanoatning asosiy tarmog'i – brilliant ishlab chiqarishga yordam berdi. AQSh Janubiy Afrikadan Isroilga mayda olmos parchalari yetkazib berdi va Isroil brilliantlar sotiladigan asosiy bozorga aylandi.



1947-1950-yillar – O'zbekistonda paxta terish mashinalarini ishlab chiqarish 10 dan 4680 taga ortdi. Paxtachilikni rivojlantirish maqsadida bir qancha mashinasozlik zavodlari (“*Çæð ñeëüi æø*”, “*Çææeëñeëüi æø*”, “*İ oäü, ì î èë*”) harbiy qurol-yarog' o'rniga paxta terish, paxta tozalash mashinalari, traktorlar uchun ehtiyot qismlar, tirkama uskunalar ishlab chiqarishga moslashtirildi. Chirchiq elektr kimyo kombinati paxta dalalari uchun ancha qisqa muddat ichida harbiy buyurtmalarni bajarishdan mineral o'g'itlarni ishlab chiqarishga o'tkazildi.

1947-1951-yillar – Yugoslaviyada birinchi besh yillik reja amalga oshirildi. Uning asosiy vazifalari Yugoslaviyani industrilash va elektrlashtirish, qoloq agrar davlatdan industrial-agrar mamlakatga aylantirish edi.

1947-1952-yillar – *Boleslav Berut* Polsha prezidenti va PXR Davlat kengashi raisi.

1947-1953-yillar – *Vinsent Oriol* Fransiya prezidenti.

1947-1954-yillar – Fransiyada modernizatsiya va rekonstruksiyalashning 1-rejasi qabul qilindi.

1947-1956-yillar – Portugaliyada sanoat ishlab chiqarishi 10 yil davomida atigi 42 foizga o'sdi. Bu Yevropadagi eng past ko'rsatkich sanalardi. Mamlakat qishloq aholisining 70 foizi yerga ega bo'lmay, och-nahor kun ko'rib yashadi.

1947-1964-yillar – *Javaharlal Neru* Hindiston respublikasi Bosh vaziri va tashqi ishlar vaziri bo'lgan.

1947-1964-yillar – *Pavelning* qirolligi davri.

1947-1973-yillar – *Pibunsongram* Tailandda hukm surgan harbiy diktatura rejimi tashkilotchisi.

1947-yil – “*G'arbgæ sig'inish*” deb ta'riflangan “kosmopolitizm” bilan keng va uzoq davom etgan kurash kompaniyasi boshlandi. G'arb madaniyati qattiq tanqid qilinib sovetlarning fan, texnika va tarixdagi ustunligi qayta-qayta ta'kidlanar edi. Chet mamlakatlar bilan imkon qadar kam aloqa qilishga undardi. G'arb radiostansiyalari ovozi “bo'g'ib” qo'yildi. Bu xuddi 1937-1938-yillardagi kabi yangi “jodugarni ovlash” edi. Yangidan qama-qama, ishdan bo'shatishlar davom etaverdi. Shunday kompaniya orqali totalitar tuzum Sovet Ittifoqida mustahkam g'oyaviy va siyosiy poydevor qurish, insonlarning barcha turmush sohalari ustidan nazorat o'rnatishga urinar edi.

1947-yil – Angliya Falastinni yahudiylar va arablar yashaydigan ikki qismga bo'lishni taklif etdi. Arablar bu rejani rad qildi, yahudiylar uni o'z davlatchiliklariga bo'lgan huquqlarini tan olish sifatida qabul qildi.

1947-yil – *Bernard Shou* 91 yoshida “*Bayanthing millionlari*” nomli katta pyesasini yozib tugatdi va bu pyesa London teatrlarida ikki oy davomida uzluksiz qo'yildi.

1947-yil – *Bin'yamin Netaniyaxu* dunyoga keldi.

1947-yil – BMT aralashuvi natijasida Falastindagi urush to'xtatildi.

1947-yil – butun jahon sanoat ishlab chiqarishning 54 % i AQSh hisobiga to'g'ri keldi. Dengiz flotining yoki urush davrida 5 baravar oshdi va eksport hajmi ham 5 marta ko'paydi. AQSh dunyodagi 1-raqamli dengiz hukmroniga aylandi.

1947-yil – Ekzistensializmni ommaboplashtirishda fransuz adibi *Albert Kamyu* asarlarining ahamiyati katta bo'ldi. U bu oqimning AQShda keng tarqalishiga



imkon yaratdi. *Albert Kamyu* “*O’la!*” romanida o’latning shaharga yopirilib kelishining dahshatli manzarasi tasvirlanadi. Hayotning absurdligi begunoh odamlarning halok bo’layotgani bilan ta’kidlanadi. Biroq, oxir-oqibatda ular yovuzlikka qarshi kurash boshlashadi.

1947-yil - fransuz yozuvchisi *Jak Laffiting* “*Tiriklar kurashadi*” kitoblari nashrdan chiqdi.

1947-yil - germaniyalik shoir *Bertold Brext* GDRga nemis teatri va adabiyotini davolash va qayta tiklash vazifasi bilan keldi. U “Berlin ansambli” teatr truppasini tuzdi, unga Ispaniyadagi urush va gitlerchilar konslagerlarini ko’rgan antifashist madaniyat arboblari kirdi. Ular nemis va xorijiy klassika, A.Ostrovskiy, M.Gorkiy, B.Brext, I.Bexer pyesalarini qo’yishdi. Teatraing chet el gastrollaridagi ulkan muvaffaqiyati uni eng yaxshi zamonaviy teatrlar safiga qo’shdi.

1947-yil - germaniyalik yozuvchi *German Kazak* “*Daryo ortidagi shahar*” asarini nashrdan chiqaradi.

1947-yil - germaniyalik yozuvchi *Leongrad Frank* “*Isoning o’quvchilari*” romanini nashrdan chiqaradi.

1947-yil - Chorjo’y-Qo’ng’irot temir yo’li qurildi.

1947-yil – Hindistonda hindlar hamda musulmonlar o’rtasida qonli to’qnashuvlar bo’ldi.

1947-yil – Kashmir muammosi Hindistonning ikkiga bo’linishi oqibatida har ikki tomon Kashmir masalasiga nisbatan o’z noroziligini bildirdi. Pokiston bu hududda musulmon aholisi istiqomat qilishini sabab qilib ko’rsatsa, Hindiston tomoni bu yerni qadimdan induizm maxaraji boshqarishi va Kashmir, meros huquqiga ko’ra, uning mulki ekanligiga da’vo qildi.

1947-yil – mustamlakachilik tizimida yirik parchalanish yuz berdi – Angliya Hindistonga ozodlik berdi. Ilgarigi ingliz mustamlakasi o’rniga Hindiston va Pokiston nomli ikki mustaqil davlat paydo bo’ldi.

1947-yil – paxta topshirish rejalarining bajarilmaganligi Markazda muhokama qilindi. Respublika rahbariyati “mahalliy vazifalarni deb umumdavlat manfaatlarini unitib qo’yganlikda” ayblab O’zbekiston rahbari *Usmon Yusupov*ga hayfsan e’lon qilindi.

1947-yil – Pokiston hukumatiga Musulmon ligasining kelishi bilan uning rahbariyati milliy iqtisod zarari hisobiga o’z pozitsiyalarini mustahkamlash va shaxsan boyish uchun foydalandi. Mamlakatdagi siyosiy ahvol beqaror edi.

1947-yil – Qo’qonda Qo’qon superfosfat zavodlari ishga tushirildi.

1947-yil – Rossiyaning g’arbiy rayonlari, Ukraina, Belorussiya va Kavkazda urush yillarida yer yaroqsiz holga keldi. Ishchi kuchi yetishmas, texnika, o’g’itlar yo’q edi. Rossiyaning qariyb barcha Yevropa qismida hosil bo’lmadi. Qishloq aholisi shaharlarga ish qidirib ketdi.

1947-yil – Venesuela dunyodagi eng boy neft qazib chiqaruvchi mamlakatlardan biri. Bu o’lkada ilk bor erkin ko’ppartiyaviy prezidentlik saylovlari bo’lib o’tdi. Biroq harbiy to’ntarish natijasida mamlakatda genera *Ximenes* diktaturasi qaror topdi. Mamlakatda muayyan muddat ikki partiya sotsial-demokratik va sotsial-xristian partiyasi hukmronligiga asoslangan barqarorlik o’rnatildi, biroq harbiylar siyosiy hayotni nazorat ostida ushladi, o’zlariga mos tomonga ustalik bilan yo’naltirildi.



1947-yil – Yaponiyada qabul qilingan konstitutsiya asosida demokratik huquq va erkinliklar, urushni rad etish, o'z qurolli kuchlarini taqiqlash e'lon qilindi. Shu bilan birga imperalor millat rahbari, uning birligining ramzi bo'lib qoldi.

1947-yil – Yugosiaviyada iqtisodiy bunyodkorlik muvaffaqiyatli boshlandi. Shu yilga kelib urushgacha bo'lgan darajaga keldi.

1947-yil 1-yanvar - Germaniyaning Bizoniyada okkupatsiya qilingan zonalarini qo'shib yuborish haqidagi ingliz-amerika bitimi.

1947-yil 2-yanvar - amerikalik yozuvchi *Rey Bredberi* o'zining "Yaylov" radiopyesasini radio orqali eshittirildi va Amerikaning eng yaxshi radiopyesasi deb e'lon qilindi.

1947-yil 4-yanvar - Birma mustaqilligining e'lon qilinishi va uning Britaniya hamdo'stligidan chiqishi.

1947-yil 10-fevral - Parijda II jahon urushidagi g'olib davlatlar o'rtasida va Germaniyaning sobiq ittifoqchilari - Italiya, Ruminiya, Vengriya va Finlandiya bilan tinchlik shartnomasining imzolanishi.

1947-yil 10-fevral – Parijda imzo chekilgan tinchlik shartnomasiga ko'ra Italiya o'z mustamlakalarini yo'qotdi va anchagina miqdorda reparatsiyalarni (urush tovonlarini) to'lash lozim edi.

1947-yil 20-fevral – Angliya bosh vaziri *Ettli Hindiston* to'g'risidagi yangi deklaratsiya bilan chiqdi.

1947-yil 12-mart – "*Trumen doktrinas*" AQSh kongress tomonidan qabul qilindi. AQSh prezidentiga "qurolli kamchilik" tomonidan zabt etishga urinilayotgan yoki "tashqi bosim"ga qarshilik ko'rsatayotgan "erkin xalqlar"ga yordam ko'rsatishga imkon berdi. Kongress doktrinaga muvofiq Gretsiya va Turkiyaga moddiy-moliyaviy va harbiy yordam ko'rsatdi.

1947-yil aprel – Gretsiya qiroli *Georg II* vafot etdi, taxtga uning ukasi *Pavel* o'tirdi va mamlakatni o'n yetti yil boshqardi. *Pavel* vafotidan so'ng taxt vorisligi uning o'g'li, mamlakatda juda mashhur sanalgan *Konstantin II* ga o'tdi.

1947-yil 29-may - Hindistonda daxlsizlik tabaqalarini tugatish haqida qaror qabul qilindi.

1947-yil iyun – Hindiston vitse-qiroli lord *Mauntbetten* "*Hindiston hokimiyatini topshirish tolg'risida*"gi aktini e'lon qildi. Unga ko'ra mamlakat hindlar davlati – Hindiston va musulmon davlati Pokistonga bo'lindi. Mamlakatning ikkiga bo'linish jarayonida siyosiy nizolar va hind musulmonlar qirg'ini (Bengaliya, Panjobda) bo'lib o'tdi. Natijada Panjob va Bengaliya iqtisodiga ulkan iqtisodiy zarar yetkazildi. Proviinsiyalardan ommaviy qochish oqibatida dalalarga ekin ekilmadi, sanoat korxonalarini ishlamay qoldi. Ishsiz va uy-joysiz qochoqlar Hindiston va Pokiston ko'chalarini to'ldirgan edi.

1947-yil 5-iyun – AQSh davlat kotibi *Jorj Marshall* Garvard universitetida so'zlagan nutqida G'arbiy Yevropani tiklash uchun moliyaviy yordam ko'rsatishni taklif qildi. Amerika hukmron doiralari iqtisodiyoti vayron etilganligi va rivojlanishga mablag' yo'qligi bilan harakterlanuvchi bu mintaqani xavfli vaziyatdan chiqarishga qaror qilishdi.

1947-yil iyul – gollandlarning Indoneziyaga qarshi bosqinchiligi boshlandi.



Bosqinchilar mamlakatning asosiy strategik joylarini egalladi. Faqat BMTning aralashuvigina golland hukmronligi tiklanishining oldini oldi. Bosqinchilik hokimiyatni mustamlaka davlatlar bilan fitna uyushtirish orqali egallamoqchi bo'lgan ichki reaksiyaning faollashuviga olib keldi. Gollandlar bostirib kirgandan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan Mashumi partiyasi konservativ kuchlar saqlanib qolishiga ishonib xalqqa qarshi siyosat yuritdi.

1947-yil 5-iyul - AQSh davlat kotibi J.Marshall Garvard universitetida so'zlagan nutqida Amerika iqtisodiy yordami (Marshall rejasi) ko'rsatish orqali Yevropani tiklash va rivojlantirish dasturini bayon qildi.

1947-yil iyul oxiri – maxaraja Hindiston tarkibida qolishini e'lon qildi. Bu esa Kashmirda ommaviy to'qnashuvlarni keltirib chiqardi. Mazkur muammoni hal etish BMT Xavfsizlik Kengashiga havola qilindi.

1947-yil avgust – Bolgariya dehqonchilik xalq ittifoqi (BDXI) faoliyati taqiqlandi va bu BKP diktaturasiga yo'l ochib berdi.

1947-yil 15-avgust - Mustaqillikning e'lon qilinishi va Hindistonning bo'linishi (Pokistonning tashkil topishi). *J.Neru* Hindiston Bosh vaziri lavozimini egalladi.

1947-yil 15-avgust – Hindistonda mamlakatni ikkita davlatga bo'lish jarayoni tugatildi. Dehlidagi Qizil fort uzra Hindiston bosh vaziri *Javoharlal Neru* bayroq ko'tardi. Hindiston ozod bo'ldi.

1947-yil 15-avgust – Pokiston davlati Hindistonning ikki mamlakatga bo'linib ketishi oqibatida tashkil topdi.

1947-yil 31-avgust – Vengriyada yangi saylovlar bo'lib o'tdi. Kommunistlar bor-yo'g'i 22 foiz ovoz oldi. Bu bir yil oldingidan ancha ko'p edi, biroq bir partiyali hukumatni tuzish uchun yetarli bo'lmadi. Kommunistlar endi uch partiya bilan (SDP, MQXEP, MDP) blokda qatnashib, unda yetakchi rol o'ynadi.

1947-yil sentabr – AQSh bosimi ostida o'zaro yordam haqida Amerikalalararo shartnoma imzolandi, unga ko'ra AQSh hokimiyat tepasida turgan tuzumlarni qo'llab-quvvatlash, qurolli kuchlarni standartlashtirishni o'tkazish, Lotin Amerikasini qayta qurollantirishni moliyalashtirish majburiyatini oldi, ya'ni amalda qit'ada AQShning harbiy diktaturasini o'rnatish haqida gap bordi.

1947-yil 18-sentabr - AQShda Markaziy razvedka boshqarmasi (MRB)ning tashkil topishi.

1947-yil 29-noyabr – BMT Falastinni bo'lish haqida qaror chiqardi. Bu, 1-arab-isroil urushining boshlanishi edi. Yahudiylarda yaxshi tayyorlangan qo'shin mavjud bo'lib, unda II jahon urushi faxriylari asosiy rolni o'ynadi. Ular AQSh a Angliya tomonidan yaxshi qurollantirilgan edi. Bu qo'shin hatto tegishli bo'lmagan yerlarga ham hujum qildi va bosib oldi.

1947-yil noyabr - Vengriya Davlat majlisi (venger parlamenti nomi) yirik banklarni natsionalizatsiya qildi. So'ngra o'rta va yirik sanoat korxonalari ham natsionalizatsiya qilindi. Qariyb butun iqtisodiyot davlat nazoratiga o'tdi. Boshqa sotsialistik mamlakatlardagi kabi, venger iqtisodiyotida ham boshqarishning zo'raki va rejali usullari ustuvor turdi.

1947-yil dekabr – Berlinda I Nemis xalqi kongressi bo'lib o'tdi va unda Germaniyani birlashtirish fikri ilgari surildi.



1947-yil dekabr – Bolgariyada qabul qilingan qonunlar nafaqat yirik, shuningdek, o'rtahol kapital va ko'chmas mulk egalari tugatdi.

1947-yil 30-dekabr – Ruminiyaning so'nggi qirol – *Mixay* o'zining toj-taxtdan voz kechganini bildirdi. Ruminiya Xalq Respublikasi deb e'lon qilindi.

1947-yil bahor – Kommunistik partiya (GKP) a'zolari soni 324 ming kishini tashkil etdi. Bu butun Germaniyadagi boshqa barcha partiyalar a'zolari soniga teng edi. Ular mahalliy boshqaruv organlari ishida faol ishtirok etib, kasaba uyushmalarida mustahkam o'rin egalladi.

1947 -yil bahor – Tuyamo'yin kanalining birinchi navbati ishga tushirildi. Uzunligi 11,5 km edi.

1947-yil oxiri – Bolgariyada 126 ming nafar dehqon yerga ega bo'ldi. Ular yangi hokimiyatning qishloqdagi ishonchli suyanchig'i bo'lib qoldi.

1948 yil boshi – Hindistondagi kabi Pokislonda ham hindlar hamda musulmonlar o'rtasida qonli to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. O'zaro nizoning kulminatsiyasi sifatida Hind milliy kongressi yetakchisi *Maxatma Gandi*ning o'ldirilishi qayd etildi.

1948 -yil – Qoraqalpog'istonda Shumanay kanali quurildi.

1948-1949-yillar – Isroil birlashgan arab qurolli kuchlari bilan urushgan davri.

1948-1949-yillar – GFRning "iqtisodiy mo'jizasi"da "Marshall rejasi" asosiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu reja tizimiga G'arbiy Germaniya kiritilgan edi. Ushbu davr mobaynida GFR AQShdan 1,4 mlrd. dollar miqdorida yordam oldi. Aynan shu mablag' Germaniya sanoatining tezlik bilan tiklanishida boshlang'ich mablag' bo'lib xizmat qildi.

1948-1949-yillar – yugoslavlilar 1-bo'lib g'alyon ko'tardi va Stalin bilan mojaroga borishdi. Yugoslaviya o'z yo'lidan borib kolxozlarni tarqatib yubordi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tugatildi. Yugoslaviya keng huquqli federativ davlat bo'lib oldi. Yugoslaviyadan so'ng GDRda g'alayon ko'tarildi.

1948-1950-yillar – "Marshall rejasi" bo'yicha Angliya mahsulotlar va zayomlar hamda 3 mlrd. dollarga yaqin yordam oldi. Biroq bu uning iqtisodiy ahvolini yaxshilamadi. Bundan tashqari, mazkur reja Angliyani AQShga tobeligini kuchaytirdi, amerika kapitalini mustamlaka mulklariga kirib kelishini yengillashirdi, amerika konsernlari bilan raqobatdosh bo'lgan ingliz iqtisodiyoti tarmoqlariga zarar yetkazdi. "Marshall rejasi" surunkali davom etayotgan chuqur moliyaviy inqirozga olib keldi.

1948-1952-yillar – "Marshall rejasi" bo'yicha uni amalga oshirishda 16 Yevropa davlatlari ishtirok etadigan bo'ldi, amerika moliyaviy yordamini Yevropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti (YIHT) taqsimladi. Bu tashkilot orqali G'arbiy Yevropa mamlakatlariga 17 mlrd dollar berildi. Bu mablag'lar mazkur mintaqada urushdan keyingi tiklanishda muhim rol o'ynadi. "Marshall rejasi" Yevropa mamlakatlari iqtisodiy tizimi tuzilmasini saqlashga imkon yaratdi.

1948-1957-yillar – *Pibunsongram* Tailandning bosh vaziri lavozimidagi faoliyati.

1948-1960-yillar – *Li Sin Man* Janubiy Koreya prezidenti.

1948-1972-yillar – *Kim Ir Senning* KXDR Vazirlar Mahkamasi raisi lavozimida faoliyat ko'rsatishi.

1948-1978-yillar – *Aldo Moro* italyan parlamenti deputati.



1948-1993-yillar – ichida Italiyada hukumat 45 yil mobaynida 51 marta hukumat o'zgardi.

1948-yi 1-yanvar – kuchga kirgan yangi konstitutsiyada so'z, matbuot, yig'ilishlar o'tkazish erkinligi, mehnat va unga yarasha adolatli to'lov, agrar islohot zaruriyati va ishchilarning korxonalar boshqaruvidagi ishtiroki huquqi e'lon etildi, siyosiy va diniy qarashlarga ko'ra kamsitish man etildi. Fashist tashkilotlari mavjud bo'lishi va faoliyati ham man etildi. Qirol oilasi a'zolariga muhojirlikdan Italiyaga qaytishga ruxsat berilmadi. Maslahatchilar sudi va sud hokimiyatining to'liq mustaqilligi tamoyili kiritildi.

1948-yil – “Tashselmash” zavodi paxta terish mashinalarining dastlabki namunalarini ishlab chiqardi.

1948-yil – amalga oshirila boshlagan “Marshall rejasi” bo'yicha AQSh iqtisodiy yordam dasturi uch yil davom etdi, Italiya iqtisodiyoti rivojiga yordam berdi. Bu muddat ichida 1,3 milliard dollarlik amerika tovarlari keltirildi, ularning ko'p qismidan yirik sanoat mahsulotlarini modernizatsiyalash uchun foydalanildi. Ayrim korxonalarda “Marshall rejasi” amal qilgan yillarda qurilmalar to'liq yangilandi va ular jahon bozorida raqobatbardosh bo'la bordi.

1948-yil – Amerika neft kompaniyalari daromadlaridan olingan ajratmalar hisobiga Saudiya Arabiston hukumati 50 mln. dollar foyda oldi.

1948-yil – Angliya ingliz mustamlakasi – Birmagaga ozodlik berdi.

1948-yil – ingliz yozuvchi *Somerset Moeming* “*O'n romanchi va ularning romanlari*” kitobi nashrdan chiqdi.

1948-yil – AQSh 20 km balandlikda 12 ming km uzoqlikka qadar ucha oladigan B-52 qit'alararo bombardimonchi samalyotiga ega bo'ldi,

1948-yil – Berlinda II Nemis xalq kongressi harakatning ijroiya organi sifatida Nemis xalq kengashini sayladi.

1948-yil – *Bernard Shou* “*Olis kelajak haqida rivoyat*” asarini tugatib, unda atom urushini qoraladi.

1948-yil – BMT aralashuvi natijasida Xindistonda Kashmir muammosi hal etildi.

1948-yil – *Boleslav Berut* PIP Mk bosh kotibi.

1948-yil – Chexoslovakiyada iqtisodiy rivojlanishning besh yillik rejasi qabul qilindiki, u muvaffaqiyatli bajarildi. Bu davrda yalpi sanoat mahsuloti 93 foizga, mashinasozlik mahsuloti – 94 foizga o'sdi. 12 ta yangi elektrostansiya, yirik metallurgiya korxonasi qurildi. Aholining turmush darajasi oshdi, oylik ish haqi o'sdi, kartochna tizimi tugatildi.

1948-yil – Fransiyada sanoat ishlab chiqarish hajmi urushdan avvalgi darajadan ham oshdi.

1948-yil – fransuz yozuvchisi *Andre Morua* “*Jahonning qudratli kishilari*” romanini yozadi.

1948-yil – fransuz yozuvchisi *Jak Laffiting* “*Biz hali binafsha uchun qaytamiz*” kitobi nashrdan chiqdi.

1948-yil – ikki davlat: shimolda – Koreya Mehnat partiyasi rahbarligida Koreya Xalq demokratik respublikasi, janubda *Li Sin Man* boshchiligidagi Koreya Respublikasi tashkil topdi.



1948-yil – Koreya yarim oroli janubida Koreya Respublikasi e'lon qilindi. Konstitutsiyaga muvofiq, u boshida prezident turgan parlament respublikasidir. Demokratik belgilar mavjud bo'lgan Konstitutsiya bo'lishiga qaramay, AQSh qariyb 40 yil mobaynida bir partiyali diktatorlik tuzumini qo'llab-quvvatladi. Bu tuzum *Li Sin Mandan, Pak Chjoa Xiga* o'tdi.

1948-yil – O'zbekistonda o'pka kasalliklarini davolash uchun shifoxonalarda atigi 2 mingga yaqin o'rin mavjud edi. Bunday shifoxonalarga ehtiyoj 4 mingdan ortiq joyni tashkil qilardi.

1948-yil – Ozod demokratik partiya tuzildi.

1948-yil - *Piter Abraxamsning "Momoqaldiroq so'qmog'i bo'ylab"* romani nashrdan chiqdi.

1948-yil – Sovet qo'shinlari Berlinga kirayotgan yo'llarini qurshab olishdi va bu "Berlin inqirozi"ga olib keldi. Butun yil mobaynida amerika samolyotlari sovet okkupatsiyasi hududida bo'lgan G'arbiy Berlin uchun zarur narsalarni ta'minladi.

1948-yil – Toshkentda tez yordam kasalxonalarda joy yo'qligi tufayli 3 mingdan ortiq bemorni qabul qilishdan bosh tortishdi.

1948-yil – Vengriya xo'jalikni tikladi.

1948-yil 4-yanvar – Birma Angliya hukumati bilan muzokaralar natijasida Birma mustaqilligi e'lon qilindi. Mamlakatning birinchi bosh vaziri sifatida *U Nu* saylandi.

1948-yil 20-yanvar - Hindistonda *Maxatma Gandini* ekstremist-hind suiqasd qilib o'ldirdi.

1948-yil fevral – Chexoslovakiyada yangi Konstitutsiyaning muhokama qilinishi burjuaziyani bevaqt norozilikka undadi.

1948-yil fevral – kommunistik va sotsial-demokratik partiya *George Georgiu Dej* rahbarligida Ruminiya ishchi partiyasiga (RIP) birlashdi.

1948-yil 20-fevral – Chexoslovakiya burjuaziya partiyalari vakillari bo'lgan 12 vazir iste'foga chiqdi. Ular bu bilan *K.Gotvald* ko'pchilik qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'lib, u ham iste'foga chiqadi va shunda kabinet tarkibini qayta ko'rib chiqish mumkin bo'ladi, deb umid qilishdi.

1948-yil 24-fevral – kommunistlar da'vati bilan 2,5 million ishchi va xizmatchi bir soatli ogohlantiruvchi ish tashlash o'tkazdi. Xalq sabotajchi vazirlar qiyofasida urushdan oldingi g'arbparast Myunxen siyosatdonlari vakillarini ko'rdi va ularning hokimiyatga qaytishini xohlamadi. Qo'shin kommunistlar tarafida turdi. Burjua partiyalari "o'yinlari" barbod bo'ldi.

1948-yil 25-fevral – Chexoslovakiya prezidenti *E. Benesh* o'ng partiyalar vazirlari iste'fosini qabul qildi. Endi hukumat kommunistlar va so'l sotsial-demokratlardan iborat bo'ldi, ular ChKP qarashlari va siyosatini ma'qullar edi.

1948-yil aprel – Ruminiya yangi konstitutsiyasini qabul qilindi. Oliy Milliy majlis qonunchilik hokimiyatining oliy organi bo'ldi.

1948-yil aprel – Italiyada parlament saylovlari bo'lib o'tdi. ISP, IKP va boshqa so'l partiya hamda tashkilotlar 8 million ovoz yiqqan Xalq demokratik frontiga birlashdi. Biroq, XDP eng ko'p muvaffaqiyatga erishdi (12,7 million ovoz), u deputatlar palatasida mutlaq ko'pchilik o'rinni oldi va *de Gasperi* yakka partiyali hukumatni boshqardi. Italiya respublikasining tiklanishi davri tugadi. Bundan boshlab 1994-



yilgacha XDP u yoki bu koalitsiyada, ko'pincha yakka holda mamlakat hukumatiga boshchilik qildi.

1948-yil 2-aprel - AQSh kongressi tomonidan "Marshall rejasi"ning qabul qilinishi.

1948-yil 13-aprel - Ruminiya respublikasi o'zining 1-konstitutsiyasini qabul qildi.

1948-yil 16-aprel - "Marshall rejasi" doirasida Yevropa iqtisodiy hamkorligi to'g'risidagi bitimining imzolanishi.

1948-yil 2-may - Amerika davlatlari tashkilotining tashkil topishi.

1948-yil 9-may - Chexoslovakiyada sotsializm qurilishini eion qilgan yangi konstitutsiya qabul qilindi.

1948-yil 14-may - Isroil mustaqil davlati tashkil topganligining e'lon qilinishi.

1948-yil 14-may - sionistlar yo'lboshchisi *Ben Gurion* Tel-Avivda mustaqil Isroil davlatini e'lon qildi. 5 arab davlatlari o'z qo'shinlarini Isroilga qarshi yuborishdi, biroq mag'lubiyatga uchrashdi. Isroilda bu urush «mustaqillik uchun urush» deb nomlandi. Yahudiylar falastinlik arablarni o'z yerlaridan ommaviy tarzda quvib chiqara boshladi. 500 ming falastinlik qo'shin Livanga qochib ketdi. Misr, Suriya, Livan va lordaniya o'z mag'lubiyatini tan olib, tinchlikka kelishishga majbur bo'ldi va faqat Iroqqa Isroilni davlat sifatida hech qachon tan olmadi. Shundan buyon Falastin masalasi Yaqin Sharqning eng asosiy muammosiga aylandi.

1948-yil 15-may - Isroil va arab davlatlari o'rtasida ilk urushlarning boshlanishi. Isroil tomonidan Quddus va Falastinning bir qismi bosib olindi.

1948-yil 30-may - Chexoslovakiyada qabul qilingan yangi Konstitutsiya asosida mamlakatda saylovlar bo'lib o'tdi, unda kommunistlar va ularning ittifoqchilari uchun saylovchilarning 89 foizi ovoz berdi.

1948-yil iyun - ChKP va sotsial-demokratlar partiyasining yagona Chexoslovakiya kommunistik partiyasiga birlashuvi ro'y berdi.

1948-yil iyun - GFRning separat pul islohoti o'tkazilishi. Qadrsizlangan reyxsmarka o'rniga doychmarka joriy etildi, so'ngra narx-navo va ish haqi erkin qo'yib berildi.

1948-yil iyun - Vengriyada SDP va VKP birlashdi. Yangi partiya Vengriya mehnatkashlar partiyasi (VMP) deb atala boshladi. U mamlakatda o'z to'liq siyosiy hukmronligini "proletariat diktaturasi" shaklida qaror toptirdi. O'sha yili VMP mamlakatda sotsializm qurish haqida e'lon qildi. Yangi muddatdan oldingi saylovlar o'tkazildi, unda VMP 70 foiz ovoz va 70 foizdan ortiq deputat mandatini oldi.

1948-yil 6-iyun - *E.Benes* iste'foga chiqdi va mamlakat prezidenti etib *K.Gotvald* saylandi.

1948-yil 14-iyun - *E.Benes*ning iste'foga chiqishi. *K.Gotvald* Chexoslovakiya prezidenti etib saylandi.

1948-yil 24-iyun - G'arbiy Berlining qamal qilinishi.

1948-yil 20-iyul - *Li Sin Man* Janubiy Koreya prezidenti etib saylandi.

1948-yil avgust - Xitoyda vaziyat o'zgardi. XXOA qarshi hujumga o'tdi va Gomindan qo'shinlariga qaqshatli zarba berdi.

1948-yil 9-sentabr - KXDRning e'lon qilinishi; *Kim Ir Sen* bosh vazir etib tayinlandi.

1948-yil 2-oktabr - AQSh prezidentlik saylovlarida *G.Trumening* g'alabasi.



1948-yil noyabr – Albaniya kommunistik partiyasi (AKP) mamlakatda sotsializm qurishni e'lon qildi. U Alban mehnat partiyasi (AMP) deb o'zgartirildi.

1948-yil 12-noyabr - Tokioda asosiy yapon harbiy jinoyatchilari ustidan sud jarayoni yakunlandi.

1948-yil dekabr – demokratik islohotlardan to'liq chekinish boshlandi. Polsha sotsialistik partiyasi (PSP) PIP bilan birlashdi va yangi partiya – Polsha Birlashgan ishchi partiyasi (PBIP) tuzildi, u mamlakatda asosiy siyosiy kuch bo'ldi va yakkapartiyaviy diktaturani o'rnatdi. *Boleslav Berut* yangi partiyaning 1-kotibi bo'ldi.

1948-yil 10-dekabr - BMT Bosh Assambleyasi Inson huquqlari umumdeklaratsiyasini qabul qildi.

1948-yil 30-dekabr - monarxiyaning tugatilishi va Ruminiyaning xalq respublikasi deb e'lon qilinishi.

1948-yil oxiri – Polshada kam yerli va yersiz dehqonlar qariyb 6 million gektar yerga ega bo'ldi. 747 ming yangi dehqon xo'jaligi yuzaga keldi, ularning ko'pi o'rtahol toifaga mansub edi. Islohotlar natijasida zamindorlar xo'jaliklari to'liq tugatildi. Urush paytidayoq davom etgan yer islohoti ham davom etdi.

1948-yildan – *Iosif Broz Tito* Yugoslaviyani rivojlantirishning o'z modelini ilgari surdi.

1949 -yil – sug'orish tizimlarining 4 ta boshqarmasi tuzildi: Paxta-arna (To'rtko'l va Beruniy tumanlari uchun) Lenin nomli kanal (Xo'jayli va Qo'ng'iroq tumanlari uchun) Quvonish-jarma (Taxtako'pir va Qorao'zak tumanlari uchun) boshqarmalaridir.

1949-1950-yillar – Musulmon ligasi asta-sekin mamlakatdagi o'z mavqeini yo'qota boshladi. Undan bir qator dehqonlar, mayda va o'rta burjuaziya, ziyolilar qatlami yuz o'girdi. Demokratik qayta o'zgarishlar dasturini va tashqi siyosatni neytrallashtirish talabini ilgari surgan muxolifat partiyalar ("Ozod Pokiston" partiyasi, demokratik partiyalar va hokazo) norozilik bildira boshladi.

1949-1950-yillar – *Vasil Kolarov* Bolgariya Xalq Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi.

1949-1954-yillar – GFRda ish samaradorligi elektrotexnika sanoatida 45 % (AQShda – 13 %), kimyosanoatida – 57 % (AQShda 27 %), mashinasozlikda – 32 % (AQShda 14 %), va avtomobilsozlikda – 2 baravar (AQShda 12 %) oshdi.

1949-1963-yillar – Germaniya tarixiga bu yillar "Adenauer davri" degan nom bilan kirdi.

1949-1963-yillar – *Konrad Adenauer* GFRning Federal kansleri bo'ldi.

1949-1963-yillar – *Konrad Adenauer* Germaniyada kanslerlik faoliyati.

1949-1991-yillar – "Sovuq urush" davrida NATO tashkilotining soni 16 taga yetdi.

1949-yil – "Marshall rejasi"dan keyin Angliya moliyaviy bankrotlik, ya'ni sinish xavfi ostida qoldi.

1949-yil – "Tashavtomash" zavodi ishga tushirildi, unda traktorlar, paxta tashishga moslashtirilgan mashina va tirgovichlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

1949-yil – *Alchido de Gasperi* davrida Italiya NATOga kirdi.

1949-yil - amerikalik fantast yozuvchi *Mitchell Uilson* "Chaqmoqlar orasida yasha" romanini yozdi.



1949-yil – Angliyada funt sterlingning qadrsizlanishi e’lon qilindi. Ilgari 4 dollar bo’lgan uning kursi 2,80 dollarga tushib ketdi.

1949-yil - angliyalik yozuvchi *Jeyms Oldrijning* “*Diplomat*” romani nashrdan chiqdi.

1949-yil - angliyalik yozuvchi *Somerset Moemning* “*Yozuvchining yon daftari*” kitobi nashrdan chiqdi.

1949-yil – Fransiyada kartochka tizimi bekor qilindi.

1949-yil – *Georgiy Dimitrov* vafotidan so’ng hukumatga, Davlat rahbarligiga *Vasil Kolarov* keldi.

1949-yil - Irlandiya o’z mustaqilligiga erishdi.

1949-yil – Niderlandiya Indoneziya mustaqilligini tan olishga majbur bo’ldi.

1949-yil – *O’zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi* tashkil etilib, u Sharqiy Yevropa va SSSRdagi integratsiyalashuv jarayonining asosiy boshqaruvchi organi bo’lib qoldi. Mazkur Kengash avvaliga savdo sohasida, so’ngra ishlab chiqarishda ko’p tomonlama hamkorlikka asos soldi.

1949-yil – Polsha O’IYKga a’zo bo’lib kirdi. SSSR bilan iqtisodiy aloqalarni yaqindan o’rnatdi, zero mamlakat tashqi savdosining 70 foizi unga to’g’ri kelar edi.

1949-yil – Sharqiy Yevropa va Sovet Ittifoqi mamlakatlari o’rtasidagi iqtisodiy munosabatlar va integratsiya jarayonlarini rivojlantirish uchun davlatlar ustidan turuvchi organ – *O’zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi* (O’IYOK) tashkil etildi. Dastlab unga Albaniya, Bolgariya, Chexoslovakiya, Vengriya, Ruminiya, Polsha va Sovet Ittifoqi kirdi. Bu tashkilot sotsialistik blokka kiruvchi mamlakatlarning iqtisodiy sa’y-harakatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish yo’li bilan hosil qilingan hukumatlararo iqtisodiy tashkilotdir.

1949-yil – sovet atom bombasining sinovdan o’tishi “kuch pozitsiyasi”dan siyosatni amalga oshirish umidini butkul yo’qqa chiqardi.

1949-yil – SSSR atom bombasini ilk bor sinovdan o’tkazdi. Shundan boshlab “sovuq urush” yadroviy qurollanish poygasi darajasiga ko’tarildi.

1949-yil – *Uilyam Folkner* adabiyot sohasidagi Nobel mukofoti bilan taqdirlandi.

1949-yil – Vengriya 1-besh yillik rejani bajarishga kirishdi.

1949-yil – Xitoy inqilobi g’alaba qozonganidan keyin Tayvan orolida “Xitoy Respublikasi”ni e’lon qilgan gomindanlar qoldiqlari orolga qochib keldi. Tayvan oroli 39 ming kv.km hududga ega bo’lib, unda 20 mln kishi yasaydi. Shu paytdan boshlab AQSh va g’arb davlatlari “ikki Xitoy” siyosatni olib borib, Tayvan tuzumiga iqtisodiy va harbiy yordam ko’rsatib kelmoqda. Tayvan XXR viloyatlaridan biri sifatida e’lon qilingan, biroq orolning rahbar doiralari uni Xitoyning bir qismiga aylanishini istamaydi. Tayvan hozirda Osiyoning eng rivojlangan davlatlaridan biriga aylangan.

1949-yil – Xitoy ishlab chiqarishi past agrar mamlakat hisoblanar, asosan xorijiy sarmoya hukmronlik qilar edi. Mamlakatda dunyodagi eng past iste’mol darajasi va ulkan ishsizlar armiyasi mavjud bo’lgan. Fabrika zavod korxonalar umumiy ishlab chiqanshning arzimas qismini tashkil etib, ko’pgina korxonalar eng oddiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan edi. Qishloqlarda esa yarim natural xo’jaligi hukmronlik qilganligi qoloqlikning bir sababi bo’lgan.



1949-yil – Xitoyda xalq inqilobi g'alaba qozondi va xalq hokimiyati o'rnatildi.

1949-yil – XRR tashkil topdi. Bu Amerika strategiyasiga nisbatan katta zarba bo'ldi. AQSh Uzoq Sharqda *Chan Kay-Shi* o'rnatgan tartib tufayli muhim strategik suyanchni yo'qotdi.

1949-yil 1-yanvar – BMT Xavfsizlik Kengashi o't ochishni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qildi. Ikkinchi bir qarorda esa har ikki tomon Hindiston va Pokiston qo'shinlarining Kashmirdan olib chiqishi va uning kelajagini belgilash uchun BMT nazorati ostida referendum o'tkazish zarurhgi ta'kidlandi. Biroq Hindiston ushbu rezolyutsiyani qabul qilishdan bosh tortdi.

1949-yil 25-yanvar - O'zaro Yordam Iqtisodiy Kengashining tashkil topishi (O'IYK).

1949-yil aprel – Italiya NATOga a'zo bo'lib kirdi. Bu butun mamlakatda keskin norozilik uyg'otdi.

1949-yil aprel – Portugaliya NATOga a'zo bo'lib kirdi, uning Afrikadagi mustamlakalari ushbu paktning baza va aloqa tizimiga bog'landi. Ushbu hol Salazaming ham mamlakat ichida, ham xalqaro munosabatlardagi mavqeini mustahkamladi. Salazar hukumati, shuningdek, Angliya va AQShga urush davrida Azor orollaridagi harbiy bazalardan foydalanish huquqini tasdiqladi.

1949-yil 4-aprel – Vashingtonda 12 davlat vakillari Shimoliy Atlantika shartnomasiga (NATO) imzo chekdi. Bu davlatlar AQSh, Kanada, Belgiya, Angliya, Daniya, Fransiya, Ispaniya, Niderlandiya, Italiya, Norvegiya, Portugaliya, Lyuksemburg edi.

1949-yil 4-aprel - Vashingtonda Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Belgija, Niderlandiya, Lyuksemburg, Kanada, Daniya, Islandiya, Norvegiya, Portugaliyadan iborat Shimoliy Atlantika pakti (NATO) tashkil topdi.

1949-yil may – Berlinda III Nemis xalq kongressi konstitutsiya matnini ma'qulladi va bu urushdan keyingi Germaniya davlat qurilishining asosi bo'lishi lozim edi.

1949-yil may – Chexoslovakiyada Kommunistlar sotsializm asoslarini qurish dasturi va sotsialistik industrilashtirish rejasini qabul qildi.

1949-yil may – Fransuz mustamlakachilari tashkil etgan Saygondagi hukumati "Vetnam davlati"ni barpo etishini e'lon qildi.

1949-yil 5-may – hukumatlararo va xalqaro tashkilot - Yevropa Kengashi nizomiga imzo chekildi.

1949-yil 8-may - GFR Konstitutsiyasining qabul qilinishi. GFRning tashkil topishi.

1949-yil 8-may – Ta'sis majlisi vazifasini o'ziga olgan parlament kengashi G'arbiy Germaniya konstitutsiyasini ma'qulladi va u hozirgacha amalda qo'llanilib kelinmoqda.

1949-yil 18-iyun - Irlandiyaning Britaniya Hamdo'stligidan chiqishi.

1949-yil 18-iyun - Irlandiyaning respublika deb e'lon qilinishi.

1949-yil avgust – bundestag saylovida XDI/XSI bloki g'olib chiqdi. *K. Adenauer* kansler etib saylandi.

1949-yil 3-avgust – Yevropa Kengashining nizomi kuchga kirdi. Dastlab unga G'arbiy Yevropaning 10 davlati kirdi.

1949-yil 20-avgust - Vengriya Xalq respublikasi deb e'lon qilindi.

1949-yil 20-avgust – Vengriya davlat majlisi proletariat diktaturasini qonuniy



mustahkamlagan mamlakat konstitutsiyasini qabul qildi. Vengriya Xalq Respublikasi e'lon qilindi. Hokimiyat Davlat kengashi va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari timsolida mehnatkashlarga tegishli edi. Asosiy vositalar davlat va kooperativlarniki bo'lib, kooperativlar davlat korxonalaridan kam farq qilardi. Xususiyl mulkka cheklangan miqdorda yo'l qo'yildi. Konstitutsiyaga muvofiq mehnatkashlarga keng ijtimoiy huquq va erkinliklar berildi.

1949-yil 30-avgust – Demokratik armiyaning qurolli kuchlari Albaniya chegarasi yaqinidagi Grammos tog'larida qurshovga tushib qoldi va mag'lubiyatga uchradi. Yetti haftadan so'ng armiya rahbariyati o't ochishni to'xtatganligini bildirdi va qolgan qo'shinlarini Albaniya hamda Bolgariyaga olib chiqib ketdi.

1949-yil sentabr – Xitoyda “Umumiy dastur” qabul qilindi va u 1954-yilgacha Xitoyda vaqtinchalik konstitutsiya vazifasini o'tadi. Unda xalq demokratiyasi tamoyillari hamda ishchilar sinfi va dehqonlar ittifoqi asosidagi Xitoy Xalq Respublikasi davlati tashkil etilganligi e'lon qilindi. Umumiy dastur Yevropa mamlakatlarining Xitoydagi alohida huquq va imtiyozlarini bekor qildi.

1949-yil sentabr – XXOA askarlari Xitoy poytaxti Pekinga kirib keldi.

1949-yil 21-sentabr – Germaniya Federativ Respublikasi sifatida rasmiy e'lon qilindi.

1949-yil 25-sentabr - SSSRda birinchi marta atom bombast sinab ko'rildi.

1949-yil 1-oktabr - XXP e'lon qilindi.

1949-yil 7-oktabr – GDR tashkili topdi, G'arbiy Berlin uning poytaxti deb belgilandi. Deyarli barcha rahbarlik lavozimlarini GSBP vakillari egalladi. Prezident etib Germaniyadagi inqilobiy harakat faxriysi - *Vilgelm Pik* saylandi; *Otto Grotevol* bosh vazir lavozimini egalladi; Nemis xalq kengashi muvaqqat Xalq palatasi (parlament)ga aylantirildi va u mamlakat konstitutsiyasini qabul qildi. Konstitutsiya davlat hokimiyati sifatida proletariat diktaturasini tasdiqladi. GDRda GSBPdan tashqari yana uchta partiya - XDI, Germaniya dehqonlar demokratik partiyasi (GDDP) va Milliy-demokratik partiya mavjud bo'lgan. Ularning ayrimlari rasmiyatchilik uchungina tuzilib, siyosatga hech bir ta'sir kuchi yo'q edi. Tez orada ular ham yo'q bo'lib ketdi. Siyosiy kurash davomida XDI va GDDP ham bog'ib qo'yildi va o'z faoliyatini to'xtatdilar. Shundan so'ng GDR Xalq partiyasiga saylovlar boshlanib, unda GSBP vakillari boshqaradigan Demokratik blok g'alaba qozondi. Germaniyaning bunday parchalangan ko'rinishi 40 yil davom etdi.

1949-yil 11-oktabr – XXR tashkil topganligi rasmiy e'lon qilindi. Inqilob g'alaba qozondi va Xitoyning mustamlakaga aylanishiga chek qo'yildi.

1949-yil noyabr - 1956-yil – Polshaning mudofaa qobiliyatini oshirish uchun sovet marshali *K.Rokossovskiy* Polsha mudofaa vaziri etib tayinlandi.

1949-yil boshi – Bolgariyada ko'pchilik partiyalar o'z faoliyatini to'xtatdilar.

1949-yil boshi – Venger kommunistlari ilk yutuqlardan va ularga erishish osonligidan ruhlangan holda mamlakatdagi muxolifatni tugatish va VMPning monopoli hokimiyatli totalitar rejimini o'rnatishga qaror qilishdi. Respublikaga qarshi navbatdagi “fitna” fosh etildi. Bu gal venger katoliklarining yetakchisi kardinal *Mindsenti* qatag'onlarga duchor bo'ldi. U Amerika elchixonasiga qochib qutildi. Shu bilan birga katolik doiralari bilan bog'liq bo'lgan demokratik xalq partiyasi



man etildi. Siyosiy yo'li kommunistlardan farqlanuvchi bir qator tashkilotlar ham man etildi. Stalincha nusxadagi "sotsializm" ni mamlakatda *Matyash Rakoshi* amalga oshirdi.

1949-yil o'rtasi – Stalin shaxsiga sig'inish sharoitida ittifoqchilar siyosatidagi mustaqillikning bunday namoyon bo'lishi mavjud muammolarni sun'iy mushkullashtirish va yangilarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Yugoslaviyadan sanoat korxonalari va harbiy obyektlar qurilishida yordam bergan sovet mutaxassislari chaqirib olindi. SSSR Yugoslaviya bilan iqtisodiy aloqalarni qariyb to'xtatib qo'ydi. Sharqiy Yevropa mamlakatlari ham shunday yo'l tutishdi.

1949-yil oxiri – GFR iqtisodiy urushdan oldingi darajaga yetdi.

1949-yilgacha – AQSh atom bombasiga monopoliya hukmron bo'lib, uni qo'llash haqidagi birgina do'q-po'pisaning o'zi har qanday tajovuzkorlikni to'xtatish uchun yetarli edi.

1950 -yil – Qoraqalpog'istonda ilk marta qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, irrigatsiya tarmog'ini tozalash ishlari boshlandi.

1950 -yil – Qoraqalpog'istonda jamoa xo'jaliklarini yiriklashtirish kompaniyasi boshlanib mavjud 410 ta jamoa xo'jaligi asosida 200 kalxoz tashkil qildi.

1950 -yil o'rtasi – Qoraqalpog'iston chorvachiligidagi mutanosiblik buzildi. Chorva mollari soni muttasil kamayib bordi.

1950-1951-yillar – *Makatur Diglas* Koreyadagi Amerika va Janubiy Koreya qurolli kuchlari operatsiyalariga rahbarlik qilgan.

1950-1952-yillar – Koreyadagi urush tufayli Germaniya sanoatida ular uchun maqbul iqtisodiy sharoit yuzaga kelgan edi. Yuzaga kelgan yetishmovchilik tufayli jahon bozorida g'arbiy germaniyaliklarning mahsulotlari to'lib ketdi. Bunday vaziyat sanoatchilarga yangi buyurtmalarni keltirdi va yangi bozorlarni egallash muammosini yengillashtirdi.

1950-1952-yillar – Pokiston rahbariyati AQSh bilan hamkorlik qilishga yaqinlashib qurol-yarog' sotib olish to'g'risida bir qator bitimlar tuzdi.

1950-1952-yillar – Pokistonda qonunchilik yirik pomeshik yer egaligini qisman chekladi, ammo bu dehqonlarga hech nima bermadi. Pokiston iqtisodidagi asosiy masala – agrar masala hal etilmadi.

1950-1954-yillar – Vengriyaning 1-besh yillik davri. Unda 75 dan ziyod sanoat korxonalari qurildi, o'nlab yangi shaxta va konlar ishga tushirildi. Yangi sanoat tarmoqlari - asbobsozlik, avtomobilsozlik, kimyo, mashinasozlik va boshqalar yuzaga keldi. Yangi kanallar, yo'llar, sanoat tumanlari va shaharlari paydo bo'ldi. Milliy daromad 50 foizdan oshdi. Vengriya agrar-sanoat o'lkadan sanoat-agrar mamlakatga aylandi, milliy daromadni shakllantirishda sanoatning solishtirma miqyosi besh yilda 50 foizdan 64 foizgacha o'sdi.

1950-1955-yillar – Polshada 6-yillik yillarida yangi Guteda metallurgiya kombinati, Pulavaxra kimyo kombinati, Plotskada neft-kimyo kombinati, Gdanskda kemasozlik korxonasi va boshqa ko'plab yirik sanoat korxonalari qurildi. Bu yillarda mamlakat uchun yangi bo'lgan mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika, kemasozlik tarmoqlari rivojlana boshladi. Bularning hammasi Polsha iqtisodiyotining tez rivojlanishini ta'minladi. Nisbatan qisqa muddatda u yuqori rivojlangan



mamlakatga aylandi. Sanoatning an'anaviy tarmoqlari – ko'mir, to'qimachilik va oziq-ovqat sohalari modernizatsiya qilindi.

1950-1959-yillar – GFRda ishchilarning ish haqi ko'payib, ish haftasi qisqartirildi, yillik ta'til qonuniy mustahkamlandi. Narx-navo oshishiga mos ravishda qarilik nafaqasi va bolalar hamda ko'p bolali oilalarga beriladigan nafaqa oshib bordi.

1950-1959-yillar – O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumiga *Sh.R.Rashidov* boshchilik qildi.

1950-1960-yillar - Amerika musiqasi ohangida odamlar rok-n-roll yo'nalishida raqsga tushishgan.

1950-1960-yillar – bolalar adabiyotiga qator o'ziga xos yozuvchi va shoirlar kirib keldi. *Quddus Muhammadiy, Shukur Sa'dulla, Ilyos Muslim, Qudrat Hikmat, Po'lat Mo'min* kabi shoirlar, *Hakim Nazir, Adham Rahmat* kabi yozuvchilar shular jumlasidandir.

1950-1960-yillar – *D. Bayar* Turkiya prezidenti.

1950-1960-yillar – italyan sanoatining o'sish sur'atlari dunyoda eng yuqori bo'ldi (Yaponiyani hisobga olmaganda). Mamlakatning ichki yalpi mahsuloti bu yillarda 5,4 marta o'sdi.

1950-1960-yillar – kulolchilikning asosiy markazlari Buxoro, Rishton, Samarqand shaxarlari hisoblangan. Sopol buyumlar Andijon, Toshkent, Qarshi va boshqa shaharlarda ham ishlab chiqarilgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent ustalariga sariq, qizil, malla rangli, Farg'ona vodiysi va Xorazm ustalariga esa havo rang, oq, ko'k buyumlar ishlab chiqarish an'ana bo'lgan. Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda mashhur kulollar – toshkentlik *I.Rahimov*, samarqandlik – *U.Zo'raqulov, K.Sharopov, A.Muxtorov, M.Nosirov*, g'ijdivonlik *I.Nazrullayev*, denovlik *B.Xalilov*, xivalik *R.Rahimov* va boshqa ustalar ijod qilishgan.

1950-1960-yillar – o'zbek adabiyotida proza janrida ko'plab asarlar yaratildi. Romanchilikda 20 dan ortiq asarlar yaratildi. *Oybekning* “Oltin vodiyan shabadalar”, *Parda Turunning* “O'qituvchi”, *Abdulla Qahhomning* “Qo'shchinor chiroqlari”, *A. Muxtoming* “*Opa-singillar*” kabi romanlar nashr etildi.

1950-1960-yillar – o'zbek san'atining aloqalariga Muhiddin Qori Yoqubov nomli O'zbekiston davlat filarnomiyasi, A.Navoiy nomli o'zbek davlat akademik katta teatri artistlari, *Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg'unboyeva, Galina Izmaylova, Saodat Qobulova, Bernora Qariyeva* singari mashhur san'atkorlar ulkan hissa qo'shdilar.

1950-1960-yillar – o'zbek she'riyalida turkum she'rlar, yangi poema va dostonlar yaratildi. *M.Boboyevning* “*Eron osmoni ostida*”, *Mirtemiming* “*Qoraqalpoq daftari*” she'riy turkumlari e'lon qilindi va yuksak baholandi. *Asqad Muxtoming* “*Po'lat quyuvchi*”, *Oybekning* “*Qizlar*”, *Mirmuhsinning* “*Usta G'iyos*” dostonlarida yaratuvchi inson obrazi yaratildi. Dramaturglar ham bir qancha mukammal pyesalar yozib, sahnaga chiqardilar. *K.Yashinning* “*General Rahimov*” *N.Safarovning* “*Sharq tongi*”, *S.Abdullaning* “*Muqimiy*” dramalari o'zbek sahnasi repertuaridan munosib o'rin oldi. *A.Qahhomning* “*Yangi yer*”, “*Og'riq tishlar*”, “*Tobutdan tovush*” komediyalari katta shuhrat qozondi.

1950-1960-yillar – O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tarkibida yadro fizikasi,



o'simlik moddalari kimyosi, kibernetika seysmologiya, elektronika, biokimyo, fiziologiya va biofizika institutlari tashkil qilindi.

1950-1960-yillar – O'zbekistonda gidroliz zavodi barpo etildi. Shu yillarning o'zida Andijon gidroliz zavodi, Farg'ona furon birikmalari zavodi va Yangiyo'l biokimyo zavodi qurildi.

1950-1960-yillar – O'zbekistonda ko'pgina turar joy massivlari qurildi. Toshkentdagi yirik massivlar - Chilonzor, Yunusobod, Qoraqamish va boshqalar, viloyatlardagi zamonaviy qulay uylardan bunyod topgan mikrorayonlar shular jumlasidandir. Yangi massivlarga asosan Rossiya va boshqa respublikalardan ko'chib kelganlar joylashildi. Mahalliy aholi esa kanalizatsiyasi, gazi, markazdan turib isitiladigan moslamalari va boshqa kommunal-maishiy qulayliklari bo'lmagan eski turar joylar va mahalliy uylarda yashayverdi.

1950-1960-yillar – O'zbekistonda Oltin ishlab chiqarish sanoati ancha rivojlandi. Oltin ajratib oluvchi komplekslar, fabrikalar, oltin ruda kombinatlari, mis rudasini qayta ishlovchi kombinatlar ishga tushirildi.

1950-1960-yillar – Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining to'la ishga tushirilishi O'zbekistonni yirik mis sanoati markaziga aylantirdi. Mis hom ashyolari asosan Rossiyaga tashib keltiriladi edi. Korxonada 2 majmuadan - qo'rg'oshin-rux majmuasi hamda mis majmuasidan iborat.

1950-1960-yillar – RXP iqtisodiyotining rivojlanish davri.

1950-1960-yillar - Toshkent elektrotexnik aloqa instituti, Toshkent avtomobil yo'llari instituti, Andijon paxtachilik instituti, Andijon tibbiyot instituti, Andijon tillar pedagogika instituti, Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiya instituti, Farg'ona politexnika instituti va boshqa oliy o'quv yurtlari malakali kadrlarga bo'lgan talabni qondirdi. Maorif, sanoat, qurilish, transport, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, san'at va boshqa sohalarda mutaxassis kadrlar tayyorlandi.

1950-1962-yillar – SSSR, Polsha, Chexoslovakiya, GDR, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Albaniyada yalpi mahsulot 5-6 barobar ko'paydi. Ularning rivojlanish darajasi tenglasha bordi. Ayrim mamlakatlar (Bolgariya, Ruminiya, Albaniya) agrar holatdan industrial-agrar rivojlanish yo'liga o'tib oldi.

1950-1974-yillar – Polshada sanoat ishlab chiqarishi 10 marta ko'paydi. Xalq xo'jaligi rivojlanishining yuqori sur'atlari milliy daromadning tezkor o'sishini ta'minladi: u 5,4 marta o'sdi. Bu hol xalq xo'jaligiga ulkan kapital mablag'larni kiritish va xalqning moddiy va madaniy turmush tarzini ancha oshirish imkonini berdi. Savodsizlik tugatildi, bepul o'rta va oliy ta'lim hamda tibbiy xizmat yo'lga qo'yildi.

1950-1980-yillar – urushdan keyin JAR dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy oldi. Metallurgiya, to'qimachilik, oziq-ovqat va harbiy sanoat yuqori texnik darajada ishlay boshladi. Shimoliy Afrika boy berilgach, JAR Tropik Afrikada milliy-ozodlik harakatiga qarshi kurashda g'arb davlatlarining eng ishonchli ittifoqchisiga aylandi. JAR qo'shinlari noqonuniy ravishda Namibiyani bosib oldi, bir necha marta Angola va Mozambik hududlariga bostirib kirdi, boshqa qo'shni afrika davlatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish uchun turli harbiy ig'vogarlikni



keltirib chiqardi. Ingliz-fransuz-isroil Misrga qarshi kompaniyasi davrida JAR o'z soldatlarini va harbiy-havo kuchlarini jo'natishga tayyor turgan edi.

1950-yil - inglizlik yozuvchi *Jeyms Oldrijning* “*Ovchi*” romani nashrdan chiqdi.

1950-yil – Eronda 32 mln. tonna neft qazib olindi.

1950-yil – Fransiya tashqi ishlar vaziri *Robert Shuman* G'arbiy Yevropada ko'mir va po'latni birlashgan holda ishlab chiqarishni yaratish taklifi bilan chiqdi. Fransiya, Italiya, G'arbiy Germaniya va Benilyuks (Belgiya, Niderlandlar va Lyuksemburg) mamlakatlari Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi (YKPB)ni tashkil qildi. Uning faoliyati faqat bir soha bilangina bog'liq bo'lsa-da, biroq butun sanoat ishlab chiqarishi uchun muhim ahamiyatga ega edi. Yevropa ishlab chiqarishi yuksala boshladi.

1950-yil – Fransiyada qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmi ham urushdan avvalgi darajaga ko'tarildi.

1950-yil - fransuz yozuvchisi *Andre Morua* “*O'lik jonlar talvasasi*” romanini yozdi.

1950-yil - fransuz yozuvchisi *Jak Laffiting* “*Roz-Frans*” kitobi nashrdan chiqdi.

1950-yil – GDR O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashiga a'zo bo'lib kirdi.

1950-yil – GDRda sanoatni “sotsiallashtirish” tadbirlari olib borildi va natijada xususiy kapital tugatilib, korxonalar natsionalizatsiya qilindi. Qishloqlarni yoppasiga kollektivlashtirish boshlandi.

1950-yil – GFRda ishchilarni boshqaruv tizimiga jalb etish va mulkdorlar sinfini kengaytirish maqsadida ularga korxonalarining arzon aksiyalarini – “xalq aksiyalari”ni sotishga to'g'ri keldi.

1950-yil – Ittifoqqa bo'ysunadigan korxonalarda bir ishchining o'rtacha ish haqi 133 % ga ko'paygan bo'lsa, respublikaga bo'ysunuvchi korxonalarda 73 % ga ko'paydi. Bunday kadrlar siyosati mahalliy aholining moddiy va ma'naviy manfaatlariga ziyon yetkazib, respublikada millatlararo munosabatlarning murakkablashuviga zamin yaratdi.

1950-yil – Janubiy Afrikada qabul qilingan “guruhlar bo'yicha joylarga o'rnashish” to'g'risidagi qonun aparteid tizimining eng shafqatsiz harakati bo'lib qoldi. Mazkur qonunga ko'ra yevropaliklar butun mamlakat hududining 87 foiz, afrikaliklar esa atigi 13 foiz maydoniga o'rnashib yashashi lozim edi. Afrikaliklar uchun ajratilgan joylarda irqchilik rejimi tufayli 10 ta qo'g'irchoq “milliy davlat” bantustanlar tashkil topdi. Ulardan to'rttasi (Transkey, Boputatsvana, Vena, Siskey) hatto “mustaqil” deb e'lon qilindi.

1950-yil - mashhur amerikalik yozuvchi *E. Xeminguey* “*Daryo ortidagi daraxtlar soyasida*” romanini e'lon qildi, bu asar o'tgan urush haqidagi xotiralar va urushdan keyingi dunyo haqidagi o'ylarga bag'ishlandi. Kitobda aks ettirilgan g'oyalar qo'poruvchilik toifasiga mansub deb topildi va muallif dissidentlar qatoriga qo'shildi. Shunda u vatanini tark etishga qaror qildi. U Kuba inqilobi arafasida bu orolga ko'chib o'tdi.

1950-yil – O'zbekistonda g'allaning yalpi mahsuloti 742 ming tonnadan 666 tonnaga, sabzavotlar yalpi mahsuloti 433 ming tonnadan 328 ming tonnaga kamaydi. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish sohasida bosh yo'l bo'lib qolgan paxtachilikni jadal kengaytirish respublika hayotida ko'pgina salbiy oqibatlarga



olib keldi. Oziq-ovqat mahsuloti yetishtirish qisqardi, oziq-ovqat muammosi vujudga keldi. Ekologiya buzilib, aholi salomatligi yomonlashdi.

1950-yil – O'zbekistonda paxta yetishtirish miqdori 2 mln 222 ming tonnaga yetdi.

1950-yil – O'zbekistonda tomorqa uchastkalaridan sug'oriladigan yerlar normasi 0,15 gektardan 0,25 gektargacha deb belgilandi.

1950-yil – Portugaliya NATO tarkibiga kirgach, mamlakatda repressiya boshlandi. Biroq ular qarshi harakatni kuchaytirdi va bu fashist diktaturasiga qarshi ommaviy harakatni yuzaga keltirdi. ikkinchi yarmida avj olgan antifashistik harakatda jamiyatning deyarli barcha qatlamlari ishtirok etdi. Armiya diktatura tayanchidan hukumatga qarshi kuchga aylandi.

1950-yil – Saudiya Arabiston neft mahsulotlari ishlab chiqarishning dunyo markazlaridan biriga aylandi. Neft konlari mavjud rayonlarda zamonaviy sanoat ishlab chiqarilishi barpo etildi, yangi infratuzulma rivojlandi, yo'llar yotqizildi, shaharlar o'sdi.

1950-yil – Turkiya AQShdan harbiy yordam olib, NATOning o'ng qanotiga aylandi. Biroq bu mamlakatdagi iqtisodiy muammolarni hal qila olmadi. ko'ppartiyali umumxalq saylovi bo'lib o'tdi. Unda *Adnan Meoderes* boshchiligidagi Demokratik partiya g'olib chiqdi. Uning dasturi mamlakatda erkin tadbirkorlikka yo'l berish va davlat sektorini to'liq tugatishni mo'ljallagan edi. *A.Menderes* bosh vazir etib saylandi.

1950-yil – *V. Chervenkov* Bolgariya Davlatiga rahbarlik qildi.

1950-yil – Venesuelada mavjud tuzumga qarshi ishchilarning kuchli namoyishlari va xalq inqiloblari bo'lib o'tdi.

1950-yil – Xitoyda yer islohoti o'tkazilib, 300 million yersiz va kam yerli dehqonlar 47,6 million gektar yerga hamda ishlab chiqarish vositalariga ega bo'ldi. Xitoydagi feodal yer egaligi yo'q qilindi, zamindorlar esa sinf sifatida tugatildi. Bu Osiyodagi eng keskin agrar islohot bo'ldi. Yangi Xitoy qurilishining boshlang'ich bosqichida maoizm iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda ma'lum bir yutuqlarga erishdi.

1950-yil 1-yarmi – GFRda sanoat mahsulotlarining yillik o'sishi 12,3 % ga ko'tarildi.

1950-yil 2-yarmi – Amerika bozoriga Yaponiya tovarlarining shunchalik keng kirib borganligi uchun yapon industriyasini ommaviy ravishda qayta jihozlash boshlandi. Qirq yil ichida Yaponiyada ishlab chiqarishni strukturaviy qayta o'zgartirish yakunlandi. Ilmiy-texnika inqilobi yuz berdi. Sanoatning barcha tarmog'i qayta jihozlandi, dunyodagi eng ilg'or texnologiya va ilmiy yutuqlar tatbiq etildi.

1950-yil yanvar – Hindistonda yangi konstitutsiya qabul qilindi. Unga ko'ra mamlakat suveren demokratik respublika deb e'lon qilindi va yig'in qilish, namoyish o'tkazish, e'tiqod erkinligi kabi asosiy inson huquqlarini kafolatladi, umumxalq saylov huquqi joriy etildi. Tabaqaga ko'ra ajratish bekor qilindi, qulchilik va boshqa majburiy mehnat turlari bekor qilindi. Biroq yangi Hindiston yetakchilari mamlakat suverenitetligini mustahkamlash va uning gullab-yashnashi yo'lida hind xalqini jipslashtira olmadi. Hind xalqi kongressida (HXK) parchalanish holati yuzaga kelib qolgan edi.



1950-yil yanvar – O‘zbekistonda tomorqa yerlari va chorva tuyoqlari qisqartirildi. Tomorqa uchastkalarining maydoni qisqartirilib 0,12-0,15 gektarga tushirildi. “Normadan yuqori” degan bahona bilan sug‘oriladigan yerlar olib qo‘yildi, bog‘lar, tokzorlar kesib tashlandi, chorva tortib olindi.

1950-yil 26-yanvar - Hindiston Respublikasi e‘lon qilindi.

1950-yil iyun – Shimoliy Koreya qo‘shinlari 38-parallelni kesib o‘tdi hamda Janubiy Koreya hududiga bostirib kirdi. Bu mojaroga AQSh, Buyuk Britaniya, Avsraliya va Turkiya jalb etildi. Bular BMT bayrog‘i ostida qatnashishdi.

1950-yil iyun – Vengriyada ilgari o‘z-o‘zini boshqarish organlarini almashtirgan mahalliy kengashlar tuzildi. Vengriyada sovet tizimiga xos boshqaruv shakllari qaror topdi. Qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish o‘tkazildi.

1950-yil iyun – Amerika flot va aviatsiyasi Janubiy Koreyaga yordamga keldi. AQSh BMTga Shimoliy Koreyaga qarshi chora ko‘rish haqidagi iltimos bilan murojaat etdi, amerikalik diplomatlarning fikricha, u Janubiy Koreyaga qarshi tajovvuz qildi. Shimoliy Koreya qo‘shinlari hujumga qarshi turish uchun Janubiy Koreyaga BMT kuchlarini jo‘natish haqida Xavfsizlik Kuchlaridan rezolyutsiya olingach, AQSh BMT bayrog‘i ostida urush olib bordi. Biroq Xitoyning urushga aralashishi amerika qo‘shinini mag‘lubiyatga olib keldi va ular avvalgi marraga qaytishga majbur bo‘ldi.

1950-yil 25-iyun – Koreyada fuqarolik urushi boshlandi. AQShning Janubiy Koreyaga yordami.

1950-yil 25-iyun - KXDR hududiga Janubiy Koreya qo‘shinlatining hujumi. Koreyada urush boshlanishi.

1950-yil 26-iyun – Janubiy Afrika Milliy Kongressi (AMK) 1-marta irqiy kamsitilishga qarshi birgalikda norozilik namoyishini o‘tkazdi. Shundan beri shu sana milliy norozilik bildirilgan kun sifatida nishonlanib kelinadi.

1950-yil iyul – GSBP III s‘ezdida iqtisodiy rivojlanish 5 yillik rejasi ma‘qullandi. 5 yillik davomida 79 ta korxonalar va 100 ta yangi korxonalar tiklandi. Rostok, Vismar, Shtralzund va Varnemyundagi kemasozlik korxonalari, ikkita yirik melallurgiya kombinatlari shular jumlasidan. Bunday ulkan quyulish 20-30-yillarda SSSRda olib borilgan edi. Biroq ko‘p o‘tmay GDRda bunday ko‘lamdagi quyulishlarni davom ettirish uchun mablag‘ yo‘qligi ma‘lum bo‘ldi. Natijada ijtimoiy maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘larni qisqartirishga to‘g‘ri keldi. Mamlakatda oziq-ovqat kartochka bo‘yicha taqsimlanar, ish haqi juda past darajada edi. Qishloqlarda boshlangan kooperativ harakat mamlakat xalq xo‘jaligini xonavayron qildi.

1950-yil 29-sentabr - GDRning O‘IYKga qabul qilinishi.

1950-yil boshi – AQSh *Bao Daya* hukumatini tan oldi va bu tuzumga amerika harbiy va iqtisodiy yordamini berish haqidagi bitimni imzoladi. Shu tariqa mamlakat 20 yil urush girdobiga tortildi. Deyarli bir paytning o‘zida Sovet Ittifoqi, XXR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari *Xo Shi Min* hukumatini tan oldi.

1950-yil boshi – VXR sanoati rivojlanishi mamlakat tarixida misli ko‘rilmagan sur‘atlarda kechdi.

1950-yil o‘rtasi - “yangi roman” deb nomlangan oqim paydo bo‘ladi. *Rob-Griye*, *Natali Sarrot* va *Mishel Byuto*lar uning eng ko‘zga ko‘ringan vakillaridan edi. Ular



an'anaviy roman janrini inkor etib, o'z umrini yashab bo'ldi deyishdi. Ularning asosiy tamoyili san'at "degumanizatsiyasi" bo'lib, insonni shaxs sifatida tasvirlashdan voz kechish va adabiyotni buyumlarni tasvirlashga aylantirishni taklif etdi. Shu bois bu oqimni ba'zan «shozizm» (ya'ni "buyumlarni tasvirlash") deb atashadi. Mazkur oqim yozuvchilari ekzistensializmga ham, realizimga ham birdek qarshi chiqishdi. Ularning asarlari naturalizm bilan farqlanib, ko'pincha turli ma'nosizliklarga olib keldi. Ular uchun o'z olamini yo'qlikdan yaratuvchi yozuvchi fantaziyasi adabiy ijodning asosi edi.

1950-yil o'rtasi – GFRda oziq-ovqat muammosi hal etildi.

1950-yil o'rtasi – O'zbekistonda asossiz qatag'on qilinganlarni oqlash Stalin vafotidan boshlangan edi. Natijada 40000 kishi oqlandi.

1950-yil o'rtasi – O'zbekistonda qishloq xo'jalik rahbar xodimlari orasida oliy, o'rta va yeti yillik ma'lumotga ega bo'lganlar 4 kishiga faqat bittadan to'g'ri kelardi.

1950-yil o'rtasi – SSSRda butun aholining 35 foizi qishloqlarda istiqomat qilar edi. Vaholanki, rivojlangan davlatlarda bu paytda fermerlar umumiy aholining 3-5 foizini tashkil qilgan. Mashina-traktor stansiyalari tugatildi. Jamoa xo'jaliklari esa kengaytirildi. Qozog'iston shimolidagi qo'riq yerlarni o'zlashtirish hisobiga ekin maydonlari yuz minglab gektarga kengaydi, mamlakat bug'doy yetishtirishni ko'paytirdi. Biroq bir necha yildan so'ng yangi yerlar eroziyaga uchradi, qoloq agrotexnika bu borada ishlab chiqarishning pasayishiga sabab bo'ldi. Sovet Itlifqi donni AQShdan sotib olishga majbur bo'ldi. Kolxoz tizimi SSSRda aholini boqish va sanoatni muhim xom ashyo bilan ta'minlashga qodir emasligi ko'rindi. Kishilarning shaharga ko'chib kelinishi chegaralagan holda ular qishloqda majburan ushlab turildi.

1950-yil oxirl 1960 yil boshi – Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi yana turli tajriba (eksperiment) lar girdobiga tortildi. Bu gal *A.Xrushchev*ning talabiga ko'ra makkajo'xori yetishtirishga, hatto avtonom respublikaning shimoliy tumanlarida uni o'stirishga katta e'tibor berildi.

1950-yil oxiri – Fransiyaning iqtisodiy ahvoli yaxshilandi. Bu borada "Marshall rejasi" muhim rol o'ynadi. Urush oqibatlarini tugatish, ilmiy-texnik revolyutsiya, davlat buyurtmalari va kreditlar sanoat rivojlanishi sur'atining oshishiga katta yordam berdi. Sanoatning yangi tarmoqlari – elektronika, kimyo, samolyotsozlik, avtomobilsozlik tez rivojlana bordi. Og'ir sanoatning solishtirma hajmi ko'paydi.

1950-yil oxiri – General *Makartura* qo'mondonligidagi qo'shin avvaliga Shimoliy Koreya qo'shini hujumini qaytardi, so'ngra ularni qariyb Manchjuriya chegaralarigacha chekinishga majbur etdi. Xitoylar Shimoliy Koreyani qo'llab-quvvatlash uchun qo'shin yubordi, amerikaliklar esa chekinishga majbur bo'ldi. Oxir oqibatda 38-parallel bo'yicha chegara tiklandi.

1950-yil oxiri – GFR eksportga oziq-ovqat mahsulotlarini olib chiqa boshladi.

1950-yil oxiri – Italiyada jadal iqtisodiy ko'tarilish boshlandi, mehnat mahsuldorligi oshdi, mamlakatning rivojlangan davlatlar sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi ko'paydi. Fan-texnika inqilobi keng quloq yozdi, metallurgiya, avtomobil va kimyo sanoatida modernizatsiyalash va avtomatlashtirish jarayoni kechdi, yuqori texnologiya bilan bog'liq yangi tarmoqlar



paydo bo'ldi. U agrar-sanoat mamlakatidan sanoat-agrar mamlakatiga aylandi.

1950-yil oxiri – *Xrushchev* shaxsiga sig'inish avj oldi.

1950-yil oxiri – Yugoslaviyada sanoat ishlab chiqarishi hajmi urushgacha bo'lgan darajaga nisbatan 3 marta, qishloq xo'jalik mahsulotlari esa 40 % ga o'sdi. Elektr energiya ishlab chiqarish va neft qazib chiqarish oshdi. Sanoatning elektrotexnika, kimyo, metallurgiya sohalari mahsuloti ulushi tez o'sdi. Aholi turmush darajasi o'sishi kuzatildi. Yugoslaviya sanoat mahsuloti jahon bozorida raqobatbardoshlikka erishdi.

1950-yil – “ijtimoiy yo'naltirilgan bozor ho'jaligi” doktrinasi G'arbiy Germaniya iqtisodini rivojlantirish manfaatlariga nisbatan to'liq mos keldi. Muhimi, erkin kapital, ichki va tashqi bozor hajmining mavjudligi, arzon ish kuchi massasi va davlat boshqaruvining cheklanganligi G'arbiy Germaniya iqtisodining muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minladi.

1950-yil – “Sharq yulduzi” jamoa ho'jaligidan *H. Tursunqulov*, Andijon tomonidan *I. Bakirov*, Bog'ot tumanidan *I. Do'stov* va boshqalar har gektar yerdan 30-40 sentnerdan paxta yetishtirgan ko'pgina paxtakorlarning nomlari O'zbekistonda mashhur bo'ldi. Paxtachilik brigadalari boshliqlari (*R. Odilboyev*, *Sh. Voisxonov*, *P. Yo'ldoshev* va boshqalar), paxta terish mashinalarida mavsumda 70-80 tonna va undan oshirib paxta tergan mexanik haydovchilar (*N. Bakirov*, *A. O'roqboyev*, *I. Tursunov* va boshqalar), munosib ravishda shuhrat topdilar.

1950-yil – Buxoro viloyatining Gazli shaxrida ulkan gaz-neft konining topilishi O'zbekistonda gaz sanoatining tez suratlarda rivojlanishiga asos bo'ldi. Gazlining umumiy gaz boyligi 446 mlrd kubometr ga teng edi. Gaz ishlab chiqarish yildan yilga ortib bordi.

1950-yil – GFR ishlab chiqarish hajmi bo'yicha birin-ketin ko'pgina mamlakatlarni quvib o'ta boshladi, aholining turmush darajasi ancha ko'tarildi.

1950-yil - O'zbekistonda islohotlar tufayli hunarmandchilikning asosiy qismi qismi yo'q qilindi. Davlat mulkiga aylantirilgan korxonalarda buyumlar sifati keskin pasaydi. Chunki ustalarga tayyorlangan mahsulot soniga qarab haq to'lanar edi. Hunarmandlar ko'p mehnat sarflab, sifatli mahsulot ishlab chiqarishdan manfaatdor emasdilar. Ular sifatli buyumlarni buyurtmachilarga va bozorga chiqarardilar.

1950-yil – O'zbekistonda tibbiyot muassasalarini ko'paytirishga oz-moz e'tibor berildi.

1950-yil – O'zbekistondagi cho'llarni o'zlashtirish ishlari keng miqyosda davom ettirildi.

1950-yil – teng huquqli hayot uchun kurashda Afrika Milliy Kongressi (AMK) afrikaliklarning haqiqiy yetakchisiga aylandi. AMK a'zosi 100 ming kishigacha yetdi. U kichik-kichik yon bosishlarni talab qiluvchi tashkilotdan irqchilik rejimini butkul tugatish uchun kurashuvchi kuchli siyosiy tashkilotga aylandi. U Janubiy Afrika milliy kongressi bilan yaqin aloqa bog'ladi. Mazkur kongress *M. Gandi* tomonidan shu yerda istiqomat qiluvchi hindularning vakili sifatida tashkil qilingan edi.

1950-yil – yapon-amerika shartnomasi tuzilishi Yaponiya iqtisodini



rivojlantirishning negizi bo'lib qoldi. Yaponiya Amerika bozoriga kirish imkoniyatini oldi. AQSh bozori o'ziga xos qat'iy qoidalarga ega: bu yerga keltiriladigan tovarlar eng yuqori sifatli, zamon talablariga javob beradigan va raqobatbardosh bo'lishi lozim. Yaponiya sanoati o'zini ko'rsata oldi. Hozirda amerika importining 20 foizini yapon tovarlari tashkil qiladi va boshqa birorta mamlakat amerika bozorida Yaponiya bilan raqobat qila olmaydi. Har yili Yaponiya Amerika bozoriga 100 mlrd. dollardan ortiq miqdorda tovar yetkazib beradi.

1950-yil 2-yarmi – Liviyada yirik neft konlari ochildi, neft qazib chiqarish iqtisodiyotning asosiga aylandi va mamlakat milliy daromadining tezkor oshishiga imkon yaratdi. Liviyada neft qazib chiqarish ruxsatiga ega barcha xorijiy kompaniyalar to'liq yoki qisman (51 foizga) natsionalizatsiya qilindi. Davlat mamlakatda neft mahsulotlarini sotish va taqsimlashni o'z qo'liga oldi. Milliy neft-kimyo sanoati va neftni olib chiqib ketish uchun o'z tanker floti tashkil etildi.

1950-yil 2-yarmi – Lotin Amerikada bir qator diktatorlik tuzumlari tugatildi.

1950-yil boshi - biologiya fanining genetika sohasida inqilobiy kashfiyotlar amalga oshirildi. Olimlar xromosomalar eng avvalo DNK kislotalaridan iboratligini va aynan DNK genetik axborot tashuvchi ekanligini aniqlashdi.

1950-yil boshi – *de Gasperi* hukumati zamindorlar yerlarining bir qismini pul evaziga musodara qilishini o'z ichiga olgan agrar islohotni o'tkazdi. Chegaralanganligiga qaramay, islohot Italiya janubidagi yirik zamindorlar mavqeiga putur yetkazdi va janubiy viloyatlarda iqtisodiyotning jadal rivojiga zamin yaratdi.

1950-yil boshi – O'zbekistonning faqat 15 ta shaharida vodoprovod tizimi bor edi. Aholining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoji atigi 25-30 % atrofida taminlandi, tumanga bo'ysunadigan 11 ta shahar va 140 ta tuman markazida vodoprovod tizimi yo'q edi.

1950-yil boshi – Sovet Ittifoqi va sotsialistik lagerga mansub mamlakatlar o'rtasida uzoq muddatli iqtisodiy kelishuv imzolandi. Aynan shu narsa g'arb mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarning buzilishiga va Sovet Ittifoqining ushbu mamlakatlar iqtisodidan ustun bo'lishiga olib keldi. Ular o'rtasida iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi va yaqinlashuvi harbiy-siyosiy ittifoqning tashkil topishiga sabab bo'ldi.

1950-yil boshi – SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatlar bilan munosabatlarning uzilishi yugoslav iqtisodiyotiga og'ir ta'sir etdi. Yugoslaviya iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. U kapital mablag'lar yetishmovchiligini boshdan kechirdi, ulkan qurilishlar to'xtab qoldi, malakali kadrlar yetishmadi.

1950-yil o'rtasi 1960-yil boshi – O'zbekistonda siyosiy iliqlik davrida stalincha istibdod tizimining ayrim haddan tashqari jihatlari bartaraf etildi. Biroq ular mustabid tuzumning negizlariga daxl qilmadi. Hokimiyat tepasiga Breynev ma'muriyatining kelishi bilan stalinizmning g'oyaviy oqlanish yo'li ko'zga tashlandi, puturdan ketayotgan tuzumni mustahkamlashga qaratilgan mafkuraviy hujum kuchaytirildi.

1950-yil o'rtasi – Amerika qit'asining bir qator mamlakatlarida mavjud tuzumga qarshi ishchilarning kuchli namoyishlari va xalq inqiloblari bo'lib o'tdi.



1950-yil o'rtasi – O'zbekiston havo yo'llarida yuksak tezliklar davrini ochib bergan TV-104 rusumli yo'lovchi tashuvchi samalyot barpo etildi. Shu yillarda Toshkent 50 ga yaqin davlatlar bilan havo yo'llari orqali bog'langan edi.

1950-yil o'rtasi – O'zbekistonda yangi paxtachilik rayonlarini barpo etish maqsadida qo'riq yerlarni o'zlashtirish boshlandi. Mirzacho'l va Qarshi dashtlarini, Surxon-sherobod vodiysini sug'orish va o'zlashtirish ishlari avj oldi. Yerni o'zlashtirish asosan paxta ekishga mo'ljallangan edi.

1950-yil o'rtasi – Sirdaryoda Boyovut kanali, Farg'ona va Namangan viloyatlari orqali o'tuvchi Oxunboboyev nomli kanal, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlarida eski Angor kanali qurildi.

1950-yil o'rtasi – yengil va oziq-ovqat sanoati, avtomobil transporti, temir va asfalt yo'llar, sog'liqni saqlash, aloqa, umumiy ovqatlanish va boshqa tizimlarga qarashli 10 lab korxonalar O'zbekiston ixtiyoriga berildi.

1950-yil oxiri – II jahon urushi tufayli Yevropada yuzaga kelgan iqtisodiy va siyosiy inqiroz jahon siyosatida Yevropa davlatlari rolining pasayishiga olib keldi. Bir paytlar jahon miqyosida yuqori mavqeili bo'lgan Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya 2 buyuk davlat oralig'ida qolib, oddiy "Yevropa" davlatlariga aylandi va to'liq mustaqil davlatlar bo'lmay qoldi. "Marshall rejası", NATO amerika yadro quroli AQSh Yevropa siyosati va iqtisodiyoti rivojlanishida uzoq vaqt ustivor rol o'ynashini anglatardi. Yevropa – umuman, xususan – Germaniya Sovet Ittifoqi va AQSh o'rtasidagi davomiy qarama-qarshiliklar maydoniga aylandi va ular taqdiri bu ikki buyuk davlat munosabatlaridagi keskinlik darajasiga bog'liq bo'lib qoldi.

1950-yil oxiri – Lotin Amerikasi mamlakatlarida yangi inqilobiy ko'tarilish boshlandi.

1950-yil oxiri – O'zbekistonda ma'muriy-iqtisodiy rayonlardagi sanoat va qurilish boshqaruvi Xalq xo'jaligi kengashlari ixtiyoriga o'tkazildi. Bu islohot umuman olganda ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. U ortiqcha markazlashtirishni cheklab, xo'jalikka rahbarlik qilishda mahalliy organlarning huquqlarini kengaytirdi. Bu islohot kutilgan natijaga olib kelmadi.

1950-yil oxiri – O'zbekistonda nohaq unutilib yuborilgan, ko'pincha esa jismonan yo'q qilingan mazkur xalq farzandlarining asarlari faqat shaxsga sig'inish oqibatlari tugatila boshlangan davrdan keyingina xalqqa asta-sekin qaytarildi.

1951-1952-yillar – Iordaniyada *Talal* hukmronlik qilgan davri.

1951-1953-yillar – *Muhammad Mosoddinqing* Eron Bosh vaziri lavozimidagi faoliyati.

1951-1955-yillar – Ruminiyada butun sanoat natsionalizatsiya qilindi, unga rahbarlik qilish maqsadida respublika iqtisodiyotini rivojlantirish uchun 1-besh yillik reja tasdiqlandi. 100 ta yirik korxonalar qurildi, 200 tasi kengaytirildi va qayta qurildi. Mamlakatni keng miqyosda elektrlashtirish boshlandi. Biroq sanoatni barpo etishdagi muvaffaqiyatlar rumin xalqi ahvoriga kam ta'sir ko'rsatdi. Davlat mulkchiligi monopoliyasi iste'mol mollari ishlab chiqarilishi rivojlanishini to'xtatib qo'ydi. Bozor munosabatlari to'liq tugatildi.

1951-1955-yillar – *Uinston Cherchill* Buyuk Britaniyada bosh vazir lavozimida.

1951-1960-yillar – Albaniyada ikki besh yillik rejalar bajarilishi chog'ida (1951-



1955 va 1956-1960-yillar) Albaniya asosan texnik-iqtisodiy qo'loqlikka barham berdi. U Durres portini o'z harbiy-dengiz bazasiga aylantirish va shu yo'l bilan Adriatika dengizida nazorat o'rnatishni mo'ljallagan SSSRning strategik rejalarida muhim o'rin tutdi. Boshqa tomondan, Albaniya Yugoslaviya bilan mojaroda umumiy aksilyugoslav frontida janubiy qanot rolini o'ynashi lozim edi. Sovet Ittifoqi yordami bilan dastlabki besh yilliklarda alban sanoatining o'zagi barpo etildi: elektrostansiyalar, neftni qayta ishlovchi va shakar kombinatlari qurildi, toshko'mir, mis, temir-nikel va xrom konlari ochildi.

1951-1964-yillar – Angliyada konservatorlar partiyasi hokimiyatga keldi.

1951-yil – Amerika senati Yalta shartnomasini ratifikatsiya qilib, uning Yaponiyaga tegishli bandlarini shubha ostiga ola boshladi. Ma'lumki, mazkur shartnomada Kurill orollari va Janubiy Saxalin Sovet Ittifoqiga berilganligi qayd qilingan edi. Shundan beri Kurill tizmasiga kiruvchi Xabomai, Shikatan, Iturup va Kunashir orollari SSSR va Yaponiya o'rtasidagi doimiy qarama-qarshilik manbaiga aylandi. Yaponiya bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzgan AQSh uni Sovet Ittifoqiga qarshi qayray boshladi.

1951-yil – butun Eronda Angliya – Eron neft kompaniyasi (AENK) bilan tuzilgan bitimni tugatish talab qilingan namoyish va norozilik chiqishlari avj oldi. Neft konlarida ish tashlashlar ko'paydi. Butun mamlakatda ish tashlagan neftchilar bilan hamkoriik harakati keng quloch yoydi.

1951-yil - fransuz yozuvchisi *Andre Morua* "*Do'zahdagi uchrashuv*" trilogiyasini yozdi.

1951-yil - germaniyalik shoir *I.Bexer* "*Uzoqdagi baxtlar yaqinda yarqiradi*" kitobini nashrdan chiqardi.

1951-yil - germaniyalik yozuvchi *G.Byoll* o'zining "*Adam, sen qayerda eding*" satirik romanini nashrdan chiqardi. Satirik romanida fashistlar jinoyatlari uchun aybni zo'rvonlikka qarshi norozilik bildirmagan nemis xalqiga ham yukladi.

1951-yil – Gvetemalada xalq inqilobi boshlandi.

1951-yil - *Ho'ja Ahmad Abbosning "Daydi"* filmi yaratildi.

1951-yil – Liviyada hokimiyatni qonuniylashtirish uchun mustamlakachilar eng qadimgi musulmon mazhabi – sanusitlar vakilini *Idris I* nomi bilan Liviya qiroli deb e'lon qildi, u mustamlakachilarning ashaddiy tarafdoriga aylandi.

1951-yil – marshal *Aleksandr Papagos* armiyadagi barcha lavozimlardan ketib, yangi "Gretsiya majlisi" partiyasini tuzdi.

1951-yil – O'zbekistonda mineral o'g'itlar 0,9 mln tonnani tashkil etgan.

1951-yil – PBIP rahbariyati yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish uchun partiya rahbarlik organlarida o'zgarish qildi. Shu yili u barcha lavozimlardan olib tashlangan va qatag'onga uchragan *V.Gomulka* partiya yo'lboshchisi bo'ldi. Mashhur yo'lboshchining qaytishi ma'lum muddatga mojaroni pasaytirib turdi. *V.Gomulkaning* siyosiy harakatlari asosan sotsializmning polyakcha modelini tadqiq etishga yo'naltirilgan edi. Biroq uning faoliyati faqat rejalashtirish usullarini yaxshilash, kolxozlarni tarqatish va barcha yerlarni dehqonlarga berish bilan cheklandi, xolos. Korxonalarda cheklangan vakolatga ega ishchi kengashlari tuzildi. Mamlakat siyosiy hayotida hech narsa o'zgartmadi.



1951-yil – Polshada Milliy front tuzilgan bo‘lib, unga PBIP, Birlashgan dehqon partiyasi va yangilangan Demokratik partiya birlashdi va real hokimiyat kommunistlarga tegishli bo‘ldi. Saylovlar Milliy birlik frontiga g‘alaba keltirdi. Uning nomzodlari uchun 99 foiz saylovchilar ovoz berdi. Partiya diktaturasining konstitutsiyaviy rasmiylashtirilishi tugadi.

1951-yil – San-Fransiskoda “Xavfsizlik to‘g‘risida shartnoma” imzolandi. Unda ikki mamlakat Yaponiya va AQSh o‘rtasidagi harbiy-siyosiy ittifoq rasmiylashtirildi. Mazkur shartnoma mamlakatda amerika harbiylarining bo‘lishini abadiylashtirilib qo‘ydi va yapon qurolli kuchlarini tashkil etishga yo‘l bermadi.

1951-yil – Turkiya harbiy-siyosiy blok – SEATOga a‘zo bo‘lib kirdi. U Bog‘dod paktini imzoladi. Turkiya Amerika siyosatida muhim bo‘g‘in bo‘lib qoldi.

1951-yil – *Xo Shi Min* Vetnam mehnatkashlar partiyasi raisi.

1951-yil – yozuvchi va shoirlardan *Said Ahmad, Mirkarim Osim, Mirzakalon Ismoilov, Maqsud Shayxzoda, Shukrullo, Shuhrat* (G‘ulom Alimov), *Hamid Sulaymon* va boshqalar “*Sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati*”da ayblanib qamoqqa olindilar, so‘ng esa 25 yil muddatga ozodlikdan mahrum etildilar.

1951-yil – Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg o‘rtasidagi tuzilgan shartnomaga ko‘ra (YKPB) Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasiga asos solindi. Shartnomada ishtirok etayotgan mamlakatlar uchun ko‘mir va po‘lat umumiy bozorini yaratish va bojxona to‘lovlarini man etishni ko‘zda tutgan.

1951-yil avgust – O‘zbekiston matbuotida “*Ba‘zi shoirlarning ijodidagi mafkuraviy buzg‘unchilik to‘g‘risida*” nomli maqola e‘lon qilinib, unda *Turob To‘la, Mirtemir, Sobir Abdulla, Habibiy* millatchilar sifatida nohaq tanqid qilindi. Shundan so‘ng “*O‘zbek sovet adabiyoti vazifalaridan chetda*” nomli maqola paydo bo‘ldi, unda o‘zbek adabiyotining *Oybek, H.Zaripov, H.Yoqubov, I.Sulton* va boshqa arboblari “*jiddiy mafkuraviy xatolar va buzg‘unchilikda*” ayblandi.

1951-yil 1-sentabr - San-Fransiskoda AQSh va Yaponiya o‘rtasida Xavfsizlik bo‘yicha Tinch okeani paktining imzolanishi. Mamlakatdan AQShqo‘shinlari olib chiqib ketildi.

1951-yil dekabr – Fransiya tashabbusi bilan *Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasi* (YKPB) tashkil etildi. Bu Fransiya va Germaniya ko‘mir hamda po‘lat eritish sanoati birlashuviga asos soldi.

1952-1953-yillar – *Ahmad Faud II* Misr qiroli.

1952-1953-yillar – *Fuod II* Misrda hukmronlik yillari.

1952-1953-yillar – Moskvada Stalin tuzumi yangi qatag‘onlar kompaniyasini boshladi. Barcha milliy respublikalarda taniqli madaniyat arboblari qamoqqa olish boshlandi.

1952-1955-yil – *Aleksandr Papagos* Gretsiya bosh vaziri.

1952-1955-yillar – *George Georgiu-Dej* RXPda Vazirlar Kengashining raisi.

1952-1957-yillar – Myanma prezidenti *Ba U*.

1952-1960-yillar – AQSh Prezidenti konservatorlar, respublikchilar partiyasi vakillaridan saylandi.

1952-yil – Amerika neft kompaniyalari daromadlaridan olingan ajratmalar hisobiga Saudiya Arabiston hukumati 212 mln. dollar foyda oldi. Biroq daromadlarning ko‘p qismi eng avvalo qirol oilasi ehtiyojlariga sarflandi.



1952-yil – amerika-yapon shartnomasiga ko'ra barcha harbiy bazalar AQSh qurolli kuchlariga qaraydigan va ularni ushlab turganligi uchun Yaponiyaga har yili 150 mln. dollar to'laydigan bo'ldi. Amerika amalda Yaponiyaning barcha hududini nazorat qilish huquqini qo'lga kiritdi.

1952-yil – Angliya atom bombasini sinovdan o'tkazdi.

1952-yil – AQShdagi prezidentlik saylovlarida respublikachilar partiyasi taniqli amerikalik harbiy, AQSh va Angliyaning Yevropadagi birlashgan qurolli kuchlari sobiq bosh qo'mondoni, NATO qurolli kuchlarining bosh qo'mondoni, general *Duayt Eyzenxauemi* prezidentlik lavozimiga nomzod etib ko'rsatdi. *Duayt Eyzenxauemi* ishonchli g'alabani qo'lga kiritdi.

1952-yil – Boliviya xalq inqilobi boshlandi.

1952-yil – *Elizaveta II* Buyuk Britaniya qiroli.

1952-yil - germaniyalik shoir *I.Bexer* "*Nemis sonetlar*" kitobini nashrdan chiqardi.

1952-yil - germaniyalik yozuvchi *Leongrad Frank* "*Chapda, yurak tomonda*" avtobiografik kitobini nashrdan chiqardi.

1952-yil – Gretsiya NATO safiga kirdi.

1952-yil – lordaniya shoh *Husayn* hukmronlik qilgan.

1952-yil - mashhur amerikalik yozuvchi *E.Xeminguey* o'zining so'nggi yirik asari bo'lgan "*Cho'l va dengiz*"ni yozdi. Bu asar inson g'ururi haqida: odam hatto qariganda ham yengib bo'lmasdir va u oxirigacha kurashmogi lozim.

1952-yil – Parijda "Yevropa mudofaa uyushmasi" to'g'risidagi shartnoma imzolandi va u Germaniyaning qayta qurollanishiga olib keldi.

1952-yil – Ruminiya pul islohoti zarur natijalarni bermadi, chunki erkin bozorning yo'qligi pulni uning haqiqiy vazifasidan mahrum etdi.

1952-yil – Shimoliy Atlantika shartnomasiga Gretsiya va Turkiya qo'shildi.

1952-yil 18-fevral - Gretsiya ya Turkiyaning NATOga qo'shilishi.

1952-yil 21-22-fevral – O'zbekiston Kompartiyasining X plenumida "*Respublikada mafkuraviy ishlarning ahvoli va uni yaxshilash choralar*" degan masala ko'rib chiqildi. O'zbekiston Kompartiyasi KPSSning tarkibiy qismi sifatida uning g'oyaviy-tarbiyaviy sohadagi siyosatini, milliy madaniyatini cheklash, ziyolilarni qatag'on qilish to'g'risidagi ko'rsatmalarini hayotga tadbiiq etish choralarini ko'rdi.

1952-yil 26-fevral - Buyuk Britaniya atom bombasi yaratganligini e'lon qildi.

1952-yil 22-iyul – Polsha seymi PBIP taklif etgan yangi Konstitutsiyani ma'qulladi. Mamlakat Polsha Xalq Respublikasi deb e'lon qilindi. Konstitutsiya PBIPlning rahbarlik roli va PXRning iqtisodiy asosi sifatida sotsialistik xo'jalik tizimini mustahkamladi.

1952-yil 23-iyul – *Jamol Abdul Nosir* rahbarligidagi "*Erkin zobitlar*" vatanparvarlik kayfiyatidagi harbiylar guruhi qiroi va hukumatni ag'dardi. Misrda milliy-vatanparvarlik inqilobi ro'y berdi.

1952-yil 26-iyul - Misr qiroli Farruxning taxtdan voz kechishi.

1952-yil sentabr – totalitar iqtisodiyot ochiq-oydin orqada qola boshladi va RIP totalitar siyosiy tizimni shakllantirishga qaror qildi. Qabul qilingan yangi konstitutsiya RIPni mamlakat siyosiy hayotida "rahbar kuch" deb e'lon qildi.



Georgiu-Dej shu yili Vazirlar Kengashi raisi bo'ldi. Mamlakat davlat tuzilmasida mavqeiini mustahkamlagan *G.Georgiu-Dej* partiyada o'zining yakkahokimligini qaror toptirdi.

1952-yil 27-sentabr - Ruminiya konstitutsiyasi qabul qilinishi.

1952-yil 26-oktabr – Polshada yangi Konstitutsiya asosida seymga saylovlar bo'lib o'tdi.

1952-yil 30-oktabr - Angliyada birinchi bor atom sinovi o'tkazildi.

1952-yil noyabr – Gretsiyadagi parlament saylovlarida *Aleksandr Papagos* g'alaba qozondi.

1952-yil noyabr – Santyagoda (Chili) Boliviya ishchi markazi, Chili yagona kasaba markazi va Argentina kasaba uyushmalarining demokratiyalashtirish va mustaqillik uchun harakati vakillari qo'shma deklaratsiyani imzolashdi, bu deklaratsiyada xorijiy kompaniyalar zo'ravonligiga qarshi kurash va suverentitetni qaror toptirish hamda ilg'or islohotlarni o'tkazishda birdamlikka chaqirildi.

1952-yil 4-noyabr - AQSh prezidentlik saylovlarida *D.Eyzeoxauer* g'alabasi.

1952-yilgacha – *Petru Groza* Ruminiya bosh vazir o'rnida qoldi, so'ngra iste'foga chiqdi.

1953-1954-yillar – *M. Najib* Misr prezidenti.

1953-1957-1961-yillar – XDI/XSI parlament saylovlarida g'alaba qozonishi. Federal kansleri *K. Adenaueming* yanada obro'si oshishi.

1953-1957-yillar – *A. Zapotoskiy* Chexoslovakiyada prezident.

1953-1958-yillar – O'zbekistonda 200 ga yaqin kasalxonalar ochildi, ulardagi o'rinlar soni 13 mingtaga ortdi.

1953-1958-yillar – Ozbekiston texnikumlarida mutaxassislar yetishtirish 3 baravar ortdi.

1953-1958-yillar – *Rene Koti* Fransiya prezidenti.

1953-1961-yillar – *D. Eyzenxaueming* AQSh prezidentligi davri.

1953-1961-yillar – hukumat tepasiga respublikachilar ma'muriyati kelgan AQSh prezidenti *Duayt Eyzenxauer* yetakchiligida ichki siyosatda o'zgacha fikr yurituvchilarga qarshi yurish boshlandi. Bu kompaniyani respublikachi senator *Jozef Makkarti* boshqargan edi. Senatda "amerikaparastlikka qarshi faoliyatni tekshirish bo'yicha komissiya" tashkil etilib, u ilg'or fikrovchi kishilarni ta'qib eta boshladi va AQSh Konstitutsiyasini buzgan holda ularga qamoq jazosi, jarima solish va ishdan haydash kabi hukmlar chiqara boshladi. Makkartizm mamlakatdagi har qanday o'zgacha fikrni amalda yo'q qilib, AQShning demokratik an'analariga katta ma'naviy zarar yetkazdi.

1953-1962-yillar – *Ibn Sauding* merosxo'ri qirol *Saud* hukmronlik qilgan.

1953-1963-yillar – *Ngo Din Dem* Janubiy Vetnamning prezidenti.

1953-1980-yillar – *Iosif Broz Tito* Yugoslaviya prezidenti.

1953-yil - amerikalik olim *Jeyms Vatson* va ingliz olimi *Frensis Krin* Kembrij universitetida birga ishlagan chog'ida ilk bor DNK tuzilishi formulasini ma'lum qilishdi.

1953-yil - inglizlik yozuvchi *J. Lindseyning* "*To'lqin ko'tarilmoqda*" nomli romani nashrdan chiqdi.



1953-yil – *Bxutto Benazir* dunyoga keldi.

1953-yil - fransuz yozuvchisi *Jak Laffiting* “*Komandir Marso*” kitobi nashrdan chiqdi.

1953-yil - *Ho'ja Ahmad Abbosning* “*Ganga*” filmi yaratildi.

1953-yil – *Idris I* Angliyaga Liviya hududida harbiy bazalarni joylashtirish huquqini berdi.

1953-yil – ikki tomonlama Gretsiya – Amerika shartnomasiga muvofiq Gretsiyaning barcha hududi, portlar, aerodrom, kommunikatsiya, omborlar AQSh nazorati ostiga o'tdi. *A.Papagos* Gretsiyani AQSh ittifoqchisiga aylantirib, Sharqiy O'rta Yer dengizidagi amerika siyosatining muhim bo'g'ini sifatida tashqi siyosatda tub burilish yasadi.

1953-yil – ingliz olimlari *Ventris* va *Chadviklar* qadimgi kritiklarning chiziqli “B” yozuvini o'qishga muvaffaq bo'ldilar.

1953-yil – SSSRda hokimiyat sekin-asta KPSS MK 1-kotibi etib *N. S. Xrushev* tayinlandi.

1953-yil – SSSRda ilk marta vodorod bombasi yaratildi, u o'z vayronagarchilik kuchiga ko'ra atom va neytron bombasidan minglab marta kuchli edi.

1953-yil – tuzilgan do'stlik, savdo va dengiz kemalari qatnovi to'g'risidagi Amerika-Yapon shartnomasi har ikki mamlakat fuqarolari hamda kompaniyalariga bir-birlarining hududlarida tijorat faoliyati borasida teng huquqqa ega bo'lish imkoniyatini berdi.

1953-yil – Xitoyda sanoat tiklandi.

1953-yil – Yugoslaviya va SSSR o'rtasida diplomatik munosabatlar Stalin vafotidan so'ng tiklandi.

1953-yil yanvar – Moskvada Stalinga qarshi suiqaasda ayblangan bir guruh shifokorlar qamoqqa olindi. Bularning hammasi 30-yillar senariysi bo'yicha amalga oshirildi. Biroq ommaviy terrorga tayyorgarlikning eng qizg'in paytida to'satdan Stalin vafot etdi.

1953-yil yanvar – Yugoslaviyada Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi, unga ko'ra YFXR ijtimoiy va siyosiy qurilishidagi o'zgarishlar “o'z-o'zini boshqarish sotsializmi”ga muvofiq olib borildi. Davlat hokimiyatining oliy organi Ittifoq xalq skupshinasi bo'ldi. U ikki palata: Ittifoq vechesi va Ishlab chiqaruvchilar vechesidan iborat edi. Ittifoq xalq skupshinasi I.Broz Titoni mamlakat prezidenti va hukumat rahbari etib sayladi. YFXR totalitarizmdan voz kechdi. Partiya siyosiy va mafkuraviy ishlarni o'zida qoldirib, mamlakatning iqtisodiy va davlat hayotidagi bevosita tashkilotchi hamda rahbarlik rolidan voz kechdi.

1953-yil mart – Chexoslovakiya prezidenti *K. Gotvaldning* vafoti.

1953-yil 5-mart - *I. V. Stalin* o'limi.

1953-yil aprel – Italiyada qabul qilingan yangi saylov qonuniga ko'ra, 50 foizdan ziyod ovoz olgan partiyalar deputatlar palatasida uchdan ikki o'rin oladigan bo'ldi. Hukumat partiyalari yetarli ovoz ololmadi va *de Gasperi* iste'foga chiqdi.

1953-yil may – Berlinda yoshlar, ishchi va xizmatchilar ishtirokidagi tartibsizliklar boshlanib ketdi. Bu namoyishlar sovetlarning okkupatsiya qo'shinlari tomonidan bostirildi.



1953-yil iyun – *Lavrentiy Beriya* qamoqqa olindi.

1953-yil iyun – Misrda respublika e'lon qilindi. Inglizlar mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo'ldi.

1953-yil 7-iyun – Italiyada saylovlar bo'lib o'tdi.

1953-yil 16-17-iyun – GFRning iqtisodiy yutuqlari oldida GDR ahvoli inqirozli darajada edi. Respublikada g'ala-g'ovur boshlanib, ochiqdan-ochiq mavjud tuzumga qarshi namoyishga aylanib ketdi. Butun mamlakat bo'ylab namoyish bo'lib o'tdi, ish to'xtab qoldi. Katta shaharlarda do'konlarga o't qo'yildi va vayron qilindi. Namoyishchilarga qarshi qurol ishlatildi. Uch kundan so'ng g'alayon bostirildi va tartib o'rnatildi. Bu norozilik chiqishlari GFR ig'vogarlari tomonidan uyushtirilgan "fashistlar fitnasi" deb baholandi.

1953-yil 18-iyun - Misrning respublika deb e'lon qilinishi.

1953-yil 19-iyun - AQShda atom bombasini yaratish sirlarini SSSRga sotganlikda ayblangan er-xotin *Yulus va Emel Rozenberg*lar qatl qilindi.

1953-yil 9-iyul - SSSR ichki ishlar vaziri *Beriya* hukumatni egallab olishga urinishda ayblanib qamoqqa olindi.

1953-yil 24-iyul – Koreya xalq demokratik respublikasi (KXDR) va Janubiy Koreya o'rtasida murosaga kelishildi. 38-parallel bo'yicha, yangi ilgari chegara chizig'i bo'ylab demarkatsiya chizig'i va demilitarizatsiyalashgan zona o'rnatildi.

1953-yil 27-iyul – Koreya va amerika o'rtasidagi yarashuv XXR, KXDR va AQSh vakillari tomonidan imzolandi. Amerikaliklar urushda 142 ming kishidan ajradi, BMT qo'shinlari asosiy kontingenti 17 ming kishini yo'qotdi.

1953-yil avgust – Eronda milliy boylklarning xorijiy kompaniyalar tomonidan talanishini himoya qilish siyosatini yurgizgan Mosaddiq hukumati ag'darib tashlandi. Bu esa Eronning harbiy ittifoqlarga birlashishiga yo'l ochib berdi.

1953-yil 19-avgust – Angliya AQSh yordamidan foydalangan reaksiyon doiralari *Mosoddiq*ni inqilobga hamkorlikda ayblab, ig'vogarlik chiqishlarini boshladi. Tehronda davlat to'ntarishi amalga oshirildi. *Mosoddiq* va uning kabineti a'zolari qamoqqa olinib, sudga berildi. Shoh bosh vazir lavozimiga o'tmishda gitlerchilar bilan yaqin aloqada bo'lgan, davlat to'ntarishiga rahbarlik qilgan general *Zohidiy*ni tayinladi. Barcha siyosiy tashkilotlar va taraqqiyparvar gazetalar tor-mor etildi, mamlakat bo'ylab ommaviy qamoqqa olishlar amalga oshirildi.

1953-yil 20-avgust - SSSRda vodorod bombasi sinovi o'tkazildi.

1953-yil dekabr – *Lavrentiy Beriya* otib tashlandi.

1953-yil 23-dekabr - *Beriya* otib tashlandi.

1954-1957-yillar – Fransiyada modernizatsiya va rekonstruksiyalashning 2-rejasi qabul qilindi.

1954-1959-yillar – *Mao Szeedun* XXR raisi.

1954-1962-yillar – olib borilgan qaqshatqich urush natijasida Aljir xalqi o'z mustaqilligiga erishdi.

1954-1970-yillar – *J. A. Nosir* Misr prezidenti.

1954-1998-yillar – AQSh Tayvan hukumati bilan harbiy shartnomani imzoladi. Shu sababli Xitoy tomonining orolni qo'shib olish to'g'risidagi barcha so'roviga rad javobi berib kelindi.



1954-yil - inglizlik yozuvchi *Jeyms Oldrijning* “*Sahro ufqlari qahramonlari*” romani nashrdan chiqdi.

1954-yil – AQSh boshchiligida hamda Buyuk Britaniya ishtirokida Bog'dod paktini (Eron, Turkiya, Pokiston va Iroq) tuzilishi.

1954-yil – AQSh senati Makkartining xattl harakatini qoralab chiqdi. Biroq uning siyosati ko'pincha siyosiy qotillik, o'zga maslakdagilarga qarshi terror qilish, ziyolilarni taqib etish va qora tanli aholini kamsitishda o'z tasdig'ini topdi.

1954-yil - brazilyalik yozuvchi *Jorji Amaduning* “*Yashirin ozodlik*” romanini yozdi. Asarning asosiy g'oyasi - fashizmga qarshi kurash.

1954-yil – Chilida mavjud tuzumga qarshi ishchilarning kuchli namoyishlari va xalq inqiloblari bo'lib o'tdi.

1954-yil - germaniyalik yozuvchi *E.Remark* “*Yashash vaqti va o'lim vaqti*” asarini nashrdan chiqaradi.

1954-yil – Koreya yarim orolini birlashtirish muammosini hal etish kerak bo'ldi. Jeneva konferensiyasi ijobiy natijalarni bermadi. Shimoliy Koreya iqtisodiy kuchsiz edi. Hududi jihatidan u Janubiy Koreyadan katta bo'lsa ham, iqtisodiyoti og'ir holga kelgan, qariyb barcha elektr stansiyalari ishdan chiqqan, shaharlari vayronagarchilikdan iborat edi. Baribir mamlakatni birlashtirish Shimoliy Koreya rahbariyatining asosiy siyosiy shioriga aylandi. AQSh urush tugagandan so'ng Janubiy Koreyadan ketishga harakat qilmadi. Ular bu yerda harbiy infratuzilma, yo'llar va harbiy shaharchalar, portlar va yerosti yo'llari, harbiy qurol-aslaha omborlari bo'lgan qariyb 40 ming kishilik harbiy qismlarni saqlab turishdi. Bunday sharoitda mamlakatning birlashishi uchun kurash Amerika qo'shinlarini Koreya yarimorolidan quvib chiqarish kurashiga aylandi. Shimoliy Koreya rahbariyati birlashtirish bo'yicha yangidan-yangi takliflarni yil sayin olg'a surib bordi.

1954-yil – Liviya harbiy bazalarni joylashtirish haqida AQSh bilan ham bitim imzolandi. Liviya ingliz-amerika harbiy platsdarmiga aylandi, u Afrikada mustamlakachilik saqlanishining kafolati bo'lishi lozim edi.

1954-yil - mashhur amerikalik yozuvchi *E. Xemingueyga* “*Cho'l va dengiz*” romani uchun unga Nobel mukofoti berildi.

1954-yil – Namangan viloyatida Kosonsoy suv ombori ishga tushirildi.

1954-yil – o'zaro yordam va mudofaani ta'minlash to'g'risidagi amerika-yapon bitimi yapon sanoati uchun ochilgan amerika bozoridagi iqtisodiy chora-tadbirlarga sarmoya kiritish kafolatini o'z ichiga olgan edi.

1954-yil – Tailand SEATOga a'zo bo'lib kirdi. Tailand harbiy kuchlarining bir qismi AQShning Hindixitoydagi harbiy operatsiyalarida ishtirok etdi.

1954-yil – Vetnam urushi Fransiya mag'lubiyati bilan yakunlandi.

1954-yil 19-fevral - Qrim viloyatini Ukraina tarkibiga berish haqida qaror qabul qilindi.

1954-yil 2-mart - Qozog'iston hududida qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish boshlandi.

1954-yil aprel – Jazoirda birlik va harakatlar inqilobiy qo'mitasi tuzildi, keyinchalik u Milliy Ozodlik Frontiga (MOF) aylantirildi.

1954-yil aprel – XXR va Hindiston o'rtasida 5 tamoyilga (pancha chila) kirish



qismida: 1) hududiy butunlik va suverenitetni o'zaro hurmat qilish; 2) hujum qilmaslik; 3) bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik; 4) tenglik va o'zaro foyda; 5) tinch-totuv yashashga keltirilgan.

1954-yil aprel-iyun – Jenevada Hindixitoy yarimorolida tinchlikni o'rnatish haqida bitimni ishlab chiqqan konferensiya bo'lib o'tdi. Unda *N.Bulganin*, *D.Eyzenxauer*, *E.For* va *E.Iden* ishtirok etdilar. Jeneva bitimi Vetnam, Laos va Kampuchiya xalqlariga mustaqillik berishni ko'zda tutdi, ular neytralitetini kafolatladi, ular hududiga chet el qo'shinini kiritish, harbiy bazalarni yaratish va yangi qurol-aslahalarni olib kirishni man etdi. Amerika hukumati Jeneva konferensiyasi qarorlariga qarama-qarshi olaroq, Janubiy Vetnamga harbiy yordam ko'rsatish haqida qaror qabul qildi.

1954-yil 26-aprel – Jenevada SSSR, AQSh, XRR, Buyuk Britaniya, Fransiya tashqi ishlar vazirlarining kengashi ochildi. Fransiyaning Vetnamdagi mag'lubiyati uning hukmron doiralari *Xo Shi Min* bilan muzokaralarga borishga majbur etdi.

1954-yil may – hindlar hukumati Jammi va Kashmimi shtat sifatida "Hindistonga qo'shib olish to'g'risida" qaror qabul qildi.

1954-yil may – VDR qurolli kuchlari *Den Ben Fu* rayonida fransuz qurolli kuchlarini tor-mor etdi. Vetnam xalqining g'alabasi Fransiyaning obro'-e'tiboriga og'ir siyosiy va psixologik zarba berdi. Bosh vazir lavozimiga ko'tarilgan *P.Mendes Frans* urushni tinchlik sulhi bilan tugallashga va'da berdi. Biroq AQShning aralashuvi vaziyatni yana murakkablashtirdi.

1954-yil 21-iyul – Jeneva bitimlari imzolandi. Vetnam hududi 17-parallelda vaqtinchalik demarkatsiya chizig'i bo'yicha bo'lindi, lekin unga siyosiy chegara sifatida qaralmadi. Shimol tomonda VDR qurolli kuchlari, janubda – fransuz ittifoqi va baoday rejimi joylashdi. Bitimlar Vetnamga qo'shin olib kirish, qurol-yarog' va harbiy materiallarni keltirish, harbiy bazalar qurishni man etardi.

1954-yil sentabr – Pokiston SEATOga a'zo bo'lib kirdi.

1954-yil sentabr – AQSh Jeneva konferensiyasi qarorlaridan qoniqmadi va uning rahbarligi ostida SEATO – Yevropadagi NATOga o'xshash bo'lgan osiyocha tashkilot tuzildi.

1954-yil 8-sentabr – AQSh Janubiy-sharqiy Osiyoda o'z pozitsiyasini kuchaytirishga intilib Manilada Janubl sharqiy Osiyo mudofaasi to'g'risidagi Shartnomani (SEATO) imzolashga muvaffaq bo'ldi. SEATOga AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Pokiston, Tailand va Filippin a'zo bo'lib kirdi. Hindiston, Indoneziya, Birma va Seylon unda ishtirok etishdan bosh tortdi. SEATO AQShning harbiy-havo va harbiy-dengiz floti kuchlariga tayanar edi.

1954-yil oktabr – Parij bitimi imzolandi. Unga ko'ra GFR NATO a'zoligiga kirdi va mamlakatda 500 ming kishidan iborat armiya tashkil etildi. Harbiy sanoat qayta tiklandi. GFR tank, bronetransporter, suv osti kemalari va raketalar ishlab chiqara boshladi. Ushbu davr mobaynida amalda AQSh va G'arb mamlakatlarining harbiy-siyosiy ittifoqchisi sifatidagi GFRning huquqiy shakllanishi bo'ldi. U Atlantika ittifoqining poydevori bo'lib qoldi va g'arb davlatlarining butun siyosatiga hal etuvchi ta'sir ko'rsatib boshladi.

1954-yil 1-noyabr – Milliy Ozodlik Frontiga (MOF)ning chaqirig'i bilan Jazoirning



janubl sharqida umummilliy inqilobga o'sib o'tgan qurolli qo'zg'olon boshlandi. MOF dasturi Jazoir mustaqilligi uchun kurash, demokratik respublika tuzish, agrar islohotni amalga oshirish, ishlab chiqarish asosiy vositalarini natsionalizatsiya qilishni ko'zda tutdi.

1954-yilgacha – *Boleslav Berut* Polsha prezidenti va Vazirlar kengashi raisi edi. 6 yil mobaynida u sotsializm qurilishi sovet modelining e'tiqodli izdoshi sifatida mamlakatni yakka holda boshqardi.

1954-yilgacha - *J. Steynbek* o'z mamlakatida kitob nashr etishga imkon topmadi. Bu vaqtda u atigi bir necha maqola va hikoyalarini turli gazetalarda e'lon qila oldi, xolos.

1954-yilgacha –Ruminiyada oziq-ovqatlarga kartochka tizimi saqlanib kelindi.

1955-1957-yillar – *A. Iden* Buyuk Britaniyada bosh vazir lavozimida.

1955-1960-yillar - fransuz yozuvchisi *Andre Morua* "*La'natlangan qirollar*" degan umumiy nomdagi tarixiy romanlar seriyasini yozdi. Bu asarlarda fransuz qirollari sirlari, fitna, fisqu fasod, makru hiylalari orqali XVII XVIII asr Fransiya tarixi ko'rsatib berilgan.

1955-1960-yillar – O'zbekistonning 7 shahar va 24 tuman markazlarida vodoprovod tizimlari bunyod etildi.

1955-1963-yillar – *Karamanlis Konstantinos* Gretsiyada bosh vazir.

1955-1970-yillar – yapon iqtisodiga 15 mingdan ortiq yangi texnika patenti va litsenziyasi joriy qilindi. Mehnat resurslarini o'zgartirishdagi siljishlar va "nouxau"ning ommaviy import qilinishi yapon iqtisodining tezlik bilan oldinga chiqib olishidagi texnologiya bazasini ta'minladi.

1955-yil - "Taraqqiyot doktrinasi"ning eng yirik mafkurachisi va ifodalovchilaridan biri, amerikalik faylasuf *Charlz Frenkel* o'zining "*Zamonaviy odamning ishi*" kitobini yozadi. Muallif o'zining kitobida "odamzod taraqqiyoti"ni "modernizatsiya" (yangilanish) inqilobi, ya'ni moddiy va intellektual taraqqiyot hamda axloqiy inqilob natijasi deb hisoblaydi.

1955-yil - inglizlik yozuvchi *Grem Grinning* "*Yuvvosh amerikalik*" kitobi nashrdan chiqadi.

1955-yil - inglizlik yozuvchi *J. Lindseyning* "*Tanlash soati*" nomli romani nashrdan chiqdi.

1955-yil – Bolgariyada sanoat mahsulotlari hajmi 1948-yildagiga qaraganda 2 baravar, 1939-yildagidan esa 4 baravar ko'paydi.

1955-yil – fransuz hukumati qo'shinlarni janubdan olib chiqa boshladi. Mamlakatda turli millatchi guruhlar o'rtasida hokimiyat uchun kurash boshlandi. Bu hokimiyatsizlik davrida AQSh iqtisodiy va harbiy yor-dam berish tufayli mamlakat janubida faollasha boshladi. Ular Vetnam siyosiy arboblari orasida fransuzlar bilan hamkorlik qilmagan *Ngo Din Demni* saylashdi.

1955-yil – G'arbiy Yevropada ko'mir ishlab chiqarishi 23 %, temir va po'lat ishlab chiqarish qariyb 150 % ga o'sdi. Hamjamiyat bu mahsulotni ishlab chiqarishdan ham, G'arbiy Yevropa iqtisodiyoti umumiy o'sishidagi bevosita ulushidan muvofiqlashtirish va iqtisodiy integratsiyalash konsepsiyasi tarafdorlari qarashlarini kuchaytirdi.



1955-yil - germaniyalik yozuvchi *G.Byoll* “*Erta yillar noni*” romanini nashrdan chiqaradi. Romanida nemis burjuaziyasi xudbinligi va nemis ziyolilarining fashizm bilan sherikchiligini qoralaydi. Biroq yozuvchi individualizmni qoralasa ham qahramonini yolg‘iz qochoq qilib tasvirlaydi.

1955-yil – GFR hukumati “Xalshteyn doktrinasini”ni e‘lon qildi. Unga ko‘ra GDR bilan diplomatik aloqa o‘rnatgan har qanday davlatga nisbatan GFR o‘z diplomatik aloqalarini to‘xtatadigan bo‘ldi. *K. Adenauer* SSSR bilan janjalga bormaslik uchun bu doktrinani faqat unga nisbatangina qo‘llamaslikni lozim topdi.

1955-yil - *Ho‘ja Ahmad Abbosning* “*Janob 420*” filmi yaratildi.

1955-yil – *K. Adenauer* Moskvaga keldi va GFR – SSSR o‘rtasida diplomatik hamda savdo aloqalari o‘rnatildi.

1955-yil – *N. S. Xrushev Georgiy Malenkovi* ishdan chetlatdi, uning o‘rnini Stalin davrida mas‘ul lavozimlarda ishlagan *Nikolay Bulganin* egalladi.

1955-yil – Polsha Varshava Shartnomasi tashkilotlariga a‘zo bo‘lib kirdi.

1955-yil – Rossiya fabrikalarida ip-gazlama matolar ko‘p, ipak matolar esa oz ishlab chiqarilardi. O‘zbek ayollarining an‘anaviy kiyimlari nozik, chiroyli ipak gazlamalardan tikilardi. Aholi ehtiyojidan kelib chiqib O‘zbekistonda urushdan keyingi yillarda ipak mato ishlab chiqarish kengaydi.

1955-yil – Samarqand superfosfat zavodi ishga tushirildi.

1955-yil – Shimoliy Atlantika shartnomasiga G‘arbiy Germaniya qo‘shildi.

1955-yil – Shri Lanka tashabbusi bilan Indoneziyaning Bandung shahrida Osiyo va Afrikaning 29 mustaqil davlatlari ishtirok etgan konferensiya bo‘lib o‘tdi. Konferensiyada mustamlakachilik, irqiy kamsitish va segregatsiya siyosatini qoraladi hamda mustamlakachilikning tugatilishida katta rol o‘ynagan Bandung Bayonotnomasini qabul qildi.

1955-yil – SSSRda qit‘alararo bombardimonchi samalyotiga ega bo‘ldi,

1955-yil – Toshkent shahrida 51 ta, Samarqand viloyatida 33 ta, Namanganda 23 ta, Andijonda 22 ta yirik artellar mavjud edi. Ular xalq uchun zarur buyumlarni ishlab chiqarardi.

1955-yil – Xitoyda tinch-totuv yashashning 5 tamoyili (pancha chila) ishlab chiqildi: 1) hududiy butunlik va suverenitetni o‘zaro hurmat qilish; 2) hujum qilmaslik; 3) bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik; 4) tenglik va o‘zaro foyda; 5) tinch-totuv yashash. Ilk marta bu 5 tamoyil XXR va Hindiston o‘rtasidagi bitim preambulasida (kirish qismi) keltirilgan bo‘lib, keyinchalik Bandung konferensiyasida Osiyo xalqlari o‘rtasidagi xalqaro munosabatlarga asos qilib olindi.

1955-yil – Xitoyda xalq xo‘jaligi birinchi besh yillik rejasi qabul qilindi. Unga ko‘ra 694 ta yirik sanoat ob‘ektlari qurilishi mo‘ljallangan. Sobiq xususiy korxonalar ularning egalari va davlatning qo‘shma mulki bo‘lib qoldi. Ular yuqori maosh tolanadigan mutaxassislar holatiga o‘tkazilib, yillik kapitalning 5 foizi to‘lanishi kerak edi. Ayrim korxonalar xususiy mulk sifatida saqlanib, davlat buyurtmalaridan mahrum qilindi, boshqa korxonalar asosida qo‘shma korxonalar tashkil qilindi. Birinchi besh yillik reja bajarilishi bilan sanoat yalpi mahsuloti ikki baravar, qishloq xo‘jaligi esa 25 foizga ko‘paydi. Xalqning turmush darajasi ko‘tarildi. Ishchi va



xizmatchilar ish haqi 30 foiz, dehqonlar daromadi 28 foiz oshdi. Xitoy uchun yangi sanoat tarmog'i yuzaga keldi. Xalq yerga ega bo'ldi, xorijiy kapitalning hukmronligi tugatildi. Xitoy ozod va mustaqil mamlakatga aylandi.

1955-yil – Yaponiya liberal-demokratik partiyasi (YLDP) siyosiy hayotda yetakchilik qila boshladi. Butun hukumat tarkibi tom ma'noda ushbu partiya a'zolaridan iborat bo'lar edi.

1955-yil 24-fevral - Kubada *F.Batista* mamlakat prezidentligiga saylandi.

1955-yil 18-aprel - Vengriyada bosh vazir *Imre Nad* iste'foga chiqdi.

1955-yil may – Germaniya NATO tarkibiga kirdi. Bunga javoban Sovet Ittifoqi 1944-yilgi sovet-fransuz shartnomasini bekor qildi.

1955-yil 9-may - G'arbiy Germaniya NATOga qabul qilindi.

1955-yil 14-may – Bolgariya, Vengriya, GDR, Polsha, Ruminiya, SSSR, Chexoslovakiya va Albaniya o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam haqidagi Varshava shartnomasiga imzo chekildi. Ishtirokchi davlatlar xavfsizligini ta'minlashni Varshava shartnomasi o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Varshava shartnomasi davlatlari ulardan birortasiga qurolli hujum bo'lgan holda o'zaro harbiy yordam ko'rsatishga kelishib olishdi. Varshava shartnomasi tashkiloti "VShT" NATOga qarama-qarshi ravishda tashkil etildi.

1955-yil 26-iyun – Ioxannesburgda Janubiy Afrika Milliy kongress chaqirildi va unda mamlakatning barcha chekkalaridan 3 mingdan ziyod delegat ishtirok etdi. Kongress ozodlik Xartiyasini qabul qildi. Unda Janubiy Afrikada barcha millat guruhlari va barcha aholi uchun teng huquqlar joriy etilgan demokratik davlat tuzish dasturi ilgari surilgan edi.

1955-yil iyul – Pokiston hukumati arab mamlakatlaridagi milliy-ozodlik harakatiga qarshi yo'naltirilgan Bag'dod paktrni imzoladi.

1955-yil oktabr – *Aleksandr Papagos* vafotidan so'ng qirol *Konstantin Karamanlis*ni bosh vazir etib tayinladi. U qirol va AQShning katta ishonchiga sazovor bo'lgan edi. Amerika madadi tufayli *K.Karamanlis* iqtisodiy qiyinchiliklarni yengib o'tishga erishdi. Amerika investitsiyasi tufayli metallurgiya, mashinasozlik, kemasozlik, kimyo va neftni qayta ishlash sanoat tarmog'i rivojlanib ketdi. Mamlakatni industrilashtirish boshlandi. Gretsiyaning "Umumiy bozor"ga kirishi g'arb iqtisodi bilan aloqasini yanada mustahkamladi va investitsiyaning ko'payishiga yordam berdi. Gretsiya agrar-industrial mamlakatdan industrial-agrar mamlakatga aylana bordi.

1955-yil oktabr – *Ngo Din* Jeneva bitimi bo'yicha fransuz mulklariga tegishli hududlarda Vetnam Respublikasi tuzilishini e'lon qildi. Shuningdek, u qayta tashkil qilingan hukumat o'zini Jeneva bitimlariga bog'liq deb hisoblamasligi bildirdi va 1956-yilgi saylovlarni o'tkazmasligini bildirdi. Amerika hukumati uni qo'llab-quvvatladi. *Demga* cheklanmagan hokimiyat bergan favqulodda qarorlar qabul qilindi. U qishloqlardagi saylov organlarini tugatdi va ularni o'z mansabdorlari bilan almashtirdi.

1955-yil 26-oktabr - *Ngo Din Dem* rahbarligidagi Vetnam respublikasining e'lon qilinishi.

1955-yil dekabr – RIP mamlakat oldiga sotsialistik iqtisodiyotni barpo etish



vazifasini qo'ydi. Og'ir sanoatni rivojlantirish ustuvor yo'nalish bo'ldi. Biroq buning uchun Ruminiyada poydevor yo'q edi. Ikkinchi besh yillikda tarmoqqa barcha kapital mablag'larning 3/4 qismi yo'naltirildi. Qora va rangli metallar, og'ir mashinasozlik qayta qurildi.

1956-1962-yillar – *Habib Abdullayev* O'zbekiston FAning prezidenti lavozimida xizmat qilish bilan birga yirik ilmiy tadqiqotlar olib bordi, yuqori malakali ilmiy xodimlar tayyorlashga alohida e'tibor berdi.

1956-1967-yillar – *Karamanlis Konstantinos* Gretsiyada Milliy radikal ittifoqi o'ng partiyasi rahbari.

1956-1970-yillar – *Jamol Abdul Nosir* Misrning 1-prezidenti bo'ldi.

1956-1970-yillar – *Vladislav Gomulka* PBIP 1-kotibi.

1956-yil – Albaniya qoloq agrar mamlakatdan agrar-sanoat mamlakatiga aylandi.

1956-yil – Angola poytaxti Luandada angola madaniyat arboblarning bir guruhi taniqli shoir va publitsist *Agostinyu Neto* rahbarligida Angola ozodligi xalq barakati partiyasini tashkil etdi. U o'z murojaatnomasida Angola mustaqilligi uchun kurashga chaqirdi.

1956-yil – BMT aralashuvi natijasida Yaqin Sharqda urushning to'xtatilishi.

1956-yil – Bolgariyada Vazirlar Kengashi raisi lavozimini *Anton Yugov* egalladi. Biroq, hokimiyat amalda *Todor Jivkov* qo'lida edi.

1956-yil – Fransiyada ish tashlashlar bo'lib o'tdi. Unda 982 ming kishi ishtirok etdi.

1956-yil - germaniyalik yozuvchi E.Remark "*Qarzga olingan hayot*" asarini nashrdan chiqaradi.

1956-yil – ingliz hukmron doiralarning Misrda o'z hukmronligini saqlab qolish va kuch bilan o'z talablariga bo'ysundirishiga so'nggi urinishi to'liq barbod bo'ldi.

1956-yil – Isroil birlashgan arab qurolli kuchlari bilan urushgan davri.

1956-yil – Isroil Misrdagi agressiyada faol qatnashdi va jahondagi kuchli, qo'shinlardan biriga ega ekanligini isbotladi. Uning tank diviziyasi uch kunda yo'ldagi Misrning barcha baza, aerodromlarini yakson qilib, Suvaysh kanaligacha yetib bordi. Sovet Ittifoqining aralashuvi tufayli agressorlar hujumni to'xtatib, bosib olingan hududlardan chekinishga majbur bo'ldi. Misr mag'lubiyatga uchrasada, Sovet Ittifoqidek kuchli ittifoqdoshga ega bo'ldi. Sovet Ittifoqi esa jahon siyosatida muhim platsdarmni egalladi va Yaqin Sharqdagi biror masala uningsiz hal etilmaydigan holga keldi.

1956-yil – Ittifoq hukumatining ko'rsatmasi bilan paxta yetishtirishni ko'paytirish maqsadida Mirzacho'ldagi 300 ming gektar yerlarni sug'orish va o'zlashtirishga qaror qilindi.

1956-yil – O'zbekiston madaniyatining asossiz qatag'on qilingan ko'pgina arboblari shaxsga sig'inish fosh etilishi sharofati bilan oqlandilar. Stalin vafotidan so'ng KPSS Markaziy Komiteti birinchi kotibi *N.S.Xrushchev* tashabbusi bilan shaxsga sig'inish fosh qilindi.

1956-yil – O'zbekistonda dehqon tomorqasining o'rtacha maydoni 0,1 gektarni tashkil qildi. Shaxsiy xo'jalikda, odatda, bitta ona-bola sigir, ikki yashargacha bo'lgan bir bosh qoramol, 4-6 bosh qo'y, echki boqishga ruxsat berilar edi.



1956-yil – O'zbekistonda hunarmandchilik kooperatsiyasi tugatilib, hunarmandlar artellari davlat korxonasi mulkiga aylantirildi.

1956-yil - *Piter Abraxamsning "Maykl Udamoga supurgi"* romani nashrdan chiqdi.

1956-yil – Polshada siyosiy inqiroz boshlandi. Polsha xalqi siyosiy hayotni demokratlashtirish, so'z va yig'inlar o'tkazish erkinligi uchun kurashdi, mamlakatda ta'siri katta bo'lgan katolik cherkovini quvg'in qilishlarga qarshi chiqdi.

1956-yil – Shimoliy Koreya qishloq xo'jaligida barcha joylarda kooperativ xo'jaliklar joriy etildi. Ular qariyb 90 foiz dehqon xo'jaligidan birlashtirdi.

1956-yil - Sovet Ittifoqining madaniy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Madaniy siyosatning qisman liberallasuvi, "iliqlik davri" nomini oldi.

1956-yil – SSSR partiyasining XX syezdida *Xrushev* Stalin shaxsiga sig'inishni fosh etish bo'yicha maxfiy ma'ruza qildi. Unda Stalinni ommaviy qatag'onlarda va qonunchilikdan chekinishda aybladi. Bu hol partiya va sovet organlarining stalincha rahbariyat tarafdorlari – *Molotov, Kogonovich, Malenkov, Voroshilov*lardan ozod bo'lishga olib keldi. Ular "antipartiyaviy" guruh deb e'lon qilindi.

1956-yil – Suvaysh kanali natsionalizatsiya qilingan va Misr mulkiga o'tgan.

1956-yil – Taxiatosh GRES ni qurish boshlandi, qisqa muddat ichida energetiklari shahri - Taxiatosh bunyod bo'ldi.

1956-yil – Tunis mustaqillikka erishdi.

1956-yil – xalq noroziliklari bosimi ostida Peru diktatori general *Ordya* siyosiy maydondan ketishga majbur bo'ldi.

1956-yil – Yevropa mamlakatlari uchun urushdan keyingi voqelikni qayta baholash yili bo'ldi. Mamlakatlar yo'l boshchilari integratsiya jarayonini tezlashtirishga qaror qilishdi.

1956-yil 25-fevral - *N. S. Xrushev* shaxsiga sig'inish va uning oqibatlari to'g'risida ma'ruza qildi.

1956-yil 23-mart - Pokiston Islom Respublikasi e'lon qilinishi.

1956-yil aprel – Ittifoq hukumati butun mamlakatda hunarmandlar kooperatsiyasini tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilindi. O'zbekiston respublikasidagi hunarmandlar artellari davlat mulkiga aylantirildi va mahalliy sanoat vazirligiga berildi. Sovet organlarining bu keskin tadbiri hunarmandchilikni cheklabgina qolmay, uning ko'p turlari yo'q bo'lishiga olib keldi. Asosan nogironlar artellari, ularni ish bilan ta'minlash maqsadida va xalq badiiy hunarmandchiligi saqlab qolindi. Hunarmandlar kooperatsiyasi, kooperativ mulkining mavjudligi rahbar sovet hukumatini qoniqtirmay qoldi.

1956-yil iyun – Misrda yangi konstitutsiya qabul qilindi, unga ko'ra Misr demokratik respublika, arab xalqi esa arab millatining bir qismi deb e'lon qilindi.

1956-yil 24-iyun - polkovnik *Kamol Abdul Nosir* Misr prezidenti etib saylandi.

1956-yil 28-29-iyun – Polshada ishchilar ish lashlari va talabalar namoyishi boshlandi. Politsiya va qo'shin bilan to'qnashuvlarda 53 kishi o'ldirildi. Namoyishchilar tarqatib yuborildi. Tashkilotchilar qamoqqa olindi.

1956-yil iyul – Misrda Suvaysh kanalini natsionalizatsiya qilish haqidagi qonun



e'lon qilindi. G'arb davlatlari buni o'z manfaatlariga tahdid deb baholab, Misrga qarshi iqtisodiy jazo va harbiy tahdid kompaniyasini boshlab yubordi. Bular ta'sir etmagach, ular ochiq tajovuzkorlikka o'tishdi.

1956-yil iyul – Vetnamning birlashishi umumiy erkin saylovlar o'tkazilgandan so'ng amalga oshirilishi kerak edi. Harbiy mojaro siyosiy qarama-qarshilikka aylandi.

1956-yil 26-iyul - Misr tomonidan Suvaysh kanalining natsionalizatsiya qilinishi.

1956-yil oktabr – Polshadagi Gdansk kemasozlik korxonasi norozilik chiqishlari boshlandi va bu Polsha birlashgan ishchilar partiyasi rahbariyatining almashuviga olib keldi. Shu paytgacha repressiya qilingan *V.Gomulka* yangi rahbar etib saylandi.

1956-yil oktabr – vengerlar g'alayoni ko'tarildi. Xalq inqilobi tufayli saylangan yangi rahbar *Imre Nadem* sovet qo'shinlarining Vengriyadan olib chiqib ketilishini talab qilib chiqdi.

1956-yil 19-oktabr - diplomatik munosabatlarni tiklash to'g'risida sovet-yapon Deklaratsiyasining imzolanishi.

1956-yil 23-oktabr 4-noyabr - Vengriyada mavjud rejimga qarshi xalq qo'zg'oloni.

1956-yil 25-oktabr – Budapeshtda jamiyatni demokratizatsiyalashni talab etgan ommaviy talabalar namoyishi bo'ldi. Bu voqea aksilinqilobiy isyon deb baholandi va politsiya namoyishchilarga o't ochdi.

1956-yil 26-oktabr – Budapeshtga sovet tanklari kiritildi. Biroq endi kech bo'lgandi. Kelgusi kuni namoyishchilar yana takrorlandi. Mahalliy hokimiyat organlari xalq g'azabi to'loqinida surib tashlandi.

1956-yil 30-oktabr - Isroil-Misr urushining boshlanishi.

1956-yil 30-oktabr – Misrga qarshi ingliz-fransuz-isroil birlashgan harbiy tajovuzkor yurishi boshlandi. Sovet Ittifoqining Misrni kuch bilan qo'llab-quvvatlashga tayyorgarligi haqidagi bayonoti tajovuzkorlarni chekinishga majbur etdi. Bu Misr inqilobining ikkinchi muhim g'alabasi edi. Dehqonlar yerga mulk huquqini qo'lga kiritgan agrar islohot amalga oshirildi. SSSR bilan texnik hamkorlikda Nilda Asvon to'g'oni qurildi, u elektr energiya ishlab chiqarishni ikki barobar oshirish, paxta va oziq-ovqat ekinlari maydonlarini ancha kengaytirish imkonini berdi.

1956-yil 30-oktabr - Vengriyadan sovet qo'shinlarining olib chiqib ketilishi.

1956-yil noyabr – Suvaysh kanalida tanglik yuz berdi.

1956-yil 3-4-noyabr – sovet tanklari Budapeshtga kirib keldi va g'alayonni bostirdi. Hokimiyat tepasiga *Yanosh Kadar* rahbarligidagi hukumat keldi.

1956-yil 4-noyabr – sovet tanklari yana Budapeshtga kirib ketdi. *Y.Kadar* Vengriya inqilobiy ishchi dehqon hukumati tuzilishi haqida xabar berdi. VMP Vengriya sotsialistik ishchi partiyasiga (VSIP) aylantirildi. To'rt kun mobaynida vengerlarning qarshilik ko'rsatishi bostirildi. *I.Nad* qamoqqa olindi, davlatga xiyonat qilishda ayblandi va oliy jazoga hukm qilindi.

1956-yil dekabr – ingliz-fransuz qo'shinlari Misrdan olib chiqib ketildi.

1956-yilgacha - kolxozchilar davlat pensiyasi va nafaqalaridan foydalanish huquqidan mahrum bo'ldilar. Nafaqaxo'r va faxriylarga beriladigan pensiya va nafaqalar miqdori juda kam edi.



1957-1962-yillar – Myanma prezidenti *U Bin Maung*.

1957-1963-yillar – *G.Makmillan* Buyuk Britaniyada Bosh vazir lavozimida.

1957-1968-yillar – *Antonin Novotniy* Chexoslovakiya prezidenti.

1957-1987-yillar – Tunisda *Burg'ib Xabib ibn Alining* prezidentligi lavozimidagi faoliyati.

1957-yil – Qoraqalpog'istonda makkajo'xori ekilgan maydon 2067 kb m ga yetdi.

1957-yil - "bitniklar" adabiy oqimi vakili amerikalik yozuvchi *Jek Keruak* "Yo'lda" romanini yozdi.

1957-yil - angliyalik yozuvchi *J.Lindseyning* "Ulug' eman, 1549-yil haqida hikoya" kitobi nashrdan chiqadi. Bunda 1549-yilgi dehqonlar qo'zg'olonining tarixi aniq va badiiy yorqin manzarasi tasvirlanadi.

1957-yil - angliyalik yozuvchi *Jeyms Oldrijning* "U o'lishini xohlamayman" romani nashrdan chiqdi.

1957-yil – Fransiyada ish tashlashlar bo'lib o'tdi. Unda 2.964 ming kishi ishtirok etdi.

1957-yil – Kolumbiyada *Roxas Pinilya* harbiy-diktatorlik tuzumi barham topdi.

1957-yil - kosmosni amaliy tadqiq etish boshlandi, o'shanda qudratli sovet raketasi kosmik orbitaga yeming birinchi sun'iy yo'ldoshini olib chiqdi.

1957-yil – orbitaga birinchi sun'iy Yer yo'ldoshi chiqarildi.

1957-yil – Sovet Ittifoqida Tinch okeani akvatoriyasida 10 ming km.dan ziyodroq masofada nishonni aniq uruvchi qit'alararo ballistik raketa sinovdan o'tkazildi.

1957-yil – sud tuzilishi, fuqaro, jinoyat va jinoyat protsessual kodekslarni qabul qilish haqida qonunlar chiqarishni, viloyat, ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal qilish Ittifoqdosh respublikalar ixtiyoriga berildi. Bu ishlarni amalga oshirishda O'zbekistonning o'sh paytdagi rahbari *Nuritdin Muhitdinovning* xizmati katta bo'lgan edi.

1957-yil – *Uilyam Folkner* "Shahar" ajoyib psixologik trilogiyasini yaratdi.

1957-yil – YKPBga a'zo mamlakatlar Rim protokollari deb ataladigan hujjatlarni imzolashdiki, bu hol Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH) yoki "Umumiy bozor"ga asos soldi. Bu hujjatlarga imzo chekkan mamlakatlar 12 yil mobaynida bojxona to'siqlarini tugatish, umumiy soliqlarni o'rnatish, keyinchalik esa umuman yo'q qilish, ishchi kuchi erkin harakat qilishini ta'minlash majburiyatini olishdi, bir xil ijtimoiy kafolatlar va yagona ish haqi to'g'risida kelishib olishdi.

1957-yil fevral - repressiya qilingan xalqlarni qisman reabilitatsiya qilish va Chechen, qolmoq va qorachoy xalqlari milliy avtonomiyalari tiklanishi.

1957-yil 6-fevral - Isroil qo'shinlari G'azo sektorini BMT qurolli kuchlari nazorati ostiga topshirdi.

1957-yil 6-mart – inglizlar mustamlakasi sanalmish oltin qirg oq Afrikaning mustaqil Gana davlatiga aylandi.

1957-yil 25-mart - Yevropa iqtisodiy kengashi ("Umumiy bozor")ni tashkil etish to'g'risida Rim protokollarining imzolanishi.

1957-yil iyul – Tunisda monarxiya o'rnatildi va Tunis respublika deb e'lon qilindi.

1957-yil avgust – Sovet Ittifoqi 10 km radiusda harakatlanuvchi qit'alararo ballistik



raketa sinovdan o'tkazildi. Endilikda raketalar AQShning har qanday burgachiga vorod bombasi bilan zarba berishi mumkin edi.

1957-yil 4-oktabr – Sovet Ittifoqi tomonidan 1-sun'iy yer yo'ldoshining uchirilishi dunyo jamoatchiligi va amerikalik siyosatchilarda katta shov-shuv uyg'otdi. SSSRning harbiy-texnik va strategik jihatdan AQShga yon bermasligi ma'lum bo'ldi.

1957-yil 4-oktabr - SSSR birinchi sun'iy Yer yo'ldoshini uchirdi.

1958-1960-yillar – Xitoyning xalq xo'jaligi 2 yilda 100 milliard yuan zarar ko'rdi.

1958-1962-yillar – Sotsialistik mamlakatlar sanoat ishlab chiqarishining yillik o'sishi 11,5 foizni tashkil etdi.

1958-1962-yillar – Xitoyda qabul qilingan “katta sakrash” deb nomlangan dasturga binoan 4 yilda sanoat ishlab chiqarishi 6,5 marta, qishloq xo'jaligi esa 2,5 baravar o'sishi lozim edi. Bu amaliy qiymatdan ko'ra targ'ibotga mo'ljallangan aqlga sig'maydigan xayol edi.

1958-1964-yillar – Fransiyada 500 ta yirik sanoat trestlarining daromadi 70 % ga o'sdi. Sanoatning yangi – kimyo, neft, harbiy-aviatsiya, avtomobil, elektronika va elektrometallurgiya kabi tarmoqlari tez sur'atlarda rivojlana bordi.

1958-1964-yillar – *Nikita Sergeevich Xrushev* SSSR Ministrlar Sovetining raisi.

1958-1964-yillar – SSSRda partiyadagi jamoaviy rahbarlik davri tugadi, **N. S. Xrushev** davri.

1958-1967-yillar – “Tashtekstilmas” zavodi o'zining 44 nafar vakilini to'qimachilik uskunalarini mantaj qilish uchun turli mamlakatlarga jo'natdi.

1958-1967-yillar – O'zbekistonda eksport hajmi 3 baravarga ko'paydi. Respublika eksporti umumiy hajmining 70 foizdan ortig'i yuqorida ko'rsatilgan davlatlarga yuborilardi. O'zbekistondan olib chiqib ketilgan mahsulot turlari 100 xildan ortiq edi. Paxta tolasidan tashqari to'qimachilik mashinalari, kimyoviy uskunalar, ekskavatorlar, ko'priqli elektr kranlari, qishloq xo'jalik mashinalari, jumladan, paxta terish mashinalari, nasoslar, kabel mahsulotlari va boshqa ko'plab mahsulotlar chetga chiqariladigan bo'ldi.

1958-1969-yillar – *Sh. de Goll* Fransiya prezidenti.

1958-yil boshi – xalq qo'zg'oloni darajasiga ko'tarilgan umummilliy ish tashlashi *Peres Ximenes* diktaturasini tugatdi.

1958-yil – Qoraqalpog'istonda makkajo'xori ekilgan maydon 5772 kb m ni tashkil etdi.

1958-yil - “bitniklar” adabiy oqimi vakili amerikalik yozuvchi *Jek Keruak* “*Yerosti odamlari*” romanini yozdi.

1958-yil – Amerika hukumati Livanga, Angliya esa lordaniyaga desant tushirdi.

1958-yil - angliyalik yozuvchi *Grem Grinning* “*Vetnam, Gavanadagi bizning kishi*” kitobi nashrdan chiqadi.

1958-yil - angliyalik yozuvchi *Somerset Moemning* “*Nuqtai naza*” kitobi nashrdan chiqdi.

1958-yil – AQShda nishonni aniq uruvchi qit'alararo ballistik raketa sinovdan o'tkazildi.

1958-yil - *B. Pasternak* xorijda “*Doktor Jivago*” romanini e'lon qildi. Unda 1917-



yil to'ntarishining salbiy oqibatlari to'la-to'kis ochib berildi. Dissidentlar harakati va adabiyoti jadal rivojlana boshladi.

1958-yil – *B. Pasternak* yozgan “*Doktor Jivago*” romani uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Bu hol partiya targ'ibotida keskin norozilik uyg'otdi. *B. Pasternak*ni chiqishtirmaslik umrining oxirigacha davom etdi.

1958-yil - braziliyalik yozuvchi *Jorji Amaduning* “*Gabriel*” romanini yozib tugatadi. Bu asarida *J. Amadu* burjua axloqiga qarshi chiqadi. Bunda Braziliya xarobalarida yashovchi oddiy odamlar - hunarmandlar, baliqchilar, daydilar hayotini ochib bergan.

1958-yil – Fransiyaning Vallon g'oridan hayvon suyaklari, tosh qurollar va ularning parchalari topilgan.

1958-yil – *G. Georgiu-Dej* Ruminiyadan sovet qo'shinlarining olib chiqilishiga erishdi. To'liq erkinlikka erishgach, Ruminiya suverenitetini qaror toptirish bo'yicha mustaqil ishlarga kirishildi. O'YYK rejalariga qarama-qarshi o'laroq, u Ruminiyani industrilashtirish rejasini ishlab chiqdi, bu sovet rahbariyati noroziligiga sabab bo'ldi. Bu maqomga erishgach u sotsializm qurilishida “milliy tafovutlar” tarafdori bo'lib chiqdi va *N. Xrushevning* Stalin shaxsiga sig'inishni fosh etish bo'yicha faoliyatini qo'llab-quvvatladi.

1958-yil - germaniyalik shoir *I. Bexer* “*Asr o'rtasidagi qadam*” kitobini nashrdan chiqardi.

1958-yil – imzolangan sovet-misr shartnomasi asosida Misrga qishloq xo'jaligini tiklashda texnik yordam ko'rsatildi, asbob-uskuna sotib olish uchun kredit berildi va bir qator muhim tarmoqlarni rivojlantirish rejalarini amalga oshirish uchun hamkorlik qilish mo'ljallangan edi. Sovet Ittifoqi Misrga zamonaviy armiya tuzish va uni eng zamonaviy qurol-yarog' bilan ta'minlashga yordam berdi. Ko'pgina misr zobitlari sovet harbiy bilim yurtlarida o'qib bitirishdi. Sovet Ittifoqida amalda yangi xil samolyotlar uchun arablarning yozgi tarkibi tuzilgan edi.

1958-yil – Iroqda *Feysal II* inqilobdan so'ng taxtdan ag'darildi.

1958-yil – Italiyada saylovlar bo'lib o'tdi. Unda italyan kommunistlari 22 % ovoz oldi.

1958-yil – Kongo (Zair)da Milliy harakat partiyasi tuzildi.

1958-yil – kooperativ sanoat va artellar mahsuloti O'zbekiston sanoati hajmining 8,5 % ini tashkil qilardi.

1958-yil – Milliy Ozodlik Frontiga (MOF) negizida Jazoir respublikasi muvaqqat hukumati tuzildi. Fransuz mustamlaka hukumati aljirlik vatanparvarlarga qarshi ulkan qo'shin va qatag'on apparatini ishga soldi. Mustaqillik uchun kurashda 1 million aljirlik halok bo'ldi (9 million aholidan) va 2 millionga yaqin kishilar qamoqxonalarga tashlandi. Jahon jamoatchiligi fransuz hukumatining xattli harakatlarini qoraladi. Dunyoning ko'plab mamlakatlari Aljir respublikasi Vaqtli hukumatini tan oldi.

1958-yil – *N. S. Xrushevning* Amerikaga qilgan safari Sovet Ittifoqining jahon miqyosidagi obro'sini bir qadar ko'tardi.

1958-yil – *Nikolay Bulganin* o'z lavozimidan olindi va Ministrlar Sovetining raisi etib *N. Xrushev* tayinlandi.



1958-yil – O‘zbekiston o‘z mahsulotlarini jahonning 32 mamlakatiga chiqarib turdi.

1958-yil – O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan adabiy aloqalarning rivojlanishida, Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarining Toshkent konferensiyasi g‘oyat muhim rol o‘ynadi.

1958-yil - Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarining Toshkent konferensiyasi bo‘ldi.

1958-yil – og‘ir sanoatmahsulotlari qiymati Fransiyadagi jami sanoat mahsulotlarining 2/3 qismini tashkil etdi. Og‘ir sanoatda jami sanoat ishchilarining 2/3 qismi xizmat qilardi.

1958-yil – oliy maktablarida 5 mingta ilmiy-pedagog xodimlar ishlagan edi.

1958-yil – Xitoyda yangi jamiyat qurishga qaratilgan yo‘nalish o‘zgardi. “Uch qizil bayroq” shiori paydo bo‘ldi. Bu iqtisodiy qonunlarga xilof ravishda ilgari rejalarini jadallik bilan amalga oshirish, shuningdek, Xitoy dehqonlarini birlashtirishning yangi shaklini yaratishning avantyuristik dasturidan iborat edi. Dastur umumiy holda “katta sakrash” deb nomlandi.

1958-yil - yirik fransuz yozuvchisi va shoiri *Lui Aragonning* “*Ehtirosli hafta*” romanini nashrdan chiqardi.

1958-yil – *Z.Oymirzayev* “*Amudaryo sohillarida*” romanini yozdi.

1958-yil yanvar – AQSh o‘zining ilk Yerning sun‘iy yo‘ldoshini fazoga olib chiqdi.

1958-yil yanvar – GFR “Umumiy bozor” a‘zosi bo‘lib qoldi. Mamlakat industriyasi “Umumiy bozor” ishlab chiqarayotgan barcha mahsulotning 44 % ini berar edi.

1958-yil 8-yanvar - Fransiyada general *Sharl de Goll* Beshinchi respublika prezidenti deb e‘lon qilindi.

1958-yil fevral – O‘zbekistonda mashina-traktor stansiyalarini qayta tashkil etish va texnikasi bevosita xo‘jaliklarga sotish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Bu chora xo‘jaliklarga biriktirilgan yer, texnika va boshqa ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni yaxshilashga qaratilgan edi.

1958-yil may – Fransiyada navbatdagi hukumat krizi ro‘y berdi. Parijda harbiy g‘alayon tayyorlanardi. Bu esa demokratik kuchlarning noroziligiga sabab bo‘ldi.

1958-yil 15-may - Angliyada birinchi marta vodorod bombasi sinab ko‘rildi.

1958-yil 28-may – Fransiyada 100 minglab kishilar harbiy diktatura o‘rnatilishiga qarshi norozilik bildirib namoyishga chiqdilar. Mamlakatda tartibsizlik yuzaga kelib, hukumat faoliyati izdan chiqdi.

1958-yil 1-iyun – Fransiyadagi siyosiy tebranish xavfi oldidan Milliy majlis general *de Gollni* mamlakat prem‘er-ministri etib tayinladi. Generalning Fransiya uchun tarixiy ahamiyatga ega yangi siyosiy hayoti boshlandi.

1958-yil 17-iyun – *I. Nad* qatl etildi.

1958-yil 14-iyul – Bag‘dodda harbiy to‘ntarish yuz berdi. Natijada monarxiya ag‘darilib, Respublika deb e‘lon qilindi. Angliyaning sobiq ittifoqdoshi *Nuri Said* o‘ldirildi. Iroq Bag‘dod paktidan chiqdi va o‘z hududidagi barcha chet el bazalarini tugatib, Sovet Ittifoqi bilan do‘stona munosabatlarni rivojlantira boshladi. Qo‘shni Suriya mamlakatida muhim voqea sodir bo‘ldi. Suvaysh kanali zonasidagi agressiya arablar kurashini kuchaytirib yubordi.



1958-yil 14-iyul – yuz bergan inqilob natijasida Iroq respublika deb e'lon qilindi. Bog'dod pakti yo'qqa chiqdi. Kurash qo'shni Livanda ham kuchaydi.

1958-yil avgust – Menderes siyosati moliyaviy tanazzulga olib keldi. Turkiya bankrotga uchraganligini bayon qildi. U kreditlarni to'lay olmadi. Mamlakatning moliyaviy tanazzulga uchrashiga yuqori lavozimdagi amaldorlarning davlat mablag'ini talon-taroj qilishi ham katta sabab bo'ldi.

1958-yil avgust – Shimoliy Koreyaning barcha dehqonlari kooperativlar a'zosi bo'ldi. Siyosiy rahbarlikni bir partiya – Koreya Mehnat partiyasi (KMP) amalga oshirdi, tashqi va ichki siyosat esa “ulug' dohiy” *Kim Ir Sen* qo'lida jamlandi.

1958-yil sentabr – *de Doll* Fransiyaning yangi Konstitutsiyasini taklif etdi. Referendumda qatnashganlarning 79 % i uni yoqlab ovoz berdi.

1958-yil 3-sentabr - Navoiy shahri tashkil etildi.

1958-yil 14-sentabr – Fransiya prezidenti *de Goll* va kansler *K.Adenauer*lar muzokaralari natijasida mazkur mamlakatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning tugagani e'lon qilingan qo'shma bayonotnoma qabul qilindi. *K.Adenauer* Fransiya Yevropada siyosiy g'egemoniyaga erishishga, president *de Goll* esa SSSR bilan german masalasida hech qanday kelishuvlarga yo'l qo'ymaslikka yordam berishga majburiyat oldi.

1958-yil 28-sentabr - Fransiya Beshinchi respublika konstitutsiyasi qabul qilindi.

1958-yil 28-sentabr – Gvineya mustaqillikka erishdi. Tropik Afrikada mustamlakachilik tuzumi yemirilish davri boshlandi.

1958-yil oktabr - Toshkentda Osiyo va Afrika yozuvchilarining konferensiyasi bo'lib o'tdi. Bu voqea jahon miqyosida san'at, adabiyot va madaniyat sohasidagi jarayonlar integrallashuvini boshlab berdi. Konferensiyada g'arb adabiyotining taniqli vakillari ishtirok etib, konferensiyaning asosiy g'oyasini qo'llab-quvvatladilar hamda turli qit'a madaniyat arboblarning tinchlik va ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashda birlashish muammolari bo'yicha bahslarda faol ishtirok etdilar.

1958-yil oktabr oxiri – Amerikaning oxirgi dengiz piyodalari Livan hududini tark etishga majbur bo'ldi. AQShning Osiyodagi siyosati mag'lubiyatga uchradi.

1958-yil 21-dekabr – general *Sharl de Goll* umumxalq ovozi bilan Fransiya prezidenti etib saylandi. Fransiya 5-respublika tarixi boshlandi. *Sh. de Goll* uchun saylovchilarning 75,5 % i berdi. U xalq ishonchiga va favqulodda vakillikka ega bo'ldi.

1958-yil yoz – AQShning Livandagi va Angliyaning Iordaniyadagi intervensiyasi paytida Turkiya o'zining sodiq NATO ittifoqchisi ekanligini namoyish qildi. Ya'ni agar Suriya qo'shni mamlakatlarga yordamga keladigan bo'lsa, unga hujum qilishi mumkinligini bildirib, Turkiya o'z harbiy qo'shinlarini chegaraga olib kelib qo'ydi.

1958-yilgacha – *de Goll* Fransiya siyosiy hayotida ishtirok etmadi.

1959-1963-yillar - fransuz yozuvchisi *Elza Triolening* Qarshilik Harakati haqida “*Neylon asri*” ijtimoiy-psixologik romanlar turkumida davom ettirildi.

1959-1968-yillar – *Lyu Shaosi* XXR raisi.

1959-1970-yillar – O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi Raisi bo'lib *Yodgor Nasriddinova* ishlagan.



1959-1976-yillar – *Fidel Kastro* Rus Kuba bosh vaziri.

1959-1983-yillar – *Sh. Rashidov* O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Kometitining birinchi kotibi bo'lib keldi.

1959-yil - *B. Pasternak*ka Nobel mukofoti berildi, biroq bu mukofotdan voz kechdi.

1959-yil - "bitniklar" adabiy oqimi vakili amerikalik yozuvchi *Jek Keruak* "*Dharma daydilar*" romanini yozdi.

1959-yil - amerikalik olimlar Sharqiy Afrikaning Olduvev darasida zinjantrop suyak qoldiqlarini topishdi.

1959-yil – Ispaniyaga jami sanoatning 18 foizi tegishli bo'lgan. Ayrim tarmoqlarda bu ko'rsatkich yanada yuqori edi. Masalan, qora metallurgiyada bu 65 foizni, kimyoda 29 foizni tashkil etdi. Davlat xom-ashyo, yoqilg'i, energiyani taqsimlashni boshqardi, standartlarni belgilab, narx-navoni qayd etar, yangi korxonalar ochish, eskilarini modernizatsiyalashga ruxsat berar edi.

1959-yil - *Mao Szedun* shaxsiga sig'inish boshlandi.

1959-yil – O'zbekiston aholisi tarkibida o'zbeklarning salmog'i 62 % dan ortiq bo'lsa ham, o'zbek ishchilarning salmog'i esa atigi 43 % ni tashkil etardi. Ittifoqqa bo'ysunadigan korxonalar asosan Rossiya va boshqa respublikalardan taklif etilgan mutaxassislar va ishchilar bilan ta'minlanardilar.

1959-yil – O'zbekiston Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston filliali tashkil qilindi. Qoraqalpog'istonda tarix fanining rivojlanishida akademik *Sobir Kamolov*ning xizmati katta bo'ldi.

1959-yil – O'zbekiston maktabining turmush bilan bog'lanishini mustahkamlash to'g'risidagi Respublika hukumati qabul qilgan qonuniga asosan o'qishni ishlab chiqarish bilan qo'shib olib borish talab etildi.

1959-yil – Pokistonda harbiy to'ntarish natijasida general *Ayyub Xon* diktaturasi o'rnatilishi.

1959-yil – tibetliklar Xitoy hokimiyatini tan olishdan bosh tortib, mustaqillik talab qilishdi va xalq qo'zg'oloni bo'lib o'tdi, u tor-mor etilgandan so'ng Tibetning diniy va dunyoviy rahbari – Dalaylama Hindistonga qochishga majbur bo'ldi. Tibetda harbiy-nazorat tizimi tashkil etildiki, ular amalda boshqaruvni o'z qo'liga oldi.

1959-yil – *Uilyam Folkner* "*Qo'rg'on*" ajoyib psixologik trilogiyasini yaratdi.

1959-yil 1-yanvar – *Fidel Kastro* boshchiligidagi hukumat tasdiqlanishi AQSh va Kuba munosabatlarining yomonlashuviga olib keldi. Kubaning yangi rahbariyati Amerika diktatiga bo'ysunishdan bosh tortdi va AQSh uni ag'daribtashlashga tayyorgarlikni boshlab yubordi. Sovet Ittifoqi esa Kuba hukumatini qo'llab-quvvatlab unga iqtisodiy va harbiy yordam ko'rsata bordi.

1959-yil 1-yanvar – *Fidel Kastro*, uning ukasi *Raul Kastro*, *Ernesto Che Gevara* va *Kamilla Senfuegos* qo'mondonligidagi milliy vatanparvarlik kuchlari Gavanaga kirib borib, Kubani AQShning tamaki plantatsiyasiga aylantirgan general *R.F. Batistaning* amerikaparast tuzumini ag'dardi.

1959-yil 1-yanvar - Kubada inqilob g'alaba qozondi. *Fidel Kastro* mamlakat prezidenti etib saylandi.

1959-yil 16-iyun - Moskvada Xalq xo'jalik yutuqlari ko'rgazmasi ochildi.

1959-yil 19-sentabr – *Sh. de Goll* Jazoir xalqining o'z taqdirini o'zi belgilash



huquqini tan oldi. Bunga javoban Jazoirda fransuz mustamlaka qo'shinlari zobitlari g'alayoni boshlandi. *Sh. de Goll* zudlik bilan uni bostirish choralari qo'rdi.

1959-yil oktabr – *N. Xrushev, Mao Szedun va Xo Shi Min* birgalikda uchrashadilar.

1960 yil – O'zbekistonda gaz ishlab chiqarish 0,4 mlrd kubometrga yetdi.

1960 -yil – Qoraqalpog'istonda chigit ekiladigan maydon 131500 ga yaqin yerni tashkil qildi.

1960-1961-yillar – O'zbekiston oliy maktablarida 100 ming nafar talaba ta'lim olgan.

1960-1964-yillar – *Leonid Ilich Brejnev* SSSR Oliy Soveti Prezidentining raisi.

1960-1965-yillar - Buxoro - Ural gaz quvuri (uzunligi 6100 km) ishga tushirildi.

1960-1966-yillar – *D. Gyurssel* Turkiya prezidenti.

1960-1968-yillar – AQSh Prezidenti demokratlardan saylandi.

1960-1970-yillar - Genetika muvaffaqiyatlari natijasida yuzaga kelgan yangi tibbiy dorl darmonlar qizamiq, chechak, poliomyelitni tugatishga yordam berdi. Buyrak ko'chirib o'tqazildi va sun'iy yurak yaratildi.

1960-1970-yillar – Brejnev rahbarligi davrida SSSR iqtisodi bir joyda depsinib qoldi va iqtisodiy rivojlanishning to'xtab qolish jarayoni kuchaydi.

1960-1970-yillar - har biri qishloq oilasi a'zosiga to'g'ri keladigan oylik daromad, masalan, Rossiyada 98,1 so'mni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekistonda u 58,8 so'mga teng bo'ldi.

1960-1970-yillar – O'zbekiston qishloq xo'jaligida traktorlar soni 60 mingdan 121 mingtaga oshdi. Shu paytning o'zida paxta terish mashinalarining soni 8 mingtaga ko'paydi.

1960-1970-yillar – O'zbekistonda go'sht 97 ming tonnadan 94 ming tonnaga, mol yog'i ishlab chiqarish 8 mingdan 6 mingga kamaydi.

1960-1970-yillar – O'zbekistonda ilmiy xodimlar soni 2,5 baravarga o'sdi va 25 ming nafarga yetdi.

1960-1970-yillar – O'zbekistonda paxta maydoni 1386 ming gektardan 1709 ming gektarga, ya'ni 323 ming gektarga ortdi. Shu davrda O'zbekistonda sug'oriladigan yerlar maydoni atigi 253 ming gektarga ortgan edi.

1960-1970-yillar – sanoat, qurilish, transport va aloqa sohalari bo'yicha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi talabalar soni O'zbekistonda 20 mingdan 63 mingga, ya'ni 3 baravardan ziyod ko'payishdi.

1960-1970-yillar - urushdan keyingi yillarda respublikada 600 kmdan ziyod bo'lgan Chorjo'y-Qo'ng'iro't temir yo'li qurildi. Yangi qazilma konlarining topilishi va yangi shaharlarning qurilishi Navoiy-Uchquduq temir yo'lining qurilishiga sabab bo'ldi. Bu O'zbekistonda rangli metallurgiya, jumladan, oltin sanoatining vujudga kelishi bilan bog'liq edi. Mirzacho'l va Qarshi dashtlaridagi yerlarning o'zlashtirilishi Sirdaryo-Jizzax va Samarqand-Qarshi temir yo'llarini qurish zaruratini keltirib chiqardi.

1960-1980-yillar - chorva mollari soni muttasil kamayib bordi.

1960-1980-yillar – Italiyaning siyosiy hayotidagi eng sezilarli hodisa IKP ta'sirining o'sishi va XDP mavqeining pasayishi bo'ldi.



1960-1980-yillar – Qoraqalpog‘iston sanoatining taraqqiyoti asosan yengil, sanoat, paxta tozalash va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan korxonalarining ustuvor rivojlantirilishi evaziga bo‘ldi. Sanoat faqat bir tomonlama rivojlantirildi. Avtonom respublikada industriyaning mashinasozlik, elektrotexnika, kon-ruda, kimyo sanoati kabi tarmoqlari tashkil qilinmadi. Bu bir tomonlama rivojlanish Qoraqalpog‘iston iqtisodiyotiga putur yetkazdi. Chunki avtonom respublika faqat xom ashyo mahsulotlarini chetga chiqarish hisobigagina aholi farovonligini yaxshilay olmas edi.

1960-1980-yillar – Yaponiyada yengil avtomobil ishlab chiqarish 33 baravar o‘sdi. Harbiy ehtiyojlarga xarajatlar (yalpi milliy mahsulotning 1 foizi) sarflanmasligi sababli Yaponiya butun ishlab chiqarishdagi kuchini sanoatning yangi texnologik va ilmiy sohalariga yo‘naltirish imkoniga ega bo‘ldi. Ular ichida avtomobilsozlik sanoati muhim o‘rin egallaydi. Ayni paytda mashinasozlik, radioelektronika, EHM ishlab chiqarish, avtomatlashtirish vositalari, aloqa sohasini jihozlash tarmoqlarida ishlab chiqarish yuqori sur‘atlarda o‘sib bordi.

1960-1983-yillar – GDRda sanoat yalpi mahsuloti 9,5 baravar ko‘paydi. Ayniqsa, ilmiy-texnik taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega yangi sanoat tarmoqlari jadal sur‘atlar bilan rivojlanib ketdi. Ular hissasiga jami tovarlarning 10 foizi to‘g‘ri kelar edi. Sanoatda kompleks avtomatlashtirish keng quloch yoydi. GDR ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha jahondagi sanoati rivojlangan o‘nta mamlakat qatoriga qo‘shildi.

1960-yil boshi – g‘arbiy Sibirda topilgan neft-gaz koni tufayligina SSSRda 70-yillarda neft va gaz ishlab chiqarish bo‘yicha jahondagi oldingi o‘rinlardan biriga chiqib oldi. Bu narsa iqtisodning to‘la-to‘kis barbod bo‘lish davrini uzaytirish imkonini berdi. Sovet Ittifoqi bu borada nafaqat yirik ishlab chiqaruvchi bo‘ldi, shuningdek, neft va gazni eksport ham qila boshladi. Buning evaziga Sovet Ittifoqi oziq-ovqat mahsulotlari va iste‘mol mollarini sotib olar edi, lekin bu hol ishlab chiqarishni barbod qildi.

1960-yil boshi – O‘zbekistonda shaklan milliy, mazmunan satsialistik madaniyat to‘g‘risidagi stalincha nazariya madaniyatlarining gullab-yashnashi va bir-biriga yaqinlashuvi to‘g‘risidagi yangi g‘oya bilan almashtirildi. U amalda millatlar bir-biriga qorishib, chatishib ketishi kerak, degan ma‘noni anglatar edi. Partiyaning milliy masaladagi asosiy vazifasi “millat va elatlarning to‘la-to‘kis birligiga”, baynalmilal madaniyat yaratishga erishishdan iborat bo‘lib qoldi.

1960-yil boshi – SSSRda Xrushev va uning siyosatidan norozilik kayfiyati uyg‘ondi. Urushdan keyin birinchi marta narx-navo o‘sa boshladi.

1960-yil boshi – Andijon viloyati bilan Bolgariyaning Yambol okrugi, Toshkent viloyati bilan Xaskavo okrugi mehnatkashlari o‘rtasidagi o‘zaro yordam va hamkorlikka asoslangan aloqalar mustahkamlandi. Paxtachilikni rivojlantirish, irrigatsiya-melioratsiya ko‘rinishida sug‘oriladigan yerlarni o‘zlashtirishda O‘zbekiston bilan Bolgariya dehqonlari o‘zaro tajriba almashdilar.

1960-yil boshi – Ispaniyada mehnatkashlarning iqtisodiy masalalar bilan bog‘liq namoyishlari mazmuni o‘zgarib qat‘iy talablarga aylandi. Ular frankizm rejimiga qarshi siyosiy mahbuslarni ozod qilish, ish tashlash huquqi, yig‘inlarga erkinlik berish, mustaqil kasaba uyushmasi tuzish kabi talablar bilan chiqdilar.



1960-yil boshi – JARdagi ahvol birdan keskinlashdi.

1960-yil o'rtasi – AQSh neoliberalizmning nisbatan faollashuv davriga aylandi. Ilk bor AQShda ijtimoiy muammolarni va kambag'allikni bartaraf etishni kompleks orqali hal etishga harakat boshlandi. F.Ruzvelt davridan buyon mamlakat ijtimoiy islohotlarning bunday jadalligini bilmagan edi. Kam daromadli fuqarolarga yordam berish dasturi qabul qilindi. Hukumat barcha bosqichdagi ta'limni rivojlantirish, arzon turar-joy qurilishi, yoshlarga kasbiy ta'lim berishga yirik subsidiyalar ajratdi.

1960-yil o'rtasi - genetik kodning ishlashi tizimi ochildi.

1960-yil o'rtasi – Qoraqalpog'istonda qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i bo'lgan sholiyorlik rivojlanishiga e'tibor kushaydi.

1960-yil o'rtasi – Sovet hukumati o'z qo'shinini yangi harbiy texnika bilan qayta qurollantirish dasturini qabul qildi. Bu avvalo yadroviy raketa qurollari nisbatiga tegishli edi.

1960-yil o'rtasi – Tunis hukumati hukumat sanoat korxonalarini natsionalizatsiya qildi.

1960-yil – “*O'zaro hamkorlik va xavfsizlikka kafolat*” to'g'risidagi shartnoma amerika-yapon mamlakatlarining harbiy-siyosiy ittifoqini rasmiylashtirishni yakunladi va Yaponiyani AQShning Uzoq Sharqdagi kenja sherigiga aylantirdi deyish mumkin. Mazkur shartnomaga ko'ra, Amerika harbiy xizmatchilari yapon yurisdiksiyasi nazoratidan chiqarildi va soliq hamda bojxona tekshiruvidan ozod qilindi. 1 million aholi yashaydigan Okinava oroli AQSHning Tinch okean havzasidagi doimiy harbiy-havo kuchlari bazasi bo'lib qoldi. Amerika bombardimonchilari aynan shu yerdan Vetnam, Laos, Kampuchiya shahar va qishloqlariga bomba tashlash uchun uchar edi.

1960-yil - “Yangi roman” undan ham “yangi roman” bilan almashdi. U realizmdan yanada uzoqlashib ketdi.

1960-1982-yillar – o'zbek tilida kitoblar nashr etilishi 60 % ga qisqargan edi. Bu davrda o'zbeklar soni 2 baravar ko'paygan edi. Ilmiy dissertatsiyalarning 95% dan, ilmiy adabiyotlarning 80% dan ko'prog'i rus tilida yozilar va nashr etilardi.

1960-yil - birinchi ishlovchi lazer generatori amerikalik muhandis *Teodor Mayman* tomonidan yaratildi. Lazer texnikasi fan va texnikaning barcha sohalariga kirib bormoqda.

1960-yil – Albaniyada sanoat yalpi mahsuloti 1938-yilgi ko'rsatkichlaridan 25 marta oshdi.

1960-yil - Amerika va sovet olimlari o'rtasida kosmosni o'zlashtirishda beqiyos musobaqa boshlandi.

1960-yil – AQShda prezident saylovida demokratlar g'alabaga erishdi. Konservativchilar yetakchi sobiq vitse-prezident *R.Nikson* demokratik partiya vakili – 43 yoshli *Jon Kennedidan* mag'lubiyatga uchradi.

1960-yil – Fransiya atom bombasini sinovdan o'tkazdi.

1960-yil – GDRda qishloqlarni yoppasiga kollektivlashtirish, sanoatni “sotsiallashtirish”, kapital tugatilishi, korxonalar natsionalizatsiya qilinishi tarixda “qishloqda sotsialistik bahor” deb nom oldi. Chunki shu yili erkin fermerlik



tugatilib, uning o'rniga qishloq xo'jalik ishlab chiqarish kooperativlari paydo bo'lgan edi. Jami qishloq xo'jalik maydonlarining 84 foizi kooperativlar tomonidan qayta ishlandi.

1960-yil – GFRda sanoat ishlab chiqarish hajmi urushdan oldingi darajadan 2,5 marta oshib, tayyor mahsulot eksportining qiyosiy hajmi borasida Fransiyadan o'tib ketdi va Angliyaga tenglashdi.

1960-yil - hind yozuvchisi *Yashpalning* “*Yolg'on haqiqat*” asari nashrdan chiqdi.

1960-yil – *Islom Karimov* “*Tashselmash*” zavodida avval master yordamchisi, so'ng master, keyin texnolog bo'lib faoliyat ko'rsatgan.

1960-yil - mashhur italyan rejissyori *Federiko Fellini* “*Shirin hayot*” filmi qo'ydi.

Bu filmda oliy jamiyat hayoti - mehr-muhabbati, yaqinlariga mehribonligi yo'q odamlar bir-birlarining yonlarida to'liq yolg'izlikda yashashadi, ayni paytda, boshqalarga mehr-oqibatli va madadkor oddiy kishilar hayoti ham ko'rsatilgan. Ekzistensializm g'oyalari kino, teatr va san'atning barcha turlariga kirib bordi.

1960-yil – *N. S. Xrushev* “*tinch-totuv yashash*” siyosatini olib borishini bildirdi.

Bunda barcha xalqaro muammolarni faqat tinch yo'l bilan hal etish ko'zda tutilgan edi. Sovet Ittifoqi bu davrda xalqaro ahvolni yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'ra boshladi. BMT SSSRning tashabbusiga ko'ra mustamlakalardan voz kechish to'g'risida rezolyutsiya qabul qildi va shundan so'ng mustamlakachilik tizimi yemirila boshladi.

Sovet davlati Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi xalqlarining milliy-ozodlik kurashini qo'llab-quvvatladi. Hindiston, Indoneziya, Birma, Afg'oniston biJan do'stlik aloqalari o'rnatildi. Yugoslaviya bilan munosabatlar yo'lga qo'yildi. Xrushev ko'pgina xorijiy mamlakatlarga safar qildi.

1960-yil – *Ngo Dinning* siyosati janubda muxolifatning tashkil topishiga olib keldi.

1960-yil – o'zbek tilida 1060 nomda kitoblar chop etilgan.

1960-yil – O'zbekiston bo'yicha 223 ta shifoxona muassasalari va 21 mingta davolash o'rinlari ishga tushirildi.

1960-yil – O'zbekistonda 140 ta maxsus ilmiy-tadqiqot muassasalari ularning filiallari, bo'limlari, tajriba stansiyalari, oliy o'quv yurtlari va boshqalar faoliyat ko'rsatgan.

1960-yil – O'zbekistonda badiiy hunarmandchilikka katta e'tibor berila boshladi. Xalq badiiy hunarmandchiligi mahalliy sanoatining maxsus tarmog'i sifatida qayta tashkil qilindi. Bu tarmoq xalq dekorativ amaliy san'ati buyumlarini tayyorlovchi badiiy hunarmandchilik korxonalari faoliyatini birlashtirdi. Xalq badiiy hunarmandchiligi buyumlariga ehtiyoj ortishi munosabati bilan ularni qo'lda tayyorlash bilan birga qisman mashinada ishlab chiqarishga o'tildi.

1960-yil – O'zbekistonda davlatga 1940-yilga nisbatan g'alla topshirish 2 baravar, sholi topshirish 4,5 baravar kamaydi.

1960-yil – O'zbekistonda kasalxona shahobchalarini kengaytirish maqsadida davolash o'rinlari 20 mingtaga orttirish belgilandi. Buning uchun davolash muassasalariga 500 dan ortiq ma'muriy va boshqa binolar ajratildi.

1960-yil – O'zbekistondagi 5,4 ming maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining faqat 2 mingga yaqini qishloqlarda joylashgan bo'lib, ularning aksariyatları 1-2



nafar usta ishlaydigan maxsus bino va zarur sharoitga ega bo'lmagan poyafzal tamirlash ustahonalari, sartaroshxonalar tashkil qilardi.

1960-yil – qoraqalpoq prozasi *T.Qayipbergenov, K.Seitov, U.Xo'janiyozov* asarlari bilan boyidi.

1960-yil – Vetnamda Milliy ozodlik fronti tuzildi, uning dasturiga *Demning* xalqqa qarshi tuzumini ag'darish, mamlakatni birlashtirish, iqtisodiy o'zgarishlar va amerikaliklarni quvib chiqarish kirdi. Bu, mustamlakachilikka qarshi xalq inqilobining boshlanishi edi. Uning harbiy tashkiloti Vet Kong deb ataldi.

1960-yil – Yevropa davlatlarining sobiq 17 ta mustamlakasi mustaqillikka erishdi.

1960-yil – 20 ga yaqin xorijiy mamlakatlarga “Bahor” ashula va raqs ansambli safar qildi.

1960-yil – 600 kmdan ziyod bo'lgan Qo'ng'iro't-Beynov temir yo'li qurilishi boshlanib yuborildi.

1960-yil – gilam to'qish hunari tiklana boshladi. Gilam to'qish korxonalari Buxoro, Samarqand, Sirdaryo, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlarida, Farg'ona vodiysida mavjud edi.

1960-yil – *Jon Kennedi* davrida AQShda misli ko'rilmagan darajada qurollanish poygasi avj oldi. AQShning raketa-yadro aslahasi ilgarigi davrga qaraganda bir necha marta jadal suratda ko'paydi.

1960-yil – Kuba va Bolgariyada paxta terish mashinasidan keng foydalana boshlandi. Bu mashinani o'zlashtirishda O'zbekiston mutaxassislari ularga katta yordam berdi.

1960-yil – O'zbekiston aholisining turmush darajasi sezilarli ko'tarildi.

1960-yil – O'zbekistonda 10 dan ortiq fabrika va zavod badiiy buyumlar ishlab chiqardi. Buxoro zardo'stlik, Rishton badiiy kulolchilik zavodi, Toshkent Suvenir fabrikasi, Toshkent milliy musiqa asboblari tajriba fabrikasi, Andijon, Chust, Namangan, Toshkent badiiy buyumlar fabrikalari va boshqalar faoliyat ko'rsatdilar. Ularga uyda ishlovchi hunarmandlar ham birlashtirilgan edi.

1960-yil – O'zbekistonda hunarmandchilikning so'zana, choyshablar, gazlama, gilamdo'zlik, kigiz tayyorlash, konchilik, misgarlik, bo'yoqchilik kabi sohalar yo'q qilindi.

1960-yil – O'zbekistonda kulolchilik, milliy pichoqlar, zarli buyumlar, milliy musiqa asboblari ishlab chiqarish ancha o'sdi.

1960-yil – O'zbekistonda maishiy xizmat ko'rsatish sohasi jadal tez rivojlanib bordi.

1960-yil – O'zbekistonda mexanizatorlar tayyorlashning eng samarali shakli qishloq hunar-texnika bilim yurtlari bo'lib qoldi.

1960-yil – O'zbekistonda turar joy qurilishi urushdan keyingi 10 yillika nisbatan 2,5 baravar o'sdi.

1960-yil - oliy ma'lumotli pedagog kadrlar O'zbekistondagi barcha o'qituvchilarning 3/1 qismini tashkil qilardi.

1960-yil – Orol dengizining quriy boshlashi butun mintaqada ayniqsa Qoraqalpog'istonda ekologik vaziyatni og'irlashtirdi.

1960-yil – Qarshi cho'lini o'zlashtirish boshlandi. Qarshi dashtida uzunligi 165



kmga boradigan Qarshi magistral kanali va Tallimarjon suv ombori asosiy irrigatsiya inshooti edi.

1960-yil – sovetlarning hunarmandlarga salbiy munosabati tufayli O‘zbekistonda gazlama, gilamdo‘zlik, kigiz tayyorlash, ko‘nchilik, misgarlik, bo‘yoqchilik va boshqa ko‘plab hunarmandchilik sanoati sohalari yo‘q bo‘lib ketdi.

1960-yil – Toshkent davlat tibbiyot institutida bir necha mamlakatlarga yuzlab vrach va tibbiyot fanlari nomzodi tayyorlab berildi.

1960-yil – Toshkentda tibbiyot xizmatini yaxshilash borasida ko‘pgina ishlar amalga oshirildi.

1960-yil – yadro quroli takomillashib bordi. Endi taktik qurol turlari yaratila boshladi, ulardan odatdagilari bilan bir qatorda kichik miqyoslarda foydalanish mumkin edi.

1960-yil – Yaponiyada Rudzi, Dinti, Sanva deb ataluvchi yosh moliyaviy oligarxiya guruhi paydo bo‘ldi. “Katta uchlik” bilan bir qatorda ular yapon iqtisodida yetakchi kuchga aylanishdi. Yaponiya jahondagi eng boy yettita davlat (“yettilik”) qatoridan joy oldi.

1960-yil 1-yarmi – O‘zbekiston olimlarining 200 dan ziyod vakili jahonning 40 ga yaqin mamlakatlariga borib kelishdi. Ular 50 dan ortiq xalqaro ilmiy anjumanlarda ishtirok etdilar va ma‘ruzalar qildilar.

1960-yil mart – politsiya loxannesburg va Keyptaun shaharlari chekkasida tinch namoyishchilarni o‘qqa tutdi. Yuzlab namoyishchilar o‘ldirildi. Terrorning yangi to‘lqini yetilib kelayotgan edi. 20 mingdan ortiq kishi hibsga olindi, AMK taqiqlab qo‘yildi.

1960-yil aprel – *li Sin Man* hokimiyati ag‘darildi va o‘ldirildi.

1960-yil may – Turkiyada harbiylar mavjud tizimni saqlab qolishga harakat qilib, davlat to‘ntarishini amalga oshirdi. *Menderes* hibsga olindi va qatl etildi.

1960-yil 1-may - Amerikaning *Garri Pauers* boshqarayotgan o‘ta balandlikda uchuvchi U-2 razvedkachi samolyoti urib tushirildi.

1960-yil 1-may – SSSR hududi ustida razvedka maqsadida uchib o‘tgan U-2 samolyoti ushbu kompaniyaning qul‘minatsiyasi bo‘ldi. Samolyot urib tushirildi, uchuvchi *Garri Pauers* esa tirik qoldi va asirga olindi. Uning yonidan uchish rejasini tasdiqlovchi xarita va hujjatlar topildi. Amerika hukumati va shaxsan prezident *Duayt Eyzexauemi* samolyot odatiy mashq uchishi davomida adashib qolganligini ma‘lum qildi. Biroq jahon jamoatchiligiga AQSh rahbariyatining bu uchishdan xabari bo‘lganligi haqida ishonarli dalillar taqdim etildi. AQSh prezidenti yolg‘on gapirganlikda va xalqaro huquqni buzganlikda ayblandi.

1960-yil 16-19-may – Parijda ikki buyuk davlat rahbarlari uchrashuvi bo‘lishi kerak edi. Biroq *Duayt Eyzexauer* uzr so‘rashdan bosh tortdi va *N.S.Xrushev* Parijdan jo‘nab ketdi. Yuqori doiradagi uchrashuv chippakka chiqdi. *Duayt Eyzexauemi*ning siyosiy kar‘yerasi nihoyasiga yetdi, respublikachilar partiyasi esa tashqi siyosatda mag‘lubiyatga uchradi.

1960-yil 30-iyun – Kongo mustaqilligi e‘lon qilindi. Mamlakat bosh vaziri sifatida Milliy harakat partiyasi rahbari *Patris Lumumba* saylandi. Biroq Kongoning turli rayonlarida tuzilgan ko‘plab boshqa partiyalar ham hokimiyatga da‘vogar edilar.



Mustamlakachilar madadiga tayangan partiyalar qatorida Leopoldvilda *M.Chombe* rahbarligidagi Milliy taraqqiyot partiyasi va Kongoning eng boy provinsiyasi – Katangadagi Kanakat partiyasini sanab o'tish mumkin.

1960-yil 16-avgust - Kipr mustaqilligi e'lon qilindi.

1960-yil 19-avgust - *Pauers* ayg'oqchiligi uchun 10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilindi.

1960-yil sentabr – Kongo mustaqil deb e'lon qilingandan so'ng bir necha kun o'tgach, *M.Chombe* Katanga mustaqillikka erishganligini bildirdi. Olmos koni topilgan Kasaida esa mustamlakachilarning yana bir vorisi *A.Kolonji* qo'g'irchoq hukumatini tuzib, uni mustaqil deb e'lon qildi. Leopoldvilda polkovnik *Mobutu* rahbarligida harbiy to'ntarish yuz berdi. *P.Lumumba* va uning barcha safdoshlari vahshiyona o'dirildi. Bu voqea butun mamlakatni larzaga soldi va sharqiy provinsiyalar aholisi qo'zg'olonchilik harakatini boshlab yubordi. Unga *P.Lumumba* o'rinbosari *Antuan Gizenga* yetakchilik qildi.

1960-yil sentabr – *Patris Lumumba* o'dirilgan.

1960-yil 8-noyabr - *J.Kennedning* AQSh prezidentlik saylovlaridagi g'alabasi.

1960-yil 14-noyabr - neftni eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti - OPEK tashkil topdi.

1960-yil 14-dekabr – BMT Bosh Assambleyasi mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to'g'risida Deklaratsiya qabul qildi. Bu esa dunyo miqyosida mustamlakachilikni tugatish uchun zarur xalqaro-huquqiy baza yaratdi.

1960-yil 14-dekabr – Osiyo va Afrika xalqlarining mustamlakachilik tizimini to'liq tugatish uchun kurashi va ular talabining xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi BMT Bosh Assambleyasining "*Mustamlaka mamlakatlari va xalqlariga mustaqillik berish haqida bayonotnoma*" qabul qilinishiga olib keldi. Irqchilik va apparateidni ham o'z ichiga oluvchi mustamlakachilikning barcha ko'rinishlarida davom etishi BMT Nizomiga mos kelmasligi e'lon qilindi.

1960-yil 20-dekabr - Janubiy Vetnam (Vetkong)ni ozod qilish Xalq fronti tuzildi.

1960-yil oxiri – Lotin Amerikasi ijtimoiy-siyosiy harakatida yangi xususiyatlar yuzaga keldi. Bu xususiyatlar mavjud tuzumlarini ag'darish va hokimiyatni egallashga yo'naltirilgan faoliyatga ega bo'lgan avvalgi siyosiy koalitsiyalardan farqlanuvchi iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar vazifalarini o'z oldiga qo'ygan keng koalitsiyalarni yaratishda namoyon bo'ldi.

1960-yil oxiri – Afrika hududida mustamlaka mamlakat deyarli qolmadi.

1960-yil oxiri – butun Afrika ozodlikka chiqdi.

1960-yil oxiri – sanoat ishlab chiqarishi jadal o'sib borishi bilan birga qayta tiklangan monopoliyalalar pozitsiyasi kuchaydi. Dzaybatsular yana Yaponiyaning eng kuchli xo'jayiniga aylandi. Mitsui, Mitsubusi va Sumitomo – "katta uchlik" deb nomlanuvchi eski guruh yetakchilik qila boshladi.

1960-yil oxiri – SSSRda agrar sektorda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish kamaya bordi. Faqat paxtachilik bundan mustasno edi, xolos. Yangi qo'riq yerlar o'zini oqlamadi, don yetishtirish keskin tushib ketdi.

1961-yil boshi – Janubiy Vetnamda 600 nafar amerikalik qo'shin bo'lgan.



1961-1963-yillar – Jon Kennedi AQShning demokratlar partiyasidan 35-prezidenti etib saylandi.

1961-1965-yillar – *George Georgiu-Dej* Ruminiya prezidenti.

1961-1965-yillar – *George Georgiu-Dej* RXP Davlat kengashi raisi.

1961-1965-yillar – *Ismet Inenyu* Turkiya Bosh vaziri bo'ldi.

1961-1966-yillar – Chexoslovakiyada og'ir iqtisodiy inqiroz davri.

1961-1966-yillar – uchinchi besh yillikda sanoatning rivojlanishi qariyb to'xtab qoldi, qishloq xo'jalik mahsuldorligining o'sishi esa eng quyi darajada bo'ldi. Davlat sotsializmining iqtisodiy tizimi iqtisodiy rivojlanishning obyektiv qonunlari bilan ziddiyatga kelib qoldi. Korxonalar samarasiz, mahsuloti raqobatga dosh berohnaydigan bo'lib qoldi. Sanoatda ham, qishloq xo'jaligida ham mehnat unumdorligi pasaydi, ishlab chiqarish aloqalari intizomi buzildi.

1961-yil – 127 km uzunlikdagi eng yirik Janubiy Mirzacho'li kanali bitkazildi. U 350 ming gektardan ortiq yerni sug'orishga mo'ljallandi.

1961-yil - angliyalik yozuvchi *Jeyms Oldrijning* “*So'nggi quvg'inlik*” romani nashrdan chiqdi.

1961-yil – AQSh Kuba bilan diplomatik munosabatlarni uzdi va qurolli bostirib kirishni tashkil etdi. AQShning hukmron doiralari inqilobni iqtisodiy jazolar orqali bo'g'ib tashlashga urindi, ular amerika kompaniyalariga Kubadan shakar sotib olishni man etishdi, unga neft va oziq-ovqat sotishni taqiqlashdi.

1961-yil – bundestag saylovarida *K. Adenauer* siyosatiga nisbatan norozilik kuchayganligi namoyon bo'ldi. Uning partiyasi ko'pchilik mandatni boy berdi.

1961-yil – Eronda 57 mln. tonna neft qazib olindi.

1961-yil – fazogir *Y.A. Gagarin* dunyoda birinchi bo'lib koinotga uchdi. Harbiy havo va suv osti floti takomillashtirildi. Armiya yangi turdagi, jumladan, yadro quroliga ega bo'ldi.

1961-yil – GFR tomonidan GDR mavjudligini doimiy ravishda nazar-pisand qilmaslik va uning iqtisodini izdan chiqarishga intilishi sababli GDR hukumati “Berlin devori”ni qurdi. Bu devor to'siq tizimi shaharning sharqiy qismini g'arbidan ajratib turardi. Shundan so'ng ular o'rtasidagi bordl keldi alohida ruxsatnomalar asosida amalga oshiriladigan bo'ldi.

1961-yil – *Jozef Dezire Mobutu* Kongo (Zair) armiya bosh qo'mondoni.

1961-yil - mashhur amerikalik yozuvchi *E.Xeminguey* Kubada o'z uyida o'z joniga qasd qildi. Hozirga qadar bu fojia sirini hech kim topmay kelayotir.

1961-yil - mashhur amerikalik yozuvchi *J.Steynbek* “*Bizning xavotirlarimiz qishi*” kitobini yozdi. Bu asar 27 marta nashrdan chiqdi.

1961-yil – Taxiatosh GRES ning birinchi navbati foydalanishga topshirildi.

1961-yil – Toshkent davlat tibbiyot instituti xorijiy mamlakatlar uchun turli ixtisosdagi vrachlarni tayyorlashga kirishdi.

1961-yil – Turkiya harbiy rahbariyati mamlakatning yangi konstitutsiyasini taqdim etdi.

1961-yil – V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida *Islom Karimov* muhandis, yetakchi muhandis-konstruktor bo'lib ishladi.

1961-yil yanvar – AQSh Kuba bilan diplomatik munosabatlarini uzib, unga qarshi



iqtisodiy baykot e'lon qildi. Biroq bular bari Kuba rahbariyatiga ta'sir ko'rsatmadi. Chunki Sovet Ittifoqining yordami tufayli AQShning iqtisodiy sanksiyalari kutilgan natija bermadi. Shundan so'ng AQSh F. Kastro hukumatini ag'darib tashlashga kirishdi. MRB tomonidan ishlab chiqilgan rejaga ko'ra 1500 nafar kubalik muhojirlar orolning janubiy qirg'og'iga olib kelindi. Maqsad ular yordamida qo'zg'olon ko'tarish va xalqni hukumatga qarshi jalb etish edi. Biroq teskarisi ro'y berdi, ya'ni butun Kuba inqilobni himoya qilib chiqdi. Hujum mag'lubiyatga uchradi.

1961-yil 4-6-fevral – Angola poytaxtida qurolli qo'zg'alon boshlandi. Bir qator janglar natijasida Angola vatanparvarlari mamlakat sharqi va janubl sharqidagi keng hududni ozod qilishdi.

1961-yil 17-aprel - *Fidel Kastro* dushmanlarining Ploya-Xiron rayoniga hujumi.

1961-yil 21-aprel - SSSRda Y.Gagarin kosmik kema bilan uchirildi (insonning ilk bor fazoga uchishi)

1961-yil 13-avgust - Sharqiy Germaniya Brandenburg darvozasi orqali o'tiladigan Sharqiy va G'arbiy Berlin o'rtasidagi erkin o'tish chegarasini yopib qo'ydi.

1961-yil 29-sentabr - Suriya Arab Respublikasining e'lon qilinishi.

1962-1963-yillar – prezident *de Goll* va GFR kansleri *K. Adenauer* o'rtasida Parij va Bonnda 4 marta uchrashuv bo'lib o'tdi.

1962-1964-yillar – Kongo (Zair)da amalda ikki hokimiyatchilik hukm surdi. G'arb davlatlari yordami bilan u bartaraf etildi va *M.Chombe* bosh vazir etib tayinlandi.

1962-1965-yillar – *Ahmad Muhammad Bin Bella* Jazoir prezidenti.

1962-1967-yillar – *S. Radxakrishnam*ning Hindiston prezidentligi davri.

1962-1971-yillar – *Todor Jivkov* BXR Vazirlar Kengashi raisi.

1962-1977-yillar – *Agostinyu Neto* Angolani ozod qilish xalq harakatiga yetakchilik qilgan.

1962-yil – “*G'azab shingillari*” romani uchun *Jon Steynbek* Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

1962-yil – “sovuq urush” holatidan chiqish tendentsiyasi yuzaga keldi.

1962-yil - “Taraqqiyot doktrinasini”ning eng yirik mafkurachisi va ifodalovchilaridan biri, amerikalik faylasuf *Charlz Frenkel* o'zining “*Demokratik kelajak*” kitobini yozadi. Muallif o'zining kitobida “odamzod taraqqiyoti”ni “modernizatsiya” (yangilanish) inqilobi, ya'ni moddiy va intellektual taraqqiyot hamda axloqiy inqilob natijasi deb hisoblaydi.

1962-yil - AlbaniyaVarshava shartnomasi ishtirok etmay qo'ydi.

1962-yil - amerikalik olim *Jeyms Vatson* va ingliz olimi *Frensis Krin* ilk bor DNK tuzilishi formulasini ma'lum qilgani uchun olimlar bu kashfiyot uchun Nobel mukofoti olishdi. Biroq, bu genetika sohasidagi buyuk kashfiyotlarning faqatgina boshlanishi edi.

1962-yil - inglizyalik yozuvchi *Somerset Moem* o'zining “*O'tmishga nigoh*” romanini nashr ettirdi.

1962-yil – avangardchi rassomlar o'z asarlari ko'rgazmasini Moskvadagi Izmaylovsk bog'ida o'tkazishga ruxsat olishdi, biroq ko'rgazma endi ochilishi bilan buldozerlar olib kelinib, butun ekspozitsiya vayron qilindi.



- 1962-yil** – BMT aralashuvi natijasida Indoneziyada nizolarning bartaraf etilishi.
- 1962-yil** – kooperativ sanoat va asosan artellar mahsuloti O'zbekiston sanoati hajmining atigi 3 % ini tashkil etdi.
- 1962-yil** - mashhur amerikalik yozuvchi *J.Steynbek* “*Charli bilan sayohatlar*” nomli kitobini yozdi. U 39 marta nashrdan chiqarildi.
- 1962-yil** - mashhur amerikalik yozuvchi **J.Steynbek** Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi, uni butun dunyo bildi, faqat Amerika bilmadi. Rasmiy Amerika uni “bir shingil qahr-g'azab” uchun kechira olmadi.
- 1962-yil** – Mo'g'uliston O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi a'zosi bo'lib kirdi.
- 1962-yil** – Mongoliyaning O'LYOKga kirishi mamlakatni keng ko'lamda industralashtirishga olib keldi. Rangli metallar qazib olish bo'yicha ulkan korxonalar qurildi. Barcha tashqi savdosi Sovet Ittifoqi bilan bog'liq bo'lib eksportning 94 foizi, importning 97 foizi shu ikki mamlakat o'rtasida amalga oshirilgan.
- 1962-yil** – *N.Xrushevning* ijodiy ziyolilar bilan keskin to'qnashuvi yuz berdi, o'shanda ijod erkinligini talab qilib chiqqan bir guruh shoirlar qoralandi, uzoq vaqt qatag'onga duchor etildi (*E.Yevtushenko, R.Rojdestvenskiy, A.Voznesenskiy* va boshqalar). Fikr va ijod erkinligi partiya aqidaloriga zid kelmaydigan doiradagina ruxsat etildi.
- 1962-yil** – o'zbek kinoteatrlarida chet eldagi 25 kinostudiyada ishlab chiqarilgan 89 badiiy film namoyish etildi. 40 dan ortiq chet mamlakatlarning kinoteatrlarida o'zbek badiiy va hujjatli filmlari ko'rsatildi. “O'zbekfilm” tomonidan yaratilgan bir qator badiiy filmlar, jumladan, “*Osiyo ustida bo'ron*”, “*Toshkent - non shahr*”, “*Mahallada duv-duv gap*”, “*O'tgan kunlar*” filmlari namoyish qilindi.
- 1962-yil** – O'zbekistonda oziq-ovqat, yengil, trikataj, gaz va neft sanoatidagi o'zbek va boshqa yerli aholidan bo'lgan ishchi va xizmatchilar soni 30 % dan sal ortiqni tashkil qilardi. Mashunasozlik, metall ishlash sanoati va og'ir sanoatning boshqa sohalarida o'zbek va mahalliy millat vakillari soni juda oz edi.
- 1962-yil** – Polsha energotizimi yagona “Mir” energotizimiga ulandi, SSSR bilan yaqin iqtisodiy aloqalar agrar mamlakatdan industrial davlatga aylangan Polshaning yirik iqtisodiy muvaffaqiyatlariga imkon yaratdi. Polsha SSSRdan uzluksiz energiya va xomashyo olib turdi.
- 1962-yil** – Ruminiyada qishloq xo'jaligini jamoalashtirish yo'lidan borish 81 foiz barcha dehqon xo'jaliklarini birlashtirdi. Jamoalashtirish tugadi, do'konlarda esa asosiy oziq-ovqat mahsulotlari yo'q boldi. Biroq partiya maqsadiga yetdi: mamlakatda xalqning «metin birligi»ga erishildi.
- 1962-yil** – Sotsialistik mamlakatlar sanoat ishlab chiqarishining yillik o'sishi 8 foizni tashkil etdi. Rivojlangan Yevropa mamlakatlarida esa bu ko'rsatkich 4-5 foizdan oshmagan edi.
- 1962-yil** – *Todor Jivkov Yugov* o'rnini egalladi va hukumat rahbari bo'lib qoldi.
- 1962-yil** – Yugoslaviyada Skopeda Bolqondagi eng yirik metallurgiya kombinati qurila boshladi.
- 1962-yil mart - 1988-yil** – Birmada bosh vazir etib partizan harakati rahbarlaridan biri general *Ne Vin* egalladi. U parlamentni tarqatib yubordi va “*Birma Ittifoqi Sotsialistik Respublikasin*”ni e'lon qildi. Sotsialistik jamiyat qurilishi davom etdi.



1962-yil 18-mart – Evian shahrida jazoir-fransuz munosabatlanru belgilab beruvchi bitimlar imzolandi. Jazoir mustaqil deb e'lon qilindi va Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi deb nomlandi. MOF yo'lboishchisi *Ahmad bin Bella* hukumatga boshchilik qildi.

1962-yil 18-mart – Fransiya premer-ministri *Jorj Pompidu* va Aljir milliy-ozodlik fronti rahbari *Ben Bella* Jeneva ko'li yaqinidagi Evian shahrida urushni to'xtatish va hukumatni aljir xalqi ko'liga topshirish shartlari to'g'risidagi Fransuz-Jazoir bitimini imzoladilar. Aljirda 8 yil davom etgan urush yakun topdi.

1962-yil 18-mart - Fransiya va Jazoir o'rtasidagi o't ochishni to'xtatish to'g'risidagi Evian bitimi imzolandi.

1962-yil 8-aprel – Fransiya referendum bo'lib o'tdi va fransuz saylovchilarining 90 % i Evian bitimini yoqlab ovoz berdi.

1962-yil sentabr – qo'shni Shimoliy Yamanda bo'lib o'tgan monarxiyaga qarshi inqilob qiroli *Saudga* ham eng jiddiy ogohlantirish bo'ldi. U yerda ag'darilgan monarxiya yerlari va saroylari musodara etilib, barcha fuqarolarning tengligi e'lon qilindi.

1962-yil 26-sentabr – Yaman Arab Respublikasi tashkil etildi. Prezident *Abdulla as-Salalom* imzolagan bayonotida Arabiston yarimorolida barcha qiroli va amirlar hokimiyati ag'darilishi zarurligi va bu yerda yagona Arabiston Respublikasi tashkil etilishi haqida gapirildi. Misr va Suriya Yaman inqilobini qo'llab-quvvatladi. Bu yurtga zamonaviy qo'shinni shakllantirish va yangi iqtisodiyotni barpo etish uchun 6 ming sovet mutaxassislari yetib keldi.

1962-yil oktabr – inqilob ro'y berishidan qo'rquv hissi qiroli *Saudi* mamlakatda modernizatsiyalash va liberalizatsiyalashni boshlashga majbur etdi. U liberal-demokratik qarashlari bilan ajralib turuvchi akasi *Feysal*ni mamlakatning keng vakolatli bosh vaziri etib tayinladi, *Feysal* islohotlarni AQSh yordamida amalga oshirishga kirishdi. Feysalning o'n yilga mo'ljallangan modernizatsiyalash dasturi mamlakatda ayni paytda monarxiyani mustahkamlash bilan birgalikda kuchli iqtisodiy bazani yaratishga yo'naltirilgan edi. Uning islohotlarining asosiy yo'nalishlari islom an'analari va saudiylarning mulq monarxiyasi bo'ldi.

1962-yil oktabr – orol yirik harbiy-dengiz kuchlari, harbiy-havo, dengiz piyodalari, parashyutchilar, strategik aviatsiya birlashmalari yordamida to'liq o'rab olindi. Dunyo termoyadro urushi yoqasiga kelib qoldi. Bu davr "*Karib inqirozi*" nomini oldi.

1962-yil 22-28-oktabr - Karib tangligi.

1962-yil 26-oktabr – AQSh Kuba qirg'oqlarini blokada qilishni e'lon qildi.

1962-yil 28-oktabr – Karib tangligining hal qilinishi. Sovet Ittifoqi Kubadan o'z raketalarini olib ketishga rozi bo'ldi. Biroq Amerika tomoni Kuba hujum qilmaslikka va SSSR bilan Turkiya chegarasidagi harbiy bazasini tugatish majburiyatini oldi.

1962-yil kuz – SSSRda non tanqisligi yuzaga keldi, odamlar qatorlashib nonga navbatga tura boshladi.

1962-yildan so'ng – Kuba uchun bevosita qurolli intervensiya xavfi yuzaga kelmadi. Diplomatik muzokaralar natijasida kelishuvga erishildi. Kubada yangi hayot qurilishi jarayonida rahbariyat tomonidan xatolarga ham yo'l qo'yildi.



Markazlashgan ma'muriy-buyuruqbozlik iqtisodiyoti tizimining yaratilishi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ancha zarar keltirdi. Amalda xususiy sektor yo'q qilindi va bozor munosabatlari asoslari yemirildi. Bu xalq ommasining ahvoriga ta'sir etmay qolmadi. Mamlakatda oziq-ovqat va eng zarur buyumlar yetishmovchiligi sezildi, me'yorlangan ta'minot kiritildi, tashqi qarz oshdi.

1963-1964-yillar – *A. Douglas-Xyum* Buyuk Britaniyada Bosh vazir lavozimida.

1963-1964-yillar – o'quv yilida Toshkentdagi oliy o'quv yurtlari va texnikumlarida 14 ta mamlakatdan kelgan 250 kishi ta'lim olgan.

1963-1965-yillar – *To'lepbergen Qayipbergenovning* “*Qoraqalpoq qizi*” dialogiyasi yozdi.

1963-1968-yillar – *Aldo Moro* Italiya bosh vaziri.

1963-1969-yillar – *L. Jonsomning* AQSh prezidentligi davri.

1963-1979-yillar – Qarshi dashtida 30 ga yaqin savxo'zlar tashkil etildi.

1963-yil - “*Noviy mir*” jurnalida *A. Soljenitsin* qalamiga mansub “*Ivan Danilovichning bir kun*” nomli hikoyasi e'lon qilindi. Unda surgun qilinganlar lagerlari hayoti bayon qilingan. Sovet xalqlari birinchi bor GULAG haqida bor haqiqatni bilib oldi.

1963-yil – Buxoro – Ural gaz quviri ishga tushirildi.

1963-yil – Eron shohi “*oq inqilob*” g'oyasi yoki, uning o'zi keyinchalik aytganidek, “*shoh va xalq inqilob*”ni hayotga tatbiq eta boshladi. U yirik miqyosli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma'muriy islohotlarni amalga oshirdi. Eronda sanoatning yangi tarmoqlari – metallurgiya, mashinasozlik, neft-kimyo, gaz va alyuminiy sohalari paydo bo'ldi. Milliy kemasozlik va aviatsiya sanoatiga tamal toshi qo'yildi, atom energetikasini yaratishning dastlabki odimlari tashlandi. Eron tezkor ravishda agrar mamlakatdan industrial-agrar davlatga aylana boshladi. Ayni paytda mamlakat g'arb olamining bir qismi sifatida namoyon bo'la bordi. Shoh shuni tushunardiki, Eron uchun iqtisodiyotni rivojlantirish, madaniyatni ko'tarish, aholining turmush darajasini yaxshilashdan iborat bo'lgan tub modernizatsiyani amalga oshirish zarur.

1963-yil – ilmiy xodimlar tarkibida o'zbeklar (5,5 mingdan sal ortiq) va ruslar (5,5 mingdan sal kam) nisbati deyarli teng edi. O'zbekistondan 97, ruslardan 96 nafar fan doktorlari ish olib borardi.

1963-yil – moliyaviy tovlamachilikka va siyosiy “o'yin”larga aralashib qolgan XSI yetakchisi *F. Shtraus* mudofaa ministrligi lavozimidan iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.

1963-yil – O'zbekiston sanoati 5 baravar, mashinasozlik 164 % o'sgan bo'lsa, oziq-ovqat sanoati 2, sanoat 2,5 baravar o'sdi.

1963-yil – *Suxarto* quruqlik kuchlari qo'mondoni.

1963-yil – Toshkent asbobsozlik zavodidagi ishchi va xizmatchilar orasida o'zbeklar va boshqa tub millat vakillari ulushi 20 % ni tashkil etdi.

1963-yil – Toshkentda madaniy-maishiy buyumlar va ro'zg'or buyumlarini ijaraga berish, uy-xonadonlarini tozalab yig'ishtirish, bolalarga qarash va boshqa ko'pgina xizmatlarni uyushtirish bilan shug'ullanuvchi “Sharq” kombinati tashkil etildi.

1963-yil – Toshkentda sovutgichlarni tamirlaydigan “Sevar” fabrikasi va televizor,



radio apparatlarni tamirlaydigan "Zangori ekran" fabrikasi ishga tushirildi. Andijon, Samarqand, Urganch, Nukus, Namangan shaharlarida ham shunday atelyelar qurildi.

1963-yil mart – Suriyada hukumat tepasiga Arab sotsialistik uyg'onish partiyasi (ASUP) keldi. Uning rahbarlari asosan harbiylardan iborat edi. Mazkur partiya barcha arab xalqlarini kurashda birdamlikka chaqiruvchi dasturiy hujjat qabul qildi. Suriyada yirik sanoat korxonalari, banklar va sug'urta kompaniyalari natsionalizatsiya qilindi, agrar islohot o'tkazildi.

1963-yil 22-mart – Fransiya va GFR o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi shartnoma imzolani, ikki davlat o'rtasida ittifoqchilikni tasdiqladi.

1963-yil iyul – Moskva va Vashington (bevosita Kremli va Oq uy) o'rtasida ushbu mamlakatlar rahbarlari har qanday paytda aloqa qilishni mumkin bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri telefon liniyasi o'rnatildi. Bu bir-biriga bo'lgan ulk o'zaro ishonch edi.

1963-yil avgust – Moskvada g'arb davlatlari va Sovet Ittifoqi o'rtasida yadro qurolini atmosferada sinashni ta'qiqlovchi shartnoma tuzildi.

1963-yil oktabr – 87 yoshli *K. Adenauer* iste'foga chiqdi.

1963-yil oktabr – Fransiya o'z harbiy-dengiz bazasini Bizertidan ko'chirdi va Tunis to'liq suveren bo'lib oldi.

1963-yil oktabr – fransuz mustamlakachilariga tegishli bo'lgan barcha yerlar o'z-o'zini boshqarish qo'mitalariga berilishi, yerlarni dehqonlar o'rtasida taqsimlanishi ko'zda tutilgan yangi dekretlar qabul qilindi.

1963-yil 15-oktabr - Konrad Adenauer iste'foga chiqdi.

1963-yil noyabr 1964-yil fevral – Gretsiyadagi saylovda o'ng partiyalar mag'lubiyatga uchradi. Hokimiyat tepasiga *Georgios Papandreu* boshchiligidagi markaz Ittifoqi hukumati keldi. Markaz Ittifoqi radikal demokratlar va sotsialistlardan tashkil topgan edi. *Papandreuning* bosh vazir etib tayinlanishi Gretsiya boshqaruv doirasida norozilik tug'dirdi. Bundan tashqari, *G. Papandreu* hukumati tomonidan mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida demokratlashtirish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi qirolning jig'iga tegdi.

1963-yil 1-noyabr – Vetnamdagi harbiy to'ntarish natijasida *Dem* ag'darildi. Yangi "yo'l boshchi" lavozimiga *Nguen Van Tie* saylandi.

1963-yil 22-noyabr – AQSh prezidenti *Jon Kennedi* Dallasda (Texas shtati) o'ldirildi.

1963-yil dekabr 1972-yil – XDPda tarkibiga kommunist va sotsialistlar vakillari kirishi mo'ljallangan "so'l markaz" hukumatini tuzishni ilgari surgan oqim paydo bo'ldi. Bu oqimga XDP kotibi *Aldo Moro* boshchilik qildi.

1963-yil – *Jamol Abdul Nosir* arab sotsialistik ittifoqining 1-raisi.

1963-yil oxiri – "Adenauer davri" tugadi.

1964-1966-yillar – *L. B. Shastrining* Hindiston bosh vazirligi davri.

1964-1968-yillar – AQSh hukumati barcha ijtimoiy chora-tadbirlarga 10 mlrd. dollar ajratdi.

1964-1970-yillar – *Garold Vilson* Buyuk Britaniyada Bosh vazir lavozimida.

1964-1970-yillar – O'zbekiston o'quv yurtlari ilmiy tadqiqot institutlarida Osiyo,



Afrika va Lotin Amerikasining 45 ta mamlakatdan kelgan 1500 ga yaqin talaba, stajor va aspirantlar ta'lim oldilar.

1964-1970-yillar – O‘zbekistonda xorijiy yozuvchi va shoirlarning 100 dan ortiq asarlari o‘zbek tilida bosildi. Ko‘zga ko‘ringan o‘zbek adiblari - *Oybek, Zulfiya, Shayxzoda, Sh.Rashidov* va boshqalarning asarlari Yevropa, Osiyo, Afrika xalqlari tillarida nashr etildi. O‘zbekiston xalq shoiri *G‘afur G‘ulom* asarlari jahonning 25 tilida chop etildi.

1964-1980-yillar – *Sulaymon Demirel* Turkiyada Adolat partiyasi bosh kotibi.

1964-1984-yillar – Qoraqalpog‘istonda 7.144.000 tonna paxta yetishtirilib, Rossiyaning to‘qimachilik fabrikalariga 2.219.000 tonna paxta tolasi jo‘natildi. Shu davrda Qoraqalpog‘iston avtonom respublikasi rahbari - *Qallibek Kamolov* edi.

1964-1987-yillar – *Brandt Villi* GSDP raisi sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

1964-yil - *A. Soljenitsinning “Birinchilar qatorida”* kitobi xorijda e‘lon qilindi.

1964-yil – BMT aralashuvi natijasida Kiprda nizolarning bartaraf etilishi.

1964-yil – Erondagi barcha norozilik chiqishlariga shialar yo‘lboshchisi *Oyatullo Humayniy* rahbarlik qildi. U mamlakatni “chet ellik kofirlar”ning buzg‘unchi ta‘siriga yo‘l ochib bergan shoh islohotlariga qarshi va‘z qildi. Erondan quvib chiqarilgandan so‘ng uning shaxsiy o‘chi ham yo‘q emas edi.

1964-yil – *Indira Gandi* turli vazirlik lavozimlarida ishlagan.

1964-yil – jahon siyosatiga Angliya ta‘sirining tanazzulga uchrashi hokimiyatga kelgan leyboristlar hukumatida ham davom etdi. Bosh vazir *Garold Vilson* mamlakatdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilay olmadi. Valyuta yana qardsizlandi, *Vilsonning* Angliyani “Umumiy bozor”ga qabul qilinishiga urinishi barbod bo‘ldi, chunki Fransiya bunga qarshi chiqdi.

1964-yil – Livan hududida Falastin Ozodlik tashkiloti (FOT) tashkil qilindi. Arab mamlakatlarida iqtisod, maorif, fan va umuman barcha hayot jabhalarida tub o‘zgarishlarsiz maqsadga erishib bo‘lmasligini tushunishdi. Iordaniya va G‘azo mintaqasida 500 ming falastinliklar ular uchun maxsus ochilgan maktablarga qatnay boshladi. Yoshlar SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga jo‘natildi. SSSRdagi harbiy bilim yurtida bo‘lg‘usi arab tankchilari, artilleriyachilari va uchuvchilari ta‘lim ola boshladi.

1964-yil – *N.Xrushev* lavozimidan olib tashlangach, sovet xalqi mamlakat ichki hayotida yirik o‘zgarishlar yuz berishini, siyosiy hayotini liberallashtirish va siyosiy tizimni demokratlashtirishni kutgan edi. Biroq mamlakatda siyosiy nazorat kuchaytirildi va KGB (Davlat Xavfsizligi Komiteti) vakolati kengaytirildi. Bu hol mamlakatda ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirish, inson huquqlariga rioya qilish, KGB vakolatini cheklash, ijod erkinlligi berish, qurol kuchlarni cheklash kabi talablar tarafdorlarining harakatini yuzaga keltirdi. Bunday g‘oyalar ifodachilari “dissidentlar” deb atala boshladi. Ularning safida buyuk olimlar {akad. *Andrey Saxarov*}, mashhur yozuvchilar (*Aleksandr Soljenitsin*), tarixchi, artist, bastakor, rassom, sportchi va hokazo sohadagi ilg‘or fikrlovchi kishilar bor edi. Milliy respublikalarda bu harakat davlatning milliy siyosatini tanqid qilish va respublikalarga suverenitet berishni talab qilish bilan namoyon bo‘ldi.



1964-yil – Nelson Mandela umrbod qamoq jazosiga hukm qilindi.

1964-yil – O'zbekiston dalalarida 150 ming tonnaga yaqin 30 xildan ortiq zaharli ximikatlar qo'llandi.

1964-yil – O'zbekistonda paxta maydonlariga Markaz ko'rsatmasi bilan 66,5 % iga aviatsiya yordamida zaharli moddalar bilan ishlov berildi. Shu yilning o'zida 659 kishi zaharlandi.

1964-yil – Polshada dunyoda eng yirik "Dnyba" neft quvuri ishlay boshladiki, uning nefti SSSRdan yuborib turildi va narxi jahon narxidan 30 foiz quyi qilib belgilandi.

1964-yil – Portugaliyaning sobiq mustamlakasi bo'lgan Mozambik deyarli Angola bosib o'tgan yo'lni qaytarib ozodlikka erishgan. Ozodlik uchun qurolli kurash Xaloskorlik fronti (FRELIMO) yetakchiligida boshlandi. Vatanparvarlar mamlakat hududining katta qismini nazorat qilar edi. Portugaliyada Salozar hukumatining ag'darilishi Mozambikka o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini berdi.

1964-yil – Xitoy atom bombasini sinovdan o'tkazdi.

1964-yil 7-yanvar - Buxoro-Ural gaz quvurining birinchi navbati qurilishi yakunlandi.

1964-yil 14-may - Misrda Asuan to'g'onining ochilishi.

1964-yil 2-iyun – J. Neruning izdoshi L.B. Shastri Hindiston bosh vaziri lavozimini egalladi.

1964-yil avgust – Tonkin bo'g'ozida amerikaliklar kemasiga Vetnamliklar hujum qilingandan so'ng ular Shimoliy Vetnamni bombardimon qila boshlashdi.

1964-yil 16-oktabr – SSSRda savdoga eng zarur tovarlar kelmay qo'ydi. Siyosiy va iqtisodiy ahvol chuqurlashuvi sababli MK plenumi N.Xmshevni egallab turgan barcha lavozimlaridan bo'shatish to'g'risida qaror qabul qildi. KPSS MK rahbarligiga SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi L.I. Brejnev, Ministrlar Soveti raisi lavozimiga esa A.N. Kosigin saylandi. "Xrushev davri" tugab "Brejnev davri" boshlandi va bu 18 yil davom etdi.

1964-yil 16-oktabr - Xitoyda birinchi bor atom quroli sinab ko'rildi.

1964-yil 1-noyabr – Saud ruhoniy musulmon yo'lboshchilari bosimi ostida taxtdan voz kechdi va Feysal Saudiya Arabistonining yangi qiroli deb e'lon qilindi.

1964-yil 3-noyabr - AQShdagi prezidentlik saylovlarida Lindon Jonson g'alabasi.

1965-1966-yillar – O'zbekiston oliy o'quv yurtlari talabalari tarkibida o'zbeklar 52 % ni, ruslar esa 25 % ni, o'rta maxsus ta'lim o'quv yurtlari o'quvchilari tarkibida o'zbeklar 47 % ni, ruslar esa 28 % ni tashkil qilar edilar. O'zbekiston bo'yicha aholi tarkibida o'zbeklar 65 % ni, ruslar esa 12 % ni tashkil etardi. Bu totalitar tartibotning, milliy respublikalar mahalliy xususiyatlarini inkor etuvchi ma'muriy-buyruqbozlik tizimining belgisi edi.

1965-1968-yillar – Voysex Yaruzelskiy Polsha qo'shinlari Bosh shtabi boshlig'i.

1965-1971-yillar – Sulaymon Demirel Turkiya hukumatining bosh vaziri.

1965-yil – Afg'oniston xalq-demokratik partiyasi (AXDP) tuzildi. AXDP xalqqa qarshi tuzum bilan kurashayotgan vatanparvar kuchlarga boshchilik qildi.

1965-yil – Amudaryodan Buxoro viloyatiga suv yetkazish maqsadida uzunligi 200 km bo'lgan Amudaryo-Buxoro kanali qurildi. Uning suvini 67m balandlikka tortib



beruvchi yirik nasos stansiyalari bunyod etildi. Kanal ishga tushishi bilan Buxoro viloyatida 90 ming gektar yer shu jumlada, 26 ming gektar yangi yerlar sug'oriladigan bo'ldi. Qizilqum sahrosida maydoni 300 ming gektardan ortiq bo'lgan yaylovlar suv bilan ta'minlandi.

1965-yil – AQSh yadro kallaklari soni bo'yicha nisbat 10:1 ni tashkil etdi.

1965-yil – *George Georgiu-Dej* vafot etgach, diktatorlik roli uning safdoshi *Nikolay Chausheskuga* o'tdi.

1965-yil – Janubiy Vetnamda 16 ming amerikalik qo'shin bo'lgan.

1965-yil – *Jozef Dezire Mobutu* Zair prezidenti.

1965-yil – *M. Sholoxov* "*Tinch Don*" romani uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

1965-yil – MOF boshqaruvi MOF rahbariyatida *Bin Bella* boshchiligidagi mo'tadil siyosiy yo'l va mudofaa vaziri polkovnik *Xuari Bumedan* boshchiligidagi keskin totalitar yo'l tarafdorlari o'rtasida bo'linish yuz berdi.

1965-yil – Moskvada do'stlik, o'zaro yordam va urushdan keyingi hamkorlik haqidagi Sovet-Polsha shartnomasi imzolandi. U 20 yil muddatga tuzildi.

1965-yil – *N. Chaushesku* shaxsiga sig'inish tarixda o'xshashi yo'q. U hokimiyatga o'zining butun urug'-aymog'ini olib keldi: qariyb 40 nafar eng yaqin qarindoshlari rahbarlik lavozimlarida ishladi. Uni "boquvchilarning eng donosi", "kelajakni oldindan ko'ruvchi" deb atashdi. Ruminiyaning keyingi tarixi "Chausheskuning oltin davri" deb nomlandi. U partiya, mamlakat va xalqni to'liq nazorat qildi. Mahalliy partiya tashkilotlari unga bevosita bo'ysundi, partiya va davlat lavozimlarini bir paytda egallash tamoyili RIP nomenklaturasining hokimiyatga monopoliyasini ta'minladi.

1965-yil – O'zbekiston qishloq xo'jaligi mutaxassislari – agronomlar, zootexniklar va veterinarlar soni 1,5 yarim baravar ko'paydi.

1965-yil – O'zbekistonda suv chiqarilgan yangi mintaqada bitta bog'dorchilik-uzumchilik va 16 ta paxtakor xo'jaliklar faoliyat ko'rsatardi.

1965-yil – oliy maktablarida ilmiy-pedagoglar soni 8 mingtaga yetdi.

1965-yil - *Piter Abraxamsning* "*Tun hukmronligida*" romani nashrdan chiqdi.

1965-yil – Qoraqalpog'istonda 25700 tonna sholi yetishtirildi.

1965-yil – Turkiya harbiylarining taqdim etgan yangi konstitutsiyasi asosida saylov bo'lib o'tdi. Unda Adolat partiyasi g'olib chiqdi va *A. Menderesning* demokratiya partiyasi o'rnini egalladi.

1965-yil – Xitoyda Tibet muxtor rayoni tashkil etildi.

1965-yil – Xitoyning xalq xo'jaligini 1957-yil darajasiga ko'tarishga erishildi. Ammo Xitoy rahbariyati bu aybni xalq bo'yniga qo'yishga qaror qildi.

1965-yil - yirik fransuz yozuvchisi va shoiri *Lui Aragonning* "*Jiddiy halokat*" romani nashrdan chiqarildi.

1965-yil – Yugoslaviyada mamlakatni industrilashtirish tugadi. Sanoat va qurilish birgalikda milliy daromadning 55 foizini berdi. Mashinasozlik sanoati keng rivojlandi, uning mahsulotlari jahon bozoriga chiqdi.

1965-yil fevral – prezident *Lindon Jonson* Shimoliy Vetnam shaharlarini bombardimon qilish haqida buyruq berdi.



1965-yil fevral 1973-yil – amerikaliklar Shimoliy Vetnamni bombardimon qilishlari muttasil hujumga aylanadi. Amerikaliklar “kuydirilgan yer” taktikasidan foydalanishdi. Yuzlab Vetnam qishloqlari yoqib yuborildi, o'n ming gektar yerlar yaroqsiz holga keldi, varvarlarcha bombardimon va napalm qo'llanishi natijasida minglab gektar o'rmonlar yo'q qilindi. Urush miqyosi kengaya bordi va AQSh Vetnamga 500 mingdan ziyod askarni olib kirdi.

1965-yil 7-fevral - VDR hududining AQSh aviatsiyasi tomonidan ommaviy bombardimon qilishni boshlashi.

1965-yil mart – Vetnamga 50 ming Amerika askarlari yuborildi.

1965-yil mart – Ruminiyada bo'lib o'tgan navbatdagi saylovlarda qariyb 100 foiz saylovchilar RIP rahbarligidagi Xalq demokratiyasi fronti nomzodlariga ovoz berdi. Shu yili partiya Ruminiya kommunistik partiyasi (RKP) deb qayta nomlandi.

1965-yil 19-iyun – to'ntarish natijasida *Bin Bella* MOF yo'l boshchisi va prezidentlik lavozimlaridan olib tashlandi, *X. Bumedan* esa o'zini Inqilobiy Kengash prezidenti deb e'lon qildi.

1965-yil iyul – qirol *Georgios Papandreuni* bosh vazir lavozimidan olib tashladi.

1965-yil iyul – AQShda qariyalar uchun tibbiy sug'urta to'g'risida qonun qabul qilindi, kam daromadli oilalar imtiyozli tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega bo'ldi.

1965-yil 30-sentabr – kommunistparast zobitlar guruhi *Sukarno* davlat to'ntarishini amalga oshirdi, ular bu bilan o'z siyosiy raqiblarini yo'qotish va mamlakatda Suxartoning shaxsiy diktaturasini o'rnatmoqchi bo'lishadi. Biroq ularning urinishlari amalga oshmadi. *Sukarno* o'limidan bir oz avval hokimiyatdan chetlatildi.

1965-yil noyabr – *M. Chombe* general *Mobutu* boshchiligidagi harbiylar davlat to'ntarishini amalga oshirdi. *Chombe* mamlakatdan qochdi va *Mobutu* o'zini Kongo prezidenti deb e'lon qildi.

1965-yildan – *Daniel Ortega Saavedra* SMOF tarkibiga kirgan.

1966-1967-yillar – *Che Gevara Ernesto* Boliviya partizanlar harakatiga rahbarlik qilgan, bu yerda asirga olingan va o'ldirilgan.

1966-1970-yillar – avtotransportda yuk tashish 2 baravar o'sdi.

1966-1970-yillar – O'zbekiston chetdan import qiladigan mahsulotlarning 75%iga yaqinini sotsialistik mamlakatlardan keladigan mollar tashkil qilardi. Germaniya Demokratik Respublikasi, Chexoslovakiya, Vengriya, Rumuniyada ishlangan turli sanoat mahsulotlari, asbob-uskunalar, turli jihozlar Chirchiq elektr kimyo kombinati, Farg'ona azot o'g'itlari zavodi, Oltintopgan metall kombinati va boshqa ko'plab korxonalarda keng qo'llanardi. Bundan tashqari respublikaga ko'plab iste'mol mollari, mebel, gazlama, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalar keltirilardi. Polsha, Bolgariya, Chexoslovakiya bizdan eksport qilingan paxta tolasidan to'qilgan gazlama, kiyim-kechaklarni O'zbekistonga jo'natardi.

1966-1970-yillar – O'zbekiston xalq xo'jaligiga 172 ming nafar ishchilarni tayyorlab berdi.

1966-1970-yillar – Yugoslaviyadagi islohotlarga muvofiq dinor kursi o'zgartirildi, eksport va import bevosita korxonalarining o'zida, davlat tomonidan minimal



nazorat etilgan holda amalga oshirildi. Islohotlar korxonalar huquqining kengayishiga olib keldi. Korxonalar ishi jahon bozorida mahsulot sifati, rentabelligi, raqobatbardoshligi bo'yicha belgilandi. Yangi korxonalar yangi ilg'or texnologiyalar bo'yicha qurildi.

1966-1973-yillar – *D. Sunay* Turkiya prezidenti.

1966-1973-yillar – Janubi G'arbiy Afrika Xalq tashkiloti (SVAPO) 7 yil davomida JAR istilochi qo'shinlariga qarshi kurash olib borgan davri

1966-1975-yillar – *Nguen Van Tie* Janubiy Vetnamni boshqargan davri.

1966-1976-yillar – “Madaniy inqitob” Xitoyda yo'lga qo'yilayotgan xalq xo'jaligini barbod qildi. U Xitoy uchun 500 milliard yuanga tushdi. “Yo'qotilgan o'n yillik” bo'lib qoldi. Bu davrda mamlakat iqtisodi jar yoqasiga borib qoldi. Ishchi va xizmatchilarning ish haqi 30 foizga, qishloqdagi bir kunlik mehnat haqi 33 foizgacha pasaydi. Mamlakatda 200 million kishi doimiy to'yib ovqat yemasdi, shaharlarda 20 million ishsiz mavjud edi.

1966-1976-yillar – *Mao Szedun* Xitoy taraqqiyotiga ulkan zarar keltirgan “madaniy inqilob”ga boshchilik qildi.

1966-1977-yillar – *Indira Gandi* Hindiston Bosh vaziri sifatidagi faoliyati.

1966-1982-yillar – *Leonid Ilich Brejnev* KPSS MK bosh kotibi.

1966-1985-yillar - 1800 ming gektarga yaqin, ya'ni uch baravar ko'p yer foydalanishga topshirildi.

1966-yil - angliyalik yozuvchi *Grem Grinning* “*Kuba voqealariga, Komediantlar*” kitobi nashrdan chiqadi.

1966-yil – “Tashavtomash” zavodi bazasida Toshkent traktor zavodi barpo etildi.

1966-yil – *Islom Karimov* O'zbekiston Davlat plan komitetida fan va yangi texnikani joriy etish bo'limining bosh mutaxassisligidan respublika Davlat plan komiteti raisining 1-o'rinbosarigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi.

1966-yil – *Kim Ir Sen* Koreya Mehnat partiyasi MK bosh kotibi lavozimida faoliyat ko'rsatishi.

1966-yil – sirtqi va kechki ta'lim tizimida o'qiyotgan talabalar respublika oliy o'quv yurtlaridagi jami talabalarning 62 % ini tashkil qilardi. O'sha vaqtda sirtqi va kechki bo'limlardagi talabalarning soni jihatidan mamlakatimiz birinchi o'rinda deb maqtanish rasm bo'ldi. Lekin bu aslida achinarli hol edi. Sirtqi va kechki bo'limlarda ta'lim olgan talabalar ixtisosliklari bo'yicha yetarli nazariy bilimga ega bo'lmadilar. Ular ko'proq bilim olisti uchun emas, diplom uchun o'qirdilar. Bu yillarda oliy o'quv yurtlari va ular tayyorlagan mutaxassislar soni ko'paydi, biroq sifati pasaydi.

1966-yil – SSSRda raketaga qarshi mudofaa tizimi barpo etildi.

1966-yil – Toshkentda sodir bo'lgan zilzila oqibatida shahar uy-joy fondiga katta zarar yetdi. Ittifoq xalqlari yordami bilan Toshkentda uy-joy qurilishi gurkirab o'sdi. Chilonzor, Markaz, Qoraqamish va boshqa massivlar qurildi. Yangi Toshkent bunyod etila boshlandi.

1966-yil – Xunveybin otryadlari tuzilishi.

1966-yil – zilziladan so'ng Toshkentni qayta tiklash ishiga u ko'p kuch-quvvat va g'ayratini sarfladi.



1966-yil 11-yanvar – Pokiston prezidenti *Ayyub Xon* bilan hind-pokiston urushini to'xtatish haqidagi bitimga *L.B. Shastri* erishgach Toshkentda to'satdan vafot etdi. HMK rahbariyatining qaroriga ko'ra bosh vazir lavozimiga *J. Neruning* qizi *Indira Gandi* nomzodi qo'yildi.

1966-yil 19-yanvar - Hindiston bosh vaziri lavozimini *Indira Gandi* egalladi.

1966-yil mart – Fransiya NATO tarkibidan chiqib ketdi.

1966-yil 9-mart - Fransiya prezidemining NATOdan chiqish to'g'risidagi arizasi.

1966-yil 26-aprel - Toshkentda kuchii zilzila ro'y berdi.

1966-yil iyul – De Goll Fransiyaning NATO harbiy blokda ishtirok etishiga qat'iy qarshi bo'lgan va uning barcha tashkilotlaridan Parijni tark etishni talab qilgan.

1966-yil avgust – “XKP MKning ulug' proletar madaniy inqilobi to'g'risidagi qarori” qabul qilinib, unda mamlakatni kapitalistik yo'ldan borishga undovchilar yanchib tashlashga chaqirilgan edi.

1966-yil 9-oktabr - *Ernesto Che Gevari* Boliviya yafot etdi.

1966-yil 1-dekabr - GFRda “katta koalitsiya” hukumati - XDI/XSI va GSDP tashkil topdi.

1966-yil kuz – XDI/XSI va Ozod demokratik partiya (ODP) koalitsiyasi parchalanib, ODP hukumat tarkibidan chiqib ketdi.

1967-1968-yillar – o'quv yilida Toshkentdagi oliy o'quv yurtlari va texnikumlarida 27 ta mamlakatdan kelgan 340 kishi ta'lim olgan.

1967-1969-yillar – *Z. Xuseynning* Hindiston prezidentligi davri.

1967-1987-yillar – *Lex Valensa* Gdanskdagi kemasozlik zavodida elektrik bo'lib ishladi.

1967-yil – ASEAN (Janubiy-Sharqiy Osiyo millatlari Assotsiatsiyasi) tashkil topdi. Tarkibiga Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand va Filippin kirdi.

1967-yil – BMT aralashuvi natijasida Yaqin Sharqda urush o'choqlarining to'xtatilishi.

1967-yil - dunyoda eng uzun O'rta Osiyo - Markaz gaz quviri (uzunligi 13750 km) qurildi.

1967-yil – *Bxutto Zulfikar Alixon* Pokiston xalq partiyasiga asos soldi.

1967-yil - germaniyalik yozuvchi *Zigfrid Lens* “*Mahfiy iltijo*” asarini nashrdan chiqaradi.

1967-yil – Isroil birlashgan arab qurolli kuchlari bilan urushgan davri.

1967-yil – *Jozef Dezire Mobutu* Zair partiyasi – Xalq inqilob harakatini tuzdi.

1967-yil – katta ziyon ko'rganligi uchun yopib qo'yilgan Suvaysh kanalini tozalashga AQSh ko'mak berdi. Sinay yarimoroli qisman bo'shatib qo'yildi. Misr mamlakat energetikasi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi Abu Rudada neft konlariga ega bo'ldi.

1967-yil – NATOning shtab-kvartirasi o'zining barcha bo'linmalari bilan birga Bryusselga ko'chib o'tadi. Fransiya esa blokning harbiy tuzilmalaridan chiqqanini e'lon qiladi. Fransiya G'arbiy Yevropa mamlakatlari orasida Amerika vasiyligidan ozod bo'lgan va o'z mustaqil tashqi siyosatini yuritgan dastlabkisi bo'ldi.

1967-yil - yirik fransuz yozuvchisi va shoiri *Lui Aragonning* “*Blansh yoki unutilish*” romani nashrdan chiqarildi.



1967-yil aprel – Gretsiyada polkovnik *G.Papadopoulos* va *S.Pattakos* rahbarligidagi harbiy to'ntarish bolib o'tdi. Yana qamoqxonalar demokratik kayfiyatidagi kishilar bilan to'la bordi, muxolifat gazetalar va jurnallar taqiqlandi. Matbuot, teatr, kinoda qattiq senzura tayinlandi. Butun hukumat harbiy xunta qo'lga to'plangan edi. Aynan ular bosh vazir, vazirlarni tayinlar, qonunlarni tasdiqlar va parlamentni tayinlar yoki tarqata olar edi.

1967-yil 21-aprel - Gretsiyadagi harbiy to'ntarish, hukumat tepasiga “qora polkovniklar” kelishi.

1967-yil 10-may - Harbiy tribunal Stokgolmda Vetnamga qarshi operatsiyada AQShni aybladi.

1967-yil iyun – arablar tomonidan amalga oshirilgan Olti kunlik urush.

1967-yil 5-iyun – Isroil qo'shinlari lordaniya, Suriya, Misrga zarba berdi, Isroil aviatsiyasi esa Iroq harbiy bazalarini bombardimon qildi. Misr qo'shinlari fronti bo'lib tashlandi va 5 kun ichida Sinay yarimorolini kesib o'tib yana Suvaysh kanaliga chiqib oldi hamda o'sha kuniyoq Quddusni egalladi. 6 kun ichida Isroil harbiy harakat natijasida o'z hududidan uch barobar ko'p joyni bosib oldi. Endi arablar bilan “kuch nuqta nazaridan” gaplashib olish mumkin edi. Isroil hukumati agar Isroil davlati tan olingan taqdirdagina bosib olingan hududlarni qaytarib berish shartini qo'ydi. Ayni paytda isroilliklar matbuotida xavfsizlik kafolatlangan chegarani tashkil qilish to'g'risida, ya'ni bosib olingan arab mamlakatlari hududi, qadimgi Iudeiya va Isroilning tarixiy chegaralari haqida fikr-mulohazalar paydo bo'la bordi. Arablar uchun olti kunlik urush Isroil agressiyadan so'ng shunday nomlana boshlandi. Ular tarixdagi eng jiddiy mag'lubiyat edi. 200 ming arab lordaniyaning g'arbiy qirg'oqlarini tark etdi. 100 ming nafar suriyalik Isroil va Suriyani ajratib turuvchi Golan tepaliklaridagi turar joylarini tashlab ketdi, 300 mingta misrlik esa Sinay yarimorolidan qochib ketishga majbur bo'ldi.

1967-yil 5-iyun - Misr, lordaniya va Suriyaga qarshi Isroil harbiy agressiyasi boshlandi (olti kunlik urush).

1967-yil 17-iyun - XXRda vodorod bombasining ilk bor sinovi o'tkazildi.

1967-yil avgust – Sudan poytaxti – Xartumda arab mamlakatlari rahbarlari uchrashib, “uchta yo'q” deb nomlanuvchi umumiy platformani qabul qildi: ya'ni, Isroil bilan muzokaraga bormaslik; uni tan olmaslik; u bilan bir tomonlama tinchlik sulhini tuzmaslik. Arab mamlakatlarida siyosiy hamjihatlik shakllana boshladi va Isroilga nisbatan umumiy pozitsiyani ishlab chiqdi.

1967-yil 13-dekabr – polkovniklar diktaturasini yo'q qilishga qarshi muvaffaqiyatsiz urinishlardan so'ng *Konstantin II* Italiyaga emigratsiyaga ketishga majbur bo'ldi.

1968-1970-yillar – *Dun Biu* XXR raisi.

1968-1975-yillar – *To'lepbergen Qayipbergenovning “Qoraqalpoq dostoni”* trilogiyasi yozdi.

1968-1976-yillar – AQSh Prezidenti konservatorlar, respublikachilar partiyasi vakillaridan saylandi.

1968-1983-yillar – *Boysex Yaruzelskiy* PXR milliy mudofaa vaziri.

1968-1987-yillar – *B.N. Yelsin* partiya ishida.



1968-1998-yillar – Suxarto Indoneziya prezidenti lavozimidagi faoliyati.

1968-yil boshi – Chexoslovakiyada talabalar norozilik chiqishlari boshlandi va islohotlar, demokratiyalashtirish va sotsializmni insonparvarlashtirish harakati boshlandi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturi olg'a surildi. Ishlab chiqarish ijtimoiy vositalarining bir qismini raqobat sharoitida bozor munosabatlari doirasida ishlaydigan "guruhiy birlashmalar" mulkchiligiga berish ko'zda tutildi.

1968-yil boshi – Sovet qo'shinlari mavjudligiga tayangan islohot dushmanlari qarshi hujumga o'tdi. Ishlab chiqilgan dasturdan faqat Chexoslovakiyani ikki teng huquqli – Chexiya va Slovakiyadan iborat federatsiyaga aylantirishga muvaffaq bo'lindi.

1968-yil – 63 km uzunlikdagi Markaziy Mirzacho'li kollektori qurildi.

1968-yil – "Praga bahori"ning yuz minglab faol ishtirokchilari lavozimlaridan bo'shatildi va haydaldi. Ayniqsa, ziyolilar ziyon-zahmat ko'rdi: ko'plab ilmiy xodimlar ishidan bo'shatildi va faqat jismoniy mehnat bilangina shug'ullanishga mahkum etildi. Ko'ppartiyaviy tizim hali ham bor edi, biroq senzura muxolifatning ovozini o'chirishga majbur qildi.

1968-yil – 40 dan ortiq arab agramom, tuproqshunos irrigatlar va mexaniklari Toshkent, Mirzacho'l savxo'zlarida, bir guruh Eron metallurglari Bekobod metallurgiya kombinatida ishlab chiqarish tajribasini o'tadilar.

1968-yil - A. Soljenitsinning "*Saratonga chalingan vujud*", "*1914-yil avgust*" nomli kitoblari xorijda e'lon qilindi.

1968-yil – Albaniya Varshava shartnomasidan chiqdi.

1968-yil – Angliya katoliklarining o'z fuqarolik huquqlari uchun harakatlari boshlandi. Irland respublikachilar qo'shini birlashmalari Olsterning Irlandiya respublikasi bilan birlashishi uchun faol kurashni boshlab yubordi. O'z navbatida protestant harbiy tashkilotlari ham qarab turmadi. Britaniya hukumati tartib o'rnatish uchun qo'shin yubordi. Biroq tez orada qo'shin birlashmalari jangavor irlandlarning ikkala guruhi yuzlab terroristlar va britan qo'shini askarlari halok bo'ldi.

1968-yil - inglialik yozuvchi *Jeyms Oldrijning* "*Begona zamin farzandi*" romani nashrdan chiqdi.

1968-yil – AQSh saylovlarida unchalik katta bo'lmagan farq bilan respublikachilar partiyasi g'alaba qozondi. Prezidentlikka *R.Nikson* saylandi. Biroq demokratik partiya kongressning har ikki palatasida ko'pchilik ovozni saqlab qoldi.

1968-yil – Chexoslovakiya kommunistik partiyasi sovetlarning totalitar rejimi halqasini uzishga urinib ko'rdi. Bu mashhur "Praga bahori" edi.

1968-yil – G'arbiy Yevropada "Umumiy bozor" mamlakatlari o'rtasida barcha bojxona soliqlari bartaraf etildi.

1968-yil - germaniyalik yozuvchi *Zigfrid Lens* "*Nemischa dars*" asarini nashrdan chiqaradi.

1968-yil – *L.Jonson* ma'muriyatining ayniqsa irqiy kamsitishga barham berishga qaratilgan chora-tadbirlari katta ahamiyat kasb etdi. Bunda negrlarni ishga qabul qilish, ijaraga turar-joy berishda kamsitishga chek qo'yish nazarda tutilgandi. Yangi AQSh prezident ma'muriyati fermerlarga yirik subsidiyalar berdi. Hukumat ushbu maqsadlar uchun 3,5 mlrd dollar ajratdi.



- 1968-yil** – Parijda Vetnamda urushni to'xtatish haqida muzokaralar bo'lib o'tdi.
- 1968-yil** – *R.Nikson* AQSh Prezidenti etib sanlangach, delegatsiyalar almashuvi kengayib, ilmiy aloqalar va iqtisodiy munosabatlar faollasha bordi.
- 1968-yil** – Vetnam va AQSh o'rtasidagi harbiy harakatlar sifatida 550 ming AQSh armiyasi askarlari urushda ishtirok etdi.
- 1968-yil yanvar** – partiyaning o'zida yangilanishlarni talab qiluvchi islohotchilar yo'nalishi paydo bo'ldi va uning vakillari *A.Novotniy*ning lavozimidan ketishiga erishdi. Partiyani kelib chiqishi slovak bo'lgan *Aleksandr Dabchek* boshqardi. Yangi rahbariyat partiya va jamiyatda islohotlar o'tkazishga qafiyatini bildirdi. Islohotlar asosida bozor xo'jaligi tamoyillari, parlament tizimi, matbuot va so'z erkinligi yotardi.
- 1968-yil aprel** – ChKP harakatlar dasturini qabul qildi, unda sotsialistik jamiyatning yangi, ancha demokratik modeliga o'tishga qat'iylik ifodalandi. Partiyaning rahbarlik roli inkor etildi, xavfsizlik xizmati vazifasi cheklandi.
- 1968-yil aprel** – negrlarning fuqarolik huquqi uchun kurashuvchi doktor *Martin Lyuter King* o'ldirildi.
- 1968-yil may** – *de Goll* hukumatining rejimi xalq ishonchini yo'qota boshlagan edi. Parijda ommaviy chiqishlar uning 10 yillik boshqaruvining natijasi sifatida namoyon bo'ldi. Namoyish ishtirokchilari ta'lim tizimini qayta tuzish, ta'limga ajratiladigan mablag'ni oshirish, ta'lim uchun olinadigan haqni pasaytirish va stipendiya to'lashlarini talab qilib chiqishdi. G'alayon kuchayib politsiya va namoyishchilar to'qnashuviga olib keldi.
- 1968-yil 7-may** – Parij ko'chalarida 3 mingdan oshiq talaba yaralandi va hibsga olindi. Bunday xattl harakat umumxalq ish tashlashiga olib keldi va u 4 hafta davom etdi. Bu esa mamlakat hayotini to'xtatib qo'ydi. Ish tashlashda 10 mln. kishi ishtirok etdi.
- 1968-yil 24-may** – Parijda ish tashlashlarga, namoyishchilariga ishchi va xizmatchilarga hukumatning agrar siyosatidan norozi dehqonlar qo'shildilar.
- 1968-yil iyun** – Los-Anjelosda prezident *Kennedining* akasi *Robert Kennedi* o'ldirilib ketildi. U prezidentlikka o'z nomzodini qo'yg'an edi.
- 1968-yil avgust** – Fransiya 1-marta vodород bombasini sinovdan o'tkazib, jahondagi yadro quroliga ega mamlakatlar safidan o'rin oldi.
- 1968-yil 21-avgust** – besh davlat – Varshava shartnomasi tashkiloti ishtirokchilari bo'lgan Bolgariya, GDR, Vengriya, Polsha, SSSR qo'shinlari Chexoslovakiya chegaralarini kesib o'tdi. *A.Dubchek* va hukumat hamda partiyaning bir qator a'zolari qamoqqa olindi va Moskvaga yuborildi.
- 1968-yil 21-avgust** - Chexoslovakiyaga Varshava shartnomasi tarkibidagi beshta mamlakat qo'shinlari kirib bordi.
- 1968-yil sentabr** – falaj bo'lib qolgan *Salazar* hukumatni premer-ministr *Marselo Kaetanuga* topshirishga majbur bo'ldi. Biroq bu hol vaziyatni o'zgartira olmadi. O'rnatilgan tartib mamlakatni nazoratqila olmay qoldi. Qo'shinda ommaviy tartibsizlik boshlandi, bo'ysunmaslik, ish tashlash va xizmatdan qochish kuchaya bordi.
- 1968-yil oktabr** – Kuba Lotin Amerikasidagi inqilobiy o'zgarishlar jarayonining



faqat boshi bo'ldi. *General O. Torrixos Errero* boshchiligida vatanparvarlik kayfiyatidagi harbiylar Panamada hokimiyat tepasiga keldi. Bu joyda agrar va soliq islohotlari o'tkazildi. Qariyb bir paytda Peruda davlat to'ntarishi natijasida hokimiyatga vatanparvarlik kayfiyatidagi harbiylar keldi. Ular xorijiy monopoliyalar qo'lida bo'lgan neft konlari va ayrim tog'-kon korxonalarini natsionalizatsiya qilishdi.

1968-yil 5-oktabr - Shimoliy Irlandiyada katolik aholisi namoyishi tarqatib yuborildi. "Olster krizisi" boshlanishi.

1968-yil 5-noyabr - AQShdagi prezidentlik saylovlarida *Richard Nikson* g'alaba qozondi.

1968-yil kuz – AQSh Vetnamda 30 ming kishini yo'qotdi, 180 ming nafari yaralandi. Ijtimoiy islohotlarga pul ajratish keskin qisqarib ketdi. Fuqarolar erkinligiga hujum kuchaydi. Mamlakatda ijtimoiy va irqiy mazmundagi chiqishlar holatida urushga qarshi harakatlar kuchaydi. Vetnamda Songmi qishlog'i va uning 400 nafar aholisining qiriq tashlanishi ushbu harakatlar yanada avj olishiga sabab bo'ldi.

1969-1970-yillar – *Komil Yashin, Zulfiya, Hakim Nazir, O'lmas Umarbekov, Hamid G'ulom* va boshqa yozuvchi, shoirlar Fransiya, Bolgariya, Kuba, Hindiston kabi mamlakatlarga do'stlik safarlari bilan chiqdilar.

1969-1970-yillar – O'zbekiston Respublikasi rahbarlari *Sharof Rashidov* va *Rahmonqul Qurbonov* Ittifoq hukumatiga kuchli ta'sir qiluvchi zaharli himikatlar o'rniga boshqa ximikatlar jo'natishini so'rab bir necha bor murojat qildilar. Xatlarda ko'rsatilishicha, paxta zararkunandalariga qarshi kurashda uzoq yillar davomida o'ta zaharli moddalarning qo'llanishi tufayli ariq suvlari, tuproq, atmosfera me'yordan bir necha baravar ortiq zaharlangan. Bu inson va hayvonot dunyosi, tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ittifoq rahbar tashkilotlari kam ta'sirli ximikatlar chet eldan olinadi, bunga valyuta yo'q, deb bahona qildilar. Ittifoq valyutasining salmoqli qismi paxta eksporti evaziga olinardi.

1969-1972-yillar – *Aldo Moro* Italiya tashqi ishlar vaziri.

1969-1974-yillar – *Jorj Pompidu* Fransiya prezidenti.

1969-1974-yillar – *Nikson Richard* AQShning respublikachilar partiyasidan 37-prezidenti etib saylanadi.

1969-1974-yillar – *R. Nixson*ing AQSh prezidentligi davri.

1969-1974-yillar – *V. V. Shrining* Hindiston prezidentligi davri.

1969-1974-yillar – *Villi Brandt*ning GFRda Federal kanslerligi.

1969-1979-yillar – AQSh va Sovet Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarning ijobiy tomonga o'zgarish jarayoni kuchaydi va u detant (fransuzcha - yumshatish) deb nom oldi.

1969-1979-yillar – G'arb davlatlari Isroilga ko'rsatadigan yordamini kuchaytirdi. 10 yil davomida Isroil turli manbalardan zayom yoki xayriya shaklida 20 mlrd. dollar miqdorida yordam oldi. U Falastindan arablarni quvib chiqarish kompaniyasini boshlab yubordi. Quddus Isroil davlatining poytaxti deb e'lon qilindi. Vaholanki, u musulmonlar uchun ham, provaslav xristianlar va katoliklar uchun ham birday muqaddas shahar sanalardi. Yangi bosib olingan joylarga ommaviy ravishda yahudiylar ko'chib kela boshladi. Faqat bir yil ichida Golan tepaliklarida



38 ta, G'azo mintaqasida 11 ta yahudiy aholi punktlari qurildi. Yahudiylar turar joylari ayniqsa, Sinay yarimoroli va lordaniyaning g'arbiy qirg'oqlarida qurildi.

1969-yil – “Tashavtomash” zavodi bazasida Toshkent traktor zavodi barpo etildi.

1969-yil – AQShda beriladigan bepul oziq-ovqat talonlari tizimining doirasini 3 mln kishi qamrab oldi.

1969-yil – Buxoro – Ural va O'rta Osiyo Markaz gaz quvirlaridan Rossiyaga 28 mlrd kubometr tabiiy gaz olib ketildi.

1969-yil – Chilida siyosiy koalitsiyalardan farqlanuvchi iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar vazifalarini o'z oldiga qo'ygan keng koalitsiyalar tashkil etildi.

1969-yil – O'zbekiston FANing 42 olimi ilmiy konferensiyalarida qatnashish maqsadida xorijiy mamlakatlarga bordilar.

1969-yil – O'zbekiston fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlariga tajriba almashish maqsadida xorijiy mamlakatlardan 174 ta olim va mutaxassislar tashrif buyurishdi.

1969-yil – qirol *Alfonso XIII*ning nabirasi *Xuan Karlos* Ispaniya davlat boshlig'i merosxo'ri etib tayinlanadi.

1969-yil – saylovlarda GSDP va ODP muvaffaqiyat qozondi hamda koalitsion hukumat tuzishga erishdi. GFR tashkil etilgandan 20 yil o'tib, ilk bor sotsial-demokratlar vakili, fashizmga qarshi kurash harakatining faol arboblardan biri *Villi Brandt* mamlakat federal kanslerligiga saylandi. U ichki va tashqi siyosatda chuqur islohotlarni boshlab yubordi.

1969-yil – Sotsialistik dasturga muvofiq ilgari fransuz mustamlakachilari va xususiy zamindorlariga tegishli davlat yerlari sotila boshlandi (xususiylashtirildi). Tunisda mustaqil respublika tayanchi mayda va o'rta yer egalari paydo bo'tdi.

1969-yil – Tunis hukumati YII bilan bitim tuzdi.

1969-yil 3-fevral - *Yosir Arofat* Falastin ozodlik tashkiloti raisi etib saylandi.

1969-yil mart – Pokistonda siyosiy tanglik kuchaygan bir sharoitda prezident *Ayyub Xon* iste'foga chiqishga majbur bo'ldi va hokimiyatni armiya qo'mondoni general *Yahyoxonga* topshirdi. Ammo u ham fuqarolar urushi holatiga olib kelgan nizolarni bartaraf qila olmadi. Sharqiy Pokistonda milliy-ozodlik harakati boshlandi.

1969-yil aprel – *de Goll* iste'foga chiqdi va siyosatga boshqa qaytib kelmadi.

1969-yil aprel – *A.Dubchek* ChKP yo'l boshchisi lavozimidan olindi va o'rniga *Gustav Gusak* bo'ldi. Yangi rahbariyat sotsializmning barcha islohotlaridan voz kechishini bildirdi. U mamlakatda va partiyada barqarorlik o'rnatishning qat'iy yo'lini tanladi.

1969-yil 28-aprel - Fransiya prezidenti *Sharl de Goll* iste'foga chiqdi.

1969-yil iyun – *Jorj Pompidu* respublika prezidenti etib saylandi. U *de Goll*ning siyosiy yo'lidan borayotgan sodiq safdoshi edi. *J. Pompidu* o'tkazgan qayta tashkil etish natijasida siyosiy partiyalar soni kamaydi va “hukumat beqarorligi”ga chek qo'ydi.

1969-yil 15-iyun - *Jorj Pompidu* Fransiya prezidenti etib saylandi.

1969-yil 20-iyul - amerikaliklar birinchi bo'lib Oyga qo'ndi.

1969-yil 1-sentabr-1977-yil mart – *Muammar Kaddafiy* inqilobiy qo'mondonlik raisi.



1969-yil 1-sentabr – *Idris I* ning g'arbparastlik siyosati norozilik uyg'otdi va *Muammar Kaddafiy* boshchiligidagi zobitlar guruhi harbiy to'ntarish qildi va monarxiya tuzumini ag'dardi. Mamlakat Liviya Arab Respublikasi deb nomlandi.

1969-yil 1-sentabr - Liviya respublika deb e'lon qilindi.

1969-yil 2-yarmi – AQShda sanoat ishlab chiqarishi keskin kamayib, ishsizlar soni ko'payib ketdi.

1970-1985-yillar – O'zbekistonda ish bilan taminlanmaganlar orasida 16-29 yoshli yigir va qizlar 33 % dan 50 % ga yetdi.

1970-yil – O'zbekistonda oliy ma'lumotlar soni ziyolilar orasida 252 ming kishidan oshib ketdi.

1970-yil – O'zbekistonda tabiiy gaz ishlab chiqarish 32 mlrd kubometr ga yetdi.

1970-1971-yillar – O'zbekiston oliy maktablarida talabalar soni 230 mingga yetdi. Shu davrda diplomli mutaxassislar soni 2,5 baravar ortdi.

1970-1971-yillar – O'zbekistonda o'quv yilida umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilar soni 1940-1941- o'quv yildagi o'qituvchilar soniga qaraganda 2,5 baravar o'sdi.

1970-1972-yillar – *Muammar Kaddafiy* Liviya bosh vaziri.

1970-1973-yillar – *Salvador Alyendening* Chili prezidenti lavozimidagi faoliyati.

1970-1974-yillar – *Edvard Xit* Buyuk Britaniyada Bosh vazir lavozimida.

1970-1975-yillar – Bolgariyada sanoat mahsulotlari hajmi 55 foizga, milliy daromad 46 foizga o'sdi. Bolgariya jahondagi sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin oldi. Bu yerda – Kozloduda mamlakatdagi energetik muammoni hal etuvchi birinchi atom elektrostansiyasi qurildi.

1970-1976-yillar – *Dju De XXR* raisi.

1970-1980-yillar – Albaniyada avtarkiya siyosati davri.

1970-1980-yillar – AQSh ijtimoiy himoyalash harajatlari iqtisodiy va texnik taraqqiyotni to'xtatib qoladigan miqdorga yetib tadbirkorlik faolligi susaya boshlagach, liberallar o'z tamoyillari va g'oyaviy ta'limotidan qayta boshladi. Liberalizm o'rniga neoliberalizm keldi.

1970-1980-yillar – Janubiy Koreyada yashovchi kambag'allar 17 dan 21 foizgacha oshdi, ya'ni mamlakatning har 5 kishidan biri Yevropada qashshoq deb ataladigan sharoitlarda yashagan.

1970-1980-yillar – Kimyo sanoati umumittifoq mehnat taqsimotida O'rta Osiyo respublikalarida, jumladan, O'zbekistonda yetakchi tanniq hisoblanar edi. Bu tarmoq mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish kimyoviy moddalari, sun'iy ammiak, kir yuvish vositalari va boshqa turli mahsulotlar ishlab chiqarardi. Kimyo sanoatini rivojlantirishga juda katta e'tibor berildi.

1970-1980-yillar – O'zbekiston aholisi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad ittifoq bo'yicha o'rtacha darajadan 3 baravar kam bo'ldi. O'zbekiston g'alla va go'shtning 70 % ini, kartoshkaning 60 % ini, qand-shakar, quruq sut va boshqa mahsulotlarning 100 % ini chetdan keltirishga majbur bo'lindi.

1970-1980-yillar – O'zbekiston tabiiy o'sish hamda ittifoqning boshqa mintaqalaridan turli sabablarga ko'ra ko'chib kelganlar hisobiga ko'payib bordi. Shu bilan birga uning joylashishida ham qator o'zgarishlar sodir bo'ldi va muammolar kelib chiqdi.



1970-1980-yillar - O'zbekistonda adabiyotning tarixiy mavzusi ancha boyidi. Jumladan, *Nazir Safarovning "Navro'z"*, *Hamid G'ulomning "Mangulik"*, *"Mashrab"*, *Mirmuhsinning "Me'mor"*, *"Temur Malik"*, *"Movarounnahr"*, *Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi"*, *"Ko'hna dunyo"*, *Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunklar"*, *"Avlodlar dovoni"* kabi romanlari o'zbek adabiyotida tarixiy mavzuni yoritdi. Bular orasida ayniqsa, *Pirimqul Qodirov* tarixiy romanchilikni ustoz Oybekdan keyin yangi pog'onaga ko'tardi.

1970-1980-yillar – O'zbekistonda boshqaruvning o'ta markazlashtiruvchi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining hukmronligi avj oldi. Bu hol respublika ma'muriyatini mustaqil ish tutish va tashabbus ko'rsatish imkonidan mahrum etdi. O'sha davrdagi sovet jamiyatining siyosiy tizimiga partiya, sovetlar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari kirardi. Tizimning asosiy ustuni partiya hisoblanardi. U o'zini rahbarlik qiluvchi va yo'naltiruvchi kuch hisoblab, sovetlar va jamoat tashkilotlariga o'z irodasini amalda zo'rlik bilan o'tkazib kelardi.

1970-1980-yillar – O'zbekistonda ko'plab sanoat korxonalarini qurilganligiga qaramasdan, 4,5 mln kishi ya'ni, butun aholining 45 % i turmush tarsi eng past darajada bo'ldi, ishsizlar soni salkam 1 mln ga yetdi.

1970-1980-yillar – O'zbekistonimizda ishlab turgan sanoat korxonalarini, ularning filiallari va sexlarida o'rnatilgan dastgoh va asbob-uskunalarining 60 % dan ko'prog'i eskirib, ishga yaroqsiz holga kelib qolgan edi. Uskunalar yo'qligi sababli 50 % i qo'lda bajarilardi.

1970-1980-yillar – oralg'ida GDR aholisi deyarli bir million kishiga kamayib ketdi. Ularning ban GFRga qochib o'tishgan edi.

1970-1980-yillar o'rtasi – o'zbek kinochilari ham ko'plab yangi kino asarlarini yaratdilar. Istedodli kinochilar ijodiy guruh: *K.Yormatov, M. Qayumov, Sh. Abbosov, Y. Azamov, A. Hamroyev, E. Eshmuhammedov* kabi san'atkorlar barakali ijod qildilar.

1970-1980-yillar o'rtasi – O'zbekistonda sug'orish tarmoqlari qurilishi keng miqyosda amalga oshirildi, paxta ekish uchun eng unumdor yerlar o'zlashtirildi. Natijada shu davrda paxtaga ajratilgan maydon 1709 ming gektardan 1989 ming gektarga ko'paydi.

1970-1981-yillar – A. Sadat Misr prezidenti.

1970-1985-yillar – adiblar teatr va musiqa arboblari bilan hamkorlikda samarali ish olib bordilar. O'zbek sahnasida ko'p yillar davomida *S. Eshonto'rayeva, H. Nosirova, L. Sarimsoqova, Olim Xo'jayev, Razzoq Hamroyev, Sh. Burhonov, M. Turg'unboyeva, G. Izmaylova, B. Qoriyeva, N. Rahimov, G'. A'zamov, S. Xo'jayev, Z. Muhammadjonov, H. Umarov* va boshqa iste'dodli san'atkorlar samarali xizmat qildilar. Bu davrda opera va balet san'ati rivoj topdi. A.Navoiy nomidagi Katta Akademik opera va balet teatri, Muqimiy nomidagi o'zbek musiqali drama va komediya teatri, M.Gorkiy nomidagi rus dramatik teatri, Y. Oxunboboyev nomidagi respublika yosh tomoshabinlar teatri, Qo'g'irchoq teatri yangi tomoshalarni namoyish qildilar.

1970-1985-yillar – Hamza nomidagi o'zbek davlat Akademik drama teatri jahon xalqlari asarlarini tomoshabinlarga mohirlik bilan yetkazdi, Sahnada *Sofoklning*



"Shoh Edip", Shekspiming "Qirol Lir", "Yuliy Sezar", Shilleming "Mariya Styuart" kabi sahna asarlari yuksak mahorat bilan ijro etildi. Shu bilan birga, o'zbek adiblarining bir qancha asarlari, jumladan, Uyg'un va Izzat Sultonning "Navoiy", Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek", Uyg'unning "Abu Rayhon Beruniy", O'lmas Umarbekovning "Qiyomat qarz", Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'olon" kabi spektakllari ham sahna san'atini boyitdi. Respublikada boshqa teatrlar ham bu davrda yangi yangi sahna asarlarini yaratdilar.

1970-1985-yillar – O'rta Osiyoda mashinasozlik mahsulotlarining uchdan ikki qismini beradigan O'zbekiston mashinasozlik sanoatida biroz siljishlar bo'lgan. Namangan, Sirdaryo, Buxoro viloyatlarida ham mashinasozlik korxonalari qad ko'tardi.

1970-1985-yillar – O'zbekiston she'riyatida ham inson va jamiyat muammosi bosh mavzu bo'lib qoldi. She'riyatda tabiat haqida, paxta va paxtakor haqida falsafiy mushohadalar o'rtaga qo'yildi. Katta avlod shoirlari - Uyg'un, Mirtemir, Sobir Abdulla, Habibiy, G'ayratiy, Charxiy, Zulfiya, o'rta avlod sholrlari - Mamarasul Boboyev, Asqad Muxtor, Hamid G'ulom, Shuhrat, Turob To'la, Shukrullo, Ramz Bobojon, O'tkir Rashid va birmuncha yosh iste'dodli sholrlar - Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Jumaniyoz Jabborov, Omon Matjon, Rauf Parfi, Azim Suyun, Usmon Azimov, Halima Xudoyberdiyeva va boshqalar she'riyatining mazmuni va ma'nosi nihoyatda keng va chuqurdir. Ular yaratgan asarlar o'zbek she'riyati xazinasidan munosib o'rin egalladi.

1970-1985-yillar – O'zbekistonda musiqa san'ati bu davrda rivoj topdi. Yangi musiqiy jamoalar - "Lazgi", "Shodlik", "Go'zal", "Bahor" xalq raqs, "Yalla" vokal-cholg'u ansambllari M.Ashrafiy, M.Burhonov, M.Leviyev, T.Sodiqov, I.Akbarov, S.Boboyev, D.Zokirov, U.Musayev kabi kompozitorlar bilan hamkorlikda yaratilgan yangi konsertlari bilan tanildilar.

1970-1985-yillar – O'zbekistonda sanoat mahsulotining umumiy hajmi 241 % ga o'sgan. uning yetakchi tarmoqlari - mashinasozlik va kimyo sanoati asosan paxtachilik uchun mashinalar, kimyoviy o'g'it va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish bilangina cheklandi.

1970-1985-yillar – O'zbekistondagi Kasaba uyushmalari ham boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tasiridan chetda qolmadi. Korxonalar rahbari kasaba komitetiga buyruq bera olar, kasaba komiteti esa ma'muriyatning xohish-istagiga itoatkorona bo'ysunardi. Totalitar tuzum kasaba uyushmalarini mehnatkashlarning manfaatlarini himoya qilish huquqidan amalda mahrum etdi. Partiya organlari ularning faoliyatiga mudom aralashar edi. Kasaba uyushmalarini mustahkamlash bahonasida partiya komitetlari uyushmalarga rahbarlikka ko'pincha partiya kadrlarini tavsiya etardi. Partiya organlari jamoat tashkilotlari ustidan hukmronlik qilgan. Ular partiya idoralarining ko'rsatmalarini bajarishga majbur bo'lganlar. Bajarmagan rahbarlar o'z lavozimlaridan ozod etilardi.

1970-1985-yillar – tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi bashariyat uchun katta tashvish tug'dirdi.

1970-1985-yillar – Toshkent va Samarqanddagi mashinasozlik korxonalari mahsulot ishlab chiqarishni 370 % ga oshirdi.



1970-yil boshi – Qo'ng'iro't-Beynov temir yo'li qurilishi bitkazilib, ishga tushirildi. Bu temir yo'l magistrali Qoraqalpog'istonni Qozog'iston bilan to'g'ri bog'lab, O'rta Osiyodan Markazga olib boradigan ikkinchi yo'lni vujudga keltirdi, Qoraqalpog'istondan Moskvagacha bo'lgan yo'lni 2 ming km ga qisqartirdi. Shuningdek, bu yo'l Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatining iqtisodiy talon-toroj qilinishi, Markazga ko'proq xom ashyo yetkazilishiga qulay sharoit yaratdi.

1970-yil boshi – Indoneziyada siyosiy barqarorlik yuzaga keldi va bu kuzatilgan iqtisodiy yuksalishning asosiy sharoiti edi. Indoneziya xalqining mehnatsevarligi mamlakatga yog'ilib kelgan zamonaviy texnologiyalar bilan ajoyib ravishda uyg'unlashdi. Mamlakatda keng iste'mol tovarlari poyafzal, to'qimachilik, jinsi matolari dunyodagi mashhur firmalar darajasida tayyorlandi. "Toyota", "Ford", "Mercedes" avtomobillari, shuningdek, mahalliy "Kiljang" jipi yig'ildi. Bandungdagi yirik aviazavodda zamonaviy vertolyot va samolyotlar yig'ildi.

1970-yil boshi – O'zbekiston industriyasining rivojlanishida tanglik holati zo'rayib bordi. Bu sanoat ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi o'sish sur'atlarining pasaygani, mahsulot sifatining yomonlashgani va boshqa muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan ifodalandi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda sanoat yalpi mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 10-15%ni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi besh yilliklarda 5-7% darajasida turib qoldi.

1970-yil boshi – O'zbekistonda ham baliqchilik bilan nomchiqargan mo'ynoqliklarning ko'pchiligi oradan o'tgan 10 yil ichida ishsiz, nochor ahvolga tushib qolishdi. Shahar rivoj topib turgan paytlarda boshqa joylardan kelib qolgan aholining 80-90 mingdan ortiqrog'i so'nggi vaqtdagi ekologik talafot tufayli yana o'z yurtlariga qaytib ketdi.

1970-yil boshi – O'zbekistonda tayyorlangan mahsulotlar bilan aholining eng zarur mollar (kiyim-kechak, trikotaj, poyafzal)ga bo'lgan ehtiyojlari yarmisi qondirilgan edi.

1970-yil boshi – Yugoslaviyada siyosiy ahvol murakkablashdi. Millatchilik kuchlari faollashdi. Ayni paytda bozor xo'jaligining rivojlanishi va respublikalar huquqlarining kengayishi separatistik harakatning o'sishiga olib keldi.

1970-yil o'rtasi – Eronda neft eksporti 20 mlrd. dollarlik daromad keltirdi.

1970-yil o'rtasi – Saudiya Arabistonida 10 ga yaqin milliy banklar mavjud bo'lib, ular orasida eng yirigi jahon "Musulmon rivojlanish banki" edi. Ma'lumki, Qur'on ribo, ya'ni kreditlar bo'yicha foiz olishni mehnatsiz daromad sifatida man etadi. Feysal Qur'onning bu muhim qoidasiga ham yo'l topdi. Banklar qarz foizlarini to'lamaydigan va olmaydigan, faqat vositachilik (komission) haqini oladigan bo'ldi. Milliy kapitalni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay sharoitlar yaratildi.

1970-yil oxiri – Toshkent shahrining o'zida 400 dan ortiq sanoat korxonasi va birlashmalari mavjud edi. Bu korxonalar O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining to'rtidan birini yetkazib berardi. Umuman olganda, respublikadagi sanoat korxonalarining 50 foizi Toshkent shahri va viloyati hududida joylashgan bo'lib, ulardagi ishchilarning atigi uchdan bir qismi tub millat vakillari edi.



1970-yil oxiri – avtotransportda yuk tashish 9 mlrd t / kmga yaqinni tashkil etdi.
1970-yil oxiri – Bolgariya sanoatini boshqarish tizimi qayta tashkil etildi. Korxonalar huquqi va mustaqilligi kengaydi, korxonalarda xo'jalik qo'mitalari tashkil etilib, ular Yugoslaviyadagi kabi ishlab chiqarish boshqaruvida ishchilar ishtirokining organi bo'lib qoldi. Ayni paytda industrilashtirish sur'ati kuchaydi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida o'sish boshlandi, texnik progress tezlashib, iqtisodning barcha tarmoqlarida modernizatsiyalash olib borildi.

1970-yil oxiri – jahonda harbiy harajatlar har yili 400 mlrd dollarni tashkil etdi.

1970-yil oxiri – Polshaning tashqi qarzdorligi 23 milliard dollarni tashkil etdi. Polsha hukumati g'arb mamlakatlariga kredit so'rab murojaat qildi. U yerdan qurilma va texnologiyalar sotib olindi. Biroq o'z mahsulotini jahon bozoriga eksport qilish yo'li bilan kreditlarni qoplash mumkin degan mo'ljal o'zini oqlamadi – Polsha tovarlari raqobatga bardosh berolmas edi.

1970-yil oxiri – SSSRda ishlab chiqarish sur'ati sezilarli darajada tushib ketdi.

1970-yil oxiri – SSSRdagi ayrim rayonlarda oziq-ovqat tovarlari tanqisligi sezila bordi. Qishloqlarda 30-yillardagi kolhoz-sovhoz tizimi negizlari saqlanib qolgan edi. Buning ustiga joylarda partiya apparatining kuchayishi partiya tashkiloti vakolatining kengayishi qishloqdagi ishlab chiqaruvchilar huquqini battar chekladi.

1970-yil oxiri – Yevropada qo'shinlarning g'arbiy guruhi kuchaydi, Varshava Shartnomasi Tashkiloti apparati takomillashtirildi. Germaniya, Chexoslovakiya, Vengriya va Polshaga "yer-yer" tipidagi o'rtacha radiusda harakatlanuvchi 400 ta raketa joylashtirildi. Bu raketalar yadro kallakli (SS-20) bo'lib, NATO qo'shinlari joylashgan mintaqalar va G'arbiy Yevropaning yirik sanoat markazlariga qaratilgan edi.

1970-yil - A.Soljenitsinga Nobel mukofoti berildi. Bu sovet tashviqotini g'azabga keltirib, uni xoinlikda aybladi.

1970-yil – aholining ish bilan bandligi muammosi juda keskinlashdi. Har yili tayyorlanadigan mutaxassislarining 25 foizi o'ziga munosib ish o'rni topa olmasdi. Yangi ish joylari O'zbekistonda jiddiy muammoga aylandi.

1970-yil – Andijon viloyatida 244 ming gektardan sug'oriladigan yerlardan 192 ming gektarga, Farg'ona viloyatida 277 ming gektardan 209 ming gektariga paxta ekildi.

1970-yil – arab dunyosi katta judolikka uchradi. Ozodlik uchun kurashchi Misr prezidenti *Kamol Abdul Nosir* vafot etdi. Uning o'rnini sobiq vitse-prezident *Anvar Sadat* egalladi.

1970-yil – GFR va SSSR bilan shartnoma imzolandi va unga ko'ra, GFR mavjud chegaralarni buzmaslik majburiyatini oldi. Xuddi shunday shartnomalar Polsha va Chexoslovakiya bilan ham imzolandi.

1970-yil – har 5 yillikda 100 taga yaqin sanoat korxonalari ishga tushirildi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1940-yildagiga qaraganda 8,5 baravarga ko'paydi.

1970-yil – Jamol Abdul Nosirning o'limi Misrning ichki va tashqi siyosatida tub o'zgarishtarga olib keldi. Mamlakatning yangi rahbariyati g'arbparastlik siyosatini amalga oshira boshladi va Isroil oldida taslimchilik yo'liga o'tdi. Prezident *Anvar*



Sadat g'arb davlatlari, birinchi navbatda Amerikaning xususiy kapitalini keng tatbiq eta boshladi.

1970-yil – konservator *Edvard Xit* Buyuk Britaniya bosh vaziri bo'ldi.

1970-yil - kosmik orbitaga yuzlab yo'ldoshlar va aloqa stansiyalari, yo'ldosh-josuslar va meteorolgik yo'ldoshlari chiqarildi.

1970-yil – Mashinasozlik va metall ishlash O'zbekiston sanoatining yirik sohasi bo'lib, xalq xo'jaligini texnik jihatdan qayta qurollantirishda muhim rol o'ynadi. O'zbekistonda 100 ga yaqin mashinasozlik va metal ishlovchi korxonalar faoliyat ko'rsatardi. Paxtazorlarda ishlatishga rno'ljallangan kuchli traktorlar ishlab chiqarishni o'zlashtirib olgan Toshkent traktor zavodi, paxta terish mashinalari ishlab chiqaradigan "Tashselmash" zavodi, "O'zbekselmash" va "Chirchiqselmash", Toshkent ekskavator zavodi va respublikada hamda undan tashqarida ishlatiladigan mahsulot beruvchi boshqa ko'pgina korxonalar shular jumlasidandir.

1970-yil – O'zbekistonda mehnat bilan bandlik 77 % ni tashkil etdi.

1970-yil – O'zbekiston aholisining milliy tarkibida o'zbeklar (65,5 %) 1-o'rinda bo'lsa, ruslar (12,5%) 2-o'rinda edi. Aholining soni bo'yicha ulardan keyingi o'rinlarda tatarlar, qozoqlar, tojiklar, qoraqalpoqlarturardi. Koreyslar, qirg'izlar, ukrainlar, turkmanlar, ozarbayjonlar, armanlar va uyg'urlar ham respublika aholisining anchagina qismini tashkil etardilar. Bundan tashqari O'zbekistonda boshqirdlar, osetinlar, chuvashlar vakillari ham yashardilar.

1970-yil – O'zbekiston o'z mahsulotlarini jahonning 100 ga yaqin davlatlariga chiqarib turdi.

1970-yil – O'zbekiston oliy maktabini bitirganlar soni 334 mingni tashkil etgan.

1970-yil – O'zbekiston xalq xo'jaligida ilmiy xodimlar, agronomlar, muhandislar, o'qituvchilar, shifokorlar soni 531 mingdan oshib ketdi.

1970-yil – O'zbekistonda 1260 dan ortiq kasalxona, 1760 dan ziyod ambulatoriya-poliklinika muassasalari, 1035 ta feldsherlik punktlari, 4200 ta feldsherlik-ambulatoriya markazlari mavjud edi.

1970-yil – O'zbekistonda 180 tadan oshiq maxsus ilmiy-tadqiqot muassasalari ularning filiallari, bo'limlari, tajriba stansiyalari, oliy o'quv yurtlari va boshqalari faoliyat ko'rsatgan.

1970-yil – O'zbekistonda g'alla, chorvachilik, poliz-sabzavot mahsulotlari, kartoshka yetishtirish kabilar urushdan oldingi darajadan past rivojlanib kelayotgandi.

1970-yil – O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarga respublika byudjetidan qilingan sarf xarajatlar miqdori ancha kam edi. Shu bilan birga, dehqon va hunarmandlarga yakka mehnat faoliyati bilan shug'ullanib, qo'shimcha daromad olish taqiqlangan edi. Bu hol respublika aholisining qashshoqlashishiga olib keldi.

1970-yil – O'zbekistonda mineral o'g'itlar miqdori 3,5 mln tonnani tashkil etgan.

1970-yil – O'zbekistonda oliy o'quv yurtlari soni 38 taga ko'paydi.

1970-yil - O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish darajasi respublikada urushdan oldingi darajada edi. Paxta yetishtirish uch baravardan ziyod (1,3 mln t dan 4,5 mln t ga) ko'paydi.



1970-yil – O'zbekistonda ruslar 12,5 % dan ortiqni tashkil etdi.

1970-yil – O'zbekistonda xalq xo'jaligi uchun ajratilgan 23,3 mlrd so'm umumiy mablag'ning 8,2 mlrdi noishlab chiqarish sohalari rivojiga yo'naltirildi.

1970-yil – O'zbekistonda yengil sanoat ulushi 40,7 % ni, oziq-ovqat sanoati ulushi 41,6 % ni tashkil qilardi.

1970-yil – O'zbekistonda yetishtirilgan umumiy hosilning atigi 28 % i mashinalarda terildi.

1970-yil – O'zbekistonga O'zbekiston fanlar akademiyasining turli institutlariga 135 yaqin chet ellik olimlar kelishdi.

1970-yil – O'zbekistonga Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining 32 mamlakatidan 50 dan ziyod adiblar mehmon bo'lib keldilar.

1970-yil – paxta maydonlarining salmog'i O'zbekiston bo'yicha 2/3 qismdan ko'proqni, ayrim viloyatlarda esa bundan ham oshiqni tashkil qilardi.

1970-yil – Qarshi dashtida yangi yirik paxtachilik tumanini barpo etish uchun ittifoq hukumati 1 mlrd so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

1970-yil – Qashqadaryo viloyati paxtakorlari har gektar yerdan 32,3 sentner paxta olishdi.

1970-yil – Qoraqalpog'istonning barcha qishloq tumanlari asosan elektirlashtirildi.

1970-yil – SSSRda mehnat ishlab chiqarishi o'rtacha rivojlangan davlatlarga qaraganda ham eng past darajada qolaverdi. Oziq-ovqat yetishmasligi doimiy kasallikka aylandi va SSSR urri xorijdan juda katta miqdorda sotib olar edi. Shu yilda 700 million dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari sotib oldi.

1970-yil – Suriya va Iroqda hukumat tepasiga Xartum deklaratsiyasini hayotga tadbiq etish uchun yangi rahbarlar keldi. Harbiy-havo kuchlarining sobiq zobiti *Hafiz Asad* Suriya prezidenti etib, Iroqda esa bronetank qo'shinlarining sobiq zobiti *Hasan al-Bakir* davlat rahbarligiga saylandi.

1970-yil – Temir yo'l transportining yuk oborti 1965 yilga nisbatan 10 mlrd t/kmga yaqin o'sdi va 36 mlrd t/kmni tashkil qildi.

1970-yil – Toshkent shahar aholisi 36,6 % ni tashkil etgan.

1970-yil – Tunisda "ijtimoiy pakt" amalga oshmadi. Og'ir ijtimoiy muammolar xalq va hukumat qarama-qarshiligini keltirib chiqardi. Ayniqsa, keskin iqtisodiy siyosat yurgizgan yirik moliyachi **Xodi Naira** bosh vazir etib saylangach, mamlakat ichki siyosati o'ta keskinlashdi.

1970-yil – Venesuelada "Yangi kuch" nomli koalitsiya tashkil qilindi. Lotin Amerikasida kurashning yangi bosqichi boshlandi. Uning rivojlanishi uchun qulay xalqaro sharoitlar yuzaga keldi. AQShda noroziliklar, amerika hindularining teng huquq uchun harakati bilan bog'liq siyosiy inqiroz boshtandi.

1970-yil – *Vladislav Gomulka* iste'foga chiqdi.

1970-yil – O'zbekistonda o'zbeklar aholisi salmog'i 65,4 % ga yetdi.

1970-yil – "Brejnev davri"da tashqi buyuk davlatchilik ekspansionistik an'analari kuchayishi bilan ajralib turdi. SSSR tashqi siyosati Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida sovetlar ta'siri kuchaydi. AQShga nisbatan harbiy-siyosiy jihatdan qarshi turish borasida Sovet Ittifoqi o'z kuchini ko'rsata boshladi. U Vetnamni



amerikaliklar intervensiyasiga qarshi kurashda qo'llab-quvvatladi. Vetnamga harbiy maslahatchilar va qurol-yarog' jo'natildi.

1970-yil – Farg'ona vodiysini suv bilan ta'minlashni yaxshilash, cho'llarni o'zlashtirish uchun sersuv Norin daryosidan suv oladigan katta Andijon, katta Namangan kanallari va sig'imi 2 mlrd kub m keladigan eng yirik Andijon suv ombori qurildi.

1970-yil - Ittifoq markazida belgilangan reja va qarorlarda O'zbekistonning chinakam manfaatlari, o'ziga xos sharoiti va imkoniyatlari hisobga olinmadi. Iqtisodiyotning asosiy rivojlanish yo'llari yuqoridan belgilab berildi. O'zbekiston respublikasining huquqlari iqtisodiy siyosatni belgilashda ham cheklangan edi. Sanoatning rivojlanish sur'atlari pasayib ketdi.

1970-yil – Mirzacho'l va uning tarkibiy qismi bo'lgan Jizzax cho'lida yirik paxtachilik vohasi tashkil etish maqsadida unumdor qo'riq yerlarni sug'orish va o'zlashtirish ishlari davom ettirildi. Shu munosabat bilan uzunligi 127 km ga boradigan eng yirik janubiy Mirzacho'l bosh kanali, markaziy Mirzacho'l kollektori qurildi, shimoliy Mirzacho'l kanali kengaytirildi. Mirzacho'lning Jizzax mintaqasini suv bilan yaxshiroq ta'minlash uchun Jizzax suv ombori qurildi. Mirzacholda yangi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga alohida e'tibor berildi. Ochiq va yopiq kollektor-zovurlar tarmog'i va tik drenaj quduqlari qurildi. Suvdan birmuncha samarali foydalanish uchun taqsimlovchi nov tarmoqlari qurildi va kanallarga beton yotqizildi.

1970-yil – O'zbekiston respublikasida ko'p sohali mashinasozlik industriyasi, kimyo, neft, toshko'mir, gaz, tog'-kon va energetika sanoatini yanada rivojlantirdi. Busiz iqtisodiyotni tiklash va uning yanada yuksalishini ta'minlash mumkin emas edi.

1970-yil – O'zbekistonda ijtimoiy sohada ro'y bergan kamchilik va muammolar ta'limga ham o'z tasirini o'tkazdi. O'zbekiston yalpi savodxonlar respublikasiga aylandi.

1970-yil – O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish muammolari ularning qilinishidan ko'ra tezroq ko'payib, keskinlashib bordi. Boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullari va iqtisodiyotni qattiq rejalashtirish prinsipi vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Bu hol sanoatni rivojlantirishni ham qiyin ahvolga solib qo'ydi. Iqtisodiyotga davlat tomonidan juda katta hajmda kapital mablag'lar ajratildi. Ularning asosiy qismi katta-katta qurilishlarga taqsimlab berildiki, bunda milliy respublikaning manfaatlari inobatga olinmadi.

1970-yil – odamlar zaharli ximikatlardan yoppasiga zaharlana boshlandi. Bu hol respublika hukumatini muayyan choralar ko'rishga undadi. Aviatsiyadan foydalanish bir qadar qisqartirildi, dalalarni yerda turib ishlashga keng o'rin berildi. O'simliklarni himoya qilishning biologik usullari qo'llanila boshlandi. Biroq paxta ekin maydonlarining kengayib borishi natijasida aviatsiya vositasida ishlov berishdan to'la voz kechilmadi, bu hol odamlarning hayoti va salomatligi uchun avvalgidek xavfli bo'lib qolaverdi.

1970-yil - sanoatda mahalliy aholi miqdori birmuncha ko'paygan bo'lsa-da, keyingi yillarda bu yo'nalish rivojlanmadi. Ayniqsa, stanokda ishlovchilar,



masterlar, muhandislar guruhlari orasida milliy kadrlar kamayib ketdi. Aholi tarkibida ishchilar soni ancha oshganiga qaramay, respublikamiz bu ko'rsatkich bo'yicha sovet respublikalari ichida 13-o'rinda turardi. Farg'ona vodiysiga o'zbek ishchilari 40-60 foizni tashkil qilsa, Toshkent viloyatida bu ko'rsatkich 20-23 foiz edi.

1970-yil – Sovet Ittifoqi har yili AQShdan 20 million tonna don sotib olishga majbur bo'ldi. Chorvachilik sohasida ham samaradorlik pasaydi.

1970-yil – Surxon-Sherobod vodiysida ham cho'llarni o'zlashtirish ishlari davom etdi. Sherobod cho'lini sug'orish va o'zlashtirishda Janubiy Surxon suv ombori, shuningdek, Uchqizil, Degeres suv omborlarining qurilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Janubiy Surxon suv ombori vujudga kelishi 100 km li Sherobod mashina kanalini ishga tushirish va Sherobod cholidagi 90 ming gektar yangi yerlarni sug'orish imkonini berdi. 90 km li qadimgi Zang kanali qayta ta'mirlandi va suv o'tkazish imkoniyati kengaytirildi.

1970-yil – televideniye endi butun dunyoga tarqaldi. Aloqa yo'ldoshlari yangiliklar va boshqa radio va teleeshittirishlarni butun dunyoga sanoqli soniyalarda uzata boshladi. Televideniye odamlar bo'sh vaqtini o'tkazishning hukmron shakliga aylandi. U siyosat va siyosiy targ'ibotga ham ta'sir ko'rsatdi.

1970-yil 1-yarmi – ayni paytda Chexoslovakiyaning iqtisodiy ahvoli yildan-yilga yomonlashdi. Inqirozli 1960-yillarga qaraganda bir qadar iqtisodiy o'sishga erishildi, biroq keyinchalik u sekinlashib qoldi.

1970-yil 1-yarmi – jahonda harbiy harajatlar har yili 350 mlrd dollarni tashkil etdi.

1970-yil 2-yarmi – 60 ming gektar yangi yer qishloq xo'jalik obortiga qo'shildi. Surxon-Sherobod vodiysida qurilgan sug'orish inshootlari 114 ming gektar maydondagi qo'riq yerlarni sug'orishga imkon berdi. Sherobod cho'lining yangi o'zlashtirilgan yerlarida ikkita shahar, 17 ta yangi sovxoz tashkil qilindi.

1970-yil mart – Angliya o'z harbiy bazalarini ko'chirishga majbur bo'ldi.

1970-yil aprelgacha – Saudiylar inqilobning kengayishi va uning g'oyalarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslikka qaror qilishdi. Ular Shimoliy Yaman hududida qo'zg'olon uyushtirishdi. Bu yerda fuqarolar urushi davom etdi.

1970-yil iyun – AQSh o'z harbiy bazalarini ko'chirishga majbur bo'ldi.

1970-yil 4-sentabr – Chili prezidentligiga saylovlarda Xalq birligi koalitsiyasidan nomzod sotsialistik partiyaning sobiq yo'lboshchisi *Salvador Alende* g'alaba qozondi. Uning hukumati amerika monopoliyalari va mahalliy oligarxiya hukmronligini tugatish, Chilining milliy suverenitetini mustahkamlash va mehnatkashlar ahvolini yaxshilashga yo'naltirilgan radikal ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni o'tkazdi.

1970-yil 29-sentabr - *Anvar Sadat* Misr prezidenti etib saylandi.

1970-yil 9-oktabr - Kombodja Kxmer respublikasi deb e'lon qilindi.

1970-yil 24-oktabr - Chili prezidentligiga *Salvador Alyende* saylandi.

1970-yil 31-oktabr - O'zbekistonda katta Andijon kanali qurilishi yakunlandi.

1970-yil noyabr – KXDR iqtisodiy qurilishda bir qator yutuqlarga erishdi. Qishloq xo'jaligida o'z o'zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga imkon beruvchi darajaga erishildi. Sanoatda elektroenergetika, qora va rangli



metallurgiya, ko'mir, tog'-kon sanoati rivojlandi. Mamlakatda ko'ptarmoqli mashinasozlik yaratildi. Bularning hammasi bo'lib o'tgan Koreya Mehnat partiyasining V s'ezdida KXDR sotsialistik industrial davlatga aylandi, deb qayd etishga asos berdi.

1970-yil 9-noyabr – *de Goll* 80 yoshida vafot etdi.

1970-yil 7-dekabr - G'arbiy Germaniya va Polsha Oder-Neysa bo'yicha chegaralarni tan olish to'g'risidagi Shartnomani imzoladi.

1970-yil 12-dekabr – Polshada oziq-ovqat tovarlari asosiy turlari narxlarining oshishi e'lon qilindi. Bu qaror Polshaning barcha port shaharlari - Gdansk, Gdin, Shotsin, Elblongda ishchilarning ommaviy chiqishlariga olib keldi. Ular muassasa va do'konlarni vayron eta boshlashdi.

1970-yil 20-dekabr – PBIPda yana rahbarlik o'zgardi. Uning yo'lboshchisi etib *Edvard Gerek* saylandi. Yangi rahbariyat ustuvor ijtimoiy vazifalar haqida so'zladi va narxlarining oshirilishini man etdi. Iqtisodiy ahvol bir qadar yaxshilandi, oylik ish haqi oshirildi, nafaqa, qo'shimchalar ko'paydi. Biroq bu hol vaqtinchalik edi.

1971-1973-yillar – *Bxutto Zulfiqor Alixon* Pokiston davlati va hukumati rahbari.

1971-1975-yillar – O'zbekiston bo'yicha paxtaning o'rtacha hosildorligi gektarga 28,5 sentnerni tashkil etdi.

1971-1975-yillar – O'zbekistonda oliy o'quv yurtlarini tugallagan diplomli 182 ming nafar mutaxassis kadrlar, respublika xalq xo'jaligiga yetkazib berildi.

1971-1982-yillar – O'zbekiston sanoatida 380 turda yangi tipdagi mashinalar, dastgohlar va asbob-uskunalar yaratilgan ekan, Fanlar akademiyasi institutining xizmatlari katta bo'ldi.

1971-1985-yillar – Chirchiq, Olmaliq, Angren, Navoiy, Yangiyer, Bekobod kabi shaharlarda tub aholi kamchilikni tashkil etib, ko'pchiligi Rossiya shaharlaridan yo'llanma bilan kelgan kishilar edi. Ishchilar saflarini tub yerli millat kishilari hisobiga o'stirish yosh ishchi kadrlar tayyorlaydigan hunar-texnika bilim yurtlarida ham sust bordi. Bilim yurtlariga qabul qilinganlarning 45 foizi (Toshkent shahrida) boshqa respublikalardan kelgan kishilar edi. Shu bilan birga o'quvchilar umumiy sonida sanoat va qurilish ishchilari mutaxassisliklari bo'yicha tub millat vakillari 17 foizni tashkil etgan.

1971-1985-yillar – O'zbekiston aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha o'rtacha Ittifoq darajasidan 2 baravar orqada qoldi. Milliy daromadning o'sish suratlari esa O'zbekistonda 3 baravar kam edi.

1971-1985-yillar – O'zbekiston xalq xo'jaligida ishchi va xizmatchilar soni 2,6 mln dan 4,8 mln nafarga ko'paydi. Biroq bu o'sish sun'iy ravishda, ya'ni respublikamizda ishsiz yurganlar soni ko'p bo'lishiga qaramasdan, tashqaridan ko'plab kishilarni ko'chirib keltirish hisobiga ro'y berdi.

1971-1985-yillar – O'zbekistonda bir qancha ip gazlama va shoyi gazlama, turli trikotaj buyumlar ishlab chiqaradigan yirik korxonalar qurildi. Buxoro ip gazlama kombinati, Toshkent "Qizil tong" tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasi, Marg'ilon "Atlas" firmasi shular jumlasidan. Urganch, Namangan, Shahrisabz, Uychi, Guliston, Qo'rg'ontepa va boshqa shaharlarda shoyi to'qish fabrikalari, Quvasoyda chinni zavodi, Xivada gilam kombinati ishga tushirildi.



1971-1985-yillar – O'zbekistonimizda aholi va mehnat resurslari yuksak suratlilar bilan o'sib borgan. Shu yillarda aholining umumiy soni 11,7 mln kishidan 18,4 mln kishiga yetdi. O'zbekistonda 127 millat, elat va etnik guruhlar vakillari istiqomat qiladi.

1971-1985-yillar - sabzavot-poliz mahsulotlari iste'moli bo'yicha O'zbekiston boshqa respublikalar o'rtasida 5-o'rinni, meva va rezavor iste'moli bo'yicha 13-o'rinni egallagan. Respublika aholi jon boshiga ishlab chiqarishda milliy daromad miqdori bo'yicha ittifoqdagi o'rtacha ko'rsatkichdan 3 baravar orqada edi. Past milliy daromad mehnatkashlarning maoshi kamayishiga, ayniqsa, qishloq aholisining moddiy ahvoli yomonlashishiga olib keldi. Buning asosiy sababi O'zbekistonda paxta, pilla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlariga belgilangan xarid narxlarining juda past bo'lganligi edi. Tomorqa uchastkalarining maydoni 0,07-0,13 gektardan oshmasdi. Bundan tashqari, bir-necha yuz ming qishloq aholisida umuman tomorqa yeri yo'q edi. Oqibatda O'zbekiston oziq-ovqat iste'moli, umuman, turmush darajasi bo'yicha ittifoqda oxirgi o'rinlardan biriga tushib qoldi.

1971-1985-yillar – sanoatda tayyor mahsulotning ulushi atigi 50%ni tashkil etardi. Qishloq xo'jalik mahsulotining 80%dan oshig'i, jumladan, paxtaning 91%i mutlaqo ishlanmasdan respublikadan tashib ketilardi. Korxonalarining ko'pchiligi mahsulotni respublika ichki bozori uchun emas, balki tashib ketish uchun takror ishlab chiqarardi. Respublikadan olib ketilgan mahsulotning uchdan ikki qismi xom ashyo, materiallar va chala tayyor mahsulotlar ekanining o'zi ham ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilishidagi chuqur nomutanosiblikdan darak beradi.

1971-1985-yillar – xalq xo'jaligi reja topshiriqlarni muntazam bajarmasligi, mahalliy daromadning yillar davomida o'sish o'rniga to'xtovsiz pasayib borgan, oziq-ovqat dasturining bajarilmasligi, xalq istemoli mahsulotlarining yetishmasligi, xalqning turmush darajasi pasayib borgan, ijtimoiy sohada juda katta uzilishlar va taqchilliklar bo'lib kelgani – bularning barchasi ko'p darajada O'zbekistonning xo'jalik hayotini izdan chiqarishga ijtimoiy-siyosiy tizimning beqarorlashuviga olib kelgani hech kimga sir emasdi.

1971-1989-yillar – *Erix Xonekker* GDR Davlat kengashi raisi.

1971-1989-yillar – *Erix Xonekker* GSBP MQsi bosh kotibi.

1971-1989-yillar – *Todor Jivkov* BXR Davlat kengashining raisi.

1971-yil – Misrda konstitutsiya qabul qilindi. Unga muvofiq prezident avval hokimiyatning oliy qonunchilik organi – Milliy majlis tomonidan saylanadi, uning 40 foiz deputatlarini o'zi tayinlaydi, so'ngra nomzodi xalq referendumini tomonidan tasdiqlanadi. H.Muborak mamlakat rahbari etib to'rt marta saylangan.

1971-yil – Sotsialistik lager mamlakatlari iqtisodining rivojlanishida muvaffaqiyatlar ularning integratsiyalashuv jarayonini faollashtirdi. O'YK sotsialistik integratsiyalashuvni rivojlantirish va hamkorlikni takomillashtirishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha kompleks dastur qabul qildi. Biroq, keyinchalik ma'lum bo'ldiki, iqtisodning davlat boshqaruvi va totalitar rejim sharoitida integratsiyalashish mumkin emas edi.

1971-yil – Turkiyada yangi harbiy to'ntarish yuz berdi. Generallar tartib o'rnatishga



qaror qilishdi va minglab odamlar qamoqxonalarga jo'natildi. Hukumat bilan birga Milliy Xavfsizlik Xizmati tashkil etilib, unga general *Kenan Evren* rahbarlik qildi. Mamlakatda favqulodda holat e'lon qilindi.

1971-yil – Urugvayda siyosiy koalitsiyalardan farqlanuvchi iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar vazifalarini o'z oldiga qo'ygan keng koalitsiyalar tashkil etildi.

1971-yil - yirik fransuz yozuvchisi va shoiri *Lui Aragonning* “*Anri Matiss*” romani nashrdan chiqarildi.

1971-yil yanvar – AQShda ishsizlar soni 5 mln. kishini, ya'ni butun ishchi kuchining 6 % ini tashkil etdi. Aksiyalar qiymati to'xtovsiz tushib, inflyatsiya va narx-navo kuchayib ketdi.

1971-yil 24-mart - Laosdan janubiy Vetnam qo'shinlarining batamom quvilihi.

1971-yil mart – Hindistonda bo'lib o'tgan umumxalq saylovlari *Indira Gandiga* g'alaba keltirdi.

1971-yil may – GSBPning birinchi kotibi etib Erix Xonekker saylandi. U mamlakatdagi iqtisodiy ahvolni va aholining turmush darajasini yaxshilashga erishdi. Biroq, bu mamlakatning keyingi rivojiga ta'sir ko'rsata olmadi. Xalq demokratlashtirishni talab qilar edi. Mamlakat bo'ylab demokratik islohotlar, haqiqiy, erkin umumxalq saylovlarini olib borish talab qilingan namoyishlar bo'lib o'tdi. Mamlakatdan aholining ommaviy sur'atda qochishi boshlandi.

1971-yil iyul – *Todor Jivkov* Bolgariya prezidentiga saylandi.

1971-yil 15-avgust – prezident *Richard Nikson* “yangi iqtisodiy siyosat”ga o'tish e'lon qilindi. Bu, iqtisodiyotga davlat aralashuvining o'sishi va erkin tadbirkorlikka qarshi cheklovchi choralarni kiritishga yo'l qo'yadigan neokonservatizmning g'alabasini anglatar edi.

1971-yil 28-oktabr - Angliyaning “Umumiy bozor”ga kirishi.

1971-yil dekabr – Pokiston armiyasi mamlakat sharqida mag'lubiyatga uchradi. Bu hol Sharqiy Bengaliyaning Pokistondan ajralib mustaqil Bangladesh davlati sifatida tashkil topishiga olib keldi. G'arbda ham Pokiston qo'shinlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi va mag'lub bo'ldi. Pokiston ustidan qozonilgan g'alaba hamda urushdan keyin olib borilgan muvaffaqiyatli muzokaralar *I.Gandi* obro'-e'tiborini kuchaytirdi.

1971-yil dekabr – Pokiston hamda Hindiston o'rtasida qurolli to'qnashuv kelib chiqdi. Bu nizo pokistonliklar armiyasining kapitulyatsiyasi bilan yakunlandi.

1971-yil dekabr – Pokiston tarkibiga Sharqiy Bengaliya ham kirar edi. So'ng milliy-ozodlik harakati natijasida uning tarkibidan chiqdi va yangi *Bangladesh* davlati paydo bo'ldi.

1971-yil 3-17-dekabr - hind-pokiston urushi. Bangladeshning tashkil topishi.

1971-yil kuz – Xorvatiyada yirik g'alayonlar yuzaga keldi. Ularning ishtirokchilari mustaqil davlat tuzilishini talab etdilar.

1972 -yil – Buxoro viloyatining Zarafshon shahri tashkil topdi.

1972 -yil – Sirdaryo viloyatining Shirin shahri tashkil topdi.

1972-1994-yillar – *Kim Ir Sen* KXDR prezidenti lavozimida faoliyat ko'rsatishi.

1972-yil – AQSh prezident *R.Nikson* rasmiy visit bilan XXRga keldi va ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatdi. Bu o'z maqsadi yo'lida Sovet Ittifoqi



va Xitoy o'rtasida kelishmovchilik tug'dirish yo'lidagi urinish edi. Ayni holat amerikalik diplomatlar qo'liga zo'ravonlik siyosatini amalga oshirish uchun muhim vositani berib qo'ydi. Amerika kreditlari, savdo munosabatlarning rivojlanishi Xitoy tashqi siyosatini o'zgartirish va uni jahon siyosatida AQSh bilan ittifoqchiga aylantirishi lozim edi. *R.Nikson, J.Ford, J.Bush, R.Reygan* kabi AQSh prezidentlari, bir guruh senatorlar va biznesmenlarning ko'p martalik Xitoyga tashrifi ham kutilgan natijani bermadi. Xitoy hech ham SSSR bilan ziddiyatga borishni istamadi. Bundan tashqari Xitoy-Amerika munosabatlaridagi eng to'sqinlik qiladigan narsa Tayvan masalasi edi. Xitoy rahbariyati Tayvanni o'z mamlakati hududining ajralmas qismi deb hisoblar va ushbu muammoni hal etishni talab qilar edi.

1972-yil – AQSh Prezidenti *R.Niksoni* Moskvaga tashrif buyurdi.

1972-yil – GDRda sanoatni qayta tashkil etish natijasida yalpi sanoat ishlab chiqarishidagi davlat ulushi 83 dan 99 foizga o'sdi. Oqibatda butun sanoat miqdor ko'rsatkichiga ishlay boshladi. Korxonalarining ko'pgina qismi foyda bermas va ular keltirgan zarar boshqa korxonalar hisobiga qoplanar edi. Sanoat ishlab chiqarishi og'ir sanoat hisobiga tez (23 yil davomida ishlab chiqarish 4 baravar) o'sdi, iste'mol buyumlari ishlab chiqarish esa atigi 2,5 baravar ko'paydi.

1972-yil – GFRda saylov bo'lib o'tdi. Undagi saylovlarda *Villi Brandt* hukumati xalq ishonchini qozondi.

1972-yil – Italiyada XDPni mag'lubiyatga olib kelgan yangi saylovlar bo'lib o'tdi. lining yo'l boshchisi *J.Andreotti* uch partiya - xristian-demokratik, sotsial demokratik va liberal partiyadan iborat, o'ng markazchi deb nom olgan hukumatni shakllantirdi. Bu norozilik to'liqlari va hukumatga qarshi chiqishlarga sabab bo'ldi.

1972-yil – Kolumbiyada siyosiy koalitsiyalardan farqlanuvchi iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar vazifalarini o'z oldiga qo'ygan keng koalitsiyalar tashkil etildi.

1972-yil – Kuba O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi a'zosi bo'lib kirdi.

1972-yil – Pokiston SEATO tarkibidan chiqdi.

1972-yil – prezidentlik saylovlarida *R.Nikson* yana g'alaba qozondi. Saylovchilarning 60 % i unga ovoz berishdi. Biroq kongress ikkala palatasidagi ko'pchilikni demokratlar tashkil etdi.

1972-yil - Seylon Shri Lanka deb atala boshlandi.

1972-yil – Shimoliy Koreyaning Konstitutsiyasi qabul qilindi. Unga ko'ra demokratik tamoyillar so'zlarda qaror toptirilgan bo'lsada, amalda bir partiya, bir shaxs diktaturasi qonunlashtirildi.

1972-yil – Suriya, Iroq Sovet Ittifoqi bilan do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladi. Falastin qarshiligi harakati ham kuchaydi. FOTda Yosir Arofat qo'mondonligidagi 15 mingga yaqin yaxshi harbiy tayyorgarlikka ega jangchilar yig'ildi.

1972-yil 22-yanvar - Bryusselda Angliya, Daniya va Irlandiyaning 1973-yil 1-yanvardan YILga kirishi to'g'risidagi shartnoma imzolandi.

1972-yil 22-may - Seylonning Shri Lanka mustaqil respublikasi deb e'lon qilinishi.

1972-yil 17-iyun – “Uotergeyt” mehmonxonasidagi demokratik partiya



qarorgohida eshituvchi apparatlar o'rnatayotgan shaxslar guruhi ushlandi. Prezident *R.Nikson* ham bu ishga aralashgani ma'lum bo'ldi.

1973-1974-yillar – *Jerald Ford* AQShning vitse-prezidenti bo'lgan.

1973-1974-yillar – Vengriyada ayrim ijobiy natijalarga qaramay, iqtisodiyotni isloh etish undan kutilgan umidni oqlamadi. Uni amalga oshirish o'sha paytdagi rahbarlik bosimi ostida to'xtab qoldi.

1973-1974-yillar qish – Angliyaning tog'-kon sanoatida inqiroz boshlandi.

1973-1977-yil fevral – Afg'oniston davlat rahbari va bosh vaziri *Doud Muhammad*.

1973-1977-yillar – *Bxutto Zulfiqor Alixon* Pokiston bosh vaziri.

1973-1980-yillar – *F. Koruturk* Turkiya prezidenti.

1973-yil – Angliya, Irlandiya va Daniya YIHga qabul qilindi.

1973-yil – BMT aralashuvi natijasida Yaqin Sharqda urush o'choqlarining to'xtatilishi.

1973-yil – Chilidagi harbiy to'ntarish natijasida *Salvador Alyende* o'ldirilgan.

1973-yil – *Edvard Xitning* eng yirik muvaffaqiyati Angliyaning "Umumiy bozor"ga qabul qilinishi bo'ldi. Biroq u tred-yunionlar bilan kurashda muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

1973-yil – Gretsiyada navbatdagi konstitutsiya qabul qilindi va unga ko'ra Gretsiya respublika deb e'lon qilindi. *G.Papadopoulos* o'zini o'zi mamlakat prezidenti etib tayinladi. Gretsiya qamoqxonalaridagi kaltaklash va haqoratlash hatto chet mamlakatlarga ham ma'lum edi. Skandinaviya hukumatlari inson huquqlari bo'yicha Yevropa komissiyasi sudiga murojaat qildi.

1973-yil – Isroil birlashgan arab qurolli kuchlari bilan urushgan davri.

1973-yil – neft ishlab chiqaruvchi afro-osiyo mamlakatlari neftga qo'ygan embargo (ta'qiq) Yevropa va AQShda vahima va neft inqiroziga sabab bo'ldi.

1973-yil – Parijda Vetnamda urushni to'xtatish haqida bitimga erishildi. AQSh to'liq mag'lubiyatga uchradi. Amerika qo'shinlarini chiqarish qochishga aylanib ketdi. Vetnam urushidagi mag'lubiyat Amerika obro'-e'tiboriga ta'sir etdi. Amerikaning g'arbdagi yo'l boshchi rolini bajarishi imkoniyatining o'zi shubha ostida qoldi. Amerikaning Vetnamdagi tajovvuzkorona urushi Yevropa mamlakatlarining birlashishi va iqtisodiy integratsiyasida hal qiluvchi burilish uchun eng muhim asos bo'ldi. Bu urush shu paytgacha Amerika ta'siri doirasida bo'lib kelgan Yevropa davlatlarini mustaqil siyosat olib borish va dunyo muammolarini mustaqil hal etishning yangi yo'llarini izlashga majbur etdi.

1973-yil – Portugaliyada sotsialistik partiya tashkil etildi.

1973-yil – Qirol Feysal faoliyatining gultoji deb kompensatsiya evaziga ARAMKOning natsionalizatsiya qilinishini ko'rsatish mumkin, biroq barcha rahbarlik lavozimlari, imtiyoz va foydalar amerikaliklar o'zlarida qolgan edi. Qirol Feysal amalga oshirgan modernizatsiya mamlakatni mustahkamladi. Biroq bunday ishlar uning o'z umrini kafolatlay olmasdi.

1973-yil - quvg'inlarga qaramay *Soljenitsin* G'arbdagi "GULAG Arxipelagi" asarini e'lon qildi. Unda sovet lagerlariga surgun qilingan mahbuslarning dahshatli hayoti aks ettirildi. Soljenitsinning obro'si jahon miqyosida juda yuqoriligi bois hukumat uni yana qayta lagerga jo'natishga jur'at eta olmasdi.



1973-yil – Saudiya Arabistoni har yili o'z byudjetining 10 foizini 54 musulmon davlatlariga moliyaviy yordamga ajratadiki, mamlakat bu mablag'larga qo'shimcha yordam bilan birga dunyoda islom mavqeini mustahkamlash uchun diniy adabiyotlar eksportini tashkil qiladi.

1973-yil – Saudiya Arabistoni hukumati ARAMKOning aksiyalarini asta-sekin sotib ola boshladi.

1973-yil – Sherobod cho'lidagi muhim sug'orish inshooti hisoblangan 56 km li Amu-Zang kanali qurib bitkazildi.

1973-yil – SSSR rahbari *L.I. Brejnevni* AQShga tashrif buyurdi. Tashrifi chog'ida qishloq xo'jaligi, savdo sohasida va yadro qurollarini qisqartirish borasida hamkorlikning kuchayishiga olib keldi.

1973-yil – Uotergeyt ishi bilan bog'liq siyosiy inqiroz AQShda boshlandi.

1973-yil yanvar – Chexoslovakiyaning inson huquqlari haqidagi pakt hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Kengashning yakunlovchi aktini ratifikatsiyalashi munosabati bilan bir guruh madaniyat va fan, din arboblari, yozuvchi va shifokorlar vakillari respublika rahbariyatiga konstitutsiyaga rioya qilish, siyosiy mahbuslarni ozod qilish, sovet qo'shinlarini mamlakatdan olib chiqib ketish haqidagi talab bilan murojaat etdi. Yangi muxolifat harakatining ishtirokchilari "Xartiya-77" nomini olgan guruhga birlashdi. Bu guruh qatag'onlarga duchor bo'ldi, biroq hokimiyat uni man etishga jur'at qilmadi. U juda katta xalqaro salmoqqa ega bo'ldi va yagona ochiqchasiga harakat qiluvchi muxolifat guruhi bo'lib qoldi.

1973-yil 1-yanvar - Angliya, Daniya va Irlandiya YIlga kirdi.

1973-yil 27-yanvar – Parijda Vetnamdagi urushni to'xtatish haqida bitimga imzo chekildi. Amerika qo'shinlari mamlakatdan olib chiqildi. Bu urushda 58 ming amerikalik halok bo'ldi. Lotin Amerikasida AQSh har bir mamlakatning Kuba bilan munosabatlarini mustaqil yuritishi diplomatik blokada siyosatidagi ochiq-oydin adashish edi.

1973-yil 27-yanvar - AQSh tomonidan Shimoliy Vetnamga qarshi harbiy operatsiyalarning to'xtatilishi.

1973-yil 1-iyun – polkovniklar *Konstantin II* ni o'zlarining hokimiyatiga qarshi isyon ko'tarishda aybladi va Gretsiyani respublika deb e'lon qildi.

1973-yil 17-iyul – Afg'onistonda harbiy to'ntansh yuz berdi va monarxiya ag'darilib Afg'oniston respublika deb e'lon qilindi. *Zohirshohning* ukasi *Muhammad Doud* Afg'oniston bosh vaziri deb ruhoniylar, yirik zamindorlar, davlat amaldorlarining noroziligini keltirib chiqardi.

1973-yil 11-sentabr – Chilida inqilobiy jarayonniig bundan keyingi rivojlanishini to'xtatish uchun AQSh *Alyende* hukumatini ag'darish bo'yicha operatsiya o'tkazdi. Harbiy to'ntarish general *Pinochet* va inqilobdan qo'rqib ketgan yirik monopoliya vakillari tomonidan amalga oshirildi. Prezidentlik saroyini zabt etish chog'ida *S.Alyende* o'ldirildi.

1973-yil oktabr – Tailanda ommaviy namoyish va g'alayon tufayli harbiy rejim ag'darib tashlandi. Hukumat tepasiga muvaqqat fuqarolik hukumati keldi va Ta'sis majlisini chaqirdi.

1973-yil 6-oktabr – Arab mamlakatlari harbiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlandi



va endi ularning rahbarlari 1967-yilda boy berilgan yerlarni qaytarib olish uchun harbiy harakatlarni boshlashga qaror qildi. Suriya va Misr qo'shinlari Isroilga hujum boshladilar. Iordaniya urushda ishtirok etmadi, ammo Marokash qo'shinlari misrliklar armiyasi safida turib o'zlarini ko'rsata olishdi.

1973-yil 18-oktabr - G'arbiy va Sharqiy Germaniya BMTga qabul qilindi.

1973-yil 23-oktabr – Suriya, Misr va Marokash qo'shinlari Isroilga qilgan hujumlari tugadi. Isroil 1-marta mag'lub bo'ldi. AQSh, SSSR, Misr, Isroil va Suriya ishtirok etgan Jeneva Xalqaro konferensiyasida ushbu mamlakatlar qurolli kuchlarini BMTning tinchlik o'rnatuvchi kuchlari bilan ajratib qo'yish haqida qaror qabul qilindi. Bu arablarning ilk g'alabasi bo'ldi.

1973-yildan – *Gelmut Kol* XDI raisi.

1973-yilgacha – Tailand hukumatining amerikaparastlik siyosati Hindixitoy yarimorolini izolyatsiyaga olib keldi va mamlakat ichkarisida norozilikka sabab bo'ldi. AQSh uni o'zgartirdi va demokratik erkinlikni bo'g'ib tashlovchi ochiqdan-ochiq harbiy rejim hukm surdi.

1974-1976-yillar – *Aldo Moro* Italiya bosh vaziri.

1974-1976-yillar – *Garold Vilson* Buyuk Britaniyada bosh vazir.

1974-1976-yillar – *Jak Shirak* Fransiyaning Bosh vaziri.

1974-1977-yillar – *F. A. Ahmedning* Hindiston prezidentligi davri.

1974-1977-yillar – *Jerald Ford* AQShning Respublikachilar partiyasidan 38-prezidenti etib saylandi.

1974-1980-yillar – *Karamanlis Konstantinos* Gretsiyada bosh vazir.

1974-1980-yillar – *Karamanlis Konstantinos* Gretsiyada Yangi demokratiya partiyalarining asoschisi hamda rahbari.

1974-1981-yillar – Myanma prezidenti *U Ne Bin*.

1974-1981-yillar – *Valeri Jiskar d'Esten* Fransiya prezidenti.

1974-1989-yillar – *Nikolay Chausheskuning* Ruminiyadagi prezidentlik faoliyati.

1974-yil - *A. Soljenitsin* SSSRdan chiqarib yuborildi.

1974-yil – Afina universiteti talabalari g'alayon ko'tardilar. Gretsiyada polkovniklar rejimini yo'q qilish harakati boshlandi. Ahvolni bir oz yumshatish uchun G.Papadopoulos prezidentlik vakolatini general *Gizikis*ga berdi. Biroq bu ham rejimni saqlab qola olmadi. Armiya polkovniklarni qo'llab-quvvatlashdan bosh tortdi va ularning iste'foga chiqishi to'g'risida ultimatum qo'ydi.

1974-yil – AQSh qo'shinlari Vetnamdan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Sovet Ittifoqi Osiyodagi o'z harbiy va siyosiy ishtirokini kuchaytira bordi. Jumladan, Iroq hamda Suriyani Isroil agressiyasiga qarshi kurashda harbiy jihatdan qo'llab-quvvatlab turdi va bu bilan Yaqin Sharqdagi o'z ta'sirini kuchaytirdi. Afrika qit'asida Sovet Ittifoqi Angola, Mozambik va Efiopiyaning milliy-ozodlik kurashini qo'llab-quvvatladilar. Real tashqi siyosat Lotin Amerikasi mamlakatlarida ham olib borildi. Birin-ketin Chili, Salvador, Panama, Nikaragua, Gvatemalada amerikaliklar rejimi parchalana bordi. Ularning ko'pchiligiga Sovet Ittifoqining hech qanday afqasi bo'lmasada, ayrim mamlakatlarni (Chili, Nikaragua) qo'llab-quvvatlab turdi.

1974-yil – AQShda beriladigan bepul oziq-ovqat talonlari tizimining doirasini 13 mln. kishi qamrab oldi.



- 1974-yil** – AQShda eng kam ish haqi soatiga 1,6 dollardan 2,2 dollarga ko'paydi.
- 1974-yil** – AQShda raketaga qarshi mudofaa tizimi barpo etildi.
- 1974-yil** – boshqa g'arb davlatlari kabi Fransiyani ham iqtisodiy tanglik qamrab oldi. Ishlab chiqarish pasayib, ishsizlik, infliyatsiya kuchaydi. Jahon bozorida neftning narxi tushib ketdi, natijada mamlakatda yoqilg'i bahosi o'sib ketdi. Bu hol barcha sanoat mahsulotlarining narxi oshishiga olib keldi. Aholining ko'pini ishsiz va hech qanaqa nafaqa olmaydigan yoshlar tashkil etar edi.
- 1974-yil** – Buyuk Britaniyada leyboristlar partiyasi yana hokimiyatga keldi va *Garold Vilson* yana bosh vazir bo'ldi. U tred-yunionlar bilan munosabatlarni yaxshilashga va'da berdi. Bosh vazir oylik ish haqini bir qadar cheklash haqida bitimga erishishga muvaffaq bo'ldi.
- 1974-yil** – davlat tuzumi to'g'risidagi masala bo'yicha Gretsiyada o'tkazilgan referendum natijasida mamlakatda boshqaruvning respublika shakli joriy etildi. Gretsiyada yangi siyosiy ahvolni aks ettiruvchi yangi yo'lboshchi va yangi partiyalar yuzaga keldi.
- 1974-yil** - germaniyalik yozuvchi *G.Byoll* Nobel mukofoti laureati.
- 1974-yil** – ikkita muxotifat markaz yuzaga keldi. Bular – Ispaniya kommunistik partiyasi (IKP), Sotsialistik xalq partiyasi (SXP) kabilarni birlashtiruvchi Demokratik kengash hamda Ispaniya sotsialistik ishchi partiyasi (ISIP) rahbarligidagi Demokratik kelishuv markazlari edi.
- 1974-yil** – *K. Karamanlis* liberal pozitsiyadagi Yangi demokratiya partiyasini, *G. Papandreuning* o'g'li *Andreas Papandreu* esa sotsialistik yo'nalishni mo'ljallagan Umumgrek sotsialistik harakati (PASOK)ni tashkil etdi.
- 1974-yil** – Pokiston Bangladeshni tan oldi.
- 1974-yil** – Pokistonning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi.
- 1974-yil** – Qarshi kanali qurish tugallandi. 6 ta nasos stansiyasi Amudaryo suvini 132 m balandlikka ko'tarib beradigan bo'ldi. Ana shu eng yirik irrigatsiya inshootlarining ishga tushirilishi Qarshi dashtidagi qo'riq yerlarni sug'orishga imkon berdi.
- 1974-yil** – Salozar diktaturasi tugatilgach, Angolaning yangi hukumati konstitutsiyaviy qonunni chop qildi. Unga ko'ra Angolaning o'z kelajagini o'zi belgilash huquqi va mustaqilligi rasmiy qayd etildi.
- 1974-yil** – Tunisda milliy burjuaziya va chet el sarmoyadorlariga muhim imtiyozlar va kafolatlar berildi.
- 1974-yil** – Xindiston o'z atom bombasiga ega bo'ldi.
- 1974-yil** - yirik fransuz yozuvchisi va shoiri *Lui Aragonning* "Teatr - roman" romanini nashrdan chiqardi.
- 1974-yil fevral** – *Humayniy Ruhollo Musaviy* Eronga qaytib kelib, shoh tuzumini ag'darib tashlagan va islom respublikasini e'lon qilishga olib kelgan inqilobni boshqargan.
- 1974-yil fevral** – ittifoqdosh respublikalar huquqlarini cheklovchi Yugoslaviya konstitutsiyasi qabul qilindi. Xorvatiya, Serbiya va Voyevodinada millatchilik harakatlari vakillari davlat organlari rahbarligidan chetlatildi.
- 1974-yil 25-aprel** – Portugaliyada fashistlar rejimi ag'darildi. Qurolli kuchlar



harakati rahbarligidagi qo'shin Lissabonga kirib keldi va hukumatdan iste'foga chiqishni talab qildi. Xalq ularni qo'llab-quvvatladi. Hokimiyat taslim bo'ldi. G'alayonchilar va shaharliklar o'z qurollari hamda kiyimlarini qizil chinnigullar bilan bezab oldilar. Qon to'kilmasdan yashin tezligidagi inqilob yuz berdi va u fashistlar diktaturasining mag'lubiyati bilan yakunlandi. Mazkur inqilob tarixga "chinnigullar inqilobi" nomi bilan kirdi.

1974-yil may – hukumat sotsial-demokrat *Gelmut Shmidt* boshqaruviga o'tdi, vitse-kansler va tashqi ishlar ministry etib ODP rahbari *Xans Ditrix Gensher* saylandi. Hukumat almashuvi GFR siyosatida jiddiy o'zgarishlarga olib kelmadi. *Villi Brandt* GSDP raisi sifatida qoldi.

1974-yil may – *I.Broz Tito* cheklanmagan muddatga Yugoslaviya prezidenti etib saylandi.

1974-yil 15-may-30-sentabr – *Spinola* Portugaliya prezidenti bo'lib turdi.

1974-yil 16-may - *Broz Tito* Yugoslaviya prezidenti etib saylandi.

1974-yil 23-iyul – general *Gizikis K.Karamanlis*ga hukumatni tarqatib yuborishni buyurdi. Polkovniklar rejimining ashaddiy yigirma nafar yetakchisi sudga berildi. *Papadopoulos* va *Pattakos* o'lim jazosiga hukm qilindi, biroq u keyinchalik umrbod qamoq jazosi bilan almashtirildi.

1974-yil 9-avgust – AQSh orezidenti *R.Nikson* impichment (davlat lavozimidan majburiy chetlashtirish) xavfi ostida iste'foga chiqdi.

1974-yil 9-avgust - *R.Nikson* "uostergeyt ishi" sababli iste'foga chiqdi. Vitse-prezident *Jerald Ford* AQShning 38-prezidenti etib saylandi.

1974-yil 31-avgust - Gretsiyaning NATO tarkibidan chiqishi.

1974-yil sentabr-1976-yil iyul – *Kosta Gomesh* Portugaliya prezidenti bo'ldi.

1974-yil sentabr – Portugaliyadagi kichik to'ntarish oqibatida hokimiyat uning yaqin safdoshi general *Kosta Gomesh* qo'lga o'tdi.

1974-yil oktabr – arab mamlakatlari rahbarlari yig'ilishida FOT Falastindagi arab xalqlarining yagona vakili sifatida tan olindi.

1974-yil oktabr – Tailanda demokratik konstitutsiya qabul qilindi.

1974-yil noyabr – *Y.Arofat* BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida so'zga chiqdi. Unda ikkita tarixiy qaror qabul qilindi. Bu qaror mohiyati FOTga BMTdagi nazoratchi maqomini berish va Falastin arab xalqlarining mustaqilligini hamda ularni o'z tarixiy yerlariga qaytish huquqini tasdiqlashdan iborat edi. Jahon jamhamiyati falastin xalqi tarafida turib Isroilni agressor sifatida qoraladi. Shu bilan birga arab xalqlarining ma'naviy va jismoniy kuchi o'sdi. Ular zamonaviy sovet qurollari va harbiy mutaxassislari yordamida urush olib borishni o'rganib olgan edi. FOT obro'-e'tibori kuchaydi.

1974-yil 8-dekabr – Polkovniklar hokimiyati tugatilgach, qirol *Konstantinning* konstitutsiyaviy mavqeini to'la-to'kis aniqlash uchun Gretsiyada referendum o'tkazildi. 70 foiz greklar monarxiya tiklanishiga qarshi chiqdilar va mamlakat respublika deb e'lon qilindi.

1974-yil bahor – *Jorj Pompidu* vafot etdi.

1975-1979-yillar – *Agostinyu Neto* Angolaning prezidenti.

1975-1980-yillar – paxtachilikni rivojlantirish sohasida olimlar olib borgan



tadqiqotlar natijasida paxtaning 20 ta yangi istiqbolli navlari yaratildi. "Toshkent" navi ancha serhosil nav hisoblanardi.

1975-1982-yillar – *Hamd* Saudiya Arabiston qiroli.

1975-1985-yillar – Yaponiyada ishchi va xizmatchilarning ishlab chiqarish samaradorligi 65 foizga oshdi, ularning ish haqi esa 11 foizga oshirildi.

1975-yil boshi – Polsha aholisi 23 milliondan 33 millionga oshdi. Shahar aholisining ulushi 35 dan 55 foizgacha o'sdi. Ishchilar soni oshdi, yangi ziyolilar paydo bo'ldi.

1975-yil – BMT Bosh Assambleyasining 30-sessiyasi Janubiy Koreyada BMT bayrog'i ostida kiritilgan barcha xorijiy qo'shinlarni chiqarish, mamlakatni birlashtirish, iqtisodni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ko'zda tutuvchi rezolyutsiyani qabul qildi. Biroq AQSh, uning ittifoqchilari va Janubiy Koreya hokimiyati bu rezolyutsiyani inkor etdi.

1975-yil – IKTga BMT kuzatuvchisi maqomi berilgan.

1975-yil – Tunis hukumati YII bilan bitim tuzdi. Tunis g'arbparastlik qarashlarini yoqlovchi yagona arab mamlakati. Tunis, Arab davlatlari ligasi a'zosi hisoblanadi.

1975-yil - Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha hujjatning imzolanishi G'arb va SSSR o'rtasida madaniy aloqalarning rivojlanishi uchun keng yo'l ochib berdi. Bu rasmiy sovet targ'ibotiga ishonchsizlikni yanada kuchaytirdi.

1975-yil yanvar – Tailandda 1-demokratik saylovlar o'tkazildi va unda demokratik partiyalar koalitsiyasi g'alaba qozondi hamda koalitsiya hukumati tuzildi. Mazkur hukumat eng avvalo mamlakatdan amerika qo'shinlarini chiqarib yuborish va AQSh harbiy bazalarini tugatish to'g'risida qaror qabul qildi.

1975-yil 25-mart – Saudiya Arabistoni qiroli Feysal o'z saroyida jiyani tomonidan o'ldirildi.

1975-yil 17-aprel - Kambodjada *Pol Pot* boshchiligidagi harbiy to'ntarish amalga oshirildi.

1975-yil 30-aprel – Shimoliy Vetnam qo'shinlari Saygonga kirdi.

1975-yil iyun – *I.Gandi* siyosatiga qarshi bo'lgan minglab kishilar hibsga olindi, matbuotda senzura paydo bo'ldi.

1975-yil 25-iyun – Portugaliyada Salozar hukumatining ag'darilishi Mozambikka o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini berdi Mozambikning mustaqillikka erishganligi e'lon qilindi. Yangi davlat Mozambik Xalq Respublikasi deb atala boshlandi.

1975-yil iyul – Hindistonda ko'pchilik siyosiy partiyalar taqiqlandi va parlament *I.Gandining* favqulodda vakolatini tasdiqladi. Muxolifat partiyalar *Morarji Desaya* yetakchiligidagi Janata partiyasiga birlashdi. Mamlakat fuqarolar urushi yoqasiga borib qoldi.

1975-yil 1-avgust - Xelsinkida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Kengashning xulosa akti imzolandi.

1975-yil 1-avgust – Yevropa xavfsizlik choralari bo'yicha Xel'sinki bitimining imzolanishi detant jarayonining kul'minatsiyasi bo'ldi. Yevropadagi 35 davlat, AQSh va Kanada o'rtasida konferensiya akti imzolandi. U quyidagi 3 ta bitimni o'z ichiga oladi: 2 qarama-qarshi blok o'rtasidagi tasodifiy to'qnashuvlarni bartaraf etish usullari, iqtisodiy va texnik hamkorlik bo'yicha takliflar, xalqlar o'rtasida aloqalarni kengaytirish yo'llari.



1975-yil 11-noyabr – Angola xalq respublikasi deb e'lon qilindi va *Agostioyu Neto* prezident etib saylandi.

1975-yil 20-noyabr – *F. Franko* 82 yoshida vafot etdi.

1975-yil 22-noyabr – davlat rahbari bo'lgan *Xuan Karlos* Ispaniya qiroli deb e'lon qilindi hamda unga *Xuan Karlos I* deb nom berildi. U mamlakatda islohotlar o'tkazish zarurligi to'g'risida bayonot berdi. Ispaniya yangi taraqqiyot yo'liga kirdi. Hukumat mahkamasi rahbari etib o'zining liberal qarashlari bilan tanilgan *Adolfo Suares* tayinlandi. U demokratik islohotlar dasturini ishlab chiqdi.

1975-yil 14-dekabr - *Kombodja* Konstitutsiyasining qabul qilinishi va mamlakatning *Kampuchiya Demokratik Respublikasi* deb qayta nomlanishi.

1975-yilgacha – Ispaniyada tuzib kelingan barcha hukumatlarga *F. Franko* boshchilik qilgan.

1976-1978-yillar – O'zbekistonda paxtachilik uchun 9 turdagi yangi zamonaviy mashinalar yaratildi.

1976-1978-yillar – Xitoyda madaniy inqilob oqibatlarini tugatish uchun kurash olib borilgan davr.

1976-1979-yillar – *D.Kallagen* Buyuk Britaniyada Bosh vazir lavozimida.

1976-1980-illar – O'zbekistonda hali ham mehnat unumdorligi oshishi 2,2 % dan oshmadi.

1976-1980-yillar – AQSh Prezidenti demokratlardan saylandi.

1976-1980-yillar – Bolgariyada sanoat mahsulotlari hajmi va milliy daromad atigi 33 foizga o'sdi. Inflyatsiya, ishsizlik kuchaydi, oylik deyarli to'liq «muzlatilgani» holda narx-navo keskin ko'tarilib ketdi. Ko'pgina qurilish obyektlari to'xtab qoldi, korxonalar yopildi. *T.Jivkov* siyosati bolgariya iqtisodini inqiroz yoqasiga olib keldi va mehnatkashlar turmush tarzi keskin pasayib ketdi. Mamlakatda muxolifat paydo bo'ldi. Islomga hujum boshlandi, musulmon urf-odatlarini taqiqlab qo'yildi. Ammo, tez orada endi bunday sur'atda o'sishga Bolgariyaning qurbi yetmasligi ma'lum bo'ldi.

1976-1980-yillar – O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi uchun 85 ming dona traktor olgan, shu yillar ichida ularning 12 mingtasigina ishlatildi.

1976-1980-yillar – O'zbekistonda 5,3 mln tonna paxta yetishtirildi.

1976-1980-yillar – O'zbekistonda jami 23 ta yengil sanoat korxonasi qurildi.

1976-1983-yillar – *Y. Szyanin* XXR raisi.

1976-yil – AQSh saylovlarida demokratik partiya vakili, bu paytgacha siyosiy doiralarda noma'lum bo'lgan, *Jorjiya* shtatining sobiq gubernatori, fermer *J.Karter* g'alaba qozondi.

1976-yil – Buyuk Britaniyada ingliz pul birligi qadrining yana pasayishi Bosh vazir oylik ish haqini bir qadar cheklash haqida bitimga erishishga urinishlarini puchga chiqardi. *Vilson* o'z ixtiyori bilan iste'foga chiqdi va uning o'rniga leyboristlar partiyasi yo'l boshchisi *Jeyms Kellagan* keldi.

1976-yil – *Fidel Kastro Rus* Kuba Davlat Kengashi va Vazirlar Kengashi raisi.

1976-yil – Hindiston umumxalq saylovlarida *I.Gandi* mag'lubiyatga uchradi. Barcha okruglar bo'yicha *Janata* partiyasi vakillari g'alaba qozondi.

1976-yil – Italiyada bo'lib o'tgan parlament saylovlari IKPga yangi muvaffaqiyat



keltirdi. U 630 o'rinli parlamentda 34,4 foiz ovoz va 227 o'rin oldi. Mamlakat jamoatchiligi endi kommunistlarni hukumatga kiritishni talab etdi, zero bu mamlakatda sharoitni barqarorlashtirish va milliy kelishuvni qaror toptirishning yagona yo'li bolib, usiz terrorchilik to'loqini to'xtatib bo'lmasdi.

1976-yil – O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish uchun umumiy davlat byudjetidan 49,6 % mablag' sarflandi.

1976-yil – Pokistonda yetakchi sanoat tarmoqlari, bank va sug'urta kompaniyalari natsionalizatsiya qilindi, agrar islohot o'tkazildi. Pokiston va Hindiston o'rtasida diplomatik aloqalar tiklandi.

1976-yil – X. *Bumeden* Jazoir prezidenti etib saylandi. U xuddi Liviyadagi kabi zohidona islom sotsializmi tarafdori edi.

1976-yil fevral – Prezident *Samora Mashel* Mozambikda tub o'zgarishlar amalga oshirilishini bildirdi. Bu o'zgarishlar markazida portugal ishbilarmonlari qo'lidagi xususiy korxonalarni natsionalizatsiya qilish turar edi. Mamlakat poytaxti Moputu deb qayta nomlandi.

1976-yil mart – Ispaniya kommunistik partiyasi (IKP), Sotsialistik xalq partiyasi (SXP), Demokratik kengash, Ispaniya sotsialistik ishchi partiyasi (ISIP) Demokratik koordinatsiya blokiga birlashdi.

1976-yil aprel – so'1 kuchlarning katta g'alabalaridan qabul qilingan respublika konstitutsiyasi bo'ldi. Mazkur konstitutsiya barcha portugaliyaliklarga fuqarolik huquqi va demokratik erkinligini kafolatladi hamda mehnatkashlarning ijtimoiy himoya huquqini tasdiqladi. Konstitutsiya mamlakat miqyosida korxonalar va kasaba uyushmalarida ishchi komissiyalari bo'lishining qonuniyligini tasdiqladi. Ommaviy tashkilotlarga mahalliy boshqaruvda ishtirok etish imkoniyati berildi. Respublika Majlisi deb yuritiluvchi bir palatali parlament tasdiqlandi.

1976-yil 25-aprel – Portugaliyada keyingi 50 yil davomida erkin demokratik saylovlar o'tkazildi. Sotsialistik partiya eng ko'p ovoz oldi. Uning yetakchisi *Mariu Soarish* hukumatni tuzish huquqiga ega bo'ldi. Biroq ushbu partiya parlamentda unchalik ko'p o'ringa ega emas va mavqei ham mustahkam emas edi. Bundan tashqari mamlakatda hukumat va sotsialistik partiya ahvolini yanada og'irlashtiruvchi iqtisodiy tanglik boshlandi.

1976-yil 25-aprel – Vetnamda yagona Vetnamning Milliy majlisiga umumiy saylovlar bo'lib o'tdi.

1976-yil 2-iyun - Shimoliy va Janubiy Vetnamning rasmiy birlashgan kuni

1976-yil 2-iyul – Milliy Majlis Vetnamning birlashuvi va Vetnam Sotsialistik Respublikasi e'lon qilinishi haqida qonun qabul qildi.

1976-yil 2-iyul - Vetnam qo'shilishining tugallanishi va VSRning tashkil topishi.

1976-yil 4-iyul - AQSh mustaqilligining 200 yilligi.

1976-yil 9-sentabr – *Mao Szedun* vafot etdi. Endi "madaniy inqilob" faollari ta'qib qilina boshladi. *Mao Szedunning* xotini *Szyan Shi* va yana Siyosiy byuroning uch a'zosi ("to'rtlik to'dasi") qamoqqa olindi. Ikki yil davomida "madaniy inqilob" oqibatlarini tugatish uchun kurash olib borildi.

1976-yil 2-noyabr - *Jeyms Karter* AQSh prezidenti etib saylandi.

1976-yil dekabr – Ispaniyada bo'lib o'tgan referendumda siyosiy islohotlar



to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun umumiy saylov huquqini belgilashni ko'rib chiqdi, xalq suvereniteti va siyosiy plyuralizm tamoyilini e'lon qildi, hukumatning eski frankocha strukturasi bekor qilindi. Mamlakatda ikki palatali parlament tizimi (bosh korteslar) joriy etildi. Birinchi palata (deputatlar kongressi) umumiy ovoz berish orqali saylanib, ular soni 350 nafar etib belgilandi, ikkinchi palata (senat) nisbatan cheklangan davrada saylandi va 208 kishini tashkil etdi. Qirol referendumga qonunlarni chiqarish, korteslarni tarqatib yuborish, premer-ministрни, senatning beshdan bir qismini tayinlash huquqiga ega bo'ldi.

1976-yil yoz – Polshada oziq-ovqatlar narxini yana bir bor oshirish va shu yo'l bilan tashqi qarz foizlarining hech bo'lmasa bir qismini to'lashga urinish ish tashlash harakatini yuzaga keltirdi va hukumatni o'z rejasidan voz kechishga majbur etdi. Ijtimoiy norozilik kuchaygan bir sharoitda muxolifat tuzilmalari shakllana boshladi. Ishchilarni himoya qilish qo'mitasi tuzildi.

1977 -yil – Jizzax viloyatining Paxtakor shahri tashkil topdi.

1977-1979-yillar – *M. Desaining* Hindiston bosh vazirligi davri.

1977-1981-yillar – *J. Karterning* AQSh prezidentligi davri.

1977-1981-yillar – *Jeyms Karter* demokratik partiyadan AQShning 39-prezidenti bo'lgan.

1977-1982-yillar – *Leonid Ilich Brejnev* SSSR Oliy Soveti Prezidentining raisi.

1977-1982-yillar – *N. S. Reddning* Hindiston prezidentligi davri.

1977-yil – *Bxutto Zulfiqor Alixon* Pokiston harbiy ma'muriyati tomonidan hibsga olindi.

1977-yil – Liviya Arab Jamoxiriyasi boshlig'i *Muammar Kaddafiy*.

1977-yil – Misr iqtisodiyotiga Xalqaro valyuta jamg'armasi mablaglarini investitsiya sifatida jalb etishga urinish ommaviy noroziliklarga olib keldi, chunki davlat korxonalari uchun subsidiyalarni qisqartirish, milliy valyuta kursini o'zgartirish va foiz stavkalarini erkinlashtirishni dastlabki shart sifatida talab etdi.

1977-yil – MPLA mehnat partiyasi raisi *Agostinyu Neto*.

1977-yil – Panama va AQSh o'rtasida bitim tuzildi, unga ko'ra kanalning amerika zonasi tugatildi.

1977-yil – Pokiston va Turkiya davlatlari birgalikda Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotini tashkil etishdi.

1977-yil – Pokistonda harbiy to'ntarish yuz berdi.

1977-yil – Pokistonning yangi konstitutsiyasiga muvofiq Milliy majlisga umumxalq saylovlari bo'lib o'tdi va unda PXP g'alaba qozondi. Biroq muxolifat partiyalar ushbu saylov natijalarini tan olmadi. Mamlakatda siyosiy inqiroz boshlandi.

1977-yil – Sirdaryo GRES i qurildi.

1977-yil – sovet davlatining soxta milliy siyosatiga ko'ra millatlarning o'z keiajagini o'zi belgilash va milliy respublikalar madaniyati hamda ishlab chiqarishini rivojlantirish prinsiplariga sodiq ekanligi ma'lum qilinsada, amalda tabiiy boyliklar markaz idoralari va undagi amaldorlar tomonidan talon-toroj hamda suiiste'mol qilindi. Konstitutsiya milliy respublikalar huquqini rasmiy chekladi va Markazga keng vakolatlar olib berdi.



1977-yil – SSSRda yangi rahbariyat partiya apparati hokimiyatini tiklay boshladi. Konstitutsiyada partiya “sovet jamiyatining rahbar va yetakchi kuchi” sifatida tasdiqlandi. Cheksiz hokimiyatga ega bo'lgan KPSS MK Bosh kotibi lavozimi belgilandi. Brejnev birinchi bo'lib ushbu lavozimni egalladi. Bu ayni paytda davlat rahbarligini ham anglatar edi. Partiya va davlat apparatining qo'shilib ketish jarayoni boshlandi, davlat partiya nazorati ostida qoldi. Partiya va mamlakatning yagona rahbarligi tasdiqlandi.

1977-yil fevral 1978-yil aprel – *Doud Muhammadning* Afg'oniston prezidentligi davri.

1977-yil iyun – Ispaniyada 1-saylovlar bo'lib o'tdi. Saylovda qatnashgan asosiy siyosiy partiyalar – **A.Suares** yetakchiligidagi Demokratik markaz ittifoqi (DMI), “Xalq alyansi” (XA) o'ng profrank partiyasi va IKP edi.

1977-yil 30-iyun - SEATO o'z faoliyatini to'xtatgan.

1977-yil 5-iyul – Pokistonda navbatdagi harbiy to'ntarish yuz berdi va hokimiyat general **Ziyoulhaq** qo'lga o'tdi. Yangi ma'muriyat Konstitutsiyani bekor qildi, parlamentni tarqatib yubordi va PXP tarafdorlarini ta'qib qila boshladi.

1977-yil 7-oktabr - SSSR yangi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.

1977-yil 6-noyabr – *Sh.Rashidov* tashabbusi bilan Toshkent metropolitenning birinchi navbati ishga tushirildi.

1978 -yil – Buxoro viloyatining Uchquduq shahri tashkil topdi.

1978-1979-yillar – Nikaraguani Sandinochilar milliy ozodlik fronti (SMOF) rahbarligidagi partizanlar harakati qamrab oldi. Reaksion tuzum ag'darildi. Hokimiyat tepasiga SMOF keldi. Yangi hokimiyat uch tamoyil: siyosiy fikrlar xilma-xilligi, aralash iqtisodiyot va qo'shilmalik siyosatiga asoslangan adolatli jamiyatni qurishni o'z maqsadi deb e'lon qildi. Samoslarning barcha mulki davlat ixtiyoriga o'tkazildi, xususiy banklar, tog'-kon sanoati, tashqi savdo natsionalizatsiya qilindi. Sandinochilar xalq qo'shini mamlakat qurolli kuchlarining asosi bo'ldi. Agrar islohot, qishloq xo'jalik kooperatorlari haqida qonun qabul qilindi.

1978-1979-yillar – Shia yo'l boshchilari inqilobining yetakchi kuchi bo'lgan va *Humayniyning* Eronga qaytishini ta'minlagan Tude partiyasini qariyb yo'q qilib tashladi.

1978-1982-yillar – O'zbekistonda har gektar yerga sarflangan suvning o'rtacha miqdori normadigidan 2 baravar ko'p bo'ldi.

1978-yil – aka-uka *Samoslar* tuzumi hukmronlik qilgan Nikaraguada xorijiy kompaniyalar zo'ravonligiga qarshi chiqqan turli partiya va tashkilotlar kirgan muxolifat tashkil etildi.

1978-yil – BMT xavfsizlik Kengashi Namibiya JAR qo'shinlarining olib chiqib ketilishi talab qilingan rezolyutsiya qabul qildi va SVAPOni “Namibiya xalqining yagona haqiqiy vakili” deb tan oldi. BMT Xavfsizlik kengashi, shuningdek, mamlakatda umumxalq saylovi o'tkazishga qaror qildi. Biroq ushbu qarorni amalga oshirish uchun yana o'n yil vaqt o'tdi.

1978-yil – Ispaniyada iqtisodiy tanglik yuzaga keldi. Inflyatsiya va ishsizlar soni ko'payib Monklodagi hukumat rezidensiyasida hukumat bilan so'l muxolifatchilar o'rtasida bitim imzolandi. Unga ko'ra hukumat qarilik va ishsizlik nafaqalarini



oshirishga, soliq solishning adolatli tizimini joriy etish, so'l partiyalar esa kasaba uyushmalari bilan birga yil davomida hukumat siyosatini qo'llab-quvvatlashi, ish haqini haddan ziyod oshirishni talab etmaslik va ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarmaslik majburiyatlarini olishdi.

1978-yil – Liviya-Misr chegarasida yuzaga kelgan murakkab ahvol 2 davlat o'rtasidagi munosabatlarni to'liq uzishgacha borib yetdi. AQSh Liviyani Isroilning asosiy dushmani sifatida tugatishni niyat qilgandi. Kaddafiy Y.Arofat boshchiligidagi FOTni qo'llab-quvvatlab keldi, unga jangchilar ta'minoti uchun yirik mablag'lar ajratdi, Tripolida, FOT rezidensiyalaridan biri joylashgan. U Isroilning A.Sadat bilan bitimini keskin qoraladi.

1978-yil – *Mariu Soarish* hukumati iste'foga chiqdi.

1978-yil – Rim papasi lavozimiga Krakov arxiyepiskopi Karol Voytila (u *Ioann Pavel II* nomini olgan) saylanishi bilan Rim-katolik cherkovi ulkan ta'siri keskin oshdi.

1978-yil – Vashingtonda hindularning qirilib ketishga mahkum etgan genosid va irqiy ta'qiblarga qarshi umummilliy yurishi bo'ldi. Mamlakatda demokratik harakatning yangi ko'tarilishi boshlandi.

1978-yil – Vetnam O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi a'zosi bo'lib kirdi.

1978-yil – *X.Bumeden* vafotidan so'ng MOF raisi *Benjedid Shadli* president etib saylandi. U *X.Bumeden* tuzumining keskin xususiyatini yumshatishga intildi. U Fransiya bilan yaqin aloqalar o'rnatdi.

1978-yil – xalqaro siyosat masalalari bo'yicha kelishmovchiliklar tufayli XXR va Albaniya o'rtasidagi munosabatlar to'xtadi.

1978-yil – Yevropa Kengashiga ishtirokchi bo'lgan davlatlarning 21 taga yetdi.

1978-yil yanvar – *Indira Gandi* HMK raisi.

1978-yil yanvar – Tunisda kasaba uyushmalari yirik ish tashlashlar o'tkazdi va bu bostirildi. Bu yangi siyosiy kuchlarni keltirib chiqardi.

1978-yil 17-mart – *Aldo Moro* IKP bilan bitim tuzdi, unga ko'ra kommunist deputatlar agar hukumat ikkafa partiyaga muvofiq keluvchi dasturga amal qilsa, uni qo'llab-quvvatlash majburiyatini olishdi. "Qizil brigade"ning terroristlar guruhi Rim markazida *Aldo Moro* avtomobilini egallab olib, o'zini o'g'irlab ketishdi. Ular Aldo Moro evaziga qamoqdagi o'rtoqlarini ozod qilish talabini qo'yishdi. XDP rahbariyati va italyan hukumati terrorchilar talabini bajarishni rad etdi.

1978-yil 25-aprel – Afg'oniston bosh vaziri *Doud* AXDPga qarshi asosiy zarbani berishga qaror qildi. Uning buyrug'i bilan partiyaning barcha rahbarlari qamoqqa olindi. Bu voqea tuzumga qarshi norozilik chiqishlarining boshlanishiga signal bo'ldi.

1978-yil 27-aprel – Afg'oniston HHK (Harbiy Havo Kuchlari) qo'mondoni polkovnik *Abdul Qodir* boshchiligidagi Afg'oniston harbiy kuchlarining inqilobiy kengashi Kobul ko'chalariga doimiy qo'shinning bir necha batalonlarini olib chiqdi.

1978-yil 28-aprel - Afg'onistonning respubtika deb e'lon qilinishi. *N.M.Tarakiy*ning davlat rahbari etib saylanishi.

1978-yil 30-aprel – Afg'oniston Demokratik Respublikasi (ADR) e'lon qilindi, Inqilobiy kengash va hukumat tuzildi. *N.M.Tarakiy* bosh vazir, *B.Karmal* esa uning



o'rinbosari bo'ldi. *A. Qodir* milliy mudofaa vaziri lavozimini egalladi. Yangi hukumat demokratik yer islohotlari loyihagini ishlab chiqdi. Yangi maktablar, turar joylar va ijtimoiy binolar qurilishi boshlandi. Sobiq qirol oilasining a'zolari, prezident *Doudga* tegishli barcha ko'chmas mulk va boshqa narsalar musodara etildi.

1978-yil 30-aprel – Afg'onistonda prezidentlik saroyini egalladi va Doud hukumati ag'darilganini e'lon qildi. Prezidentlik saroyi uchun bo'lgan janglarda uning yaqin safdoshlari qatorida *Muhammad Doud* va uning akasi *Sardor Nasim* o'ldirildi. Bu voqea tarixga "*Savr inqilobi*" (afg'on taqvim bo'yicha 1357-yil 7-savr) nomi bilan kirdi.

1978-yil 9-may - *A. Moroning* o'qdan ilma-teshik bo'lgan jasadini Rim markazida, XDP va IKP rahbar organlari joylashgan binolardan teng masofada turgan avtomobil yukxonasidan topildi. Bu uning mazkur partiyalar o'rtasidagi yaqiniashish va hamkorlik g'oyasini qo'llab-quvvatlashi o'limining chinakam sababi ekaniga to'g'ridan-to'g'ri ishora edi.

1978-yil 17-avgust – Afg'oniston hukumati respublikaga qarshi fitna fosh etilganini e'lon qildi. Parchamning ayrim yo'l boshchilari, shuningdek, *B. Karmal* ham qamoqqa olindi. U shundan keyinroq Pragaga elchi qilib yuborildi. *Abdul Qodir* va boshqa taniqli ijtimoiy-siyosiy arboblardan ham qamoqqa olindi. Ayni paytda AXDP rahbariyatining o'zida hokimiyat uchun keskin kurash boshlanib ketdi.

1978-yil sentabr boshi – Eronning qariyb barcha shaharlarida ommaviy namoyishlar bo'lib o'tdi. Tehron va boshqa 11 yirik shaharlarda harbiy holat joriy etildi.

1978-yil sentabr – har bir arab davlati uchun juda muhim bo'lgan arab-isroil mojarosida Saudiya Arabistoni ikkiyoqlama pozitsiyaga ega. U falastinliklarning Isroilga qarshi kurashida moddiy yordam ko'rsatadi, shuningdek, Yaqin Sharq mojarosi qatnashchilari – Misr, Suriya va Iordaniyaga ham yordam beradi, ayni paytda AQSh bilan arab-isroil mojarosini hal etishda hamkorlik qiladi, amerika diplomatlarini vositachi sifatida jalb etishga arab davlatlari roziligini olishga erishgan. Bu sa'y-harakatlarning natijasi AQSh prezidenti *J. Karter* vositachiligida Isroil va Misr o'rtasida erishilgan.

1978-yil sentabr – Kemp-Devida (AQSh) Misr prezidenti *A. Sadat* va Isroil bosh vaziri *M. Begin* o'rtasida imzolangan bitim butun arab dunyosida qoralandi. *A. Sadat*ning o'ldirilishi bu jarayonga chek qo'ydi.

1978-yil sentabr – Liviyada sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalar, ularda band bo'lgan ishchi va xizmatchilar qo'lga o'tdi. Ular o'z korxonalarini saylanadigan xalq qo'mitalari orqali boshqarishga kirishdi. Respublika rahbariyati aralash tipdagi iqtisodiyotni shakllantirdi. Unda quadratli davlat sektori barpo etildi, sanoatidan tashqari banklar, sug'urta kompaniyalari va yirik davlat qishloq xo'jalik birlashmalari, transport, tashqi savdo qurilish kompaniyalari kirdi.

1978-yil noyabr boshi – Eron shohiga qarshi norozilik chiqishlari yangi kuchga kirdi.

1978-yil 5-noyabr – butun Tehronni yong'inlar qoplab oldi. Shu kunlarda shohni faqat uncha katta bo'lmagan harbiy guruh va SAVAKgina qo'llab-quvvatlab turgani ma'lum bo'ldi.



1978-yil dekabr – I.Gandi parlament imtiyozlarini suiiste'mol qilganligi uchun hibsga olindi. U qamoqda atigi bir hafta bo'ldi va shuning o'zi mamlakatdagi ilgari obro'-e'tiborini tiklash uchun yetarli bo'ldi. Bundan tashqari *M.Desaya* hukumati mamlakatda barqarorlikni tiklash va inflyatsiyani qisqartirishga qodir emasligi ma'lum bo'ldi.

1978-yil dekabr – XKR MKning III plenumida Xitoyni modernizatsiyalash to'g'risida qaror qabul qildi. Islohotlarni amalga oshirish boshlandi. Chet el sarmoyalari oqimini barqarorlashtirish uchun mamlakatning janubiy chekkalarida bir qator maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Tashqi iqtisodiy sohada dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan hamkorlik qilishga mo'ljallangan "ochiq siyosat" olib borildi. Qishloqlarda dehqonlarga tomorqalar qaytarib berildi. Qishloq xo'jaligi dehqonlarga yetishtirgan ortiqcha mahsulotini sotish huquqini beruvchi xo'jalik pudratiga o'tdi.

1979-1980-yillar – *Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoni*y Islom inqilobiy kengashi tarkibiga kirgan.

1979-1980-yillar – *G. Singxning* Hindiston bosh vazirligi davri.

1979-1986-yillar – O'zbekistonda 12 mingta yangi, kabinalari maxsus jihozlangan paxta terish mashinasi ishlab chiqarildi.

1979-1989-yillar – *Humayniy Ruhollo Musaviy* Eron Islom Respublikasi rahbari va oyatullo (shialarning oliy ruhoniy unvoni).

1979-1990-yillar – *M.Tetcher* Buyuk Britaniyada Bosh vazir lavozimida.

1979-yil – *Ahmad Muhammad Bin Bella* Fransiyaga chiqarib yuborilgan.

1979-yil – Angliyada 3 mln. ishsizlar orasidan yarmi ishsizlik bo'yicha nafaqa olmas edi. Tez o'sib borayotgan inflyatsiya tufayli so'nggi 20 yil ichida aholi turmush darajasi eng quyi nuqtaga yetdi.

1979-yil – Angliyada ishsizlar soni 1935-yildan buyon 2 mln. kishiga yetdi.

1979-yil – AQShning astronomik xarajatlari 40,2 mlrd. dollarni tashkil etdi.

1979-yil – Buyuk Britaniyadagi parlament saylovlarida konservatorlar g'alaba qozongan bejis emas edi. Hukumat boshlig'i etib ilk bor ayol kishi – konservatorlarning yangi yo'l boshchisi Margaret Tetcher saylandi.

1979-yil – *Bxutto Zulfiqor Alixon* qatl qilindi.

1979-yil – Eronda yangi konstitutsiya qabul qilindi.

1979-yil – Isroilga qarshi kurash tashabbusini Iroq prezidentligiga saylangan *Saddam Husayn* o'z bo'yniga oldi.

1979-yil – Misr AQSh rahnamoligida separat (bir tomonlama) isroil-misr tinchlik shartnomasini imzoladi. Arab mamlakatlari bu bitim uchun *A.Sadatni* kechira olmadi, Misr bilan diplomatik munosabatlarni uzdi va mamlakat "Islom konferensiyasi tashkiloti"dan (IKT) chiqarildi.

1979-yil – O'zbekiston aholisining umumiy sonida o'zbeklar soni 68,7 % ni tashkil etdi.

1979-yil – O'zbekistonda ruslar soni 10,8 % ga tushdi. Qozoqlar esa 4 % ni tashkil etdi.

1979-yil – *Pahlaviy* sulolasi inqilob chog'ida ag'darilgan.

1979-yil – Pokistonda barcha siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlandi. Harbiy rejim ichki siyosat asosiga jamiyat hayotini har tomonlama islomlashtirishni kiritdi.



1979-yil – Sovet Ittifoqining Afg'onistonga bostirib kirishi yangi qarama-qarshilikni keltirib chiqardi. SSSRning bu harakatini AQSh mavjud kuchlar mutanosibligining buzilishi va Osiyo mintaqasida yangi platsdarmni egallash deb baholadi. Shu bois afg'on qarshilik ko'rsatish kuchlariga yordam bera boshladi.

1979-yil yanvar boshi – prezidenti *Karter* Eron shohini AQShga ta'tilga kelishga taklif etdi.

1979-yil 7-yanvar - Kampuchiyada "qizil kxmerlar" rejimi ag'darildi. *Pol-leng Sari* rejimi quladi.

1979-yil 16-yanvar – Eron shohi Eronni butunlay tark etdi.

1979-yil 11-fevral – Tehronda umumiy qurolli qo'zg'olon boshlandi. U shoh jo'nab ketgandan so'ng omma ustidan nazoratini yo'qotgan diniy doiralari buyrug'i va ishtirokisiz boshlandi. Qo'zg'olonni so'l kuchlar yo'l boshchilari – Tude partiyasi qoldiqlari va Eronda respublika tuzumini qaror toptirishga intilgan turli partiyalar vakillari ko'tardi.

1979-yil 12-fevral – Tehrondagi va Erondagi qo'zg'olonchilar tomoniga harbiy qismlar ham o'tdi. Inqilob g'alaba qozondi. Biroq qo'zg'olonchilar kurash olib borayotgan vaqtda shia yo'l boshchilari nafaqat shohga, balki so'l kuchlarga ham qarshi bo'lgan hukumatni shakllantirdi.

1979-yil 15-fevral – Tehronda *Oyatullo Humayniy* yetib keldi, u "islom inqilobi"ning yo'l boshchisi deb e'lon qilindi. U o'zini islom podshohligini o'rnatish uchun yuborilgan 12-imom (mahdi) deb e'lon qildi. Ruhoniyat hokimiyat organlarini to'liq o'ziga bo'sundirdi. Mamlakatda siyosiy hayot, ijtimoiy va oilaviy munosabatlar, ta'lim va boshqarishni islomlashtirish dasturi amalga oshirila boshladi.

1979-yil mart – *Hafizulla Amin* bosh vazir lavozimini egalladi.

1979-yil 26-mart – A.*Sadat* Isroil bilan muzokaraga kirishdi va Kemp Devidda (AQSh) o'zaro bitim imzolandi. Unga ko'ra, 1982-yil aprelgacha Isroil Sinay yarimorolidan o'z qo'shinlarini olib chiqib ketish majburiyatini oldi. Shundan so'ng Misr va Isroil diplomatik aloqalarni o'rnatishi, AQSh esa har ikki mamlakatga iqtisodiy yordam ko'rsatadigan bo'ldi. Arablar A.*Sadat*ning bu xoinligini kechirmadi.

1979-yil 26-mart – Vashingtonda Kemp-devid bitimi imzolandi.

1979-yil 1-aprel – Eron Eron Islom Respublikasi rasmiy nomini oldi.

1979-yil 4-may - *Margaret Tetcher* Buyuk Britaniya bosh vaziri etib saylandi.

1979-yil iyun – Rim papasi *Ioann Pavel II* Polshaga tashrifi chog'ida PBIP siyosatini keskin tanqid qilishi muxolifatni kuchaytirdi va jamiyatda keskinlikning yangi bosqichiga sabab bo'ldi.

1979-yil 16-iyul - *Saddam Husaynning* Iroq prezidenti etib saylanishi.

1979-yil sentabr – *Hafizulla Amin N.Tarakiy*ni zo'rlik bilan chetlatib, so'ngra esa o'ldirib, AXDP MK bosh kotibi va Inqilobiy kengash raisi lavozimlarini egalladi. Shu bilan Savr inqilobi tugadi. AXDP rahbariyati tor-mor etildi. Uning a'zolaridan ko'pchiligi jismonan yo'q qilindi. Mamlakatda terror va zo'ravonlik tuzumi o'rnatildi. Qatag'onlar Kobul tuzumiga qarshi kurashni kuchaytirishga imkon yaratdi. Muxolifatdagi unsurlar vaziyatdan unumli foydalandi. Savr inqilobiga qarshi chiqqanlarning ko'pchiligi (*B.Rabboniy, G.Hikmatyor, S.Mudjadaddiy*) hali



Zohirshoh va Doud hukmronligi yillaridayoq Afg'onistondan muhojirotga ketgan edi. Ular Pokiston, Saudiya Arabistoni va Misrda qo'nim topishdi.

1979-yil 16-sentabr - Afg'onistonda *X.Amin* hokimiyatni egalladi.

1979-yil oktabr – *Pak Chjoa Xi* o'ldirildi.

1979-yil noyabr – Eron Islom inqilobining g'alabasi AQShni Yaqin Sharqdagi muhim strategik joylardan mahrum etdi.

1979-yil 11-noyabr - Eronda islom inqilobi g'alaba qozondi. Shohlik rejimimga ag'darilishi.

1979-yil dekabr boshi – *H.Amin* isyonchilarga qarshi amalga oshirgan chora-tadbirlari yoki tayyorlanmagan yoki ishonchsiz bo'lib chiqdi. Afg'oniston hukumati faqat Kobul va bir necha shaharlarnigina nazorat etdi.

1979-yil 25-dekabr – Sovet Ittifoqi boshidanoq Afg'onistondagi inqilobni qo'llab-quvvatladi. U SSSRning global siyosatidagi muhim bo'g'in edi. Shu bois sovet rahbariyati qaltis qadam qo'yishga qaror qildi. afg'on askarlari kiyimini kiygan KGBning "Alfa" bo'linmasi prezidentlik saroyini ishg'ol etdi va *Hafizulla Amin* o'ldirildi. *B.Karmal* ADR prezidenti lavozimiga o'tirdi, u bundan bir necha kun avval Kobulga maxfiy ravishda qaytgan edi.

1979-yil 27-dekabr - *X.Amin* rejimining qulashi, mamlakal rahbari - *Babrak Karmal*.

1979-yil 28-dekabr – *B.Karmal* sovet rahbariyatiga Afg'onistonga qo'shin kiritish iltimosi bilan murojaat qildi, bu qo'shinlar oldindan tayyorlab qo'yilgan bo'lib, shu kuni chegarani kesib o'tdi. Bir necha kun mobaynida Kobulga 50 ming askar va zobitlar yuborildi.

1979-yil 28-dekabr - Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga olib kirilishi.

1979-yil oxiri – qurolli muxolifat guruhlari Afg'onistondagi 26 viloyatdan 18 tasida mavjud edi. Inqilobiy kengash davlat ustidan nazoratini yo'qotdi. Mujohidlar guruhlarining xatli harakatlari mamlakatga katta zarar yetkazdi, barcha demokratik o'zgarishlar barham topdi.

1980-yil-2-yarmi – milliy qo'shiqlar "sinfiylik"ka yot deb, madaniy merosga ijobiy munosabat esa millatchilik ko'rinishi sifatida talqin qilinishi O'zbekistondagi mafkuraviy rahbariyatning katta xatosi bo'ldi.

1980 -yil-o'rtasi – ozodlik g'oyasi millatchilik, SSSRni ichidan turib qo'porish tarzida baholangan.

1980-1981-yillar qish – Polshada hosilning yaxshi bo'lmaganligi va oziq-ovqat bilan bog'liq holdagi ahvolning yomonlashuvi norozilik to'loqini kuchaytirib yubordi.

1980-1984-yillar – *Indira Gandi* Hindiston Bosh vaziri.

1980-1985-yillar – O'zbekiston Fanlar akademiyasining mexanika va zilzilaga bardoshli inshootlar instituti olimlari tayyorlagan yechimlarni xalq xo'jaligiga tadbiiq etishdan ko'rilgan umumiy iqtisodiy samara 50 mln so'mni tashkil etdi.

1980-1985-yillar – Orol dengizining qurib borishi O'zbekiston uchun katta iqtisodiy zarar keltirdi. Amudaryo quyi oqimi mintaqasida baliqchilik, ondatrachilik, ovchilik xo'jaliklari deyarli yo'q bo'lib ketdi. Paxtachilik va choqvachilik har yili 30 mln so'mdan ortiqroq zarar ko'rdi.

1980-1987-yillar – janubiy Koreyada prezidentlik lavozimini *Chon Du Xvan* egalladi.



1980-1988-yillar – Eron va Iroq o'rtasidagi urush davri.

1980-1989-yillar – K. Evren Turkiya prezidenti.

1980-1992-yillar – AQSh Prezidenti konservatorlar, respublikachilar partiyasi vakillaridan saylandi.

1980-1995-yillar – *Karamanlis Konstantinosning* Gretsiyada prezidentligi.

1980-yillar boshi - kompyuterlar endi hayotning barcha sohalarida foydalaniladigan bo'ldi. Tez orada odam uchun hamma ishlarni qiladigan kompyuter-robotlar yaratildi.

1980-yillar boshi – Mirzacho'l hududida 300 ming gektardan ortiq qo'riq yerlar o'zlashtirildi va Mirzacho'l yirik paxtachilik vohasi bo'lib qoldi. Yangi o'zlashtirilgan yerlarda Sirdaryo va Jizzax viloyatlari, Paxtakor, Ilich, Do'stlik, Arasoy, Oqoltin, Mehnatobod kabi yirik paxtachilik tumanlari, 50 ta yangi sovxozlar, Yangiyer, Guliston, Paxtakor, Do'stlik, Baxt, Shirin shaharlari vujudga keldi.

1980-yillar boshi – Toshkent va Samarqand shaharlaridan tikuvchilikni ishlab chiqarish 60 % ini tashkil qilsa, 27 % i Andijon, Buxoro, Namangan, Qo'qon shaharlariga to'g'ri kelgan Jizzax va Termiz shaharlarida birorta ham tikuvchilik korxonasi yo'q edi.

1980-yillar boshi – iqtisodiyot o'ta og'ir ahvolda qoldi. Neft qazib chiqaruvchi mamlakatda benzin, mazut, kerosin, mashina moyiga o'tkir yetishmovchilik yuzaga keldi. Qarzlarni to'lash hisobiga chetdan keltirilgan eksport sanoat va oziq-ovqat tovarlari ichki bozorni inqirozga olib keldi. Mamlakatda uy-joy yetishmasligi o'tkir sezildi.

1980-yillar boshi – O'zbekisotnda bir yilda yetkazib beriladigan oltinning o'zi 50 tonnani tashkil qilardi.

1980-yillar boshi – O'zbekistonda yengil sanoat korxonalarining 66 ta filiali qurildi. Ishga tushirilgan Beruniy, To'rtko'l, Xo'jayli yigiruv-tikuv fabrikalari o'z quvvatining 30-40 % darajada ishladi. Kombinatda iqtisodchilar uchun belgilangan o'rinlarning yarmi bo'sh edi, ayni paytda 12 mingga yaqin iqtisodchi boshqa sohalarda ishlardi. Sanoat korxonalarida muhandis-texnik xodimlar yetishmagani holda, 37 ming muhandis va texniklar ishchilar qatorida mehnat qildilar.

1980-yillar boshi - rahbarlikning barcha darajalarida kadrlarda Markaz buyrug'iga so'zsiz itoat qilish tuyg'usi g'oyat kuchaydi, markazdan bo'lgan har bir qo'ng'iroq markazning "otalarcha g'amxo'rliklari", "amaliy yordami" sifatida qabul qilinadigan, ayni chog'da markazdan bo'lgan asossiz ko'rsatmalar esa so'zsiz bajariladigan holat vujudga keldi.

1980-yillar boshi – Sotsialistik tuzum avtarkiya (zarur narsalarni chetdan olmasdan o'zi yetkazishga asoslangan milliy xo'jalik tizimi) tarafdori bo'lib, bunda xo'jalik yuritish tizimi biqiq holda qoladi va bozor iqtisodi uchun xos tabiiy integratsiya jarayonlarini bo'g'ib qo'yadi. Shu bois tez orada tizimning o'zi ishdan chiqdi va bu mamlakatlarning rivojlanishi sustlashib ketdi. Butun sotsialistik tizim iqtisodi inqirozga uchradi va qayta bu inqirozdan chiqib keta olmadi. Bu – sotsialistik tizimning talvasasi edi. SSSRdagi iqtisodiy inqiroz ushbu jarayonni tezlashtirdi. Markazlashgan rejalashtirish va ma'muriy-buyruqbozlik uslublariga asoslangan iqtisodiy tizim inqiroziga uchradi.



1980-yillar boshi – Sovet jamiyatida ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar bo'lishiga umidning so'nishi kuchayib bordi. Buning oqibatida, bir tomondan, ma'muriy-siyosiy biqlik kuchaygan bo'lsa, boshqa tomondan, jamiyat a'zolari mehnat intizomining pa-sayishi, ijtimoiy loqaydlik, befarqlik kuchayib bordi. O'zbekiston iqtisodiyoti katta xom ashyo, iqtisodiy zaxiralarga ega bo'lishiga qaramasdan g'arb mamlakatlaridan juda tez ortda qola boshladi. Ishlab chiqarish sama-radorligi pasaydi, kishilarda jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy voqea va hodisalarga qiziqish kamaydi, yangi texnika hamda texnologiyalarni o'zlashtirish juda sust olib borildi.

1980-yillar boshi – sovet mustabid siyosiy tizimi xo'jalik yuritish usuli o'zining rivojlanish imkoniyatlarini matamom tugatildi.

1980-yillar boshi – Yugoslaviyada sanoat rivojlanishi sur'atlari susaydi, biroq yugoslav sanoat mahsulotining sifati oshdi va mamlakat Yevropadagi iqtisodiy munosabatlarda sezilarli rol o'ynadi.

1980-yillar o'rtasigacha - kiyim-kechaklarga bo'lgan aholi ehtiyojining chorak qismi, trikotaj va ip gazlamalarga ehtiyojning uchdan biri, poyafzalga bo'lgan ehtiyojning deyarli yarmi chetdan keltirish hisobiga qondirilardi.

1980-yillar o'rtasi – boshlangan qayta qurish jamiyat hayotida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Sobiq ittifoq va O'zbekiston o'zgarib ketdi. Qayta qurish, jadallashtirish shiori ostida boshlangan jarayonlar milliy o'zlikni anglashning yuzaga kelishiga turki bo'ldi. Pirovard natijada u mustaqillik, istiqloq g'oyalarning ustuvor ahamiyatga ega bo'lishiga olib keldi. Mustaqillik, istiqloq kabi muqaddas so'zlar avval juda ehtiyotkorlik bilan e'tirof etilsa, so'ngra u ochiqdan-ochiq amalga oshirilishi shart bo'lgan muammo sifatida kun tartibiga qo'yildi.

1980-yillar o'rtasi – boshlangan xalq maorifidagi islohotlar mavjud muammolarni xalq ko'zidan yashirishga urinishdan bo'lak narsa emasdi. Islohotdan ko'zlangan maqsad “Sovet tizimi”ni yuqora darajada ko'tarish va ta'limni demokratlashtirishdan iborat edi.

1980-yillar o'rtasi – Diniy, millatchilik yorliqlari yopishtirilgan va o'rganishi taqiqlangan milliy xarakterdagi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy voqea, hodisalar allomalar faoliyatini tadbiiq etishga bir oz erkinlik berildi. Natijada islom dini, uning ahamiyati, so'fiylik, tasavvuf masalalariga oydinlik kiritila boshlandi. O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi, jadidchilik harakati, oktabr to'ntarishi, “bosmachilik” (istiqloqlolchilik), “Hujum” harakati, sovet davrining boshqa masalalari yangicha tafakkur asosida talqin etila boshlandi. Mazkur davrda *Abdulla Qodiriy*, *Cho'lpon*, *Fitrat*, *Usmon Nosir*, *Shayxzoda* va boshqalarning millatchilikda, panisломizm va panturkizmda ayblanib, qatag'on qilinganliklarining tub sabablari ochib tashlandi. O'zbekistonda siyosiy qatag'on qilinib qatl etilgan va qamoqlarga tashlangan xalqimizning asl farzandlari oqlandi. “Chig'atoy gurgungi”, “Milly Ittihod”, “Milliy istiqloq”, “Botir gapchilar” singari “aksilinqilobiy guruhlar” vakillari nohaq ayblanganliklari fosh bo'ldi. 1937-1939-yillar orasida O'zbekiston ichki ishlar xodimlari tomonidan qamoqqa olinib otib tashlangan 6920 ta ziyolilarning qatag'on qismati o'rganildi, keyinchalik ular oqlandilar.

1980-yillar o'rtasi – Ittifoq bo'yicha har bir o'rinni uskunalar bilan taminlashga



o'rta hisobda 4 ming so'm sarflandi. O'zbekistonda 3 ming, Buxoro, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida esa 2 ming so'mni tashkil etdi. Germaniya va Chexoslovakiya kabi mamlakatlarda esa bu sarf-xarajatlar 10-15 ming so'mgacha borar edi.

1980-yillar o'rtasi – milliy daromad ishlab chiqarish, meknat unumdorligini oshirish kabi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston boshqa respublikalardan ortda qolardi.

1980-yillar o'rtasi – O'zbekiston aholisining o'rta hisobida go'sht, sut mahsulotlari, tuxum istemol qilishi umumittifoqdagi o'rtacha ko'rsatkichlardan 2 baravar past edi.

1980-yillar o'rtasi – O'zbekiston o'rta maxsus o'quv yurtlarida 282 ming nafar o'quvchi ta'lim oldi.

1980-yillar o'rtasi – O'zbekiston shaharlardagi kunduzgi umumta'lim maktablaridagi o'quvchilarning 80 % ga yaqini oliy malumotli edi.

1980-yillar o'rtasi – O'zbekiston xalqlari orasida jiddiy qo'zg'alish, ruhiy-siyosiy ko'tarilish sodir bo'ldi. Bunga sabab qayta qurish siyosati edi. Biroq kuch moliyaviy asosga, ilmiy asoslangan konsepsiyaga muhtojlik oqibatida xalq qayta qurishdan beza boshladi. Bularning barchasi keyinchalik uning salbiy oqibatlarini namoyon qildi.

1980-yillar o'rtasi – O'zbekistonda 90 ming tonna pestitsidlar qishloq xo'jaligida qo'llanildi. Zaharli moddalar bilan ishlab berish maydonlarning taxminan yarmida samolyotlarda bajarildi. Zaharli moddalarning paxta dalalariga samolyotda sepilishi havoni, suvni zaharlab, aholi salomatligiga, tabiatga, hayvonot dunyosiga zarar yetkazdi.

1980-yillar o'rtasi – O'zbekistonda boshlangan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy uyg'onish sovetlar ma'muriy-buyruqbozlik tizimining salbiy, aksilinsoniy tomonlarini ochib tashladi.

1980-yillar o'rtasi – O'zbekistonda jamiyat iqtisodiy holatida suslashtirish mexanizimi to'la shakllanib bo'ldi. Uning mohiyati mavjud ijtimoiy-siyosiy holatda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni jadallashtirish orqali kam xarajatlar bilan qisqa muddatda iqtisodiyotni ko'tarishdan iborat edi. Ayni paytda asosiy mablag'ni texnik qayta qurish, harakatdagi korxonalarni modernlashtirish, yangi qurilayotgan obyektlar uchun mablag' hajmini qisqartirish ko'zda tutildi.

1980-yillar o'rtasi – O'zbekistonda paxta dalalariga sepilgan kimyoviy moddalardan zaharlanish natijasida aholining zaharlanishi 80 % ga yetdi.

1980-yillar o'rtasi – O'zbekistonda qayta qurish tufayli teatrdagi real hayotga murojaat qilish hollari ko'rina boshladi. *Shukrullo, Said Ahmad, Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov*larning asarlarida ma'muriy-buyruqbozlik davrida respublikada paydo bo'lgan nosog'lom muhitni yoritishga, xalq tarixi, paxta yakkahokimligi, ekologik muammolar kabi ijtimoiy masalalarga keng o'rin berildi. Ayniqsa, *Izzat Sultonning "Abdulla Qodiriyning o'tgan kunlari", Sharof Boshbekovning "Temir xotin"* asarlari shuhrat qozondi. Shuningdek, Surxondaryo, Qo'qon, Namangan teatrlarida ham mukammal asarlar sahnaga qo'yildi. Qashqadaryo viloyati musiqali va drama teatrida vujudga kelgan axloqiy-ruhiy holat natijasida mazkur



teatrdan yosh, iqtidorli rejissyor *A.Abdunazarov* boshchiligida bir guruh ajralib chiqib “Muloqot” teatr studiyasini tashkil etishi, iqtidorli rejissyor *B. Yoʻldoshev* bilan birga bir guruh yosh, isteʼdodli aktyorlarning Hamza teatridan “Yosh gvardiya” teatriga oʻtib ketishi teatr sanʼatida demokratik jarayonlarning boshlanganidan dalolat beradi.

1980-yillar oʻrtasi – Oʻzbekistonda xalq xoʻjaligini boshqarishdagi qattiq markazlashuv milliy oʻzlikni anglashning millatchilik bilan tenglashtirilishi, milliy til, tarix, urf-odatlariga yetarli etibor berilmasligi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy, baynalminal va milliy manfaatlarining inkor etilishi avj oldi.

1980-yillar oʻrtasi – Oʻzbekistondagi aholini tabiiy gaz bilan taminlash miqyosi 20 % ga yaqinni, yetishtiriladigan paxtaning atigi 10 % igina Oʻzbekistonda qayta ishlangan. Qolgan qismi esa ittifoqning sanoat markazlariga joʻnatilardi.

1980-yillar oʻrtasi – Oʻzbekistondagi mashinasozlik, metal ishlash va ogʻir sanoatning boshqa tarmoqlarida umumiy ishchi va xizmatchilarning 25-30 % igina milliy kadrlar edi.

1980-yillar oʻrtasi – SSSR ning parchalanishi real obyektiv haqiqatga aylanib qoldi.

1980-yillar oʻrtasi – yillik mehnat haqi ittifoq boʻyicha 2200 soʻmni Oʻzbekistonda esa 1753 soʻmni tashkil etardi, yaʼni 21 % kam edi.

1980-yillar oʻrtasi - 20 ming kompyuter robotlari ishladi. Kompyuterlar shaxmat oʻynash, sheʼr yozishga oʻrgandi. Ular inson aqliy rivojlanishining muhim qismi boʻlib qoldi.

1980-yillar oʻrtasi – Oʻzbekistonda aholining zichligi ittifoqdagi oʻrtacha darajadan 3,3 baravardan ham ortiq edi.

1980-yillar oʻrtasi – Oʻzbekistonda Ittifoq tasarrufidagi korxonalar jami korxonalarining 31 % ini tashkil etgan boʻlsa, 61 % i Ittifoq-respublika vazirlik va idoralarda, faqat 8 % i bevosita, respublika va mahalliy sanoat boshqarmalariga tegishli edi.

1980-yillar oʻrtasi – Oʻzbekistonda shaharlar soni 123 taga yetdi. Ularning uchdan ikki qismi respublika yer osti boyliklarini ishga solish va yangi yerlarni oʻzlashtirish tufayli vujudga keldi. Ularning aksariyatiga mahalliy boʻlmagan millatlar vakillari kelib joylashdilar.

1980-yillar oʻrtasi - ruslar til, madaniy, ijtimoiy-siyosiy masalalarda koʻproq imkoniyat va imtiyozlarga ega milliy respublikalardagi millatlararo munosabatlarning keskinlashuviga, mahalliy millat aholisida norozilikning kuchayishiga, milliy oʻzlikni anglash jarayonining oshishiga, pirovard natijada SSSRning parchalanishiga olib keldi.

1980-yillar oxiri – dunyoda 145 ta mustaqil davlat boʻlgan.

1980-yillar oxiri – dunyoning butun mashinasozlik ishlab chiqarishida AQShning ulushi 34 % boʻlsa, 2-oʻrindagi Yaponiyaning ulushi 17 % ni tashkil etgan. Avtomobil sanoati tubdan rekonstruksiya qilindi. AQSh, mahsulotni avtomatlashtirish loyihalash tizimi va robotexnik komplekslarni keng tatbiq etishdan foydalangan holda, avtomobillar ishlab chiqarish sohasidagi 1-likni oʻziga qaytib oldi.



1980-yillar oxiri – KXDRning iqtisodiy o'sishi tez bo'lmasa ham barqaror va mustahkam edi. Yalpi milliy mahsulot o'sishi yiliga 3-5 foizni tashkil etdi. Biroq Sovet Ittifoqining barham topishi va yordamning to'xtatilishi uning iqtisodiyotiga katta zarar keltirdi. To'liq bozor munosabatlariga o'tgan XXRdan ham yordam kelmay qoldi KXDR iqtisodiyotida og'ir ahvol yuzaga keldi.

1980-yillar oxiri – *Lex Valensa* siyosiy muxolifatning eng faol arboblardan biri.

1980-yillar oxiri – O'zbekiston ijtimoiy xayotida jonlanish boshlandi. Odamlar xilma-xil fikrlar bildirish, dillaridagini oshkora ayta olish imkoniyatiga ega bo'la boshladilar. O'zbek xalqining dilidagi g'oya – mustaqillik g'oyasi edi, xalq mana shu g'oyani ko'tardi. Mustaqillik uchun harakatda yangi to'lqin boshlandi. Ammo yurtimizda hukmron bo'lgan Markazdan yuborilgan "kadrlar to'dasi", ularning qosh-qovog'iga qarab ish yuritadigan ayrim mahalliy o'z rahbarlar bu g'oyaga, uni amalga oshirishga to'sqinlik qildilar. Milliy qadriyatlarimizga nisbatan yana qatag'onlik uyushtirildi, to'qib chiqarilgan "paxta ishi" bahonasi bilan 10 minglab kishilar jinoiy javobgarlikka tortildi va ularning aksariyati qamaldi. Tarix taqazosi bilan elim, yurtim deb yonib yashayotgan *Islom Karimov*dek fidoyi insonning O'zbekistonning 1-rahbari lavozimiga saylanishi bu sohadagi adolatsizliklarga barham berilishiga olib keldi, adolat tiklandi.

1980-yillar oxiri – O'zbekistonda 100 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilib, ularning 71,4 % ini o'zbeklar tashkil etgan. Biroq 8,2 foizni tashkil qilgan ruslar til, madaniy, ijtimoiy-siyosiy masalalarda o'zbeklarga qaraganda ko'proq imkoniyat va imtiyozlarga ega edilar.

1980-yillar oxiri – O'zbekistonda yana bir guruh kishilar oqlandi. Lekin ularni oqlash kommunistik mafkura talablari ostida amalga oshirilib, bu jarayon oxiriga yetkazilmadi. Buning ustiga ularni oqlash yangi kishilarni qatag'on qilish bilan bir paytda amalga oshirildi.

1980-yillar oxiri – hayotning o'zi mamlakat xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishni kun tartibiga qo'ydi va uning huquqiy asoslarini yaratishni zaruratga aylantirdi. Biroq bu davrda iqtisodiyot orqaga qarab keta boshladi va xalqning turmush tarzi, sharoiti tobora yomonlasha borayotgan edi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tanazzulga yuz tutardi. Bu holatni SSSR ijtimoiy-siyosiy hayotida vujudga kelgan uchta yo'nalishdagi kuchlar - totalitarizm (*N.Rijkov* va *V.Pavlov*), burjuacha transformatsiya (*S.Shatalin*) va sotsialistik (*M.Gorbachev*) yo'nalishdagi demokratik kuchlar to'qnashuvi yanada chuqurlashtirmoqda edi.

1980-yil oxiri – O'zbekistondagi jinoiy muhitning keskinlashganligi va jinoyatlarning yangi uyushgan, qurollangan va giyohvand moddalar bilan bog'liq turlari ko'payganligi jinoyatchilikka qarshi kurashda keskin choralar ko'rishni taqazo etdi.

1980-yil oxiri – respublika rahbariyatining O'zbekistonning siyosiy suverenitetini ta'minlashga qaratilgan qat'iy pozitsiyasi *I.A.Karimov* tomonidan shu kundan boshlab bir necha marta ko'ndalang qilib qo'yildi.

1980-yil oxiri – Vengriya tub o'zgarishlarga kirishishga jur'at etmadi.

1980-yil oxiri – Yugosiaviya iqtisodiyoti yangi inqirozga duch keldi.

1980-yil oxiri – O'zbekistonda iqtisodiy va siyosiy suverenitet uchun qadam-baqadam chora-tadbirlar ko'rildi.



1980-yil 1-yarmi – O‘zbekistonda fan orqali xalq xo‘jaligida muayyan ijobiy siljishlarga erishilgan bo‘lsada, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalarini rivojlantirish, zamonaviy serunum mashina va asbob-uskunalarni, xalq iste‘moli mollari va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasidagi qoloqlik chuqurlashdi. Respublika iqtisodiyoti bir yoqlama tarzda xom ashyo yetishtirishga yo‘naltirildi, fan va texnika yutuqlari, yangi texnologiyalar deyarli joriy qilinmadi

1980-yil 1-yarmi – Chexoslovakiyada iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish uchun fan-texnika inqilobi yutuqlaridan foydalanishga urinishlarga qaramay, vaziyat yomonlashdi. Korxonalarni modernizatsiyalash jarayoni sekin bordi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati oshmadi, Chexoslovakiya o‘z an‘anaviy bozorini yo‘qota bordi.

1980-yil 2-yarmi - O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy o‘zgarishlar, ayniqsa, jamoat tashkilotlarining faollashuvi, siyosiy madaniyatining keskin ko‘tarilishi yuz berdi.

1980-yil 2-yarmi – sobiq SSSR hududida jumbushga kelgan siyosiy vasvasalar va demokratiya o‘yinlari natijasi o‘laroq O‘zbekistonda “*Erk*” demokratik partiyasi, “*Birlik*” va boshqa norasmiy harakatlar vujudga kelgan edi. Ular o‘z maqsad va intilishlari bilan mavjud siyosiy rejimga, 70 yil mobaynida xalq boshiga keltirilgan kulfatlarga qarshi edilar. Mazkur guruhlar ma‘muriy-buyruqbozlik usuliga asoslangan davlat boshqaruviga, yakkahokimlik va g‘oyaviy hukmdorlik egariga minib olgan kommunistik mafkuraga qarshi holda faoliyat ko‘rsatdilar.

1980-yil 2-yarmi – iqtisodiyotda qayta qurish O‘zbekistonda eng asosiy vazifa sanalardi.

1980-yil 2-yarmi – O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanish davri bo‘ldi.

1980-yil 2-yarmi – O‘zbekistonda mustaqillik g‘oyalari oshkor ravishda bayon etish imkoni vujudga keldi.

1980-yil 2-yarmi – O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy voqelik, xalq milliy ongining keskin ravishda o‘sishi jamiyat azolarining ijtimoiy faolligini oshirib yubordi.

1980-yil 2-yarmi – GFRda iqtisodiy sur‘at pasayishi boshlandi.

1980-yil 2-yarmi – iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy muammolarni hal etishdagi quvvsizlik demokratik jarayonlar va oshkoralikning yarim yo‘lda qolib ketishi bularning barisi jamiyat azolarida qayta qurishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirdi.

1980-yil 2-yarmi – mustaqillik arafasida, sobiq Ittifoq hududida, O‘zbekistonda ham vujudga kelgan demokratiya o‘yinlari natijasi bo‘lmish terorizm yillar o‘tgan sari faoliyat doirasini, shaklini, ta‘sir etish yo‘llarini o‘zgartirib turdi. Mazmun-mohiyati o‘sha-o‘shalgicha qolaverdi – qon to‘kish, zo‘ravonlik yo‘li bilan hokimiyat tepasiga chiqib olish! O‘zlarining qabih niyatlariga erishish uchun hech narsadan tap tortmaydigan, jirkanch maqsadlari yo‘lida millionlab begunoh kishilar yostig‘ini quritishdan toymaydigan, fikrlashdan uzoq bo‘lgan kishilar guruhi ayni ana shunday yo‘l tutadi.

1980-yil oxirl 1990-yil boshi – demokratiya o‘yinlari avj olgan paytda bir guruh kishilar o‘zlarini turli tomonga urishdi. Muxolifat deb atalgan bu guruhlarni muxolifatchilar emas, balki hayotdan norozilar, deb atash mumkin. Prezident



Islom Karimov *"Biz rasmiy hokimiyat bilan g'oyaviy va amaliy jihatdan raqobatlasha oladigan, amaliy takliflar kirita biladigan, jamiyatimizning turli siyosiy qatlamlari manfaatlarining ifodachisi tariqasida maydonga chiqa oladigan muxolifatni ko'rishni istaymiz"*, - debgan edi.

1980-yil oxirl 1990-yil boshi - SSSRda vujudga kelgan inqirozdan qutulish, hokimiyatni markazdan saqlab qolish tarafdorlari o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun ommaviy axborot vositalari, SSSR xalq deputatlari syezdi va Oliy Sovet sessiyasi minbarlaridan keng foydalandilar. Hatto, g'ayrikonstitutsiyaviy yo'llar orqali davlat to'ntarishi qilish bilan bo'lsa-da, barcha huquqni Markazda to'plash, davvalgi ma'muriyat buyruqbozlik usulini saqlab qolishga harakat qilaverdilar.

1980-yil oxirl 1990-yil boshi – xalqni yangi yo'ldan boshlab borish, uning qarashlari va orzu-maqsadlarini bir yo'nalishga burish, kuchlarni uyg'unlashtirish uchun mafkura zarur edi. Negaki odamlar jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar shiddati oldida birmuncha gangib qolishdi. Turli safsatalar, xattl harakatlar, "g'oyaviy" kurashlar, "xonaki" va ajnabiy siyosatdonlar ko'payib ketdi. Bir maromdagi turmush va bir qolipdagi fikrlash tarsi buzilib, sarosimalik, to'qnashuvlar va parokandalik kayfiyatlari kuchaya bordi. Ana shunday paytda umumxalq va umumdavlat manfaatlariga mos keladigan eng maqbul yo'lni tanlash, buning uchun esa mafkuraviy yakkahokimlikka barham bergan holda aholining barcha tabaqalari qatlamlarini, talab-ehtiyojlarini, ma'naviy-ruhiy chanqoqligini qondira oladigan yetuk va barkamol g'oyani yaratish zarur edi.

1980-yil oxirl 1990-yil boshi – ro'y bergan jahondagi iqtisodiy pasayish Misrni arab mamlakatlari, Afrika va Sharqiy Yevropadagi an'anaviy bozorlaridan mahrum bo'lishga olib keldi. Mamlakatda 60 milliard dollarlik ulkan tashqi qarz yuzaga keldi. Ular bo'yicha Misr har yili 10 milliard dollar foizlarni to'laydi. Mamlakat importi 12, eksporti 4,5 milliard dollarni tashkil etadiki, bu yillik balans kamomadi 4,5 milliard dollarni anglatadi demakdir. Qarzning bir qismini hukumat sayyohlik va Fors qo'ltig'iga ishga jo'nagan misrliklarning pul tushumi hisobiga qoplaydi. iqtisodiy ahvol yildan-yilga yomonlashmoqda. Narxlar har yili o'rtacha 12-15 foizga o'smoqda. Biroq neft va paxtaga jahon narxlarining tushib ketishi Misr iqtisodiyotini chuqur inqirozga olib keldi, "sovuq urush"ning tugashi Misrning xalqaro munosabatlardagi ahamiyatini pasaytirdi.

1980-yil oxirl 1990-yil boshi – markaz va ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, markaziy hokimiyatning obro'yi pasayib ketdi. Siyosiy, iqtisodiy va xo'jalik hayoti boshqarilmay qoldi. Oqibatda turmushning barcha sohalaridagi salbiy ahvoldan xalqning kun sayin noroziligi ortib, turmush darajasi yomonlasha boshladi. Ishlab chiqarish va mehnat intizomi izdan chiqdi. Bu xol tabiiy ravishda xalqning ko'zini ochdi, endi u eskicha buyruqbozlik usulini qabul qila olmay qoldi. SSSR Oliy Soveti ham, SSSR Prezidenti va Hukumati ham inqiroziy holatdan chiqishning yo'lini topa olmay qoldi.

1980-yil oxirl 1990-yil boshi – O'zbekiston dadillik bilan iqtisodiy mustaqillik va siyosiy suverenitetni qo'lga kiritish uchun amaliy harakat qila boshladi. Ayni chog'da O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi va siyosiy suverenitetini



ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratish uchun ham aniq choralar ko'rildi. Bu borada xalqning hohish-irodasi hisobga olindi.

1980-yil – *Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoni*y Islom kengashi raisi.

1980-yil – Angliya o'zining neft va gazga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirdi.

1980-yil – Angliyada ishsizlar soni 3 mln. kishiga yetdi.

1980-yil – AQSh saylovlarida g'alaba qozongan *Ronald Reygan* neokonservatizm yo'l boshchisi bo'ldi. U mamlakat tarixidagi eng keksa prezident edi, chunki u prezidentlik o'ringiga o'tirganda 70 yoshda bo'lgan.

1980-yil – AQShning harbiy xarajatlari 134 mlrd. dollarni tashkil etdi.

1980-yil – AQShning yangi hukumat harbiy xarajatlarni keskin oshirdi. Ular record darajasiga, ya'ni 130 mlrd. dollarga o'sdi. Siyosiy doiralarda "yangi konservatizm" deb nomlangan yangi qudratli harakat shakllandi. Davlatning ijtimoiy xarajatlarini qisqartirish va harbiy xarajatlarni oshirishga intilish uning asosiy ko'rinishlaridan biri bo'ldi.

1980-yil – ARAMKOning yagona egasi Saudiya Arabiston bo'ldi.

1980-yil – avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha Yaponiya jahonda birinchi o'ringa chiqib, AQShni quvib o'tishga erishdi. Yaponiya robot texnikasi, maishiy texnika va optika, rangli televizor, videotexnika va radiopriyomniklar, magnitofon va konditsionerlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Ayniqsa, raqamli dasturiy boshqaruv va avtomatlashtrilgan tizimiga ega stanoklar, shuningdek, robotmanipulyatorlar ishlab chiqarish juda tez o'sa boshladi. Mamlakat iqtisodining zamonaviy shart-sharoitlarga moslashishida davlat boshqaruvi muhim rol o'ynaydi. Norentabelli tarmoqlarni qisqartirish va modernizatsiyalashtirish, nisbatan raqobatbardosh korxonalarini tanlab olish uning strategik yo'nalishini tashkil etdi. Shuningdek, davlat korxonalarining qo'shilishini, nisbatan katta va rentabelli korxonalarini yiriklashtirishni rag'batlantirish chora-tadbirlarini ko'rdi.

1980-yil – Eronda prezidentlikka va Islom kengashi majlisiga ilk saylovlar bo'lib o'tdi. Konstitutsiyaga muvofiq, mamlakatning oliy siyosiy va ruhoniy rahbari hokimiyatning barcha organlari faoliyatini nazorat etuvchi va Eronning umrbod hamda yakkeyu yagona hukmdori bo'lgan *Oyatullo Humayni*y edi.

1980-yil – fransuz yozuvchisi *Andre Morua* "*Uch Dyuma*" va "*Adabiy portretlar*" asarlarini e'lon qildi. "*Adabiy portretlar*"da adib Volterdan tortib Anatol Fransgacha bo'lgan 14 nafar ulug' fransuz yozuvchilarining hayot faoliyatini tasvirlab bergan.

1980-yil – harbiy xunta yangi Konstitutsiyani qabul qildi. General *Pinochet* mamlakat prezidenti etib tasdiqlandi, biroq xunta yetti yil davomida mamlakatda siyosiy hokimiyat haqida plebissit (umumxalq ovozigiga qo'yish) o'tkazish majburiyatini oldi.

1980-yil – insoniyat har yili qurollanish uchun 600 mlrd dollarni sarf etdi. Qurollanish poygasi dunyo xo'jaligi rivojlanishiga ulkan zarar yetkazdi, insoniyat salomatligiga zarar keltirdi. Har yili yuzlab yadro qurollari sinovdan o'tkazildi va yadroviy changlar barcha qit'alar bo'ylab atmosferaning yuqori qatlamlariga tarqaldi. Bu hol xavfli kasalliklarning tarqalishi va tuproqning buzilishiga olib keldi.



1980-yil – O'zbekistonda aholi boshiga 873 so'm real daromadlar to'g'ri keldi.
1980-yil – O'zbekistonda 1 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida o'lim har ming bolaga nisbatan 46,5 nafarga yetdi.

1980-yil - O'zbekistonda 33,9 milliard kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan.
1980-yil – O'zbekistonda 83 nomdagi chop etilgan jurnallarning 48 tasi rus tilida edi.

1980-yil – O'zbekistonda paxta yetishtirish 492 ming tonnaga yetkazildi.

1980-yil – paxta maydonining salmog'i O'zbekiston bo'yicha o'rtacha 75 % ga yetdi. Jizzax viloyatida u deyarli 80 % ni, Andijon viloyatida 80 % dan ko'proqni tashkil etardi.

1980-yil – SSSR 7 milliard dollarlik oziq-ovqat mahsulotlarini sotib oldi.

1980-yil – SSSRda boshlangan iqtisodiy va siyosiy tanglik sotsialistik lagerdagi ahvolni og'irlashtirib qo'ydi

1980-yil – SSSRda ishlab chiqarish sur'atlari atigi 2 foizni tashkil etdi. Tugallanmagan qurish obyektlari ko'payib ketdi.

1980-yil - xitoylik yozuvchilarning faolligi kuchaydi. Keyingi yillarda qahramonlarning boy ruhiy holatlari aks etgan ko'plab asarlar yaratildi. Ular qatorida *Chjan Szening* "Og'ir qanotlar", *Ke Yunluning* "Tun va kun", *Li Sun Baoning* "Tog'lar orasidagi o'n to'qqiz mozor" kabi asarlarini sanab o'tish joiz. Ushbu asarlar ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan bo'lib keng jahon jamoatchiligiga zamonaviy Xitoy madaniyatini targ'ib qilishga yordam berdi.

1980-yil yanvar – *Indira Gandi* va HMK yana hokimiyatga qaytdi. Hukumat qisqa vaqt ichida mamlakatda tartib o'rnatdi, biroq oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan narx-navoni to'xtatib qola olmadi. Davlat yaxlitligiga raxna soluvchi etnik separatizmning kuchayishi asosiy muammo bo'lib qolaverdi.

1980-yil yanvar oxiri – Kobulga 85 mingdan ortiq qo'shin sovet rahbariyati tomonidan yuborildi. Bu hol vaziyatni o'zgartirib yubordi: inqilobiy tuzumga qarshi kurash vatanparvarlik milliy-ozodlik urushiga aylanib ketdi.

1980-yil 1-yanvar – Bolgariya sanoatida korxonalar sanoat boshqaruvini markazlashtirmaslik va liberallashtirishga yo'naltirilgan yangi iqtisodiy tizim joriy etildi. Yangi tizim bo'yicha rejalashtirish organlarining roli qisqartirildi va sanoat korxonalarining ish darajasi ko'rsatkichlari daromadlar bo'lib qoldi. Joriy etilgan yangi qoidaga ko'ra mahsulot sifati va ilmiy-texnik yangiliklar rag'batlantirilar edi. Ish haqi miqdori korxonalar oladigan foydaga bog'liq bo'lib qoldi. Biroq, davlat korxonalar ishlariga haddan ziyod aralashar edi.

1980-yil fevral – *Xodi Nuira* vafot etgach, yangi bosh vazir *Muhammad Mazati* liberal islohotlar bilan ahvolni o'nglashga urindi, biroq bu yetarli naf bermadi.

1980-yil 18-aprel - Rodeziyaning Zimbabve mustaqil respublikasi deb e'lon qilinishi.

1980-yil 4-may – *Broz Tito* losif 88 yoshda vafot etib, o'zidan so'ng og'ir meros qoldirdi. Yugoslaviyadagi siyosiy vaziyat ko'p jihatdan prezident *I.Broz Titoning* shaxsiy obro'yi bilan bog'liq bo'ldi. U davlat va partiya rahbari, e'tirof etilgan xalq qahramoni, fashizm va totalitarizmga qarshi kurashchi, Qo'shilmaslik harakatining rahbari edi. Uning ta'siri mamlakatda ham, xalqaro darajada ham



yuqori bo'lib keldi. U davlat va partiyani boshqarish tizimini o'z qo'lida 35 yil ushlab turdi.

1980-yil 4-may - YSFR prezidenti *B. Tito* vafot etdi.

1980-yil iyul - Polshada siyosiy inqirozning boshlanishi. “*Solidaost*” kasaba uyushmasi tashkil topishi.

1980-yil iyul-avgust – Polshada iqtisodiy ahvolning bundan keyingi yomonlashuvi Baltika sohillarida, ayniqsa Gdansk, Gdin, Shotsinda yangi ish tashlash to'loqini yuzaga keltirdi. Gdansk verflarida (kemasozlik korxonalari) “*Solidarnost*” mustaqil kasaba uyushmasi paydo bo'ldi. Unga ish tashlash qo'mitasining rahbarlaridan biri, ishchi elektrik *Lex Valensa* boshchilik qildi. Qisqa vaqtda “*Solidarnost*” ommaviy harakatga aylandi. Unda millionlab polyaklar, PBIP a'zolari ishtirok etdi. Bu harakat diktatura, Polsha suverenitetini cheklashga qarshi, sotsializm va partiya apparati zo'rvonligiga qarshi umummilliy norozilikni ifodaladi.

1980-yil sentabr – Eron va Iroq o'rtasida urush boshlandi. U 8 yil davom etdi va Eronga qariyb 350 mlrd. dollarga tushdi. 700 ming eronlik halok bo'ldi. Milliy kamsonli aholi bilan munosabatlar keskinlashdi: kurdlar, turkmanlar, belujlar va boshqa xalqlar o'zi uchun milliy muxtoriyat talab etib chiqdi. Ichki muxolifatni bostirish uchun, *Humayniy* “islom madaniy inqilobi”ni boshlash haqida dekret qabul qildi. Muassasalarda islom bosh kiyimini kiyish, ayollarning chodra o'rashi majburiy qilib qo'yildi. Mamlakatdagi barcha oliy o'quv yurtlarining islomlashtirilgani e'lon qilindi. Biroq tez orada shia rahbariyati orasida nizolar boshlandi, bu hol butun ruhoniyatning parchalanishi va *Humayniyga* qarshi chiqishga olib keldi. Mamlakatning birinchi prezidenti *Banisadr* tezda Oyatullo yaqinlarining ekstremizmiga qarshi chiqdi va go'yoki “muxolifatdagi president” bo'lib qoldi. Tez orada u mamlakatni tark etishga majbur bo'ldi. Shia rahbariyati muxolifatga qarshi mislsiz qatag'onlarni amalga oshirdi.

1980-yil sentabr - Eron va Iroq o'rtasida urushning boshlanishi (8 yil davom etdi).

1980-yil sentabr – *Lex Valensa* “*Solidarnost*” ommaviy ijtimoiy harakatga boshchilik qilgan.

1980-yil sentabr – Turkiyada yana bir bor to'ntarish yuz berdi. Barcha partiyalar tarqatib yuborildi. Ularning rahbarlariga 10 yil davomida siyosiy faoliyat bilan shug'ullanish ta'qiq qilib qo'yildi. Universitetlarda o'qituvchilar faoliyati nazorat qilina boshladi, matbuotda esa qattiq senzura o'rnatildi.

1980-yil oktabr – KMPning VI s'ezdi chaqirildi. S'ezdda 80-yillarda “sotsializm to'liq g'alaba qozongan va xalqning moddiy va madaniy turmush tarzi keskin ko'tarilgan jamiyatga muvofiq keluvchi mustahkam moddiy-texnik bazani yaratish” vazifasini ilgari surdi.

1980-yil 4-noyabr - AQShda prezidentlik saylovlarida *Ronald Reygan* g'alaba qozondi.

1980-yil dekabr – Kvanchjuda ommaviy norozilik chiqishlari ro'y berdi. Prezident *Chon Du Xvan* uni alohida shafqatsizlik bilan bostirdi. 200 dan ziyod kishi o'ldirildi, (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra ular soni 2 mingga yetgan). Muxolifat rahbarlari qamoqxonaga tashlandi. O'sha kunlarda Seul va boshqa yirik shaharlarni turmush



darajasini oshirish va mehnat sharoitini yaxshilashni talab qilib chiqqan ommaviy namoyishlar qamrab oldi.

1980-yil dekabr – Vetnamning 1-konstitutsiyasi qabul qilindi, u aholining eng muhim ehtiyojlarini qondirish, iqtisodiyotni sekin-asta barqarorlashtirish va milliy mudofaani mustahkamlashga yo'naltirilgan muammolarni hal etishning birlamchi vazifalarini e'lon qildi.

1980-yilgacha –Yaponiya tashqi savdoda passiv balansga ega bo'ldi, ya'ni tovar ko'proq chiqarilmagan, aksincha olib kelingan.

1980-yil – “Etnik omil” respublikalarning ittifoqdan qochish siyosatiga, so'ngra SSSR ning parchalanib ketishiga olib keldi. Shunday sharoitda Markaz murakkab “etnik vaziyat”dan soxta baynalmilallik shiorlari ostida qutulishga harakat qildi.

1980-yil – amerika sanoatining asosini mashinasozlik majmui (metallni qayta ishlash, umumiy mashinasozlik, elektrotexnik mashinasozlik, transport mashinasozligi va asbobsozlik) tashkil etdi.

1980-yil – dehqonga paxtaning tergan har kilosi uchun bor-yo'g'i 4 tiyindan to'lanardi. Terim 48 kg bo'lganda 1 so'm 92 tiyin berilardi. 1 tonna paxta yetishtirilganda 30 baravar ko'p xarajat ketsa, xarid narxi atigi 4-5 baravar farq qilardi.

1980-yil – o'zbek adabiyoti ancha qalamkash istedodlarni yetishtirib berdi. *O'lmas Umarbekov, Xudoyberdi To'xtaboyev, O'ktam Usmonov, O'tkir Hoshimov, Uchqun Nazarov, Shukur Xolmirzayev, Ne'mat Aminov, Temur Po'latov, Omon Muxtor, Farhod Musajonov* singari ijodkorlar o'z asarlarida insondagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni ardoqlashga, ular o'rtasidagi mehr-oqibat va sadoqatni ehtiyot qihshga, o'zaro bir-biriga muruvvatli bo'lishga, shafqatli bo'lishga chorlab keldilar.

1980-yil – qatag'onidan sobiq ittifoqdagi biron-bir xalq o'zbek millati kabi talofat ko'rmadi.

1980-yil – sovet tuzumi tanglik holatini boshdan kechirdi.

1981-1982-yillar – GFRda iqtisodiy sur'at pasayishi iqtisodiy tanglikni keltirib chiqardi. Ishsizlar soni har qachongidan ham ko'payib, 2,5 mln. kishiga yetdi. Infliyatsiya aholi xarid quvvatining pasayishiga olib keldi.

1981-1985-yillar – *Boysex Yaruselskiy* PXR Vazirlar Kengashining raisi.

1981-1985-yillar – O'zbekiston bo'yicha paxtaning o'rtacha hosildorligi gektariga 26,7 sentnerni tashkil etardi.

1981-1985-yillar – O'zbekistonda 5,1 mln tonna paxta yetishtirildi.

1981-1985-yillar – O'zbekistonda mehnat unumdorligi 1,3 % ga tushib ketdi.

1981-1985-yillar – O'zbekistonda yalpi ijtimoiy mahsulot 3,4 % ni tashkil etgan.

1981-1986-yillar – O'zbekistonda buyrakka tosh yig'ilish kasaliga chalinganlar 10 marta, surunkali oshqozon kasalligi uchqaganlar esa uch baravar ko'paydi. Yuqumli kasalliklar va sil bilan og'riqanlar soni oshdi.

1981-1987-1994-1999-yillar – Misr prezidenti etib *Husni Muborak* saylanadi.

1981-1988-yillar – Myanma prezidenti *U Seyn Lin*.

1981-1989-yillar – *R. Reyganning* AQSh prezidentligi davri.

1981-1989-yillar – *Ronald Reygan* AQShning respublikachilar partiyasidan 40-prezidenti bo'lgan.



1981-1991-yillar – Tailandda galma-galdan fuqarolik va harbiy hukumat hokimiyatni boshqardi. Mamlakat demokratik rivojlanish yo'liga o'tdi. Biroq inqilobiy kuchlarning qo'shni Laso va Kampuchiyadagi g'alabasi hamda Kampuchiyada Vetnam harbiy kuchlarining paydo bo'lishi hukumatga qarshi harakatning faollashuviga olib keldi. Harbiylar o'sib kelayotgan inqilobiy harakatni bostirish uchun yana hokimiyatni o'z qo'llariga olishga qaror qildi.

1981-1995-yillar – *Fransua Mitteran* Fransiya prezidenti.

1981-yil – *Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoniy* Oliy mudofaa kengashi tarkibiga kirgan.

1981-yil – Angliyada neft qazib chiqarish 60 mln. tonnaga yetdi va Angliya uni jahon bozoriga olib chiqish imkoniga ham ega bo'ldi.

1981-yil – BMT Bosh Assambleyasi "*Yadro havfining oldini olish to'g'risida*" haqida deklaratsiya qabul qildi.

1981-yil – Chexoslovakiyada ishlab chiqarish pasayishi ro'y berdi. Korxonalarining 20 foizi reja vazifalarini bajarolmay qoldi. Hukumat zararlarni qoplash va eski korxonalarni yangilash uchun mablag' topish uchun o'ta ommabop bo'lmagan chora-tadbirlarni qo'lladi.

1981-yil – Fransiyadagi prezident saylovlarida so'lichilar vakili *Fransua Mitteran* g'olib chiqdi. U Milliy majlisi tarqatib yubordi va yangi saylovlarni tayinladi. Unda sotsialistlar ko'pchilik ovozga ega bo'ldi.

1981-yil – *Fransua Mitteran* va uning mahkamasi ilk faoliyatining 1-yilida mehnatkashlar manfaatini ifodalovchi muhim islohotlar bilan tanildi. Ish haqi, ishsizlik uchun, ko'p bolali oilalarga to'lanadigan nafaqa miqdori oshirildi, qariyalik nafaqasi va stipendiyalar ko'paytirildi, yirik kapitalni soliqqa tortish kuchaytirildi. Ish haftasi 39 soatgacha qisqartirildi va 5 yil davomida ish haftasini 5 kunlikgacha olib kelish majburiyati olindi. Sotsialist P'er Morua rahbarligidagi hukumat 36 ta bank va 9 ta sanoat guruhini (metallurgiya, elektronika, kimyo, aviasozlik, harbiy tarmoq va boshqa) natsionalizatsiya qilish va umummilliy organlar vakolatini qisqartirish hamda minisipalitetlar huquqini kengaytirish yo'li bilan markazlashtirilmagan davlat boshqaruvi dasturini amalga oshirishga kirishdi. Bu 1936-1937-yillardagi Xalq sharoiti davridan buyongi eng chuqur islohotlar edi.

1981-yil – Gretsiya YIHga qabul qilindi.

1981-yil – italyan kommunistlar «yevrokommunizmi»ga asos bo'lgan dasturni qabul qildi va uni G'arbiy Yevropaning qariyb barcha kommunistik partiyalari qo'llab-quvvatladi. U eng muhim zamonaviy masalalarda KPSS va Sovet Ittifoqi siyosatiga qarshi turdi va barcha demokratik kuchlar ittifoqini ko'zda tutuvchi "yangi internatsionalizm"ni e'lon qildi.

1981-yil – Jazoir prezidenti *Benjedid Shadli* Tehrondagi amerikalik garovga olinganlarni ozod etishda vositachilik qildi.

1981-yil – O'zbekistonging rahbar organlar zaharli kimyoviy moddadan foydalanishni taqiqladilar. Biroq butifosdan g'o'zani defolyatsiya qilishda ayrim xo'jaliklar keyingi yillarda ham foydalandilar.

1981-yil – Portugaliyada siyosiy beqarorlik davri boshlandi. 2,5 yil ichida



hokimiyatda 5 marta hukumat o'zgardi. O'ng markaziy koalitsiya hukumati mamlakatni boshqardi.

1981-yil – SDP siyosiy plyuralizm tamoyilini e'lon qildi.

1981-yil – SSSR sanoat ishlab chiqarishi pasaya boshladi.

1981-yil – SSSRda butun iqtisod past ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Iqtisod va siyosatga Afg'oniston avantyurasi juda katta zarar keltirdi.

1981-yil – Tunisda Islom oqimi harakati tashkil etildi va tez orada partiya (IOP) nomini oldi.

1981-yil – XKP qarorida qayd qilinganidek, bevosita *Mao Szedun* tashabbuskori bo'lgan "madaniy inqilob" mamlakatni loyqalab yubordi, partiya davlat va ko'p millatli xalqqa jiddiy kulfatlar keltirdi.

1981-yil – Yaponiya tashqi savdosida faol balansga erishdi.

1981-yil yaavar – yangi konstitutsiya bo'yicha birinchi saylovlarda *Karamanlis* partiyasi g'olib chiqdi va hukumatni boshqara boshladi. *K.Karamanlis* mamlakat prezidenti etib saylandi, parlament saylovida esa *A.Papandreuning* PASOK partiyasi g'alaba qozondi.

1981-yil 1-yanvar - Gretsiyaning YII a'zoliciga qabul qilinishi.

1981-yil fevral – Polsha mudofaa vaziri, general *Voysex Yaruzeleskiy* bosh vazir etib tayinlandi. Biroq norozilik to'liqlari pasaymadi.

1981-yil 4-mart - O'zbekistonda Navoiy GRESining qurilishi yakunlandi.

1981-yil iyul – Polsha shaharlarida nonning narxini kamaytirishni talab qilib chiqqan ayollarning ommaviy namoyishi bo'lib o'tdi.

1981-yil sentabr – *V.Yaruzeleskiy* PBIP MK birinchi kotibi etib saylandi. U Katovitsedagi ish tashlaganlarga qarshi ko'zidan yosh chiqaruvchi gazdan foydalanish uchun qo'shinlarga buyruq berdi.

1981-yil 6-oktabr - Qohiradagi harbiy parad paytida diniy tashkilotiga tegishli bir guruh harbiylar tomonidan Misr prezidenti *A. Sadat* o'ldirildi. Iordan daryosining chap qirg'og'ida va G'azo mintaqasida falastinliklar g'alayoni boshlanib ketdi va bu 10 yil davomida tinmadi. Suriya va Iraq ham yangi qurolli to'qnashuvga tayyorgarlik ko'ra boshladi.

1981-yil 14-oktabr – Misr prezidentli etib vitse-prezident *Husni Muborak* saylandi. U asosan o'zidan avvalgi prezident siyosatini davom ettirdi. Kemp-devid bitimlarini imzolaganidan so'ng Misr 10 yil mobaynida AQShdan 20 milliard dollar qarz oldi, shundan 12 milliard dollari qo'shinni qayta qurollantirishga sarfladi.

1981-yil noyabr – Tunisda ko'ppartiyali demokratik saylovlar o'tkazildi. Hukumat ochiq kurashda g'alaba qozonsada, islom fundamentalistlari yana dinga qarshi ommaviy chiqishlarni boshlab yubordi. Harbiylar mamlakat siyosiy hayotini o'z nazorati ostiga olishga qaror qildi. *M.Mazali* bosh vazir lavozimidan ketishga majbur bo'ldi va uning o'rnini general *Ben Ali* egalladi.

1981-yil 17-noyabr - Chexoslovakiyada "baxmal inqilobi"ning boshlanishi.

1981-yil 14-dekabr – *V.Yaruzeleskiy* Polshada harbiy holat e'lon qildi. "Solidarnost"ning faoliyati man etildi, uning yo'l boshchilari qamoqqa olindi.

1981-yildan – *Daniel Ortega Saavedra* SMOFga boshchilik qilgan.

1982-1987-yillar – Angliyaning iqtisodiy o'sish sur'atlari G'arbiy Yevropada eng yuqori bo'ldi. Ishsizlar soni, inflyatsiya miqyoslari sekin qisqardi.



1982-1987-yillar – Z. Singxning Hindiston prezidentligi davri.

1982-1999-yillar – *Gelmut Kol* GFR federal-kansleri.

1982-yil – *L. Brejnev* vafot etdi. Uning vorislari *Y.A. Andropov* va *K.U. Chernenkolar* yosh jihatdan ancha qari va xasta bo'lganligi bois mamlakat siyosatiga faol ta'sir eta olmadi. Mamlakat iqtisodi boshi berk ko'chaga kirib qolgan, ijtimoiy hayotda esa turg'unlik yuzaga kelgan edi. Axloqiy tanazzul belgilari namoyon bo'la bordi. Mamlakatda mehnat qilishga ishtiyoq susaygan, bir-biriga ishonchsizlik, ma'naviy tushkunlik mavjud edi. Mamlakat chuqur inqiroz yoqasiga kelib qoldi.

1982-yil – Eronda 15 ming kishi osib o'ldirish orqali qatl qilindi.

1982-yil – *Gelmut Kol* tomonidan boshqarilayotgan va “yangi neokonservatizm” deb nom olgan siyosiy oqim kuchaydi. Uning mohiyati jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotidagi davlat rolini mustahkamlash hamda kengaytirishni talab qilishdan iborat edi.

1982-yil – Isroil Livan hududiga falastinlik qochoqlar lagerini tugatish maqsadida bostirib kirdi.

1982-yil - Saudiya Arabistoni qiroli Feysal milliy neft sanoatini barpo etishga intila bordi. ARAMKO bilan bir qatorda “Petramin” davlat neft kompaniyasini tashkil etdi. U Amerika kompaniyalari boshqaruvchilaridan bosh boshqarmani Dahranga (Saudiya Arabistoni) ko'chirishga, 51 foiz neft konsessiyalari ishtirokini davlat ixtiyoriga berish rozilik olishga erishdi.

1982-yil – SSSRda hosildorlik deyarli bo'lmadi. Reja bo'yicha kutilgan 236 million tonna don o'rniga 170 million tonna hosil yig'ib olindi. Yuzaga kelgan tanqislik AQShdan 20 million tonna don sotib olish hisobiga to'ldirildi. Shunday holatda ham ayrim rayonlarda oziq-ovqat yetishmovchiligi sezilarli edi. Mamlakat iqtisodidagi isrofgarchilik va uni yaxshi bilmaslik oqibatida iqtisodiy o'sishda to'xtalish yuz bera boshladi. Shunday faktlardan bin Baykal-Amur magistrali (BAM) qurilishi edi. U Tinch okeanga chiqadigan ikkinchi magistral yo'l bo'lib, uzunligi 4,300 kilometrdan iborat bo'lgan. Oxir-oqibat bunday qurilishning mamlakat iqtisodi uchun jiddiy ahamiyatga ega emasligi va unga sarflangan mablag'ni oqlamasligi ma'lum bo'ldi.

1982-yil yanvar – Polshada harbiy holat kiritilishi bilan ish tashlash harakati to'xtab qoldi. Iqtisodiy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ularning asosida uch tamoyil – korxonalar mustaqilligi, o'z-o'zini boshqarishi va o'z-o'zini moliyaviy ta'minlashi turardi. Ishlab chiqarishning pasayishi to'xtatildi.

1982-yil yanvar boshi – Chexoslovakiyada iste'mol tovarlari narxlar keskin oshdi, oylik ish haqi “muzlatib” qo'yildi. Real oylikning pasayishi xarid talabining tushib ketishiga olib keldi va korxonalar omborida 400 million kron turadigan tovarlar yig'ilib qoldiki, bu mamlakatning yillik milliy daromadiga teng edi.

1982-yil aprel – Margaret Tetcher Argentinaning Folklend orollarini bosib olishga urinishiga qat'iy javob berdi. Bu joy ingliz orollaridan 13 ming km masofada bo'lsa ham tarixan argentinaliklar mulki hisoblangan. Lekin Angliya ham unga teng darajada da'vogar edi. Bu orollar Angliya uchun na siyosiy, na iqtisodiy, na strategik jihatdan hech bir ahamiyatga ega bo'lmasa-da, hukmron doiralarda Argentinaga “kuch ishlatish” siyosatidan saboq berish va boy berilgan dunyo



miqyosidagi dengiz davlati shon-shuhratini o'zlariga qaytarib olishga qaror qilishdi.

1982-yil 25-aprel - Isroil qo'shinlarining Sinay orollaridan olib chiqilishi yakunlandi.

1982-yil 28-aprel - Argentina qo'shinlari Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan Folklend orollariga tushirildi.

1982-yil 30-may - Italiyaning NATOga qabul qilinishi.

1982-yil 28-oktabr – navbatdan tashqari parlament saylovlarida ISIP ishonchli g'alabani qo'lga kiritdi. Sotsialistlar barcha saylovchilar ovozining 48 foiziga ega bo'ldi. Ularning rahbari *Felipe Gonsales* hukumat rahbari etib saylandi.

1982-yil 10-noyabr - *L.I.Brejnev* vafot etdi. Uning vazifasini *Y.Andropov* egalladi.

1982-yil yoz – Eronda osib o'ldirish orqali qatl etishlar boshlandi. Shia rahbariyati muxolifatga qarshi mislsiz qatag'onlarni amalga oshirdi. Hatto, homilador ayollar va kichik yoshdagi bolalar ham islom inqilobi kurashchilarining qurbonlariga aylandi.

1982-yil yoz – Polshada o'sish boshlandi. Biroq baribir sezilarli samaraga erishilmadi.

1982-yil kuz – GFRda infliyatsiyaning aholi xarid quvvatining pasayishiga olib keldi va bu boshqaruv koalitsiyasining parchalanishini keltirib chiqardi. ODP XDI/XSI bilan bir blokka kirdi. *G. Shmidt* bundestagda ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi va iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. *Gelmut Kol* federal kansler lavozimiga ko'tarildi.

1982-yildan –*Fahd* Saudiya Arabiston qiroli.

1983-1985-yillar – Portugaliyada sotsialistlar va sotsial-demokratlar koalitsiyasidan iborat hukumat tuzildi.

1983-1986-yillar – Ispaniyada jamiyat va oilaviy munosabatlarni demokratlashtirish, kundalik hayotda demokratik tamoyillarni mustahkamlashga qaratilgan qonunlar qabul qilindi.

1983-1988-yillar – *Lyu Sennyayn* XRR raisi.

1983-1989-yillar – *Turg'ut Ozal* Turkiya hukumati bosh vaziri.

1983-1989-yillar – *Turg'ut Ozal* Vatan partiyasi yetakchisi.

1983-1994-yillar – Yaponiyada 100 mingdan ortiq firma, ya'ni sanoat korxonalarining 1/4 bankrotga uchradi.

1983-yil – AQShning astronomik xarajatlari 207 mlrd. dollarni tashkil etdi.

1983-yil – Assomda etnik va diniy negizga asoslangan ommaviy g'alayonlar bo'lib o'tdi. Panjobda sikxlar terrorizmi hukm surib, etnik va diniy to'qnashuvlar davom etdi.

1983-yil – BMT Bosh Assambleyasi "*Yadro urushini qoralash*" haqida deklaratsiya qabul qildi. Unda qat'iy ravishda yadro urushidan xalos bo'lish g'oyasini targ'ib qilish muhokama qilindi. BMT pozitsiyasi AQSh va SSSR o'rtasida bir qator muhim bitimlar qabul qilinishiga sabab bo'ldi va yadro xavfidan uzoqlashishga yordam berdi.

1983-yil – Eronda 25 ming kishi osib o'ldirish orqali qatl qilindi.

1983-yil – *Islom Karimov* O'zbekiston moliya vaziri bo'lib ishladi.



1983-yil – *Margaret Tetcher* boshchiligida konservatorlar partiyasi g'alaba qozondi.

1983-yil – Misr Iordaniya bilan diplomatik munosabatlar tikladi.

1983-yil – Qashqadaryo viloyati paxtakorlari har gektar yerdan 36,4 sentner paxta olishdi.

1983-yil – Qoraqalpog'istonda sholi 332300 tonnani tashkil qildi.

1983-yil – Turkiya Konstitutsiyasi asosida saylov o'tkazildi va unda *Turg'ut Ozal* rahbarlik qiluvchi Vatan partiyasi g'alaba qozondi. U bosh vazir lavozimiga saylandi.

1983-yil – Turkiyada To'g'ri yo'l partiyasi tashkil topdi.

1983-yil – Yugoslaviya Yevropa mamlakatlari va tijorat banklaridan 4 milliard dollardan ziyod kredit oldi, avvalgi kreditlarni to'lash kechiktirildi. Yugoslaviya xalqaro kapitalga to'liq tobe bo'lib qoldi.

1983-yil iyun – *To'g'ri yo'l partiyasi* tashkil topdi. U o'rta va yirik sanoat hamda savdo burjuaziyasining bir qismi manfaatlarini ifodalari edi. Unga *Sulaymon Demirel* yetakchilik qildi. Shuningdek, *N.Erbaqon* yetakchiligidagi *Farovonlik partiyasi* tashkil etilib, u islom diniga e'tiqod qiluvchi ishchi, dehqon, mayda va o'rta burjuaziya, ziyolilarning bir qismi qarashlarini ifodalari edi. Irdal Inenyu boshchiligidagi Sotsial-demokratlar xalq partiyasi, Demokratik so'l partiyalar ham shu davrda tashkil topdi. Mamlakatda yangi partiyalar tuzildi. Yirik savdo va bank burjuaziyasi manfaatlarini mashhur siyosiy arbob *Turg'ut Ozal* rahbarligidagi Vatan partiyasi himoya qildi.

1983-yil yoz – Polshada harbiy holat bekor qilindi.

1984-1987-yillar – birgina Moskva Leningrad va Rossiyaning boshqa shaharlaridan 400 dan ortiq kishi O'zbekistonning partiya, sovet, ma'muriy-xo'jalik organlariga ishga yuborilgan.

1984-1989-yillar – *Gdlyan* va *Ivanov* rahbarligidagi jazo atryadlari turli bahonalar bilan 10 minglab rahbarlarni ishdan oldilar, kadrlarni almashtirish siyosati ommaviy tus oldi.

1984-1989-yillar – O'zbekistonda "desant" lar, "paxta ishi" kabi qatag'onlar bo'lib o'tdi.

1984-1989-yillar – *R. Gandi* Hindiston bosh vazirligi davri.

1984-1990-yillar – O'zbekistonda XX asr 30-50-yillarida sodir bo'lgan qatag'onlardan ko'lam jihatidan kam bo'lmagan bedodliklar yuz berdi. Eng avvalo qatag'on qilichi *Sharof Rashidov*ga qarshi ko'tarildi.

1984-yil – ASEAN tarkibiga Bruney qo'shildi.

1984-yil – *B.Shadli* yana Jazoir prezidenti etib saylandi, biroq MOFning ahvoliga putur yetdi. Neftga nisbatan jahon narxlarining pasayishi ommaviy bo'lmagan choralarni ko'rishga majbur etdi, bu hol esa aholi turmush darajasining pasayishiga olib keldi.

1984-yil – Eronda 30 ming kishi osib o'ldirish orqali qatl qilindi.

1984-yil – faqat O'zbekiston Fanlar akademiyasi institutlari 127 ta tadqiqot ishlarini olib borishgan. O'zbekiston olimlari har yili iqtisodiy samaradorligini 600 mln so'mlik 400 dan ziyod ilmiy yechimlarni ishlab chiqdilar.



1984-yil – Fransua Mitteranni “populizm” va omilsizligi uchun tanqid qilish kuchaydi. Irtiqy va milliy qarama-qarshilik paydo bo'la bordi.

1984-yil – IKT Misrni tashkilotga a'zolicini tikladi.

1984-yil – ittifoq tazyiqi tufayli O'zbekistonga mamlakatning turli mintaqalaridan “desantchilar” yog'ilib kela boshladi.

1984-yil – Janubiy Afrikaning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Unga ko'ra oq tanlilar hokimiyatini saqlab qolishni kafolatlovchi uch palatali parlament (oq tanlilar, afrikaliklar va hindular uchun) tuzildi. Davlatni prezident boshqarar va vazirlar mahkamasiga ham rahbarlik qiladigan bo'ldi.

1984-yil – Jizzax viloyatining Zarbdor tumanida har gektar yerdan bor yo'g'i 7 sentner paxta olindi.

1984-yil – O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlarida 47,2 % talabalar barcha fanlarni rus tilida o'rganganlari holda, o'zbek tilida bu raqam arang 39,5 % ga yetdi.

1984-yil – *Ronald Reygan* keksaligiga qaramay 2-marta AQSh prezidenti etib saylandi.

1984-yil – *Y.Andropov* vafot etdi.

1984-yil - yoppasiga kimyolashtirish, paxta dalalariga zaharli ximikatlar yordamida ishlov berish tuproq, suv va havoning jiddiy zaharlanishiga olib keldi. G'o'za, g'alla, sabzavot ekinlari ekilgan yerlar va bog'lar tuprog'i olib tekshirilganida unda, masalan, DDT moddasining miqdori yo'l qo'ysa bo'ladigan sanitariya normalaridan 2-3 baravar oshiqiligi aniqlangan. Farg'ona va Xorazm viloyatlarida paxta maydonlari tuprog'ining ifloslanishi sanitariya normalaridan 8-10 baravar yuqori bo'lib chiqqan. Zaharli ximikatlardan qishloq xo'jaligida keng foydalanish biologik va ekologik oqibatlardan tashqari jiddiy ijtimoiy oqibatlarga ham olib keldi: kasalliklar soni ortib, ayniqsa, bolalar o'rtasida o'lim hollari ko'paydi, ayollar salomatligi yomonlashdi.

1984-yil – Zair yangi Konstitutsiyani qabul qildi. Mamlakat respublika deb e'lon qilindi. Davlatni prezident boshqaradi, u ayni paytda ijroiya hukumat rahbari va qurolli kuchlar bosh qo'mondoni.

1984-yil – Zairda prezident saylovida *Mobutu* 7 yil muddatga mamlakat prezidenti etib saylandi va shu vaqt ichida marshal unvoniga ega bo'ldi. Xalqaro monopoliya Zairda mustahkam o'rnamshib oldi.

1984-yil 5-iyun – fuqarolar urushining oldini olish uchun *Indira Gandi* sikxlarning Amritsardagi o'chog'i – Oltin ibodatxonani shturm bilan bosib olishga buyruq berdi.

1984-yil 23-iyun – O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida O'zbekiston Kompartiyasining XVI plenumi bo'lib o'tdi. Ushbu partiyaviy tadbir ham aslida “yuqori”ning talabi bilan o'tkazilgan bo'lib, uning maqsadi mahalliy rahbar kadrlarni obro'sizlantirish, ular “timsoli”da o'zbek xalqini kamsitish edi.

1984-yil 31-oktabr - Hindiston bosh vaziri Indira Gandining o'ldirilishi. Rajiv Gandi - yangi bosh vazir.

1984-yil 31-oktabr – sikxlarga mansub tan soqchi *Indira Gandiga* uch marta o'q uzib o'ldirdi.

1984-yil 4-noyabr – Nikaraguada ilk bor ko'ppartiyaviylik asosida demokratik



saylovlar bo'lib o'tdi. Mamlakat prezidenti etib SMOF va uning qurolli kuchlari qo'mondoni *Daniel Ortega* saytandi.

1984-yil 6-noyabr - *Ronald Reygan* AQShda prezidentlik saylovlarida g'alaba qozondi.

1985 -yil – maktablar soni O'zbekistonda 7000 dan ortiqni tashkil etdi. Bu maktablarning 60 % i nobop binolarda joylashgan, 700 tasi avariya holatida edi. Qishloq maktablaridan 75 % i nochor ahvolda edi. Joy tanqisligi sababli 5800 ta maktabda o'qish 2-smenda olib borildi.

1985 -yil – O'zbekistonda oliy ma'lumotlar soni ziyolilar orasida 669 ming kishiga ko'paydi.

1985-1986 -yillar – Toshkent shahrida ishsizlar soni 200 ming kishiga yetdi. Shu yilda O'zbekiston tashqarisidan 125 mingga yaqin ishchi va mutaxassislar jalb etildi.

1985-1987-yillar – qayta qurishning birinchi bosqichi ma'muriy-tashkiliy tadbirlarning ananaviy usullarda olib borilishi bilan izohlandi. Mazkur bosqichda kun tartibiga qo'yilgan vazifalardan biri ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va uning asnosida inson omilini faollashtirishdan iborat bo'ldi.

1985-1990-yillar – *Daniel Ortega Saavedra* Nikaragua prezidenti.

1985-1990-yillar – ma'muriy-buyruqbozlik tizimining yanada mustahkamlanishi, madaniy sohaga mablag' sarflashning "qoldiq" prinsipi tufayli madaniyat maskanlari soni kamaya boshladi. Klublar soni 55 taga, kutubxonalar soni esa 93 taga kamayib ketdi.

1985-1990-yillar – o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi, milliy ongining o'sishida juda muhim ahamiyatga ega edi.

1985-1990-yillar – O'zbekiston davlat rasmiy siyosatining o'zgaray qolishi, mavjud muammolarni hal etish imkoniyatlarning mavjud emasligi klublar, kutubxonalar ishini yanada jiddiyroq ravishda ma'lum tizimga soldi. Eng muhim madaniy-ma'rifiy muassasalar kompartiyaning ijtimoiy byurtmasini bajarishda davom etdilar. Bu esa aholining klublar ishidan bezishga olib keldi. Yuqori tashkilotlar turli sun'iy yo'llar bilan ularning rolini oshirishga urindilar, suhbatlar, ma'ruzalar, zerikarli tadbirlar madaniyat muassasalarining ishi, faoliyati sifatida talqin etildi.

1985-1990-yillar - O'zbekiston iqtisodiyotida iqtisodiy turg'unlik yana kuchaydi. Bunga O'zbekiston hududida joylashgan industriyaning haddan tashqari markazlashuvi ham ta'sir qildi. Xususan, respublika hududining 5 foizida 65 foiz sanoat korxonalarini joylashgan edi. Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish darajasi ham sust bo'lgan. Masalan, sanoatda qo'l kuchi mehnati 48,7 foizni, qurilish kompleksida 51 foizni, yengil sanoatda 50 foizni, oziq-ovqat sanoatida 45,5 foizni tashkil etgan.

1985-1990-yillar – O'zbekiston iqtisodiyotida paxta va u bilan bog'liq xo'jalik tizimi saqlanib qolaverdi.

1985-1990-yillar – O'zbekiston iqtisodiyotida turg'unlik holati yuzaga kelishining asosiy sabablardan biri Ittifoq mehnat taqsimotida respublika o'rni va hissasi



uzoq yillar davomida Markaz zo'ravonligi bilan belgilanib kelinganidir. Chunonchi, SSSRda yetishtiriladigan paxtaning 65% pillaning 60% dan ortig'i, kanopning 80-90% i, qazib olinadigan oltin, simob, volfram va boshqa nodir metallarning salmoqli miqdori O'zbekistonda ishlab chiqarilar edi.

1985-1990-yillar – O'zbekistonda 3693 ming o'quvchiga mo'ljallangan yangi o'quv yurtlari talab qilingan holda, Markazning 920 ming o'rniga tushirildi. Respublika qishloqlaridagi maktablarning 80 % i esa moslashtirilmagan binolarda joylashgan edi.

1985-1990-yillar – O'zbekistonda xalq tizimida ayrim siljishlar ro'y berdi. Ammo bu davrda ta'lim va tarbiya yanada keskinlashdi. Maktab, o'rta maxsus va oliy ta'limda rivojlanishning ekstensiv yo'li o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanib bo'ldi. O'qituvchi va talabalarning ijtimoiy faolligi ortgani sari sovet ta'lim tizimining chirishi kuchaya bordi.

1985-1990-yillar – O'zbekistondagi 14 ta pedagogik instituti va 38 ta o'rta maxsus bilim yurtlarida yiliga o'rtacha 17 ming yosh o'qituvchilar tayyorlangani holda, maktabda faoliyat ko'rsatuvchilar sonining muttasil kamayishi ta'lim va hukmron mafkuradagi jiddiy cheklanganlik oqibatida yuz berdi.

1985-1990-yillar – qishloq xo'jaligidagi mehnat ununmdorligining o'rtacha yillik hajmi har bir kishi soat hisobida o'tgan 5 yildagiga nisbatan jamoa xo'jaliklari va qishloq xo'jalik korxonalarida 1,5 % ga davlat xo'jaliklarida esa 16,1 % ga kamaydi.

1985-1991-yillar – *Mixail Sergeevich Gorbachev* KPSS MK bosh kotibi.

1985-1991-yillar – o'zbek xalqining ruhiy holatida jiddiy siljishlar, milliy ong, demokratiya va ijtimoiy-siyosiy faollik ko'tarilgan ko'ppartiviylik tizimi shakllanishi davri bo'lib tarixga kirdi.

1985-1991-yillar – O'zbekistonda sovet mustabid tuzumining inqirozga yuz tutishi va mustaqillik harakatlari davri hisoblanadi.

1985-1991-yillar – O'zbekistonning iqtisodiy holati sovetlar hukmronligi davrining bevosita va mantiqiy davomini o'zida ifodaladi. Qayta qurish sovet jamiyatining uzoq yillar mobaynida to'planib qolgan iqtisodiy muammolarini hal etishni ko'zda tutgan edi. Biroq u iqtisodiyotdagi ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, turg'unlik holati nihoyatda keskinlashgan vaziyatda davom etdi.

1985-1991-yillar – *Ramiz Aliya* Albaniya mehnat partiyasi MK 1-kotibi.

1985-yil – AMP yo'l boshchisi etib *Ramiz Aliya* saylandi. U davr ruhiga muvofiq tizimga ba'zi tuzatishlar kiritdi, biroq uni to'liq saqlab qoldi. Yangi alban hukumati Sharqiy Yevropadagi o'zgarishlarga salbiy munosabatda bo'lib, "sotsialistik demokratiyani takomillashtirish" yo'lini davom ettirishni bildirdi. Tashqi siyosatda eng ko'p o'zgarishlar ro'y berdi. SSSR, GFR bilan diplomatik munosabatlar o'rnatildi, o'zaro foydali asosda barcha Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan munosabatlarni rivojlanirishga tayyorgarlik haqida bayonot berildi.

1985-yil – AQSh va SSSR o'rtasida strategik jihatdan tenglikka erishildi.

1985-yil – AQSh yadro kallaklari soni bo'yicha nisbati SSSR bilan 11:10 ga teng bo'ldi. Ayni paytda SSSR strategik hujum qurollari borasida ilgari olgan edi.

1985-yil – *Benazir Bxutto* Pokiston xalq partiyasi hamraisi.



1985-yil – boshlangan O‘zbekistondagi jarayonlar eng avvalo mustaqillik to‘g‘risidagi g‘oyalarning ya‘na tiklanishi shakllanishi uchun zamin yaratdi.

1985-yil – *K.Chernenko* vafot etdi.

1985-yil – *M.S.Gorbachev* tomonidan boshlangan qayta qurish qarama-qarshi xarakterga ega edi. Qayta qurishdan maqsad tizimning mohiyatini o‘zgartirish emas, isloh qilish edi. Shu bilan birga oshkoralik va siyosiy plyuralizin, yangi fuqaro aholisi – kooperativchilik harakati ishtirokchilarining paydo bo‘lishi uni boshlang‘ich maqsad sari ulotqirib yubordi. KPSS rahbariyatida yangi kuchlar paydo bo‘ldiki, ular kuchli norozilik chiqishlaridan shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanishga harakat qildilar. Ularning maqsadi partiya hokimiyatidagi monopoliyani sindirib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va sotsial qurilishini o‘zgartirish edi. Bunga partiyaning Moskva qo‘mitasi kotibi *B.Yelsin* rahbarlik qildi. Davlatdagi demokratik harakat kuchsiz va norasmiy, partiya va tashkilotning yagona dasturiga ega bo‘lmagandi. Ammo partiya rahbariyatidagi yemirilish unga yangi kuch bag‘ishladi. KPSS obro‘-e‘tibori yo‘qolib, parchalana boshladi.

1985-yil – O‘zbekiston bo‘yicha 13 ta konsert muassasalari ijodiy faoliyat ko‘rsatgan edi.

1985-yil – O‘zbekiston maktablarida o‘quvchilar soni 2684 mingga yetdi.

1985-yil – O‘zbekiston paxta maydonlarida 40 mingta paxta terish mashinasi ishladi.

1985-yil – O‘zbekiston xalq xo‘jaligida ilmiy xodimlar, agronomlar, muhandislar, o‘qituvchilar, shifokorlar soni 1385 mingtaga yetdi.

1985-yil – O‘zbekistonda 1500 dan ortiq ishlab chiqarish, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, kombinatlari va korxonalari bor edi.

1985-yil – O‘zbekistonda 20 dan ortiq suv omborlari ishlaydigan bo‘ldi.

1985-yil – O‘zbekistonda aholi boshiga 917 so‘m real daromadlar to‘g‘ri keldi.

1985-yil – O‘zbekistonda amalga oshirilgan mahsulot eksportining 65 % i shunday in‘om shaklida Hindiston, Afg‘oniston, Mongoliya kabi davlatlarga jo‘natildi.

1985-yil – O‘zbekistonda kimyo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi 20 ta sanoat korxonasi faoliyat ko‘rsata boshladi. Yangi korxonalar, jumladan, Yangi Qo‘qon kimyo zavodi, Chirchiq, Farg‘ona, Samarqand, Olmaliq, Navoiy kimyo korxonalari qurib ishga tushirilishi natijasida mahsulot hajmi 1970-yildagiga nisbatan 367 foizga oshdi. Ular ishlab chiqargan nitron, atsetat, kaprolaktam mahsulotlari boshqa respublikalarga chiqarishga mo‘ljallangan edi.

1985-yil – O‘zbekistonda mehnat bilan bandlik 73 % ga tushib qoldi.

1985-yil – O‘zbekistonda oilaviy jamg‘armalar haqidagi ma‘lumotlarga qaraganda, jamoa xo‘jaliklari a‘zolarining 5/1 qismi jon boshiga 50 so‘mda kamroq daromadga ega edilar.

1985-yil – O‘zbekistonda xalq xo‘jaligi uchun ajratilgan 77,8 mlrd so‘mning 23,3 mlrdi noishlab chiqarish sohalari rivojiga yo‘naltirildi.

1985-yil – O‘zbekistonda yetishtirigan umumiy hosilning faqat 37 % i paxta terish mashinalarida terildi.

1985-yil – O‘zbekistondagi 30 ta teatga 4802 ming tomoshabin tashrif buyurgan.



1985-yil – O'zbekistondagi konsertlar soni 8000 taga yetdi. Undagi tomoshabinlar soni 2267000 tani tashkil etdi.

1985-yil – O'zbekistonning xalq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohasida 26 % aqliy mehnat xodimlari band bo'lib, ulardan sog'liqni saqlash, xalq talimi, madaniyat va san'at, fan va ilmiy xizmatdagilar 20 % ni tashkil etdi.

1985-yil – oliy o'quv yurtlarining soni O'zbekiston bo'yicha 42 taga yetdi.

1985-yil – suv omborlari soni yana ham ko'paydi. Ularning ta'siri ostida daryolarning suvi tarkibida tuz va zaharli moddalar ko'payib ketdi. Natijada yerlarning sho'rlanishi milliy fojia sifatida har tomonlama xavf sola boshladi. Namangan yerlarining 48 % i, Andijon yerlarining 23 % i, Sirdaryo yerlarining 22 % i kuchli sho'ralangan edi. O'zbekistonda 1,5 mln gektardan ortiq yerlar sho'ralangan edi.

1985-yil - *To'lepbergen Qayipbergenovning "Qoraqalpog'nomi"* deb ataluvchi roman-pyesasi yozdi.

1985-yil – Yaponiyada tashqi savdoning faol balansi juda tez o'sib, yapon monopoliyasini boyitishning asosiy manbaiga aylandi. O'z bozorini yuqori bojxona to'siqlari bilan yopib olgan tadbirkorlarni o'z haqi hisobiga narx-navoni pasaytirdi va tashqi bozorni egallashga tashlanishdi. Yaponiya buni ko'pincha uddaladi ham. Bu yerda Yevropa, AQSh va eng muhim Osiyo mamlakatlari bilan ijobiy balans yuzaga keldi.

1985-yil 1-yanvar – Andijon viloyatida 1 km² maydonga 370 kishi to'g'ri kelsa, Qoraqalpog'istonda va Navoiy viloyatida har bir kv.km maydonga o'rtacha 5-6 kishi to'g'ri kelgan. O'zbeklar salmog'i Xorazm, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida 80 foizdan ortiqni tashkil etgan bo'lsa, Qoraqalpog'istonda, Toshkent shahri va viloyatida ularning hissasi ancha past darajada edi.

1985-yil mart – partiya va davlat rahbarligiga *M.S.Gorbachev* saylandi.

1985-yil aprel - *M.Gorbachev* tomonidan SSSRda qayta qurish siyosatining amalga tatbiq etilishi.

1985-yil aprel – *M.S.Gorbachev* tashabbusi bilan yangi yo'nalish – qayta qurish strategiyasi ishlab chiqildi. Mazkur yo'nalish mohiyati o'ta markazlashgan buyruqbozlik tizimidan demokratik markazlashuv va o'z-o'zini boshqarish tizimini uyg'unlashtirish prinsiplariga o'tishdan iborat edi.

1985-yil aprel – so'ng ko'p o'tmay markaziy iqtisodiy organlarni qaytadan tuzish, bank tizimini qayta qurish, moliyaviy mexanizmning o'zgarigan sharoitda moslashgan siyosatini ishlab chiqarish yuzasidan chora-tadbirlar amalgam oshirildi.

1985-yil aprel – Sobiq Ittifoqda *M.S.Gorbachev* boshchiligidagi amalga oshirilgan qayta qurish siyosati So'ra mustamlakachiligi saltanatini saqlab qolishga qaratilgan so'nggi samarasiz va makkaroni urinish edi. Uning tarkibiga kirgan ittifoqdosh respublikalarning milliy mustaqillikka erishuvlariga yo'l qo'ymaslikni maqsad qilib qo'ygan edi. .

1985-yil aprel – sovet jamiyatida qayta qurish boshlandi. Qayta qurish KPSS MK



bosh kotibi *M.S.Gorbachev* va KPSS markaziy Komitetining plenumi bilan bevosita bog'liq edi.

1985-yil aprel – SSSRda “qayta qurish” deb nom olgan jarayon boshlandi. O'zini qudratli, yorqin kelajak g'oyasi atrofida mustahkam jipslashgan, ezilgan xalqlarga ko'mak beruvchi deb e'lon qilgan SSSR qayta qurish va oshkoralik shamolining ilk nafasidanoq quladi. Birinchi bo'lib milliy respublikalar qo'zg'aldi. Almati, Boku, Tbilisi, Vilnyusdagi xalq namoyishlari sotsialistik lagerdagi boshqa mamlakatlarga ko'chdi.

1986-1990-yillar – O'zbekistonda yalpi ijtimoiy mahsulot 2,2 % ni tashkil etgandi.

1986-1987-yillar – mobaynida iqtisodiyotni barqarorlashtirish, sog'lomlashtirish bo'yicha birorta ham samarali yo'l izlanmadi.

1986-1987-yillar – O'zbekistonda milliy daromadning o'sishi 10,7 % gacha deb belgilandi, uning amaldagi holati 1,4 % ga arang yetdi. Bu davrda O'zbekiston aholisining soni 6 % ga ortgandi.

1986-1988-yillar – *Jak Shirak* Fransiyaning Bosh vaziri.

1986-1988-yillar – *R.Reygan* ma'muriyati Sovet Ittifoqi bilan munosabatlarini biroz yaxshilashga intildi. *M.S.Gorbachev* bilan oliy darajada bo'lib o'tgan uchrashuvlar sovet-amerika munosabatlarini sozlash va xalqaro vaziyatni yaxshilashga imkon yaratdi.

1986-1990-yillar – O'zbekistonning asosiy ishlab chiqarish fondlari 21 % ga yetdi, davlat byudjetidagi daromadlar uchun sarflangan milliy daromad hajmi 4,3 mlrd so'mni tashkil etgandi.

1986-1990-yillar – O'zbekiston milliy madaniyatining rivojlanishida ma'lum siljishlarga erishildi. Xususan, madaniyatda milliylik tomon o'g'irilihi, o'tmish madaniy merosimizni o'rganishga bo'lgan qiziqishning kuchayishi, o'zbek tiliga davlat tili maqomining qonun yo'li bilan berilishi, O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarning madaniy jihatdan erkinlikka erishishi, kommunistik mafkuraviy biqiqlikdan ijodiy hurfikrlikka o'ta boshlashi, madaniyatlarining rivojlanishiga yo'l ochib berilishi - bularning barchasi ijobiy holatlar bo'ldi.

1986-1990-yillar – O'zbekistonda po'lat quyish darajasi jiddiy kamaydi, shu davrda paxta terish mashinalarini ishlab chiqarish 9,4 ming donadan 5,8 ming donaga, traktorlar 26,4 mingdan 21,1 ming donaga, ekskavatorlar 1576 donadan 964 donaga kamaydi.

1986-yil – AQShning astronomik xarajatlari 221 mlrd. dollarni tashkil etdi.

1986-yil – Bolgariyaning 2000-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish rejasi ishlab chiqildi. Uning mohiyati ilg'or fan va texnika yutuqlarini va zamonaviy ishlab chiqarish infrastrukturasi tashqir etgan holda sifatli yangi moddiy-texnik bazani yaratish edi. 2000-yilgacha Bolgariyada milliy daromadni deyarli ikki baravar ko'paytirish mo'ljallandi. Bolgariya iqtisodining o'sha paytdagi ahvolini hisobga olgan holda aytish joizki, bu rejani amalga oshirish mumkin emas edi. Bundan maqsad bolgar xalqining ko'nglini ko'tarish va sovet tipidagi sotsializm g'oyasining kuchiga ishonchni tiklashga urinish bo'lgan.

1986-yil – Eron katta qiyinchiliklarga uchradi. Aholining tezkor o'sishi oziq-ovqat ekinlarini ishlab chiqarishdan o'zib ketdi. Mehnatga layoqatli aholining 15 foizi ishsiz edi. Neft narxlarining pasayishi ham sezildi.



1986-yil – Fransiyada parlament saylovlari bo'lib o'tdi. Sotsialistlar endi ko'pchilik ovozni yo'qotgan edi. *J. Shirak* boshchiligidagi Respublikachilar partiyasi va *Jiskar d'Esten* yetakchiligidagi Fransuz demokratiyasi ittifoqi (FDI) oldingi o'ringa chiqib oldi.

1986-yil – *Islom Karimov* O'zbekiston Ministrlar Soveti raisining o'rinbosari – respublika Davlat plan komitetining raisi bo'lib ishladi.

1986-yil – Ispaniya va Portugaliya YIHga qabul qilindi.

1986-yil – Ispaniya Yevropa Iqtisodiy Ittifoqiga (YII) qabul qilindi va bu hol uning iqtisodini modernizatsiyalash hamda Yevropa siyosatiga ta'sirining kuchayishiga ko'mak berdi.

1986-yil – Janubiy Afrikada favqulodda holat joriy qilindi.

1986-yil – O'zbekistonda 1 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida o'lim har ming bolaga nisbatan 72 nafarga yetdi. Ayollarning 60 % i kamqonlik kasalligiga chalingan edi. Butun Orolbo'yida qorin tifi kasalligi o'ttiz baravar, yuqumli sariq kasalligi yetti baravar ortdi, ayniqsa, rak kasalligi ko'payib ketdi.

1986-yil – O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish uchun umumiy davlat byudjetidan esa 26,1 % mablag' sarflangan edi.

1986-yil – O'zbekistonda yengil sanoat ulushi 38,4 % ga, oziq-ovqat sanoati ulushi esa 13,5 % ga tushib ketdi.

1986-yil – Portugaliya YII tarkibiga kirdi.

1986-yil – qayta qurish va ijtimoiy munosabatlar masalasiga alohida e'tibor berildi.

1986-yil – sobiq SSSR iqtisodiy ahvoli battar yomonlasha boshladi.

1986-yil – Tashqi siyosatda sotsialistik partiya saylovdan oldingi bergan va'dalaridan qaytdi. Muxolifat davrida u mamlakatning NATOga kirishiga qarshi chiqqan edi. Hokimiyat tepasiga kelgach esa Ispaniyani ushbu paktga qo'shilishga jalb etdi.

1986-yil – Tayvan demokratik taraqqiyparvar partiyasi tashkil topdi.

1986-yil – Toshkent shahar aholisi 40,5 % ga yetdi.

1986-yil – Turkiyada xususiy lashtirish to'g'risida qonun qabul qilindi.

1986-yil 1-yanvar - Ispaniya va Portugaliya YII a'zoligiga qabul qilindi.

1986-yil fevral - SSSRda oshkoralik kampaniyasi boshlandi.

1986-yil 15-aprel – Amerika bombardimonchilari *M. Kaddafiyning* Tripolidagi qarorgohiga bomba zarbalarini berdi. U mo'jiza tufayli o'limdan omon qoldi.

1986-yil 26-aprel - Chernobil atom elektrostansiyasidagi portlash.

1986-yil 19-oktabr – *Samora Mashel* aviatsiya halokatiga uchrab halok bo'ldi. Tashqi ishlar vaziri *Joakimo Chissano* uning o'rmini egalladi.

1986-yil dekabr – *Islom Karimov* O'zbekiston Kompartiyasi Qashqadaryo viloyati partiya komitetining 1-kotibi bo'lib ishladi.

1987-1990-yillar – qayta qurishning ikkinchi bosqichi boshlandi, jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi.

1987-1991-yillar – Portugaliya "chinnigul inqilobi"ning o'tish davri so'l kuchlar foydasiga hal bo'ldi. Sotsial-demokratlar partiyasi va mustaqil partiyalar vakillaridan iborat koalitsiya hukumatni boshqardi.



1987-1992-yillar – *R. Venkataramanning* Hindiston prezidentligi davri.

1987-yil – AQShning harbiy xarajatlari 282 mlrd. dollarni tashkil etdi.

1987-yil – *B.N.Yelsin M. Gorbachevga* qarshi tanqidiy chiqishlari munosabati bilan barcha mansablaridan olingan.

1987-yil – janubiy Koreyada o'tkazilgan olimpiya o'yinlari (Seul) hukumatga qarshi chiqishlar keskinligini bir qadar pasaytirdi, biroq o'yinlar tugaganidan 6 kundan keyin kurash yana kuchaydi.

1987-yil – janubiy Koreyada o'tkazilgan prezidentlik saylovlarida bor-yo'g'i 35 foiz ovoz olgan general *Ro De Vu* g'alaba qozondi. Biroq, bu xalqqa qarshi tuzum hayotini uzaytirish edi, xolos.

1987-yil – janubiy Koreyani demokratlashtirishni talab qilgan talabalarning ommaviy chiqishlaridan so'ng *Chon Du Xvan* yon berishlarga majbur bo'ldi.

1987-yil – mahalliy sovetlarga saylovda har bir viloyatning bittadan tomonida eksperiment sifatida saylov o'tkazildi. Bu muqobillik asosida o'tkazilgan birinchi saylov edi.

1987-yil – *Margaret Tetcher* boshchiligida konservatorlar partiyasi g'alaba qozondi.

1987-yil – o'zbek tilida 936 nomda kitoblar chop etildi.

1987-yil – o'zbek tilida asarlar chop etish 0,9 mln nusxaga kamaydi.

1987-yil – o'zbek tilida badiiy asarlar chop etilishi 900 ming nusxaga kamayib ketdi.

1987-yil – O'zbekiston eksportining hajmi 32522 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, shundan 515,1 ming so'mi Yaponiya va Turkiyaga to'g'ri kelardi.

1987-yil - O'zbekistonga Moskva, Leningrad va Rossiyaning boshqa mintaqalaridan 400 dan ortiq kishi partiya, Sho'ro komsomol tashkilotlarida va ma'muriy organlarda ishlash uchun yuborildi.

1987-yil – Portugaliyadagi parlament saylovlarida sotsial-demokratlar partiyasi g'alaba qozondi va uning kotibi *Anibal Kabacho Silva* premer-ministr etib saylandi.

1987-yil – sobiq SSSRda iqtisodiy islohotlar e'lon qilindi.

1987-yil – SSSR Prezidenti *M.S.Gorbachevning* AQShga tashrifi chog'ida kichik va o'rtacha olislikdagi raketalarni yo'q qilish to'g'risida Shartnoma imzolandi. Ushbu Shartnomaga ko'ra Sovet tomoni 1572, amerikaliklar esa 599 raketani yo'q qildilar. Strategik hujum qurollarini 50 % qisqartirish to'g'risidagi kelishuvga ham erishilganligini qayd etish lozim. Har ikki tomon qirg'in qurollarini demontaj qilishga kirishdi.

1987-yil – *Sulaymon Demirel* To'g'ri yo'li partiyasi bosh kotibi.

1987-yil yanvar – qayta qurish vazifasi yanada konkretlashtirildi.

1987-yil yanvar – sobiq SSSRda ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaya bordi, iqtisodiyotda inqirozli holat yuzaga keldi. Qayta qurishning birinchi bosqichi shu tarzda mag'lub bo'ldi.

1987-yil may – *Rajiv Gandi* Panjobning markaziy hukumatga bo'ysunishi to'g'risida (shtat maqomiga ega avtonom huquqlarni bekor qilish) qaror qabul qildi.

1987-yil iyun – *Humayniy Ruhollo Musaviy* Islom respublikachilar partiyasini



(IRP) tarqatib yubordi, bu partiya ruhoniyatning tayanchi edi. Biroq, xalqaro munosabatlardagi chorasiz vaziyat va mamlakat iqtisodiyotida o'pirilishlarning boshlanishi uning yo'lboshchilarini ichki va tashqi siyosatda o'zgarishlarga olib borishga majbur etdi.

1987-yil 1-iyun - *Margaret Thatcher* uchinchi marta Angliya bosh vazirligiga saylandi.

1987-yil iyul – qayta qurishning asosiy qoidalari KPSS MK plenumida tasdiqlandi. Korxonalar mustaqilligini keskin kengaytirish, ularni to'liq xo'jalik hisobiga va o'z-o'zini moliyalash tizimiga o'tkazish islohotning asosini tashkil qilar edi. Mehnat jamoalarining huquqlari kengaydi. Ular endi xo'jalikni yuritish samaradorligiga va mehnat natijalariga javob berishi lozim edi.

1987-yil oktabr – janubiy Koreyada o'tkazilgan referendumda yangi Konstitutsiyani tasdiqladi. U parlament vakolatlarini kengaytirdi va prezident hokimiyatini chekladi. Konstitutsiya matbuot, so'z erkinligi, kasaba uyushmalarini tashkil etish va namoyish va yig'inlar o'tkazish huquqini e'lon qildi. Mamlakatda yangi partiyalarni siyosiy hayotga boshlovchi yangi siyosiy vaziyat yuzaga keldi. Parlament saylovlarida ilk bor muxolifat kuchlar g'alaba qozonib, hukmron "Demokratik adolat partiyasi"ni ko'pchilik ovozdand mahrum etdi. Biroq hukmron partiya prezidentlik o'rnini saqlab qoldi.

1987-yil oktabr – KPSS MKning plenumida *B. Yelsin* o'z ma'ruzasida *M. Gorbachev* yuritayotgan siyosat noizchil, chala ekanligini keskin tanqid qildi. Buning uchun u o'z lavozimidan chetlashtirildi. Siyosiy byuro a'zolidan chiqarib yuborildi. Partiya rahbariyati o'z siyosatida eski uslubini – demokratik harakatlarni kuch bilan bostirish, siyosiy muxolifat kuchlarni chetga surib chiqarish yo'liga o'tdi.

1987-yil 7-noyabr – *Ben Ali* Tunis prezidentligiga saylandi. *Ben Ali* xalqaro majburiyatlarga sodiqligini bildirdi va siyosiy plyuralizm asosida yo'nalish olib borish hamda demokratiyani mustahkamlashga va'da berdi.

1987-yil 30-noyabr - *Najibulloning* Afg'oniston prezidenti etib saylanishi. Mamlakat yangi konstitutsiyasining qabul qilinishi.

1987-yil yoz – *T. Jivkov* yetilib kelayotgan "to'liq"ning oldini olish maqsadida "sotsializmning yangi modeli"ni yaratishni e'lon qildi, partiya apparatlarining barcha hokimligini tugatish va demokratik islohotlar o'tkazilishiga va'da berdi. Biroq bu totalitar tuzumning yemirilishiga olib kelmadi. Barcha hokimiyat avvalgidek *Jivkov* va uning qarindoshlari, oshna-og'aynilari qo'lida qolaverdi.

1988-1990-yillar – *Benazir Bxut*ning Pokiston bosh vazirligi davri.

1988-1992-yillar – Myanma prezidenti *U So Maung*.

1988-1993-yillar – *Yan Shankun* XRR raisi.

1988-yil – iqtisodiy, savdo va fan-texnika hamkorligi haqida sovet-misr bitimi imzolandi.

1988-yil – Misr Aljir bilan diplomatik munosabatlar tikladi.

1988-yil – o'zbek tilida asarlar chop etish 10,6 mln nusxaga yetdi va O'zbekistonda yashayotgan har bir o'zbek o'quvchisiga atigi 0,7 tadan kitob to'g'ri keldi.

1988-yil – O'zbekiston bo'yicha 7 ta konsert muassasalari ijodiy faoliyat ko'rsatgan edi.

1988-yil - O'zbekiston erkin yoshlar uyushmasi tuzildi.



1988-yil – O‘zbekistondagi ittifoq vazirliklari tasarrufidagi korxonalar bor yo‘g‘i mahalliy byudjetga 10 mln so‘mgina mablag‘ ajratdilar.

1988-yil – O‘zbekistondagi konsertlar soni 5200 taga yetdi. Undagi tomoshabinlar soni 2133000 tani tashkil etdi.

1988-yil – Polshada partiya siyosiy plyuralizmga o‘tish haqida qaror qabul qildi. Muxolifatning ochiq faoliyatga haq-huquqi tan olindi, “Solidarnost” faoliyatiga ruxsat berildi, saylov tizimi o‘zgartirildi va parlament islohoti o‘tkazildi.

1988-yil - talabalar namoyishi va umumxalq ish tashlashi general *Ne Vinni* iste‘foga chiqishga majbur qildi. Hokimiyat general *So Maungo* boshchiligidagi boshqa bir harbiy guruh qo‘liga o‘tdi. Davlat qonunchiligi tartibini tiklash bo‘yicha Kengash rahbar organ bo‘lib qoldi va ko‘ppartiyalik tizimini tasdiqladi. Birma *Myanma Ittifoqi* deb yuritila boshlandi. Yangi rahbariyat qoloqlikdan chiqish va turmush darajasini ko‘tarish maqsadida bozor iqtisodiga o‘tishni boshladi.

1988-yil – Tunisda Demokratik konstitutsiyaviy birlashuv deb atala boshlagan partiya prezident *Ben Ali* siyosatini qo‘llab-quvvatladi.

1988-yil – Tunisda yangi konstitutsiyasi qabul qilindi, u demokratik tamoyillar asosida tuzilgan edi. Barcha siyosiy partiyalar rahbarlari mamlakat rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari bilan kelishuv to‘g‘risida Milliy pakti imzoladi.

1988-yil yanvar – *T.Jivkov* tomonidan e‘lon qilingan “qayta qurish” kutilgan natijani bermadi. Tovar tanqisligi va inflyatsiya mavjud og‘ir ahvolni yanada kuchaytirib yubordi. Mamlakatdan erkin chiqib ketish to‘g‘risidagi qonun musulmon va turkiy zabon aholining ommaviy ravishda Turkiyaga qochib o‘tishiga sabab bo‘ldi. Ular Bolgariya aholisining 15 foizini tashkil etib, asosan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanar edi. Shunday qilib, sotsializm yemirilishi ma‘lum bo‘ldi. Partiyada parchalanish yuz berdi.

1988-yil fevral – Belgradada Albaniya Bolqon konferensiyasida Yugoslaviya, Bolgariya, Gretsiya, Ruminiya, Turkiya bilan birgalikda ishtirok etdi. Biroq markazlashgan va mafkuralashgan asosda yaratilgan iqtisodiy tizim gullay boshladi. Albaniyaning iqtisodiy ahvoli keskin yomonlashdi.

1988-yil 23-fevral - Armanistonning Tog‘li Qorabog‘ avtonom viloyatida millatlararo to‘qnashuvning boshlanishi.

1988-yil aprel – Janubiy Koreyada parlament saylovlari bo‘lib o‘tdi.

1988-yil may – Fransiyada prezident saylovlari bo‘lib o‘tdi. Bu kurash asosan *Fransua Mitteran* va *Jak Shirak* o‘rtasida bo‘lib o‘tdi. *F. Mitteran* ko‘pchilik ovoz bilan g‘alaba qozondi. Ammo u endi ilgari sotsialistlar yetakchisi emas edi. u 72 yoshga yetgandi. Bundan tashqari *F. Mitteran* og‘ir xasta bo‘lib, o‘z vazifasini bajarishga katta kuch talab qilardi.

1988-yil may – Hindiston hukumati yana Oltin ibodatxonaga hujum boshlandi va minglab odamlar halok bo‘ldi.

1988-yil may – VSIPda rahbarlik almashdi – *Yanosh Kadar* o‘z o‘rnini Karoy Grosuga bo‘shatib berdi.

1988-yil 15-may - Sovet qo‘shinlarining Afg‘onistondan olib chiqib ketilishi.

1988-yil iyun – *Daniel Ortega Saavedraning* tashabbusi bilan Nikaraguaning barcha siyosiy kuchlari o‘rtasida qurolli kurashni to‘xtatish haqida bitimga



erishildi. Shundan so'ng AQSh "kontras", ya'ni sandinotchilarga qarshi qurolli kurash olib borganlarni qo'llab-quvvatlashini to'xtajagini e'lon qildi.

1988-yil 23-iyun - Elatlararo tartibsizliklarga chek qo'yish uchun Armaniston, Ozarbayjon va Tog'li Qorabog'ga qo'shin kiritildi.

1988-yil iyulgacha – Myanma yoki Myanma Ittifoqi Birma deb atalgan. Hind okeaniga chiqish yo'liga ega bo'lgan Janubl Sharqiy Osiyoning qadimgi budda mamlakati. U mazkur ittifoqdagi eng yirik davlat sanaladi. Myanmada 135 millatga mansub 45 million kishi yashaydi, ularning 69 foizini barmanlar tashkil qiladi.

1988-yil 17-avgust – general *Ziyoulhaq* aviatsiya falokatida halok bo'ldi va senat raisi *G'ulom Ishaq Xon* prezidentlik lavozimini egalladi.

1988-yil 4-sentabr - Kosovoda aholini alban separatчилaridan himoya qilish uchun favqulodda holat joriy etilishini himoya qilgan holda serblar va chernogorslar namoyishi o'tkazildi.

1988-yil oktabr – Jazoirning 2 asosiy shahri – Jazoir va Oranda islom flindamentalistlarining isyoni yuzaga keldi. Bu kunlarda 150 dan ziyod kishi halok bo'ldi. Faqat *B.Shadlining* ijtimoiy va siyosiy islohotlarni o'tkazishga bo'lgan va'dasigina hukumatga qarshi harakatning kuchayib ketishini to'xtatdi.

1988-yil 1-oktabr - *M.S.Gorbachev* SSSR Oliy Soveti kengashi Raisi etib saylandi.

1988-yil 5-oktabr - Chilidagi plebissit (referendum)da *A.Pinochet* mag'lubiyatga uchradi. Chililiklar diktatorlarga qarshi 56 foiz ovoz berishdi.

1988-yil 8-noyabr - Jorj Bush AQShda prezidentlik saylovlarida g'alaba qozondi.

1988-yil 11-noyabr – "Birlik" xalq harakati (rahbari *Abdurahim Po'latov*) jamoat tashkiloti sifatida tashkil topdi.

1988-yil 16-noyabr – Pokistonda umumxalq parlament saylovlari bo'lib o'tdi. Asosiy kurash PXP va Pokiston musulmon ligasi o'rtasida bordi. Unda PXP g'alaba qozondi va *Z. Bxuttoning* qizi – *Benazir Bxutto* o'z otasi partiyasiga yetakchilik qilgan holda bosh vazirlikka saylandi.

1988-yil dekabr – *M.Gorbachev*, *R.Reygan* va vitse-prezident *Bush* BMTda uchrashishdi.

1988-yil dekabr – SSSRda saylov tizimini o'zgartirish to'g'risidagi qonun qabul qilindi.

1988-yil 2-dekabr - Benazir Bxutto - Pokiston bosh vaziri.

1988-yil 14-dekabr – Ispaniyada umumiy siyosiy ish tashlash bo'lib o'tdi va unda 8 million kishi qatnashdi. Gonsales muzokara va yon berish orqali vaziyatni yumshatishga erishsa-da, hukumatga nisbatan omma ishonchini saqlab qola olmadi.

1988-yil 21-dekabr – Lokerbi nomli shotland qishlog'i ustida 259 yo'lovchisi bo'lgan Boing-247 samolyoti portlatildi. Liviya razvedkasining ikki xodimiga shubha tushdi, biroq *Kaddafiy* ularni xalqaro sud qo'liga topshirishdan bosh tortdi. Liviya xalqaro yakkalanib qoldi.

1988-yil o'rtasi – *F.Gonsales* hukumati bir qator yangi qonunlar va islohotlarni taklif etdi. Ularda soliqlarni ko'tarish, benzin narxini oshirish, tadbirkorlarga subsidiyalar berish kabi masalalar ko'rib chiqilgan edi. Bu hol jamoatchilikning keskin noroziligiga sabab bo'ldi.



1989-1990-yillar – Albaniyada milliy daromad 13 foizga qisqardi. Ishsizlik o'sdi, narx-navo osha boshladi. Talabalar norozilik harakati kuchaydi, o'n minglab kishilar chet elga qochishga harakat qildi.

1989-1991-yillar – *V. P. Singxning* Hindiston bosh vazirligi davri.

1989-1993-yillar – *J. Bushning* AQSh prezidentligi davri.

1989-1993-yillar – *J. Bush* ma'muriyatining hukmronligi.

1989-1993-yillar – *T. Ozal* Turkiya prezidenti.

1989-1997-yillar – *Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoni* Eron prezidenti.

1989-yil boshi – hind parlamenti *Rajiv Gandining* iste'foga chiqishini talab qilishga majbur bo'ldi. Parlament uni siyosatni tushunmaslikda va korrupsiyada ayblab ishonchsizlik bildirdi. Biroq HMK uni partiya yetakchisi lavozimida saqlab qoldi.

1989-yil boshi – Vengriyada yangi rahbariyat siyosiy islohotga kirishdi. VSIP o'zining monopoliyaligidan voz kechdi. Mamlakatda muxolifat siyosiy partiya va tashkilotlar tiklanishi boshlandi. Vengriyaning parlament demokratiyasiga o'tishi yuz berdi.

1989-yil – Andijon viloyatidagi barcha kutubxonalaridagi bo'lgan 8698000 kitobdan 4167,3 mingini rus tilidagi kitoblar tashkil qilgan.

1989-yil – Angola ikki tomonlama kelishuvga erishildi. Unga muvofiq JARning barcha qurolli kuchlari Angoladan olib chiqib ketildi. Janubiy Afrika Respublikasi yosh respublikaga qarshi urush boshadi va mag'lubiyatga uchradi. O'shanda JAR yordamida Namibiya qo'nim topgan UNITA tashkil qilindi va fuqarolar urushini boshladi. Angolaga kubalik ko'ngillilar yordamga keldi va UNITAni yakson qilishda katta rol o'ynadi.

1989-yil – Arab Mag'ribi Ittifoqi tashkil topdi.

1989-yil – BMT Xavfsizlik kengashi Namibiya umumxalq saylovini o'tkazishga qaror qildi.

1989-yil – demokratik kuchlar yordamida *B. Yelsin* SSSR xalq deputati etib saylandi.

1989-yil – Germaniyaning parchalanishi tugatildi.

1989-yil – *Humayniy Ruhollo Musaviy* vafotidan so'ng Eron prezidenti etib *Hoshimiy-Rafsanjoni* saylandi. U liberal qarashlarga ega kishi sifatida iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy hayotni erkinlashtirish yo'lini olib bordi.

1989-yil – Ispaniyada bo'lib o'tgan saylovlarda sotsialistik partiya jami 40 foiz ovoz oldi, omma baribir bir partiyali mahkama tashkil etishga erishdi.

1989-yil – JAR Namibiya hududidan o'z qo'shinlarini olib chiqib ketishga rozi bo'ldi.

1989-yil – Jazoirda prezidentlik hokimiyatini kuchaytiruvchi yangi konstitutsiya qabul qilindi, MOF hukumatga monopoliyadan voz kechdi. Muxolifatdagi partiyalar va islom fundamentalistlarining faoliyatiga yo'l ochildi.

1989-yil – Misr Suriya bilan diplomatik munosabatlarni tikladi.

1989-yil – o'zbek tilidagi kitoblar barcha kutubxonalar jamg'armasining 42,5 % ini tashkil etdi.

1989—yil – O'zbekiston bo'yicha 9310 ta harakatsiz madaniy va tarixiy yodgorliklar hisobga olingan. Ular faqat 6466 tasi ya'ni 70 % i davlat muhofazasiga olingan



edi. Davlat muhofazasiga olingan yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash ishlari ham o'lda-jo'lda bo'lgan. Tarixiy-madaniy yodgorliklar, obidalardan boshqa maqsadlarda foydalanish ayniqsa avj oldi. Toshkent shahrining o'zida 20 ga yaqin yodgorliklar ijarachilar, turli tashkilotlar, korxonalar tomonidan band etildi. Ko'plab joylarda o'ta mas'uliyatsizlik oqibatida tarixiy obidalar, xalq madaniy merosi yo'q qilindi. Navoiy viloyatining Xatirchi tumani hududidagi Soqitepa, 1-Uchtepa, Kattatepa, Zartepa, Shag'altepa, Baxchikalontepa kabi qo'rg'onlar vayron etildi.

1989-yil – O'zbekiston Madaniyat vazirligi qoshida Respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi. Uning tarkibida 12 ta, Qozoq, Koreys, Arman, Ozarbayjon, Tojik madaniyat markazlari faoliyat ko'rsata boshladi.

1989-yil – O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga qarashli klub muassasalarida xizmat qilayotgan 7261 xodimning faqat 1179 tasi, ya'ni 16,2 % igina oliy, 35,2 % i o'rta maxsus ma'lumotga ega edi. Respublika viloyatlari bo'yicha tahlil qilganda bu ko'rsatkich yanada beqaror bo'lganini ko'rish mumkin. Masalan, Xorazm viloyatida oliy ma'lumotli madaniyat xodimlari 20,8% ni tashkil etgan holda, Sirdaryo viloyatida bu raqam 8,5%ni, Buxoroda 10,1%ni tashkil qildi.

1989-yil – O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy maqsadlar uchun aholi jon boshiga 36 so'm pul ajratildi. Bu raqam Ittifoq respublikalari ichida eng past ko'rsatkich bo'ldi.

1989-yil – O'zbekistonda o'zbeklar aholisining umumiy salmog'i 71,4 % ga yetdi.

1989-yil – O'zbekistondagi 30 teatga 4387 ming tomoshabin tashrif buyurgan edi.

1989-yil – parlament saylovlarida PASOK mag'lubiyatga uchradi va hukumat tepasiga *Sanis Sannetakis* yetakchiligidagi Yangi demokratiya va kommunistlar vakillaridan iborat Muvaqqat koalitsiya hukumati keldi. Partiya yetakchisi *Konstantin Mitsotakis* bosh vazir etib saylandi.

1989-yil – Sovet Ittifoqi Afg'onistonda urushni bundan keyin davom ettirishning foydasizligini tushunib yetib, o'z qo'shinlarini Afg'oniston hududidan olib chiqib ketdi. Mamlakatda yangi vaziyat yuzaga keldi. Kobulda B.Karmalning o'rniga kelgan *Najibullo* inqilobi sovetparast tuzumi saqlanib qoldi. Mujohidlar o'z hukumatini tuzish, unda *Sibxatulla Mujadaddiy* mamlakat prezidenti etib tayinlandi.

1989-yil – Strasburgdagi hamjamiyat mamlakatlari rahbarlari sammitida *Margaret Tetcher* mazkur mamlakatlardagi ishchilar qonunchiligini unifikatsiyalash (bir xillashtirish)ga qarshi chiqdi va "Ishchilar asosiy huquqlari xartiyasi"ni qo'llab-quvvatlashdan bosh tortdi.

1989-yil – Turg'ut Ozal Turkiya prezidentligiga saylandi. *T.Ozal* mamlakat iqtisodini jadal o'stirish, erkin tadbirkorlikni rivojlantirish va bozor iqtisodini tashkil qilishga va'da berdi. Uning faoliyati davomida inflyatsiya yanada avj oldi.

1989-yil – Turkiyada birinchi marta davlat mulkini xususiy mulk uchun sotish jarayoni bo'lib o'tdi. Ammo xususiy lashtirilayotgan korxonalar narxi juda yuqori edi.

1989-yil – tuzilgan Islom milliy qutqarish fronti mahalliy hokimiyat organlariga saylovlarda g'alaba qozondi. U va MOF o'rtasida qarama-qarshilik davri boshlandi.



1989-yil – xalqaro jamoatchilik tazyiqi ostida va mag'lubiyatga uchraganligi bois sovet qo'shinlari Afg'onistondan chiqib ketishga majbur bo'ldi.

1989-yil – Yaponiyada yakka hokimiyat natijasida partiya nazoratni yo'qotdi va o'zlarini hamma narsaga haqli deb hisoblay boshladi. Bular tufayli partiya rahbarlari o'rtasida korrupsiya va poraxo'rlik, davlat mulkini talon-toroj qilish hamda tovlamachilik oddiy holga aylanib qoldi. Bu boradagi ilk katta shov-shuv YLDP yetakchilarining yirik kompaniyalar tomonidan sotib olinishi bo'ldi.

1989-yil 7-yanvar - Yaponiya imperatori *Xiroxito* o'limi. *Akixitoning* taxtga o'tirishi.

1989-yil fevral – Arab Mag'ribi ittifoqi a'zosisdir. Shu bois u tashqi siyosatda xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlanishiga ishonadi. Ayni paytda bir qator yirik g'arb davlatlari Liviya neftining uzluksiz yetkazib berilishidan manfaatdor va bu ham mamlakat xavfsizligining kafolatidir.

1989-yil 15-fevral - Sovet qo'shinlarini Afg'onistondan olib chiqib ketilishining yakunlanishi.

1989-yil may – Serbiya yagona yugoslav davlatini saqlash uchun kurashdi. Serbiya sotsialistik partiyasi (SSP) raisi *Slobodan Miloshevich* Serbiya respublikasi prezidenti etib saylandi.

1989-yil 25-may 9-iyul - *M.S.Gorbachevning* SSSR Prezidenti etib saylanishi.

1989-yil 28-may - O'zbekiston Respublikasida "*Birlik*" xalq harakati tashkil topdi.

1989-yil iyun - *I.A.Karimovning* O'zbekistonning 1-rahbari - O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1-kotibi lavozimiga saylanishi.

1989-yil iyun – Polshada parlament quyi palatasi seymga saylovlar bo'lib o'tdi. Barcha qarama-qarshi kuchlar kelishuviga muvofiq hal etildiki, 65 foiz o'rin PBIP va uning ittifoqchilariga beriladi, qolgan 35 o'rin uchun barcha siyosiy partiyalar kurashadi, biroq ularni muxolifat egalladi. U yana ta'sis etilgan ikkinchi palata – senatdagi barcha o'rinlarni ham oldi. Ikkala palataning qo'shma majlisida respublika prezidenti etib *V.Yamzelskiy* saylandi.

1989-yil iyun oktabr - Farg'ona, Toshkent va O'sh viloyatlarida bo'lgan voqealar, ayniqsa katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Ularning ro'y berishiga o'zbek xalqining hech qanday aloqasi yo'q edi. Aslida O'zbekistondagi millatlararo nizolar Markaz uchun, uning yanada qattiqroq siyosat olib borishi, o'zlarining jinoyatlashgan, millatchilikka asoslangan siyosatini yashirishi uchun zarur bo'ldi.

1989-yil 1-iyun – Yil talablariga muvofiq parlament bir qator qonunlar qabul qildi. Unga ko'ra ilgari davlat ixtiyoriga berilgan sanoat korxonalari xususiy mulkchilikka o'tkazildi, shuningdek, bozor iqtisodiga keng yo'l ochib beruvchi iqtisodiy qonunlarni liberallashtirdi.

1989-yil 3-15-iyun - Farg'onadagi millatlararo to'qnashuv .

1989-yil 23-iyun – O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining plenumi bo'lib o'tdi va unda *I.Karimovning* birinchi kotib etib saylanishi juda katta ahamiyat kasb etdi.

1989-yil iyul 1990-yil dekabr – *Boysex Yaruzel'skiy* Polsha prezidenti.

1989-yil 19-iyul - general *Yaruzel'skiyning* Polsha prezidentligiga saylanishi.

1989-yil sentabr 1993-yil – *Turg'ut Ozal* Turkiya prezidenti.

1989-yil sentabr – parlament saylovlarida aparteidga qarshi kurashuvchi *R.V.de*



Klerk rahbarligidagi Milliy partiya g'alaba qozondi. Jazolar va terror natija bermadi, JAR rahbar doiradagilari rejimni bir oz yumshatishga majbur bo'ldi.

1989-yil 20-sentabr – O'zbekiston rahbari *I.A.Karimov* KPSS Markaziy Komitetining Moskvada bo'lib o'tgan Plenumida dadil tarzda: “*Biz ittifoq va respublikalarning vazifalarini, burchlarini va o'zaro majburiyatlarini aniq-ravshan belgilab qo'yish, respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdorimiz*”, - deb ta'kidladi.

1989-yil oktabr – *Erix Xonneker* barcha lavozimlardan bo'shatildi.

1989-yil oktabr oxiri – *E. Xonneker* rahbarligidagi hukumat iste'foga chiqdi.

1989-yil 7-9-oktabr – Berlin, Drezden, Leypsig va boshqa shaharlarda o'n minglab kishilar mamlakatda tub o'zgarishni talab qilgan holda ko'chaga chiqdilar.

1989-yil 7-oktabr – GDR rahbariyati Germaniya tarixidagi birinchi sotsialistik davlatning 40 yilligini tan-tanali nishonlash uchun yig'ildi. Mamlakat bo'ylab esa *E.Xonnekerning* iste'foga chiqishini, Germaniyani birlashtirish va GSBP hukumatini tugatishni talab qilgan holda ommaviy namoyish boshlandi.

1989-yil 20-oktabr – O'zbekiston SSR xalq deputatlari saylovi haqida va O'zbekiston SSR xalq deputatlari mahalliy sovetlari deputatlari saylovi haqida qonunlar qabul qilindi.

1989-yil 20-oktabr – XI chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 11-sessiyasida “*O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish*” to'g'risidagi masala maxsus muhokama etildi. Sessiyada shu masala yuzasidan respublika Oliy Soveti Raisi ma'ruza qildi. Ma'ruzada O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish haqidagi Qonun davlat mexanizmining hamma bo'g'inlari Respublika Oliy Sovetiga bo'ysunishini nazarda tutishi alohida ta'kidlandi. Respublika Oliy Sovetiga eng oliy nazorat qiluvchi idora sifatida O'zbekiston SSRning yuqori mansabdor shaxslarni, Oliy Sovet Raisini saylash, O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Raisini, hukumat a'zolari va boshqa rahbar lavozimidagi kishilarni tasdiqlash yoki tayinlash va zarur bo'lganda ularni muddatidan oldin lavozimidan chaqirib olish huquqi berildi. Hukumatning bir yilda kamida bir marta Oliy Sovet oldida hisob berishi majburiy qilib qo'yildi. Oliy Sovet byudjetni nazorat qilish, ministrlar va idoralar ishini tekshirish, deputatlar so'rovini muhokama qilish masalalarini ham ko'rib chiqadigan bo'ldi.

1989-yil 21-oktabr – Respublika Oliy Kengashining XI chaqiriq 11-sessiyasida “*O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida*”gi qonun qabul qilindi. Bu qonun xalqimiz milliy ongining rivojlanishida, mamlakat mustaqilligining mustahkamlanishida, madaniy merosning tiklanishi va jamiyatning ma'naviy yangilanishida muhim rol o'ynadi.

1989-yil 31-oktabr – *Turg'ut Ozal* Turkiya prezidenti etib saylandi.

1989-yil 4-noyabr – Berlinda 500 ming kishilik namoyish bo'lib o'tdi va u kommunistlar hokimiyatini tugatdi. Ruminiyada diktator *Chaushesku* va uning xotini otib tashlandi. Sotsializm mamlakatlarida diktatorlik rejimini qachonlardir uning o'zini hukumat tepasiga keltirgan va asosiy suyanch bo'lgan ishchilar va armiya ag'darib tashladi. Sotsializm g'oyasi bu mamlakatlarda to'liq rad etildi.



1989-yil 9-noyabr – “Berlin devori” buzib tashlandi.

1989-yil 9-noyabr - Sharqiy va G'arbiy Germaniya o'rtasidagi chegaralarning ochilishi e'lon qilindi.

1989-yil 10-noyabr – Bolgariyada *T. Jivkovning iste'foga chiqqanligi* e'lon qilindi.

1989-yil 17-noyabr – Pragada talabalar namoyishi qatnashchilari qattiq jazolandi. Bu hol Chexoslovakiyada “baxmal inqilobi”ning boshtanishiga turtki bo'ldi. Boshida uning ishtirokchilari tinch yo'l bilan harakat qilgan talabalar edi. Pragadagi eng yirik korxonalar ishchilari talabalarni qo'llab-quvvatlashdi.

1989-yil 18-noyabr – “Xartiya-7” tashabbusi bilan “Fuqarolik forumi” tuzildi. Uning rahbariyati tarkibiga partiyadan chiqarilgan olimlar, madaniyat arboblari kirdi. Qisqa vaqt ichida Fuqarolik forumi inqilobning bosh shtabi sifatida ChKPni barcha pozitsiyalardan siqib chiqardi.

1989-yil 25-noyabr – O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XVIII plenumi bo'lib o'tdi. Unda milliy masalaning tarixiy jihatlarini, hozirgi ahvoli, milliy siyosatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, madaniy-axloqiy masalalarni chuqur ilmiy xolislik bilan tahlil etildi va Ittifoq rahbariyati oldiga bu masalalarni hal etish asosiy vazifa qilib qo'yildi.

1989-yil 25-noyabr – O'zbekiston SSR Oliy Soveti sessiyada “*O'zbekiston SSRni iqtisodiy va sotsial rivojlantirishning 1990-yilgi Davlat plani to'g'risida*”gi masalani muhokama qilar ekan, respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga oid muhim tadbirlarni belgiladi. Sessiyada respublikaning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan quyidagi qaror qabul qilindi: “*1990-yilda sovet va xo'jalik organlari, ilmiy muassasalar ishining muhim yo'nalishi respublikani o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash prinsipiga o'tishga tayyorlash yuzasidan amaliy tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat, deb xisoblansin. O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti bu ish jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishning real resurslarini hamda amal qilish imkoniyatlari – strukturani tubdan takomillashtirish va uning ilmiy-texnikaviy hamda tashkiliy darajasini oshirish imkoniyatlarini har tomonlama qarab chiqsin...amalga oshirilayotgan siyosiy sistema islohotini, ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirishni hisobga olgan holda respublikaning iqtisodiy suverenitetini kengaytirishning asosiy yo'llarini belgilasin*”.

1989-yil dekabr – BKP safidan *Todor Jivkov* o'chirildi.

1989-yil dekabr – Bolgariyada bir partiyali siyosiy tizim tugatilganligi e'lon qilindi.

1989-yil dekabr – Chilida barcha muxolifatdagi siyosiy partiyalar (markscha partiyalardan tashqari) ishtirokida umumxalq saylovlari bo'ldi. Xristian demokratlar vakili *Patrisio Elvin* g'alaba qozondi.

1989-yil dekabr – *Erix Xonekker* GSBP safidan o'chirildi.

1989-yil dekabr – Yugoslaviyadagi saylovlar *Slobodan Miloshevich*ning partiyasiga g'alaba keltirdi. Partiya ulug' davlatchilik shovinizmi yo'lidan bordi, serb millati rahbarligi ostida yagona yugoslav davlatini saqlab qolishni maqsad qilib qo'ydi.

1989-yil dekabr o'rtasi – Timishoar shahrida (Transilvaniya) “*Chaushesku yo'qolsin!*” shiori ostida ommaviy tartibsizliklar boshlandi. Chaushesku qo'shin



yubordi, bu qo'shin politsiya va xavfsizlik organlari bilan birga namoyishchilarni tarqatdi. Norozilik to'loqini Buxarestga yetib bordi.

1989-yil 22-dekabr – Buxarestning markaziy maydoni milliy bayroq ko'targan minglab kishilarga to'ldi. Namoyishchilar RKP MK binosini egallashdi.

1989-yil 23-dekabr - Ruminiyada *N.Chaushesku* tuzumining ag'darilishi.

1989-yil 25-dekabr – *N.Chaushesku* va uning xotini *Yelena* mamlakatdan qochish chog'ida qamoqqa olindi va sud qarori bilan otib tashlandi. *Chaushesku*ning "oltin davri" va Ruminiyadagi antikommunistik inqilob shu bilan tugadi.

1989-yil 29-dekabr - *Vatslav Gavelning* Chexoslovakiya prezidenti etib saylanishi.

1989-yil yoz – Bolgariyada sharoit keskin og'irlashdi.

1989-yil kuz – Sharqiy Yevropada kommunistlar rejimi qulagach, GDRdan GFRga ommaviy qochish boshlandi.

1990-yil boshi – O'zbekistonga neft mahsulotlari asosan chetdan keltirilardi. Qariyb 2 mln tonna paxta xom ashyosi (600 ming tonna paxta tolasi) Rossiya va boshqa mamlakatlarga neft mahsulotlari uchun berilardi. Mustaqillikning dastlabki yilidayoq neft mustaqilligiga erishish vazifasi ilgari surildi.

1990-yil boshi – Angliyada iqtisodiy kon'yuktura yomonlashdi, byudjet yetishmovchiligi, inflyatsiya va ishsizlik kabi "eski kasallik"lar yana qaytdi. Mamlakatning 18 yoshdan yuqori bo'lgan, daromadidan qat'iy nazar barcha Angliya aholisi to'laydigan yangi soliq ahvolni tuzatishga urinish bo'ldi. Bu tadbir ommaviy norozilik namoyishlariga sabab bo'ldi. Olsterdagi ahvol keskinlashdi. Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari sekinlashdi. "Tetcherizm davri" o'z imkoniyatlarini tugatgani ma'lum bo'ldi. Xususiylashtirish va neft sanoati bilan bog'liq barcha zahiralalar ham tugal holga keldi.

1990-yil boshi – *I.A.Karimov* O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lini ishlab chiqar ekan, o'tmishdan, sobiq sovet tuzumidan meros bo'lib qolgan tajribadan saboq chiqardi. Mustaqil taraqqiyotning dastlabki yilida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqur tahlil qildi. Shu asosda "*sohta inqilobiy sakrashlarsiz, fojeali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish – tanlab olingan yo'lning asosiy mazmun va mohiyatidir*", - degan xulosaga keldi. U O'zbekistonning chinakam mustaqilligini ta'minlash yo'llarini ishlab chiqishda avvalo respublikani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini hisobga oldi.

1990-yil boshi – jahon bozorida neft narxlari keskin pasaydi. Venesuellada inflyatsiya 30 % ga ko'tarilib ketdi, turmush darajasi keskin pasaydi. Ayni paytda kompaniyalar daromadi pasaymadi va korrupsiya avj oldi.

1990-yil boshi - O'zbekiston rahbariyati respublika xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishning o'ziga xos yo'lini mustaqil tarzda o'zi belgilay boshladi. Avvalo, "*O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish konsepsiyasi*"ni tayyorlashga kirishildi. Konsepsiya respublika reja Davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi, boshqa vazirliklar, idoralar, ilmiy-tadqiqot institutlari, viloyatlar va Toshkent shahar ijroiya qo'mitalari bilan hamkorlikda tayyorlandi.

1990-yil boshi – O'zbekistonda xalqning mustaqillikka erishishdan iborat azaliy



orzusini amalga oshirish kun tartibidagi bosh masala bo'lib qoldi. Mamlakatda shunday vaziyat vujudga keldiki, bir tomondan, *“Zo'ravonlikka asoslangan, ma'muriy-buyruqbozlikka xos bo'lgan markazlashgan davlat saqlanib qoladimi yoki demokratik jarayonlar chuqurlashishi evaziga ittifoqdosh respublikalar suvereniteti taminlanadimi?”* degan masala dolzarb bo'lib qoldi. Ikkinchi tomondan, o'sha davrdagi markaziy davlat rahbariyati mamlakat ichkarisidagi vaziyatni to'g'ri baholay olmadi, milliy respublikalarda mustaqillikka erishishga intilish tobora kuchayib borayotganining oldini ololmay qoldi.

1990-yil boshi - “Birlik” xalq harakati va O'zbekiston erkin yoshlar uyushmasi respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida ma'lum rol o'ynadi.

1990-yil boshi – Shimoliy Koreyada iqtisodiyotni haqiqiy inqiroz qamrab oldi. Ko'plab sanoat korxonalari buyurtmasiz qolib, ishni to'xtatdi. Ishsizlik boshlandi, oziq-ovqatlarning surunkali yetishmasligi yuzaga keldi.

1990-yil boshi – yosh mustaqil davlatlardagi siyosiy vaziyat shunday ediki, ular oldida ijtimoiy rivojlanishning ikki yo'li turardi. 1-si xalq xo'jaligini avvalgidek sotsialistik yo'nalishda rivojlantirish. 2-si jahon amaliyoti sinovidan o'tgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli, demokratik jamiyat qurish yo'lidan borish. O'zbekiston 2-sini tanladi, shu yo'lning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishga dadillik bilan kirishdi. Prezident *I.A.Karimov* “O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li” kitobida: *“Yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlashi kerak”*, - deb ko'rsatgan edi. Ayni chog'da siyosiy sohada bu: *“...Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, jamiyatning siyosiy tuzimini, davlat idoralarining tuzilishini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati hamda mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish mumkin”*, - deb ta'kidlagan edi Prezident.

1990-yil boshiga qadar - O'zbekistonga neft mahsulotlari, asosan, chetdan keltirar edi. Qarayib 2 million tonna paxta xomashyosi (600 ming tonna paxta tolasi) Rossiya va boshqa mamlakatlarga neft mahsulotlari uchun berilar edi.

1990-yil o'rtasi – O'zbekiston zamonaviy avtomobil industriyasiga ega mamlakatlar qatoridan munosib o'rin oldi.

1990-yil o'rtasi – O'zbekistonning yangi siyosiy rahbariyati respublikani chuqur iqtisodiy inqirozdan olib chiqish, bozor munosabatlariga o'tish uchun jiddiy harakat boshladi, buning umumdavlat dasturini tayyorlashga kirishdi.

1990-yil oxiri – BSP, BDXI, SDI vakillaridan iborat komissiya hukumati tashkil etildi va unga *Jelyu Jele*v rahbar etib saylandi. Davlat endi Bolgariya Respublikasi deb yuritila boshladi. Hukumat Xalqaro valyuta jamg'armasi tavsiyalariga muvofiq radikal islohotlarga kirishdi. Unda bozor iqtisodiga o'tish, narx-navoni liberallashtirish, ziyon keltiradigan korxonalarni tugatish ko'zda tutilgan edi.

1990-yil oxiri – Gonkong va Makao XXR bilan birlashdi.

1990-yil oxiri – Myanma Ittifoqida ahvol biroz yaxshilandi. Yalpi milliy mahsulotning (YMM) yillik o'sishi 8 foizni tashkil etdi.



1990-yil oxiri – SSSR tarkibidan Litva, Latviya, Estoniya, Gruziya, Ozarbayjon chiqib ketishi SSSR ning davlat butunligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

1990-yil – ozodlik g'oyasi obyektiv zarurat, ijtimoiy burch ma'nosida tushunildi.

1990-yil - *Termiziyning* tavalludining 1200 yilligi yurtimizda keng nishonlandi. Mustaqillik yillarida Termiziyning yodgorlik majmuasi qaytadan ta'mirlanib, qutlug' ziyoratgohga aylantirildi.

1990-1991-yillar – Qoraqalpog'istondagi 60 nafar fan doktorlari va 600 nafar fan nomzodlaridan deyarli 30 % i O'zbekiston mustaqilligi yillarida ilmiy daraja oldilar.

1990-1991-yillar – *Mixail Sergeevich Gorbachev* SSSR Prezidenti.

1990-1991-yillar – *B.N. Yelsin*ning RSFSR Oliy Sovet raisi lavozimidagi faoliyati.

1990-1992-yillar – O'zbekistonda yangi jamiyat qurish borasida tajribalar ortishi bilan Prezidentlik boshqaruvi ham rivoj topib bordi. Bu borada amalga oshirilgan ishlarni ko'rsatish mumkin. Bu davrda Prezidentlik hokimiyati bilan Vazirlar Kengashining ijroiya boshqaruv hokimiyati qo'shib yuborilib Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi.

1990-1994-yillar – Indoneziya iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy kapital mablag'lar 35 mlrd dollarni tashkil etdi, bu avvalgi 20 yillik mablag'lardan ikki marta ko'p edi. Indoneziya dunyodagi yirik siqilgan tabiiy gaz ishlab chiqaruvchi, shuningdek, neft ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi davlatga aylandi. Bu ulkan daromad olish va ularni yuqori texnologiyali tarmoqlar infratuzilmalarini rivojlantirishga sarflash uchun imkon yaratdi. Siyosiy barqarorlik, xorijiy mablag'larning kafolatlanganligi, bozor iqtisodiyotining to'liq erkinligi Indoneziyani xorijiy kapitalning yirik tushumlari bilan ta'minladi.

1990-1994-yillar – O'zbekiston Oliy Kengashining yangi tarkibi faoliyat ko'rsatgan davri. U o'z faoliyatini boshlagan paytda sobiq sho'ro tuzumining qonunlari amalda edi. Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyoti dastlab ana shu qonunlar doirasida boshlandi. Ayni paytda Oliy Kengash O'zbekistonning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan yangi qonunchilik tizimini vujudga keltirish yo'lidan bordi va uni qadam-baqadam shakllantira boshladi. Oliy Kengash mamlakatimiz tarixida 1-bor Prezident saylandi, Mustaqillik Deklaratsiyasini, O'zbekistonning davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida konstitutsiyaviy qonunni va boshqa muhim xujjatlarni ishlab chiqdi va 200 ga yaqin qonun, 500 dan ziyod qaror qabul qildi.

1990-1995-yillar – *Karamanlis Konstantinos*ning Gretsiyada prezidentligi.

1990-1997-yillar – *J.Meyjor* Buyuk Britaniyada Bosh vazir lavozimida.

1990-1999-yillar – BMT va xalqaro huquq 10 yilligi davri, deb e'lon qilindi. Ilgari hukmronlik qilgan kuch huquqi o'rniga jahonda gumanizm va adolatga asoslangan huquq kuchi tamoyili o'rnatildi.

1990-yil – birinchi harakatchan kino tijorat uchun tadbiq qilindi.

1990-yil – *Ahmad Muhammad Bin Bella* Jazoirga qaytgan va siyosiy faoliyatini tiklagan.

1990-yil – *B.N. Yelsin* KPSSdan chiqdi.

1990-yil – BKP Bolgariya sotsialistik partiyasi (BSP) deb o'zgartirildi. U demokratiya va diktatura o'zara murosasizligini e'lon qildi.



1990-yil - GDR yo'q bo'ldi, GFR bilan bir davlatga birlashdi, biroq GDR madaniyati arboblari ijodi o'z rolini o'ynadi.

1990-yil – Germaniyada bo'lib o'tgan bundestagdagi saylovlarda 60 mln saylovchi (GFRdan – 48 mln. sobiq GDRdan – 12 mln) ishtirok etdi va XDI/XSI bloki 662 ovozdan 319 tasiga ega bo'ldi. ODP 79 o'rin oldi.

1990-yil – Hindiston 170 milliard kvt/soat elektroenergiya, 12 million tonna po'lat, 30 million tonna neft ishlab chiqardi. Alyuminiy ishlab chiqarish tez o'sa boshladi. Avtomobil va avtobus, radiopriyomnik, televizor, fotoapparat kabi sanoat mollari ishlab chiqarish tezkor sur'atlarda rivojlana boshladi. Hindiston traktor ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi mamlakatlar safidan o'rin oldi. Biroq mamlakatda agrar islohot o'tkazilmadi, 20 foizdan ko'prog' qishloq aholisi umuman o'z yeriga ega emas, 50 foizdan ko'prog'ida esa atigi 2 gektargacha yer mavjud. Bu hol hind xalqining ko'pchiligi qashshoqlikdan ham quyi chegarada yashashni anglatadi. Yersizlik ishsizlikni keltirib chiqaradi. Hozirgi Hindistonda ishsizlar soni 30 million kishini tashkil qiladi. Aholning 50 foizi savodsiz.

1990-yillar – Jahon siyosatida hal qiluvchi burilish ro'y berdi. Osiyo va Afrika mamlakatlari xalqaro munosabatlarda mustaqil rol o'ynay boshladi. Mustamlakachilikni bartaraf etish haqidagi 1960-yil bayonotnomasi qabul qilingandan o'tgan 30 yil mobaynida aholisi 80 ml kishi bo'lgan 80 ga yaqin mustamlaka hududlari mustaqillikka erishdi va suveren a'zolar sifatida BMTga qabul qilindi.

1990-yil – *Joakimo Chissano* JAR bilan harbiy otryadlarning Mozambik hududiga hujumlarini to'xtatish to'g'risidagi bitimni imzolashga erishdi. Bir vaqtning o'zida Rimda oq tanli ko'chmanchilar bilan muzokaralar olib borildi.

1990-yil – Kemp-devid bitimi Yaqin Sharq mojarosida biror-bir ijobiy siljishlarga olib kelmadi, biroq u AQShning arab-isroil munosabatlari rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Bundan tashqari, bitimdan keyin yuz bergan voqealar shuni ko'rsatdiki, mazkur bitim arab davlatlarini “mo'tadillar”, ya'ni Isroil bilan bitimga borishga tayyorlar (Saudiya Arabistoni, Misr, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari) va “murosasizlar”ga (Suriya, Iroq, Aljir, Liviya) parchalanishiga olib keldi. Bu parchalanish Iroqqa qarshi “qo'ltiqdagi urush”da “mo'tadillar” AQSh tomonida faol ishtirok etganida juda yaqqol namoyon bo'ldi. Misr Amerika qo'shinlariga yordamga 36 ming askar yubordi, Saudiya Arabistoni o'z hududiga amerika qo'shinlarini joylashtirdi, Iordaniya va Amirliklar sukut saqladi.

1990-yil – *Mixail Sergeevich Gorbachev*ga Nobel mukofoti topshirildi.

1990-yil – Mongoliyada 1-marta ko'ppartiyali demokratik saylovlar bo'lib o'tdi va unda MXIP g'alaba qozondi.

1990-yil – Myanmada birinchi marta erkin umumxalq saylovlari bo'lib o'tdi va unda mavjud rejimga qarshi bo'lgan – *Demokratiya uchun milliy liga* g'olib chiqdi. Biroq general *So Maung* hokimiyatni topshirishdan bosh tortdi.

1990-yil – Namangan viloyati bo'yicha jami 1480 km gaz tarmoqlari tortildi.

1990-yil – NATO yetakchilari “sovuq urush” tugaganligini ma'lum qilgan edi.

1990-yil – O'zbekiston maktablarida o'quvchilarning soni 245 mingga kamaydi.

1990-yil – O'zbekiston oliy maktablarini bitirganlar soni 508 mingga yetdi.



1990-yil – O'zbekiston Respublikasida 345 ta vaqtlı nashr chop etildi.

1990-yil - O'zbekistonda "RadioelektronTexasbob" davlat konserni tashkil etildi.

1990-yil – O'zbekistonda 5,7 mln tonna neft mahsulotlari chetdan sotib olindi.

1990-yil – O'zbekistonda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi kamayib borishi.

1990-yil - O'zbekistonga 5,7 mln tonna neft mahsulotlarini chetdan sotib olgan.

1990-yil – qayta qurishning maqsadi suniy "rejali bozor" tizimini tashkil qilishdan iborat bo'lib qolaverdi. Shu bilan birga, byudjet xarajatlarining daromadlar hajmidan ortib ketishi pulning qadrsizlanishiga olib keldi. O'zbekiston iqtisodiyotining inqirozga uchrashiga hali kuchli tarzda davom etayotgan xo'jalik yuritishning ma'muriy usullari, iqtisodiyotning siyosiy mulohaza va eskicha yo'llar bilan boshqarilishi, yangi qiyinchiliklar (xom ashyo yetishmasligi, ommaning iqtisodiy "islohotlar"ga ishonmasligi) ham ta'sir qildi.

1990-yil – Rossiya va Ukrainada 30 % aholining daromadli tirikchilik o'tkazish uchun zarur bo'lgan eng quyi darajadan ham kam bo'lsa, O'zbekistonda aholining 70 % i shunday nochor kambag'allikda yashardi.

1990-yil – Rossiyada oliy o'quv yurtlari soni 502 tani tashkil etdi.

1990-yil – Rossiyada talabalar soni 2,9 mln.ni tashkil etdi.

1990-yil – Ruminiyadagi parlament saylovlarida MQF quyi palata va senatda mutlaq ko'pchilik o'rin oldi. Ruminiya prezidenti etib *I. Ilyesku* saylandi. Mamlakatda g'ayritabiiy inqilob yuz berdi: hammaning g'azabiga uchragan mustabid yo'q qilindi, uni yuzaga keltirgan tashkilot saqlanib qoldi.

1990-yil – *Saddam Husayn* ulkan qo'shinga ega edi. Iroq o'z harbiy xarajatlarini Quvayt hisobidan qoplash yo'lini o'ylab, uning hududiga kirib ehtiyotsizlik qildi. AQSh esa bundan foydalanib, "Cho'ldagi to'fon" deb nomlangan harbiy operatsiyani boshlab yubordi. Iroq qo'shini mag'lubiyatga uchradi. Iroq rejimining batamom tugatilishidan Sovet Ittifoqi saqlab qoldi. Birorta arab davlati Iroqni himoya qilib chiqmadi. Saudiya Arabistoni va Quvayt esa hatto AQShning harbiy xarajatlarini saxiylarcha qopladi. Ulardan olingan pullar (20 mlrd. dollar) Isroilga berildi. Arab davlatlari birligi shu tariqa yemirildi.

1990-yil – Sharqiy Yevropaning barcha mamlakatlari Yevropa Kengashiga a'zo bo'lib kirishdi.

1990-yil – Yaponiya iqtisodida turg'urdk alomatları paydo bo'la boshladi. Tokio birjalarida sarosima boshlandi, kompaniyalar aksiyalari narxi tushib ketdi. Butun dunyoda yapon iqtisodiga ishonch susaydi. Buning natijasida esa juda ko'p minglab ishchi va xizmatchilar ishdan bo'shatildi yoki majburiy ta'tilga chiqarib yuborildi.

1990-yil – Yaponiyada sanoat ishlab chiqarishning yillik o'sishi 5 foizni tashkil etdi.

1990-yil fevral – *de Klerk* 30 yil davomida taqiqlangan AMK faoliyatiga ruxsat berdi. AMK yetakchisi *Nelson Mandela* 27 yillik qamoqdan so'ng ozodlikka chiqdi.

1990-yil fevral – Nikaraguada umumxalq demokratik saylovlari bo'lib o'tdi. Prezident *Violetto Chamorro* boshchiligidagi o'ng muxolifat hukumati hokimiyat tepasiga keldi. Sandinochilarning bir qismi saylovlar natijasini tan olishdan voz



kechdi va mamlakat fuqarolar urushi yoqasiga borib qoldi. Biroq *D.Ortega* o'z siyosiy mag'lubiyatini tan oldi va o'zining yaqin paytlardagi muxoliflarining hokimiyatga kelishiga rozi bo'ldi. *V.Chamorro* mamlakatda tinchlik va barqarorlikni saqlashga muvaffaq bo'ldi.

1990-yil fevral-aprel – O'zbekiston oliy sovetida o'tkazilgan saylovlarda 500 okrugdan 174 tasida muqobil nomzodlar ko'rsatilgan edi. Deputatlarning 95 % ini kommunistlar tashkil etardi.

1990-yil 18-fevral – O'zbekiston Oliy Kengashining navbatdagi yangi tarkibi saylandi.

1990-yil 18-fevral – O'zbekistonda o'tkazilgan saylovlar keng demokratik asosda o'tdi. Viloyat sovetlariga saylovda 138 okrugda, shahar sovetlariga saylovda 268 okruglardan ovoz to'plashadi.

1990-yil mart – oyida SSSR Konstitutsiyasining KPSS jamiyatidagi rahbarlik roli to'g'risidagi 6-moddani SSSR xalq deputatlarining navbatdan tashqari III qurultoyi ushbu moddani bekor qildi.

1990-yil mart – sobiq Ittifoq respublikalari ichida birinchilardan bo'lib, O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvning tashkil etilishi, g'oyaviy qarashlari, siyosati butunlay yangilanayotgan jamiyatga mos bo'lgan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining paydo bo'lishi, hokimiyatning asta-sekin va izchillik bilan partiya idoralaridan Prezident, hukumat, mahalliy idoralar qo'liga o'tishi, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilib, milliy qadriyatlarining tiklana boshlagani bevosita *I.Karimov* nomi bilan bog'liq.

1990-yil mart-oktabr – Respublikamizda Prezidentlik lavozimining paydo bo'lishi, ayniqsa, uning huquqiy maqomi belgilanishi 1-bosqichi. O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish hamda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonun qabul qilindi. Unga ko'ra respublika Prezidenti lavozimi ta'sis etildi. Bunda demokratiya jarayonlarini yanada rivojlantirish, konstitutsiyaviy tuzumni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash, respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy idoralarining o'zaro aloqasini takomillashtirish maqsad qilib qo'yildi.

1990-yil 15-mart - *M.Gorbachev*ning SSSR prezidenti etib saylanishi.

1990-yil 17-mart – Litva Oliy Soveti Litva davlati mustaqilligini tiklash to'g'risida qonun qabul qildi.

1990-yil 18-mart – GDRda ko'p partiyalik asosida o'tkazilgan saylovlar XDI partiyasining g'alabasi bilan tugadi. Mazkur partiya 41 foiz, sotsial-demokratlar - 21 foiz, DIP (sobiq GSBP) - 16 foiz ovozga ega bo'ldi. XDI va sotsial-demokratlar vakillaridan iborat yangi koalitsiya hukumati tuzildi. Hukumat darhol Germaniyani birlashtirish haqidagi masalani ilgari surdi. GDR va SSSR o'rtasida Germaniya muammosini hal etish borasida muzokaralar boshlandi.

1990-yil 23-mart – O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Plenumi bo'ldi. Unda O'zbekiston SSRning siyosiy suvereniteti masalalariga oid muammolarni tahlil etishga va konsepsiyalarini ishlab chiqishga jiddiy e'tibor berildi. Plenum yangilanayotgan siyosiy tizimda respublika Kompartiyasining o'rnini va mavqei, uning davlat hokimiyati idoralari va jamoat tashkilotlari bilan



o'zaro munosabati prinsiplari to'g'risidagi masalalarni muhokama qilib, buyruqbozlikdan, ma'muriyatchilikdan voz kechish lozimligini uqtirdi. Shu bilan birga Plenum respublika siyosiy tizimi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni hayot taqazo qilayotganligini ko'rsatib, *“real hokimiyat O'zbekiston Kompartiyasidan, uning barcha darajalaridagi komitetlaridan xalq deputatlari Sovetlariga berilishi bilan bog'liq barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishlari lozimligini ta'kidlab, yuzaga kelgan vaziyatda O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish muhim ahamiyat kasb etadi”*, - deb ta'kidladi.

1990-yil 23-mart – O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining plenumida respublika siyosiy tizimi to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi. Unda O'zbekistonda hokimiyatning Prezidentlik boshqaruviga o'tishi takidlandi.

1990-yil 23-mart – O'zbekiston rahbari *I.A.Karimov* O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Plenumida O'zbekistonning iqtisodiy mustaqillikka erishishining asosiy yo'llarini ko'rsatib: *“siyosiy sistemani yangilash masalalarini O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi muammolaridan ajralgan holda qarash mumkun emas. Bizda bunday mustaqillik uchun shart-sharoit bor”*, - degan fikrni bildirdi.

1990-yil 24-mart – XII chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasi bo'ldi. Unda O'zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Sessiya yakdillik bilan *I.A.Karimovni* O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Prezidenti etib saylash to'g'risida qaror qabul qildi. O'zbekistonda Prezident lavozimining ta'sis etilishi respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash borasida qo'yilgan dadil qadamlardan dastlabkisi edi. Chunki uzoq yillar mobaynida yig'ilib qolgan milliy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy rivojlanish muammolari bu vaqtga kelib nihoyatda keskin tus olgan edi. Hayot respublikaning kelajagi, xalq taqdiri va turmushining, O'zbekiston fuqarolari kelajak avlodlari hayotining to'kisligi, tinchlik, osoyishtalik muammolarini izchil hal etishni ko'rsata boshladi. O'zbekiston oldidagi mana shu dolzarb muammolarni hal etishga Prezident lavozimini keng imkoniyat ochar edi.

1990-yil 24-mart – XII chaqiriq O'zbekiston SSR oliy sovetining birinchi sessiyasi o'sha paytda respublika Kompartiyasi birinchi kotibi bo'lgan *I.Karimovni* O'zbekiston SSR ning birinchi Prezidenti etib saylandi.

1990-yil 30-mart – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tasdiqlagan Vazirlar Kengashi yangi tarkibi 41 kishi, ya'ni Rais, Bosh vazir, uning ikki 1-o'rinbosari, 4 o'rinbosari, 19 vazir, 14 davlat qo'mitasi raisidan iborat edi. Respublikada demokratik jamiyat qurish borasida boshqaruv idoralari tobora takomillashib bordi.

1990-yil 30-aprel – “Erk” demokratik partiyasining ta'sis qurultoyida uning dastur va nizomi qabul qilindi. “Erk” partiyasining yangi jamiyat qurish yoki bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish jarayonidagi aniq bir konsepsiyasi yoki dasturi yo'q edi. Uning ko'p hujjatlarida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish to'g'risida gap ketsa-da, aslida uni qurish uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, uning huquqiy poydevorini shakllantirish to'g'risida o'ylanmasdi.



1990-yil may – Litva Oliy Soveti davlat suvereniteti to'g'risida Deklaratsiya qabul qildi. Boltiqbo'yi respublikalari SSSR tarkibidan chiqib ketdi.

1990-yil may – Rossiya Federatsiyasi xalq deputatlariga saylovlar bo'lib o'tdi. Birinchi syezdda uch ovoz ortiq bilan *B. Yelsin* Oliy Sovet raisi etib saylandi.

1990-yil 29-may - *B.N. Yelsin*ning RSFSR Oliy Soveti raisi etib saylanishi.

1990-yil iyun – bo'lib o'tgan oliy kengashning ikkinchi sessiyasi O'zbekiston Prezidenti *I. Karimov* raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya komissiyasini tuzdi.

1990-yil iyun – Chexoslovakiyada Federal majlisga saylovlarda Fuqarolik forumi ishonarli g'alaba qozondi. Ular 300 mandatdan 170 tasini qo'lga kiritdi.

1990-yil iyun – O'rta Osiyo va Qozog'iston davlatlarining Almati Uchrashuvida o'zaro do'stlik va hamkorlikning muhimligi ko'rsatildi. Bu uchrashuv sobiq Sovet Ittifoqi hukmronligining so'nggi davrlarida bo'lib, iqtisodiy inqirozdan qutilish uchun 5 davlat o'z iqtisodiy resurslarini birlashtirish zaruriyatini ko'rsatdi. Bu davlatlar har yili uchrashish to'g'risida kelishib olishdi.

1990-yil 12-iyun – Rossiya Federatsiyasi davlat suverenitetligi e'lon qilindi. Bu paytda SSSR amalda faqat rasmiy jihatdangina mavjud edi. SSSRning 1-prezidenti etib e'lon qilingan *M. Gorbachev* hokimiyat vakolatini yo'qotgan edi.

1990-yil 13-iyun – Ruminiyadagi namoyishchilar va politsiya o'rtasida to'qnashuv ro'y berdi. Bir qator hukumat binolari yoqib yuborildi. Hukumat tartibsizliklarni bostirish uchun viloyatdan 10 ming shaxtyorlari chaqirdi, ular o'ta shafqatsizlik bilan harakat qilib, Chaushesku diktaturasi ag'darilgandan so'ng tiklangan milliy-liberal va milliy-saranistik partiyalar shtab-kvartiralarini tor-mor etildi.

1990-yil 18-iyun – O'zbekistondagi tarixiy shart-sharoit va vaziyatni hisobga olgan 200 dan ortiq deputat XII chaqiriq respublika Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasi boshlanishidayoq Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilishni kun tartibiga kiritishni va uni kechiktirmasdan shu sessiyada qabul qilishni talab qildilar.

1990-yil 19-iyun – 40 dan ortiq deputat, doimiy komissiyalarning raislari huquqshunoslar tayyorlagan Deklaratsiya matnini batafsil ko'rib chiqdi.

1990-yil 20-iyun – O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish g'oyasi Oliy Kengashning 2-sessiyasida ilgari surilgan. Sessiyada Prezident *I.A. Karimov* raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyhasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda jamoat tashkilotlari, korxonalar, xo'jaliklarning rahbarlari, taniqli huquqshunoslar, olimlar va mutaxassislar kirdi. Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan Konstitutsiyaning g'oyaviy mag'zi, ya'ni konsepsiyasi ustida ish boshlab yuborildi.

1990-yil 20-iyun – O'zbekiston SSR Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasida "*Mustaqillik Deklaratsiyasi*" qabul qilindi.

1990-yil 20-iyun – XII chaqiriq Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasida "*O'zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasi*" qabul qilindi. Respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina boshlanishi.

1990-yil 27-iyul - Belorussiya davlat suvereniteti haqidagi bayonnoma.



1990-yil 6-avgust – SSSR Prezidenti *M. Gorbachev*ning “*Yangi Ittifoq Shartnomasining asosi sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning Ittifoq Dasturi Konsepsiyasini tayyorlash haqida*” farmoni e'lon qilindi. Bu vazifani bajarish uchun SSSR va RSFSR rahbarlari tomonidan komissiya tuzildi.

1990-yil 29-avgust – O'zbekistonda SSR Oliy Soveti Rayosati “*Ittifoqning yangi shartnomasi va boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish Dasturining asosiy qoidalari va yo'l-yo'riqlariga nisbatan respublikaning tutgan o'rni to'g'risida*”gi masalani ko'rib chiqib bu borada shoshilmaslik lozimligini yana bir bor takidladi. Oliy Sovet Rayosati Ittifoqning yangi shartnomasini tuzish hamda boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturi bo'yicha tayyorlangan takliflar 1-turkumini chuqur o'rganib chiqish va muhokama qilish uchun O'zbekiston Oliy Soveti, Kompartiya Markaziy Qo'mitasi, O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi va boshqa tashkilotlarga yubordi.

1990-yil sentabr – SSSR va RSFSR rahbarlari tomonidan tuzilgan komissiya kechikmasdan Hukumat Dasturini ishlab chiqishi zarur edi.

1990-yil 4-sentabr – SSSR Oliy Kengashining IV sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada SSSR Ministrlar Sovetining Raisi *H.Rijkov* “*Boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tishga tayyorgarlik va mamlakat xalq xo'jaligida barqarorlikni vujudga keltirish haqida*” ma'ruza qildi. Unda deputatlarning avvalgi fikrlari inobatga olingan variant ishlab chiqilgani aytilsa-da, sessiya Hukumat Dasturini qabul qilmadi. Buning muhim sababi deputatlarda Hukumatga nisbatan ishonchning yo'qola borishi edi. Ayni chog'da Hukumat Dasturi sobiq Ittifoqni saqlab qolishni, iqtisodiyotni sotsialistik yo'ldan rivojlantirishni ko'zda tutar edi.

1990-yil 11-sentabr – RSFSR Oliy Sovetining II sessiyasi *S.Shatalim*ning “*500 kun*” Dasturini qabul qildi. Dastur fuqarolarning mulkka egalik huquqini, iqtisodiy mustaqillikni, erkin iste'mol bozori va unda erkin narxni joriy etishni, korxonalariga mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritish huquqini berishni, ittifoqdosh respublikalarning mutlaq suverenitetini, aholi turmush darajasini pasaytirmaslikni ko'zda tutar edi.

1990-yil 12-sentabr – GFR kansleri *G.Koll* va SSSR Prezidenti *M.Gorbachev* Germaniyaga nisbatan o'z boshqaruv siyosatining tugaganligi to'g'risida Shartnomani imzoladilar.

1990-yil 21-sentabr – SSSR Oliy Soveti IV sessiyasida har ikkala (“*500 kun*” va “*SSSR Hukumati dasturi*”) Dasturni ham qabul qilmadi.

1990-yil 24-sentabr – SSSR Oliy Soveti IV sessiyasida “*Xalq xo'jaligini barqarorlashtirishning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari*”ni muhokama qilib, Hukumat Dasturi va *S.Shatalin* Dasturidan iborat Yagona Dastur ishlab chiqishni topshirdi.

1990-yil oktabr - Qozog'iston, Qirg'iziston, Boshqirdiston, Qalmiqiston, Chuvashiston respublikalari davlat mustaqilligi haqida bayonnoma.

1990-yil 3-oktabr - Germaniyaning qayta birlashishi, yagona german davlatining e'lon qilinishi.

1990-yil 3-oktabr – yagona german davlati tashkil etilganligi e'lon qilindi. *Gelmut Kol* Germaniyadagi eng mashhur davlat arbobiga aylandi.

1990-yil 9-10-oktabr - “*Berlin devori*”ning qulashi.



1990-yil 17-oktabr – “O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra “O‘zbekiston xalq xo‘jaligini sog‘lomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o‘tishning asosiy prinsiplari” ishlab chiqildi va u shu kuni umumxalq muhokamasi uchun e‘lon qilindi.

1990-yil 18-oktabr – SSSR Oliy Soveti sessiyasida “Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jahon amaliyotidan kelib chiqqan zarurat, ammo u iqtisodiyotning sotsialistik yo‘nalishiga ziyon yetkazmaydi”, - deb xulosa berdi.

1990-yil 29-oktabr – O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining III sessiyasida “O‘zbekiston xalq xo‘jaligini sog‘lomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o‘tishning asosiy prinsiplari” masalasi yuzasidan Hukumatning hisoboti eshitildi. Oliy Kengash sessiyasi “...vujudga kelgan ahvoldan chiqishning yo‘li... respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga erishish asosida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va jadallashtirishdan iborat”deb hisobladi. Sessiya respublika Hukumati Dasturini ma‘qulladi va O‘zbekiston Ministrlar Sovetiga O‘zbekiston SSR mulkiga egalik qilish, uni tasarruf etish, taqsimlash va undan foydalanish masalalari yuzasidan respublikaning suveren huquqlarini amalga oshirishning samarali amal qiluvchi mexanizmini yaratish bo‘yicha asoslangan takliflar tayyorlashni topshirdi.

1990-yil noyabr – *Margaret Tetcher* o‘z ixtiyoriga ko‘ra iste‘foga chiqdi. U hukumatda kelgusi saylovgacha ishlab turishi mumkin edi. Biroq bu hol partiyani mag‘lubiyatga olib kelardi. Estafetani konservatorlar partiyasining yangi yo‘lboshchisi *Jon Meyjor* qabul qildi.

1990-yil 1-noyabr 1992-yil 8-dekabr - O‘zbekiston Respublikamizda Prezidentlik lavozimining paydo bo‘lishi, ayniqsa, uning huquqiy maqomi belgilanishi 2-bosqichi. Prezident Oliy ijroiya va boshqaruv hokimiyatini amalga oshiruvchi shaxsga aylandi va ayni paytda u davlat boshlig‘i sifatida ham o‘z o‘rnida qoldi. Endilikda u faqat farmonlar emas, balki qarorlar va farmoyishlar ham qabul etadigan bo‘ldi. Bulardan tashqari o‘sha paytda Vitse-prezident lavozimi ham ta‘sis etilib, u Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qiluvchi va uning ishini uyushtiruvchi vazifani bajarar edi.

1990-yil 1-noyabr - O‘zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida Qonun qabul qilindi. Natijada mavjud Prezidentlik hokimiyati bilan Vazirlar Kengashining ijroiya-boshqaruv hokimiyati qo‘shib yuborilib, keyingisi Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi. Prezident ayni paytda Vazirlar Mahkamasining Raisi bo‘lib qoldi.

1990-yil 15-noyabr – Prezident *I.A.Karimov* “O‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmon chiqardi. Prezidentning ushbu farmoni asosida xalq xo‘jaligi dehqonchilik sanoati, xalq iste‘moli mollari, qurilish-transport, mashinasozlik, yoqilg‘i energetika, umumiy iqtisodiyot, moddiy-texnika, madaniyat ishlari komplekslariga ajratilib, uning rahbarlari belgilandi va ular Vazirlar Mahkamasini tarkibiga kiritildi.

1990-yil 28-noyabr - Buyuk Britaniya bosh vaziri etib *Jon Meyjoring* saylanishi.



1990-yil dekabr – O'zbekistonda ma'muriy-buyruqbozlik, to'rachilik tizimining o'zagini tashkil etuvchi Davlat reja qo'mitasi Iqtisod komissiyasiga aylantirildi.

1990-yil dekabr – Polshada umumiy ovoz berish yo'li bilan mamlakat prezidenti etib *Lex Valensa* saylandi.

1990-yil 14-dekabr – Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining IV sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat suvereniteti to'g'risida Deklaratsiya" qabul qilindi.

1990-yil bahor – parlament saylovlarida Vengriya demokratik forumi g'alaba qozondi. U huquqiy davlatni barpo etish, demokratik o'z-o'zini boshqarish, zarar keltiradigan korxonalarni xususiy lashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishni yoqlab chiqdi. Bu partiya yo'lboshchisi *Yo'fey Antall* MQXEP va boshqa partiyalar bilan birgalikda koalitsion hukumat tuzdi. Mamlakat prezidenti etib Erkin demokratlar ittifoqi raisi, ilgari qatag'on etilgan MQXEP arbobi *Ariada Gensa* saylandi. Mamlakatdagi siyosiy ahvol barqarorlashdi.

1990-yil kuz – Moskva Markaz bilan respublikalar o'rtasidagi munosabatlarni yangilash yuzasidan muzokaralar jarayonini boshlab yubordi.

1990-yil – Polsha hukumati oldida turgan asosiy muammo tashqi qarzdorlik edi. Bu qarzdorlik 50 milliard dollardan oshib ketdi. G'arb yana kredit yordami berdi.

1990-yillar – respublikalar suverenitetini va inson huquqlarini poymol qilgan totalitar-buyruqbozlik boshqaruvining istiqbolsiz ekanligini hayotning o'zi ko'rsata boshladi. Bunday holat sobiq SSSRda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish hamda Yangi Ittifoq Shartnomasini tayyorlash borasidagi natijasiz qadamlarda ham o'z ifodasini topdi.

1990-yillar – Rossiya Federatsiyasida iqtisodiyot asoslarining yemirilish jarayoni bordi. Real sektorga investitsiyalar 5 martaga qisqardi. Korrupsiya misli ko'rilmagan miqyoslarga yetdi. Boshqaruvning samarasizligi barcha darajalarda jamiyatni rivojlantirishning tormozi bo'ldi. Neft va energetikadan tashqari sanoatdagi mehnat samaradorligi AQShdagidan 5 marta past edi. Raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish keskin kamaydi.

1990-yillar – Rossyaning – Sovet Ittifoqining parchalanishi tufayli tashqi siyosati Rossiya ulug' davlat maqomini yo'qotmadi. U yadro quroli, qudratli harbiy havo kuchlari va harbiy-dengiz flotiga ega. U o'z harbiy-siyosiy va harbiy-strategik pozitsiyalarini saqlagan bo'lsa ham, ta'siri va obro'si pasaygan. U BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi bo'lib qoldi va sobiq Sovet Ittifoqi davridan mustahkamlanib qolgan barcha muhim o'rinlarni saqlab qoldi.

1990-yillar - yangi fan - gen injeneriyasi paydo bo'ldi, u bir organizm hujayralarini boshqasiga o'tkazish va irsiyatiga ta'sir etish, sun'iy urug'lantirishni amalga oshirishga qodir edi.

1990-yillar – Yaponiyani har xil siyosiy janjallar larzaga solib turdi.

1991-1992-yillar – O'zbekistonning mustaqillik yillarida o'nlab yangi yirik ishlab chiqarish obyektlari ishga tushirildi va yuzlab turdagi yangi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga erishildi. Zamonaviy yengil avtomashinalar, avtobuslar ishlab chiqarish bo'yicha korxonalar bunyod etildi va bu O'zbekistonni jahondagi o'z avtosanoatiga ega 30 ta mamlakatlar qatoriga qo'shdi.



1991-1992-yillar – *Ramiz Aliya* Albaniya prezidenti.

1991-1992-yillar – Ruminiyaning yangi rahbariyati katta kechikish bilan iqtisodiyot va ijtimoiy siyosatda islohotlarsiz mumkin emas. Bunday islohotlar boshlandi. Ularga ko'ra, davlat korxonalari hissadorlik korxonalariga aylantirildi. 1945-yildan so'ng Ruminiyada musodara qilingan uy, kvartira, yerlar (10 gadan oshmagan) ilgari egalari qaytarildi yoki pul badali to'landi. Bu jarayonga narx oshishi, ishsizlik, ijtimoiy tanglik qo'shildi. Muxolifat demokratik konvensiyaga jipslashdi. Biroq so'l kuchlar ham bekor turmadi.

1991-1993-yillar - O'zbekiston rubl zonasida bo'lgan davrda ishlab chiqarishning butunlay inqirozga yuz tutishiga va aholi turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, savdo balansining ahvolini yaxshilashga, iqtisodiy tizimini takomillashtirishga qaratilgan siyosat olib bordi. Bir tomondan, siyosiy mustaqillik, boshqa tomondan yagona rubl zonasida, yagona iqtisodiy zonada turganlik holati O'zbekiston uchun o'ziga xos xususiyatga ega edi. Bu o'z navbatida pul-kredit siyosatini belgilashda ham o'ziga xos yo'lni ishlab chiqarishni taqozo etardi.

1991-1994-yillar – *M.M.Rasulov* O'zbekiston XDP Markaziy Kengashining 1-kotibi bo'lib ishladi.

1991-1995-yillar – Namangan viloyati bo'yicha jami 2025 km gaz tarmoqlari foydalanishga topshirildi.

1991-1995-yillar – O'zbekistonda mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholini ish bilan ta'minlash hukumat Dasturi ishlab chiqildi. Ish bilan band bo'lganlar salmog'i 59 % dan 74 % ga oshirildi.

1991-1996-yillar – Nukus shahrining 60 yilligi, To'rtko'l shahrining 120 yilligi, Ajiniyoz Qosiboy o'g'lining 170 yilligi, Amur Temurning 660 yilligi keng nishonlandi. Bular O'zbekiston va Qoraqalpog'iston tarixidagi eng muhim voqealar, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasidagi do'stlik ramzidir.

1991-1996-yillar – O'zbekiston qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida qishloq xo'jaligi majmuiga rahbarlikni yaxshilash, agrar islohotlarning huquqiy asosini yaratish choralari ko'rildi.

1991-1996-yillar – Qoraqalpog'iston Respublikasida ma'lum demografik o'zgarishlar ro'y berdi.

1991-1996-yillar – Qoraqalpog'istonda davlat xo'jaliklari, ijara korxonalari, kooperativlarda va boshqa qishloq xo'jalik korxonalarida 22 ming 588 bosh yirik shoxli qoramol, 23 ming 236 cho'chqa, 176 ming 603 bosh qo'y va echkilar yo'qotildi.

1991-1996-yillar – Qoraqalpog'istonda ko'plab sog'liqni saqlash ob'yektlari, kasalxonalar, poliklinikalar, tug'ruqxona va turar joy binolari qurildi. Orolbo'yi aholisiga insonparvarlik yordami berila boshlandi, kasalxona va poliklinikalar shunday ta'minotdan foydalana boshladilar.

1991-1996-yillar – Qoraqalpog'istonda natura ko'rinishida mahsulot ishlab chiqarish ham ko'paydi, past boltli apparaturalar, yo'l qurilishi mashinalari ahtiyot qismlari, yengil sanoat texnologik uskunalari va ularning ahtiyot qismlari, mebellar va boshqalar.



1991-1996-yillar – Qoraqalpog'istondan (kelganlarni chiqarib tashlaganda) 26,7 ming kishi ko'chib ketdi.

1991-1998-yillar – P. V. *Narasimxa Rao* Hindiston bosh vazirligi davri.

1991-2000-yillar – Rossiyada turar joy qurilishi sohasida, ayniqsa, katta siljishlar kuzatildi. Rossiyada 1945-1990-yillar oralig'idagi ulkan davrdagidan ham ko'proq uy-joy qurildi.

1991-2003-yillar - O'zbekiston qishloqlarida amalga oshirilgan tub agrar islohotlar O'zbekiston qishloq hayotini mutlaqo yangi shakl va tizimga o'zgartirib yubordi.

1991-2003-yillar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qishloq xo'jaligini isloh qilish masalalari bo'yicha 10 dan ortiq qarorlar qabul qildi.

1991-2003-yillar - Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 60 nafar fan doktori va 600 nafar fan nomzodidan deyarli 30 % O'zbekiston mustaqilligi yillarida ilmiy daraja oldilar.

1991-2003-yillar - Qoraqalpog'istonda aholining infratuzilma inshootlari bo'yicha 97 ta qishloq shifokorlik shahobchalari, 90 o'rinli shifoxona, 11900 o'quvchiga mo'ljallangan maktab binolari, 7,5 ming kv. m turar joy, 2 ming km gaz tarmoqlari, 1,4 ming km suv tarmoqlari foydalanishga topshirildi. Natijada respublikada 390 ta qishloq aholi punktlari toza ichimlik suvi bilan, 100 ga yaqin aholi punktlari esa tabiiy gaz bilan ta'minlandi.

1991-2003-yillar - Qoraqalpog'istonda arxitektura qurilishi sohasida katta yutuqlarga erishildi. Bu yillar mobaynida San'at va Berdaq nomidagi muzeylar, Mirzo Ulug'bek, Ajiniyoz, "Markaziy bank", "Xalq", "Paxta", "Tadbirkor", "Asaka" banklari, Xo'jalik sudi, Nukus aeroporti binolari, respublika markaziy shifoxonasining binolari qayta ta'mirlandi va bunyod etildi. 80 km.li Qo'ng'iro't - Beynov avtomobil yo'li, Nukus - Xo'jayli yo'nalishida temir-beton ko'prigi qurilib foydalanishga topshirildi.

1991-2003-yillar - Qoraqalpog'istonda investitsiya faoliyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Kapital qurilishda korxonalarining mablag'lari hisobidagi qurilishlar hajmi ko'payib, byudjet mablag'ining hissasi kamaydi.

1991-2003-yillar - Qoraqalpog'istonda natura ko'rinishida mahsulot ishlab chiqarish ham ko'paydi, past voltli apparaturalar, yo'l qurilishi mashinalari ehtiyot qismlari, yengil sanoat texnologik uskunalari va ularning ehtiyot qismlari, mebellar va boshqalar ana shular jumlasidandir. Paxtadan ip ishlab chiqarish, ip gazlamalari, tayyor trikotaj buyumlar, iste'mol mahsulotlaridan un, makaron, mineral suvlar ishlab chiqarib ko'paydi.

1991-yil - "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi bilan "Amerilares" tashkiloti o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik to'g'risida bitim imzolangan edi. "Umid" deb nomlangan birinchi tadbirda O'zbekistonda AQShning 5 ta xalqaro xayriya tashkiloti vakillari, tibbiyot mutaxassisleri tashrif buyurib katta miqdordagi muruvvat yordamini olib kelgan edilar.



1991-yil – alban aholisi ko'p bo'lgan Kosovo o'lkasi muxtoriyati bekor qilindi. Bu hol muxtoriyatni qaytarish uchun Kosovoda faol milliy harakatni uyg'otdi.

1991-yil – AQSh tashabbusiga ko'ra, FOT va Isroil o'rtasida Yaqin Sharq muammosini hal etish shartlari to'g'risidagi jadal muzokaralar jarayoni boshlandi.

1991-yil – dunyoda mustaqil davlatlar soni 191 taga yetdi.

1991-yil - Farg'onada davlat qo'g'irchoq teatrlari ish boshladi.

1991-yil – Makedoniya o'zini mustaqil respublika deb e'lon qildi.

1991-yil – Misrda islom fundamentalistlarining uch guruhi – Islom gurufai, Islom jihodi va Musulmon birodarlari mavjud bo'ldi. Islom terrorchiligi faollashdi. H.Muborakka bir necha bor suiqasd amalga oshirildi. Ayni paytda fundamentalistlar kurashning yangi shakllarini o'zlashtira boshlashdi. Ular kasaba uyushmalarida rahbarlikni egallashdi, ochlik, ish tashlashlari va kompyuter tarmoqlarida buzilishlarni tashkil etishdi.

1991-yil – mobaynida Polshada 3 ta hukumat o'zgardi.

1991-yil – Mongoliyada 10 mingdan ortiq xususiy korxonalar yuzaga keldi. Ularning ko'pchiligi Rossiya, Xitoy va Mongoliyada vositachilik faoliyatini yurituvchi mayda savdo kompaniyalari sanaladi. Mongoliyaning jahon bozorida ajralib qolganligi mamlakat iqtisodiy ahvoriga keskin ta'sir qildi. Rossiyadagi iqtisodiy tanglik ayni paytda Mongoliya iqtisodini inqirozga olib keldi. Ko'pgina korxonalar o'n yillardan buyon ishlamaydi.

1991-yil – Namibiyada o'tkazilgan saylovlar SVAPOga g'alaba keltirdi va Namibiya uchun yangi tarix sahifalari – ozod va suveren davlat qurish boshlandi.

1991-yil – *Nelson Mandela* AMK prezidentligiga saylandi. Mamlakatda 1986-yilda joriy qilingan favqulodda holat bekor qilindi. Boshqaruvchi Milliy partiya o'z safiga barcha irq vakillarini qabul qilishga ruxsat berdi. Biroq aparteidning tugatilishi og'ir kechdi, mahalliy aholi o'rtasida janjal bo'lib o'tdi. Yevropaliklarning qora tanlilar bilan teng huquqli bo'lishiga ko'nikishi qiyin kechdi. Ular o'rtasida bir necha marta qurolli to'qnashuv bo'lib o'tdi.

1991-yil – *Nelson Mandela* ozod qilindi.

1991-yil - Nukusda Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining Qoraqalpog'iston filiali tashkil etildi.

1991-yil – O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'YOK) parchalanib ketdi.

1991-yil – O'zbekiston eksportining 79 % ini xom ashyo mahsulotlari, 11 % ini mashinalar, texnika vositalari, asbob-uskunalar 6 % ini xalq istemol mollari, 4 % ini oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etardi.

1991-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "*Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida*", "*Ijara to'g'risida*"gi qonunlarni qabul qildi.

1991-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "*Mulk to'g'risida*"gi, "*Yer to'g'risida*"gi, "*Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida*"gi qonunlarni qabul qildi.

1991-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "*Nagironlarning ijtimoiy muhofazasi to'g'risida*"gi qonun qabul qilindi.



1991-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "Yoshlarga doir davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunni qabul qilinishi.

1991-yil - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning farmoni bilan har yili 21-mart - "Navro'z" umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Bu kun dam oladigan kuni deb e'lon qilindi.

1991-yil - O'zbekiston Respublikasida "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

1991-yil - O'zbekiston Respublikasining "OITS bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida"gi qonunni qabul qilishi.

1991-yil - O'zbekistonda 1 mln. 842 ming xonadon gazlashtirildi,

1991-yil - O'zbekistonda 1-bo'lib "Toshkent" Tovar-fond birjasi tuzildi va dastlabki kim oshdi savdosini o'tkazdi.

1991-yil - O'zbekistonda *Alisher Navoiy* tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Bu to'yga respublikada katta tayyorgarlik ko'rildi va u xalqning katta madaniyat bayramiga aylandi. Avvalo, buyuk shoirning 20 jildlik mukammal asarlar to'plami nashr etila boshlandi. Bundan tashqari "*Lison ut-tayr*", "*Sab'ai sayyor*", "*Farhod va Shirin*", "*Layli va Majnun*", "*Hayrat-ul Abror*" singari shoh asarlari alohida-alohida holda bir necha ming nusxada bosmadan chiqarildi. Bir necha ilmiy-ommabop asarlar sovg'a kitoblari sifatida nashr qilindi.

1991-yil - O'zbekistonda kasalxonalar soni 1370 taga, o'rinlar soni 256,6 mingga, vrachlar soni esa 71,1 mingga yetgan edi. O'zbekistonda har yili 8 mingga yaqin kishi xastaligi tufayli tibbiy muassasalarga murojaat etib, 240 ming kishi yuqumli kasalliklar (120 mingga gepatit) bilan og'rib turdi, ayni paytda ularning 70 % i bolalar edi. Go'daklar orasida o'lim yangi tug'ilgan har 1000 bola hisobidan olganda 35,5 nafarga to'g'ri keldi. Har yili o'rta hisobda 24 ming bola bir yoshga yetmay o'lib ketardi. Onalar o'rtasidagi o'lim tirik bola tuqqan 100 ming ayol hisobiga 65,3 taga to'g'ri kelardi. Odamlarning o'rtacha umri jahonning rivojlangan mamlakatlari - Yaponiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya va boshqalariga qiyosan olganda 8-10 yil kam edi.

1991-yil - O'zbekistonda ommabop "*Sihat-salomatlik*" jurnali (bosh muharriri *Nabi Majidov*) nashr etila boshladi.

1991-yil - Polshada bo'lib o'tgan parlament saylovlarida partiyalardan birortasi ham ko'pchilik ovozi ololmadi.

1991-yil - Portugaliya sotsial-demokratlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi va hukumat tepasiga sotsialistlar partiyasi hamda mustaqil partiyalar koalitsiyasi keldi.

1991-yil - Qoraqalpog'istonda ayrim fanlar chuqurlashtirilgan holda o'qitiladigan maktablar soni 31 taga yetdi.

1991-yil - Qoraqalpog'istonda g'alla maydonlari ekin maydonlarining 27,1 % ini (bug'doy 1,9 % ni) tashkil etdi.

1991-yil - Qoraqalpog'istonda hukumatga qarashli bo'lmagan "*Orol qizlari*" jurnali chop etila boshlandi.

1991-yil - Qoraqalpog'istonda tug'ilish (ming kishi hisobida) 36,4 kishiga yetdi.

1991-yil - Sovet Ittifoqi parchalanib ketgach, sobiq O'rta Osiyo respublikalari o'rnida 5 ta mustaqil davlat paydo bo'ldi - Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston. Ular bari jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi.



1991-yil – Sovet Ittifoqi tarqalib ketgach, yangi g'oyat murakkab va qaltis bir davr yuzaga keldi. Bu davrning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: 1) Davlatlararo munosabatlar tizimidagi muvozanat buzildi. 2) Jahonda mulkiy tengsizlik kuchaydi. 3) Dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashiga bevosita xavf-xatar mavjud bo'lib qoldi. 4) Jahon miqyosidagi umumiy taraqqiyot odamlar dunyoqarashining o'zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi va uning odamzod hayotiga ta'sirida sezildi. 5) Rivojlanishning hozirgi bosqichida har qanday mamlakatning hufuzi, avvalo, uning eng yangi texnologiyalarni qabul qilish va foydalanish qobiliyatiga qarab belgilanadigan bo'ldi.

1991-yil – Sovet Ittifoqi tarqatilganidan so'ng jahon maydonida AQShga qarama-qarshi turadigan raqib qolmadi. U BMT bilan xalqaro tashkilot sifatida hisoblashmay qo'ydi.

1991-yil – Toshkentda diagnoz qo'yish respublika aholisiga xizmat ko'rsatuvchi “*Diagnostika*” markazi ishga tushirildi.

1991-yil – Varshava shartnomasi o'z faoliyatini tugatgan..

1991-yil – yangi davlatlar asosan SSSR parchalangandan so'ng paydo bo'ldi. Ular orasida Ukraina, Qozog'iston, O'zbekiston kabi yirik davlatlarni sanab o'tish mumkin. Boshqa bir guruhdagi davlatlar Yugoslaviya parchalangach yuzaga keldi (Bosniya va Gersegovina, Sloveniya, Xorvatiya, Makedoniya). Chexoslovakiyada ikkita davlat – Chexiya va Slovakiya paydo bo'ldi.

1991-yil - Yangi demokratiya davri. U Sovet davlati parchalanganidan so'ng boshlandi va globallashuv jarayonlarining jahon miqyosida jadal ilgirilashi bilan tavsiflanadi. Globallashuvni rivojlantirish yo'lidagi oxirgi to'siqlar qulab tushdi. Jahon maydonida dunyo hamjamiyati tuzilmalarini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va globallashtirish jarayoniga o'z hissasini qo'shayotgan yangi demokratik davlatlar paydo bo'ldi.

1991-yil yanvar – AQSh prezidenti *Jorj Bush* Kongressga yo'llagan murojaatnomasida “sovuq urush” tugaganligini e'lon qildi.

1991-yil yanvar – Davlat Chexiya va Slovakiya Federativ Respublikasi nomini oldi. Chexoslovakiyada narx-navo erkinlashtirildi, oqibatda ular oshib ketdi. Hukumat bozor iqtisodiyoti asoslarini yarata boshladi. Yoshi katta aholi xususiyashtirish kuponlari olishdi, ular korxonalar aksiyalarini olish huquqini berardi. Biroq yangi respublika hukumati Slovakiyaning alohida respublika bo'lib ajralishi talabiga duch keldi.

1991-yil 16-yanvar - AQSh va ittifoqdosh qo'shinlarning Quvaytni Iroq bosqinidan ozod etish bo'yicha “sahrodagi bo'ron” operatsiyasi boshlanishi.

1991-yil fevral – Tailandda navbatdagi harbiy to'ntarish harbiy diktaturaning o'rnatilishiga olib keldi. Siyosiy beqarorlik mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta to'siq bo'ldi. Qirollik hukumati va harbiy rejim mamlakatga xorijiy kompaniyalarning kirib kelishiga yordam berdi.

1991-yil fevral – Toshkent siyosatshunoslik va boshqaruv instituti shu oyda Toshkent, Samarqand, Farg'ona shaharlaridagi 10 ta sanoat korxonasida 400 ishchi bilan sotsiologik so'rov o'tkazdi. So'ralganlarning 67,8 %i mamlakatdagi iqtisodiy ahvol yaxshilanmaydi, deb, 72 % dan ortig'i esa hayotdan



qoniqmayotganligini bildirgan. Ishchilarga sobiq Markazning sotsial-siyosiy tartibotlariga ishonmaslik vujudga keldi. *"Umumittifoq va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlariga sizning munosabatingiz qanday?"*, - deb berilgan savolga 4,5 % kishi: *"O'z umidimni umumittifoq davlat idoralari bilan bog'layman"*, 32,5 % ishchi esa: *"Respublika davlat organlari bilan bog'layman"*, - deb javob berdi. Ushbu javoblardan ham ko'rinib turibdiki, kishilarga umumittifoq idoralargina emas, balki respublika davlat idoralariga, tabiiyki, respublikaning mustaqil rivojlanishiga bo'lgan ishonchi tobora orta boshladi.

1991-yil 15-fevral – O'zbekiston Oliy Kengashi *"O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida"* maxsus qaror qabul qildi.

1991-yil 15-fevral – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan *"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"*gi Qonun qabul qilindi. Keyin unga kiritilgan qo'shimcha va o'zgarishlar bank sohasini isloh qilish, bozor shart-sharoitlariga mos keladigan bank muassasalarini tashkil etish yo'llarini belgilab berdi.

1991-yil 15-fevral – O'zbekiston Respublikasi parlamenti tomonidan *"Jamoat tashkilotlari to'g'risida"* Qonun qabul qilindi.

1991-yil 20-fevral – O'zbekiston Oliy Kengashining Rayosati yig'ilishi bo'lib, unda SSSR Oliy Kengashi tomonidan belgilangan referendumda ovoz berishga mo'ljallangan asosiy byulleten bilan birga *"O'zbekiston yangilanayotgan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida mustaqil, teng huquqli respublika bo'lib qolishiga rozimisiz?"* degan savol qo'yilgan qo'shimcha byulleten kiritishga qaror qilindi. Byulletendagi ushbu matn o'zgartirilishi mumkin emas, deb belgilandi.

1991-yil mart – Albaniyada ilk marta umumiy ko'ppartiyaviy saylovlar bo'lib o'tib, unda AMP 65 foiz ovoz oldi. Mamlakat prezidenti etib *R.Aliya* saylandi. Parlament qo'shin, huquqni saqlash organlarini depolitizatsiya qildi va bozor munosabatlarini rivojlantirish hamda davlat mulkchiligini xususiy lashtirish dasturini ma'qulladi.

1991-yil mart-aprel – Kiyevda, aprelda esa Moskva yaqinidagi Novoogarovda shartli 9+1 raqami ostida *M.Gorbachev* va 9 ta ittifoqdosh respublika *"Mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish va inqirozni yengishga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida qo'shma bayonotni"* imzoladilar.

1991-yil mart-avgust – oylarida Yangi ittifoq shartnomasi bo'yicha ko'plab muzokaralar olib borildi. Ularning barchasida Markaz o'z o'rnini saqlab qolishga harakat qildi, respublikaning mustaqilligini tan olgisi kelmadi. Ana shu davr mobaynida O'zbekiston hukumati eng avvalo Rossiya, so'ngra Ukraina, Belorussiya bilan ko'p masalalarda qattiq tortishishga majbur bo'ldi, respublikaning "boqimanda" emas, aksincha, o'z haqini talab etuvchi respublika ekanligini isbotlashga harakat qildi.

1991-yil 1-mart – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori *"Xotin-qizlar qo'mitasi to'g'risida"*gi farmoyishi bilan *Xotin-qizlar qo'mitasi* tuzildi.

1991-yil 17-mart – O'zbekistonda SSSR umumxalq referendumida yakunlarida O'zbekiston rahbariyati va xalqining O'zbekistonning mustaqillik sari dadil qadam qo'yayotganligini yaqqol ko'rish mumkin edi. O'tkazilgan umumxalq referendumida qo'shimcha byulleten bo'yicha 9,2 mln. dan ortiq kishi yoki



referendumda qatnashganlarning 94 % i yoqlab O'zbekistonning mustaqil teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida bo'lishini qo'llab ovoz berdi.

1991-yil may – Hindiston saylovida *Rajiv Gandi*ning nomzodini qayta qo'yishdi.

1991-yil may – Rossiya Federatsiyasining prezidenti lavozimi ta'sis etildi va umumxalq saylovda *B. Yelsin* g'alaba qozongan va RF prezidenti etib e'lon qilindi.

1991-yil may - saylovda yana HMK g'alaba qozondi va bu safar *Narasimha Rao* boshchiligidagi hukumatni tuzishdi. Undan og'ir meros qolgan edi. Mamlakatni diniy-etnik nizolar yemirdi. G'alayonlar Uttar-Pradesh, Assam, Bixar, Jammu va Kashmirga ham o'tdi.

1991-yil 21-may – *Rajiv Gandi* o'ldirildi.

1991-yil-iyun-1999-yil-dekabr – *B.N. Yelsin*ning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti lavozimidagi faoliyati.

1991-yil iyun – Albaniya sotsialistik partiyasi (ASP) deb atala boshlagan AMP parlamentda kamchilikni tashkil etdi. Demokratlar partiyasi yo'l boshchisi *Sali Berisho* Albaniya prezidenti etib saylandi. Albaniyaning iqtisodiy hayoti sezilarli jonlandi. Yer xususiy qo'llarga o'tdi.

1991-yil iyun – uzoq tortishuvlardan so'ng faqat ayrim masalalar yuzasidan "9+1" raqamli bitimga erishildi.

1991-yil iyun – Xorvatiya va Sloveniya o'zini mustaqil respublika deb e'lon qildi. Bu respublikalar mustaqilligining g'arb mamlakatlari tomonidan (dastlab Germaniya va Italiya) tan olinishi olovga moy quygandek bo'ldi.

1991-yil 1-iyungacha – O'zbekiston Oliy Kengashiga iqtisodiy tizim masalalari va yer, yer osti hamda boshqa tabiiy boyliklarni, ishlab chiqarish korxonalarini O'zbekiston SSR mulkiga o'tkazish bo'yicha O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga kiritiladigan o'zgarishlar to'g'risida Qonun loyihasi kiritish vazifasi qo'yildi.

1991-yil 12-iyun - *B.N. Yelsin* Rossiya Federatsiyasi prezidenti bo'ldi.

1991-yil 17-iyun - aholini ro'yxatga olish haqidagi qonunning man etilishi, Janubiy Afrikada aparteidning bekor qilinishi.

1991-yil 25-iyun - Yugostaviya tarkibidan Slovakiya va Xorvatiyaning chiqishi.

1991-yil 1-iyul - Varshava shartnomasi tashkilotining rasmiy tugatilishi haqidagi protokolning Pragada imzolanishi.

1991-yil 22-iyul – O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosatining "O'zbekiston SSR hududida joylashgan Ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tkazish" to'g'risida qaror qabul qildi.

1991-yil avgust – kommunistlar hokimiyatini saqlab qolish, eski tuzumga qaytish, SSSR parchalanishi jarayonining oldini olishga qaratilgan davlat to'ntarishiga urinish bo'ldi. Favqulodda holat bo'yicha davlat komiteti (GKChP) tuzildi. Unga partiya MK rahbarlari, mudofaa, ichki va tashqi ishlar ministrligi kirgan edi. *M. Gorbachev* Qrimda uy qamog'ida deb e'lon qilindi, Moskvaga qo'shin kiritildi. Bunga javoban Moskvada Rossiya Federatsiyasi hukumat uyi oldida ko'p ming kishilik namoyish bo'lib o'tdi. *B. Yelsin* demokratiya uchun kurashga boshchilik qildi. Harbiy bo'linmalar xalqqa qarshi o't ochishdan bosh tortdi va putch amalga oshmadi.



1991-yil avgust – *Mobutuning* prezidentlik muddati tugadi va u o'z vakolatini hayotining oxirigacha cho'zish uchun umummilliy konferensiya chaqirdi. Konferensiyada yangi konstitutsiya loyihasini ishlab chiqdi. Ayni paytda u hukumatni istefoga chiqardi. Natijada mamlakatda ommaviy tartibsizliklar boshlanib, u fuqarolar urushini keltirib chiqardi.

1991-yil avgust-sentabr – Milliy respublikalar birin-ketin o'z suverenitetlari va Sovet Ittifoqi tarkibidan chiqishlarini e'lon qilishdi.

1991-yil 12-avgust – Vazirlar Mahkamasining “*O'zbekiston Respublikasida Davlat Soliq organlari haqida*”gi qarori mamlakat hayotida muhim voqea bo'ldi. Amalda shu qaror asosida O'zbekistonda eng zamonaviy shaklda, butunlay yangi tipdagi soliq tizimi yuzaga keldi. 12 avgust “Soliqchilar kuni” deb e'lon qilindi va u kasb bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

1991-yil 13-15-avgust – O'rta Osiyo va Qozog'iston davlatlarining navbatdagi uchrashuvi Toshkentda bo'ldi. Bunda O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalararo Maslahat Kengashini tuzish to'g'risida bitim imzolandi. Uning vazifasi 5 ta mamlakat o'rtasida iqtisodiy hamkorlik qilish uchun sharoit yaratish, mintaqa manfaatlaridan kelib chiqib siyosat yuritish deb ko'rsatildi.

1991-yil 19-avgust – O'zbekiston Prezidenti *I.A.Karimov* Hindiston safaridan qaytishi bilanoq, Toshkent shahrining faollari bilan uchrashib, qat'iy tarzda O'zbekiston nuqtai nazarini ma'lum qildi. Respublika rahbariyati Markazdan beriladigan qonunga xilof bo'lgan har qanday ko'rsatmalarni bajarishni man etdi.

1991-yil 20-avgust – O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlisi bo'ldi. Unda fitna munosabati bilan vujudga kelgan vaziyat muhokama qilinib, O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgartmasligi haqida Bayonot qabul qilindi. Bayonotda O'zbekistonda vaziyat barqaror ekanligi va favqulodda holat joriy etishga hojat yo'qligi ta'kidlandi. Unda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, har qanday ig'vogarona harakatlarning oldini olish, hamma joyda qattiq intizom va tartibni saqlash vazifalari ilgari surildi. Bayonotda O'zbekiston “Mustaqillik Deklaratsiyasi” qoidalarini amalga oshirish yo'lida boraveradi, deb ko'rsatildi. O'zbekiston Prezidenti *I.A.Karimov* respublika aholisiga murojaat bilan chiqdi. Murojaatda O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishish yo'li qat'iy ekanligi yana bir bor alohida uq'tirildi. Murojaatda turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar o'rtasidagi ittiloflarni hal etish uchun kuch ishlatish, eng avvalo, harbiy kuch ishlatishni ochiq-oydin qoraladi. Prezident xalqni og'ir sinovlardan o'tayotgan bir paytda sabr-toqatli, bardoshli va vazmin bo'lishga, tinchlikni saqlash maqsadida jipslashishga chaqirdi.

1991-yil 20-avgust - Estoniya mustaqilligining e'lon qilinishi.

1991-yil 19-21-avgust – Moskvada davlat to'ntarishi qilishga urinib ko'rildi. Favqulodda holat davlat qo'mitasi tuzilib SSSR Prezidenti *M.Gorbachev* zo'rvonlik bilan o'z vazifasidan chetlashtirildi. Fitnachilar Prezident vakolatlari vitse-prezident *G.Yanayev*ga o'tkazilganligi e'lon qildilar. Ularning maqsadlari Ittifoq hududida



yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikni qo'lga kiritishlariga, o'z taqdirini o'zlari hal qilishlariga yo'l qo'ymaslik edi.

1991-yil 19-21-avgust – Moskvada G.Yanayev boshchiligida sodir etilgan davlat to'ntarishiga urinish, ulug'davlatchilik, shovinistik, zo'raonlik va tazyiq o'tkazish siyosatini chuqurlashtirishga intilish Sobiq Ittifoqdagi qayta qurish siyosatining yakuni bo'ldi.

1991-yil 19-21-avgust – Moskvada yuz bergan voqealar KPSS MK Bosh kotibi va SSSR Prezidenti M.S.Gorbachevning hokimiyatdan chetlashtirilib, vitse-prezident G.Yanayev boshchiligidagi oliy Eshelon rahbarlari tomonidan favqulodda holat davlat qo'mitasi (АЭХ) tuzidi, biroq tez orada uning B.N.Yelsin rahbarligidagi Rossiya Federatsiyasi demokratik kuchlari tomonidan tor-mor etilishi endi SSSR ning kelajagi yo'qligidan dalolat berardi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov esa imkoniyatni qo'ldan chiqarmadi.

1991-yil 21-avgust - Latviya mustaqilligining e'lon qilinishi.

1991-yil 21-avgust – O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan Favqulodda holat davlat ko'mitasining O'zbekiston Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan qarorlari va farmonlari noqonuniy deb e'lon qilindi.

1991-yil 21-avgust - SSSRda GKCHP isyonining tugatilishi.

1991-yil 24-avgust - Ukraina mustaqilligining e'lon qilinishi.

1991-yil 25-avgust – O'zbekiston Prezidentining Farmoniga binoan Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi qo'mitasi qonuniy ravishda O'zbekiston tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirildi. Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi, prokuraturasi, adliya organlari, ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan butunlay holi qilindi.

1991-yil 26-avgust – O'zbekiston Oliy Kengashi O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash hamda 31-avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirishga qaror qilindi.

1991-yil 27-avgust - Moldaviya, Gruziya, Armaniston respublikalari mustaqilligining e'lon qilinishi.

1991-yil 27-avgust – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar va birlashmalar faoliyatini tartibga solish belgilab berildi. Shu bilan birga, bunday harakat, partiya, birlashmalarni adliya organlari tomonidan ro'yxatga olish qoidalari belgilandi.

1991-yil 28-avgust – O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi va Markaziy nazorat qo'mitasining qo'shma Plenumi Respublika Kompartiyasining KPSS MQ bilan har qanday aloqasini to'xtatishga, KPSSning barcha tashkilotlaridan chiqishga, uning Markaziy organlaridagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

1991-yil 29-avgust – Rossiya parlamenti KPSS faoliyatini man etdi. SSSR hukumati iste'foga chiqdi.

1991-yil 31 avgust – kuni O'zbekiston hali ittifoq tarkibida bo'lib, respublika oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari 6-sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to'g'risida Prezident *I.A.Karimov*



maruzasi tinglangandi. Sessiyada “O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligini e’lon qilish to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Qonunda 1-sentabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilandi. Qonun 17 moddadan iborat edi.

1991-yil 31-avgust – “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonunda “O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat suvereniteti to‘g‘risida Deklaratsiya” o‘zining huquqiy asosini topdi. Unda Qoraqalpog‘istonning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi e’tirof etildi. Qonunda Qoraqalpog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarni teng huquqlik, ikki tomonlama shartnomalar, bitimlar va boshqa qonun aktlari asosida mustahkamlash ko‘rsatib berildi.

1991-yil 31-avgust – O‘zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi o‘z ishini boshladi. O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlash lozim. Unda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida” hamda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi masalalar kun tartibiga qo‘yilib, qizg‘in muhokama qilindi. O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi sessiyasi bir ovozdan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qildi. O‘zbekiston SSRning nomi “O‘zbekiston Respublikasi” deb o‘zgartirildi. So‘ngra “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida Oliy Kengash Bayonoti” qabul qilindi.

1991-yil 31-avgust – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasida qabul qilingan “Mustaqillik haqidagi Bayonot”da O‘zbekistonning tashqi siyosatidagi yo‘li aniq qilib belgilangan edi. Unda “Xalqaro hamjamiyatning to‘la huquqli a‘zosi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq subyekti sifatida qatnashadi, uning maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o‘z hududini qurol-yarog‘lardan xoli qilish, yadroviy qurolni boshqa ommaviy qirg‘in qurollarini yo‘qotish, suveren davlatlar o‘rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo‘l qo‘ymaslikdan iborat”, - deb qayd qilindi.

1991-yil 31-avgust – O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy Qonun va O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida Oliy Kengash Bayonoti qabul qilindi. Bu bilan respublika parlamenti mustaqil O‘zbekiston Respublikasi, suveren davlat qaror topganligini butun dunyoga e’lon qildi. Qonunda xalq hokimiyatchiligi, demokratik davlatchilik, inson huquqlari muqaddasligi, qonun ustuvorligi, hokimiyat bo‘linishi, mamlakatning hududiy yaxlitligi kabi muhim prinsiplar mustahkamlandi. Ushbu ilg‘or demokratik g‘oya va prinsiplar Konstitutsiya loyihasi mazmuniga ham singdirildi. Shunga qaramasdan dastlabki loyiha hali mukammallik darajasidan ancha yiroq edi. Yanada jiddiyroq va talabchanlik bilan ishlash lozim edi.

1991-yil sentabr – Bolgariyada yangi konstitutsiya qabul qilinishi bilan bog‘liq holda yangi parlament saylovi o‘tkazildi va unda SDI g‘olib chiqdi.

1991-yil sentabr – hukumatni qo‘llab-quvvatlagan shaxtyorlar yana Buxarestga



kelishdi. Ularning hukumat bilan muzokarasi muvaffaqiyatsizlikka uchragach, shaxtyorlar hukumat rezidensiyasi va telemarkazga hujum etishdi. Xavfsizlik kuchlari ularning ishg'ol etilishiga yo'l qo'ymadi, biroq hukumat iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.

1991-yil sentabr – Prezident I.A.Karimov: *“Biz O‘zbekiston davlat milliy siyosatining yo‘nalishlarini va strategiyasini qamrab oluvchi keng ko‘lamdagi va istiqbolga mo‘ljallangan dasturni ishlab chiqdik va amalga oshira boshladik. Bu siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri boshqarishning demokratik shakliga, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanuvchi real mustaqil milliy davlatchilikni qaror toptirish”*, – deb ta'kidlagan edi.

1991-yil sentabr – Turkiyada yangi saylovlar bo'lib o'tdi. *Sulaymon Demirelning* To'g'ri yo'l partiyasi 27 foiz ovoz oldi va Sotsial-demokratlar partiyasi bilan blokda hukumatni tashkil qilish huquqini egailadi. Tajribali siyosatchi *S.Demirel* bosh vazir etib tayinlandi. Islom davlatini tuzish uchun kurashuvchi Farovonlik partiyasi katta muvaffaqiyatga (17 foiz) erishdi. Mazkur partiya musulmon davlatlarining islom harbiy ittifoqini, umumiy islom bozorini tashkil qilish, umumiy islom valyutasini joriy etish va kapitallarga qo'yiladigan foiz (sudxo'rlik)ni yo'q qilishga chaqirdi. Ularning dasturida Turkiyaning NATOdan chiqib ketishi va jahonda yangicha tartib hamda adolat o'rnatishi zarur bo'lgan islom NATOsinini tashkil qilish g'oyasi ilgari surilgan edi.

1991-yil 1-sentabr – O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi kuni. 1991-yildan boshlab 1-sentabr dam olish hamda umumxalq bayram kuni deb e'lon qilindi.

1991-yil 6-sentabr – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan Mudofa ishlari vazirligi tashkil qilindi.

1991-yil 6-sentabr – O'zbekistonda Mudofaa ishlari vazirligi tuzildi.

1991-yil 7-sentabr – O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil qilindi.

1991-yil 22-sentabr - Armaniston mustaqilligining e'lon qilinishi.

1991-yil 26-sentabr - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan *“Paxta va paxta tolasini xarid va ulgurji narxlarini oshirish to'g'risida”* qarorni qabul qildi.

1991-yil 26-sentabr - O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan O'zbekiston SSR Davlat Xavfsizlik Qo'mitasi (DXQ) tugatilib, uning o'rniga O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadigan O'zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik Xizmati (O'zRMXX) tashkil etildi.

1991-yil 30-sentabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VII sessiyasida *“O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”*gi Qonunga Konstitutsiyaviy Qonun maqomi berildi.

1991-yil 30-sentabr – respublika Oliy Kengashi Latviya, Litva va Estoniya respublikalari mustaqilligini e'tirof etish to'g'risida qaror va shu respublikalar Oliy Kengashlariga Murojaatnoma qabul qildi.

1991-yil oktabr-noyabr – Konstitutsiya loyahasining dastlabki varianti tayyorlab bo'lindi. U muqaddima, olti bo'limga taqsim qilingan 158 moddadan iborat edi.



1991-yil 25-oktabr – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan Mudofaa ishlari vazirligining huquqiy maqomi, tuzilishi va Nizomi tasdiqlandi. Vazirlik mahalliy harbiy boshqaruv organlari, fuqarolar mudofaasi shtabi va armiya safidan tashqaridagi xizmatning maxsus boshqarmasi negizida tashkil qilindi.

1991-yil 31-oktabr – muholidat kuchlar *P.Lumumbaning* izdoshi *Laurent Kabila* rahbarligidagi yangi hukumatni tuzdi.

1991-yil noyabr – Jazoirda umumxalq parlament saylovlari bo'lib o'tib, unda yana islom fundamentalistlari g'alaba qozondi. Qo'shin saylov natijalarini tan olishdan bosh tortdi. Bunga norozilik belgisi sifatida *B.Shadli* iste'foga chiqdi. Uning o'rnini *Muhammad Badiar* egalladi.

1991-yil noyabr-dekabr – "*Erk*" demokratik partiyasining tajovuzkorona harakatlari va siyosiy qo'poruvchilik faoliyati Prezident saylovlari kunlarida yuqori cho'qqiga chiqdi. Bu partiya vakillari saylovchilar bilan uchrashuvlarda, partiya yig'ilishlarida ehtirolarga berilib, qonuniy hukumatni ochiqdan-ochiq badnom qilish va zo'ravonlik singari salbiy harakatlarni yaqqol namoyish qildilar. To'g'ridan-to'g'ri hukumat rahbarlariga turli yo'llar bilan g'oyaviy, siyosiy va ma'naviy zarba berishga harakat qildilar.

1991-yil 1-noyabr – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Toshkentda bo'lib o'tgan ta'xis Qurultoyida tashkil topdi. Ushbu qurultoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi.

1991-yil 15-noyabr – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Adliya Vazirligi tomonidan ro'yxatga olindi.

1991-yil 18-noyabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida "*O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida*" qaror qabul qilindi.

1991-yil 18-noyabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida "*O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida*" Qonun qabul qilindi.

1991-yil 18-noyabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida mulkni "*Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida*"gi Qonun qabul qilindi. Unga ko'ra xususiyashtirish va mulkchilik shakllarini o'zgartirish maxsus dasturlar asosida amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yildi.

1991-yil 18-21-noyabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasi bo'lib o'tadi. Unda bir guruh soxta demokratlar ochiqdan-ochiq bosh ko'tardilar. Turli tomondan so'z olib, sessiya kun tartibini buzish, unga qo'shimchalar kiritish bahonasida bir-biriga to'g'ri kelmaydigan muammolarni ko'tarib chiqishga intildilar. "*Tashabbus*" guruhi nomi bilan so'zga chiqqan bir guruh deputatlar "*O'zbekistonda mitinglar va namoyishlar o'tkazilishini taqiqlash to'g'risida*"gi Qarorni bekor qilish, respublika ma'muriy organlari, Konstitutsion Nazorat Qo'mitasiga ultimatum qo'yish talabi bilan chiqa boshladilar. Ayni chog'da o'zlarini tarafdorlar sifatida ko'rsatishga urinib, "*demokratiyami yoki diktaturami?*" qabilida sessiyaga, mamlakat rahbariyatiga asossiz kesatliqli savollar qo'ya



boshladilar. Sessiya jangovorlik, shafqatsiz kurash va hujumkorlik ruhida o'tdi. Unda Prezident *Islom Karimov*ning qat'iy iroda kuchi, har qanday tanqidiy fikr va qo'poruvchilik harakatlariga og'ir-vazminlik, siyosiy hushyorlik hamda asosli mulohazalari bilan munosabat bildirganligi natijasida muxolif kuchlar o'z maqsadlariga yeta olmadilar.

1991-yil 19-noyabr – O'zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi.

1991-yil 29-noyabr - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “*Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida*” farmoni e'lon qilindi.

1991-yil dekabr – Ispaniya yagona Yevropani tashkil etish va yagona valyutani kiritish to'g'risidagi Maastrixt bitimini imzoladi. Biroq mamlakatning yagona Yevropaga integrallashuvi katta qiyinchilik bilan kechdi.

1991-yil dekabr – *M.S.Gorbachev* “*Gorbechev-fond*” ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tadqiqotlar xalqaro fondi prezidenti.

1991-yil dekabr – YIH integratsiyani chuqurlashtirishga yana bir muhim qadam qo'ydi. Hamjamiyatning 12 a'zosi golland shahri Maastrixtda yagona Yevropani yaratishni ko'zda tutuvchi Maastrixt bitimlari deb ataluvchi hujjatlarni imzolashdi. Maastrixt bitimlarida 3 guruh shartnomalar – yagona Yevropa valyutasi tashkil etish, Yevropa siyosiy ittifoqini shakllantirish va Yevropa komissiyasini tasdiqlash ko'zda tutildi.

1991-yil 8-dekabr – Belovej pushasida (Belorussiya), Rossiya va Ukraina rahbarlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini (MDH) tuzish haqidagi Bitimni imzoladi. Unda SSSR chuqur inqiroz va parchalanish sharoitlarida o'z mavjudligini tugatgani qayd etildi va siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intilish haqida bayonot berildi.

1991-yil 8-dekabr – Ruminiyada yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Mamlakatda ko'p partiyali tizim tasdiqlandi.

1991-yil 8-dekabr - SSSRning parchalanishi - Belovej bitimining imzolanishi.

1991-yil 13-dekabr – Ashxabodda O'rta Osiyo va Qozog'iston davlat boshliqlarining uchrashuvida Tajan-Seraxs temir yo'l qurilishi bo'yicha bitim imzolandi. Bu bitimni *I. Karimov, N. Nazarboyev, A. Akayev, S. Niyozovlar* imzoladilar.

1991-yil 16-19-dekabr – O'zbekiston Prezidenti *I. Karimov* Turkiyaga safar qiladilar.

1991-yil 21-dekabr – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) bitimiga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldaviya, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston qo'shildilar. Ular Almatida MDHning maqsad va tamoyillari haqidagi Bayonotnomani Rossiya, Ukraina va Belorussiya bilan birgalikda imzoladi.

1991-yil 21-dekabr – O'zbekistonda “*Dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida*”gi Farmon qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini zamon talablari asosida tashkil qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1991-yil 25-dekabr – SSSR Prezidenti *M.Gorbachev* iste'foga chiqdi. SSSR rasman o'z mavjudligini tugatdi. Rossiyada demokratiya davri boshlandi.



1991-yil 29-dekabr – *I.A.Karimov* birinchi bor muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *Islom Karimov* O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasiga binoan ayni vaqtda u O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi raisi hamdir.

1991-yil 29-dekabr – O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazildi. O'tkazilgan umumxalq referendumiga 10 mln. ga yaqin kishi yoki saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94 % i qatnashdi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilinishini yoqlab 9,7 mln. kishi yoki referendumda qatnashganlarning 98 % i ovoz berdi.

1991-yil 29-dekabr – O'zbekiston xalqimiz uzoq yillik mustamlakachilikdan so'ng tom ma'nodagi mustaqillik ramzi sifatida 1-bor umumxalq xohish-irodasi bilan mustaqil O'zbekiston Respublikasi Prezidentini sayladi. Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi qonunning 35-moddasiga asosan *Islom Abdug'aniyevich Karimov*ni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *I.A.Karimov* o'z vazifasini bajarishga kirishdi.

1991-yil o'rtasi – sobiq SSSRning yemirilishi, Ittifoq hukumati esa boshqaruv jilovini qo'ldan chiqarib yuborganligi tufayli mustaqillikka erishish uchun qulay tarixiy shart-sharoit paydo bo'ldi. Lekin, tarixiy tajriba shuni isbotlaydiki, o'ta murakkab rahbarlik siyosatining muhim hujjatlaridan biri hal qiluvchi qadamni to'g'ri belgilash, faqat qulay vaziyat vujudga kelgandagina qat'iy harakat boshlashdan iborat edi. O'zbekistonning yangi rahbariyati ana shunday vaziyat vujudga kelganda donolik bilan harakat qildi, eng qulay paytdan dadillik bilan foydalanib, respublikaning davlat mustaqilligini e'lon qildi.

1991-yil oxiri – O'zbekiston hayotida tom ma'noda ulkan tarixiy voqea sodir bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Qonunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qilib yoshi 35 dan kam bo'lmagan va 65 dan ortiq bo'lmagan, saylanish huquqiga ega bo'lgan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin, O'zbekiston Prezidenti 5 yil muddatga saylanadi, bir fuqaroning o'zi ketma-ket 2 muddatdan ortiq O'zbekiston Prezidenti bo'lishi mumkin emas, deb belgilab qo'yildi.

1991-yil oxiri – O'zbekiston mustaqilligining eng tahlakali, iztiroblar va og'ir kechinmalar jo'sh urgan davri edi. Hali Moskvada sobiq Ittifoqni saqlab qolish ilinjida yurgan siyosiy arboblarning javazalari tutgan, asabiy kayfiyat hukmronlik qilayotgan, umidlari kelajakdan katta bo'lgan bir paytlar edi. Ana shunday ziddiyatlar bir paytda O'zbekistonda mustaqillikni butun choralar bilan mustahkamlash, uning huquqiy asoslarini yaratish borasida jiddiy ishlar amalga oshirila boshlandi.

1991-yil oxiri – Turkiyada davlat mulkining atigi 5 foizi xususiy lashtirildi, xolos. Bu hol iqtisodning jadal rivojlanishiga bo'lgan umidni chippakka chiqardi va



inflatsiya hamda narx-navoning o'sishida ham namoyon bo'ldi. Mamlakatda 5 million ishsiz bo'lib, 2 million ishsiz Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlariga pul ishlagani chiqib ketgandi.

1992-1993-yillar - O'zbekistonda 28,8 ming yuridik shaxs 53,9 mingta xususiy obekt egasi bo'ldi. Shu yillarda 1 mln kvartira xususiylashtirildi. Ular xususiy mulkka aylandi.

1992-1994-yillar – 54 mingga yaqin korxonalar va obyektlar davlat tasarrufidan chiqarildi. Ularning 18,4 mingtasi xususiy mulk bo'lib qoldi. 26,1 mingtasi aksiyadorlik, 8,7 mingtasi jamoa, 661 tasi ijara korxonalariga aylandi. Har uch korxonaning 2 tasi mulkchilikning davlatga qarashli bo'lmagan shakliga ega bo'ldi.

1992-1994-yillar – O'zbekistonda non va un mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut, qand-shakar, o'simlik moyi, kir sovun, bollarga kerakli ayrim mollar, maishiy va transport xizmatlari uchun davlat dotatsiyalari qisman saqlab turildi. Bu aholiga ijtimoiy jihatdan katta yordam bo'ldi. Daromad darajasi turlicha bo'lgan oilalar bulardan bir qadar foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Dastlab murakkab bir paytda iste'mol mollarini sotib olish uchun bir marta, so'ngra esa ko'p marta ishlatiladigan kuponlarni muomalaga kiritish, kundalik zarur tovarlarning cheklangan turlarini me'yorlangan tarzda sotishni tashkil etish ko'zda tutilgan edi. Bu tizim o'zini to'la oqladi. U bozorni pishiq-puxta ximoya qilibgina qolmay, savdo tarmog'iga barcha zarur oziq-ovqat mahsulotlarini va kundalik xarid mollarini muntazam ravishda chiqarib turishni ta'minlash, ularni iste'mol qilish hajmlarini kamaytirmaslik imkonini berdi.

1992-1995-yillar – O'zbekistonda qishloq tumanlaridagi 1137 davlat xo'jaligi (sovhoz) boshqa mulk shakliga – 530 jamoa xo'jaligiga, 350 kooperativga, 100 dan ortiq ijara va boshqa mulk shakllariga aylantirildi. Bundan tashqari 1516 qoramolchilik fermasi sotish yo'li bilan mehnat jamoalarining mulki qilib berildi. Qishloq tumanlaridagi kolxozlarning chinakam kooperativ mohiyati tiklandi.

1992-1996-yillar – Ashxobodda uzunligi 295 km bo'lgan Mashhad-Seraxs-Tajan temir yo'li qurildi.

1992-1996-yillar – DEU Korporatsiyasi rahbarlari bilan Asakada "O'zDEUavto" qo'shma avtomobil zavodini qurishga kelishildi. .

1992-1996-yillar – O'zbekistonda valyutani boshqarish sohasidagi faoliyat milliy valyutani mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlarni izchil yaratib berishga qaratildi, valyuta boshqaruvi masalalari bo'yicha normativ baza vujudga keltirildi.

1992-1996-yillar – Qoraqalpog'istonda 16,3 km. kanalizatsiya va 4057,5 km. gaz tarmoqlari yotqizildi. Respublika aholisining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 85,4 % ni, shaharda – 99,4 % ni, qishloqda – 72,4% ni tashkil etdi.

1992-1996-yillar – Tuyamo'yin suv omboridan respublika aholi punktlariga 2 ming 885 kilometr suv quvuri tarmog'i olib kelindi, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 59,5 % ga yetdi.

1992-1996-yillar – Xorazm viloyatida 127 km katta diametrlil suv haydagich, 902 km ichimlik suvi tarmoqlari qurilib foydalanishga topshirildi. Aholining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 86,7 % ga, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi esa 54,8 % ga yetkazildi.



1992-1997-yillar – *Berishu* rejimi totalitar tuzumdagidan yaxshi bo'lmadi. Korrupsiya mislsiz miqyosga yetdi. *Berishuning* o'zi barcha radio va televidion stansiyalarni o'z qo'l ostiga oldi, sotsialist va sobiq kommunistlar qatag'onga duchor etildi. Ularning yolboshchisi, sobiq bosh vazir *Fato Nano* korrupsiyada ayblandi va 12 yil qamoq jazosiga hukm etildi. Sotsialistik partiyaning boshqa a'zolari "genotsid haqidagi qonun"ga ko'ra davlat lavozimlarida 2002-yilgacha ishlash huquqidan mahrum etildi.

1992-1997-yillar – O'zbekiston iqtisodiyotiga 7 mlrd AQSh dollari hajmidagi xorijiy investitsiyalar jalb etildi.

1992-1997-yillar – O'zbekistonda stipendiyalar bir necha marta oshirildi. O'quv dargohlari oshxonalaridagi narxlar arzonlashtirildi. Milliy an'analar nazarda tutilib, 1-bor nikohdan o'tayotgan kelin-kuyovlar mebel va gilam mahsulotlari sotib olishda imtiyozli tartibdan foydalandilar.

1992-1997-yillar – *Sh. D. Sharmaning* Hindiston prezidentligi davri.

1992-1998-yillar – O'zbekistonda ish haqi va pensiyalarning eng kam miqdori bir necha bor oshirildi.

1992-1999-yillar – AQSh Prezidenti demokratlardan saylandi.

1992-1999-yillar – Rossiya Federatsiyasida avj olgan siyosiy kurash, asosan, ijtimoiy kurashni emas, balki avlodlar qarama-qarshiligini aks ettirdi.

1992-2003-yillar - O'zbekiston iqtisodiyotiga 10 milliarddan ziyodroq AQSh dollari hajmida xorijiy investitsiyalar jalb etildi.

1992-2003-yillar - O'zbekiston Respublikasi terma jamoalari sport turlari bo'yicha bir qancha jahon va Osiyo Chempionatlarida muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqdalar.

1992-2003-yillar - O'zbekiston va Ukraina o'rtasida neftni qayta ishlash, kommunikatsiya, fan-texnika, sanoat, savdo va boshqa sohalarda hamkorlik bo'yicha 80 dan ortiq hujjat imzolandi. Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida axborot almashish sohasida hamkorlik qilmoqda.

1992-2003-yillar - Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki (XTTB) O'zbekistonga umumiy miqdori 534,1 mln. AQSh dollariga teng miqdordagi 11 ta qarz berilishini tasdiqladi. Hozirgi vaqtga kelib ushbu qarz 330 mln AQSh dollari miqdorida o'zlashtirildi.

1992-yil – Qoraqalpog'iston Botanika bog'i bo'linmasiga bo'lim maqomi berildi.

1992-yil – "*O'zbekiston pochtas*" konserni tashkil etildi.

1992-yil – Afg'on o'tish hukumati urushni Jalolobodni egallash va u yerda qaror topish bilan tugallamoqchi bo'ldi. Biroq ular bunga faqat shu yilda muvaffaq bo'lishdi va inqilobiy tuzum qoldiqlari qarshiligini yengib, poytaxtni egallashdi. *Najibulla* BMT vakolatxonasiga yashirindi.

1992-yil – Albaniyada yangi saylovlar bo'lib o'tdi. Agrar partiya demokratik partiya bilan ittifoq tuzib, qishloq joylarda ko'pchilik ovoz oldi. Demokratik partiya parlamentda uchdan ikki qism o'rinni ishg'ol etdi.

1992-yil – Angliya parlament saylovlarida yana konservatorlar mutlaq ko'pchilik ovoznini oldi. *Jon Meyjor* bosh vazir lavozimida qoldi.

1992-yil – Angolada ko'ppartiyaviylik asosida demokratik saylovlar o'tkazildi va



unda AOXH g'alaba qozondi. Uning yetakchisi *Eduardo dush Santush* mamlakat prezidentligiga saylandi.

1992-yil - AQSh va Yevropa bilan savdo balansi tushib ketdi, ammo eng asosiysi - Osiyo mamlakatlariga, ayniqsa Tinch va Hind okeani mintaqasiga eksporty qilish pasayib ketdi. Shiddatli ravishda industrilashtirish jarayoni boshlandi.

1992-yil – BMT Liviyaga qarshi savdo sanksiyalari va aviatsiya aloqasiga taqiqlashlar kiritdi. Inflyatsiya qariyb 20% ga yetdi, aholining 30% esa ishsiz qoldi. *Kaddafiy* shubha qilinayotganlarni berishga majbur bo'ldi. Sanksiyalar olib tashlandi va Yevropa kapitali yana Liviyaga kirib keldi. Liviya aviaterorizm qurbonlari uchun kompensatsiya to'lashga rozi bo'ldi.

1992-yil – BMT safiga Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston qabul qilindi.

1992-yil – *Burhoniddin Rabboniy* Afg'oniston prezidenti etib saylandi, u yangi Konstitutsiyani qabul qilish uchun Ta'sis majlisini chaqirishga da'vat etildi.

1992-yil – hokimiyat tepasiga kelgan *S.Berluskoni* RAI davlat telekompaniyasi rahbariyatini almashtirdi, zotan ular mafiyaning jinoyatkorona faoliyatini fosh etish bilan shug'ullangan edi. U qonunini man etish kompaniyasini boshladi va korrupsiyada shubhalanish bo'yicha oldindan ushlashni man etuvchi parlament qarori chiqishiga erishdi.

1992-yil – *Islom Karimovning "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat"* nomli asari nashrdan chiqdi.

1992-yil – *Islom Karimovning "O'zbekistonning istiqloq va taraqqiyot yo'li"* nomli asari nashrdan chiqdi.

1992-yil – AQShda demokratik partiya saylovlarda g'alaba qozonadi. Uilyam Klinton AQSh prezident etib saylandi.

1992-yil – Koreya Respublikasi hukumati O'zbekiston mustaqilligini tan olishini e'lon qildi.

1992-yil – Mozambikda fuqarolar urushini to'xtatish to'g'risidagi bitim imzolandi.

1992-yil – O'zbekiston Prezidenti *I.Karimovning* nashr etilgan "*O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li*" asari milliy istiqloq mafkurasi uchun nazariy asos, ma'naviy hayot uchun yo'l-yo'riq bo'ldi. Asarning "Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari" deb atalgan bobida ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik; xalqimizning ma'naviy merosini saqlash va rivojlantirish; inson o'z imkoniyatlarini erkin namoyish qilishi; vatanparvarlik tamoyillari istiqloq mafkurasi uchun asos bo'luvchi qoidalardir.

1992-yil – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpoq filialiga O'zbekiston Respublikasi FANing Qoraqalpog'iston bo'limi maqomi berildi. Uning tarkibida ilgari 3 ta instituti mavjud bo'lgan bo'lsa, yana 2 ta yangi institut tashkil etildi. Tarix, arxeologiya va etnografiya hamda bioekologiya institutlari va Sh.Musayev nomidagi Chimboy yer ishlari instituti, sholichilik va chorvachilik institutlarining filiallari ham shu bo'lim tarkibiga kirdi.

1992-yil – O'zbekiston Respublikasi Iqtisod komissiya negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Taraqqiyot va istiqbolni belgilash qo'mitasi tashkil etildi.

1992-yil - O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlar vazirligi, xalq ijodi va



madaniy-ma'rifiy ishlar markazi musiqa san'ati sohalari bo'yicha bir qancha ko'rik-tanlovlar o'tkazdi.

1992-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "*Dehqon xo'jaligi to'g'risida*" qonun qabul qildi.

1992-yil - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *I.A.Karimovning* tashabbusi bilan Nukusda Orol muammolariga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya bo'ldi.

1992-yil - O'zbekiston Respublikasida 30 dan ortiq birjalar ish olib bordi.

1992-yil - O'zbekiston Respublikasida muqobilik asosida respublika prezidentligiga saylovlar bo'lib o'tdi hamda unda *Islom Karimov* g'alaba qozondi.

1992-yil - O'zbekiston Respublikasining "*Davlat sanitariya nazorati to'g'risida*"gi qonunni qabul qilishi.

1992-yil - O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon va Afg'onistonning qo'shilishi bilan Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotining hududiy qamrovi kengaydi, unga a'zo bo'lgan davlatlarning iqtisodiy, madaniy sohalarda hamkorlik qilishi uchun qulay imkoniyatlar yaratildi.

1992-yil - O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik davlatning mohiyatini *Islom Karimovning* "*O'zbekistonning o'z taraqqiyot va istiqlol yo'li*" va boshqa asarlarida nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

1992-yil - O'zbekistonda dorl darmonlar, tibbiy uskuna va apparatlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida farmakologiya va farmakopiya qo'mitalari tuzildi.

1992-yil - O'zbekistonda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 94,7 % ga tushgan edi.

1992-yil - O'zbekistonda qozoq tilida "*Nurli jo'*" respublika gazetasi nashr qilina boshlandi.

1992-yil - O'zbekistonda Ro'za hayiti umumxalq bayrami sifatida nishonlanmoqda.

1992-yil - Prezident *Islom Karimov* Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi raisining 1-o'rinbosari *I.H.Jo'rabekov* boshchiligidagi qishloq xo'jaligi masalalari bilan shug'ullanuvchi kompleks tashkil qilindi.

1992-yil - Prezident *Islom Karimov* Saudiya Arabistoni podshohi *Fahd ibn Abdul Aziz as-Saud* taklifiga binoan ushbu mamlakatda bo'ldi. Podshoh oliy martabali mehmonni katta obro' va izzat-ikrom bilan kutib oldi hamda kisvo - muborak Ka'ba uzra yopilgan yopinchiqni hadya etdi. Albatta, bu qutlug' hadya diyorimiz musulmonlarining islom taraqqiyotiga qo'shgan olamshumul hissalarini, ayni vaqtda Prezidentimizning yurtimizda islomiy arkonlarni tiklash borasida amalga oshirayotgan ulkan xizmatlari uchun o'ziga xos bir ehtirom ramzi edi. Bunday tabarruk sovg'a juda kamdan-kam odamlargagina nasib etadi. O'z navbatida davlatimiz rahbari bu muqaddas ka'ba pushni mamlakatimizdagina emas, balki butun musulmon dunyosida mashhur qadamjo - ziyoratgoh hisoblanuvchi Muhammad Ismoil Buxoriyning Samarqand viloyatidagi masjid-maqbarasiga tortiq qildi. Buning teran tarixiy-ramziy ma'nosi bor.

1992-yil - qorqqalpoq olimlari *J. Medetullayev* akademiklikka, *B.Mambetnazarov* muxbir-a'zolikka saylandilar.



1992-yil – Rossiyada boshlangan erkin islohotlar mag'lubiyatga uchradi. Sovet davridan keyingi yillarda Rossiyada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning biror-bir dasturi bajarilmadi.

1992-yil – *S.Berlusconi*ning Italiya jinoyatchilari dunyosi bilan aloqasi hech kim uchun sir emas edi. Saylov kompaniyasi davrida uning mafiyaga qarshi chiqarilgan qonunni tugatishga bergan va'dasiga javoban mafiya boshliqlari ochiqdan-ochiq qo'llab-quvvatlashdi.

1992-yil – Serbiya va Chernogoriya Yugoslaviya Ittifoq Respublikasini tashkil etdi. Kosovodagi milliy harakat kuchaydi. Bunga javoban Yugoslaviya hukumati qatag'on choralarini ko'ra boshladi.

1992-yil - Termiz va Shahrisabz shahrida milliy kurash bo'yicha xalqaro musobaqa o'tkazila boshlandi.

1992-yil - Toshkent shahri va 12 viloyatda Prezident tavsiyasi asosida birinchi marta hokimlar tayinlandilar. Shu davrda respublikaning 212 shahar va tumanida ham shunday lavozim ta'sis etildi.

1992-yil – Toshkent va Vashingtonda elchixonalar ochildi. O'zbekiston o'z taraqqiyotida, tashqi siyosat borasida AQShlari bilan hamkorlikka katta e'tibor berdi. Mustaqillik yillarida ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va harbiy sohalaridagi hamkorlik aloqalari o'zining rivojlanish bosqichiga chiqdi.

1992-yil - Toshkentda Yaponiyaning "NEK" firmasi bilan hamkorlikda 150 kanalli raqamli xalqaro kosmik (fazoviy) telefon stansiyasi qurildi va foydalanishga topshirildi. Natijada abonentlar jahon telefon tarmoqlariga chiqishlari va xalqaro teleko'rsatuvlarni tomosha qilishlari uchun sharoit yaratildi.

1992-yil – Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 75 mln AQSh dollarini tashkil etdi.

1992-yil - Yaponiyada sanoat ishlab chiqarishning yillik o'sishi 1 foizni tashkil etdi.

1992-yil yanvar – Bosniya va Gersogovina o'zini mustaqil respublika deb e'lon qildi.

1992-yil yanvar – jamg'arma bankiga pul qo'ygan millionlab fuqarolarning mablag'lari yana qadrlandi. Farmon asosida Vazirlar Mahkamasi mahsus qaror qabul qildi. Mazkur Farmon va qaror O'zbekistonimizda yashayotgan birona keksayu yoshni befarq qoldirmadi. 5 milliondan ortiq omonatchilar o'z pullarini qaytarib olishdi.

1992-yil yanvar - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Yer to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritildi.

1992-yil yanvar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi "Baynalmilal madaniy Markazi" tashkil qilindi.

1992-yil yanvar – O'zbekistonda narxlar bosqichma-bosqich, aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan choralarni oldindan ko'rib qo'ygan holda erkinlashtirila boshlandi.

1992-yil yanvar – Rossiya Federatsiyasida iqtisodiyotda narx-navoni erkinlashtirish va xususiyashtirish dasturi e'lon qilindi. Narx-navo keskin oshdi, ijtimoiy ehtiyojlarga xarajattlar kamaydi.



1992-yil 2-3-yanvar – Xitoy Xalq Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqa va tashqi savdo vaziri Li Lap'zin Toshkentda bo'ldi.

1992-yil 4-yanvar – O'zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari IX sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda Prezident Islom Karimov qasamyod qildi: *“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishar ekanman, respublikamiz xalqlariga sadoqat bilan xizmat qilishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qat'iy rioya etishga, zimmamga yuklangan yuksak vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qilaman”.*

1992-yil 4-yanvar – O'zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari IX sessiyasida *I.A.Karimov* Dastur ahamiyatiga molik bo'lgan nutqida davlat siyosatining strategiyasini aniq-ravshan ko'rsatib berdi. Iqtisodiy barqarorlikni, millatlararo tinchlikni ta'minlash, totuvlik va osoyishtalikni saqlash, fuqarolarga erkinlik berish, jamiyatda ma'naviy yangilanish uchun barcha sharoitlar yaratish lozimligini, yosh avlod tarbiyasiga katta e'tibor berish kerakligini, huquqiy davlatda qonun ustivor bo'lishini alohida ta'kidladi. Jumladan, o'z fikrini davom ettirar ekan, *I.Karimov* *“Huquqiy davlatda qurol ham, qalqon ham qonundir... Qonun bu xalq irodasi va u muqaddasdir”*, - deb uqtirdi.

1992-yil 4-yanvar – O'zbekistonda vitse-prezidenti lavozimi o'zini oqlamaganligi sababli tugatildi.

1992-yil 7-yanvar - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *“Yaylov chorvachiligi (qorako'lchilik, qo'ychilik, yilqichilik, tuyachilik) xodimlarini ijtimoiy jihatdan himoya qilishning qo'shimcha tadbirlari to'g'risida”*gi farmoni e'lon qilindi.

1992-yil 10-yanvar – Vazirlar Mahkamasining *“Narxlarni erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”* qaroriga ko'ra, O'zbekistonda keng doiradagi ishlab chiqarish mahsulotlari, ayrim turdagi xalq iste'moli mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning kelishilgan (erkin) narxlari va ta'riflariga o'tildi. Hukumat aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasini, ko'rsatiladigan ayrim turdagi xizmatlarning eng yuqori tariflarini belgilab berdi. Shu munosabat bilan don, bug'doy yetishtirish uchun, un va boshqa oziq-ovqat mollarini ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlarning bir qismi respublika byudjetidan to'landi. O'quvchi va talabalarga bepul nonushta va imtiyozli ovqat berishdan ko'rilgan zarar davlat hisobidan qoplandi, bolalarga mo'ljallangan ayrim turdagi tovarlarni, dorl darmonlarni ishlab chiqarishga davlat dotatsiyasi berildi.

1992-yil 14-yanvar – Mustaqillikni, hududiy yaxlitlikni himoya qilish uchun O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasi tuzildi.

1992-yil 14-yanvar – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi *“O'zbekiston hududida joylashgan harbiy qismlar va qo'shinlarni o'z tasarrufiga olish to'g'risida”* Qaror qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq, mamlakat hududida joylashgan sobiq Ittifoq Qurolli Kuchlarining barcha qism, harbiy o'quv yurtlari, muassasa va tashkilotlari hamda boshqa harbiy qismlari O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga olindi va ular moddiy-texnika va mablag' bilan ta'minlanadigan bo'ldi. Bu O'zbekistonning o'z Qurolli Kuchlarini barpo etishida muhim boqea bo'ldi.



O'zbekiston Respublikasida 14-yanvar "*Vatan himoyachilari kuni*" deb e'lon qilindi.

1992-yil 14-yanvar - O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 9-sessiyasida "*Jismoniy va sport to'g'risida*" Qonun qabul qilindi.

1992-yil 23-yanvar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan, respublika Qurolli Kuchlari qismlari negizida milliy gvardiya tuzildi. Milliy gvardiya O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tarkibiy qismidir.

1992-yil 28-yanvar - "*O'zbekiston havo yo'llari*" Milliy aviakompaniyasi tashkil etildi.

1992-yil fevral – O'zbekiston dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot – Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotiga (EXHT) a'zo bo'lib kirdi.

1992-yil fevral – O'zbekistonda xususiylashtirish jarayonini tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish Davlat qo'mitasi ta'sis qilindi.

1992-yil 1-fevral - Rossiya Federatsiyasi va AQShning "sovuq urush" holatini to'xtalish haqidagi bayonoti.

1992-yil 4-fevral - O'zbekistonda nogironlik pensiyasi va boquvchisini yo'qotgan oila a'zolariga beriladigan pensiyani joriy etish va to'lash bilan bog'liq tartib qoidalar e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasining "*O'zbekistonda nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida*"gi Qonunida asoslab berildi.

1992-yil 4-fevral – *Ugo Chaves* qo'mondonligidagi qo'shin qismlari Karakas ko'chalari bo'ylab marsh yurishini boshladi. Ular hukumat iste'fosi va Prezidentning lavozimdan olinishi, korrupsiyaga aralashmagan kishilardan harbiy-fuqarolik xuntasini tashkil etish, yangi Konstitutsiyani qabul qilish uchun konstitutsiyaviy Assambleyani chaqirishni talab etishdi. Biroq xalq ularni qo'llab-quvvatlamadi. Natijada harbiy isyon yo'l boshchilari qo'lga olindi va qamoqxonaga tashlandi. Bu yerda ular o'z taktikalarini ko'rib chiqishdi va kurashning zo'rlik ishlatilmaydigan shakllariga o'tish haqidagi xulosaga kelishdi.

1992-yil 12-fevral – Mongoliyada yangi konstitutsiya qabul qilindi va unga ko'ra ko'p ukldali iqtisod, xususiy mulkchilik va ko'ppartiyalilik e'lon qilindi.

1992-yil 21-fevral – O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tuzildi.

1992-yil 28-fevral - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Farmoni bilan sakkizta viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi.

1992-yil mart – O'zbekistonning Janubiy Koreya bilan diplomatik munosabatlar o'rnatganligi tashqi siyosatdagi yutuqlarimizdan biri bo'ldi.

1992-yil mart - Toshkent shahrida tanbur, qo'shnay, surray va boshqa milliy soz ijrochilarining "*Asrlarga tengdosh navolar*" deb nomlangan jumhuriyat ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.

1992-yil 2-mart - Bosniyada fuqarolar urushi boshlanishi.

1992-yil 2-mart – O'zbekiston Respublikasi o'z tarixida 1-bor xalqaro hamjamiyatning teng huquqli sub'yekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti



a'zoliciga qabul qilindi. Bu tarixiy voqea O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatdan munosib o'rin olishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning Toshkentda va Afg'oniston mojarolari, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflarni o'rta qo'ydi.

1992-yil 7-mart – Prezident *Islom Karimov*ning farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil qilindi.

1992-yil 12-14-mart – *Islom Karimov*ning Xitoy Xalq Respublikasiga rasmiy tashrifi 2 tomonlama aloqalarni yo'lga qo'ydi. Tashrif paytida 20 ga yaqin hujjatlar qabul qilindi.

1992-yil 26-mart 4-aprel - Markaziy Osiyo xalqlari teatrlarining o'zaro ijodiy hamkorligi yo'lga qo'yildi va mazkur jamoalarining “*Navro'z - 92*” xalqaro anjumani o'tkazildi. Mazkur anjumaning g'oliblari aniqlandi. Oliy mukofot (Gran Pri) - Turkmaniston Davlat yoshlar teatrining “*Dalli Dumbul*” spektakliga, Xalqaro Teatr uyushmalari konfederatsiyasining maxsus mukofoti - Y. Shakarjonov nomidagi Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatrining “*Toshkentga sayohat*” komediyasiga berildi.

1992-yil 27-mart – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “*Ro'za hayitini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida*” Farmoni e'lon qilindi.

1992-yil 31-mart - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “*Paxta, pilla, chorvachilik mahsulotlarining xarid narxlar va paxta tolasining xarid narxlarini oshirish to'g'risida*” qarorni qabul qilishi.

1992-yil aprel - Toshkent viloyatida havaskor qo'g'irchoq teatrlari jamoalarining ko'rik-tanlovi, mashhur san'atkorlar *Jo'raxon Sultonov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodiqov* va *Janaq Shonurotovlar* asarlari ijrochilarining “*Boqiy ovozlari*” deb nomlangan ko'rik tanlovlari bo'lib o'tdi.

1992-yil 3-aprel - Toshkentda viloyat, shahar va tuman hokimlari bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *I.A. Karimov*ning birinchi uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda kadrlar siyosatining shakllanishi va uning strategiyasi atroflicha tahlil qilindi. Mavjud kamchiliklar va galdagi vazifalar belgilab berildi.

1992-yil may – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari o'rtasida tuzilgan kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnomalarning dastlabkilaridan biri Toshkentda imzolandi.

1992-yil may – Toshkentda boshlangan Mashrabxonlik kunlari uning vatani Namanganda keng nishonlandi. Ushbu shaharda uning nomi bilan ataluvchi katta istirohat bog'i barpo etildi.

1992-yil may – Vatani taraqqiyoti partiyasining I Qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda *Usmon Azim* rais qilib saylandi.

1992-yil may - Xorazm viloyatida folklor jamoalarining ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.

1992-yil 10-may – Ashxobodda O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Eron, Turkiya, Pokiston davlat va hukumat rahbarlari “*Trans-Osiyo*” temir yo'lini vujudga



keltirish maqsadida Tajan-Seraxs-Mashhad temir yo'l qurilishi haqidagi bitimni, bo'xona xizmatini tashkil qilish, shu soha uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash haqidagi hujjatlarni imzoladilar.

1992-yil 24-may – O'zbekiston Vatan taraqqiyoti partiyasi Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis Qurultoyida tuzilgan. Ushbu Qurultoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi.

1992-yil 25-may – Toshkentda MDHga a'zo davlatlar rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuv katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Hamdo'stlik doirasida kollektiv xavfsizlik tizimini barpo etish tashabbusi bilan chiqdi va ana shu muhim masalaga doir shartnoma imzolandi.

1992-yil 30-may – Rossiya Prezidenti *B.N.Yelsin* taklifiga binoan O'zbekiston rasmiy delegatsiyasining Moskvaga qilgan tashrifi, Rossiya poytaxtidagi tantanali qabul marosimi, muzokaralar, uchrashuvlar, imzolangan hujjatlar o'zaro hurmat va bir-birini qo'llab-quvvatlash siyosatining timsoli bo'ldi. Bu kechagina mustamlaka, tayyor va beminnat xom ashyo bazasi bo'lgan mamlakat bilan bugungi munosabatning naqadar o'zgachaligi, jiddiy siyosiy hodisa ekanligini ko'rsatadi. Shu kuni Prezidentlar B.Yelsin va I.Karimov ikki mamlakat o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risidagi shartnomani imzoladilar.

1992-yil iyun - Askiya, qiziqchi va masxarabozlarning Qo'qon shahrida o'tkazilgan IX an'anaviy, lapar va yalla ijrochilarining ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.

1992-yil iyun – O'zbekiston Prezidenti *I.Karimovning* Malayziya va Indoneziyaga rasmiy safari mamlakatlar o'rtasida aloqalar o'rnatilishiga asos bo'ldi. O'zbekiston Tailand, Avstraliya va boshqa mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni rivojlantirishga e'tibor bilan qaramoqda.

1992-yil iyun – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *I.A.Karimov* boshchiligidagi davlat delegatsiyasining Janubiy Korea Respublikasiga qilgan rasmiy tashrifi chog'ida ikki davlat o'rtasida o'zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida dastlabki hujjatlar imzolandi.

1992-yil 1-iyun – *Muhammad Budiar* islom fundamentalistlari tomonidan o'ldirildi.

1992-yil 2-iyun – qo'shin *Ali Karini* Jazoir prezidenti deb e'lon qilindi. Bu Jazoida butun 90-yillar mobaynida davom etgan fuqarolar urushining boshlanishi edi.

1992-yil 19-iyun – O'zbekiston Prezidenti I.Karimov Janubiy Koreyaga davlat tashrifi bilan borganlarida 2 mamlakat o'rtasida iqtisodiy, savdo, madaniy, texnikaviy aloqalar to'g'risidagi Deklaratsiya imzoladi.

1992-yil 27-28-iyun – Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri *Muhammad Novoz Sharif* O'zbekistonga tashrif buyurdi.

1992-yil iyul – Demokratik Slovakiya uchun harakatining yo'l boshchilari tashabbusi bilan Slovakiya milliy kengashi (parlament) Slovakiya respublikasi suvereniteti haqidagi bayonotni qabul qildi. Ikki mamlakat yo'l boshchilari uchrashdi va Chexoslovakiyani bo'lish haqidagi bitimni ishlab chiqdi.

1992-yil iyul – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi Mudofaa vazirligiga aylantirildi. Adliya vazirligining faoliyati takomillashtirildi.

1992-yil iyul – Slovakiyada bo'lib o'tgan parlament saylovlarida "Demokratik Slovakiya uchun harakat" g'alaba qozondi.



1992-yil iyul – Xanna Suxotskaya “Milliy murosa” hukumatiga boshchilik qildi, bu hukumat davlatning xo'jalik faoliyatini cheklash, korxonalarni xususiy lashtirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashni tezlatish yo'lidan bordi.

1992-yil 2-iyul – O'zbekiston Oliy Kengashining X sessiyasida I.A. Karimov “Istiqloq yo'llari va muammolari” mavzusida nutq so'zladi.

1992-yil 2-iyul – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida “O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi” to'g'risida Qonun qabul qilindi.

1992-yil 2-iyul – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida qilgan ma'ruzasida Prezident bozor munosabatlariga o'tishda muqarrar tarzda hisobga olinadigan ijtimoiy ong, ijtimoiy ruhiyat masalasiga katta e'tibor berdi. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining yangi davri kishilarda yangi tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni talab qilayotganligini ta'kidladi. “Bugungi kunda xalqni yakdil qiladigan ishlar va g'oyalari oz emas. Ularning ichida eng ulug'i, eng oliyanobi – O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini ta'minlash. Ana shu maqsad, ana shu g'oya atrofida birlashsak, also xor bo'lmaymiz, aziz vatandoshlar!”, - deb murojaat qilgan edi I. Karimov sessiya qatnashchilariga.

1992-yil 2-iyul – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “Bayram kunlari haqida”gi Qonunni qabul qildi.

1992-yil 2-iyul – O'zbekiston Respublikasi parlamenti tomonidan “Kasaba uyushmalari, ular faoliyatining huquq va kafolatlari to'g'risida” Qonun qabul qilindi.

1992-yil 3-iyul – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 12-chaqiriq X sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda mamlakat Qurolli Kuchlarini tuzishda muhim voqea bo'ldi. Sessiyada “Mudofaa to'g'risida”, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida” va “Muqobil xizmat to'g'risida”gi muhim Qonunlar, harbiy qasamyodning yangi matni va qasamyod qildirish tartibi qabul qilindi. Mustaqil O'zbekiston Qurolli Kuchlarining boshqaruvini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan Mudofaa ishlari vazirligi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga aylantirildi.

1992-yil 9-10-iyul – Islom Karimovning Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining bo'lib o'tgan majlisida ishtirok etishi, nutq so'zlashi va uning 10-iyulda bo'lgan majlisiga raislik qilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga muvaffaqiyatli kirib borayotganligini ko'rsatdi.

1992-yil 10-iyul – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Vatan taraqqiyoti partiyasini ro'yxatga olgan.

1992-yil avgust – AMK demokratik islohotlarni o'tkazishdagi sustkashlikka qarshi ommaviy norozilik aksiyalarini o'tkazishni boshladi.

1992-yil avgust – Janubiy Korea Respublikasi bilan hamkorlikda O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonaga barpo qilish to'g'risida kelishib olindi.

1992-yil avgust - O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni qabul qilindi. Bu qonun eski tuzumdan yangisiga o'tishga ko'prik vazifasini o'taydigan qonun edi.

1992-yil avgust - Toshkent shahrida o'tkazilgan 11 an'anaviy ko'rik-tanlovi milliy san'atimiz rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi va Bir necha o'nlab istedodlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.



1992-yil avgust oxiri – O‘zbekiston mustaqilligining bir yilligi tantanalari arafasida Prezidentning *“O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”* nomli O‘zbekiston istiqlolining, demokratik jamiyat qurishning nazariy asoslari chuqur tahlil etilgan asari nashrdan chiqdi. Ushbu risola keng jamoatchilik tomonidan ma‘naviy hayotdagi yangilik va qo‘llanma sifatida kutib olindi. Unda O‘zbekiston istiqlolining ham nazariy, ham amaliy muammolari ilmiy jihatdan o‘rganilib, jamiyat siyosiy rivojining, iqtisodiy taraqqiyotining, ma‘naviy poklanishining asosiy yo‘l-yo‘riqlari yangicha mushohada va yondashuv bilan ko‘rsatib berildi.

1992-yil 5-avgust – O‘zbekiston Respublikasi Taraqqiyot va istiqbolni belgilash qo‘mita bilan Statistika davlat qo‘mitasi birlashtirildi va ular negizida Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika davlat qo‘mitasi va joylarda uning tegishli idoralari barpo etildi. Bu qo‘mita vazifalariga iqtisodiyotdagi islohotlarni tahlil qilish, baho berish, takliflar kiritish, O‘zbekistonni taraqqiy ettirishning ustuvor yo‘nalishlari va tashqi iqtisodiy aloqalar strategiyasini ishlab chiqish, aholi moddiy farovonligini oshirish va uni ijtimoiy muhofaza etish, yagona statistika siyosatini o‘tkazish kabilar kiritildi.

1992-yil 10-avgust – O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo‘mitasi barpo etildi.

1992-yil 13-14-avgust – O‘zbekiston Prezidenti *I.Karimov* Pokistonga safar qiladilar.

1992-yil 2-sentabr – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi *“Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish, ijtimoiy va ekologik muammolarni yechishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”* 405-sonli qaror qabul qildi. Bu qarorning bajarilishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hukumati katta kuch sarfladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi punktlarini elektirlashtirish to‘la hal qilindi.

1992-yil 12-sentabr – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika *“Mahalla”* xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risidagi Farmoni qabul qilindi.

1992-yil 26-sentabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi puxta ishlovlardan so‘ng Konstitutsiyaviy komissiya qarori bilan umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e‘lon qilindi.

1992-yil 8-oktabr – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining *“Mahalla”* xayriya jamg‘armasiga mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi Farmoni qabul qilindi.

1992-yil 8-oktabr – Tojikiston Respublikasi Oliy Kengashi Raisi *Imomali Rahmonov* rahbarligidagi Tojikiston delegatsiyasi rasmiy amaliy tashrif bilan Toshkentga keldi. Xalqlar Do‘stligi saroyida har ikki mamlakat rahbarlarining yakkama-yakka suhbat bo‘lib o‘tdi. So‘ng rasmiy delegatsiyalarning kengaytirilgan tarkibda muzokaralari bo‘ldi.

1992-yil 22-oktabr – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining *“Paxtaning xarid narxlarini oshirish to‘g‘risida”* farmoni e‘lon qilindi.

1992-yil 5-noyabr – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi *“Selxozmash”* konserni va *“DEO‘ korporeyshn”* korporatsiyasi bilan hamkorlikda avtomobillar ishlab chiqaruvchi *“UZDEO‘avto”* qo‘shma korxonasini tashkil qilish to‘g‘risida maxsus qaror qabul qildi. Unda *“Selxozmash”* konserniga 3 oy muddat ichida



respublikada avtomobil ishlab chiqarishga qaratilgan Konsepsiya ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

1992-yil 21-noyabr – Konstitutsiyaviy komissiya dastlab belgilangan ikki yarim oylik muddat mobaynida muhokama qilingan loyiha mehnatkashlar takliflari asosida qayta tuzatilib muhokamani davom ettirish uchun ikkinchi marotaba matbuotda e'lon qilindi. Shunday qilib, huquqiy pretendent ro'y berdi - umumxalq muhokamasi ikki bosqichda amalga oshirildi. Bu hol muhokama ishtirokchilarini siyosiy jihatdan faollashtiruvchi qudratli turki bo'ldi. Uning maqsadi fuqarolarga ularning muhokamadagi jonbozligi, mahsuli va samaralarini aniq ko'rsatishdan iborat edi.

1992-yil 24-25-noyabr – O'zbekiston Prezidenti *I. Karimov* Eronga safar qiladilar.

1992-yil 28-noyabr – O'zbekiston Pokiston, Eron va Turkiya tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotlariga a'zo bo'lib kirdi.

1992-yil 8-dekabr – mustaqil O'zbekiston Respublikasining 1-Konstitutsiyasi qabul qilindi. U zamonaviy demokratik jamiyatning barcha talablariga javob bera olishi isbotlandi. Yangi Konstitutsiya fuqarolarga barcha asosiy huquqlar va erkinliklarni kafolatlad. Turli millat vakillariga teng huquq berildi, milliy manfaatlarni kamsitishning har qanday ko'rinishi qonun bilan jazolanadi.

1992-yil 8-dekabr – XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya qabul qilingan kun - 8-dekabr mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida dam olish kuni deb e'lon qilindi.

1992-yil 10-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Shoir *Abdulla Oripov* va bastakor *Mutal Burhonov* tomonidan tayyorlangan madhiya varianti tasdiqlandi.

1992-yil 10-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning XI sessiyasida "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

1992-yil 14-dekabr – Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida Qoraqalpog'iston Davlat bayrogi tasdiqlandi.

1992-yil bahor – Konstitutsiya loyihasining 149 moddadan iborat 2-varianti Ishlab chiqildi. Mamlakat Prezidenti ishtirokida Konstitutsiyaviy komissiyaning navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda Konstitutsiya loyihasi ustida olib borilgan ishlar to'g'risidagi axbarot tinglandi. Ta'kidlanishicha, ishchi guruh O'zbekiston xalq deputatlari, mehnat jamoalari rahbarlari, olimlar va mutaxassislar bilan hamkorlikda loyihaning uchinchi ko'rinishini tayyorladi. Unda o'zbek xalqining tarixiy, milliy va ma'naviy xususiyatlarini imkon qadar to'laroq aks ettirishga harakat qilindi. Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan qabul qilingan qarorga binoan Konstitutsiya loyihasini uzil-keshil ishlab chiqish uchun ishchi guruh (komissiya) tuzildi. Uning tarkibi 25 kishidan iborat bo'ldi. Guruh zimmasiga huquqiy demokratik davlat barpo etish jahon tajribasini, O'zbekistonning demografik va ijtimoiy-siyosiy turmush tarzini, uning taraqqiyoti tajribasini har tomonlama umumlashtirish va uni Konstitutsiya loyihasida hisobga olish vazifasi yuklandi.

1992-yildan – Myanma prezidenti *U Tan Shve*.



1993-1994-yillar – Hindiston Assamida etnik g'alayonlarda minglab kishilar o'lib ketdi.

1993-1994-yillar - O'zbekistonimizda iqtisodiy islohotlar dasturini qo'llab-quvvatlash va qarz beruvchi 21 ta mamlakat tomonidan O'zbekistonga texnikaviy yordam ko'rsatilmoqda. Bu yordam miqdori salkam 75 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi. Ushbu mablag' mutaxassislar tayyorlashga, energetika va transport tizimini takomillashtirishga, sog'liqni saqlash, dorl darmon bilan ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiyotning turli sohalarini kompyuterlashtirishga yo'naltirildi.

1993-1994-yillar – Yaponiya liberal-demokratik partiyasi (YLDP) yetakchilari koalitsiya hukumatini boshqarar edi.

1993-1997-yillar – *Benazir Bxuttoning* Pokiston bosh vazir ligi davri.

1993-1997-yillar - O'zbekiston Respublikasi va BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi mamlakatimizda BMTning Taraqqiyot dasturi, qochoqlar ishi bo'yicha oliy qo'mita komissari, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Aholi joylashgan jamg'armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti dasturi, Bolalar jamg'armasi singari ixtisoslashgan muassasalarni o'z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. BMT vakolatxonasiga boshchilik qilgan Xolid Malikning faol ishtirokida O'zbekistonda ko'plab xalqaro tadbirlar o'tkazildi. Toshkentdagi BMTning qochoqlar ishi bo'yicha oliy qo'mitasi komissarining vakili tojik qochoqlarni yurtiga qaytarish, ularga BMTning insonparvarlik yordamini yetkazish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirdi.

1993-1999-yillar - “Erk” demokratik partiyasi raisi *Muhammad Solih* O'zbekistondagi Konstitutsiyaviy ijtimoiy-siyosiy tuzumni noqonuniy jihod yo'li bilan ag'darib tashlash va islom davlatini tuzishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan “*vahhobiylar*”, “*Islom uyg'onishi hizbi*” kabi o'ta qo'poruvchi va terroristik harakat rahbarlari bilan aloqa bog'lab, qator jinoiy ishlarga qo'l urdi.

1993-2000-yillar – *B. Klintonning* AQSh prezidentligi davri.

1993-2000-yillar – *S. Demirel* Turkiya prezidenti.

1993-2003-yillar – XKR yetakchisi va XXR prezidenti *Szyan Szemin* bo'ldi.

1993-yil - “Erk” partiyasi raisi *Muhammad Solih* chet elga qochib ketdi. “Erk” partiyasida chuqur ichki partiyaviy bo'ron vujudga keldi. Partiya Markaziy Kengashi a'zolarining bir qismi *Muhammad Solih* tutgan yo'lga qarshi chiqdilar.

1993-yil – AQSh hukumati Angola hukumatini angol xalqining yagona vakili sifatida tan oldi va ular bilan diplomatik aloqa o'rnatdi. UNITA yangi muzokaralar olib borishga majbur bo'ldi.

1993-yil – Chili prezidenti etib Demokratiya uchun koalitsiya vakili *Eduardo Frey* saylandi.

1993-yil – *de Klerk* va *Nelson Mandela* o'rtasida muzokaralar bo'lib o'tdi, yangi demokratik Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari to'g'risida bitimga erishildi. Bantustanlar tugatildi va 9 provinsiyadan tarkib topishi zarur bo'lgan umummilliy davlat tizimi tarkibiga qo'shib olindi.

1993-yil – *Husni Muborakka* suiqasd amalga oshirildi.

1993-yil - *I.Karimov* “*O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga*



xos yo'li" risolasini e'lon qildi. Unda "O'zbekistonning o'zi uchun tanlab olgan yo'l ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan, respublikaning manfaatlariga, shart-sharoitlari va xususiyatlariga eng ko'p darajada mos keladigan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir. Ayni mana shunday yo'l O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analari va madaniyatining qayta tiklanishi, insonni shaxs sifatida ma'naviy axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin", deb qat'iy ko'rsatib bergan edi.

1993-yil – Islom Karimovning "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" nomli asari nashrdan chiqdi.

1993-yil – janubiy Koreyada o'tkazilgan prezidentlik saylovlarida muxolifatdagi liberal demokratik partiya yo'l boshchisi *Kim Yan Sam* hokimiyat tepasiga keldi. Ilgarigi rahbarlar faoliyati fosh etila boshlandi. Hatto, yuzaki tekshirish ilgarigi diktatorlar tuzimlarining yuqori darajada korrupsiyalashgani va shafqatsizligini ko'rsatdi. Generallar *Chon Du Xvan* va *Ro De Vu* qamoqqa olinib, sudga berildi. Ularni isyon, davlatga xiyonat qilish va korrupsiyada ayblashdi. Sud hukmi Janubiy Koreyada qariyb 45 yil mobaynida hukmronlik qilgan tuzumga siyosiy baho bo'ldi.

1993-yil – JARda aparteid rejimi tugatildi va butun Afrika dekolatizatsiya jarayonini tugatdi. Tabiiy va kishilik xaziralarini ekspluatatsiya qilish maqsadida xalqlarni zo'rlab bo'ysundirish shaklidagi mustamlakachilik tizimi to'liq tugatildi.

1993-yil – Koreyada favqulodda va muxtor elchilar darajasida vakillik almashinuvi o'tkazildi. Keyingi yillarda Koreya va O'zbekiston o'rtasida tinchlik va o'zaro foydali sheriklik asosida amaliy aloqalar rivojlandi.

1993-yil – kubaliklarga xususiy korxonalar ochish va chet el valyutasini sotib olishga ruxsat berildi. Iqtisodiyotning turistik sohasiga chet el mablag'i faol jalb etila boshladi.

1993-yil – MDH Nizomi qabul qilindi, u davlatlarning birgalikdagi faoliyati sohalarini ko'zda tutdi. Bu sohalar inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, tashqi siyosat faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni shakllantirish, transport va aloqa tizimini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik, aholi sog'lig'ini saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilish, emmigratsiya va ijtimoiy-siyosiy masalalar, uyushgan jinoyatchilik bilan kurash, tashqi chegaralarni mudofaa va muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikni o'z ichiga oldi. MDH mamlakatlarining asosiy muammosi 1989-yilda boshlangan iqtisodiy pasayish edi. MDH 12 mamlakatidan to'qqiztasida yalpi milliy mahsulot (YMM) ishlab chiqarish o'n yil mobaynida 40 foizdan ziyodroqqa tushib ketdi. Gruzija, Ukraina va Moldovada eng qiyin ahvol yuzaga keldi.

1993-yil – MDHga Gruzija qo'shildi.

1993-yil – *N.Mandela* va *F.V.de Klerk*ga tinchlik o'rnatish borasidagi xizmatlari uchun Nobel mukofoti berildi.

1993-yil – Nukus shahrida "Kateks" to'qimachilik majmuasi foydalanishga topshirildi.

1993-yil – O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida so'zlagan nutqida Afg'oniston muammosiga jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratib, bu masalaning nechog'liq jiddiy ekanini alohida ta'kidlagan edi.



1993-yil - O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi Xalqlar Do'stligi saroyida vazirlik tasarrufidagi san'at va madaniyat oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining talaba-o'quvchilari hamda o'qituvchilari ishtirokida "*Istiqlol jilolari*" yig'ma konsertini namoyish etdi. Konsert dasturida xalq kuy va qo'shiqlari, dilrabo raqslar, o'zbek va xorijiy mamlakatlar bastakorlarining asarlari va badiiy ko'rgazmalari ham namoyish etildi.

1993-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "*Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida*"gi qonunni qabul qildi.

1993-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "*Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida*"gi qonun qabul qilindi.

1993-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "*O'zbekiston Respublikasining pul tizimi to'g'risida*", "*Sug'urta to'g'risida*", "*Birjalar va birja faoliyati to'g'risida*"gi qonunlarni qabul qilindi.

1993-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "*Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida*", "*Suv va suvdan foydalanish to'g'risida*"gi qonunlarining qabul qilinishi.

1993-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining joylarda o'tkazgan tekshirishlari, Plenumlarda qabul qilingan tegishli qarorlar, xavfli jinoyatchilarga, uning tashkilotchilarga, jinoiy guruhlarining faol qatnashchilariga jazo tayinlash amaliyoti tubdan o'zgardi. Og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar uchun jazo tayinlash ancha kuchaytirildi.

1993-yil - O'zbekistonda "Farindustriya" konsterni tashkil etildi.

1993-yil - O'zbekistonda Bahouddin Naqshbandining 675-yilligi keng nishonlandi.

1993-yil - O'zbekistonda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 98,1 % ga tushgan edi.

1993-yil - O'zbekistonda qat'iy belgilangan va tartibga solib turiladigan narxlarda sotiladigan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning ro'yxati ancha qisqardi. Kelishildan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'xtatildi.

1993-yil - O'zbekistondagi jami korxonalarining 39,4 % dan ortig'i davlatga tegishli bo'lmagan korxonalar edi.

1993-yil - Qoraqalpog'istonda 59 % aholi gaz, 52 % aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan.

1993-yil - respublika Fanlar akademiyasining Qoraqalpoq bo'limi bioekologiya instituti xodimlari Germaniya olimlari bilan birgalikda shu yildan beri Orolbo'yi ekologiyasi muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borishmoqda. Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti olimlari Avstraliyaning Sidney universiteti olimlari hamda fransuz arxeologlari bilan birgalikda ish olib bormoqdalar.

1993-yil - Rim prokuraturasi tomonidan mafiyaning oliy davlat arboblari bilan aloqasini aniqlash bo'yicha "Toza qo'llar" operatsiyasi o'tkazilganda "ko'rinmas hokimiyat" rahbari bosh ministr va senator *Julio Andreottini*ning o'zi ekanligi ma'lum bo'ldi. Shu narsa ham aniqlandiki, Italiyadagi hokimiyatning barcha tuzilmalari jinoyatchi unsurlar bilan aloqador ekan. Neapolni boshqarish va uning iqtisodiyoti kontrabanda va davlat xazinasini talon-toroj qilish bilan qo'shib olib borilgan. Bu yerda korrupsiyada ayblangan 400 kishi, ko'pgina siyosiy arboblari, biznesmenlar,



amaldorlar va mafiya a'zolari qamoqqa olinib, sudga berilgan. Palermoda ham shunday bo'ldi. Biroq barcha aybdorlar yengil jazo bilan qutulishi.

1993-yil – saylovlarda PASOK g'alaba qozondi.

1993-yil – Slovakiyada sanoat ishlab chiqarilishi 1989-yilgi darajasining 78 % ini tashkil etdi.

1993-yil – *Sulaymon Demirel* Turkiya hukumatining bosh vaziri.

1993-yil - *Szyan Szemin* XXR raisi.

1993-yil - Toshkent shahrida hashamatli "Turkiston" saroyi ish boshladi.

1993-yil – Toshkent shahrining markazida Amir Temur xiyoboni bunyod etildi. Mazkur xiyobon o'rtasida Sohibqiron Amir Temur suvoriy haykal o'rnatildi. Amir Temur faoliyatiga oid turli adabiyotlarni nashr etishga kirishildi. "*Temur tuzuklari*" nashr etildi.

1993-yil - Toshkent traktor zavodida quvvati 30 ot kuchiga ega bo'lgan TTZ-30 traktori yaratildi va uni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

1993-yil – Tunisdagi barcha siyosiy partiyalar ishtirokida parlament saylovlari o'tkazildi. Biroq, hukumat rejasini amalga oshirish islom fundamental guruhlari qarshiligi tufayli murakkablashmoqda.

1993-yil – *Turg'ut Ozal* vafot etgandan so'ng parlament *S. Demirel*ni prezidentlikka sayladi. U ham o'z navbatida bosh vazir lavozimiga To'g'ri yo'l partiyasi yetakchilaridan biri – *Tansu Chiller* nomzodini qo'ydi. Yangi hukumat uzoq turmadi.

1993-yil - Yaponiyada sanoat ishlab chiqarishning yillik o'sishi 0 foizni tashkil etdi.

1993-yil yanvar – O'zbekistonda joriy etilgan yagona tarif setkasi barcha xodimlarning mehnat haqi miqdorini tarif koeffitsientlari orqali va eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi. Eng kam ish haqini oshirish yo'li bilan aholining o'rtacha ish haqi, pul daromadlari ham ko'tarila bordi.

1993-yil yanvar – Prezident *Islom Karimov* tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvi tashkil etildi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. 5 davlat – Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston rahbarlari Hamdo'stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Buni mintaqa xalqlari zo'r mamnuniyat bilan qarshi oldilar va qo'llab-quvvatladilar.

1993-yil yanvar – Toshkentda Qoraqalpog'iston madaniyati kunlari o'tkazildi.

1993-yil 1-yanvar – Chexiya va Slovakiya mustaqil davlatlar – Chexiya va Slovakiya respublikalariga aylandi.

1993-yil 1-yanvar - Chexiya va Slovakiya mustaqilligining e'lon qilinishi.

1993-yil 8-yanvar - O'zbekiston avtomobil transporti - "*O'zavtotrans*" davlat aksiyadorlik korporatsiyasi tashkil etildi.

1993-yil 9-yanvar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "*O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotni yanada chuqurlashtirish choralari to'g'risida*" qaror qabul qilishi.

1993-yil 26-yanvar - *Bill Klinton*ning AQSh prezidenti etib saylanishi.



1993-yil fevral 1996-yil 19-iyul - "UzDEO'avto" qo'shma korxonasi umumiy maydoni 476 ming 266 kvadrat metr bo'lib, shundan bino va inshootlar uchun ajratilgani 146 ming 266 kvadrat metrni tashkil qiladi. Qurilish shu yili boshlanib 32 oy mobaynida oxiriga yetkazildi.

1993-yil fevral – BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi ish boshladi.

1993-yil fevral – Toshkentda BMT vakolatxonasi ta'sis etilib, ish boshladi. *Xolid Malik* BMTning O'zbekistondagi vakili sifatida faoliyat ko'rsatdi.

1993-yil mart – O'zbekiston Respublikasi hukumati Afg'onistondagi voqealar munosabati bilan muhim siyosiy va diplomatik chora-tadbirlar ko'rdi. Prezident Islom Karimov BMTga maktub orqali qilgan murojaatida o'z e'tiborini voqealarning xavfli rivojlanishi, butun O'rta Osiyo mintaqasida qo'poruvchilik harakatlarini amalga oshirishi mo'ljallangan terroristik guruhlarining tayyorlanayotganligiga qaratdi. U mojaroni cheklash va hal etish, Afg'onistonga qurol-yarog' olib kirishga embargo kiritish bo'yicha aniq takliflarni olg'a surdi.

1993-yil mart – O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi zavod "UzDEO'avto" nomi bilan ro'yxatga olindi va Andijon viloyatining Asaka shahridagi pritseplar ishlab chiqarish korxonasi negizida uni qurish boshlandi.

1993-yil mart – Qizil O'rdada Markaziy Osiyo davlatlarining Rossiya davlat vakillari ishtirokida "Orol muammosi bo'yicha" birgalikdagi harakatlar bitimi tuzildi. Uchrashuvda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sis etilib, N. Nazarboyev bir yilga shu jamg'armaning Prezidenti etib saylandi. Uchrashuv ishtirokchilari BMT Bosh kotibi Butros G'oliyga maktub yo'llab Orol boy'idagi murakkab vaziyat muammolarini hal etishda xalqaro jamiyatning diqqat e'tiborini qaratish zarurligini ko'rsatib o'tdilar.

1993-yil mart – Shimoliy Koreya hukumati iqtisodiy balansni ushlab turish uchun qurollanish poygasini rivojlantirdi va harbiy-sanoat kompleksini (HSK) yarata boshladi. Bu tadbir ikki yo'nalish o'rtacha uzoqlikdagi raketalarni ishlab chiqarish va yadro qurolini yaratish borasidagi ishlar bo'yicha amalga oshirildi. Mazkur ishlar *Kim Ir Sen* hayotligi chog'tdayoq boshlangan edi. Shu yili Shimoliy Koreya yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnomadan chiqdi.

1993-yil 4-mart - O'zbekistonda Prezidentning Farmoni bilan ta'sis etilgan O'zbekistonning birinchi ordeni - "Sog'lom avlod uchun" ordeni bo'ldi. Bular davlatimizning inson salomatligi to'g'risida qanchalik g'amho'rlik qilayotganligidan dalolat beradi.

1993-yil 18-mart - Vazirlar Mahkamasi O'zbekistonda ommaviy va professional futbolni yanada rivojlantirish, uning moddiy bazasini mustahkamlash, futbolchilarning yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash, Vatanimiz futbolining xalqaro nufuzini oshirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi futbolini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" maxsus Qaror qabul qildi.

1993-yil 26-mart – Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Qozog'iston Respublikasining Qizil O'rda shahriga tashrif buyurdilar. Unda Orol dengizi muammosiga bag'ishlangan uchrashuvlar o'tkazdilar va bu borada amaliy ishlar olib bora boshladilar.

1993-yil 28-mart – Rossiya Kommunistlar yo'l boshchilari prezident mamlakatni



boshqarishga qodir emas degan asos bilan uni prezidentlik lavozimidan olib tashlash, ya'ni impichment haqidagi masalani qo'ydi. Biroq impichment yetarli miqdorda ovoz olmadi va so'l muxolifat 1-ochiq mag'lubiyatga uchradi.

1993-yil 9-aprel – Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi o'zining XII sessiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1993-yil 9-aprel – Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida Qoraqalpog'iston Davlat tamg'asi tasdiqlandi.

1993-yil 23-aprel – Prezident I.Karimov bir guruh adiblar bilan bo'lgan uchrashuvda milliy mafkura yaratish zarurligini ta'kidladi.

1993-yil 25-aprel – Rossiyada prezidentga ishonch haqida umumxalq referendumini o'tkazildi, Rossiya ko'pchilik ovoz bilan unga ishonch bildiradi.

1993-yil 26-29-aprel – Janubiy Afrika tarixida ilk bora yalpi yashirin saylov bo'lib o'tdi. **Nelson Mandelaning** Afrika Milliy kongressi partiyasi 62,7% ovoz bilan ishonchli g'alaba qozondi, ayni mahalda oq tanli millatchilarning Liberal partiyasi esa atigi 20,4% ovoz oldi. Yangi bir kuch ham maydonga chiqqan edi. Qora tanli aholining manfaatlarini ifoda etuvchi tag'in bir partiya – Zuluslar provinsiyasidan Inketa Ozodligi partiyasi 10,5% ovoz olgan edi. Qora tanli aholi orasida bo'linish ro'y berdi. Inketa Zuluslar provinsiyasida viloyat hukumatida ko'pchilikka ega bo'ldi va saylov yakunlanganidan keyinroq markaziy hukumat va zuluslar o'rtasida shiddatli janglar boshlanib ketdi. Hamma voqealar Kongodagi senariy bo'yicha ro'y berdi, endi oq tanli millatchilar zuluslarni qo'llab-quvvatlashdi.

1993-yil 28-aprel - 2-may – O'zbekiston Prezidenti *I.Karimov* rasmiy tashrifi bilan Germaniyaga bordi.

1993-yil may – Janubiy Afrikada faqat qora tanli aholining ommaviy chiqishlari va mustaqillikka erishgan qo'shni afrika mamlakatlari tazyiqi ostidagina loxannesburgdagi ko'p tomonlama muzokaralar orqali hamma irq vakillari uchun teng huquqli asosda parlament saylovlari o'tkazishga kelishib olindi.

1993-yil may – ro'y bergan zo'ravonlik butun Bombay va Kalkuttani larzaga soldi. Bu yerda bomba portlashi oqibatida 300 kishi halok bo'ldi va 120 kishi yaralandi. Mudhish voqeaga 1992-yilda XVI asrga mansub musulmonlar masjidi buzib tashlanishi sabab bo'ldi.

1993-yil may - *Sulaymon Demirehning* Turkiya prezidenti etib saylanishi.

1993-yil 6-may – O'zbekiston Oliy Kengashining XII sessiyasida qilgan ma'ruzasida Prezident Islom Karimov mafkurasiz, aniq yo'nalishga ega bo'lgan g'oyalarsiz taraqqiyot bo'lmasligini ta'kidlab: "*Oldimizda turgan eng muhim masala – bu milliy istiqloq mafkurasini yaratish va hayotga tadbiiq etishdir*", - dedi.

1993-yil 7-may – Prezident *I.Karimov* O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida nutq so'zlarikan, "*Mustaqil davlat boshqa davlatlardan ayri tarzda iqtisodiy hur bo'lishi uchun o'z puliga, o'zining milliy valyutasiga ega bo'lmog'i kerak. Bu iqtisodiy mustaqillikning asosiy shartlaridan biridir*", - degan edi.

1993-yil 23-25-may – Xindiston Bosh vaziri *Narosimxa Rao* O'zbekistonga tashrif buyurdi.

1993-yil iyun - Namanganda 120 o'rinli Kardiologiya markazi qurilib ishga



tushirildi. Barcha qulayliklarga ega bo'lgan mazkur Boltiqbo'yi, Shvetsiya, Vengriya, Yaponiya singari xorijiy mamlakatlardan eng zamonaviy tibbiyot apparatlari olib o'rnatildi. Markaz ochilgandan keyin o'tgan davr mobaynida bu yerda 10 mingdan ortiq bemor o'z salomatligini tikladi.

1993-yil 17-19-iyun – Buyuk Britaniya qirolichasining qizi malika *Anna O'zbekistonda* bo'lib, mamlakatimiz bilan, xalqimizning turmush tarzi bilan tanishib, Samarqand shahrining o'lmas tarixiy yodgorliklarini ziyorat qilib ketdi.

1993-yil 2-3-iyul – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda Prezident *Islom Karimov* shunday degan edi: *“Demokratiya ustun bo'lgan jamiyatda konstruktiv sog'lom oppozitsiyaning roli juda katta bo'ladi. Bunday oppozitsiya jamiyatning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy rivojiga hissa qo'shadi. Ayni zamonada, mavjud konstitutsiyaviy hokimiyatni kuch bilan ag'darishni maqsad qilib olgan partiya va harakatlar, shuni aniq aytishimiz kerak, ta'qiqlab qo'yilishi kerak. Respublika chegaralari daxlsizligi va xavfsizligiga qarshi kurashuvchi, fashizm, irqchilik, zo'ravonlik, milliy va diniy nizolarni targ'ib etuvchi, demokratik erkinliklar va xalq ma'naviyati asoslariga tajovuz etuvchi har qanday partiya va jamoat harakatlari qonunga xilof deb e'lon qilinishi shart”*.

1993-yil 2-3-iyul – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining X sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda Prezident *Islom Karimov* shunday deb ta'kidlagan edilar: *“Iqtisodiy tanglik davrida nizo chiqarish juda oson. Gugurt chaqilsa bas – ho'lu quruq baravar yonib ketishi mumkin. Men bu gapni ilgari ham ko'p marta aytganman, lekin bugun, azizlar, birodarlar, boshqa qo'shnilarimizning ahvolihi ko'rib, yana bir marta takrorlashga majburman. Sizlarni, sizlar orqali barcha vatandoshlarimizni hushyorlikka da'vat etmoqchiman. Fuqarolar to'qnashuvi bo'layotgan mintaqalarda odamlar nobud bo'lyapti, qon to'kilyapti, xalq xo'jaligi yuz millionlab so'm zarar ko'rmoqda, mol-hol qarovsiz, dalalar ekinsiz qolib ketmoqda. O'zbekistonning yo'li shuki, biz tinchlik va osoyishtalikni saqlab, bozor iqtisodiyotiga o'tishni shoshmasdan, aholining nochor qismini asrab-avaylab, ularga yetarli shart-sharoitlarni yaratib berib, ana undan keyin amalga oshirishga bel bog'ladiq. Quruq va dalar, jizzakilik, siyosiy jazavalari payti o'tdi. Butun xalqimizga tinchlik va osoyishtalik kerak. Oldin qorinni to'yg'azib, ishning sarxisobini qilib, to'g'ri yo'lni tanlab, bozor iqtisodiyoti uchun zamin hozirlab, undan keyin siyosiy bahslar bilan shug'ullanish mumkin. Oldin hammamiz bir bo'lib, bir tan-bir jon bo'lib, ertangi kun harakatini qilaylik”*.

1993-yil avgust - Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida Buxoro neftni qayta ishlash zavodining qurilishi boshlandi.

1993-yil avgust – italyan parlamenti va senat yangi saylov tizimi haqida qonun qabul qildi, unga ko'ra parlamentdagi 75 foiz o'rin saylov okruglarida eng ko'p ovoz olgan nomzodlarga, qolgan 25 foiz - 4 foizli to'siqni yengib o'tgan partiyalarga beriladigan bo'ldi.

1993-yil avgust – Nukusda Orol muammolari bo'yicha davlatlararo Kengash va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining qo'shma majlisi bo'ldi. Majlisda mintaqadagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan qarorlar qabul qilinib, vazifalar belgilandi. Markaziy Osiyo mamlakatlarini Hind va Tinch okeani bilan



hamda O'rta Yer dengizi bilan bog'lovchi temir yo'llar qurilishida ham O'zbekiston faollik bilan qatnashmoqda.

1993-yil avgust – O'zbekiston Respublikasining “*Monopol faoliyatini cheklash to'g'risida*”gi Qonun kuchga kirdi. Bu qonun asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Moliya vazirligi tizimida tuzilgan Antimonopol va narx-navo siyosatini o'tkazish Bosh boshqarmasi monopoliya mavqeidagi korxonalarni belgilab, ularning mahsulotlari bo'yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turibdi. 1625 guruhdagi tovarlar xili bo'yicha 658 korxonada monopoliyachilar ro'yxatiga kiritildi va nazorat qilib borildi.

1993-yil sentabr – Birlashgan Millatlar Tashkilotining 48-sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Prezidenti **I.Karimov**ning ishtiroki va unda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga ko'hna va navqiron davlat sifatida tanitdi.

1993-yil sentabr – MDH davlatlari o'rtasida “*Iqtisodiy Ittifoq*” haqidagi shartnoma imzolandi.

1993-yil sentabr – O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan “*Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida*”gi va “*Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari haqida*”gi Qonunlari qabul qilindi.

1993-yil sentabr - Xalqaro olimpiya qo'mitasining 101-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Milliy olimpiya qo'mitasi to'la-to'kis tan oldi.

1993-yil 2-sentabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “*Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida*”gi Qonuni qabul qilindi.

1993-yil 2-sentabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning XIII sessiyasida “*Sudlar to'g'risida*”gi Qonun qabul qilindi.

1993-yil 2-sentabr - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “*O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida*”gi Qonuni qabul qilindi. Unda viloyat, tuman, shahar hokimi mahalliy hududning oliy mansabdor shaxsi sifatida tegishli hudud ijroiya hokimiyatini boshqaradigan bo'ldi. Joylarda hokimliklar joriy etildi. Mamlakatning 12 viloyati va Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va tegishli Xalq deputatlari Kengashlari sessiyasida tasdiqlanadigan hokimlar boshchiligidagi hokimliklar tashkil qilindi.

1993-yil 13-sentabr – Vashingtonda prezident **B.Klinton** yordami asosida **Y.Arofat** va **Isroil** bosh vaziri **Is'hoq Rabin** o'rtasida o'zaro bitim (Tamoyillar deklaratsiyasi) imzolandi. Unga ko'ra Isroil qo'shinlarining G'azo va Ierixon mintaqasidan olib chiqib ketilishi hamda u yerda milliy Falastin ma'muriyati tashkil etish ko'zda tutilgan edi.

1993-yil 21-sentabr – **B.Yelsin** Oliy Sovetni tarqatib yubordi va yangi saylovlarni tayyorladi. Bunga javoban parlament uni ishdan tushirilgan deb e'lon qildi. Prezidentga qarshi kuchlar Oq uy binosida jamlandi va barrikada to'siqlarini qo'ydi. Ular umumxalq qo'zg'oloni va fuqarolar urushidan umid qilishgan edi. Biroq ularni hech kim qo'llamadi.

1993-yil oktabr – Pokiston prezidenti **Legari** qayta saylov o'tkazishga majbur bo'ldi va **B.Bxutto** yana g'alaba qozondi.



1993-yil 3-oktabr - Moskvada Oq uyning ishg'ol etilishi.

1993-yil 3-oktabr – Rossiyada prezidentga qarshi kuchlar Ostankinodagi telemarkazni egallashga harakat qilishdi. Otishmada dastlabki qurbonlar paydo bo'ldi. Bunga javoban *B.Yelsin* farmoyishi bilan Oq uyni zabt etishga kirishildi. Deputatlar taslim bo'ldi. Bu voqealar chog'ida 140 ga yaqin kishi halok bo'ldi.

1993-yil 15-oktabr – Buyuk Britaniya tashqi ishlar va hamdo'stlik ishlari bo'yicha davlat vaziri *Daglas Xogning* O'zbekistonga safari chog'ida 2 davlat o'rtasida madaniyat va ta'lim sohasidagi hamkorlik bitimi, ikki yoqlama soliq olmaslik to'g'risida bitimlar imzolandi.

1993-yil 18-oktabr – Eron Prezidenti *Ali Akbar Xoshimiy* Rafsanjoniy O'zbekistonga tashrif buyurdi.

1993-yil 28-30-oktabr – O'zbekiston delegatsiyasining Fransiya rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikka asos soldi. Prezident *I.Karimov* Fransiya Prezidenti *F.Mitteran*, Fransiyaning boshqa rahbarlari hamda jamoatchilik vakillari bilan do'stona suhbat va samarali muzokaralar yuritdi.

1993-yil noyabr – Qoraqalpog'istonda Toshkent madaniyati kunlari o'tkazildi.

1993-yil 22-25-noyabr – O'zbekiston Prezidenti *I.Karimov* boshliq respublikamiz delegatsiyasining rasmiy amaliy tashrif bilan Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligida bo'lishi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik tarixida buyuk voqea bo'ldi. Mamlakatimiz rahbarining qirolicha *Elizaveta II*, Bosh vazir *J.Meyjor* bilan samimiy, o'zaro manfaatli suhbatlari, muzokaralari bo'lib o'tdi.

1993-yil dekabr - JAR yangi Konstitutsiyasi qabul qilinishi. Demokratik davlatning barpo etilishi.

1993-yil 4-dekabr – Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining XIV sessiyasida Qoraqalpog'iston Davlat madhiyasi tasdiqlandi.

1993-yil 6-dekabr – O'zbekiston Konstitutsiyasining 1 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida *I.Karimov* ikki fuqarolikka o'z munosabatini bildirib, jumladan, "*Ikki davlat fuqarosi qaysi Vatanga, qaysi zamin, qaysi tuproqqa o'z mehrini, sadoqatini, vatanparvarligini izhor etish kerak? Agar vaziyat talab qilsa, qaysi mamlakatga jonini ham fido etmoqqa tayyor bo'lishi kerak? Eng yaxshisi – O'zbekistonda yashayotgan fuqarolar o'zlarining naslu nasabi, irqi, millati va diniy e'tiqodidan qat'iy teng huquqli bo'lishi kerak*", - dedi.

1993-yil 7-dekabr – O'zbekiston Konstitutsiyasining bir yilliligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda mamlakat Prezidenti *I.Karimov* nutq so'zlab, milliy mafkurani milliy ehtiyoj darajasiga ko'tarish zarurligini ta'kidladi. Barchaning diqqat-e'tiborini ana shu muhim masalaning hal etilishiga qaratdi va "*Mafkuraviy masalani hal etmasdan, uni amalda tadbiq etmasdan turib, Konstitutsiya belgilab bergan maqsadlarga erishish, o'z oldimizdagi qo'ygan talablarga javob berish mushkul bo'ladi. Milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy dasturni yo'lga qo'ymoq kerak*", - degan fikrni ilgari surdi.

1993-yil 12-dekabr – Rossiyada yangi Konstitutsiyani ma'qullagan referendum o'tkazildi. Mamlakatda kuchli prezident hokimiyati qaror topdi. Qonunchilik hokimiyati 2 palata – deputatlar har 5 yilda to'g'ridan-to'g'ri va yashirin ovoz berish



orqali saylanadigan Davlat Dumasi va viloyatlar vakillaridan iborat Federatsiya Sovetidan iborat bo'ldi. Barcha hokimiyat organlari saylanadigan bo'ldi.

1993-yil 27-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumida “Respublikadan tashqariga Tovar, moddiy boyliklarni olib chiqish va respublikaga naqd pullarni olib kelish tartiblarini belgilovchi qonunlarni qo'llash to'g'risida” qaror qabul qildi, quyi sudlarga dasturiy ko'rsatmalar berdi.

1993-yil 28-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashiga saylov to'g'risida” Qonun qabul qilindi. Bu qonun saylov tizimining huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

1993-yil 28-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XIV sessiyasida “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida” qonun qabul qilindi.

1994-1995-yillar – *Narasimha Rao* inflyatsiyani to'xtatish, sanoatga sarmoya qo'yishni ko'paytirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni kuchaytirishga erishdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi ko'paydi. bu sohadagi o'sish 10 foizni, yalpi milliy mahsulotning yillik o'sishi 5 foizni tashkil etdi.

1994-1995-yillar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qishloqda islohotlar o'tkazishga doir 10 dan ortiq qaror qabul qildi.

1994-1995-yillar – O'zbekistondagi ilgari Fanlar akademiyasi haqiqiy a'ziligiga saylangan *Ch.A.Abdirov*, *C.K.Kamolov* hamda muxbir-a'zolar *A.B.Baxiye*lar qatoriga yana 2 olim – *T.Eshanov*, *A.Dauletovlar* haqiqiy a'zolikka, *U.Hamidov* esa muxbir a'zolikka qabul qilindi.

1994-1996-yillar - Rossiya qo'shinlarining Chechenistonda ‘Konstitutsiyaviy tartibni o'rnatish bo'yicha’ harbiy harakatlari.

1994-yil - “*Humo*” yoshlar teatrining halqaro festivali muvaffaqiyatli o'tdi. Unda o'nlab yangi sahna asarlari namoyish etildi.

1994-yil - “*Soyuzpechat*” o'rniga “*Matbuot tarqatish uyushmasi*” ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati faoliyat ko'rsata boshladi.

1994-yil - Andijonda jamoatchilik asosida ishlab kelayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, u *Abbos Bakirov* nomidagi Andijon yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi.

1994-yil – G'azo mintaqasi va Ierixon rayonida Falastin avtonomiyasining tashkil qilinishi Isroilda 2 ta siyosiy lagerni vujudga keltirdi. *I.Rabin* yetakchiligidagi Mehnat partiyasi shartnomaning barcha bandlarini so'zsiz bajarish tarafdori edi. *Biayamin Netaniyaxu* rahbarligidagi Likud milliy partiyasi esa Isroilning shartnomada qayd etilgan hududlardan, hatto Suriyaga tegishli Golan tepaligidan qo'shinlarni olib chiqib ketganligidan norozi bo'lishdi.

1994-yil – *Islom Karimov* O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi etib saylandi.

1994-yil – *Islom Karimovning* “*Bizdan ozod va obod vatan qolsin*” nomli asari nashrdan chiqdi.

1994-yil – *Kim Ir Sen* vafot etdi, u mamlakatni 40 yil mobaynida boshqardi. Hukmron doiralar hokimiyat vorisiyligini saqlash uchun mamlakat prezidenti lavozimiga uning o'g'li *Kim Chen Imi* ko'tardi.



1994-yil – Nelson Mandela JAR prezidenti.

1994-yil - O'zbekiston - Italiya qo'shma korxonasi - "O'zltalmotor" aksionerlik tashkilotiga asos solindi. Unda AQShning "KEYS" firmasi bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi va qishloq xo'jaligi uchun yangi traktorlar va kombaynlarni yig'ish amalga oshirilmoqda.

1994-yil - O'zbekiston "Radioelektrontexasbob" davlat konserni "O'zeltexsanoat" uyushmasi shaklida qayta tashkil etildi. "O'zeltexsanoat" uyushmasida 46 mingdan ortiq ishchi va xizmatchilar mehnat qiladilar. Uyushma tarkibida 50 dan ortiq korxon va tashkilotlar mavjud. "O'zkabel" aksiyadorlik jamiyati, "Foton", "Chirchiq transformator", "Uzelektrapparat", "Signal", "Oniks", "Andijonkabel", "Algoritm" aksiyadorlik jamiyatlari, Jizzax akkumulyator zavodi kabilar ana shular jumlasiga kiradi.

1994-yil – O'zbekiston Respublikasi bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida sheriklik va hamkorlik haqida bitim ustida ish boshlandi. Yevropa Komissiyasi va Kengashi hamda Yevroparlament O'zbekiston bilan munosabatlarning kelajagini chuqur o'rganib chiqadi.

1994-yil – O'zbekiston Respublikasi FANing Qoraqalpog'iston bo'limi tarkibiga O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli tajriba instituti va tibbiyot klinikasi kiritildi.

1994-yil – O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan *Ulug'bek yili* deb e'lon qilinishi, uning 600 yilligining O'zbekistonda va jahon miqyosida keng nishonlanishi ham buyuk alloma qoldirgan ilmiy merosning umuminsoniy qadriyatga aylanganligi nishonasidir.

1994-yil - O'zbekiston Respublikasi sportchilari birinchi marta Yaponiyaning Xirosima shahrida o'tkazilgan 12-Osiyo o'yinlarida ishtirok etdilar va ulkan muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ular 42 medalni, 10 oltin, 12 kumush, 20 bronza medalini qo'lga kiritdilar. O'zbekiston futbol terma komandasi Osiyo o'yinlari chempioni bo'ldi.

1994-yil – O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni Konstitutsiyasi asosida ko'ppartiyaviylik asosida Oliy Majlisga saylovlar o'tkazildi.

1994-yil – O'zbekiston Tovar-xom ashyo birjasi umumiy summasi 1,3 mlrd so'mdan ortiqroq bo'lgan mingdan ziyod oldi sotdi bitimini rasmiylashtirdi.

1994-yil – O'zbekiston yalpi ijtimoiy mahsulotining deyarli yarmi iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan sektorida ishlab chiqildi, bu sektorda 4 mlnga yaqin kishi ish bilan band bo'ldi.

1994-yil – O'zbekistonda 2,7 mln tonna yoki 1991-yildagiga qaraganda 44 % ko'p don yetishtirildi.

1994-yil - O'zbekistonda 80 ming o'rinli 209 ta maktab qurilib foydalanishga topshirildi.

1994-yil – O'zbekistonda 91 mingdan ortiq soliq to'lovchi yuridik shaxs ro'yxatga olindi.

1994-yil – O'zbekistonda Baynalmilal madaniyat Markazi tomonidan 1-marotaba "Xalq ijodiyoti" festivali bo'ldi. Bu festival O'zbekiston mustaqilligining 3 yilligi munosabati bilan tashkil etildi va uni har 2 yilda bir marta o'tkazishga qaror qilindi.



1994-yil – O'zbekistonda Davlat mulkini boshqarish va xususiyashtirish Davlat qo'mitasining funksiyalari o'zgartirildi, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat qo'mitasiga aylantirildi.

1994-yil – O'zbekistonda kichik xususiyashtirish tugallandi.

1994-yil – O'zbekistonda kredit resurslari bozori faol ishlay boshladi. Foiz stavkasi (darajasi) o'zgartirildi, endi u moliyaviy resurslarni korxonalar o'rtasida qayta taqsimlashga faol ta'sir eta boshladi. Banklararo valyuta birjasi tashkil etilib, bu birja tomonidan o'tkazilayotgan valyuta kim oshdi savdosida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar bemalol qatnashadigan bo'ldi.

1994-yil – O'zbekistonda qishloq xo'jaligida davlatga qarashli bo'lmagan sektor butun mahsulotning deyarli 95 % ini ishlab chiqardi.

1994-yil – O'zbekistonda Qozog'iston Respublikasi Kunlari o'tkazildi va unda O'zbekiston-Qozog'iston Markazini tashkil qilish xususida kelishib olindi. Tenglik asosida axborot va tahririyat materiallari almashiniladigan bo'ldi. Xalq xo'jaligining boshqa sohalarida ham O'zbekiston-Qozog'iston munosabatlari yanada kengaya bordi. Madaniy aloqalar an'anaviy tus oldi.

1994-yil – O'zbekistonda realizatsiya qilingan chet el valyutasining umumiy summasi 16 mln. 558 ming AQSh dollarini tashkil etdi.

1994-yil – O'zbekistonda sog'liqni saqlash ehtiyojlari uchun milliy daromadning 4,1 % miqdorida mablag' ajratildi.

1994-yil - O'zbekistonda tashqi savdo aylanmasi 5 mlrd. dollarga yetdi.

1994-yil – O'zbekistondagi jami korxonalarining 57,7 % dan ortig'i davlatga tegishli bo'lmagan korxonalar edi.

1994-yil – PBIP o'rnida Demokratik so'l ittifoq tuzildi. U seymga saylovlarda g'alaba qozondi. Dehqonlar partiyasi bilan birgahda ular koalitsion hukumat tuzishdi.

1994-yil - Qashqadaryo va Namangan viloyati teatrlari qoshida davlat qo'g'irchoq guruhlari ochildi.

1994-yil – Suveren va mustaqil O'zbekistonni barpo etish, xalqparvar demokratik huquqiy davlat yaratish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni ta'minlash ishiga qo'shgan ulkan hisssasi hamda bu borada matonat va jasorat ko'rsatganligi uchun O'zbekiston Respublikasining Prezidenti *I.A. Karimov* "O'zbekiston Qahramoni" unvoni va "Oltin Yulduz" medaliga 1-bo'lib sazovor bo'ldi.

1994-yil - Toshkent traktor zavodida dizelli TTZ-80/100 uneversal chopiq traktori sinovdan muvaffaqiyatli o'tdi. Shundan so'ng bu xil traktorlarni ommaviy ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

1994-yil - Toshkentda Tennis saroyi qurilib, unda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini" uchun tennis bo'yicha katta xalqaro musobaqa o'tkazilmoqda.

1994-yil – Xitoy O'zbekistonda tayyorlangan IL-76, IL-114 samalyotlarini sotib oladigan bo'ldi. Yurtimizda 78 ta Xitoy-O'zbekiston qo'shma korxonalarining ishga tushishi 2 davlat aloqalarini rivojlanayotganiga misoldir.

1994-yil - Yaponiyada sanoat ishlab chiqarishning yillik o'sishi 1 foizni tashkil etdi.

1994-yil – Zambiya poytaxti Lusakada protokol imzolandi va unga ko'ra UNITA qurolli kurashni to'xtatish majburiyatini oldi. Angolaning shimoliy hududiga BMT



nazoratchilari kiritildi. Jahon banklari Angolaga 1 milliard dollar miqdorida moliyaviy yordam ko'rsatishini e'lon qildi.

1994-yil 7-yanvar – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenum o'tkazib, "*Jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida*"gi masalani muhokama etdi va tegishli qaror qabul qildi. Mazkur qaror jinoyatchilikka, ayniqsa uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda ijobiy rol o'ynadi. Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida makon qurgan "nomdor", jinoyat olamida "shuhrat qozongan" to'dalarning asosiy qismi ushlendi va tergov qilinib, sudlar tomonidan qilmishlariga yarasha qonuniy jazo belgilandi.

1994-yil 10-yanvar – Qozog'iston Respublikasi bilan O'zbekiston yagona iqtisodiy makonni tashkil etish haqida shartnoma imzolandi.

1994-yil 11-yanvar – Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Nukus shahriga tashrif buyurdilar. Unda Orol dengizi muammosiga bag'ishlangan uchrashuvlar o'tkazdilar va bu borada amaliy ishlar olib bora boshladilar.

1994-yil 14-yanvar – *I.A.Karimov* tashabbusi bilan Nukusda Markaziy Osiyoning 5 ta davlat Prezidentlari hamda Rossiya Federatsiyasining vakillari ishtirokida o'tkazilgan uchrashuvda Orolga va Orolbo'yi aholisiga amaliy yordam berish masalasi muhokama etildi.

1994-yil 16-yanvar - O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida yagona iqtisodiy makon to'g'risida shartnoma imzolandi.

1994-yil 18-yanvar – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "*O'zbekiston Respublikasining Davlat Soliq Bosh Boshqarmasini O'zbekiston Respublikasining Soliq Qo'mitasiga aylantirish to'g'risida*"gi Farmoni soliq tizimini mustahkamlashda yangi bosqichni boshlab berdi.

1994-yil 21-yanvar – O'zbekistonda "*Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*"gi Prezident Farmoni qabul qilindi.

1994-yil fevral – AQSh Vetnam bilan urush paytida kiritilgan savdo embargosini bekor qildi.

1994-yil 24-fevral - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "*Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida*", "*Chorvachilikda islohotlarni takomillashtirish hamda dehqon (fermer) xo'jaliklari va xususiy lashtirilgan fermerlar manfaatlarini himoya qilish to'g'risida*" qaror qabul qilishi.

1994-yil mart – Italiyada hokimiyat tepasiga bosh vazir *Silvio Berlusconi* boshchiligidagi hukumat keldi. U yirik italyan kompaniyalari ro'yxatida ikkinchi o'rinda turuvchi "Fininvest" sanoat-moliya korporatsiyasi egasi bo'lish bilan birga uch italyan xususiy televiden kompaniyalarini sotib oldi va davlat televideniyesining butun tizimi ustidan nazorat o'rnatdi.

1994-yil mart-aprel – Toshkentda "*Bir daraxtning shohlari*" mavzusida turli millatga mansub ijodkorlar asarlarining ko'rgazmalari tashkil qilindi. Unda mamlakatda istiqomat qiluvchi 11 millatga mansub 58 ijodkorning 98 ta tasviriy san'at asari namoyish qilindi.

1994-yil 2-mart – O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi Deklaratsiya imzolandi.



1994-yil 16-mart – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *I.Karimovning* “1941-1945-yillardagi urushda fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 50 yilligiga tayyorgarlik ko'rish va uni nishonlash to'g'risida”gi farmonida o'zbekistonliklarning urush yillaridagi jasorarini hamda qurbon bo'lganlar xotirasini abadiylashtirishga bag'ishlangan ko'p jildli “*Xotira*” kitobini nashr etish vazifasi qo'yildi, yetarli miqdorda mablag' ajratildi va barcha shart-sharoit yaratib berildi.

1994-yil 16-mart – O'zbekistonda “*Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida*”gi Prezident Farmonlari qabul qilindi. Bu Farmon xususiyashtirish jarayonini yana ham yangi pog'onaga ko'tarish, uni sifat jihatidan yaxshilash imkonini berdi.

1994-yil 29-mart – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Davlat Dasturiga muvofiq 5127 ta obyekt xususiyashtirildi.

1994-yil 15-aprel – O'zbekiston valyuta birjasida doimiy savdolar o'tkazilib kelinmoqda.

1994-yil 23-aprel – O'zbekistonda “*Ma'naviyat va ma'rifat*” jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risidagi Prezident *I.Karimov* Farmoni muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Markaz qoshida “*Oltin meros*” xalqaro hayriya jamg'armasi tashkil etildi. U hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

1994-yil 26-aprel – Janubiy Afrikada bo'lib o'tgan saylovlarda AMK ishonchli g'alabani qo'lga kiritdi va *N.Mandela* qora tanlilar ichida JARning birinchi prezidenti etib saylandi. U hukumat tarkibiga aparteid davrida ajratib ko'rsatilgan to'rtta irq vakillarini kiritdi. Afrikada mustamlakachilik, irqchilik va aparteid davri barham topdi. JAR demokratik islohotlar yo'liga o'tib oldi.

1994-yil 30-aprel – Cho'lponota shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasida Yagona iqtisodiy makon tuzish to'g'risida uch tomonlama shartnoma imzolandi.

1994-yil 30-aprel – O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida imzolangan yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risidagi shartnomaga Tojikiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risidagi protocol imzolandi. Kengashda mintaqaviy integratsiyani yanada chuqurlashtirish to'g'risida 4 davlat rahbarlarining Bayonoti, xalqaro suv-energetika konsorsiumi to'g'risidagi qaror, 4 mamlakat o'rtasida qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirishning umumiy tamoyillari to'g'risida bitim imzolandi.

1994-yil may – O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan “*Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida*”gi Qonun qabul qilindi.

1994-yil may – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan “*Mulk to'g'risida*”, “*Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida*”gi Qonuni qabul qilindi.

1994-yil may – O'zbekiston Respublikasida Oliy darajadagi mukofot sifatida “*O'zbekiston Qahramoni*” unvoni va “*Oltin Yulduz*” medali ta'sis etildi.

1994-yil 5-may – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan “*Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida*” Qonun qabul qilindi. Bu qonun



saylovchilarimiz huquqlarini kafolatlovchi muhim huquqiy hujjat bo'ldi. Bunday qonun boshqa mamlakatlar saylov tizimida hanuzgacha yo'q.

1994-yil 10-may - *Nelson Mandela* Janubiy Afrika prezidenti sifatida qasamyod qabul qildi.

1994-yil 13-may – Isroil qo'shinlarini Iordaniyaning g'arbiy qirg'og'ini olib chiqib ketildi.

1994-yil 16-19-may – O'zbekiston davlat delegatsiyasining Yaponiyaga safari ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarining o'rnatilishiga xizmat qildi. Natijada O'zbekistonda Yaponiyaning "Mitsui va KO, LTD", "Mitsubishi korporeyshin", "Simitoto korporeyshin", "Chori" kabi kompaniyalari ishlamoqda. Yaponiya "Ko'kdumaloq" neft-gaz kondensati konini o'zlashtirishda, Buxoro neftni qayta ishlash zavodini qurishda, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini qayta ta'minlashda, telealoqa tarmoqlarini ta'mirlashda ishtirok etmoqda.

1994-yil 18-may – Isroil qo'shinlarini G'azo mintaqasidan olib chiqib ketdi. FOT va Isroil yarashuvi uchun birinchi qadamlar qo'yildi.

1994-yil 8-iyun - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "*Ma'naviyat va ma'rifat*" jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risidagi Prezident *I.Karimov* Farmonining bajarilishini ta'minlashga qaratilgan maxsus qaror qabul qildi. Unda "*Ma'naviyat va ma'rifat*" markazning asosiy vazifasi va faoliyat yo'nalishi qilib o'zbek xalqining boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umuminsoniy qadriyatlar asosida millat kelajagini belgilaydigan ilg'or goyalarni yuzaga chiqarish, jamiyatdagi sog'lom kuchlar, yuksak iste'dod va tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan istiqboli sari yo'naltirish, millatlararo hamjamiyatlikning ahamiyatini oshirish va boshqalar belgilandi.

1994-yil 25-27-aprel – Fransiya Prezidenti *F.Mitteranning* O'zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi chog'ida imzolangan ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida, O'zbekiston va Fransiya o'rtasida fuqarolarning erkin harakati va haqidagi bitimlar, havo transporti sohasida hamkorlik to'g'risidagi deklaratsiyalar qabul qilindi.

1994-yil 9-12-iyun – O'zbekiston davlat delegatsiyasi Niderlandiya (Gollandiya)da bo'ldi, qirolicha *Veatriks* va Bosh vazir *Rudolf Lyubbers* bilan 2 tomonlama hamkorlik to'g'risida suhbatlar o'tkazdi. O'zbekiston delegatsiyasi a'zolari tashrif davomida dehqonlar va chorvadorlar xo'jaligida bo'lib, ular bilan suhbatlashishdi, ko'p narsalarni o'rganishdi. Safar natijasida O'zbekiston va Gollandiya o'rtasida davlatlararo munosabatlar prinsiplari haqida bayonet va savdo-iqtisodiy hamkorlik haqida protocol imzolandi. Gollandiya agrar xo'jaligining texnologiyasi, urug' va nasllari, mehnat usullaridan O'zbekistonda foydalanishga kelishildi. Bugungi kunda O'zbekistonda Gollandiya kartoshka urug'lari ekilib hosil yetishtirilmoqda.

1994-yil 16-iyun – O'zbekiston Prezidenti O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi - so'mni muomalaga 1-iyuldan kiritish haqida Farmoni e'lon qilindi.

1994-yil iyul – O'zbekiston NATOning kollektiv xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan "*Tinchlik yo'lida hamkorlik*" loyihasi imzoladi.

1994-yil iyul – Panminchjonda Janubiy va Shimoliy Koreya vakillari uchrashdi. Bu mazkur tarzdagi dastlabki uchrashuv bo'lsa ham, taraflar Koreyaning ikkala



qismini yaqinlashtirish ustida ishlashni davom ettirish va oxir-oqibatda uni birlashtirish bo'yicha umumiy istaklar bilan cheklanishdi.

1994-yil 1-iyul – O'zbekiston Prezidentining Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi - so'm muomalaga kiritildi.

1994-yil 1-iyul – O'zbekiston Respublikasining pul birligi – so'm muomalaga kiritildi. Shu kundan boshlab mamlakat hududidagi yagona qonuniy to'lov vositasi sifatida u barcha turdagi to'lovlar uchun, bankdagi hisob varaqalariga kiritish uchun qabul qilinishi shart bo'lib qoldi. Shundan keyin milliy valyuta qadrini oshirish uchun katta ishlar qilindi.

1994-yil 8-iyul – *Islom Karimov* boshchiligidagi davlat delegatsiyasi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikalari davlat va hukumat boshliqlari uchrashuvida ishtirok etish uchun Almatiga bordi. Qozog'iston Prezidenti qarorgohida uch mamlakat rahbarlarining yakkama-yakka suhbatlari bo'lib o'tdi. So'ng delegatsiyalarning kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari boshlandi. Muzokaralar nihoyasida Prezidentlar *Islom Karimov*, *Nursulton Nazarboyev* va *Asqar Akayev* birgalikda bayonat hamda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston xalqlariga Murojaatnoma qabul qildilar. Aholi migratsiyasi sohasida hamkorlik to'g'risida memorandum hamda uchchala mamlakat o'rtasida Markaziy Osiyo Hamkorlik va taraqqiyot bankini ta'sis etish to'g'risida bitim imzolandi. Hukumat rahbarlari esa davlatlar o'rtasida harbiy-texnik hamkorlik to'g'risidagi, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot sohasidagi hukumatlararo bitim va shartnomalarni, axborot bilan ta'minlash sohasidagi bitimlarni imzoladilar.

1994-yil 8-iyul - O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Prezidentlarining Almati shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi ham bu uch qardosh mamlakatlar xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda yana bir yangi qadam bo'ldi. Unda o'zaro integratsiyani kuchaytirish bo'yicha, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki to'g'risida bitimlar imzolandi. Tomonlar davlatlararo Kengash hamda uning doimiy Ijroiya organini, Bosh Vazirlar Kengashi, Tashqi ishlar vazirlari Kengashi, Mudofaa vazirlari Kengashini tasis etdilar. Bunday yagona muvofiqlashtiruvchi boshqaruv organlarining paydo bo'lishi O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida integratsiya uchun huquqiy zaminini mutahkamladi. Yaxlit iqtisodiy makonning barpo etilishi bu hududda yashayotgan xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yanada mustahkamlashga, ularning mustaqil taraqqiyotiga ko'maklashadi.

1994-yil 25-iyul – Vashingtonda Iordaniya va Isroil urushining tugaganligi to'g'risida Deklaratsiya imzolandi.

1994-yil 20-avgust – Baynalmilal madaniy Markazi tomonidan milliy-madaniy Markazlarning yillik yakunlovchi chiqishlari Xalqlar Do'stligi saroyida konsert namoyish qilindi.

1994-yil 24-avgust – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "*Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida*"gi Farmoni qabul qilindi.

1994-yil 25-avgust - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "*Paxta tolasi resurslaridan kompleks foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida*" qaror qabul qilishi.



1994-yil 31-avgust - G'arbiy Germaniyadan Rossiya qo'shinlari kontingentining chiqarilishi.

1994-yil 31-avgust – Rossiyaning G'arbiy Yevropa bilan munosabatlari yaxshilandi. Rossiya Germaniyadan o'z qo'shinlarini olib chiqishni tugatdi. Bu Yevropadagi vaziyatni o'zgartirdi. Germaniya o'z an'anaviy poytaxti – Berlinni qaytarib olib, eng yirik davlatlardan biriga aylandi. Garchi Germaniyada amerika, fransuz, ingliz qo'shinlari hall hanzuz qolayotgan bo'lsada, u shunga qaramay o'z suverenitetini tikladi va endilikda jahon siyosatida Fransiya va Angliya bilan teng holda ishtirok etishi mumkin.

1994-yil 1-sentabr – Baynalmilal madaniy Markazi tomonidan O'zbekiston Mustaqillik maydonida o'tkazilgan tantanali konsertlar namoyish qilindi.

1994-yil 22-sentabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XVI sessiyasida “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida” qonun qabul qildi.

1994-yil 28-30-sentabr - Toshkentda YXHTning xalqaro anjumani o'tkazildi. Unda tashkilot faoliyatining barcha qirralariga oid masalalar ko'rib chiqildi. YXHT Toshkentda va Urganchda atrof-muhitni qayta tiklash bo'yicha seminar o'tkazildi. Mazkur xalqaro tashkilot Orol muammosini hal qilishga ko'maklashmoqda.

1994-yil oktabr boshi - BMT vakolatxonasining yordami va ishtirokida Toshkentda bo'lgan jahon sayyohlik tashkilotining “Ipak yo'li” xalqaro yig'ilishi jahon sayyohlik va tijorat ishlarida O'zbekistonning mavqeini yanada ko'tardi.

1994-yil oktabr – FOT va Isroil rahbarlarining Yaqin Sharq muammosini hal etishdagi xizmati tan olinib, *Yosir Arafat, Shimon Peres* va *Is'hoq Rabinga* tinchlik o'rnatishdagi xizmatlari uchun Nobel mukofoti berildi.

1994-yil oktabr – Iordaniya va Isroil o'rtasida tinchlik shartnomasi imzolandi va ushbu davlatlar o'rtasidagi 46 yil davom etgan urushga chek qo'yildi. Falastin rahbarlari bilan tinchlik shartnomasining imzolanishi Isroil ichki siyosatida kurashni kuchaytirib yubordi.

1994-yil oktabr – O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tubdan o'zgartirildi. Ilgari faqat respublika byudjeti yo'li bilangina 30 ta turli soha va yo'nalishlar bo'yicha ijtimoiy himoya amalga oshirilardi, bu esa mablag'ning sochilib ketishiga olib kelib to'la samara bermayotgan edi. Yangi tizimning mohiyati shundan iboratki, bolalar va kam daromadli oilalar ijtimoiy yordamdan bahramand bo'luvchi asosiy kishilar bo'lib qoldi. Ijtimoiy yordam aniq maqsadli va aholining ma'lum tabaqalarini qamrab oladigan bo'ldi. Endi moddiy yordam mahalla tomonidan oila orqali yetkazib beriladigan bo'ldi. Oila asosiy mavqeiga ega bo'ldi. Bunday yondoshuv umuminsoniy qadriyatlarga, milliy an'analarga va ruhiyatga mos keldi.

1994-yil oktabr – Vatan taraqqiyoti partiyasining II Qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda *Anvar Yo'ldoshev* rais qilib saylandi.

1994-yil oktabr-noyabr – O'zbekistonda narxlarni erkinlashtirish jarayonida jiddiy bosqich bo'ldi. Xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxlari erkin qo'yib yuborildi, transport va communal xizmatlarning tariflari oshirildi. Non va uning narxlari, uy-joy communal xo'jaligi, shahar umumiy transporti xizmatlarining tariflarigagina qisman dotatsiya beriladigan bo'ldi.



1994-yil noyabr – Afg'onistonda hokimiyatsizlik boshlandi. *Do'stum* (o zbeklar), *Ahmad Shoh Ma'sud* (tojiklar) va *Hikmatyor* (pushtunlar) etnik lagerlari o'rtasidagi kurash o'zaro (ichki) urushlarga aylanib ketdiki, unda 5 ming kishi halok bo'ldi, Kobul esa to'liq vayron etildi. Tojiklarning vakili bo'lgan *Rabboniy* prezidentlik lavozimini bo'shatib berish yoki Ta'sis majlisini chaqirishdan voz kechdi. *Hikmatyor* norozilik belgisi sifatida hukumat tarkibidan chiqdi va mamlakat bosh vazirsiz qoldi. Asosiy mojaro *Rabboniy* va Pokiston yordamidan foydalangan *Hikmatyor* o'rtasida ro'y berdi. Afg'onistortning siyosiy maydonida yangi kuch – o'zi haqida ma'lum qilgan toliblar paydo bo'ldi. Ularning dasturi bir-biriga dushman guruhlarini qurolsizlantirish va tugatish hamda izchil islom hukmronligini o'rnatishni ko'zda tutdi. Ular Pokistondagi harbiy tayyorgarlikni o'tadi va eng zamonaviy qurol-yarog'ga ega bo'ldi. Toliblar rahbari *Mulla Umar* izchil *ismoiliylik* va *vabhobiylik* vakili bo'ldi. Uning maslahatchilari orasida Saudiya Arabistonining yetakchi ruhoniylari bor bo'lib, harbiy maslahatchisi esa xalqaro terrorchi *Usoma bin Loden* edi.

1994-yil noyabr – Mozambikda demokratik ko'ppartiyaviylik saylovlari o'tkazildi. Bu saylov prezident *Joakimo Chissanoga* g'alaba keltirdi.

1994-yil 1-noyabr – *A.M.Jalolov* O'zbekiston XDP Markaziy Kengashining 1-kotib etib saylandi.

1994-yil 10-noyabr – Kiyev shahrida O'zbekiston Respublikasi bilan Ukraina o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari to'g'risida Deklaratsiya qabul qilindi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi bilan Ukraina o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik sanoat (samolyotsozlik, yengil sanoat), energetika, transport, aloqa, qishloq xo'jaligi, mineral xom ashyo qazib olish va uni qayta ishlash, fan va texnikaning ustuvor yo'nalishlarini, turizm va ekologiya sohasini o'z ichiga oladi. O'sha kuni O'zbekiston Respublikasi bilan Ukraina o'rtasida madaniyat sohasidagi hamkorlik to'g'risida ham bitim imzolandi. Unga ko'ra har 2 tomon bir-birining madaniyati bilan tanishish uchun imkon yaratib beradi, O'zbekiston va Ukraina xalqlarining ko'p asrlik va madaniy aloqalariga tayanib, ular o'rtasidagi madaniyat va san'at sohasidagi hamkorlikni bundan keyin ham rivojlantirishga ko'maklashadilar, deb ta'kidlandi. Ayni chog'da, O'zbekiston Respublikasi va Ukraina o'rtasida daromadlar va mulklarga 2 tomonlama soliq solishga yo'l qo'ymaslik to'g'risida ham bitim imzolandi.

1994-yil 14-15-noyabr – Toshkentda Oliy Majlisga saylov o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalari raislarining 3 kunlik seminari bo'lib o'tdi. Seminarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi raisi vazifasini bajaruvchi *E.Xalilov* respublikada saylov tizimini isloh qilish – demokratik huquqiy davlatni barpo etish yo'lidagi muhim qadam mavzusida ma'ruza qilar ekan, "*Parlament saylanishi bilan O'zbekiston tarixida yangi davr boshlanadi. Xalqimiz Oliy Majlisdan iqtisodiyotni tezroq barqarorlashtirishga, tadbirkorlik erkinligiga, inson huquqlari himoyasiga, jahon maydonida mustaqil O'zbekiston mavqei yuksalishiga xizmat qiladigan qonunlar qabul qilinishini kutad*", - deb ta'kidladi.

1994-yil 24-noyabr - O'zbekiston Prezidenti "Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida" Farmoni bilan tuman va shahar hokimiyatlariga uy-joy qurish va shaxsiy xo'jalik yuritish uchun sotish vakolatini berdi.



1994-yil 2-dekabr - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Xo'jaliklarga ularning ixtiyorida qoldiriladigan paxta tolasini eksport qilishda ko'maklashish to'g'risida"gi qarorning qabul qilinishi.

1994-yil 22-dekabr – Belarus Prezidenti *Aleksandr Lukashenko* O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi. Shu kuni Xalqlar Do'stligi saroyida ikki davlat rahbarlarining yakkama-yakka suhbatı bo'ldi. Bir vaqtning o'zida ikki mamlakat hukumatlari rahbarlari ham muzokaralar olib bordilar. So'ngra mazkur muzokaralar *I.Karimov* va *A.Lukashenko* ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirildi. Muzokaralar yakunida davlatlararo hamda har ikki mamlakat muammolari munosabatlariga doir 18 ta hujjat imzolandi. O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash to'g'risidagi Deklaratsiya imzolandi.

1994-yil 25-dekabr – O'zbekiston Oliy Kengashi Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylovlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari katta tayyorgarlik ko'rdilar.

1994-yil 25-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, viloyat, shahar va tuman kengashlariga saylovlar o'tkazildi.

1994-yil 25-dekabr – Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan Oliy Kengashning 75 deputatdan iborat yangi tarkibi muqobillik asosida saylandi. Respublika parlamenti Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi deb ataldi.

1994-yil 25-dekabr - viloyatlar, tumanlar va shaharlarda vakillik organlari bo'lmish Xalq deputatlari Kengashlariga mehnatkashlar ommasining munosib vakillari saylandilar.

1994-yil 29-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

1994-yil oxiri – O'zbekiston dehqon (fermer) xo'jaliklari soni 25 mingdan ziyodni tashkil etdi, ularning 10 mingtadan ortiqrog'i chorvachilikka ixtisoslashgan. Fermer xo'jaliklari don, kartoshka, sabzavot-poliz mahsulotlari, go'sht, sut, tuxum yetishtirishga tobora salmoqli o'rinni egallamoqda.

1994-yil oxiri – O'zbekistonda 12,4 ming o'zini o'zi boshqarish organlari – mahalla ko'mitalari shakllantirildi. Ular o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, o'zlari haqidagi Nizomga, mahalliy hokimiyatning mahalla fuqarolarining yig'ilishi haqidagi qarorlariga amal qilib ish yuritdilar.

1994-yil oxirigacha – sovet qo'shinlarini Germaniyadan olib chiqib ketish masalasi hal etildi.

1994-yil sentabr - "Ma'naviyat va ma'rifa" jamoatchilik markazi qoshidagi "Oltin Meros" Xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi.

1994-yil yanvar – BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi BMTning Taraqqiyot dasturi, Qochoqlar ishi bo'yicha vakolatli oliy komissari, Bolalar jamg'armasi, Sanoat taraqqiyoti dasturi, Narkotiklarni nazorat qilish bo'yicha dastur, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Aholi joylashishi jamg'armasi singari ixtisoslashgan muassasalarni o'z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari muttasil oshib bordi.



- 1995-1996-yillar** – O'zbekistonda pulning qadrsizlanishi sur'atlari ancha qisqardi.
- 1995-1996-yillar** – Rossiya Federatsiyasi Soliq politsiyasi departamenti, Yaponiya moliya vazirligi delegatsiyasi, BMTning O'zbekiston Respublikasi vakolatxonasi, Jahon banki va boshqalar O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi ish faoliyati bilan tanishdilar va unga yuqori baho berdilar.
- 1995-1999-yillar** – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 15 ta sessiya o'tkazdi. 145 ga yaqin qonun, 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur qabul qildi.
- 1995-2000-yillar** – Eron uchun so'nggi yillardagi eng asosiy masala besh yillik rejanı amalga oshirish bo'yicha loyihalarnı rivojlantirishga kreditlar olish bo'ldi. G'arb investorlari yordamida yirik neft majmualari, metallurgiya kombinatlari qurila boshladi, avtomobil sanoati modernizatsiya qilinmoqda. Eron o'z atom elektrostansiyasini qurishga intilmoqda. Biroq xalqaro noqulay ahvol bu rejalarnı amalga oshirishga asosiy to'siq bo'ldi. AQSh ma'muriyati Eronni terrorizm markazlaridan biri deb e'lon qildi va unga nisbatan qattiqqo'llik yo'lini tanladi. AQSh Eron bilan savdo-sotiqqa embargo kiritdi, boshqa G'arb mamlakatlari esa AQSh bosimi ostida Eronga ilg'or texnologiyalarnı keltirishni man etuvchi sanksiyalar kiritishdi.
- 1995-2002-yillar** – *Jak Shirak* Fransiya prezidenti.
- 1995-2002-yillar** – Shirak Jak Fransiyaning prezidenti.
- 1995-2003-yillar** - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 200 dan ortiq qonun va 300 dan ortiq qaror qabul qildi.
- 1995-yil** – “*O'zbekiston Respublikasining harbiy doktrinası*” qabul qilindi.
- 1995-yil** – 0,2 mln tonna mahsulotlarini chetdan sotib olgan.
- 1995-yil** – 1991-yildagiga qaraganda O'zbekistonda vrachlar sonining o'zi 106 % ko'paydi.
- 1995-yil** – Albaniya yo'llarini ta'mirlash, suv va energetika tizimini rivojlantirish uchun 350 million dollar yordam va xorijiy investitsiyalar ko'rinishida mablag' oldi.
- 1995-yil** - AQSh “Tinchlik yo'lida hamkorlik” dasturida harbiy mashqlarda O'zbekiston harbiy qismlarining ishtiroki zobit va askarlarning harbiy-texnik tayyorgarligini yanada ko'tarishga xizmat qildi.
- 1995-yil** – AQSh prezidenti *B.Klinton* Vetnam bilan diplomatik munosabatlar o'rnatish niyatini bildirdi.
- 1995-yil** – BMT Bosh Assambleyasining 50-sessiyasida O'zbekiston rahbari Afg'oniston muammosini bartaraf etish borasida qator amaliy takliflarnı ilgari surdi. Bu davlatga qurol-yarog' kiritishni qat'iy ta'qiqlash zarurligini alohida qayd etdi.
- 1995-yil** – davomida hammasi bo'lib O'zbekistonda 90 marta savdo o'tkazilgan. Bunda valyuta birjasining umumiy oboroti 1 mlrd. 545 ming AQSh dollarini tashkil etdi yoki 1994-yildagiga qaraganda 14 barobar ko'p bo'ldi.
- 1995-yil** – Ellikqal'a tumanida “Elteks” nomli to'qimachilik majmuasi foydalanishga topshirildi.
- 1995-yil** – *Husni Muborakka* suiqasd amalga oshirildi.
- 1995-yil** – *Islom Karimovning “O'zbekiston iqtisodiy islohotlarnı chuqurlashtirish yo'lida”* nomli asari nashrdan chiqdi.



1995-yil – Italiyada bo'lib o'tgan saylovlar natijasida *Romano Prodi* rahbarligidagi yangi hukumat yuzaga keldi, u dadil tajriba sifatida boshqaruvga eski kommunistlarni jalb etdi.

1995-yil – Italiyadagi ulkan byudjet yetishmovchiligi 7,7 mlrd dollarni tashkil etdi.

1995-yil – juda katta mehnat va mashaqqatli izlanishlar natijasida urushda halok bo'lgan va bedarak yo'qolgan 450 mingga yaqin o'zbekistonlik jangchilarning aziz nomlari zikr etilgan 32 jildlik "*Xotira*" kitobi nashr etildi. G'alabaniing 50 yilligi arafasida xalqimizga, sobiq jangchilarning xonadonlariga bepul yetkazib berildi.

1995-yil – Mo'ynoqda Germaniya Federativ Respublikasi yordamida bioekologiya institutining xalqaro ekologiya stansiyasi ochildi.

1995-yil – O'zbekiston davlat yetilining 29,3 % i ijtimoiy-madaniy tadbirlarga, 21,8 % i esa ijtimoiy himoyaga ajratildi.

1995-yil – O'zbekiston Prezidenti Yaponiya bilan hamkorlik qilishga alohida e'tibor berdi. Shu yildan buyon Yaponiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyasi bir mlrd. AQSh dollaridan oshib ketdi.

1995-yil – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis rahbarlari, qo'mitalar raislari va Kotibiyat xodimlari tomonidan 2,5 mingdan ortiq fuqaro qabul qilindi. Oliy Majlis nomiga kelgan qariyb 2 ming xat, ariza va murojaat ko'rib chiqildi. Ular Oliy Majlis rahbarligida, qo'mitalar va Kotibiyatda har tomonlama tahlil etildi, taklif va mulohazalar normativ hujjatlarni ishlab chiqishda hisobga olindi. Fuqarolar tomonidan qo'yilgan asosli masalalarning aksariyat qismi ijobiy hal qilindi.

1995-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "*Yer solig'i to'g'risida*", "*Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida*"gi qonunlarning qabul qilinishi.

1995-yil - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "*Sog'lom avlod uchun*" jurnalini tashkil etish qarori qabul qilinishi.

1995-yil – O'zbekiston xalq xo'jaligida ommaviy xususiyashtirishlar davri bo'ldi. Yirik korxonalar ham davlat ixtiyoridan chiqarila boshlandi. O'zbekistondagi mashinasozlik kompleksiga qarashli 89 ta korxona, 81 ta yoqilg'i energetika, 55 ta qurilish industriyasiga qarashli, 114 ta transport, 68 ta uy-joy-kommunal xo'jaligi, 229 ta qayta ishlash korxonasi va 291 ta qurilish bilan bog'liq obyektlar xususiyashtirildi. Iqtisodiyotning davlat sektori negizida mingdan ortiq ochiq turdagi xissadorlik jamiyatlari, 6000 ta xususiy va oilaviy korxonalar vujudga keldi.

1995-yil – O'zbekistonda 0,2 mln tonna neft chetdan sotib olingan.

1995-yil – O'zbekistonda 109 dan ziyod ayollar konsultatsiyalari yoki akusherlik-ginekologiya kabinetlari, 1800 dan ortiq bolalar poliklinikalari (maslahatxonalari ish olib bordi, kasalxonalarda bolalar uchun ajratilgan o'rinlar soni 50,7 mingtaga yetdi. Turmushga aloqador masalalar yuzasidan maslahat beradigan "*Nikoh va oila*" maslahatxonalari va tibbiy-genetik maslahatxonalar ochildi.

1995-yil – O'zbekistonda 3,5 mln tonna don yetishtirildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishni o'stirishni rag'batlantirishga, qishloqdagi mulkchilikning barcha shakllarini huquqiy va moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga, qishloqda yangi ish o'rinlari va bozor infrastrukturasini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar ko'rildi.



1995-yil - O'zbekistonda 55 ming o'rinli 134 ta maktab qurilib foydalanishga topshirildi.

1995-yil – O'zbekistonda 5608 oliy ma'lumotli mutaxassis, davolash ishlari bo'yicha – 2517, pediatriya bo'yicha – 2083, gigiyena, sanitariya va epidemiologiya bo'yicha – 328, farmatsiya bo'yicha – 359 mutaxassis tayyorlandi. "Davolash ishlari" ixtisosligi bo'yicha vrach kadrlar tayyorlash ishi 3 bosqichdan iborat qilib belgilandi: 1) tabobat bo'yicha 5 yil davomida umumiy tayyorgarlik ko'rib, bakalavr, yangi vrach yordamchisi unvonini oladi; 2) to'la-to'kis tibbiy ma'lumotga ega bo'lib tibbiyot doktori darajasiga erishadi; 3) tibbiyot doktori tanlagan ixtisosiga qarab 2 yildan 4 yilgacha muddat ichida magistraturada tahsil ko'radi.

1995-yil – O'zbekistonda 80 dan ortiq milliy-madaniy markazlar faoliyat ko'rsatdi. Bunday rivojlanish o'z navbatida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni taqazo qilardi.

1995-yil – O'zbekistonda barcha ixtisosliklar bo'yicha 75117 vrach, 246124 o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlari, 2571 farmatsebt ishladi.

1995-yil – O'zbekistonda eng kam ish haqi 1994-yildagiga nisbatan 2,5 marta oshdi.

1995-yil – O'zbekistonda faoliyat yuritgan banklarning 19 tasi aksiyadorlik-tijorat shaklida, 5 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyat, 1 tasi koooperativ, 2 tasi xorijiy sarmoya ishtirokidagi, 2 tasi davlat banki sifatida aholining tadbirkorlik ishlariga xizmat qildi.

1995-yil – O'zbekistonda ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'ning 3 % i onalarga 2 yoshgacha farzandlarini parvarish qilish uchun ajratildi. Ijtimoiy himoyalashning yangi tizimida farzand tug'ilganda bir yo'la beriladigan to'lovlar saqlab qolinishi bilan birga nafaqalar va imtiyozlarning quyidagi turi ham amalga oshiriladigan bo'ldi. Bola boquvchi onalarga to'lanayotgan nafaqaning miqdori ko'paytirilibgina qolmay, uning muddati ham uzaytirildi. Ilgari bunday yordam 1 yarim yilgacha to'langan bo'lsa, endi bu muddat 2 yilgacha uzaytirildi. Ishlovchi onalar ham, ishlamaydigan onalar ham, bu nafaqadan foydalanadigan bo'ldilar. Boshqa davlatlardan farqli o'laroq, O'zbekistonda bu nafaqa ish haqining eng kam oz miqdoriga bog'liq qilib qo'yildi.

1995-yil – O'zbekistonda islohotlarning 2-bosqichiga o'tilgach, oziq-ovqat mahsulotlarini me'yorlangan tarzda sotishdan voz kechildi va erkin narxlarga o'tildi.

1995-yil - O'zbekistonda *Mahmud az-Zamahshariy*ning 920 yilligi keng nishonlandi.

1995-yil – O'zbekistonda mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi kuzatildi.

1995-yil – O'zbekistonda muddati uzaytirilishi lozim bo'lgan yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomani yadro qurolini yo'q qilib tashlash to'g'risidagi shartnomaga aylantirish tarafdori bo'lib chiqdi. U kimyoviy qurollar bo'yicha qabul qilingan shartnoma kabi biologik qurollarni ham taqiqlash to'g'risidagi shartnoma qabul qilinishi tarafdoridir.

1995-yil – O'zbekistonda muomalaga naqd pul chiqarish – emissiya ulushi 20,7 % ni tashkil etdi.



1995-yil - O'zbekistonda *Najmiddin Kubro* tavalludining 850 yilligi nishonlandi.
1995-yil – O'zbekistonda qishloq xo'jaligida davlatga qarashli bo'lmagan sektor butun mahsulotning deyarli 97 % ini ishlab chiqardi.

1995-yil – O'zbekistonlik 500 mingdan ortiq ehtiyojmand oilalarga mahalla qo'mitalari orqali jami 6 mlrd so'm moddiy yordam berildi.

1995-yil – Polshaning yangi rahbariyati mamlakatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha samarali kompaniyani boshladi. Ishlab chiqarishning o'sishi 6 % ni tashkil etdi, Polshaga xorijiy investitsiyalar oqimi kuchaydi.

1995-yil – Qo'ng'iro't tumanida Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan, yiliga 190 ming tonna kalsiyli soda ishlab chiqaradigan zavod qurilishi boshlandi. Zavod tarkibida kimyoviy yo'l bilan ekologik toza va energiya sarflamaydigan kaustik soda ishlab chiqarish ham ko'zda tutilgan edi.

1995-yil - Qo'ng'irotdagi 37,4 mlrd. metr kub gaz va 739 ming tonna gaz kondensati zaxirasiga ega bo'lgan "Urga" koni foydalanishga topshirildi.

1995-yil – Qoraqalpog'istonda ishlab chiqarish korxonalarini qurilishiga ajratilgan mablag' 61,2 % ni tashkil etdi.

1995-yil – Qoraqalpog'istonda o'quvchilar soni 1743 nafarga ko'paydi.

1995-yil – Qoraqalpog'istonning Xo'jayli shahrida shisha idishlar zavodi qurilib foydalanishga topshirildi. Natijada respublikaga chetdan shisha idishlarni tashib keltirish sezilarli darajada kamaydi.

1995-yil – respublika parlamenti O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan imzolangan 18 ta shartnoma va bitimini ratifikatsiya qildi. O'zbekistonning 25 ta xalqaro konvensiyaga qo'shilishi haqidagi qarorlar qabul qilindi. "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. U mamlakatimizning xalqaro shartnomalarini tuzish, bajarish, bekor qilish, to'xtatib qo'yish hamda denonsatsiya qilish tartibini belgilab berdi.

1995-yil – Samarqandda ochilgan avtomobil zavodi qisqa muddat ichida qad rostlagan mazkur mazkur avtomobil zavodi qurilishiga "O'zavtosanoat" uyushmasining turkiyadagi mashhur "Koch xolding" kompaniyasi bilan imzolagan shartnomaga muvofiq kirishilgan edi.

1995-yil – Saudiya Arabistoni qariyb 50 milliard dollartik neftni chetga chiqardi va 30 milliard dollarlik tovarlarni, asosan mashinalar, oziq-ovqat, to'qimachilik, uy-ro'zg'or mollari, kimyo mahsulotlari, kiyim-kechaklarni keltirdi. Mamlakat iqtisodiyoti neftdan oladigan barcha foydalarni o'zlashtira olmaydi. Shu bois, ularning bir qismi xorijiy bank va korxonalariga kiritilmoqda. Bu, Saudiya Arabistoni jahon iqtisodiyoti rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, deganidir. Bunday manfaatlarning o'zaro bog'liqligi Saudiya Arabistoni tashqi siyosatini belgilab berdi. Saudiya Arabistoni tashqi siyosati asosan AQSh bilan hamkorlikka asoslandi. Neft Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti va sodiyotining asosi hisoblanadi. U 92 foiz davlat daromadlarini, 98 foiz eksport qiymatini va 90 foiz mamlakat yalpi milliy mahsulotini beradi.

1995-yil – Slovakiya qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish pasayishi to'xtatildi.

1995-yil – Slovakiya respublikasidagi vaziyat bir qadar boshqacha bo'ldi. U Yevropadagi eng mayda davlatlardan biri bo'lib, uning maydoni 49 ming kv. km.,



aholisi 5,5 million kishidan iborat. Butun mamlakatni sharqdan g'arbga qadar bir necha soatda kesib o'tish mumkin. Mamlakatda rivojlangan sanoat, xom ashyo va energetikaning yirik manbalari yo'q. Asosiy boylik – Dunay va tabiat, ular yuz minglab turistlarni o'ziga jalb etadi. Bozor xo'jaligiga o'tish bu yerda tezkor bo'ldi va xususiy sektor mahsulotlari umumiy sanoat mahsulotlarining 61 foizini tashkil etdi.

1995-yil – Slovakiyada sanoat ishlab chiqarilishi darajasi 87 % gacha ko'tarildi. Bunday holat iqtisodiyotning barcha sohalarida kuzatildi.

1995-yil – Turkiya tashqi savdosining 50 foizi G'arbiy Yevropa va 7 foizi AQSh bilan olib boriladi. Turkiya xorijga 13 milliard dollarlik tovar chiqarib, 21 milliard dollarlik tovar olib keladi. Bunday savdo-sotiq faqat ziyon keltiradi. Mamlakat tashqi qarzining o'sib ketishi buning natijasidir. Turkiyaning tashqi qarzi 50 milliard dollarni tashkil etdi.

1995-yil – Turkiyada yangi saylovlar bo'lib o'tdi. Unda Vatan partiyasi va To'g'ri yo'l partiyasi kam ovoz oldi (har biri 19 % dan), ayni paytda Farovonlik partiyasi uchun berilgan ovozlar soni ortib bordi. *N.Erbaqon* To'g'ri yo'l partiyasi bilan koalitsiyada hukumatni tuzish vakolatiga ega bo'ldi.

1995-yil - Yaponiyaning Osiyo mamlakatlari, ayniqsa Tinch va Hind okeani mintaqasi mamlakatlaridan oladigan importning 3/2 qismi tayyor sanoat mahsulotlarini tashkil qilar edi.

1995-yil - YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tarixini tadqiq qilish xalqaro instituti tashkil etildi.

1995-yil yanvar – Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev Toshkentga keldi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikka doir qator hujjatlarga imzo chekildi. Tez orada bu bitimga Qirg'iziston ham qo'shildi. Natijada uch mamlakat o'rtasida yagona bozorni vujudga keltirish mahsulot ayirboshlash imkoniyati yaratildi.

1995-yil yanvar – Slovakiyada ishsizlik eng yuqori nuqta – 15,2 % gacha yetdi. Inflyatsiyaning o'sishi va real oylik ish haqining pasayishini mamlakatdagi iqtisodiy qiyinchiliklar belgilab berdi.

1995-yil yanvar – tolibonlar, *Mulla Umar* va *Usoma bin Loden* Kobulga hujum boshladilar. Mamlakat vayron etildi, hamma joyda ocharchilik boshlandi, shu bois poytaxtni egallash qiyinchilik tug'dirmadi. Toliblarga qarshi muxolifat kuchlari parchalanib ketdi. Prezident *Rabboniy* Badaxshonga qochdi, bu yerda *Ahmad Shoh Ma'sud*ning asosiy kuchlari joylashgan edi. General *Do'stum* o'z qismlari bilan shimolga yo'l oldi va Hirot, Balx, Mozori Sharifni o'z tayanch punktlariga aylantirdi. *Hikmatyor* o'z tarafdorlari bilan Jalolobodni egalladi, bu bilan mag'lubiyatga uchrab qolsa, Pokistonga qochishni mo'ljalladi.

1995-yil 8-25-yanvar – nomzodlardan birtantasi ham yetarli ovoz ololmagan saylov okruglarida qayta saylov bo'lib o'tdi.

1995-yil 11-yanvar – Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesining Nukus shahrida I chaqiriq 1-sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda Juqorg'i Kenges Raisi, uning o'rinbosarlari, mandate komissiyasi, 8 ta qo'mita raislari va uning a'zolari saylandi.



1995-yil fevral – O‘zbekiston Prezidenti *I.Karimov*ning Koreya Respublikasiga tashrifi amalga oshdi. Prezidentimiz ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishdagi xizmatlari uchun Koreyaning oliy ordeni – katta Mugunxva ordeni bilan mukofotlandi. Ular orasida ikkala mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash haqida bayonot va qishloq xo‘jaligi, telekommunikatsiyalar, radioeshittirishlar, ta‘lim va sayyohlik sohasida hukumatlar o‘rtasida o‘zaro tushunish haqida memorandum muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Janubiy Koreya kompaniyalari O‘zbekistonga 80 million dollar investitsiya kiritdi. O‘zbekistonda Samsung, Lak-Goldstar va DEU kabi kompaniyalar faol ish yuritmoqda.

1995-yil fevral – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1-sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda sud hokimiyati 3-mustaqil hokimiyat tarmog‘i ekanligi, odil sudlov tizimini shakllantirish va demokratiyalashtirish lozimligi ko‘rsatildi.

1995-yil 10-fevral - Almatida MDH mamlakatlari davlat va hukumat boshliqlarining uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda MDH a‘zolari bo‘lgan mamlakatlar chegaralarini qo‘riqlashda hamkorlik qilish konsepsiyasi muhokama qilindi. Ammo masalaning xarakteri va mazmuni haqida bir-birlariga mos bo‘lmagan turli fikrlar bildirildi.

1995-yil 18-fevral – O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi (SDP) Toshkentda bo‘lib o‘tgan I ta‘sis Qurultoyida tuzildi, uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. O‘zbekiston Adliya vazirligi “Adolat” SDPni ro‘yxatga oldi.

1995-yil 23-fevral – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1-sessiyasida Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili saylandi.

1995-yil 23-24-fevral – yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi I chaqiriq Oliy Majlisining 1-sessiyasi bo‘lib o‘tdi. U O‘zbekiston tarixida yangi sahifa ochdi. Sessiyada *I.A.Karimov* “O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari” to‘g‘risida keng qamrovli ma‘ruza qildi.

1995-yil 24-fevral – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1-sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda BTPning 14 kishidan iborat Oliy Majlis deputatlari fraksiyasi ro‘yxatga olindi.

1995-yil 24-fevral – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan XDPning 69 kishidan iborat Oliy Majlis deputatlari fraksiyasi ro‘yxatga olindi.

1995-yil 24-fevral – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining 47 kishidan iborat Oliy Majlis deputatlari fraksiyasi ro‘yxatga olindi.

1995-yil 3-mart – Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Turkmaniston Respublikasining Toshhovuz shahriga tashrif buyurdilar. Unda Orol dengizi muammosiga bag‘ishlangan uchrashuvlar o‘tkazdilar va bu borada amaliy ishlar olib bora boshladilar.

1995-yil 10-11-mart – O‘zbekiston Baynalmilal madaniyat Markazi tomonidan Toshkent shahar hokimiyati hamda Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat jamoatchilik markazi bilan hamkorlikda “*Mustaqil O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar madaniyati*” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini o‘tkazdi. Ushbu konferensiya tavsiyalari keyingi yillarda millatlararo totuvlikni rivojlantirishga doir ishlarni yanada takomillashtirishga, uni yangidan-yangi tajribalar va ilmiy-nazariy xulosalar bilan boyitishga yordam berdi.



1995-yil 16-mart - Missisipi shtatida AQSh Konstitutsiyasiga qullikni man etish to'g'risidagi tuzatish ratifikatsiya qilindi va unga 13-tuzatish kiritildi.

1995-yil 24-mart - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "*Chorvachilikda bundan keyingi xususiyashtirish va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida*"gi qarori qabul qilinishi.

1995-yil 26-mart – O'zbekistonda umumxalq ovozi (referendum) bilan *Islom Karimovning* vakolat muddati 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirildi.

1995-yil 30-31-mart - O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Moldova respublikasida rasmiy safarda bo'lib, Moldova Prezidenti *Mircha Snegur* o'rtasidagi muzokaralar nihoyasida O'zbekiston Respublikasi va Moldova Respublikasi o'rtasida do'stona hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Hukumatlar o'rtasida erkin savdo munosabatlarini rivojlantirish, fan-texnika, madaniyat va san'at, pochta xizmati, aloqa, bank sohalarida hamkorlik, samolyotlar qatnovini yo'lga qo'yish, ikki tomonlama soliq olmaslik to'g'risidagi o'ndan ziyod bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar izdan chiqqan aloqalarning tiklanishi uchun huquqiy zamin yaratdi. O'zbekiston uchun shaker, dorl darmonlar, qishloq xo'jalik texnikasi, elektro-texnika asbob-uskunalar, sug'orishda foydalaniladigan nasoslarni Moldovadan, o'z navbatida Moldova sanoati uchun paxta, kimyoviy tola, qattiq metallarni O'zbekistondan oladigan bo'ldi.

1995-yil aprel – Germaniya Federal Prezidenti *Roman Gersogning* O'zbekistonda bo'lishi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamladi. Roman Gersog O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 50 mingdan ortiqroq nemis millatiga mansub O'zbekiston fuqarolarining hayoti bilan tanishib, ular uchun teng imkoniyatlar yaratilganidan mamnun bo'ldi.

1995-yil aprel – O'zbekistonga AQSh mudofaa vaziri *Uilyam Perri* tashrif buyuradi. Shundan so'ng O'zbekiston Mudofaa vazirining AQShdagi uchrashuvlarini va mamlakatimiz Qurolli Kuchlari alohida vzvodning Amerika tomoni hamkorligida Luiziana shtatida joylashgan Fort-Polk harbiy istehkomida NATOning "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi doirasida harbiy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazadi.

1995-yil 14-aprel - Chimkentda O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston Prezidentlarining uchrashuvi bo'ldi.

1995-yil 14-aprel – Chimkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston Prezidentlarining uchrashuvida Tojikiston va Afg'oniston chegarasidagi vaziyat haqida kelishildi. Uch davlat rahbarlari mintaqadagi barqarorlikni ko'zlab BMT homiyligida tinchlikni ta'minlovchi birlashgan batalon tuzishga kelishildi.

1995-yil may – O'zbekiston Respubliasi Oliy Majlisning 2-sessiyasida "*Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida*"gi Qonuni qabul qilindi.

1995-yil may – O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik kengashi tuzildi. Kengash mamlakatimiz milliy xavfsizligini ta'minlash masalalarini o'rganish, muhokama qilish, zarur chora-tadbirlar ko'rish bilan shug'ullanuvchi maslahat organidir.

1995-yil 5-may – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar



Mahkamasi tarkibi to'g'risidagi Farmonini tasdiqlash masalasi ko'rildi. Sessiyada ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalardagi tub o'zgarishlarga muvofiq ravishda Vazirlar Mahkamasining 35 kishidan iborat yangi tarkibi saylandi.

1995-yil 5-may – Prezident Islom Karimov tomonidan Oliy Majlis II sessiyasida “*Turkiston – umumiy uyimiz*” shiorining ilgari surilishi mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildi.

1995-yil 7-may – Fransiyada prezident saylovi bo'lib o'tdi va unda gollizm vakili *Jak Shirak* g'alaba qozondi.

1995-yil 7-may - *Jak Shirak* Fransiya prezidenti etib saylandi.

1995-yil 19-may – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Toshkent shahrida islom ta'limoti va falsafasini, o'zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur o'rganish maqsadida *Xalqaro islom tadqiqot markazi* tashkil etildi. Mazkur markazning asosiy vazifasi diyorimiz musulmonlariga milliy qadriyatlarimizni va haqiqiy islom ta'limotini yetkazish, mavjud islomiy osorl atiqalar tariini o'rganish, nodir qo'lyozma asarlarni tadqiq etish, ular bilan keng jamoatchilikni tanishtirish, darslik va qo'llanmalar, lug'atlar tayyorlash va nashr qilishdan iboratdir. Mamlakat televideniyesi orqali berilayotgan “Ma'rifatnoma” ko'rsatuvi xalqning ma'naviyatini yuksaltirishda, diniy ma'rifatini o'stirishda katta ahamiyat kasb etib bormoqda. O'zbekiston musulmonlari erkinlik va imkoniyatlarga ega bo'lmoqdalar.

1995-yil 25-may – Islom Karimov MDHga a'zo davlat boshliqlari bilan navbatdagi uchrashuvda qatnashish uchun Minskka keldi.

1995-yil 26-may – MDHga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlarining Kengashi bo'lib o'tdi. Unda davlatlararo Valyuta Qo'mitasini tuzish, MDH chegaralarini mustahkamlash, iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish kabi masalalar muhokama qilindi. Ayni paytda hukumat rahbarlari turli sohalarda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga doir 20 dan ziyod masalalarni muhokama qildilar.

1995-yil 30-may – O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini jalb etgan holda avtomobil sanoatining ishlab chiqarish bazasini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi “*Avtomobililar uchun butlovchi buyumlar ishlab chiqaradigan O'zbekiston – Koreya qo'shma korxonalarini tashkil etish to'g'risida*” qaror qabul qildi. Natijada mashina detallarini ham O'zbekistonning o'zida ishlab chiqarishga keng yo'l ochildi.

1995-yil iyun - Islom Karimovning Litvaga tashrifi chog'ida Prezident *A. Brazauskas* bilan ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma Deklaratsiyani imzoladi. O'zbekiston hukumati bilan Litva hukumati o'rtasida ta'lim, fan va texnika, sayyohlik, madaniyat va san'at, savdo-iqtisodiy, havo transporti sohalarida hamda bojxona qonunini buzish hollariga qarshi kurash borasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar tuzildi. O'zbekiston Litvadan elektr uskunalari va ularning ehtiyot qismlari, sut va sut mahsulotlari, mobil sanoati mahsulotlarini sotib olib, Litvaga paxta, neft, rangli metallar eksport qiladi.

1995-yil iyun – O'zbekistonda “Xalq birligi” harakati faoliyat ko'rsatmoqda. Bu harakatga raisi etib akademik *T.N. Dolimov* saylandi.

1995-yil 3-iyun – O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi (MTDP)



Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis Qurultoyida tuzildi va partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Qurultoy **A.P.Qayumov**ni partiya raisi qilib sayladi.

1995-yil 6-8-iyun - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *Islom Karimov*ning davlat tashrifi bilan Latviya Respublikasida bo'lishi har ikkala mamlakat hayoti uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur tashrif chog'ida *Islom Karimov* Latviya Respublikasi Prezidenti *Guntis Ulmanis* bilan O'zbekiston Respublikasi va Latviya Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladi. O'zbekiston va Latviya hukumatlari o'rtasida transport havo aloqasi, sayyohlik hamda ilmiy-texnik sohalar bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

1995-yil 9-iyun – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Milliy tiklanish demokratik partiyasini ro'yxatga oldi.

1995-yil 9-iyun – O'zbekistonda “Xalq birligi” harakati Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olindi.

1995-yil 20-iyun – Ukraina Prezidenti *Leonid Kuchma* davlat tashrifi bilan O'zbekistonga keldi. “Do'rmon” qarorgohida bo'lgan uchrashuvda O'zbekiston va Ukraina o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashildi. Ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkiblari muzokaralari Xalqlar Do'stligi saroyida davom ettirildi. Bu yerda O'zbek-Ukrain hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish to'g'risida Deklaratsiya qabul qilindi. Unda “O'zbekiston Respublikasi va Ukraina o'z munosabatlarini uzoq muddatli umumiy manfaatdorlikka ega do'st davlatlar tarzida rivojlantirishni mo'ljallaydi”, deb yozib qo'yildi. Muzokaralar davomida O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida shrtнома imzolandi.

1995-yil 21-iyun – O'zbekiston va Ukraina davlat munosabatlarini yanada yaxshilashga qaratilgan xujjatlar qabul qilingandan so'ng Leonid Kuchma Samarqandga tashrif buyurdi, shaharning diqqatiga sazovor joylarini ko'rdi. Registon maydonida Leonid Kuchma o'zbekistonlik bir guruh II jahon urushi qatnashchilariga “Ukraina ozod etilganligining 50 yilligi medali” va estalik sovg'alarini topshirdi.

1995-yil 27-28-iyun – Rossiya Federatsiyasi hukumatining raisi *Viktor Chernomirdinning* O'zbekistonga rasmiy rashrifi, Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri *Yevgeniy Primakovning* O'zbekistonga keyingi yillardagi ketka-ket tashriflari Rossianing O'zbekiston bilan teng huquqli hamkorlik qilishga qaratilgan intilishi bo'ldi.

1995-yil iyul – AQSh bilan Vetnam o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Kommunistik partiya rahbariyatiga iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'lidan boruvchi islohotchilar keldi. Xorijiy investitsiyalar uchun eng qulay sharoitlar yaratildi. Ko'plab davlat korxonalari xususiyashtirildi. Mamlakat iqtisodiyoti tezkorlik bilan rivojlana boshladi. Vetnam Osiyodagi eng rivoj topgan mamlakatlardan biriga aylandi.

1995-yil iyul - O'zbekiston bilan Atlantika mamlakatlari tashkiloti - NATO o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlik mavjud. O'zbekiston NATOning “Tinchlik yo'lida hamkorlik” dasturiga qo'shildi. O'zbekiston bu dasturdagi ishtirokiga o'z mustaqilligini mustahkamlash, hozirgi zamon harbiy-texnikaviy yutuqlardan foydalanish, harbiy kadrlar tayyorlashda imkoniyatlarni kengaytirish nuqtai nazaridan qaraydi.



1995-yil iyul - Toshkentda YXHTning mintaqaviy byurosi ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

1995-yil 26-iyul – BMTning Bosh kotibi *Butros G'oliy* O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovga maktub yo'llaydi.

1995-yil avgust - Namanganda qurilib ishga tushirilgan 120 o'rinli “*Oromgoh*” mavzesidagi dispanserga Boltiqbo'yi davlatlaridan olib kelib o'rnatilgan nur bilan davolovchi AGAT-R-1, Yaponiyadan oshqozon-ichak, o'sma kasalliklarini aniqlovchi gastrofibroskop, Sankt-Peterburgdan Lazer-Yava-3 apparatlari olib kelib jihozlandi. Ushbu shifoxona xizmati tufayli viloyatda o'sma kasalliklarini barvaqt aniqlash ikki barobarga, xastalikning oldini olish esa 20-25 %ga o'sdi.

1995-yil avgust - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “*O'simliklarning karantini to'g'risida*” Qonuni qabul qilinishi.

1995-yil 16-avgust – O'zbekistonning “Xalq so'zi” gazetasida BMTning Bosh kotibi Butros G'oliyning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovga yozgan maktubini e'lon qildi.

1995-yil 25-avgust – Toshkent shahrida Xindistonning “TATA Projekts LTD” firmasi qurgan, zamonaviy talablarga javob beradigan 600 o'rinli mehmonxonaning ishga tushdi.

1995-yil 30-avgust – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi “*Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzuvchi harakat va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida*”gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlovchi muhim hujjatdir.

1995-yil sentabr – *I.A.Karimov* tashabbusi bilan Nukusda o'tkazilgan xalqaro konferensiya esa tarixiy voqea bo'ldi. Bu anjumanning asosiy hujjatlaridan biri Nukus Deklaratsiyasi bo'lib, unda butun dunyo jamoatchiligi e'tibori Orol muammosiga qaratildi.

1995-yil sentabr - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi *Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi* tashkil qilindi.

1995-yil 15-16-sentabr – Toshkentda “*Markaziy Osiyo: Xavfsizlik va Hamkorlik*” masalalariga bag'ishlangan seminar-kengash bo'ldi. Bu kengashda ishtirok etish uchun 31 ta mamlakat, 6 ta xalqaro tashkilotlar vakillari qatnashdilar. Unda mintaqa xavfsizligi va mojarolarning oldini olish masalalari ko'rib chiqildi.

1995-yil 20-sentabr – Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Nukus shahriga tashrif buyurdilar. Unda Orol dengizi muammosiga bag'ishlangan uchrashuvlar o'tkazdilar va bu borada amaliy ishlar olib bora boshladilar. Bunday uchrashuvlar keyingi yillarda an'anaga aylandi.

1995-yil oktabr – BMTning 50 yilligi nishonlandi va uning yubiley sessiyasi O'zbekistonning xalqaro siyosat borasidagi yangidan-yangi imkoniyatlarini ko'rsatishga sharoit yaratdi. Prezident *I.Karimov*ning ana shu mo'tabar minbardan turib so'zlagan nihoyatda qisqa va lo'nda nutqi jahon hamjamiyatining tamoyilga aylangan qarashlarini o'zgartirishga, xalqaro tashkilotlar faoliyatini yangicha shakl va mazmun bilan boyitishga o'ziga xos ta'sir ko'rsatdi. U mamlakatlararo, mintaqalararo va qit'alararo munosabatlarni chuqurlashtirish, har bir mintaqada vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishidan



oldindan ogoh bo'lish, ularni o'z vaqtida o'rgatish va zarur xulosalarga kelish, shu asosda umumbashariy muammolarni chigallashtirmasdan hal etish masalalarini ko'tardi.

1995-yil oktabr – Jenevada “O‘zbekistonda xususiy lashtirish: hamkorlik uchun imkoniyatlar” mavzusida konferensiya bo‘lib o‘tdi.

1995-yil oktabr – O‘zbekiston Prezidenti bilan AQSh vitse-prezidenti *Albert Gorr* o‘rtasida Oq uyda uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi.

1995-yil 27-oktabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyi ishlarni sudda ko‘rish amaliyotini o‘rganib, bu masalani Plenumida muhokama qildi. Plenum sudlarga zarur ko‘rsatmalar berdi, sudlardan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar o‘tkazish, ekish va shu kabi jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan qonun kuchidan to‘la foydalanishni talab qildi.

1995-yil noyabr – Londonda “O‘zbekistonda biznes” konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda iqtisodiy islohotlarning xususiyatlari muhokama qilindi. Shtutgartda “*Buyuk ipak yo‘li merosi: O‘zbekiston*” ko‘rgazmasi O‘zbekistonning aql-ziyo sohasida jahonda tutgan o‘rniga va salohiyatiga berilgan katta baho bo‘ldi.

1995-yil noyabr – Mozambik Britaniya millatlar ittifoqining a‘zosi bo‘ldi.

1995-yil noyabr – Polshada prezidentlik saylovlari bo‘lib o‘tdi, bu saylovlar kommunistlar yo‘lboshchisi Polsha kommunistik yoshlari ittifoqining sobiq rahbari *Aleksandr Kvashnevskiy* g‘alabasi bilan tugadi.

1995-yil noyabr – Toshkentda Adenauer nomli xalqaro jamg‘arma bilan hamkorlikda “*Oliy Majlis – mustaqil O‘zbekiston jahon hamjamiyatiga kirishi davrida*” mavzuida amaliy konferensiya o‘tkazildi.

1995-yil 4-noyabr – Tel-Avivda bosh vazir *I.Rabin* o‘ldirildi. Bu hol Falastin bilan tinch munosabatlar jarayoniga tahdid solish bilan teng edi.

1995-yil 21-noyabr - Bosniya mojarosini tartibga solish haqidagi shartnomaning imzolanishi.

1995-yil 21-noyabr - Toshkentda Markaziy Osiyo ziyolilari ishtirokida “*Qardosh xalqlar uchrashuvi*” mavzuida Xalqaro qurultoy bo‘lib o‘tdi. Qurultoyda “Turkiston - umumiy uyimiz” harakatini birinchilardan bo‘lib qo‘llab-quvvatlagan mashhur qirg‘iz yozuvchisi *Chingiz Aytmatov* ma‘ruza qildi. Ma‘ruzachi va so‘zga chiqqan qardosh xalqlar vakillari mintaqada yashab o‘tgan ajdodlarimiz ruhi bilan olis istiqbolda tug‘ilajak avlodlar bog‘liqligi, mintaqa yaxlitligi, yagona Turkiston tuyg‘usining muqaddasligi haqida so‘zladilar. Qurultoyda “*Turkiston xalqlari madaniyati Assambleyasi*” tashkil etildi. *Chingiz Aytmatov* uning prezidenti etib saylandi. Assambleyaning qarorgohi Toshkent shahrida bo‘lib, Bishkek va Almatida uning bo‘limlari tashkil etildi.

1995-yil dekabr - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “*O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida*”, “*Muddatida to‘lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirib olish to‘g‘risida*” Qonunlarni qabul qilishi.

1995-yil dekabr - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “*Naschilik to‘g‘risida*” Qonunining qabul qilinishi.

1995-yil dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “*Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida*” Qonun qabul qildi.



1995-yil dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “*Konsessiyalar to‘g‘risida*” Qonun qabul qilindi.

1995-yil dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “*Davlat tili haqida*”gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi.

1995-yil dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 4-sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda sud hokimiyati 3-mustaqil hokimiyat tarmog‘i ekanligi, odil sudlov tizimini shakllantirish va demokratiyalashtirish lozimligi ko‘rsatildi.

1995-yil dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti *I.Karimov*ning Farmoni bilan 1996-yilni Amir Temur yili deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi Farmoni qabul qilindi.

1995-yil dekabr – prezident *Eduardo dush Santush*AQShga rasmiy tashrif buyurdi.

1995-yil dekabr - Prezident *Islom Karimov* Farmoni bilan “*O‘zbekiston - Vatanim manim*” mavzuidagi qo‘shiqlar ko‘rik-tanlovi e‘lon qilingandan so‘ng, yuzlab yangi, mustaqillik davri qo‘shiqlari yaratildi. Bu ko‘rik-tanlov mamlakatimizning hamma joylarida ko‘tarinkilik bilan o‘tkazildi.

1995-yil 5-19-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga bo‘lib o‘tgan saylovlar, bir tomondan, Mustaqillikning ilk yillarida yurtboshimiz tomonidan siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari to‘g‘risida bildirilgan mazkur fikrning naqadar to‘g‘ri va hayotiy ekanligini ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, *Islom Karimov*ning turli millatga mansub va e‘tiqodi turlicha bo‘lgan respublika aholisini bunyodkorlikka da‘vat etuvchi, ularning osoyishtaligini ta‘minlovchi sog‘lom siyosiy muhit yaratma olgan yirik tajribali davlat arbobi ekanligini yana bir bor isbotladi.

1995-yil 15-dekabr - Jambulda davlatlararo Kengashning navbatdagi majlisi o‘tkazildi.

1995-yil 20-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “*Aholining omonatlardagi va davlat sug‘urtasi bo‘yicha pul mablag‘larini indeksatsiya qilish to‘g‘risida*” Farmoni qabul qilindi.

1995-yil 21-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan *Mehnat kodeksi* qabul qilindi.

1995-yil 21-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IV sessiyasida “*O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to‘g‘risida*”, “*Banklar va banklar faoliyati to‘g‘risida*” alohida Qonunlar qabul qilindi. Bu huquqiy hujjatlar Xalqaro Valyuta Fondi va Jahon Banki tomonidan yuqori baholandi.

1995-yil 22-dekabr – 1-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasida “*Davlat mukofotlari to‘g‘risida*” Qonun qabul qilindi.

1995-yil 22-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi “*Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida*”gi Qonuniga o‘zgartirishlar kiritildi.

1995-yil 22-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sessiyasida “*O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida*”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

1995-yil 29-dekabr – *I.Karimov* Oliy Majlisning IV sessiyasida shunday degan edi: “*Men bir haqiqatni aytib charchamasam kerak. Buning mazmuni shuki, qishloqda tub islohotlar o‘tkazish, qishloq xo‘jaligini taraqqiy ettirish, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omili va manbaidir*”.



1995-yil oxiri – Toshkentda dispenser nazorati o'rnatildi. Ishchilarga davolash-profilaktika xizmati ko'rsatish, sanatoriy-profilaktoriyalar tarmog'i kengaytirildi.

1995-yil oxiri – Yevropa Ittifoqi O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida sheriklik va hamkorlik haqida bitim bo'yicha muzokara boshlash haqida qaror qabul qildi.

1996-1997-yillar – *Gelmut Kolning* siyosati natijasida soliq tushumlari rejadagidan 57 mln. dollar kam bo'ldi. Ishsizlar soni record darajaga yetib, katta yoshdagi har 10 tadan biri ishsiz edi. Ayni paytda *G.Kol* o'z maqsadi – Maastrixt bitimini amalga oshirishga to'liq ishongan holda harakat qildi. Unga ko'ra 32 mln. ishchining ish haqini 2 yilga “muzlatib” qo'yishni rejalashtirgan yangi reja ilgari surilgan edi. *G.Kol* siyosatiga ODP va GSDP qarshi chiqdi. *G.Kol* boshqargan konservativ liberal koalitsiyada (XDI va ODP) darz paydo bo'ldi. Uning siyosati 2 partiya negizini – bozor iqtisodiyoti sharoitida yuqori ijtimoiy xarajatlarni saqlab qolish qoidasini buzdi. *G.Kol* hukumat tepasida 18 yil ishladi, biroq u Yevropa muammolarini hal etishga nisbatan o'z ta'sir kuchini ortiqcha baholab yubordi.

1996-1997-yillar - Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markaz Dastur va rejasi qabul qilindi.

1996-1999-yillar – Oliy Majlis Kengashi “*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining shu yillarga mo'ljallangan faoliyat dasturi*” va respublika parlamenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi. Bunda belgilangan chora-tadbirlar Oliy Majlis faoliyatining barcha asosiy yo'nalishlarini qamrab olishga, qonunchilikni yangi pog'onaga ko'tarishga qaratilgan. O'zbekiston parlamentining 1-sessiyasida ta'sis etilgan Inson huquqlari bo'yicha vakil instituti hozirga qadar xalqaro amaliyotini o'rganish asosida ishlab chiqilgan va Oliy Majlis Rayosati tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat olib bormoqda.

1996-2000-yillar – O'zbekiston qishloq joylaridagi ta'lim muassasalarini jihozlar, mebellar bilan o'z vaqtida to'liq ta'minlash maqsadida Xalq ta'limi vazirligi bilan Toshkent shahar Sirg'ali tumanidagi “Fayz” mebel ishlab chiqarish hissadorlik jamiyati o'rtasida shartnoma tuzildi. Shartnomaga asosan hissadorlik jamiyatining ikkita sehida faqat ta'lim muassasalari uchun mebellar, jihozlar ishlab chiqarilishi haqida kelishib, bu ish 1996-yilning 1-choragidayoq boshlab yuborildi.

1996-2000-yillar – O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ishlab chiqilgan Dasturda qishloqda qariyb 2 mlnga yaqin yangi ish joyi yaratish, deyarli 950 ming kishini kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish mo'ljallandi.

1996-yil – 11 oyi mobaynida O'zbekistonda 62 ta qishloq vrachlik punkti ishga tushdi. Yana 71 ming kvadrat metr savdo o'rinlari, 27,9 ming kvadrat metr umumiy ovqatlanish shoxobchalari, 1992 ta maishiy xizmat obyekti qurib foydalanishga topshirildi.

1996-yil – Albaniyada sanoat ishlab chiqarish o'sishi rekord raqam — 16 foizni tashkil etdi.

1996-yil – Amir Temur rolining eng yaxshi ijrochisi uchun tanlovida Berdaq nomidagi drama teatri artisti *Bozorboy Uzoqberganov* qatnashib, 1- o'rinni oldi.



1996-yil – Asakadagi avtomobil zavodida dastlab butlovchi va ehtiyot qismlarining 15 %i mahalliy korxonalarda tayyorlanar edi.

1996-yil – Avstriyada *“Islom Karimov – yangi O‘zbekiston Prezidenti”* deb nomlangan teran tahlil va mazmunga ega kitob nashr qilindi. Bu asarning mualliflari doktor *Levitin* va doktor *Karlayl* ko‘p yillar Markaziy Osiyo respublikalarida bo‘lgan, mintaqadagi siyosiy vaziyat va iqtisodiy islohotlarning borishini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, mintaqaning o‘ziga xos jihatlarini ancha-muncha o‘rgangan kishilardir. Shuning uchun mualliflar o‘z asarlarida O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar samarasiga yuksak baxo beradilar. *“Tasavvurimcha, - deb yozadi L.Levitin, - dunyo O‘zbekiston misolida alohida sivilizatsiyaviy qiyofa kuchayishi bilan, o‘ziga xos sivilizatsiyaviy o‘z-o‘zini anglashning o‘sishi bilan ish ko‘rayotir”.*

1996-yil – *Benazir Bxutto* korrupsiyada ayblanib bosh vazir lavozimidan chetlatildi va u hibsga olindi.

1996-yil – Bill Klinton 2-muddatga AQSH prezidenti etib saylandi.

1996-yil – Buxoroda *“Buyuk Ipak yo‘lini, Madaniy Sayyohlikni qayta tiklash va O‘zbekistonda Qadimgi Merosni Tiklash”* bo‘yicha Xalqaro Konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda madaniyat va barqaror rivojlanish BMTning sobiq doimiy muvofiqlashtiruvchi janob *Xolid Malik* nutq so‘zlaydi.

1996-yil – DEU hamkorligida Asakada avtomobilsozlik zavodi qurildi va o‘z mahsulotlarini ishlab chiqara boshladi.

1996-yil – islom guruhi yangi siyosiy partiya – Markaz Partiyasini tashkil etdi, u terrorizmdan voz kechish va kurashning tinch usullariga o‘tishni e‘lon qildi. Musulmon birodarlari ham unga qo‘shildi. Faqat Islom jihodi ilgari usullaridan voz kechmadi.

1996-yil – *Islom Karimov “Mustaqillik”* ordeni nishondori sohibi bo‘ldi.

1996-yil – *Islom Karimovning “O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”* (I jild), *“Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”* (II jild), *“Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”* (III), *“Bunyodgorlik yo‘lidan”* (IV jild) kabi asarlari nashrdan chiqdi.

1996-yil – Isroil mehnat partiyasiga endi tajribali siyosiy va davlat arbobi *Shimon Peres* boshchilik qila boshladi. U shu payitgacha 2 marta bosh vazir, 2 bor tashqi ishlar vaziri va 2 marta mudofaa vaziri lavozimlarida ishlagan. AQSh ham ochiqdan-ochiq qo‘llab-quvvatladi. Shu yilgi saylovlarda *Bin‘yamin Netaniyaxu* bir oz ustunlik bilan g‘alaba qozondi. Uning g‘alaba qozonishida asli Rossiyadan kelgan aholining (ular jami aholining 15 % ini tashkil etadi) ham roli katta bo‘ldi.

1996-yil – *Kostas Simitis* Gretsiyada bosh vazir.

1996-yil – ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston kasaba uyushmalarining 53 mingga yaqin boshlang‘ich tashkilotga birlashgan 7,5 mln dan ziyod a‘zosi bor. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tarkibida 21 tarmoq kasaba uyushmalari mavjud, hududiy jihatdan esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 viloyat hamda 1 ta shahar kasaba uyushmalari kengashlari mavjud.

1996-yil – Mashhad (Eron) va Saraxs (Turkmaniston) o‘rtasida temir yo‘l qurilishi tugallandi, bu yo‘l mazkur respublikalarni Fors qo‘ltig‘iga olib chiqdi.

1996-yil – Misrda terrorchilikka qarshi operatsiyalar natijasida diniy guruhlarining



60 vakili o'ldirildi, harbiy sudlar islom fundamentalistlariga tegishlilikda shubhalanilgan 48 kishini dor ostiga jo'natdi. Bu hol ularning o'z taktikasini o'zgartirishga majbur etdi.

1996-yil – O'n yillik iqtisodiy o'sishni ta'minlamagan Tailand eksporti pasayib ketdi. Mamlakat byudjetida ulkan tanqislik yuzaga keldi. Ko'plab tadbirkorlar va banklar bankrot deb e'lon qilindi. Barcha darajadagi amaldorlar o'rtasida avj olgan korrupsiya mavjud sharoitni yanada chuqurlashtirdi. Aholining turmush darajasi dunyodagi eng past o'rinlardan birini egallaydi.

1996-yil – O'zbekiston "Xalq birligi" harakati va Baynalmilal madaniyat Markazi "O'zbekiston millatlararo hamjihatlik yo'lida" nomli kitobni nashr etdi. Unda milliy va millatlararo munosabatlarning jamiyatni tubdan isloh qilish sharoitida tutgan o'rni va roli, milliy madaniyatlar ravnaqi va mustaqillik imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.

1996-yil – O'zbekiston Davlat byudjetidan Qoraqalpog'istonni rivojlantirish uchun 10 mlrd. so'm mablag' ajratdi. Bu Qoraqalpog'iston milliy daromadining 55 % ini tashkil qilardi.

1996-yil – O'zbekiston mustaqilligining 5 yilligi oldidan o'tkazilgan "O'zbekiston – Vatanim manim" qo'shiq-tanlovida yosh qo'shiqchi Roza Kutekeyeva "Mustaqillik gullari" qo'shig'i bilan ishtirok etib, faxrli 2-o'rinni oldi.

1996-yil - O'zbekiston qishloq xo'jaligini zamonaviy texnika bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish maqsadida AQShning "KEYS" va "MAGNUM" korporatsiyalari bilan birgalikda traktorlar, kombaynlar yig'ish yo'lga qo'yildi.

1996-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bozor infrastrukturasini yaratuvchi va uning faoliyatini tartibga solib turuvchi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunni qabul qildi.

1996-yil – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan *Fuqarolik kodeksi* qabul qilindi.

1996-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "O'zbekiston Respublikasining yetakchisi xalqaro tashkilotlarga a'zoligi to'g'risida", "Valyutani tartibga solish to'g'risida", "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilindi.

1996-yil - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshkent shahri aholisiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash to'g'risida"gi qaror qabul qilinishi.

1996-yil - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yosh avlodni sog'lomlashtirish muammolarini kompleks hal etish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining tibbiy va farmatsevtika sanoatini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi.

1996-yil – O'zbekiston Respublikasida *I.Karimovning Farmoni* bilan *Amir Temur yili* deb e'lon qilindi.

1996-yil - O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunni qabul qilishi.

1996-yil - O'zbekiston sporti tarixida alohida o'rin tutadi. O'zbekiston boks



federatsiyasi sport bo'yicha yo'riqchisi *Artur Grigoryan* o'z vazni bo'yicha Germaniyada o'tkazilgan jahon chempionatida qatnashib katta yutuqlarga erishdi. U mutlaq champion "*Oltin kamarini*" qo'lga kiritdi.

1996-yil – O'zbekiston va Qozog'iston munosabatlarini yanada yaxshilashda ilm-fan va texnologiyalarning 16 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 107 ta qo'shma loyiha tayyorlandi.

1996-yil – O'zbekistonda 2200 dorixonona xususiyashtirildi, 839 dorixonani o'z tarkibiga olgan 239 dorixonona aksionerlik jamiyatiga aylantirildi.

1996-yil - O'zbekistonda 5 ta va undan ko'proq bolali oila uchun nafaqaning eng ko'p miqdori avvaliga eng kam ish haqining yarmi miqdorida bo'lsa, eng kam ish haqining to'la stavkasi darajasida belgilab qo'yildi.

1996-yil - O'zbekistonda 64 ming o'rinni 198 ta maktab qurilib foydalanishga topshirildi.

1996-yil – O'zbekistonda chetdan neft mahsulotlarini sotib olish to'xtadi.

1996-yil – O'zbekistonda eng ham ish haqi 1995-yildagiga nisbatan 2,7 marta ortdi.

1996-yil – O'zbekistonda ko'chmas mulkni sotish bo'yicha 190 ta va litsenziya sotish bo'yicha 132 ta brokerlik idoralari, O'zbekiston fond birjasining 13 ta filiali va bo'limlari faoliyat ko'rsatdi.

1996-yil – O'zbekistonda neft mustaqilligiga erishildi.

1996-yil – O'zbekistonda sud islohotlarining 2-bosqichi boshlandi.

1996-yil – O'zbekistonda yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar, jismoniy shaxslar ham soliq to'lovchilar safida 1994-yildagiga qaraganda ularning soni 2 mln. 31 ming kishiga yetdi. Ulardan byudjetga tushayotgan soliq to'lovlari 5,7 marta ko'paydi.

1996-yil – O'zbekistonda yalpi milliy mahsulot 1,6 foizga ko'paydi.

1996-yil – Qo'ng'irotdagi "Urga" gaz sanoati korxonasida gaz kondensati va tabiiy gaz qazib chiqarilishi boshlab yuborildi. Aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash darajasi 83 % ga yetdi. "Qoraqalpog'iston" aksionerlik jamiyatida Italiya firmalarining yuqori sifatli jihozlar bilan jihozlangan, yiliga 60 ming kv. m. marmar bloklari va plitalari ishlab chiqaradigan yangi marmar sexi ochildi. "Nukusun" zavodida esa spirt ishlab chiqaradigan yangi sexi qurildi.

1996-yil – Qoraqalpog'iston aholisi 143 ming 764 kishiga o'sdi, shundan shahar aholisi 69 ming 401 kishini, qishloq aholisi 74 ming 363 kishini tashkil etdi.

1996-yil – Qoraqalpog'iston aholisiga 2,2 mlrd so'mlik iste'mol mollari sotildi. Bu amaldagi narxlarda 1995-yilga nisbatan 2,1 marta ko'p. Tovar aylanishining jami hajmi 10,3 % ga yoki 350,5 mln so'mlikka ko'paydi. Tovar oborot hajmida davlat sektorining ulushi pasayib, nodavlat sektoriniki o'sib bordi. Rasmiy savdo tarmoqlariga nisbatan iste'mol va buyum bozorlarida holat ancha yaxshilandi, jami tovar oborotida ularning ulushi 20 % ga yetdi.

1996-yil – Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdodagi asosiy sheriklarining hissasi quyidagicha bo'ldi: Rossiya – 11,4 %, AQSh – 14,1 %, Janubiy Koreya – 11,1 %, Shveysariya – 9,4 %, Niderlandiya – 7,2 %.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda "*Xomilador ayollarni va bolalar salomatligini*



mustahkamlash bo'yicha milliy dastur" hamda "Yosh avlodni sog'lomlashtirish kompleks dasturi"ning ishlab chiqilganligi va amalga oshirilganligi natijasida onalar o'limi 1991-yildagiga nisbatan 4,4 marta, chaqaloqlar o'limi esa 1,8 martaga kamaydi. Xomilador ayollarning 56% i stasionarlarda tug'ishgacha bo'lgan davolanishdan o'tkazildi.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda 16 ming ishchi o'rinlari yaratildi, qishloq joylarida 8,5 mingta. Bu esa shahar va tuman mehnat birjalariga murojaat qilgan fuqarolarni ish bilan ta'minlash imkonini berdi.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda 3126 o'rinli maktab qurib ishga tushirildi.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda 51 ta mayda ulgurji tizim, 2 ta savdo uyi, 13 ta mayda ulgurju savdo do'konlari va omborlar, 17 ta ko'tara savdo bozor hamda O'zbekiston Tovar-xom ashyo birjasining Qoraqalpog'iston bo'limiga qarashli 19 ta supermarket do'konlari faoliyat ko'rsatdi.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda aholi jon boshiga pul daromadlari 9628,8 so'mni harajatlar esa 6300 so'mni tashkil etdi yoki 1995-yil nisbatan 2,2 va 2,3 marta ko'paydi.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda aholining kasallanishi kamaymadi, aksincha 1991-yildagiga qaraganda 26,3 % ga ko'paydi.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda aholining o'rtacha yillik o'sishi 1,36 % gat eng bo'ldi.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda amaldagi narxlarda 10754,4 mln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi, bu solishtirma narxlarda 101,5 % ni tashkil etadi.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda ayrim fanlar chuqurlashtirilgan holda o'qitiladigan maktablar soni 169 taga yetdi, litsey va gimnaziya 19 taga yetdi.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda fond birjalari filiallarida 191,6 mln so'mlik aksiyalar sotildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat korxonalarini aksionerlik jamiyatlariga aylantirish, qimmatbaho qog'ozlar bozorini rivojlantirishga oid farmonlarini bajarish amalda o'z samaralarini bera boshladi.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda ishlab chiqarish korxonalarini qurilishiga ajratilgan mablag' 78 % ni tashkil etdi. Bir vaqtning o'zida noishlab chiqarish ob'ektlari uchun ajratilgan mablag'lar miqdori 38,8 % dan 22 % gacha kamaydi.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda tashqi savdo oboroti 228,4 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Bu 1995-yildagiga nisbatan 3,7 marta ko'p bo'ldi.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda tashqi savdo oborotida importning salmog'i 46,2 % ni tashkil qildi. Uning hajmi 1995-yildagiga nisbatan 3,4 marta ko'paydi. Import mahsulotlari tarkibida asosan xalq iste'mol mollari 60,9 %, qora va rangli metallar 18,9 %, oziq-ovqat mahsulotlari 13,1 % ni tashkil etdi.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda tug'ilish (ming kishi hisobida) 25,0 kishiga qisqardi. Tug'ilishning kamayishi o'z o'rnida respublika aholisining o'sish darajasiga ta'sir etdi. Demografik o'zgarishning asosiy sabablaridan biri tug'ilishning kamayishi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik yashash sharoitlariga ham bog'liqdir.

1996-yil – Qoraqalpog'istonda yig'ma temir-beton konstruksiyalari va detallari, toshdan bezakli materiallar tayyorlash, qandolatchilik mahsulotlari, o'simlik yog'i, uzum vinosi, salqin ichimliklar va osh tuzi ishlab chiqarish o'sdi.



1996-yil – Qoraqalpoq fanida erishilgan yutuqlar hamda 4 tomlik “*Qoraqalpoq tilining izohli lug’ati*”ni yaratishdagi xizmatlari uchun Fanlar akademiyasining 4 nafar ilmiy xodimlari (*M.Qalandarov, R.Esemuratova, A.To’raboyev, D.Qozoqboyev*) O‘zbekiston Respublikasining Beruniy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandilar.

1996-yil – Qoraqalpoq xoreografiyasi tarixida 1-marta “*Oyjamo!*” nomli qoraqalpoq baleti (*N. Muhammedinova* musiqasi, *T.Xodjayev* asari) sahnalashtirildi.

1996-yil – Rossiya Yevropa Kengashiga a’zo bo‘lib kirdi.

1996-yil – Rossiyada o‘tkazilgan prezidentlik saylovlarida yana *B.Yelsin* g‘alaba qozondi. Rossiyaliklar nafaqat *B.Yelsin* uchun, balki kommunistlarga qarshi va o‘tmishga qaytmaslik uchun ovoz berishdi.

1996-yil – Ruminiya tasarrufida bo‘lgan barcha korxonalar xususiyashtirildi.

1996-yil – Saraxsda Markaziy Osiyo bilan Eron temir yo‘l tarmoqlarining tutashtirilgani TRASEKA loyihagini amalga oshirishda dastlabki katta ishlardan biri bo‘lgan edi.

1996-yil – *T.Jivkov* ustidan sud bo‘lib o‘tdi. U korrupsiya, xizmat mavqeini suiste‘mol qilganlikda ayblanib, uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi. Bu jazo uy qamog‘iga almashtirildi.

1996-yil – Transkavkaz yo‘lagi bo‘yicha O‘zbekistonga keltirilgan va olib chiqib ketilgan mahsulot hajmi salkam 140 ming tonnani tashkil etdi.

1996-yil - V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya zavodi “*Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi*” davlat aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi. Natijada korxonada ilgari tayyorlanib kelinayotgan samolyotlar qatorida mahalliy havo yo‘llarida qatnashga mo‘ljallangan 64 o‘rinli yangi IL-114 samolyotlari ham ishlab chiqarila boshladi.

1996-yil – Yevropa Ittifoqi hamda O‘zbekiston Respublikasi bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida sheriklik va hamkorlik haqida bitimi to‘g‘risida tomonlar orasida rasmiy muzokaralar boshlandi. O‘zbekiston, Yevropa Komissiyasi Kengashi va Ylga a’zo barcha mamlakatlar vakillari ishtirokida muzokaralar Bryussel va Toshkent shaharlarida 2 round davomida bo‘lib o‘tdi.

1996-yil yanvar - Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining qaroriga muvofiq, jahon sportini rivojlantirishdagi xizmatlari va olimpiya g‘oyalari sadoqati uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti *I.A.Karimov* Olimpiya Oltin ordeni bilan mukofotlandi.

1996-yil 7-yanvar – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumi “*Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida*”gi masalani ko‘rib chiqib, sudlarning e’tiborini mazkur masalaga doir jiddiy kamchiliklarga qaratdi. Bunday ishlarni ko‘rish chog‘ida qurollarni olish, tayyorlash manbalari va sabablarini, jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat tug‘dirayotgan sharoitlar va shaxslar doirasini aniqlash, jazo tayinlashda alohida yondashuv qoidalarga rioya etish, aybdorlarga nisbatan asossiz ravishda yengil jazo tayinlash hollariga barham berish talab etildi.

1996-yil 17-yanvar - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “*O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*” maxsus Qaror qabul qildi.



1996-yil 25-yanvar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "1996-yilda paxta yetishtirish hajmlari to'g'risida" qaror qabul qilinishi.

1996-yil mart – "UzDEO'avto" qo'shma korxonasi tomonidan "Damas" mashinasini ishlab chiqara boshlandi.

1996-yil mart - Toshkentda "Bahor" konsert zalida "O'zbekiston - Vatanim manim" deb atalgan qo'shiq tanlovining birinchi bosqichi bo'ldi. Bu bosqichda respublika bo'yicha 54 ming dan ziyod san'atkor qatnashdi. 10 mingdan ortiq qo'shiq ijro etildi.

1996-yil 12-mart – O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash maqsadida, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan band bo'lgan jismoniy shaxslarning manfaatlarini himoya qilish, ishlarini tashkil etishda yordam ko'rsatish vazifasini o'z zimmasiga olgan Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar Respublika Palatasining joylarda hududiy bo'limlari tashkil qilindi.

1996-yil 13-mart – saylovni puxta tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Rayosati fuqarolar yig'inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovni o'tkazish masalasini maxsus muhokama qildi va shu asosda zarur tashkilotchilik ishlari olib borildi. Fuqarolar yig'inlari va ularning raislari saylovni o'tkazish haqidagi qonun matni 4 ming nusxa atrofida ko'paytirilib Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklariga yetkazib berildi. Bu tadbirni uyushqoqlik bilan o'tkazishga doir tavsiyanomalar ishlab chiqildi. Ular "Mahalla" gazetasida e'lon qilindi.

1996-yil 15-mart – Rossiya Davlat Dumasi kommunistlar tashabbusi bilan 1991-yil 8-dekabrda Rossiya, Ukraina va Belarus davlatlarining Belovejskaya Pushada SSSRni tarqatish va uning o'rnida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tashkil etish to'g'risida bayonatni bekor qilish haqida qaror qabul qildi. Ana shu qarorda qabul qilinishi bilanoq xuddi shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashning kengaytirilgan majlisi bo'lib o'tdi. Unda Oliy Majlis rahbariyati qo'mitalarining raislari, deputatlar fraksiyalari, siyosiy partiyalar va harakatlarning rahbarlari ishtirok etdilar. Majlisda Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasining sobiq SSSRni qayta tiklash to'g'risidagi qaroriga keskin munosabat bildirildi. Ushbu masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

1996-yil 15-mart – Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasi sobiq SSSRni qayta tiklashga qaratilgan qaror qabul qilishi.

1996-yil 16-mart – O'zbekiston Prezidenti *I.Karimov* Xorazm viloyati xalq deputatlarining navbatdan tashqari sessiyasida qatnashish uchun borgan edi. Ana shu sessiya minbaridan turib u Rossiya Davlat Dumasining qaroriga, u yerdagi kommunistlarning shovinistik siyosatiga keskin baho berdi va shunday dedi: "Sizlarning ixtiyoringiz o'zingizda, lekin O'zbekistonning yo'li oldindan ma'lum. O'zbekiston xalqi o'z qo'liga kishan urdirib, aldab-suldab ongini buzib, eski oxurga qaytadan ipsiz bog'lab qo'yilishiga hech qachon va hech qanday yo'l bilan rozilik bermaydi. ...Bizning yo'limiz aniq va ravshan. Istiqlol, mustaqillik yo'lidan, ozodlik, erkinlik yo'lidan izchil borish, demokratik huquqiy davlat barpo etish, xalqimiz uchun farovon hayot qurish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallash".



1996-yil 25-mart – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Rayosati “Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasining 1996-yil 15-martda qabul qilgan sobiq SSSRni qayta tiklashga qaratilgan qarori to‘g‘risida”gi qarorini ko‘rib chiqdi. Rayosat saylovchilar fikrini inobatga olib: Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasining 1996-yil 15-martda qabul qilgan sobiq SSSRni qayta tiklashga qaratilgan qarori muhokamaga loyiq emas, “*Davlatlar ustidan turuvchi har qanday tuzilmalar tashkil qilishni nazarda tutadigan integratsiya jarayoni O‘zbekiston uchun maqbul bo‘la olmaydi*”, - deb qaror qabul qildi. Bunday qarorning qabul qilinishiga xalqning Rossiya Davlat Dumasiga qaroriga salbiy munosabatda bo‘lganligi asos bo‘ldi.

1996-yil aprel – O‘zbekiston Prezidenti boshchiligidagi davlat delegatsiyasining Fransiyaga tashrifi chog‘ida ikki mamlakat o‘rtasida ikki tomonlama soliq olmaslik to‘g‘risida konvensiya hamda moliyaviy Protokol imzolandi.

1996-yil aprel – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “*Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida*” va “*Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida*”gi Qonunlarini qabul qildi.

1996-yil aprel – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining V sessiyasida “*O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi to‘g‘risidagi*” qonun qabul qilindi.

1996-yil 2-aprel - Moskvada ikki mamlakat hamjamiyatini tuzish haqida Rossiya-Belorussiya shartnomasi imzolanishi.

1996-yil 3-aprel - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “*Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida*”gi farmoni e‘lon qilindi. Bu farmon bilan qishloq xo‘jaligi sifatli texnika, mineral o‘g‘itlar, ekinlarni himoya qilishning kimyoviy vositalari bilan ta‘minlash bo‘yicha 2000-yilga qadar respublika qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning kompleks dasturini ilgari surdi.

1996-yil 3-aprel – Prezident tomonidan “*Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida*”gi Farmonni imzoladi. Farmon qishloqda islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan qator tadbirlarni belgilab berdi.

1996-yil 5-aprel - O‘zbekistonda musiqa va raqs san‘ati rivojlantirishda *Islom Karimov* Farmoni asosida “*O‘zbeknavo*” gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi. Unda musiqa-raqs san‘atini rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash masalalari ko‘zda tutildi.

1996-yil 21-24-aprel – YUNESKO tashabbusi va rahbarligida Parijda Amir Temur hazratlari tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlangan madaniyat haftaligi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston hukumati, Prezident I. Karimov va YUNESKO Bosh direktori (sobiq) F. Mayorlarning sa‘y-harakatlari tufayli amalga oshirilgan bu madaniyat haftaligi mamlakatimizni Amir Temur siyomosida, u homiylik qilgan madaniy, ma‘naviy meros orqali yana bir karra dunyoga tanitdi. YUNESKO qarorgohida “*Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi*” mavzuida xalqaro konferensiya va ko‘rgazma uyushtirildi.

1996-yil 24-aprel – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning V sessiyasida “*Milliy xavfsizlik to‘g‘risida*”gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun mamlakatimizda milliy xavfsizlik tizimini shakllantirish, milliy xavfsizlikni ta‘minlashning huquqiy normalarini belgilab berdi.



1996-yil 25-aprel - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi mulkdorlar sinfini shakllantirishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida o'zining V sessiyasida "Aksiyadorlar jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida"gi qonunlarni qabul qildi.

1996-yil 25-aprel – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning V sessiyasida "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Bunday xo'jalik yuritish tajribasi hali mamlakatda yo'q edi. Zamonaviy xo'jalik yuritish tajribalarini sinovdan o'tkazishning eng muqobil yo'li bu – "Erkin iqtisodiy zonalar" tashkil qilishdir.

1996-yil 26-aprel – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan O'zbekiston Respublikasining quyidagi Faxriy unvonlari ta'sis etildi. "O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi", "O'zbekiston Respublikasi fan arbobi", "O'zbekiston Respublikasi xalq artisti", "O'zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi", "O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi", "O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri", "O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi", "O'zbekiston Respublikasi xalq hofizi", "O'zbekiston Respublikasi xalq usti".

1996-yil may - "Fuqarolarni huquqiy himoya qilish va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish" mavzusiga bag'ishlangan mamlakat huquqshunoslari konferensiyasi bo'ldi. Unda dolzarb masalalar muhokama qilindi, tajribalar umumlashtirildi.

1996-yil may – Ispaniyaning sotsialistlar hukumati iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.

1996-yil may – O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi tashkil qilindi. Bu ommaviy axborot vositalari vakillarining mustaqil o'z-o'zini boshqaruvchi, hukumatga qarashli bo'lmagan ijtimoiy xayriya tashkiloti hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining jamg'armani qo'llab-quvvatlash yuzasidan qabul qilgan qarori ommaviy axborot vositalarining faolligini oshirishga, ularning demokratik islohotlarni amalga oshirishdagi o'рни va ahamiyatini kuchaytirishga zaminlar, shart-sharoitlar yaratdi. Jamg'arma matbuotning erkin tayyorlanishi va tarqalishini ta'minlashga ko'maklashmoqda.

1996-yil may – O'zbekistonimizda AQShda joylashgan jahondagi yirik kompyuter tizimi "Internet" bilan aloqa o'rnatib, undan eng muhim yangiliklarni qabul qilib olishning yo'lga qo'yilgani O'zbekiston axborot vositalari tarixida ulkan yangilik bo'ldi. "Internet"ning 50 mln abonent bo'lib, jahondagi eng yirik axborot markazlari unga a'zo bo'lishgan. U butun dunyo bo'yicha turli sohalardagi yangiliklar qabul qilib oladi hamda ana shu yangiliklarni o'z abonentlariga tez va aniq yetkazib beradi.

1996-yil may - temir yo'l transporti faoliyatini muvofiqlashtirish haqida hamda transit yuk tashishni tartibga solish sohasida hamkorlik bo'yicha bitimni ro'yobga chiqarishda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning Gruziya va Ozarbayjon Respublikalariga rasmiy davlat tashrifi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1996-yil may-iyun – yangidan qaddini ko'tarayotgan mahallalar hayotida tub o'zgarishlar yuz berganligini O'zbekistonda bo'lib o'tgan fuqarolarning o'zini o'zi



boshqarish organlariga o'tkazilgan saylovlar yaqqol ko'rsatdi. Saylovga tayyorgarlik ko'rish Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida yaxshi o'tkazildi. Hammasi bo'lib mamlakatda 6 ming 955 fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va 60 mingdan ortiq rais maslahatchisi saylandi. Qishloq, ovul va shaharlarning va shaharlardagi mahallalar yig'inlari raislarining 84 foizdan ortig'i shu lavozimiga ikkinchi muddatga saylandi, bu ko'rsatgich maslahatchilar orasida 65 foizdan ortiqrog'ini tashkil qildi.

1996-yil 7-may – “O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmon qabul qilindi. Unda O‘zbekiston Davlat televideniye va radioeshittirish Qo‘mitasi O‘ztele radiokompaniyaga aylantirildi.

1996-yil 12-may - Ashgabadda O'zbekiston, Gruziya, Turkmaniston va Ozarbayjon Prezidentlarining uchrashuvi bo'ldi.

1996-yil 12-may – Ashxobodda uzunligi 295 km bo'lgan Mashhad-Seraxs-Tajan temir yo'li ishga tushdi. Yo'l qurilishida o'zbekistonliklar ham o'z hissalarini qo'shdilar. Bu yo'l Osiyo va Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar yo'lini qisqartirdi.

1996-yil 13-may – O‘zbekiston, Ozarbayjon, Gruziya, Turkmaniston o‘rtasida o‘zaro erkin transit to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi. Buyog‘i Yaponiyadan to Adriatika dengiziga qadar cho‘zilgan ushbu qadim karvon yo‘lining muhim bo‘ladigan foydalanishni boshlagan respublikalarning sarf-harajati kamayadi.

1996-yil 17-may - MDH davlat boshliqlarining o'tkazgan Kengashlarida integratsiya jarayonlarini tezlashtirish konsepsiyasi, uyushgan jinoyatchilik va boshqa xavfli jinoyatlarga qarshi birgalikda kurash dasturi, MDH doirasida qabul qilingan hujjatlarning bajarilish ahvoli, MDHning istiqbollari, MDH organlari faoliyatini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi.

1996-yil 21-may – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan 1996-1998-yillarda qishloq ijtimoiy infrastrukturasini rivojlantirish va sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi qabul qilindi.

1996-yil 21-may – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2000-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi qishloq infrastrukturasini rivojlantirish Dasturi” to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Ushbu qarorda qishloqning iqtisodiy va mehnat imkoniyatlaridan yanada to‘liq va samarali foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish, qishloq aholisining turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida bu ishlarni amalga oshirdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “O‘zistiqbolstat” Davlat Qo‘mitasi, O‘zbekiston Moliya vazirligi, Sog‘liqni saqlash va Xalq ta’limi vazirligiga 2000-yilgacha qishloq infrastrukturasini rivojlantirishga doir ishlarini amalga oshirishni topshirdi.

1996-yil 23-may - Latviya Prezidenti *Guntis Ulmanis*ning O‘zbekistonga safari ikki mamlakat o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni yanada chuqurlashtirdi. Ikki Prezident O‘zbekiston bilan Latviya o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish va kengaytirish to‘g‘risida Deklaratsiya imzoladilar. Hukumatlararo fuqarolik, mehnat, huquq-targ‘ibot, xalqaro avtomobil qatnovi, temir yo‘l transporti, madaniyat, bojxona ishida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida bitimlar imzoladilar.



1996-yil 27-may – O'zbekiston Respublikasi *I.Karimov* rasmiy tashrifi bilan Ozarbayjonga keldi. Prezident Saroyida *I.Karimov* va Ozarbayjon Prezidenti *H.Aliyev* o'rtasida yakkama-yakka muloqot bo'ldi, so'ng kengaytirilgan tartibda muzokaralar boshlandi. Muzokaralar so'ngida 2 mamlakat o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma, ikki mamlakat o'rtasida sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash, soliq, bojxona, havo yo'llari, avtomobil vat emir yo'llar aloqalari, yuk tashish va boshqalar haqida 20 ga yaqin hujjat imzolandi. *I.Karimov* Boku Davlat Universitetiga tashrif buyurdi. Bu yerda u talabalar bilan uchrashdi. O'zbekiston Davlat rahbariga iqtisodiyot, fan, maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari uchun Boku Universiteti doktori degan faxriy unvon berildi.

1996-yil 28-may – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *I.Karimov* rasmiy tashrifi bilan Gruziyaga keldi. *Islom Karimov* va Gruziya Respublikasi Prezidenti *Eduard Shevardnadze* o'rtasidagi muzokaralar har ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar, mintaqaviy va xalqaro vaziyat, MDH doirasidagi hamkorlik bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi. So'ng Prezidentlar ishtirokida kengaytirilgan muzokaralar bo'ldi va unda Tran-Kavkaz yo'lining Gruziyadan o'tadigan qismini jadal barpo etish, uning keng imkoniyatlaridan samarali foydalanish bosh mavzu bo'ldi. Muzokaralar nihoyasida O'zbekiston bilan Gruziya o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish to'g'risida Deklaratsiya qabul qilindi, ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy savdo aloqalariga doir 15 ga yaqin hujjat imzolandi.

1996-yil iyun – “*UzDEO'avto*” qo'shma korxonasi tomonidan “*Tiko*” mashinasi ishlab chiqarila boshlandi.

1996-yil iyun – Florensiyada Ylga a'zo mamlakatlar davlat va hukumat rahbarlarining oliy darajadagi yig'ilishida Fransiya Prezidenti *Jak Shirak* O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *Islom Karimov* bilan bo'lgan muloqotlaridan mamnun bo'lganligini izhor etdi.

1996-yil iyun – Mongoliyada bo'lib o'tgan saylovlarda *Demokratik Ittifoq* g'olib chiqdi. Mazkur Ittifoq chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borishni va'da bergan edi. Yangi hukumat noishlab chiqarish maqsadlari uchun davlat xarajatlarini qisqartirdi, o'zini oqlamaydigan banklarni yopdi, kommunal xizmati haqini oshirdi, xorijiy investitsiyalar kelish jarayonini osonlashtirdi. Keng ko'lamda xususiyashtirish e'lon qilindi.

1996-yil 21-iyun – O'zbekiston Respublikasi bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida sheriklik va hamkorlik haqida bitim Florensiya shahridagi “*Forteza de Basso*” qal'asida YI davlatlari va hukumatlari rahbarlari yig'ilishida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti *I.A.Karimov* tomonidan imzolandi. Shuni ta'kidlash joizki, YI tomonidan bu kabi yuqori sharaftga faqatgina O'zbekiston va Rossiya Prezidentlari muyassar bo'ldilar. Bir qancha boshqa yangi mustaqil davlat rahbarlari ham bunday bitimni imzolashgan, lekin marosim YI mamlakatlarining tashqi ishlar vazirlari darajasidagi yig'ilishida bo'lib o'tgan. Bu hol YI O'zbekiston bilan hamkorlikka naqadar katta e'tibor berayotganligidan dalolatdir.

1996-yil 23-28-iyun – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *I.Karimov* AQShlariga rasmiy tashrif bilan bordi.



1996-yil 25-iyun – *Islom Karimov* AQSh Prezidenti Bill Klinton bilan uchrashdi. Bu uchrashuv ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar rivojiga, mustaqil mamlakatimizning jahon hamjamiyati integratsiyalashuvi yo'lida va aytish mumkinki, mintaqa taraqqiyotida ulkan imkoniyatlar kashf etdi.

1996-yil iyul – “*UzDEO'avto*” qo'shma korxonasi tomonidan “*Neksiya*” mashinasi ishlab chiqarila boshlandi.

1996-yil 19-iyul – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *I.Karimov* ishtirokida “*UzDEO'avto*” qo'shma korxonasining ishga tushirilishiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish bo'ldi.

1996-yil 19-iyul – O'zbekistonning Andijon viloyatining Asaka zavodida “*O'zDEUavto*” qo'shma korxonasi ishga tushirildi. O'zbekistonning jahondagi avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 ta mamlakat qatoriga olib chiqdi.

1996-yil avgust – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 6-sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda sud hokimiyati 3-mustaqil hokimiyat tarmog'i ekanligi, odil sudlov tizimini shakllantirish va demokratiashtirish lozimligi ko'rsatildi. “*Sud islohotini chuqurlashtirish, xokimiyatning 3-, mustaqil va qaram bo'lmagan tarmog'i sifatida butun odil sudlov tizimini demokratlashtirish – huquqiy davlatni mustahkamlashning yana bir muhim yo'nalishidir...Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini ximoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatdan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim*”, - deb o'qitiradi *I. Karimov* Oliy Majlisning VI sessiyasida.

1996-yil 14-avgust - Toshkentda Olimpiya muzeyi tashkil etildi. Uni Xalqaro olimpiya qo'mitasining Prezidenti *X.A.Samaranch* mamlakatimiz Prezidenti *I.Karimov* bilan birga tantanali ravishda ochib berdi. *X.A.Samaranch*ning O'zbekiston sportini rivojlantirish borasidagi katta xizmatlari hukumatimizning Do'stlik ordeni bilan taqdirlandi.

1996-yil 24-avgust - Toshkentdagi “*Turkiston*” saroyida “*O'zbekiston - Vatanim manim*” qo'shiq ko'rik-tanlovning yakuniy bosqichi bo'ldi. Ozod Vatanimiz va mustaqilligimizni tarannum etuvchi eng sara qo'shiqlar mamlakat bosh hay'ati hukmiga havola etildi. Tanlovda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan ko'pgina millat vakillari faol qatnashdi. Rus, qozoq, turmkman, uyg'ur, qirg'iz, koreys tillarida ham jonajon Vatanimizni madh etuvchi qo'shiqlar yangradi.

1996-yil 26-avgust – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan “*Noshirlik faoliyati to'g'risida*”, “*Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida*” Qonunlar qabul qilindi.

1996-yil 28-avgust - “*O'zbekiston - Vatanim manim*” deb atalgan bu ko'rik-tanlov Mustaqillik bayramining 5 yilligi arafasida Toshkentda Xalqlar Do'stligi saroyida yakunlandi.

1996-yil 28-avgust – O'zbekistonimiz Prezidenti *I.A.Karimov* Oliy Majlisning sessiyasida: “*Navbatdagi muhim masala respublikaning qonun hujjatlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va standartlarga muvofiq holga keltirishdir*”, - deb ta'kidladilar. Jahonda inson huquqlari sohasi bo'yicha 70 ta standart qabul qilingan. O'zbekiaton bu standartlardan 15 tasiga qo'shilgan.

1996-yil sentabr - Toshkentda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining



inson huquqlari bo'yicha milliy muassasalar Kengash seminari o'z e'tiborini inson huquqlariga qaratdi.

1996-yil sentabr oxiri – *“Ma'naviyat va ma'rifaf”* jamoatchilik markazi qoshidagi *“Oltin meros”* xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida” ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori chiqdi. Uni barcha ziyolilar, ijod ahli zo'r mamnuniyat bilan kutib oldi.

1996-yil 3-sentabr – Vazirlar Mahkamasi *“UzDEO'avto”* qo'shma korxonasi ishlab chiqargan avtomobillarni sotish va ularga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish maqsadida *“UzDEO'avto”* qo'shma korxonasida avtomobillar ishlab chiqarish, sotish va ularga texnik xizmat ko'rsatish masalalari to'g'risida qaror qabul qilindi. Ushbu qarorda *“Mercedes-Benz”* va *“DEO”* kompaniyalarining hamda boshqa yirik avtomobil kompaniyalarining mutaxassislari jalb etgan holda *“UzDEO'avto”* qo'shma korxonasi avtomobillarni ham mamlakat ichida, ham mamlakat tashqarisida sotish bo'yicha marketing tadqiqotlari markazini tashkil etish ko'zda tutildi. Ayni chog'da bu markaz *“DEO”* korporatsiyasi bilan kelishgan holda avtomobil modellarini yangilashga doir tadbirlar ichlab chiqishni kerakligi nazarda tutildi.

1996-yil 4-sentabr – O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning *“Ma'naviyat va ma'rifaf”* markazi xodimlarining bir guruhi bilan uchrashuvi, ular bilan dildan suhbatlashuvi ma'naviy va madaniy hayotda katta voqea bo'ldi.

1996-yil 9-sentabr – O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning *“Ma'naviyat va ma'rifaf jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida”* Farmon qabul qilinganligi ham xalqning ma'naviyatini yanada yuksaltirishga, noyob namunalarni to'plashga, avaylab asrashga, kishilarni o'z vataniga chinakam sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgandir.

1996-yil 11-13-sentabr - O'zbekiston tashabbusi bilan Toshkentda YXHT Demokratik muassasalar va inson huquqlari bo'yicha Byurosi (DIHNB)ning *“Inson huquqlari bo'yicha milliy muassasalar”* mavzusidagi xalqaro seminar kengash bo'lib o'tdi. Unda Markaziy Osiyo, Yevropa, Amerikadagi 21 mamlakat ekspertlarining, 29 ta xalqaro va nohukumat tashkilotlar vakillari ishtirok etdilar. Seminar, kengashda Markaziy va Sharqiy Yevropada Ombudsman instituti, inson huquqlari bo'yicha milliy muassasalar faoliyatini rivojlantirish, qonunchilik tizimini takomillashtirish, xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari sohasidagi roli masalalari ko'rib chiqildi. Bu tadbirlar O'zbekistonning YXHT bilan yaqin va samarali aloqalar o'rnatganligidan dalolat beradi.

1996-yil oktabr – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *“Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazini tuzish to'g'risida”*gi Farmonni e'lon qilindi. Unga binoan inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi tashkil etildi. U Konstitutsiya, qonunlar va inson huquqlari sohasidagi umum e'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlari qoidalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish, xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish ishlari bilan shug'ullanmoqda.

1996-yil oktabr – toliblar Kobulni egalladi. Afg'onistonning sobiq prezidenti *Najibullo* qatl etildi. Toliblar *“xalq dushmani”* yoki o'zgacha fikrlovchi deb



hisoblaganlardan ommaviy o'ch olishni boshladi. Vahhobiylik tamoyillariga muvofiq ayollarga o'qish va ishlash man etildi. Ular ko'chada ochiq yuz bilan yura olmasdi. Dunyoviy maktablar yopildi, faqat diniylariga ishladi, hammaning namozga borishi majburiy qilib qo'yildi. Kobulda zo'ravonlik odatiy tusga kirdi.

1996-yil 18-oktabr – O'zbekiston Prezidenti Shahrizabzga tashrif buyurdi. Qadimiy Oqsaroy hovlisiga ulanib ketgan ulkan maydon bayramona bezatilgan. Vatanimiz madhiyasining tantanavor ohanglari ostida *Islom Karimov* ramziy lentani qirqib, mashhur haykaltarosh *Ilhom Jabborov* yaratgan Sohibqiron Amir Temur haykalini ochdi. Maydonda yig'ilgan jamoat oldida Shahrizabz shahri bayrog'iga "Amir Temur" ordenini qadab qo'ydi va nutq so'zladi.

1996-yil 18-oktabr – Samarqand shahrining markaziga Amir Temur maydoni qurildi. Davlatimiz rahbari ana shu maydonda qad ko'targan Sohibqironning haykalini tantanali ravishda ochdi. Tantanalar paytida Prezidentimiz Samarqand shahriga 1-raqamli "Amir Temur" ordenini topshirdi.

1996-yil 18-oktabr – Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

1996-yil 24-oktabr – Toshkent shahrida xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tadi. Bu konferensiya Amir Temur tavalludiga bag'ishlangan yubiley tadbirlariga yakun yasaydi.

1996-yil noyabr – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Toshkent va O'rta Osiyo arxiepiskopi *Vladimiring* Svyato-Uspenskiy kafedral sobori qoshida diniy-ma'muriy markaz tashkil etish va Yeparxiyaning 125 yilligini nishonlash to'g'risidagi murojaatini qo'llab-quvvatladi va bu haqda alohida qaror qabul qildi. Qarorda Toshkent shahridagi Svyato-Uspenskiy sobori hududini kengaytirish uchun 2 gektar yer, uni obodonlashtirishga byudjet mablag'lari ajratilishi ta'kidlandi.

1996-yil noyabr – Ruminiyada o'tkazilgan saylovlarda kommunistlar o'zlarining barcha lavozimlaridan mahrum bo'lishdi.

1996-yil 13-noyabr - Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markaz o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan Nizomiga ko'ra olib bormoqda.

1996-yil 15-noyabr - Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Konrad Adenauer nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'ldi. Konferensiyada inson huquqlari muammosiga mintaqaviy yondashish va bu ishda parlamentning roli, inson huquqlari, demokratiya va shaxsni himoya etishning tarixiy-siyosiy jihatlari xususida fikrlashib olindi.

1996-yil 26-noyabr – O'zbekiston hukumati qishloq va suv xo'jaligini boshqarishning, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan butunlay yangi tizimini yaratish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida" qaror qabul qildi. Shunga asosan qishloq xo'jaligida hamda suv xo'jaligi vazirliklari birlashtirildi.

1996-yil dekabr – O'zbekiston Respublikasida mustaqil "Hurriyat" gazetasi nashr etila boshladi.



1996-yil dekabr - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarori bilan 1-oktabr - "*O'qituvchilar va murabbiylar kuni*" deb belgilandi hamda bu kun bayram sifatida dam olish kuni deb e'lon qilindi.

1996-yil dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VII sessiyasida "*O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida*"gi Qonun qabul qilindi.

1996-yil dekabr – O'zbekiston Respublikasi parlamenti tomonidan "*Siyosiy partiyalar to'g'risida*" Qonun qabul qilindi.

1996-yil dekabr – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan *Faxriylar Kengashi* "*Nuroniylar jamg'armasiga* aylantirildi. Bo'lib o'tgan ta'sis yig'ilishida *B.Rahimov* Respublika "*Nuroniylar jamg'armasining* raisi qilib saylandi.

1996-yil dekabr - YXHTning Lissabon sammitida XXI asr arafasida yalpi xavfsizlik modelini yaratish xususida munozara bo'ldi. O'zbekistonning mojarolar yuz berib turgan hududlarga yashirincha qurol-yarog' yetkazib berishni to'xtatish, YXHTning Markaziy Osiyo faoliyatini kuchaytirishga oid takliflari ma'qullandi va Lissabon Deklaratsiyasiga kiritildi.

1996-yil 10-dekabr – O'zbekistonda bolali oilalarga ijtimoiy yordam berilishini kuchaytirish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli va mas'uliyatini oshirish maqsadida "*Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida*" yana bir muhim Farmon qabul qilindi.

1996-yil 10-dekabr – yangi parlament Janubiy Afrikaning aparteid hamda u bilan bogliq bo'lgan rasmiy hujjatlarni bekor qilgan va tugatib tashlagan birinchi konstitutsiyasini qabul qildi. Barcha fuqarolar qonun oldida tengligi e'lon qilindi.

1996-yil 20-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi "*Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha Sud amaliyoti haqida*" qaror qabul qildi. Unda sudlarning e'tiborlari tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan ziyon-zahmat yetkazmasdan oqilona foydalanish to'g'risidagi qonunlarga qat'iy amal qilish eng muhim davlat vazifalaridan biri ekanligiga, ularni to'g'ri hal qilish fuqarolarning sog'lig'i va farovonligiga, respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bog'liqligiga qaratildi.

1996-yil 26-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VII sessiyasida 1-o'qishda kiritilgan va ma'qullangan "*Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) to'g'risida*"gi Qonun loyihasi Oliy Majlisining faoliyati Dasturida mo'ljallangan g'oyat muhim hujjatlardan biridir. U respublikada insonning siyosiy, iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va madaniy huquqlari puxta himoya qilinishini ta'minlaydigan institutning qonuniy asosini shakllantirishga xizmat qiladi.

1996-yil 26-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VII sessiyasida O'zbekiston Respublikasining "*Siyosiy partiyalar to'g'risida*"gi Qonuni qabul qilindi. Qonun jamiyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan hamda kelajakda tuzilishi mumkin bo'lgan siyosiy partiyalarning o'rnini belgilab, ularning o'zaro munosabatlari, yangilanayotgan jamiyatda tutgan mavqei, vazifalari va huquqlarini kafolatlaydi.



1996-yil 26-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VII sessiyasida *Jinoyat kodeksi* va *Jinoyat-ijroiya kodekslariga* jiddiy o‘zgartirishlar kiritildi. Islohotlarni boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha ham o‘tkazish uchun ishchi guruhlar tashkil etildi.

1996-yil 26-dekabr - O‘zbekistonimizning harbiy sohasidagi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati faoliyatining asosiy tamoyillari” haqidagi Qonunda mujassamlangan. Qonunda “O‘zbekiston hech qanday harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi va harbiy-siyosiy blokka transformatsiya qilingan vaqtda har qanday xalqaro tashkilotlardan chiqish huquqini o‘z ixtiyorida qoldiradi” deb qonuniy rasmiylashtirilgan. Bu Qonun O‘zbekistonning tinchliksevarlik siyosatini, uning dunyo hamjamiyatida integratsiyaga intilishlarini tasdiqlaydi.

1996-yil 26-dekabr – yirik konglomeratlar xohishiga peshvoz chiqqan Janubiy Koreya parlamenti kompaniyalarga xodimlarni ishdan bo‘shatishni yengillashtiruvchi qonunni qabul qildi. Korxonalarda og‘ir sharoitlarni o‘rnatgan, ishchilarni arzimas sabab bilan bo‘shatishga imkon beruvchi qonunga qarshi yuz minglab ishchilar norozilik bildirdilar. Bunga javoban hokimiyat Koreya tred-unionlar konfederatsiyasini man etdi.

1996-yil 1-yarmi - O‘zbekistonda jami pul massasining o‘sishi 1995-yilning aynan shu davrdagidan 7,6 % hisobida va 1994-yil darajasidan 2 barobar kam bo‘ldi.

1996-yil 1-yarmi – O‘zbekistonda muomalaga naqd pul chiqarish – emissiya ulushi 15 % ni tashkil etdi.

1996-yil 1-yarmi – O‘zbekistonda naqd pul massasining o‘rtacha oylik o‘sish sur‘ati 1995-yil darajasidan 1,3 marta oz bo‘ldi.

1996-yil 1-yarmi – O‘zbekistonda qurilib foydalanishga topshirilgan maktablar uchun 30 mln so‘mlik mebel (stol, stul, javon, parta, taxta)lar joylarga yetkazib berildi, bulardan 21,5 mln so‘mliqi qishloq hududlaridagi yangi maktablarga yuborildi.

1996-yil boshi – HMK yuqori rahbariyatidagi korrupsiya va aynish holatlari ochib tashlandi. 30 ta yirik siyosatchi poraxo‘rlikka ayblanib, jinoiy javobgarlikka tortildi. Hatto bosh vazir ham tergovga tortildi.

1996-yil boshi – O‘zbekistonda amerikalik sarmoyadorlar ishtirokida 200 ta o‘zbek – amerika qo‘shma korxonalar tashkil topdi va faoliyat ko‘rsatdi. Bular orasida Navoiy viloyati Zarafshon vodiysidagi Muruntovda AQShning N‘yumant-Mayning Korporatsiyasi bilan hamkorlikda tog‘ jinslaridan oltin va kumush ajratib oluvchi qo‘shma korxonasi bor. Amerikaning 28 ta kompaniya, firma va banki Toshkentda o‘z vakolatxonalarini ochgan.

1996-yil boshi – O‘zbekistonda Britaniya Kengashi bo‘limi ish boshladi. U hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirish yo‘lidagi yangi qadam bo‘ldi.

1996-yil boshi – qirrol *Faxd* valiahd shahzoda *Abdullaga* hokimiyatni topshirdi. Neftga jahon narxleri pasayishi tufayli uni sotishdan olinadigan daromadlar 40% ga tushib ketdi. Mamlakatda iqtisodiy tushkunlik boshlandi.

1996-yil oxiri – “*UZDEO‘avto*” qo‘shma korxonasida jami 29 ming 835 dona, 11 ming 285 dona “*Damas*”, 5030 dona “*Tiko*” va 13 ming 520 dona “*Neksiya*”



rusumidagi avtomobillarni ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, ulardan 7000 donasini eksport qilindi.

1996-yil oxiri – O'zbekistonda dorixonalar soni 3980 dan oshib ketdi.

1996-yil oxiri – Qoraqalpog'istonda 743 ta umumta'lim maktabi faoliyat ko'rsatdi.

1996-yil oxiri – Qoraqalpog'istonda g'alla maydonlari ekin maydonlarining 35,8 % (bug'doy maydonlari 8,3 %) ga yetdi. Shu davr mobaynida bug'doy yetishtirish 13,6 ming tonna, ya'ni 3 marta kartoshka 6,7 ming tonna yoki 2,3 marta, sabzavot 11,4 ming tonna, uzum yetishtirish 4 martaga ko'paydi. Respublika oziq-ovqat majmuasida shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning hissasi tobora ko'paydi.

1996-yil oxiri – Qoraqalpog'istonda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 11 mlrd so'mni tashkil etdi, 1995-yilga nisbatan 2,2 marta ko'pdir. Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida nodavlat korxonalarining ulushi 90 %ga o'sdi. 144 ta sanoat korxonalari va birlashmalaridan 113 tasi mulkchilikning turli shakllariga o'tib ishlay boshladi.

1996-yil oxiri – Qoraqalpog'istonda ishsizlar soni 4,2 ming kishiga yetdi.

1996-yildan – O'zbekistonda iqtisodiy o'sish boshlandi.

1997-1998-yillar – Indoneziyadagi inqiroz natijasida mamlakat o'nlab yillar orqaga itqitib tashlandi. Ishlab chiqarish darajasi 20 foizga tushib ketdi, 70 foiz korxonalar bankrot bo'ldi va yopildi. Neft eksporti 37 foizga tushib qoldi. 170 million kishilik aholidan 20 millioni ishsiz qoldi, 50 foiz aholi rasmiy kambag'allik darajasidan past hayot kechirmoqda. Har yili mamlakatdan qariyb 20 milliard dollar tashqariga olib chiqib ketilmoqda.

1997-1998-yillar – Shotlandiya va Uelsda viloyatlarida parlamentlarga saylovlar o'tkazildi. Ular ichki ishlar ustidan nazoratni o'z qo'liga oldi va muxtoriyat e'lon qildi. Bu Buyuk Britaniyaning parchalanishiga 1-qadam bo'ldi, leyboristlar hukumati esa uning oldini ololmadi.

1997-2000-yillar - Toshkent-O'sh avtomagistrati yo'lidagi Qamchiq-Rezak dovonlarida 2484 metrli tunnel yo'lini qurish uchun 4,5 ming kishi mehnat qildi va davlatning 27 milliard so'm mablag'i sarf qilindi.

1997-2002-yillar – K. R. Narayananning Hindiston prezidentligi davri.

1997-2002-yillar - O'zbekiston Respublikasi Milliy Markaz tomonidan o'quv-ma'rifiy yo'nalish bo'yicha Inson huquqlari haqida 200 dan ortiq risola nashr etildi.

1997-yil boshi – O'zbekistonda 3 mln. 155 ming xonadon gazlashtirildi.

1997-yil boshi – O'zbekistonda xususiy va kichik korxonalar soni 100 mingdan oshib ketdi.

1997-yil – “O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi” qabul qilindi. O'zbekiston soliq organlari va boshqa qonunlar asosida ish yuritmoqda.

1997-yil - “O'zDEUavto” korxonasida 64883 dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi.

1997-yil – 2 nafar rassom J. Izentayev va J. Quttimuratov O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasining akademikligiga saylandi.

1997-yil – Angliyada saylovlarda konservatorlar mag'lubiyatga uchradi, leyboristlar parlamentdagi 650 o'rindan 419 tasini egalladi.



1997-yil - Belorussiya va Rossiya ittifoqi haqida bitim imzolandi.

1997-yil – *Benazir Bxutto* ozodlikka chiqarildi.

1997-yil - Bishkekda “*Mustaqillik vaziyatida ma’naviyat masalasi*” mavzuida simpozium bo‘lib o‘tdi. Simpoziumda qardosh xalqlar ma’naviyatining yangi sharoitdagi holati va rivojlantirish muammolari haqida qimmatli fikrlar bildirildi.

1997-yil – Bolgariyadagi parlament saylovida o‘ng blok – Demokratik kuchlar birlashmasi g‘olib chiqdi. Uning safiga Demokratik kuchlar ittifoqi ham kirar edi. Bolgariyada sotsializmning siyosiy va iqtisodiy strukturasi qayta o‘zgartirish boshlandi.

1997-yil - Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi bir yilda 2,5 mln tonna gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega bo‘lgan 1-navbati ishga tushdi. Fransiyaning “*Tikni*” firmasi bilan birgalikda qurilgan mazkur korxonaning umumiy yer maydoni 205 gektarni tashkil etdi.

1997-yil - Gonkong yana XRR hududiga kirdi.

1997-yil – Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova davlat rahbarlarining Strasburgda bo‘lib o‘tgan uchrashuvida tuzilgan GUUAM dastlabki kelishuvi G‘arbga qurol-yarog‘ tarqalishining oldini olish bo‘yicha bo‘lgan esa-da, hozirgi kunga kelib uning vazifalari sezilarli darajada kengaydi. Mazkur birlik doirasida hamkorlik qilish bizga ayniqsa kommunikatsiyani rivojlantirish uchun muhim. Transport kommunikatsiyasi masalasi dengiz portlaridan uzoqda joylashgan O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. Shu boisdan O‘zbekiston Buyuk Ipak yo‘li, TRASEKA doirasidagi ishlarda faol ishtirok etayapti.

1997-yil – Indoneziyada moliyaviy o‘pirilish yuz berdiki, bu hol iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy inqirozga olib keldi.

1997-yil – iqtisodiy inqiroz tufayli ishlab chiqarish to‘xtab qoldi, yuzlab fabrika va zavodlar bankrot bo‘ldi. *Xalqaro valyuta fondi* (XVF) Janubiy Koreyani qutqarish bo‘yicha operatsiyani boshlab, uning hukumatiga 47 mlrd dollar kredit berdi. Bu pullar bankrotlashgan banklar aksiyalarini sotib olishga sarflandi. Biroq bu tadbir mavjud ahvolni yaxshilamadi.

1997-yil – *Islom Karimovning “Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi”* (V jild) asari nashrdan chiqdi.

1997-yil – Ispaniyada ishsizlar 22 foizga yetib, amalda har besh kishidan biri ishsiz edi. Bu holat mamlakatda ijtimoiy va siyosiy tanglik chuqurlashuviga sabab bo‘ldi.

1997-yil – *Jak Shirak* kutilmaganda muddatidan oldin parlament saylovlari o‘tkazilishini e‘lon qildi. Uning fikricha, bunday qadam yagona Yevropa valyutasi tizimiga qo‘shilish uchun barcha zarur choralarni ko‘ra oladigan shunday parlamentni saylashga erishish boy berilmas siyosiy harakatdir. *J. Shirak* ayni parlament Fransiyaning barcha ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini hal etadi, uning Yevropa mintaqasida gegemon bo‘lishiga ko‘maklashadi va jahon siyosatiga ko‘rsatadigan ta‘sirini kuchaytiradi, deb hisoblar edi. Biroq *J. Shirak* yengildi.

1997-yil – Kongo Demokratik Respublikasi e‘lon qilindi. Kongodagi fuqarolar



urushi yetti yilga cho'zildi. Afrikadagi barcha qo'shni davlatlar Mobutu rejimiga qarshi kurashda qo'zg'olonchilarga ko'mak bera boshladi.

1997-yil – O'zbekiston iqtisodiyotiga 1,1 mlrd AQSh dollari hajmidagi xorijiy investitsiyalar jalb etildi. Iqtisodiyotning mutlaqo yangi, samarali tizimlarini shakllantiruvchi yirik korxonalar barpo etildi.

1997-yil – O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Afg'onistonga chegaradosh 6 mamlakat va AQSh hamda Rossiya ishtirokida muloqot guruhi tashkil etish tashabbusini ilgari surdi.

1997-yil – O'zbekiston Respublikasi Milliy tiklanish demokratik partiyasiga *I.G'afurov* partiya raisi etib saylandi.

1997-yil - O'zbekiston Respublikasi neft mahsulotlarini boshqa mamlakatlarga eksport qiluvchi davlatlar qatoridan joy oldi.

1997-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "*Ta'lim to'g'risida*"gi qonun qabul qilindi.

1997-yil – O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot va istiqbolni belgilash qo'mitasi Makroiqtisodiyot vazirligiga aylantirildi.

1997-yil - O'zbekiston Respublikasining "*Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida*"gi qonunni qabul qilishi.

1997-yil - O'zbekiston Respublikasining "*Ta'lim to'g'risida*"gi Qonunga binoan oliy ta'lim 2 bosqichda - *bakalavriyat va magistratura* bosqichlaridan iborat.

1997-yil – O'zbekistonda 6,7 mln kvadrat metr uy-joy qurildi. Shundan 5,4 mln kvadrat metr uy-joy qishloqda barpo etildi.

1997-yil – O'zbekistonda avtomobillar eksporti 7,4 marta, kimyoviy shtapel tola eksporti – 6,8 marta, kiyim-kechak eksporti – 68 % ga oshdi.

1997-yil – O'zbekistonda dunyoning 80 mamlakati sarmoyadorlari ishtirokida tuzilgan 3200 dan ortiq qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatdi.

1997-yil – O'zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1990-yildagi boshlang'ich darajadan 12,7 % dan ortdi. Yalpi mahsulot ishlab chiqarish Rossiyada – 48, Ukrainada – 49, Belorussiyada – 71, Qozog'istonda – 49, Qitg'izistonda – 51 % ga tushib qolganini hisobga olsak, O'zbekistondagi yutuqlar ko'zga tashlanadi.

1997-yil – O'zbekistonda savodlilik darajasi 100 foizga yetdi. Ayni paytda respublika hukumati Kadrlar tayyorlash milliy dasturini qabul qildi, bu yosh avlodga yanada yuqori darajadagi ta'lim va tarbiya berish imkonini beradi.

1997-yil – O'zbekistonda ta'minotning barcha manbalari hisobiga 270 mlrd kapital mablag' o'zlashtirildi. Bu ko'rsatkich 1996-yildagiga nisbatan 17 % o'sdi. Investitsiyalarning 63 % dan ortiqrog'i ishlab chiqarish sektorida o'zlashtirildi.

1997-yil – O'zbekistonda tashqi savdo oborti qariyb 9 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi.

1997-yil – O'zbekistonda xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish 11,2 % ko'paydi.

1997-yil - O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot 1,6 %ga ko'paydi.

1997-yil – O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot hajmi o'tgan yildagiga nisbatan 105,2 % ga o'sdi. 1-marta yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmi aholi



o'sish darajasidan oshdi. Bu yalpi ichki mahsulot hajmini aholi jon boshiga 3,2 % ko'paytirish imkonini berdi.

1997-yil – O'zbekistonda yalpi milliy mahsulot 5,2 foizga ko'paydi.

1997-yil – O'zbekistondagi ma'lumotlarga qaraganda, fuqarolarning barcha qishloqlar va ovullarda 1436 ta, shaharlarda – 117 ta, mahallalarda – 5402 ta, qishloq mahallalarida 3305 ta o'zini o'zi boshqarish organi bo'lib, ularning raislari jamoatchilik asosida ish olib bora boshladilar.

1997-yil – O'zbekistonni 1996-yil bilan taqqoslaganda don mahsulotlari, shakar va qand mahsulotlari importi 2 marta, un va un mahsulotlari importi – 5 marta, kiyim-kechak importi – 7 marta, poyabzal mahsulotlari importi – 4 marta qisqardi. Boshqaga aytganda, mazkur mahsulotlarni o'zimizda ishlab chiqarish shuncha marta ko'paydi.

1997-yil – O'zbekistonning o'zi neft mahsulotlari eksport qiluvchi mamlakatga aylandi. Neft va gaz qazib olish hamda ularni qayta ishlash sanoati, rangli metallurgiya sanoatida barpo etilgan qudratli salohiyat makroiqtisodiy barqarorlikka va oxir-oqibatda butun iqtisodiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi, harakatlantiruvchi asos bo'lib xizmat qilmoqda.

1997-yil - Qozog'iston va O'zbekistonda o'tkazilgan harbiy mashqlarda O'zbekiston harbiy qismlarining ishtiroki zabit va askarlarning harbiy-texnik tayyorgarligini yanada ko'tarishga xizmat qildi.

1997-yil – Rossiyada oliy o'quv yurtlari soni 880 tani tashkil etdi.

1997-yil – Rossiyada talabalar soni 3,2 mln.ni tashkil etdi.

1997-yil – Tailandda moliyaviy tanglik yuzaga keldi.

1997-yil – *Toni Bler* Buyuk Britaniyada Bosh vazir lavozimida.

1997-yil - Toshkentda Ozarbayjon elchixonasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Marosimda O'zbekiston Prezidenti *Islom Karimov* va Ozarbayjon Prezidenti *Geydar Aliyev* qatnashdilar.

1997-yil – Transkavkaz yo'lagi bo'yicha O'zbekistonga keltirilgan va olib chiqib ketilgan mahsulot hajmi salkam 285 ming tonnani tashkil etdi.

1997-yil – Turkiya O'zbekistonda 200 ga yaqin qo'shma korxonalar barpo etildi. O'zaro iqtisodiy aloqalar 30 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

1997-yil – *Ugo Chaves* qo'mondonligidagi qo'shin qismlari katta siyosatga qaytishdi va qisqa muddatda ulkan yutuqlarga erishishdi. Ular yaratgan partiya 5-respublika harakati deb nomlandi. Uning dasturiy maqsadi "Bolivarcha respublika"ni tashkil etish edi. Partiya atrofida so'l va so'l markazchi partiyalar ittifoqi – Vatanparvarlik qutbi yuzaga keldi.

1997-yil - Xitoy (Shanxay) bilan Germaniya (Frankfurt)ning o'g'laydigan shisha kabelli Trans-Osiyo-Yevropa magistralining O'zbekiston Respublikasi hududi orqali o'tadigan 926 km masofaga teng bo'lgan qismi qurilib ishga tushirildi. Turkiyaning "*Netash*", "*Teletash*", "*Samko*" firmalari Toshkent shahrida 30 kanalli xalqaro kosmik telefon stansiyasini qurib foydalanishga topshirdilar. Bu tadbirlar natijasida xalqaro telefon so'zlashuvlarining 80 % ini bevosita sun'iy aloqa yo'ldoshlari orqali xorijiy mamlakatlarga uzatish va ulardan qabul qilib olish imkoniyatlari yaratildi.



1997-yil – yaxlit strategik konsepsiya – “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot kafolatlari va barqarorlik shartlari” nomli asar sifatida dunyoga keldi. Xalqaro jamoatchilik e’tirofini qozongan ushbu kitob jahon siyosatida favqulodda yangilik sifatida qabul qilindi va dunyoning bir necha 10 lab mamlakatlarida tarjima qilinib, nashr etildi.

1997-yil – YUNESKO xalqaro tashkilotining Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligini nishonlash to‘g‘risida qabul qilgan qarori ham mintaqa xalqlari madaniy hayotida tarixiy voqea bo‘ldi.

1997-yil – Zair prezidenti *Mobutu* g‘alayonchilar tomonidan hukumatdan chetlashtirildi.

1997-yil yanvar – kasaba uyushmalar chaqirig‘i bilan Seulda 15 ming ishchi ish tashlash e‘lon qildi. Politsiya ularga qarshi ko‘zni yoshlantiruvchi gazni qo‘lladi.

1997-yil 1-yanvar – Qoraqalpog‘istonda 263 ta qishloq xo‘jalik korxonasi faoliyat ko‘rsatdi. Nodavlat sektorining jami ishlab chiqarilgan mahsulotdagi ulushi 98,3 % ni tashkil etdi. Ayrim qishloq xo‘jalik mahsulotlari, paxta yetishtirishda nodavlat korxonalarining xissasi 97,9 % ni, donchilikda – 98,1 % ni, kartoshkachilikda – 99,7 % ni, sabzavotchilikda – 98,8 % ni, polizchilikda – 95,1 % ni, bog‘dorchilikda – 98,5 % ni, pillachilikda – 100 % ni, go‘sht yetishtirishda – 98,9 % ni, sut va tuhum ishlab chiqarishda – 99,4 % ni, qorako‘l teri va jun yetishtirishda – 100 % ni tashkil etdi.

1997-yil 1-yanvar – O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish yig‘inlari orqali yordamga muhtoj, bolali oilalarga bolalarning soniga qarab eng oz ish haqining 50 % idan boshlab 175 % igacha nafaqalar beriladigan bo‘ldi. Bu borada ijtimoiy adolat tamoyillariga og‘ishmay rioya etish, keng oshkorlik va ochiqlikni ta‘minlash, ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishga erishish lozimligi qayd qilindi.

1997-yil 1-yanvar – Qoraqalpog‘istonda soliq idoralari tomonidan 318 ta aksionerlik jamiyatlari ro‘yxatga olindi.

1997-yil 1-yanvar – xususiylashtirishdan tushgan mablag‘larning umumiy hajmi 330 mln so‘mni tashkil etdi. Uning 20 % i Qoraqalpog‘iston ijtimoiy taraqqiyotiga ajratildi, 50 % i esa tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash mahkamasida imtiyozli kreditlar ajratishga sarflandi. Shu bilan birga O‘zbekiston hukumati Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat mulkini xususiylashtirish qo‘mitasi xususiylashtirilgan korxonalar va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 13,8 mln so‘m kredit ajratdi.

1997-yil 9-10-yanvar – Bishkek shahrida O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston Respublikalari davlatlararo Kengashining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Prezidenti *Islom Karimov* ishtirok etdi. Ushbu mamlakatlar rahbarlarining “Ola archa” qarorgohida bo‘lib o‘tgan tor doirasidagi suhbatidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi va Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasida abadiy do‘stlik haqidagi shartnoma hamda davlatlararo Kengashda kuzatuvchi maqomi to‘g‘risidagi qoidalarni, BMT homiyligidagi Markaziy Osiyo tinchlikni ta‘minlash batal‘oni haqidagi qoidalarni tasdiqlash,



Davlatlararo kengash va uning muassasalarida raislik qilish to'g'risidagi qarorlar imzolandi.

1997-yil 9-10-yanvar - Bishkekda o'tkazilgan O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlat boshliqlarining Kengashlarida iqtisodiy integratsiya, sarmoya sarflanishi lozim bo'lgan dasturlarni hayotga joriy etish, uch mamlakat o'rtasida energetika, suv zahiralariidan oqilona foydalanish, oziq-ovqat ta'minoti, kommunikatsiya hamda mineral xomashyo zaxiralarini o'zlashtirish va qayta ishlash sohalari bo'yicha xalqaro konsorsiumlar tuzish bo'yicha tomonlar konsepsiyasi ma'qullandi, uch qardosh davlat o'rtasida adabiy do'stlik haqida shartnoma imzolandi.

1997-yil fevral - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *Islom Karimov* Vazirlar Mahkamasidagi yig'ilishda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalasini ko'tardi. Bu borada Prezident shunday dedi: "*Ta'lim tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish vaqti yetdi, professional bilimlarni egallash imkoniyatlarini kengaytirish, ma'mur-menejerlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish, yangi sharoitlarda, yangi zamonaviy texnologiyalarda ishlashga qobil ishchi va mutaxassislarni tayyorlashni yo'lga qo'yish lozim*".

1997-yil 3-fevral – Pokistonda yangi umumxalq saylovi o'tkazildi. Unda *Navoz Sharif* yetakchiligidagi Pokiston musulmon ligasi g'alaba qozondi va u bosh vazir lavozimiga saylandi.

1997-yil 5-fevral – Prezident *I.Karimov* AQSh davlat kotibini qabul qildi. Uchrashuvda ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish bilan bog'liq masalalar muhokama etildi.

1997-yil 28-fevral – Prezident *Islom Karimov* Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Orol dengizi havzasi muammolari bo'yicha oliy darajadagi uchrashuvda ishtirok etish uchun Almatiga keldi. Besh mamlakat prezidentlari Orol dengizini qutqarish xalqaro jamg'armasi mablag'ini tashkil etish bo'yicha qabul qilingan Davlat rahbarlari Kengashi Qarorining ijrosi, Orol muammosi bilan shug'ullanayotgan mintaqaviy muassasalar maqomi, Orol dengizi havzasi muammolari bo'yicha davlatlararo kengash ijroiya qo'mitasi va jamg'arma boshqaruv kengashi tarkibi hamda Orol bo'yidagi ekologik ahvolni yaxshilashga qaratilgan dasturning bajarilishi bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashdilar. Uchrashuv yakunida tomonlar Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari va xalqaro tashkilotlarning Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish masalalari bo'yicha Almati deklaratsiyasini qabul qildilar. Majlisdagi *Islom Karimov* Orol dengizini qutqarish xalqaro jamg'armasining Prezidenti etib saylandi.

1997-yil mart – Albaniya janubida sotsialistlar rahbarligida qo'zg'olon ko'tarildi. Tez orada u umumxalq miqyosiga yetdi. Qo'shin prezidentni himoya qilishdan voz kechdi, *Berishu* mamlakatdan qochdi. *Fato Nano* va uning izdoshlari qamoqdan ozod etildi va sotsialistlar hokimiyatga keldi.

1997-yil mart – Almatida Markaziy Osiyo respublikalari Kengashi yig'ilishi bo'ldi. Bu yig'ilishda ham *I.A.Karimov* tashabbusi bilan Orolbo'yi xalqlariga ijtimoiy muammolarni yechishda amaliy yordam berish to'g'risida qaror qabul qilindi.



1997-yil 1-mart – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan *Mehnat va Fuqarolik kodekslari* amalga kiritilishi.

1997-yil 28-mart - Moskvada o'tkazgan Kengashlarida integratsiya jarayonlarini tezlashtirish konsepsiyasi, uyushgan jinoyatchilik va boshqa xavfli jinoyatlarga qarshi birgalikda kurash dasturi, MDH doirasida qabul qilingan hujjatlarning bajarilish ahvoli, MDHning istiqbollari, MDH organlari faoliyatini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi.

1997-yil 28-mart – Rossiya Prezidentining Kremldagi vakillik xonasida MDH davlat boshliqlari kengashining yopiq Majlisi – Prezidentlarning xoli uchrashuvi bo'ldi. So'ng Yekaterina zalida kengashning rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi majlisi o'tkazildi. Majlislarda MDH davlat boshliqlari kengashi tomonidan qabul qilingan hujjatlarning amalga bajarilishi, integratsiya jarayonlarini tezlashtirish konsepsiyasi, kollektiv xavfsizlikni ta'minlash, hududiy ziddiyatlarni hal etish hamda Hamdo'stlik istiqboli bilan bog'liq boshqa ko'plab masalalar yuzasidan jiddiy munozara yuritildi.

1997-yil aprel – Mongoliya Xalq xurali sessiyasida barcha savdo bojlari va tariflarini bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilindi. Mongoliya dunyodagi savdo bojlari yo'q yagona mamlakat bo'lib qoldi.

1997-yil aprel - Toshkentda taniqli qozoq adibi *Muxtor Avezov* ijodiga bag'ishlangan "*Muxtor Avezov va o'zbek adabiyoti*" mavzuida ilmiy konferensiya bo'ldi.

1997-yil 24-aprel – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "*Axborot oliy kafolatlari va erkinligi to'g'risida*", "*Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida*" Qonunlar qabul qilindi.

1997-yil 26-aprel – Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakilining maqomi va faoliyat doirasi "*Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida*"gi qonun bilan belgilab berildi. Vakil BMTning inson huquqlari bo'yicha markazi, EXHTning demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi yaqin hamkorlikda faoliyat ko'rsatmoqda.

1997-yil may – Fransiyada bo'lib o'tgan saylovda sotsialistlar kommunistlar bilan birga parlamentda ko'pchilik ovozga ega bo'ldi. Sotsialistlar yetakchisi *Lionel Jaspren* premer-ministr bo'ldi. *Jak Shirak* unga bo'ysunuvchi emas, aksincha muxolifat parlamentga ega bo'ldi.

1997-yil may - Toshkentda "*Mustaqillik - baxtimiz, toleimiz, kamolimiz*" mavzuida mushoira, "*Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari xalqlari she'riyatining bugungi va ertasi*" mavzuida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

1997-yil 6-may - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "*Shahar yo'lovchi transporti to'g'risida*"gi qonuni qabul qilindi.

1997-yil iyul – Hindistonda muhim voqea yuz berdi. *K.R.Narayanan* mamlakat prezidenti etib saylandi. U Hindistondagi eng quyi shudra mazhabi vakili bo'lib shu paytgacha birorta yuqori davlat lavozimida ishlamagan. Bu hol mamlakatda mazhablar o'rtasidagi munosabatlarning ijobiy yo'lga qo'yilishiga umid bildirar edi.

1997-yil iyul – Myanma ASEAN a'zoligiga qabul qilindi. Ammo yangi hokimiyat



mamlakat iqtisodiy yuksalishi, erkinlik va tinchligini ta'minlay olmadi. Harbiylar rejimiga qarshi partizanlar urushi davom etdi.

1997-yil iyul – Toliblilar o'z raqiblarning tarqoqligi va tushkunligidan foydalandi. ular ikki yo'nalishda – Hirotdan Mozori Sharif, Kobuldan Bog'lon va Toluqon tomon hujum boshladi. **Do'stunning** xalq ko'ngillilaridan bir qismi sotqinlik qilib, toliblar tomoniga o'tdi. Toliblarning diniy targ'iboti ham muhim rol o'ynadi. *Ahmad Shoh Ma'sud* o'z qo'shinini hal qiluvchi jangdan olib chiqdi. Afg'onistonda biron-bir taraf g'alabaga erisha olmaydigan vaziyat yuzaga keldi. Millionlab kishilar mamlakatdan tashqariga qochib ketdi, qolganlari esa tirikchilik uchun kurash olib bordi.

1997-yil 17-iyul – Nukusda Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesining navbatdan tashqari sessiyasi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyati faoliyatlarida davom etib kelayotgan kamchiliklarni chuqur tahlil qildi. Qabul qilingan qonun va qarorlarni hayotga to'la tadbiiq qilishda, ijroiya intizomini qaror toptirishda hali jiddiy kamchiliklar borligi qayd qilindi. Mazkur sessiyada nutq so'zlar ekan Prezident *I.Karimov* "*Har bir boshqaruv tizimi, har bir rahbar organ, avvalo o'z tasarrufida belgilangan, topshirilgan ishlar bilan shug'ullanishini ta'minlash zarur*", - deb qayd qildi.

1997-yil avgust - "*Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi*" qabul qilindi.

1997-yil avgust – Eronda yangi prezident say'ovlari bo'lib o'tdi. 54 yoshli ruhoniyyo'l boshchisi *Muhammad Hotamiy* g'alaba qozondi, u shia ruhoniyyatining yangi avlodi vakili sifatida maydonga chiqdi.

1997-yil avgust - Oliy Majlisning birinchi chaqiriq 9-sessiyasida "*O'zbekiston Respublikasining Milliy xafvsizlik konsepsiya to'g'risida*"gi Qonuni qabul qilindi.

1997-yil 29-avgust - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *Islom Karimov*ning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan yangi "*Ta'lim to'g'risida*"gi Qonun hamda "*Kadrlar tayyorlash milliy dasturi*" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyasida qabul qilindi.

1997-yil sentabr - O'zbekistonda har yili 1-sinf o'quvchilariga bepul o'quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi. Kam ta'minlangan oilalarning boshlang'ich sinflarda o'qiydigan bolalariga bepul qishki issiq kiyimlar berish yo'lga qo'yildi.

1997-yil 15-16-sentabr - Toshkentda "*Markaziy Osiyo - yadro qurolidan xoli zona*" mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Uning ishida 56 davlat va 16 xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etdi.

1997-yil oktabr - Assambleya Almatida "*Muxtor Avezov va jahon adabiyoti*" mavzuida uning 100 yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'tkazdi.

1997-yil oktabr - Assambleya tashabbusi bilan 8 sahifalik "*Markaziy Osiyo madaniyat*" nomli haftalik gazeta o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik va rus tillarida chiqarilmoqda. Bu tadbirlar mintaqa xalqlari o'rtasidagi azaliy do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash va chuqurlashtirishga ko'maklashmoqda.

1997-yil oktabr - Toshkentda "*Teatr: Sharq va G'arb*" xalqaro festivali o'tkazildi. Festivalda dunyoning ko'pgina mamlakatlaridan kelgan teatr san'atkorlari bilan



birga Markaziy Osiyo davlatlari teatrlari ham o'z asarlarini mahorat bilan namoyish etdilar. Ushbu festivalda Gonkongning "Rezolyu" teatri jamoasining "Osmono'par binodagi ikki odobli xizmatkor" spektakli, Germaniyaning Dortmund opera va balet teatri jamoasining "Donnitorn xonimning esdan og'ish" operasi, Turkmaniston Respublikasi A.Qulahmedov nomidagi teatr jamoasining "Payg'ambar nolas" kabi spektakllari tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

1997-yil 16-oktabr – Nyu-Yorkda "6 + 2" guruhining 1-uchrashuvi bo'lib o'tdi.

1997-yil 23-oktabr - Kishinevda o'tkazgan Kengashlarida integratsiya jarayonlarini tezlashtirish konsepsiyasi, uyushgan jinoyatchilik va boshqa xavfli jinoyatlarga qarshi birgalikda kurash dasturi, MDH doirasida qabul qilingan hujjatlarning bajarilish ahvoli, MDHning istiqbollari, MDH organlari faoliyatini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi.

1997-yil 7-noyabr - "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi.

1997-yil dekabr – Koreyada bo'lib o'tgan Prezidentlik saylovlarida *Kim De Chjun* g'alaba qozondi. Uning g'alabasi kutilmagan hol bo'ldi, chunki u o'zgacha fikrli kishi hisoblanib, uzoq vaqt hokimiyat ta'qibiga uchragandi. U mamlakatni birlashtirishning oshkor tarafdori bo'lib keldi.

1997-yil 12-dekabr - Qozog'iston Respublikasining yangi poytaxti Ostana (Oqmola) shahrida o'tkazilgan O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlat boshliqlarining Kengashlarida iqtisodiy integratsiya, sarmoya sarflanishi lozim bo'lgan dasturlarni hayotga joriy etish, uch mamlakat o'rtasida energetika, suv zahiralardan oqilona foydalanish, oziq-ovqat ta'minoti, kommunikatsiya hamda mineral xomashyo zaxiralarini o'zlashtirish va qayta ishlash sohalari bo'yicha xalqaro konsorsiumlar tuzish bo'yicha tomonlar konsepsiyasi ma'qullandi, uch qardosh davlat o'rtasida adabiy do'stlik haqida shartnoma imzolandi.

1997-yil 26-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Bu qonunlar O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalarining demokratik jamiyatga xos huquqiy asoslarini belgilab berdi.

1997-yilgacha – *Pinochet* boshchiligidagi generallar diktaturasi saqlanib qoldi. Harbiylar o'zlarini Konstitutsiyaning kafolati deb e'lon qilishdi. Mamlakatda siyosiy hokimiyatni nazorat etuvchi Milliy xavfsizlik kengashini tuzishdi. *Pinochet* bu davr mobaynida qo'shinga boshchilik qildi va mamlakat diktatori bo'lib qoldi. U daxlsizlik huquqiga ega bo'lgan umrbod senatorlikka tayinlangandan so'nggina bu vazifalardan ketdi.

1998-1999-yillar – *B. Habibiy*ning Indoneziya prezidenti sifatidagi faoliyati.

1998-2002-yillar - Qoraqalpog'iston Respublikasida 3 ta akademik litsey va 33 ta kasb-hunar kollejlari qurilib foydalanishga topshirildi.

1998-2003-yillar - O'zbekistonda 39 ta soha va yo'nalish bo'yicha tashkil etilgan malaka oshirish markazlarida 41 mingdan ziyod pedagog malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslaridan o'tdilar.

1998-2003-yillar - O'zbekistonda zamonaviy o'quv va ishlab chiqarish uskunalari bilan jihozlangan 36 ming o'quvchi o'rniga mo'ljallangan 57 ta akademik litsey



va 368 ming o'quvchi o'rniga mo'ljallangan 539 ta kasb-hunar kolleji ishga tushirildi.

1998-yil - Ahmad al-Farg'oniyni 1200 yilligi sharafiga Alisher Navoiy nomidagi katta opera va balet teatrida *M. Vafoyevning "Al-Farg'oniy"* asari sahnalashtirildi.

1998-yil – Angliyaga davolanishga kelgan *Pinochet* uni diktatura davrida bir necha yuz ispaning o'limida ayblagan ispan prokuraturasi talabi bilan qamoqqa olindi va 16 oy mobaynida uy qamog'ida saqlandi.

1998-yil – AQShdan O'zbekistonga 242.9 mln dollarlik mahsulot import qilindi.

1998-yil – bundestag saylovlarida Gelmut Kol partiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Federal kanslerlikka GSDP yetakchisi *Gerxardt Shryoder* saylandi.

1998-yil – Chexiya NATOga a'zo bo'lib kirdi.

1998-yil - ilk bor sun'iy yo'l bilan yaratilgan hayvon paydo bo'ldi.

1998-yil – imzolangan GUAM loyihasi (Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova) transport hamkorligi integratsiyaviy jarayonlarini amalga oshirishdagi yorqin misoldir. O'rta Osiyo respublikalarini Gruziyaning Qora dengiz portlariga, ular orqali esa jahon bozoriga chiqishiga imkon beruvchi TRASEKA loyihasi o'zlashtirish bosqichida turibdi. Hozirgi paytda MDH mamlakatlari oldida uch muammo – suverenitetni mustahkamlash, davlatlar o'rtasida mintaqaviy integratsiya asosida mustahkam iqtisodiy aloqalarni barpo etish va o'z rivojlanish yo'llarini shakllantirish turibdi.

1998-yil – *Islom Karimov "Amur Temur"* ordeni nishondori sohibi bo'ldi.

1998-yil – *Islom Karimovning "Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida"* (VI jild) nomli asari nashrdan chiqdi.

1998-yil – Isroil samolyotsozlik zavodi – "Isroil eyrkraft industriz LTD" korporatsiyasi zavodining elektronika sohasidagi faoliyati savdosi 2 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi.

1998-yil – *M.Kabila* boshchiligidagi qo'zg'olonchilar qo'shinlari Kongo poytaxti Kinshasaga kirib bordi. *Mobutu* mamlakatdan qochib ketdi.

1998-yil – O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi esa 117 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Bu 1997-yildagiga nisbatan 27 % ko'p.

1998-yil – O'zbekiston mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirishdan 8,8 mlrd so'm tushdi.

1998-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "*Aholining bandligi to'g'risida*"gi qonun qabul qilindi.

1998-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "*Dehqon xo'jaligi to'g'risida*", "*Fermer xo'jaligi to'g'risida*"gi qonunlar qabul qilinishi.

1998-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "*Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida*"gi qonunni qabul qilinishi.

1998-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "*Xo'jalik jamoalari va shirkatlari to'g'risida*", "*Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida*", "*Dehqon xo'jaligi to'g'risida*" qonunlar qabul qildi.

1998-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "*Yer kodeksi*" qabul qilinishi.

1998-yil – O'zbekiston Respublikasi prezidenti *Islom Karimov* taklifi bilan



Toshkentda "6+2" formulasi bo'yicha (Eron, Pokiston, Turkmaniston, O'zbekiston, Xitoy, Tojikiston, Rossiya va AQSh) uchrashuv o'tkazildi, unda Afg'onistonning qarama-qarshi turgan kuchlari vakillari ishtirok etdi. Uchrashuvda mamlakatga qurol-yarog' olib kirishni to'xtatish g'oyasi ma'qullandi.

1998-yil – O'zbekiston Yevropa mamlakatlariga 537,4 mln. dollarlik mahsulot eksport qilindi, 335 mln. dollarlik mahsulot import qilindi.

1998-yil - O'zbekistonda 27 mingdan ko'proq yolg'iz qariya bo'lgan. Ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatadigan xodimlar birlashtirib qo'yilgan, ijtimoiy-maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatilmoqda.

1998-yil – O'zbekistonda 4 mingga yaqin fuqarolar Makkai munavvara va Madinai mukarramaga safar qildilar.

1998-yil - O'zbekistonda birinchi marta xalqaro simfonik musiqa festivali o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi bastakorlar uyushmasi o'tkazgan mazkur festivalda yigirmaga yaqin mamlakatdan ijrochilar ishtirok etdilar. Ular O'zbekistonda jahon musiqa san'ati klassik namunalari bilan o'zbek milliy musiqa san'atining uyg'unlashgan yangi maktabi yaratilganligiga guvoh bo'lishdi. Ushbu festival har ikki yilda o'tkazilmoqda. *Mutal Burxonov, Ikrom Akbarov, Sayfi Jalil, Sobir Boboyev, Boris Giyenko, Rustam Abdullayev, Mustafu Bafoyev* singari bastakorlarning ijodiga yuksak baho berdilar.

1998-yil - O'zbekistonda tashqi savdo aylanmasi 9 mlrd. dollarga yetdi.

1998-yil - O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot 5,2 %ga ko'paydi.

1998-yil – O'zbekistonda yalpi milliy mahsulot 4,4 foizga ko'paydi.

1998-yil – O'zbekistondagi jami korxonalarining 88,2 % dan ortig'i davlatga tegishli bo'lmagan korxonalar edi.

1998-yil – O'zbekistondan AQShga 63.6 mln. dollarlik mahsulot eksport qilindi.

1998-yil – O'zbekistondan horijiy investorlarga davlat mulkining obyektlari sotildi. Sotib olingan korxonalar va aksiyalar uchun xorijiy investorlar to'lagan to'lov qariyb 2,13 mln. AQSh dollari tashkil etdi.

1998-yil – Qoraqalpog'istonda ishchi xizmatchilarning oylik maoshi 1,5 barobar oshdi.

1998-yil – Tailanda sanoatda iqtisodiy o'sish 15 foizni tashkil etdi.

1998-yil – *Uilyam Klintonning* ijtimoiy siyosatiga zarar yetkazuvchi va avtomobil, yo'l, neft va aviatsiya kompaniyalariga ulkan subsidiyalar ajratuvchi bir qator qonunlar qabul qildi.

1998-yil – Venesueladagi parlament saylovlarida Vatanparvarlik qutbi g'alaba qozondi.

1998-yil – Vengriya NATOga a'zo bo'lib kirdi.

1998-yil – Yevropa siyosiy ittifoqini yaratish sohasida muvaffaqiyatlarga erishildi. NATOning Serbiyaga qarshi harbiy operatsiyasi Yevropa davlatlarining birgalikdagi siyosatini ishlab chiqish jarayonini tezlashtirdi.

1998-yil 5-6-yanvar - Ashgabadida Turkmaniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida munosabatlarning hozirgi ahvoli va



istiqbollari, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotning eng muhim yo'nalishlari bo'yicha hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish masalalari muhokama qilindi. Uchrashuv chog'ida neft va gaz uzatish, transport hamda kommunikatsiyalar tarmoqlarini rivojlantirish masalalari ham qarab chiqildi. Xalqaro va mintaqaviy siyosatning tomonlarni qiziqtiruvchi jihatlari bo'yicha fikr-mulohazalar bildirildi. Besh davlat boshliqlarining Qo'shma bayonoti imzolandi. Tomonlar mazkur Bayonot orqali o'z siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash yo'lini qat'iyat bilan davom ettirajagini bildirdilar. Beshala davlatning milliy manfaatlariga, mintaqadagi xavfsizlik va barqarorlikka mos keladigan do'stona, teng huquqli va o'zaro foydali munosabatlarni chuqurlashtirishga sodiq ekanligi tasdiqlandi. Tomonlar mintaqadagi integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risidagi Shartnomaning muhimligini ta'kidladilar. Tojikiston Prezidenti *I.Rahmonov* mazkur yagona iqtisodiy hududga Tojikiston ham qo'shilishini bildirdi.

1998-yil 6-yanvar - Toshkentda O'zbekiston, Ozarbayjon va Gruziya hukumat delegatsiyalari o'rtasida muzokaralar bo'lib o'tdi. Unda Trans-Kavkaz yo'li orqali yuk tashish hajmini yanada oshirish, o'zaro hisob-kitoblarni tartibga solish, Trans-Kavkaz yo'li infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.

1998-yil mart – Yevroparlamentning Markaziy Osiyo mamlakatlari va Mo'g'uliston bilan aloqalar guruhi rahbari *F.Kamison Asensio* bilan Oliy Majlis Raisi *Erkin Xalilov*ning Bryussel shahridagi rasmiy uchrashuvi parlamentlararo aloqalarning 3-bosqichiga asos soldi. Mazkur uchrashuvda, asosan, sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimni ratifikatsiya qilish jarayonini tezlashtirish masalalari muhokama qilindi. Bir necha muzokaralardan so'ng Oliy Majlis va Yevroparlament mazkur bitimni ma'qulladilar.

1998-yil 19-mart – Hindiston parlament saylovlarida Bxarati Janata partiyasi g'alaba qozonib, uning yetakchisi *Atal Bexari Vajpai* bosh vazir etib saylandi.

1998-yil 26-mart - Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasidagi davlatlararo Kengash majlisi bo'lib o'tdi. Unda Tojikiston Prezidenti *I.Rahmonov* ham ishtirok etdi. Kengashda yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risidagi shartnoma doirasida olib borilayotgan hamkorlik, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.

1998-yil aprel – O'zbekiston Oliy Majlisi bo'lib o'tgan sessiyasida “*Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida*”gi Qonunni yangi tahrirda qabul qildi. Bu qonun zamon talablariga mos bo'lib, fuqarolarning dinga moneliksiz talablariga mos bo'lib, fuqarolarning dinga moneliksiz e'tiqod qilish, diniy urf-odatlarini ijro etish huquqini kafolatlaydi, fuqarolarning huquqlari himoyalalanishini ta'minlaydi, diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solib turadi, salbiy xolatlarga mustahkam to'siq yaratish imkonini beradi.

1998-yil 1-aprel – O'zbekistonda aksariyat korxonalar xususiy lashtirildi.

1998-yil 28-aprel – O'zbekiston Respublikasi parlamenti tomonidan “*Bijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida*” Qonun qabul qilindi.



1998-yil 29-aprel - Moskvada o'tkazgan Kengashlarida integratsiya jarayonlarini tezlashtirish konsepsiyasi, uyushgan jinoyatchilik va boshqa xavfli jinoyatlarga qarshi birgalikda kurash dasturi, MDH doirasida qabul qilingan hujjatlarning bajarilish ahvoli, MDHning istiqbollari, MDH organlari faoliyatini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi.

1998-yil may - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Garov to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

1998-yil iyun – Indoneziyadagi talabalar namoyishidan boshlangan norozilik to'liqini prezident *Suxartoni* iste'foga olib keldi. Biroq bu iste'fo mamlakatda hech narsani o'zgartirmadi. Davlat apparatida korrupsiya gullab-yashnadi, qo'shin o'z zo'ravonligini saqlab qoldi, siyosiy barqarorlik yo'q edi, inflyatsiya va narxlar jadal oshib bordi.

1998-yil 30-iyun – O'zbekistonda Tojikiston Respublikasining Kunlari bo'lib o'tdi. Marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutq so'zladi.

1998-yil iyul – O'zbekistonda ish haqining eng oz miqdori 1100 so'm bo'lsa, qarilik pensiyasining eng kam miqdori 2100 so'mni tashkil etdi.

1998-yil avgust – tutsi qabilasi qo'zg'olonchilari Ruanda va Uganda qo'shinlari yordamida *L.Kabilaga* qarshi harbiy yurishlarni boshladi. Unga yordamga kelgan Angola, Namibiya va Zimbabve qo'shinlari qo'zg'olonchitami tor-mor etishdi.

1998-yil 25-avgust – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "O'zbekiston *iftixori*" faxriy unvoni ta'sis etildi.

1998-yil 26-avgust – AQSh Afg'onistonga qilgan murojatida *Usoma bin Lodenni* tutib berishni talab qildi. Toliblar rahbariyatining bundan bosh tortishi Kobulga Amerika qanotli raketalari hujumiga olib keldi.

1998-yil sentabr – UNITA 1997-yilda imzolangan o't ochishni to'xtatish haqidagi navbatdagi bitimni buzdi va qurolli kuchlarni tarqatishdan bosh tortdi. Angola yana fuqarolik urushga tortildi. Bunda 4 million kishi (aholining uchdan biri) talofat ko'rdi, 2 million kishi mamlakatdan qochdi.

1998-yil 8-sentabr – O'zbekiston Prezidenti I.Karimov Ozarbayjon poytaxtida ish boshlagan Buyuk Ipak yo'lini tiklashga bag'ishlangan Xalqaro konferensiyada ishtirok etdi. TRASEKA dasturi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga nafaqat unga ishtirokchi mamlakatlar, balki jahondagi boshqa davlatlar ham katta qiziqish bilan qaramoqda. Mazkur anjumanda jahonning 32 mamlakati hamda BMTi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki kabi 10 dan oshiq nufuzli xalqaro tashkilotlardan vakillar ishtirok etdi.

1998-yil 27-sentabr - *Gerxard Shryodeming* Gennaniya kansleri etib saylanishi.

1998-yil oktabr – Hindiston saylovlarida *Vajpai* rahbarligidagi siyosiy alyans g'alaba qozondi va BJPning yetakchi partiya sifatidagi ahamiyatini mustahkamladi. Hukumat tepasiga millatchilar kuchlarining kelishi Pokiston bilan aloqalarni qaytadan ziddiyatga olib keldi.

1998-yil 11-12-oktabr – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *I.A.Karimovning* taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti *B.N.Yelsin* davlat tashrfi bilan O'zbekistonda bo'ldi.

1998-yil 19-oktabr – Parijda YUNESKO Iroiya Kengashining 155-sessiyasi



ochildi. Uning asosiy mavzusi “*Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 50 yilligi, eslamog burchi va hushyorlik zaruriyati – qullikdan inson qard-qimmatining tiklanishi sari*”, deb belgilangan edi. Sessiyada YUNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan qabul qilingan YUNESKO faoliyat dasturlarining bajarilishiga oid hisobot ma’ruzasi va turli tashkiliy masalalardan tashqari, dunyoviy madaniyat ravnaqiga bag’ishlangan 3 ta hujjat qabul qilinishi mo’ljallangan edi. 1-hujjat BMT uchun mo’ljallangan dunyoviy madaniyat haqidagi jamlanma ma’ruza, 2-si – “*Dunyoviy madaniyat yo’lida*” deb nomlangan sohalararo loyihaning baholanishi haqida edi va ular Parijdagi yig’ilishda qabul qilindi. 3-hujjat esa O’zbekiston tomonidan taklif qilingan “*Dunyoviy madaniyat va YUNESKOning a’zo mamlakatlaridagi faoliyati*” deb nomlangan qaror loyihasi bo’ldi. O’zbekiston hukumatining taklifiga binoan Ijroiya Kengash qarorlari ro’yxatga kiritilgan bu hujjat loyihasi 155-sessiyaning Toshkentda bo’lib o’tadigan yakuniy yig’ilishida qabul qilinishi mo’ljallangan edi.

1998-yil 24-oktabr – O’zbekiston Respublikasi hukumatining maxsus qarori bilan Farg’onada *Ahmad al-Farg’oniy* tavalludining 1200 yilligi keng nishonlandi.

1998-yil noyabr – Indoneziyada Xalq maslahat kongressining navbatdan tashqari sessiyasi bo’tib, unda Indoneziyaning (uchinchi) prezidenti etib *Baxarutdin Habibi*y - ilgariyi tuzum merosxo’ri saylandi. Mamlakatda namoyishlar boshlandi. Namoyishchilar tezroq umumiy saylovlar o’tkazilishi, *Suxarto* faoliyatini tekshirish, qo’shinni mamlakat siyosiy hayotidan bartaraf etishni talab qiladi.

1998-yil 6-noyabr – Toshkentdagi “Interkontinental” mehmonxonasining Amir Temur zalida YUNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakuniy yig’ilishi bo’lib o’tdi.

1998-yil 10-noyabr – O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan tasdiqlangan 2006-yilgacha Sog’liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi qabul qilindi.

1998-yil 17-18-dekabr - Moldova Respublikasining Prezidenti *Petru Lujinski* rasmiy tashrifi bilan O’zbekistonda bo’ldi. Prezident *Islom Karimov* va Moldova Prezidenti *Petru Lujinski* ishtirokidagi ikki davlat hukumat delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari jarayonida prezidentlar har tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish to’g’risida Delegatsiya imzoladilar.

1998-yil 24-dekabr – O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIII sessiyasida “*Investitsion faoliyat to’g’risida*” qonun qabul qilindi.

1998-yil 28-dekabr – Fidokorlar milliy demokratik partiyasi bo’lib o’tgan 1-ta’sis Qurultoyida tuzilgan. Ushbu Qurultoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilingan.

1998-yil o’rtasi – Indoneziyada tashqi qarzlar 138 milliard dollarni tashkil etdi. Indoneziyada globallashuv jarayonining ma’lum va mashhur mexanizmlaridan biri ishladi: avvaliga iqtisodiyotni yuksaltirish, soxta gullab-yashnashni yuzaga keltirish, so’ngira mamlakatni vayron qilish va asoratga tushiradigan hamda undan ham battar vayron qiladigan kreditlar berish. Kreditlar berish mamlakatga eng kuchli ta’sir etish vositasiga aylandi, toki u iqtisodiyotda tuzilmaviy o’zgarishlar o’tkazsin va unga xorijiy kapitallar kirib kelishi yengillashsin.

1998-yil oxiri – Xalqaro valyuta fondi Indoneziyaga 43 milliard dollar kredit ajratdi.



Buning evaziga mamlakat hukumati fond talab qilgan bir qator chora-tadbirlarni o'tkazdi, ya'ni banklar soni qisqardi, bir qator davlat korxonalari xususiylashtirildi.

1998-yildan – *Atal Bexari Vajpaining* Hindiston bosh vazirligi davri.

1999-2000-o'quv yili - O'zbekiston jahon tillari universitetida Xalqaro jurnalistika fakultetining tashkil etildi.

1999-2000-yillar – A. Vohidning Indoneziya prezidenti sifatidagi faoliyati.

1999-2000-yillar - MDH mamlakatlarining konstruktiv va amaliy hamkorlik o'rnatishga intilishlari.

1999-2002-yillar - AQShning yirik shaharlari Nyu-York, Boston, San-Fransisko, Vashington, Chikagoda taniqli amerikalik olim va san'at homiysi Gaido Goldmanning shaxsiy kolleksiyasiga mansub o'zbek shoyi matolari ko'rgazmasi zo'r tantana bilan o'tdi. AQShda *Loren Grey Xonim* rahbarligi ostida o'zbek raqsi ixlosmandlari jamiyati faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbek raqs san'ati va musiqasini targ'ib etishda Nyu-Yorkdagi "Maqom" ansamblining xizmati ham katta bo'lmoqda.

1999-yil – AQSh tomonidan Yugoslaviyaning bombardimon qilindi. Bu shundan guvohlik beradiki, AQSh jahon muammolarini o'z manfaatlariga muvofiq holda mustaqil hal etishga kirishdi. Butun g'arb olami AQSh atrofida birlashdiki, bu hol unga jahon siyosatida yanada ishonch bilan qadam tashlashiga imkon yaratdi.

1999-yil – Bolgariya NATONing Yugoslaviyaga qarshi harbiy harakatini qo'llab-quvvatladi. Bolgariya hukumati NATOga kirishga tayyor ekanligini bildirdi.

1999-yil – *Husni Muborakka* suiqasd amalga oshirildi.

1999-yil – Indoneziyada Inflyatsiya 20 foizni tashkil etdi, iqtisodiyotning o'sishi nolga teng bo'ldi. Mamlakatda qimmatchilik kuchaydi, ijtimoiy va siyosiy manzaralarni yuzaga keltirdi. Davlat parchalanishi jarayonining boshlanishi: Sharqiy Timor, Achexa

1999-yil – *Islom Karimovning "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz"* (VII jild) nomli asari nashrdan chiqdi.

1999-yil – *Islom Karimovning "Hushyorlikka da'vat"* nomli asari nashrdan chiqdi.

1999-yil – *Islom Karimovning "Iroda va iymon – e'tiqodimiz sinovi"* nomli asari nashrdan chiqdi.

1999-yil – *Islom Karimovning "Vatan ozodligi – oliy saodat"* nomli asari nashrdan chiqdi.

1999-yil – O'zbekiston mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirishdan 9,1 mlrd so'm tushdi. Davlat tasarrufidan chiqarishdan olingan 350 mln. so'm mablag' korxonalarni texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirishga yo'naltirildi. Horijiy investorlarga davlat mulkining 67 obyektini sotildi. Sotib olingan korxonalar va aksiyalar uchun xorijiy investorlar to'lagan to'lov qariyb 16 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

1999-yil – O'zbekiston qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining barqaror ishlashini ta'minlash davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xisob-kitob jamg'armasi tomonidan hosil uchun 162,5 mlrd. so'm ajratildi.

1999-yil – O'zbekiston qishloq xo'jaligi korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyati natijalari yaxshilanishi kuzatilmoqda: xo'jaliklarning qariyb 90 % i yilni % da



bilan yakunlamoqda, zarar ko'rib ishlagan xo'jaliklar soni 1998-yildagiga qaraganda 54,5 taga kamaydi.

1999-yil – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida “*Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risida*”, “*Lizing to'g'risida*”, “*Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida*” O'zbekiston Respublikasi Qonunlarini qabul qildi. Bular iqtisodiy islohotlarni qonun bilan kafolatlash imkonini bermoqda.

1999-yil - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “*Ozbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida boshqarishni takomillashtirish to'g'risida*”gi qarorining qabul qilinishi.

1999-yil – O'zbekiston Respublikasida muqobilik asosida respublika prezidentligiga saylovlar bo'lib o'tdi hamda unda *Islom Karimov* g'alaba qozondi.

1999-yil - O'zbekiston Respublikasining “*Odamning immunitet tanqisligi virusi to'g'risida*”gi qonunni qabul qilishi.

1999-yil – O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni Konstitutsiyasi asosida ko'ppartiyaviylik asosida Oliy Majlisga saylovlar o'tkazildi.

1999-yil – O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash hududiy dasturlariga muvofiq 385 mingdan ortiq ish o'rinlari, qishloq joylarda 276,8 ming ish o'rinlari tashkil etildi. Iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlayotganlar ulushi 74,8 % ni tashkil etdi. Aholi jon boshida hisoblaganda uning ixtiyoridagi o'rtacha oylik pul daromadlari, ish haqi 1,6 baravar, real daromadlar – 23,4 % ko'paydi.

1999-yil – O'zbekistonda amalga oshirilgan pul-kredit va byudjet-soliq siyosati chora-tadbirlari davlat byudjeti taqchilligining belgilangan miqdorini, inflyatsiyaning nazorat qilinadigan darajasini, to'lov balansi barqarorligini ta'minladi.

1999-yil – O'zbekistonda asosiy e'tibor makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirishga va isloh qilishga, faol investitsiya siyosati hisobiga iqtisodiyotdagi tarkibiy qayta qurishni davom ettirishga qaratildi.

1999-yil - O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik davlatning mohiyatini *Islom Karimovning “O'zbekiston XXI asrga intilmoqda”* va boshqa asarlarida nazariy-ilmii jihatdan asoslab berilgan.

1999-yil – O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotning asosiy o'sishini yangidan ishga tushirilgan obyektlar ta'minladi. Xorijiy investitsiyalar hajmi 1,5 baravardan ortiq o'sdi.

1999-yil – O'zbekistonda moddiy yordam tariqasida 517 ming kam ta'minlangan oilaga 3,1 mlrd. so'mdan ko'p pul berildi. Yordamning o'rtacha miqdori ham bir oila hisobiga 2716 so'mni tashkil etdi. 16 yoshgacha bo'lgan bolalari bor oilalarga 24,2 mlrd. so'mlik nafaqalar berildi. Nafaqa miqdori 1998-yilga nisbatan 1,6 baravar ko'paydi.

1999-yil – O'zbekistonda qayta moliyalashning o'rtacha oylik stavkasi 3 % darajasida qoldi. Bank tizimining jami aktivlari 48 % o'sdi.

1999-yil - O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot 4,4 %ga ko'paydi.

1999-yil – O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotda kichik va o'rta korxonalar ulushi 12,6 % ni, kichik va o'rta biznes ulushi esa (yakka tartibdagi tadbirkorlikni hisobga



olgan holda) 29,1 % ni tashkil etdi. Kichik va o'rta biznes korxonalari tomonidan 341,6 mlrd so'mlik mahsulotlar sotildi va xizmatlar ko'rsatildi.

1999-yil – O'zbekistonda yalpi milliy mahsulot 4,5 foizga ko'paydi.

1999-yil – O'zbekistondagi 898 ta qishloq xo'jaligi korxonasi shirkat xo'jaliklariga aylantirildi, ularning umumiy soni respublika bo'yicha 963 taga yetdi. Ushbu xo'jaliklardagi mulkiy paylarning umumiy summasi 11,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

1999-yil – Pokiston o'z atom bombasiga ega bo'ldi.

1999-yil – Pokistonda harbiy to'ntarish yuz berdi.

1999-yil – Polsha NATOga a'zo bo'lib kirdi.

1999-yil - Qirg'izistonning Botkent tumaniga jangari ekstremistik kuchlar bostirib kirishdi va qonli fojialar bo'lib o'tadi.

1999-yil - Qoraqalpog'istonda mikrofirmalar soni 3755 tani tashkil etdi. Fermer xo'jaliklari soni esa 1823 taga yetdi.

1999-yil – Rossiyada iqtisodiy ko'tarilish boshlandi.

1999-yil – Rossiyada IYAM (ichki yalpi mahsulot) o'sishi 2 foizni, sanoat mahsulotining umumiy hajmi o'sishi 8 foizni tashkil etdi.

1999-yil – Rossiyada odamlar bepul yoki arzimas narxlarda millionlab yangi yer uchastkalarini olishdi, mamlakatda 40 million yer mulki egalari bor edi. Endilikda kishilar ancha keng-mo'l va shinam uy-joylar qurishga o'rgandi. Bu yangi yer mulk egalari 1991-yildan so'ng hosil bo'lgan yangi Rossiya hokimiyatining asosiy tayanchini tashkil etdi. Yangi hokimiyat amalda chegaralarni ochdi va xorijga chiqishni soddalashtirdi. Har yili (ishga, ta'tilga, xususiy safarga, sayyohlik yo'llanmalari bilan) 10 millionga yaqin kishi o'z mablag'lari hisobiga xorijga chiqadi. Rossiyada "madaniy ishlab chiqarish" kuchaydi. Matbaa mahsulotlari ishlab chiqarish eng ilg'or mamlakatlar darajasiga yetdi. Ta'limning mavqei oshdi.

1999-yil – Rossiyaga ulkan valyutani jalb etishga yordam bergan faol tashqi savdo balansi Rossiya iqtisodiyoti uchun juda muhim bo'ldi. Rossiya xorijga 78 milliard dollarlik tovarlarni chiqardi va 32 milliard dollarlik mahsulotlarni olib kirdi, demak, 46 milliard sof foyda oldiki, bu iqtisodiyotga qo'shimcha investitsiyalarni ta'minladi. Tashqi savdo aylanmasi geografiyasida muhim o'zgarishlar ro'y berdi.

1999-yil – Rossiyaning AQSh va NATO bilan munosabatlari uchun og'ir sinovlar yili bo'ldi. AQSh va NATO Serbiyadan Kosovoni ajratib olishga urinishi Serbiyaning qarshiligiga uchradi, uni Rossiya qo'llab-quvvatladi. Rossiyaning fikrini hisobga olmaslikka urinish va Kosovo bo'yicha biryoqlama qaror qabul qilish Rossiyaning diplomatik faolligini kuchaytirdi, u Serbiya va Kosovoda bombardimonlarni to'xtatishga muvaffaq bo'ldi. Bosniya va Gersegovinada jamlangan Rossiya tank brigadasi kutilmagan zarba bilan Kosovo-Prishtinoda xalqaro aeroport bilan birgalikda muhim aholi yashaydigan joyni egalladi va u yerda o'z nazoratini o'rnatdi. Bu xattl harakat bilan Rossiya Bolqondagi o'z pozitsiyalarini mustahkamlashda muhim yutuqqa erishdi.

1999-yil – Rossiyaning G'arbiy Yevropa va Amerika bilan savdo-sotig'i o'sdi va MDH mamlakatlari bilan savdo-sotiq ulushi kamaydi. Rossiyaning MDHga



eksporti bu davrda 19 foizga kamaydi, MDH mamlakatlaridan import esa 25 foizga tushib ketdi.

1999-yil – Samarqand, Fargʻona, Andijonda aholiga shoshilinch tibbiy yordam koʻrsatish tizimi, uning filliallari tashkil etildi, boʻlimlari esa hozirgacha faqat 30 ta shahar va tumanda mavjud. Nodavlat sektorida 1600 ga yaqin xususiy tibbiy muassasalar faoliyat koʻrsatmoqda, 3074 vrach xususiy amaliyot bilan shugʻullanish uchun maxsus ruxsatnomalarga ega. 234 ta sogʻliqni saqlash muassasi oʻzini oʻzi mablagʻ bilan qisman taʼminlashga oʻtkazilgan.

1999-yil - Saudiya Arabistoni qiroli Feysal ARAMKO kompaniyani davlat mulkchiligiga toʻliq oʻtkazishga rozilik olishga erishdi.

1999-yil – Shimoliy Koreya oʻrtacha uzoqlikdagi raketani sinovdan oʻtkazdi. U Yaponiya hududi ustidan uchib oʻtib nishonga yetdi.

1999-yil – Turkiyadagi parlament saylovlarida *Bullent Edjevit* boshchiligidagi uch partiyali koalitsiya gʻalaba qozondi. Mamlakatni iqtisodiy inqiroz qamrab oldi. Inflyatsiya 39% ni tashkil etdi.

1999-yil – Venesueladagi prezidentlik saylovlarida esa *Ugo Chaves* gʻalaba qozondi. U plebissit oʻtkazish yoʻli bilan prezident boʻlgach, mamlakatning yangi konstitutsiyasini tasdiqladi. Yangi parlamentga saylovlarda vatanparvarlik qutbi 90 foiz ovoz oldi.

1999-yil - Yaponiya fondining OESF krediti boʻyicha Qoraqalpogʻiston Respublikasining 9 ta shahar tumanlarida (Nukus, Taxiatosh shaharlari va Toʻrtkoʻl, Beruniy, Ellikqalʼa, Xoʻjayli, Kegayli, Nukus tumanlari) qayta qurish va rivojlantirish loyihasi boʻyicha yangidan 306 km. shisha tolali kabelli 78,5 ming raqamlik ATS va 6720,0 ming portga ega raqamli shaharlararo telefon stansiyalari ishga tushirildi. Mazkur ATSlar orqali abonentlar jahondagi 180 davlatiga sanoqli soniyalarda bogʻlanishi va sifatli soʻzlashish imkoniyatiga ega. Mazkur dasturning ikkinchi bosqichi Chimboy, Qorakoʻzak, Taxtakoʻpir, Amudaryo, Qanlikoʻl, Boʻzatov tumanlarida amaliy ishlar olib borilmoqda.

1999-yil - Yaponiya granti boʻyicha Qoraqalpogʻistonga bir necha xorijiy tibbiyot asbob-uskunalari keltirib oʻrnatildi.

1999-yil – Yaponiyada bank tizimi tanazzul chegarasiga kelib qoldi. Moliya tizimini saqlab qolish uchun bir qator banklar birlashishga va gigant korporativ guruhlar tuzishga majbur boʻldi. Bu ikki marta kattalashtirilgan dzaybatsuni eslatar edi. Ular endilikda keyretsu (korporativ guruh) deb nom oldi. Ularning 1-si Mitsubisi guruhi boʻlib qoldi.

1999-yil – Yevropa valyutasi tizimini ishlab chiqish rejalashtirildi va u hozirda amalga oshirilgan.

1999-yil – Zimbabve poytaxti Lusakada mojaroga tortilgan olti davlat oʻrtasida urushni toʻxtatish haqida bitim imzolandi. Biroq, qarama-qarshi tomonlar ortida turgan kuchlar oson yon berishni istashmadi.

1999-yil yanvar – Oʻzbekiston Respublikasi “Nuroni” jamgʻarmasini *Erkin Boqiboyev* boshqarmoqda.

1999-yil 4-yanvar – Fidokorlar milliy demokratik partiyasiga, Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan siyosiy partiya sifatida roʻyxatga olinganligi toʻgʻrisida 354-raqamli guvohnoma berilgan.



1999-yil 13-yanvar - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita tashkil etildi.

1999-yil 16-fevral – Toshkent shahrining bir necha joyida kuchli portlashlar yuz berdi. Natijada 16 nafar begunoh kishi halok bo'ldi. Yuzlab odamlar turli darajadagi og'ir tan jarohatlariga uchradi. Bir qancha ma'muriy va turar-joy binolari jiddiy zarar ko'rdi. Terrorchilar bu xattl harakatlari bilan butun mamlakat aholisining qahru g'azabini uyg'otdi.

1999-yil mart – g'arb davlatlari Kosovo hududida tinchlik o'rnatish uchun u yerga NATO qo'shinlarini olib kirishni talab qilib chiqdi. *S.Miloshevich* bunga rozi bo'lmadi va natijada NATO Serbiyaga qarshi yirik harbiy havo operatsiyalarini boshlab yubordi.

1999-yil mart – Rossiya Dumasida yana impichment haqidagi masala qo'yildi va *B.Yelsin* qonunchilik yo'li bilan hokimiyatdan chetlashtirishdan qutulishga muvaffaq bo'ldi.

1999-yil 8-mart – Gruziya Respublikasi Prezidenti *Eduard Shevardnadze* amaliy tashrif bilan O'zbekistonga keldi.

1999-yil 9-mart – Gruziya Respublikasi Prezidenti *Eduard Shevardnadze* va O'zbekiston Prezidenti *I.Karimov* Do'rmon qarorgohida yakkama-yakka uchrashuvlari bo'ldi. Unda 2 tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, iqtisodiy hamkorlik ko'lanlarini kengaytirish, mintaqaviy xavfsizlik, jahonda yuz berayotgan dolzarb voqealar bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashildi.

1999-yil 15-mart – Turkiya Prezidenti *Sulaymon Demirel* Toshkentga keldi. Shu kuni Prezidentlar o'zaro munosabatlarning bugungi ahvoriga doir qator masalalarni ko'rib chiqdilar. Tomonlarni qiziqtirgan xalqaro ahamiyatga molik muammolar xususida ham o'zaro fikr almashishdi. Prezidentlarning yakkama-yakka suhbatida terrorchilik, uyushgan jinoyatchilik, qurol-yarog' va narkotik moddalar kontrabandasiga qarshi kurashda hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga kelishib olindi.

1999-yil 16-mart – Samarqandda O'zbekistonning yana bir avtomobil zavodi ish boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *I.Karimov* hamda Turkiya Respublikasi Prezidenti *Sulaymon Demirel* yangi inshootning ochilish marosimida qatnashgani mazkur tadbirga alohida ruh bag'ishladi. Ikki davlat rahbarlari endigina konveyerdan chiqqan yangi avtobusga dastxat bitdilar.

1999-yil aprel – Hindiston Rajastonda bir necha bor yadro quroli sinovini o'tkazdi. Bunga javoban Pokiston ham o'z yadro qurolini bir necha marta sinovdan o'tkazdi. Ikki davlat o'rtasidagi janjal yangi bosqichga ko'tarildi.

1999-yil aprel – qo'shin yordamida hokimiyatga *Abdul-Aziz Buteflika* keldi. Biroq, Jazoirda tinchlik va barqarorlikka erishilmadi. Qo'shin rahbariyati davlatni boshqarishda o'z vakolatlarini kengaytirishni talab qildi. *Buteflika* qotillik va terrorizmga aralashmagan islom jangarilariga amnisiya e'lon qildi. Shu yo'l bilan milliy kelishuvga umid qildi.

1999-yil aprel-may - Hindiston va Pokistonda yadro quroli sinovi.

1999-yil 2-aprel – Moskvada MDH davlatlari rahbarlari Kengashining navbatdagi



sammiti bo'lib o'tdi. Ushbu sammitda bir qator muhim qarorlar qabul qilindi. MDHga a'zo davlatlar rahbarlarining Hamdo'stlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida Deklaratsiyasi qabul qilindi.

1999-yil 6-aprel – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov “Do'rmon” qarorgohida Yaponiyaning “Kezzay Doyukay” korporativ rahbarlar uyushmasi prezidenti *Koichi Minaguchi* rahbarligidagi delegatsiya a'zolari bilan uchrashdi.

1999-yil 24-aprel – O'zbekistonning AQShdagi elchixonasida O'zbekiston, Gruziya, Ozarbayjon, Ukraina va Moldova Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuv samarasi o'laroq, Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon hamda Moldova o'rtasidagi hamkorlik tuzilmasiga O'zbekiston ham qo'shildi. Demak, bundan buyon bu tuzilma GUUAM deb yuritiladi. Ushbu tuzilma maqsadi ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, kommunikatsiyani rivojlantirishdir.

1999-yil may – Bolgariya Prezidenti *Petar Stoyanov* rasmiy tashrifi bilan O'zbekistonga keldi.

1999-yil may - O'zbekistonda ayollarni nafaqaga chiqishi uchun 54 yosh va 20 yillik mehnat staji qilib belgilandi.

1999-yil may – Pokiston yadro sinovini o'tkazdi. Bu ham mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlamadi, ammo harbiy pozitsiyasini kuchaytirdi. Ular mavjud sharoitdan foydalanishga va yana hukumatni o'z qo'liga olishga qaror qildi.

1999-yil may-iyun – Pokiston bilan chegaradosh Kashmirda ikki mamlakat qo'shinlari o'rtasida keyingi o'n yillikdagi eng og'ir to'qnashuv yuz berdi.

1999-yil 4-may - O'zbekiston Prezidentining Farmoniga ko'ra *T.Qaipberganov* va *I.Yusupovning* “*El-yurt hurmati*” orderi bilan taqdirlanishi respublika hayotida katta voqea bo'ldi.

1999-yil 10-11-may – O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov EKO – Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotiga a'zo mamlakatlar davlat va hukumat boshliqlarining 5-uchrashuvida qatnashish uchun Almati shahriga tashrif buyurdi.

1999-yil 2-iyun – saylovda Afrika Milliy kongressi tag'in ishonarli g'alaba qozondi. Nelson Mandelaning safdoshi Janubiy Afrika Respublikasi vitse-prezidenti va Afrika Milliy kongressi yo'lbo'shchisi *Tabo Mbeku* Prezident etib saylandi – u mamlakatning butun xalq tomonidan saylangan 1-prezidentidir. Biroq ana shu saylovlar markaziy hukumat siyosatini barbod etishga kirishgan Liberal partiya (LP) va Yangi Milliy partiya (YMP) siyosida muxolifat kuchlarining faollashuviga signal bo'ldi. Liberal partiya aholisining ko'pchiligini oq tanlilar tashkil etadigan va mamlakatning asosiy iqtisodiy kuchlari joylashgan g'arbiy kaplar provinsiyalarini nazorat qilmoqda. Bularning barchasi mamlakatning istiqboldagi keskin ijtimoiy va siyosiy mojarolaridan dalolat berayotir. Mamlakatda og'ir iqtisodiy ahvol mavjud. Aholining 30% ishsiz, turmush darajasi o'smayapti, qariyb yarim aholi savodsiz. OITSning keng tarqalganligi jiddiy muammo bo'lib, hukumat unga qarshi davlat miqyosida kurash olib bormoqda.

1999-yil 10-iyun – 25 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, ularning adabiyot, san'at, fan, ta'lim sohalaridagi hamda



jamoatchilik faoliyatidagi yutuqlarini munosib taqdirlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmoni bilan **Zulfiya** nomidagi Davlat mukofoti ta'asis etildi.

1999-yil 24-iyun - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga muvofiq xususiylashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalari soni yildan-yilga ortib bordi.

1999-yil 19-20-iyul – Toshkentda Afg'oniston muammosini hal qilish bo'yicha "6 + 2" guruhining navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bu guruhga Afg'oniston bilan chegaradosh 6 davlat – Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston hamda O'zbekiston, AQSh va Rossiya kiradi. BMT rahbarligida tashkil etilgan mazkur anjumanni O'zbekiston tashqi ishlar vaziri A. Komilov ochdi. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov nutq so'zladi.

1999-yil avgust - "*Kadrlar tayyorlash milliy dasturi*" asosida ishlab chiqilgan va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "*Umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlari*" asosida yangi o'quv dasturlari amaliyotga joriy etildi. Darsliklarning yangi avlodini yaratish borasida izlanishlar olib borilmoqda.

1999-yil avgust – kattaligi jihatidan ikkinchi o'rinda turadigan DEU transmilliy kompaniyasi yo'q bo'lish darajasiga kelib qoldi. Uning umumiy qarzi 74 mlrd dollarni tashkil etdi. Davlat uning 18 mlrd dollarlik aksiyalarini sotib olib kompaniyani to'liq bankrotlikdan qotqardi. Janubiy Koreya 40 ming kishiltk amerika qo'shinini ta'minlashni o'z bo'yniga olganki, bu ham mamlakat uchun og'ir yukdir.

1999-yil avgust oxiri – bir guruh jangarilar Tojikiston orqali Qirg'izistonning Botken tumaniga kirib keldilar. Ular qariyb 3 oy mobaynida tumanning 5 qishlog'ini bosib oldilar. Tinch yashayotgan ming-minglab odamlar hayotiga tajovuz qildilar. Ularning mol-mulkini, oziq-ovqatlarini tortib oldilar. Bir qirg'iz generali, 4 yapon fuqarosi va boshqa bir necha kishilar garovga olindi.

1999-yil 7-avgust – O'zbekistondagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan shug'ullanuvchi bir qator jamoat tashkilotlari Ma'naviyat va ma'rifat markazini Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga aylantirish tashabbusi bilan chiqdilar. Shu kuni kengashning ta'asis konferensiyasi bo'lib, Bosh vazir o'rinbosari H.Karomatov rais etib saylandi. Barcha viloyat, shahar va tuman hokimlari o'z hududlaridagi ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'limlarining rahbari etib saylandilar.

1999-yil sentabr – *Bin'yamin Netaniyaxu* iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.

1999-yil sentabr – harbiy kuchlar ta'siridagina Yugoslaviya hukumati NATO qo'shinlarining Kosovoga olib kirilishiga rozi bo'ldi.

1999-yil sentabr - Kosovo hududiga NATO qo'shinining kiritilishi.

1999-yil 14-17-sentabr – O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Isroilda bo'ldi.

1999-yil oktabr – Indoneziyada umumiy saylovlar o'tkazildi, ularda musulmon diniy partiyasi "Naxdatul Ulama" yo'l boshchisi *Abdurahmon Vohid* g'alaba qozondi, u mo'tadil islohotlar, milliy yarashuv tarafdori bo'lib chiqdi.

1999-yil oktabr – Isroildagi saylovlarda Mehnat partiyasi yetakchiligida koalitsiya g'alaba qozondi. Isroil qo'shini Bosh shtabining sobiq boshlig'i *Yohud Barak* bosh vazir etib saylandi. Bitimga ko'zda tutilgan hududlarni falastinliklarga



berishga bo'lgan ilk harakat yahudiy aholi bilan to'qnashuvga olib keldi. Bitimga ko'zda tutilgan hududlarni falastinliklarga berishga bo'lgan ilk harakat ushbu yerlarda yashovchi yahudiy aholi bilan to'qnashuvga olib keldi. Har tomondan hukumat qattiq tanqid ostida olingan.

1999-yil oktabr – Tunisdagi prezidentlik saylovlarida *Ben Ali* g'alaba qozondi. Siyosiy barqarorlik iqtisodiy ahvolni yaxshilashga imkon yaratdi. Tunis chet el kapitali uchun e'tiborni tortadigan yurtga aylandi. U Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya bilan yaqin iqtisodiy aloqalarni o'rnatdi.

1999-yil 3-oktabr – Pokiston armiyasi generali *Peniz Musharraf* harbiy to'ntarishni amalga oshirdi va *N.Sharif* o'rniga bosh vazir etib saylandi. Biroq xalqaro ahvolding o'zgarishi va mamlakatning tanglikdagi iqtisodi P.Musharrafni Pokistonda demokratiyani tiklash to'g'risida gapirishga majbur qildi. U, shuningdek, Kashmirda Hindistonga qarshi harbiy harakatlarni “deeskalatsiya” qilish va buzilgan iqtisodni tiklash zarurligini ta'kidladi.

1999-yil 5-noyabr – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xorazmda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida Sohibqironning milliy davlatchiligimiz tarixida tutgan o'rni haqida to'xtalib shunday degan edilar: “*Oradan bir asr o'tib, sohibqiron Amir Temur Jaloliddin Manguberdi boshlagan ozodlik kurashini yangi sharoit va ulkan miqyoslarda davom ettirdi. Ona yurtimizni bosqinchilardan xalos qilib, markazlashgan qudratli davlat barpo etdi*”. Darhaqiqat, “*Amir Temur bizning faxrimiz, iftixorimiz, g'ururimizdir*”.

1999-yil 6-noyabr – *Islom Karimovning “Jaloliddin Manguberdi – ozodlik, mardlik va qudrat timsoli”* nomli ma'ruzasi “*Xalq so'z*” gazetasida nashr qilindi.

1999-yil 6-noyabr – Termizda o'tkazilgan “Alpomish” dostoni yaratilganligi 1000 yilligining YUNESKO ijroiya qo'mitasining maxsus qaroriga binoan xalqaro miqyosda keng nishonlanishi milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analar tiklanishining eng oliy cho'qqisi deb aytishimiz mumkin.

1999-yil 9-noyabr – *Islom Karimovning “Ajdodlarimiz dahosining bebaho yodgorligi”* nomli ma'ruzasi “*Xalq so'zi*” gazetasida e'lon qilindi.

1999-yil 14-noyabr – BMT Afg'onistonga qarshi sanksiya kiritib, oziq-ovqat yordamidan mahrum etdi. Bunga javoban toliblar o'z tuzumi dushmanlariga qarshi qatag'onlarni kuchaytirdi. Ular Shimoliy ittifoq qo'shinlari qo'mondoniga nisbatan terroristik akti amalga oshirdilar va uni o'ldirdilar. Bomiyon viloyatida 15 asrdan buyon mavjud bo'lgan Budda haykali vahshiylarcha portlatib yuborildi.

1999-yil 18-19-noyabr – Turkiyaning Istanbul shahrida Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining navbatdagi yig'ilishi bo'ldi. Anjumanda asosiy muhokama qilingan masala Yevropada Xavfsizlik Xartiyasi bo'ldi. Xartiya nafaqat tashkilotga a'zo bo'lgan 54 mamlakatning, balki butun dunyoning kelgusi asrdagi xavfsizligini ta'minlash borasidagi muhim hujjatdir. Ushbu anjumanda 1-bo'lib O'zbekiston Prezidenti *Islom Karimov*ga so'z berildi. O'zbekiston rahbari mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ko'targan muammolar, ilgari surgan g'oyalar naqadar real ekanligini vaqt yaqqol ko'rsatib berdi.



1999-yil dekabr – Moskvaga bosh vazir rahbarligidagi mongol delegatsiyasi keldi va iqtisodiy hamkorlik bo'yicha bitimlarai imzoladi.

1999-yil dekabr – Rossiya Federatsiyasida mamlakatda siyosiy ahvolni tubdan o'zgartirgan Davlat Dumasiga yangi saylovlar bo'lib o'tdi. Kommunistlar mavqei pasaydi, prezident yo'lining tarafdori bo'lgan "Yedinstvo" ijtimoiy-siyosiy birlashmasi katta g'alaba qozondi. **B. Yelsin** tarafdori bo'lgan o'ng partiyalar ham muvaffaqiyatga erishdi. Dumada ilk marta qonun yaratuvchilik ishlari uchun me'yordagi sharoit yuzaga keldi.

1999-yil dekabr – Xelsinkidagi Yevropa Ittifoqi sammitida unga kiruvchi 15 G'arbiy davlatlari rahbarlari inqirozli joylarda tinchlikni saqlash uchun o'z Yevropa qurolli kuchlarini yaratish haqida qaror qabul qildi, Yevroittifoq tashqi ishlar vazirlari kengashi qoshida harbiy masalalar va xavfsizlik bo'yicha doimiy qo'mita tashkil etildi, unga YH mamlakatlari bosh shtablari rahbarlari kirgan.

1999-yil 5-dekabr - viloyatlar, tumanlar va shaharlarda vakillik organlari bo'lmish Xalq deputatlari Kengashlariga mehnatkashlar ommasining munosib vakillari saylandilar.

1999-yil 5-19-dekabr – kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylangan deputatlardan 20 nafari "Vatan taraqqiyoti" partiyasiga mansub a'zolaridir.

1999-yil 5-19-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylangan deputatlardan 48 nafari Xalq demokratik partiyasiga mansub a'zolaridir. 38 nafari Fidokorlar milliy-demokratik partiyasiga, 20 nafari "Vatan taraqqiyoti" partiyasiga, 11 nafari "Adolat" sotsial-demokratik partiyasiga, 10 nafari Milliy tiklanish demokratik partiyasiga mansub a'zolaridir. Respublika Oliy Majlisiga saylangan deputatlardan 110 nafari hokimiyat vakillik organlarining, 16 nafari esa tashabbuskor guruhlarining vakillaridir.

1999-yil 5-19-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylangan deputatlardan 48 nafari Xalq demokratik partiyasiga mansub a'zolaridir.

1999-yil 5-19-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylangan deputatlardan 11 nafari "Adolat" sotsial-demokratik partiyasiga mansub a'zolaridir.

1999-yil 5-19-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylangan deputatlardan 10 nafari Milliy tiklanish demokratik partiyasiga mansub a'zolaridir.

1999-yil 5-19-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylangan deputatlardan 34 nafari Fidokorlar milliy demokratik partiyasiga mansub a'zolaridir.

1999-yil 5-19-dekabr – Oliy Majlis II chaqiriq deputatlari saylovlari bo'lib o'tdi. Mavjud 250 ta okrugdan 1,5 mingga yaqin nomzodlar parlament tarkibiga kirish uchun kurashdilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, chinakam demokratik, oshkoralik va to'la huquqli erkinlik asosida o'tgan saylov mamlakatimizda qaror topgan ma'naviy-siyosiy barqarorlikni yorqin namoyon etdi. Yangi parlament tarkibiga 249 ta deputat saylandi. Faqat 1 ta okrugda (Qo'qonda) amaldagi qonunlarga muvofiq yangitdan saylov o'tkazishga qaror qilindi. Shuning o'zi ham O'zbekistonda erkin so'z va demokratiya uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.



1999-yil 17-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi hukumatining maxsus qarori bilan Xorazmda *Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy* tavalludining 190 yilligi keng nishonlandi.

1999-yil 18-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi hukumatining maxsus qarori bilan Nukusda *Ajiniyoz Qosiboy o‘g‘li* tavalludining 175 yilligi keng nishonlandi.

1999-yil 31-dekabr – *B. Yelsin* iste‘foga chiqishini e‘lon qildi va o‘z o‘rniga Federal xavfsizlik xizmatining (FXX) sobiq raisi *V.Putin* tayinlanishini bildirdi.

1999-yil 1-yarmi – Qoraqalpog‘istonda aholi jon boshiga kirim 17 ming so‘mni tashkil etdi. Shu davrdagi tovar aylanmasi. 15286 mln so‘mni tashkil etdi.

1999-yil bahor – Albaniya Kosovada etnik mojarolarga jalb etildi, undan serblar etnik albanlarni quvib chiqara boshladi, 440 ming kishi Albaniyaga qochib o‘tdi. Mamlakat bosh vaziri etib sotsialist *Ilir Meta* saylandi. U mamlakat iqtisodiyotini yangilash, jinoyatchilikni tugatish, yuridik va soliq tizimini isloh qilishga urindi, biroq o‘z siyosiy raqiblarining qarshiligiga duch keldi.

1999-yilgacha - O‘zbekiston Respublikasining Chegara qo‘shinlari Milliy Xavfsizlik xizmati tarkibida bo‘lgan.

2000-yil – “*UzDEO‘avto*” qo‘shma korxonasi avtomobillarning yangi, mukammallashtirilgan rusumlarini ishlab chiqarishga kirishdi.

2000-yil – *A. N. Sezer* Turkiya prezidenti.

2000-yil – *A.Kvashnevskiy* Polsha saylovlarida yana g‘olib chiqdi. Mamlakatda bozor munosabatlarini rivojlantirish, demokratiya, milliy suverenitetni mustahkamlash kursi davom ettirilmog‘da.

2000-yil – AQSh prezidentlik saylovlarida respublikachilar partiyasi g‘alaba qozondi. AQSh sobiq prezidenti *J. Bush*ning o‘g‘li *Jorj Bush* (kichik) prezident etib saylandi.

2000-yil – Asakadagi avtomobil zavodida dastlab butlovchi va ehtiyot qismlarining 55 % dan ortiqi mahalliy korxonalarda tayyorlanar edi.

2000-yil – dastlab butlovchi va ehtiyot qismlarining 25 % i O‘zbekistonda ishlab chiqarildi. Bu ko‘rsatkich shu yilga kelib 35 % ga yetdi.

2000-yil – *Islom Karimov*ning “*Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz*” (VIII jild) nomli asari nashrdan chiqdi.

2000-yil – *J. Bush* (kichik) AQSh prezidenti.

2000-yil - O‘zbekiston bo‘yicha hammasi bo‘lib 15 ta minibank faoliyat ko‘rsatgan.

2000-yil – O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining barqaror ishlashini ta‘minlash davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xisob-kitob jamg‘armasi tomonidan xosil uchun kuzgl qishki agrotexnika tadbirlarini o‘tkazishga qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga avans berish uchun 31,9 mlrd. so‘m ajratildi. Jami ajratilgan mablag‘lardan asosiy qismi mehnatga haq to‘lashga yo‘naltirildi.

2000-yil - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan “*Jismoniy va sport to‘g‘risida*” Qonunining yangi tahrirda qaytadan qabul qilindi.

2000-yil - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “*Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida*”, “*Auditorlik faoliyati to‘g‘risida*”, “*Qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi to‘g‘risida*”gi qonunlarni qabul qilindi.



2000-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

2000-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida" qonunni qabul qildi.

2000-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II chaqiriq 2-sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi" unvoni ta'sis etildi.

2000-yil - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblarida shunday degan edi: "Har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, otabobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur".

2000-yil - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to'g'risida"gi, "Avesto"ning 2700 yilligi, Termiz shahrining 2500 yilligini, ulkan ulamo Burhoniddin Marg'inoniyning 1200 yilligini nishonlash to'g'risida qarorlar qabul qilishadi.

2000-yil - O'zbekistonda "Sog'lom avlod yili"da o'zaro hamkorlik yanada faollashdi. O'zbekistonda 4,3 mln. AQSh dollari miqdorida tibbiy dorl darmonlar keltirildi. "Insulin" preparati, sanitariya va gigiyena buyumlari yuklangan yettita samolyot bunga yorqin dadil bo'la oladi.

2000-yil - O'zbekistonda sog'liqni saqlash ehtiyojlari uchun milliy daromadning 6,5 - 7 % ni mablag' ajratildi.

2000-yil - O'zbekistonda ulug' allomalar *Burhoniddin Marg'iloniy*ning 1200 yillik va *Abu Mansur Moturidiy*ning 1130 yillik yubileylari keng nishonlandi. Bu Islom dini ma'rifat va madaniyat, ahloq va tarbiya omili sifatida jamiyatimizda muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

2000-yil - O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot 1,4 % atrofida ko'paydi.

2000-yil - O'zbekistondagi chet el investitsiyasi hajmi kimyo, neft, oziq-ovqat sanoati, transport, aloqa va qishloq xo'jaligi sohasida ancha oshdi.

2000-yil - O'zbekistonga 810 million AQSh dollari miqdorida xorijiy sarmoya kiritildi. Dunyoning 162 mamlakati sarmoyadorlari ishtirokida tuzilgan 3287 dan ortiq qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatdi.

2000-yil - Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat teatri to'la ta'mir etildi.

2000-yil - Qoraqalpog'istonda 140 ta nodavlat va notijorat tashkilotlar mavjud edi. Aytish joizki, "Perzent" ("Farzand"), "Qishki gullar", "Xalq hunarmandlarining jodiy ustaxonasi", "Progress", "Orolning oltin merosi" va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari to'plagan tajribalar diqqatiga loyiqdir.

2000-yil - Qoraqalpog'istonda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari va byudjetdan tashqari jamg'armalar tomonidan 2,9 mlrd. so'm miqdorda kreditlar berildi. Natijada harakatsiz turgan korxonalar soni 771 taga kamaytirish imkoniyati tug'ildi.

2000-yil - Qoraqalpog'istonda mikrofermalar soni 5565 taga yoki 1999-yildagiga qaraganda 1,5 martaga, fermer xo'jaliklari soni esa 2353 taga yoki 1999-yildagiga qaraganda 1,6 martaga ko'paydi.



2000-yil - Qoraqalpog'istonda yalpi mahsulot yetishtirishda kichik va o'rta biznes hajmining ulushi 27% ni tashkil etdi. Bu 1999-yilgi ko'rsatkichdan 3 % ga ko'p edi.

2000-yil – Qoraqalpog'istonning har bir tumani va shahari zamonaviy talablarga javob beradigan yangi turdagi o'quv yurtlari bilan ta'minlanishi uchun 180 ta yangi kasb-hunar kolleji va 15 ta akademik litsey qurilib foydalanishga topshirildi.

2000-yil – Ruminiyada o'tkazilgan saylovlarda *I. Ilyesku* yana prezident qilib saylandi.

2000-yil – *X.M.Aznar* boshchiligidagi “Xalq alyansi” partiyasi saylovda ko'pchilik ovoz olib o'zining mavqeini saqlab qoldi.

2000-yil yanvar - “Amerika on Layn” kompaniyasi “Taym Uorner” firmasini sotib oldi va uyali telefonlar va Internet sohasida jahondagi eng yirik kompaniyaga aylandi.

2000-yil yanvar - Chilida *Salvador Alyendening* sobiq safdoshi, sotsialistik qarashlarga ega *Rikardo Lagos* prezident etib saylandi.

2000-yil I-yanvar – mamlakat yangi nom bilan Venesuela Bolivaracha Respublikasi deb ataldi.

2000-yil 1-yanvar – O'zbekistondagi kredit qo'yilmalari qoldig'i 529,2 mlrd. so'mni tashkil etdi, ulardan uzoq muddatli va o'rtacha muddatli kreditlar 56,6 % ni tashkil etdi. Naqd pul mablag'lari emissiyasi umumiy xarajatlarning 10,2 %ini tashkil etdi, bu mo'ljallanganidan 2,6 % li punkt pastdir. Naqd pul massasining umumiy pul massasidagi salmog'i qisqardi. Mintaqalardan hech biri naqd pul emissiyasining belgilangan cheklangan miqdorini oshirmadi.

2000-yil 9-yanvar – bo'lib o'tgan saylovda *I.A.Karimovning* O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodi Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan ko'rsatildi.

2000-yil 9-yanvar – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Muqobillik va demokratik tamoyillar asosida o'tkazilgan ushbu saylovda saylovchilarning 91,90 % i *Islom Karimov* nomzodini qo'llab-quvvatladi va Markaziy saylov komissiyasining qaroriga muvofiq *Islom Abdug'aniyevich Karimov* O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi.

2000-yil fevral – Panama kanali Panamaning to'liq nazoratiga o'tdi.

2000-yil 9-fevral – Shahrisabz, Samarqand va Toshkentda sohibqiron xotirasi keng jamoatchilik ishtirokida katta tayyorgarlik bilan esga olindi. Uning haykali poyiga gulchambarlar qo'yildi.

2000-yil mart – Angliyada *Pinochetning* taqdiri haqida bahslar bo'layotgan bir paytda Chilining o'zida sotsialistik partiya hokimiyatga keldi. Chili prezidenti etib chililiklarni birlashishga chaqirgan *S.Alyendening* safdoshi *Rikardo Lagos Eskobar* saylandi.

2000-yil mart – Tayvan prezidentligiga bo'lib o'tgan saylovlar Gomindanning to'liq mag'lubiyati bilan tugadi, u oxirgi 50 yil ichida bu lavozimga monopoliyasini yo'qotdi. Hokimiyatga demokratik taraqqiyparvar partiyasi yo'l boshchisi *Chen Shuy Byan* keldi. U orolning to'liq suverenitetga erishajagini bildirgan.

2000-yil 3-mart – ingliz sudi *Pinochetni* keksa yoshini hisobga olib, Chiliga jo'natishga ruxsat berdi.



2000-yil 6-mart - To'rtko'l tumanida Rossiyaning Savvinovo yigiruv fabrikasi bilan hamkorlikda yiliga 2750 tonna ip-kalava ishlab chiqaradigan qo'shma korxonani qurib tugallashga kirishildi. Kichik va xususiy korxonalar, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar rivojlandi.

2000-yil 21-mart - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "*Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida*"gi Farmoni e'lon qilindi.

2000-yil 24-mart - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "*Bank tizimini isloh qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida*"gi qarori bilan tasdiqlangan "*2000-2003-yillar O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish Dasturi*" qabul qilindi.

2000-yil 26-mart – muqobil saylovlar natijasida *V.Putin* Rossiya prezidenti etib saylandi.

2000-yil aprel - Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasida 1999-yilda yaratilgan badiiy asarlar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'ldi. Unda eng yaxshi asarlarga Qoraqalpog' Yozuvchilar uyushmasining mukofoti berildi. *Davlatmurod Karimov* "*Qur'oni Karim*"ni o'zbek tilidan Qoraqalpog' tiliga tarjima qilgani uchun, *Gulchehra Rahimova* mustabid tuzum qurbonlari haqidagi qissasi uchun va *Minayxon Jumanazarova* "*Cho'lpon*" nashriyotida chop etilgan "*Qalbingizda qolgim keladi*" she'rlar to'plami uchun mazkur mukofotga sazovor bo'ldilar.

2000-yil 6-aprel – Prezident *I.Karimov* bir guruh mafkurachilar, faylasuflar, adiblar va siyosatshunoslar bilan uchrashib, milliy istiqloq mafkurasi jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanligini yana bir bor ta'kidladi.

2000-yil 14-aprel – "*Vatan taraqqiyoti*" va Fidokorlar Milliy demokratik partiyalarining navbatdagi qurultoyi bo'ldi. Har 2 partiya dasturlari va faoliyat yo'nalishlari bir-biriga yaqinligi, Vatan taraqqiyoti yo'lidagi maqsadlari mushtarakligi sababli kuchlarni birlashtirib ishlashga qaror qilindi.

2000-yil 14-aprel – BTP Fidokorlar milliy demokratik partiyasi bilan birlashib Fidokorlar milliy demokratik partiyasi nomini oldi. Partiya Bosh kotibi qilib *A.Tursunov* saylandi.

2000-yil 20-21-aprel - O'zbekiston Prezidenti *Islom Karimov* tashabbusi bilan Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Muloqot chog'ida mintaqa mamlakatlari xavfsizlik organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini kengaytirishning huquqiy poydevorini yaratish bilan bog'liq masalalar bo'yicha fikrlashib olindi.

2000-yil 12-may – O'zbekiston prezidenti *I.A.Karimov* tashabbusi bilan Toshkentning Yunusobod mavzesida - Bo'zsuv bo'yida Shahidlar hotirasi yodgorlik majmui ochildi.

2000-yil 13-may – *Islom Karimov*ning "*Shahidlar xotirasi – mangu barhayot*" nomli ma'ruzasi "*Xalq so'zi*" gazetasida e'lon qilindi.

2000-yil 18-19-may - Rossiya Prezidenti *V.Putin*ning rasmiy davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'lishi va *Islom Karimov* bilan olib borgan do'stona muzokaralari har ikkala davlat uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.



2000-yil iyun - Janubiy va Shimoliy Koreya prezidentlari Pxenyanda sulh va Koreyaning ikkala qismini birlashtirish to'g'risida shartnoma imzoladilar.

2000-yil iyun - Moliya sohasidagi suiiste'mollari tufayli Isroil Prezidenti *Ezer Veysman* iste'fo berdi.

2000-yil iyun – Prezident *Kim De Chjun* tashabbusi bilan Panminchjonda uning Shimoliy Koreya yo'l boshchisi *Kim Chen Ir* bilan uchrashuvi bo'ldi, unda ikkala yo'l boshchi bu davlatlarning yarashuvi va oxir-oqibatda bir davlatga birlashishi haqida kelishib olishdi.

2000-yil iyun - Qoraqalpog'istonda Toshkent shahri va Xorazmdan kelgan madaniyat xodimlari va ijodkorlar ishtirokida ma'naviyat kunlari o'tkazildi.

2000-yil 2-iyun - Prezidentimiz Islom Karimov Oqsaroyda YXHT ning raisi, Avstriya Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Benito Ferrero-Valdner boshchiligidagi mazkur tashkilot delegatsiyasi a'zolarini qabul qildi. Suhbat davomida O'zbekiston va YXHT o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga doir masalalar yuzasidan fikr almashindi.

2000-yil 25-iyun – Yaponiyada yangi saylovlar o'tkazildi. YLDP parlamentda ko'pchilik ovozni yo'qotdi, ammo boshqa ikki partiya bilan koalitsiyada hukumat tuzishga muvaffaq bo'ldi. Partiya yetakchisi *Mori* bosh vazir etib saylandi.

2000-yil iyul - Toshkentda Osiyo va Tinch okean mintaqasi mamlakatlari YUNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiyalarining XII mintaqaviy konferensiyasi bir hafta davom etdi.

2000-yil avgust – Indoneziyaliklar yana ko'chalarga chiqishdi, namoyishlar bosimi ostida *Abdurahmon Vohid* Milliy Assambleya talabiga ko'ra muxolifat yo'l boshchisi, *Sukarnoning* qizi *Megavati Sukarnopuri* bilan hokimiyatni birga boshqarishga rozilik berdi. *Vohid* oxir-oqibatda iste'foga chiqdi va *Sukarnoputi* mamlakat prezidenti bo'ldi.

2000-yil avgust - Rossiyaning "Kursk" suvosti atom kemasi halokatga uchradi.

2000-yil 20-avgust - Bishkek shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyodagi 4 davlat boshliqlarining Kengashini Toshkent Sammitining bevosita davomi bo'ldi, deb atasa bo'ladi. Bu galgi uchrashuvda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlaridan tashqari Rossiya Federatsiyasi xavfsizlik kengashi kotibi *S.Ivanov* ham qatnashdi. Buning sababi shundaki, Markaziy Osiyo mintaqasida ekstremistik jangari kuchlar bilan bog'liq qonli fojialarning sodir etilganligi Checheniston va Afg'onistonda kechayotgan voqealar zanjirining bir bo'lagi sifatida baholandi. Shu bois, ularga qarshi birlashib kurash olib boorish fursati yetganligini Bishkek uchrashuvi qatnashchilari qayd etdilar.

2000-yil sentabr - *A. Sharon* "Al-Aqso" jome masjidiga tashrif buyurishi natijasida Isroilda vaziyat keskinlashdi.

2000-yil sentabr - Avstraliyada 27-yozgi Olimpiada o'yinlari bo'lib o'tdi.

2000-yil 6-8-sentabr - Nyu-Yorkda "ming yillik sammit", ya'ni butun jahondagi deyarli barcha mamlakatlarning davlat va hukumat rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Sammitda 170 ta davlat vakillari ishtirok etdi.

2000-yil 8-sentabr - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *Islom Karimov* BMT Bosh Assambleyasining sessiyasida qatnashdi. 150 dan ko'proq mamlakatning



davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etgan ushbu sessiyada I.A.Karimov nutq so'zlad. Tashrif davomida *Islom Karimov* Nyu-Yorkda bir qator uchrashuvlar o'tkazdi.

2000-yil 12-14-sentabr - Avstraliyaning Sidney shahrida 27-yozgi Olimpiya o'yinlarining tantanali ochilishi bo'lib o'tdi.

2000-yil 13-sentabr - Prezident Islom Karimov tomonidan YUNESKO Bosh direktori lavozimiga saylangan *Kongiro Matsuuruni* qabul qildi.

2000 yil oktabr – Koreya yarimorolida barqarorlik va hamkorlikni o'rnatishga yo'l ochgan Janubiy Koreya Prezidenti *Kim De Chjunga* tinchlik sohasidagi Nobel mukofoti berildi.

2000-yil oktabr – prezident *S. Miloshevich* NATO bombardimoni tufayli aholining qurbon bo'layotganidan foydalanib, hokimiyat vakolatini qo'lga kiritish uchun saylov o'tkazishga qaror qildi. Saylovning ommaga e'lon qilinishi mamlakat bo'ylab katta noroziliklarga sabab bo'ldi. Mamlakat turli chekkalaridan namoyishchilar kelishdi. Saylov natijalari soxtalashtirilib, *S. Miloshevich*ning g'alaba qozonganligi e'lon qilindi. Aslida u 15 % ham ovoz ololmagan edi. G'azablangan xalq g'alayon kutardi va *S. Miloshevich* iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Hokimiyat tepasiga *V. Koshtunitsa* yetakchiligidagi Demokratik koalitsiya keldi. *S. Miloshevich* sobiq Yugoslaviya ishi bo'yicha Gaaga Xalqaro tribunaliga topshirildi.

2000-yil 12-13-oktabr - Ukraina Prezidenti Leonid Kuchmaning O'zbekistonga tashrifidagi Islom Karimov bilan olib borgan muzokaralari chog'ida mazkur huquqiy poydevor yanada mustahkamlandi. GUUAM (Gruziya, O'zbekiston, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova a'zo bo'lgan norasmiy tuzilma) doirasida hamkorlik hamda Yevroosiyo transport yo'lagini tashkil etish borasida fikr almashildi. GUUAM doirasidagi hamkorlikning kengayishi transport kommunikatsiyasining rivojiga katta ta'sir qiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizning transport-tranzit imkoniyatlarini oshiradi. Muzokaralar yakunida o'nga yaqin hujjat imzolandi. Samarqand va Lvov shaharlari o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti bilan Taras Shevchenko nomidagi Kiyev Milliy universiteti o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, ikki mamlakat o'rtasida deportatsiya qilingan va O'zbekiston Ukrainaga qaytish xohishida bo'lgan shaxslarning fuqaroligi masalasini hal qilishga o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi ahdlashuv qabul qilindi.

2000-yil 16-oktabr - O'zbekistonda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun 20 ta umumta'lim fanlaridan davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasining "*O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida*"gi Qarori bilan tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasining mazkur Qarori asosida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun 23 ta umumta'lim fab dasturlari, akademik litseylarning 69 nomdagi chuqurlashtirilgan fan dasturlari, kasb-hunar kollejlarning 3300 dan ortiq maxsus fan dasturlari, akademik litseylarning 5 ta, kasb-hunar kollejlarning 277 ta tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha tarmoq ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlari ishlab chiqilib, ta'lim jarayoniga joriy etildi.



2000-yil 30-oktabr - 17-noyabr - Toshkentda o'z ishini olib borgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati asosiy va bosh maqsadi davlat hokimiyatini egallab olishga qaratilgan jinoiy guruhning 12 rahbari ustidan sud muhokamasini olib bordi. Ular qatorida *Muhammad Solih* (Saloy Madaminov) ham sirdan sud qilindi. Mamlakat Oliy sud hay'ati qarori bilan u mol-u mulki musodara qilinib, 15 yil 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilindi.

2000-yil noyabr - AQShda Prezident saylovi. Kichik *Jorj Bush* ko'pchilik ovozni oldi.

2000-yil 6-noyabr – Nikaragua poytaxti Managua meri lavozimiga sandist yetakchilaridan biri saylandi. Bu liberal partiyaning birinchi mag'lubiyati edi.

2000-yil dekabr - Toshkentda Qoraqalpog'iston madaniyati kunlari uyushtirildi. Bu tadbirlar Nukus va Toshkent madaniyat xodimlari faoliyatini bir-biriga yaqinlashtirdi.

2000-yil dekabr – yirik tadbirkorlar va profsoyuz namoyondalari *U.Chavesni* ag'darib tashlash maqsadida umumxalq ish tashlashini uyushtirdi. U bir necha oy davom etdi.

2001-2002-o'quv yili - O'zbekiston o'quvchilariga darsliklarni ijaraga berish tizimi asosida ta'minlashga bosqichma-bosqich o'tila boshlandi.

2001-2002-yillar - har yili umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari orasida to'rt bosqichda (maktab, tuman, viloyat va respublika bosqichlari) "*Umid nihollari*", akademik litsey, kollej va 10-11-sinf o'quvchilari orasida "*Barkamol avlod*", har ikki yilda bir marta oliy o'quv yurtlari talabalari orasida "*Universiada*" sport musobaqalarini o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.

2001-2002-yillar - O'zbekistonda yuz bergan qurg'oqchilikni nazarda tutib, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida dehqonchilikni qo'llab-quvvatlash maqsadida mamlakat hukumati alohida qaror qabul qildi.

2001-yil - Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatri butunlay qayta qurilib, unga O'zbek milliy akademik teatri nomi berildi.

2001-yil - hazrat A. Navoiyning 560 yilligi keng nishonlandi. Buyuk mutafakkir nomi bilan ataladigan viloyat markazida 100 gektar maydonda bog' yaratildi. Bog'da A.Navoiyning haykali o'rnatildi.

2001-yil - *Islom Karimovning "Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz"* (IX jild) nomli asarlari nashrdan chiqdi.

2001-yil – Jazoirida terroristik hurujlarning yangi to'liqini boshlandi. Kabiliya viloyatida yashovchi berber qabilalari ham hukumatga qarshi kurashga kirdi. Aljirda fuqarolik urushi davom etmoqda. Uning rahbarlari mamlakatda xalqaro vositachilar kirishini istamaydi.

2001-yil - mamlakatda yangi parlament saylovlari bo'lib o'tdi. YLDP biroz o'z mavqeini tiklab oldi va populistik islohotchi *Junichiro Koizumi* Yaponiyaning navbatdagi bosh vaziri etib saylandi. Bu Yaponiyada so'nggi 13-yilda bosh vazirning o'n birinchi marta almashtirilishi edi. Hukumatning bunday tez-tez o'zgarishiga siyosiy barqarorlik va iqtisodiy pasayishda aks etdi. Y.Koizumi va'da qilgan iqtisodiy islohotlar barbod bo'ldi. Iqtisodiy o'sish - yiliga 1% ni - dunyo bo'yicha eng past ko'rsatkichni tashkil etdi.



2001-yil – Mongoliya saylovlarida ham MXIP vakili *Natsayjin Bagabandi* g'alaba qozondi. Kommunistlar hokimiyatga qaytdi. Biroq, ular endi demokratiya, islohotlar va bozor iqtisodiyoti tarafdorlari bo'lib maydonga chiqdi. Bosh vazir *Nambarin Enkbayar* mamlakatda tub o'zgarishlar uchun izchil kurash olib bormoqda.

2001-yil - O'zbekiston umumta'lim maktablariga qabul qilingan 1-sinflar 57,0 %ni tashkil etdi.

2001-yil - O'zbekistonda "*Onalar va bolalar yili*"da 3,5 mln. AQSh dollari miqdoridagi 31 tonnalik dorl darmonlar, tibbiy jihozlar, sanitariya va gigiyena buyumlari "*Amerilares*" tashkiloti tomonidan O'zbekistonga yordam tariqasida jo'natildi. Hamkorlik yo'lga qo'yilgan kundan boshlab "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi "*Amerilares*" tashkilotidan jami 12 mln dollardan ortiq qiymatga ega bo'lgan muruvvat yordami oldi.

2001-yil - O'zbekistonda darsliklarni tanlov asosida yaratish yo'lga qo'yildi. Tanlov xalqaro miqyosda e'lon qilingan bo'lib, unda nafaqat O'zbekistondagi, balki xorijiy mamlakatlarning nashriyotlari ham ishtirok etishi mumkin.

2001-yil - O'zbekistondagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 4890 nafar ilk "qaldirg'ochlari" hozirgi paytda oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishni davom ettirmoqdalar, xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

2001-yil - Qoraqalpog'istonda hashar yo'li bilan 2 ta maktab binosi qurib ishga tushirildi.

2001-yil – *Romano Prodi* YH Kengashi raisligiga saylandi.

2001-yil – *Sukarnopuri* Indoneziya prezidenti.

2001-yil – Tailand saylovlarida "Taylar, taylarni seving" partiyasi g'alaba qozondi, ular "Taylar xartiyasi" va "Yangi intilishlar partiyasi" bilan koalitsiya tuzdi. Mamlakat barcha kommunikatsiyalari egasi *Taksin Shinavatra* hukumatga boshchilik qildi. Mustaqillikka erishilgandan keyingi barcha yillarda davlatni qirol *Bumibol Adulyadej* boshqardi.

2001-yil - Xorazmda "Avesto"ning 2700 yilligi keng nishonlandi. "Avesto" ilk bor o'zbek tilida nashr etildi.

2001-yil - YUNESKO homiyligida ulug' fiqhshunos olimlari, islom olamining mashhur ulamolari *Burxoniddin Marg'inoniy* va *Abu Mansur Moturidiyning* yubileyleri keng nishonlandi.

2001-yil yanvar - *Jorj Bush* AQShning 43-prezidenti deb e'lon qilindi.

2001-yil yanvar – *L.Kabila* o'ldirildi. Uning o'rnini birodarkushlik urushini to'xtatishni istagan o'gli **Jozef** egalladi.

2001-yil yanvar - O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlarining Almati shahrida uchrashdilar. Muloqot chog'ida mintaqaviy hamkorlikning ahvoli, uning istiqbollari atroflicha tahlil qilindi. Iqtisod, fan-texnika borasidagi hamkorlik, mintaqada tinchlikni, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash, terrorizm, diniy ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy olib kirishga qarshi birgalikda kurashish yuzasidan o'zaro fikr almashildi.

2001-yil yanvar - Hindistonda zilzila, Gujarat shtatida 20 ming odam halok bo'ldi.

2001-yil yanvar – Zambezi daryosiga yagona olib boradigan joy – Kaprivi tor yo'lida yashovchi qabilaning separatistlar harakati bilan mojaro chiqdi.



2001-yil fevral - AQShning Nyu-York, Vashington, Xyuston shaharlari, Pensilvaniya, Texas shtatlarida Buxoro kunlari muvaffaqiyatli o'tdi. AQShda O'zbekiston kunlarini o'tkazish an'anaga aylanmoqda.

2001-yil fevral - *Ariel Sharon* Isroil Bosh vaziri etib saylandi.

2001-yil 5-fevral - O'zbekistonda o'quvchilarni darsliklar bilan ta'minlash masalasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan tasdiqlangan "*Ona va bola*" davlat dasturida "*O'quvchilarni kutubxonalardan pulli qaytarib beradigan darsliklar bilan ta'minlash tizimini tashkil etish*" to'g'risidagi tadbiri belgilandi. Xalq ta'limi vazirligi ushbu tadbirni Osiyo Taraqqiyoti Bankining kredit mablag'lari hisobidan "*Umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv adabiyotlarning nashr qilish tizimini takomillashtirish loyihasi*" doirasida amalga oshirilmogda.

2001-yil 6-fevral – o'z pozitsiyasini mustahkamlash uchun *Yohud Barak* tavakkal qilib bosh vazir sayloviga falastinliklarga nisbatan qat'iy pozitsiya bilan ma'lum bo'lgan Isroil qo'shinlarining sobiq qo'mondoni *Ariel Sharon* g'alaba qozondi.

2001-yil aprel - amerikalik tadbirkor *Denis Tito* fazodagi dastlabki turistga aylandi.

2001-yil may – *Ariel Sharon* Isroilning yangi bosh vaziri bo'ldi. U milliy birlik hukumatini tuzdi va tashqi ishlar vaziri lavozimiga *Shimon Peres*ni taklif qildi. *A. Sharon* falastinliklarga qarshi qattiq holatni tutdi. Yangi qurolli konfliktlar avjiga oldi.

2001-yil may - Dalaylama prezident *Jorj Bush* bilan Vashingtonda uchrashdi. Xitoy xalq Respublikasi noroziligi.

2001-yil may – Mongoliyada MXIP saylovlarda g'alaba qozonib, xalq xuralida 76 o'rindan 72 tasini egalladi.

2001-yil iyun - Eronda islohotchilarning sobiq yo'lboshchisi *Muhammad Hotamiy* prezident etib saylandi.

2001-yil iyun - *Kofi Annan* BMT Bosh kotibi etib saylandi.

2001-yil iyun - Leyboristlar partiyasi Angliyada bo'lib o'tgan parlament saylovida g'alaba qozondi.

2001-yil iyun - Nepal qiroli va qirolichasi o'z o'g'li *Dipendro* tomonidan o'ldiriladi, *Diperno* o'zini o'zi o'ldiradi.

2001-yil 28-iyun – *S. Miloshevich* Yugoslaviya ishi bo'yicha Gaaga Xalqaro tribunaliga topshirildi.

2001-yil iyul – Bolgariya hukumatining saylovlarida *Ivan Kostav* mag'lubiyatga uchradi. Hokimiyatga Bolgariya qiroli *Simeon II* tuzgan Milliy harakat hukumati keldi.

2001-yil iyul – Italiyada umumiy parlament saylovlari o'tkazildi. "Forsa, Italiya" partiyasi g'alaba qozondi. *S.Berluskoni* o'zining chalkash sud ishlariga qaramay, yana mamlakat bosh vaziri bo'ldi.

2001-yil avgust - Rossiya va Xitoy do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladi.

2001-yil 31-avgust - O'zbekiston Respublikasida har yili - Mustaqillik e'lon qilingan kun qatag'on qurbonlari xotirasi kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

2001-yil sentabr – Isroil bosh vaziri *Ariel Sharon* musulmonlar uchun Makkadan keyin 2-o'rinda turuvchi Al-Aksa masjidiga ig'vogorona yurishni amalga oshirdi



va musulmonlarning keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Shundan buyon Isroil va Falastin avtonomiyasi hududida e'lon qilinmagan urush davom etib kelmoqda. Har kuni falastinliklar kamikadze shaklida terrorchilik holatlarini amalga oshirmoqda va bunga javoban Isroil aviatsiyasi va tanklari falastin turar-joylariga hujum qilmoqda. Bunday to'qnashuvlarning oxiri ko'rinmaydi.

2001-yil sentabr – Polshada umumxalq saylovlari bo'lib o'tdi. Unda Polsha Demokratik so'l ittifoq hukumatni shakllantirish huquqini qo'lga kiritdi. «Solidarnost» mag'lubiyatga uchradi.

2001-yil sentabr – S. *Miloshevich*ning ustidan sud ishlari boshlandi.

2001-yil 11-sentabr – AQShda terrorchilik harakatlar amalga oshirildi. Natijada Nyu-Yorkdagi savdo markazining ikki noyob binosi va harbiy vazirlik – Pentagonining bir qismi vayron etildi. Prezident *J.Bush* Al-Qoida terrorchilik tashkilotiga qarshi jahon miqyosida urush e'lon qildi. AQSh Afg'onistonni bombardimon qila boshladi. Toliblarning tayanch manzillari yo'q qilindi. Kobul shimoliy ittifoq qo'shinlari tomonidan egallandi. O'zbekiston aksilterrorchilik kurashida faol ishtirok etdi. AQSh samolyotlari va boshqa aksilterrorchilik harakati kuchlariga respublika hududidan bazalar berildi.

2001-yil 11-sentabr – Saudiya Arabistoni va AQSh o'rtasidagi munosabatlar yomonlashdi. 15 terrorchi Saudiya Arabistoni fuqarolari bo'lib chiqdi. Oliy diniy arboblar islom ekstremizmi va terrorizmni qo'llab-quvvatladilar. Mamlakat ikki guruhga – AQSh yo'nalishidagi tarafdorlar va ularning raqiblariga bo'linib ketdi, ular o'rtasida keskin kurash davom etmoqda.

2001-yil 7-oktabr – Afg'onistonda terrorchilikka qarshi kampaniya boshlandi. Amerika va Britaniya samolyotlari Afg'onistondagi jangovar nishonlarni bombardimon qildi. Terroristlarni tayyorlagan barcha lagerlar tor-mor etildi. Toliblarning barcha bazalari vayron qilindi. ularning asosiy qo'shin qismlari tog'larga va Pokistonga qochdi.

2001-yil 7-oktabr - *Kofi Annanga* Xalqaro Nobel tinchlik mukofoti berildi.

2001-yil noyabr – Nikaraguadagi prezidentlik saylovlarida nomzod *Enrike Bolanos* g'alaba qozondi.

2002-2003-o'quv yili - O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinflarini bitirgan 598 ming o'quvchidan 13 mingi akademik litseylarda, 202 mingi kasb-hunar kollejariga qabul qilindilar. Qolgan o'quvchilar umumta'lim maktablarining 10-sinfida o'qishni davom ettirdilar.

2002-2003-yillar - Qoraqalpog'istonda 98 aholi punktlariga tabiiy gaz yetkazib berildi.

2002-2003-yillar - Rossiya Federatsiyasi Soliq politsiyasi departamenti, Yaponiya Moliya vazirligi delegatsiyasi, BMTning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi, Jahon banki va boshqalar O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi ish faoliyati bilan tanishdilar va unga yuqori baho berdilar.

2002-yil - "O'zDEUavto" korxonasi "Matiz" va "Neksiya-2" rusumdagi yangi avtomobil ishlab chiqarildi.

2002-yil – Fransiyada bo'lib o'tgan saylovlarda sotsialistlar mag'lubiyatga uchradilar va Milliy majlisda ko'pchilik gollistlar qo'lga o'tdi.



2002-yil – Hindiston prezidenti etib *D.A.Kalam* saylandi.

2002-yil - *Islom Karimovning "Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak"* (X jild) nomli asarlari nashrdan chiqdi.

2002-yil - ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistonda 3471 ta ambulatoriya-poliklinika, 1057 ta shifoxona aholiga tibbiy xizmat ko'rsatgan. Bundan tashqari, ko'plab ixtisoslashgan shifoxonalar, maxsus dispanserlar, shahar shifoxonalari, tuman markaziy shifoxonalari, qishloq uchastka shifoxonalari, qishloq vrachlik va feldsherlik akusherlik punktlari ham ishlab turibdi.

2002-yil – Mozambikda *J.Chissano* prezidentlikka 3-marta saylovda qatnashishdan bosh tortdi.

2002-yil - Nukus aerovokzal majmuasi ta'mirdan chiqarildi va soatiga 200 nafar mijozga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega bo'ldi.

2002-yil - o'zbek sportchilari turli musobaqalarda qatnashib 186 dan ortiq oltin medalni qo'lga kiritdilar. Tennis malikasi *Iroda To'laganova*, mashhur bokschi *Ruslan Chagayev*, Olimpiada chempioni *Muhammadqodir Abdullayev*, xalqaro grossmeyster *Rustam Qosimjonov* va boshqa o'nlab sportchilarimiz yurtimiz nomini sharaflamoqdalar.

2002-yil - O'zbekiston aholisining asosiy qismi qaysidir shakldagi mulk ega bo'ldi. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan obyektlardan tashqari, barcha mulkka fuqaroning o'zi egalik qilmoqda.

2002-yil - O'zbekiston banklarining iqtisodiyotga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari hajmi 851 mlrd. so'mga yoki 43,2 %ga o'sib, bu ko'rsatkich yil oxirida 2821,1 milliard so'mga yetdi va bu yalpi ichki mahsulotga nisbatan 37,3 % gat eng bo'ldi.

2002-yil - O'zbekiston Respublikasi hukumati hamda Xalqaro valyuta fondi o'rtasida iqtisodiy va moliyaviy siyosat masalalari yuzasidan Memorandum imzolandi. Mazkur Memorandumda mamlakatda iqtisodiy islohotlarning kelgusi yo'nalishlarni belgilash, valyuta bozorini erkinlashtirish, joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha milliy valyutani erkin almashtirishni ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'zda tutildi. Hozirgi vaqtda Xalqaro valyuta fondi tomonidan O'zbekistonga umumiy miqdori 165,2 mln. AQSh dollari miqdorida kreditlar ajratildi.

2002-yil - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamsining bolalar sportini rivojlantirish borasidagi qarori qabul qilindi. Qarorga asosan aholi turar joylarida, tashkilot va muassasalarda bolalarning sport bilan shug'ullanishi uchun qulay sharoit yaratish maqsadida maxsus jamg'arma tuzildi. Uni bevosita mamlakat Prezidentining o'zi boshqaradi va rahnamolik qiladi.

2002-yil - O'zbekiston umumta'lim maktablariga qabul qilingan 1-sinflar 84,0 %ni tashkil etdi.

2002-yil - O'zbekistonda 51,0 milliard kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan.

2002-yil - O'zbekistonda turli jamoat tashkilotlari va nodavlat uyushmalari vujudga keldi. Ularning soni 2500 dan oshib ketdi.

2002-yil - O'zbekistonda xususiy tadbirkorlar, kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratilgan kreditlar miqdori yildan-yilga



oshirib borib, tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga o'z mablag'lari, byudjetdan tashqari jamg'armalar va xorijiy kredit liniyalari hisobidan jami 265 mlrd. so'm miqdorda kreditlar ajratildi. Ajratilgan kreditlarning 180 mlrd so'mi yoki 67,9 %i o'rta va uzoq muddatlarga berilgan.

2002-yil – parlament saylovlarida Chexiya sotsial-demokratlar partiyasi g'alaba qozondi. *Vladimir Spidla* bosh vazir bo'ldi.

2002-yil - Qoraqalpog'istonda 8 ta maktab binosi qurilib foydalanishga topshirildi.

2002-yil - Qoraqalpog'istonda 9 korxonada davlat tasarrufidan chiqarildi.

2002-yil - Qoraqalpog'istonda ishlab chiqarilgan 26,1 mln AQSh dollari miqdoridagi tovarlar eksport qilindi.

2002-yil - Qoraqalpog'istonning 12 ta tumanida 21 ta qishloq xo'jalik korxonalari negizida yangidan 901 fermer xo'jaliklari tuzildi va faoliyat ko'rsatib turgan 79 ta fermer xo'jaliklariga qo'shimcha yer maydonlari ajratilib, jami 980 ta fermer xo'jaliklari tuzildi. Ular bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlashga moslasha boshladilar. Mehnat unumdorligi va mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'sa boshladi.

2002-yil - Qur'oni Karimning izohli tarjimasi shayx *Abdulaziz Mansur* tomonidan tayyorlandi va ommaviy nusxada nashr etildi.

2002-yil - rasmiy delegatsiya zalida va Nukus shahar aviakassa agentligining binosiga jahon andozalariga javob beradigan darajada ta'mirlash ishlari olib borildi va zamonaviy texnik asbob-uskunalar bilan jihozlandi.

2002-yil - Toshkent Davlat konservatoriyasining yangi, muhtasham binosi ishga tushirilib, unga O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi maqomi berildi.

2002-yil - Toshkent traktor zavodida O'zbekiston - Xitoy loyihasini amalga oshirish natijasida qishloq xo'jaligi korxonalari, dehqon fermer xo'jaliklari uchun ixcham traktorlar ishlab chiqarish texnologiyasi o'zlashtirildi.

2002-yil - Transkavkaz magistral yo'lining birinchisi - uzunligi 342 km bo'lgan Navoiy-Uchquduq-Sulton Uvays-Nukus temir yo'l magistrali foydalanishga topshirildi. Uning ikkinchisi - 223 km G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on magistrali qurilishi davom etmoqda.

2002-yil - Ustyurt-Orolbo'yi hududida joylashgan konlardan 1,2 mlrd. metr kubdan ortiq gaz va 10,4 ming tonna gaz kondensati qazib olindi.

2002-yil - YUNESKO homiyligida Shahrisabz shahrining 2700 yilligi, Termiz shahrining 2500 yilligi keng nishonlandi.

2002-yil yanvar – Afg'onistonda qayta tiklash ishlarini boshlagan qonuniy hokimiyat qaror topdi. Mamlakatni qayta tiklash dasturi jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilindi. *Hamid Karzay* hukumat boshlig'i etib saylandi.

2002-yil yanvar – Polshaga Rossiya prezidenti *V.Putin* rasmiy tashrif bilan keldi. *V.Putin* va *A.Kvashnevskiy* o'rtasidagi uchrashuv ikki mamlakat o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlash yo'lida birinchi qadam bo'ldi.

2002-yil 1-yanvar – Maastrixt bitimlariga muvofiq Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida (Angliyadan tashqari) Yevropaning yangi pul birligi – "yevro" muomalaga kiritildi. 15 mamlakat xalqlari hech bir afsus-nadomatsiz o'zlarining eski valyutalari – gulden, frank, marka, taler, shillinglari bilan xayrlashishdi va yangisini qabul qilishdi.



2002-yil 27-yanvar - “Siz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolat muddati 5 yildan 7 yil qilib o‘zgartirilishiga rozimisiz?”, - mavzusida umumxalq referendumini o‘tkazildi. Referendum yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolat muddati 5 yildan 7 yil qilib o‘zgartirildi. Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq sakkizinchi sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti vakolati muddatini 2007-yilgacha cho‘zishga qaror qilindi.

2002-yil 18-20-fevral - Litva Bosh vaziri *A.Brazauskas*ning O‘zbekistonga tashrifi mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashda mamlakatimizning o‘rnini aniq ko‘rsatib berdi.

2002-yil 22-fevral – Angola hukumati qo‘shinlari UNITA yetakchisi *Savimbini* yo‘q qilishdi va uning qurolli kuchlari taslim bo‘lishdi.

2002-yil mart – prezident Islom Karimovning AQShga rasmiy tashrifi O‘zbekiston va AQSh davlatlarining yaqinlashishiga xizmat qildi.

2002-yil mart – Yugoslaviya Serbiya va Chemogoriya Federatsiyasiga aylantirildi. Demokratlarning hokimiyatga kelishi siyosat va iqtisodiy ahvolidan yomonlashishi jarayonini to‘xtata olmadi.

2002-yil aprel – Pokistonda o‘tkazilgan referendumda prezident *Musharraf* vakolatlari 5 yilga uzaytirildi.

2002-yil aprel – Venesuelada ish tashlashlar avjiga chiqib, qurolli qo‘zg‘olonlar ro‘y berdi. Ommaviy harakatni qo‘shin qo‘llab-quvvatladi *U.Chaves* qamoqqa olinib, harbiy lagerga jo‘natildi. O‘tish davri hukumatini tuzish haqida muzokaralar boshlandi.

2002-yil 4-aprel – Angolada 30 yillik urush tugagani haqida e‘lon qilindi. O‘zaro ichki urushlar mamlakatni xarob qildi. Aholining yarmidan ortig‘i ishsiz, aholi jon boshiga daromad – dunyoda eng kam darajalardan biri.

2002-yil 5-aprel - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II chaqiriq 8-sessiyasida “*Kredit uyushmalari to‘g‘risida*”gi Qonun qabul qilindi.

2002-yil 5-aprel - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning II chaqiriq 8-sessiyasida “*Fuqarolarning banklardagi omonotlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida*”gi Qonun qabul qilindi.

2002-yil 6-7-aprel - YXHT tashkilotining bosh kotibi Y.Kubish O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

2002-yil 9-13-aprel - YXHT parlament assambleyasi delegatsiyasi O‘zbekistonda mehmon bo‘ldi.

2002-yil 11-13-aprel - jahon banki prezidenti *J.Vulfenson*ning O‘zbekistonga tashrifi O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasida yangi sahifa bo‘ldi.

2002-yil may - Osiyo Taraqqyot Banki (OTB) O‘zbekistonga 36 mln AQSh dollari miqdoridagi kredit berilishini ma‘qulladi. Ushbu kredit Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash tizimini takomillashtirish uchun mo‘ljallangan. O‘zbekistonda OTB ishtirokidagi umumiy miqdori 497 mln. AQSh dollari miqdoriga teng bo‘lgan 10 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

2002-yil iyun – Albaniyadagi prezidentlik saylovlarida sobiq general *Alfred Moisiu* g‘alaba qozondi, uni sotsialistlar ham, demokratlar ham qo‘llab-quvvatladi. *Fato*



Nano mamlakat bosh vaziri bo'ldi. Qariyb 10-yil mobaynida Albaniya iqtisodiyoti turg'unlikni boshidan kechirdi. Aholining 25% ishsizlardir. Mamlakatda norozilik boshlandi.

2002-yil iyun - Fransiyada prezident saylovi. *J. Shirak* prezident etib saylandi.

2002-yil iyun – referendumda kubaliklarning 99% konstitutsiyaga sotsialistik tizim “daxlsiz” deb e'lon qilinishini kirilish uchun ovoz berishdi. Kuba iqtisodiyoti tez sur'atlarda rivojlanmoqda.

2002-yil iyul – Kongo va Ruanda prezidentlari bitim imzoladi. Ruanda sharqiy Kongodan 35 ming kishilik qo'shinini olib chiqish, Kongo esa Ruandaga xavf soluvchi qo'zg'olonchilarni qurolsizlantirish majburiyatini oldi.

2002-yil sentabr – O'zbekiston va Eron o'rtasida iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalarida hamkorlikni kengaytirishi hamda mintaqada barqarorlikni oshirishi lozim bo'lgan muhim bitim tuzildi.

2002-yil sentabr – Uganda Kongodan qo'shinini olib chiqib ketish haqida bitim imzolashdi. To'rt yillik fuqarolik urushi davomida mamlakatda 2,5 million kishining yostig'i quridi. Unda 7 chet el qo'shini va ko'p sonli qo'zg'olonchi guruhlar ishtirok etdi. Bu qo'zg'olonchilar tez-tez urushning haqiqiy maqsadlarini tushunmay, bir-birlari bilan urush qilardi. Vaziyat ichki etnik mojarolar tufayli ham murakkablashdi. Kongo juda boy resurslari bilan jahonda aholi jon boshiga daromad jihatidan eng kambag'al davlatdir.

2002-yil - sentabr - Germaniyada saylov. Germaniya Sotsial-demokratik partiyasi g'alaba qozondi. *Gerxard Shryoder* Germaniya kansleri lavozimida qoldi.

2002-yil 11-20-sentabr - Xalqaro valyuta fondi missiyasi O'zbekiston Respublikasi hukumati hamda Xalqaro valyuta fondi o'rtasida iqtisodiy va moliyaviy siyosat masalalari yuzasidan Memorandum shartlarining bajarilishini tahlil qilish, o'rganish va baholash uchun O'zbekistonga pul-kredit va soliq-byudjet siyosati kelishilgan nazorat ko'rsatkichlariga muvofiq holda yuritilganligi, naqd puldagi operatsiyalarni erkinlashtirish, naqd chet el valyutasi bozorini kengaytirish va davlat xaridlari sohasida islohotlarni o'tkazishda ijobiy natijalarga erishilganligi qayd etildi.

2002-yil 19-sentabr - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “*Fuqarolarning banklardagi omonotlarini himoyalash kafolatlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida*”gi Qaroriga asosan “*Fuqarolarning banklardagi omonotlarini kafolatlash fondi*” tashkil etildi.

2002-yil 18-20-oktabr - BMTning bosh kotibi *Kofi Annanning* yurtimizda bo'lishi O'zbekistonning bu tashkilotga a'zo bo'lgandan keyingi va Prezidentimiz *Islom Karimovning* BMT minbaridan so'zlagan nutqidan keyingi eng e'tiborli voqealardan biri bo'ldi.

2002-yil noyabr - Qoraqalpog'istonda “Sharq Berdaq” koni foydalanishga topshirildi. Mazkur kon bir kunda 3,0 mln. metr kub gaz va 16 tonna gaz kondensatini qazib olish quvvatiga ega.

2002-yil dekabr – Yaqin Sharq jarayonining asosiy ishtirokchilari (AQSh, Rossiya, BMT va YHga kiruvchi mamlakatlar) Vashingtondagi konferensiyada AQSh taklif



etgan va “yo’l xaritasi” deb nomlangan Yaqin Sharq inqirozini bartaraf etish rejasini qabul qildi. Uning mohiyati 2005-yilga Falastin davlatini shakllantirishni o’z ichiga oladi. Isroil bunga javoban bo’lg’usi davlat atrofida Iordan daryosi g’arbiy qirg’og’ida “xavfsizlik devori”ni barpo etishini bildirdi. Uning balandligi 8 m va uzunligi 650 km qilib belgilangan. Jahon jamoatchiligi va BMT Xavfsizlik kengashi Isroilning xattl harakatini “hoqonuniy anneksiya” sifatida qoraladi.

2002-yil 2-dekabr - Yaqin Sharq inqirozini tartibga solish rejasining (“yo’l xaritasi”) qabul qilinishi.

2002-yil 12-dekabr - O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II chaqiriq 10-sessiyasida “*Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to’g’risida*” hamda “*O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezerveidagi xizmat to’g’risida*”gi qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlarga ko’ra, Qurolli Kuchlar safidagi muddatli xizmat bir yarim yildan bir yilga qisqartirildi. Oliy o’quv yurtlari bitiruvchilari esa xizmatga faqat to’qqiz oyga chaqiriladigan bo’ldi.

2002-yil oxiri - O’zbekiston bankklarining iqtisodiyotga yo’naltirilgan kredit qo’yilmalari hajmi 2821,1 mlrd. so’mga yetdi va bu yalpi ichki mahsulotga nisbatan 37,3 %ga teng bo’ldi.

2002-yil yoz – *Edjevit* iste’foga chiqdi. Uning o’rnini *Tayip Erdogan* – islom yo’nalishidagi Taraqqiyot va adolat partiyasi (TAP)ning yangi yetakchisi egalladi. Turkiya kurd separatistlari kuchayishidan xavfsirab, Iroqqa qarshi urushda ishtirok etishdan bosh tortdi. *Erdogan* Turkiyaning YHga kirish va Kipr masalasining hal etishga intilishi haqida ma’lum qildi.

2002-yildan –D. A *Kalamning* Hindiston prezidentligi davri.

2002-yildan –Fransiya prezidenti etib *Jak Shirak* 2-muddatga saylandi.

2002-yilgacha - *Artur Grigoryan* 17 marta jahon chempioni nomini saqladi.

2002-yilgacha - O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo’yicha Vakili BMTning Inson huquqlari bo’yicha markazi, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo’yicha byurosi bilan yaqin hamkorlikni yo’lga qo’yan. Natijada chet el delegatsiyalari bilan 100 dan ortiq uchrashuv o’tkazildi. Inson huquqlari bo’yicha Vakil BMTning Inson huquqlari bo’yicha komissiyasining Jenevada bo’lib o’tgan 52-sessiyasining majlisida qatnashdi va so’zga chiqdi. Chet ellarga xizmat safari davomida Inson huquqlari bo’yicha Vakil BMT seminarida, BMTning Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlaridagi vakillarining mintaqaviy uchrashuvida nutq so’zladi. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning bir qator kengashlari hamda seminarlari ishida qatnashdi.

2003-2004-o’quv yili - 9711 ta umumta’lim maktabida 6 mln. 226 ming o’quvchi ta’lim oldi. Yangi ta’lim tizimi bo’yicha umumiy o’rta ta’lim boshlang’ich ta’lim (1-4 sinflar) va o’rta ta’lim (5-9-sinflar) bosqichlaridan iborat.

2003-yil boshi - O’zbekiston xususiy va kichik korxonalar soni 120 mingdan oshib ketdi.

2003-yil - “*O’zbekiston pochta*” konserni tarkibiga kiruvchi 12 ta viloyat, Qoraqalpog’iston respublikasi davlat pochta korxonalari boshqarmalari, Toshkent xalqaro pochta, 198 ta aloqa uzeli va 3045 ta aloqa bo’limlari faoliyat ko’rsatmoqda.



2003-yil - "O'zDEUavto" korxonasi "Lasetti" rusumdagi yangi avtomobil ishlab chiqarildi.

2003-yil - "Sho'rtan" gaz-kondensat konida yuqori bosim beruvchi kompressor stansiyasi qurilib ishga tushirildi.

2003-yil - AQSh va Buyuk Britaniya koalitsiya kuchlarining Iroq hududini bosib olishi.

2003-yil - avtomobillar uchun oyna ishlab chiqaradigan "Avtooyna" aksiyadorlik jamiyati ishga tushirildi.

2003-yil - BMTga a'zo davlatlar soni 186 dan ziyodni tashkil etdi.

2003-yil - dunyoni hozirgi paytda *uchinchi sanoat inqilobi* qamrab olganki, u uch jihatdan ulkan global ta'sir ko'rsatmoqda: 1) *fizika fanlari*, unda yadro energiyasidan foydalanish va kosmosni tadqiq etishda katta yutuqlarga erishildi; 2) *biologiya fanlari*, unda genetika va tibbiyotda yirik kashfiyotlar qilindi; 3) *kommunikatsiya va axborotlar* sohasi, unda kompyuter texnologiyalari va telekommunikatsiyalarga beqiyos yo'l ochildi.

2003-yil - hozirgi Tailand iqtisodiy o'sish bo'yicha jahondagi oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Ayniqsa, yuqori rivojlanish sur'atini sanoatda kuzatish mumkin. Xorijiy kapital va yangi texnologiya bazasida jadal sur'atlar bilan elektronika va elektrotexnika, shuningdek, neftni qayta ishlash, kimyo va avtomobillarni yig'ish sanoati rivojlanmoqda. Yalpi milliy mahsulotdagi sanoat ulushi 40 foizdan ko'proqni tashkil etadi. Mamlakat kauchuk va qalayga boy, shuningdek, bu yerda marganets, surma va temir konlari mavjud. Tailand ko'p miqdorda paxta, sholi, kanop va makkajo'xori yetishtiradi. AQSh, Yaponiya, Angliya va Germaniya uning asosiy savdo sheriklaridir.

2003-yil - *Islom Karimovning "Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li"* (XI jild) nomli asarlari nashrdan chiqdi.

2003-yil - naqshbandiya ta'limotining asoschisi *Abduxoliq G'ijduvoni*y tavalludining 900 yilligi nishonlandi.

2003-yil - O'zbek milliy akademik drama teatrida *Y.Muqimovning "Spitamen"* asari sahnalashtirildi. Bu tarixiy mavzuni zamonaviy sahna talqini sifatida milliy san'atimizning katta yulduzi bo'ldi.

2003-yil - O'zbekiston bo'yicha 6899 ta maktabgacha ta'lim muassasida 631 ming bola ta'lim-tarbiya olmoqda. Ulardan 203 tasi "Maktab-bog'cha" majmuasi, 186 tasi sanatoriyasi tipidagi maktabgacha ta'lim muassasalaridir.

2003-yil - O'zbekiston dunyoning 120 dan ortiq mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqalarini o'rnatdi. Eksportning paxta, rangli metal kabi an'anaviy turlaridan tashqi, kalava, benzin, avtomobil kabi mahsulotlar jahon bozoridan munosib o'rin oldi.

2003-yil - O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimida 1043 ta jamoa xo'jaligi, 80 ming fermer xo'jaligi, 3 mln. 300 ming dehqon xo'jaligi, 444 ta shirkatlar uyushmasi, 270 ta chorvachilik aksiyadorlik jamiyati, 87 ta ijarachilar uyushmasi, 155 ta xo'jaliklararo korxonalar, 764 ta xususiy lashtirilgan fermerlar, 751 ta qurilish tashkilotlari va boshqalar faoliyat ko'rsatdi. Fermer va dehqon xo'jaliklariga ajratilgan yer miqdori ham yildan-yilga oshirib borildi.



2003-yil - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha Ombudsmanning barcha viloyatlar va Toshkent shahrida vakillari samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

2003-yil - O'zbekiston umumta'lim maktablariga qabul qilingan 1-sinfilar 88,5 %ni tashkil etdi.

2003-yil - O'zbekistonda "Sharq taronalar" festivali to'rtinchi marta o'tkazildi.

2003-yil - O'zbekistonda 148 mingdan ortiq soliq to'lovchi yuridik shaxs ro'yxatga olindi.

2003-yil - O'zbekistonda 200 mln AQSh dollaridan ko'proq xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi, shundan 65 millioni to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bo'lib, ularning miqdori 2002-yilga nisbatan 1,9 barobarga ortdi.

2003-yil - O'zbekistonda 300 ta stadion, 5040 ta sport zali, 155 ta suzish havzasi, 33 mingta sport maydonchasi, 5 mingga yaqin futbol maydoni, 2 mingga yaqin otish turi, 13 mingdan ortiq voleybol, 7 mingdan ortiq basketbol maydonchasi, 180 ta tennis korti, "Yoshlik" sport arenasi, "Paxtakor" markaziy stadioni, Tennis saroyi va boshqalar sportchilar ixtiyorida.

2003-yil - O'zbekistonda 50 turdan ortiq neft mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Mamlakat neft sanoati korxonalarining bir yillik quvvati 11 mln. tonna neftni qayta ishlash imkoniyatini beradi. O'zbekistonda 160 dan ortiq neft konlari mavjud.

2003-yil - O'zbekistonda 535 ming 6-7 yoshli bolalar maktab ta'limiga tayyorlab berildi.

2003-yil - O'zbekistonda 96 ta maktabgacha ta'lim muassasasi xususiy lashtirildi.

2003-yil - O'zbekistonda dunyoning 25 mamlakatiga qarashli xorijiy firma, bank va kompaniyalarning 166 ta vakolatxonasi ishlatilmoqda. O'zbekiston Tashqi iqtisodiy aloqalar Milliy banki dunyoning 80 ta yirik bankida vakillik hisobini ochgan.

2003-yil - O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 62 ta oliy o'quv yurtida 260 ming talaba tahsil olmoqda.

2003-yil - O'zbekistonda mavjud 3541 ming gektar ekin maydonining 3326 ming gektari yoki 94% shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari ixtiyorida bo'lsa, shundan 992 ming gektari fermer va 404 ming gektari dehqon xo'jaliklari tasarrufiga o'tdi.

2003-yil - O'zbekistonda temir yo'llarning uzunligi 7 ming km dan oshdi.

2003-yil - O'zbekistonda umumiy ta'lim maktablari uchun yangi o'quv yiliga mo'ljallab jismoniy tarbiya va bolalar sportiga oid o'quv dasturlari, darslik, metodik qo'llanmalar hamda plakatlarni tayyorlash dasturi hamda Respublika miqyosida yangi bolalar sport inshootlarini barpo etish dasturlari tuzildi. "Sog'lom oila" musobaqalarini o'tkazish Nizomi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur musobaqalar mamlakatimizda har yili "Navro'z" bayrami arafasida mahallalar miqyosida o'tkaziladigan bo'ldi.

2003-yil - O'zbekistonning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati uning mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi 165 ta davlat tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda 35 mamlakatning elchixonasi ochildi. AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk



Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqalar. O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolotxonolari faoliyat ko'rsatmoqda. Dunyodagi 20 dan ortiq davlatda - AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda O'zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.

2003-yil - Osiyo xalqlarining taqdiri bir xil kechmadi. Mazkur qit'ada hozirda 48 ta mustaqil davlat mavjud. Agar Yaponiya va Janubiy Koreyada burjua-parlament tuzumi qaror topgan bo'lsa, Malayziya, Tailand, Butan, Bruney, Nepal kabi mamlakatlarda cheklangan demokratik institutlarga ega avtoritar-monarxiya tizimi ko'rinishidagi siyosiy tuzum mavjud. Xitoy, Vetnam, Mongoliya, Shimoliy Koreyada mustahkam sotsialistik struktura saqlanib qolgan va sanoat natsionalizatsiya qilingan, qishloq xo'jaligi jamoalashtirilgan. Siyosiy strukturada kommunistik partiya monopoliyasi mavjud, ijtimoiy sohada aholini ijtimoiy himoyalashning keng qamrovli institutlari tashkil qilingan (bepul ta'lim, tibbiy xizmat, aholi kambag'al qatlamini tekis uy-joy bilan ta'minlash, hammani ish bilan ta'minlash). Dinamik iqtisodiy rivojlanish yetarli darajada emasligi - bu, ularning oqib tomoni, kuchli tomoni esa - ijtimoiy qatlamlar orasidagi tenglik va ish bilan ta'minlanganligidir. Hindiston, Indoneziya, Bangladesh, Laos, Turkiya, Shri Lanka, Iroq va Suriyada aralash iqtisod tashkil topdi, ya'ni bunda korxonalariga xususiy va davlat egaligiga rioya qilinadi. U butun jamiyat manfaatiga xizmat qiladi va ayniqsa mayda va o'rta tadbirkorlar manfaatini himoyalaydi. Bu mamlakatlarda fuqarolar tinchligi va barqarorligini saqlash kafolati sifatida milliy va diniy an'analari qat'iy muhofaza qiluvchi kuchli davlat hokimiyati tashkil topdi.

2003-yil - Qo'ng'irotdagi "Urga" kondan 1 kunda 3,2 mln. metr kub gaz, 24 tonna gaz kondensati qazib olinmoqda.

2003-yil - Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rta bo'g'indagi kadrlar tayyorlash tizimida 71 ta o'quv yurti faoliyat ko'rsatdi. Shundan 68 tasi kasb-hunar kollejlari, 3 tasi akademik litseylardir. Bugungi kunda mazkur o'quv yurtlarida 51 mingdan ortiq o'quvchi tahsil olmoqda. Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat Universitetida 33 ta mutaxassislik bo'yicha bakalavrlar, 15 ta mutaxassislik bo'yicha esa magistrlar tayyorlanmoqda. Ajiniyoz nomli Nukus Davlat pedagogic institutining 15 fakultetida 4 ming 402 ta talaba ta'lim olmoqda.

2003-yil - Qoraqalpog'istonda 568 tonna pilla, 9 ming 746 tonna g'alla yetishtirildi. Dehqonchilikda ekin maydonlarining tarkibi o'zgardi. Mazkur yilda rejadagi 8,0 ming gektar o'rniga 91,5 ming gektar paxta, 55,0 ming gektar o'rniga 61,0 ming gektar yerga sholi ekildi.

2003-yil - Qoraqalpog'istonda 7 ta maktab va kasb-hunar kolleji yangidan qurilib ishga tushirildi.

2003-yil - Qoraqalpog'istonda aholini gaz bilan ta'minlash 91,7 %ni, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash esa 66,2 %ni tashkil etdi.

2003-yil - Qoraqalpog'istonda yig'ma temir-beton konstruksiyalari va detallari, toshdan bezakli materiallar tayyorlash, qandolatchilik mahsulotlari, o'simlik yog'i, uzum vinosi, salqin ichimliklar va osh tuzi ishlab chiqarish o'sdi.



2003-yil - Toshkent Agrar universitetining Nukus filiali ish boshladi va voha qishloq xo'jaligini kadrlar bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda.

2003-yil – Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 275 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Bundan ko'rinib turibdiki Samarqanddagi "Sam-Kochavto" qo'shma korxonasi iqtisodiy hamkorlik yuqori pog'onada ekanini yana tasdiqlandi. Umuman, Turkiya O'zbekistonga eng ko'p sarmoya kiritgan mamlakat hisoblanadi. Lekin shunday bo'lsada, ko'proq e'tibor qaratadigan ayrim jihatlar ham mavjud. Ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha qo'shma komissiyaning faoliyati so'nggi paytlarda susaydi. Muzokaralarda bunday masalalarni hal etish yuzasidan ham fikr almashildi.

2003-yil – V.Gavel prezidentlik vakolati muddati tugashi tufayli iste'foga chiqdi.

2003-yil - Vetnam - Osiyoda eng rivojlangan mamlakatlardan biri. Vetnam Hindixitoy yarimorohda tinchlik va xavfsizlikni saqlashga yo'naltirilgan yo'lni olib bormoqda. Uni butun jahon hamjamiyati tan olgan, 123 davlat bilan diplomatik munosabat o'rnatgan. Vetnamda rivojlanish yo'li sifatida quyidagilar qaralmoqda: 1) turli iqtisodiy hayot tarzlarining teng huquqliligi. Davlat bir xilda davlat, xususiy va kooperativ sektorini qo'llab-quvvatlaydi. 2) qishloq xo'jaligi va ayniqsa, oziq-ovqat ekinlari yetishtirishni rivojlantirish. Qishloq xo'jaligida 16 ming kooperativ bor, ularga kirish ko'ngilli: dehqon undan xohlagan paytda chiqishi mumkin. Minglab ishlab chiqarish brigadalari dengiz va daryo tarmoqlarida ishlab, aholini bu soha mahsulotlari bilan ta'minlaydi. 3) sanoat sohasida asosiy e'tibor qishloq xo'jaligini ko'tarish va keng iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish bo'yicha zavodlar qurilishiga qaratildi. 4) yonilg'i energetika va transport tarmoqlari ob'ektlari qurildi.

2003-yil – Xitoy konstitutsiyasiga muvofiq *Szyan Szemin* iste'foga chiqdi va uning o'rnini sobiq vitse-prezident *Xu Szintao* egalladi.

2003-yil - XXRda hozirda yiliga 560 dan ortiq nomdagi badiiy-adabiy jurnallar, 100 ga yaqin roman, o'n minglab hikoya va qissalar chop etiladi. Davriy adabiyotlar soni 250 milliondan ortiq. Adabiyot Xitoyda ommaviylashib juda ulkan o'quvchilar auditoriyasini qamrab olgan.

2003-yil – Yevropa Kengashiga a'zo bo'lib kirgan davlatlar soni 40 ga yaqin. Bunga qariyb butun Yevropa kiradi.

2003-yil – Yugoslaviyada inflyatsiya 42% ni tashkil etdi, ishsizlik 30% gacha oshdi. Demokratik islohotlar to'xtatib qo'yildi.

2003-yil – Yugoslaviyadagi saylovlarda *V.Koshtunitsa* boshchiligidagi demokratik koalitsiya yutqazdi.

2003-yil - YUNESKO homiyligida buyuk mutasavvuf Abduholiq G'ijduvoniylar tavalludining 900 yilligi keng nishonlandi.

2004-yil yanvar – afg'on qabilalarining Katta jirg'asi yangi davlat konstitutsiyasini qabul qildi. Mamlakat demokratik jamiyat qurish yo'lini boshladi. O'zbekistonning yordami tufayli Xayraton (Termiz) – Mozori Sharif birinchi temir yo'li qurilmoqda. O'zbek quruvchilari Afg'oniston shimolidagi barcha ko'priklarni tikladi.

2004-yil yanvar – Islomobodda Hindiston bosh vaziri *Vajpai* va Pokiston prezidenti uchrashdi, ular ikki mamlakat o'rtasidagi mojaroni tinch yo'l bilan hal etishga intilishlarini namoyon etishdi.



2004-yil yanvar – konstitutsiyaga xilof holda Yaponiya Iroqqa koalitsiya kuchlariga yordam uchun o'z harbiy kontingentini jo'natdi.

2004-yil 1-yanvar - O'zbekistonda jami 145 ta xususiy maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatgan.

2004-yil 1-yanvar - statistik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistonda 12 tilda jami 866 ta ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsatgan. Shundan 611 ta gazeta, 165 ta jurnal, 43 ta xususiy televideniye, 29 ta kabelli televideniye, 4 ta axborot agentligi va 12 ta xususiy, 1 ta davlat FM radiokanali, 1 ta teleradiokompaniya mamlakat ijtimoiy siyosiy faoliyatida qatnashmoqda.

2003-yil 1-yanvar - O'zbekiston banklarining boshqa qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalari va investitsiyalari 68,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2003-yil 1-yanvar - O'zbekistonda 35 ta tijorat banki va ularning hududlarida 805 ta filiallari faoliyat ko'rsatmoqda. Xalqaro moliya tashkilotlari va chet el davlatlari banklarining 8 ta vakollatxonasi mavjud.

2003-yil 1-yanvar - Qoraqalpog'istonda chet el kredit liniyalari orqali 6,5 mln. AQSh dollari miqdorda investitsiyalar, 5,6 mln. AQSh dollari miqdorda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb etildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Graniy plitalari, tikuv, konditer va qurilish mahsulotlari kabi 8 turdagi yangi mahsulotlarni eksport qilish yo'lga qo'yilib, ularning umumiy soni 23 taga yetdi. Eksport qilingan tovarlar hajmi 122,9 mln. dollarga teng bo'ldi. Uning tashqi savdo oborotidagi ulushi 53,8 %ni tashkil etdi. G'arb mamlakatlariga eksport qilingan xomashyo 113,6 mln AQSh dollarini, MDH mamlakatlariga jo'natilganlari esa 9,3 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Uzoq G'arbgacha asosan paxta tolasi, toladan olingan nahsulotlar, qayta ishlangan neft mahsulotlari sotildi. Paxta tolasi jami eksport mahsulotlarining 95 %ini tashkil etdi.

2003-yil 5-6-may - Toshkentda Yevropa Tiklanish va taraqqiyot banki rahbarligida o'tkazilgan xalqaro anjuman chet el investitsiyalarining erkinlashuvi uchun muhim bosqich bo'ldi. Ayniqsa, milliy valyutamizning konvertatsiyalashishiga muhim omil bo'ldi.

2003-yil avgust - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq o'n ikkinchi sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

2003-yil 15-noyabr - tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (LDP) Toshkentda bo'lib o'tgan qurultoyida tuzilgan. Qurultoyda uning Nizomi va dasturi qabul qilindi.

2003-yil 3-dekabr - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (LDP) Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olindi.

2003-yil 1-yarmi - O'zbekistonda 698 korxonalar va obekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Ushbu xususiy lashtirishdan tushgan jami mablag' 22,5 milliard so'mni tashkil qildi.

2003-yil 1-yarmi - O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmi 3,8 %ga o'sdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 5,5 %ga, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish 4 %ga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari 3,8 %ga, investitsiyalar hajmi



esa 2,6 %ga ko'paydi. Aholi bandligi o'sish sura'atlarining barqorrligi saqlab qolindi - bu ko'rsatkich 102,8 %ni tashkil etdi. Tashqi savdoda 530 million AQSh dollari miqdorida ijobiy savdoga erishildi. O'zbekistonning to'lov balansi yanada mustahkamlandi, tashqi majburiyatlari bo'yicha hisob-kitoblarni o'z muddatida amalga oshirmoqda.

2003-yil 1-yarmi - O'zbekiston bo'yicha hammasi bo'lib 530 tadan oshib ketdi. Kichik va o'rta korxonalar, fermer xo'jaliklarining bank tizimi xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari ancha kengaydi.

2003-yil 1-yarmi - O'zbekistonda mavjud tijorat banklarining jami mablag'lari 32 %ga ortdi, kreditlarning qaytarilish darajasi yaxshilandi. Bu esa, o'z navbatida, o'tgan yarim-yillikning o'zida berilgan kreditlar hajmini 36 % oshirishga imkon tug'dirdi.

2004-yil – Isroilda ikkala tomon uchun yuzlab qurbonlar bo'lgan yangi xunrezliklar bilan boshlandi.

2004-yil – Mozambik yangi prezidenti *Armando Guebuzuni* sayladi. O'tkazilgan islohotlar va g'arb mamlakatlarining katta yordamiga qaramay, Mozambik aholi jon boshiga daromadlar bo'yicha dunyodagi eng kambag'al mamlakatlardan biri, 21% aholi ihsiz, 70% savodsiz.

2005-yil – O'zbekistonda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini uzil-kesil joriy etishni bosqichma-bosqich amalga oshirib borishga qaror qilindi.

2005-yil – O'zbekistonda til amaliyotidagi mavjud jarayonlar va imkoniyatlarni hisobga olib, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini bosqichma-bosqich joriy etishni uzil-kesil yakunlashga qaror qilindi.

2005-yil – O'zbekistonimizda shu yilning oxiriga qadar 1611 ta kasb-hunar kolleji va 181 ta akademik litseydan iborat bo'lgan o'rta maxsus va kasb-hunar o'quv yurtlarining zamonaviy tarmoqlari bunyod etilishi kerak. Bu 9-sinflarni bitiruvchilarni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maktablariga to'la qamrab olishni ta'minlaydi.

2020-yil – Eron 7 ming km ni tashkil etuvchi o'z temir yo'llarining umumiy uzunligini Fors qo'ltig'idagi Bender-Abbos bandargohiga tomon marshrutni 900 km qisqartiruvchi Mashhad va Bafkom oralig'ida yangi yo'l qurish, O'rta Osiyo temir yo'l tarmog'ini Afg'onistonni chetlab o'tib, Pokiston va Hindiston bilan bog'laydigan Zohidondan Karmanagacha bo'lgan boshqa yo'lni qurish orqali uch marta oshirishni rejalashtirgan. Eron va O'rta Osiyo respublikalarining o'zaro hamkorligi Eronning iqtisodiy rivojlanishi uchun yangi istiqbollar ochishi mumkin.

215-yil Amerika musiqasi Gollivud filmlari bilan to'lib-toshgan edi. Ularning hammasi ham san'at nuqtai nazaridan munosib emas edi, biroq ular kinoteatrlar ekranlarini to'ldirib yubordi, Yevropa madaniyatini amerikalashtirish tomoniga mutlaqo burib yubordi.

XX asr – Angliya siyosiy hayotidagi eng murakkab taqdirli shaxslardan biri *Ramsey Makdonald* bo'ldi.

XX asr – atomni tashkil qiluvchi pozitronlar, elektronlar, neytronlar, elementlar zarralar kashf etildi.



XX asr – barcha buyuk olimlari buyuk demokratlar ham edilar. Ular urush, diktatura, fashizmga qarshi turdilar, xalqlar ozodligi, tinchlik va ijtimoiy taraqqiyot uchun faol kurash olib bordilar. Fashizmni ochiq qoraladilar va unga xizmat qilishni istamay, fashizmga qarshi butunjahon harakatiga qo'shilish maqsadida demokratik mamlakatlarga muhojir bo'lib ketdilar.

XX asr – butun dunyoda she'riy ijodning o'sishi qayd etildi. Bu qadar ko'p iste'dodli va rang-barang shoirlar biror-bir asrda bo'lmagandi. Agar fan va texnika bilan bog'liq boshqa yutuqlar bo'lmasa, uni she'riyat asri deb atash mumkin edi. She'riyatda inqilobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. She'riyatga yangi tip shoirlar – shoirning ijtimoiy vazifasi dunyoni yangilash jarayonida faol qatnashishdan iborat deb tushungan faylasuf shoirlar kirib keldi.

XX asr – buyuk musavvirlari voqelikni aynan ko'chirishga emas, uni ijobiy tasavvurlari orqali yaratishga urindilar. Bu modernism yo'nalishi rassaom va haykaltaroshlari ijodining bosh mazmunini tashkil qildi. Ular o'zlarini turlicha – ekspressionistlar, abstraksionistlar, kubistlar, syurrealistlar deb atadilar, lekin ularning dasturi bir: “*Yo'qolsin materiyaning tashqi ifodasi, yo'qolsin modda, yo'qolsin materiya!*”, maqsadlari esa hayotning tashqi unsurlari ifodasidan qochib, uning mohiyatiga chuqur kirib borishdan iborat edi.

XX asr – fan va texnologiya jahon aloqa va axborot yig'ish vositalarini to'liq o'zgartirib yubordi. Texnologik mo'jizalari ichida kompyuter eng buyugi bo'lsa ajab emas.

XX asr – fan-texnika inqilobi demokratik va intellektual inqilobga olib keldi. Ulkan xalq ommasi aqliy darajasining o'sishi, oily ma'lumotga ega bo'lishi natijasida faol siyosiy hayotga qo'shildi. Jahonda insonning qadrini belgilovchi yangi qadriyatlar – zakovat, iste'dod, o'qimishlilik, madaniyat paydo bo'ldi. Yangi harakat va aloqa vositalari eskicha tafakkurni siqib chiqardi. Ommaviy tafakkur va ommaviy madaniyat o'rta odamni yuksak siyosatga jalb qildi va uni siyosiy konsepsiyalarning rivojlanishida muhim omilga aylantirdi.

XX asr – insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotga ulkan qadamlar tashladi.

XX asr – Ispaniyadagi “harbiy xuntalar” mamlakat siyosiy hayotiga armiyaning tez-tez aralashuvi vositasiga aylandi.

XX asr – nazariy fizika aniq fanlarning rivojlanishiga keng yo'l ochdi. Televideniye, rentgen nurlari, radiatsiya, elektronika fizikadagi buyuk kashfiyotlar sharofati bilan dunyoga keldi.

XX asr – Osiyo qit'asini to'liq o'zgartirib yubordi. Bu davrda II jahon urushida antigitler koalitsiyasi g'alaba qozondi, BMT tashkil topdi va uning tomonidan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinishi mustamlaka xalqlarning erkinlik, mustaqillik va suverenitetga erishishini ta'minladi.

XX asr – ozodlik harakati Misrda I jahon urushi tugashi bilanoq boshlandi.

XX asr – real voqelik ifodasidan keng umumlashtirishlar, abstrakt tafakkur da'vo qilishgacha bo'lgan o'zgarishlar sharofati bilan modernism ham oftob ostida o'ziga joy topdi. Masalaga chuqur yondashiladigan bo'lsa, modernistik-abstrakt yo'nalish falsafa va san'atda uzoq tarixga egaligi va buyuk yunon faylasufi Platonga borib taqalishini ko'rish mumkin. Ko'rinishdan g'alatiligi va tushunish



mushkulligiga qaramay, modernistlarning asarlari jamiyat tomonidan qabul qilindi va san'atdagi demokratik yo'nalishning uzviy qismiga aylandi.

XX asr – shaxsning o'zi ham tubdan o'zgardi. Yalpi o'rta ma'lumot, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, ommaviy madaniyatning paydo bo'lishi insoniyat umumiy madaniy darajasining yuksalishiga va uning o'ziga xos jihatlarining takomillashuviga olib keldi.

XX asr – she'riyati asrning buyuk falsafiy g'oyalarini tajassum etib, kitobxonlarni inson hayotining ma'nosi, tiriklikning asosiy qadriyatlari haqida jiddiy bosh qotirishga undadi. Shu bilan birga barcha yirik shoirlar badiiy-estetik saviyasining yuksakligi bilan farq qildilar. Bu shoirlarning insoniyat oldidagi ulkan xizmati hukm surgan davrda ham ruhiy go'zallik, kelajakka ishonch va romantika olamini saqlab qoldilar.

XX asr – Yevropa mamlakatlarining ochiqdan-ochiq qarama-qarshiligi jahon harbiy mojarosiga aylanib ketdi. Ko'pgina mamlakatlarda bu hol biqlik jarayoniga, ya'ni jahondagi jarayonlardan chetda turishni nazarda tutuvchi yopiq iqtisodiy taraqqiyot yo'liga sabab bo'ldi. Natijada ular dunyo iqtisodiyotidan ajralib qoldilar. Mazkur mamlakatlarda totalitar, antidemokratik tuzumlar shakllandi, og'ir iqtisodiy qiyinchiliklar yuzaga keldi. Pirovardida bunday mamlakatlarning ba'zilari harbiy mag'lubiyatga uchradilar (Germaniya, Italiya, Avstriya, Yaponiya), boshqalarida esa siyosiy falokatlar ro'y berdi (sobiq SSSR va sharqiy Yevropadagi sotsialistik lager mamlakatlari).

XX asr – zamonaviy fan va texnikaning ulkan yutuqlari sababchisi inson, shaxsdir. Hozirgi kompyuterlar qanchalik katta imkoniyatlarga ega bo'lmasin, baribir, uni yaratgan va boshqarayotgan insondir. Bu asr tarixida inson omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi va barcha tarixiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

XX asr 1-yarmi – asosiy mohiyati – demokratiyani totalitarizm bilan, insonparvarlikni fashizm bilan va globallashuvni ayrimchilik bilan kurashidan iborat bo'ldi.

XX asr 20-yillar boshi - Buxoro va Xorazm mustaqil davlatlar bo'lgan.

XX asr 2-yarmi – A. Tolstoy o'zining ilmiy yutuqlarini oldindan ko'ra bilgan "Aelita" nomli fantastik romanini yaratdi.

XX asr 2-yarmi - Angliya uchun imperiya va mustamlakalarni yo'qotish mustamlakachilik va imperiyachilik da'volarini tugatish va uning ma'naviy kuchlarini oshirishga olib keldi. Ingliz adabiyotining farqlanib turuvchi xususiyati insonparvarlik, erkinlik va demokratiyada bo'ldi. Bularga yana bir sifat - yangi dunyoni falsafiy idrok etishga intilish qo'shildi.

XX asr 2-yarmi - Angliya uchun yangi adabiy ko'tarinkilik davri bo'ldi.

XX asr 2-yarmi – dunyoda ishlab chiqarish kuchlari behad o'sdi. Ilmiy-texnikaviy inqilob inson hayotining hamma tomonlariga ulkan ta'sir etuvchi beqiyos kashfiyotlarga olib keldi. Transport vositalari va aloqa vositalarining rivojlanishi barcha xalqlarni yagona umuminsoniy hamjamiyatga birlashtirdi. Jahon hamjamiyati, jahon jamoatchilik fikri kabi tushunchalar odatiy jumlagi aylandi va dunyoning bo'linmasligi, insoniyat birligi va uning xavfsizligi kabi tushunchalar keng tarqaldi.



XX asr 2-yarmi - fan va texnologiya ijtimoiy hayot uzra ustuvorlik qildi. Yadro quroliga ega bo'lgan texnologiya katta davlatlar o'rtasidagi mojaroni xavfli darajaga yetkazdi. Biroq texnologiya ayni paytda mo'1-ko'lchilikni ham yaratadi. Texnologiya tibbiyotda, uchinchi dunyoda bolalar tug'ilishi, "portlashi"ni ta'minladi va umr davomiyligini oshirdi, ko'plab xavfli kasalliklardan qutqardi. Texnologiya "yashil inqilob" ko'rinishida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirdi.

XX asr 2-yarmi - insoniyat ma'naviy hayoti yuqori ko'tarinkilikka erishdi. II jahon urushi fundamental va amaliy fanlarning rivojlanishiga qudratii turtki berdi. Bu bilan yangi tizimti qurol-aslaha, qo'shirlarni transportda tashish, elektron aloqa vositalariga ehtiyojni oshirib yubordi.

XX asr boshi – Albaniyaning yer maydoni 27,5 ming kv. km. ni tashkil etdi, aholisi esa 1 mln. kishidan ko'proq edi. Albaniya Yevropaning eng qoloq qismi bo'lib, bu yerda urug'-qabilachilik tuzumi qoldiqlari saqlanib keldi. Albaniya iqtisodiyotining asosiy sohasi past rivojlanish darajasida turgan qishloq xo'jaligi edi. Chorvachilik dehqonchilikdan ustun turardi. Dehqonlarning 45 foizidan ko'prog'i yersiz bo'lib, pomeshchikning xizmatiga borishga majbur edi. Dehqonlar har yili davlatga desyatina to'lashlari, hosilning yarmini pomeshchikka berishlari va yilda 10 kundan 52 kungacha pomeshchik dalalarida ishlab berishlari shart edi.

XX asr boshi – Deyarli 350 yil davomida Indoneziya Gollandiya (Niderlandiya) mustamlakasi bo'lib, Niderland Hindistoni deb atalardi. Bu dunyodagi eng boy mustamlakalardan biri edi va mustamlakachilikning go'yo baynalmilal qo'riqxonasiga aylandiki, Amerika, ingliz va golland kompaniyalari bu yerda birday hukm yuritishardi.

XX asr boshi – dunyo jahon urushlari, ijtimoiy larzalar va inqiloblar davriga kirdi. Urush ijtimoiy ziddiyatlarni nihoyatda kuchaytirib yubordi. Urushga qarshi norozilik bildirayotgan, urushga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tuzumni o'zgartirishni, non, ijtimoiy adolat va demokratik islohatlar o'tkazishni talab etayotgan xalqning g'azabini qo'zg'atdi.

XX asr boshi – Germaniya qudratli jahon davlatiga aylandi va mustamlaka yerlardan o'z ulushini talab qila boshladi. U Britaniya imperiyasi uchun jiddiy xavfga aylandi. Kuchli nemis dengiz flotining yaratilishi Britaniya imperiyasining mavqeiga ham zarba edi. Chunki Angliyaning dengizlardagi ustunligi mustamlaka yerlardagi hukmronligining barqarorligini kafolatlar edi. Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalarga da'vosi bu qit'adagi fransuz va inglizlarga qaram yerlarga ham xavf tug'dirardi. Nihoyat, Germaniyaning Sharqiy O'rta Yer dengizi mamlakatlariga kirib kelishi va Turkiyada hukmron bo'lib olishi Angliya va Fransiyaning Osiyodagi mustamlaka yerlariga o'tishda asosiy qatnov yo'li bo'lgan Suvaysh kanalini zarba ostida qoldirar edi.

XX asr boshi – Kuba AQShning ulkan shakarqamish plantatsiyasiga aylantirildi.

XX asr boshi – *Umar Sug'irimbet o'g'li* va *Siddiq* shoir demokratik ruhdagi asarlar yaratishdi.

XX asr boshi – Xorazm va Buxoroda mavjud bo'lgan hokimiyat tizimlari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar chuqur inqirozga uchrab, jamiyatning ilgarilab borishida jiddiy g'ovga aylangan edi. Progressiv, demokratik doiralar, 1-navbatda Yosh



buxoroliklar, Yosh xivaliklar boshi berk ko'chadan chiqib olish o'zanida faoliyat ko'rsatdilar, xalq ommasi manfaatleri va mavjud sharoit hisobiga olingan dasturil-amallarini ilgari surdilar. Amma bolshevikcha ekstremizm, inqilobiy o'zgarishlarning zo'rlik, qizil qo'shin kuchi bilan kirib kelishi aholi boshiga og'ir kunlarni soldi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarning chigallashishiga olib keldi.

XX asr intixosi - dunyoning qariyb 1/3 qismida misli ko'rilmagan xodisalar sodir bo'ldi. Sotsializm deb atalgan totalitar tuzum, kommunistik mafkura deb atalmish zo'ravonlik va tazyiqqa asoslangan mafkura tanazzulga uchradi. Jahonga, yer yuziga hokimi mutloqlikni da'vo etgan SSSR jamiyat sifatida ham, davlat sifatida ham parchalanib ketdi. Uning tarkibiga kirgan ittifoqdosh respublikalar mustaqil davlat maqomini oldilar.

XX asr oxiri - AQShda o'qishli badiiy adabiyot namunalari ko'paydi. Bunga sabab - shu davr Amerika turmush tarzidagi tezkor o'zgarishlarni aks ettiruvchi yozuvchilarning yangi to'liqini adabiyotga kirib keldi. Ular uslubning soddaligi, hayotga yaqinlik, realizmni olib kirdilar va oddiy insoniy munosabatlar iliqqligini saqladilar. Ular orasida *Kurt Vonnegut*, *Syui Myuller* va *Domenik Dann* alohida o'rin tutadi.

XX asr oxiri – dunyoda davlatlar va xalqlar o'rtasida yangi munosabatlar yuzaga keldiki, u yangi demokratiya davri deb atala boshlandi. Yangi davrning asosiy qirralari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: 1) Tabiiy va kishilik zahiralarni eksplutatsiya qilish maqsadida xalqlarni zo'rlab bo'ysundirish shaklidagi mustamlakachilik tizimi to'liq tugatildi. 2) Jahon arenasida yangi mustaqil suveren davlatlar paydo bo'ldi. 3) Dunyo siyosiy va iqtisodiy hayotida Osiyo qit'asi mamlakatlari ahamiyati oshib bordi. Ular ulkan tabiiy va kishilik zaxiraloriga boy va muhim strategik hamda geopolitik holatga ega. Ushbu mamlakatlarning jahon kondensiyasi rivojlanishiga ta'siri yildan-yilga oshib bormoqda. Ular jahon taraqqiyoti tajribasiga o'z modetlari qadriyatleri, norma, ma'naviyatini, axloq-odobini kiritmoqda va hozirda biror-bir dunyoviy muammo ularning faol ishtirokisiz hal etilmaydi. 4) Yangi davrda demokratik rivojlanish qadriyatleri, tamoyil va normalari yanada universal hamda global tus olmoqda. Ayni paytda demokratiya va taraqqiyotga intilishning o'z modelini yaratish kuchaymoqda. Yangi ozod suveren davlatlar tashkil topishi natijasida turli madaniyat va sivilizatsiyalar muloqoti jarayoni kuchaymoqda.

XX asr so'nggi 10-yili – har qanday zo'ravonliklar, tazyiqlar va g'oyaviy xurujlarni aql-idrok va ochiqdan-ochiq munosabatlar orqali hal etish sari dadil qadam qo'yilgan davr bo'ldi. O'zbekiston yosh mustaqil davlat sifatida o'z mavqei va nufuzini mustahkamlash bilan birga dunyo ahlini jahon siyosatini isloh qilishga da'vat etgan davlatlardan biri bo'lib maydonga chiqdi.

XX asr so'nggi 10-yili – o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan mamlakatlar jahon siyosiy kartasi, xavfsizlik tizimida katta o'zgarishlar yasadi. Shunday bir sharoitda yer yuzidagi har bir davlat, yangi mustaqil respublikalar uchun o'z xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash bosh masalaga aylandi. O'zbekiston bilan BMTi, NATO, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti va boshqa yirik xalqaro



tuzilmalar o'rtasidagi hamkorlik ham, mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilganidir. Bugungi kunda O'zbekistonning taraqqiyoti uchun tinchlik va barqarorlik eng asosiy shart sanaladi.

XX asrgacha – Qoraqalpoq adabiyoti asosan xalq og'zaki ijodi shaklida rivojlangan.

XX asrning 2-yarmi – Sharqiy Afrikada insoniyatning dastlabki vakillarining qoldiqlari *Olduvoy* dasidan, Kenyaning *Koobifor*, Habashistonning *Turkona* ko'li, *Omo* daryosi sohilidan topilgan.

XX asrning 90-yillari – sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish, ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida qariyb yarim asr xukm surgan totalitar davlat tuzumi inqirozga yuz tutib, demokratik tartibotlar qaror topa boshladi. Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi parchalanib, uning o'rnida bir necha mustaqil respublika, Chexoslovakiya Sotsialistik Respublikasi ikkiga bo'linib, Chexiya va Slovakiya suveren davlatlari vujudga keldi. Ko'pgina mamlakatlarda mustaqillikka erishish masalasi dunyoni keng qamrab olgan jarayonga aylandi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi ana shu olamshumul jarayon tarkibida yuz berdi.

XXI asr bo'sag'asida – dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlari tubdan o'zgardi, inson va insoniyat, odam va olam taqdiriga daxldorlik hissi tobora kuchaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimova D.A., Karimov R.H., Oqilov K.O., Rajabov Q.K., Alimov I.A., Mavrulov A.A. O'zbekiston tarixi. (1917-1991). 10-sinf o'quvchilari uchun darslik. "Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.

2. Jo'rayev Narzulla. O'zbekiston tarixi. Milliy istiqloq davri. Umumta'lim maktablarining o'quvchilari uchun darslik. "Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.

3. Hidiyatov G.A. Eng yangi davr. Birinchi qism (1914-1945-yillar). 10-sinf o'quvchilari uchun darslik. Toshkent, "Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.

4. Hidiyatov G.A. Eng yangi davr. II qism (1945-2003-yillar). 11-sinf o'quvchilari uchun darslik. Toshkent, "Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.



Tuzuvchi — mualliflar: Farhod Sultonov,
Bozorboyev Farruh

Tarixiy sanalar

II qism

(eng yangi davr)

(maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji o'quvchilari,
abiturientlar va tarix fani o'qituvchilari uchun qo'llanma)

Muharrir *H. Nishonov*
Badiiy muharrir *A. Tursunov*
Sahifalovchi *A. Narmonov*
Musahhah *Sh. Nishonov*

Original maket «MEDIANASHR» MCHJ
kompyuter markazida tayyorlandi.

Bosishga ruxsat etildi 31.10.2007. Bichimi 60x84^{1/32}
Bosma tabog'i 11,3. Shartnoma № 00
Buyurtma № 00 Adadi 5 nusxa.